



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**



**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**



**MUSIQA TA‘LIMI
KAFEDRASI**

**“MUSIQIY TA‘LIM VA TARBIYA JARAYONIGA
ZAMONAVIY YONDASHUVNING DOLZARB MASALALARI”**

**Respublika ilmiy-amaliy konferensiya
2022-yil 29-noyabr**

**Republican scientific-practical conference
“Current issues of the modern approach to the process of musical
education and training”
November 29, 2022**

**«Актуальные вопросы современного подхода к процессу
музыкального образования и воспитания»**

**Республиканская научно-практическая конференция
29 ноября 2022 г.**

JIZZAX-2022

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**“MUSIQIY TA‘LIM VA TARBIYA JARAYONIGA ZAMONAVIY
YONDASHUVNING DOLZARB MASALALARI”**

**Respublika ilmiy-amaliy konferensiya
2022-yil 29-noyabr**

**Republican scientific-practical conference
“Current issues of the modern approach to the process of musical education and
training”
November 29, 2022**

**«Актуальные вопросы современного подхода к процессу музыкального
образования и воспитания»
Республиканская научно-практическая конференция
29 ноября 2022 г.**

UDK: 78.2.
BBK: 85.313.

Ushbu to'plam O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-sonli Farmoni asosida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyunda qabul qilingan 3775 sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida" gi qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida otkazilgan "**Musiqiy ta'lim va tarbiya jarayoniga zamonaviy yondashuvning dolzarb masalalari**" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi materiallaridan tashkil topgan. – Jizzax: JDPU, 2022. – 460 bet

To'plam materiallaridan mutaxassislar, o'qituvchilar, tadqiqotchilar hamda magistratura va bakalavriat talabalari foydalanishlari mumkin.

To'plamda nashr etilgan maqola va tezislarning ilmiy saviyasi, ma'lumotlarning haqqoniyligiga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

KONFERENSIYANING TASHKILY VA DASTURIY QO'MITASI

1. **Sh.S.Sharipov** - JDPU rektori, tashkiliy qo'mita raisi
2. **G'.O'.Qodirov** - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, tashkiliy qo'mita raisi o'rinbosari
3. **Omonov X.S.** - JDPU Musiqa madaniyati fakulteti dekani, dotsent, a'zo
4. **N.X.Xasanova** - JDPU Musiqa ta'limi kafedrasida dotsenti v/b., a'zo
5. **S.U. Rayimjonov** - JDPU Musiqa ta'limi kafedrasida katta o'qituvchisi, a'zo

TEXNIK MUHARRIRLAR:

1. **O.E.Xolmirzayev** - JDPU Musiqa ta'limi kafedrasida o'qituvchisi
2. **S.Sh.Urinova** - JDPU Musiqa ta'limi kafedrasida iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish bo'yicha mas'ul

TAHRIR HAY'ATI

1. **Lutfullayev A.Q.** - professor.
2. **Fayzullayev E.M.** - Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
3. **Saidiy S.B.** - San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor
4. **Qudratov I.** - Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
5. **Abilov M.N.** - JDPU Musiqa ta'limi kafedrasida mudiri, katta o'qituvchi.

Jizzax davlat pedagogika universiteti Ilmiy texnik kengashining 2022-yil 30-noyabrdagi 10-sonli yig'ilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan

Jizzax davlat pedagogika universitetida 2022 yil 29 noyabrda **“Musiqqa ta’limi va tarbiya jarayoniga zamonaviy yondashuvning dolzarb muammolari”** mavzusida o‘tkaziladigan Respublika ilmiy- amaliy anjumanida universitet rektori **Shavkat Safarovich Sharipovning**

KIRISH SO‘ZI

Assalomu alaykum, anjuman ishtirokchilari, mehmonlar va qadrli ustozlar!

Bugungi anjumanni tashkil etish va yuqori saviyada o‘tkazishga ruxsat berganligi hamda ishtirokchilar bilan ta’minlashda amaliy yordamlari uchun Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Respublika oliy ta’lim kengashi hamda oliy ta’lim muassasalari rektorlari, prorektorlari va professor-o‘qituvchilariga o‘zimizning minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Ma’lumki, “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yunalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847- sonli farmoni hamda 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2752-sonli hamda 2019 yil 11 iyuldagi “Oliy va urta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4391-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2019 yil 3 dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarini bosqichma-bosqich o‘zini-o‘zi moliyalashtirishga o‘tkazish to‘g‘risida”gi 967-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2019 yil 25 fevraldagi 133-f-sonli farmoyishi bugungi oliy ta’lim tizimini tubdan isloh qilishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Hurmatli Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning joriy yilning 2 fevralida **«Madaniyat va san’at sohasini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbir to‘g‘risida»**gi PQ-112-sonli Qarori siz kabi madaniyat va san’at fidoyilariga, ayniqsa umumiy o‘rta talimda faoliyat yuritayotgan musiqa madaniyati fani o‘qituvchilariga o‘z ustilarida ishlab, tinimsiz mehnat qilishlariga motivatsiya va juda katta ijobiy turtki bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Musiqa san’atini rivojlantirish uni keng ommaga targ‘ib etishda turli ko‘rinishdagi bayram tadbirlarining, festivallarning, ko‘rik-tanlovlarning nafaqat Respublika, balki Xalqaro miqyosdagi mana shunday ilmiy-amaliy anjumanlarning ham o‘rni kattadir.

Shu nuqtai nazardan bugungi **“Musiqqa ta’limi va tarbiya jarayoniga zamonaviy yondashuvning dolzarb muammolari”** nomli Respublika ilmiy-amaliy konferensiya mavzusi dolzarb ahamiyatga ega. Binobarin, unda ko‘tarilayotgan masalalar respublikamiz oliy ta’lim tizimining yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish asosida uni isloh qilish yo‘nalishlarini belgilash, xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlarning reytingida birinchi 1000 o‘rindan joy egallash, xalqaro tajribadan kelib chiqib, oliy ta’limning ilg‘or standartlarini joriy etish hamda ta’lim va ilm-fan texnologiyalarini jalb etish, oliy ta’lim mazmunini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’lim muassasalarining madaniyat va san’at yo‘nalishlaridagi muammo va kamchiliklarni tizimli o‘rganish, tahlil qilish hamda ularning yechimi yuzasidan innovatsion va texnologik g‘oyalar bilan fikr almashadigan muloqot markazlariga aylantirish hamda bu borada professor-o‘qituvchilar tashabbuskorligini oshirish oliy ta’lim muassasalari akademik mustaqilligini ta’minlashga oid muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan.

Konferensiyaning asosiy maqsadi oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, boshqaruvda yangi tamoyillarning joriy etilishi, o'zini o'zi moliyalashtirish, oliy ta'lim muassasasi samaradorlik mezonlari asosida mehnatga haq to'lash tizimini joriy etish, ta'lim sifatini yuqori bosqichga ko'tarish, musiqa va san'at sohasida o'qitishning tashkiliy shakllarini takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarni milliy ta'lim tizimida tatbiq etish, ta'lim jarayoni ustidan samarali jamoatchilik nazoratini o'rnatish, professor-o'qituvchilar tashabbuskorligini oshirish masalalariga jamoatchilik diqqatini qaratishdan iboratdir.

Bu borada konferensiyada ishtirok etayotgan barcha ma'ruzachilarga, chiqish qiladigan professor-o'qituvchilar, amaliyotchi-mutaxassislar va ilmiy izlanuvchilarga muvaffaqiyat tilagan holda anjumanni ochiq deb, e'lon qilaman. Konferensiya ishiga, ma'ruzachi va qatnashchilarga omad tilayman. E'tiborlaringiz uchun rahmat!

“Musiqqa ta’limi va tarbiya jarayoniga zamonaviy yondashuvning dolzarb masalalari”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi plenar yig‘ilishi qatnashchilariga TDPU
Musiqqa madaniyati fakulteti dekani, professor **Anvar Qudratovich Lutfullayevning**

KIRISH SO‘ZI

Xurmatli anjuman ishtirokchilari !

Xonimlar va janoblar !

Sizlarning e’tiboringizga “Musiqqa ta’limi va tarbiya jarayoniga zamonaviy yondashuvning dolzarb masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi mazmuniga doir quyidagilarga e’tiboringizni tortmoqchiman:

Birinchidan, mamlakatimizda musiqqa ta’limi va musiqqa tarbiyasi jarayonini innovasion rivojlantirishga asoslab “Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi”da sifatli ta’limga erishish va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida belgilangan ta’lim tizimida Musiqqa ta’limini rivojlantirishning ustuvor vazifalariga asoslanadi. Bunda musiqqa ta’limi va musiqqa tarbiyasi jarayonida ta’lim oluvchilarning cholhu ijrochiligi, xonandalik hamda raqs san’ati ijrochiligi bo‘yicha ko‘nikmalarini rivojlantirish va ularning layoqatini tarkib toptirish ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Ikkinchidan, musiqqa ta’limi va musiqqa tarbiyasi jarayonida ta’lim oluvchilarning kamida 3 milliy cholg‘uda musiqqa ijro eta olish ko‘nikmasini shakllantirish hamda musiqqa o‘qituvchilarining kamida 3 ta milliy cholg‘ularda ijrochilik ko‘nikmasini rivojlantirish, xonandalik yo‘nalishida xalq qo‘shiqlari ijrochiligi, an’anaviy, maqom va estrada ashulalari ijrochiligi bo‘yicha mahoratini tarkib toptirish muhim hisoblanadi. Bunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-7 sinf o‘quvchilarining musiqqa, ashula va raqs san’ati yo‘nalishi bo‘yicha ijrochiligini tarkib toptirishda Bolalar musiqqa san’ati janrining talabalariga tayanish taqozo etiladi. Shu sababli bo‘lajak musiqqa o‘qituvchilarining bolalar musiqqa san’ati ijrochiligi asoslari bo‘yicha mahoratini shakllantirish dolzarb bo‘lib turibdi.

Uchinchidan, mazkur muammolarni hal etish va ularning yechimi bo‘yicha metodik tavsiyalarni ishlab chiqish bugungi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyamizning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Buning uchun Sizlarning taqim etgan ilmiy ishlanmalarimizga asosan quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha aniq fikrlarga kelishimiz kerak:

1)*Musiqqa ta’lim tizimidagi zamonaviy muammolarni idrok etish.* Bu yo‘nalishda raqamli ta’lim muhitida musiqqa o‘qituvchilarini tayyorlashning zamonaviy texnologiyalari va sifati mezonlarini belgilab olishimiz kerak;

2)*Professional musiqqa ta’limi tizimida zamonaviy ijrochilik san’ati muammolarini hal etish.* Bu o‘rinda “Professional musiqqa ta’limi tizimi” deganda bolalar musiqqa va san’at maktablari, musiqqa akademik liseyi va pedagogik kollejlari hamda oliy musiqqa ta’limi muassasalari nazarda tutiladi. Biroq, bugungi Konferensiyamiz maqsadidan kelib chiqib ta’lim muassasalarida professional musiqqa ta’limi tizimida zamonaviy ijrochilik san’ati muammolari to‘g‘risida fikr yuritishimiz lozim.

3)*Iqtidorli bolalar bilan ishlashda yangicha yondashuvlar.* Mamlakatimizda barcha sohalar qatorida musiqqa ta’limi, ijrochiligi va madaniyati bo‘yicha iqtidorli talabalarni aniqlash, tarbiyalash hamda ularning qobiliyatlarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Bunda musiqiy iqtidori mavjud bolalarni aniqlash, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish (masalan, eshituv qobiliyati, his qilish qobiliyati, ijrochilik qobiliyati rivojlantirish) hamda

mazkur qobiliyalar darajasini tashxislarning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqishimiz kerak.

Bugungi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyamizning ana shu 3 muhim yoʻnalishi boʻyicha fikr almashishimiz va kerakli nazariy, metodik hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishimiz kerak.

Konferensiyamizga taqdim etilgan maqolalar bilan tanishib chiqish shuni koʻrsatdiki, mamlakatimizda musiqa taʼlimi va tarbiyasi jarayoniga zamonaviy yondashuv tarkib topib bormoqda. Shu sababli men musiqa taʼlimining har bio yoʻnalishi boʻyicha “zamonaviy yondashuv” deganda biror muammoni hal etishning bugungi kun talabalariga javob beradigan *variantlarini* tushunaman. Shu jihatdan bu ilmiy-amaliy konferensiyamiz ishtirokchilarining yondashuvlari va ular taqdim etgan maqolalarning qoʻyilayotgan muammo boʻyicha zamonaviy yechimlarinig topishda asos boʻladi umid qilaman!

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Kezi kelganda misol tariqasida bir masalaga eʼtibringizni tortib oʻtmoqchiman va bu material Konferensiyamizning shoʻbalarida boʻlib oʻtadigan muhokamalar uchun yoʻnaltirish boʻlib xizmat qiladi deb oʻylayman. Gap shundaki, bugungi kunda ***musiqa taʼlimiga oid yangicha yondashuvlarga*** ehtiyoj sezilmoqda.

Buning sababi shundaki, Oʻzbekistonning hozirgi rivojlanish jarayonida innovasion jamiyat barpo etish muhim hisoblanadi. Bu borada “Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da “aqli taʼlim”ni vazifasi belgilangan.¹ Unga koʻra, “aqli taʼlim”, yaʼni taʼlim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish vazifasi qoʻyilgan. Shu jihatdan mamlakatimiz musiqa taʼlimi jarayonida raqamli texnologiyalarga asoslangan innovasion yondashuvlarni oʻrganish, oʻzlashtirish va amaliyotga joriy etish muhim hisoblanadi. Shu sababli *milliy va jahon xalqlari musiqasining uygʻunlashtirish tamoyili mazkur muammoni hal etishning amaliy masalalaridan biridir*. Unga koʻra, musiqa taʼlimida milliy va jahon xalqlari musiqasini uygʻun oʻrganish anʼansi tarkib topdi. Bu borada muayyan xalqning musiqa taʼlimi tajribasi oʻzga xalqlar taʼlimi jarayoniga qabul qilinib, asosiy eʼtibor musiqa taʼlimi boʻyicha taʼlim oluvchilarnin savodxonligini yuksaltirishga qaratilmoqda. Misol uchun, bu borada quyidagi tajribalar kuzatilmoqda:

a) Yevropa mamlakatlari va AQSHda musiqa taʼlimini amalga oshirishda asosiy eʼtibor amaliy oʻzlashtirishga qaratiladi. Bu tajriba Osiyo mamlakatlari, jumladan mamlakatimizda eʼtirof etilayotganligini eslatib oʻtish joiz;

b) Osiyo mamlakatlarida musiqa taʼlimini amalga oshirishda asosiy eʼtibor nazariy bilimlarni berishga qaratiladi. Bunday tajriba Yevropa mamlakatlari musiqa taʼlimi jarayonida qiziqish bilan munosabatda boʻlayotganligini taʼkidlash kerak;

v) Afrika, Okeaniya va Avstraliya mamlakatlarida musiqa taʼlimini amalga oshirishda milliy musiqiy merosga ustuvor munosabatda boʻlinmoqda. Buning natijasida mazkur qutb mamlakatlarining musiqa taʼlimida milliy ijrochilikning rivojlanganligi eʼtirof etilmoqda.

Bularning barchasi musiqa taʼlimida milliy va jahon xalqlari musiqasini nisbatan uygʻunlashib borishiga asos boʻlmoqda. Kezi kelganda taʼkiddlash lozimki, muayyan xalqning milliy musiqa taʼlimida oʻziga xos tajribalar mavjud boʻladi va ularni oʻrganish ijobiy natijalar berishi mumkin.

Ushbu keltirilgan yoʻnalishdan maʼlum boʻladiki, mamlakatimizda musiqa taʼlimi va musiqa tarbiyasi jarayoniga yondashuvning shakllarini ishlab chiqish imkoniyatlari mavjud.

¹ “Янги Ўзбекистоннинг таракқиёт стратегияси”. // www. Google.uz.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari! Bugungi konferensiyamizda Sizlarning ilmiy, amaliy va ijrochilik bo'yicha faolliklarinigiz ta'kidlangan muammolarning nazariy hamda amaliy yechimlarini topishda asos bo'ladi. Shu sababli Sizlardan konferensiyamiz davomida faol bo'lishlaringizni so'rab qolaman.

Konferensiyaning asosiy maqsadlaridan biri musiqa ta'lim va musiqa tarbiyasi jarayoniga zamonaviy yondashuvlar vositasida iqtidorli talabalar hamda mahoratli ta'lim beruvchilarni aniqlashdan iborat!

Barchangizga omad tilayman va e'tiborlaringiz uchun tashakkur!

I SHO‘BA
MUSIQA TA‘LIMI TIZIMIDAGI ZAMONAVIY MUAMMOLAR: RAQAMLI
TA‘LIM MUHITIDA MUSIQA O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASH
TEXNOLOGIYALARI VA SIFATI

UMUMIY MUSIQIY TA‘LIMDA MAQOM NAMUNALARINI O‘RGANISHNING
VAZIFALARI VA MUAMMOLARI

Abdukarimova Elnoz Ismatillaevna, JDPU katta o‘qituvchisi.

Annotatsiya: Maqolada umumta‘lim maktablari musiqa madaniyati fanlarini o‘qitishda maqom namunalarini o‘rganishning ayrim muammolari bo‘yicha fikr yuritilgan hamda zaruriy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Maqom, mumtoz, musiqa madaniyati, dars, nota, ashula, sho‘ba, nola, nolish, musiqa meros, idrok etish.

Umumta‘lim maktablari musiqa madaniyati fani dastur va darsliklarida o‘zbek xalq musiqa merosining gultoji bo‘lgan maqom namunalari yetarli o‘rin egallagan edi. Ammo, keyingi yillarda maqomlarni o‘rganishga ajratilgan dars soatlari qisqartirilishi musiqashunoslik va musiqa pedagogikasi sohasida olib borilgan bir qator ilmiy tadqiqotlarda o‘zining ta‘limiy va tarbiyaviy ta‘siri kutilgan natijalarni bermayotganligi ta‘kidlanadi. Buning uchun har bir san‘at asari, jumladan maqomlar musiqasining nima ekanligi, qaysi davrlarda, qanday sharoitlarda, kimlar tomonidan yaratilganligi, uning mazmun mohiyati, shakl va mazmun mutanosibligi, zamonaviy nota yozuvi vositasida notaga olinishi, og‘zaki an‘anadagi va nota yozuvi asosidagi ijrolarning o‘ziga xos xususiyatlari, maqom cholg‘u va ashula sho‘balari tuzilishi tamoyillari, jonli ijro va audio yozuvlarining yoshlar musiqiy idrokiga ta‘sir etishi xususiyatlari, xalq musiqasining boshqa janrlari va kompozitorlik ijodiyoti namunalari bilan o‘zaro munosabatlari (monodik yoki bir ovozli va ko‘p ovozli janrlar), ijroda ishlatiladigan cholg‘ular, ijrochining mahorati (o‘tmishda va hozirgi davrdagi mohir ijrochi ustozlar ijro yo‘llari va uslublari) masalalari, nota yozuvida qisman o‘z aksini topgan va topmagan nola, nolish, molish, kashish kabi maqom va milliy mumtoz musiqamizning boshqa janrlariga xos bezaklardan unumli foydalana olish kabilar o‘quvchilarni maqom san‘ati namunalari bilan oshno qilishning muhim omillaridan hisoblanadi.

O‘quvchilar maqomlarga doir nazariy bilimlarni darsliklardan o‘qib o‘rganishlari mumkin. Ammo darsliklarda berilgan namunalarni to‘laqonli o‘zlashtirishlari birmuncha qiyin kechadi. Ayrim o‘qituvchilar darslikda berilgan ma‘lumotlardan nariga o‘ta olmaydilar. Ba‘zan maqom sho‘balari yoki shaxobchalari nomlari, maqomlar bilan bog‘liq atamalar va ularning mazmunini ham darslikdan o‘qib aytish hollari uchraydi. Musiqa muallimi kasbiy salohiyatining asosiy qirralari –dars materiallari ohangini cholg‘uda ijro eta bilish, qo‘shiq, ashula va vokal mashqlarni o‘zi cholg‘uda jo‘r bo‘lib kuylay olish, maqom kuy va ashulalarini notasiga qarab usul, parda, o‘lchov, lad, tonallik kabi jihatlarini tahlil qila olishidir.

Maktab musiqa madaniyati darslarida maqom namunalarini tanlashda ta‘lim nazariyasi (didaktika)ning tamoyillariga ham amal qilish lozim.

Bizning fikrimizcha musiqiy tarbiya uchun tanlanadigan repertuarining asosiy qismini har bir xalqning ruhiy kuchini o‘zida mujassam etgan xalq musiqasi janrlari tashkil etishi lozim. Chunki, inson o‘z milliy ma‘naviy boyliklari, san‘ati va musika madaniyatini bilmay turib, boshqa millatlar musiqasini anglashi qiyinroq bo‘ladi.

Umumta'lim maktablarida ishlayotgan musiqa o'qituvchilarning ma'lum qismi boshlang'ich maxsus musiqa talimidan boshlab, oliy musiqiy pedagogik ta'lim davomida puxta va yetarli kasbiy ma'lumot olgan mutaxassislardir. Ammo bunday o'qituvchilar ozchilikni tashkil etadi. Bu toifa o'qituvchilarning musiqiy ta'lim va tarbiya sohasidagi faoliyatlari cholg'u va vokal ijrochiligining yuksakligi (1-7 sinflar uchun tavsiya etilgan asarlarni yoddan, asosiy kuproq qismini esa nota yozuviga qarab qoniqarli darajada chalib bilish, vokal mashqlari va qo'shiqlar kuylashda ham cholg'uda o'ziga jo'r bo'lib ba'zan yoddan, ko'pincha nota yozuviga qarab kuylay olish, maqom namunalari bilan ayrim parchalarni jonli ijroda ko'rsata olish) bilan tavsiflanadi. Biz kuzatgan darslarda maqom namunalari bilan tanishish asosan audio yozuvlar orqali amalga oshiriladi. Bir nechta o'qituvchilargina maqom asarlarini cholg'u jo'rligida dadil, milliy musiqamizga xos nola va qochirimlarni o'rnida ishlatish bilan jonli ijrolarini namoyish etdilar.

Nazarimizda umumta'lim maktabi o'quvchilarining aksariyati maqomlar kabi milliy musiqiy merosimiz namunalarini asosan tinglash va qisman kuylash yo'li bilan o'rganish masalalari oqsab kelmoqda.

Muammoli bu masalaning yana bir chalkashroq jihati shunda-ki, biz tadqiqotimiz yuzasidan musiqa madaniyati darslari hozirgi holatini kuzatish natijasida maktab musiqa darsliklarida berilgan maqom namunalarining she'riy matnlarini yozdirish, o'qitish va yodlatishdan bo'lak ishni ko'rmadik. Darsda qo'shiq matnini cholg'u jo'rligida ohangi bilan o'rganish, musiqa va she'r matni mualliflari haqida qisqa ma'lumotlar berish, nota yozuvi belgilarini o'rganish, notaga qarab mashq va kuy ohangidan parchalar kuylash, texnika vositalaridan foydalanib musiqa tinglash, musiqiy faoliyat turlari haqida tasavvur ham yo'q.

Bu o'rinda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish va ta'lim jarayonida tegishli ko'nikma va malakalarni shakllantirish bizningcha to'g'ri bo'ladi:

- tushuncha va atamalarni mazmun-mohiyatini anglash, maqom kuylarini nazariy tahlil qilishda ulardan o'rinli va unumli foydalana olish;
- o'quvchilarga kuylashni o'rgatish va ijrolarni baholashda ularning tabiiy musiqiy qobiliyatlari va ovoz imkoniyatlarini hisobga olish
- maqom namunalari bo'yicha test, ko'rgazmali, tarqatma, audio va video materiallar, texnika vositalarini tayyorlash va ulardan foydalanish;
- darsga kirishdan oldin musiqa asbobi, ashula adabiy matnlarini tayyorlash, interfaol metodlar asosida ularni o'rganish ustida ishlash;
- darsda o'rganiladigan qo'shiqdan tashqari, maqom ohanglari asosida mashq kuylash, maqomlardan namunalar yoki parchalar tinglash, nazariy bilimlarni o'rganish, va barcha qilinadigan ishlarni maqom mavzusi bilan bog'lab olib borish;

Umumta'lim maktabdarida maqom namunalarini o'rganish jarayonini usuliy takomillashtirish orqali o'quvchilarning maqom namunalarini tinglash va qisman kuylash faoliyati davomida maqom musiqasining g'oyaviy tuyg'uli ta'sirini sezish, idrok etish, ularga qiziqishning oshishi, ularni qabul qilish va tinglashga ehtiyoj sezilishi kabi belgilangan pedagogik vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan. Ammo shuning bilan birga, o'qituvchilarning vokal va cholg'u ijrolari saviyasi pasayib ketmasligi lozim. Darsliklar, fono materiallar, jihozlangan musiqa xonalari cholg'u asboblarning yetishmasligi ishlarga e'tiborning pastligi kabi muammolar ham bor.

Qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun birinchi navbatda o'qituvchilar tayyorlash va sifatli musiqa darslari o'tilishi uchun zaruriy shart – sharoitlarni yaratish muammolarining yechimini topish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T., O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
2. Umumiy o‘rta ta’limning Davlat Ta’lim Standarti va o‘quv dasturi. T.: Ta’lim taraqqiyoti, 6-7 maxsussonlari, 1999 y.
3. Abdugarimova E.I. Preparation of future music teachers for their professional activities through uzbek classical music// European Journal of Research and Reflection in Education Sciences. Research learning.- Volume: 7 Number: 6 Issue: 2056-5852 Publication Year: 2019. www. Scopus.com
4. Abdugarimova E.I. Texnologik loyihalash- musiqa mashg‘ulotlarida samarali ta’lim // “Ilim ham jamiyat” jurnal. -Nukus davlat pedagogika instituti, 2019, 1-son, -B 61-63.
5. Abdugarimova E.I. Qudratov I. Milliy musiqiy an’analar va ularning shaxs komolotidagi o‘rni// O‘zbekiston: Turizm; Iqtisodiyot va Ekologiya // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.- Sam., 2009-B 376-378
6. Abdugarimova E.I. Oliy Pedagogik ta’limda bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini mumtoz musiqa vositasida amaliy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish. Xalq ta’limi. jurnal- T.: 2021. -№3, - B. 82-84.

MUSIQA O‘QITUVCHISINING INNOVATSION PEDAGOGIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISH

Abilov Muslim Normuxammadovich, J.D.P.U. musiqa ta’limi kafedراسi mudiri.

Annotatsiya. Mazkur maqolada musiqa o‘qituvchisining innovatsion pedagogik mahoratini rivojlantirish haqida so‘z boradi. Hozirda jahon bo‘ylab keng ommalashgan musiqiy kompyuter dasturlari, nota muharrirlari imkoniyatlaridan ta’lim jarayonida samarasi borasida fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Musiqa, dastur, texnologiya, kompyuter, muharrir, tajriba, ommaviy, islohot.

Jadal rivojlanib borayotgan ta’lim tizimi yangiliklaridan muntazam ravishda xabardor bo‘lish, fan va pedagogikaning yangi texnologiyalarini faoliyatida samarali qo‘llay olish hozirgi zamon pedagoglarining asosiy vazifalaridandir. Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati va ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar ham ayni shu masalalarga qaratilmoqda.

Jamiyatning kelajagi ta’lim tizimining qay tarzda rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bu borada ta’lim tizimini isloh qilish, unga rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or texnologiyalarini joriy etish barobarida milliy qadriyatlarimizni singdirgan holda ta’limni tashkil etish, bu jarayonni puxta, samarali, sifatli va zamon talablariga mos ravishda amalga oshirish ishlari bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni isloh qilish sharoitida ta’lim muassasalarida ta’limni modernizatsiya qilish va xorijiy ta’lim texnologiyalarini jalb etish, ta’lim jarayonlariga joriy etish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Ushbu jarayon pedagogik jarayonning barcha jihatlari, o‘quv-tarbiyaviy ishlarining tashkiliy shakllari, mazmuni va texnologiyasini qamrab olmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida PF-5847-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni 2019 yil 8 oktabrda e‘lon qilindi, bu esa mamlakatimizda oliy ta’limni modernizatsiya

qilish va ta'limda xorijiy texnologiyalarni tatbiq etish masalasini ta'lim jarayoniga bosh maqsad qilib qo'yadi.

Mamlakatimizda oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida farmonda, asosan, quyidagilarga e'tibor qaratildi:

- oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish;

- xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan, o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish;

- oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish;

- xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, pulli xizmatlar ko'lamini kengaytirish va boshqa budjetdan tashqari mablag'lar hisobiga oliy ta'lim muassasalarida texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, start-up, akselerator markazlarini tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qiluvchi va prognozlashtiruvchi ilmiy-amaliy muassasalar darajasiga olib chiqishdan iborat². Ushbu farmonga asoslangan holda ta'limga imkon qadar xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, pulli xizmatlar ko'lamini kengaytirish va boshqa budjetdan tashqari mablag'lar hisobiga oliy ta'lim muassasalarida texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, start-up, akselerator markazlarini tashkil etish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga asos bo'ladi. Buning uchun talabalarni xorijiy texnologiyalardan unumli foydalanishga o'rgatsak, o'z maqsadimizga erishgan bo'lamiz. Klassik pedagogikaning ta'kidlashicha, bilim o'rgatishning muvaffaqiyati ilm o'rganuvchining bilim olishiga bo'lgan qiziqishiga ko'proq bog'liq ekanligini va unda bilim olishga intilish bo'lmasa, unga bilim o'rgatish juda mushkulligini ta'kidlaydi. Hozirgi kunda talabalarni bilim olishga qiziqtirish pedagoglardan bilim, ko'nikma va malakadan tashqari xorij tajribalaridan, texnologiyalardan unumli foydalanish mahoratiga ega bo'lishni talab etadi. Modernizatsiya, pedagogik texnologiya tushunchalarining ta'rifi to'xtalib o'tamiz.

Modernizatsiya – pedagogik ta'lim jarayoni va pedagogika fanini davr talablari asosida yangilash.

Innovatsiya – yangidan kiritilgan tushunchalar, tartib-qoidalar, texnologiyalar va yangiliklar.

Pedagogik texnologiya – a) o'quv faoliyatini oqilona tashkil etish va jihozlash; b) imkon qadar ozroq vaqt sarflab, ta'lim natijasini kafolatlaydigan izchil pedagogik tizim; v) pedagogik muammolarni metodologik darajada hal etishga imkon beruvchi pedagogik hodisa; g) o'quv jarayonini to'liq boshqarish imkonini beradigan tizimli tafakkur usulini pedagogik amaliyotga tatbiq etish shakli; d) pedagogik maqsadga erishishni kafolatlaydigan harakatlarning izchil tizimi³.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-5847-сонли фармон. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.10.2019 й., 06/19/5847/3887-сон; 30.04.2020 й., 06/20/5987/0521-сон.

³ Педагогик атамалар луғати. П.ф.д., проф. Р.Х. Джураев, п.ф.д. Ў.Қ. Толипов. 47-58-бет.

Bugungi kunda axborotlar ko‘lamining kengligi ta’lim jarayoni ishtirokchilarida vaqt muammosini keltirib chiqarmoqda. Demak biz kam kuch va kam vaqt sarflab, ko‘proq natija olish choralarini qo‘llashimiz kerak. Xo‘sh, musiqa ta’limi va tarbiyasi jarayonida bu ishni qanday amalga oshirishimiz mumkin? Bo‘lg‘usi musiqa madaniyati o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida musiqiy-nazariy, metodik va ijrochilik fanlari o‘qitiladi. Bu jarayonda barcha musiqiy fanlarning o‘zaro integratsiyasini tashkil qilish bilan birga zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter dasturlari va mobil ilovalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kun o‘quvchi-yoshlari asosiy axborotlarni global internet tarmoqlari va mobil telefonlardan olayotgani hammamizga ma’lum. Shunday ekan biz ularning bu layoqatidan ta’lim yo‘lida unumli foydalanishimiz lozim. Berilayotgan har bir topshiriqlar zamonaviy kompyuter dasturlari, onlayn ta’lim platformalari va xalqaro ilmiy axborotlar bazasiga murojaat qilishni taqozo etishi, talabalarni yangi bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishga yo‘naltirishi kerak.

Hozirda jahon bo‘ylab keng ommalashgan musiqiy kompyuter dasturlari, nota muharrirlari imkoniyatlaridan ta’lim jarayonida samarali foydalanish lozim. Oliy ta’lim muassasalariga berilgan akademik mustaqillik sharofati bilan musiqa ta’limi yo‘nalishi o‘quv rejasiga musiqiy informatika fani kiritildi. Birgina Sibelius nota muharrida ishlash ko‘nikmalarini hosil qilish orqali talabalarda ijodkorlikni rivojlanishini kuzatishimiz mumkin. Bu talabalarda musiqiy – nazariy tushunchalarni mustahkamlash bilan birga ijrochilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga hamda bo‘lg‘usi musiqa o‘qituvchi sifatida kasbiy kompetensiyalar shakllanishiga yordam beradi.

Ta’lim innovatsiyalari muammolarini hal etishda o‘qituvchining faoliyati haqida masala eng muhim masala bo‘lib turibdi. Pedagogning ijodiy potentsiali uning kreativligi, ya’ni ijodkorligi shaxsiyatini shakllantirishga intilishida, pedagogik odobning namoyon bo‘lishi, empatiya, qobiliyat, tasavvurni rag‘batlantirish, yumor hissini rivojlantirish, qiziqarli, kutilmagan, paradoks savollarni qo‘yish o‘quvi, talabalarni savol berishga jalb qilish o‘quvi va hokazo orqali oshirilishi mumkin. Rus pedagogi Ye.I. Ilin: “Pedagogika “quyma quyish”dan foydalanish mumkin bo‘lgan soha emas. Uni nusxa ko‘chirib, seriyalab amalga oshirib bo‘lmaydi. Chunki bir odamga yaraydigan uslub boshqa odamga to‘g‘ri kelmasligi mumkin, shunday bo‘ladi ham. Bu nusxa ko‘chirib, har bir odamning potrfeliga solib qo‘yish mumkin bo‘lgan “kalit” emas, balki biror yakka tartibda ishlanadigan “ochqich” bo‘lib, u faqat mohir usta qo‘llaridagina ish beradi”, – deb ta’kidlaydi. Ta’lim jarayonida o‘z oldimizga, eng avvalo, talabalarga “Kasb ta’limi metodikasi va nazariyasi” fanini o‘rganish, ularning kelajakdagi kasbi uchun naqadar zarurligini anglatishga harakat qilishimiz va pedagogik amaliyotdan misollar keltirish yo‘li bilan o‘qitishning motivatsiyasini ta’minlaymiz. Talabalarni bilim o‘rgatishga qiziqtirishga intilamiz va bunda biz har xil ish o‘yinlari (Charxpalak, asalari uyasi, zaif zveno, noma’lum tulpor va shu kabilar) va xorijiy texnologiyalardan unumli foydalanamiz. Ya.A. Komenskiy aytganidek, “Kim bir marta tuyani ko‘rsa, bulbul sayrashini eshitsa, qandning ta’mini totib ko‘rsa, u tuyaning ko‘rinishini ham, bulbul xonishini ham, qandning mazasini ham hech qachon esdan chiqarmaydi”. Bu jihatdan har bir kafedrada ishlab chiqilgan, talabalarni qiziqtiradigan, faollashtiradigan va o‘quv jarayoniga tatbiq etilgan yangi o‘qitish uslublari hamda xorijiy texnologiyalardan maqsadli foydalanish qo‘l kelmoqda. Demak, o‘quv jarayoniga xorijiy texnologiyalarini tatbiq etishga nafaqat talabalar, balki pedagoglar nazariy va amaliy jihatdan tayyor bo‘lishi ta’limning sifatini oshirishni ta’minlaydi. O‘quv jarayoniga har tomonlama yondashish, dasturga xorijiy texnologiyalarni kiritish, bizning fikrimizcha, bo‘lg‘usi mutaxassislarni diplomdan so‘nggi jaryonga tayyorlash sifatini yanada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.To‘rayev Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. T., 2015
2. В.С. Грехнев Культура педагогического общения: Книга для учителя. - М.: Просвещение, 2010
3. Khasanova, Navbakhor (2020) “The role of music lessons in the formation of national and intercultural competence in students.” *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*. Vol.2020 :Iss.2. Article 15. :<https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss2/15>
4. Hasanova, N. K. (2021). Possibilities of music education and upbringing in the formation of personal maturity. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 08 (100), <http://s-o-i.org/1.1/TAS-08-100-79> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2021.08.100.79>
5. N. Hasanova O‘zbek milliy musiqa merosi taraqqiyotida xotin-qizlarning o‘rni. Актуальный вызовы современной науки IX xalqaro ilmiy konferensiya 26-27 yanvar 2017 yil.
6. Muminova Muqaddas Riskulovna Development And Current Status Of Uzbek Pop Music In Modern Approaches And Innovations Of Teaching The Science Of Music Culture *International Journal of Advanced Science and Technology* Vol. 29, No. 8, (2020) <https://t.me/joinchat/> - Music teacher, <https://infourok.ru> - music lessons
7. Muminova Muqaddas Riskulovna *International Journal of Mechanical Engineering*. The Innovative Technologies Of Teaching In Musical Educational Establishments 1764-1767-betlar. 2022- йил.
8. Muminova Muqaddas Riskulovna *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*. THE ROLE OF SPORT ACTIVITIES, GAMES AND COMPETITIONS IN THE NURTURE OF 6-7 YEARS OLD CHILDREN <https://uzjournals.edu.uz/tziuj68-78betlar2022>
9. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlarda pedagog kreativligi. “Yangilanayotgan O‘zbekistonda fan, ta’lim va innovatsiya uyg‘unligi” mavzusidagi 6-son 2-qism Respublika ko‘p tarmoqli ilmiy konferensiyasi VIII bo‘lim Toshkent 2021. 677 bet. Udk. 001.895 (575.1).
10. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlar o‘qituvchisining kreativligi. Педагогические и лингвопсихологические особенности развития, формирования и становления личности врача. Сборник тезисов Международная конференции. СамГМИ, Самарканд 5 мая 2021 год
11. Urinova S.Sh. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishning nazariy asoslari. “The best innovator in science” xalqaro maqolalar tanlovi to‘plami. Organized by Innovative Academy. Tashkent February 5, 2022. Pg 811. <https://zenodo.org/record/5979621#.YpC2PKhBxD8>

MUSIQA TA’LIMI JARAYONIDA ZAMONAVIY KOMPYUTER TEKNOLOGIYALARI VA MOBIL ILOVALARDAN FOYDALANISH.

Abilova Yulduz, JDPU musiqa ta’limi yo‘nalishi 3-kurs talabasi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada musiqa ta’limi jarayonida zamonaviy kompyuter texnologiyalari va mobil ilovalardan foydalanish haqida so‘z boradi. Maktab o‘quvchilarning

yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning qiziqishlarini o'rganib lozim darajadagi metod va texnologiyalar qo'llash kerakligi borasida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Musiqa, texnologiya, kompyuter, fan, islohot, zamonaviy, raqamli avlod, pedagogika, psixolog, tarmoq, internet, foydalanuvchi.

Ta'limni modernizatsiya qilish O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining eng muhim vazifasidir. Bunday sharoitda barcha darajadagi ta'lim sifatini oshirish muammosi ayniqsa dolzarb bo'lib qoladi. Ta'lim taraqqiyotining har bir bosqichida uning sifatini oshirish uchun tarixan turli usullardan foydalanilgan. Hozirgi vaqtda ta'lim sifatini oshirish maktab o'quvchilarining ta'lim faoliyati usullarini o'zgartirish, ya'ni tizimli-faollik yondashuvidan foydalanish bilan bog'liq bo'lishi kerak. So'nggi o'n yilliklarda ta'limga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (keyingi o'rinlarda AKT deb yuritiladi) joriy etish o'zbek maktabini modernizatsiya qilishning muhim yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Shu bilan birga, kompyuter va Internet texnologiyalarining o'zi ham jadal rivojlanmoqda: shaxsiy kompyuterlar ko'proq portativ va mobil qurilmalar bilan almashtirilmoqda. Iste'mol bozorida tobora kuchayib borayotgan smartfonlar - kompyuter funksiyalariga ega mobil telefonlar paydo bo'lmoqda.

Axborot jamiyati sharoitida o'quv faoliyati usullarini modernizatsiya qilish uchun yangi imkoniyatlar mavjud. Ushbu maqsadlarga faol rivojlanayotgan va zamonaviy maktab o'quvchilarining kundalik amaliyotida qo'llaniladigan yangi AKT xizmat qilishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda yangi AKTni rivojlantirish bilan bog'liq masalalar ko'tarilgan. So'nggi tadqiqotlarda zamonaviy sharoitda innovatsion texnologiyalardan foydalanish zarurati ta'kidlangan tarbiyaviy yondashuvlar. Ta'lim faoliyatining zamonaviy turlarini rivojlantirish orqali - bir nechta manbalardan ma'lumotlarni izlash va taqqoslash, olingan bilimlarni amaliy muammolarni hal qilishda qo'llash, guruhlarda ishlash, shu jumladan zamonaviy AKTdan foydalanish, o'quvchilarning yangi ta'lim natijalari.

Ma'lumotlarni qidirish va saqlash uchun maktab o'quvchilari ijtimoiy tarmoq xizmatlaridan faol foydalanadilar. Bu xizmatlarning rivojlanishi bilan ta'limda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishga oid nashrlar paydo bo'la boshladi. O'quv faoliyatida mobil va tarmoq texnologiyalaridan foydalanish masalalari amaliy ahamiyati yuqori bo'lganligi sababli faol ishlab chiqilmoqda. Biroq, bu soha hali ham to'liq o'rganilmagan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti yo'riqnomasida shunday deyilgan: "Aloqa va axborotga kirishga bog'liqlik kuchayib borayotgan dunyoda mobil qurilmalar o'tkinchi hodisa bo'lib qolmaydi. Mobil qurilmalarning quvvati va imkoniyatlari muttasil o'sib borayotganligi sababli ulardan ta'lim vositalari sifatida kengroq foydalanish mumkin"

Maktab o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish vositalarini topish muammosiga bag'ishlangan nashrlarning tahlili, shuningdek, ushbu muammoni hal qilishda pedagogik tajribani o'rganish quyidagi qarama-qarshiliklarni aniqlashga imkon berdi:

- bir tomondan, zamonaviy maktab o'quvchilari o'sib-ulg'aygan va yashaydigan muhitda o'zgarishlar ro'y bermoqda - «raqamli avlod» vakillari (smartfonlar, ijtimoiy tarmoqlar, Internetdan faol foydalanish, katta hajmdagi ma'lumotlardan doimiy foydalanish), bu yangi ta'lim imkoniyatlarini yaratadi. Boshqa tomondan, ta'lim tizimi bunday o'zgarishlarga befarq qolmoqda, bu imkoniyatlardan yangi ta'lim natijalariga erishish uchun foydalanilmayapti.

Asosiy umumiy ta'lim darajasida o'quvchilarning o'quv faoliyatida mobil va kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning potentsial va amalga oshirilishi mumkin bo'lgan imkoniyatlari o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf etishga imkon beradigan omillarni aniqlash zarur. Bulardan maqsad kam kuch sarflab, ko'p natijaga erishishdir.


Soʻngi yillarda taʼlimga axborot kommunikatsiyalarni joriy qilish va ularni umumtaʼlim maktab dars jarayonlarida tadbiiq qilish muhim boʻlib qoldi. Shu bilan birga internet, mobil telefonlar, kompyuter texnologiyalari jadal rivojlanib bormoqda. Soʻngi yillarda kuchayib borayotgan smartfonlar kompyuterlar funksiyasiga ega boʻlgan mobil telefonlar chiqmoqda. Axborotlar zamonida oʻquv faoliyatini zamoniy qilish uchun yangi imkoniyatlar mavjud. Ushbu maqsadlarga faol rivojlanayotgan va zamonaviy umumtaʼlim maktab oʻquvchilarining kundalik amaliyotida qoʻllaniladigan yangi axborot texnologiyalari xizmat qilishi mumkin. Bizga maʼlumki umumtaʼlim maktabi boshlangʻich sinf oʻquvchilari oʻyin faoliyatiga moyil boʻladi. Hozirgi zamon bolalari yoshiga nisbatan rivojlanishdan oldinda, ular zamonaviy texnologiyalardan kata avlodga nisbatan zoʻr foydalanishadi, bizbuni taʼlimni rivojlantirishga yoʻnaltirishimiz zarur. Ularni eski dars uslubi bilan musiqa qiziqtirib boʻlmaydi. Bugungi kun bolalari internet, har xil video oʻyinlar, mobil ilovalar bilan tanish, shunday ekan musiqa darslarida innovatsion texnologiyadan foydalanish imkonini beradi. Nota nomlari, kalitlar, intervallar, akkordlar kabi musiqa nazariyasi mavzularini qamrab oluvchi bepul yuklab olish kabi musiqa oʻrganishga yordam beradigan bir nechta ilovalar mavjud. Mobil ilovalarga misol qilib SolfaRead, Ensemble Compozer ni koʻrsatish mumkin.




Ushbu SolfaRead ilovasi orqali nota oʻqishni oʻyin tarzida oʻrganish mumkin.

Bu ilova orqali bola koʻz, barmoq harakatlarini mujassamlashtiradi. Goʻyoki oʻyinday qabul qiladi, dars yoki ilmiy maʼlumot oʻrganyapman deb emas oʻyin oʻynayapman deb oʻylaydi. Lekin biz ijobiy natijaga erishamiz, koʻz, barmoq, xotira birgalikda

ishlab bola nota yoʻli unda tovushlarning joylashishini osongina yodlab oladi.




Bolalar musiqani albatta musiqa nazariyasi orqali anglashadi. Bu ilova orqali bolalarni ranglar va harakatlar eʼtiborini tortadi va shu orqali tez tovushlar nota yoʻlida joylashuvi yodida qoladi.



Musiqa nazariyasini oʻquvchi oʻzi xohlagan tarzda oʻrganishga imkon beradigan ilova bu Абсолютный слух. Ilova juda qulay sensorli klaviatura bilan keladi va bu orqali oʻquvchilar notalar, akkordlar, intervallar va shu kabi nazariy mavzularni mashq qilishiga yordam beradigan oʻquv mobil kutubxonaga ega.

Zamonaviy musiqa nota muharriri Sibelius eng mashhur va juda keng foydalanishmoqda, shuning uchun uni mobil prototiplari ham yaratildi. Shunga misol qilib Ensemble Compozerni koʻrsatishimiz mumkin. Mazkur ilova orqali solfejio kuylashni tez oʻrganish mumkin va biror

asarni chalishni o'rganayotganda chalolmagan taktlarini ilovaga yozadi u sanoqlarini aniq qilib chalib beradi.



Dars jarayonida biror bolalar asarini notasini yozib ovoz kuchaytirgichga ulab bemalol bolalarni kuylatish mumkin. O'quvchilar ham bu ilova orqali musiqaning elementar nazariyasini ham o'rganishi mumkin.

Bu esa musiqa o'qituvchisiga musiqiy nazariy tushunchalarni tushuntirishda bir necha qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Maktab o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning qiziqishlarini o'rganib lozim darajadagi metod va texnologiyalar qo'llash kerakligini ko'rsatadi bugungi kunda kompyuter texnologiyalari va mobil ilovalar hayot tarzimizga chuqur kirib keldi smartfonlardan bugungi kunda bog'cha yoshidagi bolalar ham faol foydalar foydalanmoqdalar yana shu narsa ma'lumki boshlangich sinf oquvchilari hali o'yin faoliyatida boladi mobil ilovalar dagi o'yinlar esa bolalar uchun juda ham qiziq musiqa o'qituvchisi bolalarning shu qiziqishlaridan unumli foydalanishi lozim an'anaviy uslubda doskaga notalarni yozib tushuntirishdan kora mobil ilovalar orqali ta'sir etish effektivdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Koroleva, Diana Olegovna - Maktab o'quvchilarini o'qitishda mobil va tarmoq texnologiyalaridan foydalanish. Dissertatsiya Moskva - 2018
2. A.Baxriyev - Musiqa o'qitish texnologiyalari va loyihalash -2021
3. I.Karimova D. Musiqiy pedagogik maxorat asoslari.-Toshkent 2008
4. T.Ye.Solomonova.O'zbek musiqasi tarixi.-T.'O'qituvchi''nashriyoti 1981-yil
5. Sharipova G.Musiqa va uni o'qitish metodikasi.Toshkent

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'ZBEK CHOLG'U ASBOBLAR TO'GARAGINI TASHKIL ETISH YO'LLARI

*Ahmedova Iroda Ikromjon qizi, Jizzax DPU
Musiqa ta'limi - yoo'nalishi 3-kurs talabasi.*

*Fayzullayev Ermat Majidovich,
Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti dotsenti v/b, p.f.n.*

Annotasiya: Maqola mazmunida umumta'lim maktablarida o'zbek cholg'u asboblari to'garagini tashkil etish yollari haqidagi fikr-mulohazalar bildiriladi.

Kalitli so'zlar: ansambl, to'garak, ritm tuyg'usi, musiqiy soz, cholg'u ijrochiligi, badiiy-ijro, vokal yoki cholg'u musiqasi.

Ansambli fransuzcha “ensemble” soʻzidan olingan boʻlib, “Vokal yoki cholgʻu musiqasi asarini bir necha ijrochilar tomonidan ijro etilishi” manosini anglatadi. Oʻzbek xalq cholgʻu asboblari ansamblini tuzish jarayonida rahbar bir qator tashkiliy masalalarini hal qilishi lozim. Ansambli jamoasini uyushtirish ikki asosiy davrga, yaʼni tayyorgarlik ishlari va jamoani butlash (komplektlash) uchun tashkiliy ishlarni amalga oshirish davrlariga boʻlinadi.

Oʻzbek xalq cholgʻu ansambli tarkibiga kiruvchilarga nisbatan quyidagi talablar quyiladi:

- ishtirokchilar tovushning baland-pastligini ajrata bilishi;
- eshitish qobiliyati;
- ritm tuygʻusi va yaxshi xotiraga ega boʻlishi;
- musiqa sanʼatiga havasi;
- cholgʻu ansambli jamoasi oldiga qoʻyiladigan talablarga javob beradigan boʻlishi kerak.

Agar oʻquvchilar biror cholgʻu asbobini chalishni bilsa, yoki boshlangʻich musiqa savodidan xabardor boʻlsa, rahbar ularning mazkur bilimlarini aniqlaydi va shunga qarab kelgusida cholgʻu ijrochiligi boʻyicha alohida mashgʻulotlar tashkil etib boradi. Bu ishtirokchilarni qabul qilingandan soʻng ularning imkoniyat va qobiliyatlariga qarab guruhlarga boʻlinishi etiborda tutiladi. Rahbar har bir mashgulotlar belgilaydi, qatnashuvchilarning soniga qarab, ansamblni turini aniqlaydi. Bular kichik, oʻrta, katta tarkibdagi ansambllar yoki dutor, rubob, kamonli sozlar ansambllari boʻlishi mumkin.

Birinchi darslarda sozda mashqlar, oddiy, tanish boʻlgan kuylardan parchalar chalish bilan birga ishtirokchilar tomonidan musiqa savodxonligini oʻzlashtirib borishga alohida etibor beradi. Ansambli qatnashchilarining ijro malakalari bir muncha oʻsgandan soʻnggina asta-sekin kichik tarkibdagi rubobchilar, dutorchilar unison ansambldan tashkil qilinadi. Bu ishtirokchilarni ijro mahoratlarini oʻstirib borishga, jamoa boʻlib chalish malakalarini singdirib borishga yordam beradi.

Ansambлга asta-sekin chang, nay, gʻijjak va boshqa sozlar ham qoʻshib boriladi. Ansambli mashgʻulotlari haftada 2 marta oʻtkaziladi. Bir mashgʻulot jamoaviy tarzda oʻtkazilsa, ikkinchisi har bir sozanda bilan alohida-alohida (individual tarzda) olib boriladi. Rahbar har bir ishtirokchi bilan alohida dars oʻtganda nota oʻqish, ularning ijrochilik mahoratini oʻstiruvchi turli mashqlar, gammalar ustida ishlaydi, nazariy bilimlarni mustahkamlaydi.

Ansamblda oʻrganilayotgan asarlarni murakkab boʻlaklarini oʻzlashtirish, ifodali ijro etish malakalarini singdirish kabi ishlarni amalga oshiradi. Berilgan vazifalar toʻliq oʻzlashtirilgandan keyingina navbatdagi bosqich vazifalarini bajarishga oʻtiladi. Ansambli ishtirokchilari alohida kundalik daftar tutadilar. Rahbar tomonidan berib boriladigan topshiriqlar kundalik daftarga yozib boriladi va ularning bajarilib borilishi nazoratga olinadi.

Ansamblda ijro mahoratini egallash avvalo har bir cholgʻu sozini toʻgʻri tutish, tovush chiqarish madaniyatini oʻzlashtirish, qoʻl holati va ijro harakatlarini toʻgʻri shakllantirish, maqsadga muvofiq toʻgʻri va erkin oʻtirishni oʻrganish, hamda jamoaviy ijro qoidalariga toʻliq rioya etishlikni nazarda tutadi.

Maktabda cholgʻu asboblari ansambli toʻgaraklarini tashkil etishda, oʻquvchi-yoshlarga estetik tarbiya berishda turli vositalardan foydalaniladi. Shulardan biri maktabda va maktabdan tashqari muassasalarda tashkil etilgan cholgʻu asboblari toʻgaraklaridir. Bu toʻgarak koʻp sonli oʻquvchi-yoshlarni birlashtiradi. Ular oʻzaro hamkorlikda jamoa boʻlib kuylashni, nota bilan ijro etishga oʻrgatadilar.

Toʻgarakdagi koʻp ovozli musiqa bolalarda musiqaviy qobiliyatning uygʻun suratda rivojlanishiga ijobiy taʼsir etadi. Ular musiqaning nozik sirlarini bilib oladilar. Professional sozandalik malakalarini hosil qila boradilar. Ansambлга kilrgan oʻquvchilar dastlab asosan

qashqar rubobi va dutor chalishni o'rganish olishni hohlaydilar. Lekin ular istagan cholg'u asboblari bilangina to'garak tuzib bo'lmaydi. Shuning uchun dutor, rubob, g'ijjak, chang, doira va boshqa asboblarning to'garakdagi o'rnini va ahamiyatini o'quvchilarga tushuntirish lozim.

O'qituvchining dutor, rubob, nay kabi asboblarda nafis kuy va mashqlarni namuna tariqasida ijro etishi tufayli o'quvchilarning mazkur musiqa asboblariga qiziqishlar oshadi. O'quvchi-yoshlarni notaga qarab musiqa asbobida kuylar chalishga o'rgatishda dastavval musiqa savodining boshlang'ich qismi bir xildagi cholg'u asboblari guruhlar bilan tanishtirish kerak.

Nota bilan kuy ijro etishni o'rganishlari uchun ular birinchi galdagi musiqa applikatorasi, har qaysi asbobda ijro etish uchun tegishli oktava, notalarning nota yo'lida joylashuvi, notalarning cho'zilish va ularning sanalishi, pauzalar, o'lchov va takti yaxshi o'zlashtirib olishlari lozim. Shundan keyin ijro etish uchun bolalarga kichik-kichik kuylar berilishi mumkin.

Kuy o'rganish davomida nota yozuvida ishlatiladigan boshqa belgilar ham o'rgatiladi. O'quvchilar notani tez o'qiy olishlari uchun har darsda doskaga kichik-kichik mashqlar yozib, jamoa bo'lib o'qishga o'rgatish zarur. Buning uchun mashqning o'lchovini aniqlash, ritmikasi bilan chapak bilan chalish, notalar nomini aytib kuylash, nixoyat hamma shoshmasdan baravar ijro etishi lozim. Ansamblda soz chalishning qoidalari va umumiy talablari:

- ijro paytida gavdani shunday tutish kerakki, toki u ijrochining barcha harakatlari uchun kulay va tashqi ko'rinishi chiroyli bo'lsin;

- suyanchiqqa suyanmasdan, o'rindiqning yarmisida o'tirish lozim;

- ijro etishdagi holati har tomonlama qulay bo'lishi uchun gavdani va gavda holatini erkin tutish lozim;

- o'ng qo'lning to'g'ri joylashishiga, erkin harakatda bo'lishiga erishish kerak;

- chop qo'l soz dastasini siqmaslik kerak (rubob, avg'on rubobi, soz, dutor sozlarida), qo'l kafti dastaga tegmasdan, erkin bo'lishiga harakat qilish lozim;

- cholg'u dastasi chpa qo'lning bosh va ko'rsatgich barmoqlari o'rtasida joylashtirilib, barmoqlar holatiga etibor berish lozim, bosh va o'rta barmoqlar bir-birining to'g'risida bo'lgani maqsadga muvofiq;

- chertib chalinadigan torli cholg'ular ijrosida barmoqlar ikki parda bo'linmasining o'rtasida emas, balki pardaning xarrak yo'nalishidagi pillar bo'linmasiga taqab qo'yiladi. Simlar esa barmoqlarning tirnoq oldi yostiqlik bilan bosiladi. Har bir cholg'u sozida chalish qoidalari ham ana shunday tartibda rioya qilinadi. Ijro uchun qulay va to'g'ri holatni tanlash, qo'llarni erkin tutish, tovush chiqarish madaniyatini to'g'ri o'zlashtirish har bir soz ijrosi uchun umumiy talablari mazmuniga kiradi.

Jamoa bo'lib ijro etganda barobar va birgalikda ijro etishga erishish lozim. Cholg'u sozi tovush haddan ziyod kuchlanmasin, ijro etish o'zgalardan ildamlab ham, ortda qolib ham ketmasligi lozim. Jamoaviy ijro bir xil hissiyot bilan, bir tanu bir jon bo'lib, bir xilda ijro etish ekanligini yodda tutish kerak. Cholg'u sozlarini yaxshi saqlanishi avvalo mashg'ulot o'tkaziladigan xonaga bog'liq. Ansambl o'tiladigan dars xonasi keng, yorug', havosi toza, harorati mo'tadil, akustikasi maqsadga muvofiq bo'lishi kerak. O'qish xonasida kitoblar, notalar, cholg'u soziga kerakli torlar, ansamblga kerakli bo'lgan qo'llanmalarni saqlaydigan shkaf, pulklar va musiqa darsini o'tkazish uchun nota chizig'i chizilgan doska, sinf taxtasi bo'lishi kerak. Dars xonasi sozlarining applikatora jadvallari, havaskor va professional ansambllarning, bastakorlarning, taniqli sozandalarning rasmlari bilan jihozlab qo'yiladi. Musiqa cholg'ularini toza havo yetarli darajada almashinib turadigan xonada saqlash kerak.

Cholgʻu asbobini biror tovush manbaiga, masalan, kamertonga yoki toʻgʻri sozlangan fortepianoga almashtirish tavsiya etiladi. Ansamblda esa cholgʻular nay yoki chang asbobida sozlangani maqul. Torlarni sozlashda ularni juda jarangli qilib tortish tavsiya qilinmaydi. Simlar poʻlatdan ishlangan boʻlsada, tegishli oʻrtacha balandlikdan yuqori sozni koʻtara olmasligi mumkin. Dars boshlashdan yoki konsertga chiqishdan oldin ansambldagi cholgʻu asboblarini toza qilib sozlash va butun ansambl sozini bir necha bor tekshirib koʻrish tavsiya etiladi. Cholgʻu asboblarini avval musiqa rahbarining oʻzi sozlaydi, keyinchalik esa u barcha qatnashchilarni cholgʻularni oʻzlari sozlashiga oʻrgata borish kerak. Sozlarni sozlashdan avval tor uchun qoʻyilgan xarrakning joyida turganligini tekshirish kerak. Soz avval ochiq torda tovush hosil qilib, keyin esa 12 pardani bosib, eshitib koʻrish orqali tekshiriladi. Agar tovush sof oktava boʻlsa, xarrak toʻgʻri turgan boʻladi, torni bosganda tovush oktavadan baland chiqsa, xarrakni tovush xonasidan uzoqlashtiriladi. Torni bosganda tovush oktavadan past sadolansa, xarrak toʻgʻri turgan boʻladi deb boʻlmaydi, u holda xarrak tovush xonasi tomonga suriladi.

Barcha torlarda oktava sadolanishi tekshiriladi. Xarrakni aniq joylashtirgandan soʻng birinchi torni “lya” tovushiga sozlab, keyin qolgan torlar sozlanadi, keyin qolgan torlar sozlanadi. Sozlar yakka tartibda sozlangach, ansambl sadosi bir necha bor eshitib koʻriladi.

Ansambl uchun repertuar tanlash.

1. Yallama yorim (Oʻzbek xalq kuyi)
2. Yulduzcham (A.Muhammedov musiqasi)
3. May (Gʻ.Qodirov musiqasi)
4. Qorbobo qoʻshigʻi (A.Ilyosov musiqasi)
5. Oftob chiqdi (Oʻzbek xalq musiqasi)
6. Olmacha-anor (Oʻzbek xalq qoʻshigʻi)
7. imalar devdim sizga (Oʻzbek xalq qoʻshigʻi)
8. Kak poshli nashi podrujki (Ukrain xalq qoʻshigʻi)
9. Savka i Grisha (Ukrain xalq qoʻshigʻi)
10. Oy djiguni, djiguni (Ukrain xalq qoʻshigʻi)
11. Qora soch (Oʻzbek xalq lapari)
12. Doʻloncha (Oʻzbek xalq kuyi)
13. Qashqarcha (B.Pinko qayta ishlagan oʻzbek xalq kuyi)
14. Yumalab-yumalab (Oʻzbek xalq qoʻshigʻi)
15. Omon yor (Oʻzbek xalq qoʻshigʻi)
16. Tom boshida togʻora (Oʻzbek xalq qoʻshigʻi)
17. Chamanda gul (Oʻzbek xalq qoʻshigʻi)
18. Doʻstlik qoʻshigʻi (A.Muhammedov musiqasi).

Sekin-asta ansambl repertuarining soni ham salomogʻi ham ortib boraveradi. Eng muhimi, yosh cholgʻuchilarda havasni pasaytirmaslik, uni oʻstirish lozim. Toʻgarakdagi musiqiy mashgʻulotlar orqali yosh sozandalarda sogʻlom musiqiy didni tarbiyalashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat - yengilmas kuch. - T.: Maʼnaviyat, 2008. - 176 b.
2. Fayziyev K., Nishonov S. “Pedagogika tarixi” (oʻquv qoʻllanma) T.1996 yil.
3. I.Rajabov. “Maqomlar masalasiga doir”. -T., 1963 yil.
4. O.Ibrohimov. “Oʻzbek xalq musiqasi ijodi”. Metodik tavsiyalar. -T., 1994 yil.

5. I-IV sinflarda “Musiqqa madaniyati” darslari dasturi Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturi. Toshkent. “Sharq” nashriyoti matbaa konserni. 1999 yil, 258-289 betlar.

6. VII-sinflarda “Musiqqa madaniyati” darslari dasturi. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturi. Toshkent. “Sharq” nashriyot matbaa konserni. 1999 yil, 78-85 betlar.

7. Janaydarov Sh. Va Nurmatov H. Cholg‘ular ansambli. O‘quv qo‘llanma. Toshkent T.D.P.U. 2002 yil.

8. Maqom ansambli. Umumta’lim maktablari va maktabdan tashqari muassasalarning to‘garak rahbarlari uchun dastur. O.Ibrohimov. Toshkent. 1993 yil.

9. Folklor ansambli. Umumta’lim maktablari va maktabdan tashqari muassasalarning tzgarak rahbarlari uchun metodik qo‘llanma. Muallif F.Xidirov. Toshkent, 1994 yil.

TA'LIMNI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MASOFAVIY TA'LIMNING AHAMIYATI

*Botirova Xilola Tursunbayevna,
Andijon davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti professor v.b*

Annotatsiya: Mazkur maqolada masofaviy ta'lim tizimining avfzallik tomonlari hamda ta'lim jarayonida samaradorlik jihatlari yoritib o‘tilgan. O‘quv jarayonini masofadan turib rivojlantirishda Avstraliya, Frantsiya, Buyuk Britaniya maktablari metodikalari asosli taxlil qilingan.

Kalit so‘zlar: axborot-kommunikatsiya, texnologiya, ta'lim, masofaviy ta'lim, maxsus platforma, samaradorlik, ijodiy loyiha, skype, dastur.

Masofaviy o‘qitish tarixini 1840 yildan boshlab ingliz o‘qituvchisi, stenografiya tizimining ixtirochisi Isaak Pitman (Isaac Pitman) buyuk Britaniyada pochta jo‘natmalaridan foydalangan holda talabalar stenografiyasini o‘qitishni boshlagan paytdan boshlab hisoblash mumkin.

1873 yilda Anna Eliot Ticknor (Ticknor's Society) ingliz tilidagi "uyda o‘qishni qo‘llab-quvvatlash jamiyati" dasturini asos qilib olib, "Ticknor's Society" deb nomlangan ayollar uchun Amerika pochta orqali o‘qitish tizimini yaratdi. 1911 yilda Avstraliyaning Brisben shahridagi Kvinslend universitetida universitet darajasidagi kurslar boshlandi. Maktablardan uzoqda yashovchi bolalar uchun 1914 yilda boshlang‘ich maktab dasturi bo‘yicha pochta orqali o‘qitish tashkil etildi. Ko‘p o‘tmay, maktab o‘quvchilari uchun shunga o‘xshash tizimlar Kanada va yangi Zelandiyada qo‘llanila boshlandi. 1939 yilda Frantsiyada maktabga bora olmaydigan bolalarni o‘qitish uchun hozirgi kunda mavjud bo‘lgan va Evropadagi eng yirik masofaviy ta'lim muassasasi bo‘lgan davlat masofaviy ta'lim markazi (Centre National d'enseignement A Distance, CNED) tashkil etildi. 1946 yilda Janubiy Afrika universiteti (Unisa) masofaviy ta'lim shakllariga o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, shuningdek, axborot-kommunikatsiya

texnologiyalari imkoniyatlaridan sohada samarali foydalanish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:[1.1.]

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida talabning turar joyidan qat'i nazar, unga ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun imkoniyat taqdim etish;

masofaviy ta'lim shakli joriy etish mumkin bo'lmagan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilash;

masofaviy ta'lim bo'yicha qabul parametrlarini davlat oliy ta'lim muassasalarida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi bilan kelishilgan holda bo'ysunuv bo'yicha tegishli vazirlik (idora), moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta'lim muassasalarida tegishli oliy ta'lim muassasasining Kuzatuv kengashi, nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida nodavlat oliy ta'lim tashkiloti muassasi tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlash hamda ta'lim jarayonini to'lov-kontrakt asosida amalga oshirish;

masofaviy ta'limni maxsus platforma yordamida yoki mavjud platformalardan foydalangan holda tashkil etish;

masofaviy ta'limda bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan talabalar soni nisbatining cheklangan normativlarini 1:50 nisbatda belgilash;

masofaviy ta'lim bo'yicha o'quv jarayonini davlat ta'lim standarti, kasbiy standartlar va malaka talablari asosida ishlab chiqilgan o'quv rejalari hamda o'quv dasturlari asosida amalga oshirish;

masofaviy ta'limga talabalarni qabul qilish va o'quv jarayonini tashkil qilish tartibini belgilash, shuningdek, masofaviy ta'lim sifati monitoringini tashkil etish.

Mazkur ta'lim tizimidan ko'zlangan maqsad sifatli masofaviy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish hamda ta'lim samaradorligini oshirishdan iborat.

Ma'nosi bo'yicha masofaviy ta'lim qaysidir ma'noda sirtqi ta'lim shakliga o'xshaydi. Asosiy farq shundaki, asosiy asos Internet texnologiyasidir, bu o'qituvchiga tezlashtirilgan rejimda talaba bilan aloqa o'rnatishga imkon beradi. Muloqot bir necha oyga cho'zilmaydi – sessiyadan sessiyaga, lekin bir necha daqiqagacha qisqaradi. Masofaviy o'qitish (oldin) — ta'lim jarayonida talabalar va o'qituvchilar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilmasdan (sinxron va asenkron shaklda bo'lishi mumkin) talab qilinadigan ma'lumotlarning asosiy qismini o'zlashtirish imkoniyatini beradigan telekommunikatsiya texnologiyalari to'plamidan foydalangan holda ta'lim jarayoni. mustaqil ta'lim shakli va boshqa an'anaviy shaklga qo'shimcha bo'lishi mumkin o'qitish (kunduzgi, sirtqi, sirtqi yoki tashqi), agar kerak bo'lsa, odamga o'quv kursini o'rganish imkoniyatini beradi, o'ziga tanish bo'lgan turmush tarzini o'zgartirmasdan, o'zi talab qiladigan fanlar bo'yicha qayta tayyorlash yoki malaka oshirish[2.1.].

XX-asrning boshlari jadal texnologik o'sish, telegraf va telefon mavjudligi bilan ajralib turadi. Ammo ularni o'qitishda qo'llash to'g'risida ishonchli dalillar yo'q. Shu bilan birga, "korrespondentlik ta'limi" davri davom etmoqda, butun dunyo bo'ylab ko'plab universitetlar uni boshqargan va olib bormoqda. Radio va televizorning paydo bo'lishi masofaviy o'qitish usullariga o'zgartirishlar kiritdi. Bu muhim yutuq edi, o'quv auditoriyasi yuzlab marta o'sdi. Ko'pchilik hali ham 50-yillardan beri davom etayotgan o'quv teleko'rsatuvlarini eslashadi. Biroq, televidenie va radioda sezilarli kamchilik bor edi — talaba fikr-mulohaza olish imkoniyatiga ega emas edi.

1969 yilda Buyuk Britaniyada dunyodagi birinchi masofaviy ta'lim universiteti — Buyuk Britaniyaning ochiq universiteti ochildi, u arzonligi va tez-tez sinf darslariga qatnashishning hojati yo'qligi sababli uning mavjudligini ko'rsatish uchun nomlangan.

Chet elda masofaviy ta'lim dasturlariga ega bo'lgan boshqa taniqli universitetlar: Janubiy Afrika universiteti (1946), Xagendagi FernUniversität (Germaniya, 1974), milliy texnologiya universiteti (AQSh, 1984) (muhandislik bo'yicha dasturlar), Xagen ochiq universiteti (Germaniya), INTEC-Keyptaun kolleji (Janubiy Afrika), Ispaniya milliy universiteti masofaviy ta'lim universiteti, Britaniya ochiq universiteti ochiq biznes maktabi, Avstraliya hududiy axborot tarmog'i.

1980-yillarning oxirida shaxsiy kompyuterlarning mavjudligi o'rganishni soddalashtirish va avtomatlashtirish bilan bog'liq yangi umidni berdi. Kompyuter o'quv dasturlari birinchi kompyuterlarda turli xil o'yinlar ko'rinishida paydo bo'ldi. 1988 yilda sovet-Amerika loyihasi "maktab elektron pochta" amalga oshirildi. 1990-yillarda sun'iy yo'ldosh masofaviy o'qitish texnologiyalarining kashshoflari xalqaro bilimlar assotsiatsiyasi va uning kollektiv a'zosi bo'lgan zamonaviy gumanitar akademiya.

Masofaviy o'qitish-o'qituvchi va talabalarning masofadan turib o'zaro ta'siri, o'quv jarayoniga xos bo'lgan barcha tarkibiy qismlarni (maqsadlar, mazmun, usullar, tashkiliy shakllar, o'quv vositalari) aks ettiradi va Internet texnologiyalarining o'ziga xos vositalari yoki interaktivlikni ta'minlaydigan boshqa vositalar bilan amalga oshiriladi. Dunyoda masofaviy o'qitish metodikasi uzoq vaqtdan beri ishlab chiqilgan; u bitta va afsuski va ehtimol xayriyatki, u musiqiy ta'limda juda cheklangan miqyosda qo'llaniladi. Ushbu bosqichda bunday ma'lumot har qanday talaba uchun mavjud bo'lishi muhim bo'lib tuyuladi, shunda u uni mustaqil ravishda chiqarib olishi va o'z xohishiga ko'ra tasarruf qilishi mumkin. Buning uchun musiqiy kurs mavjud ta'lim standartlari reestriga kiritilgan informatika. Masofaviy o'qitish metodologiyasiga kelsak, u boshqa har qanday o'qitish metodikasi singari, agar unga haqiqiy ehtiyoj paydo bo'lsa, aniq o'quv fanlarini olib boradigan bo'limlar va o'qituvchilar tomonidan ishlab chiqilishi kerak, chunki ular faqat ularning o'ziga xos xususiyatlarini tushunishadi.

Har qanday mavzuni o'rganish bolalar tomonidan turli vazifalarni bajarmasdan to'liq bo'lmaydi. Musiqa darslari bundan mustasno emas. Bolaga topshiriqni bajarishi kerak bo'lgan vazifalar va materiallar endi virtual makonda joylashtirilgan. Musiqiy va pedagogik ta'lim muassasasida o'qituvchi-musiqachini o'qitish jarayoni, shuningdek uning keyingi kasbiy faoliyati, qoida tariqasida, ijodiy loyihalar bilan to'ldiriladi (ijro faoliyati, darslarni ishlab chiqish va o'tkazish, musiqiy asarlar yaratish, talabalarning ijodiy loyihalarida ishtirok etish va boshqalar). Shuning uchun o'qituvchi-musiqachining o'quv jarayonida (o'qitishning barcha bosqichlarida) zamonaviy yuqori texnologiyali vositalardan foydalangan holda ijodiy loyiha faoliyatini qo'llash tabiiy va maqsadga muvofiqdir, shuningdek, yuqori texnologiyali masofaviy ta'lim muhitining ishlashi sharoitida ijodiy ta'limni amalga oshirishga qaratilgan o'qituvchi-musiqachilarni masofadan o'qitish metodologiyasini ishlab chiqish zarurati (masalan, Moodle masofaviy o'qitish tizimi).

Yuqori sifatli va tezkor Internet aloqasi deganda aynan nimalar ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Barqaror signalni ta'minlash kerak, uzilishsiz va video signalni uzatish va qabul qilish uchun etarli tezlik. Proвайderingiz sizga kerakli texnik shartlarni taqdim etishiga oldindan ishonch hosil qilish uchun dasturlarni sinab ko'rishga imkon beradigan maxsus dasturlar mavjud. Ammo sizning provayderingiz shaxsan mos bo'lsa ham, siz ikkinchi tomonni tekshirishingiz kerak. Eng maqbul narsa – darsdan oldin, siz bir necha kun ichida talabangiz bilan Skype orqali qo'ng'iroq qilishingiz va aloqaning qanchalik yaxshi ishlashini tekshirishingiz, internetga ulanishimiz va talabangiz ulanishi darsni o'tkazish uchun etarli tezlikni ta'minlashiga ishonch hosil qilishingiz mumkin.

Skype (Skype) – bu video qo‘ng‘iroqlarni o‘rnatishga imkon beradigan eng mashhur dastur. Boshqa dasturlar ham bor, lekin men buni faqat oddiy Internet foydalanuvchisiga eng keng tarqalgan va tanish deb bilaman.

“Muzinform” Dasturni o‘rnatish va undan foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar Yuklab olingan arxivni oching. Barcha uch modul o‘rnatish uchun dasturning, galma - gal fayllarni ishlatish:

- Gugurtkuchli (diatonik intervallar)
- Fretning asosiy triadlari va ularning murojaatlari)
- Sariqsuv (tritonlar va xarakterli intervallar)

Ish stolida ushbu nomlar bilan uchta yorliq paydo bo‘ladi.

Dasturning uchta modulidan birini ishga tushiring va

yekranda dastur so‘rovi paydo bo‘ladi:



"Ishga tushirish" tugmachasini, so‘ng "Mundarija" tugmasini bosning. Ekranda mavjud mashqlar ro‘yxati ko‘rsatiladi. Kerakli mashqni tanlang. Javob variantlari sohasida quyidagilar paydo bo‘ladi to‘g‘ri javobni ko‘rsatish uchun foydalanadigan" kublar".



Tonik uchlik eshitiladi, keyin vazifa.

Interval yoki akkordni (funktsiyani) quloq bilan aniqlagandan so‘ng, siz quyidagilarni qilishingiz kerak

quyidagi usullardan biri bilan javob variantini tanlang:

- sichqonchani chap tugmachasini ikki marta bosning
- tegishli "kub";
- joriy javobni joylashtirish uchun kubni joyiga " torting vazifa.

To‘g‘ri javobni tanlashdan oldin siz ovozni tinglashingiz mumkin interval yoki akkord (topshiriq bilan taqqoslash uchun). Buning uchun oldin sichqonchani ikki marta bosish yoki "kub" ni sudrab olib tashlash kerak sichqoncha kursori mo‘ljallangan to‘g‘ri javob uchun va qilmang hech qanday harakat yo‘q - "kub" tarkibini ijro etish boshlanadi. Agar kerak bo‘lsa, vazifani takrorlashni takrorlashingiz mumkin (agar mashqda ruxsat berilgan bo‘lsa), mos keladiganidan foydalanib tugma.

Sozlash akkordini qayta ijro etish mumkin (tonik uchlik) yuqoridagi ijro etish tugmachasini bosish orqali

Chapdagi klaviatura. Mashqlarning barcha vazifalarini bajargandan so‘ng, ekranda paydo bo‘ladi

to‘g‘ri javoblar soni va topshiriqlarning umumiy soni haqida ma'lumot.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.O‘.2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori. www.lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni. www.lex.uz.
4. Musurmonova O. Yuqori sinf o‘quvchilari ma’naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari: - Ped. fan. dok. ... yozilgan diss. – T.: 1993. – 364 b.
5. Vetlugina N.A. Razvitie muzykalnykh sposobnostey doshkolnikov v protsesse muzykalnykh igr. M.: APN, 1988g., -247str.
6. Mamirov Q. Musiqa vositasida yoshlarni axloqiy-estetik ma’naviyat ruhida tarbiyalash //Musiqliy ta’lim va ma’naviyat. Resp. Ilmiy-nazariy konf.mat.to‘plami. – T.: Nizomiy nom. TDPU, 1998. – 3-5- b.

MUSIQA TA’LIMI VA TARBIYASIDA O‘ZBEK MUMTOZ MUSIQASI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH

*Fayzullayev Ermat Majidovich, Abdulla Qodiriy nimidagi
Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti dotsenti v/b, p.f.n.*

Annotatsiya: Ushbu maqola mazmunida uzluksiz ta’lim tizimining turli bosqichlarida faoliyat yuritayotgan ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislariga o‘zbek mumtoz musiqasi, jumladan, maqomlarga oid nazariy va amaliy bilimlarni berish borasidagi tajribalarni o‘rganishga e’tibor qaratildi. Musiqliy tarbiyaning o‘ziga xos jihatlari yuzasidan tahliliy mulohazalar bildirildi.

Kalitli so‘zlar: musiqa, musiqa tarbiyasi, estetik tarbiya, maqom, mumtoz ashula, an’anaviy qo‘shiqchilik, tadqiqod, tarbiya, nola, qochirim, bezak, badiiy did, badiiy-axloqiy madaniyat, musiqa madaniyati.

Musiqa san’ati estetik tarbiyaning muhim omili sifatida shaxs shakllanishiga kuchli ta’sir etadi. Oilada, bog‘chada, maktabda musiqa mashg‘ulotlarini maqsadga muvofiq tarzda uyushtirish, yosh avlodning ichki dunyosini boyitish va san’atni to‘g‘ri tushunishdagi samarali yo‘ldir.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning sa’yi harakatlari bilan “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha” “Harakatlar strategiyasi”ni hayotga tadbiq etish lozimligi zamon talabi bo‘lib qolmoqda. Mazkur “Harakatlar strategiyasi” har birimizdan harakat va mas’uliyatni talab qiladi! Shundan kelib chiqqan holda “Harakatlar strategiyasi”ning maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirishdan, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal

rivojlanishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishdan, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iboratdir.⁴

Musiqqa tarbiyasi estetik tarbiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Inson shaxsini shakllantiruvchi yetakchi omillardan biri ta'lim-tarbiyadir. Estetik tarbiya esa uning tarkibiy qismi sifatida go'zallikning mohiyati, estetik va axloqiy hissiyotlarning birligi, san'atning xalqchilligi to'g'risidagi ta'limotga suyanib, o'quvchilarning ob'ektiv dunyo haqidagi bilimini kengaytiradi va chuqurlashtiradi, ijodiy qobiliyatini va iste'dodini o'stiradi hamda ularda yuksak ma'naviy fazilatlarining tarkib topishiga yordam beradi.

Odatda, estetik tarbiyaning maqsadi bolalarda estetik his-tuyg'u va fikrlarni rivojlantirish, go'zallikni ko'ra bilish va ulardan zavqlana olishdan iborat, deb tushuniladi. Aslida estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari bu bilan chegaralanib qolmaydi, o'quvchilarni go'zallik va xunuklikni, yuksaklik va tubanlikni, shodlik, kulfatni anglash va ko'ra bilishga o'rgatadi.

Musiqqa inson his-tuyg'ularini, orzu-umidlarini, xohish-istaklarini o'ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va kishining his-tuyg'ulariga faol ta'sir etadi.

Musiqqa ham fan, ham san'atdir. U fizika va matematikaga asoslanadi, bu fanlar musiqani fanga aylantiradi. Lekin musiqqa asariga shu fanning turg'un tushunchasi sifatida qarab bo'lmaydi. Chunki musiqqa har doim rivojlanib turuvchi jonli san'atdir. Musiqqa san'ati inson hayotining ilk yillaridanoq uning hamrohiga aylanib, umumiy madaniy rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shadi. Musiqqa inson umrining doimiy yo'ldoshi. Olim Stendalning aytishiga ko'ra, musiqqa - san'at turlari ichida insonning yuragiga chuqur kirib, uning ichki kechinmalarini aks ettirishga qodirdir.

“Musiqqa san'atning ifodali turi tizimiga kiradi. Musiqqa ham voqea-hodisalarni ifodali aks ettiradi. Ammo u me'morchilikdagi kabi fazo va moddiy ashyo o'lchovlari bilan belgilanmaydi. Musiqqa ko'rish orqali emas, balki eshitish vositasida idrok etiladi. Musiqqa mavzui o'z xususiyatiga ega bo'lib, inson va voqelikdagi barcha tomonlarni qamrab ololmaganligi uchun, eng avvalo, inson ichki ma'naviy dunyosini, uning tuyg'u va kayfiyatini ifodalaydi... musiqqa voqelikning his-tuyg'uli qiyofasini yaratadi”.

Musiqqa “til”i barcha qismlarning uzviy birligini, asar shaklini ifodalaydi.

Shakl - musiqqa mazmunining moddiy ifodasidir. Bastakor fikri, tuyg'ulari, tasavvurlari eshituvchilarga musiqiy shakl orqali yetib boradi.

Albatta musiqqa shaxsni shakllantirishning, uning ijobiy fazilatlarining yo'nalishlarini o'z-o'zidan belgilab bermaydi.

Tarbiyaviy ta'sirning eng muhim tomonlari musiqiy asarning g'oyaviy mazmuniga bog'liqdir. Ana shu bilan musiqiy-estetik tarbiyaning vazifalari belgilanadi. Mashxur polyak kompozitori K.Shimanovskiy o'zining “Jamiyatda musiqaning tarbiyaviy ahamiyati” nomli maqolasida, musiqaning tabiiy kuchi haqida gapirar ekan, uning ikki qarama-qarshi yo'nalishda - yaratish va buzish uchun ishlatish mumkinligini – “kerakli ishga yo'naltirgan holda, tez oqar daryoning suvlaridan foydalanib, foydali va unumli ishlar uchun, ya'ni tegirmonni aylantirish uchun ishlatgandek, musiqqa kuchidan ham unumli foydalanish kerak”, - degan.⁵

Musiqaning insonga ta'siri, shaxsning va jamiyating ruhiy hayotidagi o'rni kompleks muammo hisoblanadi. Ushbu murakkablik va serqirralik fanga darrov kelmadi. Shu o'rinda

⁴ Sh.M.Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.O'. 2017.

⁵ Ветлугина Н.А. Развитие музыкальных способностей дошкольников в процессе музыкальных игр. М.: АПН, 1988г., -247стр.

Asafevning "...musiqa - bu ham san'at, ham fan, ham til, ham o'yin" - degan so'zlarini eslash maqsadga muvofiqdir.⁶

Birinchi prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganlaridek, – "Ta'lim jarayonini isloh etish va mehnat bozorida talab qilinadigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashda Oliy o'quv yurtlari muhim o'rin egallaydi". Bu fikr bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlashga ham daxldordir.

Jumladan, bo'lajak musiqa o'qituvchilari tomonidan o'quv dasturlariga muvofiq o'rganilishi lozim bo'lgan maqom sho'balari tahlil qiladigan bo'lsak, ular "Sarahbor", ya'ni vazmin aytiluvchi keng diapozonli sho'balardan boshlanib turlicha kayfiyatdagi taronalar bilan davom etadi. Ta'lim jarayonida, shuningdek, insonni ulug'lovchi, unga kuch-quvvat bag'ishlovchi, unda lirik kechinmalarni uyg'otuvchi xarakterli sho'balari ham o'rganiladi. Maqomlar odatda raqsboq, quvnoq kayfiyatli uforlar bilan yakunlanadi. Maqom yo'lidagi xalq qo'shiqlari inson ruhiyatida kechayotgan turli kayfiyatlarga mos holda yaratilgan.

Maqomlarning inson ruhiyatida kechadigan psixologik holatlarga muvofiqqligini nazarda tutgan holda har bir sho'ba va xalq ashulalarini o'rganishdan oldin talabalarda o'rganilishi nazarda tutilayotgan qo'shiqqa mos kayfiyatni yuzaga keltirish maqsadga muvofiqdir.

O'quv dasturi bo'yicha talabalar bilan o'rganilishi uchun zarur bo'lgan musiqiy asarlarning salmoqli qismini maqom sho'balari va mumtoz xalq qo'shiqlari tashkil qiladi. Ularni o'rganish jarayonida talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlar - bosiqlik, jiddiylik, mulohazalilik, did va farosatni shakllantiradi. Shuningdek, mavjud vaziyatga muvofiq o'zida quvnoq kayfiyatni hosil qila olish, biroq bachkanalikdan yiroqlashish ko'nikmalarini hosil qiladi.

Jamoa bilan ishlashda faqat mumtoz ashulalarni bilishning o'zigina kifoya qilmaydi. Balki jamoaning ovoz imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish mumtoz ashulalarning mahorat bilan ijro etilishini ta'minlabgina qolmay, ularning jozibadorligini ham oshiradi. Bu holatni shaxsan men yuz kishilik xor jamoasi bilan ishlash chog'ida yaqqol his etaman.

Mashg'ulotlar jarayonida mumtoz asarlarni o'rganishda mashhur hofizlarning ijro uslublari, ular tomonidan ishlatilgan nola, qochirimlar bilan yaqindan tanishish ularning tajribalarini o'rganish asosida talabalarning tabiatlariga mos uslubni tanlashga yordam berish zarur. Ana shu maqsadda taniqli hofizlar - Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Halim Ibodov, Mulla To'ychi Toshmuhamedov, Matchan Xudoyberganov, Muhiddin Qori Yoqubov, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Tavakkal Qodirov, Komiljon Otaniyozov, Fattohxon Mamadaliev, Orifxon Hotamov, Eson Lutfullaev, Orif Alimahsumov, Berta Davidova, Kommuna Ismoilova, O'lmas Saidjonov, Ma'murjon To'xtasinov, Munajat Yo'licheva, Nasiba Sattorova va boshkalarining ovozlari yozilgan magnit tasmalarini talabalar ishtirokida tinglash, ularni milliy an'nalardan samarali foydalana olishga o'rgatish, musiqa ta'limi metodikasi oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi. Tabiiyki, bu muammolarning har biri alohida ta'rif va yo'l-yo'riq berishni talab qiladi.⁷

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini pedagogik amaliyotga tayyorlashda ham ular tomonidan mumtoz qo'shiqlarning puxta o'rganilishi muhim ahamiyatga ega. Zero, mumtoz asarlar ta'sirchan kuchga ega bo'lishi bilan birga ularda xalqona ruh mavjud bo'lib, nafaqat talabalarni, shu bilan birga o'quvchilarni ham milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularda asrlar davomida

⁶ Soipova D. Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish. T.:Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2005 y., -84 bet.

⁷ Fayzullaev E.M. Bo'lajak musiqa o'qituvchilari badiiy didini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari (o'zbek mumtoz musiqasi misolida). Ped.fan.nomz... dissertatsiyasi. TDPU. T.: 2010y

e'zozlanib kelingan ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Mumtoz qo'shiqlar yashovchanligining sababi ham ularning xalq didiga mosligi, xalq tomonidan tan olinganligidir.

Shuningdek, ularning mazmunan va musiqiy jihatdan mukammalligi, g'oyaviyligi barcha yoshdagi kishilar e'tiborini o'ziga torta oladi. Milliy mumtoz qo'shiqlarning umrboqiyiligini ta'minlovchi omillardan yana biri - har qanday zamon va makonda ham insonlarning ma'naviy ehtiyojini to'la qondira olganligi bo'lib, ana shu jihati bilan bugungi kunda ham yuqori badiiy qiymatga ega.

O'quvchilarning musiqiy bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan bu talablar mohiyatini mantiqan tahlil qilish natijasida shunday xulosaga kelish mumkin, birinchidan, ularda milliy mumtoz musiqani o'rganishga bo'lgan e'tibor o'z ifodasini topgan; ikkinchidan, ularning asosida o'quvchilarda yuksak badiiy didni shakllantirish imkoniyatlari inobatga olinadi.

Musiqiy ta'limning samarali tashkil etilishi natijasida o'quvchilarda mumtoz musiqiy asarlariga to'g'ri baho berish, yuqori badiiy saviyaga ega qo'shiqlardan mazmuni sayoz asarlarni ajrata olish hamda mumtoz qo'shiqlarga ob'ektiv baho bera olish ko'nikmalarining shakllanishiga imkon yaratadi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining amaliyotini o'rganish, o'quv dasturlari va darsliklar bilan tanishish bo'lajak musiqa o'qituvchilarini 1-7-sinflarda "Musiqi madaniyati" darslarida o'rganilishi zarur bo'lgan o'zbek mumtoz kuylaridan xabardor qilish, ijro uslublarining o'zlashtirishlariga erishish zarur ekanligini tasdiqladi. Tahlillar natijasida talabalarning quyidagi o'zbek mumtoz kuylari bo'yicha nazariy bilim hamda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim degan xulosaga kelindi (jadvalga qarang).

Bo'lajak musiqa o'qituvchilari tomonidan o'zlashtirishlari zarur bo'lgan milliy mumtoz kuylar

№	Kuy nomlari	Bastakorlarning ismi va familiyasi
I sinf		
1.	Dilxiroj	O'zbek xalq kuyi
2.	Yangi tanovor	M.Mirzaev musiqasi
3.	Dutor bayoti	O'zbek xalq kuyi
4.	Bahor vals	M.Mirzaev musiqasi
II sinf		
1.	Oromijon	O'zbek xalq kuyi
2.	Qari navo	O'zbek xalq kuyi
3.	Norim-norim	Xorazm xalq kuyi
4.	Qashqarcha	O'zbek xalq kuyi
III sinf		
1.	Roxat	O'zbek xalq kuyi
2.	Jonon	M.Mirzaev musiqasi
3.	Farg'onacha tanovar	O'zbek xalq kuyi
4.	Lazgi	Xorazm xalq kuyi
IV sinf		
1.	Qalbimda	S.Jalil musiqasi
2.	Andijon polkasi	O'zbek xalq kuyi
3.	Ajam taronalari	O'zbek xalq kuyi
4.	Surnay navosi	O'zbek xalq kuyi

V sinf		
1.	O'zgancha	O'zbek xalq kuyi
2.	Munojot	O'zbek xalq kuyi
3.	Gulbahor va tanovar	O'zbek xalq kuyi
4.	Ko'rmadim	D.Zokirov musiqasi
VI sinf		
1.	Gulzorim	Hoji Adulaziz Abdurasulov musiqasi
2.	Bozurgoniy	Hoji Adulaziz Abdurasulov musiqasi
3.	Sayqal	O'zbek xalq kuyi
4.	Feruz -1	Xorazm xalq qo'shig'i
VII sinf		
1.	Savti suvora	Xorazm maqomlaridan
2.	Nasrullo -1	Buzruk maqomidan
3.	Samarqand ushshog'i	O'zbek xalq ashulasi
4.	Cho'li iroq	Xalq kuyi

Birinchi sinfdan yettinchi sinfgacha bo'lgan davrda o'quvchilar har bir sinfdan o'quv yilining har choragida bittadan mumtoz kuyini tinglatish orqali jami 28 ta musiqiy asar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida o'quvchilarda asosan tinglatish orqali o'zlashtirilishi mumkin bo'lgan musiqiy asarlar tanlanib, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining ular to'g'risida nazariy ma'lumotlarga ega bo'lishlariga e'tibor qaratildi. Shu bilan birga ularda mumtoz qo'shiqlardan namunalar ijro eta olish ko'nikmalarini shakllantirish ham maqsadga muvofiq deb topildi. Jumladan, "Dugoh Husayn", "Ko'rmadim", "Ey, nozanin", "Roq" va uning "Ufor"lari, "Soqinomai savti kalon", "Bayoti Sheroziy" va boshqa u qadar murakkab bo'lmagan sho'balarni ijro eta oluvchi o'qituvchilar ularni o'quvchilarga ham samarali o'rgata oladilar.

O'quvchilarni mumtoz kuy-qo'shiqlar bilan tanishtirishda quyidagi shakl va metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi:

1. O'rganish uchun tanlab olingan ayrim kuylarni magnit tasmlari yordamida tinglatish.
2. Musiqa fani o'qituvchisining o'zi tomonidan cholg'u asboblari yordamida ijro etib ko'rsatish.
3. Taniqli sozandalarni taklif etish orqali ular bilan uchrashuv tashkil qilish vaqtida o'rganilishi ko'zda tutilgan kuy mohiyati bilan tanishish.
4. Musiqa to'garagining a'zosi bo'lgan o'quvchilar ijrosida o'rganilayotgan mumtoz kuyini tinglash.⁸

Kuzatishlarning ko'rsatishicha, jonli ijro o'quvchilar ruhiyatiga yanada ijodiy ta'sir etadi. Shu sababli mumtoz kuy-qo'shiqlarni jonli ijroda tinglash musiqa fani o'qituvchisining diqqat-e'tiborida bo'lishi zarur.

O'quvchilarda ham asarlarni o'rganish vaqtida ularning mazmunini tahlil qilish, nola, qochirim va boshqa bezaklarni anglash kabi ko'nikmalarning bosqichma-bosqich shakllantirilib borilishi maqsadga muvofiqdir. Zero, musiqa yosh avlodning ma'naviy, badiiy-

⁸ Fayzullaev E.M. "Bo'lajak musiqa o'qituvchilari badiiy didini shakllantirishda o'zbek mumtoz musiqasi imkoniyatlaridan foydalanish". (metodik qo'llanma). Toshkent – 2008.

axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'ururi va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, fikr doirasini kengaytirishga, ijodiy mahorati va badiiy didi o'sishiga, mustaqilligi va tashabbuskorligini tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.O'.2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli qarori. www.lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni. www.lex.uz.
4. Musurmonova O. Yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari: - Ped. fan. dok. ... yozilgan diss. – T.: 1993. – 364 b.
5. Vetlugina N.A. Razvitie muzykalnykh sposobnostey doskolnikov v protsesse muzykalnykh igr. M.: APN, 1988g., -247str.
6. Mamirov Q. Musiqa vositasida yoshlarni axloqiy-estetik ma'naviyat ruhida tarbiyalash //Musiqa ta'lim va ma'naviyat. Resp. Ilmiy-nazariy konf.mat.to'plami. – T.: Nizomiy nom. TDPU, 1998. – 3-5- b.
7. Xalilov F.N. Didakticheskie osnovy instrumentalno-ispolnitelskoy podgotovki budущix uchiteley muzyki: Avtoref.diss. ... dokt.ped.nauk. – T.: 2006. – 48 s.
8. Toshtemirov N.B. Uzbekskoe narodnoe pesennoe tvorchestvo Djizakskoy oblasti: Avtoref.diss. ... kand.iskuss. – T.: 1993. – 18 s.
9. Soipova D. Musiqa-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish. T.: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2005 y., -84 bet.
10. Kiyamov N.S. Musiqa darslarida o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirish yo'llari // Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa fanlarini o'qitish masalasi: Respublika ilmiy-amaliy materiallari to'plami. Musiqa yo'nalishi. – Toshkent, 2009. – B. 142-144.
11. Fayzullayev E.M. Bo'lajak musiqa o'qituvchilari badiiy didini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari (o'zbek mumtoz musiqasi misolida). Ped.fan.nomz... dissertatsiyasi. TDPU. T.: 2010y.

MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA JAHON KLASSIK KOMPOZITORLARI IJODIYOTI BILAN TANISHTIRISH METODLARI

Fayzullayev Ermat Majidovich,

Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti dotsenti v/b, p.f.n.

Qahorova Madina Komil qizi, Jizzax DPU 2-kurs magistri.

Annotasiya. Maqola mazmunida klassik kompozitorlar va ularning asarlari, dunyoning buyuk bastakorlari haqidagi fikr-mulohazalar bildiriladi.

Kalit so'zlari. klassik musiqa, kompozitorlar, yevropa madaniyati, bolalar klassikasi.

Klassik musiqa nima. Klassik musiqa - haqli ravishda mumtoz kompozitorlar deb atalgan iste'dodli mualliflar tomonidan yaratilgan maftunkor kuylardir. Ularning asarlari o'ziga xos bo'lib, ijrochilar va tinglovchilar tomonidan doimo talabga ega bo'ladi. Bir tomondan, klassik

musiqa odatda yoʻnalishlarga mansub boʻlmagan qattiqqoʻl, chuqur ma'noli musiqa deyiladi: rok, jazz, folk, estrada, shanson va boshqalar.. Boshqa tomondan, musiqa tarixiy rivojlanishida bir davr bor. XIII asr oxiri - XX asr boshlarida klassitsizm deb ataladi.

Klassik mavzular yuksak intonatsiya, nafasat, rang-baranglik va uygʻunlik bilan ajralib turadi. Ular kattalar va bolalarning hissiy dunyoqarashiga ijobiy ta'sir koʻrsatadi.

Klassik musiqa rivojlanish bosqichlari. Ularning qisqacha tavsifi va asosiy vakillari



Klassik musiqa rivojlanish tarixida quyidagi bosqichlarni ajratish mumkin:

- Uygʻonish yoki Uygʻonish - 14-asr boshlari - 16-asrning oxirgi choragi. Ispaniya va Angliyada Uygʻonish davri 17-asr boshlarigacha davom etdi.

- Barokko - Uygʻonish davri oʻrniga kelgan va 18-asr boshlarigacha davom etgan. Uslubning markazi Ispaniya edi.

- Klassizm - Yevropa madaniyatining 18-asr boshidan 19-asr boshlarigacha boʻlgan rivojlanish davri.

- Romantizm klassitsizmga qarama-qarshi yoʻnalishdir. Bu 19-asrning oʻrtalarigacha davom etdi.

- 20-asr klassikasi - zamonaviy davr.

Madaniy davrlarning qisqacha tavsifi va asosiy vakillari

1. Uygʻonish davri - madaniyatning barcha sohalarida rivojlanishining uzoq davri. - Tomass Tallis, Jovanni da Palestina, T.L.de Viktoriya bastalagan va avlodlarga oʻlmas asarlar qoldirgan.

2. Barokko - bu davrda yangi musiqiy shakllar paydo boʻladi: polifoniya, opera. Aynan shu davrda Bax, Handel, Vivaldi oʻzlarining mashhur ijodlarini yaratdilar. Bax fugalari klassitsizm talablariga muvofiq qurilgan: kanonlarga majburiy rioya qilish.

3. Klassizm. Klassizm davrida oʻzining oʻlmas ijodini yaratgan Vena klassik kompozitorlari: Gaydn, Motsart, Betxoven. Sonata shakli paydo boʻladi, orkestr tarkibi kuchayadi. va Gydn Baxning ogʻir kompozitsiyalaridan ohanglarning sodda tuzilishi va nafisligi bilan ajralib turadi. Bu hali ham mukammallikka intilayotgan klassik edi. Betxoven asarlari romantik va klassik uslublar oʻrtasidagi aloqaning jihatidir. L. van Betxoven musiqasida ratsional kanondan koʻra koʻproq shahvoniylik va shijoat bor. Simfoniya, sonata, syuita, opera kabi muhim janrlar ajralib turdi. Betxoven romantik davrni keltirib chiqardi.

4. Romantizm. Musiqiy kompozitsiyalar rang va drama bilan ajralib turadi. Har xil qo'shiq janrlari shakllanadi, masalan, balladalar. List va Shopin tomonidan pianino uchun yaratilgan kompozitsiyalar tan olindi. Romantizm an'analari Chaykovskiy, Vagner, Shubert tomonidan meros bo'lib o'tgan.

5. XX asr klassikasi - mualliflarning ohangda yangilik kiritish istagi bilan ajralib turadi, aleatorik, atonalizm atamaları paydo bo'ldi. Stravinskiy, Raxmaninov, Glass asarlari klassik formatga tegishli.

Rus klassik bastakorlari

Chaykovskiy P.I. - rus bastakori, musiqa tanqidchisi, jamoat arbobi, o'qituvchi, dirijyor. Uning kompozitsiyalari eng ko'p ijro etilgan. Ular samimiy, osongina idrok etiladi, rus qalbining she'riy o'ziga xosligini, rus tabiatining go'zal suratlarini aks ettiradi. Bastakor 6 ta balet, 10 ta opera, yuzdan ortiq romans, 6 ta simfoniya yaratgan. Dunyoga mashhur "Oqqush ko'li" baleti, "Yevgeniy Onegin" operasi, "Bolalar albomi".

Raxmaninov S.V. – atoqli bastakorning asarlari hissiyotli va quvnoq, ayrimlari mazmunan dramatik. Ularning janrlari xilma-xil, kichik spektakllardan tortib, konsert va operalargacha. Muallifning umume'tirof etilgan asarlari: "Baxtsiz ritsar" operalari, Pushkinning "Lo'lilar" she'ri asosidagi "Aleko", Dantening "Ilohiy komediya"sidan olingan syujet asosidagi Francheska da Rimini, "Qo'ng'iroqlar" she'ri; "Simfonik raqslar" syuitasi; pianino konsertlari; pianino jo'rligida ovoz uchun vokalizatsiya.

Borodin A.P. bastakor, o'qituvchi, kimyogar, tabib bo'lgan. Muallifning qariyb 18 yil davomida yozgan "Igor mezbonining yostig'i" tarixiy asari asosida yaratilgan "Knyaz Igor" operasi eng muhim ijoddir. Borodin hayotligida uni oxiriga etkaza olmadi, vafotidan keyin operani A. Glazunov va N. Rimskiy-Korsakovlar yakunladilar. Buyuk bastakor Rossiyadagi klassik kvartet va simfoniyalarning ajdodi hisoblanadi. "Qahramonlik" simfoniyasi jahon va rus milliy-qahramonlik simfoniyasining toji hisoblanadi. I va II instrumental kamera kvartetlari ajoyib deb tan olingan. Qadimgi rus adabiyotining qahramon figuralarini romanslarga birinchi bo'lib kiritganlardan biri.

Buyuk musiqachilar

Mussorgskiy M.P., biz aytishimiz mumkinki, buyuk bastakor-realist, o'tkir ijtimoiy muammolarni ko'rsatadigan dadil novator, zo'r pianinochi va zo'r vokalchi. A.S.ning dramatik asari asosida yaratilgan "Boris Godunov" operasi eng muhim musiqiy asarlardir. Pushkin va "Xovanshchina" - xalq musiqali dramasi, bu operalarda bosh qahramon turli ijtimoiy qatlamlardan bo'lgan isyonkor xalq; Hartmannning asarlaridan ilhomlangan "Ko'rgazmadagi rasmlar" ijodiy tsikli.

Glinka M.I. - taniqli rus bastakori, rus musiqa madaniyatida klassik yo'nalishning asoschisi. U xalq va professional musiqa qadriyatlariga asoslangan rus kompozitorlari maktabini yaratish jarayonini yakunladi. Ustozning asarlari Vatanga muhabbat tuyg'usi bilan sug'orilgan, o'sha tarixiy davr odamlarining g'oyaviy yo'nalishini aks ettiradi. Dunyoga mashhur "Ivan Susanin" xalq dramasi va "Ruslan va Lyudmila" ertak operasi rus operasida yangi yo'nalishga aylandi. Glinkaning "Kamarinskaya" va "Ispan uverturasi" simfonik asarlari rus simfoniyasining asosidir.

Rimskiy-Korsakov N.A. - iste'dodli rus bastakori, dengiz ofitseri, o'qituvchi, publitsist. Uning ijodida ikkita yo'nalishni kuzatish mumkin: tarixiy ("Tsar kelini", "Pskovit ayol") va ajoyib ("Sadko", "Qorqiz", "Scheherazade" syuitasi). Bastakor asarlarining o'ziga xos xususiyati: klassik qadriyatlarga asoslangan o'ziga xoslik, dastlabki asarlarning garmonik

tuzilishidagi omofoniya. Uning asarlarida muallifning imzosi bor: asosiylari bo'lgan g'ayrioddiy tuzilgan vokal partituralari bilan original orkestr echimlari.

Yevropa madaniyati

Mashhur mumtoz bastakorlar Motsart, Gaydn, Betxoven o'sha davr musiqa madaniyati poytaxti - Venada yashagan. Daholarni mohir ijro, mukammal kompozitsion yechimlar, turli musiqiy uslublardan foydalanish: xalq kuylaridan tortib musiqa mavzularining polifonik ishlanmalarigacha birlashtiradi. Buyuk klassika har tomonlama ijodiy fikrlash faoliyati, malakasi, musiqiy shakllarni qurishdagi ravshanligi bilan ajralib turadi. Ularning asarlarida aql va hissiyotlar, fojiali va kulgili komponentlar, yengillik va ehtiyotkorlik uzviy bog'langan.

Betxoven va Gaydn cholg'u kompozitsiyalariga moyil bo'lgan, Motsart ham opera, ham orkestr kompozitsiyalarida mohirlik bilan muvaffaqiyat qozongan. Betxoven qahramonlik asarlarining beqiyos ijodkori edi, Gydn o'z ijodida yumor, xalq janri turlarini qadrlagan va muvaffaqiyatli ishlatgan, Motsart universal bastakor edi. Motsart sonataning instrumental shaklini yaratuvchisidir. Betxoven uni takomillashtirdi, beqiyos cho'qqilarga olib chiqdi. Bu davr kvartetlarning gullab-yashnash davriga aylandi. Bu janr rivojiga Gydn, undan keyin Betxoven va Motsart katta hissa qo'shmoqda.

Italiya ustalari

Juzepe Verdi 19-asrning ajoyib musiqachisi bo'lib, an'anaviy italyan operasini rivojlantirdi. U benuqson hunarmandchilikka ega edi. Uning bastakorlik faoliyatining cho'qqisi "Trubadur", "Traviata", "Otello", "Aida" opera asarlari bo'ldi.

Nikolo Paganini - Nitsa shahrida tug'ilgan, 18-19-asrlarning eng musiqiy qobiliyatli shaxslaridan biri. U virtuoz skripkachi edi. U skripka, gitara, viola va violonchel uchun kaprislar, sonatalar, kvartetlar yaratgan. U skripka va orkestr uchun kontsertlar yozgan.

Gioacchino Rossini - 19-asrda ishlagan. Muqaddas va kamera musiqasi muallifi, 39 ta opera yaratgan. Ko'zga ko'ringan asarlari - "Sevilya sartaroshi", "Otello", "Zolushka", "O'g'ri Magpie", "Semiramida".

Antonio Vivaldi - 18-asr skripka san'atining eng yirik vakillaridan biri. U o'zining eng mashhur asari - 4 ta skripka kontserti "Fasllar" tufayli shuhrat qozondi. U hayratlanarli darajada samarali ijodiy hayot kechirdi, 90 ta opera yaratdi.

Mashhur italyan mumtoz bastakorlari abadiy musiqiy meros qoldirgan. Ularning kantatalari, sonatalari, serenadalari, simfoniyalari, operalari bir necha avlodni quvontiradi.

Bolaning musiqani idrok etish xususiyatlari

Yaxshi musiqa tinglash bolaning psixo-emotsional rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi, deydi bolalar psixologlari. Yaxshi musiqa san'atni tanitadi, o'qituvchilar aytganidek, estetik didni shakllantiradi.

Ko'pgina mashhur asarlar klassik kompozitorlar tomonidan bolalar uchun ularning psixologiyasi, idroki va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, ya'ni tinglash uchun yaratilgan bo'lsa, boshqalari quloqqa oson idrok etiladigan va texnik jihatdan qulay bo'lgan kichik ijrochilar uchun turli xil asarlar yaratgan.

P.I.Chaykovskiyning "Bolalar albomi" kichik pianinochilar uchun. Bu musiqani yaxshi ko'radigan va juda iqtidorli bola bo'lgan jiyaniga bag'ishlangan albom. To'plamda 20 dan ortiq pyesa mavjud bo'lib, ulardan ba'zilar folklor materiallariga asoslangan: Neapolitan motivlari, rus raqsi, Tirol va frantsuz ohanglari. PI Chaykovskiyning "Bolalar qo'shiqlari" to'plami. bolalar auditoriyasi tomonidan eshitish idroki uchun mo'ljallangan. Bahor, qushlar, gullab-yashnayotgan bog' ("Mening bog'im"), Masih va Xudoga rahm-shafqat haqida ("Masihning chaqaloq bilan bog'i bor edi") optimistik kayfiyat qo'shiqlari.

Bolalar klassikasi

Ko‘plab klassik bastakorlar bolalar uchun ishlagan, ularning ro‘yxati juda xilma-xildir.

Prokofyev S.S. "Pyotr va bo‘ri" - bolalar uchun simfonik ertak. Ushbu ertak tufayli bolalar simfonik orkestrning musiqa asboblari bilan tanishadilar. Ertak matnini Prokofyevning o‘zi yozgan.

Shumann R. "Bolalar sahnalari" - bu kattalar ijrochilari uchun yozilgan oddiy syujetli kichik musiqiy hikoyalar, bolalik xotiralari.

Debussining "Bolalar burchagi" pianino uchun velosiped.

Ravel M. Ch. Perro ertaklari asosida "Ona g‘oz".

Bartok B. "Pianoda birinchi qadamlar".

Bolalar uchun velosipedlar S.Gavrilova "Eng kichigi uchun"; "Ertaklar qahramonlari"; "Bolalar hayvonlar haqida". Shostakovich D. "Bolalar uchun pianino qismlari albomi".

Bax I.S. "Anna Magdalena Bax uchun daftar". Farzandlariga musiqa o‘rgatish bilan birga, ularda texnik ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun maxsus sahna ko‘rinishlari va mashqlar yaratgan.

Gaydn J. - klassik simfoniyaning avlodi. "Bolalar" nomli maxsus simfoniya yaratdi. Amaldagi asboblari: loy bulbul, ratchet, kuku - unga g‘ayrioddiy ovoz, bolalarcha va xushchaqchaqlik beradi.

Sen-Saens K. orkestr va 2 ta pianino uchun "Hayvonlar karnavali" deb nomlangan fantaziyaning o‘ylab topdi, unda tovuqlarning qichqirig‘i, sherning bo‘kirishi, filning o‘zboshimchaligi va harakat qilish uslubi, ta'sirchan nafis tasvirni mohirlik bilan etkazdi. musiqa vositalari bilan oqqush.

Bolalar va yoshlar uchun kompozitsiyalarni yaratishda buyuk mumtoz bastakorlar asarning qiziqarli hikoyalari, taklif qilingan materialning mavjudligi, ijrochi yoki tinglovchining yoshini hisobga olgan holda g‘amxo‘rlik qilgan.

17-18-asrlarning oxirlarida. bastakorlar va musiqachilar uzoq vaqt davomida amal qiladigan yangi musiqiy kanonlar paydo bo‘la boshlaydi. Bu asr jahonga jahon madaniy merosiga beqiyos hissa qo‘shgan musiqalarni taqdim etdi. 18-asr bastakorlari quyidagi shaxslar bilan mashhur:

Bu eng buyuk nemis bastakorlaridan biri bo‘lib, uning shaxsiyati va ijodiga qiziqishi vaqt o‘tishi bilan so‘nmaydi, aksincha, ortib bormoqda. Ammo, afsuski, hayoti davomida u tan olinmagan. Ioganning musiqadan boshqa tanlovi yo‘q edi, chunki uning ajdodlari musiqiylik bilan mashhur edi.

Bo‘lajak daho 1685 yilda Eyzenax shahrida tug‘ilgan. U musiqadagi ilk qadamlari uchun skripka chalishni o‘rgatgan otasiga qarzdor. Bax ajoyib ovozga ega edi va shahar maktabining xorida qo‘shiq kuylardi. Uning atrofidagi odamlar bolaning ajoyib musiqachi bo‘lishiga shubha qilishmadi.

Erta etim bo‘lib, 15 yoshida Iogann mustaqil hayotni boshladi. Yosh bastakor tor sharoitda va tez-tez sayohatlarda yashaganiga qaramay, Baxning musiqaga bo‘lgan qiziqishi hech qachon so‘nmagan, u o‘z-o‘zini tarbiyalash orqali musiqa haqidagi bilimini doimiy ravishda kengaytirgan.

Hamma narsada xorijlik musiqachilarga taqlid qilishga uringan bastakor hamkasblaridan farqli o‘laroq, Bax o‘z asarlarida nemis xalq qo‘shiqlari va raqslaridan faol foydalangan. Ammo Iogann nafaqat iste‘dodli bastakor, balki ajoyib organ va klavesin ijrochisi ham edi. Agar u bastakor sifatida tanilgan bo‘lmasa, unda bu asboblarni chalishdagi mahoratini hamma tan oldi.

Ammo saroy jamiyati bastakorning musiqasini yoqtirmadi: u juda yorqin, hissiy, insoniy deb hisoblangan. Ammo uning asarlari jamoatchilik tomonidan rad etilganiga qaramay, u hech qachon ularning didiga moslashmagan. Bax o'zining eng yaxshi musiqiy asarlarini Leyptsigda yozgan, u yerda oilasi bilan ko'chib o'tgan va umrining oxirigacha qolgan. U yerda u kantatalarning ko'pchiligini yaratdi, Sent-Jon Passion, Sent-Metyu Passion, Mass in B minor.

Bastakorning eng katta quvonchi, madadi va madadi uning oilasi edi. O'g'illari ham iste'dodli musiqachilarga aylanishdi va Bax hayotligida shuhrat qozonishdi. Ikkinchi xotini va katta qizining ovozi juda chiroyli edi. Shuning uchun Iogann oilasi uchun musiqiy asarlar yozishni davom ettirdi.

Umrining so'nggi yillarida Baxning ko'rishida jiddiy muammolar paydo bo'ldi va muvaffaqiyatsiz operatsiyadan so'ng u ko'r bo'lib qoldi. Ammo shunga qaramay, u o'z ishini tark etmadi va ularni yozib olish uchun diktatsiya qilib, kompozitsiyalar yaratishda davom etdi. Uning o'limi musiqqa jamoatchiligida deyarli sezilmay qoldi va u tez orada unutildi. Uning musiqasiga qiziqish oradan 100 yil o'tgach, Mendelson rahbarligida uning eng go'zal asarlaridan biri "Sent-Metyu ehtiros"i ijro etilganidan so'ng paydo bo'ldi va shu bilan birga uning musiqiy kompozitsiyalari to'plami nashr etildi.

Musiqqa san'atining bu dahosini zamondoshlari qadrlamagan, uning iste'dodining to'liq quvvati va teranligini anglay olmagan, kuchli va mustaqil xarakteri bilan yomon ko'rishgan, biroq asrlar o'tgandan keyin uning ijodi uning iste'dodi bilan qiziqib, hayratda qolgan. Wolfgang 1756 yil 27 yanvarda tug'ilgan. Uning otasi saroy musiqachisi bo'lib, Motsartning singlisida musiqiy iste'dodni payqab, unga musiqadan dars bera boshlagan.

Bu Wolfgang ishining boshlanishi edi. Bola yoshligida musiqaga ajoyib iste'dod ko'rsatdi: 5-6 yoshida u musiqqa uchun noyob quloq va ajoyib xotiraga ega bo'lgan holda o'zining birinchi musiqiy asarlarini yaratgan. Ota, o'g'lining noyob musiqiy iste'dodi borligini ko'rib, Wolfgang shon-shuhrat qozonishi va saroy musiqachisi bo'lmasligi uchun kontsert gastrollarini boshlashga qaror qiladi.

Ammo hamma bolakayni hayratda qoldirganiga va 12 yoshida uning asarlari mashhur bo'lganiga qaramay, jamiyat yosh musiqachining imkoniyatlarini to'liq baholay olmadi. Shu sababli, gastroldan qaytgach, Wolfgang saroy musiqachisi bo'ldi va o'zi duch kelgan vaziyatdan juda azob chekdi. Ammo uni hurmat qilmagani va noo'rin munosabatda bo'lganiga chidashni istamay, Zalsburgdan Venaga jo'nab ketdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008. - 176 b.
2. Fayziyev K., Nishonov S. "Pedagogika tarixi" (o'quv qo'llanma) T.1996 yil.
3. O.Matyoqubov. "Forobiy Sharq musiqasi asoslari haqida". -T., 1986 yil.
4. B.Ziyomuhamedov. «Ma'rifat asoslari». -T., «O'zbekiston». 1998 yil.
5. O.Musurmonova. «Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi». -T., «O'qituvchi». 1996 yil.
6. Boer B.H van. Historical dictionary of music of the Classical period. Lanham, 2012.
7. Yakubov B.R. "Xorijiy mamlakatlar musiqqa adabiyoti" fanidan ma'ruzalar matni. Farg'ona. 2005-yil
8. Левик Б. История зарубежной музыки. М. 1980
9. Кремлёв.Ю.А. "Й.Гайдн". Очерк жизни и творчества. М.1972. Прохорова И. Музыкальная литература зарубежных стран. М. 1985 г.

MUSIQIY BADIY ASARLAR VOSITASIDA O‘QUVCHILARNING DIQQATI VA XOTIRASINI SHAKLLANTIRISH.

*Haydarova Visola, JDPU Musiqa ta’limi yo‘nalishi 3-kurs talabasi.
Ilmiy rahbar – M.N.Abilov, JDPU Musiqa ta’limi kafedra mudiri*

Anotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarini musiqa darslarida diqqat hamda xotirasini shakllantirish uchun tajribadan o‘tgan usullar va musiqa darslarida qo‘llaniladigan didaktik o‘yinlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: diqqat, xotira, musiqiy xotira, e’tibor, didaktik o‘yinlar.

Bugungi kunda har qanday davlatning rivojlanib borishi xalqining osoyishta hayot kechirishi o‘sha davlat yoshlarining ta’lim tarbiyasi odob-axloqi va kelajagiga beriladigan e’tiboridadir. Xususan O‘zbekistonda ham yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov takidlaganidek **“Farzandlarimiz bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lishlari shart”**, deb maqsadni aniq qo‘ydi.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2017-2021- yillarda O‘zbekiston Respublikasi rivojlanishining beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI loyihasi ishlab chiqildi. 2019-yil mart oyida beshta muhim tashabbus ilgari surildi. Bu tashabbus o‘z ichiga yoshlarni madaniyat san’at va sportga jalb etish ularda zamonaviy axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, xotin qizlar bandligini ta’minlash vazifalarini oladi.

Yoshlar orasida milliy musiqa san’atimizni targ‘ib etishni maqsad qilgan holda bir nechta qarorlar qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 17.11.2017 yildagi O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PQ-3391-son: Mumtoz musiqa merosimiz namunalarini notaga olish, mavjud yozuvlarni takomillashtirish va amaliyotga joriy etish, maqom san’atining ijtimoiy-tarixiy ildizlari, ilmiy-nazariy negizlari, milliy va umumbashariy qadriyatlar bilan bog‘liq jihatlarini yurtimiz olimlari va chet ellik mutaxassislar ishtirokida chuqur o‘rganib, yangi ilmiy tadqiqotlar yaratish;

Maqom san’atining ko‘p asrlik ijro yo‘llarini puxta o‘zlashtirib, ularni yangicha usullar bilan boyitib, yosh avlod vakillariga o‘rgatib kelayotgan maqomchilar, maqomshunos ilmiy-pedagog olimlar va mutaxassislar, Maqom markazi xodimlari faoliyatini moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash;

«Xalqimiz badiiy tafakkurining mahsuli bo‘lgan „Shashmaqom“, ya’ni, olti maqomni, ta’bir joiz bo‘lsa, olti azim daryoga qiyoslash mumkin. Bu daryolar asrlar davomida jahon madaniyat ummoniga quyilib, uni har tomonlama to‘ldirib, boyitib kelmoqda. Shuning uchun ham bu muazzam musiqiy durdoni YUNESKO tomonidan jahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgani chuqur ma’no va ahamiyatga ega, deb o‘ylayman», — dedi prezident o‘z nutqida⁹.

«Agar biz asl, haqiqiy san’atni bilmoqchi, o‘rganmoqchi bo‘lsak, avvalo mumtoz maqom san’atini bilishimiz, o‘rganishimiz kerak. Agar biz san’atni, madaniyatni ko‘tarmoqchi bo‘lsak, avvalo mumtoz maqom san’atini ko‘tarishimiz kerak. Maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbidan, avvalo, unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodimizning ongi

⁹2018-yil 6 sentyabr kuni O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev Shahrisabzda Xalqaro maqom san’ati anjumani ochilish marosimida ish tirok etib, nutq so‘zladi.

va yuragidan chuqur joy olishi uchun bor imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur», — dedi davlat rahbar¹⁰i.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida PQ-112-son qarori: 1. 2022/2023 o‘quv yilidan boshlab ta’lim muassasalarida o‘quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo‘lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste’dodlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilansin:

a) umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida:

musiqqa fani o‘qituvchilarini kamida uchta milliy musiqqa cholg‘ularida kuy ijro etishga o‘rgatish xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi doirasida amalga oshiriladi, bunda qayta tayyorlash (malaka oshirish) kurslarida mashg‘ulot olib borish uchun madaniyat va san’at sohasi vakillari shartnoma asosida jalb etiladi; b) umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim muassasalarida: ektoriy konsertlari ta’lim va madaniyat muassasalarida tashkil etiladi hamda o‘quvchi va talabalarning musiqiy madaniyati va savodxonligini yuksaltirishga, estetik didi, dunyoqarashini kengaytirishga va musiqani his qilishiga qaratilgan amaliy mashg‘ulotlardan iborat bo‘ladi; v) umumiy o‘rta ta’lim muassasalari, bolalar musiqqa va san’at maktablari, madaniyat markazlari: 2022 — 2024-yillarda mazkur qarorga belgilangan reja-jadvalga muvofiq 3 tadan milliy musiqqa cholg‘ulari to‘plamlari bilan ta’minlanadi;

milliy musiqqa cholg‘ulari to‘plamlari bilan ta’minlash xarajatlari O‘zbekiston Respublikasi respublika budjeti va tegishli mahalliy budjetlardan teng ulushlarda ajratiladigan mablag‘lar hisobidan moliyalashtiriladi;

Prezidentimiz ta’kidlaganidek mamlakatizda madaniyat va san’at taraqqiy etmasa jamiyat rivojlanmaydi, taraqqiyotning chinakam samarasi boylik yoki kuch– qudrat darajasi bilan emas, milliy madaniyatning naqadar yuksaklikka ko‘tarilgani bilan o‘lchanadi deydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72- sessiyasida so‘zlagan nutqida.

Hozirda san’at va madaniyat yoshlar hayotida muhim o‘rin egallamoqda va bu sohalarni rivojlanishi uchun mamlakatimizda bir qancha ijtimoiy va huquqiy qaroqlar qabul qilindi. Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 30-iyun Yoshlar kunida O‘zbekiston xalq shoiri G‘afur G‘ulomning ushbu; „Siz axir osmonni olmoq bo‘lsangiz, Ne uchun yelkamni tutib bermayin“, degan so‘zlari bilan yoshlarni ruhlantirdi va maqom xonandaligi maqom cholg‘u ijrochiligi, baxchichilik va fortepiano yo‘nalishlariga qabul qilingan talabalar shartnomasi to‘liq davlat tomonidan to‘lab berilishi haqida qaror qabul qildi. Bu qaror O‘zbekistondagi maqom xonanda va sozandalari, baxshichilar hamda fortepiano ijrichilari uchun juda katta yangilik bo‘ldi bunday qaror ularning o‘z ustilarida ishlashlari kerak avlodni o‘zlaridanda bilimiroq qilib tarbiyalashlari uchun turtki bo‘ldi. Ta’lim tizimidagi e’tiborni bilimlarni uzatishdan ularning yordami bilan kasbiy va ijtimoiy ko‘nikma va ko‘nikmalarni shakllantirish va takomillashtirishga o‘tish o‘quv jarayonining barcha tarkibiy qismlarini unda ta’lim mazmuni va shakllarini aks ettirish nuqtai nazaridan ko‘rib chiqishni talab qiladi. musiqqa o‘qituvchisining kasbiy faoliyati. Shu munosabat bilan biz ta’limning barcha shakllari, usullari va vositalaridan foydalangan holda kasbiy faoliyatning sub’ekti va ijtimoiy mazmuni va shakllarini

¹⁰ 2018-yil 6 sentyabr kuni O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev Shahrisabzda Xalqaro maqom san’ati anjumani ochilish marosimida ishtirok etib, nutq so‘zladi.

modellashirishdan iborat bo'lgan belgi-kontekstni o'rganishning psixologik-pedagogik kontseptsiyasiga e'tibor qaratishni tanladik. (A.A. Verbitskiy).

Maktab yoshidagi o'quvchilarda eng muhim muammolardan biri bu aqliy jarayonlarning rivojlanishidir ya'ni xotira va e'tibor. Diqqat va xotirani rivojlantirish yozish, hisoblash va o'qishni o'rganish kabi muhimdir.

Maktab yoshida e'tibor va xotira, boshqa barcha aqliy jarayonlar kabi, tafakkurning sifat jihatidan o'zgarishi tufayli sezilarli o'zgarishlarga uchraydi. Bolaning xotirasi o'zboshimchalik xususiyatlariga ega bo'lib, ongli ravishda tartibga solinadigan va vositachi bo'ladi. Muvaffaqiyatli maktab ta'limining asosiy shartlaridan biri bu

ixtiyoriy diqqat va xotirani rivojlantirishdir. Ta'limni boshlang'ich maktabda boshlagan bolalar ko'pincha beparvolik yoki e'tiborning kam rivojlanganligidan aziyat chekishadi. Diqqatning etarli darajada rivojlanishi bilan barcha fikrlash jarayonlari tezroq va to'g'riroq davom etadi, harakatlar aniq va aniq amalga oshiriladi, bola o'z xatti-harakatlarini nazorat qila oladi, faoliyat uchun maqsadlar qo'yadi va vazifalarni tizimli ravishda hal qiladi.

Bolalarni musiqiy ta'lim, tarbiyalash, rivojlantirishga doir olib boriladigan har bir jarayonda musiqa asarini ijro etish, ularni tinglash va idrok etish shuningdek, musiqani tushunish, fikrlash va tafakkur qilishda diqqat va xotira alohida o'rin tutadi

Umumta'lim maktabida boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarni musiqa darslarida o'rgatish jarayonida xotira va e'tiborning ahamiyati juda yuqori. Musiqiy faoliyat turlarining hech biri (tinglash , ijro etish, ijodiy va boshqalar) diqqat va xotiraning ma'lum ko'rinishlarisiz amalga oshirilmaydi.

Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning rivojlanishidagi muhim kamchilik - bu e'tiborsizlik. . Bolaning e'tiborsizligining sabablaridan biri sog'lig'ining yomon holatidir. E'tiborsizlikning sababi uyqusizlik yoki kundalik rejimga rioya qilmaslik ham bo'lishi mumkin. Ammo normal sharoitda yashovchi sog'lom bolalar ham e'tiborsiz bo'lishi mumkin. Bu intizomsizlik yoki o'rganishga qiziqishning etishmasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Maktab o'quvchilarining kontsentratsiyasi, agar ular bajarayotgan ishning vazifasini, maqsadini tushunsalar, yanada barqaror bo'ladi. O'qituvchi uchun bolalarning e'tiborini uzoq vaqt saqlab qolishdan ko'ra, ularni jalb qilish osonroq. Hatto qiziqarli mashg'ulotning ham monoton ko'rinishi talabaning e'tiborini charchatadi.

Diqqatning muhim xususiyati uning o'zgaruvchanligi va konsentratsiyasidir.

Diqqatni almashtirish deganda uning bir ob'ektdan ikkinchisiga, bir faoliyat turidan ikkinchisiga o'tishi tushuniladi. Bu xususiyat uning diqqatini bir ob'ektdan ikkinchisiga o'tkazish tezligida namoyon bo'ladi. Ikki ko'p yo'nalishli jarayon diqqatni almashtirish bilan bog'liq: diqqatni jalb qilish va chalg'itish. Birinchisi, odamning diqqatini qandaydir narsaga o'zgartirishi va unga to'liq e'tibor qaratish, ikkinchisi, chalg'itish jarayoni qanday amalga oshirilishi bilan tavsiflanadi. Xotira muammosi pedagogika va psixologiyadagi eng murakkab va dolzarb masalalardan biridir. Xotiraga ta'sir qiluvchi eng muhim omillardan biri insonning tafakkuri, bilimi, bilimi, dunyoqarashidir. Bolaning xotirasi va e'tibori kattalarning xotirasi va e'tiboridan sezilarli darajada farq qiladi. Bola diqqatni jamlashi va unga zarur bo'lgan materialni qattiq eslab qolishi uchun uni turli usullar va usullardan foydalangan holda ushbu ishga jalb qilish kerak. Ta'lim jarayonini tashkil etishning bunday shakllaridan biri ko'pincha o'yindir. O'yin inson faoliyatining asosiy turlaridan biridir. O'yinning inson hayotidagi ahamiyati an'anaviy ravishda psixologiya fanida ta'kidlangan.

Diqqatni faollashtirish, charchoqni kamaytirish, qiziqishni oshirish, shu bilan o'rganish samaradorligi, fikrlash jarayonini optimallashtirish va bolani insoniy munosabatlarning haqiqiy

dunyosiga kiritish uchun o'yindan foydalanish qobiliyati ta'kidlanadi. A. Leontiev o'yinni "estetikdan oldingi faoliyat" turi deb ataydi, chunki. unda tasavvur va fantaziya birinchi o'ringa chiqadi. Ular yordamida bola o'yindagi yangi voqelikdan xabardor bo'lib, unda hamma narsa erkinlik qonunlariga bo'ysunadi va shartli bo'ladi. Kichik yoshdagi o'quvchilarning e'tiborini va musiqiy xotirasini rivojlantirish uchun musiqa darslari uchun o'yin usullari va usullari to'plamidan foydalanish zarur

Musiqa darsi ijodkorlik darsidir. Ijodkorlik - bu sifat jihatidan yangi narsalarni keltirib chiqaradigan va o'ziga xosligi, o'ziga xosligi va ijtimoiy-tarixiy o'ziga xosligi bilan ajralib turadigan faoliyatdir.

Musiqa darslarida foydalanish mumkin bo'lgan musiqiy va didaktik o'yinlar.

Cholg'uni tanlang tanlang.

Maqsad: O'quvchilarda cholg'ular tembrini ko'rinishini bir biridan farqlay olish.

Tavsif. Turli musiqa asboblari tasvirlangan kichik kartalar to'plami. (simfonik orkestr asboblari, o'zbek xalq cholg'ulari orkestri).

Qo'llash usuli. O'qituvchi bolalarga musiqa haqida gapirib, O'quvchilar turli cholg'u asboblari tovushining xarakterli xususiyatlarini ifodalovchi asarlar ijro etadi. Tinglagandan so'ng, talabalar asbobning tegishli tasviri bilan kartalarni tanlashlari kerak.

Ajoyib narvon.

Maqsad. O'quvchilarda tovushlarni turli balandlikda ijro etib ularni o'zaro bog'lash, kuyning harakat yo'nalishini farqlash qobiliyatini rivojlantirish.

Tavsif. Etti pog'onali zinapoya tasvirlangan karta. Har bir qadam ma'lum bir balandlikdagi nota hisoblanadi

Qo'llash usuli. O'qituvchi fortepianoda bolalarga turli xil notalarni ijro etishni boshlaydi. Bolalar tovush yuqoriga va pastga siljiganda ular qaysi nota ijro etilmaganligini aniqlashlari kerak. Uni aniqlab, ular mos keladigan pog'onaga qadam qo'yadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Metodicheskaya razrabotka : Mixaylova Lyubov Vladimirovna.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 17.11.2017 yildagi PQ 3391-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida PQ-112-son qarori.
4. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida
5. Davlatimiz rahbarining 2017 yil 17 noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2018 yil 6 apreldagi "Xalqaro maqom san'ati anjumanini o'tkazish to'g'risida"gi qarorlari.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72- sessiyasida so'zlagan nutqida.
7. Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 30-iyun Yoshlar kunida so'zlagan nutqida.
8. Khasanova, Navbakhor (2020) "The role of music lessons in the formation of national and intercultural competence in students." Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. Vol.2020 :Iss.2. Article. 15: <https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss2/15>

9. Hasanova, N. K. (2021). Possibilities of music education and upbringing in the formation of personal maturity. ISJ Theoretical & Applied Science, 08 (100), <http://s-o-i.org/1.1/TAS-08-100-79> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2021.08.100.79>

10. N. Hasanova O'zbek milliy musiqa merosi taraqqiyotida xotin-qizlarning o'rnini. Актуальный вызыви современной науки IX xalqaro ilmiy konferensiya 26-27 yanvar 2017 yil.

11. Konteksal ta'lim nazariyasining kategorik aporatlari.

12. Estetikdan oldingi faoliyat A.N.Leontiev.

13. Muminova Muqaddas Riskulovna Development And Current Status Of Uzbek Pop Music In Modern Approaches And Innovations Of Teaching The Science Of Music Culture International Journal of Advanced Science and Technology Vol. 29, No. 8, (2020) <https://t.me/joinchat/> - Music teacher, <https://infourok.ru> - music lessons

14. Muminova Muqaddas Riskulovna *International Journal of Mechanical Engineering*. The Innovative Technologiyes Of Teaching In Musical Edukational Establishments1764-1767- betlar. 2022- йил.

15. Muminova Muqaddas Riskulovna Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. THE ROLE OF SPORT ACTIVITIES, GAMES AND COMPETITIONS IN THE NURTURE OF 6-7 YEARS OLD CHILDREN <https://uzjournals.edu.uz/tziuj> 68-78betlar 2022

16. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlarda pedagog kreativligi. "Yangilanayotgan O'zbekistonda fan, ta'lim va innovatsiya uyg'unligi" mavzusidagi 6-son 2-qism Respublika ko'p tarmoqli ilmiy konferensiyasi VIII bo'lim Toshkent 2021. 677 bet. Udk. 001.895 (575.1).

TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK NAZOKAT VA UNING AHAMIYATI (DILKASHLIK VA PEDAGOGIK TAKT)

Ibragimova Xonzoda Saidazim qizi

Nizomiy nomidagi TDPU, "Musiqa madaniyati" fakulteti o'qituvchisi, p.f.n.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qituvchining talabalar muhitiga uzviy ravishda qo'shib keta olishi, pedagogik nazokat va uning me'yorlari, talabalarni sevish, ularga mehr-muhabbatli bo'lish, o'qituvchi pedagogik nazokatining mohiyati, yosh avlod tarbiyasida, o'qituvchida eng qiyin vaziyatlarda ham pedagogik nazokatning o'ziga xos xususiyatlari, pedagogik nazokatni egallash malakalari, pedagogikada axloq va odobning muhim xususiyatlari, ta'lim jarayonida dilkashlik hamda pedagogik takt haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: pedagogik nazokat, yosh avlod, malaka, axloq va odob, dilkashlik, pedagogik takt, talaba, o'qituvchi. OTM

Barchamizga ma'lumki, ta'lim tizimi juda murakkab jarayon bo'lib, unda o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlik asosida ish olib borishi, ularning ruhiy kechinmalarini inobatga olgan holda shaxsiy munosabtlarga kirishishi, dars jarayonini mazmunli tshkillay olishi uchun undagi pedagogik mahoratlar yetarli darajada rivojlangan bo'lishi lozim. Fikrimiz isboti tariqasida eng dolzarb sanalayotgn OTM tizimida o'qituvchining muhim pedagogik mahoratlaridan biri haqida aytib o'tsak.

O'qituvchining talabalar muhitiga uzviy ravishda qo'shib keta olishi nihoyatda qiyin jarayon. Lekin uning pedagogik faoliyati bevosita talabalar orasida olib boriladi. O'zaro

munosabatlarni ishonch va do'stlik tuyg'ulari bilan mustahkamlab borish o'qituvchidan jiddiy psixologik tayyorgarlikni talab qiladi. Buning uchun o'qituvchi avvalo, turli xarakterdagi talabalardan iborat bo'lgan, auditoriya jamoasida tez-tez o'zgarib turadigan pedagogik vaziyatlarga darhol o'z munosabatini bildirishi va unga odilona baho berishi kerak. U talabalar xatti-harakatini to'g'ri idrok etishi, vaziyatlarni oldindan ko'ra bilishi, tarbiyaviy metodlarni o'z o'rnida qo'llashi, talabalar bilan muomalada bosiqlik, sabr, milliy an'ana va turmush tarzimizdan kelib chiqqan muruvvat va himmat, odamiylik va mehr-oqibat tuyg'ularini ko'rsata olishi shart. Bu vazifalar o'qituvchining zimmasiga yuklanadigan va u rioya qilishi lozim bo'lgan pedagogik nazokat deb atalmish faoliyatning zarur shartidir[1].

Pedagogik nazokat – o'qituvchi axloqiy-ma'naviy qiyofasini namoyon etuvchi me'yor tuyg'usi yoki xulq va odob qoidalariga rioya qilishi demakdir. Pedagogik nazokat o'qituvchining talabalar bilan o'zaro munosabatini tashkil qilish vositasi. Psixologik til bilan aytilganda, nazokat insonning bir qolipdagi barqaror tasavvurlarida mujassamlashgan shaxsiy insoniy hislatlarining yig'indisidir[2].

Pedagogik nazokat me'yori o'qituvchidan avvalo, yuksak insoniy fazilatlarga ega bo'lishni talab qiladi. Zero, ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilishning asosiy maqsadlaridan biri komil inson tarbiyasi bo'lib, u davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb e'lon qilingan. Ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazish o'qituvchi zimmasidadir. Shunday ekan, hozirgi demokratik jamiyat o'qituvchisining o'zi avvalo, barkamol inson bo'lishi, mukammal bilimlar sohibi, o'z kasbining yetuk egasi bo'lishi zarur. O'qituvchi xulq-atvorida pedagogik nazokat ma'lum bir muddatda shakllanib tugaydigan jarayon emas, uning omillari ham jamiyat taraqqiyoti natijasida uzluksiz sayqallanib boradi.

O'qituvchi pedagogik nazokatga, ta'lim va tarbiya jarayonidagi har bir vaziyatga adolatli baho berishi, talabalar xatti-harakatini to'g'ri idrok etishi, sabot va matonat, o'zini tuta bilish, sabr-toqat, sezgirlik, vijdon, oriyat kabi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirishi bilan erishadi. Pedagogik faoliyatda o'z kasbini sevgan o'qituvchigina butun kuch g'ayratini, qalb nuri va dil haroratini shu ishga bag'ishlaydi va o'z faoliyatida yaxshi natijalarga erishadi. OTM larda talabani sevish, ularga mehr-muhabbatli bo'lish o'qituvchi axloqiy qiyofasini namoyon etuvchi muhim fazilatlardir[3].

O'qituvchi deyarli har kuni talabalar bilan uchrashadi, savol-javob qiladi, ularning yaxshi xulq va ezgu ishlarini ma'qullaydi, bilimlarini baholaydi, nojo'ya xatti-harakatlari uchun tanbeh berib, lozim bo'lganda tarbiyaviy metodlarni qo'llaydi.

Pedagogik nazokat doimiy izlanishni, ijodkorlikni talab qiladi. Doimiy ijodiy izlanishda bo'lgan o'qituvchi tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ega bo'ladi, ilm-fan muammolari, tarbiya etikasi va psixologiyasi yuzasidan erkin fikr yurita oladi[4].

O'qituvchi talabalarining kattalar bilan muloqotga kirishish tizimiga ma'lum darajada kirib borib, ularning ichki qoidalarini o'rganishga harakat qilishi kerak. Bu narsa talabalar bilan suhbatlashish orqali, fe'l-atvorini o'rganish, tengdoshlari va kattalar bilan munosabatlarini kuzatish, o'quvchilar hayotidagi turli voqealar va muammolarni birgalikda tahlil qilish, ular muhitida ro'y berayotgan hodisalarga nisbatan fikr-mulohazalarini bilish asosida amalga oshiriladi. Bunda u talabalar jamoasida ro'y berib turadigan, tashqi tomondan kuzatganda aslo bilib bo'lmaydigan yashirin hodisalar va voqealarni o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada o'qituvchi ta'lim-tarbiyaviy jarayonda o'z oldida turgan vazifalarni hal etishda talabalarining o'zlarini ham jalb qila oladi[5].

O'qituvchi pedagogik nazokatining mohiyatiga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, avvalo, unda etnopedagogik tuyg'ular, milliy qadriyatlar, urf-odat va an'analar, o'zbekona tavoze va muomala madaniyati, talabalar jamoasiga singib keta oladigan har qanday ijtimoiy muhitga moslashuvchi individual qobiliyatlar, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar mujassamlashgan bo'ladi[6].

Hozirgi kunda informatsion jarayonning jadal rivojlanishi talaba ruhiyatiga keskin ta'sir qiladi. Ularning psixologik xususiyatlarini, ruhiy holatini bir maromda ushlab turish uchun o'qituvchidan kuchli iroda, muomala madaniyati va bosiqlik, pedagogik mahoratning keng imkoniyatlaridan foydalanish talab qilinadi. Yosh avlod tarbiyasida o'qituvchi eng qiyin vaziyatlarda ham pedagogik nazokatning quyidagi holatlariga rioya qilishi va ushbu faoliyatga o'zini moslashtirishi lozim:

- o'qituvchiga xos notiqlik san'ati sirlarini puxta egallash, talabaga og'ir ta'sir etadigan, uning ruhiyatini jarohatlaydigan iboralarni ishlatmaslik, muomalada, jazo metodlaridan foydalanishda qo'pol va dag'al so'zlarni qo'llamaslik;

- dars jarayonida hissiy, aqliy bilim berishda belgilangan muayyan psixologik va fiziologik me'yorlarga asoslanish, manmanlikka yo'l qo'yimaslik, o'z holatidan boshqa holatga o'tishdan saqlanish;

- o'qituvchilar jamoasi va talaba bilan, ota-onalar hamda notanish kishilar bilan munosabatda kommunikativ qobiliyatning rasmiy va qat'iy muomala hamda ishbilarmonlik uslublariga asoslanish[7].

Pedagogik nazokatni egallash malakalari shuni anglatadiki, pedagogik nazokat pedagogik mahorat bilan birga yillar davomida ustozlar tajribasini o'rgangan holda va o'z hayotiy hamda kasbiy faoliyati tajribalaridan kelib chiqib shakllantirilib boriladi. O'qituvchining ma'naviy yetuklik darajasi, nazokat sirlarini o'rganishda talabalar bilan muloqot qilish ko'nikma va malakalarini egallashi, maxsus psixologik bilimlarga ega bo'lishida, o'z ustida tinimsiz mehnat qilishi natijasida erishiladi. Avvalo, bu bilimlar o'quvchilar yosh xususiyati psixologiyasini va bolalarning individual xarakterini bilish bilan bog'liq[8].

Bundan tashqari, axloq asoslarini bilish, xatti-harakatlarda axloqiy ma'noni kasb ettirish ham katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, talaba ruhiyatiga ijobiy-tarbiyaviy ta'sir etish yo'llarini bilish o'qituvchilarning kundalik faoliyatiga aylanishi lozim:

- talabalarni chin ko'ngildan sevish, o'z muhabbatini o'zaro munosabatda ko'rsata olish;
- talabalar xulqi va ruhiyatidagi yashirin ichki tuyg'ularni anglashga harakat qilish, ko'rish va kuzatish;

- auditoriyadagi har qanday sharoit va muhitga moslashish;

- auditoriya bilan o'zaro hamkorlikni ta'lim-tarbiyaviy maqsadga muvofiq yo'lini tanlash;

- talabalar bilan norasmiy suhbatlarda o'z ichki hissiyotini sezdirmaslik, aksincha ular ishonchini qozonish.

Pedagogik nazokatning asosiy xususiyati shundan iboratki, o'qituvchiga muloqotni ijobiy hissiyotlar asosida qurishga, talabalar bilan psixologik kontaktga kirishish uslublarini saqlashga yordam beradi.

Pedagogik nazokatning quyidagi xususiyatlari hozirgi kunda muvaffaqiyat poydevori hisoblanadi:

- o'qituvchi pedagogik nazokat talabalariga amal qilib, o'zida muloqotning erkin demokratik asosini shakllantiradi;

- auditoriya jamoasida ongli intizomni vujudga keltiradi, talabalar bilan haqiqiy muloqot madaniyatiga erishadi;

- o'qituvchi auditoriyada yakka (avtoritar) hukmronlikdan, erkin muloqotga o'tib, demokratik prinsiplar asosida pedagogik faoliyatga kirishish shaklini qo'llaydi;

- talabalarni ongli ravishda tartib-intizomga muloqot asosida o'rgatadi[9].

Shuni ham e'tiborga olish zarurki, pedagogikada axloq va odobning muhim xususiyatlaridan biri bo'lmish dilkashlik insonning atrofidagi odamlar bilan barqaror, yaqin munosabatda bo'lishga intilishi deb ta'riflanadi. Bu intilish OTM larda o'qituvchining talabalar va atrofidagi kishilar bilan tez aloqa o'rnatilishi va belgilangan maqsadga erishishini ta'minlaydi. Albatta, bu jarayon birdaniga sodir bo'lmaydi, ayniqsa, yosh o'qituvchilardan psixologik bilim, talabalar bilan muloqotda xushmuomalalik, ehtiyotkorlik talab qilinadi. Psixologlar o'qituvchilarning dilkashlik xususiyati ikki toifadagi odamlar xarakterida mujassamlashgan deb ta'kidlaydilar:

Birinchisi, *ekstravert* shaxslar. Ular barcha ishlarda faol, jiddiy va vazmin, osoyishtalikka va tashqi ta'sirchanlikka moyil kishilardir.

Ikkinchisi, *introvert* shaxslar. Ular faqat o'z ichki olamiga beriluvchan. atrofidagi odamlarga aralashmaydigan, o'z-o'zini nazorat qilishga, doimo ichki xavotirga moyil kishilardir.

Pedagog olimlar o'qituvchining dilkashligi ekstravert yoki introvert xususiyatlarga ega bo'lgan shaxslar xarakterining birlashuvida paydo bo'lishini ta'kidlaydilar. Biroq, *ko'pincha, pedagogikada ekstravert tipdagi shaxslar dilkash insonlar sifatida e'tirof etilganlar.* O'qituvchida ushbu hislatlarning mavjudligi, uning pedagogik nazokat qoidalari rioya qilib dilkashlik xususiyatlarini rivojlantirishi pedagogik mahorat sirlarini takomillashtirish zamini va shartidir.

Bundan tashqari, OTM larda talabalar bilan muloqotda pedagogik taktga zid bo'lgan qo'pollik adolatsizlik, qo'rqitish, haqorat, mensimaslik, pedagogikaga zid bo'lgan jazolash usullarini qo'llash va boshqa ular shaxsiga salbiy ta'sir qiladigan turli jargon so'zlar ishlatish talabalar qalbini umuman tuzalmaydigan darajada jarohatlab qo'yishi, yoki o'qituvchining obro'siga putur yetkazishi mumkin. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi bunday qarama-qarshiliklar, ko'pincha, dars va darsdan tashqari jarayonlarda sodir bo'ladi. Bunda, ayniqsa, yosh o'qituvchilarning pedagogik takt sirlarini bilmasligi, tajribasizligi pand beradi[10].

O'qituvchining taktik mahorati birdaniga shakllanib qolmaydi, u yillar davomida pedagogik faoliyatda, ustozlar tajribasini o'rganishda dars jarayonida, auditoriyadan tashqari faoliyatda va tarbiyaviy soatlarda talabalar bilan muloqotda takomillashib boradi. Dars jarayonida pedagogik mahoratning asosi bo'lmish pedagogik taktga ega bo'lish o'qituvchi uchun juda zarurdir[11].

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, pedagogik nazokat asosida o'qituvchi talabalar bilan muloqotda qarama-qarshilikka yo'l qo'ymasligi o'zaro munosabatni to'g'ri tashkil etishga yordam beradi. Bizga ma'lumki, o'qituvchining fikr-mulohazalarida nisbiylik va subyektivlik alomatlar ham mavjud. U hammaga birdek, to'g'ri munosabatda bo'la olmasligi tabiiy holdir, lekin u mohiyatan barcha o'quvchilarga holis niyatli, yaxshilik qilishga intiluvchi, adolatli kishi ekanligiga ishonch uyg'otishi kerak. Bu holat pedagogik nazokatning muhim xususiyatlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.To‘rayev Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. T., 2015
2. M.Ahmedova Pedagogik konfliktologiya. T., 2017
3. A.B. Батарщев Психодиагностика способности к общению или как определит организаторские и коммуникативные качества личности,- М.: Гуманит. Изд. Центр ВЛАДОС, 2009
4. В.С. Грехнев Культура педагогического общения: Книга для учителя. - М.: Просвещение, 2010
5. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘qituvchisining psixologiyasi.-T.: O‘zbekiston, 2009
6. A.B. Мудрик Введение в социальную педагогику - М.: Инт практ. психологии, 2007
7. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X.Toxtaxodjayeva va boshqalar) - T., 2007
8. M. Pirmuxamedova Pedagogik mahorat asoslari.- T., 2001.
9. G.A.Sultonova Pedagogik mahorat. - T., Nizomiy nomidagi TDPU, 2005
10. www.ziyouz.com kutubxonasi
11. pedagog.uz

MUSIQA MADANIYATI DARSLARI ORQALI O‘QUVCHI-YOSHLARNING IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Ilxomova Shahnoza Faxriddin qizi, JDPU magistranti

Annotasiya. Ushbu maqolada ijod, muayyan yangilikning ahamiyati va foydali ekanligini belgilovchi shaxs faoliyati va uning natijasi bo‘lmish ijodkorlik, kreativlik hamda o‘qituvchining kasbiy mahorati hamda kreativligini oshirish omillari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ijod, ijodkorlik qobiliyati, mustaqil fikrlash, musiqa madaniyati, pedagog, kreativlik, ta’lim tizimi, o‘quvchi.

Musiqa san’ati estetik did, hissiyot, ijodkorning bitmas tunganmas manbayidir. Inson yuragini va aqlini zabt etuvchi maftunkor dunyodir. Shuning uchun inson doimo go‘zallikka intilishi va kundalik hayotda shu go‘zallik qoidalariga amal qilishi lozim. Musiqiy an’analar, tadbirlar, mahalliy marosimlar o‘zbek xalqining ijtimoiy, tarixiy rivojlanishi, etnopsixologik xususiyatlari, hayotiy tajribasi, ijtimoiy qarashlari shakllangan bo‘lib, asrlar davomida avloddan avlodga o‘tib kelmoqda. Shu tufayli o‘quvchi – yoshlarda vatanga muhabbat, mehr – oqibat, axloq – odob, ma’rifiy – madaniy tarbiya kabi fazilatlar qaror topib boradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak, mamlakatimizda madaniyat va san’at taraqqiy etmasa jamiyat rivojlanmaydi. Xalqimizning rivojlanish darajasi avvalo, milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma’noda madaniyat bu – xalqimiz, jamiyatimiz qiyofasidir. Biz O‘zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz buni, avvalo,

milliy madaniyatimizni rivojlantirishdan boshlashimiz lozim”.¹¹ O‘quvchi yoshlarda musiqiy ijodkorlikni shakllantirish muammosi bilan bog‘liqlikda turli soha olimlari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lsa-da, biroq zamonaviy sharoitda geosiyosiy jarayonlarning rivojlanishi, inson ongi va qalbi uchun mafkuraviy kurashlarning avj olayotganligi, ularga qarama – qarshi tura olish omili sifatida modernizatsiyalashgan didaktik ta‘minot vositasida o‘z-o‘ziga kelayotgan avlodda musiqiy madaniyatni shakllantirish masalasi maxsus tadqiq etilmagan. Yosh avlodni har tomonlama intiluvchan, bilimga chanqoq qilib tarbiyalashda ijodkorlikni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratish lozim.

Yosh avlodni mustaqil va ijodiy fikrlashga va ijodkorlikka o‘rgatish istiqbol davri o‘zbek pedagogikasining eng dolzarb vazifalaridan biridir. Shunga monand tarzda ta‘lim oluvchi o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashga o‘rgatishning yangi va samarali yo‘llarini izlab topish faqat o‘qitish metodikasi sohasi taraqqiyoti uchun emas, balki barkamol shaxs tarbiyasini

Kundalik darajada ijodkorlik o‘zini zukkolik bilan namoyon qiladi. Maqsadga erishish, atrof-muhit, obyektlar va sharoitlardan g‘ayrioddiy tarzda foydalanib, umidsiz vaziyatdan chiqish yo‘lini topish. Kengroq qilib aytganda, muammoning ahamiyatsiz va mohirona yechimi. Bundan tashqari, qoida tariqasida, kamdan-kam va maxsus bo‘lmagan vositalar yoki resurslar bilan, agar material bo‘lsa nostandart, muammoni hal qilish yoki nodavlat tekislikdagi ehtiyojni qondirish uchun shtamplanmagan yondashuv deb ataladi.

Ijod – ijtimoiy subyektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olingan faoliyati yoki faoliyati natijasi hisoblanadi.

Ijodkorlik–muayyan yangilikning ahamiyati va foydali ekanligini belgilovchi shaxs faoliyati va uning natijasi.

Ijodkor shaxs – ijodiy jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan hamda aniq ijodiy natija (mahsulot)larga ega shaxs.

Ijod, ijodkorlik, ijodkor shaxs haqida so‘z borar ekan bunda kreativlikka ham alohida to‘xtalib o‘tish joiz. Chunki ijodkorlik va kreativlik bir-biri bilan chambarchas bog‘liq.

Kreativlik–individdning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma‘nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi.¹²

Kopchilik tadqiqotchilar kreativ fikrlashga to‘sqinlik qiluvchi omillarni "aqliy qulflar", ya‘ni hayot va kasbiy vaziyatlarni hal qilishga ijodiy yondoshishga to‘sqinlik qiladigan ongning kuchli munosabati deb ataydilar. Uning fikriga ko‘ra bunga quyidagilar kiradi:

- o‘z-o‘ziga ishonchsizlik;
- boshqalardan ko‘ra yomonroq ko‘rinishdan qo‘rqish;
- barcha hayotiy va ta‘limiy vaziyatlarni mantiqiy jixatdan baholash odati;
- har doim amaliy bo‘lishga intilish;
- umumiy qabul qilingan qoidalarga rioya qilish odati;
- faqat bitta to‘g‘ri javobni belgilash;

¹¹ Sh. M. Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qattiyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz. T: O‘zbekiston. 2017 yil.

¹² Xo‘jaeva M.X. Musiqi idroki va uni rivojlantirish//«Xalq ta‘limi». -T., 2005. № 1. 122-124 b.

- noaniqlikdan qochishga moyillik.¹³

- umuman va boshqalarga xato qilish mumkin emas degan ong osti fikrlash.

Avvalo, o'qituvchilarning ijodiy fazilatlarini, kreativlikni rivojlanishni rag'batlantiradigan psixologik-pedagogik sharoitlarni tavsiflaylik.

Masalan, T.A. Barisheva shaxsning ijodiy fikrlashi va kreativligini rivojlantirishga yordam beradigan quyidagi shart-sharoitlarni ajratgan: ijodiy qobiliyatlar va ijodiy motivatsiyaning mavjudligi. Shu bilan birga, agar bu omillar bir-biriga to'g'ri keladigan bo'lsa, ijodiy qobiliyatlarning yuqori darajadagi namoyon bo'lishi mumkin.

O'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish uchun avvalo o'qituvchining o'zi kreativ, ijodkor shaxs bo'lishi

zarur. Bordi-yu, uning o'zi kreativlik sifatlariga ega bo'lmasa, u holda qanday qilib, o'quvchilarni kreativ fikrlashga rag'batlantira oladi. Chiqariladigan yagona

xulosa quyidagicha: o'qituvchining o'zi kreativ, ijodkor bo'lsagina, o'quvchilar ham shunday bo'la oladi.

Pedagog kreativlik va ijodkorlik potensialiga ega bo'lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e'tiborini qaratishi zarur:

- tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligi;

- yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati;

- bir qolipda fikrlamaslik;

- o'ziga xoslik;

- tashabbuskorlik;

-noaniqlikka toqat qilish;

- zakovatli bo'lish.¹⁴

Har bir pedagogning o'zini o'zi rivojlantirishi va o'zini o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik va ijodkorlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq. Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi.

Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi.

Xulosa qilib aytganda har bir musiqa madaniyati fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligi va kreativligi o'quvchilarni dars pattlarida musiqiy ijodkorligini oshiradi va rivojlantiradi. Pirovardida o'quvchilarda har tomonlama musiqani idrok qilish, ushinish, uni his qilish kabi qobiliyatlari rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N. Sayidahmedov Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. T-2003 yil.
2. N.A. Muslimov va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi Monografiya. T. Fan va texnologiya" nashriëti, 2013 yil.

¹³ Xo'jaeva M.X. Musiqa idroki va uni rivojlantirish//«Xalq ta'limi». -T., 2005. № 1. 122-124 b.

¹⁴ Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности – СПб: SPGUTD, 2006 yil.

3. T.A.Barisheva, Yu.A. Jigalov Психолого-педагогические основы развития креативности– SPb.: SPGUTD, 2006 год.
4. J.G'.Yo'ldoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari.T. "O'qituvchi" nashriyoti. 2004 yil.
5. O'.Tolipov, M.Usmonboeva. Pedagogika texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari.T."Fan" nashriyoti. 2006-yil.
6. B.S.Abdullaeva. Fanlararo aloqadorlik turlari haqida. Uzluksiz ta'lim.T. 2005 yil. №1-son.
7. V.B.Asafev. О хоровом искусстве. Ленинград, 1980 год.
8. M.X.Xo'jaeva Musiqa idroki va uni rivojlantirish «Xalq ta'limi». T. 2005. №1-son.122-124 b.
9. M.X.Xo'jaeva. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida qo'shiq ijrochiligi malakalarini rivojlantirish. «Pedagogik ta'lim».T., 2002. №6-son. 34-36 b.

BOSHLANG'ICH SINIF O`QUVCHILARIDA MUSIQIY SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

*Iskandarova Mo`tabar Azimjonovna Navoiy Davlat Pedagogika instituti
"Musiqa ta'limi" yo`nalishi 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Umurzoqova Laylo Baxtiyor qizi "
Musiqa ta'limi" kafedراسi o`qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o`quvchilarida musiqiy savodxonlikni shakllantirish usullari haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar: boshlang'ich, musiqi, savodxonlik, media, temp, ritm.

O`quvchilarga musiqi haqida beriladigan barcha bilim va tushunchalar o`z xususiyatiga ko`ra musiqi savodi doirasiga kiradi. Jumladan, musiqi-san'atining muhim bir turi sifatida hayotdagi real voqelikni tovushlar vositasida ifoda eta olishi, uning ifoda vositasi (til, nutq), janrlarga oid turlari, tuzilishi, ijro uslublari, ijrochilik turlari, cholg'u asboblari tegishli tasnifiy xususiyatlar musiqi savodining asosiy tarkibini tashkil etadi.

Musiqa savodxonligida musiqiy tovushlar va ularning cho`zimidan boshlab, atamalar, sur'at (temp), usul (ritm), o`lchov, intervallar, alterasiya, dinamik belgilar, oddiy musiqi shakl, janrlari, major hamda minor ladlarigacha bo`lgan nazariy bilimlar haqida tushuncha beriladi.

O`sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda musiqi darslari va musiqiy tarbiya alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada musiqi muallimlari asosiy e'tibor boshlabg'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy va ma'rifiy jihatdan yetuk bo'lishlariga qaratish muhim vazifalardan biri hisoblanadi, ayniqsa qo'shiq o'rgatish jarayonida badiiy ijodkorlikni tarbiyalashga e'tiborni qaratish o'ta muhim vazifalardan biri bo'lib hisoblaiadi. Respublikamiz prezidenti Sh.Mirziyoyev musiqi madaniyati o'qituvchilarini ya'ni shu kasb egalarining imkoniyatlarini chuqur his qilgan holda, yosh avlodga musiqiy ta'lim berish zarurligiga alohida e'tibor qaratib, ularga zarur shart-sharoitlar yaratib berish haqida maxsus farmon chiqardi.

Ma'lumki, o'qituvchilar biror bir musiqi asarni erkin tahlil qila olmaydilar, yohud dastlabki mashqlarda qo'lga kiritilgan natijalarni keyingi mashqlarda ishlatishga qiynaladilar. Kuylash malakalari orasidagi bog'liqlikni esa yaxshi sezmaydilar. Bunday hollarda bevosita darsning samarali kechishida, mahlum bir asarni sifatli kuylashda ancha qiyinchiliklar

tugʻdiradi. Shu sababli ham oʻquvchilar orasida «qayta kuylash mashqlari» usulida qoʻllash darkor. Bu usulning 2 sharti mavjud boʻlib, har ikkalasi bir - biri bilan oʻzviy aloqadorlikka ega.

Birinchi, oʻquvchi kuylayotganda aynan qilish va qanday ijobiy natijaga erishishi mumkin boʻlgan puxta va aniq bilimga ega boʻlishlik boʻlsa, ikkinchi, nimaga erishganini har bir mashqning qanday natija berganini, shuningdek, qanday xatolarga yoʻl qoʻyilganligini bilishlikdir. Shu yoʻsinda qoʻllanilayotgan keyingi mashqlarda esa bevosita ushbu xatolarni bartaraf etish, tuzatish, sof va tiniq kuylashga qaratilgan boʻlishi kerak.

Maʼlumki, musiqaning tavsifiy mazmunini his etishdagi eng muhim jihatlaridan biri lad birikmasi hisoblanadi. Lad (parda, modus) turli balandlikka ega boʻlgan tovushlarning oʻzaro bogʻliqlik tizilmasi. Musiqa asarlari major va minor lادلari asosida yozilishi oʻquvchilarga tushunarli boʻsin uchun, ularni yorqin, bardam, xushchaqchaq, tantavor (major), yumshoq, mayin, yoqimli, mungli (minor) kabi nisbiy soʻzlar bilan izohlab berish birmuncha avzallik kasb etadi.

Buning uchun oʻqituvchi beshta nota yoʻlining ahamiyatini qoʻyidagicha izihlab berishi kerak: nota yoʻli nota yoziladigan oʻrindir. U doskaga nota yoʻlini chizib koʻrsatar ekan, chiziqlar sanogʻi boshlanadigan joy-eng pastki chiziqni koʻrsatadi. Notalar ana shu chiziqlarda, chiziqlar orasida yozilishini qoʻyidagi toʻrtlikdan foydalangan holda tushuntirishi mumkin.

Do, re, mi, fa, sol, lya, si,	Chiziqlar-nota yoʻli
Yozilishlar besh chiziqda.	Bilganlarga qiziq-da!

Notalarning uzun-qisqaligi, baland-pastligi, lad, tonallik, qisman payzalar va shunga oʻxshash belgilarning kuy yoki ashulada tutgan oʻrni, turli qiziqarli oʻyinlar, topishmoqlar va rebuslar yordamida amalga oshiriladi.

Notalar boʻlinishini oʻquvchilarga oʻrgatish ham musiqiy bilim darajasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu haqda fikr yuritishdan oldin qoʻyidagi satrlar oʻquvchilar diqqatiga havola etiladi:

Nota choʻzimlarini	Butun notada bordir
Darslarda bilib oldik,	Ikkita yarimtalik.
Butun, yarim, bir chorak	Yarim notada esa,
Nimchorak, oʻn oltitalik.	Ikkita choraktalik.

Oʻquvchilar balandligi turlicha boʻlgan tovushlarni kuylash orqali tovushlar nomi, ularning chiziqlardagi oʻrni, qanday oʻlchov yoki usulda yozilganligini tushunib olishi mumkin.

Musiqiy savodxonlikka ega boʻlgan oʻquvchi esa, eshitgan har bir musiqa asarini yaxshi tushunadi, qiynalmay oʻrganadi hamda undan maʼnaviy ozuqa oladi.

Musiqa oʻquvchisi bolalarning ohangshligini his etish qobiliyatini oʻrganish uchun avvalo ularning maktabgacha olgan tarbiyasini oʻrganish kerak boʻladi. Eng avvalo bolalarga tanish boʻlgan qoʻshiqlarni mashq qilish ushbu tadbirni amalga oshirishga yordam beradi. Tabiiyki, bolalarning ohangdoshlikni his etish qobiliyati turli xil boʻladi. Mashqlar uch - toʻrt darslardan boshlab, qobiliyatiga qarab uch guruhga boʻlib oʻtkaziladi. Kichik mashqlarni kuylayotganda bolalarning individual -musiqiy qobiliyatini aniqlab oʻrganish mumkin boʻladi. Bu yerda individual xususiyat har bir oʻquvchining musiqaga munosabati ovoz pardasining kuylash holati, nafas olish yoʻllari, talaffuz ifodasi kabi xususiyatlar nazarda tutilayapti. Bu xususiyatlarning toʻgʻri shakllanishida uchta guruhga boʻlib oʻtkazish maqsadga muvofiq.

Kuylash malakalarining ijobiy shakllanishiga milliy cholgʻu asboblarning bevosita tahsiri muhim ahamiyatga ega.

Koʻpgina maktablarning musiqa darslarida doira, nogʻora, gʻijjak, tanbur, nay kabi oʻzbek milliy cholgʻu asboblardan kam foyalaniladi. Milliy cholgʻular ahamiyatini mukammal bilish, oʻrganishga boʻlgan qiziqishini yanada kuchaytiradi. Demak, mana shu cholgʻu asboblardan koʻproq foydalanilsa kuylash malakali shakllanishi jarayonining natijasi bir muncha samarali boʻlar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. D. Omonullayeva. Darsda xalq merosi oʻrganish. Boshlangʻich taʼlim 2003y
2. Laylo Umurzoqova Вахтиёровна “Роль культуры в человеке и обществе”. 2021y
3. Abdullaeva. Fanlararo aloqadorlik turlari haqida. Uzluksiz taʼlim.Т. 2005 yil. №1-son.
4. V.B.Asafev. О хоровом искусстве. Ленинград, 1980 год.
5. www.ziyonet.uz
6. www.lex.uz

MUSIQA TAʼLIM TIZIMIDAGI ZAMONAVIY MUAMMOLAR.RAQAMLI TAʼLIM MUXITIDA MUSIQA OʻQITUVCHILARINI TAYYORLASH TEXNOLOGIYALARI VA SIFATI

Iskandarova Shahnoza Iskandar qizi, JDPU Musiqa madaniyati fakulteti musiqa taʼlimi yonalishi 3 kurs 303 guruh talabasi tel:
Ilmiy Rahbar: Boymanova Feruza Abralovna, JDPUMusiqa taʼlimi oʻqituvchisi

Annotatsiya: Maktabda musiqa oʻqitish metodikasi-boʻlgʻusi musiqa oʻqituvchisini tayyorgarligida muhim ahamiyatiga ega fandır. Predmet nomlanishining oʻzi uning mazmunini izohlab turadi. Yaʼni ushbu fan musiqa vositasida bolalarning tarbiyasini amalga oshirish masalalarini oʻrganadi. Musiqa taʼlim metodikasini egallash uchun maktab dasturida musiqaning kiritilishi, musiqa sanʼatining tarbiyaviy imkoniyatlarini tarbiya obyekti sifatida zamonaviy oʻquvchi shaxsini yaqqol tushunish talab etiladi. Tarbiyaning murakkab va koʻp qirrali vazifalarini hal etish uchun metodika fani oʻquv rejalarida boshqa koʻpgina fanlardan foydalaniladi. Tarixiy-nazariy turkum fanlar oʻquvchilarga musiqa sanʼati oʻziga xos xususiyatlarini tushunishga, musiqiy obrazlarda xayot voqealarining aks etilishini, musiqa ifoda vositalarini anglashga yordam beradi.

Kalit soʻzlar: Madaniyat, maʼrifat, bahs-mulohazama, muammo, musiqa madaniyati, musiqiy bilim, tushuncha, malaka, koʻnikma, dunyoqarash.

Maktabda musiqa taʼlim tarbiyasi inson maʼnaviyatini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Zero u eng avvalo musiqiy madaniyatlilik shakllantirilishi bilan ahamiyatli. Madaniyat-maʼnaviyat koʻrsatgichi sifatida keng qamrovli tushuncha boʻlib, bahs-munozaraga mavzu boladigan muammolardan biridir. Musiqa madaniyatini toʻgʻri yoʻlga qoʻyilishi tufayli insonda muayyan musiqiy bilim, tushuncha, malaka va koʻnikma shakllanib, ular oʻz navbatida shaxsning musiqiy-maʼnaviy dunyoqarashini tarkib topdiradi. Shaxsning musiqa maʼdaniyati-qobiliyat, bilim, malaka, koʻnikma, musiqiy asarlarini baholay olish singari sifatlar majmuida namoyon boladi. Maʼnaviy yuksalish omili bolib xizmat qiladi. Shu bois tarbiyaning ushbu turini tarkib topishining eng avvalo oiladan boshlamoq maqsadga muvofiqdir.

Ta'kidlab o'tganimizdek musiqa o'qitish metodikasi pedagogik fanlar tizimiga kiradi va o'ziga nisbatan mustaqil o'ringa ega. U musiqa tarbiyasining mazmun va metodlarini takomillashtirish maqsadida uning qonuniyatlarini o'rganadi. Musiqa o'qitish metodikasining mohiyati yosh avlodning tarbiyasida musiqa san'atining muhim ro'li va ahamiyatini anglatish bilan belgilanadi. Musiqa tarbiyasi metodik fan sifatida rivojlanishi jamiyatning madaniyat musiqa san'ati, maktablar takomillashuvi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Musiqa o'qitish metodikasidagi asosiy muammolar

1. *Ko'p yillar davomida o'quv yurtlarining cholg'u sozlari bilan ta'minlamaganligi, o'quv yurtlarida mavjud cholg'u sozlar yillar o'tishi davomida foydalanishiga yaroqsiz holga kelganligi*

2. *Mutaxassis kadrlar yetishli emasligi, mavjud o'qituvchi kadrlardan ko'pchiligining ma'lumoti yetishmasligi, yoki mutaxassisligi to'g'ri kelmasligi*

3. *Maktablarda musiqiy fanlarni o'qitish uchun ajratilgan dars soatlari kamligi va shu sababli turli muammolar paydo bolayotganligi. Dars soatlari kam bolganligi sababli mutaxassis o'qituvchilar ikki yoki undan ortiq joylarda ishlashga majbur bo'lmoqda. Maktab dars soati kam bo'lgan o'qituvchilarga past nazar bilan qarash.*

Haqiqatdan musiqiy ta'lim sohasida, ayniqsa umumta'lim maktablarida va maktabgacha ta'lim muassasalarida bunday muammolar mavjud, lekin vaqt o'tishi bilan bu muammolar o'z yechimini topmoqda. Masalan musiqiy adabiyotlarga bo'lgan ehtiyoj yil sayin qondirib borilmoqda. Mutaxassislar bilan taminlash darajasi ham o'z yechimini topmoqda. O'tkazilayotgan atesstatsiya va akkreditatsiyalar muassasalarda joy joyiga qo'yib borishda katta ro'l kadrlarni o'ynamoqda.

Bundan tashqari musiqa tarbiya vositasi bo'lib u avvalo insonga nafosat, go'zallikni his qilishga o'rgatadi. Shuning uchun musiqa estetik tarbiya turi hisoblanadi. XX-asrda dunyo bo'ylab xalq xo'jaligini va ishlab chiqarish nixoyat darajada texnikalashib ketdi. SHuni xam aytib o'tish kerakki, yaratilayotgan musiqiy asarlar va ko'proq xalqning turmush tarziga bog'liqdir.

Ommalashib ketgan kuy-qo'shiqlar xarakteri ko'proq xalqning turmush tarziga bog'liqdir. Ya'ni xalqning turmush-qanchalik faravon bo'lsa ko'proq sho'x o'ynoqi qo'shiqlar ommalasha boradi. Aksincha xalqning turmushi qanchalik qashshoq bo'lsa ko'proq vazmin, mungli kuy-qo'shiqlar ommalasha boradi.

Pedagogik jarayonni loyihalash quyidagi sakkiz bosqichda amalga oshiriladi.

1. mavzuga doir material to'plash

2. ta'lim maqsadi va vazifalarini belgilash

3. ta'lim mazmunini ishlab chiqish

4. ta'lim shakli, metod va vositalarini tanlash

5. mavzuni o'rganish uchun yetarli bo'lgan vaqtni aniqlash

6. mashqlar tizimini ishlab chiqish

7. nazorat savollari va test variantlarini ishlab chiqish

8. loyixani o'quv jarayonida tadbiriq etish

Bundan tashqari musiqa insonlarni jamiyat axloq normalariga rioya qilishga chaqiradi. Jamiyat axloq normalari ichida kishi-kishiga do'st, o'rtoq birodar bo'lishi lozim. Musiqa eng avvalo insonlar o'rtasidagi, qolaversa elatlar, millatlar o'rtasida do'stlik va birodarlikka chorlaydi. Chunki yaxshi qo'shiq inson qalbidan tezda joy oladi va inson beixtiyor ko'nglida takrorlaydi. Shunda u so'zlar manosini chaqa boshlaydi. Shu orqali u ezgulik sari qadam

tashlaydi. Insonlarni odob axloqqa chaqiruvchi, nasixatomuz qo‘shiqlar barcha xalqlar, barcha millatlar musiqa madaniyatida mavjuddir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I. Karimova D. Musiqiy pedagogik maxorat asoslari. - Toshkent 2008
2. SHaripova G. Musiqa va uni o‘qitish metodikasi. Toshkent
3. Akbarov I. Musiqa lug‘ati. Toshkent-1997
4. I. A. Karimov. Bunyodkorlik yo‘lidan. T. ‘‘O‘zbekiston nashriyoti’’ 1996-yil
5. I. A. Karimov. Yuksak ma‘naviyat- yengilmas kuch. T. ‘‘Manaviyat’’ nashriyoti 2008-yil
6. Mirziyoyev SH. M. Erkin va faravon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T. O‘zbekiston 2016
7. Muminova Muqaddas Riskulovna Development And Current Status Of Uzbek Pop Music In Modern Approaches And Innovations Of Teaching The Science Of Music Culture International Journal of Advanced Science and Technology Vol. 29, No. 8, (2020) <https://t.me/joinchat/> - Music teacher, <https://infourok.ru> - music lessons
8. Muminova Muqaddas Riskulovna *International Journal of Mechanical Engineering*. The Innovative Technologiyes Of Teaching In Musical Edukational Establishments 1764-1767-betlar. 2022- йил.
9. Muminova Muqaddas Riskulovna Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. THE ROLE OF SPORT ACTIVITIES, GAMES AND COMPETITIONS IN THE NURTURE OF 6-7 YEARS OLD CHILDREN <https://uzjournals.edu.uz/tziuj> 68-78betlar 2022
10. Urinova S. Sh. Musiqiy fanlarda pedagog kreativligi. ‘‘Yangilanayotgan O‘zbekistonda fan, ta‘lim va innovatsiya uyg‘unligi’’ mavzusidagi 6-son 2-qism Respublika ko‘p tarmoqli ilmiy konferensiyasi VIII bo‘lim Toshkent 2021. 677 bet. Udk. 001.895 (575.1).
11. Urinova S. Sh. Musiqiy fanlar o‘qituvchisining kreativligi. Педагогические и лингвопсихологические особенности развития, формирования и становления личности врача. Сборник тезисов Международная конференции. СамГМИ, Самарканд 5 мая 2021 год
12. Urinova S. Sh. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishning nazariy asoslari. ‘‘The best innovator in science’’ xalqaro maqolalar tanlovi to‘plami. Organized by Innovative Academy. Tashkent February 5, 2022. Pg 811. <https://zenodo.org/record/5979621#.YpC2PKhBxD8>
13. T. Ye. Solomonova. O‘zbek musiqasi tarixi. - T. ‘‘O‘qituvchi’’ nashriyoti 1981-yil
14. I. Rajabiy. Maqomlar masalasiga doir. - T. ‘‘Badiiy adabiyot’’ nashriyoti. 1963-yil.

MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTLARIDA MUSIQA MASHG‘ULOTLARINI O‘TKAZISH METODIKASI

*Karimov Saxob Baxromovich,
JDFU Musiqa ta‘limi kafedrasini o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida musiqa mashg‘ulotlarida fanlararo integratsiyalashuvni tashkil etish bo‘yicha mavzular mazmun mohiyatidan kelib chiqib mashg‘ulot rejalarini ishlab chiqish bo‘yicha ko‘rsatmalar berilgan.

Kalit soʻzlar: Musiqa mashgʻulotlari, integratsiyalashuv, kompozitor, oʻqituvchi, oʻquvchi, tabiat, ohang, kuy, tarbiyalanuvchilar, texnologiya, bilm, malaka, koʻnikma, idrok.


Musiqa mashgʻulotlarini tashkil etish metodikasi va maktabgacha taʼlimning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan Davlat talablari. Maktabgacha taʼlim jarayonida tarbiyalanuvchilarning tayyorgarlik darajasiga qoʻyiladigan minimal talablar. Musiqa mashgʻulotlarini oʻtkazish metodikasi fanidan taʼlim mazmunining minimal hajmi. Tarbiyalanuvchilarning musiqa mashgʻulotlarida egallashi lozim boʻlgan kompetensiyalari. Musiqa mashgʻulotlari taʼlimi dasturi mazmuni, mohiyati va tahlili. Mashgʻulotlar tahlili. «Ilk qadam» maktabgacha taʼlim muassasalari uchun ishlab chiqilgan dastur – davlat hujjati boʻlib, musiqa rahbarini taʼlimiy tarbiyaviy ishi, bolalarni barkamol tarbiyalab maktab taʼlimiga tayyorlashini nazarda tutadi. Musiqa mashgʻulotlarini rejalashtirar ekan, pedagog bolalarning aqliy, jismoniy, emotsional yuklamalarini hisobga olishi kerak va shunga koʻra oʻrgatiladigan repertuar va faoliyat turlarini ketma – ketligini toʻgʻri tuzishi kerak.

Har bir musiqa rahbari xar bir musiqa mashgʻulotini qiziqarli va bolalar xotirasida uzoq saqlanishi uchun koʻrgazmalardan unumli foydalanishni bilishi zarur. Mashgʻulotni tashkillashda musiqa rahbari quyidagilarni yoddan chiqarmasligi kerak:

- mashgʻulot bayoni, yangi qoʻshiq, raqs xarakatlari, foydalaniladigan cholgʻu asboblari uchun tayyorlangan koʻrgazmalar;
- qismlarni bir-biriga uzviy bogʻlay olish;
- bolalarni qiziqtirish uchun ularning yosh xususiyatlarini eʼtiborga olgan xolda sodda va past ohangda muloqatda boʻlish;
- texnika vositalaridan foydalana olish;
- musiqiy taʼlimiy va didaktik oʻyinlar yordamida bolalar bilim va koʻnikmalarini mustahkamlab borish;
- musiqaviy xarakatli oʻyinlarni atributlar va oʻyinchoqlar yordamida tashkillashtirish.

Maʼlumki, nutqida nuqsoni boʻlgan bolalar bilan ishlashda, ularning nutqlarini tiklashda musiqa mashgʻulotlari katta oʻrin tutadi. Bunday guruh bolalari bilan musiqa rahbari logoped musiqa rahbari bilan hamkorlikda ishlasa oʻz maqsadiga yetadi.

Nutqida nuqsoni bor bolalarning nutqini tiklashda musiqa rahbarlari koʻproq logoritmikaga eʼtibor qilishlari koʻzda tutiladi. Bunda:



Yuqorida ko'rsatilgan tavsiyalar mashg'ulot jarayonida o'z samarasini beradi. Bolalarning musiqa tafakkurini rivojlantiradi. Idroki va hissiyotini tarbiyalaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar yorqin va quvnoq ranglarni xush ko'radilar, ularda bu orqali quvnoqlik hissiyotlari rivojlanib boradi.

O'quv materiali murakkabligiga ko'ra xilma – xildir: ko'proq aqliy faoliyatni, diqqatni talab qiladigan vazifalarni mashg'ulotlar boshida berish kerak. Kuylashdan oldin murakkab jismoniy mashqlarni berish mumkin emas, chunki bunday mashqlar bolalarni nafas olishlarini qiyinlashtiradi. Amaliyotga ko'ra faoliyat turlarini quyidagicha berish maqsadga muvofiq.

Mashg'ulot boshida kichik musiqiy – ritmik mashqlar, ular birorta raqs elementlari ham bo'lishi mumkin. Bunday harakatlar bola diqqatini jamlaydi. 28 Ritmik mashqlardan so'ng bolalar o'tiradilar va musiqa tinglaydilar. Keyin esa qo'shiq kuylashga o'tadilar. Bolalar bir mashq davomida 2 – 3 ta qo'shiq kuylashadi. Masalan, marsh, raqs, qo'shiq jarayonida musiqa savodidan xabardor bo'ladilar. Bunday mashg'ulotlar mavzuli mashg'ulotlar deyiladi. Yana biri bu kompleks mashg'ulotlardir. Bunda bolalar bilan faqat musiqa emas, balki, adabiyot va tasviriy san'at bilan shug'ullanadilar.



Musiqa mashg'ulotlari – har bir bolaning musiqiy qobiliyatini maqsadga muvofiq va har tomonlama ta'lim – tarbiya beruvchi mashg'ulotlardir. Ularda har xil faoliyat turlari: kuylash, ritmik harakatlar bajarish, musiqa tinglash, musiqa savodi bilan tanishtirish kabi faoliyatlarni uzviy bog'lab olib boradilar. Musiqa faoliyatini bajarish bolalarni faolroq bo'lishlariga asos bo'ladi. Tashkil etiladigan bayramlar ham qiziq va muvaffaqiyatliroq o'tadi. Musiqa mashg'ulotlari butun guruh bilan bir vaqtda o'tkaziladi. Uning mazmuni va tuzilishi bolalar yoshi va beriladigan vazifalarga bog'liq.

Musiqa mashg'ulotlar haftasiga ikki marta o'tkaziladi. Unda guruhning barcha bolalari ishtirok etadi. Musiqa mashg'ulotlari – musiqa tinglash, qo'shiq o'rgatish, musiqiy – ritmik harakatlar bajarish, raqsga tushish, musiqiy – didaktik o'yinlar, bolalar cholg'u asboblari chalishga o'rgatish va musiqaga oid ma'lumotlarni qamrab oladi. Har bir mashg'ulotdan mashg'ulotga sayin bolalarga musiqaviy ta'lim-tarbiya berishning qaysidir vazifasi hal etib

boriladi. Musiqa rahbari ushbu ishda rahbarlik qiladi, to'g'ri yo'l ko'rsatib, maslahat va tavsiyalarini berib boradi.

Bolalarni bilim va malakalariga qo'yiladigan talablar har bir guruh uchun faoliyat turiga qarab tuziladi.

Bunday mashg'ulotlarning qiyinligi shundaki, bolalarning diqqatini bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatga ko'chirish kerak bo'ladi. Shu ketma – ketlikni reja asosida amalga oshirish murakkabdir. Chunki bolalarning psixologik hususiyatlarini hisobga olsak, ular bugun o'rgangan asarlarini keyingi safar unutishlari mumkin.

Zamonaviy pedagogika ta'lim tizimining maqsadi, yangi toifaga mansub bo'lgan musiqa rahbarining umumiy va kasb kamolotiga erishishdan iborat.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yuqorida ko'rsatilgan zamonaviy texnologiyalarga asoslangan holda mashg'ulot olib borish, albatta o'z samarasini beradi. Musiqa taffakurini rivojlantiradi, idroki va hissiyotlarini tarbiyalashda katta ro'l o'ynaydi. Shuningdek ham aqliy ham jismonan kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qudratov I, Abdukarimova E. "Musiqa darslarida fanlararo aloqadorlik" Samarqand, SamDu bosmaxonasi, 2015yil.

2. E.Abdukarimova. Ilm ham jamiyat Ajiniyaz atindagi Nokis mamleketlik pedagogikaliq instituti "Texnologik loyihalash- musiqa mashg'ulotlarida samarali ta'lim". 2019 (№1) ISSN 2010-720X.

3. Elnozza Ismatillayevna Abdukarimova Актуальные вызовы современной науки. "Yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda xalq musiqa merosi qudratli tarbiya vositasi" iscience 2017 yil.

4. S.B.Karimov."Musiqa darslarini fanlararo aloqadorlikda tashkil etishning o'ziga xos uslublari" . Alma mater Samarqand.2014-yil 2-kitob. 51-52-bet.

5. Karimov S. Musiqa darslarining fanlararo integratsiyalashuv jarayonidagi muammolari va yechilishi zarur bo'lgan vazifalar. O'zMU xabarlar. 2022/1/5/1. Toshkent 2022.

6. Karimov S. "The importance of using interdisciplinary integration in shaping students' knowledge and skills". Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). India 2021-yil. 8-avgust. 264-268 bet.

7. Karimov S. "O'quvchilarning bilm va malakalarini shakllantirishda fanlararo integratsiyalashuvni qo'llashning ahamiyati". Masofaviy ta'limni tashkil etishning pedagogic-psixologik jihatlari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Toshkent-2021-yil noyabr. 295-297-bet.

8. Karimov S. "Musiqa darslarini tabiat fani bilan o'zaro bog'liqlikda tashkil etishning o'ziga xos uslublari". "Xorijiy filologiya , adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik masalalari" Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Jizzax 2021-yil 23-fevral. 238-241 bet.

МУСИҚА МАДАНИЯТИДА САНЪАТ ВА МАЪНАВИЯТ ТАРИХИНИ ЎРГАНИШНИНГ ПЕДАГОГИК МАСАЛАЛАРИ

Киямов Н.С. п.ф.д., доц. Ш.Рашидов номидаги СамДУ

Аннотация. Мақола мусиқага бўлган қизиқиш кишилиқ жамияти тараққиётининг барча босқичларида муҳим маъно ва мазмун касб этган. Шу ўринда мусиқа иаълими жараёнида ёшларни миллий ғоя руҳида тарбиялашнинг илмий назарий асослари унинг назарий тарихий жиҳатлари, бизгача етиб келган ўзбек халқ мусиқа маданиятида санъат ва манавият тарихининг педагогик масалалари педагогика соҳасида муҳим муаммо сикатида ёритилади.

Асосий тушунчалар: тарих, адабиёт, санъат, сиёсат, ахлоқ, фалсафа, мусиқа, уд. Дутор, арганун, домбра, кўбиз, чўпон най, сибизик, чанқобуз, дойра, зарбли мусиқа асбоблари.

Аждодларимиз тафаккури ва даҳоси билан яратилган энг қадимги тошёзув ва битиклар, халқ оғзаки ижоди намуналаридан тортиб, бугунги кунда кутубхоналаримиз хазинасида сақланаётган минг-минглаб қўлёзмалар, уларда мужассамлашган тарих, адабиёт, санъат, сиёсат, ахлоқ, фалсафа, тиббиёт, математика, минералогия, кимё, астраномия, меъморлик, деҳқончилик ва бошқа соҳаларга оид қимматбаҳо асарлар бизнинг буюк маънавий бойлигимиздир.

Ана шундай тарихий ёдгорлик намуналари билан яқиндан танишар эканмиз, уларда ифода этилган теран фикр ва ғоялар, ҳаёт фалсафаси бизни бугун ҳам хайратда қолдиришга яна бир қарра амин бўламиз [1:31].

Мусиқага бўлган қизиқиш кишилиқ жамияти тараққиётининг барча босқичларида муҳим маъно касб этган. Шу ўринда мусиқа таълими жараёнида ёшларни миллий ғоя руҳида тарбиялашнинг илмий назарий асослари унинг назарий жиҳатларини тадқиқ этган олимларнинг асарлари таҳлили асосида амалга оширилиши назарда тутилади. Иккинчидан, мазкур соҳада услубий ишларнинг ташкил этилиши ва ундан фойдаланиш масалаларининг ёритилиши билан боғлиқдир. Муаммо нафақат сиёсатчи олимлар, балки файласуф, тарихчи, педагог, психолог ҳатто фундаментал фанлар билан шуғулланувчиларнинг диққат марказида бўлиб келган. Бу борада Шарқ ва Ғарб, Америка олимлари томонидан ҳам бир қатор илмий ишлар амалга оширилди.

Халқ мусиқа санъати, бастакорлик ва композиторлик ижодиёти услублари, мусиқанинг ифодавий воситалари (мусиқа нутқи ва оҳанги), классик мусиқанинг моҳияти каби мусиқа санъатининг ўзига хос хусусиятлари ва қонуниятлари мавжуд.

Мусиқани тинглашда нафақат мусиқий саводхонлик балки, кишининг умумий дунёқараши, ички дунёси, маънавияти, тарбияси асосий омил ва кўрсаткичдир. Мусиқа саводхонлиги эса ҳар бир онгли шахсда мавжуд бўлган бадиий маданиятнинг бир кўриниши сифатида акс этадиган фалсафий ва тарбиявий моҳиятига эга жараёндр.

Мусиқа саводи, мусиқанинг ифода воситалари, мусиқа товушларини ёзиш усуллари ва мусиқа назарияси бўйича дастлабки маълумотлар бизга миллий тарихимиздан етиб келган.

Тарихий манбаларнинг кўрсатишича ўзбек мусиқа санъатининг илдизлари жуда қадимийдир. Тарихий адабиётлардаги маълумотлар ва археологик қазилма топилмалари шундан далолат беради. Эрамиздан олдинги IV асрда (қарийб 2400 йил муқаддам) Искандар Зулқарнайн Ўрта Осиёни забт этганда юнонлар аждодларимиз бўлмиш

сўғдийлар, бактрияликлар ва хоразмийликларнинг бой мусиқа маданиятидан хайратда қолганлар. Уларнинг машшоқ-хонандалари аждодларимизнинг ажойиб ва дилкаш кўшиқ ва куйларини, юксак ижрочилик санъатини, шунингдек, хушнаво турли чолғу асбобларини ўрганиб, ўзларининг мусиқа маданиятини бойитганлар. Натижада айрим чолғу асбобларимиз оврупа халқлари амалиётида қўлланиб, янги кўриниш (шакл) ва номланишда тарқалган (уд-лютия, дутор, гутор-гитара, арганун- арфа ва бошқалар).[3:9]

Шунингдек, анъанавий чолғулар қаторида миллий дўмбра, кўбиз, чўпон най, сибизик, чанқобуз, доира ва турли зарбли асбоблар қадимда мусиқа амалиётида қўлланилгани маълум.

IX-X асрларга келиб, Сомонийлар давлатида Бухоро юксак санъат ва илму фан масканига айланди. Бу даврда оламга машҳур олимлар, шоирлар ва мусиқачилар етишиб чиқдилар. Машҳур файласуф ал-Форобий, Аҳмад Фарғоний, аллома Абу Райҳон Бериуний, буюк Абу Али Ибн Сино, Абу Абдулло Рўдакий, Абулқосим Фирдавсий ва бошқалар Ўрта аср Шарқ маданиятига катта ҳисса қўшдилар. Айниқса ал-Форобий ва Ибн Сино Шарқ мусиқашунослиги равнақига улкан ҳисса қўшдилар.

XI-XV асрлар давомида ўзбек халқининг маданияти янги чўққиларга эришди. Айниқса Темурийлар замонида ўзбек мусиқа маданияти юксак ривожланди. Бунда Абдурахмон Жомий, Алишер Навоий, Мирзо Улуғбек, Заҳриддин Бобур каби улуғ алломаларнинг хизматлари алоҳида хурматга сазовор.

XVI-XIX асрларда Самарқанд, Бухоро, Қўқон, Хоразм каби илм ва маърифат масканларида мусиқа санъати кенг ривожланди. Хусусан, Мавлоно Кавкабий Бухороий ва Дарвишали Чангийларнинг мусиқа-назарий рисолалари шу пайтда ёзилган бўлиб, катта аҳамият касб этган эди. Бу даврда энг салобатли мақомларимиздан Шашмақом туркуми мукамал шаклга кирди. Шунингдек, дostonчилик санъати ҳам юксак ривожланди. Бинобарин, ўзбек мусиқаси икки асосий тармоқда - халқ оммовий жанрлари (болалар кўшиқлари, алла, ялла, терма, лапар, кўшиқ, лирик ва рақс куйлари)га ва оғзаки анъанадаги устозона (профессионал) мусиқа (ашула, катта ашула, дoston, мақомлар) йўналишларида қарор топиб келди.

XIX-асрнинг иккинчи ярмида Туркистон хонликлари рус чоризми томонидан босиб олина бошланди, натижада мусиқа маданиятимизга русия орқали Оврупо мусиқаси таъсири жараёни бошланди.

Бу анъаналар эса узоқ даврлар мобайнида шаклланган бўлиб, улар халқимизнинг турли шароитлардаги турмуш тарзи, меҳнат машғулотлари, турфа маросимлари, урф-одат ва байрамлари каби жараёнлар билан узвий боғланиб кетади. [2:3]

Шўро даврида мусиқа маданиятимизда турли ўзгаришлар рўй берди. Чунончи, мактаб таълими ва мусиқа ўқув юртларида мусиқани оврупоча (фан сифатида) ўрганиш жорий этилди, шунингдек театр, концерт муассасалари ташкил этилди. Композиторлик мусиқа ижодиёти услуги вужудга келди, натижада ўзбек композиторлари етишиб чиқди. Айниқса шу услубда ижод этилган болалар мусиқасига эътибор кучайди. [3:10]

Шу билан бир қаторда мусиқанинг янги эмоционал таъсири – кайфият, поэтик эркинлик, ижод, ҳиссиёт, турланиш каби янги имкониятлари композиторлик йўналишида шакллана бошлайди.

Ўзбек миллий чолғу асбоблари оркестри сафига Ўрта Осиё, ҳатто Яқин Шарқ халқлари чолғу асбоблари – уд, афғон рубоби, танбур, дутор, най, чанг, қашқар рубоби, ғижжак, сато, карнай, сурнай, бўламон, дўмбра, кўбиз, сафоил, доира, ноғора кабилар киритилади.

Ўзбек ашула ва кўшиқларида аруз формаси, ғазал, байт, рубоий, мухаммас ва бошқалар янада кенгрок, шунингдек оддий, мураккаб. Аралаш усулларининг турли кўринишлари, миллий шакллари қўлланила бошлайди.

Сурхандарё-Қашқадарё мусиқа услуби деганда Сурхандарё ва Қашқадарё вилоятлари худудида асрлар давомида шаклланган барча мусиқий – бадий анъаналар тушунилади. Бу анъаналар меҳнат айтимлари, мавсумий маросим кўшиқлари, чўпонлар ижоди, бахшилар санъати ва халқ ижодига оид яна кўплаб айтим ва чолғу куйларидан ташкил топган. Шунини ҳам айтиш керакки, мусиқий анъаналарнинг келиб чиқиш негизлари қадимий даврларга тааллуқли бўлиб. Улар турли вазиятларда, халқнинг турмуш тарзи билан боғлиқ турли кўринишларда, хусусан, меҳнат жараёнларида, оилавий шароитда ўтказиладиган урф-одат ва маросимларда, оммавий сайил ва тантаналарда юзага келади. [2:6]

Мана шу ўринда ўзбек миллий мусиқа мактабининг янгитдан шакллана бошлаши жараёнларини кузатиш мумкин. Тўғри, Ғарб мусиқаси таъсирида бир қатор яратилган мусиқий асарлар ҳам ушбу жараёндан келиб чиқадиган маданий ҳодисадир. Нима бўлганда ҳам, замонавий мусиқий ижро услублари ўз тараққиёт даврини бошидан ўтказа бошла ва ушбу ҳолат ҳозиргача ҳам давом этиб келмоқда.

Бугунги кунда мазкур услублар йўналишида умумтаълим муассасаларида (масалан, 7-синфларда) ўтиладиган “Мусиқа” дарсларининг 1-чорагида Сурхандарё – Қашқадарё ва Бухоро-Самарқанд, 2-чорагида Хоразм ва Фарғона-Тошкент, 3-4 чорагида Шашмақом, Хоразм мақомлари ва Фарғона-Тошкент мақом йўллари ўргатилллади. [2:3]

Халқ мақомлари билан бир қаторда ижрочилар томонидан кўшилаётган янгиликлар ҳисобига мусиқа ижрочилигининг бойиб келаётганини кузатишимиз мумкин.

Ҳар бир мусиқий асарни бадий жихатдан баҳолаш, уни чуқур идрок этиш, эстетик завқ олиш эса бу ўринда муҳим саналади.

Мазкур масалада биринчи Президентимиз И.А.Каримовнинг қуйидаги фикрларини эсга олмасликнинг иложи йўқ: «Кейинги пайтда санъатда ошкораликни пеш қилиб, телевизор, кино экранларида, матбуот воситаларида бўлмағур лавҳаларни акс эттириш, бемаънилик ва ҳаёсизликни, баъзан эса, ҳатто ахлоқий бузукликни тарғиб қилишлар кўпайиб қолди.

Барча – қаерда, қандай лавозимда ишламайлик, жамиятимизнинг инсонийлик ва ахлоқий ақидаларини поймол қиладиган ана шундай тажовузкорлик кўринишларига қатъий равишда қарши туришимиз лозим. Бундай муносабат жамоатчилигимиз, халқимизга ҳам маъқул бўлади, деб ишонаман». [1:80]

Мустақиллик йилларида юртимизда санъатнинг барча турларини ҳар томонлама ривожлантириш учун кенг имкониятлар яратилди. Бу эса ўз навбатида зиёлилар зиммасига халқимиз, айниқса, ёшлар онгида Ватанга муҳаббат, юртга садоқат, фидойилик ғояларини бадий пухта ва мукамал асарлар орқали самарали ва таъсирчан усулларда сингдириш маъсулиятини юклайди. Бунда барча маданий-маърифий тадбирлар билан бир қаторда мусиқий таълим-тарбия воситаларидан самарали фойдаланиш ёшлар дунёқарашини юксалтирадиган, уларга руҳий-маънавий озик берадиган тадбирларни ташкил этиш муҳим аҳамият касб этади.

Бизгача етиб келган ўзбек халқ мусиқа маданиятида санъат ва маънавият тарихининг педагогик масалалари бугунги кунда педагогика соҳасида муҳим илмий

муаммо сифатида ўз долзарблигини намоён этмоқда. Шундай экан, мазкур йўналишда олиб борилаётган илмий тадқиқотлар, асарлар, бой тажрибалар, таҳлилларни ўрганиш илмий аҳамиятга молик бўлиб қолаверади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: «Маънавият», 2008. – 176 б.
2. Иброҳимов О., Садиров Ж. Мусиқа : 7-синф учун дарслик. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти., 2001. – 248 б.
3. Д.Омонуллаев, О.Иброҳимов, Ш.Ёрматов. Мусиқа: 8-синф учун дарслик / иккинчи нашри. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – 80 б.

МУСИҚА ТАЪЛИМИДА КОМПЬЮТЕР ДАСТУРЛАРНИ Қўллаш имкониятлари

Кобулова Мактуба Дильшодовна

ЖДПУ Мусиқа таълими йўналиши 3-курс талабаси.

Илмий раҳбар: М.Н.Абилов, ЖДПУ

Мусиқа таълими кафедре мудири

Аннотация: Мақолада педагогика олийгоҳларида мусиқа таълими фанларини замонавий ахборот технологиялардан фойдаланган ҳолда ўқитилишини самарадорлиги ҳақида фикр юритилади. Хусусан, Sibelius нота муҳаррирининг ўқитувчи ва талабалар фаолиятидаги ўрни ва атрофлича кўриб чиқилган.

Калит сўзлар: мусиқа таълимидаги ахборот технологиялар, Sibelius, аҳамияти нота муҳаррир, компьютер дастури.

Таълим жараёнига илғор ахборот технологияларини жорий этиш давлат микёсида амалга оширилиб, таълим сиёсатининг устувор йўналиши сифатида қаралмоқда. Ахборот технологияларидан фойдаланиш мусиқа таълими соҳасидаги кўплаб муаммоларни ҳал этишни ўз ичига олади. Ҳозирги кунда мусиқа бўлимлари талабалари томонидан ўқув жараёнини интенсивлаштириш, ўқитишни индивидуаллаштириш, қайта алоқа ўрнатиш, талабалар томонидан ўзлаштирилаётган материаллани оптималлаштириш учун АКТдан етарли фойдаланилмаётганлиги кузатилмоқда.[3] Компютер билан жиҳозланган синф хоналар нафақат ахборот технологияларини ўрганиш, балки уларни мутахассислик фанлари, хусусан, мусиқий таълим йўналиши предметларини ўрганишда қўллаш учун ҳам зарур. Мусиқа фанлари ўқитувчилари дастурчилар билан доимий мулоқотида бўлишлари керак. Мусиқа бўлими талабалари ва ўқитувчилари учун "Encore", "Final", "Sibelius" каби кучли ва оммабоп мусиқа дастурларини ўрганиш алоҳида аҳамиятга эга. Sibelius мусиқа нота муҳаррири 1986 йилда Бен ва Жонатан Финнлар томонидан ихтиро қилинган ва биринчи марта 1998 йилда ишлаб чиқарилган. Дастурнинг ва уни ишлаб чиқарган компаниянинг Номи Финляндиялик бастакор Ян Sibelius номига тўғри келади. Бу ном компания асосчиларининг фамилияси - Финн бўлгани учун ҳам танланган деган фикрлар мавжуд. Sibelius нота муҳаррири - энг кучли замонавий нота ёзуви тизимларидан биридир. Унда 450 дан ортиқ турли иш асбоблари мавжудки, уларнинг ҳар бири билан турли калитларда ёза олиш махсус тизимлари кўзда тутилган.[1]

Sibelius нота муҳаририни мусикий таълим мутахассислиги бўйича тахсил олаётган институт талабалари томонидан ўрганиш тизими, илмий, яхлитлилик, кўп функционаллик, шунингдек, шахсга йўналтирилган ёндашув тамойилларига асосланган. Sibelius нота муҳаррири белгиси. Ушбу дастурдан фойдаланиш усули мураккабликни ошириш бориш принципи ва ҳар бир талабанинг индивидуал қобилиятларини ҳисобга олган ҳолда бир неча кетма-кет босқичларни ўз ичига олади:

- тўғридан-тўғри дастурнинг техник элементларини ўргатиш;
- махсус мусикий фанларни ўрганишда дастурдан фойдаланиш; - касбга йўналтирувчи мусиқа фанларини ўрганиш жараёнида дастур элементларини жорий қилиш; - талабаларнинг касбий даражасини ошириш учун дастурдан фойдаланиш; - мактабда ва болалар богчасида педагогик амалиётни муваффақиятли ўтказиш учун дастур элементларига таяниш;

- мусиқа таълими фанларини педагогика, психология ва бошқалар каби умумтаълим фанлари билан боглаш учун дастур элементларидан фойдаланиш. [1,5]

Мусиқа муҳаррири билан танишганидан сўнг талаба мусиқа-касбий фаолият соҳасидаги вазифаларни ҳал қилиш учун ундан фойдаланиш тажрибасини олади, мусикий компьютер саводхонлиги асосларини ўрганади, педагогик ва ижодий фаолиятда инновацион куникмаларни қўллашни, болалар мусиқа ижодиётини ривожлантиришнинг замонавий технологияларини урганади. Sibelius компьютер дастурининг имкониятларидан фойдаланиб, махсус мусикий фан дарсларини уқитиш учун мамлакатимизда янги ёндашув ишлаб чиқиш ва жорий этиш максадга мувофиқ бўлар эди. Россиянинг Санкт-Петербург шаҳрида индивидуал таълим дарсларига нисбатан турли хил тембр, темп, аранжировка ишларини бажариш билан компьютер дастурларини қўллашнинг янги усули синовдан ўтказилган. "Журнавозлик", "Қўшимча чолгу", "Чолгу ижрочилиги ва ансамбль" фанларидан компьютер дастуридан фойдаланган ҳолда талабанинг мусикий материалларидан биргаликда фойдаланиш бўйича муваффақиятли тадқиқотлар ўтказилган.[2] Ушбу дастурдан фойдаланиш талабаларнинг "Гармония", "Солфеджио", "Мусиқа элементар назарияси" каби фанларни ўрганишда билим ва кўникмалари юқори даражада намоён қилади. Чунки талабалар барча вазифаларни компьютер технологиясидан фойдаланган ҳолда бажарадилар ва бу вақтни тежаш имконини беради. Товушлар ва аккордларни тугридан-тўғри тинглаб хатоларни тугрилаш имконини беради. Sibelius талабаларга дарс ёки мусиқа машгулотларига тайёргарлик кўраётганда мактабда ёки мактабгача таълим ташкилотида амалиёт ўташида бебаҳо ёрдам бериши мумкин. Дарснинг хулосаларини ишлаб чиқиш, мусикий материалларни танлаш ва қайта ишлаш, амалиёт кундалигини лойиҳалаш - буларнинг барчаси "Sibelius" ёрдамида имкон қадар қисқа вақт ичида бажаришга имкон беради.[3]

Ушбу дастурнинг янгилиги талабалар ва ўқитувчилар укув ва касбий фаолиятни анъанавий ўқув кулланмаларисиз амалга ошириши мумкинлигидадир. Компьютер технологияларидан фойдаланиб, бир неча дақиқада исталган дидактик материал ёки мусикий асарни, хох у кўшиқ, ёки кичик этюд бўлсин, гармония фанидан топшириқлар ёки солфеджио амалий машқлари бўлсин, тайёрлаш мумкин. Шу билан бирга ахборот технологияларини қўллаётган ижодкор "компьютер инсон учун, инсон компьютер учун эмас" деган гоёни эсдан чиқармаслиги лозим.[4] Ушбу фикр асосан баъзи талаба ва ёш мутахассисларга тегишли. Чунки улар ўз фаолиятларида факат ахборот технологиялари ва замонавий компьютер дастурларига богланиб қолиб, уларсиз меҳнат қилишга қийналадилар. Мусиқани ёзиб олишда "когоз-калам" амалиётини ўзлаштириш,

шубхасиз, бирламчи. Ўқувчи-талаба мусиқа саводи кўникмасини нота дафтарига ўз кўли билан ноталарни ёзишдан бошлаб шакллантирмоги лозим. Мутахассис мусиқа ўқитувчиси ёки ижрочининг мазкур нота мухаррирлари каби компьютер датурларидан нотугри фойдаланиши салбий натижаларга олиб келиши мумкин. Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, ҳозирги кунда, айниқса мусиқа таълимида, мамлакатимиз таълим тизимининг барча бўғинларида замонавий компьютер дастурлардан фойдаланиш зарур ва муҳим. Бирок, компьютер талаба, ўқитувчи, қолаверса инсоннинг ёрдамчиси бўлиб қолиши янада муҳим. Унинг ижодкор инсон ўрнига иш бажарувчи воситага айланишига йўл қуймаслик лозим. Замонавий ахборот технологиялари кўникмаларини ва уларни қўллаш усулларини мувоzanатини сақлаш, ўқитувчиларнинг муҳим вазифаларидан биридир. Ушбу муаммонинг тўғри ечимини топиш ўқитувчининг тажрибаси, маҳорати ва шахсий инсонийлик дунёқарашларига боғлиқ.[6]

Фойдаланилган адабиётлар

1. Гетьман В.В. Психолого-педагогический аспект в становлении личности музыканта-педагога // Среднее профессиональное образование. 2008 № 9.
2. Hasanova Navbahor Hamraqulovna. (2020). Bo'lajak o'qituvchilarning o'zbek mumtoz musiqasida kasbiy malakasini oshirish muammolari. *Xalqaro ilg'or fan va texnologiyalar jurnali*, 29 (08), 3489-34953495.
[Http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558](http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558)
3. Hasanova, Navbahor. (2020). METHODS AND WAYS TO DEVELOP THE MUSICAL FEELINGS OF STUDENTS IN TTTE LESSONS OF MUSIC EUITURE. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(42). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5579
4. Khasanova, Navbakhor (2020) "The role of music lessons in the formation of national and intercultural competence in students." *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*. Vol.2020 :Iss.2. Article 15. :<https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss2/15>
5. Одинокова Е.В. Информационно-коммуникационные технологии В образовательной среде технического вуза // Среднее профессиональное образование. 2009. № 8.
6. Антонов Л. Реставрация грамзаписей//«Юный техник», № 2.-М., 1996. 4. Светличный С. Консервированная музыка//«Звукорежиссер», № 5. -М. 1990.
7. Умуров Н.К. Нотный редактор SIBELIUS 1.1. (структура, возможности и использование). Т., 2008 г.
8. Muminova Muqaddas Riskulovna Development And Current Status Of Uzbek Pop Music In Modern Approaches And Innovations Of Teaching The Science Of Music Culture *International Journal of Advanced Science and Technology* Vol. 29, No. 8, (2020) <https://t.me/joinchat/> - Music teacher, <https://infourok.ru> - music lessons
9. Muminova Muqaddas Riskulovna *International Journal of Mechanical Engineering*. The Innovative Technologiyes Of Teaching In Musical Edukational Establishments 1764-1767-betlar. 2022- йил.
10. Muminova Muqaddas Riskulovna Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. THE ROLE OF SPORT ACTIVITIES, GAMES AND COMPETITIONS IN THE NURTURE OF 6-7 YEARS OLD CHILDREN <https://uzjournals.edu.uz/tziuj> 68-78betlar 2022

11. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlarda pedagog kreativligi. “Yangilanayotgan O‘zbekistonda fan, ta’lim va innovatsiya uyg‘unligi” mavzusidagi 6-son 2-qism Respublika ko‘p tarmoqli ilmiy konferensiyasi VIII bo‘lim Toshkent 2021. 677 bet. Udk. 001.895 (575.1).

12. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlar o‘qituvchisining kreativligi. Педагогические и лингвопсихологические особенности развития, формирования и становления личности врача. Сборник тезисов Международная конференции. СамГМИ, Самарканд 5 мая 2021 год

13. Urinova S.Sh. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishning nazariy asoslari. “The best innovator in science” xalqaro maqolalar tanlovi to‘plami. Organized by Innovative Academy. Tashkent February 5, 2022. Pg 811. <https://zenodo.org/record/5979621#.YpC2PKhBxD8>

14. <<Sibelius>> dasturining elektron ma’lumotnomasi. 4.0., 6.2. versiyalari. Sibelius Software Limited (2007-2010).

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA MATEMATIKAVIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA AKTDAN FOYDALANISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Majidov Elmurod Ermatovich, Jizzax DPU ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim) – yo‘nalishi 2-kurs magistri.

Annotasiya: Maqola mazmunida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematikaviy kompetensiyalarni shakllantirishda AKT dan foydalanishning psixologik jihatlari haqidagi fikr-mulohazalar bildiriladi.

Kalitli so‘zlar: boshlang‘ich sinf, axborot-kommunikatsiya, texnologiya, AKT vositalari, didaktik yondashuv.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining matematikadan o‘qishga tayyorligini ko‘rsatuvchi bir qator psixologik omillari mavjud. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining shaxs sifatida rivojlanishi bir qator biologik, fiziologik, ijtimoiy-pedagogik, iqtisodiy omillarga bog‘liq. Bola shaxsining rivojlanishidagi shunday omillardan biri - psixologik omildir.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchining o‘z-o‘zini anglay bilishi, ya’ni o‘z-o‘ziga baho berish mayil istagi; o‘zini boshqa shaxslar bilan taqqoslashi; fikrlarini erkin, ochiq, mazmunli ifodalashi; o‘zgalarning fikrini eshita olishi va murosa qila olishi unda ijtimoiy muhitda faoliyat yuritish ko‘nikmasining shakllanganligidan dalolat beradi.

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanayotgan davrda kichik maktab yoshidagi bolalarning ruhiy, fiziologik rivojlanish xususiyatlarini bilish va shunga mos ravishda ta’lim jarayonini tashkil etish talab etiladi.


Boshlang‘ich ta’limda AKT vositalari asosida matematikasni o‘qitishda eng muhim vazifalardan biri sog‘lom avlodni shakllantirish va ularni o‘zlarining jismoniy va psixologik salomatliklarini asrab-avaylashga o‘rgatishdan iborat. Chunki, bolaning ta’lim muassasasida qanchalik muvafaqqiyatli moslashuvi, xilma-xil faoliyat turlarini samarali amalga oshira olishi uning sog‘lomlik darajasi, fiziologik xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Xuddi shunday, AKT vositasida o‘qitish muhitida ham o‘quvchi nerv tizimining reflektor faoliyati hamda oliy nerv faoliyatining yoshga bog‘liq xususiyatlarini hisobga olish zarur. O‘quvchining salohiyat darajasi, ya’ni diqqatni jamlash qobiliyati, mantiqli fikrlash qobiliyati, qachonlardir

koʻrgan narsalar, shaxslarning shakl-shamoyilini tiklash, tasavvur, qaror qabul qilish va nihoyat, aniq mustaqil, ijodiy fikrlash qobiliyati kabilar maʼlum darajada oʻquvchi aqlining qanchalik tez va toʻlaqonli mashq qildirishga bogʻliq.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda mahsuldor pedagogik sabablarni turlicha asoslanishi koʻzga tashlanadi: «taʼsir», «harakat», «sabab», «omil», «oʻzgaruvchanlik», «parametr», «funktional birlik», koʻrsatkich va boshqalar. Xalqaro didaktikadagi «oʻzgaruvchan didaktik jarayon» tushunchasiga oʻxshash tarzda hamkorlikda ishlash jarayoniga taʼsir etuvchi mahsuldor sabablar tadrijiy tavsifga ega ekanligi va mahsuldor sabablarning yirik birlashmalarini hosil qilishini isbotlashga muvaffaq boʻldik. Natijada umumiy, kompleks (yaxlit), asosiy (bosh), maxsus omillarni yuzaga keltiruvchi hamkorlikda ishlash jarayoniga taʼsir etuvchi mahsuldor sabablar aniqlandi.

Demak, taʼlim jarayoniga taʼsir etuvchi omillar – bu bir guruhga mansub ikki yoki undan ortiq muhim ahamiyatga ega mahsuldor sabablardir. Bir nechta didaktik omillardan tashkil topgan va yetarli miqdordagi mahsuldor sabablarni oʻzida aks ettirgan omillar umumiy omillar deb ataladi. Umumiy omillar va ulardan tashqari omillarning birlashmasidan kompleks (yaxlit) omillar hosil boʻladi.

Boshlangʻich taʼlim jarayonini belgilovchi psixologik omillar pedagogik faoliyatni tashxislash xam muayyan natijalarni qoʻlga kiritishga yordam beradi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida AKT vositasida matematik kompetensiyalarni shakllantirishning psixologik omillari oʻrganilganda, ularda senzitiv, perseptiv, kinestetik, divergent jarayonlar jadallashganligining guvohi boʻldik (2.5-rasm).



Boshlang'ich sinf o'quvchisining matematikadan kompetensiyalarini ko'rsatuvchi psixologik omillardan biri uning intellektual rivojlanishidir. Bo' o'rinda o'qituvchining ijodkorligi katta ahamiyat kasb etadi.

"Ijodkor, mustaqil fikrlovchi o'qituvchilar hamkorlikka asoslangan o'qitish muhitini tashkil etish uchun pedagogik faoliyatlarini izchil tarzda takomillashtirishga intiladilar. Ular ta'lim-tarbiyaga oid yangiliklar, innovatsion texnologiyalar, ularning rivojlanish jarayonlari haqida o'z qarashlarini bayon qiladilar. Ijodkor o'qituvchilar hamkorlikka asoslangan pedagogik texnologiyalar va novatsiyalarni o'zlashtirishga bo'lgan barqaror munosabatlari bilan ajralib turadilar". Darhaqiqat, o'z kasblariga nisbatan yuksak darajada muhabbat bilan yondashdigan o'qituvchilar shaxsiy-kasbiy rivojlanishga kuchli ehtiyoj sezadilar. Bunday o'qituvchilar pedagogik hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirishga astoydil harakat qiladilar.

Ilmiy manbalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematikaviy kompetensiyalarini shakllantirishda o'qituvchining AKT vositalaridan foydalanishi muhim ahamiyat kasb etadi. AKT vositalaridan foydalanishga asoslangan o'quv-biluv jarayonini amalga oshirishga qodir bo'lgan o'qituvchi shaxsida quyidagilar mujassam bo'lishi kerak:

- mazkur o'qituvchilar O'zbekiston Respublikasida ta'limni demokratlashtirish va insonparvarlashtirish, AKT vositalaridan foydalanishni sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, yondashuvlar va ularning asosiy parametrlarini yaxshi bilishlari;

- ta'limning bosh maqsadidan kelib chiqqan holda o'quv jarayonining xususiy maqsadlari va hamkorlikda bajarishga yo'naltirilgan o'quv topshiriqlarini tanlay olishlari;

- AKT vositalaridan foydalanish orqali o'quv jarayonini o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish va dialogga chorlash nuqtai nazaridan yondashgan holda loyihalashtirishlari;

- AKT vositalaridan foydalanishga asoslangan o'quv-biluv jarayonini samarali tashkil etish va boshqara olishlari;

- ta'lim jarayonini tashkil etishga oid zamonaviy pedagogik-psixologik bilimlar, axborot texnologiyalari bilan qurollangan bo'lishlari lozim.

AKT vositalaridan foydalanish asosida boshlang'ich ta'limni tashkil etish prinsiplari o'ziga xos jihatlarga ega. Bunday o'ziga xosliklar sirasiga:

1. O'quvchilarni faollashtiruvchi, rivojlantiruvchi elektron ta'limiy resurslarga ega bo'lish. O'quv materiallari AKT vositalaridan foydalanish orqali o'quvchilarning ehtiyojlari, izlanishlari, xoxishlariga mos kelishi, ularga har bir darsda yangi bilimlarga ega bo'lish imkoniyatini berishi, axborot materiallari yordamida o'quvchilarning dunyoqarashlari va tassavurlari kengayishi, o'quv materiallari tarkibiga elektron ta'limiy o'yinlarning singdirilishi, o'quv materiallari o'quvchilar ma'naviyatini yuksaltirishi, ularni mustaqil va tanqidiy fikr yuritishga o'rgatishi lozim.

2. O'quvchilar shaxsiga nisbatan insoniy yondashuvni ta'minlash. Bunda o'quvchilar bilan demokratik munosabatlarni o'rnatish, shaxslararo do'stona munosabatlarni o'rnatishning muhim tamoyili bo'lib, bunday munosabat o'quv-biluv jarayoni samaradorligini ta'minlaydi. Bunday munosabat zamirida har bir o'quvchini mustaqil shaxs sifatida tan olish, ularning huquqlarini hurmat qilish, his-tuyg'ularini tushunish, ularning qarorlarini e'tirof etish va unga ishonish, o'quvchilarning erkinliklari ta'minlanishi, a'lochilar bilan past o'zlashtiruvchi o'quvchilarning huquqlarini tenglashtirish, ularning bir-birlariga ko'makdosh bo'lishlarini ta'minlash imkoniyati vujudga kelishi lozim.

3. AKT vositalaridan foydalanish asosida insonparvarlikka asoslangan hamjihatlik muhitini qaror toptirish. AKT vositalaridan foydalanish asosida insonparvar, demokratik,

jamoaviy hamkorlik jarayonida o'quvchilarda mustahkam bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ularga nisbatan muruvvat va mehr-muhabbat, sadoqat bilan munosabatda bo'lish, ularni ezgu ishlarga ruhlantirish, hamkorlik, o'zaro muomala va mulokotda pedagogik mahorat ko'rsatish, o'quvchilar orasida ijobiy muhitni qaror toptirish, ularning kamchiliklariga nisbatan bag'rikenglik bilan bardoshli munosabatda bo'lish lozim.

AKT vositalaridan foydalanish asosida ta'lim jarayonini interfaol tashkil etish samaradorlikni ta'minlashga ko'maklashadi. Shu maqsadda biz dastlab, boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish jarayonining an'anaviy va AKT vositasida interfaol tashkil etilishini qiyoslashga harakat qildik.

Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish jarayonining an'anaviy va AKT vositasida interfaol tashkil etilishida o'quvchilarning qiziqishlari, ehtiyojlarining qondirilishi inobatga olinadi.

Shunga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv jarayonini rejalashtirishga yordam beradigan kalendarlar, jadvallar yoki o'quv jadvallaridan foydalanish, trening gamifikatsiyasidan foydalanishda quyidagi metodlardan samarali foydalanish muhim.

AKT vositasidagi o'quv-biluv jarayonida **muammoli vaziyat**larni vujudga keltirish va hamkorlikda ularning yechimini topishning turli usullari mavjud. Biz quyida ular haqida fikr yuritamiz.

Muhim vazifalardan biri – o'quv-tarbiya jarayonida AKT vositasida o'zaro hamkorlikka asoslangan didaktik vaziyatlarni vujudga keltirishdan iboratdir. Bu jarayonda ta'lim mazmuni deyarli o'zgarmaydi. Olinadigan natijani oldindan kafolatlash va tavsiflash imkoniyati vujudga keladi.

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya nazariyasida 3 ta didaktik yondashuv muhim o'rin egallamoqda. Bular a) ochiq didaktik tizimlarni vujudga keltirish, b) o'quvchilarga individual hamda tabaqalashtirilgan asosda ta'lim berish hamda v) ta'lim jarayonini pedagogik hamkorlik asosida tashkil etish kabilar.

O'zlashtirilgan bilimlarni AKT vositasida chuqurlashtirish natijasida o'quvchilarda muayyan darajada amaliy ko'nikma va malakalar hosil qilinadi. Pedagogik hamkorlikni vujudga keltiradigan texnologiyalarning asosiy negizini turli o'quv vaziyatlarida o'quvchilarning birgalikda, jadal harakat qilishlari uchun qulay sharoit yaratish imkoniyati tashkil qiladi.

Ma'lumki, o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarning darajalari turlichadir. Ba'zi bir o'quvchilar taqdim qilingan axborotlarni tez o'zlashtirsalar, boshqalari mazkur ma'lumotlarning mazmun-mohiyatini tushunib yetishlari uchun muayyan vaqt talab qilinadi. Bunday o'quvchilar bilan elektron ta'limiy trenajyorlar asosida o'quv materiallari ustida ishlash imkoniyati vujudga keladi. Ayrim o'quvchilar bilmaganlarini o'qituvchilari yoki sinfdoshlaridan so'rashga tortinadilar. Shu bilan bir qatorda, o'zlari tushunmagan o'quv materiallari ustida ishlash bunday o'quvchilar uchun zerikarli va qiziqarsiz bo'lib tuyuladi. Bunday vaziyatda matematika o'qituvchisi elektron ta'limiy trenajyorlar samarali foydalanishi kerak. Bunda **kichik guruhlarda ishlash** metodidan foydalanish samaralidir. Chunki kichik guruhlar doirasida o'quvchilarning o'zaro ruhiy-pedagogik jihatdan teng kelishlariga e'tibor qaratiladi.

Har bir kichik guruhga o'qituvchi tomonidan alohida-alohida ETT (elektron ta'limiy trenajyorlar) asosida topshiriqlar beriladi. Guruh a'zolari mazkur topshiriq doirasida o'z vazifalarini bo'lib oladilar. Ularning o'z vazifalarini bajarishga mas'ulliklari o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi, ularning e'tiborlari o'quv topshirig'iga jalb qilinadi. Guruhda ishlash

jarayonida har bir o'quvchi o'z oldiga qo'yilgan vazifani bajarish bilan chegaralanib qolmasdan, umumiy topshiriqni bajarishga ham safarbar etiladilar. Mazkur jarayonda o'quvchilarni berilgan topshiriqlarni bajarishga mas'uliyat bilan qarashga undaniladi. Bu jarayonda yaxshi o'zlashtirmaydigan o'quvchilar elektron ta'limiy trenajyorlar asosida bilimlarini mustahkamlaydilar. Buning natijasida bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarning ruhiy quvvatlari ortadi, elektron ta'limiy muhit ularga yangi kuch bag'ishlaydi va imkoniyatlarini kengaytiradi. O'quvchilarning o'quv materiallarini astoydil o'rganishlari, tushunishlari, ular ustida o'ylashlari, mustaqil yechimlar topishlari uchun qulay didaktik vaziyat vujudga keltiriladi.

O'quvchilar taqdim etilgan axborotlarni qabul qilishlari, o'zlashtirishlari, yangi axborotlarni izlashlari uchun elektron ta'limiy trenajyorlar samarali natija beradi.

Boshlang'ich ta'limda kompyuterli **o'yin metodlari** yordamida quyidagi vazifalarni bajarish mumkin:

1) matematik kattaliklarni tushunish Bu jarayonda o'quvchilarda xush kayfiyat, tabassum, rahmdillik, ko'tarinkilik, quvonch, do'stona munosabatlar, muloqotga kirishuvchanlik, qiyin daqiqalarda bir-birlariga ko'maklashish, kechira olish, mas'uliyatlilik, haqgo'ylik, bag'rikenglik, toqatlilik, tushunish kabilar kuzatiladi.

Matematik qobiliyatni namoyon etadigan o'quvchilar uchun masalalarni ratsional yo'l bilan yechishga harakat qilish odatiy holdir. Ular eng oddiy, eng qisqa va shuning uchun maqsadga erishishning eng "nafis" usulini topishga harakat qilishadi. Fikrlashning bu o'ziga xos tendensiyasi matematik masalalarni yechishning eng optimal usullarini izlashda ifodalanadi.

O'quvchi matematikaga qanchalik qobiliyatli bo'lsa, unda ratsional, chiroyli yechimni izlashga qiziqish shunchalik kuchli ifodalanadi. O'quvchilarning isbotlashga doir masalalarni yechishi xususiyatlarini tadqiq qila turib V.T. Vinenko deydi, ba'zi o'quvchilar nisbatan qisqa yo'l bilan borishga harakat qilsa, boshqalari uzoq, ko'p sondagi amallarni qo'llab, odatda ko'p hollarda ratsional yo'ldan uzoqlashib ketadilar.

"Fikrlash jarayonlarining moslashuvchanligi va sodda, ixcham, "nafis" yechimlarni topish istagi bilan matematik fikrlashning faolligi va maqsadga yo'naltirilganligi kabi fazilatlarini o'zaro bog'liq" [90; 90-b.]. Demak, fikrlashning faolligi deganda, muayyan masalalarni yechishga qaratilgan sa'y-harakatlarning doimiyligini, ushbu masalani yechibgina qolmasdan, balki uni yechishning turli yondashuvlarini, o'zgaruvchan sharoitga qarab, ko'rib chiqilayotgan masalani qo'yishning turli xil variantlarini o'rganish istagi tushuniladi.

Qaralayotgan masalani yechishda oqilona tanlangan, eng qisqa muddatdagi yechimni topish uchun yo'naltirilgan doimiy xarakterlar, matematik fikrlashning aniq maqsadga yo'naltirilganlik kabi sifatijihatlarini xarakterlaydi.

Ayrim tadqiqotchilar fikrlashning moslashuvchanligini "fikrlash faolligi", "mustaqilligi", "moslashuvchanligi" kabi terminlarni sinonim sifatida ishlatishadi. Bizning fikrimizcha, ularni kompleks rivojlantirish haqida gapirish maqsadga muvofiq bo'lardi, chunki o'quvchida fikrlashning moslashuvchanligini rivojlantira turib, unda fikrlashning faolligini rivojlanishiga, masalani yechishda ratsional yo'lni topishga bo'lgan qobiliyatni rivojlantira turib, fikrlashning maqsadga yo'naltirilganligini inobatga olish zarur.

Shunday qilib, aksariyat psixolog va metodistlar o'quvchilar qobiliyatlarini rivojlantirishda matematik fikrlashning moslashuvchan ko'rsatkichlarini fikrlash moslashuvchanligi, uning faolligi va maqsadga yo'naltirilganligi shuningdek masalalarni oddiy va nostandart yechimlarini topish qobiliyatini rivojlantirish bilan bog'liq holda o'rganadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagi «Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5349-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 20.02.2018 y., 06/18/5349/0792-son; 14.12.2019 y., 06/19/5894/4161-son
2. 85. Ibn Sino. Tanlangan asarlar / A. Irisov tahririda. – Dushanbe: Irfon, 2003. – 178 b.
3. Князева Е. Н. Синергетика как средство интеграции естественнонаучного и гуманитарного образования /Е. Н. Князева, С. П Курдюмов // Высшее образование в России. 2008. – № 4. – С. 31-36.
4. Джураев Р.Х Основы передачи данных. Лекции для бакалавров по направлению телекоммуникация. –Т., 2012. – 160 с.
5. Капитса С.П. Математика в школе. – М.: Наука, 2011. –188 с.

O‘QUVCHI YOSHLARNI MILLIY MUSIQAMIZ VOSITASIDA TARBIYALASH

Majidov Dilshod, JDPU “Pedagogika-psixologiya, musiqa yo‘nalishlarida masofaviy ta‘lim” kafedrasi o‘qituvchisi
Abduraxmonova Dilobar, J.D.P.U Sirtqi bo‘lim 5-kurs talabasi

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda musiqa rivojlanishining turli omillari va uzluksiz ta‘limda o‘quvchilarni badiiy-estetik tarbiyalashning o‘ziga xosliklari, milliy mumtoz san‘atimizning yoshlar tarbiyasidagi ro‘li yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Musiqa, ta‘lim, tarbiya, ma‘naviyat, san‘at, bilim, ko‘nikma, kuy, qo‘shiq.

O‘zbekistonda milliy madaniyatimizni o‘ziga xosligini tiklash umumta‘lim maktablarida yoshlarni badiiy tarbiyalash va kamol toptirish hamda hozirgi kunimizni to‘laroq idrok etish uchun eng avvalo tariximizni yaxshi bilmog‘lik hisoblanadi. Chunki, har bir yangilik, tarixiy bog‘lanish orqali amalga oshiriladi. Barcha fanlar qatori musiqiy ta‘limda ham davlat ta‘lim standartlarini joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to‘laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuyi va qo‘shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faolatlari, maqom, shashmaqom, dostonlar va bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatida o‘z aksini topdi. Musiqa san‘atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalashda, ularning barkamol bo‘lib etishishlarida o‘ziga xos takrorlanmas manba bo‘lib xizmat qiladi. Musiqa ta‘limidan, davta ta‘lim standartlari asosida yangi ta‘lim mazmuni o‘qituvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi hislatlarini rivojlantirishni ta‘minlaydi. Demak, yosh avlodni etuk qilib tarbiyalashda «Musiqa madaniyati» darslarini axloqiy-estetik tarbiyasiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ulardagi go‘zallikka bo‘lgan his-tuyg‘ularini o‘stiradi, musiqa san‘atiga mehr-muhabbat, qiziqish uyg‘otadi.

Umumta‘lim maktablarida musiqa darslari boshqa fanlar darslaridan o‘zining badiiyligi, qiziqarliligi va bolalarda ko‘proq ijodiy zavq, emotsional tuyg‘ular va obrazli kechinmalar uyg‘otishi bilan ajralib turadi. Musiqa, ayniqsa, bolalarning aqliy va axloqiy rivojlanishiga katta ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Musiqa tarbiyasiz bolalarda aqliy tarbiyani yetarli darajada bajarib bo‘lmaydi. (V. Suxomlinskiy)Shuning uchun musiqa darslari, eng avvalo, tarbiya darsidir. Badiiy tarbiyaviy uning mantiqiy mazmunidir. Shu boisdan

predmetimiz “musiqa o‘qitish metodikasi” emas, balki “musiqa tarbiyasi metodikasi” deb ataladi.

Mustaqillik yillarida uzliksiz ta’lim tizimi muassalarida o‘tiladigan barcha musiqa fanlari mazmuni ham milliy istiqloq g‘oyasi asoslari, hozirda maktablarda tarbiya fani negizida qaytadan shakllantirilayabdi. Musiqa madaniy hayotimizdan muhim o‘rin olgan va inson shaxsiyatining kamolotga yetishida muhim o‘rin tutadigan san’at turi bo‘lishi bilan birga ijtimoiy siyosiy va tarbiyaviy xarakter kasb etadi. O‘zib kelayotgan avlodni milliy ma’naviy ruhda tarbiyalash, ularda milliy qadriyatlarimizga ongli munosabat tushunchalarini shakllantirish hamda milliy musiqani o‘rganishning o‘rni va ahamiyatini yoshlarga tushuntirish asosiy vazifamizdir. Ongni, tafakkurni, dunyoqarashni o‘zgartirmasdan turib, ma’rifat sivilizatsiyasiga erishib bo‘lmaydi.

San’at insonning tarbiyasida juda muhim o‘rin tutadi. Musiqa tarbiyasi bo‘yicha xalqaro jamiyatning IX konferensiyasida uqtilganidek, san’at insonning ma’naviy dunyosiga chuqur ta’sir ko‘rsatib va o‘zining har qanday faoliyat sohasida, har qanday kasb-korida zarur bo‘ladigan ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilishda yordam beradi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining yangidan yaratilgan musiqa fani bo‘yicha o‘quv dasturi va darsliklariga kiritilgan maqom musiqa ijodiyotiga mansub kuy, qo‘shiqlar sirasida xalq qo‘shiqlari salmoqli o‘rin tutadi. Xalq qo‘shiqlari o‘z ifodaviy mazmuniga ko‘ra qudratli tarbiyaviy kuchga ega bo‘lgan san’at hisoblanadi. Musiqa madaniy hayotimizda keng o‘rin tutgan va inson shaxsiyatining shakllanishda muhim ro‘l o‘ynaydigan san’at bo‘lib, eramizdan oldingi IV asrdanoq grek faylasufi Platon shunday degan edi: “Eng katta tarbiyaviy omil musiqiy san’atda emasmikan, zero ki ritm va garmoniya xammadan ko‘proq shu vaqtda qalbga chuqur yo‘l topadi va salovat baxsh etib, uni ko‘rkam qiladiki, agar tarbiya to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa: aks xolda uning teskarisi bo‘lib chiqadi”. Uning shogirdi Aristotel Aflatun komil ishonch bilan mazkur fikrni quvvatlaydi “musiqa kishi ruhini ahloqiy tomoniga ma’lum darajada ta’sir etadi, shunday ekan u yoshlarning tarbiyalaydigan predmetlardan biri bo‘lib xizmat qilmog‘i lozim”. Sharqning buyuk allomalari musiqaning shaxs kamolotiga juda buyuk baho berishganliklari bejiz emas. Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu-Nasr al-Farobiy esa musiqaning shaxs shakllanishiga a’niq ta’sirini quyidagicha bayon etadi: “Bu fan (ya’ni musiqa shu ma’noda foydaliki, kimning fe’li atvori muvozanatni yo‘qotgan bo‘lsa, tartibga keltiradi, kamol topmaganlarni kamolotga yetkazadi va muvozanatda bo‘lganlarning muvozanatini saqlaydi... Bu fan tanning sog‘ligi uchun ham foydalidir. Forobiyning iyqo‘ ta’limoti keyinchalik alloma Ibn Sinoning «Kitob ash-shifo», «Kitob un-najot» va «Donishnoma» ilmiy asarlarida rivojlantirilgan. Musiqa inson ruhi va aqliy rivojiga bebaho ta’sir o‘tkazadi. CH. Darwin umrining oxirlarida quvvai xofizasi (xotirasi) va fikrlash qobiliyatining pasayishidan shikoyat qilib yozadi. “Agar menga ikkinchi bor dunyoga kelish nasib bo‘lganda edi, endigi xayotimda loaqal xaftada bir marta bo‘lsa xam, bir necha she’r o‘qishni va bir necha musiqa asari tinglashni o‘zimga qoida qilib olardim”.

Musiqa kishi xissiyotini ayniqsa emotssional, estetik xissiyotini aktiv rivojlantiradi, zero ki, xaqiqatni anglash kishilik emotsional xissiyotsiz bo‘lmagan, bo‘lmaydi va bo‘lishi xam mumkin emas” Bas shunday ekan musiqa kishining ruhiga aktiv ta’sir etadi uning axloqiy estetik qiyofasining shakllanishida muxim rol’ o‘ynaydi. Bobomiz Sa’diy aytganidek “Musiqa inson ruhining yo‘ldoshidir” Shu bois o‘quvchilarda inson ma’naviy madaniyatining tarkibiy qismi bo‘lgan musiqa ma’daniyatini tarbiyalash musiqa tarbiyasining bosh maqsadi bo‘lib turadi, Bu oliy maqsadni amalga oshirish uchun o‘qituvchi oldida quyidagi vazifalar turadi:

- o'quvchilarda musiqa san'atiga bo'lgan qiziqish va mehr-muhabbatni oshirish.
- musiqiy - badiiy didni va musiqa faoliyatlariga ehtiyojni rivojlantirish:
- musiqa haqida bilim va malakalar doirasini tarkib toptirish:
- musiqiy faoliyatlar jarayonida badiiy ijodkorlik xis tuyg'ularini rivojlantirish:
- asarlarni badiiy - g'oyaviy mazmuni vositasida o'quvchilarni axloqiy - estetik tarbiyalash:

- musiqa darslarida kasb, hunar va mehnatga nisbatan o'quvchilarda ishtiyoq uyg'otish. Mazkur maqsad va vazifalarni amalga oshirish, birinchi navbatda, musiqa o'qituvchisining professional darajasi va axloqiy qiyofasiga bog'liq. Gap shundaki, xar qanday san'atkor ham maktabda musiqa darslarni olib borolmaydi. Uning boisini o'qituvchiga qo'yiladigan quyidagi talablardan ko'rishimiz mumkin.

Musiqa o'qituvchisi o'z kasbiga va bolalarga sitqidildan mehr qo'ygan, yuksak madaniyatli, ijodkor va izlanuvchan ma'naviy - ma'daniy dunyoqarashga ega shaxs bo'lmog'i lozim. Musiqa o'qituvchisining ijodkorligi shundaki, u bir soatlik darsiga senariy avtori, uning artist - ijrochisi va rejisyori sifatida ish tutadi. SHu bois musiqa darsi san'at darsidir.

Maktab xayotida ham musiqa o'qituvchisining va boshlang'ich sinf o'qituvchisining ham faoliyati keng. Sinfdan tashqari musiqa to'garaklarimi, musiqa tarbiyasi turlarini tashkil etish va boshqarishmi, maktabda musiqa tarbiyasining ommaviy shakllari (bayram konsertlarmi, leksiya – konsertlar, san'atkorlar bilan ijodiy uchrashuvlarmi, ashula va san'at bayramlari. v.b) ni uyushtirish ham musiqa o'qituvchisi zimmasidadir. SHu bilan birga maktabdan tashqari musiqa tarbiyasi o'choqlari (bolalar musiqa maktablari, pionerlar uyi va saroylari, bolalar teatrlari) bilan aloqada bo'lish, iqtidorli o'quvchilarni ularga jalb etish va ularning faoliyatnii maktab xayotiga qo'llash ham musiqa o'qituvchisining vazifasidir.

Musiqa o'qituvchisi musiqa san'atining nazariy va amaliy soxalaridan yetarli darajada, bilim, malaka va tajribaga ega bo'lmog'i lozim.

Musiqa san'atiga qiziquvchi iqtidorli yoshlarning musiqiy iqtidorini rivojlantirish, musiqa san'atiga mehr va ishtiyoqini o'stirish va shu orqali ularning ma'naviy axloqiy tarbiyalarini va badiiy ehtiyojlarini qondirish, musiqa tarbiyasining asosiy vazifasini tashkil etadi. Musiqa san'ati ham barcha san'at turlari kabi inson ruhiyati hamda ijtimoiy voqeiliklar holatini ifoda etuvchi vosita, shuningdek, idrok etishning o'ziga xos shakli hisoblanadi.

Musiqa asarini yaratishda ijodkor muayyan obrazlar vositasida yuksak insoniy sifatlarni yoritadi. Musiqa va qo'shiqlarda tabiat manzaralari, insonlarga xos xususiyatlar, ijtimoiy munosabatlar, ijobiy psixologik xolatlar xursandchilik yoki aksincha, salbiy xolat g'am-alam, istirob, tushkunlik kabi hodisalar ifodalanadi. Musiqiy asarlarning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, ular kishilarning ongini o'stirish, estetik didini oshirib,irodaviy sifatlarini rivojlantirib, hissiyotini boyitishga emotsional ta'sir ko'rsatadi.

Yuksak mahorat bilan bilan ijro etiluvchi mumtoz musiqa asarlarining barchasi insonda ko'tarinki kayfiyatni hosil kiladi. Mumtoz asarlarni doimiy ravishda o'rganib borish o'quvchilarda haqiqiy san'at asarlarining qiymatini to'g'ri baholash ko'nikmalarini shakllantiradi. Musiqa ta'limi jarayonida o'quvchilarning psixologik xususiyatlari ham intensiv rivojlanadi. Binobarin, asarlarni o'rganish ularning his-tuyg'ulari, diqqati, idroki, xotirasi, fikrlashi va tasavvuri kabi psixologik xususiyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Musiqiy asarlarning o'quvchilar tomonidan idrok etilishi, eng avvalo ularda diqqatni jamlash va uning barqarorlashga erishish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Musiqqa san'atini ijtimoiy madaniy nufuzini oshirish, uni xalqimiz ma'naviy hayotiga chuqurroq singdirish, qadriyatlar darajasiga ko'tarish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Barcha sohalarida bo'lgani kabi musiqqa sohasidasi ham tub islohotlar izchil davom ettirildi, o'quv dasturlari, darsliklar mazmuni xalqimizning milliy madaniy yutuqlari, jahon musiqqa ilmi va ta'limida erishilgan ilg'or tajribalar asosida shakllantirilib, hozirda har bir viloyatlarda, tumanlarda, shaharlarda maqomchilar ansambli, Filarmoniyalar, ixtisoslashtirilgan san'at maktablari tashkil qilinib bu yerlarda musiqqa sohamizning dunyo sahnashiga chiqishi uchun ulkan ishlar olib borilmoqda. Bu esa yosh avlodni oilada, mahallada, jamiyatda komil inson bo'lib yetishishida poydevor bo'ladi.

Psixolog olimlarning fikrlariga ko'ra, musiqada diqqatning barqarorligi inson asab tizimining qay darajada mustahkam ekanligiga bog'liq.

Ma'lumki o'zbek ijrochiligi o'z taraqqiyotida «monodiya»-«bir ovozlik» shaklda rivojlanib kelgan. Lekin qadim zamonlardan o'ziga hos jamoa bo'lib (ya'ni xor bo'lib) qo'shiq aytish an'analari ega bo'lgan. Bizning zaminida yashagan xalqlar musiqqa san'ati asosan og'azi usulda avloddan avlodga yetib kelgan. Xalq ijrochiligi san'atida aralash (erkak va ayollar) xorlar bo'lmasa-da, alohida erkaklar, ayollar va bolalar tomonidan qo'shiq aytish an'analari bo'lgan.

Turli diniy marosimlarda, mavsumiy sayillarda, ramazon oyida bolalarning qo'shiq aytishi, kattalarning zikr tushishi, marsiya qo'shiqlarini aytishlar jamoa ijrosining ko'rinishlaridir. «Boychechak», «Oftob chiqdi», «Laylak keldi», kabi bolalar qo'shiqlarini aytilishida ham jamoaviy ijrochilik shaklini ko'rish mumkin. «Navro'z», «Lola» bayramlarida yigit-qizlarni aytishuvlari, yor-yor, yallalar xor yakkaxon bo'lib ijro etilgan. Bebaho merosimiz «Shashmaqom» ning vokal qismidagi taronalar ham uch-to'rt va undan ko'p xonandalar tomonidan «Jo'r» likda aytilgan. Katta ashula 2,3,4 kishilar jo'rlikida ijro qilingan. «Folklor» qo'shiqlarining yor-yor, o'lan, yalla, besh qarsak, lapar, katta ashula, maqomlardagi tarona, ufar, nashq kabi qismlarni bo'lib ijro qilishini kelgusida o'zbek xalqi orasida xor havaskorlik, xor ijrochiligini rivojiga zamin bo'ldi.

Mumtoz kuy va qo'shiq ijrochiligi ko'proq melodik tarzda ijro etilishi, murakkab musiqiy tuzilmalardan iboratligi tufayli uni tinglashda sezgilar muhim ro'l o'ynaydi. Sezgi va hissiyot musiqiy idrokning asosini tashkil qiladi. Mumtoz musiqiy asarlar hissiyotni yuzaga keltirib kuch-quvvat zahiralari ishga soladi va buning natijasida tinglovchi ularni uzoq vaqt charchoqni sezmaganda holda tinglay oladi. Mumtoz musiqani idrok etishda tasavvurning o'ni ham beqiyosdir. Xayotiy voqealar, tabiat manzaralari hamda turli ruhiy kechinmalarni ko'z oldiga keltirish musiqiy asarlarni obrazli qabul qilishga yordam beradi. Musiqqa mutaxasisi barcha ijodiy xarakterga ega soxalar mutaxasislari kabi aynan shu holat - tasavvurdan unumli foydalanadi.

Tovushlar jarangini oldindan his qilish, ya'ni interpretatsiya ham musiqqa ijrochiligida muhim ahamiyatga ega. Ijro jarayonida hayotiy voqealikni ko'z oldiga keltirish, tasavvur qilish, jarangdorlik yuzaga kelishini oldindan anglash, oldindan aynan shu jarangdorlikka erishish uchun o'z kuchi va imkoniyatlaridan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratish maksadga muvofikdir.

Mumtoz qo'shiqlarning g'oyaviy mazmuni, undagi obrazli holatlar ijrochiga katta ruhiy kuch bag'ishlaydi va uning tasavvurini yanada kengaytiradi. Mumtoz asarlarni tinglash va ularni bevosita ijro etish o'quvchilarning xotiralarini mustahkamlanishi uchun zarur sharoitni yuzaga keltiradi. Ijrochining ichki ehtiyoji, hoxish-istagi, qiziqishi, bilim darajasi va ijro mahoratiga muvofiq tanlangan asar xotirada yaxshi saqlanishi bilan birga ijroning

muvaffaqiyatini ham ta'minlaydi. O'rganilgan musiqiy asarlarning sonigina emas, balki ularning sifati talabalarda ijro tajribasining boyib borishini ta'minlaydi. Ijrochilik tajribasining darajasi o'quvchilarning badiiy didlarining yuksalishiga ijobiy ta'sir etuvchi omillardan biri sifatida kuzga tashlanadi. Yangi asarni o'rganish jarayonida o'quvchi ilgari orttirgan malakalariga tayanish bilangina cheklanmaydi, balki yanada yangi va murakkab elementlardan foydalanishga intiladi.

O'ziga xos psixologik holatlar o'quvchining badiiy tafakkurining yanada kengayib borishi uchun imkoniyat yaratadi. Mumtoz asarlarning g'oyaviy mazmuni va ohang tuzilishini tahlil qilish, matn va ohang tuzilmalarining jarangdorligi, nozik elementlarni his qilish, murakkab nola va qochirimlarni qiynalmasdan ijro etish hamda asarga xos barcha tafsilotlarni birlashtirib, umumiy xulosaga kelish o'quvchilarda musiqiy-badiiy didning shakllanganlik darajasini yuqori deb baholanishi uchun asos bo'la oladi.

O'zbek mumtoz ashulalari, o'zbek klassik va zamonaviy adabiyoti bilan o'zaro bog'liqlik asosida rivojlanadi. Buni inobatga olgan holda g'azallar mualliflarining hayoti va ijodiy faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan o'quvchilarni yaqindan tanishtirish imkonini beruvchi maxsus kursning o'qitilishini yo'lga qo'yish ularning nazariy bilimlarini oshirish bilan birga o'zbek mumtoz musiqasi rivojidadagi hissalarini anglashlariga yordam berib, ularni dunyoqarashini milliy musiqalarimiz kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.E.M.Fayzullayev "Bo'lajak musiqa o'qituvchilari badiiy didini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari" (O'zbek mumtoz musiqasi misolida). Ped.f.nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. –T, 2010. 20-26-bet.

2.Umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi va tarbiyasi konsepsiyasi. –Toshkent, XTB, 1995 yil.

3.Aristotel. Poetika / Tarjima. N.I.Novosadskiy. - L., 1927. - S. 111-113.

4.Losev AF Qadimgi estetika tarixi: Ming yillik rivojlanish natijalari, jild. II. - M., 1994. - S. 76–87.

5. V. Darvin. "Avtobiografiya", Q ; 1957 ; str. 112

6.Sharipova G. «Musiqqa tarbiyasida metodika fanidan dastur». –T.: 1997-yil.

МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИ ТАРБИЯЛАНУВЧИЛАРИГА НОТАЛАРНИ ЎРГАТИШ МУЛЬТИЦЕРИАЛ УСУЛЛАРИ

Мажитов Шухрат Муртазоевич

Нав ДПИИ музика таълими кафедраси катта ўқитувчиси

Аннотация. Мактабгача таълим ташкилотлари (МТТ) деб номланган болалар боғчасида олиб бориладиган музика тарбиясининг асосий мақсад ва вазифалари ёритилган бўлиб, музика фаолият турлари ҳақида илмий услубий фикрлар юритилган. Шунингдек, уларни хотирасини мустаҳкамлашда мультимедиа технологияси воситасидан фойдаланиш тамойиллари изоҳланган.

Калитли сўзлар; МТТ, қобилят, тембр, ритм, содда, раво, эркин, график, нота, До, Ре, Ми, Фа, Сол, Ля, Си, қўшиқ, сольфеджио, компютер, электрон доскалар, ведио проектор.

Болалар муассасаларида музика таълимига асос солинади, шунинг учун музика раҳбари айниқса ўқитиш методикасини яхши билиши, боғча ёшидаги кичик болаларнинг ёш ва индивидуал хусусиятларини, уларнинг музика ва қўшиқчилик имкониятларини чуқур билиши зарур. Музика таълимини шартли равишда икки босқичга бўлиш мумкин.

Биринчиси, тайёрлов босқичи. Бундан кўзланадиган асосий мақсад – болаларнинг музика ўқувини ўстиришдир. Шу вақт мобайнида болалар музика товушларининг баланд-пастлиги ва чўзими каби ўзига хос хусусиятларни ажрата билишга ўрганишлари ва нота ёзувини ўрганишга тайёрланишлари керак.

Иккинчи босқичда нота саводи, яъни бевосита музика товушларининг график усулда ифодаланиши - нота ёзувини ўрганишга киришилади.

Музика машғулоти жараёнида бола ҳаётининг воқеликни музикавий образлар орқали идрок этиб боради. Болалар ёшига мос музика асарлари кичкинтойларда унутилмас таъсурот қолдиради, уларнинг руҳий дунёсини бойитади. Боғча шароитидаги музикавий тарбия бадиий адабиёт ва тасвирий санъат билан узвий боғланган ҳолда амалга оширилади. Қўшиқ айтиш усули, жанрдаги музика асарлари, хусусан, сюжетли чолғу песаларини тинглаш, музикавий ўйинлар билан шуғулланиш ва рақсга тушиш жараёнида музика машғулоти кўпинча бадиий сўз билан белгиланади. Бола бадиий образларни ёрқин тасаввур этиши ва чуқур идрок қила олиши учун тасвирий санъат асарларидан унумли фойдаланилади.

Турли методлардан фойдаланиб ўтказиладиган ҳар бир музика машғулоти кичкинтойларда бадиий эстетик завқ уйғотади, уларнинг ҳис-туйғуларини ривожлантиради, ижодий фикри ва нутқини ўстиради. Бундан ташқари, музикавий ўйин ва постановкалар, рақслар болаларда ритм туйғуси, чакқонлик ва ҳаракатчанлик малакаларини ривожлантиради ҳамда қоматнинг тўғри ўсишига ёрдам беради. Музика ўқув қобилияти асосан қуйидаги музика ўқув турларидан иборат бўлади:

-музикавий ўқув, музикавий товушларнинг баланд-пастлигини ҳис этиш қобилияти, тембр ўқув (музика товушларининг бир-биридан фарқ қиладиган, ўзига хос жиҳатларини ажрата билиш қобилияти), ритм туйғуси ва музика хотираси.

Болалар боғчасида олиб бориладиган музика тарбиясининг асосий мақсад ва вазифаларини қуйидагича белгилаш мумкин:

1. Болаларнинг музикага қизиқишини ошириш ва уни севишга ўргатиш.
2. Музика асарлари билан таништириш жараёнида болаларда эмоционал ҳис-туйғуларини ҳосил этиш йўли билан уларнинг музика ҳақидаги таъсавурларини бойитиб бориш.
3. Болаларни оддий музика тушунчалари билан таништириш, музика тинглаш, қўшиқ айтиш, музика билан ҳаракат қилиш, рақсга тушиш ва болаларнинг оддий музика асбобларида куйлаш кўникмаларини шакллантириш ва ижодий қобилиятини ўстириб бориш.
4. Болалар овозини асраб тарбиялаш, қўшиқ айтишнинг дастлабки кўникмаларини ҳосил этиш, қўшиқларни содда, равон, эркин, табиий ва ифодали куйлашга ўргатиш.
5. Музика асарларидан таъсирланиш, шу асосда болаларда музикавий дид ва бадиий муҳокама юритиш малакаларини ривожлантириш.
6. Турли музика машғулоти жараёнида импровизация қилиш музикадаги бадиий образни ўйин ва хор овозлар воситасида ифода этиш, маълум музикавий мавзуга янги ўйин ўйлаб топиш.

7. Мусикавий тарбия машғулотларини боғча ҳаёти билан боғлаш, боғчада ўтказиладиган турли машғулотларда ва маросимларда ўрганилган куй ва кўшиқлардан кенг фойдаланиш, турли эрталиклар, концертлар уйиштириш воситасида мусика кундалик ҳаётимизнинг ажралмас йўлдоши эканлиги ҳақида болаларда тушунча ҳосил қилиш.

Мусика саводининг аҳамияти ва вазифалари мактабгача таълим муассасаларида 4,5,6 ёшларда мусика саводини ўргатишни бошлаш лозим. Кўшиқ айтиш сирларини бола ёшликдан ўрганса тошга ўйилган тошдек миясида муҳирланиб қолади. Мактабнинг 1-синфига борганда ўқувчи мусика назариясига ва кўшиқ ижро этишда кўшиқ тонига тушиб ижро этишда қийналмайди. Дарҳақиқат, мусика саводини ўрганиш боғча ёшидан бошланади. Кўпгина болалар мактабгача тарбия даврида боғчага катнаб, боғчадаги мусика машғулотларида дастлабки мусикавий малакаларни ҳосил қиладилар. Кўпгина кўшиқлар ва ўйинларни ўрганиб олган ҳамда ритм ва рақс ҳаракатлари билан танишган бўладилар. МТТ даги болалар ўйин мойил бўлади шунинг учун ҳам рангли тасвирларга кўргазмаларга жонли воситаларга болалар қизиқувчан бўлади. Мусика ноталарини тушунтиришда рангли кубукчалар орқали ёки рангли шарлар орқали нота чўзимлари ва нота ёзилишлари тушунтирилса болалар тез тушунчага эга бўлишади. Болаларга мультимедиалар ёрдамида ноталар, слайдлар асосида кўшиқлар тушунтирилса тез ўзлаштириб олишига катта ёрдам бўлади, болаларнинг мусиқий билим олиш пойдевори шаклланиб боради.

Товушларнинг узун қисқалигини бутун олма мисолида олиб тушунтиришимиз мумкин. Бутун олма, бутун нота, олмани иккига бўлсак, яримталиқ нота.

Мусиқий тизим товуш қаторлари еттига мустақил номга эга бўлган асосий босқичлардан иборатдир.

До Ре Ми Фа Сол Ля Си

Бу асосий товушлар фортепианонинг оқ клавишлари (босқич пардалари) товушларига мос келади.

Олмани тўртга бўлсак, чорак нота. Олмани саккизга бўлсак, нимчорак нота деб тушунтирилади. Қолган ўн олтилик, ўлтиз иккилик ноталар болаларни ўрганиши учун оғирлик қилади, шунинг учун мактаб ёшидаги ўқувчиларга ўргатилади.

Мусикада ноталар номланиши билан бирга, турли чўзимларга ҳам эгадир. Уларнинг кўринишини қуйидагича тасвирлаш мумкин:

Бутун нота 1 ҳам, 2 ҳам, 3 ҳам, 4 ҳамга саналади.

Ярим нота 1 ҳам, 2 ҳамга саналади.

Чорак нота 1 ҳамга саналади.

Нимчорак нота 1 га саналади ва шу тарзда саналади.

Болаларга товушларни тўғри талаффуз қилишни ўргатиш билан бирга, куйлаганда оғизни қандай, қайси ҳолатда очишни ўнли ва ундош товушларга этибор бериб куйлаш лозим эканлиги тушунтириб ўтиш лозим.

Болалар мусика маданияти ва халқ мусикасининг нодир намуналари билан танишиш, композиторлар ва мусика ижрочилари ҳақида, мусика ва унинг ифода воситалари, мусиканинг жанр ва формалари, чолғу асбоблари, кўшиқ ижро этишда овозларини йўлга қўйиш, овоз шакллари амалий кўрсатилади ва нота ёзувлари ҳақида зарур билимларга эга бўлиш билан амалга оширилади. Ушбу мусика нота назарияларини болаларга ўргатиш учун МТТ да алоҳида мусика хонаси ажратилиши лозим.

Хонада фортепианно, ўзбек халқ мусика чолғу асбоблари, техника воситаларидан

компютер, электрон доскалар, ведио проектор, магнитофон, музикага оид кўргазмалар воситалар, композиторлар портретлари ва кичик ҳажмдаги дидактик материаллар бўлиши шарт.

Болалар муассасаларида музика таълимига асос солинади, шунинг учун музика раҳбари айниқса ўқитиш методикасини яхши билиши, боғча ёшидаги кичик болаларнинг ёш ва индивидуал хусусиятларини, уларнинг музика ва кўшиқчилик имкониятларини чуқур билиши зарур.

Музика таълимини шартли равишда икки босқичга бўлиш мумкин. Биринчиси, тайёрлов босқичи. Бундан кўзланадиган асосий мақсад-болаларнинг музика ўқувини ўстиришдир. Шу вақт мобайнида болалар музика товушларининг баланд-пастлиги ва чўзими каби ўзига хос хусусиятларни ажрата билишга ўрганишлари ва нота ёзувини ўрганишга тайёрланишлари керак. Иккинчи босқичда нота саводи, яъни бевосита музика товушларининг график усулда ифодаланиши - нота ёзувини ўрганишга киришилади. Музика машғулоти жараёнида бола ҳаётий воқеликни музикавий образлар орқали идрок этиб боради.

Мазкур мақсад негизида энг аввало, музикага фаол қизиқиш, музика таъсуротларини таркиб топтириш ва зарурий музикавий тажрибаларни ҳосил этиш асосий вазифа қилиб қўйилади. Натижада болаларда музикавий дидни шакллантириб, музикани санъат сифатида ахлоқий-эстетик жиҳатдан онгли идрок этишга тайёрлаш кўзда тутилади.

Юқоридаги мақсадларни амалга ошириш учун дарсда қуйидаги музикавий фаолият турлари қўлланилади.

1. Музика тинглаш.
2. Жамоа бўлиб куйлаш.
3. Музика саводи.
4. Музика шаклига мос ҳаракатлар бажариш.
5. Чапак чалиш усули билан болалар чолғу асбобларида, музикага ритмик жўр бўлиш ва сольфеджиолаш.

Шуни қайд этиш лозимки, зеро дарснинг тематик режаси дастур асосидаги музика фаолиятлари тартибига қараб тузилсада, жамоа бўлиб куйлаш фаолиятидан олдин болаларнинг овозлари албатта созланиши лозим. Шунинг учун ҳам болаларнинг товушлари нота орқали куйлашга тайёр ҳолга келиб, ўз диопозонида ижро этишга ҳаракат қилади.

Яъни дарснинг тузилиши, балки тематик режадаги асарларни ўзлаштириш учун музика фаолиятининг қайси туридан бошлаб, қайси тури билан тугатилса ҳам болаларни музикага ва дарс мазмунига кўпроқ қизиқтира олиш ва педагогик мақсадга самаралироқ эришиш мумкинлиги муҳимдир. Бунда дарснинг ҳам таркибий, ҳам мазмун жиҳатдан мантиқий бир бутунлигига эришилади. Демак, дарсда ҳар бир музикавий фаолият тури дарснинг ажралмас мантиқий бўлаги бўлиб, аниқ педагогик мақсадга қаратилмоғи лозим. Шундай қилиб, дарсда бир неча педагогик мақсад белгиланадики, уларнинг ҳар бири бир ёки бир неча музикавий фаолият турлари орқали амалга оширилади. Улар қуйидагича бўлиши мумкин:

- музикавий қобилиятларни ривожлантириш;
- музикани идрок этиш малакаларини ўстириш;
- куйлаш малакаларини ўстириш;
- музикага ритмик жўр бўлиш, унга мувофиқ ҳаракатлар қилиш билан ижрочилик

қобилиятларни ривожлантириш;

-музиқанинг бадий-чолғу мазмуни воситасида болаларнинг дунёқарашини шакллантириш, эстетик ва ахлоқ-тарбиясини такомиллаштириш ва бошқалар.Натижада болаларда музика ҳақида мушоҳада юргизишнинг бошланғич асослари вужудга келади.

Шундай қилиб,мактабгача таълим муассасаларида болаларга ноталарни ўргатиш жарёнида мультимедиа технологияси воситасидан фойдаланиш машғулотларнинг самарадорлигини ошириш билан бир қаторда улар хотирасини мустаҳкамлашда ҳам муҳим аҳамият касб этади.Мактабгача таълим муассасаларида мультимедиа технологиясидан фойдаланиш услубиёти (тарбиячилар учун услубий қўлланма)

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1.А.А.Абдукодиров, Н.Х.Бегматова Дошкольная педагогика с основами методик воспитания и обучения: Учебник для вузов.Стандарттретьего поколения /Под ред. А. Г. Гогоберидзе, О. В. Солнцевой. - СПб.: Питер, 2013. - 464 с.: ил.

2.Дошкольная педагогика с основами методик воспитания и обучения: Учебник для вузов.Стандарттретьего поколения/Под ред. А. Г. Гогоберидзе, О. В. Солнцевой. - СПб.: Питер, 2013. - 464 с.: ил.

3. Джураев Р.Х Основы передачи данных. Лекции для бакалавров по направлению телекоммуникация. –Т., 2012. – 160 с. Капитса С.П. Математика в школе. – М.: Наука, 2011

MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA BOLALAR MUSIQIY FOLKLORIDAN FOYDALANISH USLUBLARI

*Matkarimova Hulkar Yuldashевна, Musiqa madaniyati fakulteti
musiqa ta'limi yo'nalishi II- kurs talabasi*

Ilmiy rahbar: Abilov Muslim A.Qodiriy nomidagi J.D.P.U katta o'qituvchisi

Аннотасија: Ushbu maqolada O'zbek bolalar xalq og'zaki ijodi,uning janrlari haqida,folklorning bola shaxsini rivojlantirishdagi o'rni,uning ichki dunyosi va folklor bolalar jamoasida ijtimoiy xulq-atvorini tartibga soluvchi sifatida. O'quvchilarga folklor qo'shiqlarini o'rgatish orqali ularning ma'naviy, milliy dunyoqarashini shakllantirishdagi tarbiyaviy ahamiyati haqida,Bolalar muloqotida ushbu janr turlarining bolalar uchun zarur bo'lgan psixologik element sifatidagi tomonlari yoritilgan.

Калит со'злар: Folklor, bolalar, xalq og'zaki ijodi, qo'shiqlar, alla, tez aytish, maqol, topishmoq, ertak, tarbiya, pedagogika. ta'lim-tarbiya, axloq, shaxs, milliy ma'naviyat, xalq.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni,"Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 31.05.2017y.PQ-3022 madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida,O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalqaro baxshichilik festivalini o'tkazish to'g'risida"gi 2018-yil 1- noyabrdagi PQ-3990-son qarorlariga muvofiq O'zbek musiqa folklorini yanada rivojlantirish madaniy, ma'naviy merosimizni yanada asrab-avaylash,yoshlarning ma'naviy, axloqiy va madaniy darajasini oshirishga qaratilgan,yoshlar

ongi va qalbida yanada chuqur ildiz otishi, mustaqillik g'oyasiga, yuqori ma'naviyat va insonparvarlik an'alariga sadoqat tuyg'ularining yanada chuqur ildiz otishi, estetik va madaniy ehtiyojlarni ta'minlashga yo'naltirilgan madaniy ommaviy- tadbirlar o'tkazish, ijodkor yoshlarga har tomonlama ko'maklashish, ma'nan yetuk, intellektual rivojlangan va yuqori madaniyatli shaxslarni tarbiyalash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilmoqda va Respublikada ushbu sohada erishilgan ilmiy natijalar amalga tatbiq etilmoqda.

Musiqiy ta'lim sohasida o'zbek xalq ijodining ta'lim va tarbiyaviy ahamiyati kattadir. Pedagog va psixolog olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida qo'shiq va musiqa shaxsni shakllantirishidagi o'rni va ahamiyati beqiyos ekanligini ko'plab dalillar yordamida isbotlab berganlar.¹⁵

Folklor deganda, bu xalq tomonidan yaratilgan barcha san'at namunalari – me'morlik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardo'zlik, musiqa, raqs, og'zaki adabiyot namunalari tushuniladi. Folklor atamasini 1846-yilda ingliz olimi Uilyam Toms taklif qilgan bo'lib, «xalq donoligi» degan tushunchani ifodalaydi. Har bir san'at sohasida ish olib borayotgan mutaxassis, masalan, musiqachi xalq kuylarini, xoreograf xalq raqslarini, arxitektor xalq me'morchiligini, folklorshunos olim xalq dostonlari, ertaklarini folklor asari deb hisoblaydi. Folklor - xalq hayoti, urf-odatlar, qadriyatlar, an'alarini o'zida mujassam etadi, o'tmish va kelajak avlodlarning ma'naviy- ma'rifiy ozuqasi hisoblanadi.¹⁶

Folklor xalqning xotira manbaidan, xotiraning og'zaki ravishda avloddan avlodga, og'izdan og'izga ko'chishidan paydo bo'ladi.¹⁷

O'zbek xalqi qadimdan farzandlarining ma'naviy va jismoniy tarbiyasiga alohida e'tibor bilan qaragan. Aynan allalar, ertaklar, qo'shiqlar uning ma'naviy dunyosini boyitsa, turli o'yinlar: quvlashmchoq, berkinmchoq, varrak uchirishlar ularni jismonan chiniqtirgan.

O'zbek folklori va folklorshunosligini bolalarog'zaki ijodisiz tasavvur qilish qiyin. Bolalar folklori aynan kichkintoylar va kattalar dunyosining uyg'unlashuvidan yuzaga kelgan o'yinlar, qo'shiqlar va musiqali poetik janrlarning butun bir tizimi sifatida tarkib topgan. Bolalar folklori ko'pincha kattalar tomonidan ijod qilinadi (alla), ba'zi hollarda bolalar o'z o'yinchoqlari asosida o'zlari ham alla, qo'shiq va ovutmchoqlar to'qiydilar. Bularning hammasi bir bo'lib faqat yaxshi tarbiyani targ'ib qiladi. Bolalar folklori bolalar aytib yurishiga, ularning o'yinlariga va qo'shiqlariga moslangan bo'ladi.

O'zbeklar bolalar folkloriga oid asarlarni bir necha asrlar oldin go'yoki hozirgi zamon pedagogikasi talablarini his etgandek yaratganlar.¹⁸ Xalqimiz bu talablarni o'zicha hisobga olgan. Pedagogika fani esa keyinchalik bularni kashf etgan. Bolalar uchun yaratilgan asarlarning tili sodda, mazmuni esda qolarli bo'lishi va albatta, tarbiyaviy ahamiyat kasb etgani holda, bolalarda xalqiga, vataniga, qadriyatlariga, ajdodlariga hurmat ruhini shakllantirishi kerak. Ayni paytda, folklor bolalarni go'zallikka intilish tuyg'usini uyg'otishga ham mo'ljallangan bo'ladi. Bolalar folklori bilan ulg'aygan farzand ularni tinglash, o'qish va ijro etish jarayonida unga o'zbekning o'zbekona tarbiyasi singib boradi va o'zbek bo'lib voyaga yetishadi.

O'zbek bolalar folklori alla, ertak, tez aytish, maqollar, topishmoq, bolalar o'yin qo'shiqlari va yana bir qancha janrlarni o'z ichiga oladi.

¹⁵ <https://bestpublication.org/view>

¹⁶ M. Jo'rayev, J. Eshonqulov. "Folklorshunoslikka kirish" Toshkent-2017

¹⁷ https://arxiv.uz/Bolalar_folklori

¹⁸ https://fayllar.org/Bolalar_folklori

Bolalar xalq og‘zaki ijodining pedagogika bilan bog‘lanishi alladan boshlanadi. Inson tug‘ilgan zahotiy oq dunyodagi eng sehrli va mehr bilan aytiladigan qo‘shiqni eshitadi. Bu - alla qo‘shig‘idir:

Alla bolam, alla.
Jonim bolam, alla,
Ikki ko‘zim alla,
Shirin so‘zim alla.
Alla bolam, baxti bor.
Har narsaning vaqti bor,
Jonim bolam, alla,
Shirin bolam, alla...¹⁹

Allalar ijtimoiy – estetik xususiyatiga ko‘ra ikki vazifani bajaradi: birinchisi- bolani uxlatish, ikkinchisi- bolaning tarbiyaviy-estetik ruhiyatidagimohiyatidir.²⁰ Bu uning emosional ta’sirchanligidan kelib chiquvchi xususiyati bo‘lib, bolani kuy og‘ushida hayot bilan tanishtirish, ohanglar vositasida hayot ma’nosini anglashiga, shuzaylda estetik didini shakllantirish va o‘stirish maqsadiga qaratilganligidir. Abu Ali ibn Sino allaning ushbu xususiyatini ming yillar ilgariyoq payqab, shunday yozgan edi: ”bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo‘llamoq kerak: biri, bolani asta sekin tebratish, ikkinchisi, uni uxlatish uchun aytish odat bo‘lib qolgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badantarbiyaga va ruhi bilan musiqaga iste’dodi hosil qilinadi... “Allaning o‘zbek folklorshunosligida qachon paydo bo‘lganligi ma’lum emas. Allaning eng muhim fazilati-bola ruhiy tarbiyasiga ijobiy ta’sir etishidir. Alla deyarli barcha xalq og‘zaki ijodida bor va chaqaloqni estetik tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.²¹

Bolalar folklorining yana bir janri ertaklardir. Bu ertaklar kattalar ertaklaridan syujeti va tilining soddaligi bilan farq qiladi. Matnlari ham hajm jihatidan qisqa bo‘lib, ertakdagi obrazlar, qahramonlar esa ko‘pincha turli xil hayvonlar, qushlar hisoblanadi. Bunday ertaklar bolalarni ovutishga, ularning nutqini o‘stirishgaxizmat qiladi. Boladagi ezgulikka intilishni shakllantiradi va rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bu ertaklarda yana o‘zbeklarning farzandiga qiladigan pand-nasihatlari ham o‘rin olgan bo‘lib, ular bolalar tarbiyasi uchun juda katta ahamiyatga egadir. Masalan: “Uch og‘a-ini botirlar” o‘zbek xalq ertagidagi otaning o‘g‘illariga qilgan nasihatlari:.

To‘g‘ri bo‘ling — bexavotir bo‘lasiz.
Maqtanchoq bo‘lmang — xijolat tortmaysiz.
Dangasa bo‘lmang — baxtsiz bo‘lmaysiz.²²

Bolalar tarbiyasidagi bunday pand-nasihatlar deyarli barcha ertaklarda o‘z badiiy aksini topgan bo‘lib, hayotga yaqinligi bilan nafaqat bolalarni, hattoki katta yoshdagi insonlar e’tiborini hamo‘ziga jalb etadi. Xullas, bolalarga atab yaratilgan ertaklar ko‘p jihatdan xalq pedagogikasi tamoyillari aks etgan badiiy so‘z namunalariidir.

¹⁹ <https://milliycha.uz/bolalar-folklori>.

²⁰ Mamasoli Jumayev. “Bolalar adabiyoti va folklori “-Toshkent 2006

²¹ <https://hozir.org/bolalar-folklori>

²² Mamasoli Jumayev. “Bolalar adabiyoti va folklori “-Toshkent 2006

Tez aytish-o‘zbek [xalq](#) og‘zaki ijodining bir turi. Tez aytishda yanglishib ketish mumkin bo‘lgan qofiyadosh so‘zlardan tuzilgan jumlar qo‘llanadi. Unda muayyan tovushlar, ayniqsa, jarangli undoshlar takrorlanadi va so‘zlar ritm, urg‘ular bilan tez aytiladi. Masalan:

1. Bir tup tut, bir tup tutning tagida bir tup turp. Bir tup tut bir tup turpning tomirini turtib turibdi, bir tup turp bir tup tutning tomirini turtib turibdi...

2. Qishda kishmish pishmash, pishsa kishmish qishmash...²³

Yuqorida keltirilgan bu ikkita tez aytishda har bir tovush, har bir harf o‘z o‘rnida to‘g‘ri, ravon talaffuz etilishi shart bo‘lib, tovushlar talaffuzida yanglishgan tomon (kishi) yengilgan hisoblanadi. O‘tmishda katta yoshdagi odamlar ham o‘tirishlarda, to‘ylarda tez aytishda musobaqalashib, madaniy hordiq olganlar. Keyinchalik, asosan, bolalar repertuariga aylangan. Tez aytishlar bolalarning fikrlash qobiliyatini, so‘z boyligini oshirishga va nutqining ravon bo‘lishiga xizmat qiladi.²⁴

Maqollar-xalq o‘gzaki ijodining eng dono, purhikmat so‘zlari bo‘lib, u xalqning hayotiy tajribasi asosida yuzaga keladi. Maqol arabcha “qavolla”, “qavlum” so‘zlaridan olingan bo‘lib, “so‘z aytmoq, so‘zlamok” ma’nolarini anglatadi. Maqollarda xalq zakovati, iste’dodi va til boyligi namoyon bo‘ladi. Maqollar maxsus ijod qilinmaydi, ular ixcham, sodda, lo‘nda va obrazli ifodalanadi. Ma’lum bir sharoit taqozosi bilan hayotiy tajribadan xulosa sifatida yuzaga keladi. Har bir maqolda o‘sha xalqning qalbi, milliy saviyasi ifodalantiriladi. Masalan: onavatanni sevishtga, uning har bir qarich yeri uchun kurashga: «Yurt qo‘risang o‘zarsan, qo‘rimasang to‘zarsan», kasb-hunar egasi bo‘lishga: «Yigit kishiga yetmish hunar ham oz», ahil bolib mehnat qilishga: «Ko‘pchilik qo‘lida unum ko‘p», to‘g‘ri so‘z va halol kishilar bo‘lib kamol topishga «Egri ozadi, to‘g‘ri o‘zadi», yaxshi odob va oliyjanob xulqli bo‘lishga «Odob bozorda sotilmas».²⁵

O‘zbek xalq maqollarini yozib olish XI asr Mahmud Qoshg‘ariydan boshlangan. XVIII-XIX asrlarda yashab ijod etgan. M. Gulxaniy “Zarbulmasal” asarida 400 dan ortiq maqollar ishlatgan. Maqollar yosh avlodni ilm-u hunarli bo‘lishga, mehnatkashlikka, vatanparvarlikka va umuman olganda barcha insoniy fazilatlarga o‘rgatadi.

Topishmoqlar xalq o‘zaki ijodining eng qadimiy va eng ommaviy janrlaridan biridir. Dunyodagi barcha xalqlar folklorida uchraydi. Topishmoqlarda xalq hayoti, turmush darajasi, urf-odatlar ma’lum darajada o‘z aksini topgan. Topishmoqlar majoziy so‘roq ma’noda ifodalanib, ma’nosi yashirin bo‘ladi. Odamlar, ayniqsa bolalar topishmoqda yashiringan narsani topishga, jumboqni bilishga qiziqadilar.²⁶

Topishmoqlarda u yoki bu narsa o‘xshatish, qiyoslash taqqoslash orqali gavdalantiriladi. Masalan:

Tunda ko‘rib, cho‘g‘ deysan,
Tongda turib, yo‘q deysan. (Yulduz)

Keragida suvga otasan,
Qimirlashin poylab yotasan. (Qarmoq)
Qo‘shaloq tovoq, ichi to‘la yog‘. (Yong‘oq)

Topishmoqlardan doston va ertaklarda keng foydalaniladi. Topishmoqlar bolalarning so‘z boyligini oshirish, hayot va uning hodisalari haqidagi tushunchalari va tasavvurlarini,

²³ https://arxiv.uz.Bolalar_folklori

²⁴ https://uz.wikipedia.org/wiki/Tez_aytish

²⁵ Mamasoli Jumayev” Bolalar adabiyoti va folklori” Toshkent 2006

²⁶ https://arxiv.uz.Bolalar_folklori

idroki va mulohaza qobiliyatlarini kengaytirishda, kuzatuvchanlik hislari, tuyg'ularini o'stirishda tarbiya vositasi hisoblanadi.²⁷

Bola tarbiyasida eng muhim vositalardan biri bu-qo'shiqlar hisoblanadi. Uning roli juda katta. Qo'shiq lirikaning eng qadimgi shakllaridan biri bo'lib, kuylashga mo'ljallangan bir necha bandli she'rdan iboratdir. Qo'shiqlar kuy-ohang bilan aytiladi. Ba'zan qo'shiq o'yin bilan birga ijro etiladi. Demak, qo'shiq uchun she'r va kuy kerak. Qo'shiq xalq og'zaki ijodining eng ko'p tarqalgan va ommalashib ketgan janrlaridan biri hisoblanadi. Bolalar qo'shiqlarining ko'plari yil fasllari bilan bog'liq. "Boychechak", "Oftob chiqdi olamga", "Chittigul", "Laylak keldi, yoz bo'ldi", "Qurbaqa", "Qaldirg'och" kabi qo'shiqlarni bolalar tom boshida, dalalarda, qishloqko'chalarida aytishadi.

Ayniqsa bahor faslida bolalar "Boychechak" qo'shig'ini jamoa bo'lib ijro etadilar. Hattoki biz ham shunday qo'shiqlar ta'siri ostida ulg'ayganmiz. Bu qo'shiqni o'zimiz ham hozirgi kunda bolalar bilan birgalikda sevib ijro etamiz:

Boychechagim boylandi,
Qozon to'la ayroni,
Ayroningdan bermasang,
Qozon-tovog'ing vayroni.

Qattiq yerdan qazilab chiqqan boychechak,
Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak...²⁸

Ular bahor kelishi, yomg'ir yog'ishi, quyoshning olamni isitishi, ilk chechak, birinchi qor kabi fasl va tabiat hodisalari bilan bog'liq. "Bu bog'chada olisha", "Zuvzuv borag'on", "Chamandagul", "Oq sholi, ko'k sholi" va boshqa qo'shiqlar turli davrda aytilaveradi. Ularda ovchilik, dehqonchilik, chorvachilik, hunar va san'at bilan bog'liq mehnat jarayonlari, kattalar xattiharakatlariga taqlid aks etadi. O'yinlar ham, qo'shiqlar ham bolalarning aqliy va jismoniy kamolotga yetishiga yordam beradi, ularda zavq uyg'otadi.

O'yinlar Bolalar Folklorining murakkab turi bo'lib, ularda drama va musiqa unsurlari chatishib ketadi. O'yinlarni kichik yoshdagi bolalar "Choriy chamber", "Hakkalakam" kabi sanama o'yinidan, katta bolalar "Qushim boshi" degan topishmoqdan boshlaydi. Bolalar bog'chalari, maktablarda o'yinlardan keng foydalaniladi. Bolalar Folklori yosh avlodni intizomli, jasur, qat'iyatli, qiyinchiliklarni yengishga, o'rtoqlariga yordam berishga tayyor bo'lish singari yaxshi sifatlarga ega bo'lib o'sishlariga yordam beradi. Uning ayrim namunalari maktab darsliklari va o'qish kitoblariga kiritilgan. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, qo'shiqlar bolalarning nafosatini o'stirishga, ularni hayot va mehnatga muhabbat, vatanparvarlik, do'stlik, insonparvarlik kabi oliyjanob fazilatlar ruhida tarbiyalashga yordam beradi.²⁹

Bolalar folklori yosh avlodlarning ulg'ayishida boshqa janrlar kabi estetik, ma'rifiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bolalar folklori namunalari o'zbekning o'z farzandi tarbiyasiga, binobarin, xalqining, yurtining kelajagiga mas'uliyat tuyg'usini yaxshi his etganini, qanchalik e'tibor bilan qaraganini ko'rsatadi. Bu e'tibor o'z navbatida ajdodlarimiz xotirasiga hurmat tuyg'usining kuchli bo'lishiga olib kelgan. Qadriyatlarimizni e'zozlash, tariximizga hurmat bilan qarash allalar ohangi bilan jismimizga singib ketgan. Ertaklar orqali o'tmishda ajdodlarimiz hayot tarzi bilan tanishganmiz, tez aytish, topishmoqlar qo'shiqlar zamirida ulg'ayganmiz. Nihoyat bu asarlar bizning ham ruhan, ham milliy- ma'naviy kamol

²⁷ «Bolalar adabiyoti» ("O'qituvchi") nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent 2013

²⁸ https://uz.wikipedia.org/wiki/Bolalar_folklori

²⁹ Bolalar folklori: qo'shiqlar * WWW.SAVOL-JAVOB.COM

topishimizda, aynan o‘zbek bo‘lib voyaga yetishimizga, shaxs bo‘lib shakllanishimizga xizmat qilgan. Bu an‘ana mustaqillik yillarida yanada keng ommalashdi. Binobarin, asrlar oldin yaratilgan bolalar folklori namunalari bugungi kunda o‘z vazifasini bajarmoqda. Musiqa madaniyati darslarida xalq o‘zaki ijodi janrlarini o‘rganib borish, ijro etish nafaqat maktab o‘quvchilari repertuarini boyitadi, balki ularning milliy ma‘naviyatimizga bo‘lgan muhabbatini oshiradi. Dunyoqarashlarini kengaytiradi, ma‘naviy-axloqiy va eng yaxshi insoniylik fazilatlarini shakllantirishiga ko‘mak beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. «Bolalar adabiyoti» (“O‘qituvchi”) nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent 2013
2. Hasanova Navbahor Hamraqulovna. (2020). Bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘zbek mumtoz musiqasida kasbiy malakasini oshirish muammolari. *Xalqaro ilg‘or fan va texnologiyalar jurnali*, 29 (08), 3489-34953495. [Http://sersec.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558](http://sersec.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558)
3. Hasanova, Navbahor. (2020). METHODS AND WAYS TO DEVELOP THE MUSICAL FEELINGS OF STUDENTS IN THE LESSONS OF MUSIC CULTURE. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(42). извлечено от https://science.i-educu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5579
4. Khasanova, Navbahor (2020) “The role of music lessons in the formation of national and intercultural competence in students.” *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*. Vol.2020 :Iss.2. Article 15 :<https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss2/15>
5. Mamasoli Jumayev Bolalar adabiyoti va folklori Toshkent 2006
6. Muminova Muqaddas Riskulovna Development And Current Status Of Uzbek Pop Music In Modern Approaches And Innovations Of Teaching The Science Of Music Culture *International Journal of Advanced Science and Technology* Vol. 29, No. 8, (2020) <https://t.me/joinchat/> - Music teacher, <https://infourok.ru> - music lessons
7. Muminova Muqaddas Riskulovna *International Journal of Mechanical Engineering*. The Innovative Technologies Of Teaching In Musical Educational Establishments 1764-1767-betlar. 2022- йил.
8. Muminova Muqaddas Riskulovna *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*. THE ROLE OF SPORT ACTIVITIES, GAMES AND COMPETITIONS IN THE NURTURE OF 6-7 YEARS OLD CHILDREN <https://uzjournals.edu.uz/tziuj/68-78betlar> 2022
9. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlarda pedagog kreativligi. “Yangilanayotgan O‘zbekistonda fan, ta‘lim va innovatsiya uyg‘unligi” mavzusidagi 6-son 2-qism Respublika ko‘p tarmoqli ilmiy konferensiyasi VIII bo‘lim Toshkent 2021. 677 bet. Udk. 001.895 (575.1).
10. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlar o‘qituvchisining kreativligi. Педагогические и лингвopsихологические особенности развития, формирования и становления личности врача. Сборник тезисов Международная конференции. СамГМИ, Самарканд 5 мая 2021 год
11. M. Jo‘rayev, J. Eshonqulov. “Folklorshunoslikka kirish” Toshkent-2017
12. <https://milliycha.uz/bolalar-folklori>
13. https://uz.wikipedia.org/wiki/Bolalar_folklori
14. https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm

ПРАКТИЧЕСКАЯ ГОТОВНОСТЬ УЧИТЕЛЯ МУЗЫКИ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Муминова Мукаддас Рискуловна Преподаватель Дж ГПУ.
Нарзулаева Нозима Саидкамол кизи студентка, Дж ГПУ имени А. Кадыри

Аннотация: Основой применения поднятых вопросов являются ступени познания, как живое созерцание, абстрактное мышление и практика, характерные для любого познания, в том числе и музыкально – педагогического.

Ключевые слова: Жанр, вокальный цикл, анализ, философско-традиционное содержание, драматургия, экспериментирование, восточная мелодия, творческое мышление, молодёжь, формирование

Сегодня становится очевидным, что не обходим поиск новых путей дальнейшего совершенствования музыкальной – педагогической подготовки учителя начальных классов, профессиональная компетентность которого наряду с общественно-политической, психолого-педагогической готовности.

Разносторонняя профессиональная психолого педагогическая подготовка, учителей, их широкая эрудиция в пределах своей специальности, знания особенностей формирования и развития личности младшего школьника на разных возрастных этапах, его интересов, склонностей в сочетании с музыкальным образованием позволяет учителю осуществить решение ряда задач воспитания учащихся средствами музыкального искусства.

Педагогическая проблема формирования профессиональной готовности учителя начальной школы к воспитательной работе в школе с помощью музыки требует и решения ряда теоретических положений. Особенно важными представляются теоретические вопросы, связанные со спецификой формирования профессиональной подготовки учителей музыки к осуществлению музыкально- эстетической деятельности, выраженным средствами музыки.

Основной применения поднятых вопросов являются ступени познания, как живое созерцание, абстрактное мышление и практика, характерные для любого познания, в том числе и музыкально – педагогического. На теорию отражения опирались ученые, педагоги, психологи, музыканты: Б.Т.Ананьев, Н.А.Ветлугина, Л.В.Занков, А.В.Запорожец, В.Н.Мясинцев, Б.М.Теплов и другие.

Практическая готовность учителя музыки начальной школы обусловлена наличием сформированных на требуемой уровне таких музыкально- педагогических и специальных умений, как умение: планировать и организовать все виды учебных занятий и вне учебных мероприятий по музыке; умения раскрыть идейно-образное содержание музыкального произведения в единстве с выразительными средствами музыкального языка; исполнительские умения, разбора, заучивания и исполнение музыкального произведения, подбора музыкального материала на слух. Психофизическая готовность, основанная на развитии музыкальных способностей и высоким уровнем музыкально эстетического восприятия, художественно-образного мышления, творческого воображения (эстетического вкуса, художественно-идеала).(1)

Главное не забыть, что в музыкальном обучении важно постижение музыки через интонацию, постижение музыки музыкой, другими видами искусства, жизнью природы и человека, а не отдельными выразительными средствами, вырванными из целого.

Формирование идейно – нравственного потенциала учащихся предопределяет цель и логику музыкальных занятий, отбор и анализ музыкальных произведений, формы и методы музыкальных занятий, учет специфики музыкального искусства и тому подобное.

В школьном возрасте возможно восприятие музыки на более высоком уровне, то есть школьнику доступно понятие о сходстве и различиях гармонии языка, лада, фактуры более сложных форм, жанров, стилей музыкальных произведений. Вследствие этого работа по идейно – нравственному воспитанию учащихся может вестись. На основании анализа философской, искусствоведческой, психолого – педагогической литературы, а также опыта наблюдений и экспериментальной работы нами были определены компоненты эстетического идеала, возможности взаимосвязи искусств в процессе его формирования.

Эстетический идеал как психолого- педагогический феномен представляет собой единство чувственного отражения и рационального познания; способность к эстетической оценке на основе совокупности эстетических знаний и эстетических переживаний; наличие многосторонности и целостности, эмоциональности и глубины восприятия; обобщение эстетических впечатлений.

Взаимосвязь искусств, на наш взгляд, может способствовать формированию эстетического идеала, всесторонне влиять на чувства и сознание учащихся.

Быстрый переход от одних характеристик к другим при сравнении, сопоставлении произведений различных искусств развивает аналитическое мышление, способствует осознанности восприятия, выработке оценочных суждений.

Комплексное воздействие искусств, способствует целостности и многосторонности эмоционально -эстетического воздействия, развивает системность мышления, особенно при использовании не только на уроках, но и во внеклассной работе.

К специфическим особенностям влияния взаимосвязи искусств, проявляющимся в процессе становления эстетического идеала, относится формирования способности к созданию синтетических образов, достижение перевода идеала на более высокую ступень обобщенных представлений, чем в рамках отдельных видов искусства. Кроме того, интеграция искусств помогает постижению эстетической доминанты автора, способствует более полному представлению об идеале эпохи. Взаимосвязь искусства преследует ту же цель, что и формирование эстетического идеала – педагогических смысл обоих процессов заключается в проявлении новых свойств и качеств личности школьника.

Приобщение к музыке вводит ребёнка в мир волнующих, радостных переживаний отрывает ему путь эстетического освоения жизни в рамках допустимых его возрасту.

Чтобы открыть перед ребёнком дверь в этот мир, надо развивать у него способности, позволяющие успешно проявлять себя в музыкальном воспитании и развитии ребенка.

Различные виды искусства обладают специфическими средствами воздействия на человека. Музыка же имеет возможность воздействовать на ребенка на самых ранних этапах

Доказана, что даже внутриутробный период чрезвычайно важен для последующего развития человека: музыка, которую слушает будущая мать, оказывает влияние на самочувствие ребёнка.

Музыка является одним из богатейших и действенных средств эстетического воспитания, чувства человека, формирует вкусы.

Современные научные исследования свидетельствуют о том, что развитие музыкальных способностей, формирование основ музыкальной культуры-то есть музыкальное воспитание нужно начинать в дошкольном возрасте.

Жизнь ребёнка богата музыкальными впечатлениями. У него возникают новые запросы и интересы, ему хочется проявить себя в иных ситуациях. Установившиеся формы деятельности уже не удовлетворяют детей.

Музыкальное развитие оказывает ничем не заменимое воздействие на общее развитие. Формируется эмоциональная сфера, совершенствуется мышление воспитываются чуткость к красоте в искусстве и жизни. «Только развивая эмоции, интересы, вкусы ребенка, можно приобщить его к музыкальной культуре, заложить ее основы. Дошкольный возраст чрезвычайно важен для дальнейшего овладения музыкальной культурой. Если в процессе музыкальной деятельности будет сформировано музыкально-эстетическое сознание это не пройдет бесследно для последующего развития человека, его общего духовного становления.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1.Hasanova Navbahor. (2020). METHODS AND WAYS TO DEVELOP THE MUSICAL FEELINGS OF STUDENTS IN THE LESSONS OF MUSIC CULTURE. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(42). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5579

2.Hasanova Navbahor. (2020). METHODS AND WAYS TO DEVELOP THE MUSICAL FEELINGS OF STUDENTS IN THE LESSONS OF MUSIC CULTURE. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(42). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5579

3.Hasanova, navbahor. (2020). METHODS AND WAYS TO DEVELOP THE MUSICAL FEELINGS OF STUDENTS IN THE LESSONS OF MUSIC CULTURE. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(42). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5579

4. N. Hasanova O‘zbek milliy musiqa merosi taraqqiyotida хотин-qizlarning o‘rni. Актуальный вызовы современной науки IX xalqaro ilmiy konferensiya 26-27 yanvar 2017 yil.

5.Muminova Muqaddas Riskulovna Development And Current Status Of Uzbek Pop Music In Modern Approaches And Innovations Of Teaching The Science Of Music Culture International Journal of Advanced Science and Technology

Vol. 29, No. 8, (2020) <https://t.me/joinchat/> - Music teacher, <https://infourok.ru> - music lessons

6. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlarda pedagog kreativligi. “Yangilanayotgan O‘zbekistonda fan, ta’lim va innovatsiya uyg‘unligi” mavzusidagi 6-son 2-qism Respublika ko‘p tarmoqli ilmiy konferensiyasi VIII bo‘lim Toshkent 2021. 677 bet. Udk. 001.895 (575.1).

7. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlar o‘qituvchisining kreativligi. Педагогические и лингвopsихологические особенности развития, формирования и становления личности врача. Сборник тезисов Международная конференции. СамГМИ, Самарканд 5 мая 2021 год

8. Urinova S.Sh. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishning nazariy asoslari. "The best innovator in science" xalqaro maqolalar tanlovi to'plami. Organized by Innovative Academy. Tashkent February 5, 2022. Pg 811. <https://zenodo.org/record/5979621#.YpC2PKhBxD8>

9. Xolmirzayev, O. (2021). Yoshlar kamoloti va musiqa Журнал дошкольного образования, 3(3). Извлечено от <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/21031>. P, Кадыров II Музыкальная педагогика. Учебное пособие. Ташкент 2005 стр52.

BO'LG'USI MUSIQA O'QITUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA "MAKTAB REPERTUARI" FANINI O'QITISH MUAMMOLARI

Murodov Mirshohid Burhonovich

Sharof Rashidov nomidagi SamDu katta o'qituvchisi

Sa'dullayeva Bahora. JDPU talabasi

Annotatsiya: Maqolada oliy pedagogik ta'lim tizimida bo'lgusi musiqa o'qituvchilarini maktab repertuari fani bo'yicha maktab faoliyatiga tayyorlashdagi ayrim muammolar ularni yechimida ahamiyatli mulohazalar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Oliy pedagogik ta'lim, maktab, musiqa madaniyati, dars, maktab repertuari, xor jamoasi, tinglash, kuylash, cholg'u ijrochilik.

Mamalakatimizda amalga oshirilayotgan o'lgan buniyodkorlik ishlari jamiyat ijtimoiy sohasining ustuvor bo'g'ini hisoblanmish ta'lim tizimida ham o'ziga xos yangilanish va sifat o'zgarishlari yuz berishiga olib kelmoqda. Chunki, amalga oshirilayotgan buniyodkorlik ishlarining markazida yuqori malakali kadrlar tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj va talablar alohida o'rin tutadi. Shu bois ushbu maqolada pedagogika oliy o'quv yurtlarining musiqa o'qituvchilari tayyorlashga ixtisoslashgan ta'lim yo'nalishida mutaxassislik fanlar turkumidagi "maktab repertuari" fanini o'qitilishi bilan bog'liq ayrim muammolar va ularning yechimini ta'minlash yo'llarini qisman bo'lsa – da, ko'rib chiqishni lozim topdik.

Oliy pedagogik ta'lim tizimidagi "musiqa ta'limi" yo'nalishi o'quv rejasidagi "Maktab repertuari" fani o'z predmeti, ta'lim mazmuni va mohiyatiga ko'ra juda keng qamrovli maqsad va vazifalarni ko'zda tutadi. Chunonchi:

- bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini umumta'lim maktablarida "musiqa madaniyati" o'quv fani dasturi va darsligiga kiritilgan, tinglash va kuylash uchun tavsiya etilgan namunalarni o'zlashtirish, shu orqali musiqiy faoliyatlar mazmunida ifoda etilgan ta'limiy – tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirish ko'nikma va malakalarini hosil qilish;

- o'quvchilar tomonidan musiqa san'atining hayot bilan bog'liqlik xususiyatlarini, ya'ni musiqa san'ati ham boshqa badiiy san'at turlari kabi hayotni o'ziga xos musiqiy ohanglarda ifoda etishini yaxlit anglab yetishlarini ta'minlovchi bilim va tushunchalarni egallash;

- musiqiy faoliyatlar jarayonida o'quv materiallarini maktab pedagogikasi va metodikasi tamoyillariga tayangan holda metodist – o'qituvchi, xonanda, dirijyor, nazariyotchi va amaliy ijrochi (cholg'uchi jo'rnavorchi) sifatida o'zlashtirish;

- maktab musiqa o'qituvchisining darsga tayyorlanishi, o'z – o'zini tayyorlashi bo'yicha eng muhim unsurlarni aniqlash, belgilay olish, mustaqil ishlab chiqish layoqatiga ega bo'lish;

- maktab repertuariga kiritilgan, tinglash va kuylash uchun tavsiya etilgan asarlarni o'rganish, dars jarayonida ular bilan amaliy ishlash (ijro etib berish, ko'rsatish, namoyish qilish, tegishli ma'lumotlar berish, tahlil qilish, o'rgatish) ning amaliy uslublarini egallash;

- maktab repertuarini metodik va amaliy ijrochilik jihatdan o'zlashtirish jarayonida musiqiy fikr yuritish, mustaqil yondashish, obrazli tasavvur qilish, badiiylik bilan ijro etish qobiliyatlarini rivojlantirish va nihoyat shu jarayonda bo'lg'usi musiqa o'qituvchisi uchun muhim bo'lgan kasbiy mahorat, malaka va madaniyatni shakllantirish.

Oliy pedagogik ta'limda bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini "maktab repertuari" predmeti bo'yicha kasbiy tayyorlash sifati va malakaviy darajasi ta'kidlab o'tilgan ko'rsatkichlarga mos keladimi? Oliy o'quv yurtlaridagi "Musiqiy ta'lim" yo'nalishida ushbu fanni o'qitilishi ushbu mezonlarga javob beraoladigan raqobatbardosh kadrlar tayyorlash imkonini beruvchi pedagogik, o'quv – metodik shart – sharoitlar yaratilganmi? Ushbu savollarga javob olish maqsadidagi kuzatuvlarimiz shuni kursatdiki, pedagogika oliy o'quv yurtlarining musiqa o'qituvchilari tayyorlashga yo'naltirilgan "musiqiy ta'lim" o'quv rejasiga mazkur fan "Musiqqa o'qitish nazariyasi va metodikasi va maktab repertuari" nomlanishda kiritilgan bo'lib, fanga ajratilgan umumiy soat hajmi 90 soatni tashkil etadi. Shundan 90 soat amaliy mashg'ulot soatlari bo'lib, barcha soatlar bir kursda taqsimot qilinadi. Mutaxxasis fanlar soati har kursda ko'proq soat ajratilmasa, o'z – o'zidan ravshanki ushbu soat hajmidagi o'quv mashg'ulotlari talabalarda "maktab repertuari" fani bo'yicha zarur bilim, ko'nikma va malakalarni egallash imkonini bermaydi. Bu holat esa maktabda o'z faoliyatini boshlagan musiqa o'qituvchilarning darslarni pedagogik, metodik va amaliy ijrochilik (musiqa darslarida amaliy faoliyat yetakchi o'rin tutadi) jihatidan sifatli va samarali o'tkazishlarida jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Pedagogik kuzatuv va tahlillar oliy pedagogik ta'lim jarayonida talabalarni maktab musiqa fani bo'yicha maktab faoliyatiga tayyorlashda ular tomonidan maktab repertuarini uslubiy, didaktik va amaliy jihatdan o'zlashtirib olishlariga erishish, bu jarayonda har bir darsning maxsus ishlanmasini tayyorlash va namoyish qilishda quyidagi tavsiyalarga tayangan holda ish tutish ijobiy ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi:

1. Fan dasturi bo'yicha tinglash va kuylash uchun tavsiya etilgan asarni namoyish qilishga tayyorlash. Bu faoliyatda namoyish qilinadigan asar cholg'u asbobida badiiy ifodali ijro etish darajasida o'zlashtirilishi lozim. Bu o'rinda asarning nomi, janri, mualliflari, asarning xalq ijodiyotiga, bastakorlik, kompazitorlik uslubiga tegishliligi, xarakteri, (o'yin, raqs, mavzuli, tantanali, marsh va hokozo) qanday holatda, kimlar tomonidan, qanday shaklda ijro etilishi haqidagi ma'lumotlar o'rganiladi. O'quvchilarga asar haqidagi taassurotlarini aniqlash yuzasidan beriladigan savollar tayyorlanadi.

2. Namoyish etiladigan asar qo'shiq janriga tegishli bo'lsa, asarning nota yo'li (jo'navozchi sifatida) to'liq cholg'u asbobida o'rganiladi.

3. Vokal – xor mashqlari kuylash. Bu bosqichda asarni birinchi darsda o'rganiladigan qismi to'liq o'zlashtiriladi, asarga dirijyorlik qilish, xor bilan ishlashga o'z – o'zini tayyorlash ishlari bajariladi.

4. Kuylashda matnni o'zlashtirish uchun so'z talaffo'zi ustida ishlash, o'qituvchi ovozigga ergashib, nazorat qilib, cholg'u musiqasini eshitib kuylash, diksiya, intonatsiya, ansambllik, ritm – usulni his qilish malakalari ustida ishlash.

5. O'quvchilarni jo'navozlik qilishga, ya'ni o'z ijrosini eshitib, nazorat qilib, o'qituvchining va o'rtoqlarining ovozigga ergashib kuylashlariga e'tibor berish.

6. Qo'shiqni o'rgatish metodini egallash.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini maktab faoliyatiga tayyorlashda shu tarzda ish tutish, dars, darsdan tashqari faoliyatlarda, ya'ni o'quv, pedagogik va malakaviy amaliyotlar davrida talabalarda "maktab repertuari" fani bo'yicha amaliy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirib borish musiqiy ta'lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga ko'tarishda o'z samarasini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T., O'zbekiston, 2017. – 488 b.
2. Umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi va tarbiyasi Konsepsiyasi. –T.: -XTB, 1995 y.
3. Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standarti va o'quv dasturi. T.: Ta'lim taraqqiyoti, 6-7 maxsus sonlari, 1999 y.
4. Abdukarimova E.I. Qudratov I. Musiqa ta'limida fanlararo aloqadorlik. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand.: SamDU, -2015. – B 95 b.
5. Abdukarimova E.I. Qudratov I. Milliy musiqiy an'analar va ularning shaxs komolotidagi o'rni// O'zbekiston: Turizm; Iqtisodiyot va Ekologiya // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.- Sam., 2009-B 376-378
6. Abdukarimova E.I. Preparation of future music teachers for their professional activities through uzbek classical music// European Journal of Research and Reflection in Education Sciences. Research learning.- Volume: 7 Number: 6 Issue: 2056-5852 Publication Year: 2019. www. Scopus.com
7. Abdukarimova E.I. Texnologik loyihalash- musiqa mashg'ulotlarida samarali ta'lim // "Ilim ham jamiyet" jurnal. -Nukus davlat pedagogika instituti, 2019, 1-son, -B 61-63.
8. Abdukarimova E.I. Oliy Pedagogik ta'limda bo'lajak musiqa o'qituvchilarini mumtoz musiqa vositasida amaliy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish. Xalq ta'limi. jurnal- T.: 2021. -№3, - B. 82-84.

ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA MUSIQA SAVODI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH.

*Namozova Kumushoy, JDPU Musiqa ta'limi yo'nalishi 3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: M.N.Abilov, JDPU Musiqa ta'limi kafera mudiri*

Annotatsiya: Ushbu maqola musiqa san'ati haqida bo'lib, umumiy o'rta ta'lim sohasida musiqa darslarida tashkil etiladigan musiqa savodi faoliyati haqida so'z yuritiladi. Hozirgi kunda yurtimizda olib borilayotgan musiqa san'atiga oid islohotlar amalga oshirilmoqda. Manashu islohotlar natijasida maktablarda musiqa darslarida musiqa savodi faoliyatini tashkil etishda ilg'or horijiy tajribalardan foydalanish kabi masalalar haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: smartboard, Perfect ear, Kodaly Hand, Bo'ginli ketma-ketlik

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda ma'naviy muhitni yaxshilash va yanada yuksaltirish, madaniyat va san'at sohasini yanada taraqqiy ettirish, sohada faoliyat yurutuvchilarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan turli qarorlar qabul qilindi. Bu qarorlarda avvalo sohani tubdan isloh qilish, madaniyat, san'at muassasalarini, maktabdagi musiqa xonalarini moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, soha mutaxassislarini

malakalarini oshirish, yetuk va zamonaviy kadrlarni tayyorlash kabi dolzarb masalalarni hal etish asosiy ustuvor vazifa qilib belgilandi.

Ayni vaqtda rivojlanish pillapoyalarini bosib o'tayotgan yurtimiz jadallik bilan rivojlanishda davom etmoqda. Yurtimizdagi bu rivojlanish hech bir sohani chetlab o'tmadi, shu jumladan musiqa san'ati sohasini ham. Masalan Prezidentimizning 2019-yil 14-maydagi "Baxshichilikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarori madaniyatimizdagi ulkan tarixiy voqea bo'ldi.³⁰ 2020-yil 4-fevral o'zbek madaniyati va san'ati tarixida shonli va unutilmas kun bo'ldi. Chunki bu kundan bit emas balki ikkita "Milliy raqs sanatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4584³¹-sonli hamda "Raqs san'ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi PQ-4585³²-sonli qaroqlari imzolandi. 2020-yil 26-maydagi "Madaniyat va san'atning jamiyat hayotidagi o'rni va tasirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6000³³-sonli qarori, 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlanishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar" 112³⁴-sonli qarori yurtimizdagi barcha maktablaridagi talim jarayonlarni tubdan o'zgarishiga turtki bo'ldi.

Maktab ta'limida musiqa darslarini tashkil etish va o'qitishda har bir sinf, darsning har bir faoliyat turida aynan bir xil bo'lmagan usul va metodlardan ustalik bilan foydalanish, darslarning noan'anaviy va tasirchanligiga birlamchi e'tibor qaratish davr talabidir. Shunday ekan umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslarini o'qitish ham ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish, og'zaki, ko'rgazmali, amaliy, o'yin, taqqoslash, baholash va rag'batlantirish metodlaridan o'z o'rnida foydalanish kerak bo'ladi.

Musiqa savodi musiqaga, uning ifoda vositalariga bo'lgan ongli munosabatni tarbiyalaydi, musiqaning mazmuni tushunib olishga yordam beradi. Eng muhimi esa notaga qarab kuylash va ashula aytish malakalarini hosil qilish, garmonik eshitish qobiliyatini o'stirishga ta'sir ko'rsatib, jamoa bo'lib kuylash faoliyati sifat darajaisini oshirishga yordam beradi. O'quvchilar mustaqil qo'shiq ayta oladigan va notanish kuylarni notaga qarab o'rgana oladigan bo'lanidagina musiqa savodini o'rganishdan ko'zlanadigan maqsadga erishilgan bo'ladi.

Kodalining fikricha: "qo'shiq kuylash musiqa ta'limiga kirishning asosidir. Qolaversa, bolalar biron bir asbobni chalishni o'rganmasdan oldin musiqaiy nazariy bilimlarni o'rganishlari kerak... Hatto eng iste'dodli san'atkor ham nazariy bilimlarni o'rganmasdan ta'limning kamchiliklarini hech qachon yengib chiqa olmaydi." (Kodály, 1974, 201, 204-betlar)

Bundan ko'rinadiki musiqiy ta'limning asosi musiqa nazariyasidir. Hozirgi kunda musiqadagi nazariy qismni o'rganishda an'anaviy usullardan oz bo'lsada chetlashib ilg'or xorijiy tajribalar asosida musiqa savodini shakllantirish zamon talabi bo'lib qolmoqda. Musiqa ta'limidagi texnologiya musiqa o'rganishga zamonaviy pedagogik yondashuvning muhim qismidir. O'quvchilar yangi musiqa texnologiyalari vositalari va zamonaviy raqamli platformalar bo'yicha bilim olishlari kera. Misol uchun rivojlangan davlatlarning barchasi musiqa darslarida interfaol doska (smartboard)lardan foydalanadi. Interfaol doska kompyuterga ulanadi va o'qituvchi raqamli ruchka yordamida nazariy ma'lumotlarni tushuntirishi, musiqiy asarlarni tinglatishi hamda bevosita musiqiy asarning nazariy qismlarini vizual tarzda o'rgatishi

³⁰ <https://lex.uz/docs/-4380951>

³¹ <https://lex.uz/ru/docs/-4724383>

³² <https://lex.uz/docs/-4724480>

³³ <https://lex.uz/docs/-4829149>

³⁴ <https://lex.uz/pdfs/5849580>

mumkin. Bundan tashqari musiqa nazariyasini o‘rganishda hozirgi kunda mobil ilovalar keng ommalashgan. Bulardan eng ommabop ilova “Perfect ear”. Ilova ingliz tilida bo‘lib, bolalarga musiqiy nazariy bilimlar bilan birgalikdan ingliz tilini ham o‘rganishida katta yordam beradi. Ilova o‘z ichiga musiqa nazariyasi va shunga doir turli testlar hamda solfedjio va shunga doir testlarni qamrab oladi. o‘quvchilar mavzularni o‘rganishadi va mustahkamlash uchun testlarni bajaradi.

Nazariy qisimda faqatgina innovatsion texnologilarga tayanib qolmasdan bolalarga xos turli ko‘rgazmalardan foydalanish mumkin. Masalan notalarni o‘rgatishda Kodalining qo‘l belgilari (Kodaly Hand)³⁵ usulidan foydalanish mumkin.



Garchi u qo‘l belgilarini ixtiro qilmagan bo‘lsa-da, Kodali ilgari yaratilgan ikkita qo‘l belgilari tizimiga - Sara Governing Norvich sol-fa (1845) va Jon Kurvenning tonik sol-fa (1858) qo‘l belgilariga asoslanib mukammal qo‘l belgilarini yaratdi. Qo‘l belgilari bolalarga notalar orasidagi fazoviy munosabatni tasavvur qilishda yordam berish uchun Kodaly usuli ko‘proq natija beradi. Qo‘l belgilaridan foydalanganda past “Do” ni belga, yuqori “Do” ni esa taxminan ko‘z darajasida ko‘rsatish kerak. Boshqa qo‘l belgilari ikkita “Do” belgisi o‘rtasida teng masofada ko‘rsatiladi.³⁶

Kodalyning yana bir tajribasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, u o‘z uslubida tovush cho‘zimlarini oddiy va murakkab bo‘lgan “Bo‘ginli ketma-ketlik”³⁷ usulida o‘rgatadi

ta		ta-ah-ah	♩
ti-ti	⌒	ta-ah-ah-ah	♩
tri-o-la	⌒⌒	syn-co-pa	♩ ♩
tiri-tiri	⌒⌒⌒	tai ti	♩
tiri-ti	⌒⌒	ti tai	♩
ti-tiri	⌒⌒	tim-ri	⌒⌒
ta-ah	♩	ri-tim	⌒

³⁵ Kodaly, Z. (1965). 333 initial exercises. London: Boosey & Hawkes.

³⁶ Choksi, L. (1999). The Kodaly Method I: Comprehensive Music Education. Upper Saddle River, NJ: Prentice-Hall.

³⁷ Choksi, L. (1981). The Kodaly Context: Creating an Environment for Learning Music. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.

Bu tajribalarning barchasi o'z tasdiqini topgan va hozirda butun dunyo musiqa sohasi vakillari bulardan keng foydalanmoqda. Bundan ko'rinadiki bu tajribalar bizning maktab o'quvchilarimiz uchun soda, tushunarli va samarali usul o'lib hizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki yurtimizda madaniyat va san'at ravnaqi yo'lida amalga oshirilayotgan ishlar Yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida aks etgan an'anaviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqishga ustuvor chora-tadbirlarga nihoyatda hamohangdir. Har bir millat o'z taraqqiyoti va san'atining qudrati bilan jahon tamaddunidan mustahkam joy egallaydi. Aynan mazkur soha taraqqiyoti mamlakatning kuch va salohiyatini, xalqning qadr-qimati, dunyodagi obro'-e'tibori hamda maqomini namoyon etuvchi muhim omillardan sanaladi. Bu borada butun jahon tan olgan zamonaviy va ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish yanada samarali bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Haydarov A. Madaniyat amaliy yuksalish poydevori.-Toshkent: Oltin meros press. 2021.-B. 478.
2. Hasanova Navbahor Hamraqulovna. (2020). Bo'lajak o'qituvchilarning o'zbek mumtoz musiqasida kasbiy malakasini oshirish muammolari. *Xalqaro ilg'or fan va texnologiyalar jurnali* , 29 (08), 3489-34953495. [Http://sersec.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558](http://sersec.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558)
3. Hasanova, Navbahor. (2020). METHODS AND WAYS TO DEVELOP THE MUSICAL FEELINGS OF STUDENTS IN TTTE LESSONS OF MUSIC EUITURE. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(42). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5579
4. Khasanova,Navbakhor (2020) "The role of music lessons in the formation of national and intercultural competence in students."Mental Enlightemment Scientific-Methodological Journal.Vol.2020 :Iss.2. Article 15 :<https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss2/15>
5. Mahmudov N. Xalqimiz ma'naviy olamini yanada yuksaltirishning mustahkam poydevori// Yangi o'zbekiston gazetasi.-Toshkent 2022.-B. 6.
6. Haydarov M. Milliy madaniy renesans poydevori// Yangi o'zbekiston gazetasi.-Toshkent 2022.-B. 6.
7. Muminova Muqaddas Riskulovna Development And Current Status Of Uzbek Pop Music In Modern Approaches And Innovations Of Teaching The Science Of Music Culture International Journal of Advanced Science and Technology Vol. 29, No. 8, (2020) <https://t.me/joinchat/> - Music teacher, <https://infourok.ru> - music lessons
8. Muminova Muqaddas Riskulovna *International Journal of Mechanical Engineering*. The Innovative Technologiyes Of Teaching In Musical Edukational Establishments1764-1767-betlar. 2022- йил.
9. Muminova Muqaddas Riskulovna Mental Enlightemment Scientific-Methodological Journal. THE ROLE OF SPORT ACTIVITIES, GAMES AND COMPETITIONS IN THE NURTURE OF 6-7 YEARS OLD CHILDREN <https://uzjournals.edu.uz/tziuj> 68-78betlar 2022
10. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlarda pedagog kreativligi. "Yangilanayotgan O'zbekistonda fan, ta'lim va innovatsiya uyg'unligi" mavzusidagi 6-son 2-qism Respublika ko'p tarmoqli ilmiy konferensiyasi VIII bo'lim Toshkent 2021. 677 bet. Udk. 001.895 (575.1).
11. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlar o'qituvchisining kreativligi. Педагогические и лингвопсихологические особенности развития, формирования и становления личности

врача. Сборник тезисов Международная конференции. СамГМИ, Самарканд 5 мая 2021 год

12. Nazarbekov O. Yuksak e'tibor va ehtrom bizga kuch, shijoat beradi//Xalq so'zi gazetasi. .-Toshkent 2022.-B.4

13. To'ychiyeva S. Madaniyat va san'atimiz rivojidadagi zarsahifalar//Yangi o'zbekiston gazetasi.-Toshkent 2022.-B. 6.

14. Choksi, L. (1981). The Kodaly Context: Creating an Environment for Learning Music. Englewood Cliffs, NJ: Pren

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ОБЩЕНИЕ КАК ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ

Носиров Лазиз Нематуллоевич,

Преподаватель кафедры музыкального образования НавГПИ

Аннотация: В статье рассматриваются такие проблемы как, роль учителя в обществе, педагогическая культура, общения и деловая игра.

Ключевые слова: методика обучения музыке, образование, воспитание, музыка, третье тысячелетие, программа, дошкольное образование, знания, умения, навыки, художественное творчество, красота, музыкальное произведение, восприятие.

Приобретение Узбекистаном независимости поставило перед Республикой немало важнейших и неотложных задач, как первоочередная была выдвинута проблема подготовки высококвалифицированных специалистов современного уровня. Именно поэтому в Узбекистане, с первых шагов обретения независимости, придается большое значение возрождению и дальнейшему развитию нашей духовности, совершенствованию системы национального образования, укреплению его национальной основы, поднятие его до уровня мировых стандартов в гармонии с требованиями времени.

Президентом Республики Узбекистан И. Каримовым неоднократно было подчеркнута воспитание здорового поколения как одна из приоритетных государственных задач – «здоровое не только физически, но и со здоровым духом, мыслью, твердой волей, высокообразованное, смелое и отважное, любящее свою Родину»⁽¹⁾. Провозглашенное направление государственной политики было подкреплено и наполнено практическим содержанием в Законе «Об образовании».

Благодаря принятому Закону «Об образовании» были внедрены новые учебные планы, программы, учебники; проведена аттестация и аккредитация учебных заведений, созданы новые типы образовательных учреждений.

Такое отношение к образованию и воспитанию молодежи имеет свои философско – исторические корни, к ним в первую очередь относятся, культурное наследие нашего народа, всемирно известная тяга узбекистанцев к просвещению, почитанию образованности и учености, труды наших прославленных мыслителей.

Подтверждение этому мы находим в следующих строках: Важнейшим напутствием для мусульманина является: «учись» (из корана), стремление быть знающим – великая честь (Мирзо Улугбек), «нет ничего подходящего, что можно сравнить со знанием» (Самарканди). Однако, несмотря на все принятые меры,

проводившиеся в течении нескольких лет реорганизационные мероприятия недостаточно обеспечили соответствие содержание образования и качества подготовки процесса социально – экономического развития страны требованиям к профессиональной готовности, компетентности и квалификации молодых специалистов.

«Человек, вставший за преподавательский стол, ответственен за всё, он обязан всё знать и уметь – именно ответственность за судьбу каждого воспитуемого общества и государства возлагается на преподавателей. Какими будут результаты труда педагогов сегодня – таким будет наше общество завтра. Поэтому к профессиональным и личностным качествам преподавателя требования были всегда жестокими. Испокон веков к личностным качествам педагога относились с особыми требованиями. По мере развития общества совершенствовались и требования к профессиональным и личностным качествам педагога.

Как отметил президент И. А. Каримов: «Думая об учителях, естественно, каждый из нас, независимо от того, где и кем работает, какую должность занимает, вспоминает как лучшее время жизни, свои школьные годы, безоблачное детство, оставившие неизгладимый след в памяти, испытывает искреннее чувство уважения к педагогам, которые давали не только знания, но и уроки человечности».

Абу Али ибн Сино писал, обучать детей – это ответственная обязанность учителя и перечислял их профессиональные качества. Он указал семь педагогических заповедей.

Ибн Сино глубоко понимал склонности и трудности процесса воспитания. Анализ его произведений убеждает в том, что он предлагал разрешить их с гуманистических позиций. Он предпочитает внушение и добрый пример педагогов, воспитателей и взрослых людей.

Ибн Хамадун подчёркивал, что овладение наукой требует систематических и интеллектуальных усилий. Наша страна испокон веков была центром науки, воспитания и культуры. В этом крае жили и творили такие великие мыслители, учёные, писатели и поэты, как Хаким ат Термизи, Исо Термизи, Самандар Термизи, которые внесли большой вклад в развитии педагогической культуры, духовности нашего народа.

Мыслители Востока в своих педагогических взглядах указывали глубоко гуманистические мысли о педагогической культуре и о учителе и педагогическое общение – педагогические взгляды. Учитель должен не только в совершенстве знать свой предмет и обладать глубокими знаниями, но и понимать нужды народа, показывать во всём пример.

Концепция закон об образовании требует существенного изменения всей стратегии преподавания, поиска эффективных путей формирования и развития педагогической культуры у будущих учителей.

Личность учителя характеризуется многими социально значимыми чертами, одна из которых – его педагогическая культура. Синтезируя в себе различные элементы сознания и практической деятельности, педагогическая культура содержит в своей основе мировоззренческую, нравственную, профессиональную, интеллектуальную, эмоциональную, эстетическую, физическую и гигиеническую стороны культуры.

В структурном плане педагогическая культура представляет собой синтез психолого-педагогических убеждений и мастерства общего развития и профессионально – педагогических качеств, педагогической этики и системы многогранных отношений, стиля деятельности и поведения.

Объединяя взаимообусловленные компоненты личности, педагогическая культура обогащает и развивает каждый из них до высшего уровня.

В этой связи большими потенциальными возможностями располагают социально-педагогические резервы педагогического общения в университетах. Педагогическое общение как фактор формирования и развития педагогической культуры выполняет разнообразные функции в процессе развития личности будущего учителя.

Посредством общения передаются общественные, научные, культурные и нравственные ценности, педагогическая этика, стиль педагогической деятельности и воздействие на сознание, и поведение людей.

Педагогическое общение в учебной деятельности в университете протекает в рамках трех отношений: «преподаватель - студент», «студент - студент», «преподаватель - преподаватель». Одной из важных организационных предпосылок эффективного формирования и развития педагогической культуры, являются **деловые игры**⁽²⁾. Как показывает наше исследование, разработку деловых игр с целью развития творческих способностей, педагогической культуры у студентов целесообразно вести соблюдая структуру педагогической деятельности, которая требует формирования специальных способностей (конструктивных, организаторских, коммуникативных и гностических).

По характеру игровой деятельности направленной на развития творческих умений и педагогической культуры у студентов выделены 4 направления деловых игр.

1. Деловые игры с элементами конструирования, направленные на проектирования деятельности педагога и учеников, на раскрытие содержания занятий.

2. Деловые игры, направленные на формирование организаторских способностей.

3. Деловые игры, направленные на установление правильных взаимоотношений с окружающими.

4. Деловые игры с творческим подходом к педагогическому труду, направленные на умение обобщать, поиск нового, грамотный анализ личного и передового опыта.

При этом педагогическая культура преподавателя должна рассматриваться как необходимое условие формирования и развития педагогической культуры у студентов в рамках общения систем: «преподаватель – студент» и «студент – преподаватель».

Для глубокого изучения духовного, нравственного мировоззренческого наследия этих гениев можно использовать следующие формы подходов :

- создание методических пособий для студентов, проведение различных деловых игр, изучения биографий учёных, труды произведения, мысли, идеи о профессии учителя, о педагогической культуре общения и их педагогическое мастерство.

ЛИТЕРАТУРА

1. Каримов И.А. Гармонично развитое поколение – основа прогресса. Узбекистан., Т.: «Шарк» 1999.

2. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. «Чулпан» Т. 2005

3. Курбанов Ш. и др. Мечта о совершенном поколении. Т.: «Шарк», 1999.
4. Левик Б. История зарубежной музыки. М. 1980
5. Кремлёв Ю.А. "Й.Гайдн". Очерк жизни и творчества. М.1972.
6. Прохорова И. Музыкальная литература зарубежных стран. М. 1985 г.

MUSIQA TA'LIMIDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH YO'LLARI

O'rolov Mardon Olimovich, JDPU Musiqa madaniyati fakulteti

Vokal san'ati yo'nalishi²- bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: N.X.Xasanova. JDPU musiqa ta'limi kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada musiqa mashg'ulotlari tushunarli, ilmiy, ta'sirchan, ko'rgazmali, ko'rsatmali, texnika vositalari yordamida o'tkazilgandagina yaxshi natijalarga erishish mumkinligi va uning ishi rejali, tizimli yo'lga qo'yilishi oddiydan-murakkablikka tamoyiliga asoslangan holda amalga oshirilishi lozimligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Texnologiya, innovatsiya, Interfaol metodlar.

Bugungi kunda jamiyatimizning eng muhim vazifalaridan biri barkamol shaxsni tarbiyalashdan iboratdir.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimov "Yuksak manaviyat – yengilmas kuch" asarida musiqa san'ati haqida ham o'z fikrlarini bildirganlar. Musiqaning inson ruhiy kamolotiga ta'siri haqida gapirib albatta, bu maqsadga musiqa san'atisiz erishib bo'lmayligini ta'kidlaganlar.

Mamlakatimizning ma'naviy yuksalishi ko'p jihatdan milliy qadriyatlarimizni qayta tiklashni chuqur anglash, qalb bilan his etgan holda keng ko'lamda targ'ibot qilish, va eng muhimi yosh avlodni tarbiyalashni izchil taqozo etadi. Bu borada musiqiy qadriyatlarimiz alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, o'zbek halqi musiqasiga mansub turfa shaklli kuy-qo'shiqlar xalqimizning chinakkam bebaho ma'naviy boyliklarini tashkil etadi.

Musiqa o'zining betakror tabiati bilan o'quvchilarning ma'naviy dunyosiga katta ta'sir qilish kuchiga ega. Zero, kuy va ohang ta'sirida o'quvchilarda xissiyot olamining o'sishi, idrok va tafakkurning shakllanishi, ezgulikka intilishi, go'zallikni sevish, tabiatni asrash, oila Vatan ravnaqi uchun xizmat qilish istagi tobora ortib boradi. Musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi. "Musiqa ko'ngilga axloqan muayyan ta'sir ko'rsatish quvvatiga ega, hamonki, musiqa shunday xislatga ega ekan, u yoshlarni tarbiyalash predmetlari qatoriga qo'yilmog'i lozim", - deb aytgan edi qadimgi buyuk yunon faylasufi Arastu. SHunday ekan musiqiy ta'lim orqali o'quvchi-yoshlarni tarbiyalash o'ziga xos pedagogik yondashuvni talab etadi. Innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan –kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishini sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratga oid bilim, tajriba va interfaol metodlar o'quvchi-talabalarni bilimli, etuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

"Texnologiya"- grekcha "techne" soʻzidan olingan boʻlib, mahorat, hunar va "logos"- tushuncha, taʼlimot maʼnosini anglatadi. Texnologiya samarali vositalar yordamida ishlab chiqarishda mahsulotning sifat oʻzgarishga olib keluvchi tizimli usullar yigʻindisidir.

"Innovatsiya" - inglizcha innovation (yangilik kiritish, yangilik yaratish, novatorlik) soʻzidan olingan boʻlib, novatsiyalarga investitsiyalar sifatida talqin qilinadi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda oʻqituvchi va oʻquvchi faoliyatiga yangilik, oʻzgarishlar kiritish boʻlib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan toʻliq foydalaniladi.

Interfaol metodlar bu –jamoʻa boʻlib fikrlash deb yuritiladi, yaʼni pedagogik taʼsir etish usullari oʻziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va oʻquvchi –talabalarning birgalikda faoliyat koʻrsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni oʻziga xos xususiyatlariga ega boʻlib, ularga quyidagilar kiradi:

- oʻquvchining dars davomida befarq boʻlmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;

- oʻquvchilarni oʻquv jarayonida bilimga boʻlgan qiziqishlarini doimiy ravishda boʻlishini taʼminlashi;

- oʻquvchining bilimga boʻlgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;

- oʻqituvchi va oʻquvchining hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Oʻqituvchi va oʻquvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq: natijaga erishishga qaratilgan, bunda oʻquvchining bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishi uchun balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlarni, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak boʻlar, bular oʻqituvchi va oʻquvchiga bogʻliq. Oʻqituvchi oʻqitish jarayonini oldindan loyihalashtirishi zarur, bunda oʻqituvchiga u tomonidan boʻljak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir. Bu jarayonda oʻqituvchi oʻquv predmetining oʻziga xos tomonini, joy va sharoitini, eng asosiysi, oʻquvchining imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafotlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, oʻquvchini taʼlimning markaziga olib chiqish kerak.

Darsning texnologik xaritasini qay koʻrinishda yoki shaklda tuzish, bu oʻqituvchining tajribasi, qoʻygan maqsadi va ixtiyoriga bogʻliq. Texnologik xarita qanday tuzilgan boʻlmasin, unda dars jarayoni yaxlit holda aks etgan boʻlishi hamda aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafotlangan natija, dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasi toʻliq oʻz ifodasini topgan boʻlishi kerak. Texnologik xaritani tuzilishi oʻqituvchini darsni kengaytirilgan konspektini yozishdan xalos etadi, chunki bunday xaritada dars jarayonining barcha qirralari oʻz aksini topadi.

Oʻqituvchi tomonidan oʻzi oʻqitayotgan fanning har bir mavzusi, har bir dars mashgʻuloti boʻyicha tuzilgan yuqoridagi kabi texnologik xarita unga fanni, predmetini yaxlit holda tasavvur etib yondoshishga, tushunishiga (bir semestr, bir oʻquv yili boʻyicha), yaxlit oʻquv jarayonining boshlanishi, maqsadidan tortib, erishiladigan natijasini koʻra olishiga yordam beradi.

Shunday ekan yangi innovatsion texnologiyalarni oʻrganish uchun oʻqituvchilarni qayta tayyorlashni tashkil etish; multimedia oʻquv qoʻllanmalari ishlab chiqqan oʻqituvchilarni ragʻbatlantirishni; internet tarmogʻi orqali on-lain konferensiyalar, seminarlar va boshqa

o'qitish tadbirlarini tashkil etish; ta'lim muassasalarida multimedia sinflari, laboratoriyalar va kutubxonalar sonini ko'paytirish; internet va boshqa elektron o'quv vositalari bo'yicha o'qitish akademik soatlari miqdorini ko'paytirish; tahsil oluvchilar bilan zamonaviy axborot texnologiyalari haqida ko'proq ilmiy tanishtiruv ishlarini olib borish zarur bo'ladi.

Shunday ekan, musiqa madaniyati darslarini ham hozirgi zamon talabida olib borish muhim ahamiyatga egaligini har birimiz anglab etmog'imiz darkor. Ammo e'tibor bersak, umumta'lim maktablaridagi musiqa madaniyati sinf xonalarida fortopianino, cholg'u sozlari respublikamizning ko'pgina maktablarida mavjud emas. Bo'lsa ham yaroqsiz yoki talab darajasida emas. Musiqa madaniyati darsi qashqar rubobi, dutor va boshqa o'zbek milliy cholg'u sozlarida o'tib kelinmoqda. Natijada fan - texnika rivojlangan bir paytda yoshlarimizga an'anaviy dars o'tish orqali musiqa faniga nisbatan qiziqishi pasayadi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar dan foydalaib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi-talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A. Karimov. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" Toshkent, Ma'naviyat. 2008-yil.
2. Тафаккур гулшани. В. Воронцов композицияси Ғ.Ғуллом номидаги "Адабиёт ва санъат" нашриёти Т.: 1981- 159 б.
3. Muminova Muqaddas Riskulovna Development And Current Status Of Uzbek Pop Music In Modern Approaches And Innovations Of Teaching The Science Of Music Culture International Journal of Advanced Science and Technology Vol. 29, No. 8, (2020) <https://t.me/joinchat/> - Music teacher, <https://infourok.ru> - music lessons
4. Muminova Muqaddas Riskulovna *International Journal of Mechanical Engineering*. The Innovative Technologiyes Of Teaching In Musical Edukational Establishments 1764-1767-betlar. 2022- йил.
5. Muminova Muqaddas Riskulovna Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. THE ROLE OF SPORT ACTIVITIES, GAMES AND COMPETITIONS IN THE NURTURE OF 6-7 YEARS OLD CHILDREN <https://uzjournals.edu.uz/tziuj68-78betlar> 2022
6. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlarda pedagog kreativligi. "Yangilanayotgan O'zbekistonda fan, ta'lim va innovatsiya uyg'unligi" mavzusidagi 6-son 2-qism Respublika ko'p tarmoqli ilmiy konferensiyasi VIII bo'lim Toshkent 2021. 677 bet. Udk. 001.895 (575.1).
7. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlar o'qituvchisining kreativligi. Педагогические и лингвопсихологические особенности развития, формирования и становления личности врача. Сборник тезисов Международная конференции. СамГМИ, Самарканд 5 мая 2021 год
8. .N.Xasanova Dirijorlik (Xor dirijorligida kasbiy kreativlik kompetentligi asoslari). 2021.Buxoro Durdona nashriyoti.

UMUMTA'LIM MAKTABLARI MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA JAMOAVIY IJROCHILIK FAOLIYATINING TUTGAN O'RNI VA VAZIFALARI

O'rolov Mardon, J.D.P.U. Vokal san'ati yo'nalishi II bosqich talabasi.

Ilmiy rahbar: JDPU katta o'qituvchi N.X. Xasanova.

Annotatsiya: Musiqa darslarida, ayniqsa musiqa ta'limning poydevori qo'yiladigan boshlang'ich sinf musiqa darslarida xor jamoasini pedagogik va metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish, xor sinfidagi bolalarning yoshi, ovoz diapazoni, kuylash imkoniyatlari, fiziologik, psixologik xususiyatlari bo'yicha kerakli tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlari: Musiqa o'qitish metodikasi, ta'lim, tarbiya, musiqa, uchinchi ming yillik, dastur, maktabgacha ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, ba'diy ijodkorlik, go'zallik, musiqa asari, idrok.

Umumta'lim maktablarida "Musiqa madaniyati" darslarining asosiy qismini xor ya'ni jamoa bo'lib qo'shiq kuylash tashkil etadi. Bu faoliyatda o'quvchilar qo'shiq o'rganish bilan birga musiqiy nazariy bilimlarini, shuningdek ijrochilik ko'nikma va malakalarini rivojlantirib boradi.

Xor bo'lib qo'shiq kuylash juda mashaqqatli, shu bilan birga tizimli vokal-xor ishlarini olib borishni taqozo etadi. Bunga musiqa o'qituvchisining xor jamoasini ya'ni, har bir sinf jamoasini tashkil etish bo'yicha pedagogik maxorati, musiqa san'atining xor-drijorligi, vokal ijrochiligi, musiqa nazariyasi, sol'fedjio, musiqa asarlari tahlili, cholg'u ijrochiligi va musiqa o'qitish metodikasi xor bilan ishlash bo'yicha yetarlicha kasbiy malakaga egaligi va tajribasi muhim o'rin tutadi. Bunday bilim va malakalarni egallash ko'p jihatdan oliy o'quv yurtlarida bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini maktab pedagogik faoliyatiga tayyolab borish ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yishga bog'liq, ya'ni bo'lg'usi musiqa o'qituvchilari oliy o'quv yurtlaridagi tahsil davomida maktabda xor (jamoaviy) ijrochiligini tashkil etish va ularda olib boriladigan vokal xor ishlari bo'yicha zarur amaliy ishlash malakalariga ega bo'lib borishlari to'g'ri bo'ladi. Shunga ko'ra biz o'zimizning mazkur maqolamiz mazmunida umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida jamoaviy ijrochilikning tashkiliy uslubiy asoslarini, xor jamoasida olib boriladigan vokal-xor, hamda o'quv tarbiyaviy ishlarning pedagogik negizini yoritib berishga harakat qildik. Ushbu ishni bajarishda musiqa ta'limi bo'yicha bo'lg'usi bakalavrlarni umumta'lim maktablarida to'garak ishlarini, shuningdek maktabdan tashqari tashkilotlar (bolalar ijodiyoti markazlari, bolalar xor studiyalari) da hozirgi kunda musiqa san'atining ommaviylashgan turi bo'lmish xor to'gariklarida olib boriladigan ishlarni ham e'tiborda tutadi.

Xor bo'lib kuylash murakkab psixologik- fiziologik jarayon hisoblanadi. Xor bo'lib qo'shiq kuylash o'quvchilarning diqqat e'tiborini kuchaytiradi, xotirasi, nutqi rivojlanadi, ovoz diapazoni kengayadi, musiqiy o'quvi o'sadi, mutasiya davri yengil o'tadi, musiqiy tafakkuri o'sadi. Qo'shiq kuylaganda ijodiy ijrochilik xamkorlik kuchayadi, qo'shiqning so'z ma'nosi va musiqa ohangini chuqur idrok etadilar va asar mazmuni orqali hayotni o'rganadilar.

Shunday ekan, musiqa darslarida, ayniqsa musiqa ta'limning poydevori qo'yiladigan boshlang'ich sinf musiqa darslarida xor jamoasini pedagogik va metodik jihatda to'g'ri tashkil etish, xor sinfidagi bolalarning yoshi, ovoz diapazoni, kuylash imkoniyatlari, fiziologik, psixologik xususiyatlari qat'iy hisobga olinmog'i lozim bo'ladi. Shunga ko'ra mazkur maqola mazmunida boshlang'ich sinflarda xor jamoasini tashkil etish va ish olib

borishning ilmiy- metodik jihatlariga asosiy e'tibor qaratildi. Xor ijrochiligi hozirgi vaqtda keng tarqalgan, umumiy ta'lim maktablarida musiqa madaniyati darsining asosini tashkil etuvchi, musiqa ilmgohlarida, musiqa-pedagogika fakultetlarida asosiy fanlardan biri bo'lgan, havaskorlik va professional san'atda eng demokratik va ommaviy xarakterga ega va taraqqiy qilgan san'at turidir.

Boshqa san'at turlari kabi u ham kishilarning hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'zida kundalik hayotni, davr ruhi va nafasini mujassamlashtiradi, kishilarni g'oyaviy-estetik jihatdan tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Uning boshqa san'at turlaridan farqi eng muhim xususiyat uning ommaviyligidir.

Xor ijrochiligi ko'pchilik ijrochilarni birlashtiradi. Jamoa bo'lib kuylash jarayonida ijrochilarni uyg'unlashtiradi, ularda san'atning eng nozik tomonlarini, ya'ni o'zi kuylab o'zgalarni ham eshitish, o'zgalarga ergashish, jo'r bo'lish kabi hislatlarni shakllantiradi. Xor san'atining bu xususiyati ko'pchilik, ba'zan necha yuzlab ijrochilarni bir g'oyaga uyushtirishda, yagona ijrochilik maqsadi tomon yo'naltirishda, shu bilan so'z va musiqadagi mazmun, his-tuyg'uni ko'pchilik tomonidan ifoda etilishi namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIOYOTLAR RO'YXATI

1. Gudkova E. A., Vaseleva A. V. Ashula darsligi metodikasi. –T.: O`rta va
2. Q.Mamirov. “Xor to`garaklarini tashkil etish” O`quv qo`llanma 2009 y.
3. G. Sharipova. Musiqa o`qitish metodikasi. (ma`ro`zalar matni). – TDPU-2000
4. Nurmatov H. Musiqa va estetik madaniyat. Musiqa o`qituvchilari uchun metodik tavsiyalar. –T.: TDPI, 1992yil. -3 b.
5. A. Hasanov. Musiqa va tarbiya. –T;- O`qituvchi. – 1993 yil.
6. Muminova Muqaddas Riskulovna Development And Current Status Of Uzbek Pop Music In Modern Approaches And Innovations Of Teaching The Science Of Music Culture International Journal of Advanced Science and Technology Vol. 29, No. 8, (2020) <https://t.me/joinchat/> - Music teacher, <https://infourok.ru> - music lessons
7. Muminova Muqaddas Riskulovna *International Journal of Mechanical Engineering*. The Innovative Technologiyes Of Teaching In Musical Edukational Establishments1764-1767- betlar. 2022- йил.
8. Muminova Muqaddas Riskulovna Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. THE ROLE OF SPORT ACTIVITIES, GAMES AND COMPETITIONS IN THE NURTURE OF 6-7 YEARS OLD CHILDREN <https://uzjournals.edu.uz/tziuj68-78betlar> 2022
9. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlarda pedagog kreativligi. “Yangilanayotgan O`zbekistonda fan, ta`lim va innovatsiya uyg'unligi” mavzusidagi 6-son 2-qism Respublika ko'p tarmoqli ilmiy konferensiyasi VIII bo'lim Toshkent 2021. 677 bet. Udk. 001.895 (575.1).
10. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlar o`qituvchisining kreativligi. Педагогические и лингвопсихологические особенности развития, формирования и становления личности врача. Сборник тезисов Международная конференции. СамГМИ, Самарканд 5 мая 2021 год
11. Urinova S.Sh. Bo'lajak musiqa o`qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishning nazariy asoslari. “The best innovator in science” xalqaro maqolalar tanlovi to'plami. Organized by Innovative Academy. Tashkent February 5, 2022. Pg 811. <https://zenodo.org/record/5979621#.YpC2PKhBxD8>

MUSIQA O`QITUVCHILARINI INNOVATSION TA`LIM FAOLIYATIGA TAYYORLASH.

Omonov Hasan Sulaymonovich,

J.D.P.U. Musiqa madaniyati fakulteti dekani, dotsent.

O`ktamov Avazbek Sunnatulla o`g`li,

Musiqa madaniyati fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Oliy o`quv yurtlarida tahsil olayotgan bo`lajak musiqa madaniyati fani o`o`qituvchilarini shu jumladan xozirgi zamon talablari asosida puxta kasbiy tayyorgarlikga ega, o`z kasbining mohir ustasi bo`lib yetishlariga asosiy e`tiborini qaratmoq fan va ta`lim qolaversa kadrlar tayyorlash tizimi oldiga qo`yilayotgan eng dolzarb vazifalar ta`limga texnologik yondashuv pedagogik jarayonga faol ta`sir etuvchi va uning samaradorligi, bir butunligi va muvoffaqiyatini belgilab beruvchi omillar to`grisida yoritilgan.

Kalit so`zlar. Ta`lim, Texnologiya, Kommunikatsiya, O`qituvchi, Kadr, Pedagogika, Musiqa, Metodika, Dirijyor, Solfedjio, Amaliyot, Madaniyat.

O`zbekiston Respublikasining taraqqiyoti va istiqbolini ta`minlash iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalarda bo`layotgan o`zgarishlarga bog`liq bo`lib, bunday o`zgarishlarda faol ishtirok etish uchun kasbiy soha egalaridan yuqori darajadagi umumiy va maxsus bilimlar, intellektual salohiyat, keng dunyoqarash va axborot kommunikatsiyalaridan ustalik bilan foydalanish malakalariga ega bo`lishlik talab etiladi. Ana shu talablar asosida pedagog kadrlarni tayyorlash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti ta`kidlaganidek: “Bugungi kunda oldimizga qo`ygan buyuk maqsadlarimiz, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanib borishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi, taqdiri, ularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog`liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz³⁸”!

Shuning uchun ham “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” maqsad va vazifalarini amalga oshirishning birinchi bosqichida “Pedagog va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash hamda ularning malskasini oshirishni zamon talablariga javob berdigan darajada tashkil etish” belgilangan.

Ikkinchi bosqichda ta`lim muassasalarining texnika va axborot bazasini mustahkamlash davom ettiriladi, o`quv –tarbiya jarayoni yuqori sifatli o`quv adabiyotlari va ilg`or pedagogik texnologiyalar bilan ta`minlanadi. Shu ma`noda ilg`or pedagogik texnologiyalarni amalga joriy etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham o`qituvchi kasb mahoratini yanada takomillashtirish, pedagogik kadrlarni tayyorlash jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etish bilan bo`lg`usi o`qituvchilarni mazkur faoliyatga tayyorlash bugungi kunning muhim talablaridan biridir.

Ta`limga texnologik yondashuv pedagogik jarayonga faol ta`sir etuvchi va uning samaradorligi, bir butunligi va muvoffaqiyatini belgilab beruvchi omillardan biri bo`lib hisoblanadi.

Oliy o`quv yurtlarida tahsil olayotgan bo`lajak o`qituvchilarni shu jumladan musiqa o`qituvchilarini ham, xozirgi zamon talablari asosida puxta kasbiy tayyorgarlikga ega, o`z

³⁸ I. Karimov. Barkamol avlod- O`zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent, Sharq, 1997. 5-bet

kasbining mohir ustasi bo'lib yetishlariga asosiy e'tiborini qaratmoq fan va ta'lim qolaversa kadrlar tayyorlash tizimi oldiga qo'yilayogann eng dolzarb vazifalardandir.

O'qituvchi qanchalik bilimdon o'z kasbini puxta egallagan va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan mahironi foydalana oladigan bo'lsa, u kelajak avlodni ham shunchalik bilimdon har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalay oladi. Oliy pedagogik ta'limda bo'lajak musiqa o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda va musiqiy fanlardan – musiqa o'qitish metodikasi, musiqa nazariyasi va taxlili, xor va xorshunoslik, dirijyorlik, solfedjio kabilardan bilim va malakalari va eng muhimi o'z tanlagan kasblariga munosabati muhim o'rin tutadi. Bu borada musiqiy ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarni bilim, saviya, musiqiy tayyorganlik va kasbga munosabatlari turlicha bo'lishini ham ta'kidlab o'tishi joiz. Bu o'rinda ularni uch toifaga ajratish mumkin:

1. Musiqa bo'yicha bazaviy ma'lumotga ega bo'lgan, kasbini sevadigan, kelgusida o'qituvchi bo'lish orzulari amalga oshishi uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarni chuqur egallashga astoydil intilib o'qiydigan talabalar;

2. Musiqaga iqtidori va qobiliyati mavjud, lekin, barcha fanlarga ham astoydil qiziqavermaydigan va o'zlarini kelajak faoliyatida zarurligini his qilmaydigan talabalar. Bular pedagogik faoliyatning turli tomonlarini puxta o'zlashtirib ololmaydilar.

3. Bu toifadagi talabalar o'quv yurtiga o'z xoxish – istaklariga qarshi majburan kirib qolgan bo'lib, bu ularni o'qishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ular pedagogik kasbida o'qib turib kelajakda bu sohada ishlashni asosiy maqsad qilib qo'ymaydi.

Bo'lajak o'qituvchilarni o'qish davomida innovasion faoliyatga tayyorlash ularni pedagogik faoliyatga tayyorlash ishlari bilan yaxlit bir butunlikda olib borilsagina bu faoliyat samarali va maqsadga muvofiq bo'ladi. Musiqiy ta'lim yo'nalishida fanlar integrasiyasi shunday ko'rinish kasb etadiki har bir fan o'z navbatida ikkinchi, uchinchi va h.k. barcha musiqiy, amaliy – nazariy bilimlar jamlanmasini o'zida mujassamlashtirgan holda kerakli ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishni taqozo etadi. Masalan cholg'u asbobida ijrochilik mahoratini egallash uchun musiqa nazariyasi (musiqani ifoda vositalari), solfedjio, (nota o'qish) musiqa asarlari tahlilini, xor va xorshunoslik fanida esa vokal kuylash, nazariy savodxonlik, dirijyorlik, xor aranjirovkasi, asarlar tahlili bo'yicha ma'lum bilimlar zahirasi talab qilinadi. Shu bois har bir fan o'qituvchisi o'zi dars berayotgan fanning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib talabalarni pedagogik texnologiya faoliyatiga tayyorlab borishi kerak bo'ladi. Hozirgi kunda oily ta'lim tizimida buy o'nalishdagi ishlarni kuzatish va tahlil qilish shuni ko'rsatadiki musiqiy ta'limiy o'nalishida faoliyat yuritayorgan professor – o'qituvchilarni aksariyati talabalarni texnologik faoliyatga tayyorlashga o'zini hech bir aloqasi yo'q deb biladi. Bu ish bilan shug'ullanishni "Pedagogika" fani yoki "Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi" fani o'qituvchilarining ishi deb qarashadi, yoki umuman bu ishga e'tibor berishmaydi. Bunga sabab birinchidan professor – o'qituvchilarni o'zlarini ushbu faoliyatga tayyor emasliklari bo'lsa, ikkinchidan bo'lg'usi pedagog – kadrlarni texnologik faoliyatga tayyorlab borishning ijtimoiy, siyosiy zarurat sifatidagi mohiyatini tushunmasligidir.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini texnologik faoliyatga tayyorlash bir fan doirasida emas, barcha fanlarni o'qitilishida yaxlit tizim asosida tashkil etilsagina kutilgan natijaga erishish mumkin. Ya'ni musiqani xor va xorshunoslik, dirijyorlik, vocal ijrochiligi, cholg'u ijrochiligi, musiqa tarixi, musiqiy asarlar tahlili, musiqa o'qitish metodikasi (bu fanlar talabning kelajakdagi musiqa o'qituvchilik faoliyatida muhim o'rin tutuvchi fanlar hisoblanadi) kabi fanlar o'qitilishi jarayonida kasbga tayyorlash va texnologik jarayonga tayyorlash ishlari bir – biri bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilsa va tadbirlarning (mashg'ulotlarning) har biri

bosqichma – bosqich bo`lajak o`qituvchilarni ta`lim jarayonini mohirona ilg`or pedagogik texnologiya asosida tashkil etishga tayyorlasagina u bir butun tizim sifatida samaradorlik kasb etadi.

Bo`lajak o`qituvchilarni ta`lim jarayonida texnologik yondashuvga tayyorlashda ayniqsa pedagogik amaliyot muhim o`rin egallaydi. Hozirgi kunda musiqiy ta`lim ixtisosligining har bir bosqichida talabalar o`quv, malakaviyamaliyotga chiqadilar. Birinchi kursda 1 hafta, 2-3-kurslarda 2 haftalik, 4 – kursda esa 11 haftalik pedagogik amaliyotlar ularni kasbga tayyorlashda muhim davrni tashkil etadi. Agar mana shu jarayonda talabalarni pedagogik texnologik tayyorgarligiga e`tabor qilinmasa, u holda xuddi biz yuqorida ta`kidlaganimizdek muammo vujudga keladi. Chunki amaliy ish faoliyatidagiga nisbatan talabalik davrida pedagogik texnologiyalar va ularni dars jarayonida qo`llash, tadbiiq etish malakalarini egallash ancha qulay, samarali va zamonaviy talablarga mos bo`ladi.

Pedagogik amaliyotlar jarayonida talabalar o`zlarida yetishmayotgan kamchiliklarni aniqlaydilar, ularni tuzatish ustida ishlaydilar, bu jarayon ular uchun obrazli qilib aytganda “katta konsart oldidan generalniy repetitsiya” vazifasini o`taydi. Bu jarayonda ular erkin holda o`zlarini sinab ko`radilar, ularning kasbiy tayyorgarligi, pedagogik faoliyatni ilg`or pedagogik texnologiyalar bilan bog`liqlikda olib bora olishi yoki yo`qligi masalasi oydinlashadi. Shu bilan birga talabalar faqat pedagogik amaliyot jarayonidagina o`qituvchilik kasbining turli – tuman, qiyin va ijodiy tomonlarini bevosita ko`rib, boshdan kechiradilar.

Kuzatuvlarimiz yaxshi tashkil etilgan pedagogik amaliyot jarayonida bo`lajak o`qituvchilarni kasbiy shakllanishi yanada faol kechishini ko`rsatdi. Chunki, doimiy ravishda ilg`or, tajribali o`qituvchilar bilan bo`lgan aloqa, ularning ijodiy ishlarini bevosita kuzatish, o`rganish, eng yaxshi tajribalarni egallashlari va o`zlashtirishlariga yordam beradi.

Hozirgi davrda har bir o`qituvchi egallashi lozim bo`lgan eng muhim ko`nikmalardan biri darslarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish va o`tkaza olish ko`nikmasidir. O`z tarkibiga ko`ra bu ko`nikma anchagina murakkabdir. Buning uchun:

♪ Talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash va unga oid ko`nikma va malakalarni shakllantirish uchun avvalo o`quv – biluv faoliyatidan unumli foydalana bilish, talabalarni har bir fan o`qitilishida pedagogik texnologiyalarni qo`llay olish mahoratlarini egallab borishlariga erishish zarur. Masalan, dirijyorlik mashg`ulotlari jarayonida “Talaba treningi”, “Men dirijyor”, “Klaster”, Musiqa nazariyasi fanini o`tishda “Aqliy hujum”, “Skarabey”, “Bahs - munozara”, “Muloqot”, “Guruh bo`lib ishlash”, Xor va xorshunoslik asoslari mashg`ulotlarida “Kichik guruhlar holiday ishlash”, “Individual ishlash”, “Differensial guruhlarga bo`lish”, “Multimedia texnologiyasi”, “Konsert darsi”, Musiqa tarixi fanini o`tishda “Muammoli vaziyat”, “Viktorina darsi”, “Savol - javob”, Cholg`u ijrochiligi darsini o`qitishda “Kuyni davom ettir”, “Dars sayohat”, “Konkurs darslar” texnologiyalarini qo`llash va talabalarni bunday faoliyatga tayyorlab borish mumkin.

♪ Pedagogik faoliyatga texnologik jihatdan talabalarni tayyorlash talaba o`quv mashg`ulotlari davomida egallagan va amaliy mashg`ulotlar, pedagogik amaliyotlar davomida mustahkamlab borish lozim bo`lgan nazariy psixologik, pedagogik va metodik bilimlarni amalda ongli, ishonchli va muvaffaqqiyatli qo`llay olishiga ko`p jihatdan bog`liqdir.

Ta`lim jarayonida talabalarni innovatsion texnologik faoliyatga tayyorlab borishning asosiy metodlari quyidagilardan iborat:

1. Talabalarga ma`lum ko`nikmalarni hosil qilishlari uchun beriladigan topshiriqlar va ularni nazariy va amaliy o`zlashtirishining tizimli yo`lga qo`yilishi;

2. Pedagogik texnologiyalarni ayrim usullarini dars jarayonida pedagogik amaliyotda mustaqil mashq qilishlari;
3. O'qituvchi doimiy ravishda talabaning pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishi va amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuzatib, maslahatlar berib borishi;
4. Talabalarni pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha egallagan ko'nikma va malakalarini sinf qismida, guruh bo'lib muhokama qilib borish;
5. Talabalarni o'z ishini va o'rtoqlari ishini kuzatish va tahlil qilish va unga baho berishga o'rgatib borish;
6. Talabalar o'rtasida turli tanlov va musobaqalar o'tkazish ularga ijodiy mehnat namunalarini ko'rsatish va h. k.

O'qituvchi dars mazmuni va mavzusiga ko'ra darsda qo'llanadigan texnologiyani tanlaydi, bunda asosiy e'tibor, maqsad aniq natijaga erishishga qaratiladi. Albatta bu o'rinda o'quvchilarning bilish saviyasi, qiziqishi va intilishlari mavjud shart – sharoit hisobga olinadi. Masalan, magnitafonda musiqiy asarni eshitish, so'ngra munozara, doira stol atrofida jamoaviy tarzda uni tahlil qilish, erkin munozara asosida asar haqida (nazariy, badiiy - matn) kerakli ma'lumotlarni o'zlashtirish mumkin. Shuningdek, ko'rgazmali vositalar, tarqatma materiallar, turli adabiyotlar, axborot manbalardan ijodiy foydalanish mumkin.

O'qituvchi bilan bir qatorda o'qitish jarayoni oldindan loyihalashtirish zarur. Bu jarayonda o'qituvchi o'quv materialining mazmuni, sinf imkoniyatini, hisobga oladi-o'quvchilarni dars faoliyatini markaziga asosiy harakatlantiruvchi kuchga aylantirish kerak.

Darsni yaxshi natijaga olib kela oladigan darajada loyihalashtirish uchun o'qituvchi tomonidan bo'lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir mashg'ulot xususiyatidan o'quvchilarning imkoniyat va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Bunday texnologik xaritani tuzishning o'ziga xos murakkablik tomonlari mavjud. Buning uchun o'qituvchi pedagogika, psixologiya xususiy metodika, informatika va axborot texnologiyalaridan habardor bo'lishi, shuningdek, juda ko'p metodlar, usullarni bilishi kerak bo'ladi. Har bir darsni rang barang qiziqarli va mazmunli bo'lishi avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga ko'p jihatdan bog'liq.

Darsning texnologik xaritasini qay ko'rinishda yoki shaklda tuzish, bu tajribali, qo'ygan maqsadga bog'liq. Texnologik xarita qanday tuzilgan bo'lmasin o'zida dars jarayoni yaxlit holda aks etgan bo'lishi hamda aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafolatlangan natija o'z ifodasini topgan bo'lishi muhimdir. Texnologik xaritani tuzish o'qituvchini darsni kengaytirilgan kospektini yozishdan halos etadi. Chunki bunday xaritada darsning barcha qirralari o'z aksini topadi.

O'qituvchi tomonidan o'zi o'qitayotgan fanning har bir mavzusi bo'yicha tuzilgan texnologik xarita unda har bir mashg'ulotni yaxlit holda tasavvur etib yondashishga tushunishiga yaxlit o'quv jarayonining boshlanishi mazmuni, maqsadidan tortib, erishiladigan natijagacha ko'z oldiga keltirgan holda darsni tashkil qilishiga imkoniyat yaratadi.

Dars jarayonida qo'llanilayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalar o'quvchilarni erkin fikrlashga, izlanishga har bir masalaga ijodiy yondashishi, mas'uliyatni sezish, o'z ustida mustaqil ishlash, tahlil qilish, ilmiy – uslubiy adabiyotlardan, darsliklardan unumli foydalanishga, eng asosiysi fanga, mavzu bo'yicha bilim va malakalarni egallashga qiziqishlarini kuchaytirishi lozim.

Dars jarayonida o'quvchilarni nazorat qilib borish alohida jarayon bo'lib, har bir mashg'ulotning maqsad va mazmuniga muvofiq amalgam oshiriladi. Nazoratning eng haqiqiy

va to'g'ri, samarali shakli bu – o'z – o'zini nazorat qilish hisoblanadi. Bu o'qituvchi uchun ham o'quvchi yoki talaba uchun ham birdek zarurdir.

Har bir fanning o'qitilishini o'ziga xos xususiyatlari bo'lgani singari musiqa o'qituvchisining ham o'ziga xos "sir"lari ya'ni metodi, o'ziga xos yondashuvi, tashkil etish, uyushtirish, bolalar bilan muloqot qila olish xislatlari bo'ladi. Bular ichida umumiy bo'lgan xususiyatlar bu musiqa san'atiga, o'z kasbiga muhabbat, darslarga puxta tayyorgarlik ko'rish, o'quvchilarga ko'proq bilim va tushunchalar berish, o'tilgan mavzularni to'liq va mukammal o'zlashtirishga intilib, fidoiylik bilan, o'qituvchilik faoliyatidagi hayot bilan yashash.

Musiqa o'qituvchisi o'quv va tarbiya ishlarini barobar olib boradi. U faqat o'z mutaxassisligi bo'yicha keng bilimga ega bo'lib qolmay, musiqaga oid boshqa fanlardan, adabiyot, tasviriy san'at kabi fanlardan ham yaxshi bilimga ega bo'lishi lozim. Oquvchilarni musiqiy, badiiy, estetik tarbiyalovchi shaxsning dunyoqarashi, fikrlash tushunchasi, o'z kasbiga sadoqati va o'z mahoratini uzluksiz oshirib, takomillashtirib borishi birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lishi kerak.

Ta'kidlab o'tganimizdek, musiqa o'qituvchisi oliy ta'lim davrida cholg'uchilik, musiqa cholg'ularida ijro etish, vokal – kuylash, nazariy bilimlarni yaxshi egallashi kerak. Chunki, jonli ijro etilgan kuy va qo'shiq hammadan ko'proq, tez va emotsional ta'sir kuchiga egadir. Jonli ijro etilgan kuy va qo'shiq o'quvchilar e'tiborini tez jalb etadi, yaxshi kayfiyat baxsh etadi. Jamoa bo'lib kuylash vaqtida hohlagan takti (jumlan) qaytarish imkonini beradi. Va nihoyat musiqa asbobida mahorat bilan ijro etgan, qo'shiqu chiroyli ovozda kuylagan o'qituvchi o'z tarbiyalanuvchilariga musiqani har kim o'zi ijro etishi naqadar qiziqarli ekanligini, jozibadorligini amaliyotda ko'rsatib beradi. Musiqa o'qituvchisi faqatgina musiqa cholg'ularini mohirona ijro etish bilan cheklanib qolmay, balki, yaxshi tovush, dirijyorlik mahorati, jamoa bilan ishlash malakalarini yaxshi egallagan bo'lishi uning faoliyati samaradorligini kafolatlaydi.

O'qituvchi bulardan tashqari darslarni kuzatib borishi uning yutuq va kamchiliklarini maxsus daftarga qayd qilib, shunga yarasha keyingi darslarga tayyorgarlik ko'rish yaxshi samara beradi. Doimiy kuzatishlar sababli o'qituvchining pedagogik mahorati ham o'sib, rivojlanib boradi. U vaziyatni baholashga, o'quvchilarning kayfiyatini, dars ularda qanday taassurot qoldirganligini, ichki his – tuyg'ularini sezishga o'rganadi. Kuzatish birinchi sinfdan boshlanib, yettinchi sinfga qadar "davomiylilik" tamoili ostida olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari pedagogik texnologiyani qo'llash, o'zi ijro etib berishidan tashqari har bir darsda suhbat, hikoya, tushuntirish, uqtirish, munozara kabi uslublar yordamida asarlar mazmuni, mualliflari, yaratilgan davri, janri, xarakteri, shakli, tempi, lad – tonalligi, ijrochilik xususiyatlari haqida zarur tushunchalarni berib borishi lozim.

Musiqa madaniyati darsida o'qituvchining so'z mahorati yuksak darajada bo'lishi lozim. O'qituvchining o'rganilayotgan asar haqidagi kirish so'zi va dars mavzusini tushuntirib berishi, o'quvchilarni ajoyib va sehrli musiqa olamiga olib kiradi. Bunday xislatlar, ko'nikmalar, malakalarning asosiy negizi oliy ta'lim davridagi ta'limjarayonida yaratilmog'i va o'qituvchilik faoliyatida uzluksiz ravishda takomillashtirilib, boyitilib, rivojlantirilib borilishi pedagog – murabbiylar oldiga, kasbiy faoliyatiga qo'yilayotgan ijtimoiy buyurtmaning asosiy mazmunini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. – Toshkent, Ma'naviyat, 2008 – yil.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". – Toshkent, Ma'rifat, 1997 – yil.

3. O`zbekiston Davlat Ta`lim Standarti. 5111100 – musiqiy ta`lim yo`nalishi bo`yicha bakalavr tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo`yiladigan talablar. – Toshkent, Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi, 2008 –yil.
4. Umumiy o`rta ta`limning DTS va o`quv dasturi. Musiqa, 1999 – yil.
5. Uzviylashtirilgan Davlat Ta`lim Standarti va o`quv dasturi. Musiqa. – Toshkent, 2010 – yil.
6. Yo`ldoshev Sh, Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent, - Fan, 2001-yil.
7. Ishmuhammedov R, Abduqodirov A. Ta`limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, - Fan, 2008 – yil.
8. Tolipova Sh. Pedagogik texnologiyalar – do`stona muhit yaratish omili. – Toshkent, YUNIREF, RTM, XTB, 2005 – yil.
9. Davletshin M. G. Zamonaviy maktab o`qituvchisining psixologiyasi. – Toshkent, - O`zbekiston, 1999 – yil.
10. Sharipova G. Musiqa o`qitish metodikasi. TDPU, 2004 – yil.

**MUSIQA DARSLARINI ILG`OR XORIJIY TAJRIBALAR
VOSITASIDA TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI
(Finlandiya ta`limi misolida)**

*Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimiz uzluksiz ta`lim tizimining bo`g`ini bo`lmish umumiy o`rta ta`limda musiqa madaniyati darslarini xorijiy tajribalar va Finlandiya ta`limi vositalarida tashkil etish to`g`risida so`z boradi. Bunda Finlandiya ta`lim tizimining uziga xosligi qolaversa O`zbekiston ta`lim tizimiga tadbiiq etsa bula oladigan jihatlariga alohida to`xtalib o`tiladi va boshqa ayrim davlatlar ta`lim tizimi haqida ham ma`lumotlar keltirilgan.

Kalit so`zlari: Dars, ta`lim, musiqa, madaniyat, nazorat, an`anaviy, noan`anaviy, bilim, ko`nikma, Finlandiya, Amerika, Angliya, Shveytsariya PISA, tajribalar.

Musiqiy tarbiya insonni go`zallikka yetaklovchi bir vosita bo`lib, u insonning estetik va emotsional xususiyatlarini shakllantiradi. Haqiqiy musiqa asarlari inson ichki xis tuyg`ulariga ta`sir etib insonni jumbishga keltiradi, uni harakatlantiradi yoki aksincha o`ylantirib quyadi. Musiqiy go`zallik insonning manaviy qiyofasi shakllanishida muhim omildir. Ta`lim-tarbiyaning shunday bir jihatiki u insoniyat to`plagan ilmiy va madaniy qadriyatlar tizimini o`z ichiga oladi. bu sohada bir qator farmon, qarorlarning qabul qilinishida musiqaning yoshlar tarbiyasida naqadar muhim o`rin tutishini anglash lozim. Maktablarda musiqa darslari boshlang`ich va o`rta sinlar kesimida olib borilib, boshlang`ich sinflarda turli faoliyat turlaridan foydalanib o`tadi. Darslar samaradorligini oshirish maqsadida turli xorijiy davlatlar tajribalaridan foydalanish va uzimizning dasr jarayonlariga tadbiiq etish jadal davom etmoqda. PISA (Xalqaro talabalar ta`lim yutuqlari tadqiqotlari) xalqaro tadqiqotlarda qoyilmaqom natijalarga erishgan Finlandiya ta`limidir. Bu davlat ta`lining o`ziga xosligi boshlang`ich sinf o`quvchilarining erkinligi va farovonligi ta`minlanganidir. Turli ijtimoiy kelib chiqish va turli millat vakillarining qolaversa turli iqtidorga ega o`quvchilarning bir guruxda to`planganidir. Turli xizmatlar, o`quv qo`llanmalari va issiq ovqat maktab tomonidan mutlaqo bepuldir. Fin xalqi

ta'lim berish bilan bir qatorda bolalariga ijtimoiy, axloqiy, jismoniy rivojlanishiga ham alohida etibor beradi. Albatta o'qituvchilar ham o'z ishlariga mukammal darajada loyiqdirlar shu orqali o'z o'quvchilarning ot onalari ham boshqaruvning ishonchiga egadirlar. Bu Finlandiya maktablarida turli davlat tekshiruvlari malaka oshirish, ta'lim jarayonini ustidan nazoratning yo'qligi ham o'qituvchilarning ish samaradorligiga ta'sir etmaydi³⁹. Shuningdek, Fin siyosatining ta'lim sohasidagi barqarorligi hamda anana va urf-odatlarini birlashtirish qobiliyatlarining muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Dars jarayonlarining amaliyotlar bilan o'tilishi xotirada saqalab qolish uchun xizmat qiladi. Boshlang'ich o'rta maktab fin demokratiyasining muhim bo'lagidir. Afsuski bizning ta'lim tizimimiz yuqorida keltirilgan hislatlarni o'z ichiga olmasligi, dars jarayonining ustoz va shogirt ananalari asosida o'tilishi sinf o'quvchilarining o'zaro guruhlarga bo'lib, musobaqalar uyushtirilishi o'quvchilarda raqobat xissini keltirib chiqaradi va "kim o'zarga" o'qishi yuzaga kelgan. Hozirgi kunda ta'lim sohasidagi siyosatimizning maqsadi – ta'lim olish teng huquqliligini ta'minlashdan iboratdir. Ta'lim – bu kelajakka ko'prikdir va boshlang'ich o'rta maktab ushbu ko'prikn ko'tarib turuvchi ustundir.

Fin ta'lim tizimining farq qiluvchi hususiyatlari quyidagilardir:

- Bepul ta'lim,
- Har bir bola va o'smir talim olish huquqiga ega va maktabga borishga majbur
- O'quv rejasining yagona milliy asoslari
- Ta'lim faoliyatini tashkillashtirish va boshqarish vazifaarini mahaliy darajaga o'tkazib berish
- O'qituvchilarning malakasi va kompetensiyasiga bo'lgan ishonchning yuqori darajasi
- O'quv jarayonini moslashuvchan ravishda tashkillashtirish imkoniyati

Ohirgi yillarda mamlakatlar orasida musabaqaning yangi turi paydo bo'ldi: o'quvchilarning o'zlashtirishini baholash. Xususan, iqisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD) ushbu masalada qiziqish bilirdi hamda o'qish va imlo, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha o'quvchilarining bilim qobiliyat va ko'nikmalarini taqqoslashni tashkillashtirdi. Ushbu tadqiqot PISA nomini oldi. Baholash dasturiga 30 dan ortiq mamlakatlarning 15 yoshli o'quvchilarining ta'lim bo'yicha yutiqlari kiritiladi. Bu tadqiqotda fin o'quvchilari yaxshi natija ko'rsatdi. Fin bolalarining o'qish va imlodagi bunday yuqori ko'nikmalari nimaga asoslangandir? O'zlashtirishning yaxshi ko'rsatkichlari bir qator omillarning natijasidir. O'qishdagi yutuqlarni faqatgina maktabga aloqador xollar bilan izohlab bo'lmaydi. Chunki, maktabni o'rab turgan atrof muhitni ham e'tiborga olish kerak. O'quvchilarning maktabga hech qanday transport vositasidan foydanlanmagan holda yayov kelishi qat'iy belgilangan. Bunda, o'quvchi avvalo jismoniy faoliyat bilan shug'ullanadi va jamiyat bilan munosabatga kirishadi.

Fin xalqi san'atga hamda musiqa darslariga ham alohida etibor beradi. Har qanday davlatning musiqa tarbiyasi g'oyaviy-siyosiy jihatdan xalqning ijtimoiy tuzimiga xizmat qiladi. Har bir xalning maorifida musiqa tarbiyasi metodikasi pedagogikaning didaktik

³⁹ Ilkka Taipale. Finlandiyaning 100 ta ijtimoiy innovatsiya "Sharq" Toshkent 2019 yil. 131-157 betlar

qonuniyatlariga va millatning musiqa madaniyati tili va madaniy an'analariga asoslangan. Xorijiy davlatlarda yagona o'quv reja va dasturga amal qilmaydi.⁴⁰

Endi ayrim mamlakatlarning musiqa ta'lim-tarbiya tizimini ko'rib chiqamiz.

Amerika qo'shma shtatlarida musiqa ta'limi: AQShda yagona davlat dasturi yo'q. Musiqa ta'limi "estetika" fani sifatida o'tiladi. O'qituvchilar o'zlari xohlaganlaricha darslarni tashkillashtiradilar. Unda musiqa, tasviriy sanhat va mehnat mazmunan bir-biri bilan bog'lagan. Davlat maktablari bilan birga diniy hamda shaxsiy dunyoviy maktablar ham mavjud. Shuning uchun har bir shtatda, davlat maktablarida, shaxsiy va diniy maktablarda o'quv soatlarni ham bir xil emas, o'rta hisobga I-VII sinflarda haftasiga 1-2 soatdan dars o'tiladi.

Maktablarning 1-4-sinflarida musiqa darsi har kuni 20-30 minut hajmida o'tkaziladi. Darslarni umumiy o'quv fanlari bo'yicha dars beradigan o'qituvchilar olib boradilar. Darsda o'quvchilar musiqa ostida ritmik harakatlar bajaradilar, har xil mavzulardagi, jumladan, ibodat qo'shiqlarini ham ijro etadilar. O'rta ta'lim maktablarida musiqa darslari dars jadvalidan tashqari vaqtga belgilanadi.

Darsdan tashqari har bir o'quvchi musiqa to'garaklariga - xor, orkestr, raqs, VIAlarga ahzo bo'ladilar. Ko'pchilik maktablarda simfonik orkestrlar mavjud. Maktab bilan kelishilgan holda o'quvchilar simfonik orkestrlarga jalb etiladilar. Sinfdan tashqari musiqa darslari jarayonida o'quvchilar turli xil musiqa cholg'u asboblari - musiqiy qutichalar, baraban, uchburchaqlar kabi cholg'ularida ijro etish malakalarini egallaydilar. 3-sinfdan boshlab turli orkestr cholg'ularida ijro etish o'rgatiladi. o'quvchilar cholg'u asboblarda ijro etishni o'rganib bo'lganlaridan keyin, maktab orkestr jamoasi tashkil etiladi. Bundan tashqari o'quvchilarning shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, cholg'u ansambllari, xor jamoalari ham tashkil etiladi.

Umumiy o'rta ta'lim o'qituvchilari kollej va universitetlarda tahsil oladilar. AQShda musiqa ta'limi sohasi bo'yicha aniq bir tizim bo'lmaganligi, ta'lim muassasalarini turli xil shaxslar, kompaniyalar boshqarishi tufayli ta'lim tizimida noturg'unlik va nomutanosiblik mavjud.

Musiqa mashg'ulotlarining o'tkaziladigan vaqti, shakli va mazmunini pedagoglar tomonidan belgilanadi. Mamlakatda mutaxassis o'qituvchilar etishmasligi, musiqa mashg'ulotlariga maxsus ma'lumotga ega bo'lmagan, yosh kompozitor va ijrochilarni jalb etish ehtiyojini tug'diradi. Natijada, maktablarda yagona musiqiy ijro repertuari vujudga keladi.

Ixtisoslashgan musiqiy ta'lim kollejlardan boshlanadi. Kollejlarda o'qish muddati to'rt yil bo'lib, talabalar keyinchalik o'qishni davom ettirishlari va magistr unvonini olish uchun ikki yil. Doktorlik ilmiy darajasini olish uchun besh yil, jami etti yil o'qishlari kerak bo'ladi.

Musiqaga ixtisoslashgan kollejlarning uch xil yo'nalishi - ijrochilik, musiqashunoslik va pedagogik Yo'nalishlarda musiqa o'qituvchilari tayyorlanadi.

Kollejdagi ta'limdan keyin talabalar o'qishni universitetlarda davom ettirishlari mumkin. AQShda XIX asrda konservatoriyalar tashkil etilgan bo'lib, hozirgi kunda ular universitetlarga qo'shib yuborilgan. Bundan asosiy ko'zlangan maqsad ta'lim sifatini yaxshilash, yoshlarga musiqiy ta'lim bilan birga adabiyot, sanhatning boshqa turlaridan ham kerakli bilimlarni berish, ularning dunyoqarashlarini kengaytirishdir.⁴¹

⁴⁰ Ilkka Taypale. Finlandiyaning 100 ta ijtimoiy innovatsiya "Sharq" Toshkent 2019 yil. 131-157 betlar

⁴¹ D. Soipova Musiqiy va musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish. Toshkent, 2005 y.

Angliyada musiqa ta'limi tizimi: Angliya maktablarida burjua mamlakatlari jumladan, AQSh qatori, yagona dastur va uslubiyotning yo'qligi sababli mamlakatdagi musiqiy tarbiya ishlarining axvoli turli saviyadadir.

Ijoby misol tariqasida 1969-1970 yillarda Britaniya radio korporasiyasining radio orqali 6-7 yoshdagi bolalar uchun tashkil etilgan 10 minutlik musiqa eshittirishlarini keltirish mumkin.

Bu eshittirishlardan ko'zda tutilgan maqsad - bolalarning musiqa cholg'ulari ijrochiligiga xohishlarini o'yg'otish bo'lgan: bolalar radio eshittirish jarayonida musiqani ijro etishlari lozim bo'lgan. Keyinchalik bu dasturlar magnit tasmlariga Yozilib, maktablarga, ulardagi "musiqa burchak"lariga jo'natilgan.

Hozirgi kunda Angliya maktablarida ko'prok Dj. Kerven (1816-1880) tomonidan ishlab chiqilgan relyativ tizimiga asoslangan o'qitish usullari qo'llanilmoqda.

Angliyada boshlang'ich maktab o'qituvchilarini o'rta maxsus o'quv yurtlari -ikki Yoki uch yillik kollejlarda tayyorlaydi.

Milliy musiqa, qirollik musiqa kolleji va hatto Qirollik musiqa akademiyasini bitirgan musiqachilar uchun 1 yillik maxsus pedagogik kurslar tashkil etilgan. O'rta maktab musiqa o'qituvchilarini universitetlarning musiqa - pedagogika fakul'tetlari tayyorlaydi. Ularda o'qish muddati 4 yilni tashkil etadi. Universitetlar o'rta maktab uchun universal musiqa o'qituvchisini tayyorlashni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yganki, o'qituvchi nafaqat xor jamoasiga rahbarlik qilish, shuningdek orkestrni boshqarish, musiqa va cholg'u ansamblida mashg'ulot olib borish, bolalarni musiqiy cholg'uda ijro etishga o'rgata bilishi lozim.

Angliyada boshlang'ich sinflarda 5 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar o'qiydilar. Barcha o'quv fanlarini bitta o'qituvchi olib boradi. Boshlang'ich maktabni bitirgach, bolalar gumanitar yoki texnik yo'nalishga asoslangan o'rta maktablarga o'tadilar. Bularda musiqa ta'limiga ko'prok ehtibor beriladi.

Shveysariyada musiqa ta'limi tizimi: Emil Jak-Dalkroz (1865-1950) Shveysariyalik pedagog, kompozitor, musiqachi, yozuvchi va jamoat arbobi, musiqiy-ritmik tarbiya tizimi yaratuvchisidir. 1910-yilda "musiqa va ritm" maktabini Jenevada "Jak Darkroz" institutini tashkil qilgan. Keyinchalik Jak-Dalkroz ishi davomchilari Stokgol'mda, Londonda, Parijda, Venada, Barselonada, NyuYork shaharlarida "Jak-Dalkroz" maktabi, "Jak-Dalkroz" institutlarini tashkil qilganlar.

Jak-Dalkroz musiqiy dinamika va emotsional harakatlari hamda obrazli mazmun, musiqa ostida plastik harakatlar jo'rligida musiqiy faoliyatga jalb qilish tizimini yaratdi. O'quvchilarda improvizasiya, obsolyut eshitish qobiliyatini rivojlantirish tizimini ishlab chiqdi. U o'z o'quvchilarining plastik ritm tuyg'usiga ega bo'lishlarida, ularning nerv tizimi va musiqiy apparatini mukammal rivojlantirishga intildi. Uning nazariyasiga ko'ra, ritmni o'quvchilarga tushuntirish muhim emas, ritmni o'zlashtirilmasdan ham tana harakatlarini his etgan holda mashqlarni takrorlash va ritmik harakatlar bajarish yaxshi natija beradi.

E.Jak-Dalkroz, Zoltan Koday, Karl Orf tomonidan ishlab chiqilgan musiqiy tarbiyaning yaxlit tizimlari turli mamlakatlardagi musiqa tarbiya nazariyasi va amaliyoti ishlariga katta ta'sir ko'rsatdi.

Umumta'lim maktablari "musiqa madaniyati" darslarida musiqa ta'limi va tarbiyasini amalga oshirib borar ekanmiz, o'qituvchi oldida o'quvchilarni eng avvalo musiqa san'atiga, o'zi o'tayotgan darsga, berilayotgan bilimlar, o'rganilayotgan kuy - qo'shiqlarga qiziqish va havas uyg'otish vazifasi turmog'i lozim. Maktabda, ayniqsa boshlang'ich sinflarda qo'shiq aytilish, musiqa tinglashga bo'lgan qiziqish va moyillik, asta - sekin yoshlarning musiqa

san`atiga bo`lgan ijobiy munosabatlari, qolaversa ehtiyojlarining rivojlanib, shakllanib borishida muhim o`rin tutadi.

Musiqqa darsi o`z tabiatiga ko`ra ham san`at, ham tarbiya darsidir. Uni rang –barang, sermazmun va qiziqarli tashkil qilish har bir o`qituvchidan katta pedagogik va professional mahorat talab qiladai . “Bolalarni san`atga o`rgatish nihoyatda murakkab” – deb ta`kidlaydi taniqli kompozitor – pedagog D.B.Kabalevskiy, - hamma murakkabligi shundaki, ularni emotsional tarzda qiziqitirmay turib chinakam san`atga o`rgatish mutlaqo mumkin emas.

Bu o`rinda musiqiy mashg`ulotlar jarayonida o`quvchilarning ijodiy faolligini ta`minlash alohida ahamiyatga molik. Musiqani tushunish, uning hissiy - emotsional ta`siridan bahramand bo`lish bilim, malaka va ko`nikmalar qatori emotsional his – tuyg`ularning ishtirokiga ham bog`liq. Asarni ijro va idrok etishda his – tuyg`ular qanchalik faol va chuqur bo`lsa, ularni tushunish va o`zlashtirish, ta`sirlanish shuncha ongli va samarali bo`ladi. Bu holatlar esa o`z o`rnida ijodiy faollik natijasida sodir bo`ladigan jarayondir. Zero, zerikarli va bir xillik sinfda jonli hissiyot holatini vujudga keltira olmaydi. O`quvchilarni darsga qiziqitirish birinchi navbatda tinglash va ijro etish uchun tanlanadigan repertuar va uslublarga (an`anaviy yoki interfaol metodlar) bog`liq. Boshlang`ich sinflar uchun tanlanadigan asarlar repertuarining asosiy mezoni ularning yoshi, qiziqishi, bilim va malakalari, ko`nikmalari darajasiga bog`liq.

Shunga muvofiq qo`llaniladigan metodlar ham ko`proq o`yin xarakterida bo`lishi maqsadga muvofiq bo`ladi. Sho`x, o`yinbop, raqs ishtirokida turli musobaqa tarzida uyushtiriladigan va tematikasi bolalar dunyosiga mos ertak qahramonlari, hayvonlar, parrandalar, o`simliklar, tabiat manzaralari, qushlar obrazlari bilan bog`liq asarlar o`quvchilarda darsga nisbatan qiziqish va havas uyg`ota oladi, estetik hissiyotlarini, musiqiy qobiliyatlarini o`stirib boradi. Bu o`rinda zamonaviy qo`shiqlar qatori xalq qo`shiqlaridan, qardosh xalqlar va kompozitorlari asarlaridan foydalanish darslarni yanada sermazmun va faol bo`lishini ta`minlaydi, yoshlarda xalq musiqqa merosiga bo`lgan mehr va muhabbat tuyg`ularini shakllanishiga kuchli ta`sir etadi. Har bir darsda ijodiy faollik yuzaga keladi.

Zamonaviy musiqqa madaniyati darslarini badiiy – pedagogik asar deb hisoblash mumkin. Chunki uni o`qituvchi o`z individual ijodidan va tajribasidan kelib chiqqan holda yaratadi. Darsning kompozitsiyasi va dramaturgiyasi, uning badiiy – pedagogik g`oyasi, maqsad va vazifalari, shakllari, metodik usullari va texnologiyalari ham o`quvchilarda musiqaga, o`quv materiallariga qiziqishni o`stirish, ularga musiqqa san`ati va madaniyatining ma`naviy mazmunini singdirish, zamonaviy musiqali ijodiy faoliyatni anglashi – bularning hammasi o`qituvchining ijodiy yondashuvchanligining mahsuli hisoblanadi.⁴²

O`qituvchi musiqqa darsini (bir soatlik) rejasini tuzganda maqsad, vazifasini, mavzusini, turini va o`qitish shakllarini, musiqiy faoliyatlarni va ular mazmunida o`quvchilarga beriladigan bilimlar, qo`llaniladigan uslublar, texnologiyalarni aniqlab, so`ng darsning senariysini yaratadi. Darsning har bir faoliyati: musiqqa tinglash, jamoa bo`lib kuylash, musiqqa savodi, ritmik harakatlar, musiqqa cholg`u asboblari jo`r bo`lish, o`yinlar – bir – biri bilan bog`lanib, uzviylashtirilgan bo`lishi kerak. Bunda o`quvchilarni darsga faol qatnashtirish uchun turli xil texnologiyalar, vositalar, metod va usullar qo`llaniladi.

Ma`lumki, har qanday pedagogik texnologiya ta`limning yangi loyahasini rivojlantiruvchi ta`lim tamoillariga asoslangan bo`lib, o`quvchi shaxsiga yo`naltirilgan bo`lishi kerak.

⁴² R. Ishmuxamedov, Abduqodirov A., Parдав A. Ta`limda innovatsion texnologiyalar. -T, Iste`dod, 2008, 180 bet.

O`qituvchi va o`quvchi, o`quvchilar va o`qituvchining hamkorligi o`zaro muloqot, bir – biriga ko`rsatadigan ta`siri zamonaviy talablar asosida tashkil topishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Ilkka Taipale. Finlandiyaning 100ta ijtimoiy innovatsion “Sharq” Toshkent 2019 yil. 131-157-betlar
2. O`zbekistob Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Namangan viloyati faollari bilan o`tkazgan yig`ilishidagi nutqidan. 2020 yil.
3. R. Ishmuxamedov, Abduqodirov A., Pardaev A. Ta`limda innovatsion texnologiyalar. -T, Iste`dod, 2008, 180 bet.
4. D. Soipova Musiqiy va musiqiy – nazariy bilimlarni o`zlashtirish jarayonini takomillashtirish. – Toshkent, 2005 y.
5. D. Kabalevskiy Kak rasskazivat detyaam o muzyke? M.: Prosvepenie, 1994.
6. O`l. Tolipov, M. Usmonboeva Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. T. «Fan» 2006 yil.

RAQAMLI TA`LIM MUHITIDA MUSIQA O`QITUVCHILARINI TAYYORLASH TEXNOLOGIYALARI: DARSNI TASHKIL ETISHDA REKLAMA ROLIKLARIDAN FOYDALANISH MUAMMOLARI

*Quvvatova Nargiza Baxtiyor qizi, JDPU magistranti
Ilmiy rahbar: Xolmirzayev Otamurod Eshmirza o`g`li,
JDPU musiqa ta`limi o`qituvchisi*

Annotatsiya: Yangi axborot texnologiyalari keng tarqalgan ommaviy axborot vositalarining paydo bo`lishiga yordam beradi, ulardan biri reklamadir. Uning yaratuvchilari matn, grafik, tovush va animatsiya ma`lumotlarini birlashtirish jarayonida yaratilgan turli effektlarni bir vaqtning o`zida ko`paytirishga asoslangan multimedia texnologiyalaridan faol foydalanadilar. Maqola musiqa o`qituvchilarini malakalarini oshirishda reklama rolik yasashni o`rganishlari va dars faoliyatida keng qo`llashning istiqbollari xususda.

Kalit so`z: axborot, reklama, multimedia, matn, grafik, tovush, animatsiya, yaxlitlik, ifodalilik, dramaturgiya, vizual, elektron ma`ruza, elektron to`plam.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-son qaroriga asosan, “Axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish “Raqamli O`zbekiston — 2030” strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni ta`minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Axborot texnologiyalari sohasidagi kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimining samaradorligini oshirish bo`yicha ko`rilayotgan choralar davlat organlari va tarmoq tashkilotlarini malakali IT-mutaxassislar bilan ta`minlash uchun mustahkam zamin yaratmoqda⁴³ deyiladi.

Bundan ko`rinib turibdiki, bugungi kunda raqamli texnologiyalarning rivojlanish davrida barcha sohalarda kadrlar kreativ va ijodkorligi hamda kompyuter texnologiyalaridan keng

⁴³ O`zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 06.10.2020 yildagi PQ-4851-son

foydalanishlari talabi qo'yilmoqda. Musiqa darslarida multimediali o'yinlarni tashkil etish to'g'risida ko'plab yangiliklar qilindi. Ammo multimediali reklamadan dars jarayonlarida deyarli foydalanilmaydi. Chunki bu o'qituvchidan kompyuter savodxonligining yuqori darajasini talab etadi. Shunday bo'lsada, malaka oshirish jarayonlarida bu muammo bartaraf etilishi uchun ma'lum mashg'ulotlar tashkil etilgan. Umuman olganda bugungi kun kadrlari zamonaviy uslublardan foydalanib, xususan multimediali reklamalarni ishlagan holda darsni tashkil etishlari bir muncha ijobiy natijalarni bergan bo'lar edi. Chunki bugungi kunda o'quvchilar texnologiyalar bilan bevosita bog'lanib qolishgan va har turli sohada reklamalarga duch kelishadi. Har qanday reklama roliklari o'quvchilarning e'tiborini chetlab o'tmaydi. Shu sababli ham dars jarayonlarida bunday usullardan foydalanish dars sifatini va o'quvchilarning musiqiy qiziqishlarini orttiradi.

“Multimedia reklama” tushunchasi bu yaxlitligi, ifodaliligi, syujet va dramaturgiyaning mavjudligi bilan ajralib turadigan badiiy mahsulot bo'lib, o'qituvchi tomonidan multimedia vositalaridan foydalangan holda maktab o'quvchilarining musiqa asariga yoki bastakor asariga qiziqishlarini orttirishga qaratilgan ijodiy jarayonda yaratiladi. Musiqa asari yoki bastakor ijodining multimedia reklamasini yaratish malakasi, jumladan, reklama konsepsiyasini loyihalash va konsepsiyani kompyuter dasturlari yordamida amalga oshirish qobiliyatini o'z ichiga olgan murakkab mahorat ekanligi aniqlandi.

Multimedia reklamasini yaratish qobiliyati - bu maqsadni belgilash, reklama kontsepsiyasini loyihalash bo'yicha bilimlarni (reklamani yaratish uchun musiqiy, psixologik va pedagogik, umumiy nazariy va texnologik) o'z ichiga olgan murakkab mahoratdir.

Bir qator mualliflarning (N.Kazakova, N.Ryjova, A.Sharikov va boshqalar) fikricha, bolalar orasida telereklama juda mashhur. Uni idrok etish jarayonida bolalarning vizual-eshitish sezgilari va his-tuyg'ulari faollashadi. Reklamada ularni rang-barangligi, hodisalarning tez o'zgarishi, vizual, musiqiy va adabiy diapazon o'ziga jalb qiladi. Televideniya, kompyuterlar va axborot uzatishning mobil vositalari davrida ulg'aygan zamonaviy maktab o'quvchilari birinchi navbatda o'quv ma'lumotlarini ko'rishga, keyin esa eshitishga intilishadi, bu ularning "harakatni vizual namoyish etishga va uning rivojlanish dinamikasi doimiy qiziqishidan dalolat beradi" (L.P.Pressman). Ko'pgina tadqiqotchilar (I.V.Kalinina, I.A.Serikova, E.M.Torshilova va boshqalar) turli yoshdagi bolalarning zamonaviy madaniyatni vizual idrok etishga moyilligi haqida gapiradilar.

XXI asr davri, M.V. Volkenshteyn ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va san'atning turli sohalarini uyg'unlashtirish bilan tavsiflanadi⁴⁴. Ta'lim sohasida bu birlashish o'qituvchilar tomonidan musiqa va turli xil kompyuter texnologiyalarining o'zaro ta'siridan tobora faol foydalanishda namoyon bo'ladi. Ko'pincha bunday o'zaro ta'sir zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda bolalar auditoriyasining klassik musiqa namunalari yoki ma'lum bir bastakor ijodiga qiziqishini shakllantiradigan musiqa o'qituvchisining kasbiy faoliyatida namoyon bo'ladi. Bolalarda bu qiziqishni rivojlantirib, ularning musiqiy va ma'naviy madaniyatini tarbiyalashga hissa qo'shadi. Multimedia texnologiyalarining turli mahsulotlarini faol o'z ichiga olgan musiqa o'qituvchilari o'z ishlarida deyarli hech qachon multimedia reklamasidan foydalanmaydilar, maktab o'quvchilarida mumtoz asarlarga, ma'lum bir bastakor ijodiga qiziqish uyg'otish nuqtai nazaridan katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'qituvchining amaliy faoliyatida musiqa san'atining zamonaviy axborot texnologiyalari bilan

⁴⁴ Волькенштейн, М.В. Перекрестки науки / М.В. Волькенштейн. М.: Наука, 1972.

muvaffaqiyatli uyg'unlashishi ko'p jihatdan uning kasbiy tayyorgarlik jarayonida egallagan bilim va ko'nikmalariga bog'liq.

Ayni paytda pedagoglar malakasini oshirish uchun ta'lim muassasalari tarmog'ining turli kurslari mazmuniga o'qituvchilarning axborot madaniyatini oshirish bilan bog'liq ta'lim dasturlari faol kiritilmoqda. Aniq belgilangan modulli tizimga ega bo'lgan ushbu dasturlar umumiy va qo'shimcha ta'lim sohasidagi turli mutaxassislariga mo'ljallangan.

Bunday kurslar dasturlari tahlili shuni ko'rsatdiki, reklamadan multimedia texnologiyalariga asoslangan o'quv quroli sifatida foydalanish bilan bog'liq masalalar mualliflar tomonidan ushbu o'quv dasturlarida ko'rib chiqilmagan. Faqatgina adabiyot va chet tili o'qituvchilarini qayta tayyorlash modullarida mualliflar reklamadan foydalanish, tinglovchilarni til tizimining ba'zi etnik-madaniy xususiyatlari, shu jumladan tarjima uchun muhim bo'lgan xususiyatlar bilan tanishtirish imkoniyatlarini ko'rsatadilar (E.V.Glushak, I.A.Gonchar, M.I.Dubrovin).

Musiqqa o'qituvchisining multimedia reklamasini yaratish qobiliyatini rivojlantirishning bir nechta muammolarini misol qilib keltirishimiz mumkin:

- o'qituvchi tomonidan yangi axborot texnologiyalarini ishlab chiqish uchun jamiyatning zamonaviy talablari va ushbu texnologiyalarning jadal rivojlanishi tufayli qo'shimcha kasbiy ta'lim tizimida o'qituvchilarning malakasini oshirishning maxsus tashkil etilgan jarayonidan tashqarida ularni rivojlantirish imkoniyatlarining cheklanganligi;

- pedagogika, falsafa, madaniyatshunoslik fanlarida reklamadan ta'lim maqsadlarida foydalanish masalasini nazariy jihatdan ishlab chiqish va yosh avlodning musiqa san'atining klassik namunalari, san'at yoki klassik kompozitorning asariga qiziqishini uyg'otish uchun reklamani musiqa darsiga kiritishning nazariy asoslarining yo'qligi;

- bolalarning multimedia texnologiyalari asosidagi reklamani idrok etishga moyilligi va musiqa o'qituvchilarining maktab o'quvchilari uchun bunday reklama yaratish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan usullarning yetishmasligi.

Ushbu muammolarni yechishda muhim sharoitlar talab etiladi. Musiqqa o'qituvchilarida multimedia reklamasini yaratish qobiliyatini shakllantirishning ba'zi samarali usullarini keltirib o'tamiz:

- multimedia reklamasini o'qituvchi tomonidan maktab o'quvchilarining o'z ob'ektiga bo'lgan qiziqishini uyg'otish uchun multimedia vositalari yordamida ijod jarayonida yaratilgan yaxlitlik, ifodalilik, syujet, dramaturgiya mavjudligi bilan ajralib turadigan badiiy mahsulot sifatida musiqa asari yoki muayyan bastakorning asari taqdim etiladi;

- multimediali reklama yaratish qobiliyati deganda kompleks ta'lim tushuniladi, shu jumladan reklama kontseptsiyasini loyihalash va ushbu konsepsiyani kompyuter dasturlari yordamida amalga oshirish qobiliyati;

- boshlang'ich, asosiy va yakuniy bosqichlarni o'z ichiga olgan metodologiya ishlab chiqiladi; metodlari: materialni muammoli o'rganish, vizual, tinglovchilar uchun reklama badiiy mahsulotlarini namoyish qilish, mashqlar, ijodiy loyihani himoya qilish; talabalar faoliyatini tashkil etish shakllari: ikkilik ma'ruzalar, an'anaviy ma'ruzalar, suhbatlarni o'z ichiga olgan amaliy mashg'ulotlar va an'anaviy amaliy mashg'ulotlar; o'quv qo'llanmalari: multimedia taqdimoti rejimida tayyorlangan elektron ma'ruza matnlari, bastakor ijodini reklama qilish va alohida musiqiy asarlarni reklama qilish uchun reklama roliklari to'plami, badiiy, musiqiy, badiiy bo'lmagan adabiyotlarning elektron to'plami, "Power Point'da ishlash" o'quv qo'llanmalari va "Sound Forge Audio Editor", "Adobe Photoshop" dasturida ishlashni

o'rganish elektron darsligidan foydalanish musiqa o'qituvchining malakasini oshirishda, dars sifatini yaxshilashda va o'quvchilarning qiziqishlarini rivojlantirishda ijobiy yordam beradi.

Xulosa qilganda, an'anaviy dars jarayonlarini yangi uslublar bilan boyitishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan multimediali reklama roliklari joriy etilishi dars sifatini oshiradi. Chunki o'quvchilar odatiy videoroliklardan ko'ra noodatiy qisqa metrajli mavzu reklamasini e'tibor bilan kuzatishadi. Bugungi kunda yoshlar bevosita texnik vositalarga bog'lanishgan, ularga ta'sir etishning ko'plab usullari, yangiliklari izlanmoqda. Bunday usullar o'qituvchining o'z ustida ishlashiga hamda o'quvchilarning mavzuni qisqa vaqt ichida o'zlashtirishiga va qiziqarli reklama qilingan mavzuning batafsil bayonini o'rganishga jalb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 06.10.2020 yildagi PQ-4851-son
2. Авдеева, Н.Н., Фоминых, Н.А Психологическое воздействие телерекламы на детей / Н.Н. Авдеева // Психологическая наука и образование. - 2004-№4.
3. Алексеева, М.Б., Балан, С.Н. Технология использования систем мультимедиа: учеб. пособие. СПб.: Изд. Дом «Бизнес пресса», 2002. -176 с.
4. Анатомия рекламного образа / под общ. ред. А.В. Овруцкого. СПб.: Питер, 2004.- 200 с.
5. Артемьев, М.А. Эффективная система психологических воздействий в политической рекламе: автореф. дис. канд. психолог, наук. М., 1997.
6. Балаховская, Т.Н. Три назначения мультимедиа / Т.Н. Балаховская // Компьютер пресс. 1995. - № 2.
7. Волькенштейн, М.В. Перекрестки науки / М.В. Волькенштейн. М.: Наука, 1972.
8. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. М., 1991.-346 с.
9. Выготский, Л.С. Воображение и его развитие в детском возрасте // Хрестоматия по психологии. -М.: Просвещение, 1987.
10. Hasanova Navbahor Hamraqulovna. (2020). Bo'lajak o'qituvchilarning o'zbek mumtoz musiqasida kasbiy malakasini oshirish muammolari. *Xalqaro ilg'or fan va texnologiyalar jurnali*, 29(08), 3489-34953495. [Http://sersec.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558](http://sersec.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558)
11. Khasanova,Navbakhor (2020) "The role of music lessons in the formation of national and intercultural competence in students."Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal.Vol.2020 :Iss.2. Article 15 :<https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss2/15>
12. N. Hasanova O'zbek milliy musiqa merosi taraqqiyotida xotin-qizlarningo' rni. Актуальный вызыви современной науки IX xalqaro ilmiy konferensiya 26-27 yanvar 2017 yil.
13. Казакова, Н. Мы любим рекламу! / Н. Казакова // Обруч. 1999. -№1. -С. 29-30.
14. Красильников, И.М. Синтезатор и компьютер в музыкальном образовании. Проблемы педагогики электронного музыкального творчества / И.М. Красильников. М., Библиотечка журнала «Искусство в школе», Вып. 8,-2002.- 96 с.
15. Красильников, И.М. Цифровые технологии в музыке: педагогические и творческие перспективы / И.М. Красильников // Педагогика. 2001, № 10-с. 26-29.
16. Гольцман, М., Первин, Ю., Первина, Н. Элементы музыкальной грамоты в курсе раннего обучения информатике / М. Гольцман, Ю. Первин, Н. Первина, //ИНФО. 1991 - № 5.
17. Кабанова-Меллер, Е.Н. Формирование приемов умственной деятельности и умственное развития учащихся / Е.Н. Кабанова-Меллер. М., 1968.-87 с.

18. Леоненко, В.В. Социологические методы в рекламной деятельности: Автореф. дис. канд. социол. наук. М., 1996.

19. Меньшикова Наталия Анатольевна Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук Екатеринбург – 2006.

MUSIQA TA'LIMIGA MOS DIDAKTIK O'YINLAR MAZMUNI

Raximova Aziza Egambergan qizi,

“Musiqqa ta’limi va san’at” mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolaning mazmuni musiqiy ta’lim uchun mos didaktik o’yinlarning mazmuniga bag’ishlangan. Didaktik o’yin usullari o’quv materialini mustahkam o’zlashtirishga yordam beradi, ufqni kengaytiradi, ijodiy fikrlash, badiiy tasavvur, xotira, kuzatish, sezgi rivojlantiradi.

Kalit so’zlar: didaktik o’yinlar, muloqat, vazifa, bilim, fan, ijodkorlik, o’yin texnologiyalar, musiqiy ta’lim, krossvord, ilmiy-tadqiqot, ma’ruza, munozara.

Musiqiy ta’lim tizimida didaktik o’yinlardan foydalanish talabalarni muloqatga kirishish ko’nikma va malakasini shakllantirib, o’zaro yordam berish odatlarini rivojlantiradi hamda talabalarni bilim saviyasini oshirishga xizmat qiladi. Xozirgi kunning vazifalarini amalga oshirishda musiqqa o’qitishning chuqur ijtimoiy e’tiqotlilik bilan uyg’un ilmiyligiga qo’yilayotgan talablar g’oyatda muhimdir didaktikada o’qitishning ilmiyligi nima ekanligi asosli ravishda bayon qilinadi. Ma’lumki, musiqiy ta’limi mazmuniga kirgan barcha bilimlar voqeylik qanday bo’lsa uni shundayligicha, hech bir qo’shimchalarsiz aks ettiradi. Pedagogni vazifasi talabalarga ilmiy, haqqoniy bilimlarni asli holicha tushuntirishdan, ularni bilimlarini mustaqil o’rganishlarida o’zlashtirilgan haqiqatlar borliqdagi - inson ongidan tashqari ob’ektiv mavjud narsalarga muvofiqligini kafolatlaydigan yo’lga solishdan iboratdir.

Fanlar - e’tiqodlarni shakllantirishning kuchli omili shuning uchun, yoshlarimiz olgan bilimlar ularning e’tiqodiga aylanishi juda muhimdir. Mana shu vazifalarni amalga oshirishda o’quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muhim talabdir.

Agar bilimlarni bayon etish, ishning usullarini ko’rsatishi mumkin bo’lsa, ijodiy faoliyatini o’rgatish uchun talabalarni xuddi ana shu faoliyat jarayoniga bevosita jalb etish shart. Mana shu muammo bo’yicha ayrim muloxazalarni ifodalashga harakat qilamiz. Avvalo, har qanday ijodkorlik, xususan o’quvchi-talabalarning ijodkorligi maxsus tayyorlangan sharoitlarda amalga oshishi mumkin. Bunda bilimlar, ko’nikmalar va malakalar tizimi hal qiluvchi omil bo’ladi. Ijodni, ijodkorlikni qanday tushunish kerak? Odatdagi tushunchaga ko’ra, ijod ozchilik kishilarning, buyuk sanat asarlarini, yangi mashinalar, dastgohlar va boshqalarni yaratadigan iste’dotli odamlarning qismatidir. Lekin ijod buyuk musiqqa asarlar yaratishdangina iborat emas, balki kishining fikr yuritishi, biror tatbirni o’ylab topishi, ozgina bo’lsada, qandaydir yangilik yaratishi ham ijoddir. Ijod jarayoniga tasodif sifatida emas, balki qoida sifatida qarash lozim.

Musiqqa o’qituvchining ijodini qanday tushunishi kerak? Bolalar hech qanday yangilik yaratmaydi-ku? O’quvchining ijodi uning olgan bilimlarini hayotda ko’rgan faktlar va hodisalarga bog’lay olishi, ularni to’g’ri bog’lay olishi, ularni to’g’ri baholab, dastlabki ma’lumotlarni tahlil va sintez qila bilishidir. Har qanday ijod bog’liqni rad etish emas, balki borliqqa to’laroq kirib borishdir.

O`yin texnologiyalardan foydalanib mashg`ulotlarni olib borishni faol musiqa o`qitish shakllaridan biri deb qarash mumkin. Bunday darslar bo`lg`usi musiqa o`qituvchining ijodiy yondashuvini, faol bilish faoliyati jarayonida malakalarni o`zlashtirishlarini, o`zining kelajakdagi pedagogik faoliyatida o`yinli texnologiyalaridan foydalanish ko`nikma va malakalarini shakllantirishni ko`zda tutadi. O`yinli texnologiyalardan foydalanib mashg`ulotni tashkil etish va o`tkazish o`rganilayotgan materialga doir atamalarni mukammal tushunishda va eslab qolishda stimull bo`lib hisoblanadi. O`yinli texnologiyalar natijasida talabalarning bilish faoliyati rivojlanadi, musiqa o`quv materialini o`rganishga qiziqishi uyg`onadi, olgan bilimlarini mustahkamlaydi. Bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri aynan yosh avlodni mustaqil va erkin fikrlashga o`rgatishdan iborat.

Shuning uchun ham, o`yin avvaldan rejalashtiriladi, uning dars tuzilmasidan o`rni yaxshilab o`ylab chiqiladi, uni o`tkazish shakli belgilab olinadi va shu asosda o`yinlar tayyorlanadi. O`yinli texnologiyalar o`qitishning boshqa shakllari va metodlari kabi yuqori samara beradi. Talabaga har qanday fan, hususan, umumkasbiy fanlarining zamonaviy rivojlanish darajasidagi bilimlarni berish o`yinning asosiy maqsad bo`lishi kerak.

Musiqiy ta`limida didaktik o`yinlardan foydalanish o`quvchilarning faolligini oshirish qiziqarli psixologik muhitni yuzaga keltiradi. Qiziqarli o`qish degani bu faqat qiziq narsani o`qish emas balki o`qishga bo`lgan qiziqishni (ichki sabab) uyg`otish va talabalarning faol bilish faoliyati bilan bog`liq jarayondir. Yani, faqat faol bilish faoliyatidagina qiziqarli o`qish mumkin degan xulosa mantiqiy to`g`ri bo`ladi. Yuqoridagi fikrlar asosida umumkasbiy fanlar darslarini har doim an`anaviy tarzda emas, bazan noan`anaviy tarzda tashkil etish yaxshi natija beradi.

Musiqiy ta`limni tashkil etishda rolli hamda ishbop o`yinlardan samarali foydalanishga alohida e`tibor berilmoqda. Talabalarda muayyan faoliyat yuzasidan egallangan nazariy bilimlarni amaliy ko`nikma va malakalarga aylantirish, ularda ta`limiy faollikni yuzaga keltirish, ularni ijtimoiy munosabatlar jarayoniga keng jalb etishda rolli hamda ishbop o`yinlar o`ziga xos o`rin tutadi. Bugungi kunda musiqiy ta`lim jarayonida qo`llash nihoyatda qulay bo`lgan bir qator o`yinli texnologiyalar yaratilgandir.

Bunday o`yinlarni muayyan ob`ektga o`tkazish maqsadga muvofiqdir. Rahbarlar va o`qituvchilar oldindan rollarni belgilab qo`yadilar. Masalan, agar o`yin musiqa ta`limi jarayoniga qaratilgan bo`lsa, quyidagilar belgilanadi:

- 1.«Musiqiya ta`limi kafedrasi boshlig`i»;
- 2.«Dirijor fanidan o`qituvchi»;
- 3.«Musiqiya nazariyasi fanidan o`qituvchi»;
- 4.«Vokal va zamonaviy musiqa fanidan o`qituvchi»;
- 5.«Cholgu ijrochiligi fanidan o`qituvchi»;
- 6.«Tekshiruvchi»;
- 7.«Maslahatchi»;
- 8.«Nazoratchi» va b.

Shundan so`ng quyidagilar tuzib chiqiladi:

- har birining egallaydigan vazifalari va xatti-harakatlari bahosi bo`yicha yo`riqnoma;
- o`yin jarayonining asosiy davriyligi bo`yicha dastur ishlab chiqiladi;

O`yin o`tkazish chog`ida «Musiqiya ta`limi kafedrasi boshlig`i» rolini bajaruvchi talaba u yoki bu tadbirlarning bajarilish sifatiga va bu tadbirlarda rol ijro etgan (qatnashgan, ishtirok etgan) talabalarga baho beradi. Shu baholar asosida butun guruhning hamda alohida talabalarning rol ijro etishi bahosi chiqariladi.

Bunday o`yinlarni tashkil etish bo`lg`usi musiqa o`qituvchi qobiliyatini diagnostika qilishni taqozo qiladi. Shu maqsadda talabalarni rol ijro etishlarini almashtirib turish ham tavsiya etiladi, chunki har bir talaba u yoki bu rolda o`z imkoniyatlarini sinab ko`ra olsin, ya`ni «nazoratchi»dan «Musiqa ta`limi kafedrasida boshlig`i» darajasidagi rollarni ijro etishga imkoniyat berilsin.

Ijodiy faoliyatning biror bosqichida muayyan strategiya, taktika va metodlarni qo`llash malakasini shakllantirishga qaratilgan rol o`yinlari. Masalan, «Ilmiy-tadqiqot ishlarida ma`ruza, munozara» tarzidagi o`yin. Bu o`yindagi asosiy rollar quyidagicha bo`lishi mumkin:

1.«Boshlovchilar» - o`qituvchi, ishlab chiqarish mutaxassisi;

2.«Peshqadamlar» - muhokama qilinadigan muammoning muayyan masalasi bo`yicha vaziyatni tasavvur qila oladigan ma`ruzachilar;

3.«Bezakchilar» - peshqadamlarning ma`ruzalari va chiqishlarini ko`rgazmali tasavvur etishlari va tushuntirishlarini ta`minlovchi o`yin ishtirokchilari.

4.«Assistentlar» peshqadamlar yordamchilari bo`lib, ular peshqadamlarga va opponentlarga ko`rgazmali chiqishlariga yordam beruvchi o`yin ishtirokchilari.

5.«Rasmiy opponentlar» - peshqadamlarning ma`ruzasi va boshqa materiallar bo`yicha rasmiy tanqidiy ruhda chiqish qiluvchilar;

6. «Norasmiy opponentlar» - muammo bo`yicha guruh bo`lib yoki mustaqil ilmiy-tadqiqot olib boruvchi barcha boshqa talabalar – o`yin ishtirokchilari;

7.«Chalg`ituvchilar» - ilmiy muassasada qo`shimcha salbiy hodisa, faktlarni bayon qilish asosida o`yin ishtirokchilarining faolligiga sabab bo`ladigan savollar qo`yishi lozim bo`lgan o`yin ishtirokchilari. Korxonada yoki ilmiy muassasa mutaxassislari, oliy o`quv yurti o`qituvchilari, ilmiy xodimlari, aspirant, talabalar bu «vazifa»ni bajarishlari mumkin.

8.«Registratorlar» - munozaralarni yozib oluvchi o`yin ishtirokchilari;

9.«Ekspertlar» - ma`ruza muhokamasidagi chiqishlar va yechimning guruh bo`lib qabul qilinishi bo`yicha ob`ektiv baho beruvchi o`yin ishtirokchilari. Bu vazifada korxonada va ilmiy muassasa mutaxassislari, oliy o`quv yurti o`qituvchilari va ilmiy xodimlari, aspirant va talabalar qatnashishlari mumkin.

Bunday o`yinlarda quyidagi asosiy vazifalar hal qilinadi:

-bo`lg`usi musiqa o`qituvchini axborotlar almashishga o`rgatish;

-ularda o`z nuqtai nazarlarini asoslash va himoya qilish, boshqa kishilarning g`oyalariga kirib bora olish, guruh bo`lib yechim qabul qila olish malakasini shakllantirish.

Zakovat o`yinni o`tkazishda dastlab auditoriyani o`yinga moslashtirish lozim bo`ladi. O`yin ishtirokchilari test yordamida saralab olinadi. Yuqori ball olgan o`quvchi-talabalar o`yinda ishtirok etish hukukiga ega bo`ladi. O`yin katnashchilari 6-8 kishidan iborat bo`ladi. Qolgan o`quvchi -talabalar esa o`yinni tamoshabin sifatida kuzatib turishadi. O`yin uchun mo`ljallangan savollar konvertga joylashtirib ko`yiladi. Guruh sardori savolni olib musiqa o`qituvchiga beradi. O`qituvchi savolni o`qib eshittiradi. Javobni aniqlash uchun bir daqiqa vaqt ajratiladi. Bu vaqt orasida o`yin ishtirokchilari javobni maslahatlashib topishga harakat qilishadi. Bu o`yinni asosan, yuqori sinfda o`tkazish tavsiya etiladi. Zakavot o`yinlarida asosan, o`rtaga muammoli savollar tashlanib, shu muammoni hal etishga diqqat qaratiladi.

Yuqoridagi fikrlar asosida musiqa fanidan didaktik o`yinlar ishlab chiqish va imkon qadar kompyuter o`yinlari tarzida yaratib, dars jarayonida foydalanish o`quvchilarning qiziqishini orttiradi. Musiqa fanidan yaratilgan o`yin dasturlari o`quvchilarda o`quv motivatsiyasini shakllantirishga, ijodiy fikrlashga, mustaqil ishlash va bilim boyligini oshirishga xizmat qiladi.

Musiqa fanida kompyuter o`yinlarini ishlab chiqish texnologiyalari quyidagi bosqichda amalga oshiriladi:

1.O`quvchilarni o`zlashtirishida murakkab bo`lgan mavzu tanlab olinadi;

2.O`yinning maqsadi va sharti tanlab olinadi;

Ta'limiy maqsad - o`yin davomida o`quvchi mavzuning mohiyatini to`liq tushunib oladi.

Tarbiyaviy maqsad -o`quvchilarda kuzatuvchanlik, ziyraklik, ogohlik, topqirlik va estetik did kabi fazilatlarni tarbiyalaydi.

Rivojlantiruvchi maqsad- o`quvchilarning fazoviy tasovvur qilish, mantiqiy fikrlashva ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

3.Tanlangan mavzu bo`yicha o`quvchini o`ylashga va fikr yuritishga majbur qiladigan, eng asosiysi, o`yinni o`ynashga ehtiyoj sezdiradigan qiziqarli dizayn va g`oya yaratiladi;

4.O`yinning tuzilishi va o`ynash bosqichlari ishlab chiqiladi;

5.O`yin metodi asosida o`quvchilarning tanlangan mavzu bo`yicha bilm ko`nikmalarini shakllanishini ta`minlovchi pedagogik talablar aniqlanadi;

6.O`quvchining boshlang`ich bilmini va o`zlashtirilishini nazorat qiluvchi masalalar tizimi ishlab chiqiladi;

7.O`yin metodining samaradorligini aniqlovchi nazorat va kompleks topshiriqlar tizimi ishlab chiqiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Atayeva N., Salayeva M., Hasanov S. Umumiy pedagogika. T., 2013 y.
2. Avliyaqulov N., Musaeva N. Pedagogik texnologiyalar. T., 2008 y.
3. Mavlonova R. , Vohidova N. , Rahmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. „Fan-texnologiya“ T., 2010y.
4. Mahmudov A.X. Uzluksiz ta`lim jarayoniga kompetentlik yondoshuvini joriy qilishning didaktik asoslari // Uzluksiz ta`lim. 2012y. №4 . 8-12 betlar
5. Choriev R. Yangi pedagogik texnologiyalar - ta`lim - tarbiya sifat va samaradorlik omili. Toshkent-2010y.

UMUM TA'LIM MAKTABLARINI MUSIQA MADANIYATI DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUAMMO VA YECHIMLARI

Raximova Dilbar Rizoqulovna, O`zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

“Musiqqa ta`limi va san`at” yo`nalishi 2-kurs magistranti va

Samarqand shahar 12-maktab musiqqa o`qituvchisi

Soliyev Jamshed Xurshedovich O`zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

“Musiqqa ta`limi va san`at” yo`nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda umumta`lim maktablarda o`quvchilarning musiqa madaniyati darslariga bo`lgan qiziqishlari, pedagoglarning ta`lim berish yo`lidagi ayrim kamchiliklari, hamda yo`l qo`yilgan xatolarni bartaraf etishning pedagogik yo`li haqida fikr yuritiladi.

Kalit so`zlar: musiqa, pedagog, shaxs, ohang, ritm, san`at, tovush, individual, o`lchov, zarb, simfoniya, opera, libretto, maktab.

Musiqqa shunday ohangki u inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini, butun olamni ilhomlantiradi, qalbga o'z navolari bilan qanot bag'ishlaydi, hayol parvozigacha chorlaydigan san'at turidir. Musiqaning mazmuni o'zgaruvchan ruhiy holatlarni ifodalovchi muayyan musiqiy badiiy obrazlar, beqiyos go'zallik timsoli deb atasak mubolag'a bo'lmaydi. Musiqaning ifodaviy-tasviriy imkoniyatlari yunon olimlari: Platon, Pifagor, Aristotel va SHarq mutafikkirlari- Ibn Sino, Farobiy Jomiy, She'roziy va boshqalar tomonidan yuqori baholangan, sharh va ilmiy tadqiq qilingan.

She'roziy aytganidek: "Musiqqa inson ruhining yo'ldoshidir". Shuning uchun o'quvchilarda inson ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan musiqiy idrokni tarbiyalash musiqqa tarbiyasining bosh omillardan biridir. Shu bois musiqqa madaniyati ta'limining bola shaxsini shakllantirishdagi o'rni beqiyos. Ushbu fan o'qitilishida samaradorlikni oshirish, shaxsning ta'lim markazida bo'lishiga alohida e'tibor ko'rsatish, musiqqa madaniyati fani o'qituvchilariga alohida mas'uliyatni yuklaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning "Musiqqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash to'g'risida"gi 910-sonli Qarori amalga oshirilayotgan ishlar zahirida o'quvchilarimizni barkamol qilib tarbiyalash, ma'naviyatli yoshlar orqali yurtimiz taraqqiyotining poydevorini mustahkamlash, uning buyuk kelajagini bunyod etishdek ezgu maqsad yotadi[4]. Bu qarorda :“Shuning uchun musiqiy ta'lim juda muhimdir, chunki u ritm va uyg'unlik orqali qalbga iloji boricha chuqur kirib borishi, uni go'zallik bilan to'ldirishi va odamga go'zallik hissi yaratishi mumkin” – deb ta'rif berilgan. Aflotun [4]. Yana bir fikrni aytib o'tish joizdir. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarida: "Eng muhimi bugungi kunda musiqqa san'ati navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishida boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda"[3], - deya, musiqqa san'ati yosh avlodning ma'naviy barkamol bo'lib yetishishi, ularning axloqiy va estetik didini shakllantirishda muhim ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tgan edilar.

Ta'lim-tarbiya tizimini yangilash jarayonida olib borilayotgan ishlarning sifat va samaradorlik bosqichidagi asosiy masala bu davr talab etgan maqsad va vazifalar XXI asr fan-texnika, texnologiyalarning gurrak rivojlanayotgan asrning ma'naviy jihatdan yetuk, har tomonlama bilimli, sog'lom bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirib borishdan iborat xayrli, shu bilan birga eng zarur pedagog kadrlarni tarbiyalashdan iborat ezgu ishlar yotadi. Shu nuqtayi-nazardan umumta'lim maktablari musiqqa madaniyati darslarida o'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdek muhim pedagogik-psixologik maqsad va vazifalarni hal qilish muammolari yotadi. Milliy qadriyatlarini, san'ati va adabiyoti kabi his-tuyg'ularini tobora yaqinlashuvi ta'lim-tarbiyaning optimal sifatini yorqin aks ettiradi. Musiqqa madaniyati darsining o'ziga xosligi, uning "individualligi" eng yorqin va aniq o'zaro ta'sirlar muayyan badiiy-estetik obrazlardan iborat. So'nggi yillarda umumta'lim maktab o'quvchilarining musiqiy madaniyatini shakllantirishga aniq yo'nalish beradigan, uni sotsialistik jamiyatda rivojlantirishning asosiy tamoyillariga mos keladigan pedagogik Konsepsiyasini yaratish zarurati, ayniqsa, aniq namoyon bo'ladi. Umumta'lim maktablarida musiqqa madaniyati darslari uchun zarur jihozlar: sinf xonasi, fortepiano musiqqa asbobi, kerakli jihozlar bilan ta'minlashijuda uhim va zarur. O'z navbatda musiqqa madaniyati o'qtuvchisi musiqqa savodiga ega, biron bir musiqqa asbobida chala olishi shart, chiroyli ovoz sohibi bo'lishi zarur, deb bilaman.

Maktab o'quvchilarga ashula, kuy, maqom yo'llari, konsert, miniatyura, doston va boshqalarda estetik ta'sir o'tkazish asosiy o'rin tutadi. Hissiyotlar, tovushlar, tevarak-atrofdagi

hayot, harakat eskizlari... Lekin g'oyalar olami musiqaga bo'ysunmaydimi? "Har bir chinakam musiqiy asarning g'oyasi bor", deb ta'kidladi buyuk kompozitor L.Betxoven. Lyudvig Van Betxovenning mashhur "Beshinchi simfoniya"sida ifodalangan g'oyani quyidagicha shakllantirgan: "Zulmatdan yorug'likka, kurash orqali g'alaba sari". Bu so'z musiqaga g'oyalarni amalga oshirishda yordam berishi shart emas – bu adabiy dastur, asarning obrazli va g'oyaviy mazmunini konkretlashtiruvchi parcha gaplarini juda kam odam biladi. Musiqa maxsus koordinatalar tizimida mavjud bo'lib, uning eng muhim o'lchovlari tovush makon va vaqt kabilardir.

Umumta'lim maktablardagi musiqaviy tizimning juda sustligi, o'quvchilarning nazaridan chetda qolmaganligining yana bir isboti bo'lganligi muhim. O'quvchilarning qiziqishlarini oshirish yo'lidagi chora-tadbirlarini yo'lga qo'yish asosiy maqsadlarimizdan biri hisoblanadi. Buning uchun birinchi navbatda tajribali pedagoglarning izlanishi, sohalarida yanada ko'proq ish olib borishlari maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Mahorat-kreativ darslar o'tkazish ta'lim tizimlarini musiqaga oid cholg'u asboblari bilan boyitish va qo'shimcha turli xil kuylarni eshittirish natijasida boshlang'ich tushuncha uyg'otish, bolalarning musiqaga bo'lgan qiziqishlarini oshirish va yanada unga bo'lgan muhabbatni yuksaltirish har bir pedagogning vazifasidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvar kuni maktab ta'limni rivojlantirish bo'yicha o'tkazgan videoselektor yig'ilishida maktabni bitirgan bola kamida bitta kasb bilan birga bitta milliy cholg'u asbobini chalishni bilishi shartligini aytib o'tgan. Pedagoglardan talab esa o'quvchilarga nisbatan 3 yoki 4 ta cholg'u asboblari bilishmog'i lozim. Bundan bizning yuqorida aytib o'tilgan fikrlarimizning tasdig'i desak mubolag'a bo'lmaydi. Shunday muammolarning yechimlari, darhaqiqat, o'z yechimlarini topmay qolmaydi. Shunday ekan dolzarb masalalarni diqqat-e'tibordan chetda qoldirmay pedagog hamda o'quvchi yoshlar ustida musiqa fanlari to'g'risida ish olib borsak maqsadga muvofiq bo'lardi.

Xulosa qilib shuni aytadigan bo'lsak, kelajak avlod tarbiyasida san'atning xususan, musiqa san'atining o'rni beqiyosdir. Musiqaning ana shu o'tkir tarbiyaviy kuchidan foydalanish, san'at vositasida yosh avlodning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish, ularda yuksak ma'naviy- axloqiy sifatlarini tarbiyalash umumta'lim maktablari zimmasidagi eng dolzarb vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O'zbekiston 2017 yil, -489b
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. Toshkent, Ma'rifat, 2020yil.
3. I.A. Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" T. 2008
4. O. Ibrohim. "Musiqa ijodiyoti masalalari. T. 2002.

XALQ CHOLG‘U ASBOBLARINING SHAKLLANISHI VA UNING TARBIVAVIY AHAMIYATI

*Raxmatov Elyor, JDPU Musiqiy ta‘lim yo‘nalishi 4 kurs talabasi.
Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi Maxammatov A.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarga ta‘lim – tarbiya berish jarayonida o‘zbek xalq cholg‘u asboblarning turlari, uning shakllanish jarayoni va ularni tarbiyaviy ahamiyati to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan.

Tayanch iboralar: Cholg‘u asboblari, ta‘lim-tarbiya, milliy g‘urur, chang, nay, surnay, tanbur, dutor, rubob, g‘ijjak, qo‘biz, qushnay, sunray, mustaqillik, ijrochiliksa‘nati, urmazarbli, sharqmadaniyati, O‘rta Osiyo, «Navro‘z», «Lola sayli», «Hosil bayrami», «Qovun sayli», «Uzum sayli»«Navro‘z», «Lola sayli», «Hosil bayrami», «Qovun sayli», «Uzum sayli», Quldorliktuzimi.

Cholg‘ularda har bir xalqning milliy g‘ururi, an‘anasi, qadriyatlari o‘z ifodasini topganki, ulardan taraladigan ovoz ham shunga moslashgan. Musiqiy cholg‘ularda ijrochilik san‘ati insoniyat ma‘naviyatini tarannum etuvchi vosita, ya‘ni xalq ijodiyoti maxsuli bo‘lib, azal-azaldan omma orasida shakllanib, mohir soz ustalari tomonidan yasalib, tobora mukammallashib kelayotgan mo‘jizaviy va ifodaviy asboblardir. Bular barchasi yaratilajak cholg‘ularning shakliga va milliylik mezoniga asos bo‘lib xizmat qiladi. Tarix davomida, doimo musiqiy cholg‘ularga bo‘lgan e‘tibor katta bo‘lish bilan birga tarbiyaviy tomonlari ham alohida ahamiyatga ega bo‘lib kelgan.

Xalq cholg‘ulari uzoq o‘tmishda paydo bo‘lgan. Ma‘lumotlarga qaraganda, dastlabki musiqa cholg‘ulari eramizdan avvalgi XIII ming yillikda dunyoga kelgan, deb taxmin qilinmoqda. Musiqachilikda dastlab urma zarbli cholg‘ular paydo bo‘lgan. Chunki eng qadimgi mehnat qo‘shiqlari ishning ritmik tuzilishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Undan keyin shovqinli cholg‘ular paydo bo‘ldi, ijrochilar qarsak chalib ritmni ta‘kidlagan, shovqinli cholg‘ular ta‘sirini ko‘paytirganlar. Ijrochi ayollarning chapak zarblari o‘ziga xos, takrorlanmas go‘zal holatni vujudga keltirar edi.

Qadimgi sharq madaniyati bag‘rida, o‘zbek xalq cholg‘ulari shakllandi. Ular ko‘p asrlik taraqqiyot davomida o‘ziga xos xususiyatlarni, tovush tusini saqlab qoldi. O‘ziga xos tuzilishi tufayli chang, nay, surnay, tanbur, dutor, rubob, g‘ijjak, qo‘bizlar an‘anaviy shakllarda bizgacha yetib keldi.

Xalq cholg‘ulari O‘rta Osiyo aholisining turmushi va mehnat faoliyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Cholg‘ular jo‘rligida qo‘shiq, o‘yin va kuylar xalqning katta-katta marosimlari va oilaviy bayramlarida ijro etilgani bizga ma‘lum. Bayramlar ko‘proq yil fasllari bilan bog‘liq bo‘lgan. O‘rta Osiyoda «Navro‘z», «Lola sayli», «Hosil bayrami», «Qovun sayli», «Uzum sayli» kabi mavsumiy bayramlar keng tarqalgan. Bunday ommaviy bayramlarni xalq cholg‘u ansambllari, xonanda va sozandalar hamda raqqosalarsiz tasavvur qilish qiyin. Bayramlarda, madaniy marosimlarda ayniqsa karnay, surnay, doira, nog‘ora va urma zarbli musiqa cholg‘ulari keng qo‘llanilgan.

O‘rta asr musiqa ijrochiligi madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shunda ediki, cholg‘uchilar nafaqat bir necha turdagi musiqa asboblarni chala olgan, balki o‘zlari ham musiqa bastalaganlar. Cholg‘uchilar o‘z davrining yetuk musiqachilari va shoirlari ham bo‘lishgan. O‘rta asr sharoitida musiqiy ixtisoslashuv maxsus musiqiy ustaxonalarining paydo bo‘lishiga olib keldi. Bu yerda ustoz-shogird an‘analari qaror topdi va rivojlandi. Ayni shu

paytda ansambl ijrochiligi takomillashdi, musiqa san'atining asosiy ko'rinishlari shakllanib cholg'u asboblarning yangi namunalari kashf etishdi.

Sharq olimlarining nazariy qarashlari mavjud ijrochilik san'ati tajribasi asosida shakllangan bo'lib, ular o'z risolalarida musiqaning jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati haqida atroflicha ma'lumot berganlar.

Forobiyning (873-950) "Katta musiqa kitobi" ("Kitob al-musiqa al-kabr"), Abu Ali ibn Sinoning (980-1037) "Davolash kitobi" ("Kitobi ush-shifo") qomusidagi "Musiq haqidagi risola", al-Xorazmiyning (X asr) "Bilimlar kaliti", Sayfuddin Urmoviyning (1216-1294) "Olijanoblik haqida kitobi" yoki "Sharofiya kitobi", Abduraxmon Jomiyning (1414-1492) "Musiq haqidagi risola" kitoblarida musiqa ijrochiligi va xalq cholg'ulari haqida muhim ma'lumotlar bayon etilgan.

Sayfuddin Urmaviy iste'dodli ud cholg'uchisi, xonanda, mashhur sozanda sifatida tanilgan. U Ozarbayjonning Urmaviya shahrida tug'ilgan. Sayfuddinning eng katta yutug'i lad (modius)larning mukammal sistemasini ishlab chiqqanligidir.

Ibn Zaylining (1044 yilda vafot etgan) "Musiq haqidagi to'liq kitob"i ("Kitob ul-kabir fil-musiqiy") uning musiqa ilmidagi yagona va bebaho kitobidir. U yangi usulni – musiqada lادلarni xarflar bilan ifodalash usulini ishlab chiqdi.

Abduqodir Marog'iy (XV asr), Abduqodir ibn-Royibiy (Marog'iy) Ozarbayjonning Marog' shahrida tug'ilgan, lekin hayotining ikkinchi yarmi Amir Temur saroyida-Samarqandda o'tgan va Hirotda vafot etgan. "Musiq ilmidagi ohanglar to'plami" ("Jami al-alhan fi-ilm al-musiqiy") risolasida musiqa haqidagi ta'limotni-kamoncha, yetti torli g'ijjak kabi bir turdagi musiqa cholg'usi borligi haqidagi ma'lumotlar bilan boyitdi.

Al-Xusaynning (XV asr) "Musiqiy kanonlar" risolasida asosan O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan ikki torli musiqa cholg'usi-dutor haqida ma'lumot berilgan.

Qutbiddin ash-Sheroziy (1236-1310) Eronlik musiqa nazariyotchisi sifatida tanilgan bo'lib, o'z risolasida kamonchali tanbur haqida ibratli mulohazalar bildirgan hamda inson ovozi musiqa asboblari ichida eng yoqimli deb hisoblagan. XVII asrda yashagan Buxorolik musiqashunos Darvish Ali o'z risolasida tanbur, chang, qonun, rubob, qo'biz, g'ijjak kabi musiqa cholg'ulari haqida batafsil ma'lumotlar bergan.

Buyuk Sharq mutafakkirlarining merosi xalq cholg'ularini o'rganish sohasida ham tarixiy qiymatga ega. Abu Nasr Muhammad Forobiyning mashhur asari «Kitob al – musiqa al - kabir» («Musiq haqida katta kitob») ulkan ahamiyatga ega. O'rta asr olimi bu kitobida ikki xil musiqa ijrochiligi: ohangni inson ovozi (qo'shiq san'ati) va cholg'ular vositalarida qayta tiklashga ajratadi. Forobiy mohir ijrochi sifatida musiqa cholg'ularining jamiyat hayotidagi o'rnini o'rganishga ahamiyat beradi va u: «... Jangu - jadallarda, raqslarda, to'y - tomoshalarda, ko'ngil ochar bazmlarda hamda ishq - muhabbat qo'shiqlarini kuylashda chalinadigan o'ziga xos cholg'ular bor» deb yozgan edi.

Forobiyning yuqoridagi fikri cholg'ularning nafaqat saroy a'yonlari, balki shahar va qishloq aholisi, hunurmandlar orasida shuningdek, musiqa madaniyatida yetakchi o'rin egallaganini isbotlaydi.

«Musiq haqidagi katta kitob»da Forobiy yana bir cholg'u asbobi- tanburni ham ta'riflaydi. Olimning fikricha, tanbur (dilni tirnash) udga eng yaqin turdagi cholg'ulardan biridir. Tanburda torlar noxun (metaldan yasalgan maxsus chertmak-tirnoq) yordamida chertiladi. Tanbur xuddi ud kabi keng tarqalgan va xalq sevgan cholg'udir. Tanburning ikki yoki uch jez tori bo'lgan. Uning ikki turi ma'lum: Xuroson va Bag'dod tanburlari. Bag'dod tanburlarining maqomlari kamroq (beshta), cholg'u dastasi kaltaroq bo'lgan. Xuroson

tanburining maqomlari ko'p bo'lgan, dastasida cholg'u bo'g'zidan to dastaning yarmigacha oralig'ida pardalar joylashgan. Tanburning bu turi shu kungacha o'z shaklini yo'qotmay, musiqa ijrochiligi amaliyotida yakkanavoz hamda ansambl cholg'usi sifatida amaliyotda foydalanib kelinyapti.

Forobiy, shuningdek, nayni ham ta'riflaydi. U turli xil damli cholg'ularini ovoz hosil qilishi prinsipiga ko'ra naysimon guruhga kiritadi.

Ulardan biri oddiy nay yoki bir yo'nalishda joylashgan ko'p teshikli nay. Bu turdagi naylar yoki turlicha ataluvchi naylar hozirgi kunda xam Sharq xalqlari orasida mavjud. Uni vetnamliklar sao, tojiklar tutek, tatarlar kaval, qozoqlar sibizga, ozarbayjonlar ney (juda kam uchraydi), qirg'izlar uoo, choor (cho'ponlarning cholg'u asbobi), o'zbeklar nay deb ataydi. Olim ko'pincha tut daraxtidan ishlanadigan keng tarqalgan surnay haqida ham to'xtaladi.

Forobiy, shuningdek, dunay (mizmar)ni ham tilga oladi. Dunay hozirgi qo'shnay yoki turkman xalq cholg'usi gosha-dilli tyuy dyuk (qo'sh qamish naychalardan tuzilgan cholg'u)ga o'xshaydi.

Forobiy risolasida o'zi yashagan davrda mavjud bo'lgan rubobni ham batafsil ta'riflaydi. O'sha davrdagi rubob ham hozirgi Qashqar rubobiga o'xshab, reanator va ancha uzun dastadan tuzilgan. Ikki xil chertma torli rubob mavjud bo'lgan. 1 yog'och dekali va asosiy qismi yog'ochdan, 2 pastki qismi charmdan ishlangan dekali.

Forobiy shahodat berishicha, chang ochiq torlarning tebranishi orqali ohang hosil qiluvchi musiqa cholg'ulari turkumiga kiradi. O'sha davrdagi changning 15 tori bo'lgan, ular diatonik sozlangan va ikki oktava oralig'iga teng tovushqatorga ega bo'lgan. Risolada ta'riflangan barcha cholg'ular ashula, raqs, yakkanavoz va ansambl ijrochiligiga jo'r bo'lishda foydalanilgan. Forobiyning guvohlik berishicha, ud cholg'usi ansambl ijrochiligida yetakchi rol o'ynagan. «Cholg'u asboblari haqida kitob» da olim tanbur, rubob, chang kabi cholg'ularini udda chalinayotgan kuyga yoki yakkanavoz xonandaga uyg'un jo'r bo'lish uchun sozlash usullarini tushuntiradi. Shunday qilib, Sharqning ulug' allomasi musiqa ilmining bir bo'limi sifatida cholg'ularni o'rganuvchi cholg'ushunoslik sohasiga asos soldi. Bu soha keyinchalik boshqa olimlarning asarlarida ham keng boyitildi va rivojlantirildi. Yashagan davriga ko'ra Buyuk olim ibn Sino Forobiyga juda yaqin. Uning "Davolash kitobi" deb nomlangan yirik qomusining "Musiqa haqida risola" bobida o'sha davrning musiqachiligiga oid ilmiy-falsafiy bilimlari bayon etilgan. Bu risolalarda cholg'ular ta'rifiga anchagina o'rin ajratilgan. Ibn Sino o'z davri musiqalarini **ikki guruhga** bo'ladi:

- mizrobl, noxunli (barbod, tanbur, rubob);
- butun reanator qopqog'i bo'ylab tortilgan ochiq torli cholg'ulari (shohruh, chiltor, lira, chang, arfa).

O'sha davrda Sharqning taniqli mutafakkiri Sayfuddin Urmaviy musiqa ilmi tizimi (sistemasini) rivojlantirdi. U usta cholg'uchi, xonanda va mohir bastakor sifatida mashhur edi. Udda olib borgan tajribalariga tayanib, olim o'z nazariy qoidalarini bayon etdi. Urmaviyning "Taqvadorlik kitobi"da cholg'u asboblari ichida ud eng mashhur va eng zamonaviyidir deb ta'kidlaganlar. Udning besh juft tori kvarta tartibidagi 7 ta maqomi (ladi) bo'lgan. Torlari bam, masnas, masna, zir va eng yuqorisi hadd deb atalgan. Besh qo'sh torli takomillashgan ud keyingi paytlarda ham o'z tuzilishini saqlab qolgan. Udning kvartaga sozlangan besh qo'sh tori va yetti maqomi (ladasi) haqida Sheroziy (1236-1311), Jomiy (XV asr), al-Husayniy, Marogiy, Abu Ali ibn Sinolar ham yozishgan. Abduraxmon Jomiyning "Musiqa haqidagi risola"sida keltirilgan ud dastasining to'la chizmasi uni sozlash haqida to'liq tasavvur beradi. Olimning tasdiqlashicha mavjud 12 maqom qadimiy yetuk musiqaning asosidir. Jomiy musiqaning

tinglovchilariga ta'siri haqida to'xtalib, uning chuqur ruhiy va ma'naviy ahamiyati bor, deb hisoblaydi.

XIII-XVII asrlarda yaratilgan risolalarda chang, qonun, nuzxa, rubob, tanbur kabi torli cholg'ular, shuningdek, damli cholg'u nayning ta'riflari berilgan.

Darvish Alining (XVII asrda) Buxoroda yaratilgan musiqaga doir risolasi an'anaviy cholg'ular haqidagi ma'lumot manbai sifatida xizmat qilishi mumkin. Unda musiqa madaniyati, chunonchi, O'rta Osiyoning yirik shaharlarida mavjud bo'lgan cholg'ular hamda mohir ijrochilar haqida nodir ma'lumotlar mavjud.

Darvish Alining risolasi XVI-XVII asrlar O'rta Osiyo musiqasini o'rganish uchun qimmatbaho manbadir. Mazkur asarda mashhur xonanda va cholg'uchilar, bastakorlarning ijodiy tarjimai hollari bayon etilgan.

Darvish Ali o'tmishdoshlari singari, torli mizrobli cholg'ular orasida tebranish ohangiga ko'ra eng yaxshisi sanalgan udn cholg'ular "shohi" deb atadi. Risolada yozilishicha, chang cholg'uchilar homiysi Zuhraga bag'ishlangan.

Ta'riflangan changning yetti maqom ijrosi uchun yigirma olti torli va yetti pardasi bo'lgan. Bulardan tashqari, risolada qonun, rubob, qo'biz, g'ijjak, musiqa, ekbon-nay, (damli, charmli), Xitoyda tarqalgan ruxavza (olti tordan iborat noxunli) kabi cholg'ular ham tilga olingan.

Darvish Ali ta'rif bergan cholg'ulardan yettitasi, tanbur, chang, qonun, ud, rubob, qo'biz, g'ijjak o'sha davrda keng tarqalgan cholg'ular edi.

Darvish Alining ma'lumotlari musiqa amaliyotida dastlab ansamblda uyg'un kalorit hosil qiladigan torli-noxunli va torli -kamonchali cholg'ular qo'llanilganligi haqidagi fikrni tasdiqlaydi. Risolada changchi Dilorom, naychilar Abduqodir va Xo'ja Abudullohlar, Mavlono Qosimi- Rabboniy, Sulton - Ahmadiy - "devona" rubobchilar, aka-uka Shayx Abu - Bakri Rabboniy va Shayx Behduchi, dono qonunchi shayx Shamsi Rabboniy va ko'pgina boshqa mashhur ustalarning nomlari tilga olingan.

Darvish Alining guvohligi yana shunisi bilan qimmatliki, u qayd etgan cholg'ularning kattagina qismi (nay, surnay, chang, qonun, rubob, tanbur, g'ijjak, qo'biz, doira, nog'ora, ud) O'rta Osiyoning hozirgi O'zbekiston, Tojikiston va boshqa respublikalarida, shuningdek, Ozarbayjonda bizning kunlargacha saqlanib keldi va u takomillashmoqda. Ushbu musiqa cholg'ulari uzoq vaqt mobaynida o'zbek xalqining madaniy turmushidan mustahkam o'rin olib, uning madaniy xayotida keng qo'llanib kelingan. Shunday ekan, bu cholg'ularni o'zbek xalq cholg'ulari, deb atash o'rinlidir. Abdul Fazl Boyhaqiy (XIV asr) asarlarida:

- torli mizrobli (rud, barbad, tanbur);

- damli va urma zarbli cholg'ular (karnay, litavra va baraban) singlarlarning nomlari keltirilgan.

Ma'lumki, Sharq adabiyotida o'tmishda shoirlar asarlariga javob yozish («nazira») sistemasi keng qo'llanilgan. Ko'plab «Xamsa» lar ham shu yo'sinda yaratilgan. Navoiy o'zining «Sab'ai sayyor» («Xamsa» dostonlarining biri) dostonida Bahrom Go'r haqidagi qadimiy afsonani, yangicha talqin etdi. Asar qahramoni - chang cholg'uchisi Dilorom deb atalgan. Shoir uning cholg'usini musiqa timsoli sifatida gavdalandirgan.

Zahriddin Muhammad Boburning (1483-1530) e'tirof etishicha, Alisher Navoiy o'z davrida ko'plab ud cholg'uchilarning o'z iste'dodlarini namoyon etishiga ko'maklashgan. «Boburnoma»da o'zbek xalq cholg'ulari ijrochilarining nomlari zikr etilgan. Bobur, shuningdek, Shoh Kulmiy-G'ijjakiy, Husayn Udiy, Xo'ja Abdulloh Marvarid Qonuniy kabi mohir ijrochilarni ham tilga oladi.

Navoiy davrida nay, ud, g'ijjak, qonun, karnay, surnay, nog'ora, doira, chang ijrochiligi keng tarqalgan edi. Ularning hammasi ansambl ijrosida ham, yakka ijroda ham birdek qo'llanilgan. Chang yakka cholg'u sifatida alohida ajralib turgan.

XV-XVII asr yozma yodgorliklari ma'lumotlarini qiyoslab shunday xulosaga kelish mumkinki, bu davrga kelib, O'rta Osiyoda xalq cholg'ularida ijrolik madaniyati o'z kamolotiga yetdi. O'zbek xalq cholg'ulari ijrochilari ayni chog'da o'zlari ham musiqa asarlari yaratganlar. O'sha paytdayoq mohir chang, ud, g'ijjak, qonun, nay, tanbur, bulamon ijrochilari va yetuk xonandalari bo'lgan, ular o'ziga xos ansambllar tuzishgan. Shuningdek, yakkanavoz ijrochilik ham rivojlangan.

Vosifiy o'z «estaliklar» ida treldek ajoyib uslub o'ylab topgan qonun cholg'uchisi Hoji Abdullo Marvarid nomini keltiradi. U bastalagan kuy va qo'shiqlar xalq orasida keng tarqalgan. Shunday qilib, XIV-XVII asr tasviriy san'atida va adabiy merosida ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaluvchi musiqa cholg'ulari asosiy tiplarining barqarorligini tasdiqlovchi boy material bo'lgan.

O'rta Osiyo olimlarining musiqa haqidagi risolalari, badiiy adabiyot, rassomchilik bizning kunlarga yetib kelgan o'zbek xalq cholg'ulari tarixiy taraqqiyotining uzun zanjirdagi ayrim uzilgan halqalarini qaysidir darajada tiklash imkonini beradi. Necha yuz yillar o'tdi, musiqa cholg'ulari esa yakka, ansambl va orkestr ijrochiligida o'z o'rnini egallab, bugungi kungacha yashab kelmoqda. Ota bobolarimiz tomonidan ijod qilinib, tamirlanib hozirgacha qo'llanilib kelayotgan o'zbek milliy cholg'ularimizni yosh avlodga o'rgatish va ularni o'rganish orqali ularda musiqa cholg'ulariga bo'lgan qiziqishni tarbiyalash muxim omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. Toshkent Ma'naviyat nashriyoti 2008 yil.
2. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga quramiz. T: O'zbekiston. 2017yil.
3. Y. Rajabiy. O'zbek xalq musiqasi. Toshkent "Badiiy- adabiyot" nashriyoti 1963 yil.
4. Т.Е.Соломонова. *Ўзбек музикаси тарихи*. –Т.: “Ўқитувчи” нашриёти. 1981-йил.
5. *Низомий номли ТДПУ (Рес.илм.анжуман). Узлуксиз таълим тизимида музика фанларини ўқитиши масаласи*. –Т.: 2009-йил.
6. O. Fayziyev. Musiqa o'qitish metodikasi Toshkent 1997 yil.
7. G. A. Gudkova, A. B. Vasileva Ashula darslari metodikasi Toshkent "O'qituvchi" nashriyoti 1993 yil.
8. Y. Rajabiy. O'zbek xalq musiqasi. Toshkent "Badiiy- adabiyot" nashriyoti 1963 yil.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Qarori G`G`Ta'lim tarakkiyoti jurnali ., 2004. 5-son.
10. O'zbekiston Respublikasi XTVning «Pedagog kadrlarni kayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi 149-sonli buyrug'i G`G` «Ma'rifat» gazetasi. - T.: 2006 yil, iyun.

TARBIYA JARAYONIDA TALABALARGA INDIVIDUAL YONDOSHISH

*Sh.N. Rahimov, Nizomiy nomidagi TDPU
"Ijrochilik mahorati va madaniyati" kafedrasida dotsenti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarbiya jarayonida talabalarga individual yondoshish haqida soʻz boradi.

Kalit soʻzlar. Musiqa, talaba, taʼlim, tarbiya, individuallik, mahorat, kamchilik, vazifa, mashq, asar, mashgʻulot.

Talabalar mustaqil izlanishi va mustaqil ishlashi zarur, berilgan mustaqil mavzularni, vazifalarni birma-bir koʻrib chiqishi kerak. Musiqada qolaversa boshqa soxalarda ham mustaqil tayyorlanishi bejizga emas. Milliy cholgʻularni yaʼni orkestr ansambl jamoalarini misol qilib olsak partitura va partiyalar nota yoʻllari mavjud, shu nota yoʻllarini yodlash zarur. Oʻqituvchisining koʻrsatma va fikrlariga koʻr- koʻrona ergashib boʻysunishi emas, balki biror masala yuzasidan oʻzining shaxsiy munosabatini ijro orqali bildirishi kerak.

Oʻqituvchi rahbarligida oʻtiladigan darsning ahamiyati katta, lekin bu ish oʻquvchining mustaqil ishlari muhimligini inkor etmaydi, Oʻquvchining mustaqil mashgʻulotiga sarf boʻlayotgan vaqtini bekor oʻtkazmasligini oʻrganib borish kerak. Buning uchun oʻquvchiga mustaqil mashgʻulotni qanday tashkil qilish, nimalarga koʻproq eʼtibor berish kerakligini tushuntirish lozim. Vaqtdan ratsional va unumli foydalanish mustaqil ishlash asosi prinsiplaridan biri boʻlishi zarur.

Asosiy prinsiplaridan yana biri mashgʻulotning muntazamligidir. Ijroni oʻrgatishning dastlabki davridan boshlab oʻquvchida muntazam mustaqil ishlashni koʻnikmasini hosil qilish zarur. Odatda, muntazamlikka erishish qiyin boʻlsa ham, bunday mashgʻulotlar asta-sekin odat tusiga koʻrib borishi maqsadga muvofiqdir.

Baʼzi oʻquvchilar mustaqil mashgʻulot paytida berilgan musiqa asarini boshidan oxirigacha koʻp marotaba takrorlayveradilar. Bunda musiqa asarining maʼnosini va oʻziga xos xususiyatlari toʻla va aniq tahlil qilinmaydi. Asar oʻquvchi oldida ijro etib bera olish uchungina yuzaki takrorlanadi.

Ayrim oʻquvchilarning uyga berilgan vazifani tayyorlay olish hollarini ham uchratamiz. Buning sababini bir soʻz bilan tushuntirish qiyin. Lekin koʻp hollarda uy vazifasi tayyor emasligining sababi oʻquvchining darsga boʻlgan yomon munosabati yoki dangasaligida emas, balki vazifani oxirigacha tushunib etmasligi, musiqa asarini oʻrganishga qanday yondoshish kerakligini bilmamasligidadir. Shu sababli mustaqil ishlash uchun berilayotgan vazifa oʻquvchiga batafsil tushuntirilishi, oʻquvchining imkoniyatlarini hisobga olgan holda aniqlashtirilishi lozim.

Mustaqil shugʻullanishdagi mashgʻulotlarning kamchiliklaridan yana biri oʻquvchilar vazifani tayyorlash jarayonida oʻz ijrolarini nazorat qila olmasliklaridir. Masalan, musiqa asarining teksti yod olinishida biror nota notoʻgʻri oʻrganiladi va buni oʻquvchining oʻzi sezmaydi. Yoki maʼlum bir ijro usuli notoʻgʻri bajariladi va bu ham oʻquvchining nazaridan chetda qoladi. Bunday kamchilik dars paytida oʻqituvchi tomonidan bartaraf etiladi. Ijro paytida oʻzining harakatlari, tovushlarning toʻgʻriligini nazorat qilish koʻnikmasi oʻquvchilarda oʻz-oʻzidan paydo boʻlmaydi, balki reja ravishda olib borilgan mashgʻulotlar evaziga erishiladi. Oʻz-oʻzini nazorat qilishning ijrochi uchun ahamiyati juda katta u orqali ijrodagi kamchiliklarga barham berish mumkin.

Mustaqil mashg'ulot qanday tuzilishi kerak va nimalardan iborat bo'ladi? Yuqorida aytib o'tganimizdek, mustaqil mashgulot uchun berilgan vazifa qanchalik aniq, bo'lsa, o'quvchining vazifasi shuncha osonlashadi. Mustaqil mashg'ulot qanday kechishidan qat'i nazar, uni ma'lum reja asosida olib borish yaxshi natija beradi. Quyida mustaqil mashg'ulotlarning tahminiy tuzilishi va vaqtini keltiramiz:

1. Gamma, uch tovushliklar va turli mashqlarni ijro etish 10-15 daqiqa.
2. Yangi berilgan vazifani o'zlashtirish 15-20 daqiqa.
3. Dam olish uchun 5 daqiqa.
4. Oldin o'rganilgan vazifalarni takrorlash 20-25 daqiqa.

Keltirilgan vaqtlar me'yori taxminiy bo'lib, uni belgilashda o'quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda vazifalar hajmining kattalikligiga qarab kamaytirish yoki, aksincha, ko'paytirish mumkin.

Mustaqil mashg'ulot uchun keltirilgan taxminiy vaqtning jami 45-60 daqiqani tashkil etyapti. Bu bir qarashda kamdek ko'rinishi mumkin. Ammo mashg'ulotlar muntazam ravishda davom ettirilsa, ko'zlangan natijaga bema'lol erishish mumkin.

Musiqa asarini yod olishni har bir sozanda qobiliyati va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiradi. Bu borada hamma uchun yagona ko'rsatma bo'lishi qiyin. Ba'zi sozandalarda tekstni ko'rib eslab qolish qobiliyati kuchliroq bo'lsa, boshqalarida eshitib eslab qolish qobiliyati kuchli. Shu sababdan ham asarni yod olish ishida ularning metodlari turlicha bo'ladi. Muhimi, musiqa asari qaysi bir metod bilan yod olinishidan qat'i nazar, u sozandaning yodida mustahkam o'rnatilgan qolishidir.

Hozirgi paytda o'quv yurtlaridagi o'zlashtiriladigan ma'lumotlar miqdorining ortib borishi, kam vaqt sarf qilib ko'proq natijaga erishishni taqozo etadi.

O'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlari muvaffaqiyatli bo'lishiga o'qituvchi rahbarligida sinfdagi darsni shu mustaqil mashg'ulotga yaqinlashtirib o'tish yordam beradi. Bunda o'quvchi barcha vazifalarni mustaqil bajaradi va o'qituvchi kerak bo'lgandagina o'z ko'rsatmalarini beradi.

O'qituvchining mustaqil mashguloti kunning qaysi vaqtiga mo'ljallanishi kerak? Bunday mashgulot vaqtini belgilash o'quvchining kun tartibiga bog'liq. Agar o'quv yurtidagi mashg'ulotlar asosan kunning birinchi yarmida bo'lsa, mustaqil mashg'ulot kunning ikkinchi yarmida o'tkaziladi. Muhimi, mustaqil mashg'ulot har kuni bir vaqtda o'tkazilishi.

Uy vazifasini bajarishning bir qator muhim tomonlari bo'lib, bularni o'quvchi esda tutishi zarur. Shulardan ba'zilarini ko'rib chiqamiz: Musiqa asari o'quvchi tomonidan avvalo to'g'ri tushunilishi, ya'ni asar mohiyati to'g'ri ochilishi asosiy vazifa qilib qo'yilishi kerak. Oldin aytib o'tilganidek, asar ma'nosini to'g'ri tushinishda ijro uslublarining tanlashishi, belgilarga rioya qilish, applekaturaning to'g'ri qo'yilishi kabi masalalar muhim ahamiyatga ega.

O'quvchining mustaqil mashg'ulotlari paytida uning diqqat-e'tibori albatta biror konkret vazifani bajarishga qaratilishi kerak. Aks holda mashg'ulot quruq ma'nosiz kechib, hech qanday natijaga erisha olmaslik mumkin. Ba'zi o'quvchilar musiqa asarini o'zlashtirish davrida nota tekstiga ko'proq e'tibor berib, ijroning ifodali bo'lishi kerakligini unutib qo'yadilar. Shu kamchilikning oldini olish maqsadida o'quvchilarning diqqat markazida doimo ijroni ifodali bajarish vazifasi turishi shart. Boshqacha aytganda, o'quvchilar asar tekstini o'zlashtirishga qancha kuch sarf qilishsa, ijroning ifodali chiqishiga ham shuncha e'tibor berishlari kerak.

O'quvchi biror xatoga yo'l qo'ygani paytda, shu bo'lakni vazmin tezlikda diqqat bilan qayta takrorlashi kerak. Shunda yo'l qo'yilgan xatoning sababini to'g'ri aniqlab, shu xatoga boshqa yo'l qo'ymaslik choralarini ko'radi. O'quvchilar ijrosidagi xatolar ham bir-biridan farq

qiladi. Ayrim holatlarning qaytarilishi o'quvchilarda odat tusiga kirib, asarning ma'lum qismida hato deyarli har safar takrorlanaveradi. Bunga sabab toto'g'ri tanlangan applikator, ijro usuli yoki boshqa bir kamchilik bo'lishi mumkin. Bunday xatolarning kelib chiqish sababini to'g'ri aniqlash uni bartaraf etishning garovidir. Xatolar tasodifiy xarakterga ega bo'lsa ham, ularga yo'l qo'ymaslik lozim. Xatolar qanday bo'lishidan qat'i nazar o'quvchi o'zining mustaqil mashg'uloti paytida ularni bartaraf etish choralarini topishni o'zining asosiy maqsadlaridan biri qilib qo'yishi kerak.

Cholg'u ijrosi bilan shug'ullanish natijasida o'quvchi ham aqliy, ham jismoniy charchashi sababli uning dam olishiga bir oz vaqt ajratilishi kerak. Aks holda ijroning sifati yomonlashib, xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilishi mumkin.

Insonlar individual xususiyatlari bilan bir-biridan farq qilishi ma'lum. Mutlaqo bir xil xususiyatli odamlar bo'lmaganidek, har bir o'quvchining xususiyatlari ham o'ziga xos va takrorlanmasdir. Ta'lim - tarbiyaning talablari esa barcha o'quvchilar uchun yagona bo'lib qolaveradi. Samarali natijaga erishish uchun o'quvchilarga nisbatan pedagogik vositalarni qanday qo'llash kerak? Ta'lim ishida o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, shu xususiyatlar asosida ishni tashkil etish yuqoridagi savolga ma'lum darajada javob bo'lishi mumkin.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarga individual yondashish muammosi ijodiy xarakterga ega. Bu jarayonning har bir bosqichiga oldindan aniq ko'rsatma berib bo'lmaydi. Pedagogikada tarbiyalanuvchilarga individual yondashish masalasi ta'lim -tarbiya ishining barcha bo'g'inlarini o'z ichiga oladi. Individual yondashishning mohiyati o'quvchi oldiga qo'yilgan umumiy tarbiya vazifasining har bir o'quvchiga, uning barcha xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagogik ta'sir ko'rsatish orqali amalga oshirilishidir.

Amalda xulqi, xarakteri, salohiyati turlicha bo'lgan o'quvchilarni uchratish mumkin. Bazi o'quvchilarning qobiliyatlari yoshlik chog'laridanoq sezilsa, boshqalarida qobiliyatni aniqlash ancha vaqt talab etadi. Ayrim o'quvchilar sho'x, o'yinqaroq bo'lib, ko'p narsaga qiziqsalar, boshqalari vazmin, bosiq bo'ladilar. O'quvchilarning xarakter va xulqlari qanday bo'lishidan qat'iy nazar ularga o'qituvchining e'tibori talab etiladi.

O'quvchilarga individual yondashish birinchi, navbatda ularda ijobiy sifatlarni mustahkamlash va salbiylarini yo'qotishga qaratiladi. O'quvchilarning salbiy sifatlarni o'qituvchi vaqtida sezib, bartaraf etish choralarini ko'rishi, kelajakda o'quvchini qayta tarbiyalashdek qiyin ishning oldini oladi. Tarbiyada individual yondashish samaradorligini oshirishda o'quvchi xarakteridagi ijobiy sifatlarga tayanish foydali, degan fikr avvaldan ma'lum. Masalan, cholg'uni o'rganayotgan o'quvchida biror usul boshqalariga nisbatan yaxshi rivojlangan deylik, Repertuar

tanlashda o'qituvchi o'quvchining xuddi shu sifatlarni hisobga olishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu o'quvchidagi kamroq rivojlangan

sifatlarga e'tiborsizlik bilan qarash, degani emas. Aksincha, o'quvchilardagi ijobiy sifatlardan unumli foydalanish ularda kamroq rivojlangan sifatlarni ishga solish va mukammallashtirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh. M. Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent "O'zbekiston"-2017 y.
2. H.Nurmatov. Qashqar rubobi. Toshkent. 2003 y.

O'QUVCHILARGA MILLIY MA'NAVIYATIMIZNI SINGDIRISHDA MUSIQA MADANIYATI PREDMETINING O'RNI

*Raimjonov Sunnatulla O'ktamovich,
JDPU, Musiqa ta'limi kafedrasikatta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek xalq musiqa merosi, tarixiy taraqqiyoti, ilm-fan, adabiyot, san'at va madaniyatga o'lgan hissa qo'shgan buyuk allomalar, madaniyat va ma'rifat bilan bevosita bog'liq fikrlar, mustaqillik haqidagi g'oyalar va tushunchalar, musiqa madaniyati fanini o'qitish, o'quvchilar ongiga milliy ma'naviyatni singdirish, ma'naviy-estetik tarbiyalash, axloq-odobga o'rgatishga doir fikrlar, olimlarning tadqiqotlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Musiqa madaniyati predmeti, ilm-fan, adabiyot, san'at, madaniyat, ma'naviy-estetik tarbiya, voqelik, nazariyot, tarixiy, jarayon, musiqa taraqqiyoti,

Milliy tiklanish juda keng, chuqur, murakkab tarixiy jarayon bo'lib, u millatimiz hayotining hamma sohalarini-iqtisodiyotini, siyosatini, ma'naviyatini, ilm fan, til tarix, urf-odatlar, hunarmandchilik, me'morchilikni ham, inson kamoloti bilan bevosita daxldor barcha masalalarni ham qamrab oladi.

Milliy ma'naviyatimiz rivojida musiqa ham muhim o'rin tutadi. Milliy musiqa san'atining eng qadimiy va shu bilan birga, xalq ommasiga keng tarqalgan, uning turmushiga chuqur singib ketgan sohalardan biridir. Musiqa ham real voqelikni aks ettiradi. Musiqaning milliy ma'naviyatimizga ta'sir kuchi shu qadar kattaki, uning yordamida bemorlarni davolash mumkinligini fan allaqachon isbot qilgan.

Abu Ali Ibn Sino musiqaning ta'sir kuchiga katta ahamiyat berib, ayrim ruhiy kasalliklarni musiqa kuylari vositasi bilan davolash mumkin degan fikrni ilgari surgan edi. Buyuk faylasuf Abu Nasr Forobiy «Musiqa al-kabr » kitobi⁴⁵da, musiqa nazariyasi ohanglarining turlari, kelib chiqish sabablari, kishiga ma'naviy, ruhiy ta'siri haqidagi qimmatli fikrlarini bildirgan. Forobiy musiqa ilmida faqat nazariyotchi bo'lib qolmay, amaliyotchi ham bo'lgan. Uning o'zi taniqli musiqachi, ajoyib sozanda va bastakor, yangi musiqa asbobi ixtirochisi sifatida ham shuhrat qozongan. Musiqaning ajoyib sehrli kuchi, mo'jizakor ta'siri haqida fikr yuritib, Forobiy «Ilmlarning kelib chiqishi to'g'risida» asarida shunday deydi: «Bu ilm shu ma'noda foydaliki, u o'z muvozanatini yo'qotgan odamni tartibga keltiradi, mukammallikka etmagan xalqni mukammal qiladin va muvozanatini saqlab turadi». Xususan, milliy madaniyatda musiqa yuksak tuyg'ular, zavq - shavqli g'oyalar olamini ochib beradi. Odamlarni ma'naviy jihatdan boy, sof barkamol qiladi. Bola hali qo'lga qalam ushlashni, o'qib yozishni bilmagan vaqtdayoq musiqani his qila oladi. Ko'pincha shu dastlabki taassurotlar musiqaga bo'lgan munosabatlarning shakllanishiga ta'sir qiladi. Shuning uchun umumiy ta'lim maktablarini isloh qilishning asosiy yo'nalishlarida musiqa ta'limiga ham e'tibor berilgan.

Musiqa, avvalo, bolalarning his-tuyg'ularini mayinlashtiradi. Musiqa asarlarini his etish kabi ularda ko'pgina insoniy fazilatlarni uyg'otadi. Albatta, insoniy fazilatlarni kamol toptirishda adabiyot, tarix, sport va boshqa sohalar katta o'rin tutadi. Binobarin, nazm va musiqa doimo yonma- yon yashaydi. Tabiat taassurotlari ostida tug'iladi, qolaversa, bog'cha va maktabda shakllanib boradi. Musiqa darslari o'quvchilarni faqatgina nafosat jihatdan emas, balki keng ma'noda ma'naviy- axloqiy jihatdan ham tarbiyalaydi. Avloddan- avlodga o'tib kelayotgan, ne-ne zamonlar zayliga bardosh berib, xalqning orzu-armonlari, o'y-intilishlarini

⁴⁵ Abu Nasr Forobiy «Musiqa al-kabr » kitobi

mujassam etgan kuy-qo‘shiqlarimiz, maqomlarimiz barcha turdagi maktablar, pedagogika institutlari dasturlaridan kengroq joy olsa yaxshi bo‘lar edi. Keyingi yillarda qabul qilingan ta‘lim to‘g‘risidagi hujjatlarda (musiqa ta‘limi va tarbiyasi konsepsiyasi, umumiy ta‘lim standartlari, musiqa madaniyati fanining yangi dasturi) musiqa ta‘limi va tarbiyasida o‘zbek xalq musiqasi, musiqiy meros (maqomlar, maqomlar tipidagi rivojlangan mumtoz kuy va ashulalar, katta ashulalar, dostonlar va musiqiy folklor) namunalaridan keng foydalanish va shu yo‘l bilan qadimiy madaniy musiqiy qadriyatlarimizni tiklash nazarda tutilgan.

Musiqa madaniyati fani yangi dasturida qisman kuylash va asosan tinglash uchun tavsiya etilgan og‘zaki an‘anadagi kasbiy musiqa namunalari dars va sinfdan tashqari ishlarda o‘rganilib, bu borada tayyorlash jarayonida turli fanlar (maqomlar asosi, o‘zbek musiqasi tarixi, ashulachilik yoki ovozxonlik, dirijyorlik, asosiy va qo‘shimcha musiqa asboblari, maktab musiqa repertuarini o‘rganish va boshqalar) ni o‘rganishdavomida ham qo‘llanilmoqda.

Musiqa ta‘limi va tarbiyasi dasturi, shuning bilan birga shu darslarnig mazmuni va keskin o‘zgardi, rus va Evropa musiqasini birmuncha qisqartirish yo‘li bilan bir qancha milliy musiqani o‘rganishga qo‘l keladigan yangi fanlar kiritildi. Buning natijasida darslarning tarkibiy qismi, mavzulari va usuliyotida ham o‘zgarishlar bo‘ldi.

Bu o‘zgarishlar bundan keyin milliy ma‘naviy qadriyatlarimizni o‘rganish, qadimiy an‘analarni tiklashga yo‘l ochish bilan bir qatorda bir qancha muammolarni kelib chiqishiga ham sabab bo‘ldi. Masalan, endilikda hamma musiqa muallimlari milliy mumtoz, kasbiy musiqa va folklor namunalarini o‘rganishlari zarur. Buning uchun avvalo musiqa darsliklari, tinglash uchun yozuvda musiqa namunalari to‘plamlari va usuliyotiga oid materiallar bo‘lmasa, bu murakkab musiqa namunalarini talab darajasida o‘zlashtirishni ta‘minlab bo‘lmaydi.

Musiqa madaniyati fani o‘quvchilarning ma‘naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g‘urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didini o‘stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi

Barcha fanlar qatori musiqiy ta‘limda ham davlat ta‘lim standartining joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to‘laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular bolalar ommaviy xalq kuy va qo‘shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlarida o‘z aksini topdi. Musiqa san‘atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalash, ularning barkamol bo‘lib etishishlarida o‘ziga xos va takrorlanmas manba bo‘lib xizmat qiladi.

Azaldan Sharq jumladan, o‘zbek musiqa ta‘lim-tarbiyasi pedagogika va uning mukammal uslubiyotlari ustoz va shogird an‘analari misolida takomillashib borgan. Shu bois musiqa madaniyati ta‘limning yangi mazmuni yosh avlodni milliy musiqiy merosimizga vorislik qila oladigan, umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga etkazishni nazarda tutadi. Xor bo‘lib kuylash murakkab psixologik-fiziologik jarayon hisoblanadi. Musiqa madaniyati darslarida vokal-xor ishlari, o‘quvchilarni ahloqiy-estetik tarbiyasi o‘qitishning eng faol shaklidir. Xor bo‘lib qo‘shiq kuylash o‘quvchilarning diqqat e‘tiborini kuchaytiradi, xotirasi, nutqi rivojlaniradi, ovoz diapazoni kengayiradi, musiqiy o‘quvi o‘stiradi, mutatsiya davri engil o‘tadi, dunyoqarashi yildan-yilga shakllanib boradi.

Zamonamizning zabardast yozuvchisi, jahonga mashhur adib Chingiz Aytmatov «Kunda» romanida yozadi: «hayot, o‘lim, muxabbat, shavq va ilhom hammasini musiqa aytadi, zotan, biz musiqa vositasida eng oliy hurlikka erishamiz, bu hurlik uchun ongimiz yorishgan

zamonlardan boshlab, butun tariximiz davomida kurashganmiz, lekin unga musiqadagina erishganmiz».⁴⁶

Milliy musiqa atrofdagi hodisalarni go'zallikni idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi, nozik did va hur fikr bilan qurollantiradi, ma'naviy olamni kengaytiradi. Shu bois musiqani tilsiz falsafa deb bejiz aytishmagan. Musiqa inson qalbini yumshatishi, unda iymonga dalolat etuvchi mehr-muxabbat va rahmdillik tuyg'ularini uyg'otishi mumkin. Shu bilan birga, maqomlar mazmunida buyuk davlat mafkurasiga muvofiq bo'lgan tasavvuf ta'limoti g'oyalarni badiiy ifoda etish vazifasi ham qo'yilgan. Tabiiyki, ushbu murakkab ilmiy masalalarni tadqiq etish har tomonlama etuk musiqashunos olimlar zimmasiga yuklatilgan.

Milliy istiqloq tufayli musiqa ijodiyoti siyosiy-mafkuraviy tazyiqlardan xalos bo'ldi, tom ma'nodagi ijod erkinligi uchun imkoniyat tuzildi. Ayniqsa, har qanday milliylik inkor etilgan mustabid sovet davrida allomalarimizdan Abu Nasr Forobiy, Abduraxmon Jomiy, Darvishali Changiy kabi buyuk zotlarning qoldirgan boy ma'naviy merosini keng o'rganish imkoniyatlari cheklangan edi. Bundan tashhari, mustaqilligimizgacha Frantsiya poytaxti Parij shahrida muntazam o'tkazib kelingan «Sharq musiqasi» festivalida hamyurtlarimiz qatnasha olmas edilar.⁴⁷

Bugun esa, vaziyat tamoman o'zgardi. O'tkazib kelinayotgan qator xalqaro musiqa festivallari, respublika yosh san'at ixlosmandlarining iste'dodlarini yoritishda o'lgan ahamiyatga ega bo'layotgan "Sharq taronalari" Xalqaro musiqa festivali, «Nihol», «Kelajak ovozi», «Besh tashabbus» singari nufuzli tanlovlarning yosh iste'dodlarni dunyoga tanilishiga muhim omil bo'lib xizmat qilayotgani ayni haqiqatdir.

«Shashmaqom»dek buyuk durdonani kelajak avlodga etkazib borish aynan bugungi kun san'atkorlari, sozanda va xonandalariga bog'liq ekanligi uqtirib o'tilgani bejiz emasdir. Zero, bugungi kunda ayrim yosh «san'atkorlar»ning harbnig taloto'p musiqalarini targ'ib qilib, bu bilan yoshlarning ma'naviy olamida bo'shliq paydo qilayotganligi xavfli holatdir. Vaholanki, Amerika qo'shma Shtatlarida tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar Sharq, hususan, «Shashmaqom» tarkibiga kiruvchi musiqalar insonlarni ezgulikka etaklovchi omillardan biri ekanligi yana bir bor isbotlab beradi.

Gap shundaki, yirik tug'ruq uylaridan birida qiziq tadqiqot o'tkazilgan. Unga ko'ra chaqaloq va onalar yotgan xonalarda dastlab «Shashmaqom»dan o'rin olgan mumtoz kuylarni eshittirib borganlar. Natijada onalarning kayfiyatlari yaxshi bo'lib, chaqaloqlariga mehri oshgan, chaqaloqlar ham osuda, tinch orom olganlar, eng qayratlanarlisi, onalarning farzandlariga mehri ortib, hatto, ona suti ko'paygan.

Ma'lum vaqt o'tgach xuddi ana shu xonalarda yana musiqa sadolari yangragan, faqat bu safar harbnig shovqin-suronga boy, baqiriq-chaqiriqdan iborat musiqalari eshittirilgan. Natija tadqiqotchilar kutgandek bo'ldi, ya'ni, onalar va chaqaloqlarning holati salbiy tomonga o'zgargan, ularning asablari buzilgan va hatto onalarning suti qolish holati kuzatilgan. Bunga o'xshash misollarni juda ko'plab keltirish mumkin. Biz uchun axloqiy jixatdan noma'qul, milliy qadriyat va qarashlarimizga yot bo'lgan, lekin hozirgi vaqtda hayotimizga kirib borayotgan mana shunday ko'rinishlarni bamisoli yuqumli kasallik deb qabul qilishimiz lozim.

Darhaqiqat, komil inson tarbiyasida musiqiy tarbiyaning naqadar ulkan omil ekanligi yanada ayon bo'lib bormoqda. Shunday ekan, o'sib kelayotgan yosh avlodni boy musiqiy

⁴⁶ Chingiz Aytmatov Qiyomat (Kunda) T-2018 yil.

⁴⁷ S.Yo'ldasheva. O'zbekistonda musiqa tarbiyasi va ta'limining rivojlanishi. Darslik, Toshkent, "O'qituvchi" nashriyoti, 1985 yil

merosimizni o`rganishga, engil-elpi, tumtaroq ohanglardan qochib, ulrning badiiy didini, musiqiy madaniyatini ko`tarishga, ma'naviy olamini kengaytirishga harakat qilmog`imiz kerak. Bu borada «Shashmaqom» singari milliy merosimizning noyob durdonalari bilan bir qatorda jaxon tan olgan Motsart, Betxoven, Bax, Chaykovskiy, Raxmaninov, Xachaturyan kabi buyuk kompozitorlarning durdona asarlarini ham o`z vaqtida o`rgatib, tushuntirib borishimiz zarur. Biz qadimdan butun dunyoga o`z donishmandligi bilan dovrug` solgan buyuk Vatanning bugungi avlodlarimiz.

Shunday ekan, bobolardan qolgan buyuk yodgorliklar, madaniy va ma'naviy merosimizni avaylab asrashimiz, komil inson tarbiyasida musiqa san'atining eng nodir durdonalaridan to`laqonli foydalanmog`imiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh. M. Mirziyoyev. Yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus. 19.03.2019 yil.
2. Sh. M. Mirziyoyev. "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi №112-sonli Qaror. 02.02.2022 yil.
3. Yu. Rajabiy Musiqa merosimizga bir nazar. T. "G'ulom" 1978 yil.
4. R. Tursunov "Havaskorlik ashula va raqs ansambllari bilan ishlash usullari".
5. Toshkent 1991 yil. 32-b.
6. R. Ne'matov "Davrim sadosi". Toshkent -1990 yil 30-b.
7. H. Nurmatov "O'zbek xalq musiqasi". Toshkent-1996 yil 28-b .
8. S. Jumayev "Sozlar sadosi". Toshkent-2001 yil 38-b.
9. R. Tursunov Ashula va raqs ansambli bilan ishlash uslubiyoti. T. 2002 y 33-b.
10. A. Odilov. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi. Toshkent-1995y 44-b .
11. Abu Nasr Forobiy «Musiqa al-kabr» kitobi-T. 1989 y.
12. O. Matyoqubov. "Maqomot". Toshkent -2004 yil 36-b.
13. A. Hasanov "Musiqa va tarbiya" Toshkent-1993 yil. 28-b.
14. Dastur "Musiqa tarbiyasi metodikasi" Toshkent-1997 y. 18-b.

MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA "MUSIQA SAVODXONLIGI" FAOLIYATINING AHAMIYATI

*Teshaboyeva M.R. Nizomiy nomidagi
Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti 3- kurs talabasi
Ibraximjanova G.A. Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat
Pedagogika Universiteti katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada maktab o'quvchilarining ongli musiqiy faoliyatining asosi sifatida musiqiy savodxonlik muhimligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlari: musiqa, musiqiy savodxonlik, notali matn, musiqa darsi, faoliyat, nota yozuvlarini o'qitish metodikasi.

Keyingi yillarda ta'lim va barcha sohalarni yuqori darajaga ko'tarish borasida ko'pgina qaror va farmoishlar chiqarilmoqda. Jumladan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi [4] qarorida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida: milliy musiqa cholg'ularidan

kamida bittasida kuy ijro etish mahoratiga ega bo'lish majburiy hisoblanilgan. Ma'lumki, musiqa jamiyat hayotida muhim rol o'ynaydi. Musiqa insonning turmush tarzi va ijtimoiy hayotida, mehnat va dam olish chog'larida albatta ishtirok etadigan bo'lib, kishini ma'naviy qadriyatlarga erishtiradigan noyob vositadir. U shaxsning ma'naviy olamini, axloqiy maqsadlarini shakllantiruvchi estetik tarbiyaning samarali quroli hisoblanadi. [1;3]. Buning uchun musiqiy nazariy bilimlari yuqori bo'lgan malakali musiqa o'qituvchilarni tarbiyalab yetishtirish davr talabidir.

Mazkur davr talabiga javob beradigan, o'zida ma'naviy boylikni, ahloqiy poklikni mujassamlashtirgan ijtimoiy jihatdan faol bo'lib har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirish vazifasini hal etishda musiqa madaniyati fanining musiqa savodi faoliyati muhim vositalardan biridir. Bo'lajak musiqa o'qituvchilariga puhta bilim berish va ularni amaliy jihatdan yaxshi tayyorlash nihoyatda muhim ekanligi ko'zda tutilgan xoldagina yetuk musiqa o'qituvchisi darajasiga yetishish mumkin bo'lib, umuman barcha musiqiy fanlar: Musiqa o'qitish metodikasi, xor, maqom, cholg'u ijrochiligi, vokal ijrochiligi, va boshqa fanlardan olgan bilim va malakalar natijasida yuqori malakali musiqa o'qituvchilari yetishib chiqadi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilari uchun "Musiqa nazariyasi" fani eng asosiy fanlardan biri hisoblanadi. Biz bilamizki musiqaning mazmuni hayot taasurotlarini tovushlar orqali ifodalangan fikr va his tuyg'ulardir. Musiqani ifoda etish vositalari – musiqaning elementlari deb atalib, musiqa elementlari va ularning o'zaro bog'lanishlari haqidagi boshlang'ich fan musiqaning elementar nazariyasi fanidir. Bu fan musiqaning elementlari haqida ta'lim berish bilan bir qatorda o'quvchilarning barcha musiqiy fanlar bo'yicha o'tiladigan darslariga yordam berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Bu esa musiqa nota matnini ongli o'zlashtirishga imkon beradi. Barcha musiqa fanlari: solfedjio, garmoniya, amusiqa asarlari tahlili, o'zbek xalq musiqasi ijodi, musiqa tarixi, xor va xorshunoslik, dirijyorlik, cholg'u hamda vokal ijrochiligi, an'anaviy qo'shiqchilik va boshqa hamma musiqiy fanlar "Musiqa elementar nazariyasi" fani bilan chambarchas bog'liqdir.

Talabalarining bu fandan olgan nazariy bilim va ko'nikmalariga asoslanib musiqa asarini tahlil qilishda talabalar oladigan elementar bilim va eshitish ko'nikmalari mutaxassisligi bo'yicha mustaqil ishlashiga, maktab o'quvchilariga musiqa asarini ijro etayotganlarida uning mazmunini to'g'ri ochib berishga yoki o'quvchilar yangi asarni nota o'qib o'rganayotganiga yordam beradi. Chunki cholg'u sozlarida o'zlashtirilgan nazariy tushunchalarni amalda sinab ko'rishga imkon yaratiladi. [2;282]. Musiqaning elementar nazariyasi fanini o'rganish amaliy jihatdan tegishli yordam berishi uchun undagi asosiy qoidalarni har tomonlama chuqur o'zlashtirish zarurdir.

Zamonaviy musiqiy ta'lim sohasida kuy-ohanglarni nota matnlaridan aytishni, yani solfedjio qilib kuylashni o'rganish alohida ahamiyatga ega. Solfedjio fani musiqiy eshituv qobiliyatini rivojlantiruvchi fan bo'lib, musiqa nazariyasi fani bilan bog'liqdir va musiqa nazariyasidan olingan bilimlarga tayangan holda amaliy mashg'ulotda olib boriladi. Nota bilan kuylash jarayonida eng avvalo intonatsion aniqlikka va musiqiy matnni to'g'ri ijro etishga erishish lozim. Solfedjio darslarida nota bilan kuylash usullari hilma-hil, ya'ni o'tilayotgan kuylarni alohida-alohida yoki guruh-guruh bo'lib kuylash, kuyning bir qismini bir kishi kuylasa ikkinchi qismini ikkinchi birlari cholg'usiz kuylash mashqlarida esa o'quvchi mazkur kuyning tonalligini saqlab qolishga, ritm va o'lchovini o'zi mustaqil ravishda to'g'ri olib borishga intiladi va muvaffaq bo'ladi. Ikki ovoqlik asarlarini ijro etishda esa har bir ovoz partiyasini aytayotgan o'quvchi o'zi ijro etyotgan partiyani to'g'ri, tiniq, sof ijro etishga intilishi bilan birga

boshqa ovoz partiyasini ham eshitib ulguradi. Kuyni nota bilan aytishga dinamik ko'rsatmalarga amal qilib kuylashida nazariy bilimlarga tayanadi.

Solfedjio darsi jarayonidagi barcha mashg'ulot bo'limlari: nota bilan kuylash, melodik va ritmik diktantlar yozish, turli garmonik tuzilmalarni tuzish va tahlil qilish, alohida pog'onalarni kuylash, tanish bo'lmagan nota matnini tahlil qilib jo'rsiz mustaqil kuylash va boshqa turli ish shakllari jarayoni o'quvchilarning musiqiy idrokini, qobiliyatini shakllantirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Nota bilan kuylash jarayoni har bir o'quvchida ichki musiqiy eshituv qobiliyatini ham rivojlantirib boradi, yakka ijro paytida mustaqil, to'g'ri, sof kuylashga intilib, kuylash malakasi oshib borar ekan musiqiy idrok ham shakllanib boraveradi.

Umumta'lim maktab musiqi darslarida musiqi savodxonligiga oid tushunchalarni shakllantirish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Musiqiy savodxonlik faoliyati jarayonida o'quvchilarning musiqiy tafakkuri, tasavvur va musiqiy dunyoqarashi shakllanadi. Bu faoliyat turida musiqaning yaratilish tarixi, musiqaning ifoda vositalari – kuy, ritm, metr, tembr, lad, akkord, temp, tovushlar uzunligi va balandligi [3], musiqi ijodkorlari, ijrochilari haqida bilimga ega bo'lish bilan birga, o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlari va qiziqishlari, musiqiy-estetik didi va ehtiyojlari ham shakllantiriladi, shubhasiz. Ammo, keyingi o'n yilliklarda umummusiqiy ta'lim tizimida nota yozuvlarini o'rgatish pedagogik faoliyatdan asosan yo'qoldi. Maktab oquvchilarida musiqi savodxonligi shakllanmaganligi ya'ni nota yozuvlari haqida bilimlar rivojlanmaganligi ularni cholg'ularda ijro etish, sof intonaqiya bilan kuylashga o'rgatish yolida bir katta muammoga aylandi. Yosh avlod musiqaning nota matnini o'qish qobiliyatiga ega emasligi natijasida u ulkan va eng muhimi – musiqi madaniyatining eng qimmatli merosi bilan to'g'ridan-to'g'ri individual muloqot qilishdan ajratilgan, u faqat ommaviy axborot vositalari orqali efirga uzatiladigan materialni passiv kuzatishga mahkum.

Musiqiy didning rivojlanish darajasi pasaygan zamonaviy sharoitda nafaqat boshlang'ich bilimlar majmuasini shakllantirishga, balki yosh avlodning musiqi eshitish va chalish madaniyati muammolarini hal qilishga qaratilgan yangi, keng qamrovli nota yozuvlarini o'qitish metodikasini yaratish zarurati tug'iladi.

Umumta'lim maktabida sinfda musiqiy savodxonlik bolalarning bilim olish faoliyatini faollashtirish vositalaridan biridir. Darsda musiqiy savodxonlik faoliyati istalgan vaqtda berilishi mumkin. U ikki shaklda ifodalanadi:

- 1) musiqi savodxonligi bo'yicha nazariy ma'lumotlar;
- 2) nazariy materialni amaliy o'zlashtirish.

Musiqiy savodxonlik bo'yicha bilimlarni mustahkamlash turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin:

- a) solfedjio qilib kuylash;
- b) eshitish va tahlil qilish;
- d) ritmik mashqlar;
- e) musiqiy va didaktik o'yin;
- f) improvizatsiya;
- g) musiqi asboblariida chalish;
- h) musiqaga moslab harakat qilish.

O'qituvchi o'z xohishiga ko'ra amaliy faoliyatning istalgan shaklini tanlaydi va uni har bir darsda bolalarga taklif qiladi.

Nota yozuvlarini o'rganishda o'quvchilarning musiqi darsiga qiziqishini oshiradigan, shuningdek, nota va nota cho'zimlarini eslab qolish jarayonini tezlashtiradigan elektron o'quv qurollar ham katta yordam beradi.

Musiqqa darslarida yuqoridagi barcha mashgʻulot elementlarini qoʻllash shakllari har xil boʻlib, har bir oʻqituvchi ular bilan taʼlim jarayonini ortiqcha yuklamasliklari kerak. Darsni uzluksiz oʻyin va oʻyin-kulgiga aylantirmaslik kerak, mashgʻulot vositalari oʻquv materialini tushuntirish va mustahkamlash shakllari va usullarining xilma-xilligini oshirishga qaratilgan boʻlishi kerak. Ular musiqqa savodxonligining turli boʻlimlarini yaxshiroq tushunish va oʻzlashtirishga hissa qoʻshgan holda, dars oxirigacha oquvchilarning qiziqishini saqlab turib, ularda musiqqa tili asoslarini oʻrganish jarayoniga jiddiy munosabatini rivojlantirishlari kerak.

Musiqqa tili, turli asarlar misolida, musiqiy ifoda vositalari – temp, dinamika, lad, metro-ritm, ohang, garmoniya, tembr kabi tushunchalar taʼriflarini takrorlash, turli asarlarni tahlil qilish – muntazam taʼlim faoliyati sohasida yillar davomida amalga oshiriladi.

Nota yozuvlarini bilish oʻquvchilarga turli musiqiy faoliyat turlarini oʻzlashtirishga yordam beradi, shuningdek, oʻquvchilarni musiqqa sanʼati bilan mustaqil muloqot qilishga tayyorlaydigan muhim vositadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ibraximjanova G.A., Urmanova L.A., Xodjayeva M.X., Xalilov F.N. Musiqqa elementar nazariyasi. Garmoniya. T., 2012, Bet-3.
2. Ibraximjanova G.A. Musiqiy tovushlarning xususiyatlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2. (282-287)
3. Mansurov A, Karimova D. «Musiqqa» 5 – sinf uchun dasrlik. Toshkent, 2015.
4. Янги Ўзбекистон № 25. 2022 йил 4 феврал.

ZAMON TALABI ASOSIDA MUSIQA DARSLARINI TARIX FANI BILAN ALOQADORLIKDA TASHKIL ETISH USULLARI

*Turayeva Charos, JDPU oʻqituvchisi.
Oʻralov Jahongir, JDPU talabasi*

Annotatsiya. Musiqqa fanlarini oʻqitishda tarixiy shaxslar, ularning musiqqa qoʻshgan hissalarini, oʻquvchilarning musiqqa haqidagi bilimlarini mazmundorlik boʻlishidagi roli va ahamiyatining ayrim qirralari ochib berilgan.

Kalit soʻzlar: musiqqa tarixi, tarixiy shaxslar, milliy gʻoya, taʼlim, tarbiya, shaxs maʼnaviy kamolot, umumtaʼlim maktablari, pedagogik talab va mezon.

Kelajak bugundan boshlanadi deydi dono xalqimiz. Hozirgi kunda oʻsib kelayotgan yoshlarni yuksak maʼnaviyatli, har tomonlama uygʻun rivojlangan barkamol shaxs qilib tarbiyalashda umumtaʼlim maktablarida oʻqitiladigan “musiqqa madaniyati” fani muhim oʻrin egallaydi.

Pedagogika fanlari tizimida fanlararo bogʻliqlik va aloqadorlikning didaktik taʼlimdagi ahamiyati va fanlarni oʻzaro bogʻliqlik va aloqadorlikda tashkil etishning umumiy jihatlari ancha keng va ilmiy asosli yortilgan boʻlsada, aynan musiqqa darslarini oʻzining tabiiy tizimli xususiyatlariga koʻra bir qator fanlar bilan juda yaqin aloqadorlik va bogʻlanishda namoyon boʻlishi va musiqqa darslarini pedagogik va metodik jihatdan toʻgʻri tashkil etishda ushbu fanlarga oid bilim, tajriba, tushunchalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini musiqqa darsida tarix fanini aloqadorlikda tashkil etish imkoniyatlarini koʻrib chiqishga qaratdik.

Musiqa darslarida erkin repertuar tanlash huquqidan foydalangan holda musiqa va tarix fanlari aloqadorligida tashkil etilgan dars 8-sinf adabiyot darsligiga kiritilgan shoir Muhammad Yusufning “Vatanim” she’ri asosida yaratilgan qo‘shiqni o‘rganishga bag‘ishlandi.

Qo‘shiqni o‘rgatish reja loyihasi quyidagicha:

Qo‘shiqni o‘rgatishni rejalashtirishda asosiy e’tibor tarixiy davrlar, joylar va tarixiy shaxslar haqidagi ma’lumotlarga qaratildi. Qo‘shiqning she’riy matni mazmuni haqida so‘z yuritish avvalida o‘quvchilarga xonanda Sevara Nazarxon ijrosidagi mazkur she’rning qo‘shiq shaklidagi matni eshittiriladi. So‘ngra o‘qituvchining o‘zi yoki sinfdagi nutqi ravon o‘quvchilar tomonidan she’r ifodali o‘qib beriladi. O‘qituvchi mashg‘ulot jarayonida she’r matnidagi so‘zlarga izoh berib o‘tadi. O‘quvchilarga mazkur she’rning mazmun mohiyati tushuntiriladi. Uni Vatan, el-yurt madhiyasi ekanligini uqtirish lozim. Negaki asarda yurt, el, Vatan, xalq ozodligi kurashlari, davlat va uni boshqaruvchilari, tarixda iz qoldirgan shaxslar taqdiri alohida misralarda tasvir etilgan. Shu o‘rinda o‘qituvchi she’r matnida keltirilgan tarixiy shaxslar haqida ma’lumot berishi lozim. Bu topshiriqni bajarishda o‘quvchilar 7-8 sinf O‘zbekiston tarixi fanidan olgan bilimlariga tayanish yaxshi samara beradi. Dars jarayonida matn bilan ishlashga alohida e’tibor qaratiladi. O‘qituvchi tomonidan oldindan tayyorlangan quyidagi jadvalni to‘ldirish o‘quvchilarga mustaqil topshiriqlar sifatida beriladi:

T/r	Tarixiy shaxslar nomi	Yashagan davri	O‘z davridagi mavqei
1	Sulaymon		
2	Mashrab		
3	Navoiy		
4	Yassaviy		
5	Muqanna		

T/r	Joy nomlari	Qaysi tarixiy davr bilan bog‘liq	
1	Balx		
2	Xo‘jand		
3	Sirdaryo		
4	Qashqar		
5	Enasoy		
6	Kurdiston		
7	Hindiston		
8	Chambil		
9	Qo‘qon		

She’rning mazmuniy silsilasi borasida so‘z yuritilganda, o‘qituvchi tarixiy ma’lumotlarga, tarixiy voqealarga izoh berishi talab etiladi. To‘rtinchi bandga o‘quvchilar diqqati qaratiladi:

Sen Xo‘jandsan,
Chingizlarga darvozasin ochmagan
Temur Malik orqasidan
Sirdaryoga sakragan,
Muqannasan qorachig‘i

Olovlarga sachragan,
Shiroqlarni ko'rgan cho'pon,
Cho'lig'imsan Vatanim

Tarixdan ma'lumki, o'zbek xalqi dunyodagi eng qadimgi xalqlardan sanaladi. Xalqimiz joylashgan bu zaminning boyliklarini talash, odamlarini qullikka giriftor qilish payida bo'lgan bosqinchilarga qarshi millat ichidan chiqqan bahodirlar kurashganligi yodga olinadi. O'qituvchining o'zi bu misralarga sharh bergani ma'qul. O'qituvchi o'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qiladi:

1. "Oq Kiyimlilar" qo'zg'aloni to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. Mo'g'illar istilosiga qarshi kurashgan sarkarda bilan bog'liq voqeani yodga oling.
3. Shiroqning vatanparvarligi haqida nimalar deya olasiz?

She'r matnida keltirilgan "tarqab ketgan to'qson olti urug'imsan, Vatanim" misralari ham izohtalab jumla hisoblanadi. O'zbeklarning to'qson olti urug'i nomlarini bilasizmi? Ular nomini sanang. Qashqar elida o'zbekning qaysi shoiri makon topgan? Hindistonda qolib ketishini yuz qarolig' deb bilgan shoh va shoir Boburning olisda bo'lishi sabablari nimada deb o'ylaysiz? kabi savollar o'quvchilarning O'zbekiston tarixi fanidan olgan bilimlarini yodga olishga undaydi.

She'rning oltinchi bandida o'quvchilar uchun mavhum bo'lgan "so'lig'imsan", "padarkush" so'ziga izoh berish lozim. So'lig' – turkiy so'z bo'lib, suvliq degan ma'noni anglatadi. Otning og'ziga temirdan qilingan suvliq solingan.

Padarkush – forsiy so'z bo'lib, "padar" - ota, "kushandan" fe'li so'ymoq, o'ldirmoq ma'nolarini anglatadi. Mirzo Ulug'bekning fojiali qismati, o'z o'g'li tomonidan o'ldirilishi tarixning eng qaro sahifalari ekanligi o'quvchilar xotirasida gavdalanishi uchun she'rning aynan shu bandi takror o'qib beriladi. Ulug'bek shahri bilan bog'liq tarix materiallari o'quvchilardan so'raladi.

1-o'quvchi: Mirzo Ulug'bek Movarounnahr hukmdori, astranom olim, sohibqiron Temurning nabirasi. XV asrda Temur avlodlari o'rtasida taxt uchun kurash kuchayib ketadi. Shunday tahlikali kunlar bo'ladiki, farzand otasini, ota farzandini molu-dunyo, davlat, boylik uchun o'ldirishgacha borib yetadi. Ulug'bek ham o'g'li Abdulatifni topshirig'i bilan o'ldiriladi. Shoir she'rda padarkush o'g'lidan otasini himoya qilib qoluvchi qalqon bo'lishi tashbex qilmoqda deb javob beradi. So'ngra o'zbeklarning vatanparvarlik ruhi bilan yo'g'rilgan "Alpomish" qahramonlik dostoni asosida tayyorlangan kinodan kichik bir lavha ko'rsatilishi yoki o'quvchilar Alpomishning qahramonligi tasvirlangan rasmlarga tayanib aynan she'rning shu bandini tahlil etishga undash dars samaradorligini orttiradi. She'rning yettinchi va sakkizinchi bandida sobiq sho'ro davrida xalqimiz, yurtimiz boshidan kechirgan og'ir musibatlarini yodga olingan.

2-o'quvchi: Tarix bizga o'tmishimizni o'rgatadi, adabiyot esa undan to'g'ri saboq olishga undaydi. Muhammad Yusuf she'rining yettinchi bandi dushman yurtimizga kirib kelganda o'zini chetga olgan, jonidan kechishidan ko'ra sha'nidan kechgan, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Behbudiy kabi shoir do'stlariga millatchi deb tamg'a bosib bergan, xiyonatkor do'stlar, sotqin kimsalar bo'lganligini afsus bilan tilga oladi:

Qodiriyni bergan zamin,
Qodiriyni sotgan kun.
Qo'lni bog'lab,
Dilni dog'lab,
Yetaklashib ketgan kun.

Voh bolam! Deb aytolmagan,
Dudug'imsan Vatanim.

3-o'quvchi: ayniqsa she'ning sakkizinchi bandida yurtimiz boshidan kechirgan musibatlarini hech kim unuta olmaydi, unutishga ham haqqi yo'qligini shoir yonib, kuyib aytadi:

Hech bo'lmasa Usmon hokin,
Keltirmoqqa yarab qo'y,
Olislarda qurib qolgan,
Qudug'imsan, Vatanim.

She'ning har bir bandi ana shunday tarixiy materiallar bilan bog'liq holda tahlil etib boriladi.

4-o'quvchi: Mustaqillik sharofati bilan yurtimizga omonlik berilganligi she'ning birinchi va ikkinchi bandlarida o'z ifodasini topganligini aytib, sinfdoshlari bilan jo'r ovozlikda aynan shu misralarni faxr va g'urur bilan kuylab berishlarini aytadi. Bunday suhbatlar asarni o'rganishga bag'ishlangan mashg'ulotda o'quvchilarning adabiyot va tarix fanidan olgan bilimlarini omuxtalashtiradi. Zero, Muhammad Yusufning aynan shu she'ri va undagi ifoda tarix bilan bevosita bog'langan. Agar dars jarayonida mavzuni tarix bilan bog'lash unutilsa, she'r haqidagi tasavvurlar bir yoqlama bo'lib qoladi. Shoir she'rda keltirgan tarixiy shaxslar nomi bilan xalq tarixini bog'laydi. Tarixda bo'lib o'tgan yuz yillikka yaqin hodisalarni o'quvchi xotirasida tiklaydi. Shunday ekan, she'ning har bandi talqinida tarix bilgan aloqadorlikni aslo unutib bo'lmaydi. (B.Abdurahmonovning, M.Yusufning "Vatanim" she'rini o'rgatishda tarixiy materiallarning o'rni maqolasidan foydalanildi)1/.

Bizning shu mazmundagi kuzatuv va amaliy ishlarimiz davomida ayon bo'ldiki, har bir fan ma'lum darajada boshqa fanlar bilan bog'liq va aloqadorlikda bo'ladi. B. Abdurahmonova. Muhammad Yusufning "Vatanim" she'rini o'rgatishda tarixiy materiallarning o'rni.-T.: Ta'lim va texnologiya. Ilmiy-uslubiy maqolalar to'plami. 250-253-betlar.

Bu o'ziga xos ko'rinishda va tarzda namoyon bo'ladiki, undan o'z o'rnida va maqsadli foydalanish o'qituvchidan keng bilim va pedagogik mahoratni talab qiladi. Darslarni tajribalar, pedagogik texnologiyalardan foydalanib yangi-yangi usul va ish shakl, vositalarini ishlab chiqish va qo'llash davr talabidir.

Mazkur darsning yakuniy xulosalari Musiqa darslarini fanlararo aloqadorlikda tashkil etish o'quvchilarni qiziqish va faolliklarini oshirishga keng imkoniyat yaratishini ko'rsatdi. Bu borada fanlararo aloqadorlikda o'tkaziladigan darslarni oldindan rejalashtirish, unda fanlarning aloqadorlik xususiyatlaridan dars mavzusi va mazmuniga ko'ra foydalaniladigan ma'lumotlar, misollar, namunalar, ko'rgazmali, texnik vositalar tanlanishi va ularni qo'llash holati, o'rni, shakli, vaqt me'yori aniq belgilanishi darsning sifatli va mazmunli o'tishida muhim o'rin tutadi.

Mazkur yo'nalishdagi pedagogik tajribalar musiqa darlarini fanlar aloqadorligida tashkil etishda quyidagi talab va mezonlar asosida ish tutish maqsadga muvofiq bo'lishi to'g'risida xulosalar chiqarishimizga sabab bo'ldi:/1

1. Darsni fanlar aloqadorligida tashkil etishda eng avvalo dars mavzusidan kelib chiqish;
2. Mavjud shart-sharoit va imkoniyatlarni hisobga olish;
3. O'quvchilarning qiziqishlari, o'zlashtirish darajalari, boshqa fanlarga oid bilimlardan xabardorligini (sinflarda o'qitiladigan fanlar bo'yicha) e'tiborda tutish;
4. Ma'lumotlar, manbalarni qiziqarli, tushunarli va aniqligiga e'tibor qaratish;
5. Fanlararo aloqadorlikda o'tkaziladigan darsning ta'limiy, tarbiyaviy maqsad va mazmunini didaktik tahlildan o'tkazish;

6. O‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar mazmunini belgilab olish;

7. Nazariy va amaliy bilimlarni sinf va sinfdan tashqari faoliyatlarda mustahkamlab borish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Umumiy o‘rta ta’limning Musiqa fani Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Toshkent, Ta’lim taraqqiyoti, Axborotnoma. 6-7-maxsus sonlari, 1997 yil.

2. B. Abdurahmonova. Muhammad Yusufning “Vatanim” she’rini o‘rgatishda tarixiy materiallarning o‘rni.-T.: Ta’lim va texnologiya. Ilmiy-uslubiy maqolalar to‘plami. 250-253-betlar.

3. Hasanova Navbahor Hamraqulovna. (2020). Bo'lajak o'qituvchilarning o'zbek mumtoz musiqasida kasbiy malakasini oshirish muammolari. *Xalqaro ilg'or fan va texnologiyalar jurnali*, 29(08), 3489-34953495. [Http://sersec.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558](http://sersec.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558)

4. Hasanova, Navbahor. (2020). METHODS AND WAYS TO DEVELOP THE MUSICAL FEELINGS OF STUDENTS IN TTTE LESSONS OF MUSIC EUITURE. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(42). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5579

5. Khasanova, Navbahor (2020) “The role of music lessons in the formation of national and intercultural competence in students.” *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*. Vol.2020 :Iss.2. Article 15 :<https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss2/15>

6. N. Hasanova O‘zbek milliy musiqa merosi taraqqiyotida xotin-qizlarning o‘rni. Актуальный вызыви современной науки IX xalqaro ilmiy konferensiya 26-27 yanvar 2017 yil.

7. Muminova Muqaddas Riskulovna Development And Current Status Of Uzbek Pop Music In Modern Approaches And Innovations Of Teaching The Science Of Music Culture *International Journal of Advanced Science and Technology* Vol. 29, No. 8, (2020) <https://t.me/joinchat/> - Music teacher, <https://infourok.ru> - music lessons

8. Muminova Muqaddas Riskulovna *International Journal of Mechanical Engineering*. The Innovative Technologiyes Of Teaching In Musical Edukational Establishments 1764-1767-betlar. 2022- йил.

9. Muminova Muqaddas Riskulovna *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*. THE ROLE OF SPORT ACTIVITIES, GAMES AND COMPETITIONS IN THE NURTURE OF 6-7 YEARS OLD CHILDREN <https://uzjournals.edu.uz/tziuj68-78betlar> 2022

10. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlarda pedagog kreativligi. “Yangilanayotgan O‘zbekistonda fan, ta’lim va innovatsiya uyg‘unligi” mavzusidagi 6-son 2-qism Respublika ko‘p tarmoqli ilmiy konferensiyasi VIII bo‘lim Toshkent 2021. 677 bet. Udk. 001.895 (575.1).

11. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlar o‘qituvchisining kreativligi. Педагогические и лингвопсихологические особенности развития, формирования и становления личности врача. Сборник тезисов Международная конференции. СамГМИ, Самарканд 5 мая 2021 год

12. Urinova S.Sh. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishning nazariy asoslari. “The best innovator in science” xalqaro maqolalar tanlovi to‘plami. Organized by Innovative Academy. Tashkent February 5, 2022. Pg 811. <https://zenodo.org/record/5979621#.YpC2PKhBxD8>

13. Qudratov I. O'quvchilarni xalq qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalash.- Toshkent: Fan,2009

14. I.Qudratov, E.Abdukarimova. "Musika ta'limida fanlararo aloqadorlik". Uslubiy qo'llanma. Samarqand, SamDU bosmaxonasi, 2015yil.

15. I.Qudratov, E.Abdukarimova. "Musika ta'limida fanlararo aloqadorlik". Uslubiy qo'llanma. Samarqand, SamDU bosmaxonasi, 2015yil.

MUSIQA O'QITUVCHISINING KASBIY VA PEDAGOGIK KOMPETENTLIGI

Tojiqulova Husnora Azimqul qizi,

Jizzax shaxar 8-sonli IDUM musiqa o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada musiqa mashg'ulotlari tushunarli, ilmiy, ta'sirchan, ko'rgazmali, ko'rsatmali, texnika vositalari yordamida o'tkazilishida musiqa o'qituvchisining kasbiy va pedagogik kompetentligi tamoyiliga asoslangan holda amalga oshirilishi lozimligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Differentsial, kompetensiya, Autopsixologik, reproduktiv.

Ma'lumki, hozirgi vaqtda ta'lim-tarbiya sohasida islohatlar qizg'in olib borilmoqda. Ayniqsa, o'quvchi-yoshlarni ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirishda yangi pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim prinsiplariga asoslangan interfaol usullardan keng foydalanish, ularda vatanparvarlik his-tuyg'ularini, ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish kabi vazifalarga katta e'tibor berilmoqda.

Musiqiy ta'lim yuqorida ta'kidlab o'tilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda eng muhim va samarali omillardan biri hisoblanadi.

O'qituvchining kasbiy bilimlari, mahoratlari va qobiliyatlarini o'zlashtirish darajasini tavsiflash uchun zamonaviy pedagogik leksikaga "pedagogik kompetensiya" tushunchasi kiritildi va o'rnatildi. Murakkab ta'lim sifatida musiqa o'qituvchisining kasbiy va pedagogik kompetentsiyasi quyidagi elementlarni o'z ichiga olishi kerak:

1. Maxsus pedagogik kompetensiya (o'qituvchining musiqiy-pedagogik fan sohasidagi xabardorligi; uning san'atni egallashi, pedagogika fani va musiqa san'atining talaba shaxsining musiqiy madaniyatini shakllantirish vositasiga aylanishi).

2. Metodik kompetensiya (o'qituvchining o'quvchilarning musiqiy-estetik faoliyati uslubiga aylanadigan har qanday musiqiy-pedagogik ta'sir uslubi o'quvchining o'z-o'zini tarbiyalash va ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish uslubiga aylanishidan xabardorligi).

3. Ijtimoiy-psixologik kompetensiya (o'qituvchining ko'p darajali badiiy-dialogik aloqa sohasidagi xabardorligi; kerakli musiqiy-pedagogik natijalarga erishish jarayonining hal qiluvchi omili sifatida uning xabardorligi).

4. Differentsial pedagogik kompetensiya (o'qituvchining har bir o'quvchining individual xususiyatlarini bilishi: uning qobiliyatlari, irodasi va xarakterining kuchli tomonlari, kuchli va zaif tomonlari, holat xususiyatlari).

5. Autopsixologik kompetensiya (o'qituvchining o'zini o'zi kasbiy takomillashtirish yo'llari, shaxsiyatining kuchli tomonlari va zaif tomonlari va uning faoliyati va ish sifatini oshirish uchun o'ziga nisbatan nimalar va qanday qilish kerakligi to'g'risida xabardorligi).

"Kompetensiya" tushunchasining zamonaviy talqini bizni mutaxassisning o'z faoliyati ma'nosini anglashining o'lchovi, kognitiv (bilim), reproduktiv (obrazda harakat qilish qobiliyati) va ijodiy (muammoli vaziyatlarni samarali echish qobiliyati) faoliyati, shuningdek

hissiy-qiyamat munosabatlari uslubi sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi. Tor ma’noda kompetensiya intellektual va faoliyat komponentini (ta’lim sifat standarti) o‘z ichiga oladi. Uning etakchi xususiyatlari - bu integrallik va kulturologik yo‘nalish. Birinchisi, umumiy madaniyat va kasbiy faoliyat sohalarini aks ettiruvchi bir hil yoki chambarchas bog‘liq bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar yig‘indisida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi ko‘p funktsiyali, mavzudan tashqari, fanlararo va ko‘p o‘lchovli bo‘lib, unga ijtimoiy-madaniy, musiqiy va pedagogik hayotning turli masalalarini hal qilishga imkon beradi.

Axborot komponenti musiqa o‘qituvchisi kasbiy kompetensiyasining fundamental asosi bo‘lib, mavzuni, uning metodikasini, pedagogikasini va psixologiyasini kasbiy bilishi hisoblanadi. Ularning eng muhim xususiyatlari quyidagilardan iborat: murakkablik va izchillik, bu o‘qituvchidan o‘rganilayotgan fanlarni sintez qilishni talab qiladi; bilimlarni ma’naviylashtirishda namoyon bo‘ladigan, dunyoga bo‘lgan qarash shaklida ifodalangan shaxsiy rang berish. Kasbiy bilimlar turli darajalarda tuzilgan:

- metodik (umumiy falsafiy rejani ishlab chiqish qonuniyatlarini bilish, ta’lim maqsadlarining shartliligi);

- nazariy (qonunlar, tamoyillar, pedagogika va psixologiya qoidalari, musiqa pedagogikasi, faoliyatning asosiy shakllari);

- uslubiy (musiqiy va pedagogik jarayonning qurilish darajasi);

- texnologik (muayyan sharoitlarda amaliy o‘quv va ta’lim muammolarini hal qilish darajasi).

- Musiqa o‘qituvchisi kasbiy kompetensiyasining operativ tarkibiy qismining tarkibi pedagogik bilim, ko‘nikma va malakalar tizimi bilan ifodalanadi:

- yorqin va hayajonli ravishda badiiy ma’lumotlarni translyatsiya qilish;

- darsni badiiy-pedagogik qurish usullarini tushunishi, dars turlari va shakllarini turlicha o‘zgartirishi;

- o‘quvchilarning badiiy-kognitiv jarayonlarini, guruh va individual musiqiy faoliyatini rivojlantirishni boshqarish;

- o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlanish darajasini tashxislash, musiqa darslarida pedagogik tadqiqot usullari bilan ishlash.

Musiqa o‘qituvchisi kasbiy kompetensiyasining faoliyat-ijodiy tarkibiy qismi barcha ijodiy faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi: birgalikda yaratish-idrok etish; musiqiy materialni badiiy ijro etish; ijodkorlik-improvizatsiya ijodkorlik va improvizatsiya (ham pedagogik, ham musiqiy ijro); o‘zini takomillashtirish; musiqiy-pedagogik faoliyatning innovatsion shakllari va usullarini izlash faoliyati va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda musiqa o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi - bu o‘z-o‘zini rivojlantirish va u umumiy ta’lim, maxsus va kasbiy ta’lim tayyorgarliklarni olgan pedagogik tizimning natijasi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Qodirov R. G`. «Boshlang`ich sinfda ko`p ovozli kuylash». T 1997.
- 2.Qoziyev H., Xor dirijyorligi xrestomatiyasi. 1-qism.- Toshkent: O‘qituvchi 1976.
- 3.Qoziyev H., Xor dirijyorligi xrestomatiyasi. 2-qism.- Toshkent: O‘qituvchi 1976.
- 4.Qoziyev H., Xor dirijyorligi xrestomatiyasi. 3-qism.- Toshkent: O‘qituvchi 1977.
5. Otayev B., Dirijyorlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, Matbaa ijodiy uyi. - 2003.

6. Qo'ldosh Mamirov., Quyosh uyrтим. – Toshkent: Nizomiy nomli TDPU, 1999.

7. Пигоров, Г. С. Креатология и интеллектуальные технологии инновационного развития Текст.: учебник для вузов / Г. С. Пигоров, В. П. Козинец, А. Г. -2003.

8. Ro'zиеv SH «Xorshunoslik». T. 1987.

MUSIQIY MADANIY TADBIRLAR MA'NAVIY-ESTETIK TARBIYANING MUHIM SHAKLI

Toshmatova Dilnoza Ismatillayevna.

Jizzax shahar 2-sonli Bolalar musiqa va san'at maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: Madaniy-ma'rifiy tadbirlarni musiqiy-badiiy qismi, ya'ni bayram mazmuni, ruhiga mos kuy-qo'shiqlar ularni badiiy emosional ta'sirchangligini oshiradi, ishtirokchilar, tinglovchilar va tomoshabinlar qalbida bayramona hissiy kechinmalar paydo qiladi. Bo'lg'usi talabalar darslarni maqsadli tashkil etish asosida madaniy tadbirlarga tayyorlashning pedagogik asoslarini ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Maktab, yosh avlod, adabiy-badiiy, musiqiy-teatr, Navro'z, Mustaqillik bayrami, qadriyat, ta'lim-tarbiya, milliy, umuminsoniy.

O'sib kelayotgan yosh avlodni milliy g'oya va mafkura talablari asosida har tomonlama kamol toptirish, ya'ni, aqliy, axloqiy, jismoniy jihatdan yetuk, estetik madaniyati, badiiy didi, dunyoqarashi keng rivojlangan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatli qilib tarbiyalash ta'lim-tarbiya ishlari uchun mas'ul pedagog- murabbiylar oldiga yangi va yanada mas'uliyatli vazifalarni qo'yimoqda.

Ta'limda integrasiyalashuv jarayonini tezlashuvi, fan-texnika taraqqiyotining jadal rivoji ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida yoshlarni zamonaviy bilimlarni puxta o'zlashtirish, zamon bilan hamnafas yashashga intilish, shu bilan bir qatorda halqimizning milliy iftixori, madaniy va ma'naviy o'zligining ifodasi bo'lgan qadriyatlariga vorislik qila oladigan shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni uzluksiz ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi. Qadriyatlarimizni qadrlash, milliy g'oya va mafkura mohiyatini teran anglab yetish mazmunida mujassam bo'lgan bilim va tushunchalar o'quvchi yoshlar tarbiyasiga yangicha uslublar bilan yondashish, ta'lim-tarbiya ishlarini sinf va sinfdan tashqari faoliyatlar uzviyligida olib borish uning sifat va samaradorligini ta'minlashda muhim ish shakllaridan ekanligini ko'rsatadi.

Umumta'lim maktablarida tashkil etiladigan musiqiy-madaniy tadbirlar o'quvchi-yoshlarni xalqimiz hayotining muhim ko'rinishlarini ifoda etuvchi bayramlar, tarixiy sanalar, milliy an'analar, urf odatlar, fan, adabiyot, san'at olamida o'chmas iz qoldirgan buyuk ajdodlarimiz hayoti va faoliyati bilan tanishtirib borishda muhim rol o'ynaydi.

Xalqimiz hayotida milliy bayramlar anchagina, ular orasida ayniqsa Navro'z bayrami alohida o'rin tutadi. Mustaqillik sharofati bilan bu bayram umumxalq bayrami, mehr-muruvvat, yangi yil bayrami sifatida keng nishonlanmoqda. Navro'z bayramini maktablarda o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va nishonlash sinf va sinfdan tashqari faoliyatlar o'zviyligida olib boriladigan tadbirlar sirasiga kiradi. Bayram dasturiga jalb etilgan o'quvchilar milliy an'analarni sahnada jonlantirish, folklor-etnografik ko'rinishlarni badiiy talqin etishlari, teatrlashgan tomoshani musiqiy ta'minlashda ishtirok etishlari ularda izlanuvchanlik, topqirlik,

ijodiy fikrlash, tasavvur qilish, milliy urf-odatlar, cholgʻu sozlari, qoʻshiq- aytimlari, raqslari, milliy liboslar, qadimiy mehnat qurollari bilan chuqur tanishish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Mustaqillik bayrami, oʻqituvchilar va murabbiylar kuni, Konstitutsiya qabul qilingan kun, yangi yil, Navroʻz, 8-mart xotin-qizlar bayrami, xotira va qadrlash kuni kabi bayramlar xalqimiz uchun muqaddas timsollar, ramzlar sifatida yildan-yilga yanada ommaviylik kasb etib, teatrlashgan-musiqali bayramlarga aylanayotganligi xalqimiz milliy qadriyatlari va anʼanalarining bardavomligidan dalolatdir.

Umumtaʼlim maktablarida oʻtkaziladigan yozuvchi-shoirlar, xalqimiz ardogʻiga muayassar boʻlgan sanʼatkorlar, ilm ahllari bilan uchrashuvlar, ularning hayoti va ijodiga bagʻishlangan adabiy-badiiy, musiqiy-teatrlashgan kechalar ham madaniy-maʼrifiy, tarbiyaviy ishlarning muhim shakli sifatida oʻquvchi- yoshlarni maʼnaviy kamolotiga ijobiy taʼsir etadi. «Kelajak ovozi» «Nihol», «Diyorim ohanglari» kabi koʻrik-tanlovlarga tayyorgarlik koʻrish, ijtirok etish kabilar ham oʻquvchilarni sanʼat sirlarini puxta egallashga, oʻz ustida ishlash, izlanish, isteʼdodini ruyobga chiqarishga ragʻbatlantiradi. Bunday tanlovlarga jalb etilgan har bir ishtirokchi-oʻquvchi albatta ustozlari koʻmagida maxsus tayyorgarlik koʻradi, tanlov Nizomi talablarini bajarish ustida mustaqil izlanishiga toʻgʻri keladi. Bu esa oʻz navbatida oʻquvchilarni bilim va malakalarini mustahkamlash, mahorat va tajriba ortirib borishlariga keng imkoniyat yaratadi.

Madaniy-maʼrifiy tadbirlarni musiqiy-badiiy qismi, yaʼni bayram mazmuni, ruhiga mos kuy-qoʻshiqlar ularni badiiy emosional taʼsirchanligini oshiradi, ishtirokchilar, tinglovchilar va tomoshabinlar qalbida bayramona hissiy kechinmalar paydo qiladi.

Umumtaʼlim maktablarda boshlangʻich taʼlim mazmuni va sifatini oshirish oʻrta taʼlim poydevorini mustahkamlash bugungi kunda dolzarb vazifalardandir. Boshlangʻich sinflarda tashkil etiladigan oʻziga xos musiqiy-badiiy tadbirlar sirasida «Alifbo bayrami», turli mavzulardagi «ertalik»lar alohida oʻrin tutadi. Bunday tadbirlar kichik yoshdagi oʻquvchilarda maʼlum topshiriqlarni mustaqil bajarishlarida dastlabki koʻnikmalarni hosil boʻlishi va rivojlanishiga olib keladi. Sinf oʻqituvchisi, musiqa oʻqituvchisining oʻzaro hamkorligi bunday tadbirlarni qiziqarli, taʼsirchan va koʻtarinki ruhda oʻtishini taʼminlaydi.

Maktabda oʻtadigan madaniy-maʼrifiy tadbirlarni rejalashtirish, dasturlarini tayyorlash va yuqori saviyada oʻtishida musiqa oʻqituvchisi asosiy rol oʻynaydi. Shuning uchun ham tadbirlarga tayyorgarlik koʻrish, namoyish etishda musiqa oʻqituvchisi hech qachon oʻzining asosiy vazifasi va maqsadini unutmasligi, mashgʻulot (repititsiya)lar jarayonida oʻquvchilarning badiiy- estetik madaniyati, didi, nazariy savodxonligi, amaliy musiqiy ijrochilik koʻnikma va malakalarini shakllantirib borish nuqtai-nazardan yondashmogʻi lozim.

Maktabda musiqiy bayram tadbirlarini muvoffaqiyatli oʻtishini taʼminlovchi yana bir muhim jihat xususida toʻxtalib oʻtish oʻrinli boʻladi. Bu bayramlarni mazmuni, mohiyatiga mos repertuar tanlashdir. Repertuar tanlashda bolalarni yosh xususiyatlari, qiziqishlari, kuy-qoʻshiqlar mavzularini rang-barangligi oʻqituvchidan bu ishga nihoyatda ehtiyotkorlik bilan, pedagogik va metodik jihatdan toʻgʻri yondashishni taqozo etadi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining hayotiy tushuncha va tasavvurlariga mos qoʻshiqlar, masalan, oʻyinchoqlar (Varragim, Koptogim, Mashinam, Samolyot, Qoʻgʻirchogʻim), cholgʻu asbolari (Dutorim, Yangra doira, Doʻmbiram), oʻsimlik dunyosiga xos (Boychechak, Lola, Qizgʻaldogʻim, Binafsha), hayvonotlar obrazi tasvirlangan (Quyonom, Ayiqcham, Kakku, Saman ot, Chu otim, Toychogʻim), bolalar folkloriga mansub (Zuv-zuv boragʻay, Tomdan tarasha tushdi, Chittigul, Yallama-yorim, Qilpillama, Oftob chiqdi olamga) namunalarni repertuarga kiritilishi bolalarda sanʼatga, adabiyotga, xalq musiqa merosiga qiziqishni, har xil musiqa asarlarini, turli janr,

xarakter, mavzu va uslublardagi kuy-qo‘shiqlar mazmuni, obrazlarini to‘la va chuqur tushunishlariga va shu orqali ularda badiiy estetik sifatlarni rivojlanishiga ijobiy ta’sir etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008. -176 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T., O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
3. Umumta’lim maktablarida musiqa ta’limi va tarbiyasi Konsepsiyasi. –T.: -XTB, 1995 y.
4. Umumiy o‘rta ta’limning Davlat Ta’lim Standarti va o‘quv dasturi. T.: Ta’lim taraqqiyoti, 6-7 maxsus sonlari, 1999 y.
5. Abdukarimova E.I. Qudratov I. Musiqa ta’limida fanlararo aloqadorlik. Uslubiy qo‘llanma. – Samarqand.: SamDU, -2015. – B 95 b.
6. Abdukarimova E.I. Qudratov I. Milliy musiqiy an’analar va ularning shaxs komolotidagi o‘rni// O‘zbekiston: Turizm; Iqtisodiyot va Ekologiya // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.- Sam., 2009-B 376-378
7. Abdukarimova E.I. Preparation of future music teachers for their professional activities through uzbek classical music// European Journal of Research and Reflection in Education Sciences. Research learning.- Volume: 7 Number: 6 Issue: 2056-5852 Publication Year: 2019. www. Scopus.com
8. Abdukarimova E.I. Texnologik loyihalash- musiqa mashg‘ulotlarida samarali ta’lim // “Ilm ham jamiyat” jurnal. -Nukus davlat pedagogika instituti, 2019, 1-son, -B 61-63.
9. Abdukarimova E.I. Oliy Pedagogik ta’limda bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini mumtoz musiqa vositasida amaliy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish. Xalq ta’limi. jurnal-T.: 2021. -№3, - B. 82-84.

ZAMONAVIY TA’LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

*J.G‘.Turatov O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasi o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada innovatsion ta’lim texnologiyalari va ularning pedagogik asoslari o‘rganilib, o‘quv jarayonida zamonaviy-interfaol o‘qitish usullaridan samarali foydalanish yo‘llari tadqiq etilgan. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar bilimlarini mustahkamlashda qo‘llaniladigan innovatsion texnologiyalarning samarali qo‘llash uslublari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlari: ta’lim jarayonini modernizatsiyalash, texnologiya, pedagogik texnologiya, texnologiyalashtirish, innovatsiya, innovatsion jarayon, ta’limiy innovatsion jarayon, ta’limiy innovatsion jarayon bosqichlari.

Ayni vaqtda Respublika ijtimoiy xayotiga shiddatli tezlikda axborotlar oqimi kirib kelmoqda va keng ko‘lamni qamrab olmoqda. Axborotlarni tezkor sur’atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda tinglovchiga yetkazib berishni yo‘lga qo‘yish ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ta’lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbiiq

etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini baholash ham muhim ahamiyatga ega.

Izchillik bilan rivojlanib borayotgan fan-texnologiyalar uzluksiz va zamonaviy yangi fan-texnologiya yutuqlariga asoslangan bugungi jamiyatda bunday holat oddiy ijtimoiy ong, tafakkurning o'sishi natijasi sifatida qaralishi kerak. Bu o'rinda xulosalarni tahlil qiladigan bo'lsak, oliy ta'lim yetishtirib berayotgan "mahsulot"ga "xaridor"larning talabi o'z yo'nalishiga ega bo'lib, quyidagicha ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda:

- birinchidan – o'z mavqeini yaratish va mustaxkamlash uchun ijtimoiy nufuzli toifaga ega bo'lgan davlat diplomini olishga harakat qilayotgan shaxslarning salmog'i;
- ikkinchidan - ma'lum toifadagi diplomga ega bo'la turib, nufuzli oliy o'quv yurtlarining diplomlarini qo'shimcha olishga harakat qiluvchilar ko'lami;
- uchinchidan - faqat ilm olishga intilayotgan va juda kamchilikni tashkil etadigan shaxslar salmog'i;
- to'rtinchidan - kasb o'rganishga intiluvchilar ko'lami, bu guruhdagi shaxslar miqdori ko'pchilikni tashkil etib, aynan bozor sharoitida tobora izchillik bilan ortib borayotgan shu guruh a'zolari ta'lim sifatini ko'tarishga o'z ta'sirlarini o'tkazishlari mumkin.

Shuni qayd etish joizki, bugungi kunda "mehnat bozori"da oliy ta'lim muassasalarini bitirib chiqqan mutaxassislariga yetarli miqdorda ish o'rinlari yaratilmaganligi sababli nafaqat bugun, balki kelajakda ham ish topish muammoligicha qoladi. Natijada yangicha yashash tushunchalarini o'zlarida singdirgan va nufuzga erishish maqsadida bilim olgan yoshlarning ijtimoiy mavqeiga putur yetishi salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Oliy ta'limni isloh qilish muammolarining tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimi alohida tarmoq sifatida e'tirof etilmoqda. Natijada turli konsepsiya va qarashlar kelib chiqmoqda, masalan yirik oliy ta'lim muassasalarining o'rtacharoqlariga nisbatan munosabati, ta'limga bo'lgan tarmoqlarning munosabatlari, xududiy ta'lim muassasalarining o'zlari haqidagi yuqori fikrlari kabi ziddiyatlar mavjud. Ta'lim tizimini modernizatsiyalash ijtimoiy, iqtisodiy muammolardan ajralgan holda, tarmoq muammo sifatida qaralmasligi lozim. Ta'lim sohasida xozircha o'z yechimini topmagan muammolardan biri ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va boshqaruv tizimi tomonidan oliy ta'lim muassasalarining ba'zi mutaxassisliklar bo'yicha yetarli darajada kadrlar tayyorlab berayotganiga qaramay, hozirga qadar ushbu mutaxassislariga nisbatan ish beruvchilar tomonidan talabning yuqori ekanligidir. Ammo ushbu muammolar avvaldan mavjud bo'lib, uning negizini mutaxassislik haqidagi tushuncha emas, balki mutaxassis tayyorlash texnikasi va sifati belgilaydi: [1].

- birinchidan, har yili yangi mutaxassisliklar vujudga kelishining ortib borishi va ta'lim muassasalarining mazkur ko'rsatkich darajasida faoliyat yurita olmasligiga oid ma'lumotlarning mavjudligi;

- ikkinchidan, hozirgi zamon va bozor iqtisodiyotining talabiga binoan, intellektual salohiyatli xodim xar 5 yilda o'z kasbini o'zgartirishi jahon tajribasida ijobiy baholanmoqda.

- uchinchidan, statistik ma'lumotlarga ko'ra, kasbiy nufuzning o'sishida erishilgan yutuqlar diplom bo'yicha egallangan mutaxassislikka aksariyat hollarda to'g'ri kelmasligi kuzatilmoqda, bundan xulosa qilish mumkinki, ta'lim muassasasi kadrni tayyor mutaxassis qilib yetishtirib bera olmaydi, ular ish joylarida sinovdan, amaliyot tajribalaridan, o'tganlaridan keyin shakllanadilar, demak shaxs o'zligini namoyon qilishi hamda o'zi yoqtirgan kasbda faoliyat yuritishi natijasida muayyan yutuqlarga erishishi ma'lum bo'ldi.

Demak, ta'lim sohasidagi bugungi mavjud holatdan kelib chiqib izchil chora-tadbirlar qo'llash va ta'lim tizimini mehnat bozori konyukturasi o'zgarishini hisobga olgan holda o'zgartirishni taqozo qiladi.

Tahliliy materiallarga tayanib shuni ta'kidlash joizki, zamonaviy oliy ta'lim tizimi yoshlarni mafkuraviy tarbiyalashga, ta'lim mazmunini va tashkiliy tuzilishini takomillashtirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Yetuk mutaxassisni ta'lim muassasalari tarbiyalab bera olmaydi, yetuk mutaxassis darajasiga erishish uchun bitiruvchi ma'lum amaliyot davri va sinov bosqichlarini o'tashi zarur. Bu o'rinda oliy ta'lim muassasalarida o'qish davridayoq mehnat faoliyatini boshlab yuborgan tahsil oluvchilarni alohida hisobga olish kerak, chunki ular har xil davlat va nodavlat tashkilotlarida ishlab, amaliyotdagi faoliyatini o'quv dasturlari bilan solishtirish imkoniyatiga egadir, natijada tahsil oluvchi o'qitilayotgan fanlar majmuasidan, fan dasturlaridan ayrim hollarda qoniqish hosil qilmaydi va dasturlarga o'zgartirishlar kiritish kerak deb hisoblaydi. Bu esa, o'z navbatida oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilariga noqulayliklar tug'dirishi ham mumkin, chunki erkin bozor munosabatlari davrida har xil mulkchilikka ega bo'lgan korxonalarining o'z qiziqishlaridan kelib chiqib olib borayotgan faoliyat doirasini fan dasturlarida qamrab olish qiyin va maqsadga muvofiq emas [2].

Pedagogik texnologiyalarning imkoniyatidan kelib chiqqan holda ularni amaliyotga tatbiq etishning samaradorligini bir qator mezonlar bilan aniqlash mumkin.

- *ta'lim, tarbiya va shaxsni rivojlantirish vazifalarining o'zida yaxlit aks ettira olishi;*
- *o'zida zamonaviy fan va texnika darajalarini ifodalay olishi;*
- *G'oyaviy jihatdan talabalarining yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelishi;*
- *o'quv materialining zarur axborotlar bilan to'kis ta'minlanganligi;*
- *o'qitish jarayonida rang-barang metod va vositalarni qo'llash imkoniyatini ta'minlanganligi;*
- *ta'limning ko'rgazmaliligi va barcha uchun ochiqligini ta'minlash tamoyiliga egaligi;*
- *ko'p funksiyali ta'lim vositalaridan foydalanish va ularni oson ekspluatatsiya qilish imkoniyatining mavjuliigi;*

- *pedagogning talabalarga mustaqil ishlarni samarali tashkil etishga ko'malashish darajasi* pedagogning kasbiy kompetentligiga ham bog'liq. Shu sababli pedagogik texnologiyalarning samaradorligini pedagog tomonidan ularning qo'llanilishiga ko'ra ham baholash mumkin [3].

O'qitish tizimida pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash

- *pedagogning texnologik madaniyatga egaligi;*
- *pedagogning pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida tajribaga egaligi;*
- *pedagog tomonidan pedagogik texnologiyalarga "ijodiy" o'zgarishlar kiritilishi va ularning qayta shakllantirilishi;*
- *pedagogik texnologiyalarni ta'lim amaliyotiga tatbiq etishda o'qituvchi va talabalar o'rtasida o'zaro hamkorlik negizida muvaffatqiyatli vaziyatlarning qaror topganligi;*
- *pedagogik texnologiyalarning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik;*
- *pedagogik texnologiyalarning talabalar va pedagoglarning kasbiy rivojlanishini ta'minlashdagi imkoniyatlarga egaligi;*
- *talabalar o'quv-bilish faoliyatining ijobiy ahamiyat kasb etishi*

Yuqoridagilar asosida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- jamiyatda "innovatsiya" va "innovatsion faoliyat" tushunchalarini mazmun va mohiyatini anglashi uchun zarur bo'lgan bilim. Ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish ko'lamini kengaytirish;

- yangi qabul qilingan “Ta’lim to’g’risida”gi qonunning mazmun va mohiyatini ommaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada jadallashtirish;
- Yangi O‘zbekiston qurishning asosini bilimlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyot tashkil etilishini nazarda tutgan holda, barcha sohalarni rivojlantirishda innovatsion faoliyatga urg‘u berish;
- innovatsion klasterlar faoliyatlarini tizimli tashkil etish kabilarni amalga oshirish natijasida Respublikada innovatsion faoliyat yanada rivojlanadi va uning oqibatida innovatsion faoliyatning sifati va samaradorligi ta’minlanadi. Yangi innovatsiyalar paydo bo‘ladi, insonlar yangilikka intiladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Шумпетер Й. Теория экономического развития. М., Директ-Медиа, 2007. [1]
2. Санто Б. Инновасия и глобальный интелектуализм // Инновации. — 2006. — № 9; [2]
3. Kokkozova, J. J., Xasanova, X. Z. (2021). Maktabgacha tarbiya muassasasi tarbiyachisi va unga xos bo‘lgan xususiyatlar. *Спортчиларни психологик тайёрлаш муаммолари мавзусидаги республика илмий-амалий-онлайн анжуман материаллари туплами*, [3]
4. Turatov J.G‘. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11 (7), 44-47. 2021 y.

MUSIQA SAN’ATI VA UNING HAYOTIMIZDAGI O‘RNI

Umurzakov Baxtiyor Nashmanovich
Navoiy davlat pedagogika institute
“Musiqqa ta’limi” kafedراسи dotsenti v.b.

Annotatsiya: Maqolada musiqaning hayotimizdagi o‘rni, inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovushlar izchilligi yoki majmui vositasida aks ettiruvchi san’at turi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: musiqqa, tarbiya, hissiyot, ruh, faoliyat.

Musiqqa - uning mazmuni o‘zgaruvchan ruhiy holatlarni ifodalovchi muayyan musiqiy badiiy obrazlardan iborat. Musiqqa insonning turli kayfiyatlari (ko‘tarinkilik, shodlik, zavqlanish, mushohadalik, g‘amginlik, xavf-qo‘rquv va boshqalar)ni o‘zida mujassamlashtiradi. Bundan tashqari, musiqqa shaxsning irodaviy sifatlari (qat’iyatlik, intiluvchanlik, o‘ychanlik, vazminlik va boshqalar)ni, uning tabiatini ham yorqin aks ettiradi.

Insonning musiqiy faoliyati asosan 3 bosqichda amalga oshiriladi: ijod, ijro va tinglash (uquv). Har bir bosqichda asarning mazmun va shakli o‘zgacha ko‘rinishga ega bo‘ladi. Ijod bosqichida badiiy g‘oya va shakl muallif ongida mushtarak holda tug‘iladi. Ijro jarayonida shakl va mazmun ijrochi tomonidan uning dunyoqarashi, estetik tasavvurlari va shaxsiy tajribasiga mos ravishda o‘zgartiriladi. Musiqqa ixlosmandlari ham ijro etilayotgan asarni o‘zlarining xususiy didi, hayotiy va badiiy tajribasiga asoslanib qabul qilishadi. Shunday qilib, musiqqa faoliyati hamma bosqichlarda ijodiy tabiatga ega bo‘ladi. Turli (kompozitorlik va og‘zaki an’anadagi) uslublarda musiqqa ijrochiligi ahamiyati turlichadir. Professional

yoʻnalishdagi madaniyat tizimida musiqa koʻpincha badiiy asarlarni ijro etadigan sanʼatkorlar faoliyati orqali namoyon boʻladi. Shuning uchun musiqa ijrochilarining aksariyati kompozitor va bastakorlarning haqiqiy hamkorlaridir. Ular ustoz-shogird munosabatlari jarayonida oʻzlashtirgan yoki nota yozuvi yordamida oʻrgangan asarlarni jonli ravishda tinglovchilar oldida talqin etadilar. Musiqiy folklor tizimida musiqa namunalari omma ongining badiiy mahsuloti sifatida yuzaga kelib, havaskor qoʻshiqchi, sozanda yoki jamoaviy tarzda ijro etiladi. Musiqa ijrochiligi musiqa cholgʻulari hamda inson ovozi vositasida amalga oshiriladi. Bular yakka tarzda, ansambl, xor, orkestr kabi birikma shakllarida namoyon boʻladi. Musiqa ijodiyoti, ijrochiligi va tinglanishi musiqa faoliyatining boshqa turlari kabi musiqa tarbiyasi, musiqa taʼlimi (musiqashunoslik), musiqiy tanqid va boshqalar bilan birga jamiyat musiqa madaniyati tizimini tashkil etadi.

Musiqa shunday sanʼat turiki, u insonlarni kechinmalar, yemotsional hissiyotlar orqali birlashtiradi. Ular orasidagi aloqa vositasiga aylanadi. Bir kompozitor tomonidan yaratilgan musiqa boshqa insonlar qalbida turli-tuman kechinmalar uygʻotishining oʻzini bir moʻjiza deb atash mumkin. Musiqa tarbiyasi estetik tarbiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Inson shaxsini shakllantiruvchi yetakchi omillardan biri – taʼlim-tarbiyadir. Estetik tarbiya esa uning tarkibiy qismi sifatida goʻzallikning mohiyati, estetik va axloqiy hissiyotlarning birligi, sanʼatning xalqchilligi toʻgʻrisidagi taʼlimotga suyanib, bolalarning obʼektiv dunyo haqidagi bilimni kengaytiradi va chuqurlashtiradi, ijodiy qobiliyatini va isteʼdodini oʻstiradi hamda ularda yuksak maʼnaviy fazilatlarining tarkib topishiga yordam beradi. Odatda, estetik tarbiyaning maqsadi bolalarda estetik his-tuygʻu va fikrlarni rivojlantirish, goʻzallikni koʻra bilish va ulardan zavqlana olishdan iborat, deb tushuniladi. Aslida estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari bu bilan chegaralanib qolmaydi. Bolalarni goʻzallik va xunuklikni, yuksaklik va tubanlikni, shodlik, kulfatni anglash va koʻra bilishga oʻrgatadi. Estetik tarbiya umuminsoniy va milliy qadriyatlar qaror topishiga xizmat qiladi. Ayonki, tarbiya inson ongi, his-tuygʻulari, tasavvuri, eʼtiqodi, dunyoqarashi, xatti-harakatlari va xulq-atvoriga taʼsir oʻtkazadi.

Musiqa tili barchaga tushunarli va yaqindir. Shuning uchun ham barcha xalqlar musiqalari jozibadordir. Musiqa tovush tovlanishlari orqali fikr va his-tuygʻularni aks ettiradi, hayot bosqichlarida insoniyatni toʻlqinlantirib kelgan axloqiy muammolarni bayon qiladi. Bunda musiqaning falsafiy mohiyati ham namoyon boʻladi. Ajoyib musiqa asarlari chuqur falsafiy mazmun bilan sugʻorilgan boʻladi, musiqada hayot va oʻlim, shaxs va jamiyat, ezgulik va zulm, qudrat va zaiflik kabi masalalar aks yetadi.

Kelajak avlodni maʼnaviy sogʻlom va barkamol etib tarbiyalashda, ayniqsa, Musiqa madaniyati darslari juda qulay imkoniyatlarga boydir. Milliy madaniyatimizning ulkan tarixiy yutuqlari musiqiy pedagogikaning samarali mehnati bilan chambarchas bogʻliqdir. Al-Forobiy, A.Navoiy, Aristotel, Aflotun kabi buyuk mutafakkirlar insonning aqliy va maʼnaviy kamolotida musiqiy tarbiyaning juda katta ahamiyatga ega ekanligini taʼkidlab oʻtishgan hamda oʻzlari ham musiqa va musiqiy tarbiya masalalari bilan bevosita shugʻullanishgan.

«Uchinchi mingyillikning bolasi» milliy dasturining uchinchi yoʻnalishida bolalarning maʼnan rivojlanishida, aynan musiqa mashgʻulotlarida, bolani aqlan, jismonan va maʼnan yetuk qilib tarbiyalash koʻzda tutiladi. Sanʼat - kishilik faoliyatining ajralmas qismi boʻlib, kishi shaxsi sanʼat vositasi yordamida va ishtirokida toʻlaligicha yorqin namoyon boʻladi. Hozirgi kelajak avlodni tarbiyalashda sanʼat muhim oʻrin tutadi. Sanʼat insonparvarlik va odamiylik hamkorligi ruhida uning hissiyotini oʻstirishda yordam berib, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Hozirgi zamon yoshlariga estetik idroklarini tarbiyalash borasida gʻamxoʻrlik qilar ekanmiz, sanʼat bilan muomala qilishdan hosil boʻladigan his-hayajondan uni oʻz hayoti

va faoliyatida foydalana olishga o'rgatishimiz kerak. Bolalarda yoshlik chog'idan idrok etish, his etish, turmush va san'atdagi go'zallikni tushunish ishtiyoqi tarbiyalanadi va bu kabi go'zallikni yaratishga intilish kuchayadi. Bolaning badiiy faoliyatga bo'lgan qiziqishi ortadi. Unda badiiy-ijodkorlik qobiliyati rivojlanadi. Bolalar bilan musiqali ish olib borish ayniqsa katta ahamiyat kasb etadi. Omma orasida musiqali targ'ibot olib bormay turib, to'laqonli natijalarga erishib bo'lmaydi. Musiqiy tarbiya bolalarda erta yoshdan boshlanishi kerak. Musiqa bola qalbida kuchli emotsional tuyg'u uyg'otadi. Musiqa yordamida uning badiiy idroki o'sib, hissiyotini yanada boyitib boradi. Bolalarda musiqiy idrokini rivojlantirmay ularning musiqaga mehr-muhabbatini yetarli darajada shakllantirmay turib, har tomonlama jismoniy, ma'naviy boy va boshqa sifatlarni tarbiyalab bo'lmaydi. Musiqaga yoshlikdan uyg'ongan qiziqish kishining keyingi musiqiy rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Musiqa madaniyati darslarida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish usullari". Saidmetova Mushtariybegim. Kurs tili. Urganch, 2016.
2. "G'arb musiqa san'atining XVIII asrgacha shakllanish va rivojlanish davri" Jahon musiqasi tarixi fanidan o'quv qo'llanma. G. R. Tursunova - Toshkent 2017.
3. "O'zbek musiqasi tarixi", T. E. Solomonova - Toshkent "O'qituvchi" 1891.
4. "Doston navolari", B. Matyoqubov - Toshkent 2009.
5. www.ziyonet.uz
6. www.lex.uz

MUSIQA O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK MAHORATI

Urinova Sabina Shuxrat qizi

J.D.P.U. "Musiqa madaniyati" fakulteti stajor-o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada musiqa o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini va uning bir tarmog' sanaladigan kasbiy kompetensiyasini oshirish ahamiyati haqida so'z boradi. Bugungi kun musiqa o'qituvchilari faoliyati samaradorligini, pedagogik faoliyatini yo'lga qo'yishda avvalo, unda pedagogik mahorat, har bir pedagogik jarayonda zarur bo'lgan kompetensiya turlariga egalik faoliyatdagi ahamiyati yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: musiqa madaniyati, axloqiy tarbiya, estetika, faoliyat, pedagogika, pedagogik mahorat, kompetensiya, komponent, mutaxassis.

Umumiy o'rta ta'limda o'rgatilayotgan har bir fanning maqsad va vazifalari belgilab qo'yilgan. Asosan amaliy faoliyat bilan uzviy bog'liq bo'lgan musiqa madaniyati fanining ham o'z maqsad, vazifalari bo'lib, umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati fanini o'qitishdan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini, milliy g'urur hamda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, tafakkurini kengaytirish, bolalardagi ijodiy mahorat, nafasat va badiiy didni o'stirish hamda tashabbuskorlikni tarbiyalashdan iboratdir.

"Musiqa madaniyatini o'quvchilar ongida shakllantirish asnosida fan o'z oldiga bir necha vazifalarni qo'yadi:

- O'quvchilarga berilayotgan musiqiy ta'lim-tarbiyani hayotga bog'lab olib borish;
- O'quvchilarda musiqa san'atiga mehr, qiziqishni o'stirish;

- O‘quvchilarda musiqiy-badiiy didni va musiqa faoliyatlariga ehtiyojini rivojlantirish;
- Musiqa haqida bilim, malakalar doirasini tarkib toptirish;
- Iqtidorli o‘quvchilarning musiqiy rivojlanishi uchun sharoit yaratib berish;
- Musiqiy faoliyatlar jarayonida badiiy-ijodkorlik his-tuyg‘ularini rivojlantirish;
- Musiqiy asarlarning badiiy-g‘oyaviy mazmuni vositasida o‘quvchilarda axloqiy-estetik qarashlarni tarbiyalash”[2, 10-11].

Demak, musiqa ta’limining oliy maqsadi: “musiqani idrok eta oladigan, yetuk, barkamol, madaniyatli, nafaqat o‘z milliy an’analarini, balki boshqa millatlar madaniyatidan boxabar va bu an’ana, madaniyatlarini xurmat qiladigan qilib voyaga yetkazishdan iboratdir”[9, 4]

Yuqoridagi kabi jihatlarni bolalarda shakllantirishda pedagog asosiy rol o‘ynashini hisobga olsak, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash musiqa madaniyati fanlarining sifat ko‘rsatkichini belgilab berishini anglash qiyin emas. O‘qituvchining kasbiy jihatdan shakllanishi oliy ta’limda kasbiy ta’lim olish jarayonidan boshlanadi. Pedagogika oliy dargohlarining fan dasturlari mazmuni bo‘lajak o‘qituvchilarga kasb bo‘yicha bilimlar berish, pedagog faoliyat sirlarini o‘rgatish va talabalarda ko‘nikma hosil qilishga qaratilgan. Yuqorida qayd etilgan vazifalarni bajarishda bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy va pedagogik mahoratini shakllantirishga ahamiyat berish zarur. Zero o‘qituvchi “pedagoglik kasbiga doir bilimlarni, ya’ni psixologik, pedagogik malaka va mahoratni, ilmiy-nazariy va amaliy bilimlarni puxta egallagan bo‘lishi”[3,11] zarur. O‘qituvchining kasbiy va pedagogik mahorati deganda ustuvor ijtimoiy-siyosiy, umumilliy, maxsus, psixologik-pedagogik va kasbiy-metodik bilim va ko‘nikmalar tizimi asosida olingan kasbiy faoliyatini amalga oshirish qobiliyati tushuniladi.

Mahorat – bu “ishni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo‘lgan shaxsning shaxsiy xususiyatlari kombinatsiyasidir”[5, 26]. Pedagogik mahorat tushunchasiga esa hozirgi zamon psixologiya va pedagogikasida turlicha ta’rif beriladi. “Pedagogik mahoratga ega mutaxassis bu – o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lgan, yuksak darajada madaniyatli, o‘z fanini chuqur biladigan, yondosh fanlar sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o‘qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis”

[9, 11] dir. Pedagogik mahorat tushunchasi quyidagicha izohlanadi:

- Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlikning yuqori ko‘rsatkichi;
- O‘z faniga doir mukammal bilimlar sohibi;
- Pedagogika va psixologiya oid bilimlarni ham puxta o‘zlashtirib, o‘z kasbiy faoliyatida ularni ishlata oladigan shaxs;
- O‘quv va tarbiyaviy ishlar uslubiyatini mukammal biladigan pedagog.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining pedagogik mahorati turli ko‘nikmalarga egalik bilan yanada oshib boradi. Ya’ni musiqa o‘qituvchida shakllanishi zarur bo‘lgan quyidagi ko‘nikmalarni tavsiflash orqali uning shakllanish jarayonini, pedagogik mahoratga erishish bosqichlarini yanada teranroq anglaymiz:

Birinchidan, u professional tarzdagi tashkiliy qobiliyatlar: pedagog sifatida har doim o‘zini tahlil etib borish, bolalar faoliyati ustidan tezkor nazoratni ta’minlash, bolalarning pedagogik ta’sirga bo‘lgan munosabatini hisobga olgan holda, o‘z vaqtida o‘quvchini yo‘naltirish va berilgan pedagogik vazifalarni to‘g‘rilashni oqilona amalga oshirish, belgilangan vazifalarga erishish uchun ko‘rsatmalarni bajarish, bolalar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, bolalarning muvaffaqiyatlari va yutuqlarini hisobga olgan holda faoliyatni rag‘batlantirish, dars, o‘zlashtirishdagi talablarning eng optimal shaklini topish va ularni bolalarning individual xususiyatlariga va muayyan pedagogik sharoitlarga qarab o‘zgartirish, vazifalarni aniq, qisqa va oson tushuntirish kabilar.

Ikkinchidan, tahliliy qobiliyatlar: olingan natijalarni dastlabki ma'lumotlar va qo'yilgan pedagogik vazifalar bilan solishtirganda tahlil qilish, musiqiy faoliyatdagi yutuq va kamchiliklarning mohiyatini tahlil qilish, erishilgan natijalarni tahlil qilish asosida o'z tajribasini pedagogik nazariya bilan bog'lash, pedagogik vazifalarni ilgari surish va asoslash. Pedagog "o'z faoliyatini doimo tahlil qilib, unga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish"[1, 37] i zarur.

Uchinchidan, muloqot qobiliyatlari: musiqa o'qituvchisi bolalar va ularning ota-onalari bilan munosabatlar o'rnatadi, bolalarni axloqiy, estetik jihatdan tarbiyalaydi, har bir bolaga individual yondashishni ta'minlaydi. Zero, musiqiy va tarbiyaviy faoliyatning asosi muloqotdir. Bolalar bilan muloqot qilish qobiliyati ularga muhabbatsiz rivojlanmaydi. Jamoadagi munosabatlar ko'p jihatdan tarbiya, ta'lim va o'qitishdagi muvaffaqiyatni belgilaydi. Bu o'qituvchining muloqot qobiliyatining mazmuni va ahamiyatini belgilaydi.

To'rtinchidan, loyihalash qobiliyatlari: pedagogik faoliyat natijalarini loyihalash qobiliyati, ularni amalga oshirish yo'llarini rejalashtirish, har bir bolaning va guruhning musiqa fanini o'zlashtirishini loyihalash, tarbiya va ta'lim natijalarini, bolalarni musiqiy tarbiyalash va o'qitishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni oldindan ko'ra bilish, aniq vazifalarni ajratib ko'rsatish va shakllantirish.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlaymizki, bo'lajak musiqa o'qituvchisining pedagogik faoliyati - bu maxsus bilim, ko'nikma va malakalar, tashkilotchilik qobiliyatiga egalik, kasbiy tayyorgarlikning yuqori darajasi, kasbda o'z-o'zini anglash, doimiy o'z-o'zini takomillashtirish, muloqot qilish va har bir bolaga to'g'ri yondashuvni topish qobiliyatlarini namoyon qilishdir. Bu uning ijodiga bo'lgan ulkan qiziqish, o'z oldida turgan vazifasini tushunish, san'atdagi o'rni, yuksak shaxsiy madaniyati va kasbiy ishtiyoqi orqali yo'lga qo'yiladigan pedagog sifatidagi kelajagi hisoblanadi. Biz pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlarini o'rganar ekanmiz, yuqoridagi barcha jihatlar musiqa o'qituvchisining kasbiy faoliyatiga to'liq taalluqli ekanligiga amin bo'lamiz. Musiqa o'qituvchisida pedagogik mahoratni shakllantirish shaxs madaniyatiga, o'sib borayotgan shaxsning o'z vaqtida va to'liq ijtimoiylashuviga hissa qo'shishga, bolani ma'naviy, axloqiy va estetik jihatdan tarbiyalashga qaratilganidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Asqarova M., Xayitboyeva M., Nishonov M. Pedagogika. "Talqin" nashriyoti. Toshkent., 2008-yil.
2. Hasanova Navbahor Hamraqulovna. (2020). Bo'lajak o'qituvchilarning o'zbek mumtoz musiqasida kasbiy malakasini oshirish muammolari. *Xalqaro ilg'or fan va texnologiyalar jurnali* , 29 (08), 3489-34953495.
<http://serisc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558>
4. Khasanova, Navbakhor (2020) "The role of music lessons in the formation of national and intercultural competence in students." *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*. Vol.2020 :Iss.2. Article 15. :<https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss2/15>
5. Mavlonova R, Abdurahimova R. "Pedagogik mahorat". "Fan va texnologiya nashriyoti". T., 2009-yil
6. Макаренко А.С. "Педагогические сочинения": В 8 т. М.: "Прогресс", 1983–1986.
7. Маркова А.К. "Психология профессионализма" – М.: "Знание", 1996.
8. Muminova Muqaddas Riskulovna Development And Current Status Of Uzbek Pop Music In Modern Approaches And Innovations Of Teaching The Science Of Music Culture *International Journal of Advanced Science and Technology* Vol. 29, No. 8, (2020) <https://t.me/joinchat/> - Music teacher, <https://infourok.ru> - music lessons

9. Muminova Muqaddas Riskulovna *International Journal of Mechanical Engineering*. The Innovative Technologiyes Of Teaching In Musical Edukational Establishments 1764-1767-betlar. 2022- йил.

10. Muminova Muqaddas Riskulovna Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. THE ROLE OF SPORT ACTIVITIES, GAMES AND COMPETITIONS IN THE NURTURE OF 6-7 YEARS OLD CHILDREN <https://uzjournals.edu.uz/tziuj68-78betlar> 2022

11. Utanov U, Urinova S. The role of creative aspects in the work of future music teachers. World Bulletin of Social Sciences. Open access Peer Reviewed Bi-Monthly. ISSN (E): 2749-361X. Journal Impact Factor 7.545 <https://scholarexpress.net/index.php/wbss.Vol> 9. Berlin 10785. Germany. April 2022.

<https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/922/825>.

12. Xoliqov A. “Pedagogik mahorat”. “Iqtisod-moliya nashriyoti”, Toshkent., 2011-yil.

13. Yusupova N. “Musiqqa savodi, metodikasi va ritmika”. “Musiqqa” nashriyoti. Toshkent., 2010-yil

TA'LIMDAGI ISLOHOTLAR AMALDA

Xasanova Nigora Nizomovna

Viloyat xalq ta'lim boshqarmasi amaliy fanlar metodisti

Najot ta'limda, najot tarbiyada, najot bilimda

Sh.Mirziyoev

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim sifati samaradorligiga erishishda yangi tahrirdagi davlat ta'lim standartining amaliyotga joriy etilgani muhim ahamiyatga ega ekanligi yoritilgan.

Shuningdek, 2022-2023-o'quv yilida nashr etilgan 3-sinf yangi avlod darsligidagi yangiliklar hamda yoshlarni bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, mumtoz san'atni keng targ'ib qilish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ham ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Davlat ta'lim standarti, kompetensiya, mumtoz qo'shiqlar, musiqa madaniyati, ta'lim tizimi, yangi avlod darsligi.

O'zbekistonda ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, darslik va o'quv qo'llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o'quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish, yoshlarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda ustozlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ta'lim maskanlarida qulay shart-sharoitlarni yaratish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2021-yil 17-dekabrda **“Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida”** gi 406-sonli buyrug'i asosida amaliyotga joriy etilgan davlat ta'lim standartining maqsadi – umumiy o'rta ta'lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy - iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm - fan va zamonaviy axborot - kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma'naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Shuni ta'kidlash joizki, ushbu davlat ta'lim standartida barcha fanlarni o'rganish bosqichlari darajalar bilan belgilangan. Bir fan misolida fanni o'rganish bosqich darajalari haqida ma'lumot berib o'tamiz.

Barchamizga ma'lumki, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida musiqa madaniyati fanini o'qitishning maqsadi o'quvchilarning ma'naviy, badiiy, axloqiy madaniyatini shakllantirish, milliy g'urur, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didini o'stirish, o'zbek hamda jahon kompozitorlari asarlarini tinglab tushunish va undan zavqlanishga o'rgatishdan iborat.

Estetik fanlar turkumiga kiradigan musiqa madaniyati fani bo'yicha umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablari: Umumiy o'rta ta'lim muassasalari boshlang'ich 4-sinf bitiruvchilari **A1** musiqa madaniyati fanini o'rganishning boshlang'ich darajasi, umumta'lim maktablarining 7-sinf bitiruvchilari **A2** musiqa madaniyati fanini o'rganishning tayanch darajasi hisoblanadi.

Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslari: musiqa tinglash, jamoa bo'lib kuylash, musiqa savodi faoliyat turlari bo'yicha olib boriladi. Bunda, keltirilgan faoliyat turlari bo'yicha bitiruvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim ko'nikma va malaka quyidagilarni qamrab oladi:

1. Musiqiy savodxonlik kompetensiyasi

A1

Musiqa san'at turlaridan biri ekanligini ajrata oladi; milliy musiqa merosi haqida tushunchaga ega bo'ladi; oddiy musiqaga oid atamalarni bir - biridan ajrata oladi; musiqaning ifoda vositalaridan (o'lchov - usullar, dinamik belgilar, repriza va boshqalardan) foydalana oladi, musiqaning badiiy tavsifini (quvnoq, sho'x, g'amgin va boshqalarni) bila oladi.

A2

Musiqa san'atning qadimiy turi ekanligi, o'zbek xalq musiqasi asrlar davomida sayqal topib, rivojlanganligi, u xalqimizning boy madaniyati, milliy qadriyatlarini o'zida aks ettirishi va umumbashariy jahon musiqa madaniyatining ajralmas bir bo'laki ekanligini tasavvur qila oladi; O'zbekiston hududida mumtoz musiqaning mahalliy an'analarga ega ekanligi, ularning o'xshashligi va o'ziga xosligini farqlay oladi; har bir mahalliy uslubda o'ziga xos ijrochilik uslublari va cholg'u asboblarni farqlay oladi; Farg'ona — Toshkent, Samarqand — Buxoro, Surxondaryo — Qashqadaryo, Xorazm ijrochilik uslublari xususiyatlari, mashhur musiqa janrlarini (maqom, doston, katta ashula, folklor musiqasini) va ularning mashhur ijrochilarini bila oladi; o'zbek musiqasida sahnaviy musiqa asarlari, estrada janri, kino musiqasi va ularning o'ziga xos xususiyatlarini farqlay oladi; jahon va sharq xalqlari mumtoz musiqa namunalari bir-biridan farqlay oladi; orkestr, ansambl va xorga oid oddiy atamalarni farqlay oladi.

2. Jamoa bo'lib kuylash kompetensiyasi

A1

o'rganilgan qo'shiqlarni birgalikda kuylay oladi; jamoaviy o'rganilgan qo'shiqlarni yakka holda kuylay oladi. dinamik belgilarga qarab ovozni to'g'ri yo'naltira oladi.

A2

kuylashda dinamik belgilarga amal qiladi, o'zi va o'rtoqlari ijro etgan qo'shiqlarning ijrochilik saviyasi va badiiy sifatini baholay oladi; o'rganilgan qo'shiqlarni sof ohangda kuylay oladi; kuylash madaniyatiga va mahoratiga ega bo'la oladi; xorda kuylay oladi.

3. Musiqa tinglash va tahlil qilish kompetensiyasi

A1

kuyni tinglaydi va unga tavsif bera oladi; musiqaning tovush tembridan qaysi cholg'uda (zarbli, chertma, damlida) ijro etilganligini topa oladi.

A2

musiqa janrlarining nomlarini ayta oladi va ijro uslubidan ularni farqlay oladi; o'zbek xalq ommaviy va kasbiy musiqa janrlarining mahalliy uslubdagi sodda variantlarini tinglab ajrata oladi.

Ta'lim sohasida amaliyotga tadbiiq etilayotgan qaror va farmonlar yosh avlodni barkamol bo'lib kamol topishini ko'zda tutadi. Shu ma'noda, yangi tahrirdagi davlat ta'lim standartining tarkibiy qismi umumiy o'rta ta'lim milliy o'quv dasturi loyihasi asosida 2022-2023-o'quv yilida musiqa madaniyati fanidan 3-sinf uchun yaratilgan yangi avlod darsligidagi yangi mavzularga to'xtalsak, darslikning 3-bobida "Ansambl turlari" ruknida berilgan Shermat Yormatov nomidagi "Bulbulcha" bolalar xor va raqs ansambli, "Tomosha" bolalar musiqiy teatr-studiyasi kabi mavzular o'quvchilarning ansambl to'g'risidagi bilimlarini boyitish bilan birga o'quvchilarda jamoa bo'lib birgalikda faoliyat yuritish, jamoa a'zolarini hurmat qilish kabi insoniy fazilatlarga ega bo'lishni, 4-bobida "Kompozitorlar bolalarga" ruknida o'rganish uchun berilgan kompozitor Mutal Burhonov musiqasi, Turob To'la she'ri bilan "Do'ppi tikdim" qo'shig'i, Kompozitor Xurshida Hasanova musiqasi, Ibrohim Jiyonov she'ri bilan "Bog' ichida" qo'shig'i kabi asarlar esa o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va ahloqiy madaniyatini rivojlantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga xizmat qiladi..

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni har tomonlama qo'llab - quvvatlash, ularning ijtimoiy faolligini oshirishga doir qo'shimcha chora -tadbirlar to'g'risida" gi 2021-yil 13-iyuldagi **PF 6260 - sonli farmoni 2-ilova 40.1-bandiga** asosan ta'lim muassasalarida yoshlar o'rtasida mumtoz qo'shiqlarini ijro etish uchun tashkil etilgan Karaoke maydonlarida "Bir kelib ketsun", "Dutorim", "Ey nozanin", "Qaramaysiz", "Dog'man", "O'xshaydiku", "Kuygay", "Qo'shchinor", "So'lim", "Tanovor-1", "Farg'ona tong otguncha" kabi qo'shiqlar o'rganilishini yo'lga qo'yish orqali yoshlar ongida milliy qadriyatlarga hurmat, milliy ma'naviy merosni o'rganish hamda kelgusi avlodga yetkazishdek oliy maqsad mujassam.

Xulosa qilib aytganda, tezkor ilm - fan taraqqiyoti davrida ta'limdagi islohotlar bugungi kun o'qituvchisini zamon bilan hamnafas faoliyat olib borishga undaydi. Yurtimiz kelajagi, yoshlarning olayotgan bilimi va oldiga qo'ygan ertangi maqsadlari ijobatiga bog'liq. Chunki yoshlarimizning ta'lim muassasalarida olgan mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olishi pedagoglarning o'z oldiga qo'ygan maqsadiga to'laqonli erishganini anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida" gi 406 – sonli buyrug'i. 2021 yil.17.12.Toshkent.
- 2.Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik.Toshkent-2022
- 3.Internat sayti.

YUQORI SINIF MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA KEYS-STADI INTERFAOL METODIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

*Xidirova Dilrabo Ibrohim qizi JDPU II kurs magistri Jizzax viloyati
Mirzacho'l tumani 18-umumiy o'rta ta'lim maktabi Musiqa o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta talim maktablarining yuqori sinf o'quvchilariga musiqa madaniyati darslarinida Keys-stadi interfaol metodini qo'llash va tashkil qilish orqali dars samaradorligini oshirishda o'z o'rnida foydalanish, bu metodning maqsadi, vazifasi, afzalligi, ma'naviy-ma'rifiy, g'oyaviy-tarbiyaviy ahamiyati, o'quvchilarni fikrlashga undaydigan foydali tomonlari bo'yicha ma'lumotlar berilib, respublikamizning eng ilg'or, tajribali olimlarining pedagogik tadqiqot ishlari natijalar asosida metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlari: Musiqa madaniyati, Keys-stadi, amaliy keys, ta'limiy keys, ilmiy-tadqiqotchilik keysi, vaziyat, taxlil, interfaol metod, Garvard, [INSEAD](#), [LBS](#), [HEC](#), [LSE](#), [ESADE](#), Rossiya, biznes maktabi.

“Kelajak bugundan boshlanadi” - deydi dono xalqimiz. Xozirgi kunda o'sib kelayotgan yoshlarni yuksak ma'naviyatli, har tomonlama uyg'un rivojlangan barkamol shaxs qilib tarbiyalashimizda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan musiqa madaniyati fani muhim o'rin egallaydi. Hurmatli prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning tashabbusi bilan respublikamizda ta'lim tizimini tubdan yangilash, uni milliy asoslarda qaytadan shakllantirish borasida olib borilayotgan islohatlar negizida yosh avlodni milliy g'oya va mafkura ruhida milliy musiqa madaniyatimizni aqlash va milliy cholg'ular yaxshi anglash, jismonan sog'lom va ma'nan barkamol insonlar qilib tarbiyalash vazifalari yotadi. Ta'limning barcha bo'limlaridan fanlar bo'yicha ishlab chiqilgan davlat ta'lim standartlari talablari faqatgina o'quvchilarga chuqur bilim va tarbiya berishni emas, balki ertangi kun yaratuvchulari bo'lmish o'quvchilarni ta'limning keyingi bosqichlariga tayyorlash vazifalarini ham ko'zda tutadi. Bu esa amaldagi ta'lim tizimining barcha bosqichlarida muhim didaktik ahamiyatga ega bo'lgan o'quv fanlarining bir-biri bilan o'zaro aloqador mexanizmlaridan interfaol usullardan o'z o'rnida va samarali foydalanish va shu orqali ta'lim va tarbiya ishlarini takomillashtirib borishni taqozo etdi. Musiqa ta'limining barcha bosqichlarida fanlarning integirasyalashtiruv jarayoni shuni ko'rsatdiki, fanlarni o'qitishda interfaol usullardan o'zaro aloqadorligi xususiyatlaridan maqsadli foydalanishda har bir fanni didaktik imkoniyatlaridan to'g'ri foydalansa ta'lim jarayonini mazmunli va sifatli bo'lishni kafolatlaydi,

Pedagogika fanlari tizimida fanlararo bog'liqlikda tashkil etishda umumiy jihatlari ancha keng va ilmiy asosli yoritilgan bo'lsada, lekin umumiy o'rta ta'lim fanlarini o'qitilishida o'zini tabiiy tuzulishi xususiyatlariga ko'ra bir qator fanlar bilan juda yaqin aloqadorlik va bog'lanishda namoyon bo'lishiga qaramasdan o'quvchilarning ushbu fanlarga oid bilim malaka va interfaol usullardan foydalanish metodlarining tajriba tushunchalardan foydalanishning milliy, nazariy va amaliy asoslari alohida tadqiq etilmagan. Bugungi kunda yangi O'zbekistonning yosh avlodlari Musiqa madaniyatini rivojlantirish va mustahkamlash ishlari muhim davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan masalalardan biriga aylangan. Hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlar va o'zgarishlarning rivojini ta'minlovchi insonni tarbiyalash murakkab jarayon bo'lib, ushbu jarayon alohida diqqat e'tiborga qaratilishni talab etadi. Mamlakatimizdagi harakatlar strategiyasining ma'naviy manbayi bo'lgan milliy g'oyaning yoshlarimizning mustahkam e'tiqodida, mehnatga, kelajakka, bir-biriga mehrli va

oqibatli bo‘lishlari milliy madaniyat va san’atga munosabatlariga axmeologik yondashuvlarni namoyon bo‘lishiga erishish bizning pirovard maqsadimizdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganidek: “Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak, “Mamlakatimizda madaniyat san’at taraqqiy etmasa jamiyat rivojlanmaydi”.⁴⁸ Xalqimizning rivojlanish darajasi, avvalo, milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma’noda madaniyat bu-xalqimizning, jamiyatimizning qiyofasidir. Biz O‘zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz, avvalo, milliy madaniyatimizni rivojlantirishdan boshlashimiz lozim.

Yuksak ma’naviyat, madaniyat axloqiy sifatlarga ega bo‘lgan shaxsni tarbiyalash muammosi siyosiy, fuqorolik va ma’naviy-madaniy sohalarida islohatlar jadallik bilan amalga oshirilayotgan bugungi kunda, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar barcha sohalaridagi kabi musiqa o‘qituvchilarining zimmasiga ham katta vazifalar yuklaydi. Bu omil umumta’lim maktablari, ayniqsa, maktabdan tashqari ta’lim muassasalarida amalga oshiriladigan ta’lim jarayonida alohida e’tibor qaratish lozimligidan dalolat beradi. Xalqimizning betakror an’analarini tarannum etuvchi kuy va qo‘shiqlarning ma’naviy-estetik tarbiyaviy mazmunini musiqa fanlarida va to‘garak ishlarida o‘quvchilar ongiga singdirishda zamonaviy interfaol metodlar asosiy vositasi bo‘lib hizmat qiladi. Shunday ekan, biz maqolada anashunday metodlardan biri Keys-stadi metodining maqsadi, vazifasi hamda uning ta’lim jarayonida o‘quvchilarga foydali tomonlarini ochib berishga harakat qildik.

Keys-stadi inglizcha sase-aniq vaziyat, stadi-ta’lim so‘zlarining birikuvidan hosil qilingan bo‘lib, aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan ta’lim metodidir. Mazkur metod muammoli ta’lim metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni o‘rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Agar u o‘quv jarayonida ma’lum bir maqsadga erishish yo‘li sifatida qo‘llanilsa, metod xarakteriga ega bo‘ladi, biror bir jarayonni tadqiq etishda bosqichma-bosqich, ma’lum bir algoritm asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni o‘zida aks ettiradi.

Ushbu metod dastlab 1920 yilda Garvard biznes maktabida qo‘llanilgan. Garvard biznes maktabining o‘qituvchilari biznes yo‘nalishidagi aspirantura bo‘limi uchun to‘g‘ri keladigan darsliklarning mavjud emasligini tez anglyadilar. Ushbu masalani echish uchun biznes maktabining o‘qituvchilari tomonidan qo‘yilgan dastlabki qadam etakchi biznes amaliyotchilaridan intervyu olish hamda mana shu menejerlarning faoliyati, unga ta’sir etuvchi omillar yuzasidan batafsil xisobot yozish bo‘ldi. Ma’ruza tinglovchilarga u yoki bu tashkilot to‘qnash kelgan konkret vaziyat, ushbu vaziyatni tahlil etish va mustaqil ravishda yoki jamoa bo‘lib munozara tashkil etish asosida uning echimi topish tarzida taqdim etilar edi. Keyinchalik keys metodi biznes yo‘nalishidagi ta’lim muassasalarida keng targ‘ib etilgan. Hozirgi kunda esa, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish nuqtai nazaridan mazkur metod tarafdorlari ko‘payib bormoqda. XX asrning 50 yillaridan boshlab biznes-keyslar G‘arbiy Evropa mamlakatlarida ommalashdi. Evropaning etakchi biznes maktablari [INSEAD](#), [LBS](#), [HEC](#), [LSE](#), [ESADE](#) va boshqalar keys-stadi metodi asosida dars beribgina qolmay, keyslarni yaratishda ham faol ishtirok eta boshlaydilar.

2000 yillarning birinchi yarmidan boshlab chet el oliy o‘quv yurtlarida tabiiy o‘quv modullar va texnik o‘quv modullarni o‘qitishda keys-stadi texnologiyasidan foydalanish

⁴⁸ Sh. M. Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qattiyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz. T: O‘zbekiston. 2017 yil.

tendensiyasi kuzatilib, hozirgi kunda keys-stadi ta'lim texnologiyasi muammoli ta'limning etakchi usullaridan bo'lib qoldi., eng umumiy tarzda keys-stadi texnologiyasining mohiyati quyidagicha izohlanishi mumkin: ushbu texnologiya vositasida tinglovchi (tinglovchi)ga real hayotiy vaziyatni anglash taklif etiladi, ayni paytda bu vaziyatning tavsifida nafaqat u yoki bu amaliy muammo, balki shu muammoni echish natijasida egallanishi zarur bo'lgan bilimlar kompleksi aktuallashishi ham kuzatiladi. Ta'kidlash joizki, muammoning o'zi mohiyatan echimga ega bo'lmaydi.

Keys-stadi ta'lim texnologiyasining Rossiya ta'lim tizimiga kirib kelishi XX asrning 70-80 yillariga to'g'ri kelsada, amalda ushbu texnologiyaning ta'lim tizimi sharoitida ommalashuvi XXI asrning boshlariga to'g'ri keladi. Rossiyada ushbu metodni ishlab chiqish va asoslashga G.A.Bryanskiy, Yu.Yu.Ekaterinoslavskiy, O.V.Kozlova, Yu.D.Krasovskiy, V.Ya. Platov, D.A.Pospelov, O.A.Ovsiyannikov, V.S.Rapopport va boshqalar hissa qo'shdilar. Ayni paytda O'zbekiston ta'lim tizimiga ham keys-stadi ta'lim texnologiyasi muammoli ta'lim texnologiyalari qatorida kirib kelgan va bugungi kunda eng samarali metodlardan biri hisoblanadi.

Keys-stadi metodi – bu ta'limdagi metodik yangilik bo'libgina qolmay, balki uning ta'lim tizimida keng ishlatilishi zamonaviy ta'lim tizimidagi vaziyatga ham bog'liq. Aytish mumkinki, ushbu texnologiya asosan yangi bilim, ko'nikmalarni o'zlashtirishga emas, o'qituvchi va tinglovchilarning umumiy intellektual va kommunikativ salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan.⁴⁹

Keys-stadi interaktiv ta'lim metodi sifatida tinglovchilar tomonidan eng afzal ko'riladigan metodlar qatoriga kirmoqda. Buning sababi sifatida ushbu metod tinglovchilarga tashabbus bildirish, nazariy holatni o'zlashtirishda hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda mustaqillikka ega bo'lish imkoniyatini berishida ko'rish mumkin. O'z navbatida vaziyatlarning analizi (tahlili) tinglovchilarning kasbiy shakllanish jarayoniga kuchli ta'sir o'tkaza olishi, ularning kasbiy jixatdan “ulg'ayishiga” xizmat qilishi, ta'lim olishga nisbatan qiziqish va ijobiy motivatsiyaning shakllantirishi alohida ahamiyatga ega. Keyslar metodi o'qituvchining tafakkur turi sifatida, alohida paradigma ko'rinishida gavdalanib, ijodiy salohiyatni rivojlantirish, noan'anaviy tarzda fikrlash imkoniyatini beradi. Bunga albatta, ta'lim tizimining demokratlashuvi va modernizatsiyalashuvi, pedagogik kreativlikka ochilgan keng yo'l, ularda progressiv tafakkur uslubini hamda pedagogik etika, pedagogik faoliyat motivatsiyasini shakllantirishi ham misol bo'la oladi.

Keys-stadi ta'lim texnologiyasi tarkibidagi keysdagi harakatlar tavsif ko'rinishida berilishi mumkin, bunda tinglovchidan ushbu tavsifni anglash, ya'ni tavsiflangan vaziyatning natijalari, samaradorligi yuzasidan mushohada yuritish talab etiladi. Aks holda ular muammoning echimlari sifatida taklif etiladi. Har ikkala holatda ham amaliy harakatlar modelini ishlab chiqish ta'lim oluvchilarning kasbiy fazilatlarini shakllantirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Keys-stadi ta'lim metodining kategorial apparatini shakllantirish undan foydalanishning samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkoniyatini beradi hamda ta'lim jarayonida metodning texnologizatsiyasiga yo'l ochadi. Keys-stadi ta'lim texnologiyasining asosiy tushunchalari qatoriga “vaziyat” va “tahlil”, ushbu ikki tushunchaning uyg'unlashuvidan kelib chiqqan “vaziyat tahlili” kiradi. Falsafiy nuqtai nazardan “vaziyat” atamasi o'z ichiga bir qator

⁴⁹ Abduqodirov A.A., Astanova F.A., Abduqodirova F.A. “Case-study” uslubi: nazariya, amaliyot va tajriba. – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2012, 134 b.

kontekstlarni birlashtiradi. Shuning uchun, ushbu atama yuqori darajadagi barqarorsizlik bilan tavsiflanuvchi va o'z tarkibida bir qator ziddiyatlarga ega bo'lgan muayyan holat sifatida izohlanishi mumkin. Vaziyat aksariyat hollarda o'zgarish moyilligiga ega bo'lib, uning o'zgarishi ushbu vaziyatda ishtirok etuvchi insonlarning faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Vaziyat insonlar ta'siriga nisbatan ochiq bo'lib, insonlarning xatti-harakatlari esa bu vaziyatda o'z maqsadlariga erishishlari va qiziqishlarini qondirishlariga bog'liq bo'ladi. Vaziyatlar shunday ijtimoiy tizimlarda "paydo bo'ladi"ki, ularda xulq-atvorning qattiq determinatsiyasi kuzatilmaydi, ijtimoiy sohada ko'plab ijtimoiy kuchlarning o'rtasida o'zaro ta'sir, raqobat va kurash mavjud bo'ladi. Shu tufayli vaziyatlar tahliliga asoslangan har qanday metod kabi keys-stadi ta'lim texnologiyasi plyuralizm, o'z-o'zini anglash va jamoaviylik, ayni paytda mustaqillikni taqozo etadi.⁵⁰

Keys-stadi metodining yana bir bazaviy kategoriyasi bu "tahlil (analiz)"dir. Tahlil etish kategoriyasi ob'ektni xayolan bo'laklarga bo'lish yoki ilmiy tadqiq etish sifatida tushunilishi mumkin. Analizning turli klasifikatsiyalari mavjud bo'lib ommaviy analiz tasnifini quyidagicha belgilaymiz: tizimli analiz, korrelyasion analiz, faktorli analiz, statistik analiz va boshqalar. Umuman olganda aytish mumkinki, analizning ushbu barcha turlari keys-stadi texnologiyasi doirasida qo'llanilishi mumkin bo'lib, bu holat texnologiyaning imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Keys-stadida vaziyatni anglash, tafakkur qilish jarayonida amalga oshishi mumkin bo'lgan bir qator analitik faoliyat turlari ishtirok etishi mumkin. Bu esa o'z navbatida o'qituvchidan yuqori darajadagi metodologik madaniyatni talab etadi.

Keys-stadi metodi mohiyatan quyidagi didaktik tamoyillarning ketma-ketligiga asoslanadi:

1. Har bir tinglovchiga individual yondashuv, uning ehtiyojlarini va ta'limiy uslubini inobatga olish. Bu tamoyil ta'lim jarayonini tashkil etmasdan avval tinglovchilar haqida maksimal axborotni olishni nazarda tutadi.

2. Ta'limda maksimal darajada erkinlik berish (o'qituvchilarni tanlash imkoniyati, o'quv modullarni tanlash imkoniyati, topshiriqlar va ularni echish uslublarini erkin tanlash imkoniyatining mavjudligi).

3. Tinglovchilarni topshiriqlarni echishda zarur bo'lgan ko'rgazmali materiallar bilan etarli miqdorda ta'minlash (ilmiy maqolalar, video va audio tasmlar, u yoki mahsulotlar).

4. Asosiy muammolar atrofida jipslashtirilgan nazariy materialni ratsional uzatish.

5. O'qituvchi va tinglovchi o'rtasidagi faol hamkorlik munosabatlari. Tinglovchi istalgan vaqtda o'qituvchiga savol bilan murojaat qilishi mumkin.

6. Tinglovchi shaxsining kuchli jixatlarini rivojlantirishga urg'u berish.

Keys-stadining muammoli vaziyatining determinatsiyasi asosiy manbalari turlicha tasnifga ega bo'lishi mumkin. Keys-stadini tuzishning amaliyotida asosan bir manbaning usutunlik qilishi kuzatiladi. Ushbu yondashuv, manbalarning ta'siriga ko'ra, keys-stadi texnologiyasi doirasida keyslarni tasnifga asos sifatida xizmat qilishi mumkin. Bunda *amaliy keyslarni* ajratish mumkin, ular mutlaq hayotiy vaziyatlarni tavsiflaydi; bundan tashqari *ta'limiy keyslar* guruhini ham ajratish mumkin, ularning asosiy vazifasi ta'lim berishdir; *ilmiy-tadqiqotchilik keyslari*, tadqiqotchilik faoliyatini yuzaga keltirish maqsadini ko'zlovchi keyslar sarasiga kiradi.

⁵⁰ Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovasion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2008. – 150 b.

Amaliy keyslarning asosiy vazifasi – hayotiy vaziyatni mukammal darajada aks ettirishdir. Mohiyatan ushbu keyslar toifasi vaziyatning amaliy modeleni shakllantiradi. Bunday paytda keys-stadining ta'limiy vazifasi tinglovchilarda u yoki bu xulq-atvor andozlarini qaror toptirish, qaror qabul qilish va ma'lum bilim, ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Tabiiyki bu guruhdagi keyslar maksimal darajada ko'rgazmali va mukammal bo'lishi kerak. Uning asosiy mazmuni hayotni anglash va optimal faoliyat yuritish qobiliyatiga ega bo'lish hisoblanadi.

Keys-stadi metodi o'zida ta'limiy funksiyani mujassam etsada, keys-stadining turli xillarida ushbu funksiyaning namoyon bo'lish darajasi turlicha bo'ladi. SHuning uchun ta'limiy funksiyasi etakchilik qilayotgan keyslar hayotni o'ziga xos tarzda aks ettiradi.

Birinchidan, ushbu keyslar mutaxassis kundalik hayotida ko'p uchraydigan kasbiy faoliyat davomida to'qnash kelishi mumkin bo'lgan tipik vaziyatlar to'plamini aks ettiradi.

Ikkinchidan, ta'limiy keyslarda birinchi o'rinda ta'limiy va tarbiyaviy vazifalar turadi. Bu esa hayotni aks ettirishda ma'lum bir shartli holatlarni taqozo etadi.

Ayni shunday xususiyatlar tadqiqotchilik keys-stadi texnologiyasiga xos bo'lib, uning asosiy mazmunini insonning vaziyatga tegishli yangi ma'lumotga va unda o'zini tutishning yangi usullariga ega bo'lish tashkil etadi. Uning ta'limiy funksiyasi ilmiy tadqiqot ko'nikmalarini modellashtirish metodi vositasida egallashdan iborat bo'ladi. SHuning uchun bunday keyslar texnologiyasidan kadrlarga dastlabki kasbiy bilimlarni berishda emas, bevosita kadrlar malakasini oshirishda, ya'ni mukammal kasbiy ko'nikma va malakalarga ega, tadqiqotchilik faoliyatiga tayyor sub'ektlar bilan ishlashda foydalanish maqsadga muvofiq.

Keys-stadi metodidan foydalanishda har bir keysning strukturasi (tuzilishi) alohida ahamiyaga ega bo'ladi.

Har qanday keys quyidagi strukturaga ega bo'ladi:

- ✓ vaziyat– muammo, hayotdan misol;
- ✓ vaziyatning konteksti – xronologik, tarixiy, joy konteksti, harakat ishtirokchilari o'ziga xosliklari;
- ✓ muallif tomonidan keltirilgan izoh;
- ✓ keys-stadi metodi bilan ishlashda topshiriqlar va savollar to'plami;
- ✓ ilova.

Qaysi turga kirishidan qat'i nazar keys-stadi texnologiyasi o'zi ichiga mana shu tarkibiy qismlarni oladi. Ularning to'g'ri ketma-ketlikda, zarur qonuniyatlar asosida joylashtirilishi texnologiya samaradorligini oshiradi. SHuning uchun keys-stadi texnologiyasini ishlab chiqish bosqichlarini alohida ko'rsatib o'tishni zarur deb bildik.

Keys-stadi metodini ishlab chiqish bosqichlari:

1. Ta'limiy maqsadlar tizimida ushbu keysning o'rnini belgilash.
2. Keysning mavzusiga bevosita dahldor bo'lgan institutsional tizimni izlash.
3. Vaziyat modelini tashkil etish yoki uni tanlash.
4. Tavsifni yaratish.
5. Qo'shimcha axborotni to'plash.
6. YAxlit matnni tayyorlash.
7. Keys-stadi metodini taqdimotini tayyorlash, munozarani tashkil etish.

Keyslar bilan ishlashning turli variantlari bo'lib, ular o'qituvchining kreativlik qobiliyatidan kelib chiqadi. Quyida keys-stadi texnologiyasi asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarning eng umumiy tasnifi keltirilgan.

Mashg'ulotni tashkil etish bosqichlari:

A. Birgalikdagi faoliyatga jalb etish bosqichi.

Uning asosiy vazifasi – umumiy faoliyatga motivatsiyani uyg‘otish, tashabbus bildirishga undash.

B. Birgalikdagi faoliyatni tashkil etish bosqichi.

Uning asosiy vazifasi-muammoni echishga qaratilgan faoliyatni tashkil etish. Faoliyat kichik guruhlarda yoki individual tarzda tashkil etilishi mumkin.

C. Birgalikdagi faoliyat refleksiyasi bosqichi.

Uning asosiy vazifasi – keys-stadi texnologiyasi bilan ishlashning ta’limiy va tarbiyaviy natijalarini tahlil qilish.

Keys-stadi metodini amalga oshiruvchi o‘qituvchi faoliyatining bosqichlari:

- 1) tayyorgarlik bosqichi;
- 2) asosiy bosqich: keys-texnologiyasini amalga oshirish;
- 3) tahliliy, baholovchi bosqich.

Tayyorgarlik bosqichi. Auditoriyadan tashqarida bajariladigan murakkab ilmiy-tadqiqotchilik, uslubiy va konstruksiyalash faoliyatini o‘z ichiga olib, o‘qituvchi harakatlarining quyidagi izchilligi bilan bog‘liq bo‘ladi:

- keysni yaratadi (agar tayyor keysdan foydalanilmasa);
- ta’lim texnologiyasini loyihalashtiradi va rejalashtiradi;
- tinglovchilarni tayyorlaydi, ularning keys bilan mustaqil ishlashi uchun o‘quv va uslubiy ta’minotni ishlab chiqadi.

Keys – texnologiyasini loyihalashtirish.

O‘qituvchi harakatlarining izchilligi:

- Ishchi dastur asosida o‘quv mashg‘uloti shakli, turi va vaqtini belgilaydi (amaliy mashg‘ulot/mustaqil ish/ o‘quv amaliyoti).
- O‘quv mashg‘uloti maqsadini oydinlashtiradi, o‘quv mashg‘ulotidan kutiladigan natijalar va pedagogik vazifalarni belgilaydi.
- Ta’limning optimal modelini (belgilangan vaqtda va qaror topgan sharoitlarda qo‘yilgan maqsadning amalga oshirilishini va prognoz qilinadigan o‘quv natijalariga erishishni kafolatlaydigan optimal ta’lim metodlari, shakl va vositalari majmui)ni tanlaydi.⁵¹

O‘quvchilar tomonidan keysni echish bosqichlari:

Jahon tajribasi ko‘rsatishicha, agar o‘quvchilarning keysni hal etish texnologiyasi ikki bosqichdan iborat bo‘lsa, ta’limiy maqsadlarga erishishda yanada ko‘proq samaraga erishish mumkin:

Birinchi bosqich – keysni hal etish bo‘yicha individual (sinf dan tashqari) ish.

Ikkinchi bosqich – keys bilan birgalikda jamoa bo‘lib (sinfda) ishlash.

Birinchi bosqich – keysni hal etish bo‘yicha individual ish

O‘quvchi mustaqil ravishda:

- 1). Keys materiallari bilan tanishadi;
- 2). Taqdim etilgan vaziyatni o‘rganadi, izohlaydi va asoslaydi;
- 3). Muammo va muammo osti muammolarni ajratadi, vaziyatni tadqiq va tahlil qilish usullarini tanlaydi;
- 4). Berilgan amaliy vaziyatni tahlil qiladi; ajratilgan muammoni hal etish usullari va vositalarini belgilaydi va asoslaydi;

⁵¹ Kamoldinov M., Vaxobjonov B. Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: Talqin, 2010. – 128 b.

5). Taklif etiladigan qarorni amalga oshirish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqadi.

Ikkinchi bosqich – keys bo'yicha jamoa bo'lib ishlash.

Tinglovchilar kichik guruhlariga bo'linib, birgalikda keys ustida ishlashadi:

1). Guruh a'zolarining vaziyat, asosiy muammolar va ularni hal etish yo'llari haqidagi turli tasavvurlarini muvofiqlashtirishadi;

2).Echimning taklif etilgan variantlarini muhokama qiladilar va baholaydilar, qo'yilgan muammo nuqtai nazaridan ushbu vaziyat uchun eng maqbul variantni tanlashadi;

3). Muammoli vaziyat echimiga olib keladigan tanlangan harakatlar yo'lini amalga oshirishning aniq qadamba-qadam dasturini batafsil ishlab chiqadilar;

4). Taqdimotga tayyorlanadilar va namoyish etiladigan materialni rasmiylashtirishadi.

Keys-stadi metodining mohiyatini ochib beruvchi ko'plab ilmiy ishlar nashr etilgan. Biroq uni amaliyotda qo'llashga doir keys topshiriqlarini etarli deb bo'lmaydi. Ana shu asosdan kelib chiqqan holda, quyida ayrim keys topshiriqlaridan namunalar keltirib o'tamiz.

Keyslar tipologiyasi asosiy manbalari, syujetli mavjudligi, vaziyat bayonining vaqtdagi izchilligi, keys ob'ekti, materialni taqdim etish usuli, hajmi, tuzilmaviy xarakterga egaligi, o'quv topshirig'ini taqdim etish usuli, didaktik maqsadi, taqdim etish usuliga ko'ra ajaratiladi.

Keys metodini amalga oshirish bosqichlari:

- Keys bilan tanishuv;
- Asosiy muammoni ajratib olish;
- G'oyalarni yig'ish va izlash;
- Keys echimini tavsiya qilgan g'oyalarni tahlil qilish;
- Keys echimi va tavsiyalar

Keysning pedagogik pasporti:

- Pedagogik annotatsiya;
- Keys;
- Ta'lim oluvchiga uslubiy ko'rsatmalar;
- O'qituvchi-keysologning keys echimi bo'yicha varianti;
- O'qitishning keys texnologiyasi

Keys texnologiyasini amalga oshirishda o'qituvchi faoliyatining bosqichlari:

- tayyorgarlik bosqichi;
- asosiy bosqich: keys texnologiyasini amalga oshirish
- tahliliy, baholovchi bosqich

Xulosa qilib aytganda Keys-stadi metodining ta'lim jarayonida qo'llanishi quyidagi natijalarga, ta'limiy imkoniyatlarga ega bo'lib, ularni quyidagi ta'limiy natijalar: bilimlarni, ko'nikmalarni o'zlashtirish bilan bog'liq va tarbiyaviy natijalar: ular o'z navbatida ta'limning shaxsiy samaradorligiga erishish, o'quvchilarning o'zaro ta'sir jarayonida o'zida yangi shaxsiy va kommunikativ, kasbiy fazilatlarini kashf etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abduqodirov A.A., Astanova F.A., Abduqodirova F.A. "Case-study" uslubi: nazariya, amaliyot va tajriba.-T.Tafakkur qanoti, 2012.-134 b.

2. Abduqodirov A.A. "Pedagogika" va "Psixologiya" fanlaridan keyslar va ulardan foydalanish uslubiyoti. – T.Fan va texnologiya, 2015.-20 b.

3. Abduqodirov A.A. Otabaeva F.T.Ijodiy tasavvur va uni rivojlantirishning intellektual qurollari. – Namangan, 2014.-116 b.

4. Inoyatov U., Muslimov N., Ro‘zieva D., Usmonboeva M. *Pedagogika*. – Toshkent, 2013.-256 b.
5. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. *Ta’limda innovasion texnologiyalar*.-Toshkent: Iste’dod, 2008.-150 b.
6. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. *Tarbiyada innovasion texnologiyalar*. – Toshkent: Iste’dod, 2010.-141 b.
7. Kamoldinov M., Vaxobjonov B. *Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari*. – Toshkent: Talqin, 2010.-128 b.
8. Ro‘zieva D., Usmonboeva M., Xoliqova Z. *Interfaol metodlar: mahiyati va qo‘llanishi*. – toshkent, 2013.-108 b.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Sh. M. Mirziyoyev. *Milliy taraqqiyot yo‘limizni qattiyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz*. T: O‘zbekiston. 2017 y.
2. Sh. M. Mirziyoyev. *Yoshlarni ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus*.19.03.2019 y.

MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA MUSIQIY TARBIYA

Xolmurodova Nigora Ixtiyor qizi

Jizzax davlat pedagogika institute “Musiqqa madaniyati” fakulteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston uzluksiz ta’lim tizimining bo‘g‘inlaridan biri maktabgacha ta’lim-tarbiya tizimida musiqiy tarbiyaning qay tarzda yo‘lga qo‘yilganligi xususida so‘z boradi. Jumladan, o‘quvchilar kichik yoshidanoq musiqiy tarbiya oladigan maktabgacha ta’limda musiqaning bolalar kamol topshidagi o‘rni va ahamiyatiga to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: musiqqa, ta’lim, uzluksiz ta’lim, tarbiya, estetika, did, maktabgacha ta’lim, komillik,

Mamlakatimiz yoshlarga oid, ularning kuchli, bilimli, salohiyatli bo‘lishiga oid bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalarni belgilab olar ekan, ularning ma’naviy va madaniy jihatdan komillikka erishishidagi muhim jihatlarga alohida e’tibor qaratgan. Musiqqa komil inson tarbiyasida uni ezgulikka yetaklovchi, ma’naviy dunyosini boyituvchi, axloqiy tarbiyalovchi, estetik didini oshiruvchi muhim omillardandir. Shu tufayli ham bola kamol topishida, uning tarbiya, ta’lim olish jarayonlarining har qanday bosqichi va ko‘rinishlarida musiqiy tarbiyaning o‘rni beqiyos.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: “...madaniyatimizni tiklab bormasak, ertaga ma’naviy ozuqa bo‘lmagan elda, xalqda, yoshda yutuq bo‘lmaydi”[3], - deb ta’kidlar ekan, bu sohada bir qator farmon, qarorlarning qabul qilinishidan musiqaning yoshlar tarbiyasida naqadar muhim o‘rin tutishini anglash mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.05.2020-yildagi PF-6000-sonli “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, 02.02.2022-yildagi PQ-112-sonli “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora – tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori shular jumlasidandir.

Musiqqa – estetik tarbiya, demokratik jamiyat kishisini tarbiyalash yo‘lida olib borilayotgan ishning tarkibiy qismiga aylanishi lozim. O‘zbekistonda ta’lim turlari:

- “Maktabgacha ta’lim va tarbiya;

- Umumiy o'rtta va o'rtta maxsus ta'lim;
- Professional ta'lim;
- Oliy ta'lim;
- Oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- Maktabdan tashqari ta'lim.”[1, 7-M] kabi bosqichlarda bo'lib, bola ta-lim va tarbiya

oladigan maktabgacha ta'lim-tarbiya tizimida musiqa yetakchi o'rin tutadi.

“Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy- axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek, bolalarni umumiy o'rtta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi.”[1,8-M] Musiqaga kichik yoshdan uyg'ongan qiziqish, bolaning kelajakda ham musiqa orqali shakllanishi zarur bo'ladigan ijobiy fazilat va jihatlarini belgilaydi. Maktabgacha ta'lim va tarbiyada musiqa orqali avvalo, bola axloqiy jihatdan tarbiyalanib boradi. Uning estetik didi, badiiy ijodkorligi, tasavvur dunyosi aynan musiqa tarbiyasi orqali rivojlanadi.

Tarbiya xususida mashxur o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy : “tarbiya – biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir” (“al-hosil” kitobida),- der ekan, shaxs tarbiyasi xususiy emas, balki ijtimoiy, milliy masala ekanligini anglash mumkin. Zero, har bir davlatning taraqqiy etishi, davrlarning qudratli bo'lishi, avlodlar tarbiyasiga bog'liqdir. Shu jihatdan bugungi kunda yoshlar, bolalar tarbiyasida ma'naviy-axloqiy jihatlarga e'tibor qaratilmoqda.

Bolalarga musiqiy-estetik tarbiya berishda bir qancha vazifalar mavjud bo'lib:

“- bolalarni tabiat go'zalliklarini, badiiy asarlarni idrok etish;

- Estetik did va hissiyotni shakllantirish;

- Hayotda go'zallik tushunchasini to'liqligicha anglashni o'rgatish;

- Bolalarga badiiy ijodkorlikni shakllantirish;

- Bolalarda go'zallikni o'z hayotlariga, o'z faoliyatlariga olib kirishni o'rgatish va hokazo.”[6, 14]

Bundan kelib chiqib, maktabgacha ta'limda musiqaga oid bir nechta vazifa belgilab olingan.

“1. Bolaning musiqiy qobiliyatini rivojlantirish.

2. Bolalarni ashula aytish va musiqaviy-ritmik malakalarga o'rgatish. Ularda musiqani qabul qilish, his etish va tushunish qobiliyatlarini tarbiyalash.

3. bolada badiiy va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish”[6, 18]

Maktabgacha ta'limda musiqa mashg'ulotlarini olib borishda musiqa tinglash orqali bolada musiqaning mazmunini tushinishga o'rgatish mumkin. Musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish oddiy qo'l, oyoq harakatlaridan boshlab o'rgatiladi. Bu orqali ilk musiqiy ritmik ko'nikmalarni hosil qilishga erishish mumkin. Kuylash asosan, jamoaviy tarzda olib borilib, kuylash jarayonida to'g'ri nafas olish, musiqiy cholg'uga jo'r bo'lish kompetensiyalarini bolalarda rivojlantiradi. Bog'cha yoshidagi bolalar kuylash bilan birgalikda qo'shiq mazmunini yanada yaxshiroq tushinishlari uchun so'zlarga mos harakatlar bajarishi maqsadga muvofiq. Maktabgacha ta'lim va tarbiyada musiqa mashg'ulotlari jarayonida bolalarni musiqiy cholg'ular bilan tanishtirib borish ham yo'lga qo'yilishi zarur.

Bola kichik yoshidanoq butun umri davomida kerakli bo'ladigan bilim, ko'nikmalarga ega bo'lib borar ekan, maktabgacha ta'lim va tarbiyada musiqa madaniyati bola ma'naviyati,

tasavvur dunyosining shakllanishida yetakchi o‘rin egallaydi. Ta’lim tizimining bu bo‘g‘inida musiqa tarbiyasining qay tarzda yo‘lga qo‘yilganligi esa, ertangi avlod axloqiy tarbiyasi, estetikasi, ma’naviyat-u madaniyatini belgilab beradigan omillardan bo‘lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahriri. 23.09.2020 yildagi [O‘RO-637-son Qonun](#)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Namangan viloyati faollari bilan o‘tkazgan yig‘ilishidagi nutqi. 2020-yil 27-iyun
3. Gulnora Sharipova. G‘ayrat Najmekdinov. «Musiqa o‘qitish metodikasi praktikumi» o‘quv qo‘llanma. “Turon-Iqbol” nashriyoti. Toshkent., 2014-yil
4. Khasanova, Navbakhor (2020) “The role of music lessons in the formation of national and intercultural competence in students.”Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal.Vol.2020 :Iss.2. Article 15. :<https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss2/15>
5. N. Hasanova O‘zbek milliy musiqa merosi taraqqiyotida xotin-qizlarning o‘rni. Актуальный вызыви современной науки IX xalqaro ilmiy konferensiya 26-27 yanvar 2017 yil.
6. Ho‘jayeva M. Umumta’lim maktablarida musiqa o‘qitish metodikasi. O‘z.D.K.tahrir-nashriyot bo‘limi. Toshkent., 2008-yil
7. “Maktabgacha ta’limda musiqiy tarbiya metodikasi” fanidan ma’ruza matni. Termiz., 2018-yil
8. Mavlonova R, Abdurahimova R. “Pedagogik mahorat”. Fan va texnologiya nashriyoti. Toshkent, 2009-yil.
9. Muminova Muqaddas Riskulovna Development And Current Status Of Uzbek Pop Music In Modern Approaches And Innovations Of Teaching The Science Of Music Culture International Journal of Advanced Science and Technology Vol. 29, No. 8, (2020) <https://t.me/joinchat/> - Music teacher, <https://infourok.ru> - music lessons
10. Muminova Muqaddas Riskulovna *International Journal of Mechanical Engineering*. The Innovative Technologies Of Teaching In Musical Edukational Establishments1764-1767-betlar. 2022- йил.
11. Muminova Muqaddas Riskulovna Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. THE ROLE OF SPORT ACTIVITIES, GAMES AND COMPETITIONS IN THE NURTURE OF 6-7 YEARS OLD CHILDREN<https://uzjournals.edu.uz/tziuj68-78betlar> 2022
12. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlarda pedagog kreativligi. “Yangilanayotgan O‘zbekistonda fan, ta’lim va innovatsiya uyg‘unligi” mavzusidagi 6-son 2-qism Respublika ko‘p tarmoqli ilmiy konferensiyasi VIII bo‘lim Toshkent 2021. 677 bet. Udk. 001.895 (575.1).
13. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlar o‘qituvchisining kreativligi. Педагогические и лингвопсихологические особенности развития, формирования и становления личности врача. Сборник тезисов Международная конференции. СамГМИ, Самарканд 5 мая 2021 год
14. Yusupova N. Musiqa savodi, metodikasi va ritmika. Musiqa nashriyoti. Toshkent., 2010-yil

ZAMONAVIY MUSIQA O'QITUVCHISIDA MUSIQIY PSIXOLOGIK BILIMNI OSHIRISHNING UMUMIY AHAMIYATLARI

Xoshimova Laziza Akbar qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti magistranti

Ilxomova Shahnoza Faxriddin qizi

Sharof Rashidov tumani 19-maktab o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada musiqa psixologiyasi tarixi va hozirgi kundagi ahamiyati, inson ruhiyatidagi dinamik ko'rinishlarning individual xususiyatlari bo'lmish temperament va unga musiqa orqali ta'sir etish hamda zamonoviy o'qituvchining kasbiy mahorati to'g'risida so'z yuritilgan. Turli temperamentga ega o'quvchilarga musiqiy asarni to'g'ri tanlab berishda bir qancha taxminiy musiqiy asarlar repertuari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: psixologiya, musiqa psixologiyasi, psixoterapiya, temperament, musiqiy asarlar, kasb mahorati, sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik.

Musiqa – bu nafaqat biz miriqib eshitadigan narsa bo'libgina qolmay, og'riqni yengillashtiradigan, stressni oladigan, o'zingizni tushunishga yordam beradigan va muloqatdagi to'siqlarni bartaraf etadigan narsa hamdir.

Muxtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Sharq taronalari” o'n ikkinchi xalqaro musiqa festivalining ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimda “-Sayyoramizda turli kelishmovchilik va qarama-qarshiliklar, urush va nizolar avj olgan tahlikali zamonda, odamzot tobora o'z dunyosiga o'ralib borayotgan bir sharoitda musiqa insonga insonligini eslatib, uning qalbida kelajakka umid va ishonch uyg'otadi. Musiqa san'ati madaniy fenomen sifatida yangi avlodni tarbiyalash va kamolga yetkazish borasida cheksiz imkoniyatlarga egadir.

San'at bilan oshno bo'lgan yoshlarning hayotga munosabati, milliy urf-odat va umumbashariy qadriyatlarga hurmati baland bo'ladi”- deya musiqaga ta'rif bergandi.

Ma'lumki, insonning ma'naviy ongi, dunyoqarashi va ma'naviy kamolotining shakllanishida musiqa sana'ti o'zining qudratli ta'sir kuchi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Haqiqatdan ham, musiqa insonning psixologik, ma'naviy, axloqiy va estetik hissiyotlariga kuchli va betakror ta'sir etish xususiyati bilan pedagogik-psixologik fanlar tizimida muhim o'rin tutadi. Bu o'rinda musiqa psixologiyasi haqida so'z yuritimiz.

Musiqa psixologiyasi – psixologiyaning shunday sohasiki, u musiqiy eshitish qobiliyatini, eshitish sezgisining chegaralari, musiqaning lad, ritmikasini his qilish, sozni taktil (paypaslab) sezish, musiqaning anglanishi, yodda saqlanishi, ijro etilishi va undan bahramand bo'lish kabi masalani qamrab oladi.

Bizda musiqa psixologiyasining mazkur sohasi deyarli o'rganilmagan, negaki u ham tibbiyot, ham musiqa sohalari bo'yicha jiddiy bilimga ega bo'lishni taqozo etadi. Musiqaning inson salomatligi, emotsional holatiga ta'sir etish imkoniyati, musiqani tinglash va ijro etish jarayonidagi chuqur musiqiy kechinmalarning ijobiy ta'siri — tibbiyotda ham, musiqada ham ilmiy izlanishlar olib borish uchun muhim asosdir. Biroq musiqa psixologiyasi bo'yicha ilk izlanishlar antik davr faylasuflari asarlarida va o'rta asrlarga kelib sharqning buyuk mutaffakkirlari jumladan, olim Ibn Sino tadqiqotlarida bu sohadagi izlanishlarni ko'rishimiz mumkin.

Musiqa san'ati faqat o'ziga xos bo'lgan ko'rinish va shakllarda, shuningdek, musiqiy—badiiy janrlarda, obrazlarda inson fikri, tuyg'ulari, maqsadlari, emotsiyalari va temperamentini aks ettiradi. Bunday tafvutlar musiqiy faoliyatning janri, shakli,

ko‘rinishlari, musiqiy asar mazmuniga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ham musiqa ta‘limida musiqa psixologiyasini o‘rganishda eng avvalo tarbiyaviy, psixologik, ma‘naviy-estetik maqsadlar bosh vazifa hisoblanadi.

Inson ruhiyatidagi dinamik ko‘rinishlarning individual xususiyatlarini biz temperament deb ataymiz. Ruhiy jarayonlarning o‘tish tezligi inson temperamentida namoyon bo‘ladi. Temperamentlar xilma —xilligini bu

jarayonlarning o‘tish sifati tarzida tavsiflash mumkin.

Sangvinik («sanvis» — qon) — sezilarli psixik faollikka ega odam. Fiziologiyada nerv faoliyatining kuchli vazmin tezkor turiga to‘g‘ri keladi.

Flegmatik («flegma» — zardob) — xotirjam odam. Fiziologiyada nerv faoliyatining kuchli vazmin sust turiga to‘g‘ri keladi.

Xolerik («xole» — safro) — juda serg‘ayrat odam. Fiziologiyada nerv faoliyatining kuchli novazmin turiga to‘g‘ri keladi.

Melanxolik («melayna xole» — qorasafro) — psixologik faolligi past odam. Fiziologiyada nerv faoliyatining kuchsiz turiga to‘g‘ri keladi.

Antik davr fanining temperamentning organik asoslari haqidagi ma'lumotlari faqat qiziqish uyg‘otadi, xolos. Lekin temperamentning tipologik tuzilishi to‘g‘ri tasniflangan va hozirgi vaqtgacha amal qiladi. Musiqa san'atida turli temp, dinamika, xarakterning birlashuvi asarni ijro etish jarayonida unga rangdorlik va uyg‘unlik baxsh etib turadi.

O‘quvchilarning psixologik o‘ziga xosligini, temperamentini bilish pedagogga o‘quv jarayonini to‘g‘ri tashkil etish, zarur musiqiy o‘quv repertuarni to‘g‘ri tanlash imkonini beradi. Pedagog o‘quvchilarga asar tanlashda temperamentlarning bir—biriga mos kelishi, xilma- xilligiga e‘tibor berishi katta ahamiyatga ega.

Bunda pedagog avvalo, o‘quvchi-ijrochining temperamentini aniqlab oladi va unga birinchi o‘zining temperamentiga mos asarlarni tanlab oladi va o‘quvchi-ijrochiga eshittiradi va o‘quvchi-ijrochi o‘zida kechgan his tuyg‘ularni pedagogga so‘zlab beradi. Keyingi o‘rinda esa o‘qituvchi o‘quvchiga o‘zining temperamentiga teskari ravishda asar eshittiradi. Misol uchun flegmatik yoki melanxolik temperamentga ega o‘quvchiga sho‘x, quvnoq, marsh ko‘rinishidagi asarlar, sangvinik yoki xolerik tipdagi o‘quvchilarga vazmin, og‘ir tempdagi asarlarni eshittiradi va ular ham o‘z tuyg‘ularini o‘qituvchiga aytib berishadi.

Shundan so‘ng pedagog o‘zining kasb mahoratidan kelib chiqqan holda o‘quvchi - ijrochiga o‘z temperamentidan kelib chiqib musiqiy asarlarni to‘g‘ri tanlab beradi. Albatta, to‘g‘ri tanlangan musiqiy asar o‘quvchida qiziqish va o‘sha asarni badiiy, ifodali va mazmunli tarzda ijrochiga yetkazib bera oladi.

Quyida biz bir qancha taxminiy musiqiy asarlardan foydalanish uchun ularning nomlarini keltirib o‘tamiz:

Sangvinik temperamentga ega o‘quvchilarga:

D. Shostakovichning 6,7,8-simfoniyalardan parchalar;

F. Shopen – mazurkalar va preludiyalar;

I. Strauss - Valslar;

Xolerik temperamentga ega o‘quvchilarga:

L. Betxoven - "Fidelio" operasi;

V.A. Motsart - "Don Juan" operasi;

F. List - "Vengriya rapsodiyasi" №1.

Flegmatik temperamentga ega o‘quvchilarga:

-I.S. Bax - D minordagi preludiya va fuga;

-L. Betxoven - "Egmont" uverturasi;

-F. Liszt - "Vengriya rapsodiyasi" № 2.

Melanxolik temperamentga ega o'quvchilarga:

-L. Betxoven - sakkizinchi simfoniya 1 va 4 qism;

-Rossini "Ipak zinapoyasi", "O'g'ri so'ng'iz" operalariga uverturalar;

-P. Chaykovskiy "Melanxolik serenada";

-S.S. Prokofev – №7 fortepiano sonatasining finali;

-Mendelson - skripka konsertining finali;

-P. Chaykovskiy - Oltinchi simfoniya dan mart kabi bir qancha asarlarni tanlab berish mumkin.

Musiqada asarni temperament bilan ijro etish juda muhim, bu tinglovchi idrokini faollashtiradi. Asar xususiyati ko'p holda kompozitor va ijrochi temperamentiga, ularning ruhiy holatiga bog'liq.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, ko'pchilik musiqa psixologiyasi va ijrochi, tinglovchining temperamentini "jiddiy" yoki rasmiy narsa emas deb o'ylashlariga qaramay, ushbu fanni ko'plab jiddiy ilmiy tadqiqotlar qo'llab-quvvatlaydi. Ularning natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu sohada qo'llaniladigan usullar jismoniy va aqliy muammolarning har xil turlariga juda foydali ta'sir ko'rsatadi hamda ijrochining ijro mahoratini, asarni his qilish va uni tinglovchiga yetkazib berish jarayonini bir muncha yaxshilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. R. G'.Qodirov "Musiqasi psixologiyasi". O'quv qo'llanma-T.: Musiqasi, 2005. 80-bet.
2. D. A. Maxmudova. Psixokorreksiya asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2007 yil. 90 bet.
3. Mahfuza Maxamadjonovna Xalilova, Diyora Dilshod Qizi Ergasheva MUSIQA VA INSON PSIXOLOGIYASI // Academic research in educational sciences. 2021. №CSPI conference 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/musiqasi-va-inson-psixologiyasi> (data obrasheniya: 15.11.2022).
4. Musiqadan tibbiyot sohasida foydalaniishga doir
(<https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=2975516328287608498&btnI=1&hl=ru>)
) YPVAK NATIJALAR, T FAN
5. Fanlararo aloqadorlik ta'lim samaradorligini oshirish omili.
(<https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=8299553673693530026&btnI=1&hl=ru>)
) L Xoshimova - Журнал музыки и искусства, 2021

BO'LG'USI MUSIQA O'QITUVCHILARINI XOR-DIRIJORLIK FAOLIYATIGA TAYYORLASHDA AYRIM MUAMMOLAR

Yangulov Timur –JDPU magistranti

Annotatsiya: Maqolada oliy pedagogik ta'lim tizimida bo'lgusi musiqa o'qituvchilarini xor-dirijorligi bo'yicha maktab faoliyatiga tayyorlashdagi ayrim muammolar ularni yechimida ahamiyatli mulohazalar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Oliy pedagogik ta'lim, maktab, musiqa madaniyati,dars, xor-dirijorligi, xor jamoasi, dirijyorlik apparati, sxemalari, o'lchovlar.

Oliy pedagogik ta'lim tizimid bo'lgusi musiqa o'qituvchilarini maktab ta'limiga tayyorlashdek murakkab va ko'p qirrali jarayon "Xor va xorshunoslik" fani bilan uzviy bog'liq dirijorlik kursini ham o'z ichiga oladi. Maktab musiqa o'qituvchisining ko'p qirrali faoliyatida va zarur komponent bo'lib, musiqa darslarida bir sinf-bir mustaqil xor jamoasi hisoblanadi. Xor jamoasini tashkil etish, ijrochilikka o'rgatish, ijroni boshqarishda o'qituvchi dirijor sifatida namoyon bo'ladi. Shunday ekan, xor rahbarining (o'quvchining) kuylovchi xor bilan o'zaro muloqotida uning xor-dirijorligi bo'yicha bilimi, malakaviy tayyorgarligi muhim ahamiyat kasb etadi. Xor jamoasi tomonidan kuylanadigan qo'shiq g'oyaviy-badiiy mazmunini tinglovchilarga to'laqonli etkazish, uning estetik ta'sirchanligi, emotsionalligi, bu jarayonda xonandalarni faol ishtirokini ta'minlash, muallif ichki kechinmalarini to'g'ri ifodaliligiga erishishda xor rahbarining dirijorlik mahorati muhim o'rin tutadi.

Maktab musiqa o'qituvchisi musiqa darslarini o'tish bilan bir qatorda sinfdan va maktabdan tashqari ishlar (xor to'garagi, ansamlari) ni tashkil qilish, shuningdek maktab hayotida o'tadigan bayram tadbirlari, ommaviy badiiy konsertlarni o'tkazishga bevosita mas'ul shaxsdir. Bular musiqa o'qituvchisidan faqatgina xor dirijorligi mutaxassisligi bo'yicha malakali mutaxassis bo'lib qolmasdan o'z navbatida o'quvchilarni dirijorlikka o'rgatish metodikasidan ham (o'quvchilar dirijorlik ishoralarini tushunib kuylashlari uchun dirijorlik sxemalari, o'lchovlari, pastanovka kabilar) yetarlicha bilimga ega bo'lish zarur.

Umumt'lum maktablarida dirijorlik bo'yicha olingan bilimlar o'quvchilarda dirijor sifatida zarur barcha sifatlarini shakllantira olmaydi. Bu davrda boshlovch dirijorlar eng zarur minimal bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydilar.

Maxsus o'quv-uslubiy manbalarni o'rganish, dirijorlik amaliyotini kuzatish, shuningdek, xor dirijorligi faniga ijodiy munosabat, o'z - o'zini tahlil va nazorat qilish o'quvchilar uchun ijobiy ahamiyat kasb etadi.

Dirijorlikni o'rganamiz mashg'ulotlarida o'quvchilarni muayyan asarlarga dirijorlik qilish bilan birga xor jamoasi bilan ishlash, xor jamoasiga qo'shiq o'rgatish, va dirijorlik qilish katta ahamiyatga egadir. Maktab musiqa amaliyotiga tayyorlashda asarni o'rganish, tahlil qilish, dirijorlik qilishdagi eng muhim komponentlarni aniqlash va belgilash yordamchi harakatlarni milodiy va garmonik yo'nalishlarni aniq ifodalab, xorni ta'sirchan ijrosini ta'minlaydi. Dirijor jamoasini jonli, yakunlovchi, asar mazmunini, ijrosini his qiladigan, ranglar va ovozli ijroni mahorat bilan boshqara oladigan bo'lishi lozim. Shuning uchun ham mashhur xor madaniyati namoyondalari dirijorlikni musiqaning harakat va imo-ishoralar tilida o'ziga xos tarjimai deyishadi.

Hozirgi vaqtda musiqa o'qituvchilarini xor dirijorligiga tayyorlash tizimi yetarli darajada barqarorlashgan. Bunga sabab, birinchidan umumiy o'rta ta'lim maktablari musiqa madaniyati darslari o'tilishida o'quvchilarni dirijorlikka o'rgatishga jiddiy e'tibor qaratilmaydi (yoki musiqa o'qituvchisi yetarli malakaviy tayyorgarlikka ega bo'lmaydi), oily pedagogik ta'limda esa dirijorlik soatlari o'quv rejada kam soat ajratilishi va kurslar bo'yicha o'quv materiallari o'tilishining chegaralanib qolganligi va nihoyat eng jiddiy sabab musiqa pedagogikasi yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar safida mutaxassis xodimlarining nihoyatda kamligidir.

Umumiy g'oyaviy - tarbiyaviy va musiqiy ta'limiy vazifalariga muvofiq bu fanni o'tilishida musiqa o'qituvchisi, havaskorlik xor-dirijorlai sifatida tayyorlashga ustuvor maqsad ko'zda tutilishi lozim.

Bu o'rinda:

- fan o'qitilishida talabning musiqiy qobiliyati- ya'ni musiqa eshitishi, musiqani his qilishiga, ularda ritm, xotira, musiqiy tafakkur va ijodiy yondashishni, artistizimni shakllantirish;

- xor asarlaridagi ovozlari va partiyalarni mukammal o'rganish, partituraning fortepianoda ijro etish, kontsertmeyster jo'rligida xor asariga dirijyorlik qilish.

Xor bilan ishlash tajribasiga ega pedagoglarni ta'kidlashicha dirijyor, ya'ni, bolalar xor dirijyorligining eng birinchi vazifasi xor ijrosini erkin boshqara oladigan barcha bilim va malakalarga ega bo'lishlaridir.

Oliy pedagogika ta'lim muassasalaridagi xor dirijyorligi mashg'ulotlarining maqsadi faqatgina savodxon musiqachi, xor rahbarini tayyorlash bo'lib qolmay, balki, bolalar bilan ishlay oladigan, vokal-xor usullarni biladigan, bolalarni psixologik- fiziologik imkoniyatlarini yaxshi biladigan pedagoglarni tayyorlashdir.

Maktab musiqa amaliyotida xor jamoasiga o'ziga xos ta'sirchan kayfiyat berishi bilan birga o'quvchilarga ularni o'rab turgan muhitdagi musiqa mazmunini to'g'ri baholashga o'rgatish alohida o'rin egallaydi. O'qituvchilarga xos bo'lgan ziyraklik, kuzatuvchanlik, mustaqillikka sifatlarini tarbiyalashda jamoaviy ijrochilik katta imkoniyatga egadir. Maktab o'qituvchisining musiqa tarbiyachisi sifatida o'quvchilar oldidagi muhim vazifalardan biri materialga ijodiy yondashishdan iboratdir.

Musiqa o'qituvchisi xor-dirijyor oldida bir talay o'rgatilmagan ijrochilar bilan ishlash vazifalari turadi. Bunday jamoani boshqarish birinchi navbatda ijrochilik ko'nikmasini, qo'shiq aytishga o'rgatish bilan bog'liq vazifalarni hal qilishga qaratiladi. Bundan musiqa tinglash musiqa eshituv, ritmni, tempni his qilish, "diqqat", "ijroni boshlash", "ijroni tugallash", pauzalarga rioya qilish, dirijyorlikning qo'l harakatlarini tushunish, sezish, his qilish va nafas, soz, ansambl ustida ishlash kabi muhim vazifalarni hal qila bilishi lozim bo'ladi.

Bo'lg'usi o'qituvchilarni mana shunday ko'nikma va malakalarni egallashlariga ularni dars mashg'ulotlaridan tashqari o'z ustlarida mustaqil ishlashlari ham katta ahamiyatga ega. Dirijyorlik fani bo'yicha majburiy bilim va malakalarni o'zlashtirishda fanlar bog'liqligidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, xor-dirijyorlikni o'rganishda bevosita "vokal ijrochiligi", "musiqa nazariyasi", "solfedjio", "garmoniya", musiqa o'qitish metodikasi, "pedagogik amaliyot" mashg'ulotlarida olingan bilimlar asqotadi.

Dirijyorlik sinfida olingan bilimlar talabalarga:

- musiqaviy- ma'nodor vositalar tahlil orqali asarning g'oyaviy- badiiy mazmunini ochib berish;

- ijodkor (kompozitor, bastakor) fikrini to'la anglab, his etib, o'zining musiqiy ijrochiligida talqin etish;

- partituraning vokal- intanation o'zlashtirishda asarni ichki tuyg'u bilan his qilish malakalarini egallash;

- fortepiyanoda partituraning ijro qilish;

- turli uslub, tempdagi xor musiqalarini tushunib, o'zining shaxsiy xor repertuarini boyitish, asarlarni qayta ishlash, aranjirofska, transpozitsiya qilish;

- dirijyorlik texnikasining asarning badiiy obrazini yoritish va xor ovozi boshqarish;

- musiqiy asarni jamoaviy tarzda o'zlashtirish etish jarayonini boshqarishga o'rganishi, ovozlarni sozlashda kamertondan foydalanish;

- konsertlarda chiqish, sahnada o'zini tutish, ijro paytida ovozlarni to'g'rilashga o'rgatish lozim.

Maktab musiqa amaliyotida pedagog o'qituvchilar xor asarini ijro etish paytida muntazam o'zaro aloqada bo'lishlari talab etiladi. Buning uchun o'qituvchi dirijyorlik san'ati bilan bog'liq barcha bilim, ko'nikma, malaka va mahorat asoslarini oily pedagogik ta'lim jarayonida o'zlashtirishlari to'g'ri bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T., O'zbekiston, 2017. – 488 b.
2. Abdullayev R.S. "O'zbek mumtoz". O'quv qo'llanma. T.: Yangi nashr, 2008 yil.
3. Hamidov H. "O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi". – T.: O'qituvchi, 1996 yil.
4. Begmatov S, Karimova D, Mamirov Q, Musiqa 6-sinf uchun darslik. T.:G'. G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2018 yil.
5. Qudratov I, Abdukarimova E. "Musiqa darslarida fanlararo aloqadorlik" Samarqand, SamDu bosmaxonasi, 2015yil.
6. E.Abdukarimova. Ilm ham jamiyet Ajiniyaz atindagi Nokis mamleketlik pedagogikaliq instituti "Texnologik loyihalash- musiqa mashg'ulotlarida samarali ta'lim". 2019 (№1) ISSN 2010-720X
7. Elnoza Ismatillayevna Abdukarimova Актуальные вызовы современной науки. "Yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda xalq musiqa merosi qudratli tarbiya vositasi" iscience 2017 yil.

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARI TIZIMIDA O'ZBEK XALQ QO'SHIQLARINI O'RGARISHNING METOD VA USULLARI

*Zaynitdinova.D.D.
TDPU.Magistr.*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Ta'lim muassasalari tizimida o'zbek xalq qo'shiqlarini o'rgarishning metod va usullari bo'yicha magistrlik dissertatsiyasi ishi mazmuni hamda xulosasi bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Adabiyot uchqunlari" nashriyoti, "Yetti nota qatori", "Ilk qadam" Davlat dasturi.

Hozirgi vaqtga kelib mamlakatimizda 3-7 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrab olish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq, 2030 yilga kelib maktabgacha ta'limga bolalarning 80,8 foizini qamrab olish rejalashtirilgan.⁵²

Maktabgacha yoshdagi bolalarga estetik tarbiya berishda musiqadan foydalanish, bu kichkintoylarni yoshligidan boshlab musiqaga oshno qilib tarbiyalash demakdir.O'z navbatida shuni aytish kerakki, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga estetik tarbiya berishda musiqaning o'ziga xos o'rni bor.Musiqa yoshlikdan uyg'ongan qiziqish kishining keyingi

⁵²https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-maktabgacha-talimi-yutuqlar-istiqbolli-rezhalar_289972

musiqaviy rivojiga kuchli ta'sir o'tkazadi, boshqa ko'nikma va didlarning shakllanishini ta'minlaydi, bolada yaxshi musiqali didni tarbiyalaydi.

Musiqa estetik va ma'naviy kayfiyatning ulkan manbaidir. Musiqa rahbarlari tomonidan maktabgacha ta'lim tizimida berilayotgan musiqiy tarbiya kichkintoylarning musiqiy iqtidorini rivojlantirish bilan birgalikda barkamol bo'lib o'sishlarida munosib o'rin tutadi⁵³.

“Maktabgacha ta'lim muassasalari tizimida o'zbek xalq qo'shiqlarini o'rganishning metod va usullari” mavzusida magistrlik dissertatsiyasida bolalarimizga musiqiy tarbiya berishda ularda kuylash malakalarini shakllantirish orqali o'zbek xalq qo'shiqchiligi bo'yicha bilim, ijro mahoratlarini shakllantirish bo'yicha quyidagi rejalar asosida ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Bular:

Tarbiyalanuvchilarni mentalitetimizga asoslangan holda tarbiyalashda o'zbek xalq musiqasi ijodi haqidagi nazariy va amaliy bilimlar taxlili bo'yicha ilmiy tadqiqot izlanishlari samaradorligini ochib berish, pirovard maqsadga erishishdan iborat. Mazkur maqsad jarayonidan kelib chiqib, doimiy ravishda maktabgacha ta'lim muassasalarida o'zbek xalq qo'shiqlarini bolalarda kuylash malakalarini shakllantirishda qo'llanib kelinayotgan metodlarning afzallik tomonlari hamda yangi zamonaviy metodlarning samaradorligini qiyosiy o'rganib taxlil qilish dissertatsiya maqsadlaridan biridir.

1. O'zbek xalq qo'shiqlarining namunalari vositasida tarbiyalanuvchilarni estetik ruhiyatda tarbiyalashning nazariy asoslarini tahlil etish;

2. Tarbiyalanuvchilarni estetik tarbiyalash jarayonida o'zbek xalq qo'shiqlari dan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash;

3. O'zbek xalq qo'shiqlarini mashg'ulot jarayonida didaktik vosita sifatida foydalanishning zamonaviy usullari hamda uning ta'lim-tarbiya tizimidagi tutgan o'rni va ahamiyatini ochib berishdan iboratdir.

O'zbek xalq qo'shiqlarining shakllanish, rivojlanish va ayniqsa tarbiyalanuvchilar ongiga ulardan foydalanish masalasi pedagogika sohasi musiqasi ta'limi va san'at tizimida mustaqil tadqiqot sifatida hali o'rganilmagan. O'zbek xalq qo'shiqlari musiqasi merosining og'zaki an'anadagi kasbiy musiqasi ijodiyotining eng noyob janrlaridan biri bo'lgan san'ati musiqashunoslik, adabiyotshunoslik, folklorshunoslik, etnomusiqashunoslik, falsafa, pedagogika, ta'lim va tarbiya sohasida bir qator o'rganilgan bo'lsada, biroq, uning badiiy-g'oyaviy masalalarini aynan maktabgacha ta'lim tizimida o'rganish masalasi shu kunga qadar ochiq qolib kelayotgan edi. Mavzuning o'rganilishini aynan yangiligi ham ana shunda. Mavzu ilk bor “Maktabgacha ta'lim muassasalari tizimida o'zbek xalq qo'shiqlari” mavzusi borasida mustaqil tadqiqot sifatida tahlil etilmoqda.

2019 yilda “Adabiyot uchqunlari” nashriyotida chop ettirilgan muallif Ulug'bek Mirzaahmedovning “Yetti nota qatori” globallashuv davrida maktabgacha ta'lim tizimida olib borilayotgan musiqiy mashg'ulotlar jarayonlari haqida fikr yuritilib, bolalar bilan o'tkaziladigan turli bayramlar uchun ssenariylar, turli didaktik o'yinlar yoritilgan bo'lib, aynan bu mashg'ulotlarda o'zbek xalq qo'shiqlarini o'rgatish va bolalar ijrochiligidagi ko'nikma-alakalarga aynan e'tibor qaratilmaganligi kuzatish mumkin.⁵⁴

Falsafa doktori Rejemetova Nilufar Ilhamovnaning “Maktabgacha ta'lim tashkilotlari musiqasi xabarlarining kasbiy maxoratini rivojlantirish” nomli o'quv qo'llanmasida

⁵³ «Фольклор ва ўйинлар асосида болалар ижодкорлигини ривожлантириш» ўқув модули бўйича ишчи ўқув дастур. Муаллиф. Д. Қодиров. Тошкент – 2019 йил.

⁵⁴ U. Mirzaahmedov. “Yetti nota qatori”. Adabiyot Uchqunlari.

Мaktabgacha yoshdagi bolalarning kompleks rivojlanishiga qo‘yiladigan “Ilk qadam” Davlat dasturining ahamiyati, ta’lim jarayonini rejalashtirish kompetensiyaviy yondashuvi, guruhlarda rivojlantirish markazlari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha musiqa rahbarlari uchun metodik qo‘llanma berilgan. Bu qo‘llanmani o‘rganish chog‘ida musiqiy faoliyat turlaridan biri bo‘lgan qo‘shiq kuylash faoliyatida o‘zbek xalq qo‘shiqlarini o‘rganish jarayonlari haqida umumiy fikr va tavsiyalar tavsiya etilgan bo‘lib, aynan xalq qo‘shiqlari bilan ularning ijro mahoratlarini shakllantirish, xalq qo‘shiqchiligi bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish bo‘yicha fundamental fikrlar bayon etilmaganligini kuzatish mumkin⁵⁵.

2013 yilda mualliflar D.Namozova, D.Nosirovlarning pedagogika institutining maktabgacha ta’lim kafedralarida, kollejlarning musiqiy ta’lim va maktabgacha ta’lim yo‘nalish o‘quvchilari va maktabgacha ta’lim muassasalari musiqa rahbarlari uchun chop ettirilgan “Maktabgacha ta’lim muassasalarida musiqiy ta’lim metodikasi” nomli o‘quv uslubiy qo‘llanma (Qo‘qon -2006) sida maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar musiqa tarbiyasining vazifalari, bolani musiqaviy asarlarni idrok etish turlari, bolalarda badiiy-musiqaviy did, bolalar musiqaviyligi strukturasi va ular rivojlanishining yosh xusu-

siyatlarini, musiqaviy – sensor tarbiya, maktabgacha yoshdagi bolalarga musiqaviy ta’lim-tarbiya berish metodlari va usullari, bayram ssenariylari bo‘yicha metodik hamda nazariy bilimlar bayon etilgan⁵⁶. Xalq qo‘shiqchiligining namunalari va ularning tarbiyaviy o‘rni haqida chuqur hulosalar tavsiya etilmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Фольклор ва ўйинлар асосида болалар ижодкорлигини ривожлантириш» ўқув модули бўйича ишчи ўқув дастур. Муаллиф. Д. Қодиров. Тошкент – 2019 йил.
2. N.Rejаметова. “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari musiqa rahbarlarining kasbiy mahoratini rivojlantirish”. O‘quv qo‘llanma.
3. Д.Намозова. Д.Носиров. “Maktabgacha ta’lim muassasalarida musiqiy ta’lim metodikasi” nomli o‘quv uslubiy qo‘llanma. (Qo‘qon -2006)
4. <https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-maktabgacha-talimi-yutuqlar-istiqbolli>
5. U.Mirzaahmedov. “Yetti nota qatori”. Adabiyot uchqunlari.

ПЕДАГОГИК ИННОВАЦИЯ – ЗАМОН ТАЛАБИ

Шухрат Юсупов, Низомий номидаги ТДПУ

“Ижрочилик маҳорати ва маданияти” кафедраси жўрналисти

Аннотация. Мазкур мақолада педагогик инновация ҳақида сўз боради. инновация – янги билим ва ғоянинг амалий фаолиятга тадбиқ этилиши истеъмолчининг талаб ва тақлифларини қондирилиши борасида фикрлар келтирилган.

Калит сўзлар. Мусиқа, инновация, замонавий, педагогика, интеллектуал, таълим, тарбия.

⁵⁵ N.Rejаметова. “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari musiqa rahbarlarining kasbiy mahoratini rivojlantirish”. O‘quv qo‘llanma.

⁵⁶ Д.Намозова. Д.Носиров. “Maktabgacha ta’lim muassasalarida musiqiy ta’lim metodikasi” nomli o‘quv uslubiy qo‘llanma. (Qo‘qon -2006)

Ўзбекистон Республикасининг биринчи Президенти И.А.Каримов миллатнинг интеллектуал салоҳиятини юксалтириш, ёш авлодни ҳар томонлама комил инсон этиб тарбиялаш, малакали кадрларни тайёрлаш таълим-тарбия ривожини таъминлаш орқали ҳал қилинишига алоҳида урғу беради. Зотан, *“мақсадларимизга эришиш, янги демократик жамиятни қуриш, ислоҳотларнинг тақдири қандай интеллектуал кучларга эгаллигимизга, ёшларимиз қандай маданий, касбий савияга эришганлигига, қандай идеалларга эътиқод қилишига, маънавий жиҳатдан қанчалик бойлишига боғлиқдир”*⁵⁷ - деб, таълим тушунчасига миллий нуқтаи назаридан таъриф берган ҳамда таълимнинг янги моделига асос солинди, келажак истикболлари илмий асослаб берилди.

Таълимнинг янги моделини амалиётга тадбиқ этиш ўқув жараёнини технологиялаш билан боғлиқдир. Жумладан, ҳозирги кунда барча соҳаларда янги технологияларни жорий этилишини ҳаётнинг узи, илмий-техникавий тараккиёт талаб этмоқда. Шунинг учун, Кадрлар тайёрлаш Миллий дастурида *“Ўқув - тарбиявий жараёнини илғор педагогик технологиялар билан таъминлаш”* унинг 2 ва 3 - босқичларида бажариладиган жиддий вазифалардан бири сифатида белгиланган. Бу омил мамлакатимизнинг ижтимоий сиёсатини белилаб берганлиги туфайли таълимнинг янги модели яратилди. Яъни:

- ижтимоий - сиёсий иқлимга ижобий таъсир қилади ва натижада мамлакатимиздаги мавжуд муҳит бутунлай ўзгаради:

- инсоннинг ҳаётдан ўз ўрнини топиш жараёни тезлашади:

- жамиятда мустақил фикрловчи эркин шахснинг шаклланишига олиб келади:

- жамиятимизнинг потенциал кучларини рўёбга чиқаришда жуда катта аҳамият касб этади:

- фуқаролик жамиятини қуришни таъминлайди, модел воситасида дунёда муносиб урин олишга, узбек номини янада ёйиб тараннум этишга эришилади.

Олимлар инновацион жараён микротузилмасини таҳлил қилишда ҳаётнинг даврийлиги концепциясини фарқлайдилар.

Бу концепция янгилик киритишга нисбатан ўлчанадиган жараён эканлигидан келиб чиқади.

Педагогикага оид адабиётларда инновация жараёни схемаси берилади. У қуйидаги босқичларни камраб олади:

1. *Янги гоя тугилиши ёки янгилик концепциясини пайдо қилиш босқичи, у кашфиёт босқичи деб ҳам юритилади.*

2. *Ихтиро қилиш, яъни янгилик яратиш босқичи.*

3. *Яратилган янгиликни амалда қўллай билиш босқичи.*

4. *Янгиликни ёйиш, уни кенг тадбиқ этиш босқичи.*

5. *Муайян соҳада янгиликнинг ҳукмронлик қилиш босқичи. Бу босқичда янгилик ўзининг янгилигини йўқотади, унинг самара берадиган муқобили пайдо бўлади.*

6. *Янги муқобиллик асосида, алмаштириш орқали янгиликнинг қўлланиш доирасини қисқартириш босқичи.*

В.А.Сластенин янгилик киритишни мақсадга мувофиқ йўналтирилган янгилик яратиш, кенг ёйиш ва фойдаланиш жараёни мажмуи, унинг мақсади инсонларнинг эҳтиёжи ва интилишларини янги воситалар билан қондириш деб билади.

⁵⁷ Ўзбекистон иқтисодий ислоҳотларни чуқурлаштириш йўлида. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995. – 259-бет.

• «Иновация» атамаси таниқли иқтисодчи Й.Шумпетер томонидан киритилган. Бугунги кунда унинг икки тушунчаси мавжуд:

• Янгилик – мисоллар: бозордаги, ижтимоий ҳаётдаги янги маҳсулот, хизмат, технология, ишлаб чиқариш ёки хўжалик фаолиятини такомиллаштириш йўллари;

• янгиликни киритиш – жамият ҳаётининг турли соҳаларида янгиликларни жорий қилиш ва улар билан боғлиқ ўзгаришларни амалга ошириш (охиргиси инновацияларнинг асосий маъносини ташкил этади)

• Янгилик киритиш жараёни *инновацион менеджментнинг объекти ҳисобланиб, бевосита қўйидагилар билан билан боғлиқ* :

– Тегишли режа ва дастурларни ишлаб чиқиш ва баҳолаш, уларнинг молиявий-ресурс таъминоти;

– Янги хизмат (маҳсулот), технологияларни яратилиш ва жорий этиж жараёнини мувофиқлаштириш ва назорат қилиш;

- Ижодий жамоа ва мақсадли гуруҳлар фаолиятини шакллантириш ва рағбатлантириш.

Бизнинг фикримизча педагогик инновация – янгилик бўлиб инсоннинг амалий фаолияти, ўз ишига ижодий, илмий ёндашуви бўлиб, педагогнинг кўп йиллик иш тажрибалари, кўникма ва малакалар асосида кўп машқлар натижасида кашф қилган ёки юзага келтирган педагогик ишланманинг такомиллашга сифат кўринишларига эга бўлган жараёнлар ҳосиласи ёки педагогнинг амалий фаолиятида юзага келган қафолатланган методика фаолиятлар мажмуидир.

Бошқача қилиб айтганда инновация – янги билим ва ғоянинг амалий фаолиятга тадбиқ этилиши истеъмолчининг талаб ва таклифларини қондирилиши демакдир. Агарда инновация янги ғоя ва янги (схемаларда) чизмаларда, тушунчаларда ўз аксини, ўз истеъмолчисини топмаса, натижада ижодий меҳнат ҳосиласи бўлиб қолади, лекин инновация бўла олмайди.

Педагогик инновациянинг кўриниши қўйидагича бўлиши мумкин: илмий педагогик, методика ва телекоммуникация, ахборот технологияларни бугунги кун талабига жавоб бериши. Демак, «Педагогик инновация (технология) – ҳозирги замон дидактикаси ва педагогикаси тараққиётининг маҳсули деб ҳисобланган ҳолда, унга ўзига хос тамойиллари, қоидаларини чуқур ўрганиб бориш ва пиравордида қонуниятларни аниқлаш йўлидаги муаммоларни ечиш лозимлиги кўриниб турибди».

Иновация тушунчаси – педагогик жараён инновацияси билан боғлиқ тушунча бўлиб энгилликни яратиш, янгиликни жорий қилишдан иборат бўлиб, ижтимоий жамият тақозоси билан ижтимоий буюртма орқали амалга ошириладиган кўп компонентли жараёндир.

Демак педагогик инновация ўқитувчини дарс жараёнини ташкил қилиш юзасидаги ижодий иши бўлиб, у машаққатсиз лойиҳасиз тасодифан бўлмайди, инновация ўқитувчининг Ватанга, болага ва ўз касбига садоқатли муҳаббати асосида туғилади. Педагог ўз устида кўп ишлаши, дарс жараёнларини кузатиш ва таҳлил қилиши, хулоса чиқариши орқали юзага чиқадиган, кўп нурли ва нурсиз қирралари, онлари бўлиб, ўқитувчининг билиши, тадбиқ қилиш орқали юзага чиқарадиган жараёндир.

Муסיқа ўқитилишида инновацион технологиялар ўқув-тарбиявий жараёни олдиндан лойиҳалаш ва кейинги босқичда бу лойиҳани синфда амалга оширишни кўзда тутди. Шу боисдан муסיқа ўқитилишида инновацион технологияларнинг муҳим принципи – бу бўлажак ўқув тарбиявий жараёни олдиндан лойиҳалаш принциpidир.

Лойихаланган технология дарс мавзусига ажратилган вақт доирасида жорий этилиши лозим. Ўқув вақти мусиқа ўқитилишида инновацион технологияларни олдиндан кўришда муҳим кўрсаткич ҳисобланади ва ўқитувчи уни ҳисобга олиши шарт. Лойихаланаётган дидактик жараён гуруҳ ўқувчиларининг ўзлаштириш даражасига мос келиши, ҳамма учун тушунарли бўлиши муҳимдир. Шундагина яқиний натижа кўлга киритилади, мақсадга эришилади.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagi «Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5349-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.02.2018 y., 06/18/5349/0792-son; 14.12.2019 y., 06/19/5894/4161-son
2. 85. Ibn Sino. Tanlangan asarlar / A. Irisov tahririda. – Dushanbe: Irfon, 2003. – 178 b.
3. Князева Е. Н. Синергетика как средство интеграции естественнонаучного и гуманитарного образования /Е. Н. Князева, С. П. Курдюмов // Высшее образование в России. 2008. – № 4. – С. 31-36.
4. Джураев Р.Х Основы передачи данных. Лекции для бакалавров по направлению телекоммуникация. –Т., 2012. – 160 с. Капитса С.П. Математика в школе. – М.: Наука, 2011. –

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI MUSIQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MEHNAT QO'SHIQLARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

*Shog'aniyeva Zulayho II kurs magistranti
Ilmiy rahbar Rahimov Shavkat Normatovich*

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarini musiqiy madaniyatini shakllantirishda mehnat qo'shiqlaridan foydalanish metodikasi borasida so'z boradi.

Kalit so'zlar. San'at, musiqa, madaniyat, qo'shiq, aytim, kompozitor, mavsum, marosim.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan nashr qilingan musiqa fanidan darsliklarda o'zbek xalq qo'shiqlarining tutgan o'rni bilan tanishib chiqdik. Boshlang'ich sinflarda ko'p hollarda o'zbek kompozitorlarining bolalarga bag'ishlab yozgan qo'shiqlariga ko'proq urg'u berilganligi bois, asosan mualliflar asarlari darsliklarni egallagan.

Biroq, 4 sinflarda bu an'anaga amal qilish boshlanganligini sezish mumkin. Sababi, 4 sinf mavzulari xalq ijrochiligiga bag'ishlangan.

Birinchi chorak:

O'zbek xalq ayimlari va cholg'ulari deb nomlanib, bu chorakda 1-2 darslar – Mehnat ayimlari, 3 dars – Qo'shiq, 4 dars – Lapar, 5 dars – Yalla, 6-7 darslar – O'zbek xalq cholg'ulari, 8-9 darslar – Damli va zarbli cholg'ular.

Ikkinchi chorak:

Bayram va marosim qo'shiqlari mavzusi bilan nomlanib, unda, 1 dars – Bayram va marosim musiqasi haqida tushuncha, 2-3 darslar – Alla ayimlari, 4-5 darslar – To'y marosimi qo'shiqlari, 6-7 darslar – Xalq tomoshalari musiqasi.

Uchinchi chorak:

Mavsum qo‘shiqlari mavzusida 1-2 darslar – Mavsum va marosim qo‘shiqlari, 3 dars – Bastakor K.Jabborov , 4-5 darslar Baxshi jasorati, 6-7 darslar – Ramozon marosimi aytimlari, 8-9 darslar – Navro‘z bayrami qo‘shiqlari.

To‘rtinchi chorak:

Bahor fasli qo‘shiqlari mavzusida bo‘lib, 1-2 darslar – Bahor fasli qo‘shiqlari haqida tushuncha, 3-4 darslar – Bolalar xalq qo‘shiqlari, 5-6 darslar – Bahor elchilari haqida qo‘shiqlar, 7-8 darslar – Lola haqida qo‘shiqlar, deb nomlangan.

Biz bunday dastur tayyorlashga yondoshuvni “noto‘g‘ri”, degan fikrdan yiroqmiz. Bolalarga qo‘shiq o‘rgatish maktabi uslubiyotiga tayangan holda, boshlang‘ich sinflarda(1-4 sinflar) bolalarda kuylash malakalarini shakllantirishimizda avvalo, milliy musiqiy – xalqchil oxanglarni ko‘proq tanishtirish, targ‘ib qilishdan boshlasak, bolada ilk yoshlikdan an‘anaviy musiqaga bo‘lgan e‘tiqodi va tushunchasi shakllanadi. Xalq kuylari va qo‘shiqlarini bajonidil tinglaydi.Xalq qo‘shiqlari va maqomlarga bo‘lgan muhabbati uyg‘ona boradi.

4 sinfning birinchi choragidagi 1-2 darslar mavzusi – Mehnat aytimlari mavzusini ko‘rib chiqsak; mavzuga oid nazariy fikrlar bayon qilingan.

Mehnat qo‘shiqlari- CHorvachilik, dehqonchilik va hunarmandchilik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan qo‘shiqlar – Xo‘p hayda, Urchuq qo‘shiqlaridan parchalar keltirilgan.Lekin, qo‘shiq o‘rgatish qismida mavzudan uzoqlashib, Hur Respublikam(A.Mansurov musiqasi, H.Qayumov she‘ri) asarini o‘rganishga o‘tib ketilgan.Qolgan choraklarda ham mavzu bo‘yicha nazariy bilimlar keltirilgan holda, aksariyat o‘rgatiladigan qo‘shiqlar mavzudan yiroq, yoki umuman mavzuga aloqasi yo‘qligini sezishimiz mumkin.

5-7 sinflarda Musiqa madaniyati darslarida ahvol biroz boshqacha.

5 sinf uchun qayta ishlangan 5 nashrida chorak mavzulari quyidagicha.

Birinchi chorak:

O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri.Xor san’ati.

Ikkinchi chorak:

Simfonik orkestr,Musiqada vokal-simfonik janrlar.

Uchinchi chorak:

Sahnaviy musiqasi asarlari-Balet va raqs san’ati. Musiqali drama va komediya. Bolalar uchun musiqali ertak-tomoshalar.

To‘rtinchi chorak:

Opera san’ati va o‘zbek musiqasida opera janri.

Biz 5 sinfdagi xalq qo‘shiqlaridan birorta namuna keltirilmaganligini kuzatdik.O‘quv yili davomida bolalar albatta 4-5 xalq qo‘shiqlaridan ijro etishi lozim, degan fikrni ilgari surib, bu yaratilgan darsliklar orqali ta‘lim samaradorligiga erishib bo‘lmazligi ko‘rinib turibdi.

6 sinflarda Mumtoz musiqasi,sharq xalqlari mumtoz musiqasi, zamonaviy musiqasi va uning asosiy xususiyatlari, yevropa mumtoz musiqasi haqida tushuncha mavzulari choraklar bo‘yicha taqdim etilgan bo‘lib, har bir dars mavzulari chorak mavzulari asosida tashkil qilingan.

Birinchi chorak:

Mumtoz musiqasi haqida tushuncha mavzusi ostida o‘nta mavzular:

- Mumtoz musiqasi,
- Mumtoz kuylar,
- Mumtoz ashula,
- SHashmaqom,
- Katta ashula,

- Farg‘ona-Toshkent vohasining mumtoz musiqasi,
- Xorazm vohasining mumtoz musiqasi,
- Surxondaryo-Qashqadaryo mumtoz musiqasi,
- Mumtoz musiqaning madaniyatimizdagi o‘rni,
- Klassik musiqa - yoritib berishga harakat qilingan.

1-2 mavzularni tahlil qiladigan bo‘lsak, Mumtoz musiqa, mumtoz kuylar

haqida nazariy bilimlar taqdim qilinib, tinglash uchun mumtoz musiqa asarlaridan namunalari keltirilgan. Kuylash uchun esa “Bolalar”(Rahimov musiqasi, J.Jabborov she‘ri) qo‘shig‘i tanlangan. Musiqa savodi qismida Do major tovushqatoriga dirijyorlik qilish malakalarini shakllantirish faoliyatiga ahamiyat berilgan. Navbatdagi mavzular ham shu tarzda bayon qilinib borib, qo‘shiq kuylash uchun “Munajjim bobo”(N.Norxo‘jaev musiqasi, P.Mo‘min she‘ri) berilgan.

Ikkinchi chorak:

SHarq xalqlari mumtoz musiqasi mavzusida o‘n uchta mavzular:

- SHarq taronalari,
- Turq va Ozarbayjon xalqlarining mumtoz musiqasi,
- Turkman,
- Eron,
- Arab,
- Xitoy,
- Uyg‘ur,
- Yapon,
- Xind,
- Qozoq,
- Qirg‘iz xalqlari mumtoz musiqasi,

- Yapon teatri mavzulari xar bir dars uchun taqdim etilgan. CHorak davomida faqat o‘zbek kompozitorlarining bolalar uchun yozgan qo‘shiqlari kuylash uchun tanlanganligini kuzatdik. **Biz tadqiq etayotgan muammo** – o‘zbek xalq qo‘shiqlari namunalari keltirilmaganligi bois, bolalar chorak davomida birorta xalq qo‘shiqlaridan kuylamaganliklari kuzatildi.

Uchinchi chorak:

Zamonaviy musiqa va uning asosiy xususiyatlari mavzusida sakkizta mavzular:

- O‘zbek zamonaviy musiqasi,
- Zamonaviy musiqa turlari,
- Folxlor musiqasi,
- Estrada musiqasi,
- Botir Zokirov,
- Yalla guruhi,
- Musiqa san‘ati bo‘yicha ko‘rik-tanlov va festivallarning o‘tkazilishi,
- Ommabop musiqa dars mavzulari taqdim etilgan bo‘lib, biz yuqoridagi holatni kuzatishimiz mumkin.

Uchinchi mashg‘ulotning– “Folxlor musiqasi mavzusida “Musiqa merosi tarkibidan joy olgan folxlor namunalari orasida o‘zbek xalqining urf-odatlariga asoslangan qo‘shiqlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Odatda ular o‘z xususiyati doirasida quyidagi turlarga bo‘linadi

- a) Bolalar folxlori: “Boychechak”, “Oq terakmi, ko‘k terak”, “CHamanda gul”;

b) mehnat bilan bog‘liq qo‘shiqlar: “Mayda-mayda”, “Yozi”, “Xo‘sh-xo‘sh”, “CHarxim”;

v) to‘y –tomoshalar bilan bog‘liq qo‘shiqlar: “Yor-yor”, “Kelinsalom”, “To‘ylar muborak”;

g) diniy qo‘shiqlar: “Sadr”, “Zikr”, “Marsiya”;

d) afsuniy qo‘shiqlar yomg‘ir chaqirish maqsadida ijro etilgan qo‘shiqlar “Sust xotin” va oy-quyosh tutilganda aytiladigan qo‘shiqlar.

O‘zbek dostonchilik san‘ati yirik janrlar qatoriga kirib, nasriy, she‘riy va musiqiy xususiyatlarini o‘zida jamlagan adabiy-musiqiy kompozitsiya demakdir. Xalq ijodiyotida bahodirlik, qahramonlik, tarixiy va lirik dostonlar mavjud.⁵⁸

Bahodirlik dostonlari – “Alpomish”;

Qahramonlik dostonida – “Yusuf va Ahmad”, “Alibek va Bolibek”, “Sohibqiron”;

Tarixiy dostonlar – “Iskandarnoma”, “SHayboniyxon”, “Kunbotir va Oysuluv”;

Lirik-romantik xarakteridagi dostonlar – “Oshiq G‘arib va SHohsanam”, “Ravshan va Zulxumor”, “Rustam”, “Go‘ro‘g‘li”, “Balogardon”, “Bo‘tako‘z”

Mavzuga oid nazariy bilimlar berilgan va darning ikkinchi qismida

“O‘zbekiston – jannat”(X.Hasanova musiqasi, D.Rajab she‘ri) qo‘shig‘i kuylash uchun taqdim etilgan. Darsda fikrni tasdiqlash sifatida xalq qo‘shiqlaridan birini kuylanganida o‘z maqsadiga erishgan bo‘lar edi.

To‘rtinchi chorak mavzulari biz o‘rganayotgan muammodan chetlashganligini kuzatish mumkin.

To‘rtinchi chorak mavzusi – Yevropa mumtoz musiqasi haqida tushuncha mavzusi ostida sakkizta mavzular:

- Evropa mumtoz musiqasi,
- Wolfgang Amadey Motsart,
- Simfoniya,
- Lyudvig Van Betxoven,
- Friderik SHopen,
- Mixail Ivanovich Glinka hayoti va ijodi,
- Evropa musiqasining jahon xalqlari orasida ommalashishi,
- Musiqa turlari dars mavzulari ochib berilgan.

Biz yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaganimiz holda, oltinchi sinfdagi bu chorakda xalqchilik – xalq og‘zaki ijodi, xalq qo‘shiqlarini targ‘ib qilish, kuylash malakalaridan uzoqlashib ketilgan.

Xalq urf-odatlar va an‘analari xalqimizning o‘zi kabi umrboqiy, mehridaryodir. Yurtimizning har bir go‘shasida o‘ziga xos marosimlar, oilaviy-maishiy va mehnat bilan bog‘liq an‘analar, momolarning mehr bulog‘idan qaynab chiqqan orombaxsh alla-yu olqishlari mavjud.

Xalq marosimlari jo bo‘lgan asriy qadriyatlar, ma‘naviyat ko‘zgasiga aylangan qanotli orzular, folxlor ijrochiligining ko‘p asrlar davomida yaratgan ijodiy faloiyati natijasida sayqallanib, barkamollashib kelgan qadimiy urf-odatlar va an‘analarni o‘rganish milliy qadriyatlarimiz mohiyatini yanada teranroq anglash, tushunish imkonini beradi.

⁵⁸ Музыка. 6-синф учун дарслик. С.Бегматов, Д.Каримова, Қ.Мамиров. 58-59 бетлар.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan milliy qadriyatlarni tiklash, unutilgan an'analarni keng ommalashtirish va ularni chuqur o'rganish uchun zarur sharoitlar yaratildi.

O'zbek xalqining urf-odat, an'ana va marosimlarga alohida e'tibor berilishi ma'naviy tiklanish jarayoni jadal kechayotgan hozirgi kunda muhim ahamiyatga ega. Chunki yoshlarni yangicha ruhda tarbiyalash, ularning ongiga milliy mustaqillik g'oyalarini chuqurroq singdirish, ajdodlarimiz yaratgan musiqiy qadriyatlar mohiyatini keng targ'ib qilishda an'ana va marosimlar mohiyatini anglash orqali milliy istiqlol g'oyasini keng omma orasiga yoyishning ta'sirchan vositalaridan biri hisoblanadi.

O'zbek xalqi boy, o'ziga xos ko'p qatlam va seruslub musiqa merosiga ega.

O'z tariximizni, milliy urf-odat va an'alarimizni, ma'naviy badiiy merosimizni atroflicha o'rganish va undan bahramand bo'lish har birimizning asosiy vazifalarimizdan biridir. Xalqimiz istiqlolga erishishi munosabati bilan azaliy qadriyatlarimizni tiklash, o'z tariximizni, milliy urf-odat va an'alarimizni atroflicha o'rganish imkoniyati vujudga keldi.

O'zbek xalq musiqa qo'shiqchiligi ijodi o'zbek xalqining an'analarga boy va badiiy barkamol musiqa ijodi namunalari o'rgatadi hamda yoshlarda o'tkir did, yuqori badiiy saviya va nafis tuyg'ularni shakllantiradi.

O'quvchilarda milliy qo'shiqlarni idroklash, xalq musiqa janrlarining tuzilishi va ijro etilishi bilan birgalikda nazariy va amaliy ko'niqmalar hosil etish maqsadida mashg'ulotlarning bir nechta turlari: jumladan, faol va noan'anaviy shakllari orqali xalq qo'shiqlarini o'rgatish taqdim etilishi mumkin.

O'zbek xalq qo'shiqlardan – beshik qo'shiqlari, allalar yangi tug'ilgan go'dakni voyaga yetkazishda birinchi tarbiya vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Xalqning hayoti beshikdan qabrga qadar qo'shiq bilan bog'liq: inson ruhiga qo'shiq chaqaloqligidayoq alla orqali singdiradi, odam bolasi qo'shiq tinglab ulg'ayadi.

“Kattalar hamisha o'z farzandlarini o'ylab yashaganlar-mehnat va ijod bilan shug'ullanganlar. Chaqaloqni parvarish etish mas'uliyati behad katta bo'lgan. Onalar ana shu murakkab mas'uliyatni zimmlariga olganlar, o'tkir zakovat, tadbirkorlik, beqiyos insoniy mehribonlik evaziga bolalarni tarbiyalab o'stirish bilan mamlakatning kelajak tarixini va demak dunyo tarixini ham tarbiyalab yetishtirganlar. Bu yo'lda qo'shiq ularga madadkor bo'lgan: bolalarni qo'shiq bilan uxlatganlar, yig'lasa kuylab ovutganlar, erkalaganlar, hatto qo'shiq bilan chaqaloqqa dahldor rasm-rusmlarni bajarganlar.”⁵⁹

Alla, bolam-ey,
Guli lolam-ey.
Tezroq katta bo'l,
Mushtoq olam-ey,
Alla, alla-ey,
Yorqin kelajak,
Seni kutajak,
Toza qalbingga
Sevinch to'lajak,
Alla, alla-ey.
Alla, erkatoy,
Og'zing to'la moy,

⁵⁹ О. Сафаров, К. Очиров. Бойчечак. Болалар фольклори. Тошкент. 1984 йил.

Baxting munavvar,
SHarofatga boy,
Alla, alla-ey.
Alla,erkatoy,
Mushtoq senga oy,
Uxlasang, qalbing
Ochadi chiroy,
Alla, alla-ey.

Allalar ning tarbiyaviy ahamiyati shundan iboratki, alla satrlarida ezgulik, pokiza dil, vatanparvarlik, bag'rikenglik, sabr-toqat, jasorat namunalari, vijdon, iymon, yaxshilik kabi insoniy fazilatlar kuylanganligi tufayli alla tinglab ulg'aygan avlod qalbida,shuurida, dunyoqarashida barcha inson fazilatlar shakllanib boradi.Ona suti orqali esa, go'dakda mehr-sadoqat, go'zallikdan badiiy zavq olish va go'zallikka intilish kabi fazilatlar shakllana boradi.

Ona allasida onaning sof, beg'ubor qalbidagi samimiy niyatlari kuylanadi. Masalan:

Ulg'ay, bolam, gul Vatanda, alla,
Botir bo'lib o'sgil, qo'zim, alla.
Seni ko'rib bu chamanda, alla,
Yayray-quvonay, yulduzim, alla.

Rohatingga – ulug' Vatan, alla.
Tinchligingga xalq posbon, alla.
Sening uchun hamma bir tan, alla.
Seniki yeru osmon, alla.

Ko'z tutar xalq, butun o'lka, alla.
Kelajagim, orzuim deb, alla.
O'sib burka uni gulga, alla.
Katta bo'lgach, shu qarzim deb, alla.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, alla tub mohiyati bilan **o'zbek musiqiy qadriyatlari hamda tarbiya vositasidir.**

Bola oila muhitida oila a'zolari, ota-ona, aka-uka, opa-singil, va qarindoshlar ta'sirida maishiy turmush tarzi va hodisalar - mehnat faoliyati, turmush tashvishlari va quvonchlari aks etgan xalq qo'shiqlaridan mehnat qo'shiqlarini tinglab, shunday qo'shiqlarga jo'r bo'lib, mehnat faoliyatiga bo'lgan munosabati va mehnat orqali go'zallikni yaratish,shu go'zallikni anglay va xis qilishni o'rgana boradi. Bu o'rinda mehnat qo'shiqlarining tarbiyaviy ahamiyati benihoya kattadir.Mehnat qo'shiqlari uch xil faoliyatni o'z ichiga oladi. **Bular:**

- Hunarmandchilik bilan bog'liq bo'lgan qo'shiqlar,
- CHorvachilik bilan bog'liq bo'lgan qo'shiqlar,
- Dehqonchilik bilan bog'liq bo'lgan qo'shiqlar.

Xalqimizning qo'shiqchilik repertuarida muhim o'rin tutgan mehnat qo'shiqlari bevosita mehnat jarayoni bilan bog'liqdir.

Hunarmandchilik bilan bog'liq bo'lgan bo'lgan qo'shiqlar ritmik qurilishi, bandlarining kompozitsion tuzilishi, tovush sistemasi va musiqiyliigi jihatidan ancha mukammalligi bilan ajralib turadi.Bu qo'shiqlarning namunalari u yoki bu kasb,hunarlar ulug'lanadi, kosib va

hunarmandlarning mashaqqatli mehnati ulugʻlanadi, mashaqqatli hayoti koʻrsatiladi, muayyan ishlarni bajarish jarayoni tasvirlanadi.

Bu xil qoʻshiqlar ham qator ichki boʻlinishlarga ega. Bunday xalq qoʻshiqlaridan urchuq qoʻshiqlari, charx va tikuvchilik bilan bogʻliq qoʻshiqlar. Urchuqda ip yigirish qadimgi mashaqqatli mehnat turlaridan biri hisoblanib, bu ish koʻproq xotin-qizlar tomonidan bajarilgan.

Urchuq va charh yigirish jarayonida lirik qoʻshiqlarni kuylash bilan birga mehnat turining turli tomonlarini aks ettiruvchi qoʻshiqlar ham yaratilgan.

Elak ichida kepak,
Mening ipginam ipak,
Mening ipimdek qilib
Esholmaydi oʻrgimchak.

Charx qoʻshiqlari ham asosan xotin-qizlar tomonidan yaratilgan.

Charx yigirish bilan bogʻliq boʻlgan qoʻshiqlarda mehnatning mashaqqati va maishiy turmush tarzi kuylanadi.

Charxim tanob tashlaydi,
Bir baloni boshlaydi.
Kundoshlik uyi qursin
Kunda urush boshlaydi.

Tikuvchilik kasbining turlari koʻp boʻlganidek, uning qoʻshiqlari ham turlidir.

Kashta tikish bilan bogʻliq qoʻshiqlarga nazar tashlar ekanmiz, unda tikuvchining muayyan sharoitdagi kayfiyati, ruhiy holati aks etganligini koʻramiz.

Kashta tikdim sanama,
Oʻtlar yoqdi tanama,
Tikmay desam urishar,
Uyda turgan enam-a.

Tikuvchilik qoʻshiqlarida deyarli lirik ohanglar yangraydi.

Tikilayotgan mato, bu oʻrinda toʻn yorga moʻljallanganligi, bu bilan sevgi shodliklari kuylanadi. Toʻn bichish va tikish chevarlikda murakkaab sanʼatdir, juda noziklik va nafislik bilan ish tutishni talab qiladi.

Men ukamga toʻn bicharman,
Etti gul bogʻdan kesib,
Chokiga poʻrak tikarman,
Tepa sochimdan kesib.

Chorvachilik turli mehnat jarayonlari majmuidan tashkil topganidek, uning qoʻshiqlari ham xilma-xildir.

Masalan, sogʻim qoʻshiqlarini olaylik. "Turey-turey", "Churey-churey", "Hoʻsh-hoʻsh kabi emotsional nidolar, xitoblar boʻlib, uning mazmuni chorvadorning mehnatga yuqori bahosi va orzu-umidlari, mehnatni qadrlash, sutni koʻproq sogʻib olish umidi bilan toʻladir.

Tutak ko'lda o'ting bor,
Oqar buloq suting bor,
Otli molim ho'sh-ho'sh,
Zotli molim, ho'sh-ho'sh.

Sog'im qo'shiqlari ichida qo'ylarni sog'ish va qo'zilarni emizish jarayonida aytiladigan turey-turey qo'shiqlari ham alohida ahamiyatga ega. Turey-turey qo'shiqlarining asosiy mazmuni mashaqqatli mehnatni qadrlashdir.

Sog'im qo'shiqlari orasida uning yana bir turi bo'lgan "CHurey-churey", "CHuri-yo" alohida o'rin tutadi. CHurey-churey emotsional qichqiriqlar turey-turey qo'shiqlarinikiga nisbatan ancha cho'ziq talaffuz qilinadi va qo'shiqning ohangdorligini oshiradi.

Ol bolangni jonivor-a, churi-ya, churey,
Mag'rab-mag'rab kela qol-a, churi-ya, churey.
Moldan oldin kelmasang-a, churi-ya, churey,
Uydan ketmay qola qol-a, churi-ya, churey.

Chorvachilik bilan bog'liq bo'lgan qo'shiqlar xilma-xildir. Qo'ylarni o'tlatganda, suvlatganda, ma'lum bir joyga yiqqanda maxsus qo'shiqlar aytiladi. Qora mollar, yilqilar, tuyalar haqida va ularning maqtoviga bag'ishlangan qo'shiqlar mavjud.

Dehqonchilik bilan bog'liq bo'lgan qo'shiqlar.

Dehqonchilik bilan bog'liq qo'shiqlarga "Qo'shchi qo'shiqlari", "O'rim qo'shiqlari", "Xirmon yanchish qo'shiqlari" kiradi.

SHoxlarim bor chamberak,
Ko'zlarim yongan chiroq,
Qo'shga tushsam mehnatimdan,
Egamning bo'lar vaqti choq.
SHoxginang mulla davoti,
Sensan dehqonning quvvati.
Sen bo'lmasang dehqonning,
Qayriladi qanoti.

Mazkur aytimlar dehqonning mashaqqatli halol mehnati, dehqonchiligining barakoti, mo'l hosil yig'ish, yaqin sirdoshi va ko'makchisi ot yoki xo'kiziga aytadigan so'zlarida ifoda etiladi.

O'roq o'rmoq olmoq-solmoq,
Qo'sh haydamoq bormoq-kelmoq,
Hammasidan qiyin ekan,
Ey ho'kizim, ro'zg'or qurmoq.
Hayda-hayda ximich bilan,
Donni sepma cho'mich bilan,
Kenja bacha olishadi,
Kuchi yetmay omoch bilan.

Xirmon yanchish qo'shiqlarida mashaqqatli mehnatning hosilini yig'ib-terib olib, bug'doy boshoqlarini yanchib sara donga aylantirish jarayoni aks ettiriladi. Dehkon o'z hosilidan mamnun, kayfiyati chog' holda o'z aytimlarini aytishga tushadi.

Qora-qora qulog'ing, maydayo, mayda,

Qalqon bo'lsin jonivor, maydayo, mayda.
Sening bosgan izlaring, maydayo.mayda,
Talqon bo'lsin jonivor, maydayo, mayda.
Ho'p hayda-yo, ho'p hayda,
Qalqan qulog'im, hayda,
Temir tuyog'im, hayda,
Ostingda bosgan donni
Oyog'ing qilsin mayda.
Sen po'stidan judo qil,
Somoni senga foyda,
CHu, he, jonvorim, hayda,
Hirmonni qilgin mayda.

Bolalar mazkur qo'shiqlarni kuylash chog'ida avvalo milliy kuylash uslublari – she'vaga xoslik, tabiatga, mehnatga bo'lgan ijobiy munosabati, milliy qadriyatlar, kattalarga bo'lgan hurmat-ehтиrom, sharqona hulq-odob, ta'lim-tarbiya an'alariga rioya qilishga o'rgana boradilar. Har bir mavzulagi ashula varianti albatta biror tarbiyaviy maqsadni o'z oldiga maqsad qilib olgan bo'ladi. SHu sababli bolalar bu asarlarni kuylash jarayonida milliy qadriyatlar, an'ana, urf-odatlarini qadrlash va ardoqlash ko'nikma va malakalarini ham shakllantira boradilar.

“Men g'unchaman”(N.Nazrullaev she'ri, X.Rahimov musiqasi) qo'shig'i mavzusidagi dars mashg'uloti o'tkazildi. Ushbu dars mavzusi uchun Texnologik xarita va mavzu bo'yicha dars texnologiyasi yaratildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagi «Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5349-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.02.2018 y., 06/18/5349/0792-son; 14.12.2019 y., 06/19/5894/4161-son
 2. 85. Ibn Sino. Tanlangan asarlar / A. Irisov tahririda. – Dushanbe: Irfon, 2003. – 178 b.
 3. Князева Е. Н. Синергетика как средство интеграции естественнонаучного и гуманитарного образования /Е. Н. Князева, С. П Курдюмов // Высшее образование в России. 2008. – № 4. – С. 31-36.
 4. Джуроев Р.Х Основы передачи данных. Лекции для бакалавров по направлению телекоммуникация. –Т., 2012. – 160 с.
- Капитса С.П. Математика в школе. – М.: Наука, 2011. –

II SHO‘BA
PROFESSIONAL MUSIQA TA‘LIMI TIZIMIDA
ZAMONAVIY IJROCHILIK SAN‘ATI

O‘ZBEKISTONDA ZAMONAVIY MUSIQA IJODIYOTINING RIVOJLANISHI

Abdukarimova E.I. JDPU o‘qituvchisi
Boboyev Abbos JDPU talabasi

Annotasiya: Maqolada buyuk kompozitor ijodining eng muhim qirralariga, uning o‘zbek professional musiqa madaniyatini rivojlantirish bilan bog‘liq jihatlariga to‘xtalish bilan, musiqa darslarida o‘quvchilarga bu boradagi bilim, tushuncha va eng muhim ma‘lumotlarni yetkazish orqali ularni badiiy – estetik madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslarini ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: musiqa ta‘limi, kompozitor, badiiy – estetik, opera, balet, milliy, mumtoz, professional kompozitor, professional musiqa, milliy san‘at, ma‘rifatparvar, orkestr, vokal – xor.

O‘zbek musiqa san‘ati juda uzoq va qadimiy ildizlariga hamda o‘zining rang – barang janrlari qadimiy tarixi va an‘analariga ega. Tarixiy manbalarning dalolat berishicha eramizdan oldingi davrlardayoq O‘rta Osiy xududida yashagan xalqlarning musiqa madaniyati, cholg‘ulari, ijrochilik yo‘l va an‘analari uzoq Sharq va Yevropa xalqlari madaniyatini shakllanishi va rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatib kelgan.

O‘rta Osiyoni zabt etgan yunonlar, arablar, forslar ajdodlarimizning san‘atini o‘z yurtlariga olib ketib joriy etishgan.

Tarixning keyingi bosqichlarida ayniqsa IX – X asrlar, keyinchalik XIV – XV asarlarda o‘zbek xalqi musiqa madaniyati yuksak cho‘qqilari zabt etdi. Lekin, zamonning zayli bilan shundan keyingi davrlarda (XVI - XIX) asrlar musiqa va san‘atimizning rivojlanishida turg‘unlik davri boshlandi. O‘zbek musiqa madaniyati asosan og‘zaki an‘anadagi, ijrochilik uslubi esa manodik shakldagi rivojlanish bilan cheklanib qolgan.

XIX –asrning ikkinchi yarimida Turkistonni Rossiya tomonidan bosib olinishi bilan musiqa madaniyatimizga Yevropa musiqasi ta‘siri jarayoni boshlandi. Ayniqsa, XX – asrning 20 – yillarida musiqa madaniyatimizga Yevropa musiqa uslubiga mansub janrlarni kirib kelishi va ommalashuvi juda ham tezlashib, lekin o‘zgarishlar amalga oshirildi. Eng muhimi O‘zbekistonda Yevropa musiqasiga xos bo‘lgan ko‘p ovozlilik professional musiqa janrlari xor, orkestr, musiqali drama, balet, musiqa san‘atining eng murakkab janri bo‘lmish opera, simfoniya kabi turlari kirib keldi. Bugungi kunda jahon xalqlari musiqa madaniyatiga keng kirib kelgan bu janrlarimiz o‘zbek musiqa san‘atini ham tasavvur qilish qiyin. Chunki, musiqa san‘ati ham hamma jabhada bo‘lgani kabi ma‘naviy hayotda millatlar tajriba almashinuvining doimiy ravishda kengayishi bilan rivojlanib kelgan. Barcha millat va elatlar umumiy ko‘p millatli umumbashariy madaniyatga o‘z hissalarini qo‘shib kelishgan. O‘zbek musiqa madaniyatining taraqqiyoti ham barcha xalqlar san‘ati uchun xarakterli bo‘lgan bir – biridan o‘rganish va bir – birini o‘rganish jarayoni bilan bog‘liqdir. Musiqa madaniyatining bir – birini boyitilishi va o‘zaro ta‘siri san‘atning milliy o‘ziga xos xususiyatlarini inkor etmaydi. Keyingi bir asrlik o‘zbek xalqi madaniy rivojlanishi davri uzoq milliy musiqa madaniyatining tarixida juda ham katta ahamiyatga molik davr bo‘ldi. O‘zbekistonga jahon xalqlari musiqa

madaniyatida e'tirof etilgan musiqa janrlari kirib keldi. Bu san'at turlari tarixan qisqa davrda juda tez va keng ko'lamda rivolandi, shakllandi, yuksak darajaga yetdi.

Musiqa san'atining eng murakkab va muhim ahamiyatga molik turlari simfonik asarlari, opera, baletlarni yaratilishi O'zbekiston musiqa madaniyatini jahonda o'ziga xos o'ringa ega bo'lishini ko'rsatadi. Zamonaviy janrlardagi yaratilgan asarlarni mazmuni, mohiyati, musiqiy ohanglari zaminida o'zbek xalqining folklor musiqasi, mumtoz va jahon musiqalari xususiyatlari yetakchi ahamiyat kasb etganligini alohida ta'kidlash o'rinli bo'ladi. O'zbek xalq musiqasi zaminida opera qo'shiqlari, romanslar, ariyalar, ariozalar, xor asarlari, simfoniyalar, kantata, aratoriya, xorovdlar, kamer – cholg'u asarlarizamonaviy estrada qo'shiqchiligiga mansub asarlar yaratildi, ularning ko'plari respublikadan tashqarida ham katta shuhrat qozondi, chet el musiqashunoslari tomonidan yuksak baholandi. Zamonaviy opera va balet teatrini rivojlantirish O'zbekistonda zamonaviy janrlarda ijod qiluvchi kompazitorlarni, musiqashunoslarni yetishtirish va ularga qulay imkoniyatlar yaratish bo'yicha olib borilgan ishlar professional musiqa san'atining, demakki, kompazitorlik ijodiyotiga mansub musiqa san'atining tez suratlarda rivojlanishini ta'kidladi.

O'zbek kompazitorlik madaniyatining boyish jarayoni ko'p qirralidir. Masalan, o'tgan asrda o'zbek xalqining musiqa san'atida yuqorida ta'kidlab o'tilgan janrlar bo'yicha hozirgi kunda ham yuksak darajadagi asarlar yaratilmoqda.

Zamonaviy mavzu va janrlarda ijod qilayotgan o'zbek bastakor va kompazitorlarning asarlari o'zida milliy, mumtoz, xalq (folklor) va zamonaviy ko'p ovozli san'atni mukammallashtiradi.

Kompazitorlik janrlar bo'yicha musiqali drama dastlabki yetakchi janrga aylandi. O'zbek musiqasiga zamonaviy musiqani kirib kelishi ilk bosqichida "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Gulsara" kabi musiqali dramalar yaratildi. Dastlab bu janrda V.A. Chenskiy ko'p ovozlilik asosida duetlar, ikki ovozli xorlar, orkestr jo'rlikini kiritdi.

Qo'shiqchilik janri esa xilma – xil vokal – xor ijrochiligiga xos yangi – yangi turlar bilan boyidi va bu jarayon hozirda ham muvaffaqiyatli kechmoqda.

O'zbek kuylarini simfonik orkestr uchun moslashtirish tajribasi ham kompazitorlik ijodiyotining paydo bo'lishi va taraqqiysi bilan bog'liqdir.

1939 yilda o'zbek davlat opera balet teatri o'zbek va rus kompazitorlari musiqa ijrochilari ijodiy hamkorligini ta'minlab teatrning keyingi garmonik rivojida uyg'unlik kashf etadi. Ushbu teatrning rivojlanish bosqichlari mobaynida juda ko'plab o'zbek kompazitorlari shakllandi. Teatr tarixi uzoq professional musiqa madaniyatining ko'plab siymolari nomi bilan bog'liqdir. Bular H.Nosirova, K.Zokirov, Sh.Yarashov, H.Ahmedova, A.A'zimov, S.Benyashinov, R.Lauch, K.Davidov, R.Hidoyatova balet solistlari M.Turg'unboyeva, T.Izmailova, X.Kamilova, B.Qoriyeva dirijyorlar B.Inoyatov, A.Abduqayumov, F.Shamsiddinov, D.Abdurahmonovalardir.

O'zbek cholg'u orkestiri ijrochiligining barcha bosqichlarida M. Qoriyoqubov nomidagi O'zbekiston Davlat flarmoniyasi qoshidagi o'zbek cholg'u asboblari orkestiri markaziy o'rin egallab keldi. Bu jamoada o'zbek kompazitorlari, musiqachilari, dirijyorlarining ko'zga ko'ringan namoyondalari faoliyat ko'rsatib, o'z ijodlarini amaliy ijrochilik bilan bog'lab olib bordilar. M. Nasimov, F. Shamsuddinov, N. Halilov, D. Zokirov, M. Bafoyev. M. Asharafiy, N. Olimovlar shular jumlasidandir. Vokal musiqasi yangi janr turlari bilan boyidi. Yakkaxon, xor, romanslar, romanslardan keyin jo'rsiz xorlar (20 asr 50 yillarida) yirik vokal shakllari kantata, aratoriya, syuta, vokal xorigrafik, sikllar yuzaga keldi. Bu yo'nalishda Mutal Burxonov, S. Yudakov, S. Barislov, A. Berlin, X. Izomof, S. Boboyev, A. Muhammedov, Sh. Ramazonov,

F.Nazarov, T.Jalilov, D.Zokirov, M.Vafojev, kabilar ajoyib asarlar yaratdilar. Bu yo‘nalishda o‘zbek romanslarini yuksak namunalari yaratildi. D.Zokirovning “Ko‘rmadim”, M.Burxonovning “Bir tabassum qilmading”, “Ishqida”, S.Boboyevning “Qalb”, I.Akborovning “Yulduz” romanslarini alohida ta’kidlab o‘tish o‘rinlidir.

O‘zbek milliy xor ijrochiligi xususan, akapella janri bo‘yicha ilk ijod namunalari M. Burxonovning nomi bilan bog‘liqdir. Uning 1952 yilda yaratgan, ya’ni jo‘rsiz xor uchun qayta ishlagan oltita xalq qo‘shig‘i o‘sha davrda respublikadan tashqaridan ham katta shuhrat qozondi.

Xullas O‘zbekistonda kompazitorlik ijodiyotining paydo bo‘lishi, rivojlanishi va bugungi kundagi taraqqiyoti hozirgi vaqtdagi umumilliy musiqa madaniyatimizni shakllanishiga sabab bo‘ldi. Bu esa o‘zbek ijodkorlarining o‘z navbatida jahon musiqa madaniyatining eng ilg‘or ommaviy, xalqchil shakllarini ijodiy o‘zlashtirib ularning yutuqlaridan ilhomlanib yangi – yangi asarlar yaratishlariga zamin tayyorladi. Bugungi kunda umuman madaniy XIX asrning ikkinchi yarimida Turkison o‘lkasi rus chorizimi tomonidan bosib olingach, ilhor ma’rifatparvar va san’at sohasida ilmiy ekspeditsiyalar bilan shug‘ullanuvchi musiqashunoslar, olimlar va bu yerga turli sabablar bilan ko‘chib kelgan harbiy va davlat xizmatchilaridan iborat xalk vakillari bilan birga O‘rta Osiyoga Yevropa musiqa madaniyatiga xos bo‘lgan yo‘nalishlar, janrlar kirib kela boshladi. Bu jarayon 20 asr 20 yillarida “yangicha madaniyat qurish” shiori ostida yanada jadallashdi. Moskva Leningrad kabi yirik madaniy markazlarda professional kompazitorlar o‘qituvchi – olimlar kela boshladi. 1918 yili tashkil qilingan Turkiston xalq dorulfununi tarkibida Turkiston Xalq konservatoriyasini vujudga kelishi hozirgi zamonaviy nota yozuvida aoslangan musiqa madaniyatini yo‘lga qo‘yishda katta ahmiyatga molik voqia bo‘ldi. Bu davrda o‘zbek professional musiqasi mavjud emasdi. Uni yaratish uchun birinchi navbatda nota yozuvi, hozirgi kunda professional musiqani mohiyatini belgilovchi musiqa nazariyasi, garmoniyasi, polefoniya bilan maxsus ma’lumotlarga ega bo‘lgan mutaxassis kadrlarni yetkazish, o‘zbek xalq musiqasini umumiy jihatdan o‘rganish va uni targ‘ib qilish asosida milliy san’at negizida kompazitorlik janrlarida milliy asarlar yozish va ijrosini yo‘lga qo‘yish lozim edi. Ijtimoiy turmush va ma’naviy – ma’rifiy hayot tarzi o‘zbek namoyondalarini zamonga moslashish orqali Yevropa musiqasi motivlarida asarlar sabab bo‘ldi. Albatta buning o‘z davr qolversa hozirgi kun musiqa madaniyatimiz tamal toshini quyida progressiv tomonlari va ahamiyati katta bo‘ldi. 20 yillarda M. Xarratov “Kolxoz marshi” qo‘shig‘ini, T. Jalilov yaratgan “Signal” qo‘shiqlari tom ma’noda musiqa san’atimizda yangicha uslubni namunalari bo‘ldi. 1920 yilda Toshkentda hozirgi musiqa o‘qitish tizimiga aoslangan musiqa texnikumi tashkil etiladi. Sh. Shoumarov, A. Vahobov, aka –uka Risqi va Yunus Rajabiyilar, I. Ikromov, P. Rahimov, F. Sodiqovlar shu o‘quv yurtida o‘qitib taniqli bastakor kompazitor musiqachilar bo‘lib yetishdilar. Albatta hamma xalqlarda hatto Yevropada ham har bir xalqning milliy musiqasi professional musiqasini poydevori bo‘lib hisoblanadi.chunki tarixiy ildizlaridan uzilib kolgan sanat xalk qalbidan joy ololmasligi o‘z - o‘zidan ravshandir.

1928 yilda Samarqandda musiqa xoreografiya ilmiy tadqiqot instituti tashkil etildi. U yerda dastlabki o‘zbek professional kompazitorlarini butun bir avlodi Yunus Rajabiy, M. Burxonov, T. Sodiqov, T. Jalilov, I. Ikromov kabilar tahsil olishdi. Republikamizning hamma viloyatlarida yangicha uslubdagi konsert brigadalari, havaskorlik ansambllari tashkil etila boshladi. O‘zbekistonda dastlabki musiqali spektakllar (Bog‘bon qiz va Halima) paydo bo‘ldi, Samarqandda H. A. Rasulov, Xorazmda Mayusuf Xarratov, Sheroziy, Andijonda, T. Jalilov, Qo‘qonda A. Ismoilov, Buxoroda Otajalol Nosirov, Liyevi Boboxonov, domla Halim Ibodov,

Toshkentda Yu. Rajabiy, I. Akbarov kabi xalq musiqasining yetuk namoyondalari kuy va qo‘shiqalar yaratish bilan shug‘ulladilar. Musiqa havaskorligida xor, duxovoy orkestr, musiqali dramalarga yozilgan ariya kabi janrlar jadal rivojlandi. Bu davrda ayniqsa duxovoy orkestrlarni mavqeyi juda ham baland bo‘lgan. Duxovoy orkestrlar repertuarida Betxoven simfoniyalari Vagner va Veberning uvertyuralari, Chaykovskiyning opera va baletlari Ruteniyeteyin va Maynberning operalaridan parchalar ijro etilgan. O‘zbek qo‘shiqchilaridan Muhiddan Qori Yoqubov birinchi bo‘lib pianino jo‘rligida Yevropacha uslubda qo‘shiqalar ayta boshlagan. Ijrochilik mahorati yuksak baholangan Qori Yoqubov 1925 yilda Parijga boradi va Jahon demokratik san’at ko‘rgazmasi konsertlarda qatnashadi.

1938 yillarda O‘zbekiston davlat Flarmoniyasi tuzildi. Flarmoniya tarkibida xalq cholg‘u orkestiri tashkil etilib, unga T. Jalilov rahbarlik qiladi. N. Meronovbu orkestrda ko‘p ovozli ijrochilikni kiritdi, Petrosean esa xalq cholg‘u asboblarini nota ijrochiligiga mos yarim tonlikda tuzish bo‘yicha katta ishlarni amalga oshirdi. 1918 yil 1 sentabri O‘zbekistonda opera san’ati tashkil topgan kun hisoblanadi. O‘sha kuni xalq konservatoryasi Dargomesiskiyning “Rusalka” operasini qo‘yadi. Teatr bir oz vaqtdan so‘ng “Nepon Rizin” operasini qo‘yadi. 1929 yilda o‘zbek musiqali teatri tashkil etilib, u teatr musiqa madaniyatining Yevropa uslublari va shakllarini o‘zlashtira boshlagach xaqiqiy professional talablarga javob beradigan dastlabki “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” musiqali dramalari yuzaga keladi. Albatta bu spektakllarni ijodiy yutug‘ini mutaxassis kadrlar, ya’ni professional tayyorgarlikka ega bo‘lgan ijrochilar belgilar edi. Shu sababli 1934 yili Moskva davlat studiyasi qoshida o‘zbek studiyasi tashkil qilindi. Bu studiyada dastlab M. Ashrafiy, B. Inoyatov, M. Niyelov, A. Hoshimov, F.Mamasiddiqov, S.Samandarov, G‘.Abdurahmonov, H.Nosirovalar tahsil olishib qaytishdi va O‘zbekistonda musiqali teatr san’ati rivojlanishiga munosib hissa qo‘shdilar. Musiqali darammadan operaga o‘tish ancha murakkab ijodiy va sosial ijtimoiy sharoitlarda kechdi. 1940 yili “Layli va Majnan” spektakili musiqali dramadan operaga aylantirildi.

1934 yilda Toshkentda oliy musiqa maktabi ochildi va ular oradan 2 yil o‘tgach Toshkent Davlat Konservatoriyasiga aylantirildi. Xuddi shu paytgacha musiqa ta’limining uch bosqichli davri: boshlang‘ich musiqa maktabi, o‘rta musiqa texnikumi va oliy konsevatoriya tashkil bo‘ldi.

Toshkent Davlat konservatoriyasi Oliy ma’lumotli musiqachi kadrlar tayyorladi va bunda asosiy e’tibori milliy kadrlar yetishtirishga qaratildi. Toshkenda Moskva va Leningard hamda markaziy musiqa markazlaridan B.B. Nadejdin, G.A.Miliyev, B.A.Qo‘mermon kabi iste’dodli kompazitorlar kelishda.

Konservatoriyaning shakllanishi bilan unda vokal qo‘shiqchilik xor dirijyorligi xalq cholg‘u asboblari orkestiri musiqa nazariyasi va tarixi yo‘nalishlari ochildi. 1939 yilning iyunida M. Ashrafiy va S. Vaselenkoning “Bo‘ron” operasi qo‘yilishi o‘zbek musiqasi hayotida katta voqyea bo‘ldi. Shu paytgacha o‘zbek bastakorlar va kompazitorlik zamonaviy musiqa ijodiyotining kichik pessa, qo‘shiq, cholg‘u kuylari, musiqali drama janrlarida ijod qilib kelishayotgan edilar. Bo‘ron operasining yaratilishi o‘zbekistonda yangicha an’ana va shakldagi hozirda jahon musiqa san’ati sifatida deyarli barcha rivojlangan madaniyatidan mustahkam o‘rin olgan professional musiqa janrlarini yaratilishi hozir kompazitorlarni yetishib chiqayotganligidan dalolat berar edi. Bu o‘sha davr uchun juda katta madaniy voqyea edi. Ana shundan yetuk o‘zbek kompazitorlari zamonaviy musiqaning barcha janrlarida ajoyib asarlarini yarata boshladilar. T.Sodiqov. A. Kozlovskiy hamrohligida “Davron ota” drammasini M.Burxonov bilan “O‘zbekiston qilichi” musiqali drammasini yaratdi. I.Akbarov, M.Burxonov, T.Sodiqovning ko‘plab vokal – xor asarlari, S.Vaselenko, M. Liviyevning, T.

Mushelning ko‘plab romanslari, uvertyuralari, S. Yudakovning mashhur qo‘shiqlari kantatalari yaratilgan.

Hozirgi paytda O‘zbekistonda milliy opera san’ati tashkil topgan va unga S. Vaselenko va , Ashrafiyning “Bo‘ron”, T. Jalilovning va Brokinning “Tohir va Zuhra”, T. Sodiqov va R.M. Glerning “Gulsara”, V. Uspeniskiy va G. Meshelning “Farhod va Shirin”, T. Sodiqov va V. Zetmanning “Zaynab va Omon”, S. Yudakovning “Maysaraning ishi”, M. Ashrafiyning “Dilorom”, I. Hamroyevning “Oy jamol” va o‘tgan asrning ikkinchi yarimida o‘zbek kompazitorlarining keyingi avlodiga mansub iste’dodli yosh kompazitorlari tomonidan yaratilgan o‘nlab operalar, baletlar va simfonik asarlar kiradi.

O‘zbek opera san’atining yaratilishi esa o‘zbek xalqi milliy musiqa madaniyati jahon xalqlari madaniyati darajasida rivojlanayotganligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008. -176 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T., O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
3. Umumta’lim maktablarida musiqa ta’limi va tarbiyasi Konsepsiyasi. –T.: -XTB, 1995 y.
4. Umumiy o‘rta ta’limning Davlat Ta’lim Standarti va o‘quv dasturi. T.: Ta’lim taraqqiyoti, 6-7 maxsus sonlari, 1999 y.
5. Abdukarimova E.I. Preparation of future music teachers for their professional activities through uzbek classical music// European Journal of Research and Reflection in Education Sciences. Research learning.- Volume: 7 Number: 6 Issue: 2056-5852 Publication Year: 2019. www. Scopus.com
6. Abdukarimova E.I. Texnologik loyihalash- musiqa mashg‘ulotlarida samarali ta’lim // “Ilm ham jamiyet” jurnal. -Nukus davlat pedagogika instituti, 2019, 1-son, -B 61-63.
7. Abdukarimova E.I. Oliy Pedagogik ta’limda bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini mumtoz musiqa vositasida amaliy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish. Xalq ta’limi. jurnal-T.: 2021. -№3, - B. 82-84.
8. Abdukarimova E.I. Qudratov I. Musiqa ta’limida fanlararo aloqadorlik. Uslubiy qo‘llanma. – Samarqand.: SamDU, -2015. – B 95 b.
9. Abdukarimova E.I. Qudratov I. Milliy musiqiy an’analar va ularning shaxs komolotidagi o‘rni// O‘zbekiston: Turizm; Iqtisodiyot va Ekologiya // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.- Sam., 2009-B 376-378
10. Abdukarimova E.I. Oliy Pedagogik ta’limda bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini mumtoz musiqa vositasida amaliy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish. Xalq ta’limi. jurnal-T.: 2021. -№3, - B. 82-84.

O‘ZBEKISTON MILLIY VA MAHALLIY USLUBLARI

Sherzod Aslonov

NavDPI, Musiqa ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston milliy va mahalliy uslublarining nomlanishi va ularning qo‘llanish sohasi hamda ulamolarning fazoviy qarashlari haqida misollar keltirilgan

Kalitli soʻzlar. Buzruk, Rost, Navo, Duhoh, Segoh, Iroq, “Surxandaryo-Qashqadaryo”, “Buxoro-Samarqand”, “Xorazm”, “Fargʻona-Toshkent”, qisman “Qoraqalpogʻiston”.

Milliy musiqa merosimiz janr, uslub va badiiy mazmunga boy boʻlgan va asrlar davomida rivojlanib, sayqallanib, shakl, badiiy ifodalari bilan mukamallikka hamda barkamollikka erishgan sanoatdir. Unda xalqimizning milliy ruhiyati, ijtimoiy taosiflari, oliy insoniy fazilatlarini, erk va baxt yoʻlidagi tarixiy kurashlari, orzu-umidlari oʻz aksini topgan.

Oʻzbek xalqi musiqa merosi ikki ulkan soha xalq ijodi, yaʼni koʻp qirrali mavzu bilan xarakterlanuvchi, oʻz ildizlari bilan uzoq oʻtmishga taqaluvchi hamda soddaroq tuzilishdagi folklor janrlari va xuddi shu negizda shakllangan murakkabroq tuzilishli, rivojlangan ashula va cholgʻu asarlar (shu jumladan maqomlar)ni qamrab olgan ogʻzaki anʼanadagi professional (kasbiy) ijoddan iboratdir. Shuning bilan birga oʻzbek musiqa merosida qaxramonona va lirik mavzudagi dostonlar ham muhim oʻrin egallaydi. Oʻtmish musiqa olimlarining yozma nazariy asarlarida maqomlar turlicha taoriflangan, shakllari ham har-xildir. Abu Nasr Farobiy, Al-Xorazmiy, Abu Ali Ibn Sino kabi IX-XII asrlarda yashab, ijod etgan buyuk foylasuflar sharq musiqa nazariyasini ilk bor asoslab bergan boʻlsalarda, «Maqom» iborasini qoʻllamaganlar. Oʻtmishda parda(lad) tushunchasi bilan bogʻliq muayyan bir tovush qatoriga mos keladigan kuy va ashulalar maolom maqom tarkibiga kiritilgan.

«Maqom»- arabcha «Makam» soʻzidan olingan boʻlib, turar joy, istiqomatgox, toʻxtam maonolarida kelib, musiqa istilohida barmoq bosib tovush xosil etiladigan parda, kuy va ashulalar boshlanadigan parda (hozirgi tonika maonosida), ular harakat qiladigan pardalardan iborat tovush qatorlar, yaʼni, hozirgi istilohda ladlar ifodasi sifatida taoriflanib kelingan. Sharq xalqlarida maqomlar turlicha: yaʼni, oʻzbek va tojik xalqlarida maqom, uygʻurlarda muqom, ozarbayjon va armanlarda mugʻam, Eronda dastgox, arablarda maqom yoki navba (yaʼni, ketma-ket ijro etiladigan kuy va ashulalar sikli), turklarda kuk, Hindlarda rag (raga) nomlari bilan mashxurdir. Chunki ular oʻtmishda hozirgi nota yozuvi va boshqa yozuv vositalari boʻlmagani tufayli bizgacha etib kelmagan, toʻgʻri, X-XIII asrlarda ixtiro qilingan jadval-notalar mavjud. Abu Nasr Farobiy jadvalida hozirgi vokalizlarga uxshash ud asbobida mashq qilish uchun moʻljallangan maxsus jadval-notada tovushqatorlarning turli xillari keltirilgan. Unda zamonasida ijro etilgan maqom yoʻllarining xarakter tarzi oʻz aksini topgan. XIII asrda Safiuddin al-Urmaviy ixtiro qilgan jadval-notalarda esa, Eron, Ozarbayjon maqomlarining baʼzi kuy namunalari saqlanib qolgan.

Buxoro maqomlari ichidan Tasnif, Saqil, Saraxbor, Muxammas kabi kuylar, shuningdek Xorazm maqomlari ichidagi Peshrav, Muxammas va Saqil kuylari doimiy hisoblanadi.

Buzruk - Eng katta, eng buyuk degan maononi bildiradi. Bu maqomni ijrochilari qizil xalatlar kiyishib ijro etishganlar va bu maqom tinglovchilarni xarbiy gʻalabaga intilishga chorlagan. SHuning uchun Sohibqiron Amir Temur ham biron mamlakatga jangga chorlanganda askarlarini oʻtqizdirib, oldin shu maqomni tinglatgan va undan keyin yoʻlga ravona boʻlganlar. Bu maqomni tush paytida tinglasa maqsadga muvofiq boʻladi.

Rost - bir-biriga ros yoki mos degani. (Shu yoʻlga, yaʼni xudo yoʻliga kirganim rost). Bu maqomni ertalab tinglasa juda xush yoqadi.

Navo - mungli kuy, yaʼni, navo chekish (muhabbat yoʻlida, xudo yoʻlida oh, nola, navo chekish. Navoiy taxallusi ham shu soʻzdan olingan). Bu maqomni kechasi soat birdan keyin (shomda) toʻq xalatlar kiyishib ijro etishgan.

Dugoh - ikkita tayanch tovush (yoki ikki joy, yaʼni bu dunyo u dunyo) maʼnosini bildiradi. Bu maqomni Xufton (dam olish) vaqtida tinglansa maqsadga muvofiq boʻladi.

Segoh - uchta tayanch tovush (yoki uch joy, yaoni, bolalik yoshlik, qarilik) ma'nosini bildiradi. Bu maqomni tushdan keyin ijro etilsa va tinglansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Iroq - mamlakat nomini bildiradi. Bu maqomni hamma ijrochilar oq xalatlari kiyishib, ertalab quyosh chiqayotganda ayvonda oq parda ichida ijro etishgan. Demak, nonushta vaqtida tinglansa ham bo'ladi. Maqomni ijro etish qoidalari Namanganlik Mulla Xuday-Berdi risolalarida yozilgan. Qoidaga amal qilmagan sozandalarning cholg'u asboblari va xalatlari olib qo'yilgan. Shuningdek, maqom haqida XVI asr shoiri va sozandasi Najmiddin Kaukabi asarlarida yozilgan o'shanda maqom to'liq shakllangan ekan.

ADABIYOTLAR

1. F. Karomatov. Voprosy muzykoznaneya (materialy simpoziuma) 1980 g.
2. Yu. Rajabiy. I. Akbarov. O'zbek xalq musiqasi tarixi, (O'qituvchi). 1981 yil.
6. Ibn Sino. Tanlangan asarlar / A. Irisov tahririda. – Dushanbe: Irfon, 2003.
7. Князева Е. Н. Синергетика как средство интеграции естественнонаучного и гуманитарного образования /Е. Н. Князева, С. П Курдюмов // Высшее образование в России. 2008. – № 4.

SHAXS KAMOLOTINI RIVOJLANTIRISHDA MUSIQIY ESTRADA IJROCHILIGINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Azimov Abrorjon Qahhorovich

Nav.DPI, Musiqa ta'limi kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada Shaxs kamolotini rivojlantirishda musiqiy estrada ijrochiligining tarbiyaviy ahamiyati haqida dolzarb misollar keltirilgan. Shuningdek, bolalarni yoshlik xususiyatlarini e'tiborga olib, ularda musiqiy tarbiya tizimlarini ilk yoshidan tashkil qilish va yo'naltirish - pedagogik vazifalar haqida metodik izohlar berilgan.

Kalitli so'zlar: Estrada, xonanda, Klassik gitara, elektron sunniny gitaralar, sintezator turlari, urma zarbli cholg'ular, kongo, kastet, maracas, milliy cholg'ular.

Musiqiy estrada insonga tez ta'sir etuvchi emotsional hissiyotni faol rivojlantiruvchi vositadir. Inson musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, umrbot musiqadan zavq topa oladi. Umuman, Musiqa inson ruhiyatining ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Musiqa madaniy hayotimizda keng o'rin tutgan, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san'at turidir.

Musiqiy estrada tarbiyasi, nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va ma'naviy dunyoqarashini shakllantiradi. Ushbu tizim inson hissiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va ahloqiy tarbiyalashning muhim vositasidir.

Milliy madaniyatimiz bobokalonlari Abu Nasr Al Farobiy «Bu fan tanning sog'ligi uchun foydalidir», bobomiz Shayx Sa'diy «Musiqa odam ruhining yo'ldoshidir» - degan edilar.

Shu bois o'quvchilarda inson ma'naviyatini tarkibiy qismi bo'lgan musiqa madaniyatini tarbiyalash musiqa tarbiyasining bosh maqsadi bo'lib turadi. Bu oliy maqsadni amalga oshirish uchun quyidagilarga amal qilish zarur.

1. O'quvchilarda musiqa madaniyatiga bo'lgan qiziqish va mehr muhabbatni oshirish.

2. Musiqiy faoliyatlar jarayonida badiiy ijodkorlik va his - tuyg`ularini rivojlantirish.
3. Musiqiy asarlarning badiiyligi, g`oyaviy mazmuni vositasida o`quvchilarni ahloqiy estetik tarbiyalash.
4. Musiqa darslarida kasb hunar va mehnatga nisbatan o`quvchilarda ishtiyoq uyg`otish.
5. Estrada xonandachiligiga xos ovoz, ritm, salohiyat va intiluvcha ijodkorlikning kasbiy professionalligini qo`lga kiritish, bunda: (ovoz apparatini xususiyatlari, binnigi, guligi, ishkami, intonasiya va sunniy falsetdan foydalanish usullari),
6. Turli janr va ifodaviylikning badiiylygi va suxanronlik nag`malari, qiroati va maqomiga intilish usullari (ustoz- shogird tizimi).
7. Estrada cholg`u yo`nalishi, bunda; Klassik gitara, electron sunniny gitaralar, sintezator turlari, urma zarbli cholg`ular, kongo, kastet, maracas, milliy cholg`ular tarovati qo`shilishidagi janrlar va sunniy tovushlardan foydalanish usullaridir.

Mazkur maqsad va vazifalarni amalga oshirish o`qituvchining professional va ahloqiy qiyofasiga bog`liq. Shuni ham ta`kitlash joizki, har qanday san`atkor ham maktab yo kollejda egallagan kasbi (spesifikasiga qarab) bo`yicha musiqa darslarini olib bora-olmaydi. Buning uchun musiqa o`qituvchisi o`z kasbiga va bolalarga mehr qo`ygan, yuksak madaniyatli, keng dunyoqarashga ega bo`lgan shaxs bo`lmog`i lozim. U pedagogika psixologiya, bolalar fiziologiyasi, etika, estetika va musiqa nazariyasining amaliy sohalaridan, musiqa o`qitish metodikasi fanlari, o`z tanlagan kasbining yo`nalishlaridan chuqur bilimga ega bo`lmog`i kerak. Musiqiy xonandalik yo cholg`u ijrochiligi maxsus sinf o`qituvchisi musiqa san`atining nazariy va amaliy sohalaridan yetarli darajada bilim, ko`nikma va tajribaga ega bo`lishi lozim. U ham cholg`uchi, xushovoz xonanda, xor dirijyori, jo`rnavorchi, musiqa nazariyotchisi va amaliyotchisi sifatida ish ko`rmog`i lozim.

Musiqa o`qituvchisining ijodkorligi shundaki, u bir soatlik darsga ssenariy muallifi, uning ijrochisi va rejissyori sifatida ish tutadi. Shu bois musiqa darsi "San`at darsi" - deyiladi.

Maktab hayotida musiqa o`qituvchisining faoliyat miqyosi kengdir. Sinfdan va maktab yo kollejdanda tashqari musiqa tarbiyasi turlarini tashkil etish va boshqarish, maktab yo kollejda musiqa yo cholg`u tarbiyasining ommaviy shakllari masalan: Shoir va san`atkorlar bilan uchrashuvlar, ma`ro`za va konsertlar tashkil etish, "Navro`z bayrami", "Alifbe" bayrami, "O`zbeiston Vatanim-manim", "Ilhom chashmalari" ko`rik tanlovlari, kasbiy professional ko`rik tanlovlar, jahonaro raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va bohsqa musiqa haftaliklari kabi tadbirlarni uyushtirish musiqa o`qituvchisi zimmasidagi vazifadir.

O`zbekistonning "Ta`lim to`g`risida" gi Qonunga ko`ra 9 yillik umumiy o`rta ta`lim, maxsus kasbiy yo`nalishlardan 5 yillik san`at maktablari, akademik leseylar va 3 yillik san`at kolleji joriy etildi. Musiqa ta`limining davlat ta`lim standartlari asosida yangi dastur ishlab chiqilib, yangi dastur mazmunida milliy musiqa meroslaridan to`laqonli foydalanish, ommaviy xalq kuylari va qo`shiqlari, maqom, shashmaqom, dostonlar va bugungi zamonaviy musiqa o`z aksini to`gan. Binobarin, jahon musiqa janrlaridan foydalanish va o`zligimiz maqomida chuqur o`rgangan xolda yangicha Estrada janrlari, ya`ni jahon Estrada san`atiga raqobatbardosh kuy qo`shiqlar yaratilishi lozimdir. Bu hozirda ishlayotgan o`quvchilardan ish mazmuni va uslubda yangilanish jaryonini talab etadi. Bunday talablar mazkur qo`llanmalar, tavsiyanomalar majmuida va nashr etilayotgan o`quv-metodik qo`llanmalarda keng ma`noda yoritilmoqda. Yangi dasturlarni o`ziga xos yana xususiyatli tomoni shundan iboratki, musiqa madaniyati fanini asosi bo`lgan musiqa savodxonligini tarkib to`tirish lozim bo`lgan, qator musiqiy, qonuniyatlar, jumladan, musiqa nutqi, musiqa ifoda vositalari, musiqa shakllari, musiqaning

tuzilishi va rivojlanishi, musiqaning zamonaviyligi kabilar chuqur, mukammal o`rgatilish kerak.

Demak, yangi dastur mazmunida dars o`tish uchun, musiqa o`qituvchisi o`zining musiqiy - nazariy bilimlarini takomillashtirish lozim. Chunki, mamlakatimizda yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashning muhim tarkibiy qismi nafosat tarbiyasi masalalarini, insonni ma`naviy, ma`rifatli qilib tarbiyalash masalalarini hal qilishda jamiyat va davlat tomonidan qo`yilgan katta ma`suliyatni musiqa o`qituvchisi oldiga vazifa qilib qo`ymoqda.

Xalqimizda «Qush uyasida ko`rganini qiladi» degan maqol bor. Har bir bola birinchi tarbiyani o`z ota-onasidan, oila a`zolaridan, o`z atrofidagi yaqin kishilardan oladi. Oiladagi ijobiy muhit, oila a`zolarining o`zaro munosabatlari, bir-biriga bo`lgan hurmat va e`tibor, mehribonlik, o`zaro yordam va ularning musiqaga bo`lgan munosabatlarini bolalarda dastlabki tushuncha va ko`nikmalarining rivojlanib borishida asosiy o`rin tutadi. Bolalar shaxsi uning faoliyati jarayonida tarkib topadi. Zotan, o`quvchining faoliyati juda maroqii, o`ziga xos go`zal va shakl jihatidan rang-barangdir. Bu xil fazilatlar bolalarga xos bo`lgan doimiy extiyojga aylangandagina ulardagi faollik yanada ortadi. Maroqli va ma`naviy zavq beruvchi ana shu go`zal tuyg`u bolalar va o`quvchilarning ayniqsa, nafosat tarbiyasiga kuchli ta`sir ko`rsatadi. Binobarin, bolada namoyon bo`ladigan ilmiy badiiy-estetik tarbiya muhim ma`naviy go`zallikka puxta, zamin hozirlaydi.

Bolalar yoshlik xususiyatlarini e`tiborga olib ularda musiqiy tarbiya tizimlarini ilk yoshidan tashkil qilish va yo`naltirish - pedagog vazifasidir. Aks xolda bola rivojlanishida orqada qolish seziladi. Misol uchun bolalarni ilk yoshida musiqaviy tovushlarning balandligi bo`yicha ajratib borishga o`rgatilmasa u yetti yoshida bu vazifalarni uddalay olmaydi.

Ruxshunoslar (psixologlar) bolalarda eshitish-sezish erta uyg`onishini ta`kidlaydilar. A.A.Lyublinskaya malumotlariga ko`ra bola hayotining 10-12 kunida tovushlarga munosabat seziladi. 2 oylik bola ovozga, skripka tovushlariga quloq solib tinchib qoladi. 4-5 oylik bolalar ovoz kelayotgan manbani izlaydilar. Qo`shiq kuylayotgan ovozga quloq tutadilar. To`g`ri rivojlanayotgan bola birinchi oylardan boshlab musiqa xarakteriga kompleks jonlanish munosabatida bo`ladilar, ya`ni ular quvonadilar yoki tinchib qoladilar. Bola hayotining birinchi yili oxiriga borib kattalar qo`shig`iga g`uvillash bilan jo`r bo`lishga harakat qilishlari haqida qiziqarli ma`lumotlar bilan tanishish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. O`zbek musiqa tarixi. 1-jild. T.: G`ofur G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti, 1972.

2. Ahmedov M., Ahmedova K. O`zbekiston xalq sozandalari. T.: G`ofur G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti, 1974.

3. Hamidov H. Musiqa - qo`shiqchilik madaniyatimiz tarixi. T.: O`qituvchi, 1995.

4 S.Saidiy "SO`NMAS YULDUZ SHU`LASI (*Estrada yulduzlari tarixi misolida*)", *T/sharq durdonasi*. J: 2000 yil.

ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA MILLIY QO'SHIQCHILIK MASALALARI

Do'stmurodov Beknazar O'zDSMI Milliy qo'shiqchilik kafedrasini mudiri, O'zbekiston xalq hofizi, professor

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimiz Prezidenti tomonidan ta'lim sohasiga va xalq ijodiyotining yoshlar tomonidan o'rganilishiga berilayotgan e'tibor berilayotgani haqida so'z boradi. Shuningdek yana maqolada yakkaxon qo'shiqchilikda har bir talabaga uning iqtidori va qobiliyatidan kelib chiqqan holda alohida yondashuv talab etilishi haqida ham so'z boradi.

Kalit so'zlar. Ta'lim, qobiliyat, iqtidor, xonandalik, mashg'ulotlar ijrochilik, ritm, dinamika, shtrix, tovush, ovoz sozlash, folklor, an'anaviy xonandalik.

Zamonamizning shiddati bizdan o'ta faollikni, dunyoda kechayotgan ijobiy o'zgarishlardan doimiy xabardor bo'lish bilan bir qatorda eng so'nggi yangiliklarni mahalliy sharoitni hisobga olgan holda amaliyotga tatbiq etishni ham talab qilmoqda. So'nggi uch yil ichida mamlakatimizda olib borilayotgan o'zgarishlarning natijasi ko'zga tashlanayotganligi hech kimga sir emas. Mamlakatimiz Prezidenti tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar ichida ta'lim sohasiga va xalq ijodiyotining yoshlar tomonidan o'rganilishiga berilayotgan e'tibor, ayniqsa, yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Zamonamizning hozirgi kundagi talablaridan kelib chiqib eng samarali investitsiya ta'limga qilingan investitsiya ekanligini tobora teranroq anglamoqdamiz. Chunki jamiyat taraqqiyotini, uning ertangi kunini yetuk malakali kadrlar belgilab beradi. Ta'lim tizimini takomillashtirish, professor-o'qituvchilarning saviyasini oshirish orqali O'quvchi va talabalarning bilimni yuksaltirish, sifat darajasini ko'tarish vazifalari kompleks hal etilishiga harakat qilinmoqda. Yurtboshimiz qator farmonlarida bu haqda alohida to'xtalib: «ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish»⁶⁰ zarurligini ta'kidlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda kadrlar tayyorlashning ma'no-mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida qabul qilingan. Unda shunday deyiladi: «Oliy ta'limning ma'naviy-axloqiy mazmunini oshirish, talaba-yoshlarga mustaqillik g'oyalari, yuksak ma'naviyat va insoniylikning milliy an'analariga sodiqlik ruhini chuqur singdirish, ularda yot g'oya va mafkuralarga nisbatan immunitet va tanqidiy tafakkurni mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish dolzarb vazifamizdir».

Shunday ekan, hozirgi oliy dargohlarda ta'lim olayotgan har bir talaba davr bilan hamnafas holda ta'lim va tarbiya sohalariga oid innovatsion texnologiyalardan, jahon ta'lim standartlariga mos ravishda bilim olishlari ko'zda tutiladi. Talaba yoshlarni milliy qadriyatlarni shakllantirish ruhida tarbiyalash maqsadida musiqiy ta'limda «An'anaviy xonandalik» fanini o'qitish va ta'lim berish dolzarb masala bo'lib qolaveradi.

Yurtimiz azal-azaldan ilm o'chog'i, jahon sivilizatsiyasi markazlaridan biri deb e'tirof

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi 4947-son farmoni. Toshkent shahri, 2017-yil 7-fevral.

etib kelingan. O'рта asrlardan xalqimiz ta'lim sohasida yuksak marralarga erishgan bo'lib, jahon sivilizatsiyasi hamda fan sohasiga ulkan hissa qo'shgan. Ajdodlarimiz erishgan yutuqlardan faxrlanish bilan chegaralanib qolmasdan, ta'lim tizimini takomillashtirish, zamonaviy uslublar va axborot texnologiyalarini tatbiq etish orqali mamlakat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan malakali kadrlarni tayyorlash kerak bo'ladi.

Milliy qo'shiq va ashula ijrochiligining nazariy asoslari va hususiyatlari: ohang hosil qilish va ohangdoshlik, asar matnini to'g'ri talqin etish, asar mazmuniga mos nola va qochirimlardan foydalanish, milliy uslubda ijro etish konikmasi, talabaning shaxsiy ijrochilik qobiliyati, talaba iste'dodidan unumli foydalanish va rivojlantirish, ritmni his etish, dinamika, musiqiy jumla (xona, bozgo'y), ijroni jo'rnavor yordamida musiqa bilan uyg'unlashtirish, shtrixlar, tovushlarni bir-biriga bog'lash yo'llari, ovoz sozlash mashqlari ijrosi, konsert ijrochiligi repertuarini shakllantirish, soda folklore musiqalari ijrochiligi, an'anaviy bastakorlar ijodidan namunalar ijro etish, mumtoz kuylar, maqom nasr yo'llaridan namunalar ijro etish, xalq va kompozitorlar ijodidan namunalar ijrosi. Yakka mashg'ulotlarni tashkil etishda esa kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosan amaliy ijro yo'nalishi bo'yicha olgan nazariy bilim va ko'nikmalarni amaliy ijro orqali boyitadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Matyoqubov O. "Shashmaqom" saboqlari. –Toshkent, 2007.
2. Xudoynazarov M. An'anaviy ashulachilar ansambli. - Toshkent, 2005.
4. Xudoynazarov M. Yakkaxon qoshiqchilik. - Toshkent, 2006.
5. Mamirov G. Xalq qo'shiqchiligi. - Toshkent, 2006.

"CHO'LI IROQ"

Ergashov Abbos Baxridinovich

NavDPI San'atshunoslik fakulteti Musiqa kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada "Cho'li Iroq", ijrochiligi va uning konstruktiv ta'rifi keltirilgan bo'lib, ulamolarning unga nisattan ilmiy izlanishlari haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, Al-Xorazmiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy va ushbu zamon olimlarining Sharq musiqasi ilmiy nazariyasiga oid tizimli ilmiy falsafiy qarashlari o'rinishgan.

Kalitli so'zlar: "Cho'li Iroq", "saraxbor", "Chorgoh", "Shifo", "Najot", "Ishorat", "Donishnoma".

Iroq maqomi bosh kuy mavzusi asosida yaratilgan yirik shakldagi mumtoz cholg'u asr. U g'amgin, qayg'uli ruhiy holatni ifoda etgani bilan teran falsafiy ma'no va mazmunga ega. "Cho'li Iroq" saraxbor usulining tezlashtirilgan variantiga bog'langan. Kuy tuzilishida cholg'u qismlarga xos bozgo'ylar uchrasada, asosan, maqom sho'balaridek murakkab kuy tuzilmalaridan tarkib topgan. "Cho'li Iroq." ning shakli daromad, 2 ta miyonxat, avjida Muxayyari Chorgoh namudi ishlatilishidan iborat. Asar yakkanavozlikda ko'proq nay, g'ijjak, tanbur, sato, dutor, qo'shnay singari cholg'ularda, shuningdek, turli xil ansambllarda ijro etiladi. O'zbekiston bastakorlari va kompozitorlari o'z asarlarida "Cho'li Iroq." kuy va ohanglaridan unumli foydalanishgan. Shu jumladan, I. Ikromov uning ashula yo'lini Navoiy

g'azaliga bog'lab tuzgan, D.Soatqulov o'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun moslashtirib qayta ishlagan.

"Cho'li Iroq." kuyining falsafiy qarashlar shundan iboratki ushbu kuy oshiqlik,firoq,buyuk muhabbat, hijron,ayriliq xarakteridagi kuy hisoblanadi.

Ushbu asar qadimda yo'l azoblari va ollo taoloning uyi bo'lmish ka'bani tavof qilish ilinjida yo'lga chiqqan, Ollohga oshiqlar haqqida so'zlab beradi kuyni bosh qismi zarbul qadim usulida boshlanib u karvondagi tuyalar qadam ovozi eslatib og'ir zalvorli qadam tashlab haj safariga yo'l olgan karvonni tasvirlaydi va nay ovozi mungli mayin ovozi inson qalbini o'rtaguvchi hijron muhabbatga intilgan yuraklarga olloh roziligi va uning diydorini ko'rishdek baxtga musharraf bo'lish umidini bildiradi. Bu yo'lda qanday mashaqqatlar bo'lishidan qat'iy nazar bir maqsad yo'lida intilishga undovchi ohang hukum suradi.

Asarning nomlanishiga e'tibor beradigan bo'lsak "Cho'li Iroq" bu yerda Iroq shashmaqom asarlarini bittasi bu Iroq maqomi va shu borada arab mamlakatlaridan biri Iroq davlatining nomi hamdur bu mamlakat nomi shuni bildiradiki u yerda karvalo dashtidek uzoq davom etadigan cho'l bordir bu cho'li biyobonda na g'iyoh o'sadi va na suvlik bordir ertaklarimizda yozilgandek qush uchsa qanoti va odam yursa oyoqi kuyadigan uzoq manzilli sahrodan iboratdur. Azalda har bir musulmon uzoq va mashaqqatli bu yo'ldan o'tib haj safarini bajarishgan, bu jarayonda tashnalikda va issiq quyosh tafti ,ochlik qiynab ba'zi bir oshiqlar manzilga yetolmasdan qurbon bo'lganlar qancha . Bu yo'l oshiqlar yo'li deb ham shunga atalgandir balki , cho'li iroq kuyi insonni hayotini sarhisob qilishda uzoq uzoqlarga yetaklab men yaratganni roziligiga loyiqmanmi yo'qmi deb inson o'z o'zini ruhan tarbiyalashga undovchi bir hilqat hisoblanadi go'yo bu kuyni ilohiyligini his qilish uchun so'fiylik maqomini bo'yniga olish kerakmas oddiy bir insonni ham kuyni eshitganda qalbini tushunarsiz bir o'kinish va so'qinch chulqab oladi go'yo.

VI asr oxirlari VII asrlar boshlarida arablar bizni yurtlarga islomni tarqib qilib kelganida bizning yutda maqomlarimiz mushkulot qismi mavjud edi va arablar tomonidan musiqamiz ta'qiqlandi bir muddat bilishdiki bu yurt insonlarini musiqasiz uhlab turish qiyin ekanligini amin bo'lib ularga zikr yo'lida kuylash mumkin ekanligiga ruxsat berishdi, aslida esa o'sha arablarning ba'zilar bizning kuylarni o'rganib o'z yurtlarida kuylab va arab so'zlarini qo'yib qo'shiq kuylab mashxur bo'ganlari ham bor kuy sehri inson tafakkurini rivojiga rivoj qo'shuvchi bir omil hisoblanadi masalan bizning yurtdan chiqqan allomalarimiz borki musiqa haqqida risola yozmagani uchramaydi bularga misol qilib Farobiy bir qancha musiqa haqqida risolalari bor "Musiqaga kata kitob" bunga misol Ibn Sino,Beruniy,Al Xorazmiy shu allomalar jumlasidandir. Musiqaga insoniyat uchun berilgan in'om hisoblanadi ushbu maqolamda yoritganim cho'li Iroq asari ham bunga misol bo'ladi degan umiddaman.

Al-Xorazmiy. IX-X asr musiqa madaniyati tarixida O'rta Osiyodan chiqqan buyuk qomuschi olim Abu Abdulloh Muhammad ibn Yusuf al-Kotib al Xorazmiyning " Mafotihul-ulum" (" Ilmlar kaliti") ni musiqaga baqishlangan qismi ham aloqida o'rin tutadi. Xorazmiyning bu asari O'rta Osiyo halklari fan va madaniyati tarixini yoritishda muhim manbalardan biridir. Hususan, bu qomusning musiqaga doir qismida o'sha zamonlarda mavjud musiqa cholqulari to'liq tavsiflanadi va ularning har biri haqqida mufassal ma'lumot beriladi.

Umuman Sharq olimlari, dastlab musiqani ham falsafa ilmlaridan biri deb hisoblaganlar, binobarin o'zlarining qomus tarzida yozilgan kitoblariga kiritganlar. Bunda ular, shubhasiz, musiqaning badiiy-estetikkuchi va ijtimoiy-tarbiyaviy rolini hisobga olgan edilar.

Musiqaga ilmi bunda matematika fanlarining biri sifatida qaralgan edi. Bunga sabab, musiqani tashkil etgan tovushlar bir-biriga nisbatan ma'lum nisbatda bo'lib, matematikadagi

ba'zi qonun-qoidalar vositasi bilan tushuntiriladi edi. Dastlab, intervallarni tashkil etadigan tovushlar baland-pastligi darajasi torning uzun-qisqaligi bilan o'lgan. Bunda tor qismlari geometriya yo'li bilan aniqlanib, uning ma'lum bo'laklaridan turli intervallar chiqarib olinadi. Masalan, ikkini birga nisbati (ya'ni ochiq torning yarmidan hosil etiladigan tovush uning o'ziga nisbatan) oktava davrasidagi intervalni tashkil etadi va matematikada 2:1 hisoblanadi

Abu Ali ibn Sino. O'rta Osiyodan chiqqan uluq olim Ibn Sino (980-1037)

Buhoroga yaqin Afshona qishloqida tuqilgan. U buyuk faylasuf, tabiatshunos, mashhur tabib, shu bilan birga ajoyib musiqa nazariyachisi ham edi.

Ibn Sinoning "Kitabush -shif'a" ("Shifo kitobi"), "Donishnoma" ("Bilim kitobi"), "Kitabun najat" ("Najot kitobi") kabi asarlarining musiqaga doir qismi va "Risalatun fi-ilmil-musiqiy" ("Musiqiy ilmi haqida ri sola") kabi risolalari Abu Nasr Forobiy asarlari qatorida jahon musiqa fani va madaniyati tarixida alohida o'rin tutadi.

Ibn Sinoning bosh asarlaridan biri - "Kitabush - shifa" falsafiy harakterda bo'lib, unda muallifning tabiiy-ilmiy qarashlari aks ettiriladi. Muallif 13 qismda zamonasidagi tabiiy fanlarni sharhlab beradi. Shu jumladan bu yrdagi musiqaning nazariyasi ham yoritiladi. Asar 4 ta katta bo'limdan iborat:

1. Mantiq
2. Fizika (Tabiiyot)
3. Aniq fanlar
4. Metafizika

Aniq fanlardan biri musiqadir Ibn Sino bu erda musiqa nazariyasini atroflicha talqin etadi. Musiqaga akustikasi, tovushlar, intervallar, jins va jam'lar, maqomlar, ritmlar va kuylar masalasi ilmiy-nazariy jihatdan chuqur asoslab beriladi.

Uning yana bir asari "Kitabun-najat"ning musiqaga bag'ishlangan qismi" musiqaning unsurlarini nazariy jihatdan qisqacha sharhlab beradi. Bu asarda maqomlar masalasiga kam o'rin ajratilgan.

Ibn Sinoning tojik tilida yozilgan "Donishnoma" nomli asarida ham musiqaning ba'zi nazariy masalalari matematikaga bag'ishlangan qismda sharx etilgan. Uning boshqa falsafiy asari - "Kitabul-ishorat" ("qo'llanma kitob") ham musiqiy ilmiy nuqtai nazardan diqqatga sazovordir.

Ibn Sinoning "Shifo", "Najot", "Ishorat" va "Donishnoma" kabi falsafiy asarlari jahon fani va madaniyati tarixida olamshumul ahamiyatga ega bo'ldi. Bu hol jahonning turli mamlakatlarida olimlarning Ibn Sino asarlari bilan kuchli qiziqishini ko'rsatuvchi dalillardan ham ko'rinib turadi. Ibn Sinoning fikricha, falsafa fanlar majmuasidir, ya'ni butun mavjudot haqidagi fandir.

Forobiy. Buyuk faylasuf - olim, o'rta asr Sharq musiqa nazariyasining

asoschilaridan biri - Abu Nasr Muhammad Forobiy 873 yilda Sirdaryo yoqasidagi Forob shahrida tug'ilib, 950 yilda vafot etgan. U o'rta Osiyo turkiy qabilalaridan chiqqan bo'lib, dastlabki ma'lumotni o'z ona shahrida oladi. Durustgina bilim egasi bo'lgan Forobiy Bag'dod, Damashq shaharlariga, so'ngra Misrga boradi va u erlarda o'z ma'lumotini oshiradi.

Forobiy ajoyib musiqachi va musiqa nazariyachisi ham edi. U, o'z davrida mavjud hamma musiqa cholqularida chaldirdi. Ayniqsa kuylarni nay va tanbur cholqularida katta mahorat bilan ijro etardi. Ba'zi manbalarda ko'rsatilishicha, Forobiy qonun cholqusini ixtiro etgan, o'sha davrlarda mashhur bo'lgan ud sozini takomillashtirishda juda katta ishlar olib brogan.

Buyuk olim falsafa, mantiq, matematika va boshqa fanlar bo'yicha teran ilmiy asarlar yaratgan zamonasining etakchi olimlaridan edi. Musiqa ilmi esa matematika fanlaridan biri hisoblanardi.

Abu Nasr Forobiy o'zining musiqaga baqishlagan risolalarida Sharq musiqasi nazariyasini asoslab berdi. Uning musiqasi asarlari "Kitabul musiqiy al-kabir" ("Musiqa qadim katta kitob"), "Kalam fil-musiqa" ("Musiqa haqida so'z"), "Kitabul musiqi" ("Musiqa kitobi"), "Kitabun fi-iqsa'il-ulum" ("Fanlar tasnifiga doir kitob")ning musiqaga bag'ishlangan qismi, "Kitabun fi-iqsa'il-iqo'" ("Musiqa ritmlari - iqo' tasnifi haqida kitob") va boshqalardir. Forobiyning musiqasi asarlari orasida "Kitabul-musiqiy al-kabir" aloxida diqqatga sazovordir. Bu kitob mashhur sharqshunos olim D.Erlanje tomonidan fransuz.tiliga tarjima qilinib "Arab musiqasi" turkumida nashr etilgan. Asar muqaddima va uch bo'lak kitobdan iborat.

Muqaddima qismida muallif kuy ta'rifi, musiqaning nazariy va amaliy masalalari, kuyning paydo bo'lishi, musiqasi janrlari, cholgular, kuylarning ta'rifi, kuylarning ijrosi, intervallar, tovush qatorlar, konsonanslar va dissonanslar haqida fikr yuritadi.

Birinchi kitobda musiqaviy akustika, nag'ma (tovush)lar nisbati, intervallarning turlari, ularni hosil etilish qoidalari, ritmlar va boshqa masalalar sharhlab beriladi. **Ikkinchi kitobda** ud, tanbur, nay, rubob kabi sozlar, ularning pardalari, torlari va diapazoni haqida gap boradi. **Uchinchi kitob** kuylar va maqomlarni hosil etish, ritm, cholg'u va vocal musiqasi, kuy bezaklari va boshqa masalalarga bag'ishlanadi.

Maqomlar masalasini yoritishda ayniqsa uchinchi kitob muhimdir. Bu o'rinda lad (maqom)larning tashkil etadigan qismlari-tetrahord va pentahordlarning turlari, maqomning juda ko'p xillari, uning sho'balari keltiriladi. Shuni aloxida aytish kerakki, Abu Nasr Forobiy o'zining bu o'lmas asarida Sharhda nota yozuvining vujudga kelishida chuqur zamin hozirlab bergan edi. Binobarin, kuylarning parda asosi bilan bevosita bog'liq bo'lgan lad (maqom) yozuv namunalarini ixtiro etdi va harfiy belgilar vositasi bilan yozib qoldirdi ("Sharq nota yozuvi haqida" qismiga qarang).

Vokalizlarni eslatuvchi bu kuy namunalari o'z harakati bilan zamonasida mavjud musiqasi asari, shu bilan birga maqom uslubidagi musiqasi asarlari yo'llarini ham ifodalaydi. Forobiyning jadvali o'sha zamonlarda musiqasi madaniyatining yuksak bo'lganidan dalolat beradi. Jadval musiqanazariyasining amaliyotda yo'llanishning yuksak namunasidir. Unda keltirilgan tovush qator namunalarining murakkabligi Forobiy zamonida ijro texnikasining ham yuksak bo'lganligini tasdiqlaydi.

Abu Nasr Forobiyning musiqarisolalarida maqomlar masalasi ilk bor sharhlab berilgan edi. X-XI asrlarda mashhur bo'lgan maqomlarni o'rganishda uning asarlari yagona manba bo'lib xizmat etadi. Bu o'rinda Forobiyning o'tmishdoshi, ulug' tabib va olim Abu Bakr Muhammad bin Zakariy ar-Roziy (240) 855 yilda Rayda tug'ilgan) haqida ham eslatib o'tish lozim. Ar-Roziy Sharq fani va madaniyati tarixida yuksak rol o'ynagan edi. U yosh ligida ud sozini chalishni mashq qilgan, ashula aytishni ham sevdi. Lekin Roziyning musiqaga doir asar yozgani to'g'risida ma'lumot bo'lmasa-da, uning turli fan sohalariga oid kitoblari orasida "San'at haqida o'n ikki kitob" - "Al isno ashara kitoban fi is-san'ati" asari ham bo'lgan. Bu kitoblarning biri musiqasi nazariyasidan bahs etgan bo'lishi ehtimol.

Forobiy va boshqa olimlarning ilmiy-nazariy asarlari zamonasi talabalariga ko'ra arab tilida yozilgan bo'lib, Sharq musiqasi nazariyasining tub masalalarini sharhlab beradi. Abu Nasr Forobiyning musiqasi risolalari va kitoblari bu haqda yozilgan asarlarning eng mukammali va eng mashhurlaridan bo'lib, o'zidan so'nggi davrlarda yashab ijod etgan uning izdoshlari- musiqasi olimlari kitoblarining yozilishida asos bo'lib xizmat etdi. Ey hurmatli qadrdonim

hozirgi davr yoshlari bizning me'rosimiz bo'lmish ushbu asarlarni tinglang va tadbiq tashviqot qilingkim ushbu asarlarni har biri tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ilohiyligi va shu jumladan o'zligimiz haqqida so'zlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Узбекская народная музыка. Том V. Бухарские макомы. Собрал и записал Юнус Раджаби. Под редакцией И.А.Акбарова. Ташкент, 1959. С 1966 г. и по 1975 г. было осуществлено новое издание Шашмакома в шести томах, под редакцией Ф.М.Кароматова.

2. О принципе циклообразования в макомате и в узбекской традиционной музыке в целом см., в частности в кн.: Гафурбеков Т. Творческие ресурсы национальной монодии и их преломление в узбекской советской музыке. Ташкент, 1987.

3. Агаева С.Х. Абдулгадир Мараги и его музыкально-теоретическое наследие (XIV–XV вв.). Рукопись диссертации на соискание ученой степени кандидата искусствоведения. М., 1979.

O'ZBEK MUSIQA SAN'ATIDA XORSHUNOSLIKNING PAYDO BO'LISH TARIXI

Elboyeva Sevinch Akbar qizi

*Shahrisabz Davlat Pedagogika instituti Musiqa ta'limi yo'nalishi 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar Tursunov Husniddin*

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda o'zbek milliy musiqa madaniyatida xor san'atini kirib kelishi va uning rivojlanishi to'g'risida, shu jumladan o'zbek xor san'atiga hissa qo'shgan ustoz san'atkorlarimiz Botir Umidjonov, Sheramat Yormatov, N.Sharafiyeva, L.Djumayeva, S.Kadirovalarni ijodlari haqida ham ma'lumotlar kiritib o'tdik. Maqolada Akapella xor ijrochiligi va ko'p ovozli xor ijrochiligi haqida ma'lumotlar kiritilgan. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak ushbu maqolamizda xor san'atining bugungi kundagi taraqqiyoti, rivojlanish jarayonlari va o'zbek musiqa madaniyatidagi o'rni haqida fikrlar yuritdik.

Kalit so'zi: Xor, dirijyor, xorshunoslik monodik (bir ovozlik), Yakkaxon, Folklor, Yalla, Ko'p ovozli kuylash, Sopravajdeniya, Akapella,

Har bir insonning o'ziga xos ichki xis tuyg'ulari bor. Bizni bu ichki kechinmalarimiz bevosita musiqa bilan bog'liqdir. "Musiqaning samoviy yoki ilohiy ekanligi qadimiy manbalarda o'z aksini topgan".⁶¹ Inson tug'iladiki uning qulog'iga azon aytiladi, azonni notaga solib bo'lmaydi lekin ohangi, jarangdorligi musiqa bilan bog'liq. Musiqaning sirli olamiga ilk qadam qo'yg'an inson shuni anglab yetadiki, bu tubi yo'q ummondur. Zamonlar osha musiqa rivojlanib kelmoqda. Har bir davlatning, xalqning, madaniyati, milliy musiqalari va uning tarixi mavjud. "O'zbek xalq musiqa san'ati o'zining milliy jarayonlarida o'ziga xos va mukammal darajada shakllangan betakror xalq va mumtoz musiqa merosiga ega".⁶² O'rta Osiyo ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy hayotida yillar osha o'zgarishlar yuz berdi. Millatimizda milliy madaniyat' san'at adabiyot shu jumladan musiqa san'ati ham rivojlanib bordi Bu keyingi

⁶¹ A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova "o'zbek musiqasi tarixi" T. 2018 y

⁶² A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova "o'zbek musiqasi tarixi" T. 2018 y

asrlarda yashab ijod etgan shoirlar, olimlar mutaffakirlar va musiqachilar ijodida yaqqol aks etadi. Bunda Faylasuf Abu Nasr Forobiy musiqa madaniyatiga qo‘shgan hissasi beqiyosdir. Uning musiqaga oid asarlarida nazariy va amaliy bilimlar berilib, bu kitobning nomi “Kitob ul musiqa al kabir” deb nomlangan. Ulug‘ mutafakkir Abu Ali Ibn Sino bobimiz ham “Kitob ush-shifo” asarlarida musiqaning fizik xossasi, ritmik asosi haqida ma’lumot berganlar.

Xalqimiz musiqa tarixiga nazar solsak o‘zbek musiqa san’ati tarixida monodik (bir ovozli) kuylash mavjud bo‘lib maqomlarni 1 ovozda ya’ni unison shaklda kuylangan.

Biz ota bobolarimiz qoldirgan manbaalarga tayanadigan bo‘lsak, bizgacha o‘zbek musiqa ashula ijrochiligida folklor qo‘shiqlarini ijro qilishda yoki xalq og‘zaki qo‘shiqlarini ijrochiligida, milliy ashula ijrochiligidan asosan ansambl bo‘lib unison shaklda kuylangan. Unison-italyancha-unisono: unus-“bitta” sonus ”tovush” degan ma’noni bildiradi, ya’ni bir hil balanlikdagi notalarni bir vaqtda kuylash.

19 asrda O‘zbek musiqa san’atida o‘zgarishlar yuz bera boshladi. O‘zbek musiqa san’atida nota yozuvi kirib keldi. Nota yozuvi bilan birgalikda chet el musiqa ijrochiligi yo‘llari kirib keldi. Bu bilan nima demoqchimiz ya’ni bizga xor san’ati kirib keldi ko‘p ovozlilik ijrochiligi kirib keldi, unison ijrochiligidan ko‘p ovozlilikga o‘ta boshladi. O‘zbek milliy musiqa san’atida yangi musiqa yo‘li shakllana boshladi. Ko‘p ovozli kuylash o‘zbek milliy musiqa madaniyatiga 19 asrning oxiri 20- asrning boshlarida kirib kelgan. bo‘lib bunda R.Glier G.Mushel M.Burxonov V.Uspenskiy kabi kompozitorlar ijodida, ana’anaviy milliy musiqa xususiyatlari zaminida rivojlana boshladi. Maqomdan tashqari o‘zbek janrlari juda ham xilma hildir bulardan: yallachilik, folklyor, cholg‘uchilik va xor san’ati kundan kunga rivojlanib kelayotgan san’at turlari sirasiga kiradi.

Yallachilik va Folklyor janrlari ham unison shaklda kuylanadi. Ko‘p hollarda 2 va undan ortiq ijrochiila, doira va cho lg‘u ansambli jo‘rligida kuylanadi. Yallaning asosiy misralarini yakkaxon yallachi kuylasa naqarotini esa guruh tomonidan xor bo‘lib kuylanadi. Xor san’ati o‘zbekistonga rus soveti davrida kirib kelgan, ya’ni ruslar cherkovlarda ijro etishgan va bu san’at turini dunyoga yoyishgan.

Xor-yunoncha “choros” so‘zidan olingan bo‘lib yig‘ilish, jamlanish degan ma’nolarni anglatadi. Xor jamoasi tarkibiga ko‘ra bolalar, ayollar, erkaklar va aralash xorlarga bo‘linadi. Ijro etish usuliga ko‘ra esa 2 ga bo‘linadi A-kapella va Soprovajdeniya. A-kapella- musiqa asboblarini jo‘rligisiz ya’ni xor kuylovchilarining ovozi orqali ifodalanishi. Soprovajdeniya esa musiqa asboblari va xor jamoasi orqali kuylarni ifoda etilishiga aytiladi. Xorda asosiy ovozlari 4 hil bo‘lib bular: Soprano, alt, tenor va bas ovozlardan iborat. Soprano-ayollarning yuqori ovozi. Tenor-erkaklarning baland ovozi, Alt-ayollarning past ovozi, Bas- erkaklarning past ovozi.

Dirijyor- diriger “yo‘naltirish, boshqarish, rahbarlik qilish” degan ma’nolarni anglatadi. Yig‘ilgan xor jamoasini dirijyor boshqaradi. Dirijyorda ulkan iroda, nozik musiqaiy tabiat, keng musiqiy dunyoqarash sohibi bo‘lishi kerak. O‘zbeklarga xor san’atining endigina kirib kelgan chog‘da unison kuylashgan.

1919-yilda “Zebiniso” 1 ovozli qizlardan iborat xavaskorlik xor jamoasi tuziladi. 1939-yilda esa Rossiyada dekada bo‘lib o‘tadi va bunda o‘zbek xor jamoasi mag‘lub bo‘ladi Yillar o‘tgani sayin turli hildagi xavaskorlik xor jamoalari tuzilib, u xorlar ham 1 ovozli xorlar sirasiga kiradi. O‘zbekistonga ko‘p ovozli kuylash 19 asr oxiri 20-asr boshlarida kirib kelgan.

Shu zaylda 1944-yilda A.Semyonov tashabbusi bilan Toshkent Davlat Konservatoriyasida “Xor dirijyorligi” kafedrasini tashkil etild 1951-yilda S.Valenkov va A.Sultonov boshchiligida asos solinib 1952-yilda birinchi professional akademik xor jamoasi

tuziladi. Bu xor aralash xor bo‘lib faqat rus qo‘shiqlarini kuylagan. Oradan yillar o‘tib bu xor o‘zbekcha qo‘shiqlarni kuylay olmaganligi sababli, 1960-yilda Botir Umidjonov tomonidan asos solinadi va 1961-yilda O‘zbekiston teleradio kompaniyasi qoshida birinchi professional o‘zbek milliy xor jamoasi tuziladi. Bu xorda Botir Umidjonov badiiy rahbar va bosh dirijyor bo‘lgan. O‘zbek milliy xor jamoasi uchun Botir Umidjonov o‘zbek va qardosh millatlarning xalq o‘g‘zaki ijodidan keng ko‘lamda foydalanib, ya’ni xor uchun turli xildagi kuylarni, yallalarni, estrada qo‘shiqlarni xalq og‘zaki ijodiyotini atoqli kompozitor M. Burxonov kompozitor ko‘magida xor ijrochiligining akademik yo‘lini-milliy xonandalik yo‘llari bilan muvofiqlashtirdi, Botir Umidjonov uchun xor jamoasi ijodiy laboratoriya bo‘ladi. Aynan shu xor uchun turli xalqlarning qo‘shiqlarini a-kapella xor ijrochiligi usulida moslashtirgan. Bulardan: “Lapar”, “Yalla”, “Duxtari saman”, “Galbari”, “Gar namedoni bidon”, “Diliman”, “Qilpillama”, “Illila Yor”, “Qora Soch”, “Go‘zal” kabi a-kapella asarlarini moslashtirgan. Bu xor jamoasi ko‘pgina tanlovlar g‘olibi bo‘lishiga qaramay, “Respublika Xizmat ko‘rsatgan xor jamoasi” unvoni berilgan. Botir Umidjonov asos solgan professional o‘zbek milliy xor jamoasi 1982-yilda “Respublikada xizmat ko‘rsatgan xor jamoasi” unvoni bilan taqdirlandi. Yillar o‘tgani sayin xor san’ati keng ommaga namoyish eta boshlandi. Xor san’atining yana bir buyuk namoyondalaridan biri Shermat Yormatov umrini bolalar xor san’atining targ‘ibotchisi, xor san’atiga bahshida etgan insonlardan biri desak adashmagan bo‘lamiz faoliyati davomida Toshkent shahridagi 99-o‘rta maktabda Shermat Yormatov “Boychechak” bolalar xor jamoasining asoschisi hisoblanadi.

“Boychechak” bolalar xor jamoasi “Respublikada namunaviy xori” unvoniga sazovor bo‘lgan. “Bulbulcha”- Badiiy jamoalar ijodiy birlashmasining bolalar ashula va raqs ansambili, sobiq O‘zbekiston davlat teleradiosining Katta bolalar xori. Badiiy rahbar va bosh dirijyori O‘zbekiston Xalq artisti Shermat Yormatov xormeystrlar S. Alimova D. Sobirova, G. Mansurova, konsermeyst V. Shadrina. Turli yillarda jamoada xormystrlar N. Baxritdinova, N. Sharafiyeva, D. Malikova A. Nesterova, N. Mirzayeva, I. Ro‘ziyev, va boshqalar. Bolalar xor jamoasi “Boychechak” xor studiyasi va R. Glier nom. maxsus musiqa maktabida xor jamoasining qo‘shilishi zaminida yuzaga kelgan. ¹ Bu xor jamoasi mavjud bo‘lgan jamiy tanlovlar va festivallar ishtirokchisidir Bu xor jamoasi 1981-yilda Moskvada diskussion klubda mashhur xormyestr G. Struve bolalarning shirali ovozi “Bulbulcha” deb nomlashni taklif etadi va bu xor jamoasini “Bulbulcha deb nomlanadi. Hozirgi kunda kichik boalar xori, bolalar xori, o‘smirlar xoridan iborat xor jamoalari mavjud. O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasida “Akademik Xor Dirijyorligi” kafedrasida talabalardan iborat xor jamoasi mavjud bo‘lib talabalardan iborat xor jamoasiga professor L. Djumayeva, dotsent S. Kadirovalar rahbarlik qiladi. Madaniyat va San’at institutida ham “Akademik Xor Dirijyorligi” kafedrasida mavjud bo‘lib bunda ham talabalardan iborat xor jamoasi mavjud. O‘zbekistonimizning har bir viloyatida “Ixtisoslashtirgan San’at Maktablari mavjud bo‘lib unda ham har bir maktabning ‘Akademik Xor dirijyorligi’ bo‘limlari bo‘lib, o‘quvchilardan iborat xor jamoalari mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A. Jabborov, S. Begmatov, M. Azamova O‘zbek musiqasi tarixi Toshkent-2018
2. Б. В. Шамахмудов ХОР ЛУФАТИ Муסיқа олий таълим муассасапары учун ўқув қўлланма

**SHARQ MUTAFAKKIRLARINING IJODLARIDA TA'LIMOTNI
HAYOT BILAN BOG'LANGANLIGI
BURHONUDDIN AL-MARG'INONIY (1123-1197)**

*G'ofurova Muhayyo Tolibjon qizi II-kurs talabasi
Ilmiy rahbar Rahimov Shavkat Normatovich*

XII asr boshlarida go'zal Farg'onaning Marg'ilon shahriga tegishli Rishton qishlog'ida 1123 yili, o'z davrining buyuk faqihlaridan bo'lmish Abu Bakr ibn Abdugalil ibn al-Xalil oilasida sog'lom va iste'dodli bir go'dak tug'ilib, hayot maydoniga qadam qo'ydi. Uni Ali ibn Abu Bakr deb atadilar. Ali ibn Abu Bakr yoshligidanoq oila a'zolari mexru muhabbatini qozonib o'ziga xos xislatlari bilan boshqalardan ajralib turardi. Tug'ma iste'dod, tabiiy layoqat, sezgir ruh, tushunish va anglash uchun harakat uning yurish turishidan ko'zga tashlanardi.

Otasi Abu Bakr bolaning birinchi murabbiyi vazifasini o'z zimmasiga olib, uni kamolga yetkazish uchun barcha kerakli shart-sharoitni yaratib berdi.

Ali ibn Abu Bakr yoshligidan bor kuch-g'ayrati, ijtihodini ilm o'rganishga sarf etdi. O'sha davrning mashxur allomalari, atoqli faqih va olimlaridan dars oldi. Nafaqat shariat ilmlari, balki o'z davrining barcha ijtimoiy-falsafiy fanlarini o'zlashtirib, ilmiy ijod yo'liga qadam qo'ydi.

U barcha fanlarni o'rganish, barcha sohalarida asar yozish vositasi bo'lgan arab tili va adabiyotini nihoyat oliy me'yorda o'rgandi. Uning bu sohadagi ajoyib layoqati va qobiliyatini uning asarlari, ayniqsa, "Hidoya"da ko'rish mumkin.

Ilm o'rganish yo'lida yosh olimning tinimsiz sa'y-xarakati va barkamol shaxsiyati qirralarining ochilishi barchaning diqqat markazida bo'lgani uchun, SHayxulislom, Imomi xumom va Burhonuddin laqablari uning to'liq ismi sharifi Ali ibn Abu Bakr ibn Abdugalil ibn al-Xalil al-Farg'oniy al-Marg'inoniyga qo'shib aytiladigan bo'ldi.

Imomi Humom deganda oliy irodali va yuksak ximmatli din rahbari nazarda tutiladi, Burhonuddin esa diniy ishlar va shariat ilmlari bo'yicha har bir so'zi xujjat va burhon, ya'ni qat'iy dalil darajasida turgan olimni ifodalaydi.

Abdulhay Laknaviy uning nasabi Abu Bakr Siddiqqa borib taqaladi deb ta'kidlagan.

Al-Marg'inoniy tinimsiz sa'y-harakat va uzoq muddat sayru safar jarayonida, o'sha asrning ilm dargoxlariga borib eshik qoqdi. 33 yoshida 544 hijriy (1150 milodiy) yili haj safariga jo'nab, avval Ka'batullo, so'ngra hazrat Muhammad (S.A.V.) qabrlarini ziyorat qilish sharafiga muyassar bo'ldi.

Ilohiy vahiy markazi Makka va islom davlatining birinchi poytaxti, payg'ambar sahobalari shahri bo'lmish Madinada mashxur faqihlar, muxaddislar va mufassirlar bilan uchrashib tajriba oshirdi.

Olim barakali safar jarayonida Turkistondan tortib Xuroson, Eron, Iroq va Arabiston o'lkalarida taniqli olimlar bilan suhbat o'tkazdi. Islom endiklopediyasida yozilishicha u, o'z xayoti davrida o'qigan va ko'rgan narsalarini o'sha davrda rasm bo'lganidek aloxida daftarlarda yozib qaytgan ekan, lekin afsuski, ushbu qo'lyozmalar bizgacha yetib kelmagan.

Biz turli tillarda yozilgan turli manbalar va uning asarlarini ko'zdan kechirgandan keyin, mazkur omillar quyidagilardan iborat degan xulosaga keldik:

Birinchidan, Burhonuddin al-Marg'inoniy oliy iste'dod va yuksak tafakkur egasi bo'lgani holda, ilmu fan shaydosi edi. Tinimsiz izlanish, yangiliklarga intilish, uzilishga yo'l qo'ymasdan davomdor o'rganish uning ajralmas xislatlaridan edi. Fanga qiziqish uni uzoq safarlarga yo'llab, asosiy fanlarni o'zlashtirish uchun imkon yaratib berdi.

Ikkiichidan, u yashagan davr SHarq Rennsansi (uyg'onish davri) birinchi bosqichining oxirgi yuz yilligi — XII asr, ya'ni Markaziy Osiyoda jamiyatning taraqqiyoti va fikh ilmi (islom hukuqi)ga zarurat tug'iladigan bir davrga to'g'ri keldi. SHu sababli fikh ilmi bo'yicha u yaratgan asarlar, ayniqsa "Al-Hidoya" kitobi, ushbu davrda tez-tez yuz berib turadigan yangi-yangi muammolarni yechib berishga qaratilgan edi.

Uchinchidan, Qoraxoniylar davrida ayrim sabablarga ko'ra, Xuroson bilan aloqalar susaygani tufayli, Movarounnaxr olimlari o'zlariga tayangan holda fiqh ilmiga katta hissa qo'sha boshladilar. Qoraxoniylar davrida 300 ga yaqin yirik faqihlar mavjud bo'lib, 150 dan ko'proq huquqiy asarlar, 20 ta fatovolar yozilgan edi, ulardan 98 foizi hanafiy mazhabiga tegishli bo'lgan.

XII asr va XIII asr boshlarida birgina buxorolik Sadrijahon Burhonuddin Muhammad va uning avlodlari himoyasida 6000 faqih hayot kechirib, ilmiy faoliyat bilan mashg'ul ekan.

Bunday gullagan muhitda xayot kechirish al-Marg'inoniyga ilmiy yutuqlarga erishish uchun qulay sharoit yaratib berdi.

To'rtinchidan, al-Marg'inoniyning Abu Hanifa Nu'mon ibn Sobit mazhabiga mansubligi ham uning kamolot darajasiga ko'tarilishi uchun katta omil bo'lib xizmat qildi. Negaki, hanafiy mazhabi shariatning uchta asosiy manbai, ya'ni Qur'on, Hadis va Ijmodan keyin, to'rtinchi manba bo'lmish Qiyos, ya'ni aqliy manbaga boshqa mazhablarga nisbatan ko'proq e'tibor qaratgani bilan ajralib turadi. SHuningdek, Abu Hanifa mazhabi qiyosning ikkinchi turi bo'lmish istehson, ya'ni qiyosni tark etib, odamlar manfaatiga mos keladigan tomonni ustun qo'yish tamoyilini juda ko'p qo'llagani tufayli, ko'p qulayliklar yaratib beradi. Xalq hayotiga singib ketgan urfu odat ushbu mazhabning qo'shimcha manbai sifatida qo'llanadi. Turk endiklopedist olimi SHamsuddin Somiyning mashhur asari «Qomusul-a'lom»da ta'kidlanishicha, u 60000 dan 80000 gacha huquqiy muammolarni hal qilib bergan ekan.

Al-Marg'inoniy ushbu mazhabning keng doirasi ichida son-sanoqsiz huquqiy masalalarni hal qilish yo'llarini topib olishga muvaffaq bo'ldi. Ra'y (SHaxsiy fikr) va Qiyos (Taqqoslab o'rganish)ga suyanish Marg'inoniyga o'z malakasini oshirib, islom huquqi falsafasining tub mohiyatiga yetib borish va erkinlik bilan mazhabning belgilangan hududida fikr yuritish uchun qulay imkoniyat yaratib berdi. Ayrim olimlar uni mazhab doirasida Mujtahid deb bilganlar.

Buyuk allomalarning dars halqasida o'tirib tahsil olishi, yurak harakatdan qolmaguncha sabrsizlik va iztirob bilan haqiqatni qidirishi "beshikdan lahadgacha ilm o'rganingiz" degan payg'ambarimiz hadislariga amal qilish edi.

Al-Marg'inoniy asarlari SHayxulislom al-Marg'inoniy ko'p asarlar muallifi. Ularning har biri o'z o'rnida katta ilmiy ahamiyatga ega. Manbalarda qayd etilishicha ulardan bizga ma'lum bo'lganlari quyidagilardan iborat:

1. Nashrul-mazxab (Mazxab tarqatishi bo'yicha kitob).
2. Kitobu tanosukil-xos, yoki fi-manosikil-haj (Haj ibodatiga oid kitob).
3. Kitob fil-faroiz (Meros masalalari xaqida kitob).
4. At-tajnis val-mazid (ikkiga huquqiy muammolar yechimiga bag'ishlab yozilgan kitob).
5. Muxtorot an-navozil.
6. Mazidun fil-furu'il —Hanafiya (Hanafiy mazhabi bo'yicha fiqh tarmoqlariga qo'shimcha).
7. Muhammad ibn Hasan ash-SHayboniyning al-Jomi' al-kabir nomli asarining sharhi.
8. Bidoyatul-mubtadiy (Fiqh ilmiga kirish uchun boshlang'ich kitob).
9. Kifoyatul-muntahiy (Tugatuvchini qoniqtiruvchi kitob) — Bidoyatul-mubtadiyga

yoʻzilgan 8 jildlik katta sharh.

10. Al-Hidoya fi furuʻil-fikh (Huquq tarmoklari boʻyicha yoʻllanma) al-Margʻinoniyning shoh asari boʻlib, "Bidoyatul-mubtadiy"ga yozilgan toʻrt jildlik oʻrtacha sharhdan iborat.

Aytib oʻtilgan 10 ta asardan ayrimlari yoʻqolgan, qolganlarining aksariyati turli kutubxonalarda mavjud boʻlib, ayrimlari nashr etilgan.

Mazkur asarlarning har biri oʻziga xos ahamiyatga ega boʻlib, muallif uchun katta shuhrat, izzat va hurmat keltirgan, ayniqsa uchta oxirgi asarning har biri, oʻziga xos yaratilish tarixiga ega. Biz bu haqda bir oz toʻxtalib oʻtamiz:

Muallif "Bidoyatul-mubtadiy"ni ash-SHayboniyning "Al-Jomi' as-sag'ir" asari va Al-Quduriyning "Muxtasar" kitobini birlashgirib, yagona qisqartirilgan fiqhiy kitob shaklida yozgan va uni yozishda tabarruk boʻlsin deb, ash-SHayboniy uslubidan foydalangan holda masalalarni tartibga solgan.

Muallif "Bidoyatul-mubtadiy"ning nihoyat qisqaligini eʼtiborga olib, unga avval 8 jildlik yirik sharh yozdi va uni "Kifoyatul-muntahiy" ("Yakunlovchini qoniqtiruvchi kitob") deb atadi. Biroq, keyinchalik sakkiz jildlik bu yirik hajmli sharhdan foydalanish murakkab boʻladi degan fikrga boradi va uni qaytadan oʻrtacha andozaga solib qayta yozib chiqdi. Ushbu asarni yozish muallif uchun oson kechmadi. SHayx Akmaluddinining qayd etishicha, bu ish uning 13 yillik hayotini qamrab olgan. Muallif yangi asarni yaratish uchun oʻzining butun kuch va isteʼdodini ishga soldi. Laknaviyning manbalarga tayanib yozishicha, u 13 yil (asarni yozish muddati) davomida roʻza tutardi. CHunki roʻza insonga ruhiy kuch bagʻishlaydi va fikrni jamlashga yordam beradi.

Burhonuddin al-Margʻinoniy "Al-Hidoya" asarida muammolarni yechish jarayonida faqat toʻrtta asosiy mazhab (hanafiy, molikiy, shofiʼiy va hanbaliy)gagina emas, balki hozircha oʻz oʻrnini boshqa mazhablarga boʻshatgan Zohiriy va Avzoʻiy mazhablariga doir fiqru mulohazalarni ham oʻrni kelganda tekshirib oʻtadi va har biri haqida oʻz nuqtai nazarini bildiradi. Ushbu nuqtai nazardan "Al-Hidoya" buyuk vatandoshimiz Abu Zayd ad-Dabusiy tomonidan asos solingan "Ilmul-xilof"ni keng koʻlamda oʻrganish uchun ham muxim va eʼtiborli manba hisoblanadi. Ayni holda uni oxirgi davrda yangi bir fan sifatida yuzaga kelgan "qiyosiy huquq"ning oʻziga xos amaliy bir shakli deb eʼtibor berish mumkin. SHuningdek, bu asarni islom huquqi falsafasi va keyingi davrlarda keng rivojlangan "xuquq falsafasi fanining manbalaridan biri deb qabul qilsak, toʻgʻri xulosa chiqargan boʻlamiz.

Burhonuddin al-Margʻinoniyning shoh asari boʻlmish "Al-Hidoya" eng moʻʼtabar huquqiy qoʻllanma sifatida sakkiz asrdan buyon butun islom dunyosi, ayniqsa, Markaziy Osiyo mamlakatlari, Hindiston yarim oroli, Turkiya, koʻpgina arab mamlakatlari va barcha islom oʻlkalari uchun eng daqiq va ishonarli manbalardan biri vazifasini oʻtab kelmoqda.

"Al-Hidoya" Misr Arab Respublikasidagi eng qadimiy dorulfunun "Al-Azhar", Afgʻoniston Islom dorulfununi, Qobul dorul-ulumi, Hindiston Aligarh universiteti, "Dev-band" dorul-ulumi, boshqa islom mamlakatlari oliy oʻquv yurtlarining oʻquv dasturlariga kiritilgan. Bu ulugʻ kitob qonun tuzish tizimini rivojlantirish uchun asosiy manbalardan boʻlib qoʻllanib kelinmoqda. "Al-Hidoya" va uning qisqartmalari ustidan yozilgan sharhlar soni 50 dan oshadi.

"Al-Hidoya" 1776 yili hindistonlik tarjimon Gʻulom Yahyoxon tomonidan fors tiliga tarjima qilindi. Ushbu tarjima 1807 yil Kalkutta shahrida chop etilgan. Taajjub joyi shundaki, "Al-Hidoya" birinchi marta arab yoki fors tilida emas, balki ingliz olimi CHarlʼs Xamilton tarjimasi asosida ingliz tilida 1791 yil Londonda nashr etilgan. Oxirgi marta ingliz tarjimasi 1982 yil Loxurda bosmadan chiqqan.

Rus olimi Grodekov "Al-Hidoya"ni inglizchadan rus tiliga tarjima qilib, 1893 yil Toshkentda nashrdan chiqardi.

"Al-Hidoya"ning ruscha tarjimasi nusxalari kamayib, yo'qolish darajasiga yetgan edi. SHu sababli, 1994 yili professor Akmal Saidov tomonidan uning birinchi jildi katta miqdorda nashr qilinishi g'oyat muhim va xayrli ish bo'ddi.

"Al-Hidoya"ning arab tilidan o'zbek tiliga to'g'ridan-to'g'ri tarjimasi Salohiddin Muhiddinov rahbarligida amalga oshirilib, birinchi jildi 2000 yil chop etildi.

Manbalarda zikr etilishicha, al-Marg'inoniy ko'proq muddat Samarqandda istiqomat qilgan, umrining oxirigacha o'sha yerda ijod bilan shug'ullanib, seshanba kechasi, zulhijja oyining 14 kuni 593 h.y. (1196—97 m.y.) Samarqandda hayotdan ko'z yumgan. SHomiy "Raddul-muxtor"da yozishicha 400 ga yaqin Muhammad nomli olimlar dafn etilgan "Turbatul-Muhammadiyah" (hozirga CHokardiza hududi) qabristoniga dafn etilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Burhonuddin al-Marg'inoniy islom huquqshunosliga tarixda chuqur iz qoldirgan, XII asrdan buyon dunyo huquqshunoslari diqqatini o'z vatani Rishton, Marg'ilon, Farg'ona — O'zbekistonga jalb etib kelgan buyuk alloma va iqqidorli faqihdir. Uning shoh asari — "Al-Hidoya" kitobi, mumtoz fiqhiy asar sifatida o'z ahamiyatini saqlab qoladi.

NAJMIDDIN KUBRO (1145-1221) XII—XIII asrlar tasavvuf olamining yorqin yudduzlaridan biri Najmiddin Kubro Ahmad ibn Umar ibn Muhammad Xivaqiy 540 hijriy (1145 m.) yili Xorazmning Xiva shahrida tug'ilib voyaga yetgan edi.

Abuljannob kunyasi, Najmiddin, at-Tommatul-kubro va Valitarosh shayx (valilar yetishtiruvchi shayx) laqablari bilan shuhrat qozongan bu mutafakkir, orif va sufiy, faqatgina tasavvufga xos bo'lgan ta'limotlar bilan cheklanib qolmay, o'z zamonasining barcha ilm-fanlarini o'zlashtirish yo'lida mashaqqatli safarlar qilib, shahardan shaharga bilim izidan yurdi, "Ilm Xitoyda bo'lsa ham, uni izlang" va "Beshiqdan lahadgacha bilim o'rganing", degan Hadislar mazmuniga chin ko'ngildan ishongan bu ilm shaydosi hayotining oxirgi daqiqalarigacha ushbu yo'ldan ozmadi.

Najmiddin Kubro yoshligidan safarga qiziqib, ko'p o'lkalarni kezadi va Misrga boradi, u yerda mashhur sufiy shayx Ro'zbexon Vazzon al-Misriy bilan tanishib, unga irodat qo'lini beradi va uning nazari ostida og'ir riyozat bosqichlarini o'tadi.

Yosh Ahmad ibn Umar o'z irodasi, iste'dodi va qat'iyligi bilan shayxning diqqatini o'ziga tortib, uning ishonch va hurmatiga sazovor bo'ldi va ko'p o'tmay uning qiziga uylandi, bir necha yil Misrda yashab, Ro'zbexon qizidan ikkita o'g'il ko'rdi.

Najmiddin Kubro ilm izlab Tabriz shahriga boradi va u yerda imom Abu Mansur Hafda degan kalom olimidan dars oladi. SHuningdek, Tabrizda shayx Bobo Faraj Tabriziy, Ammor Yasir, Ismoil Kasriy kabi ulkan mutasavvif donishmandlardan tasavvufga oid ko'pgina zoxiriy va botiniy ilmlarni egallaydi. Najmiddin Kubro Ismoil Kasriyning qo'lidan xirqa kiyib, o'zining birinchi shayxi Ro'zbexon al-Misriy yoniga qaytib boradi.

SHayx Ro'zbexon Najmiddin tasavvuf asoslarini butunlay anglab olganini ko'rib, uni ona yurti Xorazmga borib, tasavvuf ta'limotini tarqatish yo'lida faoliyat ko'rsatishga da'vat qiladi. Najmiddin uning buyrug'iga binoan, o'z oilasi bilan, ona yurtiga qaytib keldi. U yerda joylashgandan keyin bir xonaqo ta'sis etib, manbalarda "at-Tarika-tuz-zahabiya", ya'ni "Oltin tariqat" nomi bilan ham zikr etilgan. Kubraviya tariqatiga asos soldi va ushbu tariqatta oid irfoniy ta'limotlarni talqin eta boshladi.

Ko'p o'tmay, yangi tariqat asoschisining tevaragida ko'plab shogird va muridlar yig'ilib, bu yo'lga qadam qo'ydilar. Ulardan XII—XIII asrlarning bir qator mashhur sufiylari kamolga yetishib, murshid va vali sifatida tanildilar.

Ali Akbar Dehxudoning mashhur "Lug'atnoma" sida keltirilishicha, bexad ziyrakliklari va tunganmas zakovatlari tufayli har qanday muammoli masalani so'ralganda hal qilib berib u kishi bilan bahs-munozara qilgan kishi ustidan g'olib chiqar edilar, shu bois u kishini «at-Tommatul-Kubro» (buyuk ofat) deb ataganlar. SHamsiddin Somiyning yozishicha, bora-bora "at-Tomma" so'zi so'zlashuv jarayonida tark etilib, "al-Kubro" (buyuk) so'zi uning laqabi, ya'ni Najmiddin Kubroning ajralmas qismi bo'lib kelmoqda.

Abuljannob kunyasi bilan atalishlariga sabab esa, u kishining dunyoviy ikir-chikirlardan uzoq turganliklar edi.

Ul zotning "Valitarosh ("Valiylarni parvarishlab yetishtiruvchi") deb atalishlari umrlari davomida o'n ikki kishini o'z muridliklariga qabul qilib, ularning barchasini shayx darajasiga yetkazganliklaridadir.

Najmiddin Kubroning Xorazmdagi so'nggi hayoti o'ta og'ir, shiddatli va murakkab sharoitda kechadi. Bu davrda turli ichki va tashqi omillar tufayli mo'g'ullarning Turkistonga qilayotgan hamlalari kuchayib, CHingizxon lashkarboshlari Movarounnahrda yirik shaharlarni birin-ketin beayov bosib olishga muvaffaq bo'lar edilar. 1221 yilning iyul oyida CHingizxon lashkarboshilaridan biri Xulaguxon o'zining yosh o'g'li tumonat lashkari bilan Urganch qal'asini o'rab oladi. Urganch shahri qamal ichida qolib, aholi nihoyatda og'ir sharoitda azob chekayotgan bir asnoda munkillab qolgan, yetmishdan oshgan Najmiddin Kubro xalq orasidan lashkar to'plab, qo'lida qurol bilan qal'ani bir necha kun davomida dushman hamlalaridan saqlab turadi. U mo'g'ul bosqinchilariga qarshi o'z muridlari bilan shiddatli jang-ga kirib, shahid bo'ladi. Ushbu voqea 10-jumodul-avval 618 hijriy — 1221 milodiy yilning iyul oyida sodir bo'lgan edi.

Manbalarda aytilishicha, CHingizxon shayx Najmiddin Kubroning mashxurligini eshitib, Xorazmga xujum qilishdan oldin, u kishiga chopar yuborib, "Men Xorazmni qatliom qilmoqchiman, shuning uchun Sizdek ulug'vor shaxs shaharni tark etib, undan chiqib ketishingizni so'rayman", degan. Ammo shayx unga javoban: "Men yetmish olti yil umrim davomida xorazmliklar bilan turmushning achchiq-chuchugini birga totganman. Endi ular boshiga balo-qazo yog'ilayotgan paytda qochsam muruvvatdan bo'lmaydi", degan. Bu voqea 618 hijriy — 1221 milodiy yilda ro'y bergan.

Najmiddin Kubroning qabri borasida manbalarda ziddiyatlar mavjud. Ba'zilar, masalan, doktor M. Muin uning mozori mavjud emas desa, arab sayyohi Ibn Battuta o'z sayohatnomasida quyidagidek ma'lumot beradi: "Xorazmdan chiqaverishda bir zoviya bor. U eng buyuk avliyolardan biri bo'lmish Najmiddin Kubro qabri uzra bunyod etilgan. Bu yerda ziyoratchilar uchun taom tayyorlanadi. Xorazmning obro'li kishilaridan bo'lmish mudarris Sayfiddin ibn Asaba zoviyada shayxlik qiladi".

Najmiddin Kubro bir necha ilmiy asarlar va ruboiylar yozgan. U o'z qarashlarini arab tilida yozgan bir qator risolalarida bayon qilgan. Ulardan asosiylari: "SHarhas-sunnati val-masolih" (Sunnat va ezguliklar sharhi), "Al-usul al-ashara" (O'nta asosiy qoida), "Risolatun fis-suluk" (Suluk haqida risola), "Risolatut-turuq" (Xudoga erishish yo'llari haqida risola), "Tavoli'ut-tanvir" (Yoritish yulduzlari, yog'du manbalari), "Favotihul-jamol" (Go'zallik boshlanishlari), "Al-xoif al-hoim an lavmatil-loim" (Malomat qiluvchining malomatidan qo'rqqan oshiq), "Hidoya-tut-tolibin" (Izlanuvchilarga to'g'ri yo'l ko'rsatish), "Odobul-muridin" (Muridlar odobi), "Sakinatus-solihin" (Solih kishilarning viqor va oromi), "Vusulu

ila Alloh" (Allohga erishish), "Minhojus-solikin" (Soliklarning yo'l-yo'riqlari), "Istilohus-sufiya" (Tasavvuf istiloxlari-atamalari), "Odobus-suluk" (Suluk odobi haqida), Tafsir (12 jildlik).

Najmiddin Kubroning ko'p yillar davomida yiqqan ma'lumotlari, turli fanlar sohasida erishgan muvaffaqiyatlari, uning keng ko'lamda qo'lga kiritgan tajribalari natijasi sifatida "Kubroviya" tariqati yuzaga keldi. Ushbu tariqa uniig asoschisi tomonidan "Tariqush-shattor", ya'ni beboklar, qo'rquvsiz va parvosizlar yo'li deb ham atalgan. Najmiddin Kubro "Risolutut-turuq" asarida o'z tariqatining 10 ta asosiy qoidasini izohlab berib, boshqa yo'llarga nisbatan uning yuksakligi va haqiqatga yaqinligini ta'kidlaydi. Risola quyidagidek boshlanadi: "Tangriga borish yo'llari xaloyiq nafasi soniga tengdir. Biz sharxlamoqchi bo'lgan yo'limiz yo'llarning eng anig'i, eng yaqini va eng to'g'risidir".

SHundan keyin muallif sonsiz yo'llarni uchta asosiy yo'lga ajratadi. Ularining xar birini unga xos bo'lgan xususiyatlari bilan izohlab o'tadi va uchinchi yo'l haqida quyidagidek ma'lumot beradi:

"Yo'llarning uchinchisi Allohga qarab yuruvchilar va u tomonga uchuvchilar yo'li bo'lib, haqiqatda jazbaga berilgan shattorlar (bebok, ko'rquvsiz va parvosiz kishilar) yo'lidir. Ushbu yo'lning boshida (Haqqa) erishganlar soni boshqa yo'llarning oxiriga borib erishganlar sonidan ko'proqdir".

"Kubroviya" tariqatining aqidasiiga ko'ra, ushbu yo'lni tanlagan inson o'z ixtiyori bilan o'zida singib ketgan havas va istaklaridan voz kechishi va Haqni istash maqsadida ma'lum riyozatli yo'llarni bosib o'tishi zarur. Buning uchun esa, har bir kishi o'n asosga tayanmog'i kerak:

1. Tavba.
2. Zuhd fid-dunyo.
3. Tavakkal.
4. Qanoat.
5. Uzlat.
6. Mulozamatuz-zikr (Uzluksiz zikr).
7. Tavajjuh.
8. Sabr.
9. Muroqaba (Tafakkurga g'arq bo'lish).
10. Rizo.

Bu o'n asosga tayangan kishining nomi o'lmaydi, barhayot yashaydi.

Najmiddin Kubro shahid bo'lgandan so'ng, uning ta'limotini shogirdlari davom ettirdilar. Ular Markaziy Osiyo Kubroviya makgabini vujudga keltirdilar. Tashkiliy jixatdan Kubroviya xonaqohlarida o'z-o'zini boshqaradigan ozod anjuman bo'lib, uning boshida xalifa turar edi. Najmiddin Kubroning shogirdi Sayfiddin Boxarziy tomonidan Buxoro yakinidagi Suktariy qishlog'ida tashkil etilgan ana shunday xonaqoh Najmiddin Kubro nomi bilan atalardi. Bu yerdagi Kubroviya jamiyati XVIII asrning oxirlarigacha faol ish ko'rib, uning a'zolari Kubro g'oyalarini Xitoyning g'arbiy chegaralarigacha yoydilar. Kubroning boshqa shogirdi, 1252 yilda vafot etgan Sa'diddin Hamaviy Xurosonning Bahrabod deb atalgan maskanida xonaqoh barpo qilib, uning atrofida to'garak tashkil etdi.

SHunday qilib, Najmiddin Kubro tasavvuf ta'limotining rivoji va butun musulmon SHarqida keng tarqalishida katta rol o'ynadi. Uning nomi islom olamida mashxur bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagi «Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari

to'g'risida»gi PF-5349-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.02.2018 y., 06/18/5349/0792-son; 14.12.2019 y., 06/19/5894/4161-son

2. 85. Ibn Sino. Tanlangan asarlar / A. Irisov tahririda. – Dushanbe: Irfon, 2003. – 178 b.

3. Князева Е. Н. Синергетика как средство интеграции естественнонаучного и гуманитарного образования /Е. Н. Князева, С. П. Курдюмов // Высшее образование в России. 2008. – № 4. – С. 31-36.

4. Джураев Р.Х Основы передачи данных. Лекции для бакалавров по направлению телекоммуникация. –Т., 2012. – 160 с. Капитса С.П. Математика в школе. – М.: Наука, 2011. –

ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚ ҲОФИЗИ ЭСОН ЛУТФУЛЛАЕВ ИЖОДИГА ТАВСИФ

Ҳайдаров Қутлуғ Ҳамдамович

ЖДПУ Мусиқа таълими ва санъат йўналиши магистранти

Аннотация. Ушбу мақолада Ўзбекистон халқ ҳофизи Эсон Лутфуллаевнинг миллий қўшиқчилик санъатимиздаги ўрни, ижрочилик ва бастакорлик мактаби ҳақида таҳлилий маълумотлар бериб ўтилган.

Калит сўзлар. Мусиқа, дастур, технология, компьютер, муҳаррир, тажриба, оммавий, ислоҳот.

Ўзбекистон халқ ҳофизи, забардаст бастакор, Эсон Лутфуллаев мумтоз мусиқа ижрочилигида ўзига хос ижрочилик мактабини яратишга эришган мусиқа меросимиз хазинасини 100 дан ортиқ мумтоз услубдаги ашулалар билан бойитган асримизнинг устоз санъаткоридир.

Малумки, ўзбек мумтоз мусиқа санъати ўтмиш хонанда-ю созанда ва бастакорларнинг ижодий маҳсули. XX асрда ана шундай шарафли ижодиётни бир қатор устоз санъаткорлар давом эттирганлар. Жумладан, К.Жабборов, Ж.Султонов, Ф.Содиқов, Т.Жалилов, Н.Ҳасанов, И.Икромов, Ғ.Тошматов, М.Муртазоев, Ю.Ражабий, Ф.Мамадалиев, М.Муҳамедов, О.Ҳотамов ва Эсон Лутфуллаев каби давримиз санъаткорларининг номларини шараф билан халқимиз дилидан ва мусиқа меросимиз таркибидан муносиб жой олишга эришган давримизнинг устоз бастакорларидирлар. Уларнинг бизга қолдирган мусиқий мероси биз учун ҳар томонлама қадрли ва келажак авлод учун намунадир. Узоқ ўтмишдан миллий урф-одатларимиз, қадриятларимиз, руҳиятимиз асосида шаклланган маънавиятимизни муносиб замонавий давомчилари десак адашмаган бўламиз.

Эсон Лутфуллаев 1935 йил 25 ноябрда Самарқанд вилояти (ҳозирги Жиззах вилояти)нинг Фориш тумани, Греҳ Кушо қишлоғида санъаткор оиласида туғилган. Отаси Абилов Лутфилло санъаткор, онаси Абилова Фотима уй бекаси бўлган. 1952 йилда ўрта мактабни тугатиб, армия хизматида кетган. 1955 йилда армия сафидан қайтгач, Самарқанд шаҳридаги “Зооветеринария” техникумида таҳсил олган.

Эсон Лутфуллаев 1956-1957 йилларда Ҳамид Олимжон номидаги Самарқанд драма театрида ишлаган. 1957 йилда Тошкент шаҳрига келиб, “Эстрада театри” солисти сифатида ишга жойлашган. 1957–1960 йилларда Ўзбек давлат филармониясида ишлаган. 1960 йилда Ю.Ражабий номидаги “Мақомчилар дастаси”га ишга қабул қилинган. 1960 йилдан то 2000 йилга қадар “Мақом” ансамблида фаолият олиб борган.

Эсон Лутфуллаев ёшлигидан кўшиқчиликка хавас қўйган. Бу хавас уни катта санъатга - мақомчиликка етаклаган. Эсон Лутфуллаевнинг санъатга бахшида ҳаёти унга ҳурмат келтирди, халқ ардоғига мушарраф этди. Унинг отаси Абилов Лутфулла халқ орасида машҳур ҳофиз бўлган. Акалари Зикрилло ва Амриллолар ҳам ашула айтишган. Эсон Лутфуллаев ўз отасидан эшитган куй ва кўшиқларининг янги талқинини устоз Жўраҳон Султонов ва Маъмуржон Узоқовлардан эшитди. Бу устозлар уни санъат даргоҳига чорлади.

Эсон Лутфуллаев кўшиқчилик санъатига махсус ўқимаган. Аммо у ёқимли, диапазонни кенг ва кучли овоз соҳиби бўлганлиги, тинимсиз меҳнати сабабли эл назарига тушган. У устозлари Жўраҳон Султонов ва Маъмуржон Узоқов анъаналарини давом эттирган. Бироқ у ўзига хос овоз сифати, ўз нола қочирими ва ўз услубига ҳам эга ҳофиз эди.

Эсон Лутфуллаев 1998 йили адабиётшунос олим профессор С.Эркинов билан бўлган суҳбатида санъат оламига кириб келиши, устозлари ҳақида қуйидагиларни айтган эди: "...Мен асли ёшлигимдан давраларда, мактаб ҳаваскорлик тўғрақларида кўшиқ айтиб юрардим. Кўшиқчилик бизнинг бутун оиламизга боболаримизда қолган мерос. Шу туфайли бўлса керак, кўшиқчилик санъатига жуда ишқибоз бўлганман. Самарқандда ўқиб юрган кезларимда Маъмуржон ака Узоқов, Мукаррама Турғунбоева, Муҳаммаджон Мирзаев, Гавҳар Раҳимовалардан иборат бир гуруҳ атоқли санъаткорлар Самарқандга гастролга бориб қолишди. Шу вақтда мен ҳам ўқиб, ҳам Самарқанд театрига қатнашиб юрардим. Театр директори Шарифжон Акрамов Маъмуржон акага ҳазиллашиб, "Бизда ҳам битта ёш ашулачимиз бор, бир эшитиб кўринг, - дедилар. Шунда мени чақиришди ва Муҳаммаджон Мирзаев қўлига рубобини олиб, Маъмуржон аканинг кўшиқларидан бирини айтиб беришимни илтимос қилди. Мен кўшиқ куйладим. Маъмуржон ака ҳаёл сурди, сўнг менга бир қаради-да, кулимсираб, "Қаерда ўқийсан?" деб сўрадилар. Мен "Зооветеренария" техникумида ўқийман, дедим. "Сен аслида санъаткор бўлишинг керак экан, Тошкентга боришинг керак, хоҳласанг, сени Тошкентга олиб кетаман", дедилар. Мен рози бўлдим. Тошкентга келгач, у киши мени катта кўрикда синовдан ўтказди ва ўз бригадасига қабул қилди. Ҳозирги "Навоий" музейида эстрада театри бўларди. Шу ерда М.Узоқов бригадасида иш бошладим. Кейинчалик бошқа гуруҳларда ҳам ишладим. 1960 йили марҳум академик Ю.Ражабий "Мақом" гуруҳини очдилар, бу ансамблни эшитгач, "Мақом" мени ўзига торга бошлади. 1960 йили Юнус акага учрашиб, мақомга жуда ишқибозлигимни айтдим. У киши мени эшитиб кўргач, "Сен жуда бизга кераклисан" деб, мени "Мақом" ансамблига ишга қабул қилди. Мана неча йиллардан бери, 30 йилдан ошиқ "Мақом" ансамблида озми-кўпми ўз ҳиссамни қўшиб, меросимизни халқимизга етказдим. Менинг санъаткор бўлишимга устозим Маъмуржон ака сабабчи бўлдилар. Тошкентга келганимдан кейин 4 йил Жўраҳон ака раҳнамолигида фаолият кўрсатдим. У одам мени халққа танитди, одамлар орасида қандай юриш кераклигини, рўзғор тутишни, фарзандларни тарбия қилишни ўргатди. Мен бу устозларимдан ниҳоятда хурсандман, шундай устозларими борлигидан бахтиёрман".

Эсон Лутфуллаев репертуаридан мақом ва мумтоз ашула йўллари ("Наврузи сабо", "Феруз I", "Феруз II", "Мўғулчай наво", "Чапандози баёт", "Чоргоҳ I", "Бухоро ироғи", "Сувора" ва бошқалар) ҳамда катта ашулалар ("Соғиндим", "Оҳким" ва бошқалар)", 100 га яқин куйини ўзи басталаган ашулалар ("Кўзига сурма қилди", "Юраги тоза бўлсин", "Зор этма", "Дастингдан", "Ноз уйкуси", "Афсона деб" ва бошқалар) ўрин олди. У

кўшиқчилик фаолияти давомида 500 га яқин ашула ижро этган. Унинг тасмага туширган илк кўшиғи “Кўзим шаҳлога тушди” эди. Бу кўшиқдан сўнг “Ё сиз келинг, ё мен борай” кўшиғини ёздирган.

Эсон Лутфуллаев 1984 йилда “Меҳнат фахрийси”, 1975 йилда “Театр ижодкорлари уюшмаси” аъзоси бўлган. У 1980 йили “Ўзбекистон ССРда хизмат кўрсатган артист”, 1997 йили “Ўзбекистон халқ ҳофизини” унвонига сазовор бўлган.

Эсон Лутфуллаев ЎзР телевидение ва радиоэшиттириш давлат қўмитаси томонидан ҳам бир қанча фахрий ёрлиқлар билан тақдирланган. 1970 йилда “Эришган катта муваффақиятлари учун” фахрий ёрлиғи билан, 1989 йилда “Юксак ижодий ва ижрочилик маҳорати, Ўзбекистон аҳолиси ўртасида мусиқа санъатини тарғиб қилишдаги фаолияти учун” фахрий ёрлиғи билан, 1999 йили “Кўп йиллик меҳнати, ёшларга билим ва тарбия бериш, касб маҳоратини ўргатиш, уларни кадриятларимизга садокат руҳида тарбиялашдаги хизматлари учун” фахрий ёрлиғи, 1997 йилда “Кўп йиллик ва самарали меҳнати учун ҳамда ЎзРнинг мустақиллик куни билан” фахрий ёрлиғи билан тақдирланган.

Жорий йилнинг бошларида Ўзбекистон халқ ҳофизини Эсон Лутфуллаевнинг хонадонига ташриф буюрган Ўзбек Миллий мақом санъати маркази музей ходимлари ҳофизнинг турмуш ўртоғи билан бўлиб ўтган суҳбат давомида Анбар Ая кўзларида ёш билан, бир-бирига суяниб умргузаронлик қилган хотираларини ҳамда ижод йўлларини, устоз ва шогирдларига бўлган меҳр муҳаббатларини сўзлаб бердилар. Устознинг фарзандлари ва турмуш ўртоғи томонидан Ўзбек миллий мақом санъати маркази музейга ҳофиздан эсдалик бўлиб қолган ноёб экспонатларни ҳадя этдилар.

Устоз санъаткор Эсон Лутфуллаев ҳам атоқли ҳофиз ва бастакорларнинг анъаналарини муносиб давом эттириб келган ижодкордир. Халқимизга кўплаб мумтоз йўлидаги асарлар яратиб тақдим этган, ижрочилик амалиётида эса устозлар анъанасидан келиб чиқиб муайян ижро услубига эга бўлишга эришган.

Фойдаланилган адабиётлар

1. О. Матёкубов. «Мақомат». Тошкент, 2004.
2. Б.Дўстмуродов,Ш.Матёкубов.Халқ ҳофизлари. Тошкент “Илм зиё”2011.
3. Hasanova Navbahor Hamraqulovna. (2020). Bo'lajak o'qituvchilarning o'zbek mumtoz musiqasida kasbiy malakasini oshirish muammolari. *Xalqaro ilg'or fan va texnologiyalar jurnali* , 29 (08), 3489-34953495. [Http://sersec.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558](http://sersec.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558)
4. Hasanova, Navbahor. (2020). METHODS AND WAYS TO DEVELOP THE MUSICAL FEELINGS OF STUDENTS IN TTTE LESSONS OF MUSIC EUITURE. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(42). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5579
5. Khasanova,Navbakhor (2020) “The role of music lessons in the formation of national and intercultural competence in students.”*Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*.Vol.2020 :Iss.2. Article 15 :<https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss2/15>
6. N. Hasanova O'zbek milliy musiqa merosi taraqqiyotida xotin-qizlarningo'rnin. Актуальный вызыви современной науки IX xalqaro ilmiy konferensiya 26-27 yanvar 2017 yil.
7. Muminova Muqaddas Riskulovna Development And Current Status Of Uzbek Pop Music In Modern Approaches And Innovations Of Teaching The Science Of Music Culture

8. Muminova Muqaddas Riskulovna *International Journal of Mechanical Engineering*. The Innovative Technologies Of Teaching In Musical Edukational Establishments 1764-1767-betlar. 2022- йил.

9. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlarda pedagog kreativligi. “Yangilanayotgan O‘zbekistonda fan, ta’lim va innovatsiya uyg‘unligi” mavzusidagi 6-son 2-qism Respublika ko‘p tarmoqli ilmiy konferensiyasi VIII bo‘lim Toshkent 2021. 677 bet. Udk. 001.895 (575.1).

10. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlar o‘qituvchisining kreativligi. Педагогические и лингвopsихологические особенности развития, формирования и становления личности врача. Сборник тезисов Международная конференции. СамГМИ, Самарканд 5 мая 2021 год

11. Urinova S.Sh. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishning nazariy asoslari. “The best innovator in science” xalqaro maqolalar tanlovi to‘plami. Organized by Innovative Academy. Tashkent February 5, 2022. Pg 811.
<https://zenodo.org/record/5979621#.YpC2PKhBxD8>

12. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. Тошкент.

DIRIJYORLIK

Hayitov Obloqul

NavDPI, Musiqa ta’limi kafedrası dotsenti

Annotatsiya. Maqolada dirijyorlik kasbi va undagi faoliyatning zamonaviy tavsiyalari va texnologiyalarini qo‘llash haqida qiziqarli ma’lumotlar berilgan,

Kalitli so‘zlar: italiyaliklar “Diridente”, frantsuzlar “Bosh orkestr”, inglizlar “dirijyor” “Orkestr repetitsiyasi”, “Opera”, “Simfoniya”, “Kamer”. “Dirijyor tayoqchasi”.

Dirijyor so‘zi turli tillarda turlicha talaffuz qilinadi: nemislar “Dirident”, italiyaliklar “Diridente”, frantsuzlar “Bosh orkestr”, inglizlar “dirijyor” deyishadi. Har qanday tilda bu so‘z rahbar, boshliq, direktor ma’nolarini bildiradi. Shunday qilib, dirijor orkestrning rahbari hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi jamiyat hayotining faol va yaxshi tashkil etilishini ta’minlashdan iborat. Dirijyor musiqachilarning asarni ravon ijro etishini, ishni birgalikda boshlash va tugatishini, cholg‘u asboblari bir ovozda chalishlarini, pauzalarni vaqtida kuzatishini va kuyni uyg‘unlikda boshlashini ta’minlaydi. Dirijyor musiqachilarning ijrosini yagona ritm va tempga keltirish, ularni ijroga yo‘naltirish uchun signal berishi kerak.

“Dirijorda ko‘rish va eshitish san’ati bo‘lishi, u ham yengil, ham kuchli bo‘lishi, so‘zlarning tarkibini, xarakteri va hajmini his qilishi, partituranı o‘qishi va shu bilan birga o‘ziga xos iste’dodga ega bo‘lishi kerak... U yana o‘zi va orkestr o‘rtasida, u ham ko‘rinmas aloqani o‘rnatish uchun zarur bo‘lgan boshqa, deyarli ko‘rinmas xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak. Agar dirijyor o‘z his-tuyg‘ularini orkestrga etkazish imkoniyatiga ega bo‘lmasa, u orkestrda "hukmronlik qila olmaydi", unga ta’sir qilish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi. Bunday holda, u orkestrning dirijyori emas, shunchaki "uruvchi" bo‘ladi, hatto u urishni aniqlab, taqsimlay olsa ham! Gektor Berlioz.

Dirijyor 100 dan ortiq musiqachilar faoliyatining asosiy koordinatori hisoblanadi. Uning roli rejissyor roliga biroz o‘xshaydi. Rejissyor teatrda sahna ishining badiiy rahbari bo‘lib,

spektaklni tayyorlash bilan bog'liq barcha ishlarni muvofiqlashtiradi. Dirijyorni orkestrning bevosita rahbari ham deb hisoblash mumkin.

Dirijyorlik – asar musiqasini ijodiy rivojlantiruvchi, uning ruhi bilan yashaydigan, katta mehnat, mehnatsevarlik va sabr-toqatni talab qiladigan mas'uliyatli kasb. Bir qarashda oson ko'rinadigan dirijyorlik san'ati qanchalik qiyinligini hamma ham tushunavermaydi. Bu kasbning murakkabligi. u orkestrdagi cholg'u asboblarning nafaqat mukammal ijrosini, balki uning sirlarini ham bilishi kerak. Zero, bu cholg'u asboblari uyg'un bo'lgandagina olamda ajoyib ohanglar tug'iladi. Musiqachilarning jamoa bo'lib kuy ijro etishi qadimdan ma'lum bo'lgan an'anadir. Albatta, bunday orkestrlarning rasmiy va norasmiy yetakchilari bo'lgan. Qadimgi Misr barelyeflarida qo'lida tayoq tutib musiqachilarni boshqarayotgan odamlarning tasvirlari uchraydi. Qadimgi Yunonistonda esa xor rahbarlari- korifeylar temir tovonli shippaklar yordamida musiqaga marom berib turgan. Orkestrlar kengaygan sari (O'rta asrlarda va Uyg'onish davrida ular hali kapella deb atalgan), orkestr ijrosi amaliyoti qiyinlashgan sari boshqaruvchi shaxsga bo'lgan zarurat oshib boraverdi- u marom berib turib, barcha tartib bilan o'z vaqtida ijroga kirishishini nazorat qilar edi. Ilgari bu ish "battuta" deb atalgan salmoqli aso yordamida amalga oshirilgan, uni yerga urib, marom berib turilgan- bu jarayon aks etgan eng eski tasvirlar XV asrga oid. Bu ish ancha og'ir va xavfli edi- buyuk fransuz bastakori Jan-Batist Lyulli (1632–1687) mana shunday aso uchi bilan oyog'ini jarohatlab olib, qorason tufayli olamdan o'tgan.

Kapellalar bilan o'z musiqasini ijro etgan bastakorlar birinchi dirijorlar bo'ldi. Ular oyoq bilan yer tepishi yoki, Bax singari, qo'lidagi qog'oz o'ramini silkitishi mumkin edi. Ba'zan bu funksiyani klavesinistlar yoki skripkachilar bajarar, ular kamoncha yordamida ishora berib turar edi. Dirijorlar bir nechta bo'lishi ham mumkin edi- operada xormeyster qo'shiqchilarni, konsertmeyster orkestrni boshqarardi. Dirijor musiqachi bo'lib, u ham yo soz chalar, yo kuylardi. Konsertmeysterlar birinchi skripka partiyasini ijro etib, boshqa musiqachilarga ko'zlari bilan yoki bosh silkitib ishora berar, ba'zan ijroni to'xtatib, kamoncha bilan marom berib turar edi.

Dirijor tayoqchasi qanday paydo bo'ldi? Tasodifan. Mohiyatan tayoqcha kamoncha va notalar yozilgan qog'ozning muqobili edi. Dirijorlar tayoqchani XIX asr boshidan qo'llay boshladi va, tavsiflarga ko'ra, bu tayoqlar boshida ancha zalvorli bo'lgan. Aynan XIX asr dirijorlikning alohida kasbga aylanish davri bo'ldi- ular orkestrlardan ajralib chiqib, maxsus ko'tarmaga chiqib, o'sha payt uchun eng g'alatisi, muxlislarga teskari turib ishlaydigan bo'ldi. Bu ishni qilgan birinchi odam yo Gektor Berlioz, yo Rixard Vagner bo'lgan- qaysi biri avvalroq ekani ma'lum emas. XIX asrning o'ta murakkablashib ketgan va ishtirokchilari soni yuzlab ijrochidan iborat bo'lgan simfonik orkestrlariga maxsus boshqaruvchi shaxs zarur edi-u ham musiqa chalish, ham boshqarish ishini birvarakayiga bajara olmas edi. Dirijor shaxsi, shubhasiz, romantik an'ana mahsuli edi- qo'lining bir harakati bilan musiqa massasi va tinglovchilar hissiyotlarini boshqara oladigan yakka daho obrazi unga jo bo'ldi.

Ya'ni, dirijor birinchi navbatda to'g'ri ritm berib turish uchun kerakmi? Kamida ijroni maromga solish, kim qachon qo'shilishini ko'rsatib turish- bu juda muhim. Albatta, musiqachilar buni o'zlari ham kuzatib turishi, taktlarni sanashi va hamkasblarini eshitishi mumkin, ammo bu oson emas, katta simfonik orkestrlarda musiqachilar barcha partiyalarni eshita olmaydi. Ammo dirijorning vazifalari bu bilan cheklanmaydi: u ijroning barcha parametrlariga, barchasi yagona temp va kayfiyatga ega bo'lishiga javob beradi. Talqin uchun ham u mas'ul -axir bitta asarni turlicha ijro etish mumkin. Tezlikni o'zgartirish, urg'ularni boshqacha berish, qismlarning kayfiyatlarini har xil talqin qilish, partiyalarga har xil e'tibor

qaratish mumkin. Repetitsiyalarda dirigor shu bilan shug'ullanadi- musiqachilar bilan partituraning sinchiklab o'rganib chiqadi, asarning yangrashi va umumiy mazmunidan qoniqmaguniga qadar.

Ijro an'anasi uzilib qolganida bu yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi- XVII va XVIII asrning buyuk bastakorlari yaratgan asarlar uzoq vaqt ijro etilmagan, ular o'sha vaqtlarda qanday yangraganini faqat taxmin qilishimiz mumkin, xolos. Zamonaviy bastakor dirigor bilan butun partituraning ko'rib chiqishi, o'z asarini qanday ijro etish borasida maslahat berishi mumkin (albatta, bu masalada dirigor ijodiy erkinlikka ega), Venada esa Iogann Shtraus valslarini Shtrausning rahbarligi ostida ijro etgan musiqachilar hali-hamon bor, lekin "Bax, Vivaldi va Lyullining asarlarini qanday qilib to'g'ri ijro etish mumkin?" degan savolga aniq javob yo'q. U davr notalarida tushuntirishlar juda kam, notalarda ko'rsatilmagan, lekin zamona musiqachilariga tushunarli bo'lgan ko'plab detallar endi hech qachon tiklanmasa kerak. Bu holatda shunchaki notalarga ko'ra ijro etish mumkin emas: barokko partiturasini deshifrovkasi muammosi murakkab musiqashunoslik detektiviga tengdir. Yaqinda qazo qilgan dirigor Nikolas Arnonkurning kitobini o'qisangiz, bir narsaga amin bo'lasiz: tegishli davrning barcha manbalarini o'rganib chiqish, shu asosda, notalardan foydalangan holda, asar ruhini tiklash lozim, deyilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qoziyev H., Xor dirigyorligi xrestomatiyasi. 3-qism.- Toshkent: O'qituvchi 1977.
2. Otayev B., Dirigyorlik. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, Matbaa ijodiy uyi. - 2003.

MUSIQIY SOZLARNI O'RGANISH AN'ANASINING CHOLG'U IJROCHILIGI PEDAGOGIKASIDAGI AHAMIYATI

Ibragimova Nargiza Muxtor qizi,

Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti 2-kurs magistranti.

Ilmiy rahbar: Fayzullayev Ermat Majidovich, JDPU dotsenti v/b, p.f.n.

Annotasiya: Maqola mazmunida musiqiy sozlarni o'rganish an'anasining cholg'u ijrochiligi pedagogikasidagi ahamiyati haqidagi tarixiy fikr-mulohazalar bildiriladi.

Kalitli so'zlar: musiqiy soz, cholg'u ijrochiligi, badiiy-ijro, musiqiy-pedagogik, navo.

O'zbek cholg'u ijrochiligi madaniyatida azaldan shakllanib kelgan etnopedagogik asoslarni tiklab, hozirgi o'quv jarayoniga olib kirish va ulardan foydalangan holda yosh avlodga ta'lim berish maqsadida madaniy-ma'rifiy va musiqiy-pedagogik sohaga ixtisoslashtirilgan dargohlarda an'anaviy cholg'u ijrochiligi o'quv bo'limlari tashkil etilmoqda. Zero, musiqa amaliyotimizda qo'llanib kelinayotgan an'anaviy musiqiy sozlarimiz ajdodlarimiz musiqiy tafakkurining mahsuli sifatida yuzaga kelib, ko'p asrlik musiqa madaniyatimizda xalqimiz estetik talab-darajasini aks ettirib kelgan moddiy ne'matlardir. Ularning har biri milliy-uslubiy xususiyatlari orqali bayon qilinuvchi mustaqil badiiy mazmuniga musiqiy tabiatiga ega. Tadqiqotimiz doirasida tarbiyaviy vosita sifatida o'rganilayotgan o'zbek milliy sozlarining badiiy-ijroviy imkoniyatlari ham aynan ularning musiqiy tabiatida "niqoblangan" bo'lib, uni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etish cholg'u ijrochiligi pedagogikasining asosiy vazifalaridan biridir. Bu kabi yondashuv, ayniqsa, musiqa san'atimizning ijtimoiy-madaniy hayotimizning barcha milliy xususiyatlarini o'zida aks ettira olgan xalq ijrochilik maktabi an'analari

tajribasida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Zero, madaniyatimizning moddiy belgilari faqatgina xalqimiz ijtimoiy, madaniy va maishiy turmushida yuzaga kelgan funksional-estetik tizim qamrovida taraqqiy etib kelgandir. Bundan tashqari, bizningcha, milliy musiqiy sozlarimizni o'rganishda etnopedagogik tamoyillar (xalq ijrochilik asoslari) bilan birgalikda Markaziy Osiyo alloma-olimlari tomonidan ularning ilmiy meroslarida ishlab chiqilgan an'anaviy uslub-asoslardan unumli foydalanish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Forobiy musiqiy ta'limotida ishlab chiqilgan cholg'ushunoslikning nazariy-amaliy va pedagogik asoslari va o'ziga xos tadqiq uslublari turli tarixiy davrlarda Markaziy Osiyo musiqa amaliyotida qo'llanib kelingan musiqiy sozlarni chuqur tahlil etib o'rganishda o'ziga xos dastur vazifasini o'tab keldi. Bu uslubning mohiyati shundaki, unda musiqiy sozlarning juda keng qamrovda tadqiq etilishiga to'liq imkon yaratiladi. Masalan, musiqiy sozning etnik, etimologik, morfologik, ijroviy, badiiy xususiyatlari ma'lum belgilar asosida tahlil etilib, olingan natijalar asosida uning ijtimoiy iste'mol mavqei, janrlar qamrovi, xalq hayotida egallagan maishiy xarakteri, tinglovchilar qatlami, umumiy qilib aytilganda musiqiy sozning tarbiyaviylik mohiyatini yoritib beruvchi mazmun yaxlitligicha o'rganilishiga katta imkon beriladi. Ta'kidlash lozimki, tarbiyalanuvchilar tomonidan musiqiy sozlarning bir yoqlama va tor doirada o'zlashtirilishi - o'quv rejasi keyingi bosqichlarining faol ijodiy xarakterda davom ettirilishiga to'sqinlik qiladi. Aksincha, musiqiy sozning turli nuqtai-nazarlardan mukammal o'rganilishi esa, ijrochilik mahoratining oshishida ham asosiy omillardan biri bo'lib, musiqiy sozda to'la zabt etilgan imkoniyatlar ijro jarayonida musiqiy asarning emotsional-hissiy ta'sir kuchini oshirishda keng qo'llaniladi. Bundan tashqari, musiqiy soz haqidagi to'liq tasavvurlar unda ijro qilinayotgan musiqiy asar ifodaviy xususiyatlarining talaba-o'quvchilar tomonidan chuqur tahlil etilib, mustaqil mushohada yuritishga va bu orqali undagi badiiy-tarbiyaviy qimmatini baholashga imkon beradi. Demak, musiqiy sozlarni tasnif tizimida o'rganish orqali mukammal bilish musiqaning tarbiyaviy-estetik mazmunini anglash, ijrochilik mahoratining nazariy-amaliy jihatdan yuksalishida muhim omildir.

Markaziy Osiyo alloma olimlari ilmiy musiqiy merosini tahlil qilish jarayonida amin bo'ldikki, musiqiy sozlar, ayniqsa, ularning ma'lum turi torli sozlar - tadqiqot predmeti sifatida doimo o'ziga xos mavqega ega bo'lib kelgan. Haqiqatda, torli sozlarning amaliyotda mavjud bo'lishiga ehtiyoj sezilgan davr inson tafakkurining nisbatan yuqoriroq bosqichiga to'g'ri keladi va shu omilning o'ziga ularning boshqa turdagi sozlardan farqli tabiatga ega ekanligidan dalolat beradi. Ulardagi ijroviy imkoniyatlarning kengligi bu turdagi musiqiy sozlarda individual va dasta (ansambl) ijro uslubining nihoyat yuksak darajada taraqqiy etishiga turtki bo'ldi: Yuqorida ta'kidlanganidek, an'anaviy ijrochilik maktabi asoslarida o'qitish yo'lga qo'yilishi bilan, milliy sozlarimiz sirlarini chuqurroq tahlil qilish, xalq ijrochiligi tajribalaridan kengroq va unumliroq foydalanish hozirgi cholg'u pedagogikasida eng muhim masalalardan biriga aylandi.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, hozirda qo'llanilayotgan an'anaviy torli sozlarning ko'pchiligida azaldan torlar xom-ashyosi ipakdan bo'lib, vaqt o'tishi bilan, torlar xom - ashyosi o'zgarib kelgan. Dutorda esa, torlarni ishlov berilgan ipakdan tortish an'anasi asrlar davomida saqlanib kelingan. Umuman, dutorda ipak torlarning qo'llana boshlanishini Xitoy va Sharq mamlakatlarida qadimdan mavjud "ipak yo'li" - savdo-sotiq munosabatlarining o'zaro ta'sir natijasi deb taxmin qilish mumkin. Ba'zan esa, dutorga pay, kapron, torlar ham tortilib ijro qilinmoqda: bu, asosan havaskor ijrochilar faoliyatida uchraydi. Odatda, sozlarda torlar diametri bir-biridan farq qilib, alohida o'ramlardan tanlab tortiladi. Dutorda torlar diametri bir xil: ular ma'lum uzunlikdagi yaxlit bo'lakdan tortiladi. Torlarning sozlanishi esa, turlicha ko'rinishlarga ega va ular xalq orasida maxsus nomlar bilan atalib kelinadi: bu nomlar mahalliy xarakterga ega bo'lib, u yoki bu ijrochilik uslubining xususiyatlarini ifoda etadi.

Musiqiy soz torlaridan yangraydigan ohanglar - inson tabiatiga mos ravishda tanlangan va yaratilgan deb fikr yuritiladi sharq pedagogikasida yaratilgan durdona asarlardan biri “Qobusnoma”da. Uning muallifi Unsurunmaoliy Kaykovus (XI asr) inson va uning kamol topishi, ta’lim-tarbiya muammolariga bo’lgan qarashlarini bayon etib, tarbiyadan maqsad - insonni hozirgi zamon va kelajak uchun yarakli shaxslar yetishtirishdir deb hisobladi. Qobusnomaning tibbiyot, astronomiya, va geometriya ilmlariga alohida boblar bag’ishlangan bo’lib, olimning fikricha, bu fanlarni o’rganish - har bir yoshning vazifasidir, zero, ilm insonni har tomonlama yo’qsalishini ta’minlaydi. Xuddi shu ilmlar bilan bir qatorda yoshlar Musiqa ilmini ham egallashlari zarurligi, unda faoliyat ko’rsatuvchilar esa, ijrochilik san’atining o’ziga xos axloqiy qoidalariga amal qilishi lozimligi haqida fikr yuritadi. “Qobusnoma” ning 36-bobi “hofiz va musiqachilar haqida” deb nomlanib, unda musiqa san’atining ijtimoiy hayotdagi o’rni, unga munosabat, unda amal yurituvchi hofizu-sozandalar xulq-atvori, ularning ma’naviy qiyofasi haqida nasihatombuz-didaktik mulohazalar bildiriladi.

Markaziy Osiyo pedagogikasida Kaykovus singari san’atkorlarni ma’naviyat tarqatuvchilari sifatida - ijtimoiy hayotdagi o’rnini juda obyektiv tahlil etib, musiqa ilmining taraqqiyotida ilmiy-didaktik meros qoldirgan mutafakkir alloma, buyuk o’zbek adibi, san’at shaydosi Alisher Navoiy (1441-1501) dir.

Navoiy butun ijodi, hayoti faoliyatini insonni tarbiyalash, uni ma’naviy yuqsaltirish, uning imkoniyatlari uchun keng yo’l ochib berishga bag’ishladi. Bobur Mirzo ham Navoiy faoliyatini ta’riflar ekan, shunday deb yozadi “Ahli fazl va ahli hunarga Alisherbekka murabbiy va muqavviy ma’lum emaskim, hargiz paydo bo’lmish bulgay. Ustod Qo’lmuhammad Shayxi noyi, Husayn Udiykim, sozda saromad edilar, bekning tarbiyasi va taqviyati birla muncha taraqqiy va shuhrat qildilar”. Satrlardan ayon bo’ladiki, Navoiy o’zining insonparvarligi bilan butun ziyolilar, shu jumladan musiqa san’atidagi iqtidorli sozandalarga ham doimo do’st, murabbiy bo’lib, ularning erkin ijodlariga rahnamolik qilgan.

Navoiyning musiqaga bo’lgan muhabbati, manbalarda yozilishicha, uning taxallusida o’z ramziy belgisini bergan. “Navo” atamasi musiqada “ohang” iborasi bilan istihola qilinib, olim yashagan davr musiqa amaliyotidagi 12 maqomlarning biridir. Navoiy ushbu maqom turkumini mukammal o’rgangan va sevib tinglagan bo’lishi tabiiy. Bizga ma’lumki, sharqda, musiqa she’riyat bilan birga, o’zaro bog’liq holda rivojlanib kelgan, she’riy satrlar shunchaki o’qilmagan, balki, badihago’ylik uslubida, musiqiy sozlar jo’rligida “kuylangan”dir. Aynan shu an’ana adabiyotchilar ijodida musiqa va musiqiy sozlarga bo’lgan ilmiy - ijodiy qarashlarning shakllanishida asos bo’lib hizmat qilgan. Masalan, Navoiyning bu boradagi qarashlari asosan uning “Mezon ul-avzon”, “Mahbub ul- Qo’lub” , “Majolis ul-nafois” asarlarida mujassam bo’lgandir. Jumladan, “Mahbub ul-qo’lub” (“Qalblar sevgilisi”) nasriy risolasining 19-bobi (kitobning 1-qismida) “Ashulachi va cholg’uchilar mutrib va mug’anniylar to’g’risida” deb atalib, alloma o’tmishdoshlaridan farqi (Kaykovus bundan mustasno), musiqaning ilmiylikini e’tirof etgan holda uni ko’proq ma’naviy ozuqa beruvchi san’at turi sifatida didaktik tarzda talqin qildi. Navoiy o’z qarashlaridan kelib chiqib, san’atkorlarning ijtimoiy hayotdagi o’rni, ularning ma’naviyat taratuvchilari sifatida egallashi lozim bo’lgan axloqiy me’yorlar haqida, ularning ijodidagi salbiy va ijobiy hislatlarni obyektiv tarzda tahlil etdi.

Navoiy san’atkorlarning mahoratini musiqaning tarbiyaviylik xususiyatini yoritib beruvchi omillardan biri deb hisoblasa, musiqaning badiiy mazmunini moddiylikda tinglovchiga uzatib beruvchi vositalar sifatida musiqiy sozlarning o’ziga xos tabiatini mahorat bilan ta’riflab beradi.

Ta’kidlash lozimki, Navoiy musiqa ilmining nazariy va shu bilan birga amaliy asoslarini chuqur o’rgangan va o’zlashtirgan bo’lsa-da, bu borada maxsus risolalar bitmagan. Ammo, ushbu ilmning jamiyat taraqqiyotidagi eng asosiy masalalardan biri -shaxsni ma’naviy yetuk qilib tarbiyalashdagi muhim o’rni xolisona baholab, o’z zamondoshlariga ilmiy-musiqiy risolalar yaratishni maslahat beradi. Shu

tariqa, Markaziy Osiyo musiqiy tafakkuri tarixida o‘chmas iz qoldirgan alloma Abdurahmon Jomiy (1414-1492) ning mashhur musiqiy risolasi yuzaga keladi.

Allomaning falsafa, tasavvuf, tilshunoslik, adabiyot va musiqa sohalarida yaratgan asarlarida uning pedagogik qarashlari ham namoyon bo‘lib, unda asosan, insonni kamol toptirish g‘oyasi asosiy o‘rinni egallagan edi. Alloma yoshlarning ilmi va tarbiyasi bo‘lishlari lozimligini ko‘p marta uqtiradi va zarur ilmlarni egallashga da‘vat etadi:

Eng zarur bilimni qunt bilan o‘rgan

Zarur bo‘lmaganin axtarib yurma

Zarurini hosil qilgandan keyin

Unga amal qilmay umr o‘tkurma

Xuddi shunday zarur bilimlar sirasiga Jomiy musiqa ilmini ham kiritadi. Olimning ta‘rif berishicha, musiqa “xalqqa xizmat qiluvchi, ularning hayotini bezovchi ilmdir”.

XX asrning 40 yillari o‘rtalaridan boshlab dastlab maxalliy ustalar, so‘ngra mutaxassislar tomonidan o‘zbek milliy musiqiy cholg‘ularini takomillashtirish va qayta ishlash jarayoni boshlandi.

Jaxon andozalari asosida cholg‘uchilar tayyorlash tizimi ham ishlab chiqilib, boshlang‘ich, o‘rta va oliy bosqichda kadrlar tayyorlana boshlandi, cholg‘ularni maxsus o‘lchamlar asosida ishlab chiqaradigan 2 ta musiqiy cholg‘ular fabrikasi ishga tushirildi. Lekin juda katta mablag‘lar va mashaqqatli mehnat evaziga yaratilayotgan ko‘p ovoqli musiqiy ijro respublika tashqarisida olqishlarga sazovor bo‘lgani holda oddiy xalqning yuragiga yo‘l topolmasdi. Oddiy xalq ko‘povozli ijrodan ko‘ra an‘anaviy ijroni ma‘qul ko‘rar va go‘yo xalq uchun ataylab yaratilayotgan zamonaviy musiqiy ijrodan baxramand bo‘lishga tayyor emasdi. Endi bir fikrlab ko‘raylik-chi, shu ketishda milliy cholg‘u ijrochiligimizning . kelajagi qanday bo‘lar ekan. Buning ustiga radio va televideniye orqali doimiy ravishda yangrayotgan estrada musiqasi bilan raqobatlashish degan muxim muammo ham turibdi.

O‘zbek milliy cholg‘ulari va ularda ijrochilikning mavqeini tiklash va rivojlantirishning yo‘llarini izlash va hayotga tadbiq etish muammosi hozirdanoq o‘ylanmasa, asrlar davomida saqlanib kelgan va madaniy hayotimizda muxim o‘rin tutgan milliy musiqamiz inqirozga yuz tutishi mumkin.

Ijroda milliylikni yanada ta‘kidlash maqsadida qadimiy ko‘rinishdagi noyob milliy cholg‘ular - chanqovuz, sopol nay, g‘ajir nay, sibizg‘a kabi qator cholg‘ulardan ham foydalanish mumkin.

Ko‘p ovoqli ijro xalq tomonidan qabul qilinishiga erishish yo‘lidagi sa‘y-harakatlarni - repertuar tanlash, ijroni milliyashtirish, xalqqa manzur bo‘ladigan garmonik yechimlarni topish, musiqiy cholg‘ular tarkibini o‘zgartirib ko‘rish, ijrochilik maxoratini shakllantirish kabi yo‘llar bilan davom ettirish zarur.

Cholg‘u musiqasini targ‘ib etishni yaxshilash maqsadida radio va televideniye orqali tobora kamroq yangrayotgan cholg‘u musiqasining hissasini orttirish va keyingi paytda musiqiy ko‘rsatuvlar va eshittirishlar asosini-tashkil qilayotgan «qo‘shiqlar guldastasi»ga cholg‘u musiqa namunalarini kiritish ham zarur.

Matbuotning hamma vositalari orqali milliy musiqiy cholg‘ular va sozandalar haqida ommabop va qiziqarli materiallar berib borish ham yaxshi natijalar beradi deb o‘ylaymiz.

Musiqachi-pedagog uchun maxsus cholg‘u asbob predmetini egallashda ikkinchi xususiyat - notaga qarab chalish qobiliyati kelgusi ish praktikasida aloxida o‘rin oladi. Chunki darsning musiqa tinglash qismida har xil asarlarga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi. Shu maqsad uchun biz har dars mashg‘ulotida badiiy asar ustida ishlash qismiga o‘tmasdan o‘quvchiga maktab ashula darsi repertuaridan yengil kuy va ashulalar eshittirib ko‘rdik:

Birinchidan, musiqachi-pedagog uchun musiqa asarini bolalarga soʻz orqali musiqa asari bilan mustaqil tanishib, analiz kila bilish va uning badiiy qiymatiga toʻgʻri baho olish qobiliyatini oʻstirish; ikkinchidan, studentning musiqa tinglash qismi uchun koʻproq maktab repertuarini oʻzlashtirish; uchinchidan, oʻquvchilarning umumiy musiqaviy rivojlanishiga qarab musiqa obrazini soʻz orqali izoxlash qobiliyatini tarbiyalash.

Oʻrta Osiyo va islom dunyosida yashab oʻtgan Sharq mutafakkirlarining maʼnaviy merosini oʻrganish, tiklash va rivojlantirish nainki mustaqillik natijasi, shuningdek, uni mustaxkamlash avlodlar maʼnaviy yuksaltiruvchi omillardan biriga aylandi. Umuman, xulosa qilib aytganda, umumiy oʻrta taʼlim maktablarida oʻzbek xalq cholgʻu sozlarini joriy etilishi musiqa madaniyati darslarini toʻgʻri tashkil etilishiga bogʻliqdir. Bu musiqa oʻqituvchisiga oʻzbek milliy musiqasini, musiqa madaniyati darsiga joriy etilishiga katta imkoniyatlar beradi. Xulosa qilib aytganda, umumtaʼlim maktablarining musiqi madaniyati darslarida milliy cholgʻu sozlardan foydalanib, yosh avlodni oʻzbek xalq milliy sozlariga yanada qiziqishini oʻstirishi, ularga nisbatan mehr-muhabbatni oshirishi musiqa oʻqituvchisi oldida turgan muhim asosiy vazifadir. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida oʻzbek xalq cholgʻu sozlarini joriy etilishi musiqa madaniyati darslarini toʻgʻri tashkil etilishiga bogʻliqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat - yengilmas kuch. - T.: Maʼnaviyat, 2008. - 176 b.
2. Fayziyev K., Nishonov S. "Pedagogika tarixi" (oʻquv qoʻllanma) T.1996 yil.
3. Xoshimov O. "Maktabda musiqaviy tarbiya". -T., 1992 yil.
4. D.Omonullayev va boshqalar. "Davlat taʼlim standartlari". Dastur, 1992 yil.
5. O.Matyoqubov. "Forobiy Sharq musiqasi asoslari haqida". -T., 1986 yil.
6. I.Rajabov. "Maqomlar masalasiga doir". -T., 1963 yil.
7. O.Ibrohimov. "Oʻzbek xalq musiqa ijodi". Metodik tavsiyalar. -T., 1994 yil.

MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA MILLIY CHOLGʻU SOZLARINING OʻRNI

*Ibragimova Nargiza Muxtor qizi,
Jizzax DPU Musiqa taʼlimi va sanʼat yoʻnalishi 2-kurs magistri.*

Annotatsiya. Maqola mazmunida musiqa madaniyati darslarida milliy cholgʻu sozlarining oʻrni va ahamiyati haqidagi fikr-mulohazalar bildiriladi.

Kalitli soʻzlar. musiqiy soz, cholgʻu ijrochiligi, toʻgarak, badiiy-ijro, musiqiy-pedagogik, dutor, rubob.

Musiqa taʼlimi yangilanish yoʻliga kirgan ayni davrda dars samaradorligini oshirish, uni milliy lashtirishga jiddiy etibor qaratish zarur. Biroq, bugungi kunda barcha maktablarda ham musiqa madaniyati darslari saviyasini qoniqarli deyish qiyin. Hali koʻpgina darslar zerikarli, qiziqarsiz, eski qolipdai metodika asosida amalga oshirib kelinmoqda. Ayrim oʻqituvchilar tasavvurida, pedagogik faoliyatida "xor boʻlib qoʻshiq kuylash" hamon taʼlim mazmunining asosini tashkil etmoqda.

Endilikda ijobiy natijalarga erishish, milliy musiqa ta'limini yuksaltirish uchun o'quvchi-yoshlarda musiqa madaniyatimiz tarixi, boy merosi, san'atimiz ulkan namoyondalarining hayoti, ijodiy faoliyatlarini o'rgatish nihoyatda muhim. Bu esa darsda hamda ma'rifiy-tarbiyaviy tadbirlarda faoliyat va yo'nalishlarning har bir turidan nihoyatda samarali foydalanishni talab etadi. Bolalarga musiqadan saboq berishda qadimdan Sharqda keng tarqalgan cholg'u asboblarning xususiyatlari, tovush tusi (tembri) to'g'risida tasavvurlarini boyitish alohida ahamiyat kasb etadi. Tanbur, g'ijjak, qonun, ud, dutor singari sozlarning yaratilish tarixi, imkoniyatlari, ushbu musiqa asboblarning mashhur ijrochilari hayoti, ijodiga oid rivoyat, tarixiy manba ma'lumotlaridan foydalanish ijobiy samara berishi shubhasizdir.

Necha ming yillik tarixga ega maqomlarimiz, mumtoz musiqamiz bilan har qancha faxrlansak arziydi. Birgina "Maqom" jamoamizning Samarqand shahrida o'tgan qator xalqaro musiqashunoslik anjumanlarida qilgan chiqishlari yuqori baholanganligi fikrimizga dalildir. Ha, maqom – boqiy mulk. Negaki unda so'z, kuy, ijro birligi mujassam.

Shu o'rinda bir misol keltirsam. Hozirga kelib istemoldan chiqqan, unutilgan milliy sozlarimizning o'zi yigirmaga yaqindir. Mana, ular: avlos, rud, xushtor, barbod, chag'ona, dilrabo, yotug'on, qo'biz, kengura, daf, valamiz, mizmar, ayalg'u, musiqor va boshqalar. Ana shu misolning o'ziyoq biz nechog'li yuksak musiqiy madaniyatga ega xalq ekanligimizni ko'rsatmaydimi?

Kuy-qo'shiqlarimiz milliy zamindan ajralmasligi kerak. Turli xalqlar kuylarining qorishmasidan iborat "bo'tqa" bizga nima beradi?

O'zining milliy musiqa tafakkuridan mahrum etilgan xalq hych qachon ro'shnolikka chiqolmagan, chiqolmaydi ham.

Chinakam milliy tarbiya bo'lishi uchun dars va sinfdan tashqari musiqiy-ma'rifiy tadbirlar mazmuniga milliy ruh singdirilishi kerak. Ta'lim mazmunini milliylashtirishda ayrim tarixiy manbalarning ahamiyati katta. Masalan, Sharqning buyuk donishmandlari Abu Ali ibn Sino, Abu Nars al-Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Al-Kindiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiylarning faoliyatlarini, musiqiy-pedagogik qarashlari, ijodiy meroslarini o'rganish nihoyatda foydali bo'ladi. Bu allomalar boshqa sohalar qatori musiqa nazariyasi, tarixi, sozlar xususida juda ko'p qonuniyatlar yaratishgan, risolalar yaratishgan va musiqani fan darajasiga ko'tarishgan. Shu bilan birga ud, nay, g'ijjak, qonun, kabi bir qator sozlarni yuksak mahorat hamda istedad bilan ijro eta olishgan. Har bir musiqa asbobining o'ziga xos o'rni borligini takidlab, inson ruhiyatiga ma'naviy ozuqa beruvchi vosita, deb tarif etishgan.

Bunday tarixiy ma'lumotlar orqali biz o'quvchilarning milliy musiqa merosimizga qiziqishini orttirib, musiqa ta'lim-tarbiyasini rivojlantirishda Sharq donishmandlarining buyuk xizmatlarini his etishlariga erishishimiz, ularda milliy g'ururni rivojlantirishimiz mumkin. Shuningdek, bugungi kunda umumta'lim maktablari musiqa madaniyati ta'limining mazmunini takomillashtirish uchun o'quv rejasida ko'rsatilgan haftalik dars soati miqdorini oshirish maqsadga muvofiqdir.

Maktabda cholg'u asboblari ansambli to'garaklarini tashkil etishda, o'quvchi-yoshlarga estetik tarbiya berishda turli vositalardan foydalaniladi. Shulardan biri maktabda va maktabdan tashqari muassasalarda tashkil etilgan cholg'u asboblari to'garaklaridir. Bu to'garak ko'p sonli o'quvchi-yoshlarni birlashtiradi. Ular o'zaro hamkorlikda jamoa bo'lib kuylashni nota bilan ijro etishga o'rgatadilar. To'garakdagi ko'p ovozli musiqa bolalarda musiqaviy qobiliyatning uyg'un suratda rivojlanishiga ijobiy tasir etadi. Ular musiqaning nozik sirlarini bilib oladilar. Professional sozandalik malakalarini hosil qila boradilar. Ansamblga kilrgan o'quvchilar dastlab asosan qashqar rubobi va dutor chalishni o'rganish olishni hohlaydilar. Lekin ular

istagan cholgʻu asboblari bilangina toʻgarak tuzib boʻlmaydi. Shuning uchun dutor, rubob, gʻijjak, chang, doira va boshqa asboblarning toʻgarakdagi oʻrnini va ahamiyatini oʻquvchilarga tushuntirish lozim.

Oʻqituvchining dutor, rubob, nay kabi asboblarda nafis kuy va mashqlarni namuna tariqasida ijro etishi tufayli oʻquvchilarning mazkur musiqa asboblariga qiziqishlar oshadi. Oʻquvchi-yoshlarni notaga qarab musiqa asbobida kuylar chalishga oʻrgatishda dastavval musiqa savodining boshlangʻich qismi bir xildagi cholgʻu asboblari guruhlar bilan tanishtirish kerak. Nota bilan kuy ijro etishni oʻrganishlari uchun ular birinchi galda musiqa applikatorasi, har qaysi asbobda ijro etish uchun tegishli oktava, notalarning nota yoʻlida joylashuvi, notalarning choʻzilish va ularning sanalishi, pauzalar, oʻlchov va taktni yaxshi oʻzlashtirib olishlari lozim. Shundan keyin ijro etish uchun bolalarga kichik-kichik kuylar berilishi mumkin.

Kuy oʻrganish davomida nota yozuvida ishlatiladigan boshqa belgilar ham oʻrgatiladi. Oʻquvchilar notani tez oʻqiy olishlari uchun har darsda doskaga kichik-kichik mashqlar yozib, jamoa boʻlib oʻqishga oʻrgatish zarur. Buning uchun mashqning oʻlchovini aniqlash, ritmikasinini chapak bilan chalish, notalar nomini aytib kuylash, nixoyat hamma shoshmasdan baravar ijro etishi lozim. Ansamblda soz chalishning qoidalari va umumiy talablar: ijro paytida gavdani shunday tutish kerakki, toki u ijrochining barcha harakatlari uchun qulay va tashqi koʻrinishi chiroyli boʻlsin;

- suyanchiqqa suyanmasdan, oʻrindiqlarning yarmisida oʻtirish lozim;
- ijro etishdagi holati har tomonlama qulay boʻlishi uchun gavdani va gavda holatini erkin tutish lozim;
- oʻng qoʻlning toʻgʻri joylashishiga, erkin harakatda boʻlishiga erishish kerak;
- chop qoʻl soz dastasini siqmaslik kerak (rubob, avgʻon rubobi, soz, dutor sozlarida), qoʻl kafti dastaga tegmasdan, erkin boʻlishiga harakat qilish lozim;
- cholgʻu dastasi chpa qoʻlning bosh va koʻrsatgich barmoqlari oʻrtasida joylashtirilib, barmoqlar holatiga etibor berish lozim, bosh va oʻrta barmoqlar bir-birining toʻgʻrisida boʻlgani maqsadga muvofiq;
- chertib chalinadigan torli cholgʻular ijrosida barmoqlar ikki parda boʻlinmasining oʻrtasida emas, balki pardaning xarrak yoʻnalishidagi pillar boʻlinmasiga taqab qoʻyiladi. Simlar esa barmoqlarning tirnoq oldi yostiqlik bilan bosiladi. Har bir cholgʻu sozida chalish qoidalari ham ana shunday tartibda rioya qilinadi. Ijro uchun qulay va toʻgʻri holatni tanlash, qoʻllarni erkin tutish, tovush chiqarish madaniyatini toʻgʻri oʻzlashtirish har bir soz ijrosi uchun umumiy talablar mazmuniga kiradi;
- jamoa boʻlib ijro etganda barobar va birgalikda ijro etishga erishish lozim. Cholgʻu sozi tovush haddan ziyod kuchlanmasin, ijro etish oʻzgalardan ildamlab ham, ortda qolib ham ketmasligi lozim.

Jamoaviy ijro bir xil hissiyot bilan, bir tanu bir jon boʻlib, bir xilda ijro etish ekanligini yodda tutish kerak. Cholgʻu sozlarini yaxshi saqlanishi avvalo mashgʻulot oʻtkaziladigan xonaga bogʻliq.

Oʻquvchi-yoshlar milliy musiqa taʼlim-tarbiyasidan asosiy muammo milliy pedagogik kadrlar tayyorgarligi masalasidir. “Oʻzbekiston Respublikasi umumtaʼlim maktablarida musiqa taʼlim-tarbiyasi konsepsiyasi”da zamonaviy musiqa oʻqituvchisi, uning kasbiy tayyorgarligi - professiogrammasi masalalariga yuksak talablar qoʻyildi. Bu esa oʻquvchilar milliy musiqa tarbiyasini rivojlantirish imkoniyatlarini yaratadi. Musiqa pedagogikasi mutaxassislari tayyorlanadigan oʻquv dargohlari dastur va rejalarida milliy musiqa tarixi, ananaviy ijrochilik, xalq musiqasi yoʻnalishidagi fanlar kiritildi. Ayni paytda boʻlajak musiqa bakalavrining

metodologik, nazariy, amaliy tayyorlanganligini taminlash uchun keng imkoniyatlar paydo bo'lmog'ida. Zero Konsepsiyada takidlangan talabga ko'ra "barcha musiqa o'qituvchilari milliy musiqa va o'zbek adabiy tilini mukammal bilishlari shart..." ligini taminlash uchun nazarimizda, bo'lajak o'qituvchining ijrochilik mahoratini rivojlantirish barobarida musiqiy pedagogik tayyorgarligiga ham jiddiy ahamiyat berish lozim. Chunki ayrim o'qituvchilarning milliy musiqa tarixini, tarbiya usullarini to'liq bilmasligi, o'quvchilar bilan ishlay olmasligi musiqa tarbiyasini amalga oshirishda salbiy tasir ko'rsatmog'ida. Bo'lajak musiqa o'qituvchilari ta'limida san'at turlari - musiqa, badiiy so'z va tasviriy san'atning o'zaro bog'liqligi to'g'risidagi tushuncha hamda ma'lumotlar ham zarur. Shu bois, o'quv jarayoniga "Sheriyat asoslari", "Musiqa va so'z san'ati", "Musiqa o'qituvchisining nutq madaniyati", "Ifodali o'qish" kabi maxsus kurslarni joriy etib, ulardan o'quv soatlarini ko'paytirish imkoniyatlarini izlash lozim.

Xullas, yosh avlod ma'naviyatini kamol toptirishda milliy musiqa ta'lim-tarbiyasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, mazkur soha mutaxassislari uning imkoniyatidan unumli foydalanishlari, o'quv-tarbiya jarayonlarida yanada samarali natijalarga erishishlari kerak. Zero, mustaqil O'zbekiston davlatining bu sohada olib borayotgan say-harakatlari milliy musiqa san'ati va pedagogikasining yanada rivojlanishidan darak beradi.

Malumki, kollej va maktablarda musiqa darslarini yuksak saviyada olib borishda o'qituvchining cholg'u asboblarni mukammal egallaganligi katta rol o'ynaydi. Shunday ekan, musiqa o'qituvchisining ish faoliyati uchun ixtisoslangan cholg'u asbobini faqat ijrochilik tomonidan emas, balki pedagogik nuqtai nazardan ham mukammal egallash muhim ahamiyatga ega. Bu vazifani amalga oshirish uchun bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tarbiyalashda maxsus cholg'u asbobi predmetini o'qitish metodikasini to'g'ri yo'ga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Umumiy ta'lim maktablarining musiqa o'qituvchilari o'zida ikki xislatni, ya'ni ijrochilik va pedagogik xislatlarini mujassamlashtirgan bo'lishi kerak.

Shuning uchun pedagogika institutlarining musiqa fakultetlarida o'quv prosesining asosiy yo'nalishi talabaning maktabda ashula darsini va sinfdan tashqari musiqa mashg'ulotini o'tkazish uchun kerak bo'lgan bilim komponentlarini egallashga qaratilishi lozim.

Musiqachi-pedagog uchun musiqa asarini bolalarga so'z orqali badiiy izohlab bera bilish quyidagi omillardan iboratdir: birinchidan, talabaning musiqa asari bilan mustaqil tanishib, analiz qilish va uning badiiy qiymatiga to'g'ri baho bera olish qobiliyatini o'stirish; ikkinchidan, talabaning musiqa tinglash qismi uchun ko'proq maktab repertuarini o'zlashtirish; uchinchidan, o'quvchilarning umumiy musiqaviy rivojlanishiga qarab musiqa obrazini so'z orqali izohlash qobiliyatini tarbiyalash.

Shu maqsadda asarni analiz qilishda quyidagi tartib saqlanadi:

1. Kompozitorning qisqacha tarjimai holi va ijodiy yo'nalishi.
2. Asarning badiiy-g'oyaviy mazmuni va xarakteri.
3. Asarning tuzilishi, tonlik rejasi, garmonik xususiyati.
4. Asarda uchraydigan ifoda belgilari bilan mustaqil tanishib chiqib, uni badiiy jihatdan yuksak saviyada ijro etishga erishish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008. - 176 b.
2. Fayziyev K., Nishonov S. "Pedagogika tarixi" (o'quv qo'llanma) T.1996 yil.
3. Xoshimov O. "Maktabda musiqaviy tarbiya".-T., 1992 yil.
4. D.Omonullayev va boshqalar. "Davlat ta'lim standartlari". Dastur, 1992 yil.

-
5. O.Matyoqubov. “Forobiy Sharq musiqasi asoslari haqida”. -T., 1986 yil.
 6. I.Rajabov. “Maqomlar masalasiga doir”. -T., 1963 yil.
 7. O.Ibrohimov. “O‘zbek xalq musiqasi ijodi”. Metodik tavsiyalar. -T., 1994 yil.
 8. Folklor ansambli. Umumta’lim maktablari va maktabdan tashqari muassasalarning tuzgarak rahbarlari uchun metodik qo‘llanma. Muallif F.Xidirov. Toshkent, 1994 yil.
 9. O‘zbek xalq cholg‘ulari. Ko‘rgazmali metodik qo‘llanma. Tuzuvchi K.Amirjonov. Toshkent, 1996 yil.
 10. Karomatov F. “O‘zbek cholg‘u musiqasi”. Toshkent. “Meros”. 1972 yil.

QADIMGI KUYLARNING TAKOMILLASHUVIDA RITM VA USUL MASALALARI

TDPU magistranti **Ergashev Orif**
Ilmiy rahbar: PhD **Yuldoshev Umid**

Qadimiy madaniyat o‘choqlaridan biri bo‘lgan O‘rta Osiyoda yashagan xalqlar jahon fani va madaniyati xazinasiga salmoqli hissa qo‘shganlar. Ular musiqasi madaniyati sohasida ham juda boy qadimiy merosga ega. O‘rta Osiyo xalqlarining musiqasi madaniyati tarixiga doir qadimiy yozma manbalar va arxeolog olimlar tomonidan topilgan yodgorliklar buning dalili bo‘lib xizmat etadi hamda bu xalqlarning qadimdan boshlab yuksak madaniyat egalari bo‘lganligini tasdiqlaydi. Lekin arab istilosi davrida (VII – IX asrlar) boshqa madaniy yodgorliklar qatorida musiqaga doir yozma manbalar ham kuydirilib, yo‘qotib yuborilgan. Shuning uchun O‘rta Osiyo xalqlarining so‘nggi ming yillik madaniyati tarixiga oid yozma manbalargina bizgacha yetib kelgan.

Shuni aytish kerakki, O‘rta Osiyo xalqlarining musiqasi madaniyati tarixi hali yetarli o‘rganilmagan. Bu masalani, shu jumladan maqomlarning taraqqiyot yo‘lini izchil yoritib beradigan yaxlit asarlar yaratilmagan. Umuman musiqasi madaniyatiga doir tarixiy materiallar turli tillarda yozilgan manbalarda va boshqa xarakterdagi asarlarda sochilgan holdadir. Bu materiallarni to‘plab, O‘rta Osiyo xalqlari musiqasi madaniyati tarixini yaratish esa juda murakkabdir.

Shu sababli hozircha X-XIX asrlarda musiqasi manbalaridagi mavjud ma’lumotlarni qisqacha eslatib o‘tish bilan kifoyalanamiz. Musiqasi risolalarining katta qismi maqomlarning nazariy asoslarini sharhlab beradi. Shuningdek, mumtoz musiqasi gultoji bo‘lgan maqomlar sharhida usul va ritm masalalarining xam ifoda etilishi e’tiborga molikdir. Dastlab, O‘rta Osiyo xalqlari musiqasi madaniyatida o‘chmas iz qoldirgan buyuk siymolardan: Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Safiuddin Urmaviy, Mahmud Sheroziy va boshqalar edilar.

Xususan, Mahmud Sheroziy o‘zining uzoq yillar davomida olib borgan ilmiy izlanishlari natijasida “Durratut-toj” (“Toj durlari”) qomusiy asarini yozdi. Bu asar fors tilida yozilgan dastlabki ishlardan bo‘lib, shu sababli tili ham juda murakkabdir.

Bu asarning musiqaga bag‘ishlangan qismi “Dar ilmi musiqiy” (“Musiqiy ilmi haqida”) – deb atalib, muqaddima, beshta maqola va xotima qismlaridan iborat.

Muqaddima qismida tovushlarning paydo bo‘lishi, musiqasi tovushlari haqida gapiriladi.

Birinchi maqolada “savt” (umuman tovush), “nag‘ma” (musiqiy tovush)lar ta’riflanadi. Ikkinchi maqolada musiqiy tovushlarining bir-biriga nisbati, intervallar va yoqimli-yoqimsiz interval (konsonans va dissonans)lar haqida gapiriladi. Uchinchi maqola intervallarni bir-biriga

qo‘shish va bir-biridan ayirish, ularni turli qismlarga bo‘lish, binobarin jins (tetraxord)lar hosil etish yo‘llari ustida bahs etadi. Bu uchchala maqolaning har biri o‘nta qism (fasl)da sharhlanadi.

To‘rtinchi maqola to‘rt qism va o‘n bitta bahsni o‘z ichiga olgan xotimadan iborat bo‘lib, jinslar, jam‘ (tovushqator)lar, maqomlar va musiqa cholg‘ulari masalalariga bag‘ishlangan. Bu o‘rinda muallif 70 ga yaqin jam‘ va maqomlarni keltiradi (Maqom nima? Qismiga qarang).

Asarning yettita qismdan iborat beshinchi maqolasida – ritm (iqo) va usullar to‘g‘risida fikr yuritiladi. Oxirgi xotima qismida esa kuylarning yozuv usullari-notatsiyalar masalasi yoritiladi.

O‘rta Osiyo xalqlarining musiqa madaniyati tarixida XIV-XV asrlar barakali samaralar berdi. Bu davrda O‘rta Osiyoda feodal munosabatlar gullab yashnadi, xunarmandchilik ishlab chiqarishi va savdo-sotiq yanada rivojlandi, madaniyatning turli sohalarida ham sezilarli darajada siljish ro‘y berdi. O‘rta Osiyo va Xurosonda o‘rta asr fani, adabiyoti va san‘ati yana jonlana boshladi.

XV asr adabiyoti va musiqasining yodgorliklari qatorida she‘r devoni va bayozlarini ham ko‘rsatib o‘tish lozim. Navoiyva Jomiy, ularning zamondoshlari bunday she‘r to‘plamlarini ko‘plab tuzgan edilar.

Navoiy zamonida bastakorlar ko‘proq amal, savt, naqsh, peshrav, tarona shakllarida kuy va qo‘shiq yaratganlar. Navoiy “amal” atamasini “ish” deb ham ataydi. U davrda hozirgi ma‘nodagi nota yozuvlari bo‘lmagani sababli kuy va ashulalarning namunalari ham bizgacha yetib kelmagan hamda bu kuylarning shakllari haqida aniq fikr aytib bo‘lmaydi. Lekin, bizgacha yetib kelgan klassik musiqamizning yuksak namunasi hisoblangan Shashmaqomning cholg‘u va ashula yo‘llarida peshrav shakllari uchraydi. Amal, naqsh, ish, taronalar esa umuman “tarona” yoki “Suvora”(14) nomi bilan ataladi. Xulosa shuki, Navoiy davri musiqasida hozirgi tushunchadagi “tarona”larning xili ko‘p bo‘lgan hamda ular kuy shaklining xarakteriga qarab turlicha nomlangan. Hozirgi kunda bunday kuy shakllari nomlarini maqomdonlar butunlay unutib yuborganlar. XVI asrda yashab ijod etgan musiqa olimi Kavkabiy Buxoriy, XVII asr yetuk san‘atkori Darvish Ali Changiy va boshqa mualliflarning musiqa risolalarida XV-XVII asrdagi kuy va ashulalarning turlariga ta‘rif berilgan. Lekin bular ham kuy shakllarini aniqlashga yetarli yordam berolmaydi. Har holda, agar Navoiy yoki boshqa olimlar, bir bastakor ma‘lum maqom yoki uning sho‘‘basiga amal, naqsh bog‘lagan desalar, o‘sha maqom yo‘llariga ulanib ketadigan, kuy mavzusi jihatidan ularga hamohang bo‘lgan musiqa asarlarini ko‘zda tutganlar. Naqsh, peshrav va amallar uncha katta shaklda bo‘lmagan.

Navoiy davrida doyra va nog‘ora usullari juda ko‘p yaratilgan. Ba‘zi mubolag‘alarga ko‘ra, nog‘orachilar usullar orqali bir-birlariga o‘z fikrlarini ham anglata olganlar va hatto savol-javob qilishgan.

Hozirda Navoiy asarlarida, Abdurahmon Jomiyning musiqiy risolasida, so‘nggi davrlarda yaratilgan Kavkabiy va Darvish Ali kabi yirik musiqa olimlarining risolalarida keltirilgan doyra, nog‘ora usullarini tiklashga to‘la imkoniyat bor va hozirgi zamon notasiga ko‘chirib, rasshiforvka qilish mumkin. Bu usullarni o‘rganish faqatgina Navoiy asarlarida tilga olingan qo‘shiq, ashula yoki kuylarning ritmik asoslarinigina emas, balki she‘riyat bilan musiqa asarlari orasidagi munosabat masalalarini ham ochib berishda muhim o‘rintutadi.

Navoiyning ijodida musiqaning ba‘zi nazariy va amaliy masalalari ham o‘z ifodasini topgan. Navoiyning o‘z ibastakor sifatida ijro uslublarini egallab, cholg‘ularda mahorat bilan chalardi. U ashulalarga moslab orombaxsh dilrabo g‘azallar yaratgan. Binobarin, musiqa nazariyasini ham asosli ravishda chuqur bilganligi uning “Mezonul-avzon” asaridan yaqqol ko‘rinadi. Navoiyning bu asari she‘r o‘lchovlarini asoslab beruvchi mukammal risoladir. Unda

musiqa nazariyasi bilan bog‘liq bo‘lgan qator holatlar bor. Yozma manbalardan ma‘lumki, musiqa va she‘riyatning nazariy asoslari bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Aruz ilmi esa, musiqaning ritm qoidalari asosida yuzaga kelgan. Bu masalani yoritishda Navoiyning “Mezonul-avzon” asari ham yordam beradi. Navoiyning ko‘rsatishicha she‘r vaznlari sabab, va tadvafoisila – deyilgan uch xil ruknlardan tuziladi. Musiqa risolalarida ham xuddi shunday. She‘r o‘lchovlari harakatli va harakatsiz undoshlar vositasi bilan yuzaga keladi. Musiqa nazariyasida esa ritm o‘lchovlari shartli qabul etilgan (tan, tana, tanan, tanna, tananan kabi) so‘zlar vositasi bilan ifodalanadi. She‘r o‘lchovlari va musiqa ritm o‘lchovlari bir xil asosga ega ekanligi ularning uzun-qisqa bo‘g‘inlardan tashkil topganligidadir.

O‘tmishda musiqaviy ritm o‘lchovlari turlicha ma‘noda ishlatilgan.

1. Doyra va nog‘ora usullari tarzida, masalan: “bak-baka-bum” yoki “tak-taka tum” – musiqa risolalarida – tan-tananan” kabi ifodalangan.

2. Ritm o‘lchovidagi ruknlar kuylarning ritmik asosini ifodalashda ham ishlatilgan. Masalan, har qanday kuyni ritm o‘lchovi ruknlari vositasi bilan xirgoyi qilib kuylash mumkin. Bu o‘rinda “tan, tana, tanan”lar kuyni tashkil etadigan uzun-qisqa nota ulushlariga ham moskeladi.

3. Shu ruknlar bilan ashulalarga aytiladigan she‘r mantlari tanlab olingan. Masalan, bunda dastlab, ashula qilib aytiladigan kuy, o‘sha “tan-tanan”lar vositasi bilan xirgoyi qilinib, kuyga mos she‘rning vaznini tashkil etadigan uzun-qisqa bo‘g‘inlar aniqlab olinadi.

She‘r vazni “ramali musammanimahzuf” deb atalib, unga “To muhabbat dashti bepoyonida ovoraman” kabi o‘lchovdagi she‘rlar mos keladi.

XIV asr musiqa madaniyatimiz tarixi hali durustroq o‘rganilmagan. Shu sababli bu davrdagi bastakorlik, bastakorlar hayoti va ijodi haqida hozircha ma‘lumotga ega emasmi. Darvish Alining mazkur risolasida faqat Xo‘ja Abdulqodir Marog‘iyning ijodi haqida qisqacha eslatib o‘tilgan. U Sohibqiron Temur saroyida xizmat qilgan davrda kuy va ashulalar ham yaratgan. Ulardan biri “Amali tarona” deyilib, Iroq maqomi yo‘llari asosida yuzaga kelgan. U Zarbul-fath, Chorzarbva Miatayn deb atalgan nog‘ora usullarini ham ixtiro etgan. Temur davrida va undan so‘nggi vaqtlarda Xo‘ja Abdulqodir kabi ko‘plab bastakorlar ijodetganliklari aniqdir.

XVI-XVII asrlarda ijod etgan buxorolik musiqachi olimlar Mavloni Kavkabi va Darvish Alining musiqa risolalarida kuy-ashula turlari va shakllari masalalariga maxsus boblar ajratilgan bo‘lib, bu musiqa namunalarini, mavhumroq bo‘lsa-da, tasavvur etishga yordam beradi. Shubhasizki, bunday kuy shakllarini tashkil etuvchi asosiy qismlar hozirgi maqom yo‘llarida ham mavjud. Lekin kuy qismlarining ifodasi bo‘lgan ko‘pchilik musiqa atamalarining iste‘moldan chiqib ketganligi bu masalani aniq tushinishda asosiy to‘siqlardandir.

Kavkabiyning ko‘rsatishicha, alhon (kuy, ashula) uch xil bo‘ladi:

Alhoni jirmiy (to‘liq kuy), ya‘nimusiqatovushi (nag‘ma), doyra usuli (ritm) va she‘r matni qo‘shilgan musiqa asari; bu vokal musiqadir.

Alhoni basitiy (oddiy kuy), ya‘ni cholg‘u kuylar yoki she‘rni o‘lchovga solib o‘qish.

Alhoni xattiy, (cheklangan kuy), ya‘ni musiqa asaridagi tovushlar, ritm va she‘rning alohida ko‘rinishi. Musiqa asarlarining bu turlari haqida manbalarda mufassil ma‘lumot yo‘q.

Hozirgi kunda bu masalalarni aniq tasavvur etish qiyin. Lekin o‘tmishda musiqa nazariyasi mualliflari lad uyushmalarini, badiiy she‘r o‘qishni, doyra usulini, hatto Qur‘onni qiroat bilan o‘qishni ham “alhon” tushunchasiga kirita berganlar. Bu hol esa alhonning yuqoridagi uch xilini ta‘riflashda ham o‘z aksini topgan.

Kavkabiyy va Darvish Ali o‘z risolalarida kuylarning ishlanish uslublari va shakllari haqida ham mulohaza yuritganlar. Bunda kor, qavl, amal, peshrav, savt, naqsh, rixta, saj’, zarbayn kabi atamalar kuy yoki ashulalarning qismlarini, ba’zilari esa kuyning yaratilish uslublarni ifodalab beradi. Kuy kichik bir o‘zgarish kiritilish bilan boshqa shaklga kirib, uning nomlanishi ham o‘zgaradi. Shunday atamalardan biri kor deb ataladi.

Kor (forschaish, yaratish) mualliflar ta’rificha, arab tilidagi she’rlar bilan hafif o‘lchovli doyra usulida ijro etiladigan ashula yo‘lidir. Ashula boshida mustahal (cholg‘u qism, vokal musiqaning cholg‘u muqaddimasi) muqaddima qilinadi. Korning miyonxona va bozgo‘yi ham bo‘ladi.

Musiqaga bag‘ishlangan kitoblarda ko‘rsatilishcha, ashula baytlaridan (she’r o‘qilishdan) avval chalinadigan kuylar (motiv) mustahalldir. Ana shunday motiv baytlar o‘qilgandan so‘ng voqe bo‘lsa, uni naqarot deyiladi. Agar ikki bayt ashula shunday tartibda kelsa, du sarxona (ikki sarxona, sar bosh, boshlanishi; xona-kuy jumlasini; sarxona-ashula boshlanishidagi kuy jummalari) nomi bilan ataladi. Kavkabiyy va Darvish Alining ko‘rsatishicha, ikki baytdan tuziladigan kuy shakli miyonxona (miyonxona ashulaning o‘rtasidagi kuy jummalari) deb ataladi. Miyonxonaning kuyjumalari baytlar yoki naqarot bilan ijro etilishi mumkin. Ammo kor shaklida miyonxonadagi baytlar o‘rniga naqarot ishlatiladi. Amal shaklining bozgo‘yida esa aksincha, naqarot o‘rniga arabcha baytlar yoki ruboiy bog‘lanadi.

Qavl kor shaklining saqil doyra usulidagi ritmik variatsiyasidir. Ulardagi farq shuki, kor shaklida bo‘lgan miyonxona qavlda ishlatilmaydi va ularning doyra usul iturlicha bo‘ladi.

Amal (arabcha ijodiy asar) ashula shaklida ham baytlardan oldin “mustahall” bo‘ladi. Amal shaklida miyonxona bilan bozgo‘y qismlari bo‘lishi shart. Agar shunday kuy bo‘laklari bo‘lmasa, uni Savtul-amal (Amalning Savti) deyiladi. Amalning fazilati shuki, unga har qanday usulni (ya’ni doyra usulini) bog‘lash mumkin. Lekin usul bir xil bo‘lishi shart. Agar ikki turli usul bog‘lansa “Korba usul” (“usuldagikor”) deyiladi. Amalning bozgo‘yiga bog‘langan usul Usuli gardon, deb ataladi.

Peshrav (yuqoriga harakat etuvchi ohang) amal qoidasi asosida ishlangan kuy shakli bo‘lib, baytsiz (so‘zsiz) ijro etiladi. (Peshravni cholg‘u yo‘llaridan, deb o‘ylash mumkin. Lekin bu yerdagi fikrlar buning aksini tasdiqlaydi). Peshravda uch sarxona mavjud bo‘lib, birinchi sarxona kuyning past qismida kelsa, miyonxona uning balandi (avji)da bo‘ladi. Lekin bunday kuy o‘z husni (rangi)ni yo‘qotadi. Peshravdagi birinchi sarxona uch qismdan iborat bo‘lib, ular tarkib, oviza va lozima nomlari bilan ataladi.

Oviza (vosita) bir tarkib (sarxonadan oldin keladigan motiv)ni boshqa kuy jummalariga bog‘laydigan vositadir. Lozima esa sarxona, miyonxona yoki bozgo‘y bilan birga keladigan motivdir; u hechqachon yakka holda ishlatilmaydi. Peshrav maqom, ovoz yoki sho‘‘balar nomi bilan qo‘shib ataladi. Masalan, Peshravi (maqomi) Kuchak, Peshravi (sho‘‘bai) Hisor, Peshravi Shahnoz, Peshravi Bastai Nigor kabi.

Darvish Alining fikricha, peshrav Amiri Ko‘ragoniy zamonida yuzaga keladi. Amir Temur shoir va musiqachilarni to‘plab, ko‘pgina baytlarga tasniflar bog‘lashni buyurgan edi. Natijada musanniflar (bastakorlar) bir necha tarkiblar bog‘lab, ularga ikki sarxona, miyonxona va bozgo‘y ishladilar. Dastlab o‘sha zamonlarda Sayful-Musirr (?) Iroq maqomiga peshrav bog‘lagan edi. Bu peshravda to‘rt sarxona bo‘lib, Du-yak (ikki-bir) usulida edi. So‘ngra Ustod Muhammad Latifi Qutbi Noyi Husayniy maqomiga peshrav bog‘ladi. Bu peshrav far’ usulida bo‘lib “Peshravi mashhur”, deb nomlangan edi.

Savt (tovush, ohang) uch bayt bog‘langan ashula yo‘li bo‘lib, unda mustahall, miyonxona va bozgo‘y bo‘lmaydi. Lekin zilning ishlatilishi shart, Zil bayt va naqarotlardan keyin keladigan

ashulaning cholg'ʻu jumlasidir. Demak, zil bo'lmasa, savt bo'laolmaydi. Lekin naqaroti bo'lmasa ham savt bo'laveradi. Bunda naqarot o'rniga zil kabi bir necha kuy jumalari ishlatiladi. Mavlono Binoiy (XV-XVI asr) Panjgoh sho'basiga muxammas usulida ishlagan savtida shunday qilgan edi. Darvish Alining aytishicha, savt naqshga o'xshab benaqorat ishlangan bo'lib, uni naqsh yoki rang, deb nomlash lozim edi. Savt qadim zamonlarda amalning o'zi bo'lgan edi. Ustod Shodiy (XV asr) Savtni bir zil qo'shib, Amaldan ajratgan, shu bilan birga Savt naqarotining o'rniga bir zil tarkib qo'shgan edi.

Ashulaning naqsh turida ruboiy (ashulaning to'rt jumlasiga) baytlar joylashtiriladi, lekin unga katta Savtlar va usullar bog'lanmaydi. Agar bog'lansa, u Naqsh deyilmaydi. Masalan, Muxammas shakliga bog'lansa, u Sunbuliy deb ataladi.

Rixta (aralashgan, hindlarda ham Rixta nomi bilan mashxur) shakli shuki, bu ashulada baytlar hindcha (urdu tilida) bo'ladi. Rixta ustida bastakor va mashhur musiqa olimi Xo'ja Abdulqodir birinchi bo'lib ish olib borgan. Rixta she'rining mazmunida Muhammad payg'ambar (s.a.v.) madhi assos bo'lib, bozgo'yida o'nikki imom tavsifi berilgan edi.

Saj' (qofiyalangan proza) she'rdagi tavil bahriga o'xshab, tarkiblar Amal shaklidagi kabi bir-biri bilan biriktiriladi. Bunda ikki sarxona, miyonxona va bozgo'yi bo'ladi. She'rning mazmunida ko'pincha payg'ambar, chahoryorlar va imomlar madh etiladi. U usuli Hazaj bo'lib, Zahiriddin Bobur Rosti Panjgoh pardasiga (ya'ni maqomiga) Saj' bog'lagan edi.

Zarbayn (ikki xil zarbli) shaklida bir amalga ikki turli usul bog'lanadi. Bunda har bir sarxona ikki usulda, agar bayt bilan o'qiladigan motivlar bir usulda bo'lsa, naqarot boshqa usulda bo'ladi. Xo'ja Abdulqodir Marog'iy Zarbaynning baytlari (bayt bilan ashula qilib ijro etiladigan qismi)ni Hafif, naqarotini Du-yak usulida va bozgo'yini esa boshqa o'n uch xil uslubga moslab, o'n uch Kuchak deb nomlagan edi. Qisqasi, agar Sarxonada Amal shakli voqe bo'lsa zarbayn, deb ataladi.

Yuqorida ko'rsatilgan kuy va ashulalarni yaratish usullari haqidagi fikrlar Mavlono Kavkabiyya Darvish Ali risolalarida mavjud bo'lib, Kavkabiyya boshqacharoq ko'rinishda izohlangan hamda kuy va ashulalarning boshqa shakllari ham berilgan. Masalan, Miatayn (ikkiyuz), Sarband, Amalimustahall, Qavlimustahall, Navbat, Kulliyot va boshqalar.

Savt, Peshrav, Naqsh, Amal, Qavl va boshqa shakllar esa o'ziga xos usulda ta'riflangan.

XVI-XVII asrlardagi musiqa amaliyoti Shashmaqomga muvofiqroq bo'lgani uchun shu davrda yaratilgan musiqa risolalaridagi kuy va ashula yo'llari haqidagi fikrlar buyerda qisqacha qilib keltirildi. Lekin bu ta'riflarni hozirgi kunda to'liq deb bo'lmaydi. Darvish Ali bu masalani o'z tushunchasi doirasidagina izoxlagan. Shuning uchun maqom yo'llari ko'rinishda ham bunday kuy shakllarini aniq tasavvur etish mushkul. Chunki bizgacha yetib kelgan maqom yo'llari XVII asrdagi ko'rinishdan tubdan farq qilishi tabiiydir.

O'nikkimaqom bilan Shashmaqom, garchi O'rta Osiyoda mavjud umumiy an'ana va qoidalar asosida yashab kelgan bo'lsa-da, bizgacha ular juda katta o'zgarishlar bilan yetib kelgan. Maqom yo'llarining yaratilish qoidalari yuqorida aytilgan kuy va ashula shakllarining ko'pida ishlatilgan nomlar hozirgi kunda musiqachi-bastakorlar tomonidan butunlay sedan chiqarib yuborilgan. Masalan, XVII asrdagi Savt yo'llari bilan bizgacha yetib kelgan Shashmaqomdagi Savtning ishlanish yo'li juda katta farqlarga ega bo'lishi tabiiy bir hol. Lekin birorta bastakor – sozanda savtning asl shakli haqida tasavvurga ega emas. Shunday bo'lsa-da, XV-XVII asrlarda joriy etilgan kuy shakllari va ularning nomlanishidagi xarakterli atamalar maqomlargagina xosdir.

Tarixiy va adabiy xarakterdagi asarlarda, ayniqsa musiqaga doir XV-XVII asrda yozilgan risolalarda kuy va ashula shakllarining yaratilishi va ularning ijodkorlari haqida

avvalgi davrlarga nisbatan boy material yetib kelganligi bejiz emas, albatta. Bu narsa hatto XIV asrdan boshlab maqom shakllarining rivojlanishida hal etuvchi rol o'ynagan bastakorlik an'anasining yanada kuchayganidan, XV-XVII asrlarda esa bu an'ana davom etibgina qolmay, bastakorlikda yangi-yangi ixtiro vositalari topilib borganidan dalolat beradi. XIV-XVIII asrlar davomida Shashmaqomning uzil-kesil shakllanib, qaror topishi uchun zamin yaratilgan.

Shashmaqom esa yuqorida izohlab o'tilgan Naqsh, Peshrav, Amal, Savt, Qavl, Kor kabi kuy va ashula turlarining hamda ularning yaratish uslublarining yanada rivojlanishi natijasida bastakorlik an'anasining mahsuli sifatida yuzaga keldi. XVI-XVII asr musiqa risolalarida ko'plab uchraydigan xona (sarxona, miyonxona), bozgo'y, zil kabi kuy va ashula jumalari, doyra usullari nomlarining Shashmaqomda ham saqlanib qolganligi kuy va ashulalarning ishlanishida qandaydir bir umumiy uslub va prinsipga asoslanilganidan darak beradi.

Shashmaqom tarkibida O'n ikki maqom tizimida uchraydigan maqom va sho'ba hamda o'sha davrlarda qo'llanilgan doyra usullarining nomlari saqlanilganligi, Shashmaqomning O'n ikki maqom musiqa materiallari bazasida yaratilgan deb taxmin qilishgai mkon beradi. Qadimgi manbalarda sharh etilgan kuy va ashula shakllarini Shashmaqom yo'llariga tadbqiq etish, ilmiy o'rganish juda katta tarixiy, ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Bu masalani yechib berish o'zbek-tojik xalqlari musiqashunoslik fani oldida turgan eng yaqin va zarur vazifalardan biri bo'lishi kerak.

Yozma manbalarda ko'rsatilishicha, birinchi yaratilgan musiqa ritmi "Zarbi qadim" ("Qadimiy zarb") deb ataladi. Bu ritm, go'yo inson tomirining urishidan olingan bo'lib, juda sodda "tan-tan" (♩ ♩) shaklida bo'lgan. So'ngra esa ritmlarning murakkabroq shakllari yuzaga kelgan. Masalan, (♩♩ ♩♩) (tana-tana), (♩ ♩ ♩) (tan-tan-tan), (♩♩ ♩♩ ♩) (tana-tana-tan), (♩ ♩♩) (tanna-tan) va hokazo. Bu ritmlar musiqa asarlari bilan birga yuzaga kelgan bo'lib, keyinchalik esa Sharq xalqlarida mustaqil doyra usullaritarzida ham ajralib chiqqan.

O'ZBEK MUSIQASHUNOSLIGI TARIXIY TARAQQIYOTI

Inomova Muyassar Furqat qizi

J.D.P.U. "Musiqashunoslik ta'limi va san'at" mutaxassisligi II bosqich magistranti.

Abduxalimova Go'zal Hazratqulovna

Jizzax shahar 29- D.M.T.T. musiqa rahbari.

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqaning paydo bo'lish tarixi, uning insoniyat ma'naviy, madaniy hayotidagi o'rni va tarixiy taraqqiyot bosqichlari haqida ma'lumotlar yoritilgan

Kalit so'zlar: musiqa, qo'shiqchilik, raqs naylar, hushtaklar, zarbli cholg'ular, ratchetlar, sivistiy-nay, terrakota-haykalchalari, raqqoslar, «Doira raqsi».

Hamamizga ma'lumki xalqimizning musiqiy madaniyati juda qadim tarixga egadir. Taraqqiyot bosqichlari davomida xalqimizning mumtoz musiqasi, an'anaviy kasbiy musiqasi, xalq bastakorlik usullari, shuningdek, folklor - havaskorlik musiqiy merosi kabi shaklan va usluban bir-biriga yaqin ijrochilik yo'nalishlari bir-birini to'ldirib, sayqallanib keldi. Ushbu musiqiy merosimiz bugungi kunimizda ham ma'naviy madaniyatimizning bir bo'lagi sifatida namoyon bo'lmoqda. Istiqolga erishgach, umummilliy qadriyatlarimizga, urf-odatlarimizga, qadimiy an'analарimizga bo'lgan e'tibor, ularni yangidan isloh etish asosiy vazifalarimizdan

biri bo‘lib qoldi. Ularga bo‘lgan e‘tibor, ularni qadrlash, asrab –avaylash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Shubhasiz, musiqa insoniyat bilan necha ming yillardan buyon hamrohlikda kelmoqda. Bizga tarixdan ma'lumki, insoniyatning ma'naviy va ruhiy ozuqasi bo‘lmish musiqiy madaniyatimiz, an'anaviy qo‘shiqlarimiz, maqom ijrolari hamisha xalqimizning kundalik hayotida muhim o‘rniga ega bo‘lib kelgan. Aynan kundalik hayotimizdagi faoliyatlar natijasida ko‘plab musiqa ijrochilik namunalari yuzaga keldi. Xususan, ov qilishda hayvonlarni jalb etishdagi qichqiriq va hushtaklar, terimchilikda mehnat jarayonlaridagi “mas”, “Ho‘p mayda”, “Ho‘sh ho‘sh”, turey turey, churey churey” va hk, marosimlar bilan bo‘g‘liq “Yor yor”, “O‘lan”, “Lapar”, “kelin salom”, yig‘i yo‘qlov, badik kabilarda qadimiy musiqiy namunalar qaror topadi. Musiqiy merosimiz o‘zining serqirraligi bilan boshqa san‘at turlaridan farqlidir. Insoniyatning dunyoqarashi tafakkuri boyigani sari uning musiqasi ham o‘zgarib bordi. Har bir zamonda insoniyat musiqani o‘ziga moslashtirib keldi. Shuning uchun musiqani har kim o‘zicha har xil tushunadi. Kimdir uchun musiqa bu oddiy tovushlar yig‘indisi, kimdirlar uchun esa fizik xodisa namunasi, kimdir uchun hayotini ajralmas bir qismi bo‘lib xizmat qiladi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlariday, ma'naviyat masalasi millat tarixi, axloqiy va diniy qadriyatlar, madaniy meros, an'ana va rasm-rusumlar, milliy mafkura, vatanparvarlik va insonparvarlik, milliy o‘zlikni anglash singari juda ko‘p omillarni o‘z ichiga oladi va pirovardida, inson shaxsini belgilashda asosiy mezon vazifasini bajaradi. [1]

Xalqimiz dunyoda kamdan kam xalqlarda uchraydigan noyob musiqa san‘ati, turli xil xalq o‘yinlari va marosimlariga boy bo‘lib, bu sohada nihoyatda yuksalgan san‘at tarixiga ega. Ular qatoriga xalqimizning ming yillardan buyon milliy qadriyatiga aylanib ketgan milliy musiqasi, xalq o‘yinlari, laparlari, qo‘shiq va aytishuvlarini ham kiritish mumkin. Mustaqillik yillarida ular yanada keng targ‘ib qilinmoqda va o‘rganilmoqda. Bu shubhasiz, jamiyat ma'naviy hayoti va yoshlar barkamolligiga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

O‘rta Osiyoda musiqa, qo‘shiqchilik, raqs kabi san‘atning turli sohaları juda qadimdan rivojlangan. Insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyotlaridan biri bo‘lgan musiqa san‘ati bizning yurtimizda ham shonli va qadimiy tarixga ega. Musiqiy cholg‘u asboblarning yaratilishi insoniyatning ilk tarixi bilan bog‘liq bo‘lib, olimlarning aniqlashicha u paleolitning dastlabki bosqichiga (50–40 ming yil avval) to‘g‘ri keladi. Ular zamonaviy jismoniy turdagi (Homo sapiens) odamga tegishli deb ishoniladi. Umuman olganda, bu davr cholg‘u asboblari musiqa asbobi deb atash qiyin. Boshqacha qilib aytganda, bular yordamida asosan o‘zlariga tushunarli tovushlar chiqarilgan.

Ajdodlarimiz madaniyati tarixida qit‘alararo o‘tuvchi savdo – karvon yo‘li Buyuk Ipak yo‘lining ahamiyati katta bo‘lgan. Ushbu yo‘lining chorrahasida joylashgan yurtimiz qadimlardan oq juda ko‘plab g‘oya, tafakkur, kashfiyotlar tug‘ilganligi tarixiy manbalarda ham qayd qilingan. Bu davrda madaniyat gullab yashanadi, tabiiyki uning tarkibiy qismi bo‘lgan musiqa san‘ati ham o‘zining yuksak cho‘qqisiga ko‘tarildi. Bugungi kunga qadar arxeologlar Evrosiyo hududida 250 dan ortiq musiqaga oid topilmalarni aniqlashdi. Bular naylar, hushtaklar, zarbli cholg‘ular, ratchetlar va boshqalar. Ular tarixini o‘rganish esa bugungi kunda yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yurtboshimizning “O‘zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi maxsus qarori esa aynan ushbu oliygohda o‘zbek xalqining milliy musiqiy merosi va jahon musiqa madaniyati durdonalari negizida musiqa san‘atini rivojlantirish va musiqiy ta’lim tizimini sifat jihatidan yanada ko‘tarishga

qaratilgan. [2] Shuningdek, O'zbek musiqashunos olimlari tomonidan musiqiy merosimiz davrlarga bo'lgan holda bosqichma- bosqich o'rganilib kelinmoqda.

Yurtimizda musiqa madaniyati to'g'risida shohidlik beruvchi topilmalarning eng qadimiysini arxeologlarimiz bronza davriga oid Sopollitepa yodgorligidan topib o'rganishgan. U yerda akademik A.A. Asqarov tomonidan 1969-1973 yillarda qazuv ishlari o'tkazilayotgan paytda musiqa asbobi bo'lgan nay qoldig'ini ham o'rganilgan. [3] Yurtimizdagi yana bir ilk musiqiy topilma Samarqand viloyati Urgut tumani Mo'minobod qishlog'idagi bronza davri (mil.avv. XIII asr)ga mansub qabrdan topilgan. U hayvon suyagidan yasalgan mo'jazzina sivilizatsiya-nay bo'lgan. [4] Uning saqlanib qolgan uzunligi 4,2 sm bo'lib tashqi tomoni hafsala bilan silliqlangan ikki tomoni ko'ndalang kesilgan, o'rtasida esa, romb shaklida teshik bor.

Shu xildagi boshqa topilmalar esa, Samarqandning qadimiy o'rni bo'lgan Afrosiyobdan ham topilgan. Ushbu musiqa asbobi mil.avv. I asrga oid bo'lib, unda bir nechta ud chalayotgan ayollar aks ettirilgan terrakota-haykalchalardir. Bu shahar xorobalarida ochib urganilgan saroylar, xonadonlarning devorlarida ko'plab musiqachilar tasvirlar mavjud. Ulardan birida arfa chalayotgan, g'oyatda bashing kiyingan aslzoda ayol tasvirlangan bo'lsa, boshqa bir suratda musiqachilar guruhi o'z aksini topgan. [5] Bu devoriy suratlar nihoyatda jonli, haqqoniy tarzda berilganligi, ular o'z davrining mashhur musavvirlari tomonidan chizilganligidan dalolat beradi.

Mamlakatimiz hududida eramiz boshlarida madaniy hayot gullab yashnagan bo'lib u keyingi ilk o'rta asrlar davrida ham taraqqiy etib borgan. Arxeologik ma'lumotlar san'at namunalarini ichida musiqa san'ati yanada keng rivoj topib borganligini ko'rsatadi. Bu davrda san'at sohasida Buxoro qiziqchilari, Samarqand naychilari, Toshkent raqqos yigit va raqqosa qizlari bi'an shuhrat topgan edi. Choch raqqoslari ijro etgan mashhur «Choch raqsi» yoki doira chertmasiga imo bilan yelka uchirib tushadigan o'ynoqi «Doira raqsi» Xitoy a'yonlarini maftun etib, ularni hayratga solgan edi. Birgina Buxoro shahrida hunarmandlar tomonidan o'n turdagi cholg'u asboblari yasalgan [6].

Yurtimizdagi musiqa san'ati taraqqiyoti haqida Xitoy manbalarida ham ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. Xitoylik olim Sun Syan yozishicha, V asrdan X asrgacha Samarqandlik sug'diylarning qo'shiqlari, raqslari va musiqalari doimiy ravshda Xitoy imperatorlarining saroylari, shaharlari va qishloqlari ko'chalari bo'ylab taralib turgan. Qadimgi dunyoning mashhur imperatorlari va yuqori mansabdorlarning saroylarida Transoksiya (Markaziy Osiyo) va Sharqiy Turkistondan kelgan musiqachilarga yuksak san'atlari bois yuqori darajada xurmat ko'rsatilgan.

Xulosa qilib aytganda, bugungi sharafliligi erishganimizdan so'ng, har birimiz o'zligimizni anglab borayotgan bir davrda ma'naviyatimizning bir bo'lak bo'lgan, qadimdandan meros bo'lib kelgan milliy musiqiy madaniyatimizga tayanish, an'anaviy qo'shiqlarimizga murojaat qilish tabiiy bir holdir. Bularning barchasi barkamol avlod tarbiyasida, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy musiqa va qo'shiqlarimiz odamlarni hamisha iymonga, mehr-oqibatga, odamiylikka chorlab kelgan. Bugungi kunda ham shu dolzarbligini yo'qotmagan holda mustaqillikka, mehnatkashlar ongini shakllantirish yo'lida, barkamol avlod tarbiyasida vosita sifatida asosiy omillardan bo'lib qolaveradi. Ashula, musiqa, raqs, folklor ijrochiligi san'ati milliy musiqa san'atining xalq hayoti va ijodi bilan chambarchas bog'liq holda paydo bo'lgan va rivojlanib kelgan qadimiy san'at turlaridan hisoblanadi. Ayniqsa, xalqimizning an'anaviy ruhdagi qo'shiqlari o'lmas meros bo'lib, barcha davrlardagidek bugun ham «labbay» deb javob

bermoqda. Lekin shu bilan bir qatorda faqat tarixga sajda qilmay, bugungi kunning ruhiga mos tarzda qo‘shiqalar yaratish esa milliy mafkuramizni rivojlantirishda bosh omillardan bo‘lmish musiqiy san‘at bilan shug‘ullanayotgan barcha mutaxassis va san‘atkorlarga muhim vazifa qilib qo‘yilishi tabiiydir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoyev “O‘zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qarori. // Xalq so‘zi. 8.08. 2017 y.
2. Sh.Ayxodjayeva, o‘zbek musiqasi tarixi. Darslik, Toshkent 2021
3. Аскарлов. А.А.Сапаллитепа. – Тошкент: Фан, 1973.С. 89.
4. Аскарлов А.А. Раскопки могильника эпохи бронзы в Муминабаде // ИМКУ – Тошкент: 1969.№8. С.59.
5. Hasanova Navbahor Hamraqulovna. (2020). Bo'lajak o'qituvchilarning o'zbek mumtoz musiqasida kasbiy malakasini oshirish muammolari. *Xalqaro ilg'or fan va texnologiyalar jurnali*,29 (08), 3489-34953495. [Http://sersec.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558](http://sersec.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558)
6. Hasanova, Navbahor. (2020). METHODS AND WAYS TO DEVELOP THE MUSICAL FEELINGS OF STUDENTS IN TTTE LESSONS OF MUSIC EUITURE. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(42). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5579
7. Khasanova,Navbakhor (2020) “The role of music lessons in the formation of national and intercultural competence in students.”*Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*.Vol.2020 :Iss.2. Article 15 :<https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss2/15>
8. N. Hasanova O‘zbek milliy musiqa merosi taraqqiyotida xotin-qizlarningo‘rni. Актуальный вызыви современной науки IX xalqaro ilmiy konferensiya 26-27 yanvar 2017 yil.
9. Бердимуродов А.Э. Амир Темур ва Темурийлар давлати пойтахти. Шарк юлдузи. № 6. Тошкент, 2020.Б. 74.
10. Мухаммаджонов А.Р. Ўзбекистон тарихи. Тошкент, Ўқитувчи. 2000. Б.

O‘ZBEK MUSIQASHUNOSLIGI TARIXIY TARAQQIYOT BOSQICHLARI

*Inomova Muyassar Furqat qizi,
JDPU musiqa ta’limi va san’at mutaxassisligi II bosqich magistranti.
Abduxalimova Go‘zal Hazratqulovna,
Jizzax shahar 29- DMTT da musiqa rahbari.*

Annatotsiya: Mualliflar ushbu maqolasida musiqaning paydo bo‘lish tarixi, uning insoniyat ma’naviy, madaniy hayotidagi o‘rni va tarixiy taraqqiyot bosqichlari haqida ma’lumotlar bergan.

Kalit so‘zlar: musiqa, qo‘shiqchilik, raqs naylar, hushtaklar, zarbli cholg‘ular, ratchetlar, sivilizatsiya, terrakota-haykalchalari, raqqoslar, «Doira raqsi».

Istiqlolga erishgach, umummilliy qadriyatlarimiz, urf-odat va qadimiy an‘analarimizga bo‘lgan e’tibor va ularni asrab –avaylash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Musiqa insoniyat bilan necha ming yillardan buyon hamrohlikda kelmoqda. Ma'lumki, insoniyatning ma'naviy

va ruhiy ozuqasi bo‘lmish musiqiy madaniyatimiz, an’anaviy qo‘shiqlarimiz, maqom ijrolari hamisha xalqimizning kundalik hayotida muhim o‘rniga ega bo‘lib kelgan. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganlariday, ma’naviyat masalasi millat tarixi, axloqiy va diniy qadriyatlar, madaniy meros, an’ana va rasm- rusumlar, milliy mafkura, vatanparvarlik va insonparvarlik, milliy o‘zlikni anglash singari juda ko‘p omillarni o‘z ichiga oladi va pirovardida, inson shaxsini belgilashda asosiy mezon vazifasini bajaradi [1].

Xalqimiz dunyoda kamdan kam xalqlarda uchraydigan noyob musiqa san’ati, turli xil xalq o‘yinlari va marosimlariga boy bo‘lib, bu sohada nihoyatda yuksalgan san’at tarixiga ega. Ulardan xalqimizning musiqiy madaniyati juda qadim tarixga ega bo‘lib, ushbu san’at turi taraqqiyot bosqichlari davomida xalq bastakorlik usullari, folklor - havaskorlik musiqiy merosi, an’anaviy kasbiy musiqa kabi shakl va uslub jixatidan bir-biriga yaqin ijrochilik yo‘nalishlari bir-birini to‘ldirib, sayqallanib keldi. Ushbu musiqiy merosimiz bugungi kunda ham ma’naviy madaniyatimizning bir bo‘lagi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Insoniyatning dunyoqarashi tafakkuri boyigani sari uning musiqasi ham o‘zgarib bordi. Har bir zamonda insoniyat musiqani o‘ziga moslashtirib keldi. Shuning uchun musiqani har kim o‘zicha har xil tushunadi. Kimdir uchun musiqa bu oddiy tovushlar yig‘indisi, kimdir uchun esa fizik xodisa namunasi, kimdir uchun hayotini ajralmas bir qismi bo‘lib xizmat qiladi. Kundalik hayotimizdagi faoliyatlar natijasida ko‘plab musiqa ijrochilik namunalari yuzaga keldi. Xususan, ov qilishda hayvonlarni jalb etishdagi qichqiriq va hushtaklar, terimchilikda mehnat jarayonlaridagi “mas”, “Ho‘p mayda”, “Ho‘sh ho‘sh”, turey turey, churey churey” va hk, marosimlar bilan bo‘g‘liq “Yor yor”, “O‘lan”, “Lapar”, “kelin salom”, yig‘i yo‘qlov, badik kabilarda qadimiy musiqiy namunalar qaror topadi. Musiqiy merosimiz o‘zining serqirraligi bilan boshqa san’at turlaridan farqlidir.

O‘rta Osiyoda musiqa, qo‘shiqchilik, raqs kabi san’atning turli sohalari juda qadimdan rivojlangan. Insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyotlaridan biri bo‘lgan musiqa san’ati bizning yurtimizda ham shonli va qadimiy tarixga ega. Musiqiy cholg‘u asboblarning yaratilishi insoniyatning ilk tarixi bilan bog‘liq bo‘lib, olimlarning aniqlashicha u paleolitning dastlabki bosqichiga (50–40 ming yil avval) to‘g‘ri keladi. Ular zamonaviy jismoniy turdagi (Homo sapiens) odamga tegishli deb ishoniladi. Umuman olganda, bu davr cholg‘u asboblari musiqa asbobi deb atash qiyin. Boshqacha qilib aytganda, bular yordamida asosan o‘zlariga tushunarli tovushlar chiqarilgan.

Ajdodlarimiz madaniyati tarixida qit’alararo o‘tuvchi savdo – karvon yo‘li Buyuk Ipak yo‘lining ahamiyati katta bo‘lgan. Ushbu yo‘lining chorrahasida joylashgan yurtimiz qadimlardan oq juda ko‘plab g‘oya, tafakkur, kashfiyotlar tug‘ilganligi tarixiy manbalarda ham qayd qilingan. Bu davrda madaniyat gullab yashanadi, tabiiyki uning tarkibiy qismi bo‘lgan musiqa san’ati ham o‘zining yuksak cho‘qqisiga ko‘tarildi. Bugungi kunga qadar arxeologlar Evrosiyo hududida 250 dan ortiq musiqaga oid topilmalarni aniqlashdi. Bular naylar, hushtaklar, zarbli cholg‘ular, ratchetlar va boshqalar. Ular tarixini o‘rganish esa bugungi kunda yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yurtboshimizning “O‘zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi maxsus qarori esa aynan ushbu oliygohda o‘zbek xalqining milliy musiqiy merosi va jahon musiqa madaniyati durdonalari negizida musiqa san’atini rivojlantirish va musiqiy ta’lim tizimini sifat jihatidan yanada ko‘tarishga qaratilgan. [2] Shuningdek, O‘zbek musiqashunos olimlari tomonidan musiqiy merosimiz davrlarga bo‘lgan holda bosqichma- bosqich o‘rganilib kelinmoqda.

Yurtimizda musiqa madaniyati to'g'risida shohidlik beruvchi topilmalarning eng qadimiysini arxeologlarimiz bronza davriga oid Sopollitepa yodgorligidan topib o'rganishgan. U yerda akademik A.A. Asqarov tomonidan 1969-1973 yillarda qazuv ishlari o'tkazilayotgan paytda musiqa asbobi bo'lgan nay qoldig'ini ham o'rganilgan. [3] Yurtimizdagi yana bir ilk musiqiy topilma Samarqand viloyati Urgut tumani Mo'minobod qishlog'idagi bronza davri (mil.avv. XIII asr)ga mansub qabrdan topilgan. U hayvon suyagidan yasalgan mo'jazgina sivizgi-nay bo'lgan. [4] Uning saqlanib qolgan uzunligi 4,2 sm bo'lib tashqi tomoni hafsala bilan silliqlangan ikki tomoni ko'ndalang kesilgan, o'rtasida esa, romb shaklida teshik bor.

Shu xildagi boshqa topilmalar esa, Samarqandning qadimiy o'rni bo'lgan Afrosiyobdan ham topilgan. Ushbu musiqa asbobi mil.avv. I asrga oid bo'lib, unda bir nechta ud chalayotgan ayollar aks ettirilgan terrakota-haykalchalardir. Bu shahar xorobalarida ochib urganilgan saroylar, xonadonlarning devorlarida ko'plab musiqachilar tasvirlar mavjud. Ulardan birida arfa chalayotgan, g'oyatda bashing kiyingan aslzoda ayol tasvirlangan bo'lsa, boshqa bir suratda musiqachilar guruhi o'z aksini topgan. [5] Bu devoriy suratlar nihoyatda jonli, haqqoniy tarzda berilganligi, ular o'z davrining mashhur musavvirlari tomonidan chizilganligidan dalolat beradi.

Mamlakatimiz hududida eramiz boshlarida madaniy hayot gullab yashnagan bo'lib u keyingi ilk o'rta asrlar davrida ham taraqqiy etib borgan. Arxeologik ma'lumotlar san'at namunalarida ichida musiqa san'ati yanada keng rivoj topib borganligini ko'rsatadi. Bu davrda san'at sohasida Buxoro qiziqchilari, Samarqand naychilari, Toshkent raqqos yigit va raqqosa qizlari bi'an shuhrat topgan edi. Choch raqqoslari ijro etgan mashhur «Choch raqsi» yoki doira chertmasiga imo bilan yelka uchirib tushadigan o'ynoqi «Doira raqsi» Xitoy a'yonlarini maftun etib, ularni hayratga solgan edi. Birgina Buxoro shahrida hunarmandlar tomonidan o'n turdagi cholg'u asboblari yasalgan [6]. Yurtimizdagi musiqa san'ati taraqqiyoti haqida Xitoy manbalarida ham ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. Xitoylik olim Sun Syan yozishicha, V asrdan X asrgacha Samarqandlik sug'diylarning qo'shiqlari, raqslari va musiqalari doimiy ravshda Xitoy imperatorlarining saroylari, shaharlari va qishloqlari ko'chalari bo'ylab taralib turgan. Qadimgi dunyoning mashhur imperatorlari va yuqori mansabdorlarning saroylarida Transoksiana (Markaziy Osiyo) va Sharqiy Turkistondan kelgan musiqachilarga yuksak san'atlari bois yuqori darajada xurmat ko'rsatilgan.

Xulosa qilib aytganda, bugungi sharafligi istiqbolga erishganimizdan so'ng, har birimiz o'zligimizni anglab borayotgan bir davrda ma'naviyatimizning bir bo'lagi bo'lgan, qadimdandan meros bo'lib kelgan milliy musiqiy madaniyatimizga tayanish, an'anaviy qo'shiqlarimizga murojaat qilish tabiiy bir holdir. Bularning barchasi barkamol avlod tarbiyasida, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy musiqa va qo'shiqlarimiz odamlarni hamisha iymonga, mehr-oqibatga, odamiylikka chorlab kelgan. Bugungi kunda ham shu dolzarbligini yo'qotmagan holda mustaqillikka, mehnatkashlar ongini shakllantirish yo'lida, barkamol avlod tarbiyasida vosita sifatida asosiy omillardan bo'lib qolaveradi. Ashula, musiqa, raqs, folklor ijrochiligi san'ati milliy musiqa san'atining xalq hayoti va ijodi bilan chambarchas bog'liq holda paydo bo'lgan va rivojlanib kelgan qadimiy san'at turlaridan hisoblanadi. Ayniqsa, xalqimizning an'anaviy ruhdagi qo'shiqlari o'lmas meros bo'lib, barcha davrlardagidek bugun ham «labbay» deb javob bermoqda. Lekin shu bilan bir qatorda faqat tarixga sajda qilmay, bugungi kunning ruhiga mos tarzda qo'shiqlar yaratish esa milliy mafkuramizni rivojlantirishda bosh omillardan bo'lmish

musiqiy san'at bilan shug'ullanayotgan barcha mutaxassis va san'atkorlarga muhim vazifa qilib qo'yilishi tabiiydir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoyev "O'zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarori. // Xalq so'zi. 8.08. 2017 y.
2. Sh.Ayxodjayeva, o'zbek musiqasi tarixi. Darslik, Toshkent 2021
3. Аскарлов. А.А.Сапаллитепа. – Тошкент: Фан, 1973.С. 89.
4. Аскарлов А.А. Раскопки могильника эпохи бронзы в Муминабаде // ИМКУ – Тошкент: 1969.№8. С.59.
5. Бердимуродов А.Э. Амир Темур ва Темурийлар давлати пойтахти. Шарк юлдузи. № 6. Тошкент, 2020.Б. 74.
6. Мухаммаджонов А.Р. Ўзбекистон тарихи. Тошкент, Ўқитувчи. 2000. Б. 48.
7. Muminova Muqaddas Riskulovna Development And Current Status Of Uzbek Pop Music In Modern Approaches And Innovations Of Teaching The Science Of Music Culture International Journal of Advanced Science and Technology Vol. 29, No. 8, (2020) <https://t.me/joinchat/> - Music teacher, <https://infourok.ru> - music lessons
8. Muminova Muqaddas Riskulovna *International Journal of Mechanical Engineering*. The Innovative Technologies Of Teaching In Musical Edukational Establishments 1764-1767-betlar. 2022- йил.
9. Muminova Muqaddas Riskulovna Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. THE ROLE OF SPORT ACTIVITIES, GAMES AND COMPETITIONS IN THE NURTURE OF 6-7 YEARS OLD CHILDREN <https://uzjournals.edu.uz/tziuj68-78betlar> 2022
10. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlarda pedagog kreativligi. "Yangilanayotgan O'zbekistonda fan, ta'lim va innovatsiya uyg'unligi" mavzusidagi 6-son 2-qism Respublika ko'p tarmoqli ilmiy konferensiyasi VIII bo'lim Toshkent 2021. 677 bet. Udk. 001.895 (575.1).
11. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlar o'qituvchisining kreativligi. Педагогические и лингвопсихологические особенности развития, формирования и становления личности врача. Сборник тезисов Международная конференции. СамГМИ, Самарканд 5 мая 2021 год
12. Urinova S.Sh. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishning nazariy asoslari. "The best innovator in science" xalqaro maqolalar tanlovi to'plami. Organized by Innovative Academy. Tashkent February 5, 2022. Pg 811. <https://zenodo.org/record/5979621#.YpC2PKhBxD8>

TALABALARGA VOKAL SAN'ATIDAN AMALIY MASHG'ULOTLARNI OLIB BORISHNING MAZMUNI VA MOHIYATI

*Jumayev Axmadjon - JDPU katta o'qituvchi,
Maxammatov Abdumannon – konsertmeyster.*

Annotatsiya: Talabalarga vokal son'ati bo'yicha ta'lim – tarbiya berish jarayonida vokal san'ati vositasida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining estetik va badiiy didini tarbiyalash, ularning ijrochilik qobiliyatini rivojlantirishda uzluksiz talabchanlik bilan ish olib borish, ularni

o‘zbek va chet el kompozitorlari tomonidan yaratilgan nodir asarlar bilan tanishtirish, professional uslubda kuylash malakalarini shakllantirishning yo‘l – yo‘riqlari, usul va vositalari qisqacha yoritilgan.

Tayanch iboralar: o‘zbek kompozitorlarining, chet el kompozitorlari, vokal san’ati, Xonandalik ovozi, registr, nafas olish, artikulyatsiya apparati, ovoz xujumlari, Yorqinlik, g‘uzallik, ashulla aytish mahorati.

Talabalarning ovoz imkoniyatlari va vokal tayyorgarligi turlicha bo‘lganligini hisobga olgan holda, dasturning repertuarlar ro‘yxatiga murakkabligi turlicha bo‘lgan asarlar kiritiladi. Lekin barcha kurslarda vokaliz berib borish zarur, chunki ijrochining ovozi sayqallanishiga, texnik-ijrochilik mahorati olishiga yordam beradi. Ro‘yxatga kiritilgan asarlarini talabani ovoz diapozoniga mos tonlikka transpozitsiya qilib berish tavsiya etiladi.

Uzluksiz o‘tkaziladigan akademik konsertlar, turli xil ko‘rik-tanlovlar, ya’ni “O‘zbekiston – vatanim manim”, “Respublika qo‘shiq bayrami” va boshqa yosh vokalistlar konkurslarida qatnashishlari talabalarni vokal malakalarini mustahkam egallashlariga yordam beradi. Romans yoki musiqali drama, operalardan ariyalarni ijro etish uslublarini o‘rganish, uzluksiz tarzda ma’lum ketma-ketlikda, oddiydan murakkabga borishini ta’minlash zarur.

Romanslar bir ovoz uchun yozilgan, turli mavzu, xarakter va tuzulishdagi vokal kamer asari bo‘lishi mumkin. Bu jam jahon va o‘zbek kompozitorlari asarlarida yaxshi rivojlangandir. O‘zbekiston kompozitorlari omma o‘rtasida tarqalgan ashulalar ohangida romanslar yaratib, bu janrni yanada boyitdilar. Ular asosan Navoiy, Furqat, Muqimiy g‘azallariga S.Yudakov, M.Burxonov, M.Ashrafiy, T.Sodiqov va boshqa kompozitorlar tomonidan yaratilgan. Talabalar dasturida qo‘llaniladigan musiqiy drama va operalardan ariyalar mukammallashgan keng ko‘lamda, lirik va dramatik mazmunli asarlar hisoblanadi.

Bu asarlar talabalarning vokal-texnik bilimlarini yanada chuqurroq egallashi, kosta-abdominal, ya’ni aralash nafas ustida ishlashi, yumshoq hujum mashqi, aniq intonatsiya, artikulyatsiya, legato, stakkato, harakatchanlik, kantilena, arpedjio, filirovka uslublarini o‘rganish, asarning badiiy tomonlarini mukammal o‘rganishda katta ahamiyatga ega bo‘lib, ashula aytish mahoratini oshiradi.

Vokal san’atidan amaliy mashg‘ulotlarni olib borishdan asosiy maqsad – vokal san’ati vositasida bo‘ljak musiqa o‘qituvchilarining estetik va badiiy didini tarbiyalash, ularning ijrochilik qobiliyatini rivojlantirishda uzluksiz talabchanlik bilan ish olib borish, ularni o‘zbek kompozitorlarining oldingi va yangi asarlari, qardosh xalqlar vokal asarlari, shuningdek, chet el kompozitorlari tomonidan yaratilgan nodir asarlar bilan tanishtirish, professional uslubda kuylash malakalarini shakllantirishdan iboratdir.

Dars jarayonida talabalarga ta’lim va tarbiya berish uchun quyidagi vazifalar, ya’ni, ularni dunyo standartlariga javob beradigan chuqur bilimli, yuqori malakali mutaxassis qilib tayyorlash, talabalarni badiiy jihatdan rivojlantirish, ularga vokal texnikasini, uning sirlarini o‘rgatish. Shu bilan birga vokal malakalarini hosil qilish, vokal pedagogikasining sistemalilik, izchillik, oddiydan murakkabga o‘tish, individual yondashish kabi qator didaktik tomonlari bilan tanishtirish.

Talabalar bilimiga qo‘yiladigan talablar

Vokal sir-asrorlarini chuqur o‘rganishi, yuqori professional uslubda kuylay olishi uchun talaba quyidagi malaka va ko‘nikmalarni egallashi lozim:

- nafasni qovurg‘aning pastiga, qoringa olish, shovqinsiz nafas olish va uni tejimli sarflash;

barcha registrlarda yuqori holatda ovoz hosil qilib kuylay olish;

sof va toza kuylash;

- soʻzlarni aniq, burro talaffuz qilish, unli tovushlarni choʻzib, ravon ovoz qosil qilish, soʻzlarni orfoepiya qoidalariga muvofiq talaffuz qilib kuylash;

- turlicha ovoz hujumlari bilan kuylay olish, asosan, mayin hujum afzalligidan foydalanish;

- kuylashda ovoz dinamikasini hosil qila olish, musiqa asarlari jummlarini badiiy ijro etishda undan unumli foydalana bilish;

- legato va stakkatoda kuylash;

- ijrochilik kantilenasi rechitativ uslubdan foydalana bilish;

- vokal asarlarini musiqa asbobida oʻzi chalib kuylash;

- turli uslub, turli xarakterdagi asarlarni taʼsirli qilib kuylay olish.

Talabalar bilan ishlash jarayonida “Xonandalik ovozi” tushunchasi uning insonning kuylash qobiliyati bilan bogʻliqligi, nutqdan farqli oʻlaroq, xonandalik ovozi tovushlari aniq balandlikka ega, uzoq davom etishi mumkinligi haqida tushuntirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ular qoʻshiq kuylash jarayonida unilarda namoyon boʻladi. Xonandalik ovozidan inson bolalikda musiqiy eshitish va ovoz apparati rivojlanishi darajasiga koʻra foydalana boshlaydi.

Maishiy (qoʻyilmagan) va kasbiy (professional qoʻyilgan) xonandalik ovozi farqlanadi. Ovozni qoʻyish deb uni professional qoʻllash maqsadida moslashtirish va rivojlantirish tushuniladi. Yorqinlik, goʻzallik, jarang kuchi va davomiyligi, diapazon kengligi va toliqmaslik, noziklik kabi sifatlar, koʻp jihatdan ovoz apparati tabiiy xossalari bilan belgilanadi va ovozni qoʻyish jarayonida rivojlantirilishi mumkin. Ovoz opera-konsert kuylash uchun, xalq qoʻshiqlari, estrada kuylash va sh.k. uchun qoʻyiladi.

Xonandalik ovozini belgilovchi sifatlar – tembr goʻzalligi va tovushni uzoq tutib tura olish. Opera-konsert ovoz katta zallarda yaxshi eshutilishi, yaʼni “parvozgacha ega” boʻlishi kerak. Jaranglik, metallik ovozlar parvozli. Metallik va parvozlilik ovoz spektirida yuqori opertonlar guruhi, yuqori xonandalik formantash mavjudligi bilan belgilanadi. Ovoz tarangi dumaloqligi va yumshoqligi spektrning past qismi obertonlari kuchlanishiga bogʻliq. Yuqori va past xonandalik formantalarini, shuningdek vibrato (sekundiga 5-6 martali pulsasiya) ovozning goʻzalligi va quyuluvchan xarakterini belgilaydi.

Xonandalik ovozining muhim sifati uning kuchidir. Opera kuylash kuchli, katta zalni toʻldirishga qodir va orkestr toʻrligi fonida eshutiladigan ovozni talab etadi. Ovoz tabiatan registrlarga ega. Registr deb, tovushlarning

tembri boʻyicha bir xillik qatori tushuniladi, u yagona fiziologik mexanizm bilan hosil qilinadi. Erkaklar ovozida diapazonning pastki qismida koʻkrak va yuqori qismida faltset registr farqlanadi. Koʻkrak registri taranglar va boyligi ajralib turadi.

Talabalarga qoʻshiq oʻrgatish jarayonida tovush paydo qilish organlari uning tuzilishi jarayoni haqida bilim berish eng dolzarb masala boʻlib, bu - Boʻgʻiz va burun boʻshliqlari nafas olish naycha yoʻllari va oʻpka tovush hosil qiluvchi aʼzolar hisoblanadi. Hiqildoq nafas olish naychasi (traxeya) va halqum orasida joylashgan. Nafas yoʻlining boʻshligʻi tikkasiga kesilgan holda qum soatiga oʻxshaydi. hiqildoq ichidan shilimshiq parda bilan qoplangan va toʻrtta tomoq togʻayidan iborat. Ular qalqonsimon, ikkita qora taʼlat va barmoqsimon boʻladi. Ular oʻzaro bogʻlangan va mushaklar bilan taʼminlangan, tomoq togʻaylari yoshiga qarab sekin - asta suyakka aylanib boradi. Boʻgʻizning yuqori boʻlimi - ustki boylam boʻshligʻi - yolqon tovush boylamigacha choʻzilgan.

Hiqildoqning pastki boylam boʻshligʻi barmoqsimon togʻayning pastki chekkalarigacha yetadi, qalqonsimon togʻay tovush paychasining uzunligiga bogʻliq boʻlib, erkaklarda

ayollarnikiga nisbatan uzunroq, kuchli rivojlangan. Bu hiqildoqning kattaligiga ta'sir qiladi. Ayollar hiqildoqining eng kattasi taxminan erkaklardagi eng kichkina bo'g'iz bilan teng. Hiqildoq til ostidagi harakatchan suyakka maqamlangani va umurtqa oldi muskul pardasi bilan bog'langani sababli hiqildoq asta va faol harakat qilishi mumkin.

Yolg'on tovush boylamlari ashula aytishda qatnashmaydi, lekin ular tarkibida suyuqlik bilan ta'minlaydigan bezlar bo'lib, ular haqiqiy tovush paychasini namlab turadi. Haqiqiy tovush boylamlarining qiryoqlari sadaf rangga ega. Tovush paychasining ishida ikki guruh muskullar: ichki, tashqi cho'ziq muskullar tovush ishtirok etadi. Mazkur guruhdagilarning har bin ma'lum vazifani bajaradi. Tovush mushaklari ko'krak registrida tovush boylamlarining uzunligini, yo'g'onligini, kengligini o'zgartiradi, tovush oralig'ini kengaytiradi va toraytiradi.

Tinch nafas olinayotganda boylamlar orasida uchburchakli keng darcha ochiladi. Tovush darchasi orqali havo bemalol keladi. Hiqildoqni ovqat tushib qolishidan himoya qilish uchun yutingan vaqtda tomoq uchburchakli kemirchak plastinka hiqildoq qopqog'i bilan berkitiladi.

Burunning tarkibi suyakli va kemirchakli skeletdan iborat. Burun bo'shlig'i shilimshiq pardalar bilan qoplangan, bir - biriga teng ikkita yarimlikdan iborat bo'lib, bu joy burun chig'anog'i deyiladi va ularning ostidan bir nechta burun bo'shlig'idagi chiqish joylari ochiladi: peshonali, yiringli, panjarasimon.

Halqum naysimon oraliq tushunilib, yuqorisi bosh miyaning tubi bilan chegaralanadi, pasti esa hiqildoq va ovqat yo'liga o'tadi. Oldindan unga og'iz va burun bo'shlig'i o'tadi, natijada uchta alohida anatomik kimyo paydo bo'ladi: burun - halqum bo'shlig'i bo'g'izi, og'iz - halqum bo'shlig'i bo'g'izi, va halqumning o'zi.

Esnash yuqoridan tanglay pardalari bilan, pastdan esa ikki tomonlama tanglay qutachasi orqali tilgacha chegaralangan. Tanglay pardasi shilimshiq pardali plastinka bilan qoplangan va orqaga davom etgan qattiq tanglay hisoblanadi. Kichkina tilcha yumshoq tanglay yrtasida joylashgan, o'zining shaxsiy mushaklariga ega.

Hiqildoq nafas yo'ligacha davom etgan - naycha halqali tomoq kemirchaklaridan tarkib topgan. Traxeya ikkita yirik nafas yo'liga bo'linadi, u hamma narsaning bo'g'izigacha maydalab ikkita o'pka hosil qiladi. Ko'krak bo'shlig'i qorin bo'shlig'idan diafragmasi bilan ajratilgan. Bu kuchli mushak orqasidan umurtqa pog'onasigacha, oldindan esa oftob o'ramasi bilan mustahkamlangan.

Vokal musiqa pedagogikasining asosiy tamoyil (prinsip) va uslublari ta'im berish jarayonida muhim o'ringa ega, chunki u kasb yuzasidan olinayotgan bilimga amaliy tushuncha bera oladi. Talabalarga vokal san'atini o'rgatish jarayonida hamma xonanda-o'qituvchilar to'rtta bosh tamoyilga asoslanadi:

Ta'limda ketma-ketlik va uzluksizlik tamoyili. Bu umumpedagogik tamoyil bo'lib, u ta'lim jarayonida soddadan-murakkabga asoslanadi. Uzluksizlik hamma narsada zarur - xonandaning diapazonini kengaytirishda ham, mashqni murakkablashtirishda ham, repertuar tanlashda, ruhiy kechinmada - lirikadan dramatik asarlarga (his - tuyg'ular cho'qqisiga), repertuarni kuchaytirilishi ovozni yo'qolishiga olib boradi. Talabalar bilan mashqulotlarda ovozning sifati, toblanishi, tebranishi, uzoqqa yetishi haqida qayqurish kerak. Repertuarni kuchaytirishga yo'l qo'ymaslik kerak.

Badiiy - musiqa va vokal texnik tamoyillarining birligi. Xonandani qoida bo'yicha tarbiyalash uchun bir vaqtning o'zida ikki muammoni hal qilish talab qilinadi: ijro etish apparatini qurish - demak xonandani professional ovozini hosil qilish va unda aytishni mashq qilish. Bu ikki masala bir vaqtda bir - biriga bog'liq holda amalga oshiriladi. Har qanday, hattoki, eng sodda ko'nikmani elementar ijro etish uchun avvalo, ovozga ishlov berish, shundan

so'ng ijro mahoratini egallash kerak, deb o'ylagan katta xatoga yo'l qo'yadi. Busiz aktyor - xonandani tarbiyalash mumkin emas.

Alohida yondoshuv tamoyili. Xonanda - bu o'ziga xos musiqiy asbob. Hammasi juda alohidalikni talab qiladi. O'zgaruvsiz (dogmatik) ko'rsatmalar vokal pedagogikasiga zarar yetkazadi. Har bir o'quvchining imkoniyat darajasi har xil bo'ladi, chunki uning ovozi kuchli va chidamliligi shaxsiy xarakteriga bog'liq. Ayniqsa, uning ruhiy xususiyatlarini bilish va ularga ahamiyat berish, ovozga ortiq ruhiy ta'sir ko'rsatmaslik kerak. O'quvchi xakteri hamma sohada mustaqil ravishda ovozning mayinligida ham, kengligida ham, quvvati, chidamliligi, sifatida hamda iste'dodli, serg'ayrat, hayoli, irodali yoshlarda ochiq - oydin namoyon bo'ladi. Shu sababli darslarni yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda o'tkazish kerak.

4. Muntazam mukammallikka erishish tamoyili. Bu tamoyil ohirgi 15 yildan beri ovoza qilingan. Agar o'quvchi o'z ustida mustaqil ravishda shug'ullanmasa pedagog mashg'ulotlarida bergan bilimning o'quvchiga foydasi bo'lmaydi. Ta'limning so'nggi jarayonlarida talabning mustaqil tayyorlanishiga alohida ahamiyat beriladi.

Tamoyil – bu asosiy g'oya, uslub esa maqsadga erishish yo'li. Vokal pedagogikasida quyidagi uslublar mavjud:

Sozli; Tajribaga asoslanish (emperik).

Bir markazga ega bo'lish (konsentrik) - Glinka uslubi.

Primar tonli - nemis vokal maktabi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. И.А.Каримов, “Баркамол авлод орзуси”. Т.: Узбекистон 1999 й.
2. Sh. M. Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birga barpo etamiz. T. O'zbekiston. 2017 yil.
3. Hasanova Navbahor Hamraqulovna. (2020). Bo'lajak o'qituvchilarning o'zbek mumtoz musiqasida kasbiy malakasini oshirish muammolari. *Xalqaro ilg'or fan va texnologiyalar jurnali*, 29 (08), 3489-34953495. [Http://sersec.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558](http://sersec.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558)
4. Hasanova, Navbahor. (2020). METHODS AND WAYS TO DEVELOP THE MUSICAL FEELINGS OF STUDENTS IN TTTE LESSONS OF MUSIC EUITURE. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(42). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5579
5. Khasanova, Navbahor (2020) “The role of music lessons in the formation of national and intercultural competence in students.” *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*. Vol.2020 :Iss.2. Article 15 :<https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss2/15>
6. N. Hasanova O'zbek milliy musiqa merosi taraqqiyotida xotin-qizlarning o'rni. Актуальный вызыви современной науки IX xalqaro ilmiy konferensiya 26-27 yanvar 2017 yil
7. Muminova Muqaddas Riskulovna Development And Current Status Of Uzbek Pop Music In Modern Approaches And Innovations Of Teaching The Science Of Music Culture *International Journal of Advanced Science and Technology* Vol. 29, No. 8, (2020) <https://t.me/joinchat/> - Music teacher, <https://infourok.ru> - music lessons
8. Muminova Muqaddas Riskulovna *International Journal of Mechanical Engineering*. The Innovative Technologiyes Of Teaching In Musical Edukational Establishments 1764-1767-betlar. 2022- йил.
9. Muminova Muqaddas Riskulovna *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*. THE ROLE OF SPORT ACTIVITIES, GAMES AND COMPETITIONS IN

10. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlarda pedagog kreativligi. “Yangilanayotgan O‘zbekistonda fan, ta’lim va innovatsiya uyg‘unligi” mavzusidagi 6-son 2-qism Respublika ko‘p tarmoqli ilmiy konferensiyasi VIII bo‘lim Toshkent 2021. 677 bet. Udk. 001.895 (575.1).

11. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlar o‘qituvchisining kreativligi. Педагогические и лингвопсихологические особенности развития, формирования и становления личности врача. Сборник тезисов Международная конференции. СамГМИ, Самарканд 5 мая 2021 год

12. О.Иброхимов, “Муסיқа” 4-синф учун дарслик. Т.: 2011 й.

13. Р.Турсунов, “Ашула ва рақс ансамбли билан ишлаш услубияти”, КХК коллежлари учун дарслик. Т.: 2002 й.

14. Omonov X.S. Vokal va zamonaviy musiqa. Т. 2020 у.

MILLIY MUSIQIY MEROS NAMUNALARIDA ESTETIK TARBIYADA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Jabborova Muattar. JDPU magistranti

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek xalqining milliy musiqa merosidan yoshlarni estetik madaniyatini shakllantirish yo‘lida foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari, ularni ta’lim jarayonida qo‘llash imkoniyatlari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: musiqa, mumtoz, ta’lim, tarbiya, madaniyat, meros, xalq kuylari.

O‘zbek xalqining boy tarixi, madaniyati, ma’naviy-ma’rifiy an’analari o‘zida xalqi ruhiyatini to‘laqonli aks ettirishi, o‘ziga xos turmush tarzi, hayotiy falsafasini ifoda etish imkoniyati bilan ijtimoiy-pedagogik, axloqiy va estetik tarbiya tizimida foydalanish bo‘yicha samarali vosita sanaladi.

Insonning shaxs sifatida shakllanishida uning g‘oyaviy, madaniy sifatlari muhim o‘rin tutadi. Bu sifatlar ta’lim- tarbiyaning barcha yo‘nalishlari bilan chambarchas bog‘liq bolib, estetik tarbiyaga daxldor pedagogik- murabbiylar, tarbiyachilarning umumiy holda uzluksiz takomillashtirib borishlarini taqozo etadi. Bu o‘rinda musiqa san’ati, eng birinchi galda xalq hayotining badiiy aks etuvchi xalq musiqasining imkoniyatlari beqiyosdir.

Har bir jamiyatning o‘z madaniyati va ma’naviy omillari mavjud bo‘lgani singari bizning xalqimizning milliy qadriyatlari tizimida xalq musiqasi yangi jamiyat bunyodkorlarini tarbiyalab yetishtirishda eng asosiy omillardan hisoblanadi. Bu jihatdan xalqimizning o‘tmishi, urf-odat va an’analari, madaniy-musiqiy merosini o‘rganish, tarbiya va ta’lim tizimida uning imkoniyatlaridan ta’limiy tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish dolzarb pedagogik vazifalaridan hisoblanadi. Umumta’lim maktablarining musiqa madaniyati darslarida oquvchilarni xalq musiqasi namunalari bilan har tomonlama chuqur tanishtirib borish ularda milliy qadriyatlarni e’zozlash, o‘z xalqi, Vataniga sodiq insonlar bo‘lib yetishishlarida muhim tarbiyaviy ta’sirchan vosita bolib xizmat qiladi. Umumtalim maktablarida o‘qitiladigan musiqa madaniyati darslarini kuzatuvlarimizda shu narsaga amin boldikki, aksariyat o‘quvchilarining xalq musiqasi, uning janri va shakllari, ijrochilik uslublari, mashhur ijrochilari, an’anaviy xususiyatlari, tinglash va kuylash bo‘yicha malakalarini qoniqarli deb bo‘lmaydi. Shulardan kelib chiqqan holda maktab musiqa darslarida o‘quvchilarni xalq musiqa merosi namunalari

bilan izchil tanishtirib borish, beriladigan nazariy bilimlar va amaliy tushunchalar mazmunini belgilaydi. Musiqa madaniyati fani bo'yicha davlat ta'lim standarti va o'quv dasturida bu mezonlarga yetarlicha ta'rif berilgan bo'lsada, amaliy faoliyatda ular ko'ngildagidek holda bajarilmayapti deyishga har jihatdan haqlimiz. O'quvchilarga xalq musiqasi bo'yicha beriladigan kompleks bilim va tushunchalar mazmunini quyidagicha bo'lishi didaktik jihatdan to'g'ri boladi:

- xalq musiqasi namunalari o'quvchilarning ma'naviy olami hamda xalq musiqasini tinglash va kuylashga qiziqishlarini shakllantirish;

- xalq musiqasi namunalari ularning ma'naviy olami va estetik madaniyatiga muayyan darajada ta'sir ko'rsatish;

- xalq musiqasi, uning turli yunalishdagi janrlari, ijrochilik uslublari, an'analari, kuy-qoshiqlarining tuzilishi, qaysi hududlar bilan bogliqligi haqida tushuncha berish imkoniyatiga egaligi:

- o'quvchilarda chet el musiqasi ta'sirida vujudga kelgan yengil-yelpi, mazmunan sayoz ohanglariga o'zbekcha matnlarni quyib aytish holatlariga qarshi his-tuygularni uyg'otish.

Haqiqatdan ham ona vatanni sevish, ardoqlash, milliy qadriyatlarni hurmat qilish insoniyat tarixi kabi qadimiy va muqaddasdir. Uning g'oyaviy, badiiy-estetik ifodasi xalqimizning milliy musiqiy an'alarida, xususan, xalq qo'shiqlari, mumtoz va maqom, dostonchilik qo'shiqlarida oz izini qoldirgandir. Ulardan bugungi kunda musiqiy ta'lim tizimida imkon qadar keng foydalanish ta'limning milliy mazmunini boyitish va mustahkamlashga xizmat qiladi. Musiqa san'ati hamma zamonlarda ham qudratli tarbiya vositasi bo'lib qolganligi va bugungi kunda ham uning tarbiyaviy ta'sir imkoniyatlari tobora ortib borayotganligi ayni haqiqatdir. I. Karimov "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch" asarida takidlaganlaridek" musiqaning hayotbaxsh ta'sirini hayotida sezmasdan yashaydigan odamlarni bizning yurtimizda topish qiyin. Eng muhimi, bugungi kunda musiqa san'ati navqiron avlodning yuksak ma'naviy ruhida kamol topishida boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda". Shunday ekan, ta'limning barcha bo'g'inlarida, xususan, umumta'lim maktablarining boshlangich sinflarida oquvchilarni milliy musiqa merosimiz namunalari bilan chuqur va har tomonlama tanishtirib borish zarur. Bu o'rinda bizningcha quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq boladi:

1. Darsda o'quvchilar kuylashi va tinglashi uchun tanlanadigan repertuarida (dasturda ko'rsatilgandan tashqari) xalq musiqa ijodiga oid bolalar folklor qoshiqlari namunalariga birlamchi e'tibor qaratish lozim. Chunki, bolalarda dastlabki malakalarni shakllantirishda ham bolalar xalq qo'shqlari o'zining ohangdorligi, yengil va oson eslab qollinish xususiyati, tushunariligi, o'yinbopligi bilan qulaylik tug'diradi.

2. Namunalarni ijrochilik an'analari, janri, g'oyaviy-badiiy mazmuni, qaysi mahalliy uslubga mansubligi, yetuk ijrochilari, qanday holatda, kimlar tomonidan, qanday sozlarda ijro etilishi xususiyatlari haqida muxtasar bilim va tushunchalar, tasavvurlar beruvchi ma'lumotlar to'plash.

3. Xalq merosi namunalari folklor, mumtoz va maqom yo'nalishlari bo'yicha turli madaniy tadbirlar- konsertlar, mavzuli musiqiy kompozitsiyalar, ko'rik-tanlovlar, taniqli xonanda sozandalar bilan uchrashuvlar, ijodiy jamoalarga musiqiy sayohatlar uyushtirish kabilarni tizimli yo'lga qo'yish.

4. Xalq musiqa merosiga oid namunalarni vositasida o'quvchi yoshlarni yuksak ma'naviyat hamda estetik tarbiyalashda sinfdan va maktabdan tashqari faoliyatda olib boriladigan ta'limiy-tarbiyaviy ishlar imkoniyatlaridan foydalanish o'quvchilarni milliy musiqamizni sevish,

qadirlash, kelgusida unga vorishlik qiladigan shaxs sifatida kamol topishlari muhim ahamiyat kasb etish bilan milliy musiqiy ta'lim samaradorligini oshiradi. Shu orinda yoshlar o'rtasida ommaviy estrada qo'shiqlarini tinglash, kuylash, tahlil qilishga haddan ziyod ruju qo'yish holatlari kuchayib borayotganligini ham musiqiy-estetik tarbiya borasidagi ishlar kutilgan natijalar bermayotganligining oqibati ekanligini ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Bunday holatga qarshi kurashish "ommaviy musiqa" tasvirlaridan o'sib kelayotgan yoshlarni himoya qilishni yagona yoli, ta'lim-tarbiya uchun mas'uliyatli pedagogik murabbiylarni bir maqsad yo'lida kuchlarni birlashtirgan holda milliy musiqa madaniyatimiz durdonasi bo'lmish xalq qo'shiqlari, mumtoz va maqom asarlar bilan chuqur tanishtirib, ularning ongiga, ma'naviyatiga singdirish yo'lida keng qamrovli ta'lim tarbiya ishlarini amalga oshirib borishdan lozim. Xulosa qilib aytganda, milliy musiqiy merosining yosh va navqiron avlodni barkamol insonlar qilib tarbiyalashdagi o'rni tarbiya tizimida alohida mavqega ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. - Toshkent, Ma'naviyat, 2008 yil.
2. A. Hasanov. Musiqa va tarbiya.- Toshkent, O'qituvchi, 1993-yil
3. Hamidov H. "O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi". – T.: O'qituvchi, 1996 yil.
4. Begmatov S, Karimova D, Mamirov Q, Musiqa 6-sinf uchun darslik. T.:G'. G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2018 yil.
5. Qudratov I, Abdulkarimova E. "Musiqa darslarida fanlararo aloqadorlik" Samarqand, SamDu bosmaxonasi, 2015yil.
6. E.Abdulkarimova. Ilm ham jamiyat Ajiniyaz atindagi Nokis mamleketlik pedagogikaliq instituti "Texnologik loyihalash- musiqa mashg'ulotlarida samarali ta'lim". 2019 (№1) ISSN 2010-720X
7. Elnoza Ismatillayevna Abdulkarimova Актуальные вызовы современной науки. "Yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda xalq musiqa merosi qudratli tarbiya vositasi" iscience 2017 yil.

ОРКЕСТР ДИРИЖОРЛИГИ МАҲОРАТИДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ПЕДАГОГИК УСЛУБЛАРИ

Кодиров Бахрон Фиёсович

*Навоий давлат педагогика институтини,
Музыка таълими кафедраси ўқитувчиси*

Annotatsiya. Maqolada Orkestr dirijyorligi mahoratida innovatsion texnologiyalarning pedagogic uslublari haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, orkestr cholg'ulari, jo'rnavozlikning samaradorligi va professionallikka intilish kabi tavsiyalar berilgan.

Kalitli so'zlar: konsertmeyster, orkestr,dirijyor, cholg'u, mahorat, professional

Олий ва махсус ўрта ўқув юртлири дастурларига биноан, партитура ўқиш курсини ўзбек халқ чолғу асбоблари курсларининг кундузги ва сиртдан ўқийдиган студентлари ҳам ўрганадилар. Ўзбек халқ чолғу асбоблари синфи ўз студентларининг сони жихатидан Ўзбекитоннинг консерваториясида бошка олийгоҳларга нисбат энг катта йўналишлари ва факультетлардан биридир.У фақат ўзбек халқ чолғу асбоблари ва

оркестрлари солистларинигина эмас, балки кўпроқ дирижёрларни, ўзбек халқ чолғу асбоблари ансамбллари ва оркестрлари раҳбарларини ҳам етиштириб чиқаради.

Партитура ўқиш малакаларини эгаллаш учун элементар мусиқа назарияси, гармония, полифония, инструментовка ва фортепиано чалиш предметларини ўзлаштириш зарур бўлади. Партитура ўқиш предмети юқорида айтилган предметлар билан мустаҳкам боғланган бўлиб, талабага асарни инструментовка қилишида ёрдам беради, унинг мусиқа адабиёти ҳақидаги билимларини кенгайтиради, шу билан бирга у дирижёр учун ҳам зарур предмет ҳисобланади. Асосий вазифаларидан бири, талабага бир қаторлик ва кўп қаторлик партигураларни ўқишнинг зарур усулларини ўргатиш, тажрибада альт ва тенор калитларидан бемалол фойдалана олишга, транспозицияловчи мусиқа асбобларининг ўқилишини билишга ўргатишдир. Дикқатингизни жалб етиш мақсадида, Оркестрнинг бир қаторлик партитурадан бошлаб кўп қаторлик паргитурагача бўладиган машқлари оддийдан аста-секин мураккабга ўтиш принципи асосида жойлаштирилишини таъкидлаш жоиз.

ХАЛҚ ЧОЛҒУЛАРИНИ СОЗЛАШ: Тўхтасин Жалилов номидаги Ўзбек истон Давлат академик халқ чолғулари оркестри, ўзбек халқ чолғулари оркестрларини созлаш жараёни ҳам умумий қабул қилинган қоида асосида, симфоник, пуфлама (духовой) ва бошқа оркестрлар каби созланади. Шу билан бирга махсус созлаш хусусиятлари ҳам мавжуд. Оркестрга ҳамма оркестрлар учун қабул этилган Ля -товушини (440 тебраниш асосида) Най чолғуси беради. Аммо Найнинг ўзи ҳам созини олдиндан чанг чолғусининг Ля товуши билан яхши текшириб, аниқлаган бўлиши керак. Шу билан бирга чанг чолғуларнинг ўзи ҳам торлари кўп (70 дан ортик) бўлганлиги сабабли, созлаш жараёни кўп вақт талаб этилишини ҳисобга олган ҳолда умумий оркестр машғулотидан анча олдин, камертон асосида ҳамма торларини аниқ ва жуда тоза созлаши талаб этилади.

Ўзбек халқ чолғулари оркестрида 5 та гуруҳ (группа) бўлиб булар: пуфлама, мезробли торли ва чертиб чалинувчи (плекторношипковий), урма (ударник) ва камонли торли (смычковый) чолғулар гуруҳларидир. Бу гуруҳларнинг ҳар бирининг ҳам ўзига хос, махсус созлаш ва гуруҳ чолғуларининг товушларини алоҳида аниқ текшириш хусусиятлари ҳам мавжуд. (ҳамма гуруҳлар камертоннинг Ля товуши асосида созланади.) Жумладан: пуфлама чолғулар аввал Ля товушларини алоҳида-алоҳида ва ўзаро текширишади, кейин кварта ва квинта товушлари аникланади ва ниҳоят ҳамма чолғулар уч товушликни (трезвучие) аккорд ҳолда ижро этиш йўли билан товушлар софлигини (чистота интонации) текширишади. Шу билан бирга товушлами текшириш жараёнида товушлар сифатига ва уларнинг жарангдорлигига алоҳида аҳамият бериш керак.


Мезробли ва чертиб чалинувчи чолғулар гуруҳида созандалар қуйидагиларга риоя қилишлари лозим: биринчи галда чолғуларнинг ҳаррақларини ўз жойида турганлигини текшириш керак. Бунинг учун чолғулар торлари очик ҳолда (парда босмай) созлангандан кейин шу товушларнинг юқори октавасини, **12** пардани босган ҳолда текширилади, бу ҳолатда октава товуш аниқ ва соф эшитилиши лозим. Товуш паст ёки баланд эшитилса, ҳаррақни жуда эҳтиётлик билан пастга ёки юқорига суриш орқали текширилади. Бу жараёндан сўнг чолғулар сози яна ҳам аниқ ва соф бўлиши учун гуруҳ чолғуларнинг ҳамма торларини Фложалет товуши орқали ҳам текширилиши мумкин. Фложалет – бу **12** парда устида пардани тўлиқ босмай, торга бармокни жуда нозиқ теккизган ҳолда ҳосил қилинади. Камонли чолғулар торлари очик ҳолда созлангандан сўнг, очик торлами кўш товуш садолатиш орқали, яъни биринчи билан иккинчи тони, иккинчи ва учинчи

тони, *ниҳоят* учинчи ва тўртинчи тони кварта ҳамда квинта интерваллар билан текширилади.

Чолғулар яна ҳам соф созланганлигини — фложалет товуши оркали аниқлаш мумкин. Урма чолғулар гуруҳида дойра, ноғора, сафоил, кайрок чолғулари билан бир каторда симфоник оркестрдаги литавра, ксилофон, колоколчик, кичик ва катта барабанлар, тарелка, учбурчак, кастанет ва бошка чолғулар кенг ишлатилади. Бу чолғулар оркестрда муҳим ўрин олган бўлиб, уларнинг ҳам ўзига хос созлаш хусусиятлари мавжуд. Жумладан: дойра ва ноғоралар меъёр даражасида киздирилган (созланган) бўлиши керак, акс ҳолда товушлар сифати бузилади. Замонавий литавралар созлашга кулайлик яратувчи педал механизмлари билан таъминланган. Шу сабабли асарда кўрсатилган товушлами ижро давомида ҳам тез ўзгартириш ва сифатли созлаш ижрочиға деярли кийинчилик туғдирмайди.

Ўзбек халқ чолғулари оркестри бошка халқ чолғулари оркестрларидан чолғуларнинг ранг-баранглиги, тембр бойлиги, товушлар садосининг кучи, чолғулар, айникса, бир катор чолғуларнинг, яъни оркестрнинг асосий чолғулари бўлмиш рубоблар ва ғижжакларнинг комилари (дека) юпка балик териси копланганлиги билан фарқ килади ва ажралиб туради. Шунинг учун бу чолғуларга ҳаво ҳарорати жуда тез таъсир этади ва чолғулар сози вақти-вақти билан ўзгариб туради. Шу сабабли оркестр созандаларидан чолғулар созини доимо назорат қилиб, текшириб туриш талаб этилади. (умуман олганда, Давлат академик халқ чолғулари оркестрининг кўп йиллик иш тажрибаси шуни кўрсатадики, оркестр ўз иш вақтининг биринчи соатини аксарият гуруҳларга бўлиниб, иккинчи соатдан ҳамма гуруҳлар бир бўлиб оркестр машғулоти ўтказиш ижобий натижалар беради.

Ана шу гуруҳларга бўлиниб ишлаш жараёнида чолғулар нисбатан тез ва сифатли соз бўлади, ҳамда чолғулар созининг барқарорлашувиға эришилади. Умумий оркестр машғулоти бошланганда чолғулар сози яхши марромига етган бўлиб, созлашға кўп вақт ажратиш эҳтиёжи қолмайди.



Хулоса килиб шунни айтиш керакки. оркестрда чолғулар созиға жуда катта эътибор бериледи, дирижорлар ва гуруҳ концертмейстерлари буни доимо назорат килиб, уларнинг диққат марказида туради. Бу ўз вақтида оркестр машғулотилари ва концертларининг самарали, юкори профессионал даражада ўтишини таъминлайди.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. I.A. Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. -T.: Sharq, 1998.
2. I.A. Karimov. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T.7.—T.: O‘zbekiston, 1999.
3. Azimov K. O‘zbekiston dirijorlari. —T., 2001.
4. Ашрафий М. Музыка в моей жизни. Т. 1975.

JAMOA BO‘LIB KUYLASH JARAYONIDA ANSAMBLLIK USTIDA ISHLASH

Majidov Humoyun

JDPU Vokal san‘ati yo‘nalishi 4 bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: JDPU Musiqa ta‘limi kafedراسи

katta o‘qituvchisi N.X.Xasanova

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamoa bo‘lib kuylash jarayonida ansambllik ustida qanday ishlash, nimalarga e‘tibor berishimiz kerakligi haqida qisqacha ma‘lumotlar berilgan.

Shuningdek xor ansambllik jarayonida ovozni shakllantirish uchun vokal-xor malakalariga alohida e'tibor berib kuylash haqida qisqacha fikr mulohazalar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: xor, ansambl, dinamik, ritmik, tembr, su'rat, garmonik, diksiyali, intonatsiyali.

Hozirgi kunda keng tarqalgan asl xalq san'at turlaridan biri-jamoa bo'lib kuylash ya'ni xor ijrochiligi. Jamoa bo'lib kuylash ijrochiligi odamlarda faqatgina chuqur estetik zavq uyg'otibgina qolmasdan, ularni birlashtiradi, jamoa bo'lib kuylashga olib keladi. Hamda xor bo'lib kuylash ma'naviy saviyasini, badiiy didini oshirishga yordam beradi. Jamoa bo'lib ijro qilish bir maqsad atrofida birlashib, bir guruh odam tomonidan yetkazdirib berish degani hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda xor ijrochiligi faqatgina o'zlarining emas, balki tinglovchilarning ham badiiy, g'oyaviy tarbiyalash, hayratga solish, tinglovchilarning his-tuyg'ularini uyg'otib, hayajonlantirib, qiziqtirib, estetik zavq olishdagi ahamiyati juda katta va bunga yordam beradi.

Jamoa bo'lib kuylash tarbiya vositasida juda katta ahamiyatga ega. Jamoa bo'lib ijro qilyotganda ularda do'stlik, mehr-muhabbat, insonparvarlik, vatanparparlik va boshqa iliq hissiyotlar paydo bo'ladi. Biz shuni bilishimiz mumkinki, bir ovoqli ijroga nisbatan, jamoa bo'lib ijro etilgan kuy ta'sirliroq, ifodaliroq bo'ladi. Xor san'ati o'ziga xos xarakterga ega san'at turlaridan biri hisoblanadi. Kuylash usuli, xor rahbarining qobiliyati, repertuari, kuylash usuli ijrochilik mahorati kabi o'ziga xos individual xarakterga ega san'at turi.

Xor san'ati- musiqa san'atining janrlari orasida o'zining ommaviyligi va demokratik xususiyatlarga egaligi bilan qolgan san'at turlaridan ajralib turadi. Bu san'at turi insonlarni musiqiy tarbiyalashda, estetik qarashlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Insonlarning bir biriga chambarchas bog'liq bo'lgan ma'naviy ongi, didiga, bir yagona g'oya, yagona ijroni maqsad qilib, so'z va musiqadagi tuyg'uni jamoa bo'lib ijro etish ularni birlashtiradi.

Xor -yunoncha "choros"-yig'ilish, to'lda ma'nosini bildirib, birlashgan jamoa sifatida turli inson ovozlariidan tashkil topadi. Xorlar asosan ikki turga bo'linadi:

-Bir turdagi xorlar;

-Aralash xorlar.

Bir turdagi xorlarga -bolalar xori (soprano yoki diskant va alt ovozlari), ayollar xori (soprano va alt ovozlari), erkaklar xori (tenor va bas ovozlari) kiradi.

Aralash xorga esa – ayollar va erkaklardan tuzilgan xorlar (soprano, alt, tenor va bas) kiradi. Aralash xor – boshqa xor turlariga nisbatan kengroq tarqalgan. O'zining rang-barang tembriga, katta ovoz diapazoniga va keng ijro imkoniyatlariga boy bo'lganligi tufayli eng takomillashgan badiiy jamoalar safidan o'rin olganidir.

"Ansambl" so'zi fransuzcha "ensemble" tushunchasidan olingan bo'lib, ma'nosi- birgalikda, ya'ni hamohang bo'ishni anglatadi. Xor san'atida ansambl eng qiyin kuylash turlariga kirib, aniq temp, ritm, ovozlari tembrining hamohangligi, yakkaxon, xor va fortepiano (orkestr) ishtirokchilarning (turli ovoz partiyalarining) uyg'unlashuviga aytiladi.

Xor ansambli asosan ikki turda- xususiy va umumiy ansambl ko'rinishida bo'ladi. Xususiy deb-alohida har bir kuylash partiyasi (ovozlari) tovushlari uyg'unligiga erishis; umumiy deb- xordagi barcha kuylovchi partiyalar (ovozlari) tovushlarining uyg'unligiga aytiladi.

Professor G.A. Dmitriyevskiy o'zining "Xor ansambli" uslubiy qo'llanmasida xor ansamblining quyidagi turlarga bo'linishi haqida izoh bergan, bularga:

1) intonatsion ansambl-tovush balandligini aniq sadolantirish; 2) ritmik ansambl-ijroning ritmik birligi;

-
- 3) tembr ansambli-ovozlarning tembriga qarab qo‘shilishi;
 - 4) dinamik ansambli-sadolanish kuchiga qarab ovozlarning qo‘shilishi;
 - 5) diksiya ansambli-adabiy matnni krlishib talaffuz etish;
 - 6) sur‘at ansambl-ijroning sur‘at birligi;
 - 7) garmonik ansambl-ovozlarning akkord ,hamohanglikdagi muvozanatli sadosi kiradi.

Xor ansamblida o‘z vaqtida tessitura masalasi ham katta hamiyatga ega. O‘z shart-sharoitidan kelib chiqqan holda ansambl tabiiy yoki sun‘iyiligini ajratish mumkin. Barcha xor qatnashchilari ovozni zo‘r bermasdan, normal holatda birday, past yoki yuqori kuylanib, o‘rta registrlarda bo‘lsa, tabiiy ansambl hosil bo‘ladi. Sun‘iy ansambl esa ovozlar turli tessitura sharoitida bo‘lganda qo‘llaniladi. Bu vaqtda sadolanishni me‘yoriga yetkazish uchun ovoz kuchi sun‘iy bo‘rttirilgan yoki aksincha susaytirilgan bo‘ladi.

Xor ansambliga bo‘lgan talab ijro etilyotgan asarning barcha tomonlariga tegishli, ayniqsa, uning tuzilish fakturalariga ham bog‘liqdir. Har bir xor ijrochisi yaxshi rivojlangan ansambl hissiga ega bo‘lib, yuksak natijalarga erishish mumkin.

Xor jamoasining ijrochilik malakasi vokal -xor ijrochilik mahoratlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib-hamohanglik,soz,talaffuz,badiiy ifoda vositalari,nafas olish, tovush hosil qilish va uni shakllantirishdan iboratdir. Buning uchun jamoa ijro paytida albatta tik turgan holatda bo‘lishlari lozim. Repetitsiyalar paytida esa o‘tirib mashg‘ulotlar o‘tkazilsa ham bo‘laveradi. Bunday paytda xonandalardan gavdani to‘g‘ri tutish, yuz,bo‘yin yelka mushaklari erkin bo‘lib, kuylayotgan paytda xalqum va pastki jag‘ tomoqni siqmasligi, boshini erkin tutishi tavsiya etiladi.

Ma‘lumki inson nafas olish organlari orqali nafas olib tovush hosil qiladi. Kuylaganda nafas olish oddiy nafas olishdan farq qiladi va nafas tez olinib, sekin chiqariladi. Nafas olish bir nechta turga bo‘linadi.:

- pastki qovurg‘alar kengayishi orqali nafas olish;
- yelka kengayishi orqali nafas olish;
- qorin bilan nafas olish;
- ko‘krak bilan nafas olish;
- zanjir uslubida nafas olish;

Tovush nafas va ovoz apparatlarining harakati natijasida hosil bo‘ladi. Hosil bo‘lgan tovushni rezonatorlar kuchlantirib turli tembr beradi. Rezonatorlar: bosh rezonator-yuqoriga; ko‘krak rezonatori-pastga bo‘lib, o‘zining hajmini artikulyatsiya orqali o‘zgartirib turadi.

Xor ijrochiligida legato, ya‘ni ohangning bir tekis bog‘lanishi; nonlegato-alohida bog‘lanmasdan ijro etish(tovushlar orasida nafasni ushlab orqali hosil qilish); stakkato-tovushlarni uzib,qisqa ujro etish (tovushlar orasida nafas olmasdan) kabi ijro uslublari uchraydi.

Xor jamoasini mashg‘ulotlardan oldin ijrochilar ovozini qo‘shiq aytishga tayyorlash-ovoz qo‘yish jarayonidan boshlanadi. Ovoz apparatini qizdirish, har bir ishtirokchining eshitish qobiliyatini sozlash 15-20 daqiqa davom etishi lozim. Bu ovoz mashqlari davomida xorning tekis hamohangligi(ansambli)ga va jarangdorligiga erishiladi. Mashqlar xor jamoasining o‘zining ma‘lum bir o‘rta registrida, qulay tessiturada soda,oddiy mashqlar bilan avval biro ovozda, asta sekin mashqlar ikki-uch ovoqli bo‘lib va polifonik (ko‘pmovozli) tuzilishdagi murakkab mashqlar bilan yakunlanishi lozim. Bu bajarilayotgan mashqlarning mukammalligiga:

- artikulatsiya appartining aktivlashtirilishi;
- ovozning tayyorlab qizdirilishi;
- ovoz diapazonining kengayib borilishi;

-diksiya, soʻz talaffuzining yanada aniqligiga olib keladi.

Vokal-xor musiqasida soʻz va ohang bir birini toʻldirib badiiy obraz yaratadi. Adabiy matnni aniq va ravshan talaffuz qilish xor ijrochiligining zarur elementlari boʻlib keladi.

Diksiya-lotincha “dictio”-nutq, aniq soʻz talaffuzi maʼnosini anglatadi. Diksiyaning aniq yoki noaniq boʻlishi oʻz navbatida artikulyatsiya apparatining aktiv yoki passivligiga bogʻliq. Artikulyatsiya apparati-til, lab, yumshoq tanglay, pastki jagʻdan iboratdir. Bularning kamchiliklari maxsus mashqlar orqali bartaraf etilishi mumkin.

Unli tovushlarni oʻzlashtirishda undosh tovushlarning aniq talaffuzi muhim tol oʻynaydi. Shuning uchun ham xor rahbari doimo undosh tovushlarning aniq eshtitilishi ustida ish olib borishi lozim. Soʻz oxirida keladigan undoshlarni toʻgʻri va aniq talaffuz qilmaslik, soʻzning maʼnosini anglshga halaqit beradi. Shuning uchun xor rahbari aniq yetkazdirib berishga harakat qilishi lozim.

Shunday qilib, xor ijrosida asarning poetic mazmunini tinglovchilarga yetkazdirib berishda diksiya muhim rol oʻynar ekan., xor qatnashchilarining soʻz talaffuzi mahorati bilan bir qatorda nutq madaniyatini ham oʻstirib borishi lozim.

Xulosa oʻrnida shuni aytib oʻtishimiz lozimki, jamoa boʻlib kuylash jarayonida ansambllik ustida ishlash juda katta ahamiyatga ega. Biz ansamblda hamohang, birgalikda kuylashga eʼtibor qatashimiz kerak. Chunki ansambl xor sanʼatida eng qiyin kuylash turi hisoblanib, temp, ritm, ovozlar tembrining hamohangligi, yakkaxon, xor va fortepiano uygʻunlashuvidir. Xor ansambliga talab ijro etilyotgan asarning barcha tomonlarga tegishli, ayniqsa uning tuzilish fakturalariga juda katta bogʻliqdir. Har bir xor ijrochisi yaxshi rivojlangan ansambl hissiga ega boʻlishi shart. Xor ansamblda vokal-xor malaklarining shakllanishi ahamiyatga ega. Buni rivojlantirishda har xil usullar, oʻyinlar katta ahamiyat kasb etadi. Bu mashqlar turlichadir. Masalan, ovozni rivojlantirish, diapazonini kengaytirish, sof intonatsiyani yuzaga keltish, garmonik uquvni oʻstirish, diskiya aniqligiga erishish, va nafasni mustahkamlash va boshqa mashqlardir. Bularning barchasi bitta maqsad yoʻlida jamoa boʻlib kuylash jarayonida ansambllik ustida ishlashga yordam beradi. Yaratilgan ijroni tinglovchiga taʼsirli, ifodali yetkazdirib bera oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mansurova G. Xorshunoslik va xor jamoalari bilan ishlash uslubiyati. Oʻquv metodik qoʻllanma-Toshkent.2008
2. Muminova Muqaddas Riskulovna Development And Current Status Of Uzbek Pop Music In Modern Approaches And Innovations Of Teaching The Science Of Music Culture International Journal of Advanced Science and Technology Vol. 29, No. 8, (2020) <https://t.me/joinchat/> - Music teacher, <https://infourok.ru> - music lessons
3. Muminova Muqaddas Riskulovna *International Journal of Mechanical Engineering*. The Innovative Technologiyes Of Teaching In Musical Edukational Establishments1764-1767-betlar. 2022- йил.
4. Muminova Muqaddas Riskulovna Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. THE ROLE OF SPORT ACTIVITIES, GAMES AND COMPETITIONS IN THE NURTURE OF 6-7 YEARS OLD CHILDREN<https://uzjournals.edu.uz/tziuj68-78betlar> 2022
5. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlarda pedagog kreativligi. “Yangilanayotgan Oʻzbekistonda fan, taʼlim va innovatsiya uygʻunligi” mavzusidagi 6-son 2-qism Respublika koʻp tarmoqli ilmiy konferensiyasi VIII boʻlim Toshkent 2021. 677 bet. Udk. 001.895 (575.1).

6. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlar o'qituvchisining kreativligi. Педагогические и лингвопсихологические особенности развития, формирования и становления личности врача. Сборник тезисов Международная конференции. СамГМИ, Самарканд 5 мая 2021 год

7. Urinova S.Sh. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishning nazariy asoslari. "The best innovator in science" xalqaro maqolalar tanlovi to'plami. Organized by Innovative Academy. Tashkent February 5, 2022. Pg 811. <https://zenodo.org/record/5979621#.YpC2PKhBxD8>

8. Sharafiyeva N. Xorshunoslik. O'quv metodik qo'llanma-Toshkent.1998

9. Larri Star & Christopher Waterman. American popular music. "Oxford Universite Press."2007

O'ZBEK XALQ MUSIQA IJODIYOTINING SHAKLLANISH VA TARAQQIYOT YO'LI

Mamarasulzoda Zulxumor Abulqosim qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
Majidov Humoyun Ilhom o'g'li
Musiqa ta'limi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy mafkuramiz shakllanayotgan bir davrda ma'naviy tarbiya hamda milliy meros vositasi sifatida o'zbek musiqa folklori namunalarini to'plash va yozib olish tarixining unutilgan qirralari tahlil etilib, ajdodlarimiz qoldirgan boy merosning hayotiy mohiyati isbotlab berildi. Shuningdek, o'zbek xalqi musiqa ijodiyotining shakllanish tarixi, bu jarayonlar rivojiga muhim hissa qo'shgan to'y-marosimlar, urf-odat va an'analar xususida muholazalar yuritildi.

Kalit so'zlar: folklor, urf-odatlar, musiqa cholg'u asboblari, "Dabiriston" maktabi, musiqa nazariyasi, marosimlar, xalq og'zaki merosi.

Eng qadimgi folklor namunalari yozuv yuzaga kelmasdan ancha oldin paydo bo'lgan va yozma adabiyotning tashkil topishiga muhim hissa qo'shgan. Ular asl holda bizgacha yetib kelmagan yoki yetib kelganlari ham og'izdan og'izga, avloddan avlodga o'tish jarayonida ijodiy ishlangan. Ushbu masala yuzasidan Markaziy Osiyo xalqlari musiqiy merosini o'rganish borasida musiqashunos-manbashunos olimlar I.Rajabov, F.Karomatli, O.Matyoqubov, A.Nazarov, R.Abdullaev, O.Ibrohimov, S.Saidiy, R.Yunusovlarning ajdodlarimiz musiqa merosini o'rganishga doir olib borgan tadqiqotlari diqqatga sazovordir.

Buyuk Qo'shoniylar imperiyasi davrida musiqiy cholg'uchilar va hofizlar, raqqoslar, aktyorlar va masqarabozlar, yig'ichilar, qo'riqchi mehtarlar kabi guruhlar bo'lgan. Abu Rayhon Beruniy keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, shu davrda Markaziy Osiyoda mahalliy aholi yil davomida 7 turdagi bayramni keng nishonlab, bayramlar ichida «Navro'z» go'yo podshohning tug'ilish kuni sifatida tantana qilingan. Ayniqsa, xuddi shu bayram hamda shu tushdagi boshqa urf-odatlar, marosimlar o'z navbatida yangi an'analarning shakllanishiga olib kelgan. Bu davrga kelib qifara, fleyta [nay], arfa [chang], shuningdek, eng qadimgi cholg'ulardan do'l-nog'ora, yirik rez nog'ora, harbiy nog'ora, kichik nog'ora, doyra [daff], tablaq, hind tablagi, qo's, tabira kabi urma cholg'ularning o'sha zamondagi turlari keng qo'llanilgan. Buxoro musiqa

madaniyatining o'ziga xosligi darboriy [saroy] musiqa, ya'ni Buxoro mumtoz san'ati [keyinchalik Shashmaqom turkumi], diniy-marosimiy musiqa an'analari, harbiy musiqa turlari, pahlavonlar musiqasi, shahar hunarmandchilik musiqa yo'nalishi, Rustoy va Dehat, ya'ni folklor ijodiyoti namunalaridan tashkil topgan. Markaziy Osiyo va yaqin Sharq mamlakatlari zaminida musiqiy madaniyat va tasviriy san'at Yevropa va ayrim Sharq davlatlariga qaraganda juda erta rivojlangan.

Zardushtiyalar davrida saroy marosimiy musiqa ijrochilik amaliyoti yuqori darajaga ko'tarilgan. Musiqa san'ati namunalarining arxeologik topilmalari, umum ijrochilik madaniyati bilan ham bog'liqdir. Chunonchi, sahnaviy holatdagi Riton [budda haykali] minbari miloddan oldingi IV-V asrlarga tegishlidir. N.Hakimov tadqiqotlarida asosiy ta'sir doirasidagi musiqaviy san'at turlarining uslublari quyidagicha tasnif etiladi:

1. Saroy marosimiy uslublari, ya'ni haram va saroy uslublari;
2. Saroy harbiylari uslublari: a) ogohlantiruvchi tartib [salyutlar, uchrashuv marshlari]; b) harbiy orkestr uslublari;
3. Madaniy tarzdagi uslublari: a) vokal madaniyati; b) sozandalik madaniyati;
4. Qo'shon musiqachilari madaniyati: a) shahar uslubi; b) qishloq uslubi; v) vokal va cholg'uchilik uslubi; g) harbiylar uslubi (shahar qo'riqchilari); d) marosimiy uslublari.

Markaziy Osiyo xalqlari musiqiy an'alarining o'xshashligi ularning yanada takomillashib borishiga asos bo'lgan. Bunda, ayniqsa, o'sha davr saroy musiqa san'ati ta'siri yetakchilik qilgan. Ijrochilik amaliyotida, ayniqsa, "Dabiriston" maktabi an'analarga boy bo'lgan. Darboriy musiqasi o'sha davrda mohir va mashhur ijrochilarni saroyda jamlab, muayyan kasbiy ijrochilik oliy professional maktabini rivojlantiradi. Diniy-marosimiy musiqa esa har bir insondan Avestoning 21 kitobi, ya'ni «Gatho»larni maxsus an'analarda qayta bilishni talab qiladi. Harbiy musiqalar ustoz sozanda - mehtar rahbarligida ijro qilingan va ustoz-shogird tizimida o'rganilgan. Pahlavoniylarning alohida musiqa maktablari bo'lmagan, ular asosan diniy va darboriy maktablarda ta'lim olganlar. Buxoroda shahar ustozona kasbiy musiqasi ancha taraqqiy etgan bo'lib, undan boshqa viloyatlar va davlatlarning sozanda, xonandalari ham ustoz va shogird tarzida ta'lim olganlar. Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimgi folklor namunalari ba'zi tarixiy yodgorliklar, yodnomalar, ilmiy asarlardagina saqlanib qolgan. Ular miflar, jangnoma ko'rinishdagi afsonalar, qahramonlik va pahlavonlik eposlari, qo'shiqlardan va maqollardan tashkil topgan.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixda juda ko'p istilochilarni, bosqinchilik harakatlarini o'z boshidan kechirgan. Masalan: Ahmoniylar, Sosoniylar, Makidoniyalik Iskandar (334), Chin xoqonlari (IV asr), Arab halifaligi (VII asr. 665), Mo'g'ul istilochilari (XII asr. 1219), Totalitariyat davri (XVIII asr oxirlari-XX asr 90 yillarigacha). Bu davrlarda Buxoro, Xorazm, Surxandaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Farg'ona vodiysining ko'p joylari xarobaga aylangan. Hozirgi kunda O'zbekiston hududidagi Xorazm, Afrosiyob, Xolchayon, Termiz, Varaxsha, Bolalixtepa, Dalivarzintepa hududlarida olib borilayotgan arxeologik qazilmalar natijasida topilgan juda ko'p yodgorliklarda adabiyot, san'at va madaniyat sohasiga tegishli hamda juda ko'p musiqa cholg'ularining qoldiqlari, xonanda va sozandalar aks ettirilgan sur'atlarning nusxalari topilmoqda.

Faqat Amir Temur zamonida Turkiston mo'g'ul bosqinchilaridan ozod qilindi. Movarounnahr qo'lga olinib, Samarqand uning poytaxti deb e'lon qilindi. Undan tashqari Oltin O'rdaga yurib Shimoliy Kavkazni, Astraxan, Qora dengiz bo'ylari (1399 yil), Eron, Shimoliy Hindiston, Turkiya (1402 yil), keyin Iroq, Suriya va boshqa juda ko'p mamlakatlarni egalladi. Shu davrda Movarounnahrda madaniyat, adabiyot, san'at turlari rivojlandi.

Markaziy Osiyoda VI asrdan XX asrgacha bo'lgan davr ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan murakkab tarzda kechgan davr bo'ldi. Bu davr o'zbek xalqining o'troq dehqonchilik bilan ko'chmanchilik hayoti tartiblarini uzoq vaqt yonma-yon yashab kelgan davr hisoblanadi. O'zbek xalqining bu davrdagi boy va rang-barang og'zaki ijodi namunalari nazar tashlar ekanmiz, ularda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, qadimiy tasavvurlarni va qarashlarni izlari o'z ifodasini topganligini ko'ramiz. Chunki ijtimoiy taraqqiyotga uzviy bog'liq bo'lgan folklor asarlari o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra, xalqning hayotidagi tarixiy o'zgarishlar bilan boyib borgan, ularda bir necha davrlar o'z izini qoldirgan.

Folklor asarlariga xos bunday o'zgaruvchanlik va ko'p qatlamlilik ularning ko'pgina namunalari ayrim olingan davrlar bilan bog'lab tekshirishni qiyinlashtiradi. Shuning uchun ham u yoki bu janrlarning muayyan davrdagi holati va taraqqiyoti haqidagi mulohazalar ko'pgina hollarda taxminiy bo'ladi, albatta. Hozircha mavjud tekshirishlarga tayangan holda shuni aytish mumkinki, eng qadimgi davrlarda ko'pchilik xalqlarda miflar, urug', qabilalar haqidagi rivoyatlar, aytimlar, urf-odat, mavsum va marosim, mehnat qo'shiqlari keng tarqalgan. Ilk davlatlarning shakllanish davrida qahramonlik dostonlari yaratilgan, keyinroq epik, lirik va tarixiy qo'shiqlar, og'zaki drama paydo bo'lgan.

Keyingi vaqtlarda yozib olingan folklorning an'anaviy namunalari, asosan VI-XX asrlarda yaratilgan asarlardir. Folklor asarlarning ayrim namunalari, ayrim janrlarning keyingi taraqqiyoti va holatini muayyan davrlar bilan bog'lab o'rganish mumkin. Masalan, o'zbek dostonchiligining qadimiy ko'rinishlari, uni avloddan avlodga o'tkazib kelgan bir necha avlod xalq baxshilari va ular ijro etgan dostonlari haqida yozma ma'lumotlar deyarli saqlanib qolmagan. Masalan, Amir Temur o'z safarlarini baxshilarga doston qilib kuylashni topshirgan, To'xtamish saroyida Kamolzoda va Jahon Mirzo kabi jirovlar bo'lgan xalq dostonlariga yaqin shaklda yozilgan «Abo Muslim» kitobi XII asrda yaratilgan.

Og'zaki ma'lumotlar bizni XVIII asrga yetaklaydi. Ergash Jumanbulbul o'g'lining avlodlaridan biri Yodgor baxshi XVII asrning ikkinchi yarmi va XVIII asrning boshlarida yashab ijod qilgan. Ergash shoirning yetti ajdodi dostonchi o'tganligini hisobga olsak, aytaylik, XVI asr oxirlarida yashagan dostonchi shoirlar haqidagi ma'lumotlar ham XVII asrning boshlarigacha yetib kelgan. O'zbek xalqining juda murakkab etnogenezi va etnogenetik taraqqiyoti, VI-VIII asrlardan XV asrgacha davom etgan migratsiya, ya'ni turkiy qabila va urug'larning oldinma keyin Markaziy Osiyo hududlariga ko'chib kelishi, joylashishi hamda yerli, turkiy bo'lmagan o'troq elatlar bilan aralashib ketish jarayonlari ham o'zbek dostonchiligining yangilanish davrini boshlagan, taraqqiy qilgan degan xulosaga kelishimiz mumkin.

XVII-XVIII asrlar davomida dostonchilik taraqqiyotida muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. XIX asr uning eng gullagan davri bo'lib, xalq orasida keng tarqaldi. Xalq dostonlarida markazlashgan, mustaqil, farovon yurtva chet el bosqinchilariga qarshi kurash g'oyasi muhim o'rin tutadi. «Chambil qamali», «Rayhon arab», «Bektosh arab» kabi dostonlarda arab bosqinchilariga qarshi kurash tasvirlangan va bu dostonlar arablar Markaziy Osiyoga hujum qilgan davrda yaratilgan. Markazlashgan davlat g'oyasi, vatan, el-yurt osoyishtaligi va mustaqilligi uchun kurash uzoq davom etgan bu davrda turli urug' va elatlarning yagona xalq bo'lib shakllanishio'ta muhim ijobiy hodisa ediki, bu g'oyalar o'zbek eposining qon-qoniga singib ketgan deyishimiz mumkin.

Xuddi shuningdek, mo'g'ul bosqinchilarining xurujlarini, ularga qarshi mahalliy aholining kurashlarini aks ettirgan asarlar ham anchagina. «Guldursun» afsonasi ham o'sha davr voqealari haqida hikoya qiladi. Mo'g'ul istilochilariga nisbatan xalq munosabati esa

ramziy ifodalarda, umuman, chet el bosqinchilariga nisbatan xalq nafrati bayonida, afsonaviy va mifologik salbiy timsollar tasvirida saqlanib qolgan.

Bu davrda o'zbek folklorida ayrim tarixiy voqealar va shaxslar nomi bilan bog'langan dostonlar, afsona va latifalar ko'p uchraydi. Masalan: «Tulumbiy» (XV asr), «Shayboniyxon», «Oychinor» (XVI asr), «To'lg'anoy» (XIX asr) kabi bir qancha dostonlar borki, ular yaratilgan davrlaridan ancha keyin yozib olingan. Ular bir qancha o'zgarishlarga yuz tutgan bo'lishiga qaramay, ma'lum darajada o'z davri voqealarini aks ettiradi. Shuningdek, mashhur tarixiy siymolar Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Ulug'bek, Mashrab nomlari bilan bog'liq bo'lgan ko'plab afsona va rivoyatlar yaratildi. XIX asr boshlarida xalq orasida yozma adabiyot namunalari keng tarqala boshladi. Ayrim shaxslar tomonidan o'zbek folklori asarlarini yozma adabiyotga yaqin ruhda qayta ishlash yoki yozma namunalari «folklorlashtirish» jarayoni kuchaydi. Buning natijasida turli xarakter va mazmundagi qissalar («xalq kitoblari») yuzaga keldi. Hatto ayrim baxshilar ijodiy faoliyatida, masalan, Qo'g'on dostonchilari repertuarida yozma adabiyot namunalari ko'rina boshladi

Bu davrda xalq ijodkorlarining muayyan janrlarda professionlashuvi kuchayib dostonchi, ertakchi, qo'shiqchi, askiyaboz, masxaraboz kabi turlari ajralib chiqqa boshladi. Bu esa folklorning estetik jihatdan mustaqillashuvida, uning mifologiya va ibtidoiy irim-sirim hamda marosimlardan ajralib chiqishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Bu davr o'zbek folklorida xalq ijodi taraqqiyotining ilgarigi bosqichlarida maydonga kelgan ayrim janrlar, xususan, mavsum-marosim qo'shiqlari ba'zi o'zgarishlari bilan uzoq vaqt saqlanib qoldi. Ertaklar bilan topishmoqlarda esa bir muncha o'zgarishlar ro'y berdi: ularning totemistik qarashlar bilan bog'lanishi ancha susayib, ko'proq allegorik xarakter kasb eta boshladi. Bir qator yangi janrlar (lirik va tarixiy qo'shiqlar, latifa va loflar, askiya va og'zaki drama) paydo bo'ldi. Shunday qilib, bu davrda o'zbek xalq og'zaki ijodiyotining deyarli barcha janrlarida ko'plab asarlar yaratildi. Bu asarlar xalqimiz madaniy hayotidagi ulkan ko'tarilishlar, muhim tarixiy voqealar bilan chambarchas bog'liq. Xalqimiz bosib o'tgan tarixiy yo'l, uning boshidan kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar folklorining sermahsul bo'lishiga muhim zamin bo'ldi.

O'zbek xalqi etnik turmush tarzida to'y-ma'raka marosimlari, ularning yuzaga kelishi bilan bog'liq an'analari tarixiy asosga egadir. Matriarxatdan patriarxatgacha o'tgan jarayonda nikoh va oila shakllarining paydo bo'lishi, uy xo'jaligining rivojlanish munosabati bilan monoton oila shakli vujudga kelishi, shakllanishi va ijtimoiy ahamiyat kasb etishida to'y marosimlari, kelin-kuyov tartibining joriy bo'lishida moddiy manfaatdorlik an'analari paydo bo'lgan.

To'y qadimdan uzoq davom etuvchi rasmiy va ramziy ahamiyatga ega marosim bo'lib, ularning tarkibida bir necha urf-odat va udumlar vujudga kelgan. Ularda yangi oilaning paydo bo'lishi bilan bog'liq marosim qo'shiqlari, raqslar, o'yinlar, irim va udumlar ommaviy tadbir tantanalarga aylanishi, pirovard natijada ikki yoshning yagona oila qurishi, avlodlar davomiyligini ta'minlashga xizmat qilishi bilan yakunlanishi to'g'risida juda ko'p etnografik ma'lumotlar mavjud.

O'zbek xalqi etnomadaniyatida "Xatna", "Sunnat" to'ylarining kelib chiqishi ham uzoq tarixga ega. "Xatna" va "Sunnat" to'ylarining asl mohiyati bir bo'lib, ular o'zbek aholi etnik guruhlarida o'ziga xos nishonlanish tartiblariga ega. "Xatna" to'ydan oldin "Maslahat oshi", keyin "Qozon qurar", so'ngra esa "Xatmi qur'on" qilib xayriya oshi berilishi, vanihoyat asosiy to'y bazmi, to'y marosimidagi mehmondorchilik, turli taomlar pishirilishi, bolalar tomonidan o'ynaladigan an'anaviy "Quloq cho'zma", "Oq suyak" va kattalar tomonidan o'ynaladigan

“Ko‘pkari”, “Uloq”, “Kurash” o‘yinlari ularga beriladigan sovrinlarni xatm qilinayotgan bolaning ota-onasi, amaki va tog‘alari tomonidan hadya etilishi, to‘y bazmi nihoyasiga yeta boshlagan paytda “Bolaning qo‘lini halolash” – xatna qilish marosimi uyushtiriladi. Bu marosimda bolaning eng yaqinlaridan tashqari, shu oilaga yaqin bo‘lgan yor-u do‘stlar, mehmonlar ishtirok etishadi.

O‘zbek etnosiga xos to‘y marosimlari shartli ravishda oila qurish, ikki yoshning boshini qovushtirish bilan bog‘liq an‘ana, go‘dakning dunyoga kelishi bilan bog‘liq an‘ana, inson shaxsiy hayoti va maishiy turmush jarayonida qo‘lga kiritilgan muvaffaqiyatlarni nishonlash bilan bog‘liq an‘ana, inson muayyan balog‘at yoshiga yetganligi shukronasi bilan bog‘liq an‘ana kabi turlarga ajratiladi. Inson vafoti munosabati bilan o‘tkaziladigan “Xudoyi”, “Ehson”, “Ziyorat”, “Mushkulkushot”, “Mavlud”, “Bibi Seshanba”, “Padar oshi”, “Momo oshi”(Oshibi biyon)marosimlari, ularning ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati, ijtimoiy-ma’naviy jihatlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ma’raka marosimlari, ularni o‘tkazishda mahalla fuqarolar yig‘ini va oqsoqollar kengashining faoliyati ham muhim rol o‘ynaydi.

Zamonaviy axborot vositalari va madaniyat o‘choqlarida xalq marosimlari bilan bog‘liq madaniyat tadbirlari, spektakllar, badiiy filmlar va ko‘rsatuvlar tashkil etilishining ahamiyati kattadir. Zamonaviy to‘ylar, yubileylar, ulug‘ insonlar tug‘ilgan qutlug‘ sanalar ham ijtimoiy hayotimizda muhim o‘rin egallaydi. Jumladan, “Payg‘ambar yoshi” marosimi, uning ma’rifiy-ma’naviy ahamiyatini alohida ta’kidlash mumkin. Umuman, to‘ylar – mamlakat tinchligi, to‘kin-sochinligi va xalqparvarlik siyosatining madaniy-ma’rifiy ramzi sifatida namoyon bo‘ladi.

Davrlar osha insonning yashash va hayot kechirish tarzi,urf-odatlar, marosimlar bilan bog‘liq ravishda juda ko‘p qo‘shiqlar yaratilgan. Marosimlar, odatlar turli-tuman bo‘lganidek, ularga bag‘ishlangan qo‘shiqlar ham xilma-xildir. Qo‘shiqlar xalqning oilaviy bayramlarini, marosimlarini bezab kelgan. Marosim bayramlarida kishilar o‘yin-kulgu qilganlar, dam olishgan, yangi mehnat faoliyatiga ilhomlanganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Matyoqubov O.Buxoro Shashmaqomiga bir nazar; “Musiqqa” nashriyoti. Toshkent, 2018.
2. Matyoqubov O.Maqqomot/; “Musiqqa” nashriyoti. Toshkent, 2004.
3. Muminova Muqaddas Riskulovna Development And Current Status Of Uzbek Pop Music In Modern Approaches And Innovations Of Teaching The Science Of Music Culture International Journal of Advanced Science and Technology Vol. 29, No. 8, (2020) <https://t.me/joinchat/> - Music teacher, <https://infourok.ru> - music lessons
4. Muminova Muqaddas Riskulovna Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. THE ROLE OF SPORT ACTIVITIES, GAMES AND COMPETITIONS IN THE NURTURE OF 6-7 YEARS OLD CHILDREN<https://uzjournals.edu.uz/tziuj68-78betlar> 2022
5. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlarda pedagog kreativligi. “Yangilanayotgan O‘zbekistonda fan, ta’lim va innovatsiya uyg‘unligi” mavzusidagi 6-son 2-qism Respublika ko‘p tarmoqli ilmiy konferensiyasi VIII bo‘lim Toshkent 2021. 677 bet. Udk. 001.895 (575.1).
6. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlar o‘qituvchisining kreativligi. Педагогические и лингвопсихологические особенности развития, формирования и становления личности

врача. Сборник тезисов Международная конференции. СамГМИ, Самарканд 5 мая 2021 год

7. Urinova S.Sh. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishning nazariy asoslari. "The best innovator in science" xalqaro maqolalar tanlovi to'plami. Organized by Innovative Academy. Tashkent February 5, 2022. Pg 811. <https://zenodo.org/record/5979621#.YpC2PKhBxD8>

8. O'zbek musiqasi tarixi. T., 1981.

9. Q. Olimboyeva, M. Axmedov. O'zbekiston xalq sozandalari. Toshkent, 1959.

10. Q. Olimbayeva, Y. Yo'ldoshboyeva, M. Axmedov, T. Mirzayev. O'zbek xalq sozandalari / G'.G'ulom nomidagi "O'zbekiston san'ati va adabiyoti" nashiyoti. Toshkent, 1974.

11. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. T., 1963.

12. Rasultoev J.K. Dutor semantiqasi. "Moziydan sado" //G'.G'ulom nashriyoti. Toshkent, 2001.

13. Saidiy S.B. Buxoro sozgarlik san'ati / "Mahorat ko'zgusi" / Buxoro, 1999.

14. Мамарасулзода З.А.История сбора и записи образцов узбекской народной музыки. Вестник интегративной психологии// Журнал для психологов. Вып.21МАПН,2020.–215-217с.

15. Zulxumor Mamarasulzoda, Said Saidiy. "Shashmaqom" tarixidaulug' siymolarning ijtimoiy pedagogic qarashlari. "Pedagogik mahorat" jurnali. Buxoro, 2020.40-bet.

O'ZBEKISTON BASTAKORLARI

M.A.Mirzayeva

*A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti
Musiqiy ta'lim kafedrasi o'qituvchisi*

L.Maxmudova 2- bosqich talaba

Annotatsiya: Ushbu maqolada bastakorlik, O'zbekistonda bastakorlik ijodi bilan shug'ullangan ko'p asrlar an'ana davomchilari xonanda va sozandalar to'g'risida ma'lumotlar haqida yoritilgan. Tarixda musiqa ijrochiligi madaniyatining cholg'ular orqali bastalagan kuy-qo'shiqlarini o'z davrining yetuk musiqachilari va shoirlari ham yangi she'rlarini ashula yo'liga tushira olgan san'atkorlar ya'ni bastakorlar bizga ma'lum.

Kalit so'zlar: bastakor, hofiz, sozanda.

Bastakorlik O'rta Osiyo xalqlarida juda qadim zamonlardan mavjud musiqiy ijod san'atidir. Bastakorlik san'ati o'zbek xalqining merosida juda katta va muhim o'rin tutadi. Shuning uchun ham bastakorlik muammolari musiqashunos va sharqshunos olimlarimizning diqqat e'tiborini ko'pdan beri o'ziga jalb qiladi, bu masala musiqa san'atimizda juda katta tarixiy-ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Bastakor forscha ("basta"-bog'lash, "kor" – ishlash, ishlovchi ma'nolarida) so'z bo'lib kuyni tashkil etadigan unsurlarni bir-biriga bo'g'lovchi degan ma'noni anglatadi. Bastakor o'tmishda turli vazifalarni bajargan. Dastlab u yangi, original kuy va ashular yaratuvchidir ikkinchidan, bastakor tayyor kuylar mavzusida ularning ritmik va kuy variantlarini ham yaratgan. Bunda bastakor kuy yo'llariga yangi-yangi epizodlar, tayyor holdagi avjlar

kiritgan. Ashula yo'llariga yangi she'rlarni ustalik bilan bo'g'lab, tushira bilgan san'atkorlar ham bastakor nomiga mansub bo'lgan.

O'rta asr musiqa ijrochiligi madaniyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shunday ediki, cholg'u ijrochilar nafaqat bir nechta turdagi musiqa asboblarni chala olgan, balki o'zlari ham musiqa bastalaganlar. XV asrda yetishib chiqqan shoirlar, san'at ahliga A.Navoiy va A.Jomiy homiylik qilgan hamda ularni tarbiyalagan. Navoiyning "Majolis-un-nafois" asarida musiqaning nazariy va amaliy jihatlaridan xabardor shoirlar maqtab tilga olingan. Chunki aruz san'atini egallashda, shoirdagi estetik hisni tarbiyalashda musiqaning ro'liga katta ahamiyat berilardi. Bastakor musiqaning nazariy-amaliy tomonlarini bilsa-yu lekin aruz ilmidan bexabar bo'lsa, ashulaga she'r bog'lashda xatolikka yo'l qo'yadi. Shuning uchun ham bu davrda ulug' shoirning topshirig'i bilan aruz ilmi va musiqa nazariyasiga doir risolalar yaratiladi. Bu davrda Xo'ja Abdulvafoyi Xorazmiy, Mavlono Alishoh, Muhammad Jomiy, Binoiy, Pahlavon Muhammad Ustod Qulmuhammad Udiy, Ustod Shodiy va boshqa yuzlab musiqa nazariyachilari va bastakorlar yetishib chiqdilar. Bastakorlik san'ati XVI-XVIII asrlarda yashab ijod qilgan musiqachi bastakorlar-Najmiddin Kavkabi va Darvesh Ali Changiyning musiqa risolalarida ham ma'lum darajada yoritib berilgan. XIX asr oxiri XX asrda "Shashmaqom"ning mashhur bilimdonlari Ota Jalol Nosirov (hofiz) va Ota G'iyos Abdug'ani (sozanda) hamda bu ustozlar an'alarini davom ettirib kelgan Domla Halim Ibodov, mohir ashulachilar Hoji Abdulaziz Rasulov, Mulla To'ychi Toshmammedov va Shorahim Shoumarov, ularning shogirdlari Yunus Rajabiy, To'xtasin Jalilov, Usta Olim Komilov, Faxriddin Sodiqov, Komiljon Otaniyozov, Muhammadjon Mirzayev kabi ustoz san'atkorlarni ko'rsatish mumkin. Ularning har biri o'z musiqiy ijod yo'lini yaratdilar. Ular yaratgan asarlarning aniq uslubi, ladi ohang tiniqligiga katta e'tibor berishgan, musiqani nihoyatda serohang va jiloli bo'lishi uchun xilma-xil murakkab usullarga murojaat qilishgan. Ularning asarlaridagi o'ziga xoslik, milliy ruh, falsafiy kayfiyat yaratilgan san'at namunalari go'zallik va umrboqiylik bag'ishlaydi. Bu ustoz bastakorlar o'z ijodiy faoliyatlari bilan Forobiy, Ibn Sino va Alisher Navoiy asos slogan o'zbek bastakorlik san'atining nodir namunalari targ'ib qildilar va davom ettirdilar. Ular O'zbekistonning hayotida badiiy havaskorlik jamoalarini kengaytirishda, milliy ijrochiligi jamoalarini tashkil qilishda faol qatnashdilar. Ulardan keyin bu ishlarni O'zbekiston xalq hofizi Fattoqxon Mamadaliyev, sozanda va bastakor Orif Xotamov, G'anijon Toshmatov, G'ulomjon Xojiqulov, Faxriddin Sodiqov, Matniyoz Yusupov, Tolibjon Sodiqov, Muxtorjon Murtozoyev, Rahmatjon Tursunov lar davom ettirishgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hasanova Navbahor Hamraqulovna. (2020). Bo'lajak o'qituvchilarning o'zbek mumtoz musiqasida kasbiy malakasini oshirish muammolari. *Xalqaro ilg'or fan va texnologiyalar jurnali*, 29 (08), 3489-3495. [Http://sersec.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558](http://sersec.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558)
2. Hasanova, Navbahor. (2020). METHODS AND WAYS TO DEVELOP THE MUSICAL FEELINGS OF STUDENTS IN THE LESSONS OF MUSIC EDUCATION. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(42). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5579
3. Khasanova, Navbahor (2020) "The role of music lessons in the formation of national and intercultural competence in students." *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*. Vol.2020 :Iss.2. Article 15 :<https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss2/15>

4. N. Hasanova O'zbek milliy musiqa merosi taraqqiyotida xotin-qizlarning o'rnini. Актуальный вызовы современной науки IX xalqaro ilmiy konferensiya 26-27 yanvar 2017 yil.

5. Muminova Muqaddas Riskulovna Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. THE ROLE OF SPORT ACTIVITIES, GAMES AND COMPETITIONS IN THE NURTURE OF 6-7 YEARS OLD CHILDREN <https://uzjournals.edu.uz/tziuj68-78betlar> 2022

6. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlarda pedagog kreativligi. "Yangilanayotgan O'zbekistonda fan, ta'lim va innovatsiya uyg'unligi" mavzusidagi 6-son 2-qism Respublika ko'p tarmoqli ilmiy konferensiyasi VIII bo'lim Toshkent 2021. 677 bet. Udk. 001.895 (575.1).

7. F.Karomatov O'zbek cholg'u ijrochiligi "Adabiyot va san'at nashriyoti" Toshkent 1972.

8. T.E Solomonova musiqa san'ati "Adabiyot va san'at nashriyoti" Toshkent 1982.

9. N.Yo'ldosheva N.Raxmatova "O'zbek musiqa adabiyoti" Toshkent 2010.

О ВОКАЛЬНЫХ ЦИКЛАХ УЗБЕКИСТАНА

Камиль Тахирович Мухамедзиянов

Преподаватель Джизакского Государственного педагогического университета имени Абдулла Кадыри

Annotatsiya: maqolaning asosiy vazifalari O'zbekiston musiqa madaniyatining dolzarb masalalarini aniqlash, yoshlarni tarbiyalashda musiqa san'atining zamonaviy tendentsiyalari va rolini o'rganish, falsafiy va an'anaviy mazmunga intilish, inshoning she'riy va matnli asoslari bilan tajriba o'tkazishdan iborat. Musiqiy ekspressivlik va kompozitsion echimlarning yangi vositalarini izlash, kompozitsiya, musiqashunoslik, bastakor san'ati, shuningdek musiqa san'ati tarixi, nazariyasi va amaliyoti bo'yicha ilmiy ma'lumot almashish. Ushbu maqola doirasida bastakor Akram Xashimovanning Abdurahmon Muhammadning she'riyatidagi vokal kompozitsiyalarini o'rganishga harakat qilindi

Kalit so'zlar: Janr, vokal tsikli, tahlil, falsafiy va an'anaviy tarkib, dramaturgiya, tajriba.

Становление узбекских камерно-вокальных циклов это сравнительно небольшой отрезок времени, который в своём развитии, дал ряд интересных образцов в данном жанре творчества. Многие из произведений свидетельствуют о плодотворном освоении композиторами республики этого нового жанра музыкального искусства Узбекистана. Сложный процесс становления вокальных циклов охватывает круг проблем, которые на каждом этапе развития решались разным путём. На первых порах (конец 30-х-начало 40-х годов) вокальная природа многих произведений выявлена не очень чётко. Поэтому во многих случаях трудно провести чёткую границу между вокальной и лирической песней. Но с ростом творческих сил в республике, вокальная основа произведений становится все ясней. Мы видим её отражение в большей рельефности и яркости художественного образа, в более тесной связи музыки и поэтического слова, в более точной передаче в музыке конкретного поэтического образа, и в возрастающей роли инструментального сопровождения, что в целом приводит к становлению (по сравнению с песней) более сложной музыкальной формы.

Песенное творчество композиторов в данный период представлено небольшим числом произведений. Это песни и романсы М. Ашрафи и М. Бурханова, написанные в годы учения в узбекской оперной студии при Московской консерватории. Это также первые творческие опыты студентов Ташкентской консерватории, относящиеся ко второй половине 30-х годов: Г. Кадырова, Х. Изамова, М. Мухамеджановой, Х. Нишанова, И. Хамраева и других.

В большинстве своем произведения молодых авторов не стали репертуарными. Однотипность музыкального решения независимо от темы и образного сопровождения стиха, упрощенность гармонии, иногда и неограниченность ее связи с мелодией, характеризуют эти произведения как своего рода пробу пера. Вместе с тем нельзя недооценивать значение этих ранних опытов. В работе над песней с фортепьянным сопровождением «...молодежь накапливала знания и опыт, которые должны были лечь в основу дальнейшей творческой деятельности»¹. Обращение к темам, отражающим жизнь советской страны, побуждало к поискам выразительных средств, отвечающих новому содержанию стихов. Так подготавливалась почва к развитию в последующие годы жанра массовой песни.

Среди вокальных произведений выделились миниатюры М. Бурханова — учащегося Московской оперной студии. В романсе «Эй, бул-бул» («О, соловей») на слова таджикского поэта А. Лахути (1935) появились некоторые черты, ставшие затем характерными для творческого почерка Бурханова. Это глубокий лиризм, тяготение к психологичности, выразительность мелоса и органичность его связи с гармонией, прозрачность инструментального (в данном случае фортепьянного) сопровождения, стремление к полифонизации фактуры.

В этот период возникают произведения, утверждающие новый для узбекской музыки жанр романса. Связи с традициями национального наследия, как в образном строе романса, так и в музыкальном языке, очень ясно прослеживаются. Но в отличие от многих современных ему произведений музыка «Эй, бул-бул» не копирует образцы далёкого прошлого; композитор развивает те возможности, которые издавна были заложены в музыке и поэзии узбекского народа. Рождение узбекских вокальных песен приходится на конец 30-х и начало 40-х годов и связано с именами первых национальных композиторов: М. Бурханова, С. Кулакова, М. Левиева. Первые, наиболее значительные успехи их творческой биографии связаны именно с вокальными песнями. Примером может служить творчество Бурханова. Среди его вокальных песен особое место по художественной ценности занимают произведения, созданные в 40-е годы, — «Табассум қилмадинг ҳеч» «Не улыбнулась ты» (1946) и «Намедонам чи ном дорад» — «Я имени её не знаю» (1949) на стихи классиков — А. Навои и Хафиза Ширази.

Ко второй половине 30-х годов относится появление первых крупных произведений для голоса с оркестром. Это вокально-симфоническая поэма «Витязь в тигровой шкуре» М. Ашрафи и Н. Миронова на стихи Ш. Руставели (1936 г.) и баллада «Ишқ ўти» («Огонь любви») М. Бурханова на стихи Б. Машраба (1939 г.)¹.

Большой популярностью пользовались партитуры Л.Ф.Козловского, написанные для женского голоса в сопровождении симфонического оркестра. При написании их композитор использовал мелодии широко распространенных в

народе песен «Тановар»¹, «Гуль-юз ўзра» («На прекрасном лице») и «Фигон» («Плач»).

В 1941—1942 гг. песен создавалось так много, что в доме Союза композиторов Узбекистана ежедневно устраивались прослушивания только что законченных произведений.

Уже в первый год войны газета «Известия» сообщала: «Двести музыкальных произведений — походных маршей и оборонных песен на тексты узбекских и русских поэтов—написали композиторы Узбекистана в дни Отечественной войны. Свыше сотни произведений размножены и широко исполняются на оборонных вечерах и концертах»¹. Песни создавались как местными композиторами (М. Ашрафи, М. Бурхановым, Б. Гиенко, Д. Закировым, А. Козловским, Т. Садыковым, С. Юдаковым и др.), так и приехавшими в Ташкент с Украины, из Москвы, Ленинграда (Л. Ревуцким, О. Чишко, М. Штейнбергом, Л. Шварцем и др.). Авторами их были и крупные мастера, и студенческая молодежь. Характерно, что к песенному жанру в то время обращались даже те композиторы, которые до тех пор работали преимущественно в жанрах симфонической и театральной музыки (В. Успенский, Г. Мушель). Это естественно, поскольку песня и на фронте, и в тылу являлась могучим средством агитации, воодушевлявшим людей на боевые и трудовые подвиги.

По сравнению с песнями предшествовавшего периода песня годов Великой Отечественной войны характеризуется гораздо более широким охватом жизненных явлений. Очень важное место заняла тема Родины, связанная с защитой советской земли от фашистских захватчиков. Появилось много песен, воспевающих героизм советского человека, его мужество, стойкость и отвагу. По-новому зазвучали тогда трудовые песни, так как работа в тылу стала частью всенародной борьбы за независимость Родины. Новые мотивы стали ощущаться и в лирике.

В стилевом отношении песни того периода весьма различны. Композиторы, приехавшие с Украины или из Москвы, Ленинграда, продолжали писать в традициях русской или украинской массовой (иногда сольной лирической) песни. Наряду с этим в творчестве таких композиторов, как М. Штейнберг, В. Волошиной, О. Чишко, Л. Шварц и других, довольно скоро начало ощущаться воздействие «звучащей атмосферы» республики «белого золота», приютившей друзей в годину тяжелых испытаний.

Элементы узбекского фольклора начинают входить в песенное творчество русских композиторов, «вкрапчиваться» в основную музыкальную ткань. Естественно, что в тех случаях, когда опытные мастера сотрудничали с народными музыкантами (композиторами-мелодистами), национально-узбекский склад мелоса ощущается очень полно (например, в песнях «Родная Москва» и «Всегда готов Узбекистан» Т. Джалилова и М. Штейнберга или в «Гвардейцах Фархада» Т. Джалилова и О. Чишко).

В послевоенный период наблюдается выдвигание целого ряда самодеятельных авторов. Чаще всего это участники кружков музыкальной самодеятельности. Значение их творчества стоит отметить в плане расширения ритмо-интонационных рамок узбекской песенности.

Метод переосмысления бытующих в народе мелодий лежит также в основе песенного творчества композиторов-мелодистов (бастакоров). Однако переосмысливаемая народная мелодия претерпевает у них значительно большее ритмо-интонационное и темповое изменение, активной обогащается новыми интонациями. Ярким примером может служить одна из любимых в народе песня «Гулшан диёр»

(«Цветущая страна») Ганиджана Ташматова¹ на слова Уткура Рашида, созданная на основе мелодии народной песни «Қоралар» («Чёрные»). В результате существенных изменений (темп ускорен, несколько усложнился ритм, новыми оборотами обогатилась мелодия) характер музыки стал иным: протяжная лирическая песня зазвучала светло и задорно.

Путём подобного переосмысления народной мелодии бастакоры создают достаточно индивидуализированные песни, что наблюдается в «Шифокорлар» («Исцелители») К. Джаббарова (в основе её лежат интонации «Соқийномаи Мустах зод» из макома «Рост»), а также в некоторых песнях

С. Каланова, А. Касымова, Ф. Садыкова, И. Икрамова, написанных на темы современной действительности.¹

Путь, пройденный узбекской вокальной музыкой за 1945—1967 гг., не богат количественными результатами. В рассматриваемый период вокальные жанры продолжали развиваться в традиционных направлениях, сложившихся в предшествующие периоды. Обогащаются песня, романс, хор а'капелла, кантата, оратория, расширяется их тематическое содержание. Наряду с произведениями на современную тему также происходит обращение к образам прошлого. В романсе получают углубление лирические настроения; поиски новых путей осмысления жанра происходят в песенном творчестве.

Небольшой по времени послевоенный период отмечен сложностями в развитии песенного жанра, представляющего совокупность различных стилистических направлений — массовой и эстрадной песни, песни бастакоров.

В предшествующие периоды в сознании массового слушателя безраздельно господствовал жанр массовой песни как устоявшаяся и развитая форма. Она была детищем своего времени с установившимися эстетическими нормами слушания, восприятия и исполнительства, составной частью духовной жизни человека того времени.

В музыке 1960-х —1980-х годов —происходит развития узбекской камерно-вокальной музыки, показатель разнообразия ее эстетических концепций и внутреннего, качественного роста музыкально-художественного мышления, в котором преломляется и чуткое ощущение национальной традиции и подлинно современное художественное видение

Как и в прежние годы, вокальная музыка привлекает к себе внимание многих узбекских композиторов. Это известные мастера И. Акбаров, М. Бурханов, Д. Закиров, М. Левиев, С. Бабаев, М. Насимов, композиторы среднего поколения — Сайфи Джалил, Н. Закиров, К. Кенджаев, М. Гаджиев, Т. Курбанов, молодые авторы— Р. Абдуллаева, М. Бафоев, Х. Рахимов. Жанр романса занимает важное место и в творчестве Г. Мушеля, Б. Гиенко, А. Берлина, В. Мейена, Ф. Янов-Яновского, С. Вареласа, А. Вареласа.

В эти годы активизировалась деятельность композиторов младшего и среднего поколения. Особый, повышенный интерес проявляет к вокальной музыке недавно окончившая консерваторию молодежь.

Вокальное творчество композиторов Узбекистана Узбекская поэзия представлена узбекской поэзией: Т Тулы («Струны души моей» С. Вареласа), Х. Алимджана («Только ветер» А. Берлина), А. Мухтара и Б. Исраилова («О тебе я думаю», «Весною на БАМе» А. Берлина).

В рассматриваемый период написан ряд произведений на гражданскую тему, на темы Великой Отечественной войны (например, «Хотира»—«Память» Х. Рахимова).

По-прежнему одна из ведущих тем — лирика, что обусловлено жанровой спецификой вокальной песни. Однако лирика теперь получает несколько иную направленность, иное толкование. Это выражается в большей психологичности, углубленности во внутренний мир человека. Его чувства — страдание и счастье, любовь и разлука — представлены в новой окраске: менее созерцательной, более активной и живой (вокальные песни из циклов М Бурханова, Р. Абдуллаева, Х. Рахимова, С Джалила и других)

Наряду с лирикой все больший вес обретает философская тематика: композиторы пытаются осмыслить мир, воплотить вечные, общечеловеческие темы («Пять рубаи» Н. Закирова, «Дума о Матери» Р. Абдуллаева).

Стилистическая многоликость, характерная для современного романса, во многом связана с многообразием искания нового в музыкальном языке, со стремлением в совершенной художественной форме отразить нашу действительность. Пути реализации этих намерений различны. Одни композиторы идут проторенным путем, развивая традиции, сложившиеся в творчестве старших коллег. Другие, углубляясь в традиции национального наследия, ищут пути нового прочтения и нового непривычного использования традиционных элементов, средств и приемов. Третьи настойчиво стремятся к обновлению жанра, к новым композиционным и структурным решениям.

Претерпевает изменения и жанр. Ведущая тенденция этого периода — создание циклов романсов, что характерно для всей узбекской камерно-вокальной музыки. Цикл, как известно, даёт значительно больше возможностей для реализации основной идеи, выявления содержания стихов. К циклам обращаются И. Акбаров,

Б Зейдман, С. Варелас, Н Закиров, В Мейен, Х. Рахимов, Ф. Янов-Яновский

Композиторы стремятся расширить рамки камерного жанра. Создаются произведения для различного состава исполнителей: для голоса и струнного квартета (два романса С. Джалила, «Газал»—«Газель» Д. Закирова), для голоса и камерного оркестра «Юрак сири»—«Тайна сердца» М. Таджикиева), для голоса, фортепиано и виолончели («Келса ногих...» М. Бурханова) для голоса, флейты и виолончели (романсы Х. Рахимова).

Классификация камерно вокальных циклов композиторов Узбекистана в этот период по признаку их интонационной природы, выделяется два основных направления. Первое — вокальные циклы национальных узбекских композиторов, опирающиеся на интонационную основу узбекского мелоса. Второе произведения русских композиторов, продолжающие традиции русского классического вокала и в одних случаях опирающиеся на интонации русского мелоса, а в других, использующие некоторые узбекские народно-песенные обороты.

С точки зрения становления общенациональной, и в частности музыкальной культуры узбекского народа, наибольший интерес представляют циклы, возникшие на интонационной основе узбекского мелоса.

Окинув взглядом путь, пройденный в камерно вокальной музыке композиторов Узбекистана, с первых этапов его формирования до сегодняшнего дня, нетрудно выявить некоторые характерные тенденции.

Прежде всего обращает на себя внимание тот факт, что узбекские вокальные циклы с первых шагов зарождения возникли не на основе цитатного использования народно-

песенного материала, а вследствие обращения композиторов к типичным закономерностям некоторых традиционных жанров художественного наследия узбекского народа. С этим тесно связано сравнительно более позднее рождение жанра камерно-вокальной лирики в Узбекистане, а также и то, что формирование этого жанра протекает непосредственно в творчестве узбекских композиторов.

Это объясняется прежде всего тем, что в самой природе узбекского национального музыкального наследия заложены важные предпосылки для возникновения камерно-вокальных циклов. В силу синтетического характера этого жанра и огромной роли поэтического начала, здесь возникают тесные и глубокие параллели с некоторыми образцами узбекской профессиональной музыки устной традиции.

От этого пласта национального наследия — профессиональной музыки устной традиции — протягиваются нити к нашей современности. Так, образно-эмоциональный строй многих вокальных циклов приближает в какой-то мере произведения современного композиторского творчества к протяжным лирическим песням жанра ашула и к развитым образцам профессионального наследия. Этому во многом способствует и единая поэтическая основа, где зачастую звучат стихи классиков узбекской литературы. Наряду с отражением в циклах традиционных черт, проявляющихся в мелодике, в методах развёртывания интонационного материала, структуре музыкального целого, в то же время мы видим и черты нового жанра, отличающие его от традиционных лирических песен. Это несомненно является следствием формирования нового музыкального мышления композиторов. Чуткое и творческое проникновение в поэтический текст рождает произведение оригинальное, отмеченное рядом неповторимых черт в смысле трактовки художественного образа, формы, а также подачи музыкального материала.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ

1. Анализ вокальных произведений. М., 1988.
2. Асафьев Б. Музыкальная форма как процесс Л., 1977.
3. Васина - Гроссман В. Музыка и поэтическое слово - М., 1978.
4. **Карелова И. Песня и романс, сб.** «Музыкальная культура Узбекистана», Ташкент, 1955, стр. 176.
5. Мазель Л. Вопросы музыкального анализа М., 1978.
6. Мальмберг И. Восточная поэтическая миниатюра (в русском переводе) в творчестве композиторов XX века. Т., 2012.
7. Мальмберг И. Узбекская музыкальная культура / Макомы. Рукопись. Т., 31.03.1954.
8. [http:// ru. wikipedia. Org.](http://ru.wikipedia.org)
9. [http:// www. musika.ru](http://www.musika.ru)

МАКТАБ ТАЪЛИМИДА ХОР ЖАМОАСИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ

Муртозаев Дониёр Ризоқул ўғли

НавДПИ, Мусиқа таълими кафедраси ўқитувчиси

Annotatsiya. Maqolada maktab ta'limida xor jamoasini tashkil etish haqida tavsiya va metodik izohlar, xor to'garaging faoliyati va g'oyaviy-siyosiy, badiiy estetik tarbiyalash ishlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalitli so'zlar. xor, akapella, arioz, ariya, opera, qo'shiq, to'garak, ta'lim-tarbiya

Хор тўгараклари оммавийлиги, кўп сонли болаларни қамраб олиши жиҳатидан мусиқавий-эстетик тарбия соҳасида тўгаракларда олиб бориладиган ишларнинг бошқа шакллари орасида йетакчи ўринни эгаллайди. Хордаги ижрочилик фаолияти турларининг хилма-хиллиги хор жамоасида қатнашаётган ўқувчиларнинг мусиқий қобилиятларини юқори даражада ривожланишга кучли таъсир кўрсатади.

Умумтаълим мактабларида ташкил этилган хор тўгараклари куйидаги масалаларни ҳал қилишга қаратилади: Мактаб ўқувчиларини мусиқа асарини тушуниб ва ифодали ижро этишга, кўшиқ ижрочилиги, ансамблда куйлаш, кўп овозда куйлаш малакаларини эгаллаб олишга, мусиқа жўрлигида ва жўрсиз кўшиқ айтиш, ўзбек, қардош халқлар ва ўрни келганда чет эллар кўшиқчилиқ маданияти ҳақида маълум тушунча ва тасаввурларни мусиқий қобилиятларини ривожлантиришдир.

Умумтаълим мактабларида ташкил этиладиган хор тўгараклари биринчи навбатда болаларнинг ёш, психологик-физиологик жиҳатларини эътиборга олган ҳолда ташкил этилади:

1. Кичик мактаб ёшдаги ўқувчилар хори. Бу 1-4 синф ўқувчиларидан ташкил этилади.

2. Ўрта мактаб ёши 5-7 синфлар.

3. Катта ёшдаги ўсмирлар хори 8-9 синфлар. Мактаб хор тўгаракларидаги машғулотлар мусиқа дарсидаги мусиқа тарбиясининг табиий давомига айланиши ва шунга имконият яратиш лозим. Шунга кўра машғулотлар дарс давомида ўрганилган, ортирилган кўникма ва малакаларни ривожлантириш ва чуқурлаштиришга қаратилган бўлиши лозим.

Хор жамоасини ташкил этиш одатда хорда қатнашиш истагида бўлган ўқувчилар овозини эшитиб кўришдан бошланади. Овоз диапазони, тембри турли машқлар ёки мактаб ўқувчисига яхши маълум бўлган кўшиқни ижро этиш жараёнида аниқланади ва овозлар гуруҳларга (партияларга) ажратилади.

Ўқувчиларни хорга жалб қилишда уларни мусиқани эшитиши, ритми ва мусиқани эслаб қолиш қобилиятини текшириб кўриш муҳим жиҳатлардан ҳисобланади.

Болалар хорларини ўртача таркиби 40-50 кишидан иборат бўлиши керак. Хорни ташкилий масалалари учун маъсул шахслар тайинланадики, уларни вазифалари машғулотлар куни, жойини аниқлаш, хонани тайёрлашдан иборат бўлади.

Машғулотларни дастлабки даврида ўқувчиларни хор бўлиб кўшиқ айтиш қоидаларига ўргатиб бориш лозим. Бунда хорда куйлаш ҳолати (турганда, ўтириб куйлашда), кўшиқ айтиш чоғида нафас олиш, аниқ артикулятция, диктция, дирижёрлик ишораларини англаган ҳолда куйлаш, ауф такт, тўғри интонатсия қилиш кабилар эътиборда тутилади. Ҳар бир машғулот олдидадан ўтказиладиган вокал-машқлари куйлаш

жараёнида мусиқани яхши эшитиш, тўғри нафас олиш, уни қўшиқ айтганда қичқирмаслик бўйича тушунтиришлар бериб бориб борилади.

Қўшиқчилик малакаларини шакллантириш жараёнида техникавий ва бадиий-эстетик вазифаларни бир-биридан ажратиш мумкин эмас. Бу вокал машқларини танлаб олганда уларнинг методик жиҳатидан мақсадга мувофиқлигини эмас, балки бадиий аҳамиятини ҳам ҳисобга олиш лозимлигини англатади.

Хор иштирокчилари хорнинг асосий малакаларини эгаллаб олганлари ва мусиқа асарларини вокал машқларини интонатция жиҳатидан тўғри ижро эта оладиган бўлганларидан кейин раҳбар хор асарларини мусиқа жўрлигисиз (аъсапелла) ижро этиш устида иш олиб боришга тўғри келади.

Айни жўрсиз қўшиқ айтиш мусиқа эшитиш қобилиятини, хотирани, аниқ вокал интонатсияни ва бошқа малакаларни ривожлантиришга ёрдам беради.

Хор бўлиб қўшиқ айтишни ўргатиш ўқувчиларни ёшига мос бўлган, мавзу ва мазмун жиҳатидан ранг-баранг, турли жанрлардаги, тарбиявий аҳамиятга молик хор репертуарига асосланади. Репертуар танлаш кўпроқ педагог-хормейстрни малака ва ўқувчига боғлиқ бўлади.

Хор қатнашчиларининг контцерт фаолияти жамоа иши ижрочилик маҳоратига ва маъсулиятини оширишга олиб келади.

Хор машғулотларини кўтаринки руҳда яхши кайфиятда ўтиши унга бўлган қизиқишини кучайиб боришга олиб келади. Қизиқарли машғулот, усталик билан танланган репертуар ҳамма вақт мусиқага муҳаббатни, у билан мулоқотда бўлиш эҳтиёжини ривожлантиришда муҳим омилдир.

Болалар хори асосан икки овоз партиясидан ташкил топади:

- дискантлар (сопрано деб ҳам юритади).
- болаларни юқори овози.
- алтлар –болаларни пастки овозлари.

Хор бир кўринишли (овозли) бўлса дискант ва алт унисонда куйлашади. Икки овозли хор дискант ва алт партиясидан ташкил топади. Уч овозли хорда партиясидан бири иккига бўлинади (девизи). Тўрт овозли хорда эса ҳар бир партия иккига бўлинади.

Дискант партиясини диапозони *До*, *-фа* –*сол* 2 октава оралиғида бўлади. Алт партиясининг диапозони *Ля кичик* –*Ре* –*Ми*2 оралиғида бўлади. Болалар овозига юқори ва паст тесситурада ёзилган асарларни куйлаш тавсия этилмайди. Чунки болалар овози нозик бўлиб, бу уларнинг овозига сальбий таъсир этиши мумкин.

Болаларнинг овоз характерини аниқлашда, улар овозини партиясига ажратишда ҳар бир иштирокчининг физиологик хусусиятига боғлиқ бўлган «ишчан диапозони» (умумий диапозондаги энг қулай, кўп ишлатиладиган, равон жарангдорлик ҳосил қиладиган товушлар) ҳисобга олинади.

Кичик мактаб ёшидаги (7-10 ёш) қизлар ва ўғил болалар овози бир турда ҳали бўлиниб улгармаган бўлади. Шу сабабли улар шартли равишда биринчи ва иккинчи овозларга бўлинади. Энг яхши садоланиш *Ми* –*До*2 товушлари оралиғида бўлади.

Ўрта ёшдаги (11-13 ёш) ишчан диапозони анча кенгайди (до1–ми–фа2). Бу ёшдаги тембр аниқлиги кучаяди. Дискантларда сезиларли, ёркин, тиниқ садо, алтларда эса бўрттирилган ва теран садо пайда бўлади.

Мутатция даврида ўғил болаларда диапозон чегараси кескин ўзгаради. Овоз бўғиқ интонатсия ноани, овоз тез чарчайдиган бўлади.

Хор тўгараклари ишида машғулотлар вақти ҳам муҳим аҳамият касб этади. Машғулотлар узоғи билан 1,5 соатлар атрофида бўлиши мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Ундан зиёд вақтда болалар толиқиб ва зерикиб қолишлари мумкин, бу эса ўз навбатида ишнинг сифатига салбий таъсир кўрсатади, кутилган натижага эришилмасликка олиб келади. Хулоса қилиб айтганда мактаб хор тўгарагининг бутун фаолияти ўқувчиларни ғоявий, сиёсий, бадиий-эстетик тарбиялаш ишлари билан бирга, уларни ҳар жихатдан камол топтиришда ўз самарасини бермоғи лозим.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. В. А. Гуднова «Узбекская хоровая литература» Т. 1974 г.
2. Н. Шарафиева «Хоршунослик» Т. 1987 й.
3. Е. Гуднова, А. Василева «Ашула дарслиги методикаси» Т. II- қисм 1973 йил.

CHOLG‘U IJROCHILIGIDA O‘QUVCHI-YOSHLARNING MA‘NAVIY-AXLOQIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH NAZARIY METODIKASI

Mo‘minov Elyorbek Eldorbek o‘g‘li

Nizomiy nomidagi TDPU

“Musiq madaniyati” fakulteti o‘qituvchisi,

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘qituvchining talabalar muhitiga uzviy ravishda qo‘shilib keta olishi, pedagogik nazokat va uning me‘yorlari, talabalarni sevish, ularga mehr-muhabbatli bo‘lish, o‘qituvchi pedagogik nazokatining mohiyati, yosh avlod tarbiyasida, o‘qituvchida eng qiyin vaziyatlarda ham pedagogik nazokatning o‘ziga xos xususiyatlari, pedagogik nazokatni egallash malakalari, pedagogikada axloq va odobning muhim xususiyatlari, ta‘lim jarayonida dilkashlik hamda pedagogik takt haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: pedagogik nazokat, yosh avlod, malaka, axloq va odob, dilkashlik, talaba, o‘qituvchi. OTM

Bizga ma‘lumki pedagogik ishlarning muvoffaqiyati ko‘p jihatdan o‘qituvchilarning kasbiy faoliyati bog‘liq bo‘ladi. Har dars jarayoni uning oldiga bir qancha ta‘lim tarbiyaviy vazifa hamda muallimlarni qo‘yadi. Ba‘zan o‘quvchi yoshlar pedagog o‘qituvchilarga to‘satdan va kutilmaganda sodir bo‘ladi. SHuning uchun ham o‘qituvchi faqatgina o‘zining mutaxassisligi bo‘yicha bilishlariga suyanibgina qolmasdan turli xildagi metodik vositalardan mohirona foydalanishi lozim. O‘qituvchi ijodiy sezgirlik, tez fikrlay olish va aniqlovchilik xususiyatlariga ega bo‘lishi lozim.

Mana shu xususiyatlarning barchasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri musiqa o‘qituvchisiga tegishli chunki musiqa darslarida o‘quvchi qalbida qanday jarayon kechayotganligi musiqa sadolari ostida ularda qanday ichki emotsional kechinmalar gavdalanayotganligi u qay darajada u yoki bu musiqa asarlarini idrok etayotganligi haqida aynan musiqa o‘qituvchisi bilishi shart. Musiqa darslari ana shunday musiqaga xos nozik jihatlari va talablari bilan boshqa dars turlaridan farq qiladi. Xatto chetdan kuzatib tinglangan asar o‘quvchi ijrosida xatosiz to‘g‘ri ijro etilgan taqdirda ham bu o‘quvchi kuylayotgan yoki chalayotgan musiqa asarining asl mohiyatini chuqur anglab olgan degani emas. Masalan tabiatan musiqiy qobiliyatga ega bo‘lgan musiqa cholg‘u asbobida ijro etadigan asarni emotsional hissiyosiz “quruq” ijro etishi mumkin. Buning sabablari bir necha xil bo‘lishi mumkin. Masalan o‘quvi avvalam bor ushbu asarni yurkdan xis

etmasdan, shunchaki notaga qarab chalishi mumkin. Aslida bu ijro etish o'quvchiga huzur bag'shilmaydi. Bu holda ijro sifasiz eshitiladi aksincha o'quvchi qashqar rubobida ijro etayotgan mazkur asarni zavq bilan ijro etishi, unga bu rubobda ijro etiladigan asar tushunarli kuy ohangi yoqimli ekanligidan dalolat beradi. Bu holatda o'quvchi asarning emotsional tomonlariga berilib falsh chalishi yana aniq ritmdan chiqib ketib yozilgan notalarga e'tiborsizroq bo'lishi mumkin. Bunday holatlarni musiqa o'qituvchisi doimo o'z malakasida o'rgatib turadi. Xo'sh u holda o'qituvchi o'quvchining u yoki bu musiqa asarini qay darajada idrok qilganligini qanday aniqlashi mumkin? Sinfdagi 40-45 ta boladan qaysi biri ijro etilayotgan musiqa asarini diqqat bilan tinglaydi, qaysilari shunchaki jim o'tiradi? Qashqar rubobida ijro etiladigan asar o'zining rang-barangi jarangi bilan o'quvchi ko'nglidan joy olishi haqida gap bormoqda. Bunday hollarda musiqa asari senga yoqadimi degan savolga qoniqarli javob berishi ham chinakkamiga unda kuchli hissiyotlarni uyg'otganligidan dalolat bo'la olmaydi. Ko'pgina juda kuchli emotsional, ammo keskin va vahimali musiqa asari o'quvchida shunday kuchli ta'sir qilishi mumkinki, bunda ijro etilayotgan cholg'u asari unga yoqmaganlik sababini asarning quvnoq emasligi bilan tushuntirish mumkin. Musiqa asarlari jarayonida shunday holatlar ham uchrab turadiki bunda o'qituvchi o'quvchilarning darsga faol qatnashishlarini ko'rib, asar haqida ularning umumiy fikrlarini eshitib kerakli va mo'ljallangan natijada erishildi, deb hisoblashadilar. Ammo ko'p hollarda bu xato tasavvur ekanligi tezda ma'lum bo'ladi sinchiklab tekshirilib ko'rganda har bir o'quvchi ongida turli xil tasavvurlar va obrazlar gavdalanganligini ko'rishimiz mumkin. Hatto natnning soda va aniq tuzilganligiga qaramasdan ba'zi cholg'u asarlari o'qituvchining ichki dunyosidan kelib chiqqan holda bir biriga o'xshamagan turli-tuman tasavvurlar keltirib chiqarishi mumkin.

Bulardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, o'quvchining musiqiy idroki shakllanishi juda muhim va nozik masala bo'lib, musiqa o'qituvchisi mazkur jarayonga o'ta diqqat bilan ehtiyotkorlik bilan yondoshmog'i lozim. Darsda o'quvchilarning ideal darajadagi qashqar rubobida chiroyli ijrosini eshitib o'qituvchi cheklanib qolmasligi kerak, aksincha o'quvchi darsdan tashqari ko'cha kuyda boshqa joylarda shu asarni ijrosini chalib, mashq qilayaptimi yoki yo'qmi. Buni kuzatish kerak. Chunki agar asar o'quvchiga yoqqan bo'lsa, u holda u ushbu asarni uyda, ko'cha-kuyda mashq qilib, takrorlab turadi. Qolavrsa, ushbu chog'u asarini ijro etish barobarida u xursandchilik sezadimi kabi savollarga javob izlashi, ularni doim nazorat qilishi lozim.

Musiqa darsi ko'pqirrali dars tuzilmasiga kirganligi sababli musiqa darsida o'quvchi rivojlanadi, musiqiy va dunyoviy bilimlarni egallaydi. Ma'naviy dunyosini yanada boyitadi. Shuning uchun ham musiqa o'qituvchisi dars jarayonida har bir o'quvchini ham aynan o'zbek milliy cholg'ularining eng ko'p tarqalgan va hamma sevib eshitadigan va chaladigan ham savol-javoblarda qatnashish ham musiqa savodini organishda nazorat qilishi va kuzatishi juda muhim. Qashqar rubobi ijrochiligida o'quvchi yoshlarning manaviy axloqiy sifatlarini shakllantirishning guzalligi eng avvalo uning shakliga bog'liqdir. O'zbek halqining musiqiy merosi shaklan yani jonli nihoyatda hilma-hildir. Bu rang-baranlik qadimdan halq ichida keng tarqalgan turli musiqiy ohanglarda o'z ifodasini topib, bugungi kunga qadar rivojlanib kelmoqda. Shakl esa o'z navbatida asarning mazmuni bilan bevosita bog'liq bo'ladi va bu ikki jihat birlashib asarning qiymatini belgilab beradi. Musiqa asarining mazmunan guzal bo'lishi quyidagi jihatlarga bevosita bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11 M.Ahmedova Pedagogik konfliktologiya. T., 2017
2. Odilov A. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi. Toshkent, "O'qituvchi" 1995 yil.
3. A.I.Petrosyans "Cholg'ushunoslik" 3 nashr. Toshkent, "O'qituvchi", 1995 yil.
4. Беляев В., Музыкальные инструменты Узбекистана, Москва, Государственное музыкальное издательство, 1933. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi.-T.: O'zbekiston, 2009

OVOZ APPARATINING TUZILISHI. BOLALAR OVOZINING XUSUSIYATI VA UNI ASRASH METODLARI

Nurboeva Dilnoza Ahmad qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya: Ush bu maqolada bolalar ovoz apparatining tuzilishi va ovoz hosil qilish, o'quvchilarni musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish, emotsional, estetik hissiyotini faollash, ustoz va shogird an'analari, qo'shiq kuylash holati, ashulachilik nafasi uning turlari, ovozni vujudga kelishi murakkab psixologik, fiziologik jarayon ekanligi, kuylashdagi talaffuz, turli xil ansambllar va musiqa madaniyati darslarida, asosan boshlang'ich sinflarda qo'shiq kuylatish metodlari o'rin olgan.

Kalit so'zlari: Musiqa madaniyati fani, ovoz apparati, ashulachilik talafuzi, ashulachilik nafasi, qo'shiq kuylash holati, diktsiya, ansambl, xor, vokal, metodika.

Ovoz apparatining tuzilishi va ovoz hosil qilishda o'quvchilarni musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish va ma'naviy – ma'rifiy tarbiya berish bilan birga emotsional, estetik hissiyoti faollashtiradi, uning axloqiy estetik qiyofasidan shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Shunday ekan, o'quvchilarni musiqiy madaniy, axloqiy va estetik tarbiyalab kamolga etkazish uchun musiqa madaniyati darsi asosiy omil bo'lib etakchi o'rinda turadi.

Musiqa madaniyati fani o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy guruh va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didini o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi

Barcha fanlar qatori musiqiy ta'limda ham davlat ta'lim standartining joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to'laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular bolalar ommaviy xalq kuy va qo'shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlarida o'z aksini topdi. Musiqa san'atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalash, ularning barkamol bo'lib etishishlarida o'ziga xos va takrorlanmas manba bo'lib xizmat qiladi.

Azaldan Sharq jumladan, o'zbek musiqa ta'lim-tarbiyasi pedagogika va uning mukammal uslubiyotlari ustoz va shogird an'analari misolida takomillashib borgan. Shu bois musiqa madaniyati ta'limning yangi mazmuni yosh avlodni milliy musiqiy merosimizga vorislik qila oladigan, umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga etkazishni

nazarda tutadi. Xor bo‘lib kuylash murakkab psixologik-fiziologik jarayon hisoblanadi. Musiqa madaniyati darslarida vokal-xor ishlari, o‘quvchilarni ahloqiy-estetik tarbiyasi o‘qitishning eng faol shaklidir. Xor bo‘lib qo‘shiq kuylash o‘quvchilarning diqqat e‘tiborini kuchaytiradi, xotirasi, nutqi rivojlaniradi, ovoz diapazoni kengayiradi, musiqiy o‘quvi o‘stiradi, mutatsiya davri engil o‘tadi, dunyoqarashi yildan-yilga shakllanib boradi.

Vokal-xor malakalari musiqa darsida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, xor mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning diqqat-e‘tibori, ongliligi va aktivligi oshadi, musiqiy xotirasi yaxshi rivojlanadi va o‘rgangan qo‘shiqlarini ijro etganda, zavqlanish hissi paydo bo‘ladi. qo‘shiq kuylaganda, ijodiy ijrochilik hamkorligi kuchayadi va do‘stona jamoaga birlashadi.

Vokal-xor malakalari yordamida o‘quvchilar, qo‘shiqni so‘z ma‘nosi va musiqa ohangini chuqur idrok etadilar va asarni mazmuni orqali hayotni o‘rganadilar. Yuqorida bayon etilgan natijalarga erishish uchun quyidagi vokal-xor malakalarini shakllantirib borish va xor bo‘lib kuylaganda bunga qattiq rioya qilish shart. Chunki aynan vokal-xor malakalari vositasi bilangina yoqimli va ohangdosh, sof xor jarangdorligiga erishish mumkin. ⁱ

Har bir bolaning ovozi va musiqiy qobiliyatini rivojlantirishda, bolaning bo‘lg‘usi jamiyat kishisi sifatida barkamol bo‘lib, o‘sishiga yordam beradi. Xor bo‘lib qo‘shiq aytish vatanimiz yoshlariga musiqa tarbiyasi berishning muhim formasidir.

Maktabda qo‘shiq o‘qituvchisining asosiy vazifasi bolalarni musiqa san‘atiga qiziqtirish, uni sevishta o‘rgatish bolalarning musiqiy iste‘dodini rivojlantirishdan iboratdir.

1. Qo‘shiq kuylash holati, deganda darsda o‘quvchilarning o‘tirishi va turish holati nazarda tutiladi. O‘tirib yoki turib kuylaganda bosh, qo‘l va oyoqlarni qanday tutish lozimligi haqida o‘quvchilarga tushuntirish va doimo nazorat qilib, eslatib turishdan iboratdir. Mazkur malakaning qoidalari gavdani qiyshaytirmasdan to‘g‘ri turish, o‘tirib kuylaganda parta suyanchig‘iga suyanmasdan, elkalarini engil kerib, iyakni ortiqcha ko‘tarmasdan, bo‘yin va boshni to‘g‘ri ushlab, qo‘llarni erkin pastga tushirish va kaftlarni tizzalar ustiga engil qo‘yib engashmasdan o‘tirish va oyoqlarni elka kengligida erkin kuylash kabi holatlardan iboratdir.

2. Ashulachilik nafasi. Ma‘lumki kuylashdagi nafas bilan fiziologik nafas o‘rtasida ma‘lum darajada farq bor. Fiziologik nafas bola tug‘ilgan kundan tabiiy holda hayotining oxirigacha amal qila boshlaydi va aniq bir ritmdan ma‘lum bir vaqt oralig‘ida sodir bo‘ladi. Ashula aytishdagi nafas esa qo‘shiq xarakteriga qarab, tez, qisqa vaqt oralig‘ida sodir bo‘ladi. Nafas olish va uni chiqarish qo‘shiq jumlasining cho‘zimiga, sur‘atiga va harakterining ifodalanishiga qarab cho‘ziladi. Sun‘iy nafasdan aktyorlar, suhandonlar va qo‘shiqchilar foydalanadilar. Shuningdek, sun‘iy ya‘ni ehtiyojga qarab olinadigan nafas, ashulachilik nafasi deyiladi.

Ashulachilik nafasining quyidagi turlari mavjud:

1. ko‘krak nafasi;
2. diaffragma nafasi;
3. qorin nafasi.

Kichik bolalarning ko‘krak nafasi hali tor, qisqa ekanligi sababli, ular nafasni ko‘krak bilan oladilar, shu bois ashula aytganlarida elkalarini ko‘tarib, shoshilib va qo‘shiq jumlasini, so‘zini bo‘lib nafas olishlari tabiiydir. Shuning uchun bolalarning elkalarini ko‘tarmasdan, osoyishta, vazmin nafas olishi va uni qo‘shiq jumlasining oxiriga qadar bir maromda etkazish, ayniqsa so‘zni bo‘lib nafas olmaslikni o‘rgatib borishi lozim. Nafas olish malakasini ustida ishlash jarayonida bolalar diqqatini ovozlarining kuychan, ravon, yoqimli jaranglashiga jalb etiladi. Buning uchun gulni hidlagandek osoyishta va shovqinsiz nafas olishga o‘rgatiladi. Ana shu malakani amalga oshirishda darsliklarda, qo‘llanmalarda tavsiya etilgan vokal-xor

mashqlarini kuylash, bolalar xorlarida ijro etilgan qo‘shiqlarni magnit tasmlari orqali tinglash kabi amaliy mashg‘ulotlarda shakllantirib boriladi.

Bolalar mashq va qo‘shiqlarni kuylaganda o‘qituvchining qo‘l ishoralariga qarab nafas olishga va uni tejab, rasamati bilan jumla oxirigacha etkazishga odatlanib borishadi. Ayniqsa, dirijyorlik holatlari «diqqat», «auf», «ijroni boshlash», «ijroni tugatish»larga rioya etib kuylashga o‘rgatish nafasini rejaga solish uchun muhimdir. Bolalar nafasining hajmi imkoniyatlarini hisobga olgan holda mashq va qo‘shiqlarda nafas olish joylari oldindan belgilab qo‘yiladi va ularni o‘rgatish jarayonida amalga oshiradi.

Ovozni vujudga kelishi murakkab psixologik, fiziologik jarayondir. U ovoz apparati (kekirdak, hiqildoq) va uning ichidagi konussimon ikkita ovoz pardasining nafas (o‘pka, traxeyalar, ko‘krak qismi) va eshituv apparatlarining birgalikdagi amaliyotida hosil bo‘ladi. Tomoqda hosil bo‘lgan tovush kuchsiz va xishillab, sadolanib chiqadi, uning nutq apparati ayniqsa burun bo‘shlig‘i orqali tebranishi kuchayadi va o‘ziga xos tembr va jarangdorlik xususiyatiga ega bo‘ladi. To‘rt organ – nafas, ovoz, nutq va eshituv apparatining o‘zaro faoliyatidagi musiqiy oxangga qo‘yiladigan ovoz-ashulachilik ovozi deb ataladi.

1-sinfda o‘quvchilarning ovozi z o‘riqtirmasdan kuylatish uchun ashula aytishi primasi (sol₁-lya₁) bo‘ladi, ishchi diapazoni (mi₁-si₁). Umumiy diapazon (re₁-do₂) bo‘lib, bunga me‘yorida amal qilish lozim.

Bolalar bosh reanatoriga asoslangan falsetga yaqin ovozda kuylaydilar.

Bolalarni kuylatganda faqat yumshoq attaka bilan boshlash lozim, hech qachon qo‘shiqni qattiq attaka bilan boshlamaslik kerak. Buni o‘qituvchi nazorat qilib borishi shart. Soz har bir bolaning berilgan Musiqa tovushini aniq idrok etib, o‘z ovozi unga moslab kuylashi, saqlanishi degan ma‘noni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, sozlanish–ma‘lum balandlikdagi tovushni aniq intonatsiya kuylash demakdir. Bu muhim malaka bo‘lib hisoblanadi, chunki boshlang‘ich sinfdagi vokal-xor ishlarining asosiy maqsadlaridan biri sof unison (sof bir ovozda kuylashga) erishishdan iboratdir. Shuning uchun birinchi darsdan boshlab bolalarda sozlanish malakalarini rivojlantirish ustida sistemali ish boriladi. Ayniqsa, Musiqa o‘quvi sust rivojlanayotgan bolalarga e‘tibor kuchaytiriladi. Ularni o‘qituvchi ovozigacha cholg‘u asboblardan soz uchun berilayotgan tovushga va iqtidorli bolalar ovozigacha qo‘shilishga va tovush balandligin bilan barobarlashishga, ya‘ni tenglashishga da‘vat etiladi va intonatsion sof sozga erishiladi va bir hil balandlikda kuylanadigan mashqlar orqali amalga oshiriladi.

Ansambl– bu fransuzcha so‘z bo‘lib, birgalikda degan ma‘noni anglatadi. U Musiqa, balet, arxitektura san‘atlarining qonuniyatlaridan biridir. Musiqada bir necha ijrochilarning birgalikdagi ijrosi ansambl deyiladi. Masalan: o‘zbek xalq cholg‘u asboblari ansambli, raqs ansambli, vokal ansambli va boshqalar. Xorda esa barcha xonandalarning soz birligi, ijro tempi, ritm-usul va dinamik uyg‘unligi vokal-xor ansambli deyiladi. Ansambl xususiy va umumiy turlarga bo‘linadi. Xordagi barcha ijrochilarning bir ovozga sozlanib, hamma bir kuyda ansambl bo‘lib, ikki yoki uch ovozda kuylashi umumiy ansambl deyiladi. Har bir ovozni alohida-alohida sozi va ansambli xususiy ansambl deyiladi. Soz va ansamblni uyg‘unligi uzoq ish jarayonini talab etadi va shundagina oldimizga asosiy maqsad qo‘yilgan sof unisonga erishish mumkin.

Kuylashdagi talaffuz nutq talaffuzidan farq qiladi. Kuylashdagi talaffuz artikulyasiya organlari (lab, til, jag‘) ning faol hamjihatligi, vositasida amalga oshiriladi. Bolalar nutqida zaiflik, noaniqlik, ovoz apparatini siqib gapirish natijasida xorda baqirib kuylash nuqsonlari uchraydi. Bunday bolalarga e‘tiborni kuchaytirish va ular bilan uzoq vaqt yakka tarzda olib borish, shoshmasdan erkin gapirish va kuylashga undash lozim. Nafasni to‘g‘ri olib, jumlani

oxirigacha etkazishda, unli tovushlarni cho‘zib, undosh tovushlarni burro, dona-dona qilib kuylashga o‘rgatib borish talab etiladi. Bunda og‘iz shaklini, tilni harakatlariga, o‘zgarishiga katta ahamiyat berish kerak. Eng muhimi, bolalarni mashq va qo‘shiq matnini vokal uslublariga muvofiq, talaffuz etishga o‘rgatib borish lozim.

Boshlang‘ich maktablarda musiqa darslari xor bo‘lib qo‘shiq aytish, musiqa savodini o‘rganish va musiqa adabiyoti bilan tanishish bo‘yicha o‘tkaziladigan qator mashg‘ulotlarni o‘z ichiga oladi. Bulardan tashqari birinchi va ikkinchi sinflarda qo‘shiqni o‘rganish bilan bir qatorda xilma-xil ritmik harakatlar ko‘rsatib boriladi. O‘quvchilar musiqa madaniyati darslarida tovushlarning to‘g‘ri hosil qilish, to‘g‘ri nafas olish, so‘z va bo‘g‘inlarni niq talaffuz qilish, to‘g‘ri kuylash va jo‘r bo‘lib qo‘shiq aytishga o‘rganadilar. Bu xildagi malakalar qo‘shiq o‘rganish jarayonida rivojlantiriladi va mustahkamlanadi. Bolalar birinchi marta qo‘shiq aytganlaridayoq, so‘zlarini aniq talaffuz qilishlari va kuylash jarayonid baqirmasliklari, aytilayotgan qo‘shiq mazmunini tushunishlari hamdan uni ma‘nodor va ifodali qilib aytishlari lozim. Har bir yangi qo‘shiqni o‘tirib o‘rganish va tikka turib aytish kerak. O‘tirganda qomatni rostlash, engil nafas olish va qo‘llarni tizza qo‘yish lozim. Tikka turganda esa, boshni to‘g‘ri tutish kerak. Tana bilan bosh sal salqi holda bo‘lsa, qo‘shiq aytish holati to‘g‘ri bo‘ladi.¹

Qo‘shiqni o‘qituvchi ishorasi bilan hamma o‘quvchilar baravariga boshlashlari va tugatishi kerak. Ishora aniq va tushunarli qilib beriladi. O‘quvchilar o‘qituvchining har bir ishorasiga itoat qilishlari shart. Qo‘l siltovi yuqoriga bo‘lganda – bolalar nafas oladilar. Qo‘l siltovi pastga bo‘lganda kuylay boshlaydilar. O‘quvchilar birinchi mashg‘ulotdayoq, o‘qituvchi qo‘l harakatlarini o‘zlashtirishari va uni diqqat bilan kuzatishni o‘rganishlari lozim. Bolalarning ovozi doimo bir-birlariga jo‘r bo‘lib turishlari kerak. Shuning uchun ansamblni tuzish uzoq va chidam bilan mehnat qilishni talab qiladi.

Musiqa madaniyati darsi bo‘yicha o‘tkaziladigan birinchi mashg‘ulotda bolalarga juda baland va baqiroq ovoz bilan qo‘shiq aytish xunukligini agar shunday qilinsa, ovozning tez orada xiralashishini yoki yo‘qolishi mumkinligini tushuntirishi lozim.

Bu xildagi tushuntirishlar ovozlarda o‘zgarish sodir bo‘layotgan 12-13 yoshdagi o‘g‘il bolalar uchun juda muhim ahamiyotga egadir. Mana shunday davrda juda ehtiyotkorlik bilan ish ko‘rish bolalarga iloji boricha kamroq qo‘shiq aytirishga e‘tibor berish kerak. Qo‘shiq aytish malakasining asosiy tomonlaridan biri qo‘shiqni bir tekisda cho‘zib, ravon aytishdan iboratdir. Chunki bunday hollarda bir tovush boshqa bir tovushga ravon va silliq o‘tadi, to‘xtovsiz harakatda bo‘lgan yagona vokal liniyasi hosil bo‘ladi. Bolalar ovozini tarbiyalash vokal dinamik sezgini rivojlantirib borishi ham muhim ahamiyatga egadir.

Shuningdek, bolalar ovozini rivojlantirish va tarbiyalashda talaffuz yoxud diksiyaning ham roli kattadir. Darsda qo‘shiqni ijro etuvchilar uchun asar mazmunini tushunish muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan bir qatorda ijro etiladigan asar tinglovchilarga ham aniq etib borishi zarur. Shuning uchun ham darsda ijro etuvchi bolalar asar matnini aniq talaffuz qilish qobiliyatiga ega bo‘lishlari talab etiladi.

Bolalar birinchi sinfda mungli, sho‘x, marsh, raqs, tez va ravon aytiladigan qo‘shiqnlarni bir-biridan farq qilishini o‘rgnish lozim. Bolalar tovushlari cho‘zimi va balandligi haqida dastlabki tushunchaga ega bo‘lmoqlari va shundan keyin nota yozuvini o‘rgnishga kirishishlari lozim. Dastlabki bolalar “baland” va “past” tovushlar to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘ladilar. Rumerning “nota savodiga doir ko‘rgazmalari”dan foydalanish biror qo‘shiq kuyini shartli ravishda chizib ko‘rsatish mumkin.

O'qituvchi bolalar diqqatini aytiladigan qo'shiqda ovozini goh ko'tarib borishi goh pastlanuvchi, ba'o'ida esa bir xil balandlikda saqlanib turish holatlariga jalb qilish kerak. Buning uchun quyidagi metodik usul foydalidir:

O'qituvchi qo'llarini yuqoriga yoki pastga harakatlantirish yo'li bilan tovushlar balandligini ko'rsatadi. Natijada ko'rib eshitib bolalar idrok qiladilar.¹

Birinchi sinf bolalari aytiladigan qo'shiqlarda uchraydigan chorak va nimchorak notlari o'rganiladi, xolos. Bolalarning "chorak" yoki "nimchorak" cho'zimlarini nomlarini tushunish qiyin bo'lganligi sababli bu so'zlarni shartli ravishda "uzun" va "qisqa" deb tushuntirish mumkin. Birinchi yarim yillikda nota yozuvini o'rginishga tayyorgarlik mashg'ulotlari o'tkaziladi. Ikkinchi yarim yillikda bolalar birinchi oktavaning do tovushidan boshlab, ikkinchi oktavaning do tovushigacha bo'lgan oraliqdagi notalarni nota yo'llariga yozishni ularning mohiyatini bilib oladilar. Shu bilan bir qatorda skripka hamda bas kalitlari bilan tanishadilar. Tovushlar balandligi va kalit belgilarini ko'rsatishdan oldin beshta parallel nota yo'li ko'rsatildi. Notalarning mana shu parallel chiziqqlar ustiga va orlig'iga yozilishi, lozim bo'lganda esa nota yo'lining ostidan va ustidan beshtadan qo'shimcha chiziqchalar chizilishi tushutirildi. So'ngra nota yo'liga skripka va bas kalitlari yozib ko'rsatiladi.

Mana shu xildagi mashg'ulotlardan keyin tovushqatorning biror bo'lagi nota yozuviga qarab kuylanadi.

Shundan keyin bolalarga yarimtalik nota tushuntiriladi. Materialni tez va oson o'zlashtirish maqsadida bo'g'inlari kuylash, qarsak chalish bilan qilinadigan ritmik mashqlardan foydalaniladi.

Bolalarning musiqaviy tarbiyasida musiqaviy sezgisini rivojlantirish ham katta ahamiyatga egadir. Darsda bolalarning vokal sezgisini rivojlantirishda quyidagilarni e'tibor bersh kerak:

1. O'qituvchi sinfda xor jarangdorligiga doimiy ravishda xarakteristika berib borishi lozim.

2. O'qituvchi umumiy xor jarangdorligidan o'zgarishlari diqqat bilan kuzatib, baholab borishi kerak.

3. Darsda qatnashuvchi o'quvchilarning har biri o'z ovozini xorda jarangliligini ongli ravishda sezishga tarbiyalab borishi lozim.

Asarni aniq talaffuz yoki diksiyada kuylash ovoz apparatining erkinligini ta'minlaydi.

Xulosa qilganda keyingi yillarda qabul qilingan ta'lim to'g'risidagi hujjatlarda (musiqa ta'limi va tarbiyasi konsepsiyasi, umumiy ta'lim standartlari, musiqa madaniyati fanining yangi dasturi) musiqa ta'limi va tarbiyasida o'zbek xalq musiqasi, musiqiy meros (maqomlar, maqomlar tipidagi rivojlangan mumtoz kuy va ashulalar, katta ashulalar, dostonlar va musiqiy folklor) namunalari keng foydalanish va shu yo'l bilan qadimiy madaniy musiqiy qadriyatlarimizni tiklash nazarda tutilgan.

Musiqa madaniyati fani yangi dasturida qisman kuylash va asosan tinglash uchun tavsiya etilgan og'zaki an'anadagi kasbiy musiqa namunalari dars va sinfdan tashqari ishlarda o'rganilib, bu borada tayyorlash jarayonida turli fanlar (maqomlar asosi, o'zbek musiqasi tarixi, ashulachilik yoki ovozxonlik, dirijyorlik, asosiy va qo'shimcha musiqa asboblari, maktab musiqa repertuarini o'rganish va boshqalar) ni o'rganishdavoimida ham qo'llanilmoqda.

Musiqa ta'limi va tarbiyasi dasturi, shuning bilan birga shu darslarnig mazmuni va keskin o'zgardir, rus va Evropa musiqasini birmuncha qisqartirish yo'li bilan bir qancha milliy musiqani o'rganishga qo'l keladigan yangi fanlar kiritildi. Buning natijasida darslarning tarkibiy qismi, mavzulari va usuliyotida ham o'zgarishlar bo'ldi.

Bu o'zgarishlar bundan keyin milliy ma'naviy qadriyatlarimizni o'rganish, qadimiy an'analarni tiklashga yo'l ochish bilan bir qatorda bir qancha muammolarni kelib chiqishiga ham sabab bo'ldi. Masalan, endilikda hamma musiqa muallimlari milliy mumtoz, kasbiy musiqa va folklor namunalarini o'rganishlari zarur. Buning uchun avvalo musiqa darsliklari, tinglash uchun yozuvda musiqa namunalari to'plamlari va usuliyotiga oid materiallar bo'lmasa, bu murakkab musiqa namunalarini talab darajasida o'zlashtirishni ta'minlab bo'lmaydi.

Biz yuqorida qayd etib o'tgan barcha o'quv materiallari, darslik va qo'llanmalari, ko'rgazma materiallar, musiqa asboblari va boshqa o'quv jihozlari dars va umuman musiqa ta'limi va tarbiyasining samaradorligini oshirishda yarim shart-sharoit hisoblansa, qolgan yarmini o'qituvchining shaxsiy va kasbiy xususiyatlari (o'z kasbiga ishonch va sadoqat bilan qarashi, izlanuvchan va tashabbuskorligi, topqirligi va dadilligi, o'z kasbining nazariy va uslubiy tomonlari puxta bilishi, pedagogika va psixologiyaga oid bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi tashkil etadi). O'qituvchi atrofdagi (nohiya, shaxar, viloyat) ilg'or tajribali o'qituvchilar bilan muloqotda bo'lishi, tajriba almashtirish, o'z maxoratini tinmay oshirishi, davriy matbuotni kuzatib borishi orqali zamonaviy talablarga javob bera oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. R. Qodirov. «Boshlang'ich maktabda ko'p ovozda kuylash». T.1999 y.
2. Г. Дмитриева. Методика музыкального воспитания в школе.М.1989 г.
3. В. В. Асафев. «Xor san'ati haqida». (rus tilida), Leningrad, 1980 y.
4. L.M.Andreeva. «Xor dirijorligini o'qitish usullari» (rus tilida)M.1969 y.
5. E.A. Gudkova, A.B. Vasil'eva «Ashula darsligi metodikasi»T. 1973 y.
6. N.S. Sharafiyeva «Xorshunoslik» T. 1987 y.
7. N.I. Qoziyev, Xor dirijorligi xrestomatiyasi.1- 4 qismlar-T.1976 y.
8. Sh.Ro'ziyev. «Havaskorlik xor jamoalarini tashkil qilish va ular bilan ishlash». T.1982 y.
9. Sh.Ro'ziyev. «Xorshunoslik». Toshkent 1987 y.
10. B.Otayev. «Dirijorlik». Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 2003 y.
11. T.Vendrova, I.Pigareva Musiqa orqali tarbiyalash (rus tilida) M.,1991y.
12. K.Azimov. «O'zbekiston dirijorlari». Toshkent 2001y.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Sh. M. Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qattiyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. T: O'zbekiston. 2017 yil.
2. Sh. M. Mirziyoyev.Yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus.19.03.2019 yil.
3. Sh. M. Mirziyoyev.«Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi №112-sonli Qaror.02.02.2022 yil.

TALABALARDA OVOZ XOSIL QILISHDA NAFAS OLIISHNING O'ZIGA XOS YO'LLARI

Omonov Xasan Sulaymonovich –

J.D.P.U. Musiqa madaniyati fakulteti dekani, dotsent.

Annotatsiya: Talabalarga ta'lim – tarbiya berish jarayonida qo'shiq kuylash va vokal – xor mashqlarini kuylashda talabalarining ovoz xosil qilishda nafas olishning qanchalik ahamiyati muximligini va xonandalik nafasning oddiy nafasdan farqi, uning ishlash xolati hamda uni amaliyotda qo'llashning o'ziga xos usul, yo'llari, imkoniyatlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Vokal, xor, Ovoz, Nafas, Xonanda, Artikulyatsiya, Diafragma, Qat'iy ataka, Yumshoq ataka, Nafasli ataka.

Bugungi kunda yangi O'zbekistonimizda amalga oshirilayotgan islohatlar va o'zgarishlarning rivojini ta'minlovchi insonni tarbiyalash murakkab jarayon bo'lib, ushbu jarayon alohida diqqat etibor qaratishni talab etadi. Talabalarda yangi O'zbekiston taraqqiyoti tushunchalarini shakllantirish bo'lgan milliy g'oyaning yoshlarimizning mustaxkam etiqodida mexnatga, kelajakga, bir-biriga mexrli va oqibatli bo'lishlari milliy madaniyat va san'atga munosabatlarida kreativlik yondashuvlarni namoyon bo'lishiga erishish – bizning pirovard maqsadimizdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bir haqiqatni xech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak, mamalakatimizda madaniyat san'at taraqqiy etmasa jamiyat rivojlanmaydi. Xalqimizning rivojlanish darajasi, avvalo milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma'noda madaniyat bu – xalqimiz jamiyatimiz qiyofasidir. Biz O'zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz buni avvalo milliy madaniyatimizni rivojlantirishdan boshlashimiz lozim". Yangi O'zbekistonda yuz berayotgan o'zgarishlar barcha sohalaridagi kabi musiqa o'qituvchilarining zimmasiga ham katta vazifalar yuklaydi. Bu omil Pedagogika universitetlarida amalga oshiriladigan ta'lim jarayonlarida alohida e'tibor qaratish lozimligidan dalolat beradi. O'lkamizni tarannum etuvchi kuy va qo'shiqlarning musiqa madaniyati darslarida va shuningdek uslubiy asoslarini o'rganishda talabalarining ovoz tushunchalarini shakllantirishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Musiqiy ta'lim yo'nalishi talabalariga vokal ijrochiligi fanini o'qitish jarayonida ularning ovoz imkoniyatlarini yo'lga qo'yish, ular ustida ishlash, nafas olishi murakkab jarayon bolib, o'qituvchidan katta ma'suliyat va iqtidorni talab etadi. Shuning uchun o'qituvchi har bir vokal ijrochiligiga oid darslarni olib borish jarayonida turli usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xonandalik nafas olishni rivojlantirish kuylash asosi sifatida kuylovchilik tovush ustida ishlash jarayonida kechadi va asta -sekin, sistemali tarbiyalanadi. U bir maromda, erkin, ovoz hosil qilishda qatnashuvchan barcha sistemalarning tabiiy muvofiqlashuviga ko'maklashadigan bo'lishi kerak. Faqatgina kuylash bilan bog'liq tashkil etilgan, tinch nafas olish "tayangan" tovush uchun sharoit yaratiladi. Bunday tovush to'liq va chiroyli eshitiladi.

Ovoz hosil qilishdan oldin nafas olinadi nafasning bu fazasini nazorat qilish mumkin, bu o'qitish uchun juda muhim. Xonandalik nafas olish jarayonida o'pka havoga to'ladi va ovoz apparati ovoz hosil qilishga tayyorlanadi. Xonandalik nafasi shovqinsiz ancha chuqur, yarim esnash tuyg'usi bilan olinadi.

Nafas olganda ko'p miqdorda havo olish yaramaydi, zero tovush berish va ovoz hosil qilish jarayonining o'zi qam qiyinlashadi. Xonanda nafas olishi va chiqarishi nafasni bir zum tutib turishi bilan ajratiladi, keyin nafas chiqarish boshlanadi. Tovushni qayta yaratishdan oldin

nafasni bir zum tutib turish -nafas olish holati, nafas olish pozitsiyasini fiksatsiyalash momenti nafas olish ustanovkasi butun kuylash davomida , butun fiksasion nafas chiqarishda saqlanish kerak, bu nafas tayanchini tashkil etadi. To'qri nafas chiqarishning asosiy vazifasi uni ohista, tejamkorona chiqarish ovoz to'qimalari normal ishlashi uchun zarur bo'lgan to'qima osti bo'shlig'ida bosim yaratishdan iborat. Nafasni uni oxirigacha tovushga aylantirib sarflay olish xonandalik nafasini egallaganlik mahoratini belgilaydi.

Vokal-pedagogik amaliyotida pastki qovurg'a - diafragmatik, ya'ni aralash nafas olish eng qulay sanaladi. Nafasning bu tipda ko'krak qafasi va diafragma ishga faol kirishadi: nafas olish ularning bir paytdagi harakati bilan kechadi, bu to'liq nafas olish imkonini beradi. nafas va ovoz to'qimalari o'zaro ta'siri tovush tayanchini belgilaydi. Boshqacha aytganda, xonandalik tayanchi - ovoz apparatining barcha qismlari (bo'g'iz, nafas a'zolari va ustki trubka) muvofiqlashgan ishi natijasi.

Xonandalik tayanchining asosiy mezonini qayta yaratilgan tovush sifatidir. Bu yig'iq tembr bo'yog'iga boy, yaxshi eshitiladigan, dumaloq tovush. Shu sababli ta'lim boshlanishida to'g'ri tashkil etilgan nafas olish va tovush atakasi birinchi darajali muhim moment sanaladi, zero ko'p jihatdan xor jarangini belgilab beradi.

Ovoz to'qimalari va nafas hamkorligining boshlang'ich momenti -tovush atakasi deyiladi. Ataka tovush paydo bo'lish momenti. Ovoz hosil qilishning boshlang'ich momentida ovoz to'qimalari ishini tashkil etayotib, ataka izchil jarangni belgilaydi. Tovushni olish usulini ixtiyoriy o'zgartirib bu bilan ovoz

to'qimalari ish xarakteriga ta'sir etamiz, ular irodamizga bevosita bog'liq emas. Vokal pedagogik amaliyotida yumshoq va qattiq ataka qo'llanadi. Ataka kuylashda ifoda vositasi sanaladi.

Kuylash - musiqiy tashkil etish so'z bilan bog'liq bo'lgan musiqa san'ati. musiqiy nutq hosil bo'lishida nutq a'zolari: og'iz bo'shlig'i, til, yumshoq tanglay, pastki jag', bog'iz, hiqldoq qatnashadi. Bu a'zolarining (unli va undosh) nutq tovushlarini yaratishga qaratilgan ishi artikulyasiya (talaffuz) deyiladi.

Talaffuz a'zolari alohida ahamiyatga ega. Bu ovoz apparatining eng harakatchan va irodamizga buysunadigan qismi. Pastki jag' harakati, lablar ishi, yumshoq tanglay holatini ko'ra olamiz. Bu a'zolar ishi avvalo bo'g'iz bilan bog'liq. Talaffuz a'zolari ishi sustligi, xuddi zo'riqish kabi butun ovoz apparati ishiga ta'sir qiladi.

Kuylashda yumshoq tanglay va bo'qiz ham sozligi juda muhim, zero ongimizga bo'ysungan yumshoq tanglay orqali bo'g'izga uning barqarorligiga ta'sir etamiz. Yumshoq tanglayning esnash holatiga kelishi unlilar shakllanishga sharoit yaratadi, ularning dumaloqlashuviga, tembri, bo'yog'i, yuqori pozitsiyaga ta'sir etadi. Yuqori tonlar yumshoq tanglayning baland ko'tarilishi, baland "gumbaz" ni talab qiladi. Bu ayniqsa erkak ovozlari yuqori tonlarni shakllantirishda muhim. Kuylashga o'rgatish boshdanoq esnashga o'rgatishda qat'iy e'tibor qaratish lozim. Esnash nafas olish pozitsiyasining tarkibiy qismi sanaladi.

Artikulyatsiya organlarning kuylash skladi kuylash unlilarrosil bo'lishda nutqiy unlilardagidan akustika, formatiga ko'ra farqlanadi. Kuylash undoshlari ham shunday xususiyatga ega fonislar (alohida nutq tovushlari) yordamida xonandalik ovozi va ovoz apparati ishiga ta'sir usuli vokalga o'rgatishning fonetik metodi bo'lib, vokal pedagogikada keng tarqalgan va samarali hisoblanadi.

Artikulyasiya organlari ishi intensivligi va muvofiqlashganligi nutq tovushlari talaffuz sifati, so'zlar aniqligi diktsiyani belgilaydi. Artikulyatsiya apparati ishini shunday tashkil etish lozimki, tez va intensiv harakatlar, ayniqsa til harakatlari bo'g'izning kuylovchilik

ustanovkasini buzmasin, hiqildoqni deyarli qo'zg'atmasdan, tovushlarni talaffuz qilishga o'rgatish lozim.

Talabalar bilan ishlash jarayonida nafas olishning quyidagi tiplari farqlanadi:

1. Ko'krakda nafas olish. Bunda ko'krak qafasi a'zolari faol ishlaydi. Tashqi nafas olish harakatlari ko'krak qafasi devorlari faol harakatlardan iborat bo'ladi. Diafragma kam harakatchan, nafas olishda qorin ichga tortilgan. Ko'krakda nafas olish turi klavishlar yoki yuqori -ko'krak nafas olish, bunda, ko'krak qafasi, yuqori bo'g'ini, yelka va bo'yin mushaklari faol ishtirok etadi. Bu nafas olish yuzaki, bo'yin mushaklari zo'riqqan, hiqildoq harakatlari cheklangan, shu bois ovoz hosil qilish qiyinlashadi.

2. Aralash, ko'krak -qorin nafas olish. (suyak - abdominal). Ko'krak va qorin mushaklari, diaphragma faol.

3. Qorinda yoki diafragmatik nafas olish. Bunda diafragma va qorin bo'shlig'i mushaklari, jumladan biz ko'radigan qorin devori mushaklari, faol qisqaradi, ko'krak qafasi devorlari nisbatan teng. Erkaklar va ayollar nafas olishida ayrim tafovut mavjud. Erkaklar uchun "past", qorin nafas olishiga yaqin nafas olish xos. Ayollar ancha "yuqori" nafas oladi, ularning nafas olishi ko'krak tayanchiga yaqinroq.

Talabalarda nafas tayanchi - nafas olish mushaklari "o'yini", ularning qisqarganda, ya'ni harakatlanganda aniq muvoffiqlashgan o'zaro hamkorligi hisoblanadi. Nafas tayanchi plastik, nozik, egiluvchan bo'lishi kerak. Xonandalik tayanchining asosiy mezoni qayta yaratilayotgan tovush sifatidir. Tartibli, tembr bo'yoqlariga boy, yaxshi kelayotgan, tanlangan tovushni vokalchilar tayangan tovush deb bilishadi. Unga zid o'laroq, tayanmagan tovush tembr qashshoq, xorg'in, rangsiz, yetarlicha "parvozsiz", optimal kuchdan pastroq bo'ladi.

Tovush atakasi - nafas va ovoz apparati hamkorligida tovushning yuzaga kelish vaziyati.

Nafas olish va tovush atakasi birinchi darajali muqim moment, zero ular jarang xarakterini belgilaydi. Tovush atakasi ovoz to'qimalari va nafasning o'zaro hamkorligi turli variantlari bilan belgilanadi.

Ataka turlari:

1. Qat'iy ataka. 2. Yumshoq ataka. 3. Nafasli ataka. Qat'iy ataka.

Nafas chiqarish boshlanguncha, ovoz to'qimalari zich birlashadi, ovoz tovushi qat'iy, keskin qat'iy atakadan musiqiy ifodalilik vositasi sifatida asar xarakterini berishda foydalaniladi. Bundan tashqari, u bo'g'izni faollashtirish uchun qo'llaniladi.

Yumshoq ataka.

Ovoz (un) paychalari birlashishi moment! nafas chiqarish boshlanishiga to'g'ri keladi. Yumshoq ataka kuylashda ko'proq qo'llaniladi. Bo'g'iz jarangi (siqillishni) bartaraf qiladi. Yumshoq atakada tovush elastik, parvozli yumshoq bo'ladi.

Atakaning turlariga o'rgatish mumkin, o'rgangan xonanda tovush bo'lish usullarini ongli almashtiradi. Bu juda muhim, zero tovushni berish usuli ma'lum registrni qayta yaratish bilan bog'liq. Ataka, ovoz to'qimalari tovush hosil qilishning boshlang'ich momentida tashkil etilib, keyingi jarangni belgilaydi.

Tovushni olish usulini ixtiyoriy almashtirib, biz ovoz to'qimalari ishi xarakteriga ta'sir eta olamiz. Shu sababli ataka ovoz to'qimalari ishiga ongli ta'sir etishning eng muhim vositasi, u irodamizga bevosita bog'liq emas.

Insonning kuylovchilik ovozi obertonlarga boy. Obertonlarning balandligi, kuchi, miqdoriga ko'ra turlicha birikmalari jarangning umumiy fanini, tovush bo'yog'i yoki tembrini yaratadi.

Ovozning individual temбри ovoz apparatining anatomik xususiyatlari bilan belgilangan, biroq shuningdek, ovoz to‘qimalari va nafas to‘qimalarining muvofiqlashgan ishi, rezontorlar ishiga bog‘liq shu sababli ta‘lim jarayonida tembr sifatiga ma‘lum darajada ta‘sir etish mumkin tomoq va burun yontovushlarini to‘qilash butaolishsol bo‘la oladi. Tembrni ovoz to‘qimalari va talaffuz organlari ishiga ta‘sir etib o‘zgartirish mumkin. Shuning uchun talabalar bilan ishlash jarayonida diksiya va artikulyasiya apparatlari ustida ishlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Kuylash - musiqa san‘atining kuy va so‘z organik uyg‘unlashgan turi. Boshqachasiga uni musiqiy nutq deyiladi. Nutq tovushlarini hosil qiladigan ovoz apparatining qismi artikulyasiya (talaffuz) apparati, uning tarkibidagi a‘zolar talaffuz a‘zolari sanaladi. Bular: til, og‘iz bo‘shlig‘i, yumshoq va qattiq tanglay, pastki jag‘, bo‘g‘iz, hiqildoq. Bu a‘zolarining nutq tovushlarini yaratishga qaratilgan ishi artikulyasiya deyiladi.

Xonandalik artikulyasiya nutqi ustidan farq qiladi. Kuylaganda unlilar dumaloq, cho‘ziq, tembr va tovush balandligiga ega bo‘lishi kerak. Undoshlar esa sinq va tez talaffuz qilinadi. Artikulyasiya apparati ishining muvofiqlashganligi va intensivligi tovush talaffuzi sifati, so‘zlar aniqligi -diksiyani belgilaydi.

Kuylashda to‘g‘ri talaffuz adabiy tilning talaffuz normalari - orfoepiya (grekcha to‘g‘ri nutq) ga tayanadi. Xonandalik orfoepiyasi so‘zlashuvdagidan farq qiladi, kuylaganda undoshlar keyingi bo‘g‘inga ko‘chiriladi, toki bo‘g‘in ochiq bo‘lsin.

Xulosa qilib olganimizda talabalar bilan dars jarayonini olib boorish paytida ularning ovoz imkoniyatlariga etib berish va musiqa asarlarini kuylash jarayonida talaffuz, diksiya va artikulyatsiyalarning ahamiyati muhim bolib, nafasni to‘g‘ri ishlatish o‘qituvchining asosiy ishiga oylanishi muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A. Karimov. Yuksak ma‘naviyat - engilmas kuch. Toshkent Ma‘naviyat nashriyoti 2008 yil.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T: O‘zbekiston. 2016.
3. Mirziyoyev Ah. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qattiyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz. T: O‘zbekiston. 2017.
4. Y. Rajabiy. O‘zbek xalq musiqasi. Toshkent “Badiiy- adabiyot” nashriyoti 1963 yil.
5. Т.Е.Соломонова. Ўзбек музикаси тарихи. –Т.: “Ўқитувчи” нашриёти. 1981-йил.
6. Низомий номли ТДПУ (Рес.илм.анжуман). Узлуксиз таълим тизимида музика фанларини ўқитиш масаласи. –Т.: 2009-йил.
7. О. Fayziyev. Musiqa o‘qitish metodikasi Toshkent 1997 yil.
8. G. A. Gudkova, A. B. Vasileva Ashula darslari metodikasi Toshkent “O‘qituvchi” nashriyoti 1993 yil.
9. M.Rizayeva. Yosh xonandaning kamoloti. Toshkent. Cho‘lpon nasgriyoti 2003 yil.
10. Baubyekova G.D., Xalikova G.T. Innovatsionnye texnologii optimizatsii uchebnogo protsesssa. - V kn.: Obrazovaniye: opnt, problemn, perspektivi. Uchebnoe posobie. T.: “YaNGI ASR AVLODI” , 2001. - S. 67-99.
11. O‘zbekiston Respublikasi XTVning «Pedagog kadrlarni kayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi 149-sonli buyrugi G‘G‘ «Ma‘rifat» gazetasi. - T.: 2006 yil, iyun.

**BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARIDA
PEDAGOGIK JARAYONLARNI TASHKIL ETISH
(Fortepiano sinfi misolida)**

Qahorova Madina Komil qizi

J.D.P.U. "Musiq ta'limi va san'at" mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada bolalar musiqa va san'at maktablarida pedagogik jarayonlarni rejalashtirish va tashkil etish, ularda o'qituvchi mahoratining ahamiyati haqida so'z boradi. Bugungi kun musiqa o'qituvchilari faoliyati samaradorligini, pedagogik faoliyatini yo'lga qo'yishda avvalo, unda pedagogik mahorat, har bir pedagogik jarayonda zarur bo'lgan metodlarga egalik ahamiyati yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar. musiqa, san'at, cholg'u, ijro, estetika, faoliyat, pedagogika, pedagogik mahorat, komponent, mutaxassis.

Musiqa komil inson tarbiyasida uni ezgulikka yetaklovchi, ma'naviy dunyosini boyituvchi, axloqiy tarbiyalovchi, estetik didini oshiruvchi muhim omillardandir. Shu tufayli ham bola kamol topishida, uning tarbiya, ta'lim olish jarayonlarining har qanday bosqichi va ko'rinishlarida musiqiy tarbiyaning o'rni beqiyos. Bugungi kunda Yangi O'zbekiston har tomonlama rivojlanish jarayonlarida o'z oldiga bir qator muhim vazifalarni qo'yar ekan, musiqa madaniyati uzluksiz ta'lim tizimining bo'g'inlarida qay tarzda amalga oshirilish muammolarini ham dolzarb masalalardan biri sifatida belgilab oldi.

Bu sohada bir qator farmon, qarorlarning qabul qilinishidan musiqaning yoshlar tarbiyasida naqadar muhim o'rin tutishini anglash mumkin. 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.05.2020-yildagi PF-6000-sonli "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 02.02.2022-yildagi PQ-112-sonli "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida" gi qarori, shular jumlasidandir.

Musiqa ta'limining oliy maqsadi musiqani idrok eta oladigan, yetuk, barkamol, madaniyatli, nafaqat o'z milliy an'analarini, balki boshqa millatlar madaniyatidan boxabar va bu an'ana, madaniyatlarini xurmat qiladigan qilib voyaga yetkazishdan iboratdir. Bu jihatlar musiqiy fanlar, umuman musiqaning inson axloqiy, estetik tarbiyasida muhimdir.

O'zbekistonda ta'lim turlari quyidagilar:

- Maktabgacha ta'lim va tarbiya;
- Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
- Professional ta'lim;
- Oliy ta'lim;
- Oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- Maktabdan tashqari ta'lim." [1, 7-modda]

Maktabdan tashqari ta'lim turiga kiruvchi bolalar musiqa san'at maktablari aynan bolalarga musiqiy bilimlar berish, ularni professional musiqa va san'at turlari bilan shug'ullanishlarga yo'naltirilgan ta'limdir. "Bolalar musiqa va san'at maktabining asosiy maqsadi yosh avlodning musiqa va san'at turlariga qiziqishi va qobiliyatini rivojlantirish,

ijtimoiy faolligini oshirish, ularni xalqimiz an'analariga va milliy qadriyatlarimizga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy va ma'rifiy saviyasini har tomonlama oshirishdan iborat.

Quyidagilar bolalar musiqa va san'at maktabining asosiy vazifalari hisoblanadi:

-o'quvchilarning ma'naviy va estetik rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratish;

-o'quvchilarning iste'dodini har tomonlama kamol toptirish, madaniy saviyasini yuksaltirish;

-o'quvchilarni milliy va jahon musiqasi, tasviriy san'atning yuksak namunalaridan va o'zbek xalqining mumtoz musiqa merosi durdonalaridan bahramand bo'lishi uchun zarur sharoitlar yaratish;

-milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni uzviy birlashtirish asosida o'quvchilarda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish;

-o'quvchilarga umumiy musiqa, xoreografiya, teatr san'ati, tasviriy va amaliy san'at yo'nalishlari bo'yicha bilimlarning boshlang'ich asoslarini o'rgatish orqali ularni musiqa va san'at olamiga jalb etish;

-iqtidorli o'quvchilarni musiqa va san'at yo'nalishlari bo'yicha o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida o'qishini davom ettirish uchun tayyorlash. Bolalar musiqa va san'at maktablari maqsad-vazifalariga ko'ra o'quvchilarni musiqa va san'atning turli sohalarida professional tarzda ta'lim-tarbiya berishdan iborat.

Har bir xalqning o'z milliy cholg'u sozlari bor. Shu bilan birga, butun jahonning barcha xalqlari orasida ommalashgan cholg'u asboblari ham mavjud. Skripka, klarnet, truba, fortepiano kabi musiqa cholg'ulari shular jumlasidandir. Ular orasida fortepiano cholg'usi o'zining qulayligi, mosligi va ommaviyligi bilan alohida o'rin tutadi. Forteplano musiqiy tadbirlarning har qanday sharoitlarida yetakchi hamda ko'makchi cholg'u sifatida ishlatilishi mumkin. Shu bois fortepiano cholg'usi ixtisosligi bo'yicha saboq oluvchilar boshqa cholg'ularga nisbatan ko'p. Musiqa ta'limining har bir bosqichi jahon andozalarining ilg'or pedagogik ish namunalari asosida tashkil etilgan. O'quvchilar boshlang'ich bosqichning o'zida musiqa madaniyati, musiqa san'atining nazariy hamda amaliy bilimlariga ega bo'ladilar. Musiqa savodi va nazariyasi, solfedjio, musiqa tarixi kabi fanlar musiqani nazariy o'zlashtirishga qaratilgan. Ijrochilik bilan bog'liq ixtisoslik darslari o'quvchilarda mutaxassislik ko'nikmalarini shakllantiradi.

Boshlang'ich ta'lim tizimi muayyan ixtisoslik, ya'ni professional darajadagi mutaxassis tayyorlashning ilk bosqichidir. O'quvchilar umumiy bilimga ega bo'lish bilan birga, ixtisoslik tamoyillarining boshlang'ich sabog'ini oladilar. Bolalarning musiqa san'atiga kirib kelishi va o'z ixtisoslik kasbida ta'lim olishi bu bosqichning muhim omillaridan biri. O'quvchi bolalik davridan shaxsiy ijrochilik ko'nikmalarini hosil qilishi va bunda muntazam tayyorlanib borishi juda muhimdir. Shu bois, musiqiy ta'lim tizimining boshlang'ich bosqichi bolalar musiqa maktablari faoliyati bilan bog'liqdir. Nota yozuvini shu taxlit o'rganish o'quvchida fortepianoning u yoki bu klavishining belgisi ko'rinishida namoyon bo'lib, bunday o'qitish uslubi o'quvchi uchun har qanday hayotiylikdan holi bo'lib ko'rinardi. O'qitish uslubiyotining ko'p uchraydiga tanishtirish musiqiy nutqqa e'tibor bilan quloq solish, uning mazmun va tuzilishini anglash, yangrash sifatini aniqlashni o'rgatish zarur. O'quvchining eshitish tarbiyasi badiiy, shu bilan birga, bola uchun tushunarli va qiziqarli material asosida amalga oshirilishi kerak. Shu maqsadda xalq kuylari, kompozitorlarning bolalar va ommaviy qo'shiqlarini qo'llash afzaldir. Ushbu musiqiy material maktab va maktabgacha bo'lgan davr uchun mo'ljallangan turli xil qo'shiq to'plamlaridan olinishi mumkin. Qo'shiqlarni matn bilan

o'rganish maqsadga muvofiq. Shunga ko'ra, bolada mashg'ulotlarga nisbatan qiziqish uyg'onib, qo'shiqlarning musiqiy mazmuni yanada aniqlashadi.

Boshlang'ich ta'limda bolaga turli kuy qo'shiqlarni o'rgatish bilan bir qatorda, ilk darslardan oq uni cholg'u bilan tanishtirishni boshlash kerak. Bunda fortepianoning tuzilishi haqida gapirib berilsa, bola uchun juda qiziqarli bo'ladi. Klaviaturani ko'rsatish, o'rta, yuqori va pastki registrlarning yangrash xarakterini chalib namoyish etish, turli balandlikdagi tovushlarni tinglab ko'rish zarur. Tovushning "past" va "baland" tushunchalarini aniqlab berish kerak bo'ladi. Ilk darslarda o'quvchi tovushlarning nomlarini o'rganadi. Aynan ushbu qora klavishlar yordamida o'quvchi oq klavishlarni tezda topa olishiga erishish lozim. Bilimlarni mustahkamlash maqsadida uy vazifasi sifatida tovushlarni har xil oktavalarda aniqlash bo'yicha qator vazifalar berish mumkin. O'quvchini chalishga o'rgatishdan avval uni cholg'u oldida to'g'ri, qulay va erkin o'tqazish kerak. Bunda bolaning bukchaymasligi yoki zo'riqib o'tirmasligiga, ijro vaqtida yelkalarini ko'tarmasligiga e'tibor berish muhimdir. Ko'pincha dars shakllari pedagogning uslubiy qarashlari, shaxsiy ko'nikmalari va tabiati bilan xarakterlanadi. O'qituvchi o'quvchi bilan dars o'tish jarayoni qanchalik rang-barang bo'lishiga qaramay, ularning barchasiga tegishli bo'lgan mezonlar bor. Birinchi navbatda, buni biz o'qitishning ketma-ketlik tamoyillarida ko'rishimiz mumkin. Darsni nimadan boshlasa maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi. Eng avvalo, mashqlardanmi, etyudlardanmi yoki badiiy repertuarlardanmi, agar pyesalardan boshlash kerak bo'lsa, qaysi janrdan boshlash o'rinli bo'ladi degan savol amaliyotda muhimdir. Eng asosiysi, o'quvchini biror tartibga qattiq ko'nikib qolishi yaxshi natijaga olib kelmaydi. Har qanday darsni ma'lum tartibda va qiziqarli o'tkazish juda muhimdir.

Bolalar musiqa va san'at maktablari fortepiano sinfi mashg'ulotlarida dars jarayonlarini rejalashtirish va tashkil etishda o'quvchining imkoniyatlariga e'tibor qaratish, o'qituvchining o'z pedagogik mahorati, ijodkorligini namoyon etishi dars samaradorligini belgilovchi eng muhim jihatlardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning yangi tahriri. 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son Qonun.
2. "Bolalar musiqa va san'at maktablari to'g'risidagi nizaomni tasdiqlash haqida" gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.05.2016-yildagi 144-sonli qarori.
3. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" – T.: "Ma'naviyat", 2011-yil.
4. Asqarova M., Xayitboyeva M., Nishonov M. Pedagogika. "Talqin" nashriyoti. Toshkent., 2008-yil.
5. Hasanova, Navbahor. (2020). METHODS AND WAYS TO DEVELOP THE MUSICAL FEELINGS OF STUDENTS IN TTTE LESSONS OF MUSIC EUITURE. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(42). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5579
6. Khasanova, Navbakhor (2020) "The role of music lessons in the formation of national and intercultural competence in students." *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*. Vol.2020 :Iss.2. Article 15 :<https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss2/15>
7. N. Hasanova O'zbek milliy musiqa merosi taraqqiyotida xotin-qizlarning o'rni. Актуальный вызовы современной науки IX xalqaro ilmiy konferensiya 26-27 yanvar 2017 yil.
8. Маркова А.К. "Психология профессионализма" – М.: "Знание", 1996.

9. Muhammadjonova Z. “Fortepiano ansamblini o‘qitish uslubiyati”. Turon-Iqbol nashriyoti. Toshkent 2010-yil.

10. Muhammadjonova Z. “Fortepianoda chalishni o‘rgatish uslubiyoti”. Yangi nashr nashriyoti. Toshkent., 2006-yil.

11. Urinova S.Sh. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishning nazariy asoslari. “The best innovator in science” xalqaro maqolalar tanlovi to‘plami. Organized by Innovative Academy. Tashkent February 5, 2022. Pg 811. <https://zenodo.org/record/5979621#.YpC2PKhBxD8>

12. Utanov U, Urinova S. The role of creative aspects in the work of future music teachers. World Bulletin of Social Sciences. Open access Peer Reviewed Bi-Monthly. ISSN (E): 2749-361X. Journal Impact Factor 7.545 <https://scholarexpress.net/index.php/wbss.Vol> 9.Berlin 10785. Germany.April 2022. <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/922/825>.

O‘ZBEK XALQ QO‘SHIQLARINING MAHALLIY IJROCHILIK USLUBLARI.

Rahmonova Gulbahorxon Ne‘matjon qizi

II kurs magistranti

Ilmiy rahbar Rahimov Shavkat Normatovich

O‘zbek xalq qo‘shiqlari janr mansubiyati, yaratilish hududiga qarab mahalliy ijrochilik uslubiyatiga ajratiladi.Ular:

1.Farg‘ona-Toshkent musiqa uslubi,

2.Buxoro-Samarqand musiqa uslubi.

3.Surxondaryo-Qashqadaryo musiqa uslubi.

4.Xorazm musiqa uslubi.

Farg‘ona-Toshkent musiqa uslubi-Farg‘ona vodiysi, Toshkent shahri va viloyati hududlarida qaror topgan musiqiy an‘analarning majmuidir. Bunda xalq musiqasiga oid kuy, terma,lapar,yalla, qo‘shiq , ashula kabi aytim janrlari, shuningdek, dostonchilik, ashulachilik, maqomchilik kabi kasbiy musiqa an‘analari o‘z aksini topgan.

Farg‘ona-Toshkent musiqa uslubida bolalar floʻklori, xotin-qizlarning qo‘shiqchilik ijodi, yallachilik, ashulachilik va cholg‘u kuylari munosib o‘rin tutadi.Mazkur hududiy uslubning gultoji hisoblangan maqomlar – CHormaqqom ijrochilik maktabi va katta ashulachilik maktablari og‘zaki an‘anadagi kasbiy musiqa ijodi mahsuli hisoblanadi.

Chormaqqom

- Bayot,

- Dugoh Husayniy,

- CHorgoh,

- SHahnozi Gulyor ashula turkumlaridan tarkib topgan.Ular o‘z navbatida

Bayot -1-5, Dugoh Husayn -1-7, CHorgoh -1-5 va Gulyor,SHahnozi Gulyor,Farg‘onacha SHahnoz kabi turli ashula variantlaridan iborat.Bulardan tashqari maqomlarning yuzdan ortiq cholg‘u yo‘llari ham mavjud.Ushshoqlar,Giryra 1-2, Miskin turkumlari, Adoiy-Asiriy, Abdurahmonbegi, Qalandar turkumlari kabi ashula yo‘lidagi ijro namunalari shular jumlasidandir.

Farg‘ona-Toshkent musiqa uslubida “katta ashula” deb nom olgan ashula yo‘li ham bo‘lib, u odatda turli ommaviy yig‘in va tantanalarda ijro etilgan bo‘lib.uning ijrochilari kuchli

shirali ovoz va diopozonga ega bo'lishlari zarur edi. Katta ashulalarni katta-katta maydonlarda ovoz kuchaytirgichsiz baland pardalarda ijro etilishi talab etilgan. SHuning uchun bu janr ijrochilarining xalq orasida hurmat-e'tiborlari baland bo'lgan.

Farg'ona-Toshkent musiqa uslubida Haydar ota Boychiev, Jumaboy Baxshi, Razzoq Baxshi Qozoqboev, Qodirboy Baxshi kabi do'mbira chertib doston aytuvchi baxshilar ham bo'lib, ularning repertuari asosan "Alpomish", "Rustamxon", "Avazxon", "SHirin va SHakar" kabi dostonlardan iborat bo'lgan.

Farg'ona-Toshkent musiqa amaliyotida deyarli barcha xalq cholg'ularini, jumladan, dutor, tanbur, rubob, chang, sato, g'ijjak, nay, qo'shnay, surnay, karnay, doyra, nog'ora va boshqa sozlarni ko'rish mumkin.

Buxoro-Samarqand musiqa uslubi deganda Buxoro va Samarqand shaharlari va viloyatlari hududlarida qaror topgan musiqiy an'analar tushuniladi. Diyorimizning qadimiy madaniyat maskanlari bo'lmish bu vog'alarda xalq qo'shiqlari, ashulalari, cholg'u kuylari, qarsak o'yin – aytimlari hamda kasbiy musiqaga doir dostonchilik, sozanda san'ati va maqom namunalari keng o'rin tutadi. Mazkur uslublarning o'ziga xos jihatlaridan biri – ikki tillilik, ya'ni o'zbek va tojik tillari an'alarining namoyon bo'lishidir. Bu holakt shu sarhadda yashab, faloiyat ko'rsatgan ko'pgina shoirlar, jumladan, Mujrim Obid, Abdullo Mulham Buxoriy, Fitrat Zardo'zi Samarqandiy, Muzrib SHavkatiy Kattaqo'rg'oniyilar ijodida, shuningdek, ikki tilda ijod etib kelayotgan o'zbek va tojik xalqlarining yuksak mumtoz musiqa namunasi bo'lgan SHashmaqom turkumida o'z aksini topgan. Ikki tillilik an'anasi xalq musiqasida o'zgacha shakllarda aks etadi. CHunonchi, ayrim xalq qo'shiqlarini ayni vaqtning o'zida ham o'zbek, ham tojik tillarida kuylash mumkin.

Odatda, qo'shiqning bandlari o'zbek tilida, naqorotlari esa tojik tilida, ba'zan aksincha ham bo'ladi. Bundan tashqari, ayrim xalq qo'shiqlarini o'zbek yoki tojik tillarida kuylash imkoni mavjuddir. SHuningdek, faqat bir tilda kuylash uchun ijod etilgan qo'shiqlar ham uchraydi.

Buxoro-Samarqand musiqa uslubida sozandachilik san'ati ham shakllangan bo'lib, u ayollar ijodi bilan bog'liqdir. Sozanda – bu yakkaxon – aytimchi bo'lib, u qo'lida qayroq yoki zang ushlab raqsga tushadi, qo'shiq baytlarini kuylaydi. Ikki-uch ayoldan iborat doyrachilar dastasi esa naqoratlar bilan jo'r bo'lib turadi. Demak, sozanda dastasida jami 3-4 ayol – yakkaxon-sozanda, doyrachi, naqorotchi qatnashadi.

An'alarga ko'ra, sozanda dastalari o'z san'ati bilan faqat xotin-qizlar davrasida o'tkaziladigan yig'in, to'y yoki turli bayramlarda namoyish etadi.

Buxoro musiqa uslubida **mavrigi** janri – ko'p qismdan iborat o'yin-aytimli turkum bo'lib, uning ijrosida uch va undan ortiq kasbiy xonandalar va bir ikki raqqosalar ishtirok etadi. Mavrigi asosan erkaklar tomonidan aytiladi va raqsga tushiladi. Jo'rsos sifatida faqat doiradan foydalaniladi. Mavrigi aytimlarida ikki tillilik an'anasi namoyon bo'lib turadi. Mavrigixonlik asosan Buxoro va shu viloyatning ayrim tunanlaridagina tarqalgan bo'lib, turli davra va bazmlarda ijro etiladi.

Mavrigida ikki va undan ortiq qismlar bo'lib, ular birin-ketin ijro etiladi. Dastlabki qism vazminroq ruhda bo'lgan "Kirish" vazifasini bajaradi. Keyingi qismlarga o'tilgani sari o'ynoqi ritmlar kuchayib, o'yin-aytimlar jadallashib boradi. SHu sababdan ham bunday turkumlarda raqs usullari asosiy o'rin tutadi. Bu vohada qarsak chalib ijro etiladigan xalq ashulalari ham uchraydi. Bu ijroda sozlar ishtirok etmaydi, balki qo'shiq usuli va ritmlari qarsaklar orqali chalib ijro etiladi.

Buxoro-Samarqand musiqa uslubiga doir dostonchilik an'analari asosan viloyat tumanlarida qaror topgan bo'lib, Bo'lung'ur, Qo'rg'on, Narpay va Nurota rayonlarida uchraydi. Bo'lung'ur dostonchilik maktabida "Alpomish", "Yodgor", "Yusuf bilan Ahmad", "Rustamxon", "Go'ro'g'lining tirilishi" kabi qahramonlik dostonlari yetakchi o'rin tutadi. Jo'mnavoz soz sifatida do'mbira qo'llaniladi.

Buxoro-Samarqand musiqa uslubining kasbiy musiqa janri hisoblangan SHashmaqom ijrochiligi maktabi O'zbek xalqining milliy iftihori, g'ururi hisoblanadi. SHashmaqom olti maqom –

Buzruk-(ma'nosi katta, ulug', buyuk).

Rost-(ma'nosi to'g'ri, chin, haqiqiy).

Navo-(ma'nosi kuy, mungli kuy).

Dugoh-(ma'nosi ikki o'rin, ikki joy, ikki parda).

Segoh-(ma'nosi uch o'rin, uch joy, uch parda).

Iroq-(ma'nosi shu nomli arab mamlakatiga nisbat berilgan)maqomlaridan iborat. Har bir maqom cholg'u va ashula qismlaridan iborat bo'lib, SHashmaqom ijrochiligi maktabida 240-250 dan ortiq kuy va ashulalar o'rin olgan.

Surxondaryo-Qashqadaryo musiqa uslubi deganda Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari hududida asrlar davomida shakllangan barcha musiqiy-badiiy an'analar tushuniladi. Bu an'analar mehnat aytimlari, mavsumiy marosim qo'shiqlari, cho'ponlar ijodi, baxshilar san'ati va xalq ijodiga oid yana ko'plab aytim va cholg'u kuylaridan tashkil topgan. SHuni ham aytish kerakki, musiqiy an'analarning kelib chiqish negizlari qadimiy davrlarga taaluqli bo'lib, ular turli vaziyatlarda, xalqning turmush-tarzi bilan bog'liq turfa ko'rinishlarda, xususan, mehnat jarayonlarida, oilaviy sharoitda o'tkaziladigan urf-odat va marosimlarda, ommaviy sayl va tantanalarda yuzaga keladi.

Surxondaryo-Qashqadaryo hududlarida yashovchi mahalliy aholi uzoq davrlardan buyon chorvachilik va dehqonchilik mehnati bilan shug'ullanib keladi. SHu bois ham bu yerlarda mehnat jarayonlari bilan bog'liq aytim va cho'pon kuylari juda ko'plab ijod etilgan. Dastlab iste'dodli shaxslar tomonidan (yakka yoki jamoa ishtirokida) aytilib, so'ngra el orasida og'izdan-og'izga o'tib ommalashgan mehnat qo'shiqlari bizga qadar xalq xotirasida va mehnat amaliy tajribasi faoliyatida saqlanib kelindi. Bundan tashqari, mavsumiy-marosim, ommaviy bayram va xalq sayllari ("Navro'z" bayrami, "Lola sayli") qo'shiqlari hamda qarsak-o'yin aytimlari va yana ko'plab ommaviy qo'shiq kuylari o'tmishdan bizning davrimizga meros bo'lib qoldi.

Musiqiy merosning ulkan qismi bo'lgan dostonlarni baxshilar o'z xotiralari va ijodlarida saqlab, ijro etib kelmoqdalar.

SHuningdek, Surxondaryo-Qashqadaryo an'anaviy cholg'ulari qatorida do'mbira, qo'biz, cho'pon nay, sibiziq, changqovuz va doyralar uzoq o'tmishdan buyon mahalliy axoli orasida ardoqlanib, ularda turfa kuylar ijro etib kelinmoqda.

Bulardan tashqari yana bir qator rubobsimon, chang(arfa)simon va urma-zarbli cholg'ular qadimda musiqa amaliyotida qo'llanganligini ashyoviy manbalaar orqali bilib olishimiz mumkin. Xususan, ko'hna Ayritomdan topilgan toshtahtada ana shunday cholg'ulardan ayrimlarining tasviri aks etgan bo'lib, bunday sozlar o'rta asrlar musiqasida ham keng qo'llanilgan. Biroq ular bizning davrimizgacha yetib kelmagan.

Do'mbira cholg'usi Surxondaryo-Qashqadaryo mahalliy musiqasida keng joriy etilgan sozlardan bo'lib, u baxshi va cho'ponlar tomonidan sevib ijro etiladi.

Surxondaryo-Qashqadaryo mahalliy musiqasida mehnat jarayoni bilan bog‘liq qo‘shiqlar salmoqli o‘rin tutadi. Bu turdagi qo‘shiqlar aholining qadimgi davrlardan buyon shug‘ullanib kelayotgan chorvachilik va dexqonchilik kasblari bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan. Chorvachilikka doir qo‘shiqlar (aytimlar) asosan “Sog‘im qo‘shiqlari” dan iborat bo‘lib, ular qoramol, biya, echki, qo‘y kabi uy hayvonlarini sog‘ish paytida kuylanadi. Bunda “Xo‘sh-xo‘sh” aytimi qoramolni sog‘ishda, “Turey-turey” va “CHurey-churey” aytilari qo‘y-echkilarni sog‘ishda kuylanadi.

CHO‘ponlar ijodi ham shu mehnat jarayoniga aloqadordir. Lekin unda “Sog‘im qo‘shiqlari” dan farqli o‘laroq cholg‘u kuylari ko‘proq o‘rin egallaydi. Bu kuylar asosan sibiziq va do‘mbira sozlarida ijro etiladi.

Dehqonchilik kasbi bilan bog‘liq mehnat jarayonida yuzaga kelgan qo‘shiqlar “Qo‘sh haydash”, “Ho‘p hayda”, “Mayda-mayda”, “Yozi” kabi nomlar bilan atalib kelinadi. “Qo‘sh haydash” qo‘shig‘i yer haydash paytida ho‘kizga qo‘shilgan omochni boshqarib borayotgan dehqon tomonidan aytilsa, “Yozi” aytimi hosilni o‘rish paytida, “Ho‘p xayda” va “Mayda-mayda” lar esa bug‘doy yoki arpa poyalarini hirmonda ot va ho‘kizlar yordamida yanchish vaqtida xirgoyi qilingan.

Surxondaryo-Qashqadaryo dostonchilik an‘analari mahalliy uslubning muhim qismini tashkil etadi. Doston adabiy-musiqiy asardir. Uning tarkibida nasriy va nazmiy “SHe‘riy” qismlar bo‘lib, ular mazmunan o‘zaro mushtarak bo‘ladi.

Doston ijrochilarini shoir yoki baxshi deb yuritadilar. Baxshilar san‘atida so‘z ustasi, qo‘shiq kuylovchisi va soz (do‘mbira) cholg‘uchisi birlashgan bo‘ladi.

Binobarin, baxshilar dostonlarning nasriy qismlarini mahorat bilan badiiy so‘zlab xikoya etsalar, sheri bo‘laklarini qo‘shiq shaklida maxsus ichki (“Bo‘g‘iq”) ovoz bilan kuyladilar va bunda do‘mbira sozidan jo‘rnavor sifatida foydalanadilar.

Surxondaryo-Qashqadaryo musiqasi uslubida dostonchilikning ikki yirik markazi vujudga kelgan. Bu SHaxrisabz va SHERobod dostonchilik maktablaridir.

Xorazm musiqasi uslubi - bu shu vohadagi xalq qo‘shiq va laparlari, turli marosim, tomosha va o‘yin-raqs kuylari hamda dostonchilik, ashulachilik va maqom san‘ati kabi kasbiy musiqasi an‘analaridan tashkil topgan. O‘zbek musiqasining tarkibiy qismi bo‘lgan Xorazm musiqasi ayni vaqtda o‘zgacha tarovatga ega bo‘lib. Uning ma‘lum darajada turkman va ozarbayjon musiqasiga yaqin jihatlari ham bordir.

Xorazm musiqasi uslubining o‘ziga xosligi uning an‘anaviy cholg‘ularida ham namoyon bo‘ladi. Masalan, bulamon damli-puflama cholg‘usi bu uslubda keng qo‘llaniladi. U boshqa mahalliy uslublar uchun xos emas.

Xorazmda Kavkaz xalqlarining tor cholg‘usi ham keng tarqalgan. XIX asr ohiridan boshlab esa garmon cholg‘usi ham qo‘llana boshlangan.

Dorbozlarning o‘yin kuylari “Elpazalandi”, “Ufori yelpazalandi” kabi kuylar tashkil etadi.

Xorazm musiqasi ijodida ikki va undan ortiq ijrochilarni tarafma-taraf bo‘lib kuylaydigan aytishuvlari lapar deb aytiladi. Laparlar aytilayotganda raqsga ham tushish mumkin.

Xorazm dostonchilik maktabi o‘z an‘analariga ega bo‘lib, u boshqa mahalliy dostonchilik maktablaridan farqli jihatlarga ega. Xorazm dostonlari ochiq ovoz uslubida kuychan xususiyatlar bilan aytiladi. Dostonlar dutor sozi jo‘rligida ijro etiladi. Xorazm dostonlari repertuarini, asosan, Oshiq G‘arib va SHohsanam, Go‘ro‘g‘li, Kuntug‘mish, Bozirgon, Oshiq oydin kabi dostonlar tashkil etadi.

Xalfachilik san'ati dostonchilikning bir tarmog'i hisoblanib, asosan ayollar orasida joriy bo'lib kelayotgan san'at bo'lib, unda ko'proq dostonlardan olingan parcha va termalar, shuningdek turli vaziyatlarda kuylash uchun ijod etilgan qo'shiq aytimlar kuylanadi. Xalfalar ikki shaklda, yakka va jamoaviy tarzda namoyon bo'ladi.

Xorazm ashulachilik san'atida ashulachilarni go'yanda deb ataydilar. Ashula janrining muhim jihatlari shundan iboratki, u asosan mumtoz she'riyat namunalariga asoslanadi. Kuy oxanglarini esa qo'shiq va laparlarga nisbatan keng rivojlangan bo'lib, ovoz ko'lami bir oktava va undan ortiq bo'ladi. Xorazmda Suvora nomi bilan ma'lum va mashhur ashula turkumlari mavjuddir. Suvora so'zi fors-tojikcha bo'lib, otlq ma'nosini bildiradi.

Ustozlar Suvora ashula yo'llarini ot tuyog'idan xosil bo'ladigan turli ritmik tuzilmadagi usullar va ularga asoslangan kuylarni ifodalaydi, deb ta'kidlaydilar. Suvora ijrochilarining "Didalishma" yoki "Diydalashma" deb yuritiladigan o'ziga xos musobaqalari o'tkazib turiladi. Xorazmda Suvora ijrochilari H. Boltaev, M. Yoqubov-SHeroziy, K. Otaniyozov kabi ijrochilarning nomlari alohida hurmat bilan tilga olinadi. Suvoralarning ikki turkumi mashhur bo'lib, ular quyidagicha nomlar bilan ataladi:

O'n ikki Suvoradan iborat Savti Suvoralar turkumi. Bu turkumdagi har bir Suvora Rim raqami bilan belgilanadi.

Suvoralarning yana bir turkumini yirik shaklli Suvoralar majmuasi tashkil etadi. Bu Suvoralar turkumidagi har bir Suvoralarning maxsus nomi bo'lib, ular Suvora, CHapandozi Suvora, Yakparda Suvora, Hushparda Suvora, Kajxang Suvora kabi ataladi.

Xorazm maqomlari muayyan tuzumdagi turkum shaklida XIX asrning birinchi yarmida qaror topgan bo'lib, bu turkum Buxoro maqomlari singari, asosan olti maqomdan iborat:

1. Rost maqomi (yoki maqomi Rost)
2. Buzruk maqomi (yoki maqomi Buzruk)
3. Navo maqomi
4. Dugoh maqomi
5. Segoh maqomi
6. Iroq maqomi .

Xorazm maqomlarining xar biri ikki qismdan iborat bo'lib, chertim yo'li- mansur, aytim yo'li – manzum deb ataladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning yangi tahriri. 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son Qonun.
2. "Bolalar musiqa va san'at maktablari to'g'risidagi nizaomni tasdiqlash haqida" gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.05.2016-yildagi 144-sonli qarori.
3. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" – T.: "Ma'naviyat", 2011-yil.
4. Asqarova M., Xayitboyeva M., Nishonov M. Pedagogika. "Talqin" nashriyoti. Toshkent., 2008-yil.
5. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
6. Mavlonova R, Abdurahimova R. "Pedagogik mahorat". "Fan va texnologiya nashriyoti". T., 2009-yil.
7. Baubyekova G.D., Xalikova G.T. Innovatsionnnye texnologii optimizatsii uchebnogo protsesssa. - V kn.: Obrazovaniye: opnt, problemn, perspektivi. Uchebnoe posobie. T.: "YaNGI ASR AVLODI" , 2001. - S. 67-99.

8. O‘zbekiston Respublikasi XTVning «Pedagog kadrlarni kayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi 149-sonli buyrugi G‘G‘ «Ma‘rifat» gazetasi. - T.: 2006 yil, iyun.

FOLKLOR QO‘SHIQLARINI VOKAL VA XOR OVOZLARI PROFESSIONALLIGIDA RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Ropiyeva Durdona Akmal qizi

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti “Musiqqa ta’limi va san’at”

Mutaxassisligi II bosqich magistranti

Annotatsiya: maqolada o‘zbek xalq folklor qo‘shiqlari vositasida o‘quvchilarda vokal-xor malakalarini shakllantirish texnologiyalari to‘g‘risida ilmiy-pedagogik qarashlar keltirilgan. Unga ko‘ra, xalq folklor qo‘shiqlarini o‘rgatish orqali o‘quvchilarda avvalo, milliy xalq folklor merosimizga muhabbat, shuningdek, talaffuzda chiqarish qiyin bo‘lgan ba’zi harflarni jaranglatishni moslashtirishga erishish mumkinligi, shuningdek, darslarda ilg‘or pedagogik va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning samarali jihatlari haqida ilmiy-pedagogik tavsiyalarni ishlab chiqish yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Vatan, folklor, estetika, tafakkur, milliy musiqa merosi, vokal –xor malakalari, qadriyat, ma’naviy, an’anaviy ijro uslublari, vatanparvarlik, mehnatga muhabbat, odamlarga ishonch, do‘stlarga sadoqat, axloq.

O‘zbek xalqi azaldan urf-odat va an’analari bilan boshqa xalqlardan ajralib turgan. Mustaqillik sharofati bilan qanchadan qancha milliy qadriyatlarimiz tiklandi. Ayniqsa, milliy folklor namunalari kishiga o‘zgacha zavq bag‘ishlaydi. Insonni fikr mulohazaga undabgina qolmay, vatanparvarlik hissini uyg‘onishiga sababchi bo‘ladi. Shu bois, o‘zbek milliy folklor namunalarini asrash, qayta ishlash va barcha hududlarga targ‘ib qilish, ko‘p asrlik tariximizni kelgusi avlodga to‘la -to‘kis yetkizishda asosiy vosita hisoblanadi. Hozirgi kunda o‘quvchi yoshlarga musiqiy ta’lim berishni milliy xalq folklor namunalaridan boshlash maqsadga muvofiqdir. Ta’limning ilk davrlaridan boshlab, bolalarga shunday namunalarni o‘rgatish va ijro ettirish ularning qalbida milliy tariximizga muhabbat va qadriyatlarimiz davomiyligiga sabab bo‘la oladi. O‘quvchi yoshlarga milliy musiqamizni o‘rgatishni o‘ziga maqsad qilgan pedagog xalq folklor namunalaridan unumli foydalana bilishi lozim.

O‘quvchilarda folklor namunalari orqali vokal-xor malakalarini shakllantirishda o‘qituvchidan chuqur bilim va ijodiy qobiliyatni talab qiladi. Ta’limda zamonaviy metodlardan foydalanib dars jarayonini tashkillashtirish dars samaradorligini oshirishga hizmat qiladi. An’anaviy dars tizimidan chetlashib noan’anaviy mashg‘ulotlar tashkil etish pedagogning ilmiy salohiyatini yanada oshiradi. Shunday noa’naviy uslublarga vokal- xor mashg‘ulotlarini folklor qo‘shiqlari hamohangligida tashkil etishni misol qilish mumkin. Xalq va akademik kuylash elementlarini birlashtirish talabalarni yakkaxon kuylashga o‘rgatishda muvaffaqiyatga zamin yaratadi.

Dastavval, bolalar folklori haqida so‘z yuritar ekanmiz, bolalar folklori keng ma’nodagi tushuncha bo‘lib, bunday poetik namunalarda erkalash xususiyati yetakchidir. O‘z navbatida erkalash she’riyatiga mansub namunalarning ijro maqsadi, o‘rni va bola yoshi, saviyasiga ko‘ra guruhlarga bo‘linadi: Birinchi guruhga mansub qo‘shiqlar bolaning beshikdagi davri bilan

chambarchas bog‘liq. Shuning uchun ularni beshik qo‘shiqlari deyishadi. Allalar, aytimlar, olqishlar, ana shunday xususiyatlarga ega. Beshik qo‘shiqlari bola uch yoshga to‘lgunga qadar aytiladi.

Qo‘zi boqqan qo‘y etsin,
Topganimga To‘y yetsin.
To‘y-To‘ylarga ulansin,
Davlat boshingga urnashsin.
Alla-yo, alla.

Ikkinchi guruhga oid qo‘shiqlar bola tug‘ilganidan to 10-11 yoshga to‘lguncha ijro etiladigan aslida beshik bilan bog‘lanmagan onalik mehri tarovatidan yuzaga kelgan badihalardir. Bunday folklor namunalariga yana ko‘plab misollar ayta olamiz. Vokal -xor mashg‘ulotlarida bolalarning yosh va salohiyatiga qarab folklor namunalaridan to‘g‘ri foydalana olish natijasida talaffuzdagi ba‘zi nuqsonlardan xalos bo‘lishga ham erishish mumkin. O‘quvchilarda milliy insoniy fazilatlarini - folklor qo‘shiqlari yordami bilan tarkib toptirmoq barobarida o‘qituvchi ikki tomonlama ijobiy natijaga erishadi. Bunda, avvalo, o‘quvchi dars mavzusini o‘zlashtiradi, ikkinchidan, o‘quvchida milliy musiqamiz, boy va betakror xalq qo‘shiqlarimizga muhabbat uyg‘onadi. Vokal – xor mashg‘ulotlarida xalq qo‘shiqlarining naqorat qismidan foydalanish ham ayni maddao. Misol uchun: “Chamanda gul”, “Chittigul” “Chimchilab-chimchilab” kabi qo‘shiqlarni ovoz sozlash mashqlari tarzida foydalanish mumkin. Darslarda xalq qo‘shiqlaridan foydalanish natijasida, bola ongida singib borilishi, shuningdek, talaffuz noqulay bo‘lgan “F”, ”Q”, ”G’ ”, ”O’ ”kabi harflarning jaranglashiga asta-sekin moslashib borishiga erishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, folklor qo‘shiqlari vositasida vokal – xor mashg‘ulotlarini tashkil etib, bir qancha ijobiy natijalarga erishamiz. Eng avvalo, yosh avlodda milliy tariximizga muhabbat, qadriyatlarimizga mehr uyg‘onadi. Qadim o‘tmishimizdan qolgan boy merosni kelgusi avlodga to‘la to‘kis yetkazishga xizmat qiladi. Talaffuzda nuqsoni bor bolalarda sodda , tilga o‘rnashgan erkalamachoqlar vositasida ko‘zlangan ijobiy natijaga erishish mumkindir.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov bejizga xalq folklori haqida quyidagi so‘zlarni aytmaganlar: “Qadimgi ajdodlarimiz komil inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuasini , zamonaviy til bilan aytsak, Sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar. Kishi qalbida xaromdan hazar, nopokka, adolatsizlikka nisbatan murosasiz isyon bo‘lishi kerak”. Demak , mana shu poklikka , yaxshilikka yetaklovchi yo‘lni yo‘lchirog‘i - pedagog, ustozlardir. Har tomonlama ma‘naviyatli, komil inson tarbiyalash - eng oliy maqsadimizdir!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hodi Zarif. O‘zbek sovet folkloristikasi tarixidan // O‘zbek sovet folklori masalalari. Tadqiqotlar. 1-kitob. T.: “Fan”, 1970.
2. Hasanova Navbahor Hamraqulovna. (2020). Bo'lajak o'qituvchilarning o'zbek mumtoz musiqasida kasbiy malakasini oshirish muammolari. *Xalqaro ilg'or fan va texnologiyalar jurnali*,29 (08), 3489-34953495. [Http://sersec.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558](http://sersec.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558)
3. Hasanova, Navbahor. (2020). METHODS AND WAYS TO DEVELOP THE MUSICAL FEELINGS OF STUDENTS IN TTTE LESSONS OF MUSIC EUITURE. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(42). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5579

4. Khasanova, Navbakhor (2020) "The role of music lessons in the formation of national and intercultural competence in students." *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*. Vol.2020 :Iss.2. Article 15 :<https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss2/15>

5. N. Hasanova O'zbek milliy musiqa merosi taraqqiyotida xotin-qizlarning o'rni. *Актуальный вызовы современной науки IX xalqaro ilmiy konferensiya 26-27 yanvar 2017 yil*.

6. Murodova M. *Folklor va Etnografiya/O'quv qo'llanma. "Aloqachi"*. -T., 2008.

7. Qosimov N. *Folklor musiqa ijrochiligi./O'quv qo'llanma "Talqin"* nashriyoti, Toshkent -2008 yil.

8. Saidiy S.B. *O'zbek xalq musiqa tarixi. Darslik./-S.Sadriddin Salim Buxoriy "Durdon"* nashriyoti. Buxoro-2021 yil.

9. Saidiy S. B. *Markaziy Osiyo Madaniyatida urma cholg'ular (o'zbek va tojik musiqa an'analari misolida)/ O'quv qo'llanma. "Musiq nashriyoti"* Toshkent-2008 yil.

“FORTEPIANO” VA “ROYAL” CHOLG'ULARINING PAYDO BO'LISH TARIXI (Fortepianoning tug'ulish “ genezis” i misolida)

Rustamov Azizbek Rustam o'g'li

Jizzax davlat Universiteti "Musiq ta'limi va san'at yo'nalishi"

2 kurs Magistranti

Annotatsiya. Maqolada "Fortepiano" va "Royal" cholg'ularining paydo bo'lish tarixi va cholg'ularning rekonstruksiya davrlarida ustoz-shogird tizimi handa turli klassik kompozitorlarning kompozitsion janrlarining moyilligi haqida qiziqarli ma'lumotlar berilgan.

Kalitli so'zlar: Rianino, Royal, rekonstruksiya, kompozitsiya, klavesin, klavikord.

Fortepiano (piano) – monoxord sozlanuvchi ko'p torli va ko'p tovushli klavishli cholg'u. Ushbu shaxmat tuzilishida matematik tizimlidir. Ergologik jihatdan yog'och korpuslitorlari esa po'lat va mis, uyumidan yasaladi, bir qatorda troa tuzulishli mahin va yo'g'ontorsimlardan iborat bo'lib, klavishlari odatda yog'ochli va Fil suyagidan yasalib kelingan bo'lib, hozirgilari esa plasmassa (elastik) sunniy ,uyumdan yasaladi.

Torsimlarining tuzulishi va diapozoni;

a) Fortepiano - diopozoni LYA- Subkontr oktavadan 5- oktava DO- gacha

b) Rayal-diopozoni FA-Subkontr oktavadan 5- oktava MI-SOL-gacha. Ushbu cholg'ular xromatik sozlanuvchidir.

“Fortepiano” cholg'usining jahon atamasidagi guruxlanish va turlanishida **“Xordofonlar”** oilasiga mansubdir.

San'atshunos olim Said Saidiyning tadqiqotlarida fortepiano va uning oilasiga mansub boshqa cholg'ularning paydo bo'lish tarixi, genezisi chuqur manbalarda ilmiy jihatdan ochib berilgan, bunda: «Jahon cholg'usi "Fortepiano"- ning paydosi Italiyalik Gersok Toskanskiyning katta o'g'li Ferdinando De Medichining uyida, katta tantanalar, kechalar va bazmlar Ferdinando tomonidan uyushtirilib kelingan. Italiyaning eng boy aristokrati hamma vaqt Florensiyaga qiziqib borgan. Bu yerda mehmonlarni doimo qiziqarli va antiqa yangiliklar kutilmagan holda yuzaga kelgan bo'lgan. Goh paytlari yangi janr, piessa va boshqa ijrolar ham mehmonlarni maftun etgan.

Gastrollarda esa eng yirik virtuoz ijrochilar qatnab, ular bir-irovi bilan ajoyib ijrolarida baxslashib turganlar. Ferdinantoning o‘zi ham klavesin ijrochisi sifatida qatnab turgan. Ferdinanto qaerda yashamasin hamma vaqt yangi va aniq sozga ega cholg‘ularni kolleksiyasini yig‘ib turgan. Uning klavesinlar kolleksiyasi Italiyadan tashqari davlatlarga ham ma‘lum bo‘lgan. Bu ushbu kolleksiyalarni avaylab asrandasi va qo‘riqchisi klavesin usta- sozgari Bartolomeo Kristofori bo‘lgan. U Butun umri davomida yangicha klavesinlarni konstruksiyasi va rekonstruksiyasi bilan shug‘llanib kelinganidek, kunlarning birida Ferdinan Todoning uyida yangicha antiqa cholg‘u bilan uy egasini hayratga solmoqchi bo‘ladi. O‘sha paytda mehmonlar ushbu antiqa chog‘u yonida ja‘m bo‘lishadi, ammo cholg‘uning usti matoli liqob bilan yopilgan bo‘lgan. Biroq mehmonlar ushbu antiqa cholg‘uni ko‘rish uchun zavq bilan diqqat jalb etishadi. Mehmonlar Kristoforiga qarab bu tinmas o‘zini yangicha “G r a v e c h i m b a l o - q o l’ p i a n o e f o r t e” - cholg‘usini yangi turini yana kashf etibdi, - deyishadi. Yana- “aytishlaricha u allaqanday bolg‘achalarni kashf etibdi va unga teri- charmni tortib, chimbalonni tilchalari o‘rniga almashtirib qo‘yibti, O a j a b o, deya ayrim mehmonlar ma‘qullashadi. !!.”

Xullas, fortepianoning yuzidagi (chexol)-liqobi olinadi, Hali konsert boshlanmasdan zaldagi mehmonlar qiziqqanlaridan jim-jit bo‘lishib, bir-irovlariga qarab pishir- pishir tovushlar eshitiladi: - “qiziqarli- qiziqarli, lekin oddiy klavesinga odatlanganimizdek, asliy nusxasi yaxshi edi,- yov”,- deyishadi.

- Mana qaranglar bu oddiy o‘zimizni klavesin, uning tuzilishiga qaranglar...

- Yo‘q, - deyishadi mehmonlar,- bu shundayki navbatdagi eksperimentdir, boshqasi emas. Qanchalik usta- sozgarlar ushbu klavesin cholg‘usidan ham yaxshiroq, takomillashgan cholg‘ularni ixtiro qilib kelganlar, ammo mehnatlari zoe ketgan. unga hecham hojat yo‘q, shubxasiz klavesindan xech qaysi cholg‘u o‘tolmasligini ta‘kidlaydilar. Ko‘rsatma tugaganidan so‘ng jamoa syrprizni unutib, yonidagi zalga qarab yo‘l olishadi. U erda ularni yana bir ajoyibot kutmoqda edi. Xullas, shaxzoda Ferdinandoning mehmonlari ushbu yangilikni tan olmaganlaridan so‘ng, Kristofori o‘zi yaratgan antiqasini ustini yana liqob bilan yopib qo‘yadi. Lekin klavishli cholg‘uning haqiqatdan ham takomillashgan yangi turini hech kim tushunmaydi. Ammo, Kristofori o‘ziga ishoch bilan shuni tushunadiki, “bolg‘achali chembalo” –ni katta kelajak kutmoqda, bunga faqat sabr-toqat va vaqt kerakligini anglab oladi.

1709- yilda, Bartolomeo Kristofori o‘z xo‘jayinining mehmonlariga bolg‘achali fortepianoni namoish etadi. U o‘sha davrda ushbu cholg‘uning yaratuvchisi bo‘lgan edi. XVIII – asrda “bolg‘achali - klavesin”- ni yaratishda qay urib, tadqiqotlar olib borishda birinchilar qatorida bo‘lsalar ham, ammo yagona emas edilar. 1716 yilda Fransuz Marius tomonidan ushbu cholg‘uning modeli konstruksiyadan qayta o‘tadi. U ham bolg‘achali fortepiano yaratishga kirishadi. Bir yil o‘tar – o‘tmas, nemis musiqachisi Shreter tomonidan ham Kristofori va Mariusga nisbat farqli - o‘laroq bolg‘achali fortepiano yaratiladi.

Musiqachilarni doimiy ravishda qiziqtirib borgan cholg‘uni yanada takomillashishga kirishadilar. Ammo, klavesin o‘z o‘rnini bermoqchi bo‘lmaydi, sababi ushbu cholg‘uning mexanikasi abadiy emas edi, uning tovushi ham quvvat bosimi orqali almashinib turishi bilan, tovush chiqarilishi juda tez va quruq edi.

Yangi cholg‘u haqida berilgan birinchi taqrizlar, ushbu cholg‘u sozgarlarini quvontira olmaydi. “ XVIII – asrning mashhur musiqachilaridan biri Forteplano cholg‘usi Klavesin cholg‘usiga nisbat yaxshi tovushga ega emas. Bu kamerli cholg‘u baland tovushli ijroga xos emasligini aytadi”. Yana birida esa, “Fransuz tinglovchisi bunday degan,- baslari qattiq, karsimon va munglihamdir, biz Fransuzlarning qulog‘imizga judayam aksilagandek tuyuladi ”,- deyilgan.

O‘z davrining shahanshoxi buyuk nemis kompozitori **Iogan Sebastyan Bax**, ilk marotaba fortepianoning turlari bilan tanishib shu zahot kamchiliklari haqida o‘z fikrini bildirib o‘tgan. U “yuqoro registrlarga tovushining past va bo‘shligini hamda ularda ijro etish qiyin ekanligini aytadi. ” Haqiqatdanam, klavesinning o‘zga xos beriluvchanligi bilan taqqoslaganda fortepianoning klavishlariga ijro etish uchun katta quvvat sarf qilishga to‘g‘ri kelgan. Shu tariqa musiqachi va musiqashunoslarning izoxlarida fortepianoda qanchalik kamchiliklar topilib tuzatilmasin, bar-bir klavesinning muloyim- yengil va yuguruvchan -chaqqon tovushiga bas kelmaydi degan xulosaga kelishadi.

Musiqachilar qisqa vaqt ichida endigina tug‘ilgan “bolg‘achali fortepiano” yoki gox “pianoforte”-deb tilga olingan cholg‘uga yakuniy- tugal va jiddiy xulosaga kelib “bu ushbu cholg‘u hech qachon klavesinni buyuklikda keng erishgan imkoniyatlariga erisha olmaydi”-deyishadi. Lekin vaqt boshqacha xulosalashga olib keldi.

Sebastyan Baxga fortepiano uchun asarlar yaratish xojati bo‘lmagan. Ammo, uning kichik o‘g‘li – **Iogan Kristian Bax**, mashhur kompozitor va ajoyib klavir ijrochisi sifatida ushbu cholg‘uni darhol baholaydi. Va u jamoa oldida o‘zining birinchi yakka tartibli -solo konsertini fortepianoda namoish etadi. Ko‘p vaqt o‘tmas uning “Fortepiano uchun” taqdim etilgan sonatalar darsligi paydo bo‘ladi.

XVIII – asrning 60-70- yillarida vaqt taqozosi bilan Evropaning ko‘plab etakchi va taniqli musiqiy cholg‘ular yasovchi usta- sozgarlari tomonidan, fortepiano cholg‘usini qaytadan takomillashtirish va kamchiliklarini tuzatib, butun rekonstruktiv - ergologiyasi bilan shug‘llanishni boshlab yuboriladi va hatto yillar o‘tishi bilan avjiga chiqadi. Ushbu cholg‘u haqida fikrlar ham o‘zgarib boradi.

Endi tanqidchilikka klavesin cholg‘usi ro‘yobga chiqadi. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, “qo‘shiqchilik bandlariga uning karsimon va doimiylikdagi o‘tkir tovushi ”, to‘g‘ri kelmaydi. Bu degan so‘z, klavesin o‘z ijrochisini sabrlikka chidab kelganligi ma‘lum bo‘ladi. Oradan 20- (ikki o‘n yillik o‘tgach) yil o‘tgandan so‘ng, “Buyuk musiqiy to‘ntarishning ” zamondoshlari guvoxlik beradilarkim, “Klavesin faqat orkestr ijrochiligi uchun saqlanib kelingan edi, ammo, qiziqarlisi shundaki, ularga yana nima uchun ushbu cholg‘u qo‘llanib kelishmoqda: tovushi juda ham o‘tkir va zuddan bo‘lsa, nafratlanuvchan tuyilsa ”. Shu tariqa, orkestr cholg‘usi “klavesin”- keraksiz ekanligi asoslanadi.

Hayot davomi navbatida “Chembalo”, Flyugel va “Parsimon”, cholg‘ularning taqdiri omadsizlikka duch keladi. Ulardan nafaqat foydalanish, hatto yo‘q bo‘lishiga asos, yuzaga keladi. Natijada Forteplanoga xohishlar va majburiyatlar tezda o‘sib boradi. Jumladan, fabrikalar va ustaxonalar, yangi cholg‘u bilan hammani ta‘minlash va roziligini olishga ulgurmaydilar va fortepianoni tayyorlashda eski klavishlarni ham qayta ishlab chiqadilar. Natijada klavesinlar bar- tamom (butunlay) yoq bo‘ladi.

XVIII - asr oxiri bu,- marradir!, yani fortepianoning klavir san‘atiga ajratilgan peshqadamlikdir. Ushbu davrdan boshlab haqiqiy fortepiano cholg‘usi ishlab chiqarila boshlanadi. Uning tovush me‘zonlarining takomillanishiga V.A.Mosart asos solgan bo‘lsa-da, pedallarga erishinishi va shoxona cholg‘u “**Royal**”-ning paydo bo‘lishiga asos solgan ilk kompozitor L.V.Betxoven hisoblanadi »- deyilgan.

Xullas: har bir bo‘lajak o‘qituvchisi va talabalar o‘zi tanlagan kasbining tarixini bilishlari lozim ko‘rinadi. Bir qatorda, musiqa ijrochilari u yo bu cholg‘u ustasi bo‘lishlari uchun 5-7 yillik san‘at maktabi, 3- yillik kollej, 4-2 yillik oliygohlardan Konservatoriya, Madaniyat va San‘at institutlari hamda Universtitet uo Pedagogika institutlari, magistratura, aspiranturalarga kirib taxsil olib, mutaxassislikni qo‘lga oladilar va shu kasb sohibi ila o‘qituvchilikdan olimlik,

professorlik darajalarga borib yetganlar. Bilvosita, butun umr faoliyat ko'rsatadilar. Ammo, nahamma tabaqalanishiga qaramay o'z qo'lidagi yo tanlagan cholg'usining tarixi haqida ma'lumotga ega emasligi ko'pchilikka ayyondir. Biz professor -o'qituvchilar, kelajak yoshlarimizni har tomonlama o'z kasbining mohir ustasi, faqatgina "quruq ijrochi" bo'lmay, balki, nazariy va amaliy bilimdoni, qolaversa olimi bo'lmog'i lozimligini bildirmoqchimiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Марк Зильберквит "Рождение Фортепиано"-/Москва.izd."Детская литература" 1984.
2. S.B.Saidiy "Markaziy Osiyo madaniyatida urma zarbli cholg'ular"(o'zbek va tojik xalqlari musiqa an'analari misolida), /"Musiqqa" nashriyoti, Toshkent-2008yil.144b.
3. S.B.Saidiy Fortepiano va Estrada klaviy cholg'ulari tarixi. Toshkent. "Musiqqa" nashriyoti", 2005 yil.

XALQ CHOLG'ULARI VA ULARDA IJRO ETISH MASALALARI XUSUSIDA

Ro'zimurodov Ilyos Azamatovich

Nizomiy nomidagi TDPU Musiqa madaniyati fakulteti "Ijrochilik mahorati va madaniyati" kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Inson hayotida musiqaning o'rni juda katta ahamiyatga ega bo'lib, har bir inson o'zi yoqtirgan kuy va qo'shiqlarni tinglaydi va undan ma'naviy ozuqa oladi. Har bir musiqa cholg'usining o'ziga xos yaratilish tarixi va ijro xususiyatlari mavjud bo'lib, ular asrlar o'sha avlodlardan avlodlarga meros bo'lib kelmoqda. Ushbu maqolada xalq cholg'ulari va ularning ijro xususiyatlari to'g'risida so'z yuritilgan. Kalitso'zlar: "Maqosidul alhon", chang, ud, simbala, nuzxa, migni, tanbur, sato.

Kalit so'zlar. "Maqosidul alhon", chang, ud, simbala, nuzxa, migni, tanbur, sato.

Muhtaram yurtboshimiz, Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning Madaniyat va san'at sohasiga bo'lgan yuksak e'tibori biz yoshlarni o'z sohamizning yetuk mutaxassisi bo'lishimiz, ilm olishga bo'lgan intilishimiz uchun poydevor bo'lib kelmoqda. San'at, madaniyat, musiqa, teatr yo'nalishlari orqali tinglovchilar va san'at ishtiroqchilarini milliylikimiz ruhida tarbiyalashimiz mumkin. Bilamizki, ma'lum bir davlatni tilga olar ekanmiz, beixtiyor uning tili, dini, milliyliigi, albatta musiqiy ohanglari ham ko'z oldimizda gavdalanadi. Misol qilib oladigan bo'lsak, arab, turk musiqalari, o'zbek shashmaqomi, milliy nag'malarimizni hayolan his etamiz. Shu kungacha musiqa darslari ikkinchi darajali fan sifatida qaralar edi, balki shu tufayli Cholg'u ijrochiligida musiqiy ta'lim uzviyligini ta'minlash yoshlarimiz milliylikdan yiroqlashgandir?! Musiqa sohasining ham o'ziga xos tarixi, musiqiy nazariyasi, cholg'uchilik mahorati kabi mutaxassislik fanlari mavjud. Bir cholg'uni qo'lida tutib ko'rmagan, hatto cholg'u haqida, musiqa, kuy borasida ma'lumotga ega bo'lmagan inson uchun, afsuski, ijrochilik xuddi shunchaki bir qobiliyatdek, soddadek ko'rinadi. Musiqa - shaxsning estetik didini, har bir sohada diqqatli bo'lishni, hech bo'lmaganda farzand uchun jonli alla aytishni o'rgatadi. Prezidentimizning 2022-yil 2-fevral sanasida 112-son PQ ga muvofiq chora-tadbirlari amalda ham tekshiruvda ekanligi biz uchun faxr uyg'otdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori Aholi, ayniqsa, olis hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarga madaniy dam olish xizmatlari ko'rsatish darajasini oshirish,

respublikaning barcha hududlarida teatr, sirk va boshqa turdagi ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarini tizimli ravishda yo'lga qo'yish, madaniyat va san'at sohasida iste'dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo'llabquvvatlash, ta'lim muassasalarini milliy cholg'ular, musiqa darsliklari, notalar to'plamlari va o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlashning yaxlit tizimini yaratish maqsadida, shuningdek, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yilida amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq masalalar belgilab berildi. Shuningdek, hozirgi kunda O'zbekiston hududida musiqa ijrochiligida qo'llanilayotgan Chang nomli musiqa cholg'usi Sharq va boshqa xalqlarning milliy musiqa ijrochiligida turli xil nomlariga ega. Belorussiya va Ukrainada - simbala. Uyg'ur xalqlarida - chang, Eronda-santur deb nomlanadi. Ko'pgina musiqiy risolalarda zikr etilgan Chang cholg'usi hamda XVI asrlarda yashagan Darvesh Ali Changiy ijro etgan Chang nomli musiqa cholg'usi tamoman boshqa ko'rinishda bo'lib, hozirgi kunda musiqa ijrochiligida qo'llanilayotgan "Arfa" musiqa cholg'usiga o'xshashdir. Bundan tashqari XVIII-XIX asrlarda Ozarbayjonda ham changga o'xshash "Nuzxa" va "Migni" nomli musiqa cholg'ulari bo'lgan. "Nuzxa"da 81 tor, "Migni"da 33 ta tor uch qatordan tortilgan bo'lgan va bu turdagi chang musiqa cholg'usi sozandaning torlarni o'ng va chap qo'l barmoqlari, tabiiy tirnoqlari bilan tirnashi orqali ijro etilgan. Hozirgi kunda O'zbekistonda Chang cholg'usi milliy va zamonaviy musiqa ijrochiligida keng miqyosda qo'llanilmoqda. Faxriddin Sodiqov, Fozil Xarratov, Ahmadjon Odilov, Rustam Ne'matov, Abdurahmon Xoltojiyev kabi mohir sozandalar o'ziga xos chang ijrochiligi maktabini yaratgan ustozlar hisoblanadi.

Chang- musiqa cholg'usi tanburning o'ttiz ikki pardasidan olinib ixtiro qilingan. Ba'zi rivoyatlarda go'yo Arastu (Arestotel) Hakim Zuhro yulduziga qiyos qilib ixtiro qilgan deyiladi. Undan tashqari Abdulqodir Marog'iyning "Maqosidul alhon" (Kuylar maqsadlari) kitobida chang musiqa cholg'usini yuziga teri tortilgan, Cholg'u ijrochiligida musiqiy ta'lim uzviyligini ta'minlash "Unga 24 ta tor ikki tomoniga ip bilan bog'lab qo'yilgan" degan ma'lumot berilgan bo'lib, noxun (tirnoq) vositasida ijro etilgan. Ud- Sharq xalqlari musiqa ijrochiligida eng qadimiy musiqa cholg'ularidan biri bu "Ud" cholg'usi bo'lib, butun Sharq xalqlari musiqa ijrochiligida qariyb X asr davomida yetakchi soz hisoblanib, amaliyotda keng qo'llanilib kelinmoqda. Ud musiqa cholg'usining yaratilishi haqida turlicha ma'lumotlar berilgan. Ud so'zining lug'aviy ma'nosi "Qora daraxt" bo'lib, ya'ni qora daraxtdan tayyorlangan musiqa cholg'usi. Udning dastlabki nusxasi yunon olimi – Pifagor tomonidan ixtiro qilingan. Udning ikkinchi nomi "Barbat" deb nomlanib, bu so'z ikki ma'nodadir. "Bar-qomat, bat-o'rdak", ya'ni o'rdak qomatiga o'xshash musiqa cholg'usi ma'nosini anglatadi. Musiqa tarixida sharq musiqa ijrochiligining asoschisi, sharq musiqa madaniyatining rivojiga katta hissa qo'shgan sozanda, xonanda, bastakor Barbat Marvaziyning nomi zikr etilgan. Sozanda O'rta Osiyoning Marv (Mari) shahrida yashaganligi, uning yetuk ijrochilik mahorati Eron podshohi Xusrav Parvizda katta tassurot qoldirgan. Tarixiy manbalarda yozilishicha Barbat Marvaziy Eron podshohi saroyida xizmat qilgan va podshohga atab "Xusravoniy" nomli musiqiy asarlar bastalagan. Bu asarlar uzoq yillar davomida Sharq xalqlari musiqa ijrochiligida alohida o'rin tutganligi haqida juda ko'p ma'lumotlar berilgan. Ud sozi to'g'risida Forobiy, Urmaviy, Jomiy, Navoiy, Sheroziy, Kavkabi, Husayniy, Darvesh Ali va boshqa mutafakkirlarning musiqa ilmiga bag'ishlangan asarlarida o'qishimiz mumkin. Shu davrlarda Ud sozi avval 4torli, keyin 5 torli va 7 pardali bo'lib, torlari bam, maslas, masna, zir, hodd tusida, pardalari esa mutlaq, zoid, mujannab, sabboba, vustafurs, vustaizalzal, binsir, xinsir kabi nomlar bilan atalgan. Ko'pgina musiqiy risolalarda Udning turli xil ko'rinishdagi, nomlanishdagi nusxalari, turlari haqida

ma'lumotlar berilgan. Ya'ni Ud, udikomil, udiqadim, tarafud, rud, shohrud, Barbat va hokazo. Tanbur, sato –Tanbur musiqa cholg'usi ikki xil ijro yo'li asosida musiqa ijrochiligida qo'llanib kelingan. Ya'ni noxun (mizrob) va kamon vositasida ijro etilgan.

Kamonli tanbur haqida keyinchalik Abdulqodir Marog'iy o'zining "Maqosid-ul-alhon", (Kuylar maqsadlari) asarida 40 ga yaqin musiqa cholg'ulari haqida ma'lumot berib, tanburning kamon vositasida ijro etiladigan nusxasi "Naytanbur"ga alohida to'xtalgan. Abdurauf Fitrat esa o'zining "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" kitobida shunday fikr bildirgan - "Shashmaqom" asarlari ikki yoki uch tanbur jo'rligida ijro etilib, uch tanburdan biri kamon vositasida ijro etilgan. Agarda bir tanbur kamon vositasida ijro etilmaganda uning o'rniga qubuz cholg'usi jo'r bo'lgan. Demak, sozandalar ba'zan tanburni kamon vositasida ijro etishgan. 1957 -yilda esa O'zbekiston radiosi va televideniyesi qoshida Yunus Rajabiy rahbarligida maqom Cholg'u ijrochiligida musiqiy ta'lim uzviyligini ta'minlash ansambli tashkil etilib, eng yetuk sozanda va xonandalar bu ansamblga taklif etilgan. Jumladan, Turg'un Alimatov ham tanburchi sozanda sifatida ushbu ansamblga faoliyat olib borgan. Sato yoki tanbur haqida O'zbekiston xalq artisti, professor Turg'un Alimatov sozgar usta Usta Usmon Zufarovga murojaat qilib, tanburni kattaroq ko'rishda, ya'ni ham noxun, ham kamon vositasida ijro etish imkoniyatlariga ega bo'lgan holda yasab berishini iltimos qiladi. Usta Usmon rozilik bildiradi. Ustaxonaga kelgan Turg'un Alimatovning ko'zlari ustaxona burchagida chang bosib yotgan tanbur cholg'usiga tushadi. Bu cholg'u 1937-yilda O'zbekistonning Moskvada bo'lib o'tgan birinchi dekadasiga bag'ishlab tayyorlangan va ko'rgazmada namoyish etilgan, 1937- yildan 1957-yilgacha ustaxonada yotgan edi. Usta Usmon ushbu cholg'uni qayta qo'lga olib, uning parda, qopqoq, xarrak kabi qismlari yangilanib, qayta ta'mirlaydi. Cholg'u Turg'un Alimatovga ma'qul bo'ladi va u ushbu cholg'uni ham noxun, ham kamon vositasida ijro eta boshlaydi. Dastlab Turg'un Alimatov "Navo" nomli asarini ijro etgan. Bu musiqa cholg'usining tanbur singari noxun vositasidagi ijrosi "Tanbur", kamon vositasidagi ijrosi "Sato", yoki "Tanbur sato" deb atala boshlandi. Keyingi yillarda Turg'un Alimatov juda ko'p musiqiy asarlarni sato ijrochiligi yo'lida ijro etib, o'zining o'ziga xos ijrochilik maktabini yaratdi va "Sato navolari" nomli audio asarlari to'plamini yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. КараматовФ. "Узбекскаяинструментальнаямузыка" Т.; 1972 г.
2. Fitrat. "O'zbekklassikmusiqasivaunitarixi". Т.; Fan. 1993 y.
3. Lutfullayev A. "Xalq cholg'ularida o'qitish uslubiyoti" Т.; 2005 y. 4. Abdullayeva O. "Ansambl cholg'ularini o'rganish" Musiqa. Т.; 2006 y.
5. Nosirov R. "Cholg'u ijrochiligi" Т.; 2008 y.

JAHONNING ILK CHOLG'USI "NOG'ORA" va "DOYRA" TARIXI *(cholg'ushunoslik fanining morfologiya, etimologiya va ergologiya asoslari musolida)*

*Saidiy Said Bolta-Zoda, Nav.DPI, professori, San'atshunoslik fanlari nomzodi,
Ibragimov Umid Sobirjonovich, JizDPU, 2 kurs magistranti*

Annotasiya. Mazkur maqolada muallif Markaziy Osiyo xalqlari musiqiy cholgularining jaxon standartlariga xos zamonaviy tasnifi, jahonning ilk cholg'usi "Nog'ora" va "doyra",

“nay” cholg‘ularining tarixi haqida ma’lumot beradi. Shuningdek, maqolada Markaziy Osiyo xalqlari musiqiy merosining bosqichlari va o‘zaro ta’siri ham o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar. Urma cholg‘u, doyra, nog‘ora, nay, musiqa, bambuk.

Jahon xalqlari musiqa madaniyatida, jumladan, Markaziy Osiyo musiqiy hayotida cholg‘ularning o‘z o‘rni bor. Urma cholg‘ular uzoq tarixga ega bo‘lib, ular asrlar davomida umumjamiyat rivojlanishining barcha bosqichlarida takomillashib, mukammallashgan shaklda bizgacha yetib keldi.

Urma cholg‘ularning zarbu-usullaridagi xilma-xil sadolari, inson ruhiyotiga ta’sir qiluvchi ilohiy qudratga ega ekanligi qadimdan ma’lum. Ehtimol, ularning inson hayotiga chuqur kirib borganligi ham shu sabablidir.

Odamzodning muntazam harakatlari muayyan usuliy tartibni tashkil etganligi natijasida urma cholg‘ularning paydo bo‘lishini ta’minlagan deyish mumkin. Urma cholg‘ular sadolari yordamida inson ruhiy olamiga tegishli tahsir o‘tkazib kelingan. Borliqning insonga ta’sirida insonning ichki ritmik-usuliy harakatlari ham muhim ahamiyatga egadir.

Ritm madaniyati hayot boshlang‘ich asoslaridan biri bo‘lib, tarbiya jarayonida alohida o‘rin egallaydi. Ritm muayyan shaxsiy yoki jamoaviy harakatlar mukammallashuvining boshlang‘ich nuqtasi hisoblanadi.

Ritm – musiqada ma’nodorlik, o‘tkirlik, aniqlik, ta’sirchanlik asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Etnopsixolog B.Teplovning ta’kidlashicha, ritm hissiyoti musiqada ichki a’zolar bilan yondosh aloqadorlikda bo‘lsa ham, u hali musiqaviy usuliy chekinmadan tashkil topmasdan faqatgina uning paydo bo‘lishiga muhim sharoit yaratadi, xolos. Yahni, ritm musiqada muayyan his tuyg‘u, zavq, hayajon maromini boshqaruvchi hodisa hisoblanadi. Demak, ritm hissiyoti nafaqat harakat, balki tabiiy tuyg‘ularning mavjudligi bilan ahamiyatlidir. O.Apraksina ritm hissiyotini biror bir musiqiy faoliyat [xoh u qo‘shiq, xoh cholg‘ulardagi ijro yoki musiqa bastalash bo‘lsin] uning amaliyotisiz bo‘lishi mumkin emasligini ta’kidlaydi. A.Nazarovning fikricha, "Ritm - ibtidoiy inson hayotining asosiy qat’iy turkumi bo‘lib, jamoa faoliyatini birlashtiruvchi, unga uyg‘unlik bag‘ishlovchi yagona vosita hisoblangan. Ritm – nafaqat ijtimoiy jihatdan eng yuqori oliy shakliy vazifa, balki undan ham kengroq ma’naviy vazifalarni bajarib, insonni avlodlar ruhi bilan bog‘lovchi muhim omil hisoblanadi».

Madaniyatning tobora rivojlana borishi natijasida odamzodga "CHapak", «Qars», «Tepgi», ijrosi turli xil rasm-rusm, urf-odatlar ifodasi sifatida jalb etilib, bir necha musiqiy ritmlar negizini tashkil etgan, desa ham bo‘ladi. Qars ijrolari yakka, guruhli tusda, hatto erkaklarning yog‘och-tayoq qurollarida, qars - sado chiqarish uslublari turli xil bahodirona raqslarda ijro maqomini bajarish vazifasini ado etgan.

«So‘nggi Ashel» davrida ibtidoiy odamlarning urma cholg‘ulari tarkibida "kunda cho‘p", "qovoq-cho‘p", "bambuk", "paqqildoq" kabi cholg‘ular o‘rnida qo‘llanilgan ashyolar ham mavjud bo‘lgan. Bunday ashyolar yordamida erkaklar tomonidan turli ritmlar ijro etilib kelingan.

Ma’lumki, Markaziy Osiyo xalqlari orasida eng qadimgi va keng tarqalgan urma cholg‘ulardan biri nog‘oradir. Bu cholg‘uning asta-sekin mazkur xalqlar, ularning qavm va qabilalari orasida paydo bo‘lib, tarqalib ketishida ayollarning o‘rni va xizmati katta bo‘lgan. Muzlik bosqichi davrida evropaning «Mustg‘e» (fransiya g‘ori) davrida g‘orlar ichida yashab, o‘z uy yumushlarini shu yerning o‘zida bajarishgan. Ayollar cholg‘u yasash maqsadida emas, balki kiyim tayyorlash maqsadida xayvon terisiga ishlov berganlar, so‘ngra uni xumsimon katta yog‘och kundaga quritish uchun tashlab qo‘yganlar. G‘orlardagi quruqlik va issiqlik tahsirida

yog‘och kundalarga terining yelimsimon moddasi yopishib qolishi natijasida qurishi ham tezlashgan. Oqibatda, kovak kundaga yopishgan teri haqiqiy nog‘orasimon sas chiqarib, diqqatni jalb etgan holda urma cholg‘u mavqeini egallab qolgan.

Demak, jahon hamjamiyatining eng sevimli va sozlarining ilk piri hisoblangan **“HOG‘ORA”**- cholg‘usi ayollar tomomidan tassodifan paydo bo‘lgan cholg‘u hisoblanib, uning tarixiga 100- ming yil bo‘lib o‘tdi va morfologik genezisi tariximizda muhrlandi deyish mymkin. Xuddi shunday kiyimga mo‘xtojlik davrida yuzaga kelgan deyish ham mumkin.

O‘zbekistonning Surxondaryo viloyati Teshiktosh g‘oridan topilgan toshdagi haykalcha tasviri nog‘ora cholg‘usining Mavorounnahr zaminida ham keng qo‘llanilganligidan dalolat beradi.

Ikkinchi cholg‘uning tarixiga 11- ming yil bo‘lib o‘tgan, bu **“NAY”**- cholg‘usidir. Qozoqistonning “bo‘ri g‘ozg‘on” g‘oridan topilgan “g‘ajiray” (cho‘pon nay),

Uchinchi cholg‘u 5- ming yillik tarixiga kelib ilohiyot bilan bog‘lanuvchan, differensial qo‘zg‘alishlarga sababchi va jahon mo‘jizalaridan biri sanalgan **“DOYRA”** – cholg‘usidir. Ushbu cholg‘u “Nissioniy” va “Parfioniy”-lar davrida nafaqat musiqiy olam, hatto u yo bu ko‘rinishdagi falsafaviy g‘oyalar targ‘ibotchiligi va tibbiyotning ruhiyyot- (psixologik) olamida keng foydalanib kelingan. Ushbu cholg‘uning nomoddiy qo‘llanishi 8- mingyilliklarga borib taqalsa-da, ammo, faktologik tarix mavjud emas. Faqatgina 5- ming yillik tarixida cholg‘uning sirlari filologik jixatdan ma‘lum bo‘lib, dalil sifatida ijro sirlari haligacha ochilmasdan qolgan. Ya‘ni, ruhiyyot bilan bog‘lansa-da, undagi ijrochiga ayyon bo‘lgan sirli usul “shohzarbligida” ruhiy xastaliklar davolanib kelinganligi haqida faktologik ma‘lumotlar mavzud bo‘lib, ya‘ni, oliy asab faoliyati funksiyalariga chiqish va bo‘y sundirish, ong osti harakatlarini anglash va differensial qo‘zg‘alishlarni bajarish kabi muolajalar bajarilgan.

Insert - samarali o‘qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o‘qib-o‘rganishda yordam beradi. Bunda ma‘ruza mavzulari, cholg‘ular haqida zamonaviy tasnif va ergologiyasi, diopozoni, qo‘llanish sohasi, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o‘qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o‘z fikrini ifodalaydi.

1 - ilova. Matnni belgilash tizimi

(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) - yangi ma‘lumot.

(-) - men bilgan narsaga zid.

(?) - meni o‘ylantirdi. Bu borada menga qo‘shimcha ma‘lumot zarur.

Jahon standartlari cholg‘ular tasnifi	V	+	-	?
Idiofonlar	Qayroq			
Membronofon		Kongo		
Xordofon			Manzur	
Aerofon				Sur
Zoomorfologik va Pozoomorfologik	Burg‘u			Ishqiriq
Afrotrop va Fergantrop		Afrika		Farg‘ona
Poleolit, Shell, Ashel, so‘ngi Ashel	Paqildoq			
Madlen va Mezolit	Nog‘ora			
Neolit va Eneolit, temir bosqichlari		Nay		

Saidiy S.B.Milliy cholg'ular KONSEPSIYASI

1. **IDIOFONLAR**- (jarangli, shovqinli,dag'al – bir tonli tovush xususiyatiga ega nomusiqaviy cholg'u buyumlari);
2. **MEMBRONOFONLAR**- (memdrasiyasi keng, teri yo sunniy plastik tortilgan urma zarbli cholg'ular);
3. **XORDOFONLAR** – (xromatik sozlanishga ega; mizrob, kamon, noxun, noxunsher va tirnab chalinadigan cholg'ular);
4. **AEROFONLAR** – (puflama, nafasli cholg'ular);
5. **ZOOMORFOLOGIK** – (hayvon va parrandalar suyagi, shoxi, qanot – suyagi, qanot - kifti);
6. **POZOOMORFOLOGIK** – (suvenirli, hushtak, churrak, bulbulcha, ayiqcha va boshqalar).

Muallifning ko'p yillik ilmiy izlanishlari diqqatida Sohibqiron Amir Temur va temuriylar davri harbiy cholg'ularining jahon standartlariga xos tizimi, zamonaviy tasniflanish va turlanishi **ilk marotaba yirik konsepsiyasiga** erishgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Kitob, monografiya va to'plamlar

- 1.1. Farnet H.G. Islam. –Musikgeschichte in Bildern. –Lei'zig, s.a.Bd 3. Lfg.2.- 196 r.
- 1.2. Saidiy S.B. Markaziy Osiyo madaniyatida urma cholg'ular (o'zbek va tojik an'analari misolida)/.diss.s.f.n.O'z. B.A.S.I.T.I.(arxiv).

2. Qo'lyozma va arxiv materiallari

- 2.1. Saidiy S.B. Temuriylar davri cholg'ulari. //J. MOZIYDAN SADO, - Toshkent, 2004. №4(24). 26-27 b.

3. Avtoreferat va dissertatsiyalar

- 3.1. Nazarov A.F. Mumtoz iyqoh nazariyasi. Sanhatshunoslik fanlari doktori ilmiy darajasiga dahvogar dissertatsiyasi.- Toshkent.- 1996.
- 3.2. Saidiy S.B. Markaziy Osiyo madaniyatida urma cholg'ular (o'zbek va tojik an'analari misolida)/.diss.s.f.n.O'z. B.A.S.I.T.I.(arxiv).

МУЗЫКАЛЬНО - ИСТОРИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

*(из материалов архива и библиотек народов Узбекистан,
Таджикистан, Туркменистан и частично Киргизстана и Казахстана)*

*Саидий Саид Болта-Зода,
НавГПИ, к.н.и. профессор кафедры Музыкального обучения*

Введение:Основой темы в статье рассказывается Музыкально - Историческое Наследие Центральной Азии (из материалов архива и библиотек народов Узбекистан, Таджикистан, Туркменистан и частично Киргизстана и Казахстана) в сфере народов Центральной Азии и ближнего Востока. А также профессионализация локальных и устной традиции в стилевых исполнениях и научные труды основоположников ученых по музыке.

Ключевые слова: Авесто,(древней книге зороастрийцев) Сиёвуш,(правитель Бухары 400 лет до.н.э), Хо зам-зам(народное песня),Мозандарон (военное песня) шахнаме (раман),Спитамен (военный правитель,вожд), Борбад, (композитор и исполнитель VII века), Наврӯз (новый ден,новый год), Шашмакам, (Шесть Макомов,традиционные исполнение и пение), Наср (раздел пении),Мушкулот (раздел исполнительские), “Бузрук”,(великий)“Рост” (правильный), “Наво” (печальное), “Дугох” (циклические исполнения и пении), “Сегох””(циклические исполнения и пении), “Ирок” (город Ирак), Достон (поема),Сахибкиран (великий полководец Амир Темур).

Развитие узбекской, хорезмской, таджикской музыкальной культуры тесно связано со всей сложной многовековой историей узбекского народа с процессом формирования узбекской нации.

На первых этапах развития общества музыка была органической составной частью трудового процесса. Песня, пляска, игра на инструментах сопутствовали всем общественным и семейным праздникам. Многие из них были связаны со временами года. Особенно широкое распространение в Центральной Азии получил праздник весеннего равноденствия (впоследствии названного «Навруз»). Что обозначает новый день, в Согде рождество царя до династии мусульманстве, у таджиков и узбеков, а также у афгани и иранцев новый год. В Туркмении и казаках, а также у киргизцев (неврыз, ноорузы).

Исторически прослеживаемый этап жизни народов Центральной Азии начинается приблизительно с первого тысячелетия до н.э. Первые упоминания о племенах и народностях мы встречаем в «Авесте» - древней книге зороастрийцев – одним из первых источников изучения прошлого народов Средней Азии. «Авеста» содержит гимны: стихотворные проповеди и легенды, которые исполнялись жрецами – магами перед «священным» огнем. Жрецы пользовались музыкальными инструментами. До нас дошел отрывок из сказания скифского народа саков, приведенного Полиэном (II в.н.э.) в его «Стратагемах». Он рассказывает о беспримерной храбрости, любви к родине простого человека, жертвующего жизнью во имя независимости своего народа.

Это героическое сказание о высоком патриотизме древних предков узбекского народа, перекликающееся с замечательным подвигом Ивана Сусанина, ждет ещё воплощения в опере композиторов Узбекистана. К первому тысячелетию до н.э. создаются и циклы легенд о богатыре Рустам и Сиявуш и других. Создание на территории нынешнего Узбекистана государства теснее связали Среднюю Азию с другими странами. Установились торговые и культурные контакты с Индией, пролегли новые торговые пути на юг. Расширение связей способствовало и культурному взаимообогащению народов.

Уже с начала первого тысячелетия нашей эры у народов Средней Азии возникает письменность – согдийская и хорезмийская.

Объединение Согда и Бактрии под властью местной династии Кушанов способствовало росту городов и расцвету культуры, развитию музыкального искусства. Из группы народных музыкантов выделяются профессионалы, обслуживающие двор, дворцовые празднества.

Объединение Согда и Бактрии под властью местной династии Кушанов способствовало росту городов и расцвету культуры, развитию музыкального искусства. Из группы народных музыкантов выделяются профессионалы, обслуживающие двор, дворцовые празднества.

Распространение буддизма с усложнившимся ритуалом жертвоприношений и принесения в него театрального и музыкального начала способствует музыкальной профессионализации жрецов. Богоуслужение проходило с участием придворных певцов, которые исполняли священные мелодии.

Большую роль в развитии музыкальной культуры сыграл Хорезм, оказавший влияние на остальные области Центральной Азии. Ярким свидетельством богатства культуры хоразмийцев, открытый выдающимся русским археологом С. П.Тольстовым. После исследования было найдено многие данные – факты со стороны археологов Центральной Азии совместно с зарубежными специалистами.

Творцами и хранителями народно – песенных традиции той эпохи были народные певцы - озаны. С ними связано большое количество эпических сказаний, передаваемых из поколения в поколение. Многие из этих сказаний вошли впоследствии в цикл “Китаби Коркут”.

Памятники изобразительного искусства говорят о богатстве и разнообразии музыкальной культуры Согда, Хорезма, Пенджикента.

Музыка получает широкое распространение в народе. Некоторое представление об этом дает отрывок из «Шахнаме».

*А с краю от племени – девичий сход.
И праздник у них свой особый идет.
На всех из цветов понадеются венцы,
Рассажены в разных местах игрецы.
И каждая в свой запеваёт черед,
Про царские подвиги песню поёт.
Их кудри волнисты, и лучин их лик,
Их плечи душисты, и нежен язык.
У мельничной двери, собравшись на луг,
Они хороводный устроили круг.
У каждой в ладони цветы, и она.
Вином и весельем полупьяна.*

Танцы и хороводы исполнялись с музыкальным сопровождением.

Среди придворных музыкантов Сасанидов (персидская династия) имя Барбеда (фахлабада), жителя города Мерва (нынче-Туркменистан, Чаржуйской области), певца и композитора было широко известно. Он сочинял хвалебные, исторические, военные гимны. О необычайном воздействии искусства Барбеда, впечатлении, производимом его напевами, образно пишет Низами Ганжавий в поэме «Хосрав и Ширин»:

*Приказывает шах призвать на пир Барбеда:
Тоску лишь музыка излечит, не беседа.
Как пьяный соловей, является Барбед.
Запас ладов явить решается не весь он.
Лишь тридцать отобрал он сладкозвучных песен.
Ладами тридцатью, что льются как вино,
Ему пьянить людей и зажигать дано.
Когда в Барбед он бил, то высохшее дерево
Рождало влажный звук текучего напева.*

Когда запел он песен «даренный ветром клад» Его уста дары рождали с песней в лад. Когда он « Клад быка » запел, то звуком сила велела, чтоб земля все недра

растворила. Когда «спаленный клад» он пел, то вздохов жар. Сто кладов мог спалить, родясь от звучных чар....

Барбед Марвазий сочинял и исполнял особенно в размерах 2/4;3/4; 4/4; 5/8; 6/8; 7/8; 8/8; 12/8: на восточных ладах. А также обработки старинных военных и народных песен со времен «Спитамента» со стороны Барбеда Марвазий, так как называется “Мозандарон” и “Хо зам-зам”¹ и многие популярные произведения которые дошли до нас.

“Хо-Замзам” народное

Размеры	Темпы м/м	Динамические оттенки.	Созвучание.
1] 6/4 2] 4/4 3] 2/4	1] М:м = 60-80 2] М:м = 120 3] М:м = 140	P<f<PP<mf<f>sf ₂ >P<mf <f<ff>sf ₂ <f>fff	1] Спокойное 2] Весёлый, маршобразно 3] Радостно- танцевальное
ритмы			

“Мозандарон” военные песни

Размеры	Темпы м/м	Динамические оттенки.	Характер частей
4/4 12/8 6/8	М:м = 60-80 М:м = 140	f>mf>sf ₂ <f<ff>f> <sf ₂ >mf<f<ff>fff	1) вызываю щая 2) с вольнением 3) сражающ ий 4) торжестве нное
Ритмы.			

Арабское господство в VII-VIII вв. значительно задержало развитие экономики и культуры народов Центральной Азии, но ускорило процесс феодализации. Несмотря на длительность чужеземного господства, творчество народных талантов продолжало развиваться. Более того, арабы испытали большое влияние культуры покоренных народов. Много заимствовали в музыке. Некоторые арабские лады имели таджикское название и были местного Бухарского происхождения: ушшок, наво, рост, дугох, сегах, навруз и другие.

Крупные вокально-инструментальные жанровые произведения Бухары - макамы - в этот период получили свое дальнейшее развитие. Истоки их коренились в глубокой древности, в определенных попевках. После канонизации формы местные макамы в

значительной степени отличались от арабских и иранских макамов. В полосу развитого феодализма. Укрупняются феодальные княжества, идет концентрация земельных участков, растут города, оживляется торговля.

Аль – форобий оставил нам обширный труд в области теории музыки – «Китаб аль – мусики аль – кабир» («Великая книга музыки»). Будучи превосходным, аль – форобий особое внимание уделял изучению музыкальных инструментов.

Огромное влияние на его труды, как и на труды последующих в народности среднеазиатских ученых, оказали античные мыслители, в частности Пифагор и его школа. Большое значение начинает приобретать эпическое творчество. В придворных кругах распространяются старинные легенды о предания, до того бытовавшие лишь в народе. Образцом их могут служить легенды о Сиявуше, его подвигах распространенные в Бухаре. Историк X века Наршахий говорит, что были «удивительные песни», которые музыканты называют «борьбой Сиявуша».

Начало поэтическому изложению подобного эпоса положил поэт Дакикий – первый автор поэмы «Шахнаме». Завершил этот труд великий Фирдовсий (935- 1020). В течение 35 лет он создавал свою замечательную поэму, где в значительной мере использовал эпос среднеазиатских народов.

В героической поэме нашли отражение классовая борьба, народно – освободительное движение. «Шахнаме» является к тому же источником изучения музыки, музыкального быта. Вот, например, отрывок, рисующий картину придворного празднества:

*И стал тогда дворец, как будто сад весной.
Сюда приглашены вельможи были шахом;
В камнях дорогих пришли они на пир.
На струнах шелковых, на флейтах музыканты
Лилейнолицые играли перед царем,
Сидели за вином до полуночи гости,
Открыв свои уста, чтоб славных вспоминать.*

В эпоху Саманидов, наряду с вокальным творчеством, получило развитие и инструментальное. Аль – Форобий указывает на разнообразную роль, выполняемую музыкальными инструментами: есть «инструменты для войны и сражений, для танцев, свадеб, веселых пирушек и для любовных песен».

Таким образом, период IX-X вв. является началом расцвета музыкального искусства в условиях сложившегося феодального общества.

К концу X века районы Центральной Азии становятся ареной ожесточенной борьбы различных тюркских племен.

Естественно, что непрерывные войны не могли способствовать развитию культуры среднеазиатских народов. Особенно затихает культурная жизнь в период монгольского нашествия. И лишь с середины XIII- XIVв., после объединения Центральной Азии под властью Тимура вновь возрождаются различные виды искусства.

Правления непобедимого и несравненного Тимура имело многих положительных сторон: были прекращены феодальные смуты, ликвидирована феодальная раздробленность. Тимур создал величайшую державу, он был жестоким военачальником, жизни добро- справедливым «Сохибкраном» - строительство мечетей, медресе реставрации древнейших храмов, которых он завоевал.

Он дал возможность открыть новейшие науки о познании и осознании мира и человека на земле.

Один из историков того времени Хофизи – Абру пишет: « **А певцы прекрасноголосые и музыканты сладкозвучие играли и пели на мотивах по образцам персов, на мелодии арабов, по обычаям тюрков, на голоса моголов, по законам пения китайцев и размерами алтайцев.**»


Значительно расширяется музыкальная деятельность городских ремесленников. Их часто вынуждают принимать участие в торжественных церемониях двора. Так, в произведении «Зафарнаме» Шарафиддин рассказывал о встрече Тимура в Самарканде в 1396 г., описывает музыкантов:

*Везде музыканты поют, играют,
Их голоса приводят в волнение Венеру.
Обладают они голосами соловьев и речью попугаев.
Кокетством пленяют сердце мужчин и женщин.
Фисташки (зубы) луноликих, сладкие как сахар,
(Извлекают) из каждого руда иной мотив.
Таких павильонов было около ста четырех,
Вознесли они свои главы к девяти содам.
Вокруг толпа продавцов фруктов
Играет на зурнах и барабанах. Шум и крик...*

Со времен Шайбонидов XVI вв., в народной музыке происходит областная специализация музыкального стиля: в Бухаре – это крупные формы произведений традиционного многовекового стиля «классического» и «фольклорного», в Фергане «катта ашула», в Бухаре культивируется «**Шашмаком**» в двух разделах (**Мушкулот**-инструментальный) и (**Наср**-классическая большая пения), которое состоит из 6-ти практических частей “**Бузрук**”, “**Рост**”, “**Наво**”, “**Дугох**”, “**Сегох**”, “**Ирок**”, является единственным в мире по - своему философическо-психологическим и космической построению мифологического задиака (Dervish Ali Changiy)¹

Космическая выразительность действие в построение практически-психологических действия каждой частей наидревнейшего великого традиционного исполнение «Шашмакома»

Приложение-№1



Заключение; Народная музыка творчество в своей основе монодийно. Будучи отражением жизни и быта народа, оно характеризуется многогранностью тематики и разнообразием жанров. В народной музыке в соответствии с выполняемыми ею

функциями могут быть выделены, как и у других народов, две группы песен и инструментальных пьес: исполняемые в определенное время, при определенном обстоятельстве и исполняемые в любое время, независимо от тех или иных обстоятельств. Первые связаны с обрядами, трудовыми процессами, празднествами. Профессионализм в музыкальном искусстве Узбекистана, также как и Таджикистана, Азербайджана, Армении, стран арабов Востока, Индии и других, сформировался в глубокой древности. Прославленными носителями и создателями жанров профессиональной монодии были выдающиеся музыканты 6-8 вв. Барбад, Ибрагим аль-Маусили, его сын Исхак аль-Маусили и др. Теоретические основы традиции музыки получили освещение в трактатах учёных Среднего Востока - Абу Наср Мухаммеда аль-Фараби (9-10 вв.) так как получил мировое признание, вторым учителем мира после Аристотеля. Абу Али Хусейна. Ибн Сины (10-11 вв.), так как называемого в мировом языке «Авицина», основоположником и царем в мировом искусстве медицины. Ибн Зайлы (11 в.), Хорезми (11 в.), Сафи-ад-дина Урмави (13 в.), Махмуда аш-Ширази (13 в.), Абдул Кадр Малаги (14 в.), Абдурахмана Джамии (15 в.), а впоследствии Зайнулабиддина Хусайни (16 в.), Дарвеш Али Чанги (16-17 вв.) и мн. среднеазиатских анонимных авторов 16-19 вв.

Сложность жанров и исполнительской традиций профессиональной устной музыки культуры требовали от певцов и инструменталистов многолетней подготовки. Музыканты учились у прославленных мастеров, объединявшихся в корпорации, каждая из которых имела свои правила - рисола. Всё заучивалось "с голоса". Нотопись, известная ещё в средние века (по трактатам Фараби, аш-Ширази и др.), в музыкальной практике не применялась. Даже хорезмская табулатура (или нотация), изобретённая в 3-й четв. 19 в., вошла в обход лишь узкого круга музыкантов, хотя при помощи её записаны макамы.

Богат и разнообразны музыкальные инструменталии Узбекистана. Среди струнно-смычковых - гиджак, сато, кобуз, сетор; струнно-щипковых - домбра, дугар, танбур, уд, рубабы афганские (или бухарские) и кашгарские; струнно-ударных - чанг; духовых язычковых - сибзик, буламан (балабан), сурнай, кошнай; духовых флейтовых - най, гаджир-най; медных духовых - карнай; ударных - дойра, нагора, чиндаул, сафаиль, кошук и др. Получило развитие как сольное, так и разнообразное ансамблевое исполнительство. Характерная особенность узбекских ансамблей - игра в унисон. На основе родства инструментов по акустичности и др. признакам в Узбекистане (как и в Таджикистане) сложились две группы ансамблей: а) ансамбли довольно резко и громко звучащих инструментов (карнай, сурнай и нагора или дойра). Такие ансамбли (в разном составе) выступают на открытом воздухе - на площадях, улицах, во дворах. Они сопровождают большие традиционные празднества, различные обряды, улично-зрелищные представления. Каждый из инструментов выполняет самостоятельно функцию: сурнаю поручается мелодия, нагоре - усуль (ритмическая построения, повторяемые на протяжении всего произведения и соответствующие его метроритмике). Карнай - своеобразные фанфары, совпадающие зачастую в своей ритмической основе с усулем, исполняемым дойрой; б) ансамбли инструментов сравнительно мягкого звучания (почти все инструменты, не входящие в первую группу) в весьма разнообразных сочетаниях. При любом составе обязательна дойра, которая исполняет усуль. Ансамбли этой группы играют в основном произв. жанров, не связанных с обрядами, церемониальными процессами. В традиции узбеков оркестре народной

инструментов (играет в унисон и многоголосности в 2-3 октавы) разнообразие звучания достигается благодаря включению в него раздел групп инструментов.

Статья подготовлено в широком понятии для соискателей и студентов Вузах познакомиться с музыкальной культуры стран Центральной Азии и ближнего Востока.

1.КНИГИ, МОНОГРАФИИ И ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЛИТЕРАТУРЫ

1.1. Siobin M. Music in the Culture of Northern Afganistan. –Tucson, Aricon, 1976. - 126 p.

1.2. Elscheko and Stockman E. Zur Typologie der Stimmenmusik instrumentiert. –in: Studio instrumentale Musik populär, vol.1. –Stockholm, 1969. - 141 p.

1.3. Farnet H.G. Islam. –Musikgeschichte in Bildern. –Leipzig, s.a.Bd 3. Lfg.2. - 196 p.

1.4. Farnet H.G. An outline of History of music and musical theory. –in Pope F.A.A survey of Persian Art. –London, 1939, vol.3.

2. рукописи и архивные материалы

2.1. Саидий С.Б. Темурийлар даври чолғулари. //Ж. МОЗИЙДАН САДО, - Тошкент, 2004. №4(24). 26-27 б.

3. Авторефераты ва диссертации

3.1. Назаров А.Ф. Мумтоз ийкоч назарияси. Санъатшунослик фанлари доктори илмий даражасига даъвогар диссертацияси.- Тошкент.- 1996.

3.2. Саидий С.Б. Марказий Осиё маданиятида урма чолғулар (ўзбек ва тожик анъаналари мисолида)/.дисс.с.ф.н.Ўз. Б.А.С.И.Т.И.(архив).

МОЗИЙ САДОЛАРИДАН ТАРАЛГАН УСУЛЛАР СЕМАНТИКАСИ.

“ ЗАРБ –УЛ – ҚАДИМ” УСУЛИ МИСОЛИДА

*Саидий Саид Болта-Зода, НавДПИ, Муסיқа таълими
Кафедраси профессор, Санъатшунослик фанлари номзоди*

Аннотация. Мазкур мақолада муаллиф Бухоро “Шашмаком”нинг дойра усуллари семантикасини очиб бериш назарда тутилган. Шунингдек, мақолада жаҳон халқлари томонидан кенг қулланиб келинган ўзаро таъсири ҳам таккос ва илмий фаразларда ўрганилган.

Таянч сўзлар: «Нубай Зулқарнайн», “Зарб- ул- қадим”, “Идиофон”, “Паққилдоқ”, “Чаққилдоқ”, “Таққилдоқ”, “Мембронифон”, “Модуляция”, “Бум”, “Бак”, “Дифференциал”, “Онг ва Онг – ости”, “Ийқоот назарияси”, “Космик усул”, “Семантика”, “Кепчик”, “Чаққилдоқ- даф”, “Мозий садолари”, “Сарахбор”, “Бузрук”, “Мушкулот”, “Наср”, “Тасниф”, “Таржеъ”, “Ироқи Бухоро”, “Муножот”, “Ушшоқ”, “Реквен”.

Инсоният маънавияти равнақи мисолида оллоҳ назар солган Ўзбекистон маданиятининг серкирралиги ва бетакрор санъати, мақом ва маконлари; бундай мўъжиза ўлканинг ҳар томонлама чуқур тарихи ҳамда бугунги кундаги ўрни ва аҳамияти азалдан ҳозиргача мозийдан садо каби жаҳонни ҳайратга солиб бормоқда!

Чунончи, тарихчи ан-Насавий келтирган маълумотга қараганда Хоразмшоҳ Алоуддин Муҳаммад саройида ўтказилган тантаналарда, турли мамлакат ва

вилоятларнинг асир олинган 27 ҳукмдори саф тортиб, ноғораларда «Нубаи Зулқарнайн» усулини чалиб туришган .

Қадимги тарих руҳонийлари ўлчамида садо унсурларини жумбушга келиши, қон семантикасининг доимий ва бирхиллик реквенлигида + ё – (плюс ё минус) ҳамроҳлигида икки усулнинг бири кучли ва иккинчиси кучсизлигидан дарак бергувчи объектив ва субъектив ҳаракатлар яъни, табиий ва космик усул мўъжизалари мисолида назарлаб келинган.

Жаҳон олимлари диққати марказида икки мавжудодлардан бири “сабаб” ва иккинчиси “асос” деб билсак, унда биз ва бизга номаълум мозий сирлари ва ундаги садоларининг баъзи асосларидан хабардормиз, аммо сабабларини аниқлашга киришсак баъзиларининг ечимига бош қотириб келишимиз бу- аниқ!. Бунда, сабаблардан бири; инсоннинг онг ва онг ости ҳаракатларининг англаш ва англатиб билиш ва қўллаш қобилиятига биз ҳали англаб билмаган меъзонлар кўлами талайгина дейиш, ўринлидир.

Булар; а) табиийликда инсон юраги зарбларининг ҳамоҳанглиги билан боғлиқ жараён;

б) онг ва онг - ости ҳаракатлари меъзонларининг дифференциал ҳолати ва ундаги англаш, англатиш ва идрок этиш йўналишлари мисол бўла олади.

в) космик унсурларда табиат ва бизга номаълум мозий сирларининг садоларидир.

Демак, энг қадимги усул, бу; “Зарб- ул- қадим ” усули деб номланса, у инсон юрагининг ҳамоҳанглигидан келиб чиққан дейиш мумкин. Илмий тилда дойра зарбларининг садоланиш ўлчамидаги тўлқинланишида паст товушда “бум” аммо эшитилишида баланд, кейингиси баланд товуш тўлқинида “бак”, аммо эшитилишида паст товуш зарбининг табиийлигидан фойдаланиб келинган. Бундай манзарани улғ алома даврининг жаҳонда машҳур буюк мутаффакири, тиббиёт оламининг шаҳаншохи Абу Али ибн Сино усул таълимотидаги аруз ваъзлари “ийқоот назарияси ” тизимининг таснифида кўрсатилганидек, ушбу усул билан солиштирганда Абу Али ибн Сино тилида “нуктаҳои жолибий” деб аталади.

“Зарб- ул- қадим” усулининг қўлланиш соҳасида жуда кўп мисоллар келтириш мумкин. Ушбу; одамзоднинг ерга урилишидан бошлаб энг қадимги давр тақозосида; “паққилдоқ”, “чаққилдоқ”, “таққилдоқ” ва бошқа ёғочли, суяк, қайроқ тошлар ва темир буюмларидан тайёрланган, замонавий таснифланишида “Идиофон” –(шовқинли, жарангли, дағал) номусикавий чолғулар сирасига кирса-да, улардан “ов маросимлари”- да, “оммавий тантаналар”-да, “диний одатлар”-да, “жангу жадаллар”-да жуда кенг қўлланиб келинган. Шунингдек, Суғдиёна ва Авесто даврларида чакириқ, огоҳ, тантаналарда, қатл ва жазо, аскарларнинг уруш ва юришларида, ов маросимлари, сайлларда кенг фойдаланишган.

Александр Македонский даврида ҳам аскарларининг муворауннаҳрга бостириб кириши, юриш ва урушларда қўлланилган усули, айнан, шу усул мажмўъасида бўлиб ўтган.

Ислом динининг ер юзига тарқалишида, Марказий Осиё ва яқин Шарқ давлатлари ва бошқа давлатларга ҳам “Зарб-ул- қадим ” усулини урма зарбли чолғуларда, аниқроғи: “дойра, ноғора, таблак, кепчик” ва бошқа “Мембронифон ” –(урма зарбли, тери тортилган) чолғуларда бир хил ижро этиб, “оллоҳу - акбар” рукуни қўлланиб, оғир қадамларда юриб келганлар ва қўлга киритилган ҳамда бўй сундирилган.

12-асрда Эрон Султони Хусрав Дехлавий “ноғора” чолғусининг моҳир ижрочиси ва бастакори бўлганлиги билан у, кўплаб ноғорачилар билан турли хил усуллар

ижросида бахслар уюштириб, улар устидан ғалабага эришган. У томонидан қўлга киритилган ва асир олинган душман аскарларига “ноғоралар”- да чалишни ўзи ўргатган ва эрта тонгдан – бу тонггача алмашилган ҳолда бутун қалъа бўйлаб, устида саф тортиб “дўл ноғора, рез ноғора, катта ва кичик ноғоралар”-да “Зарб- ул- қадим” усулини бир марромда чалиб туришган. Аммо, ушбу даврда “Зу-ул- Қарнайн”, яъни Искандар Зулқарнайн усули номи билан тилга олиниб чалиб келинган эди.

Соҳибқирон Амир Темур в Темурийлар даврида аскарларининг юриши ва жангу жадалларда, чақириқлар ва тантаналарда, ов ва сайлларда ҳам ушбу усулдан кенг қўлланиб келинган.

Тарих тақозоси билан манбаъларда келтирилишича, ушбу усулдан Наполеон ҳам аскарларининг ҳарбий юришларида кенг фойдаланган. Кейинги даврда эса Бухоро Амирлигида қалъа устидан ноғорахона томининг устки сахнасида шу усулдан ноғоралар ижросида аскарларни, жамоатни “жаъм қилиш” ва “чақирик”- турида ҳамда “ов” ва “сайл”-ларда ижро этилганидек, кенг қўлланилган ҳолда чалиб келинган. Бир қаторда Миршаб мирзолари томонидан кундузги ва кечки назоратларда ва мирзонинг “чаккилдоқ- даф” чолғусида “ороми шаб рукуни талаффузида етти қадамдан сўнг, бир маротабали бум ва бак товуш садосида ижро этиб келинган.

Мисол тариқасида; 8/8 Шунингдек, Бухоро мумтоз ижрочилигида аجدодлар руҳи билан чамбарчас боғлиқ кечган усул, айнан “зарб- ул- қадим” –нинг қўлланиши, Бухоро Шашмакоми ва Хоразм мақомининг “Наср” бўлимидаги бошланғич қисмида, яъни “Сараҳбор” айтим йўлида катта ашуладан ўрин олган. Бузрук мақомининг мушкулот қисмидаги “тасниф ва таржеъ”, “ироқи Бухоро”, “муножот”, “ушшоқи Самарқанд” ва бошқа классик жанрларда дойра зарбларида ушбу усулнинг модулоти учратиш мумкин.

Иккинчи жаҳон уруши даврида Адольф Гитлер ҳарбийлари томонидан чалинган ушбу усул орқали давлат ва шаҳарлар жангсиз таслим бўлишган эди.

Бугунги кунда эса жаҳон ҳарбийлари томонидан “Зарб- ул- қадим” усули аскарларнинг юришларида жуда кенг фойдаланиб келинмоқда !!.

“Зарб- ул- қадим” усулининг семантик жиҳатдан дойра ё ноғорадаги ижроси ёхуд, икки зарбдан иборат бир усулдир. 2/4 ўлчовга тенгдир. Ушбу 4/4 кўринишида бўлиб, тавсифланишида ҳам табиий ҳамда сунний садоланишларга мисоллар келтириш мумкин. Бунда;



а) Инсон юрак зарбларининг эшитилиши, аммо назарий жиҳатдан ушбу зарблар модулотга эгадир, яъни: 2/4 иккинчиси инсон юрагининг клапанлар зарбига хос икки зарб эшитилишидаги усул бўлиб, назарий ечимда бир бутунлик давриясига тенг модуляцияни ташкил этади. ушбу; 5/8 шунга ўхшаш икки зарбли усулларни бошқа табиий садоланишларга ҳам учратиш мумкин, булар; отнинг югуриши, фил, туя, кит ва

дельфиннинг юрак зарблари, бойкуш чақириғи, каккунинг сайраши эса, айнан ўхшашдир.

Бир-қаторда қон семантикаси билан боғлиқ жинсларда кўпроқ учратиш мумкин. Маънан олганда вақт ажратувчи, ўлчов ва санок, савол ва жавоб, ҳаёт манбаъи рамзи сифатида нафақат инсонлар, паррандалар ва ҳайвонларда табиий ҳаракатлар механизмининг калити ё матори каби руҳий тавсифлар белгиларига боғлиқ кечади дейиш мумкин.

б) Космик ўлчамларда осмон жинсларининг бир - бировига урилиши, чакмоқлар ҳаракати, яъни акс садолар кўринишининг бошланғич зарби, диққат ё огоҳ маъносида кечса, иккинчи мисол тарикасида; афтомобилда матор бўлмаса у юрмайди, яна; бомба портланишидан олдин ерга ё бирор объектга урилишидаги садо ва сўнг портлагандаги садо. Сабаб ва асос каби мисоллар келтириш ҳам мумкин.

Хуллас; юқорида кўрсатилган “Зарб- ул- қадим” усулини семантикасига жуда кўп мисоллар келтириш мумкинким, ушбунинг ҳаёт ё мамот манзараларидаги руҳий таъсири ва тасовурбахш этилишида фалсафавий ва психологик дунёқарашлардаги у ё бу кўринишларининг садоланиш зарбларидаги ўлчами, чексиз тарих ва сирли мавжудоддан таралган таффовуд меъзонларини аңлатувчи ё огоҳлантирувчи ва бизга номаълум унсурлардан иборат мозий мўъжизалари беқиёсдир.

ФҲЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

- 1 Амир Темур тузуклари. Форсчадан А.Соғуний ва Х.Кароматов таржимаси.- Т.:Ғафур Ғулом номидаги нашриёт, 1991.– 104 б.
- 2 Буниятов М. Государство Хорезмшахов Ануштегини-тов.- М.: Гослитиздат , 1983.– 144 с.
- 3 Вамбери Х. Бухоро ёхуд Мавороуннаҳр тарихи.- Т.:Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1990.– 96 б.
- 4 Назаров А. Форобий ва Ибн Сино. Ритмика хусусида.- Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1995.- 123 б.
- 5 Пугаченкова Г.А. Искусство Бактрии эпохи Кушан. М.: Искусство, 1979.- 310 с.
- 6 Siobin M. Music in the Culture of Northern Afganistan. –Tucbon, Aricona, 1976.- 126p.
- 7 Farnet H.G. An outline of History of music and musical theory. –in Pope FA.Asurvey of Persian Art. –London, 1939, vol.3.

SOHIBQIRONNING HARBIY PSIXOLOGIK QARASHLARIDA CHOLG‘ULAR KONSEPSIYASI VA SIRLI KOMMUNIKATSION TAKTIKASI

Saidiy Said Boltazoda. NavDPI, s.f.n. professor

Annotatsiya. Ilmiy maqolada Sohibkron Amir Temur harbiy va cholg‘u asboblari tarixidan birinchi marta zamonaviy tasnif va tuzilishning xalqaro standartlarida “tushuncha” ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Musiqa , fan, nufuz, zoomorfologiya, aerofon, membranafon, idiofon.

Musiqa- u yo bu mavjudodlarning qon semantikasi bilan bog‘liq- borliq


va ajdodlar ruhiyyatini bir- biri bilan bog‘lovchi ma’naviy omil sifatida,

badiiyyat amalining ruhiyyatshunoslik tilidir! S.B. Saidiy.

Sohibqironning Vatan mustaqilligi, obodligi, siyosiy boshqaruv tizimi uning iqtisodiy, madaniy taraqqiyoti, xalqaro nufuzi, milliy davlatchilik siyosati hech bir sarkardaga bo‘lmagan!. Zero, Amir Temur o‘z davrining katta ma’naviy salohiyatli vatanparvari, millatparvari, atoqli davlat arbobi va sarkardasi, ul quvvai hofizasi bo‘lgan.

Sohibqiron Amir Temur va temuriylar davrida urma cholg‘ular harbiy unvon va daraja nishoni sifatida qo‘llanilgan. Bu haqda Sohibqiron o‘zining mashhur «Tuzuklari»da maxsus bo‘lim - «katta nog‘ora va bayroq ato etish» «tuzugi»da alohida to‘xtalib, quyidagilarni yozadi: «Amr qildimki, o‘n ikki katta amirlarning har biriga bitta bayroq va bir nog‘ora berilsin.

Chunonchi tarixchi an - Nasafiyning yozishiicha, Xorazmshoh Alouddin Muhammad saroyida o‘tkazilgan tantanalarda turli mamlakat va viloyatlarning asir olingan 27 - ta hukmdorlar saf tortib, nog‘oralarda “ Nubai Zu-l- qarnayn ” usulini chalib turishgan. Ushbu usullardan biri:



Ammo, ushbu davrda “Zu-l- qarnayn”, ya’ni Iskandar Zulqarnayn usuli nomi bilan tilga olinib chalib kelingan edi. Ushbu usullardan birini keyinchalik Husayn Boyqaro ham qo‘llagan. Bir qatorda ko‘p yangi usullar kompozitsiyasini ixtiro qilgan. Bular: “Chaqiriq va ogohlantiruvchi usullar”, “Mavsumiy marosim usullari”, “Harbiy va jang tartibli usullari”, “Saroy qonun qoidalariga itoat qilinadigan usullar”, “yuridik jazo usullari” “tantanavor bayram usullari”, “Ov sayli usullar” “Diniy chaqiriq usullari” va boshqalar.

Muallifning ko‘p yillik ilmiy izlanishlari diqqatida Sohibqiron Amir Temur va temuriylar davri harbiy cholg‘ularining jahon standartlariga xos tizimi, zamonaviy tasniflanish va turlanishi **ilk marotaba yirik konsepsiyasiga** erishgan bo‘lib, bular:

1. **Idiofonlar:** (bir tonli shovqinli va dag‘al-jarangsimon nomusiqiy cholg‘ular);- Jarros (charos), jon, g‘o‘la, sanj, zanjir, g‘ul-g‘ul.

2. **Membranafonlar:** (teri tortilgan keng to‘lqinli urma zarbli cholg‘ular);- noqur, doyra, dov, daff, dapp, ko‘s, tabira, katta va kichik rez nog‘oralari, alohida chindoul [tulumbas], dovul, duhol [duhol], qo‘shnog‘oralari [katta va kichik nog‘oralari], tablak, tabllar, nodir, naqkoi, kovarga [kobarka].

3. **Xordofonlar:** (xromatik sozlanuvchi musiqiy cholg‘ular);- Qonun, chang, tanbur, tambur-dilkash, g‘ijjak, sitor, rubob, manzur, arfa [lyutna, siqor], chig‘g‘ak, xuchir va turli xil Afg‘on va Pokistonga yaqin tojiklar cholg‘usi.

4. **Aerofonlar:** (nafasli- puflama cholg‘ular), nafir, sur [tirsakki karnay qattiq qayrililgan], qoranay [hozirgi karnay], nayi-Rumiy, surnaylar turi, shon, chabchig‘, dunay, safednay, siyoxnay, dukat, sonfur va hokazo cholg‘ularni tashkil etgan.»

5. **Zoomorfologik:** (hayvon shoxlari va suyagidan yasalgan cholg‘ular hamda dengiz tabiiy jonzodidan iborat bir tonli dag‘al va keng akustikadan iborat puflama cholg‘ular);-bug‘, burg‘u, shoxfar, gong, dengiz chig‘anog‘i;- dan iborat bo‘lgan.


6. **Pozoomorfologik:** (askarlar tomonidan “Gild”, “donak” va “suyak va “yog‘och”- dan tayyorlanadigan minatyura va sovg‘a uchun yasalgan turli xil shakllardagi cholg‘ular va multi-ansambllar);- churrak (olxo‘ri donagidan tayyorlangan), bulbulcha, toycha, dev, xo‘rozcha va boshqalar esa gilddan yasalgan. ¹

Yuqorida ko‘rsatilgan Sohibqiron Amir Temur va temuriylar davrining harbiy va musiqiy cholg‘ulari hamda nomusiqiy sifatlaridan iborat ilk konsepsiya, biz kutgan dolzarb ilmiy yutug‘larimizdan biri ekanligini holisona bildirmoqchimiz.

Qizig'i shundaki, Sohibqiron tadbiri bilan oddiy xalq orasida keng tarqalgan milliy cholg'u sozlarimiz hokim va lashkarboshilarning ijtimoiy va harbiy mavqeini belgilab beruvchi timsolga qonuniy ravishda aylandi .

Buzruk - Eng katta, eng buyuk degan maononi bildiradi. Bu maqomni ijrochilari qizil xalatlar kiyishib ijro etishganlar va bu maqom tinglovchilarni xarbiy g'alabaga intilishga chorlagan. Shuning uchun Sohibqiron Amir Temur ham biron mamlakatga jangga chorlanganda askarlarini o'tqiztirib, oldin shu maqomni tinglatgan va undan keyin yo'lga ravona bo'lganlar. Bu maqomni tush paytida tinglasa maqsadga muvofiq bo'ladi deyilgan.

Amir Temur doimo harbiy qo'shinlariga «Alloh akbar» -deb takbir aytsinlar va suron [jangovor chaqiriq, «ur ho-ur!»] solib, dushman sherigi ustiga bostirib boringlar», - deydi. ⁱ



Tarixchi Ali Yazdiy,

quyidagicha ta'riflaydi: «unda [ya'ni qal'ada] 300 erkak duhul, qo'shmay, naqqoi, nodir, ko's, tablak, tabal va karnay-surnaylar cholish bilan mashg'ul erdi». Sohibqiron harbiy orkestri puflama cholg'ulari misdan yasalgan qoranay [hozirgi karnay], nayi Rumi, bug', nafir, tirsakki, karnayu-surlar bilan boyitilgan edi. ⁱ

Sohibqiron Amir Temur harbiy yurishlaridagi musiqiy cholg'ulariga alohida katta e'tibor qaratgan. Sohibqiron g'oyasi qo'shilgan holda sirli farmoniga binoan "Harbiy musiqiy xiyla usullari"- jamul-jam bo'lib, kitobga aylanganligi haqida manba'lar va ilmiy fikrlar mavjud.

Ammo, bunday usullarni "Farg'ona vodiy nog'orachilari" bajarib yo yangilatib turishganligi faqat boshqaruvchisi va Sohibqironga ma'lum bo'lgan. Bunda, **sirli axborotlar berish "12 -zullisoneyn" nog'ora usullari majmuasining ma'nosi** (o'sha davr telekommunikasiyasi "masofaviy axborotlarda sirli xabarlar etkazish")- uchun keng qo'llanilgan....

Ushbu usullarning ma'nosini faqat Sohibqiron va ayg'oqchilari bilgan, xolos. Yana jangda qo'llaniladigan usullarning ba'zilar psixologik taktikalarni o'zgartirib turish va dushmanni chalg'itish uchun yangicha taktikada o'zgartirilib turishganligi uchun ham sir saqlanib kelingan.

Xabarlar "maxsus nog'orachilar" tomonidan baland tepaliklardan, tog'li xududlarning 3 klometrgacha yo ovoz to'liqinlanishiga qarab 5 klometrgacha bo'lgan masofadan turib, bir-biroviga dushmanning (soni, turi, tuzilishi, qurollanishi, tezligi va boshqalar) kabi sirli axborotlarni Sohibqironga yetkazishgan va shunga qarab dushman yaqin masofaga kelgunga qadar, dushmanga qarshi 6-7 hatto 10 kun davomida jang taktikasi, jang maydonining tanlanishi va tuzilish natijasi belgilangan va Sohibqiron orkestrining g'alaba usuli bilan yakun topgan. Misol tariqasida dushmanning piyoda askarlariga 1500 klometrni bosib o'tish uchun taxminan kamida 20-25 kun vaqt lozim bo'lgan. Otiqlarga esa taxminan 18 kunni tashkil etgan. Bu emaski manzilga yetgach jangga kirish, albatta 2-3 kun davomida askarlarga dam berib, ya'ni charchog'ini chiqarib, so'ng yangi kuch bilan jangga kiritilgan. Xullas, hammasi bo'lib g'alaba yo mag'lubiyatgacha 30 kun vaqt talab etgan. Shuningdek, dushmanni ta'qib etib ularni batafsil chappayu-rosta etis uchun 1,5 oygacha cho'zilgan. Yuqorida ko'rsatilgan masofadan ma'lumotlar qisqa yo'llar orqali nog'oralar ijrosida 6-7 soat davomida yetkazilgan.

Misol tariqasida faraz qilsak, bunda; "Janglarning birida dushman qo'shini A.Temur qo'shiniga nisbatan 10-(o'n)barobar ko'p bo'lganligi bilan, Sohibqiron dushmanning jangovor holatini va ruhiyatini sindirish uchun hiyla ishlatadi va harbiy orkestriga ortga-

chekinish usulini chalishni buyurgan. Bundan xabardor dushman nog'oralar sasini anglab, xursandchiligidan (biz g'alaba qozondik -?, shu erda nishonlaymiz!!!) - deya harbiylariga tantana damini nishonlayotgan paytida, yarim kun o'tgach, yangi oy charaqlab turgan edi. Fursat etganidek, to'satdan kutilmaganda Sohibqironning to'rtga bo'lingan harbiy orkestri jang taktikasining oxirgi belgisiga, ya'ni to'rtinchi ijroga o'tib "hujum-xuruji usuli"-ni bir marromda ijro etishadi. O'ziga ishongan dushman qo'shinlarining to'rt tomonini vahima bosadi, hatto jangovor holatga kelishga ulgurmasdan, Sohibqiron qo'shinlari tomonidan "halqa-ushribi"- taktikasi ostida "chappayu-rosta" etilgan va Sohibqironning shavkatli orkestri g'alaba usuliga o'tgan. Taslim bo'lganlari, Sohibqiron farmonlariga itoat qilib, alohida safga qo'shib olingan". Demak hujumga o'tish belgisigacha, avvalambor, u yo bu tomonda ham birinchidan, saflanish ishorasi chalinadi, ikkinchidan, hujumga o'tish, uchinchi- jang taktikasiga o'tish va nihoyat to'rtinchidan hujum-xurujiga o'tish kabi maxsus usul ijrolari ketma- ketlikni talab etadi. Ya'ni jang qilish uchun eng oxirgi ijro namoishiga o'tilganligini bildiradi. Beshinchisi g'alaba usuli, oltinchisi chekinish usuli va nihoyat, ettinchisi - mag'lubiyat usuli. Bundan tashqari otliqlar va piyoda askarlarga xos marsh usullari, tantanavor yurish usullari va Avesto davridan qolgan "mozandaron" harbiy qo'shigi nihoyatda keng qo'llanib kelingan.

Jumladan, uning harbiy amaliyot tarixiga kiritilgan qator kashfiyotlari nihoyatda qiziqarlidir. Masalan, mo'jaz shahar yoki qishloqqa hujum boshlashdan oldin, u erga ehtiyotkorlik bilan karnaychilar va nog'orachilar kiritilgan. Erta tongda bexosdan bu cholg'ularning yangrashi aholini dovdiratib, harbiylarga katta yordam bergan. Bu esa askarlarni qo'rqmaslik, jasurlik, ishonchlik, tetik va mag'rur bo'lishga da'vat etib, qo'shinga katta ruhiy ta'sir ko'rsatgan. Urma cholg'ular ov marosimlarida ham keng qo'llanilgan.

Manbalarda keltirilishicha, kunlarning birida Amir Temur sayd qilmoqchi bo'lib, p o'z odatiga ko'ra, chap tomonga qo'shinlarini yuborib, piyodalarining ana u maydonga, otliqlarini mana bu qishloqlaru - adirlarga, vahshiy hayvonlarni ushrib halqasi siqib [o'rab] olib, har tarafdin nog'oralarni urishga, nay va karnaylarni chalishga amr qildi. Shundan keyin kosalar urilib, surnaylar, doyra, tablak va chindovullar ovozi ko'tarilib, butun olam shovqin suron, dod - voyga to'lib ketdi; «eru osmon titrab», atrof alg'ov-dalg'ov bo'ldi. Hayvonlar nog'oralar ovozini eshitib, holdan toyib, o'takasi yorildi, sullayib, qimir etmay qoldilar. So'ngra bir-birlarining pinjiga kirib, qiyomat-qoyim bo'ldi deb tasavvur qildilar. Ular bir-birlarining bo'ynidan quchoqlab uxladilar, ho'kizlar sherlarni quchoqladilar. Sher esa kiyik bilan birga yotdi, bo'ri esa ohular orasiga yashirindi, tulki quyon bolalariga qo'shildi, yovvoyi echki tuyaqushdan panoh tilasa, quyon qirg'iydan yordam so'radi. Ana shu damda Temur o'z avlodlariga, farzand-u nabiralarga hech ikkilanmasdan istaganini [u hayvonlardan] ushlashni buyurdi, o'zi esa ularga nazar solib qahqaha otib kular va zavq bilan tomosha qilar edi. Shayx Amir Baraka esa Amir Temurga bayroq va nog'ora topshirib, uni hokimiyatni egallashga da'vat etgan.¹

Fransuz tarixchisi Lyusen Keren ma'lumotiga qaraganda harbiylarning ruhini ko'tarish uchun ulug' Amir Temur, odatda, Samarqandda tantanali marosimlar paytidagi kabi, harbiy ko'rik o'tkazishga qaror qilardi. Amir nog'oralarning tantanavor sadolari ostida tug'larini ko'tarib viqor ila saf tortib turgan bo'linmalar qarshisida ohista yurib chiqdi. Butun qo'shinni tekshirib chiqish uchun ikki kundan ortiq vaqt o'tdi,¹ – deyilgan. Demak, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Sohibqiron Amir Temur o'z qo'shinlarini ikki kun davomida tekshirgan bo'lsa, unda 200- mingta askar va "nog'orachilar" deb nomlangan 40 ta birlashgan harbiy

orkestr, ja'mi 1600 ta ijrochi, umumiysi taxminan 201600 ta tengsiz va matonatli askarini tekshirishdan o'tkazganiga teng keladi.

Ushbu masalaning echimi, rossiyani) sibirga tegishli 24 ta (yigirma to'rtta) harbiy diviziyalarini 21-yil davomida har yili erinmasdan jiddiy sinchkovlik bilan ko'rikdan o'tkazib kelayotgan Sibir harbiy General-leytenanti Adam Adamovich Efrimov va muallifning ko'rik tafsilotidan kelib chiqqan holda, zerikarli o'tmasin deb, buyruqsiz yoppasiga "nog'orada - balero usuli" ijrosi qo'llanildi va ushbu ostida bitta diviziyadan iborat 2000 mingta tankchi askarlar va 600 ta ofitserlar, 12 nafar ofitser va askarlardan iborat oshxona otryadi hamda 28 ta ijrochidan iborat harbiy orkestr vzvodi maydonda saf tortib ko'rikdan o'tkazildi. Hatto, oxirida muallifga qarab qadam bosganida, darhol nemislarning piyoda asrlarlariga tegishli «hujumga o'tish» marshiga o'tib to'xtadim. Ushbu ko'rik to'xtovsiz 2 soatu 20 daqiqa bir xil maromdagi usulda davom etgan edi!.

Qiziqarlisi shundaki, General menga siz (Sveshennaya-Buxara), O'zbekistonlik "Buyuk sarkarda (polkovodes) Temurlang" vatanidan ekansiz, biz ikkinchi jahon urushining "kursk" jangida Temurlangning psixologik taktikasini zamonaiyligini tanklarda qo'llab, ushbu ruhiy taassiroq orqali g'alabaga erishgan edik va men tariximda ilk marotaba bunday nog'ora ijrochisiga uchradim, hatto charchaganimni ham sezmadim, deya nog'orada qo'llagan vahimali-hayajonli va tantanavor usullardan hayratga qolganini aytgan edi!!!.

Haqiqatdan, shamolda hil'irayotgan bayroqlar ostida shiddat bilan jangga kirayotgan askarlar yuraklarga vahima va qo'rquv solgan hamda Xitoy nazoratidagi lashkarboshisini larzaga tutgan.

Bu qadimgi cholg'u Sohibqiron harbiy orkestridan yana o'ringa mansub bo'lgan. Sharafiddin Ali Yazdiy keltirgan bir ma'lumotda Qarshi shahrini qamal qilish chog'ida «Sohibqiron hazrat farmon berdilarki, burg'u cholsinlar, oqibat Qarshi aholisi ko'zlaridan uyqu qochib, 300 –yuzdan ortiq nodir, sur va burg'uchilarning ijro tovushlaridan taxayyur dudi ularning boshlariga urdi va ayrimlarini qo'rquvdan falajga aylantirgan. Qarshi "Zarb-al'- fatx" usuli, "Olloh akbar" va "ur-ho-ur" ruknlari usul birligida va "Yosin sur'asi" baland intonasiyada birlashgan kompozisiya bir marromda ijro etilgan holda zabt etilganidan so'ng, Sohibqiron Darveshak burg'uchi ismli harbiy sozanda xizmatini alohida taqdirlaydi. «Burg'u» keyinchalik Bobur lashkarlari musiqiy ramzi sifatida Hindiston madaniyatiga ham kirib keladi.

Manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, Sohibqiron vafotidan so'ng 11 yoshli shaxzoda Ibrohimga bobosining jangovor nog'orasi va kumush ajdarqo tasviri tushirilgan qora tug'ni tutqizdilar hamda butun qo'shin bilan birgalikda unga toju taxt egasiga ko'rsatiladigan izzat hurmat ko'rsatdilar.

1526 – yilda shijoatli xukmdor sifatida Bobur 100 - ming kishilik otliq va piyoda askarlar, 6 – ming jangari fillar, fillar ustidagi qallabanddan esa 24 – mingdan ortiq kamonchilardan tashqari fillarning bo'yniga va orqa qismiga o'rinishgan 12 – mingdan ortiq surnavoz va burg'uchilar, nog'orachilaru - tabbolchi ijrochilarining fillar qulog'iga qarab urg'ochisi chaqirganidek na'ra tortganlar, ularga qarab butun fillar javob qaytarganlar. Natijada savol – javob tariqasida aynan "trevoga"- ga o'xshash vahimali intonatsiya yuzaga kelib dushmanni dovdiratib, hangu- mang qilib qo'ygan va shu usulda titrayotgan dushman ustiga jangga kirgan. Ayrim dushman qo'shini qo'rquvdan jangsiz taslim bo'lishgan. Hindiston hukmdori Ibrohim Ludyga qarshi 10-12 ming otliq askari bilan jangga kirib, uni panipatda yengadi. Bobur hujumni davom ettirib, Dehli va Agrani ham qo'lga kiritadi. Shunday qilib BOBURIYLAR saltanati yuzaga keladi. Sohibqironning janglarida esa sur va burg'u ijrochilari pastdan va

balanddan fillar bo‘yniga mingan holda qulog‘iga qarab damba- dam na’ra tortganliklari haqida manbalar mavjud.

Amir Temur jang maydonini tanlashda shaxsan o‘zi ishtirok etar edi. Janggohning tekis, keng va qo‘shin qismlarini joylashtirishga qulay bo‘lishiga alohida e’tibor berardi. Ayniqsa, jang maydonining ichimlik suv manbaiga yaqin bo‘lishi hamda jang paytida quyosh nuri jangchilar ko‘ziga tushmasligini va dushman ruhini sindirish uchun **“maxsus nog‘orachilar”**ni joylashtirishda e’tiborga olgan holda jang maydonini tanlaganlar. Xuddi shu harbiy-usulni Koreya jangchilari tarixida ham uzoq vaqt qo‘llanilgan.


Sohibqiron Amir Temurning harbiy psixologik (taktik) uslublari serqirrali bo‘lib, nafaqat dushman, yo aholiga hatto turli xil hayvonlarga ham ruhiy ta’sirchanlik ko‘rsatish dramaturgiyasi bilan boshqalarga nisbatan katta farqiyatga ega bo‘lgan. A. Temur va temuriylar davridan qolgan oxirgi jangovor fillarning ajdodlari Buxoro Amirligida xizmatda bo‘lgan.

Sohibqiron bobomizning buyuk sarkarda sifatida harbiy san’at taktikasi va strategiyasida qo‘llagan o‘ziga xos mahoratlari tufayli Movarounnaxr tarixida zamonasining o‘ta intizomli va qudratli qo‘shinini tuza oldilar. Amir Temur bobomizning tuzgan qo‘shini yurt tinchligi va osoyishtaligining haqiqiy qo‘rg‘oniga aylandi.


Armenin Vamberi ma’lumotiga ko‘ra, to‘rtinchi va beshinchi usulda og‘ir tavsifli zarb usullar turi joylashgan bo‘lib, ular hatto askarlarni vahimaga solishi bilan bir qatorda, dushmanlarning ham o‘zlari va otlariga vahimali ta’sir ko‘rsatishgan. Jangovor tartib usullariga tegishli uslubiy qoidalar: 1. Diqqat usuli.




2. Guruhlarga taqsimlash. [psixologik taktikani egallash, hujumga o‘tish yoki muayyan ob’ektni qarshi olish maydonini egallash]. M:m =80. [Hayajonli, diqqatsimon].



3. Hujumga o‘tish belgisi. “Chabchig‘” ijrosida boshlab yuborilgan, so‘ng [Rez-nog‘oralar] dushmanga qarshi harakat boshlangan. M:m =100



Karnay, surnay, sanj nog‘oralar, tabbol, M:m =100



Al-tablalar. M:m =100

[Tulumbas] M:m =120 4. Hujumga o‘tish.



Tabirazonon peshi pilon ba poy,
Zi har xurushidani karranoy. (Firdavsiy)

Tarjimasi: “Qoranay (hozirgi karnay) – larning har bir na’rasida, Hog‘orachilar tabira (osma nog‘oralar) – da fillar yonida qadam tashlar, deyilgan.

Ma’nosi:; burg‘u, sur va karnaychilarning na’rasidan so‘ng, Nog‘orachilar fillarning oldiga borib, quloqlariga yaqin kelib, fil urg‘ochisi ovozida moslashtirib baland ijro etganlarida, fillar ham ularga qo‘shilib karnaylar suronidek, tabiiy ovozlari orqali javob

tariqasida na'ra tortganlar, ya'ni karnaychilar bilan fillar damba-dam tabiiy va sun'iy tovush intonasiyalarining bir – biroviga yaqin tovush xususiyatlari orqali jo'mnavoz tarzida ijro etilganligini bildiradi. Oqibatda hozirgi til bilan aytganda "TREVOGA" sasiga yaqin hatto undan ham vahimador tovush to'liqini paydo bo'lgan. Bunday ijrolar Sohibqiron amir Temur harbiy yurishlarida ko'proq qollanilgan. Shu kabi boshqa ovozi baland va keng diapazonli bahaybat ruhiy vahimadorlikda intonasiyalar ham organologik (Zoomorfologik) kuchlar xususiyati orqali, Hog'orachilarning kichik tablakida to'satdan uriladigan zarblar qo'shilishidagi ijro dramaturgiyasining turli xil hayajonli xislatlari bajarilgan. (olib yuradigan tablak). Dushman esa hayajonlanib o'z-o'zini boshqarolmasdan, to'satdan larzaga tushgan va taslim yoxud qochib qutulishga uringan.

Pushti maro chun shikami tabl barahna kard,
va chun tabbol vaqte jang bazaraboti mutaoqib,
va naqorati mutavoliy binavoxt. (A.Jomiy).

Ma'nosi; jang yurishida nog'orachi qornidagi osma nog'orasining qasqon uchi, oldindagi jangchini orqasini tirnab, dushmanga qarshi chopar holat yaqinlashtirib, oldinga surib keldi. Jangchining oldidan esa tabbolnavozning bolg'asimon yog'ochli tayog'i jangchining goh burniga, goh esa og'ziga urilib kelgan. Biroq, jangga xuruja o'tishdan oldin esa, tabbol (katta harbiy do'l nog'ora)- chi- nog'orachilar safiga qo'shilgan va jangchini dushman oldida yuzmayuz qaratgan. Shu zahot ansambl xuruj zarbini o'zgacha vahimador naqoratlar va ma'noli ruhiy ta'sirchanlikdagi usullarda ijro etdilar,- deyilgan. (A.Jomiy).

Bunday holat yo voqe'a Sohibqiron Amir Temurning askarlaridagi harbiy psixologik taktikasida hamma vaqt dushman payqamasligi uchun sirli usullarda yangilanib, yaqqol qo'llanilgan va usiz bo'lmagan. Yuqoridagi ma'no yana bir voqe'ani, ikki nog'orachilar o'rtasida qolgan jangchining orqa - umrtqa tomonidan nog'oraning qasqoni tirnab, yalig'latib oldinga surib borgan bo'lsa, jang paytida oldidagi katta do'l – nog'orachi esa, nog'orachilar guruhiga qo'shilib, birgalikda vahimador xuruj usulini chalishgan, ya'ni har ikkala tomondan qisilganini bildirmoqchi. Bu holatda jangchi birinchidan nog'orachilardan qutilgani va ikkinchi esa jangchini ruhiy jihatdan darg'azab holatga keltirib, asabini tarang va differensial jihatdan qo'zg'atganligida, (jangchi undan ko'ra jangga kirganim ma'qul)deb xulosaga kelgan va uchinchidan dar g'azab, butun jahli bilan dushmanga qarshi sherday otilib borganligi va jangchi-jangdan tirik, eson omon qolganligi va bu ushbu hodisani voqe'iyiligini tarixga o'zi taktikani anglab bilgan holda tushuntirib berganligi ham ma'lum bo'lmoqda.



Yuqorida ko'rsatilgan Sohibqiron Amir Temur va temuriylar davrining harbiy va musiqiy cholqulari hamda nomusiqiy sifatlaridan iborat ilk konsepsiya, biz kutgan dolzarb ilmiy yutug'larimizdan biri ekanligini holisona bildirmoqchimiz!.

Amir Temur davridagi boy ma'naviy muhit musiqa san'atining asosiy yo'nalishlari – cholg'uchilik va ijrochilik, bastakorlar ijrosi, shuningdek, musiqa haqidagi fanning rivojlanishiga keng imkon berdi.

Shayx Amir Baraka esa Amir Temurga bayroq va nog'ora topshirib, uni hokimiyatni egallashga da'vat etganⁱ.

Xullas: Sohibqiron Amir Temur va temuriylar davri hamda Buxoro, Samarqand, Xorazm, Tojikiston, Afg'oniston amirlik va xonliklari davrida ijro etilgan musiqa san'ati va cholg'ulari, ayniqsa harbiy akademik- san'atining nog'oralari va puflama cholg'u ijrochilik uslublarini o'rganish, tahlil qilish, ularni harbiy marosimlardagi barqadam ijro sabog'i yo'nalishini teatral tiklash, kinematografiya, bastakor va kompozitorlar asarlariga kiritish, milliy va mahalliy uslublarning bir-biroviga uzviy bog'langanligi munosabatini “Sharq taronalari” kabi yaqinligini tahlil qilish, o'zlikni anglash va an'anaviy zarb- usullarni tiklash kabi zamontalab, muhim ahamiyatga molik muammolar ko'lamli talaygina ekanligini ta'kidlash joiz....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интиломқда. - Т.: Ўзбекистон, 1999.- 230 б.
2. Каримов И.А. “ Янгича фикрлаш ва ишлаш-давр талаби”. 5-жилд.Тошкент: Ўзбекистон, 1997. 181-182 бетлар.
3. Amir Temur tuzuklari. Форсчадан А.Соғуний ва Х.Кароматов таржимаси.- Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт, 1991.– 104 б.
4. Буниятов М. Государство Хорезмшахов Ануштегинитов.- М.: Гослитиздат , 1983.– 144 с.
5. Вамбери Х. Путешествие в Среднюю Азию.- М.: Гослитиздат, 1865.
6. Виктор Чжен. Amir Temur. Издательство “Ёзувчи”- Тошкент,-1988. 6-10 бет.Таржима С.Саидий.
7. Саидий С.Б. Amir Temur davri Samarqand cholg'ulari. //Ж.SAN'AT, - Тошкент, 2004. №3-4. 28 б.
8. С.Саидий “Марказий Осиё маданиятида урма чолғулар (ўзбек ва тожик музыка аънавалари мисолида)”. “музыка” нашриёти.Тошкент.2008.
9. С.Саидий .Amir Temur va temuрийлар davrida харбий ва сарой музыка ижрочилиги услублари РИСОЛА УЛ - ШАРАФИЯ СОҲИБҚИРОН (чолғушунослик фанидан ўқув қўлланмаси). Қўлёзма.

MANGULIKKA DAXLDOR BASTAKOR-MUTAL BURXONOV

Saidqodirova Robiya

Nizomiy nomidagi TDPU “Musiqqa madaniyati” fakulteti talabasi

“Men bir narsadan faxrlanaman, mening musiqam butun dunyo bo‘ylab yangraganida ne-ne insonlar o‘rnidan turib qulluq qiladi...”

M.Burxonov

Ser quyosh hur o'lkam elga baxt najot...

Ushbu misralar bilan boshlanadigan she'rga bastalangan kuyni eshitgan har bir yurtdoshimiz borki, o'zida katta g'urur va iftixorni tuyadi.

1992-yil 10-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi qabul qilingan kun. Uning so‘zlari “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni sohibi bo‘lgan sevimli shoirimiz Abdulla Oripov qalamiga mansub bo‘lib, musiqasi O‘zbekiston xalq artisti, o‘zbek kompozitorlik maktabi asoschilaridan biri, serqirra ijodkor Mutal Burxonov tomonidan bastalanganini, yurtimizda yashayotgan har bir inson birdek biladi. Madhiyamizdagi bunday ajoyib, qalblarga yetib borib, faxr-hissini uyg‘otuvchi bu kuy bastakori, azim Buxoro farzandi Mutal (Mutavakkil) Muzayinovich Burxonov, 1916 yil 5-may kuni Buxoroi sharifda tavallud topdi.

10 yoshida ota-onasiz qolgan Mutal va uning ikki opasi 1926-yilda amakilari Buxorodan Samarqand shahriga ko‘chirib olib kelishadi. Oradan ko‘p o‘tmay u sherdor madrasasida ochilgan O‘zbekiston ilmiy tekshirish, musiq va xoreografiya instituti talabasiga aylanadi. Institut direktori Nikolay Mironov Mutalning tanbur chertishini ko‘rib, aytgan qo‘shig‘ini tinglab, bu “Bolada talanti bor, o‘qitamiz” deydi [1].

Musiqaga mehru-muhabbat Mutalga Abdurauf Fitrat xonadonidan yuqqan. Buni bastakor o‘zining “Ko‘ngil xazinasi” kitobida ham alohida ta’kidlaydi. Gap shunchaki, uning opasi Fotima Fitratga turmushga chiqqani edi. Shu boisdan Mutal Fitratning xonadoniga tez-tez borib turardi. Uyda haftada bir bor musiqashunoslar to‘planishar, ular orasida domla Halim Ibodov, Otag‘iyos, Ota Jalol singari mashhur ashulachiyu cholg‘uchilarni ko‘rish mumkin edi. “Shu yerda men Cho‘lpon, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Elbek, Usmon Nosir kabi shoiru-adiblarni ko‘rganman, ularning qizg‘in va bahslari guvohi bo‘lganman”, deya yozadi u [2].

Endiga 13 yoshga kirgan Mutalda ana shunday ulug‘ ijodkorlarning ta’siri katta bo‘ldi, albatta.

Mutal Burxonov ijodiy faoliyatini 30-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab, dastlab “Ey bulbul”, “Ishq o‘ri”, (Mashrab), “Ishqido” (Uyg‘un), “Tabassum qilmading”, (Navoiy), “Nomedonam chi nom dorat” (Hofiz) kabi romanlarni yozdi, 1941-yilda Uyg‘in va Izzat Sultonning “Alisher Navoiy” she’riy dramasiqa musiqqa, 1942-yilda T.Jalilov, T.Sodiqov, M.Vayinberg, A.Klumovlar bilan hamkorlikda “O‘zbekiston qilichi” musiqali dramasiqa musiqqa bastalagan, 1947-yilda shoir Temur Fattoh she’ri asosida O‘zbekiston davlat madhiyasi musiqsini yaratdi [3].

O‘rta Osiyo xalqlari qo‘shiqlarini o‘zbek xalq cholg‘u asboblari va jo‘rsiz xo‘r uchun qayta ishlagan. “Samolyot” (H.Olimjon), “Kapalak” (Z.Diyor), “Vatan qo‘shog‘i”, “Abdulla bayrami” (G‘G‘ulom) kabi mashhur bolalar qo‘shiqlarining muallifidir [4].

Bastakor 50-yillarda, “Bahor qushlar” vokal poema, “Abu Ali ibn Sino” simfonik syuita, yakkaxonlar, xor va simfonik orkestr uchun asarlar hamda 1968-yilda, Alisher Navoiyga qasiyda” (A.Oripov) kabi katta shakldagi musiqqa asrini yaratgan. Uning yarim asrdan ziyod davr mobaynida turli janrlarda yaratgan qo‘shiqlari, lirik romanlari, jo‘rsiz xor uchun qayta ishlangan Sharq xalqlari kuylari, jozibali vokal simfonik asarlari, kino musiqalari zamonaviy musiqqa san’atimizning “Oltin xazina”sidan o‘rin olgan.

“Abu Ali ibn Sino”, “Samolyotlar qo‘nolmadi”, “Maftuningman”, “Orol baliqchilari” (I.Ikromov, M.Leviyevlar) bilan hamkorlikda, “Surayyo”, “Boy ila xizmatchi”, “Istiqbol yo‘l” kabi badiiy filmlarning musiqalarini yaratgan.

“Alisher Navoiy” (1991) operasini, Abdurahmon Jomiy she’riga bastalangan, “Shiru shakar” yangi qo‘shig‘i va qatog‘on yillarda shahid bo‘lgan Fayzulla Xujayev, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat kabi elning asl farzandlari va o‘zining akasi va amakillarning porloq hotiralariga bag‘ishlangan “Abadiiy xotira” rekviem marsiyasini yaratgan.

Eshitgan buyuk yutuqlaridan o‘zligini yo‘qotmagan bu inson kamtarona hayot tarziga ega bo‘lgan. Qatog‘on davrida ko‘p zulm ko‘rgan ijodkor, bu azoblarini kelajakda tug‘ilajak

farzandlariga ravo ko‘rmaganligi uchun oila qurmagan. 1996-yilda yurtimiz mustaqilligi davrida bergan intervyularidan birida, “Agar shunday ozodlik, hurlik davri kelib, jannat makon yurtimizda har bir fuqaro uchun shunday sharoitlar yaratilishini bilganimda edi, albatta oila qurib farzandlarini dunyoga kelishini istagan bo‘lar edim” deb aytgan [5].

M.Burxonov “O‘zbekiston xalq artisti” unvoni, “Buyuk xizmatlari uchun”, “Mehnat shuhrati” ordeni, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston Davlat mukofotlari sohibidir. U 2002-yil olamdan ko‘z yumdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2018-yilda tashkil etilgan Mutal Burxonov uy-muzeyida bastakorning bolalik yillarini aks ettiruvchi foto suratlar, ijod xonasida cholg‘u asboblari, esdalik sovg‘alar, kitoblar, hujjatlar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining Davlat Madhiyasining notalari bilan yozilgan nusxasi, uning ijodini e‘tirof etib, taqdirlangan orden va medallari, davlat mukofotlari omma e‘tirofiga havola qilinib kelinmoqda.

Kompozitor yaratgan ijod bog‘i bugun o‘zgacha chiroy bilan yangidan yangi nav nihollarini parvarish etmoqda. Uning san‘ati bugungi umidli yoshlar ularning orzu va intilishlarida yana boy ko‘rsatadi. Xalqimizning yaxshi kunlarida, sog‘inch bilan yodga olinayotgan Mutal Burxonov musiqalari O‘zbekistonning urib turgan qaynoq qalbi misol yurtimiz shonu-shavkatini butun yer kurrasi uzra namoyon etmoqda. Mutal Burxonovning kamtarona hayot yo‘li o‘ziga xos betakror uslubi chindan ham manguликka daxldor edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.; 2002.
2. B.V.Shamahmudova Xor lug‘ati. T., 2009.
3. B.V.Shamahmudova Xor fanlarini o‘qitish uslubiyoti. T., 2016
4. Jabborov A. O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari –T.: 2004.
5. Jabborov A. Musiqiy drama va komediya janrlari O‘zbekiston kompozitorlarining ijodiyotida. –T.: 2000.
6. Begmatov S. Bastakorlar ijodi. –T.: 2017.

Elektron saytlar

1. ziyonet.uz
2. www.edu.uz
3. library.konservatoriya.uz

MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA O‘QUVCHILAR OVOZINI TARBIYALASHDA VOKAL SAN‘ATINING AHAMIYATI

Savapov Rashid Irkinovich

Jizzax ixtisoslashtirilgan san‘at maktabi

Estrada san‘ati kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada musiqa madaniyati darslarida o‘quvchi yoshlarni jahon xalqlari musiqa san‘atida yetakchi o‘rinlardan birini egallagan vokal san‘ati bilan tanishtirish va bu san‘atning go‘zal musiqiy xususiyatlaridan bahramand qilishning tarbiyaviy ahamiyati xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: vokal, ovoz, musiqa madaniyati, diapason, musiqiy qobiliyat

Umumta'lim maktablari o'quvchilarini musiqa madaniyati darslari orqali ma'naviyatlarini yuksaltirish, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma'naviy merosini qadrlash va rivojlantirishni namoyon etish, insonparvarlik g'oyalarini shakllantirishda musiqa vositalaridan, jumladan musiqiy janrlardan biri bo'lgan vokal san'atining bugungi kundagi ahamiyatini anglash, tushunish, tahlil qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantirish katta ahamiyatga ega.

Umumta'lim maktablarda birinchi sinfdan boshlab o'quvchilarga beriladigan musiqa madaniyati darslarida vokal san'ati haqidagi bilim va tushunchalar ularning keyingi estetik rivojlanishi uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, musiqa mashg'uloti faqatgina kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash faoliyatlaridagina iborat bo'lib qolmasligi uchun, o'qituvchi musiqa madaniyati darslariga jiddiy e'tibor bermog'i lozim. Ushbu jarayonda asosiy e'tibor o'quvchilarni musiqani eng birinchi navbatda mazmunini, nazariy va badiiy xususiyatlarini anglab, tasavvur etib, ongli ravishda idrok eta olishlariga qaratilmog'i lozim. O'quvchi mana shunday malakaga ega bo'lsagina, u o'zi tinglagan, kuylagan musiqiy asar haqida fikr bildira oladi, unga o'z munosabatini ifodalab bera oladi.

Musiqa madaniyati darslarining asosiy maqsadi yosh avlodni milliy musiqa me'rosimizga voris sifatida ulg'ayadigan, bilimli, sog'lom yoshlarni tarbiyalash va ularni ona zaminga bo'lgan mehr-u muhabbatini oshirish. Shu bilan birgalikda har bir o'quvchining musiqiy iqtidorini, san'atga bo'lgan ishtiyoqini yanada oshirish musiqa ta'limining asosiy vazifasidir. O'qituvchi musiqa madaniyati darslari orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashni, badiiy estetik qiziqishlarni, musiqiy didni tarbiyalaydi. Shuning uchun o'qituvchidan musiqa nazariyasini yaxshi bilishi, hamda vokal metodikasi jihatidan yaxshi tayyorgarlikka ega bo'lishi talab etiladi.

Pedagog o'quvchining ovoz xususiyatlarini uning ijrochilik usulidan ajrata olishi lozim. Ovoz turini aniqlashda tembr, diapazon, registr tuzilishining xususiyatlari, markaziy tovushlar, tessiturani ushlay bilish qobiliyati, hamda fiziologik –anatomik belgilar (Ovoz bog'lamlarining uzunligi va zichligi, rezonator tizimlari va boshqalar), xronaksimmetriya kabi qator alomatlar hisobga olinishi kerak.

Musiqa madaniyati darslarida vokal malakalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, jamoa bo'lib kuylash mashg'ulotlarida o'quvchilarning diqqati, ongliligi kuchayadi va aktivligi oshadi, musiqiy xotirasi mustahkamlanadi va o'rgangan qo'shiqlarini ijro etganda zavqlanish hissi paydo bo'la boshlaydi. Qo'shiq kuylaganda ijodiy ijrochilik hamkorligi kuchayadi va do'stona jamoaga birlashadi.

Bolalar ovozini parvarish qilish, vokal va xor malakalarini oshirishda qo'shiq o'rganishdan oldin maxsus vokal mashqlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda avval o'quvchilarning ishchi diapazonining primar(o'rta) tovushlardan boshlab pastki tomon yo'naluvchi tetraxodlardan foydalaniladi. Nafas esa me'yorida, shovqinsiz, elkani ko'tarmay, o'z vaqtida olish va mayin atakada kuylashga alohida e'tibor beriladi. Ularning ovoz diapazonining haddan tashqari past yoki yuqori pardalarida kuylatish yaramaydi.¹

Musiqa madaniyati darslarida o'qituvchi o'quvchining ovoz turlarini, uning hajmini, kengligini aniqlash orqali ovoz xarakteriga mos bo'lgan vokal mashqlari hamda qo'shiqlar kuylatib borishi lozim, bu esa ovoz hajmi kengligini chiroyli, rang-barang tembrda va jarangdor bo'lishida muhim omildir. Aksincha, baqirib, zo'riqib kuylangan qo'shiq salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Yoshlar vokal asarlarini baqirib, zo'riqib kuylaganlarida ovoz apparatlari buzilib, kasallanadi. Chunki yoshlarda ovoz chiqarish bilan bog'liq bo'lgan organlar o'suvchan

xarakterda bo‘ladi. Bundan tashqari, asarni baqirib kuylash badiiy ijro talablariga ham zid. U ovoz tembrini go‘zallik va ifodalilikdan mahrum qilib qo‘yadi.

Har bir kishining ovozi o‘ziga xos xususitga ega. Hatto chaqaloqning yig‘alaginidagi ovozi ham o‘ziga xos ohangga, xususiyatga ega bo‘ladi va shu orqali ona o‘z bolasining ovozini boshqa chaqaloqlar ovozidan farq qiladi. Albatta, hayot davomida odamning turli yosh davrlarida ovoz ma‘lum darajada o‘zgaradi. Ayniqsa o‘smirlarda (13 – 16 yoshda) ovozning o‘zgarishi juda sezilarli darajada bo‘ladi. Chunki shu yoshda hiqildoq va ovoz boylamlarining uzunligi o‘g‘il bolalarda ikki, qizlarda bir yarim barobar ortadi. Buning natijasida, ayniqsa, o‘smir yoshdagi o‘g‘il bolalarda ovoz qo‘pollashib, do‘rillab qoladi. Bundan xavotirlanmaslik kerak. Bu fiziologik xususiyatga ega bo‘lib, o‘smirlik davri o‘tgandan keyin ovoz me‘yoriy holga keladi. Lekin o‘smirlik davrida ba‘zi gigiyena qoidalariga amal qilish zarur, ya‘ni qattiq gapirmaslik, baqirmaslik, kuchli ovoz bilan ashula aytmaslik, shamollashdan saqlanish, achchiq taomlarga ruju qilmaslik kerak va hokazo ⁱ

Bolalar qo‘shig‘ida yengillik, shaffoflik, tovush tembri, cheklangan diapazon va tovush kuchi bilan ajralib turadigan falsetto tovushidan foydalaniladi. Yetti yoshga qadar qo‘shiq aytish falsetto xarakterini saqlab qoladi. 12-13 yoshda esa ko‘krak tembri ham qisman ochiladi.

Shuni alohida ta‘kidlash joizki, mumkin bo‘lgan repertuarni qat‘iy tanlash, ma‘lum bir yosh va o‘rtacha ovoz kuchi uchun tabiiy diapazon bilan cheklanishi kerak. Buzib va juda uzoq qo‘shiq aytishga yo‘l qo‘ymaslik kerak, chunki shundan keyin ovoz charchaydi. Bu ovozni majburlash, halqumni haddan tashqari zo‘riqtirish, baland tovushlarda ko‘krak tembrini oshirib yuborish, noqulay siqilishda qo‘shiq aytish natijasida yuzaga keladi.

O‘qituvchi o‘quvchilar ovozini tarbiyalashda vokal pedagogikasi uslublaridan hamda turli pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish orqali bolalarning dunyoqarashi, fikrlashi, tushunchasi rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki musiqa ta‘siri ostida bo‘ladigan har qanday hissiy, badiiy, emotsional kechinmalar esa, ayniqsa yosh bolalar qalbida o‘ziga xos yuksak oliyjanob his-tuyg‘u, kechinmalarni uyg‘otadi, ularni «oliyjanob va mehribon» qilib tarbiyalab boradi. Chunonchi, buyuk kompazitor D.Shostakovichning quyidagi fikrlarida musiqaning naqadar sehrli va jozibador ekanligini anglashimiz qiyin emas: “Buyuk musiqa san‘atini seving. U sizga olam jaxon ulug‘ hislar, jo‘shqin kayfiyat va fikrlar hosil qiladi. Sizni ruhan boyitadi, pok qiladi, kamolga yetkazadi. Musiqa tufayli siz o‘zingizda yangi kuch sezasiz, u sizni barkamol inson darajasiga yaqinlashtiradi” ⁱ

Musiqa madaniyati darslarida qo‘shiqlar vositasida o‘quvchilarda vokal san‘ati ko‘nikmalarini shakllantirish orqali jahon va o‘zbek vokal san‘atining naqadar boy tarixga ega ekanligi xususida o‘quvchilarning bilimga ega bo‘lishi kelajakda vokal san‘atida buyuk insonlar yetishib chiqishida katta ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, musiqa madaniyati darslarida vokal malakalari bo‘yicha olib boriladigan ishlarning sifati va samaradorligini oshirishda, vokal asarlarini mukammal o‘rganishda, nota savodxonligini bilish va uning imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalana olish orqali o‘quvchilarning vokal san‘atini puxta o‘zlashtirishlarida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

O‘quvchilarda vokal ko‘nikmalarini shakllantirishda ovoz qo‘yish mashqlarini mukammal egallash, ularda kuylash malakalari samaradorligini oshirishda asosiy vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hasanova, Navbahor. (2020). METHODS AND WAYS TO DEVELOP THE MUSICAL FEELINGS OF STUDENTS IN TTTE LESSONS OF MUSIC EUITURE. *Apxus*

Научных Публикаций JSPI, 1(42). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5579

2. Khasanova, Navbakhor (2020) "The role of music lessons in the formation of national and intercultural competence in students." *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*. Vol.2020 :Iss.2. Article 15 :<https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss2/15>

3. N. Hasanova O'zbek milliy musiqa merosi taraqqiyotida xotin-qizlarning o'rni. Актуальный вызовы современной науки IX xalqaro ilmiy konferensiya 26-27 yanvar 2017 yil.

4. D. Soipova "Musiqi o'qitish nazariyasi va metodikasi" O'quv qo'llanma. Toshkent. 2009-y 131- bet

5. Muminova Muqaddas Riskulovna Development And Current Status Of Uzbek Pop Music In Modern Approaches And Innovations Of Teaching The Science Of Music Culture *International Journal of Advanced Science and Technology* Vol. 29, No. 8, (2020) <https://t.me/joinchat/> - Music teacher, <https://infourok.ru> - music lessons

6. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlar o'qituvchisining kreativligi. Педагогические и лингвопсихологические особенности развития, формирования и становления личности врача. Сборник тезисов Международная конференции. СамГМИ, Самарканд 5 мая 2021 год

7. Urinova S.Sh. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishning nazariy asoslari. "The best innovator in science" xalqaro maqolalar tanlovi to'plami. Organized by Innovative Academy. Tashkent February 5, 2022. Pg 811. <https://zenodo.org/record/5979621#.YpC2PKhBxD8>

9. Azizbek Haydarov "Vokal" O'quv qo'llanma. Qo'qon. 2019- yil 51- bet

10. D. Shostakovich. Znayte i lyubite muziku. –M., Presvesheniye, 1973g. 19str.

11. <https://hozir.org/>

К ВОПРОСУ ОБ ИСПОЛНИТЕЛЬСКОМ ИСКУССТВЕ В СОВРЕМЕННОМ АНДИЖАНЕ

*Сидикова Алия Маратовна,
преподаватель Андижанского государственного университета,
Абдуллажонова Наргиза Абдумажид кизи,
педагог Андижанской специализированной школы искусств,*

Аннотация: в статье анализируются особенности развития исполнительского искусства на примере концертной деятельности учащихся Андижанской специализированной школы искусств и студентов Андижанского государственного университета. Основным материалом для анализа послужили видео и аудиозаписи исполнений учащихся класса Жеребиловой Алевтины Владимировны, камерного оркестра народных инструментов «Тарона» п/у Акрамовой Хотиры Насритдиновны, молодежного симфонического оркестра п/у Саттарова Акмаля, ансамбля макомистов п/у Юлдашева Бобура, оркестра народных инструментов п/у и.о. проф. Ботировой Хилолы и Солижонова Бобура.

Ключевые слова: Андижан, Андижанский государственный университет, Андижанская специализированная школа искусств, исполнительское искусство.

Смена общественного устройства нашего государства в 1991 году требовала активных действий и исследований в области современного исполнительского искусства. Каким было и каким стало исполнительское искусство сейчас в Узбекистане и в, частности, в Андижане? Это вопросы, волнующие педагогов, исполнителей и исследователей нашей страны.

Любое музыкальное исполнительское искусство, будь то фортепианные концерты, выступления симфонического оркестра и оркестра народных инструментов или творчество ансамблей макомистов «основано не на простом механическом переводе исполняемого произведения в другую форму, а на его перевоплощении, включающем такие творческие элементы, как вживание в духовное содержание произведения, его интерпретация исполнителем согласно его собственному мировоззрению и эстетической позиции»¹. Исполнительское искусство Андижана непосредственно связано с творческой деятельностью Андижанской специализированной школы искусств и кафедры «Музыкальное образование» Андижанского государственного университета.

Основополагающим вектором в современной системе музыкального образования и для развития фортепианного исполнительства, в частности, является создание почвы и благоприятного климата для становления музыканта. Это необходимо для того, чтобы воспитать не просто пианистов, а, прежде всего, исполнителей-музыкантов, музыкантов-исследователей с широким кругозором, глубоким познанием различных видов искусств [1, 152].

Очень важная черта исполнительства – это непосредственный акт творчества, который совершается сейчас, в данный момент. Публичные выступления юных артистов из класса одного из самых востребованных и успешных педагогов Андижана, А.В.Жеребиловой - Солижонова Рустама (2014 г.), Азимжоновой Муаззам (2019 г.), Низомовой Мохигуль (2022 г.) – стали большой удачей для слушателей и любителей музыки. Мировые музыкальные шедевры гармонично сочетались с произведениями отечественных композиторов. Фортепианные произведения И.С.Баха, Й.Гайдна, Л. Ван Бетховена, Ф.Шопена, Ф.Листа, С.В.Рахманинова, С.С.Прокофьева, Р.Глиэра, А.Атегенова, Г.Демесинова, М.Атаджанова были интерпретированы классическим образом. Отметим, что процесс публичного выступления невозможно абсолютно точно скопировать и повторить, что является характерной особенностью исполнительства. На сегодняшний день Р.Солижонов является педагогом Андижанской специализированной школы искусств, а М.Азимжонова и М.Низомова учатся в Государственной консерватории Узбекистана.

Рассматривая вопросы музыкальной исполнительской жизни в Андижане, невозможным и неверным будет не рассказать об искусстве исполнения Шашмакома, Фергано-ташкентского цикла и Хорезмских макомов. В этой связи необходимо подчеркнуть вклад в развитие андижанской культуры и образования в этом музыкальном направлении преподавателя Андижанского государственного университета Бобура Юлдашева, большого устоа. Сегодня существует важнейшая установка – сохранение уже сложившихся традиций в исполнении макомов. Шогирды (ученики) мастера представляют публике не только нашего города, но и всей республике классические образцы древнейшего среднеазиатского вокально-инструментального жанра. Студенты факультета «Искусствознание» Андижанского государственного университета

регулярно одерживают победы на республиканских конкурсах исполнения Шашмакома. Это стало возможным благодаря открытию направления «Исполнительское искусство» (узбекские народные инструменты) и «Вокальное искусство» (традиционное пение) в Андижанском государственном университете на факультете «Искусствознание», на кафедре «Музыкальное образование» в 2019 г. Таким образом возникли большие возможности и преимущества, связанные с тем, что, получив высшее исполнительское образование в Андижане, ребята остаются здесь, у себя, на «малой родине». Большой поддержкой и стартовой площадкой для развития данных направлений является активная и плодотворная концертная деятельность оркестра народных инструментов «Нихол» п/у и.о. профессора Андижанского государственного университета, обаятельной Ботировой Хилолы, и п/у преподавателя университета – харизматичного и очень перспективного дирижера Солижонова Бобура. Считаю необходимым заметить, что оба успешных дирижера являются выпускниками Государственной консерватории Узбекистана.

В наши дни концерты – это один из важнейших инструментов культуры. Этого правила многие годы придерживается неподражаемая Акрамова Хотира Насритдиновна, награжденная государственной наградой в 2013 г. - медалью «Шухрат» [1, 41]. По ее личной инициативе в 2010 г. в Андижане был создан камерный оркестр народных инструментов «Тарона», который в 2012 г. победил на конкурсе ансамблей и оркестров «Навруз садолари». Репертуар оркестра составляют самые разнообразные произведения как отечественных композиторов, так и мировой классики. Ввиду этого следует выделить и еще одну черту исполнительства – наличие прямых и обратимых связей интерпретатора с воспринимаемой аудиторией. Благодаря этому публика может непосредственно влиять на ход творческого процесса. Но все же главная черта, определяющая его специфику – это наличие художественной интерпретации. Это исполнительская трактовка произведения композитора. Таким интерпретаторским талантом и обладает Хотира Насритдиновна.

Основные виды современного исполнительского искусства существуют и развиваются только за счет поддержки государства. Эта ситуация примерно одинакова и в Узбекистане, и во всем мире. Это одновременно и показатель, и результат социально-экономической стабилизации жизни узбекского общества, а также адаптации культурных учреждений к новым условиям. Поэтому большим и знаковым событием в культурной жизни Андижана явилось создание по инициативе хакима Андижанской области Ш.К.Абдурахманова Андижанского молодежного симфонического оркестра. Он был создан 30 июня (День молодежи) 2021 г. Дирижер в молодом коллективе - выпускник Государственной консерватории Узбекистана, лауреат международных и республиканских конкурсов, Акмаль Саттаров. Нужно отметить, что наличием симфонического оркестра могут похвастаться не все областные центры нашей страны. В составе творческого коллектива есть как учащиеся Андижанской специализированной школы искусств, Андижанского государственного университета, так и уже состоявшиеся профессиональные музыканты. Оркестр ведет активную концертную жизнь и участвует во всех массово-культурных мероприятиях области и города с самой разнообразной исполнительской программой.

Однако, в то же время, нельзя закрывать глаза на существующие проблемы в современном исполнительстве. На примере анализа музыкальной исполнительской практики в Андижане, мы можем обратить внимание, что в большей степени

преобладают концерты ансамблевой и оркестровой музыки. Потребительский подход, следование массовым вкусам и тенденциям усложняют развитие классических творческих форм, доступ к художественному творчеству жителей регионов, приобщение к искусству детей и юношества. Выявление и поддержка начинающих талантов и их преподавателей, их привлечение к реализации творческих проектов, поиск новых форм и средств художественной выразительности – все это соответствует главным государственным задачам в сфере культуры, искусства и образования.

Концертные и исполнительские коллективы очень важны для современной узбекской культуры, поскольку вносят весомый вклад в сохранение и развитие лучших традиций музыкального искусства, обеспечивают творческую преемственность поколений, играет большую роль в просвещении и воспитании молодежи. Именно поэтому сохранение и развитие исполнительских коллективов – необходимое условие для обеспечения дальнейшего развития отечественного искусства в целом.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Мамасолиев К. «Андижон санъат коллежи», Сборник. Андижан, 2016 г., с.41.
2. Сидикова А. Код фортепианного исполнительского искусства. Ст. из сборника статей Республиканской научно-практической конференции «Актуальные проблемы современного узбекского музыкознания», Т., 2020 г., с.152.
3. URL: ru.m.wikipedia.org (дата обращения: 16.11.2022 г.)

XALQ QO‘SHIQLARIDAN BADIY ESTETIK TARBIYADA FOYDALANISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

*Sultonova Arofat Yo‘ldosh qizi,
Jizzax DPU Musiqa ta’limi yo‘nalishi talabasi.
Fayzullayev Ermat Majidovich,
Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti dotsenti v/b, p.f.n.*

Annotasiya: Maqola mazmunida xalq qo‘shiqlaridan badiiy estetik tarbiyada foydalanishning nazariy va amaliy asoslari yuzasidan fikr muloxazalar bildiriladi.

Kalitli so‘zlar: xalq qo‘shiqlari, estetik tarbiya, ko‘rik-tanlovlar, cholg‘uchilar ansambli, to‘garak, bezak, salmoq, qochirma, badiiy-ijro.

Musiqa san’ati barcha san’at turlari kabi inson ruhiyati hamda ijtimoiy voqealikalarni o‘zida mujassamlashtiruvchi estetik ta’sirchan vosita shuningdek badiiy tarbiyaviy ahamiyatga molik shakil xisoblanadi. Musiqa va qo‘shiqlarda tabiat manzaralari insonlarga xos xususiyatlar, ijtimoiy munosabatlar, psixologik holat va kechirmalar mardlik, baxtiyorlik, qayg‘u, iztirob, tushkunlik kabi xodisalar ifodalanadi.

Musiqa asarlarining tarbiyaviy ahamiyati shundaki ular kishilarning ongini o‘stirish, irodaviy sifatlarini rivojlantirish hissiyotini boyitishga ematsional ta’sirini ko‘rsatadi.

Ohanglar ta’sirida inson ruhiyatida muayyan psixologik xodisalar ro‘y berib, ijobiy va salbiy kayfiyatlarni yuzaga keltiradi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki ayniqsa xalqona huldagi yaratilgan ashulalar, laparlar, yallalar, katta ashulalar shuningdek dastakorlik ijodiga bog‘lab talqin etiluvchi mumtoz musiqa asarlari inson ruhiyatidagi eng nozik

hislarni yuzaga kelishiga kishi qalbiga nozik his-tuyg'ular va kechinmalarni vujudga kelishiga imkon tug'diradi.

O'zbek xalqi musiqa merosida xalq qo'shiqlari juda keng ommaviy san'at turi sifatida o'zida xalqimizning asrlar davomida shakllangan pedagogikasini ham mujassam etadi. Shuni alohida etirof etish kerakki, o'zbek xalq og'izaki ijodi yoki ayrim shoirlar ijodiga mansub she'riy matn yozadi. Bundan tashqari hamma zamonlarda ham xalq orasidan yetishib chiqqan nodir istedod sohibi bo'lgan bastakorlar tomonidan qo'shiqlarni o'ta mukammal yetuk namunalari yaratilganki ular hozirgi kunda "mumtoz" qo'shiqlar sifatida e'zozlanib, kuylanib kelinadi. Bundan tashqari hozirgi zamonaviy bastakorlarimiz ham xalq musiqasi va qo'shiqlari ohangidan ijodiy foydalangan holda ajoyib narsalar yaratishmoqda.

Xalq qo'shiqlaridan yoshlarning badiiy-estetik tarbiyasida foydalanish uchun maqsadga muvofiqligi nuqtaiy-nazardan qarab chiqar ekanmiz, asosiy etiborni ularda ko'chirilgan g'oyalarga tarbiyaviy yo'nalish va ditaktik mazmuniga qaratishni maqsadga muvofiq bo'lishini alohida takidlashni lozim deb bilamiz.

Xalq musiqa merosidagi qadimiy an'ana, urf-odatlar bilan bog'liq bo'lgan va hozirgi zamon ijtimoiy madaniy hayotimiz nafasi bilan sug'orilgan o'zbek xalq qo'shiqlarini tahlil qilar ekanmiz ularni qudratli tarbiya vositalaridan biri deb aytishga to'la xaqlimiz. Ulardagi ma'naviy va estetik g'oyalar yoshlarda vatanparvarlik, do'stlik, halollik, salbiy ko'rinishlarga nisbatan murosasizlik kabi insoniy fazilatlarini shakllanishiga ijobiy ta'sir etadi.

Xalq qo'shiqlarining tarbiyaviy ta'sirchanlikka ega ekanligining yana bir asosiy jihati uning matnida o'zining ifodasini topadi. Takidlab o'tilganligidek qo'shiqlarda ijobiy xislatlarni madh etilishi, salbiy illatlarni qaralovchi matnga mos musiqa uyg'unlashib inson hissiyotiga ijobiy va tarbiyaviy ta'sir etishi jihatidan badiiy-estetik tarbiyaning qudratli vositalaridan pedagogik maqsadlarda foydalanish yaxshi samara beradi. Bu o'rinda kelib chiqadigan muammo, xalq qo'shiqlaridan estetik tarbiyada foydalananda uning uning tarbiyaviy tomonlarini to'g'ri hisobga olish, ya'ni ularni o'rganish, kuylash, tinglash davomida o'quvchi, ijoralar davomidan to'g'ri idrok qilinishiga erishish lozim. Xalq qo'shiqlari faqatgina an'anaviy ijrochilik namunalari bo'lib qolmay, ayni paytda xalq o'rtasida keng tarqalgan ijtimoiy-siyosiy mafkuraviy ma'naviy voqealikka mansub ijod va san'at asarlari deb baholanmog'i zarur.

Ayrim ilmiy va ommaviy manbalarda "Xalq qo'shiqlari" iborasini tor ma'noda tushunish uni faqatgina falklor qo'shiqlaridan iborat deb tushunish holati mavjud, bu esa unchalik ham to'g'ri emas. Chunki, hozirgi kunda talantli musiqashunoslar, cholg'ular sozandalar yetuk xalq hofizlari, xonandalar tomonidan yaratilayotgan xalqona qo'shiqlarni qanday tariflash mumkin. Ularni ko'pchiligi xalq musiqasida mavjud bo'lgan ohanglarga tayanib, ulardan ilhomlanib, ularga yaqin ohanglar ta'sirida yozilayotganligi ravshanku. Aslida xalq musiqa merosidagi hozir biz falklor yo'nalishiga mansub deb tariflayotgan namunalar ham huddi shu tarzda yaratilganligini kim inkor eta oladi.

Biz Respublikamizdagi Umumta'lim maktablarida xalq qo'shiqlaridan foydalangan holda o'quvchi yoshlarni badiiy-estetik tarbiyalash amaliyotini kuzatish tahlil qilar ekanmiz bu borada jiddiy muammolar borligiga ishonch hosil qildik.

Shu o'rinda taniqli bastakor va pedagog R. Tursunovning "Marifat" gazetasida bildirgan quydagi so'zlarni keltirishni o'rinli deb bilamiz.

“Musiqā ta’limida yana bir muammo mavjud u ham bo’lsa Umumta’lim va musiqā maktablarining o’quv dasturlaridagi xalq kuy – qo’shiqlari, mumtoz va maqom musiqasi kiritilgan bo’lmāsada ular bo’yicha zarur fontekalar bilan maktablarni taminlanmaganligidir.

Estetik tarbiya muammolariga bag’ishlangan ilmiy tadqiqot, tegishli hujjat va kadrlarni, dastur va darsliklarni o’rganish va soha mutahasislari bilan suhbatlashish ularni tahlil qilish shuni ko’rsatadiki xozirgi kunda hamma joyda ham musiqā darslari Davlat ta’lim standartlari asosida o’tilayotgani yo’q. Bunga juda ko’p sabablar bo’lib, bular musiqā, xalq qo’shiqlari, mumtoz va maqom musiqasi bo’yicha yetarli bilim, tushuncha va malakalarga ega emasligi va ko’pchilik maktablarda musiqā darslarini mutaxassis bo’lmagan o’qituvchilar tomonidan o’tilayotganligi bilan izohlanadi. Musiqā o’qituvchilarini xalq musiqasi mumtoz va maqom musiqasi bo’yicha yetarli tayyorgarlikka ega emasligi.

Hozirgi kunda ta’lim sifatini takomillashtirishga e’tibor kuchayayotgan, o’quv dasturlari, rejalar darsliklarni yanada mukammal variantlarini yaratish ustida qizg’in ish borayotgan ekan, xalq musiqā merosi, xususan mumtoz va maqom san’ati bo’yicha o’quv materiallari, ularni o’rganishga ajratiladigan soatlar hajmi umuman musiqā darslari soatlarini ko’paytirish yuzasidan amaliy ishlarga kirishish payti keldi.

Umumta’lim maktablari musiqā darslarida o’quvchilar o’z bilganlaricha ish tutishayotganliklari dars va musiqā to’garaklarida o’quvchilarni hoxish-istagiga ko’ra qo’shiqlar tanlashda asosiy e’tibor yengil-yelpi mazmunan sayoz chet el musiqalariga taqliddan yaralgan qo’shiqlarga qaratilayotganligi achinarli holdir.

Musiqā yo’nalishidagi turli madaniy ommaviy tadbirlar, bayramlar ko’rik-tanlovlarda milliy cholg’ular ansambllar bilan qo’shiq kuylash deyarli yoqalab bormoqda. Yoshlarning hozirda juda tezlik bilan ommalashib borayotgan “kompyuterlashgan” musiqā cholg’ulari (disket)da qo’shiq kuylashga havaslari zo’r. Shunday bo’lgach, tabiiy ravishda xalq qo’shiqlari mumtoz va maqom musiqalariga munosabat juda ham qoniqarsiz.

Fikrlarimizni birinchi Prezidentimizning quydagi so’zlari bilan xulosalashni juda o’rinli deb bilamiz: - Biz uchun ahloqiy jihatdan nomaqul, milliy qudrat va qarashlarimizga yot bo’lgan, lekin xozirgi vaqtda hayotimizga kirib kelayotgan, ya’ni jamoatchilik e’tiboriga havola qilinayotgan san’atning hech qanday mezonlariga to’g’ri kelmaydigan “san’at” ko’rinishlarini bamisoli yuqumli kasallik deb qabul qilishimiz lozim. Ayni shu asosda bunday “moda” qo’shiqlarni o’ta xafli holat ekanligini anglashimiz zarur.

“Nega deganda, agar insonning qulog’i yengil - yelpi tumtaroq ohanglarga o’rganib qolsa, bora-bora uning badiiy didi musiqā madaniyati pasayib ketishi uning ma’naviy olamini soxta tushunchalar egallab olishi ham hech gap emas. Oxir-oqibatda bunday odam “Shashmaqom” singari milliy merosimizning noyob durdonalarini ham Motsart, Betxoven, Bax va Chaykovskiy kabi dunyo tan olgan buyuk kompazitorlarning asarlarini ham qabul qilishi qiyin bo’ladi”.

Biz o’z taraqqiyotimizning ustuda ish olib borar ekanmiz aytib o’tilgan muammolardan kelib chiqqan holda xalq musiqā merosi uning tarkibidagi eng ommaviy, hozir javob va ta’sirchan xalq qo’shiqlarini estetik tarbiyadagi o’rni yoshlar tarbiyasidagi ulardan foydalanishning o’ziga xos va samarali usul va vositalarni ishlab chiqishga harakat qilishimiz zarur.

Buning uchun musiqā o’qituvchilarining o’zlari quyidagi xususiyatlarga ega bo’lishlari lozim.

1. Xalq musiqasini turli janrlarini, ularning ijrochilik yo'llarini yaxshi bilishi xalq qo'shiqlarini turli variantlarini farqlay olish, ular asosida yaratilgan zamonaviy namunalarni ajrata bilish.

2. Xalq qo'shiqlarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini, ya'ni musiqiy-badiiy qimmatini baholay olishini, tarbiyaviy-ta'sirchanlik jihatlarini to'g'ri anglashi va shunga ko'ra ish tutishi.

3. Xalq musiqasining O'zbekiston sarxadidagi mavjud yetakchi mahalliy uslublari haqida zarur bilim, tushunchalarga ega bo'lishi o'quvchilarga ularning o'ziga xos o'xshash va farqli tomonlari ijrochilik, an'anaviy, yetakchi janrlar, mashhur ijrochilar, ijrochi jamoalar haqida kerakli ma'lumotlarni bera oluvchi o'quv-uslubiy manbalarga ega bo'lishi,

4. Xalq qo'shiqlariga xos nola bezak, salmoq, qochirma, tanqid, satira, xazil kabilarni o'z o'rnida qo'llay olish, raqs xarakatlaridan voqif bo'lish.

5. Ijro she'riy matn hamda musiqaning o'zaro mutunosibliigi shuningdek ularning ijro darajasini baholay olish.

6. Turli janr, uslub, murakablikdagi asarlarni o'zi ijro eta olishi talab etiladi.

Umumta'lim maktablaridagi musiqa o'qituvchilari xalq qo'shiqlaridan estetik tarbiya maqsadlarida foydalanishga kirishida o'quvchilarda avvalo xalq musiqasi, qo'shiqlariga qiziqish va ijobiy munosabatni shakllantira olish kerak. Shundan so'ng ulardan iqtidorlarini imkoniyatlarini chuqur o'rganishi, keyin uning natijalariga tayanib ish tutishi lozim bo'ladi.

Xalq qo'shiqlaridan estetik-tabiyada foydalanish nafaqat ta'limiy-tarbiyaviy maqsadlarni ko'zda tutadi. Shu bilan birga yoshlarimizni kelgusida xalq musiqa madaniyati, o'lmas milliy qadryatlarimizni yanada keng ommalashtirish, kerak bo'lsa unga vorislik qila oladigan bunyodkorlarni yetishtirishni ko'zda tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008. - 176 b.
2. Fayziyev K., Nishonov S. "Pedagogika tarixi" (o'quv qo'llanma) T.1996 yil.
3. I.Rajabov. "Maqomlar masalasiga doir". -T., 1963 yil.
4. O.Ibrohimov. "O'zbek xalq musiqa ijodi". Metodik tavsiyalar. -T., 1994 yil.
5. I-IV sinflarda "Musiqqa madaniyati" darslari dasturi Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi. Toshkent. "Sharq" nashriyoti matbaa konserni. 1999 yil, 258-289 betlar.
6. M.A. Vetlugina "Metodika muzokalnogo vaspitaniya detskom sadu" Moskva - izd "Prosvasheniya" 1989 - yil.
7. A. Hasanov "Musiqqa va tarbiya" Toshkent "O'qituvchi" nashr 1993 - yil.
8. Sh. Ro'ziyev "Xorshunoslik" Toshkent "Adabiyot va san'at" nashr 1987 - yil.
9. S.H.Yo'ldosheva "O'zbekistonda musiqa ta'limi va tarbiyasining rivojlanishi" Toshkent "O'qituvchi" nashr 1985 - yil.
10. M.Rizayeva "Yosh xonandaning kamoloti" Toshkent "Cho'lpon" nashr 2003 - yil.
11. R.Tursunov "Ashulla va raqs ansambli bilan ishlash uslubiyati" Toshkent "Adabiyot va san'at" nashr 2002 - yil.

TALABA TOVUSHIGA O‘QITUVCHINING TA’SIR ETISH USULLARI

*To‘g‘ulov O‘tkir Asqarovich – JDPU katta o‘qituvchi.
Norjigitova Zamira, Musiqa ta’limi 3 kurs talabasi.*

Annotatsiya: Talabalarga vokal san’atidan dars berish jarayonida ularning qo‘shiq kuylash faoliyatini amalga oshirishda ularning ovoz imkoniyatlarini xisobga olib boorish bugunni kunning eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib, ushbu maqolada talabaning tovushiga o‘qituvchining ta’sir etish uslubi, yo‘li va vositalarini amalga oshirishning mazmun, mohiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Talabalar, musiqiy ta’lim, vokal-texnika, usullar, tovush sifati, tembr, bolalar, diapason, qo‘shiq kuylash, registrlar,

Bugungi kunda yangi O‘zbekistonimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va o‘zgarishlarning rivojini ta’minlovchi insonni tarbiyalash murakkab jarayon bo‘lib, ushbu jarayon alohida diqqat etibor qaratishni talab etadi. Talabalarda yangi O‘zbekiston taraqqiyoti tushunchalarini shakllantirish bo‘lgan milliy g‘oyaning yoshlarimizning mustaxkam etiqodida mexnatga, kelajakga, bir-biriga mexrli va oqibatli bo‘lishlari milliy madaniyat va san’atga munosabatlarida kreativlik yondashuvlarni namoyon bo‘lishiga erishish – bizning pirovard maqsadimizdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Bir haqiqatni xech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak, mamalakatimizda madaniyat san’at taraqqiy etmasa jamiyat rivojlanmaydi. Xalqimizning rivojlanish darajasi, avvalo milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma’noda madaniyat bu – xalqimiz jamiyatimiz qiyofasidir. Biz O‘zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz buni avvalo milliy madaniyatimizni rivojlantirishdan boshlashimiz lozim”¹. Yangi O‘zbekistonda yuz berayotgan o‘zgarishlar barcha sohalaridagi kabi musiqa o‘qituvchilarining zimmasiga ham katta vazifalar yuklaydi. Bu omil Pedagogika universitetlarida amalga oshiriladigan ta’lim jarayonlarida alohida e’tibor qaratish lozimligidan dalolat beradi. O‘lkamizni tarannum etuvchi kuy va qo‘shiqlarning musiqa madaniyati darslarida va shuningdek uslubiy asoslarini o‘rganishda talabalarining ovoz tushunchalarini shakllantirishning asosiy vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Musiqiy ta’lim yo‘nalishi talabalariga vokal ijrochiligi fanini o‘qitish jarayonida ularning ovoz imkoniyatlarini yo‘lga qo‘yish, ular ustida ishlash murakkab jarayon bolib, o‘qituvchidan katta ma’suliyat va iqtidorni talab etadi. Shuning uchun o‘qituvchi har bir vokal ijrochiligiga oid darslarni olib borish jarayonida turli usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdirlar. Birinchi o‘rinda talabani asarni yoki mashqni kuylash jarayonida vokal eshitishni tarbiyalash va mukammallashtirib borishda o‘qituvchining nazorat bilan barcha vokal sifatlarini rivojlantirish turadi. Talabada xonandalik jarangdorligini to‘g‘ri tashkil etish haqidagi tasavvurni ishlab chiqish zarur. Ta’labalarga yakka xolatda dars berish doimo musiqa materiallari mashq, vokal va badiiy asarlar asosida olib boriladi. To‘g‘ri tanlangan musiqiy manba tovushni tarbiyalaydi. Mashq - bu bilim olishning asosiy vositasi.

Ularni qo‘llash talabalar tovushida uchraydigan va tuzatishni talab etadigan kamchiliklarni yo‘qotish vositasi bo‘lib xizmat qilishi kerak. Ovozga sayqal berish mashqlari - mashqdan badiiy asarlarga o‘tish uchun foydali manba hisoblanadi. O‘qituvchi tomonidan katta odob saqlagan holda badiiy pedagogik manba tayyorlash talab etiladi. Manbalarni musiqiy, vokal - texnik va ijro qiyinchiliklarini e’tiborga olib tahlil etish - o‘qituvchining zaruriy sifati hisoblanadi. ¹ Keng ko‘lamli musiqiy pedagogik manbalarni egallash va ularni qo‘llay bilish -

pedagogik faoliyat muvaffaqiyati talablaridan biri. Asarni muvaffaqiyatli ijrosi uchun o'rganish va ashula aytish usuli katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchi asarlar ustida ishlash uslubini keng kulamli va turli -tuman repertuarlarni tezroq o'zlashtirib olishi uchun o'rganishi kerak.

Tovush sifatini ko'zlangan natijada tarbiyalashda ovozni ko'rsata bilish katta ahamiyat kasb etadi. Ko'rgazmali qurollar ko'ra oladigan va sodda bo'lgani uchun ham kerakli ko'nikmalarni shaxsan topishga majbur etadi. Buning uchun o'qituvchining o'zi ham yaxshi ovozga ega bo'lishi lozim, o'quvchi esa - taqlid qobiliyatiga ega. Biroq taqlid kuylashni o'rganishda majburiy hisoblanmaydi. Masalan, Lamperti xonanda bo'lmagan, biroq buyuk xonandalarni tarbiyalagan.

Muskul usullarini ko'rsatish va tushuntirish o'qituvchi amaliyotida katta o'rin egallaydi. Muskul usuli doim muayyan narsalarni qamrab oladi, doim to'xtata oladi yoki tovush apparatidagi ishlarning qaysidir qismini o'zgartiradi. O'quvchi avval nima qilishini tushunib oladi, keyin esa bu harakatlarni ashula aytish paytida tushungan holda qullashga harakat qiladi. Muskul usulining qimmatligi ham mana shundadir. Nutq orqali tushuntirish, so'z ahamiyati - ovoz tuzilishi haqidagi ishonchli tushunchani tarbiyalashda o'ta muhim omil sanaladi. Ashula aytishni o'rganishda nutq orqali tushuntirish juda muhim, negaki tovush apparati ishida sababli - kuzatuvli o'zaro hamkorlikni tushuntiradi va uning ishini bir muncha aniq tushunib yetishga imkon beradi. Tovush va muskullarni his etishni nutqiy tushuntirish har doim ham o'zini oqlayvermaydi, o'qituvchi ko'pincha qiyoslashga, obrazli ifodalashga harakat qiladi. Agar ular o'quvchilarga tushunarli bo'lsa qo'llaniladi va kerakli javob harakatlarini keltirib chiqaradi.

Talabalar bilan ilk saboqlar olib boorish jarayonida yangi talabalar bilan tanishishda uning imkoniyat va qobiliyatini (nimaga qodirligini) tushunib olish o'qituvchining birinchi darajali vazifalaridan biri hisoblanadi. Talabani ashula aytishi uchun unga ma'lum bo'lgan mashqlardan berish kerak. Boshlanishida betaraflik holatini ushlash kerak, negaki talabani ovoz imkoniyatlarining sifatli jihatini ko'rsata olish. Daralar 20 - 25 daqiqadan ortmasligi lozim. Imkoni boricha daralar oralig'ida tanaffusdan foydalanish kerak bo'ladi. Mashg'ulotlarni o'rta diapazonda, chetki notalarni qamrab olgan holda o'tkazish kerak bo'ladi. Aynan shu xonandaga mos optimal tovush kuchini topa bilish kerak. O'tkaziladigan mashqlar murakkab bo'lmasligi kerak. Mashqlarning musiqiy bajarilishini talab etish nazarda tutiladi. Eng birinchi tadbirlardan biri o'quvchi bilan birgalikda fonitar -vrach qabuliga tashrif buyurib, uning tovush apparati baholanadi va ayni vaqtdagi holati aniqlanadi. Uning bahosi tovush turini aniqlash uchun foydali bo'lishi mumkin. Talabani ovozini aniqlash jarayonida, uning ovoz imkoniyatlari, yo'ni tembr, tassitura, diapazon, o'tish notalari va primar jarang kabi belgilar yig'inidishiga ko'ra aniqlanadi va shu sababli vokal ishi ovoz va musiqiy imkoniyatlar bilan tanishtirishdan boshlanadi. Shundan so'ng talabani tembri aniqlanadi. Xar bir o'g'il va qiz bolalarning ovozlarini kuylatish orqali ularning tembr xususiyati aniqlanib, aloxida - aloxida ovoz imkoniyatiga qarab repertuar aniqlanadi. Tembr - ovoz bo'yog'i (yumshoq, tez, quloq, tarangli, barxat va shu kabilarga etibor beriladi. Tembrga ko'ra har bir ovozga tovushlar bo'yoq tipiga ko'ra rang topish mumkin, iliq va sovuq tonlardan foydalanib. Masalan: Bolalar so'roviga ko'ra tovush ranga belgilashadi ko'p yillar davomida aynan bir xil ranglar belgilangan.¹

fa- sariq (iliq)

sol- ming (Mayin)

lya- qizil (barqaror, quyuq)

si- havorang, deyarli to'q ko'k (uchuvchan, ba'zan irmoqqa o'xshatiladi) do 2 - oq,

mi 1 – qavorang, ba’zan nastarin rangi (sovuq) re 1 - jigar rang (bir ovozdan) – (quyuq, iliq). do 1 - qora

Talabaniing Diapazonini aniqlash tovushlar yig‘ilish bilan belgilanib, uni ovoz bilan kuylash mumkin (o‘quvchi diapazonini aniqlash). Diapazon -chekka yuqori notadan chekka past notagacha masofada ko‘rib chiqiladi. Odatda ishchi (mashq) diapazoni konsert diapozonidan kengroq bo‘ladi.

Tessitura – asar tovushlarining diapazonga nisbatan yuqori joylashuvi.

Tessitura turining asardagi diapazon birinchi qilishning balandligi belgilaydi. Yuqori baland tovushlar bo‘lsa, demak tessitura baland va sh .k.

Talabaniing diapazonini mashqlarni aytirish orqali aniqlash mumkin: bosqichli joylashgan notalar (yaxshisi bitta unli tovushda jarangli undoshlar bilan) uch ovozliliklar (trezvuchie) kuylash. Diapazonni belgilash ovozning o‘rta uchastkasidan, sekvension pastga va yuqoriga yarim tonlar bo‘yicha boshlash kerak. Talabaniing diapazonini belgilashda o‘tish notalari, yani ovoz xarakteri, nafas yo‘llari orqali aniqlanadi. O‘tish notalari, jarang xarakteri, bosh va ko‘krak notalari hajmi ovoz tilini aniqlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ovoz imkoniyatlari bilan tanishishda va diapazonni belgilashda erkin va tabiiy jarangga ega bitta yo bir nechta tovushni almashtirish mumkin. Bu jarangdorlik primar jarangdorlik, bunday jarangli tovushlar - primar tovushlar deyiladi. Kuylash jarayonida ovoz tembri va tili ularda yaxshi namoyon bo‘ladi. Shuning uchun talabaniing tabiiy tembrni aniqlash – o‘qituvchining birinchi galdagi vazifasi bo‘lib hisoblanadi. M.I. Glinka kuylashga o‘rganishni primar tovushlardan boshlab, ularning jarang sifatini diapazonning barcha tovushlariga o‘tkazishni taklif qiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchi Vokal va musiqy imkoniyatlar bilan tanishgandan keyin yakka tartibda ish olib boradi. Bo‘lajak o‘qituvchi talaba bilan ishlash jarayonida registrlarga olohida etiborni qaratib, talaba qaysi oktava oralig‘ida musiqqa asarini kuylashini registr orqali bilishi kerak bo‘ladi. Musiqada Registrlar to‘rt gurixga bo‘linadi:

Past registr: kichik, katta vash .k. oktavalari (erkaklar ikki registrga ega ko‘krak va faluet).

O‘rta registr: I oktava (sin - re-2)(ko‘krak va bosh ovozlari birlashishi patsnuial uchtastkasi)

Yuqori registr - II oktava, ayollar balandroq kuylashi mumkin (Ayollar ko‘krak, o‘rta (midium - mixt) va bosh registrga ega)

4.Super bosh registri - ayollar diapazoni to‘rtinchi o‘tish uchastkasida joylashgan uchastok, bunda odatiy bosh ovozidan ketish, shuningdek erkinlik tuyg‘usi seziladi. qizlarda si - dan va yuqori kuzatiladi.¹

Bundan tashqari talaba bilan ishlash jarayonida qo‘shiq yoki biror musiqqa asarini kuylashda eshitib kuylashga erish muhim ahamiyat kasb etadi. Talabaniing kuylash paytidagi tovush hosil qiladigan harakatlar bilan tovush holatda tasavvur aloqasi vokal eshitish asosidir. Bu tushuncha shuningdek, boshqa hislar: vibratsion, rezonator va to‘qima osti boshi hissini ham o‘z ichiga oladi. nTalabaniing qo‘shiq kuylash xolatidagi vokal eshitish deb nafaqat to‘g‘ri xonandalik jarangi xususiyatlarini sezish, ularni noto‘g‘risidan farqlash, balki ovoz apparati ishini sezish, boshqa xonanda u yoki bu jarangda nima qilayotganini mushaklarda his qilish tushuniladi. Nafaqat ovoz jarangini tinglash, balki uning kuylash chog‘idagi ishini aniq tasavvur etish, ovoz apparatida nima bo‘layotganini sezish -har bir xonanda va pedagog egallash lozim bo‘lgan vokal eshitish aynan shu. Vokal san’ati musiqqa asarini eshitish vositasida asta-sekin, vokal texnikasini egallagan sari rivojlanadi. kuylashni boshlaganlar, odatda, buni bilishmaydi. Boshlovchi xonanda u yoki bu jarang qay tarzda hosil bo‘lishini na hislarda tasavvur qiladi va na mushaklar bilan tushuna oladi. Asta - sekin u eshitishga tayanib

texnikani ishlaydi va unda eshitish tasavvurlari va uning mushakda aks etish o'rtasida ko'p sonli aloqalar shakllana boshlaydi. Shu asosda kuylash chog'ida ovoz apparati ishini tasavvur qilish va sezish qobiliyati rivojlanadi.

Shunday qilib, vokal eshitishni shakllantirish vokal ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida kechadi. "Kuylay oladigan kishi, oldindan, ya'ni tovush hosil bo'lish momentidan avval mushaklarni ma'lum va oldindan belgilangan musiqiy tonni amalga oshirish uchun barcha mushaklarni qay tarzda yetkazishni biladi; u hatto mushaklar bilan, ovoz yordamida o'z tafakkuri uchun kuylash mumkin, istalgan tanish qo'shiqni" mashg'ulotlar vaqtida vokal o'qituvchisi o'quvchi texnologiyasini tahlil qiladi: uning ovoz apparati ishini o'z mushaklarida tasavvur qiladi.

O'quvchi kuylaganda vokal o'qituvchisi hamma vaqt u bilan birga ichida kuylaydi va shu sababli kamchiliklarni to'g'rilash uchun kerakli mushak usulini aytib bera oladi. O'quvchi esa boshqa xonandaning vokal texnologiya xususiyatlarini o'z ovoz apparati mushaklari vositasida xis etgandagina idrok eta oladi.

Tovush va ovoz apparati ishi haqida tasavvurlar o'rtasidagi o'zaro uzviy aloqalarni ayrim xonandalar chiqish oldidan to'qri xirgoyi uchun, pal mushak energiyasini sarflamay qo'llashadi. Yaxshi xonanda kuylaganini diqqat bilan tinglash apparat ichki kuylash tufayli kuylovchi holatga kelishi uchun yetarli. Faol ichki kuylash ovoz apparatini amalda ovoz chiqarib kuylash kabi "qizdira"oladi. Bu o'zaro aloqa asosida chiqishdan oldin hech qachon yomon kuylash, noto'g'ri jarangini eshitmaslik kerak. Ko'p tinglash ham mumkin emas, toki ovoz apparati ko'p musiqa eshitishdan toliqishi mumkin.¹ Fiziologik tomondan xonandaning vokal eshitish asosida qobiqda bir vaqtda ta'sirlangan uchastkalar orasidagi reflektor aloqalar hosil bo'lishi yotadi. Kuylash chog'ida xonanda o'z ovozini eshitadi, ovoz apparati ishi haqida kinestik tasavvur oladi; turli vibrasion hodisalarni sezadi, agar oyna oldida kuylasa, o'z harakatlarini ko'radi va sh .k. Bir so'z bilan, turlixil hislarning butun kompleksi bir paytda va ko'p marta harakat qilgani bois bu barcha hislar o'rtasida mustahkam aloqa hosil bo'ladi.

Miya qobig'i harakat hujayrasining qobig'ning boshqa sohalari bilan aloqasi, Pavlov aytgan kompleks analizator bilan, aloqasi ko'p sonli va turfa keng. "qobiqning kinestezik xujayralari qobiqning barcha tashqi ta'sirlar kabi organizmning turli ichki jarayonlari vakillari bilan bog'liq bo'lishi mumkin va amalda bog'lanadi ham. Bu harakatlar ixtiyoriyligi, ya'ni fiziologik asosdir". Shunday qilib, ovoz ustida ishlash barcha jarangni nazorat qiluvchi analizatorlar tizimi o'rtasida aloqalar rivojlanishi bilan kechadi.

Vokal harakatlarni sezgi organlari kompleksi boshqaradi. Shu sababli har bir xonanda nafaqat o'zi chiqarmoqchi bo'lgan jarangini ichki eshitish bilan eshitadi, balki sezadi qam. Har bir xonanda "vokal jarangining tana sxema"sig ega, unga turli organda va ovoz apparati qismlaridan turli sezgilar kiradi. Shunga ko'ra, vokal texnikasining turli tiplari bu sezgilar tizimida turlicha aks etadi.

Xonanda sezgilari ancha indiviudal bo'lsa-da, ular orasidan u yoki bu jarang tili uchun xarakterlarini ajratish mumkin. Masalan, jarangning bir tipida tovush tishlar oldida; boshqasida temen sohasida va sh .k. seziladi. Bu ovoz hosil qilish texnikasi tiplarini ular keltirib chiqargan sezgilarga ko'ra tadqiqotchisi Raul Yussion o'z imkonini berdi.

Sezgi organlari butun ansambli tovush hosil bo'lish momentida harakatga kelganiga qaramay, ularning ayrimlarigina tovush hosil qilish ustidan ongli nazoratda qatnashadi.

Yuqorida aytilganidek, katta e'tibor qaratiladigan sezgilargina yaxshi rivojlanadi. Faollik, qaysidir analizator faoliyatiga e'tiborni jamlash, aynan shu analizatorning umumiy kompleksda ustuvor rivojlanishga olib keladi. Shu sababli ovoz jarangining "tana sxemasida" birinchi

navbatda sezgirlikning turli ko‘rinishlari bo‘lish, boshqalarda resonator sezishi (ovoz xosil qilish) xosil bo‘ladi.

Agar talaba (shogird) e‘tibori asosan rezonator (ovoz xosil qilish) sezgilarga qaratilgan bo‘lsa, ular vokal (qo‘shiq kuylash jarayonida) jarayonida rivojlanganligi va yorqinligiga ko‘ra ustuvor o‘rin tutadi. Bordi-yu, nafas apparati ishini mushak sezishga e‘tibor qaratilsa, demak, ular umumiy kompleksda yetakchilik qilishi mumkin va ovoz xosil qilish muxim o‘rin tutadi.

Xulosa qilib olganimizda talabaning tovushiga o‘qituvchining ta’sir etish usullari ustida ishlash va ular bilan dars jarayonini uyushtirish talabalar bilan ishlash jarayonida muxim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. И.А.Каримов, “Баркамол авлод орзуси”. Т.: Узбекистон 1999 й.
2. Sh. M. Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birga barpo etamiz. T. O‘zbekiston. 2017 yil.
3. О.Иброхимов, “Муסיқа” 4-синф учун дарслик. Т.: 2011 й.
4. Muminova Muqaddas Riskulovna Development And Current Status Of Uzbek Pop Music In Modern Approaches And Innovations Of Teaching The Science Of Music Culture International Journal of Advanced Science and Technology Vol. 29, No. 8, (2020) <https://t.me/joinchat/> - Music teacher, <https://infourok.ru> - music lessons
5. Muminova Muqaddas Riskulovna *International Journal of Mechanical Engineering*. The Innovative Technologiyes Of Teaching In Musical Edukational Establishments1764-1767- betlar. 2022- йил.
6. Muminova Muqaddas Riskulovna Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. THE ROLE OF SPORT ACTIVITIES, GAMES AND COMPETITIONS IN THE NURTURE OF 6-7 YEARS OLD CHILDREN<https://uzjournals.edu.uz/tziuj68-78betlar> 2022
7. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlarda pedagog kreativligi. “Yangilanayotgan O‘zbekistonda fan, ta’lim va innovatsiya uyg‘unligi” mavzusidagi 6-son 2-qism Respublika ko‘p tarmoqli ilmiy konferensiyasi VIII bo‘lim Toshkent 2021. 677 bet. Udk. 001.895 (575.1).
8. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlar o‘qituvchisining kreativligi. Педагогические и лингвopsихологические особенности развития, формирования и становления личности врача. Сборник тезисов Международная конференции. СамГМИ, Самарканд 5 мая 2021 год
9. Urinova S.Sh. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishning nazariy asoslari. “The best innovator in science” xalqaro maqolalar tanlovi to‘plami. Organized by Innovative Academy. Tashkent February 5, 2022. Pg 811. <https://zenodo.org/record/5979621#.YpC2PKhBxD8>
10. Р.Турсунов, “Ашула ва ракс ансамбли билан ишлаш услубияти”, КХК коллежлари учун дарслик. Т.: 2002 й.
11. Omonov X.S. Vokal va zamonaviy musiqa. T. 2020 y.
12. То‘g‘ulov O‘.A. Ana’naviy xonandalik o‘quv qo‘llanma. T.2022й.

VOKAL ASARLARI VA MASHQLARI USTIDA ISHLASH VA ULARNI IJRO ETISHGA O'RGATISH USLUBLARI

To'g'ulov O'tkir - JDPU Musiqa ta'limi katta o'qituvchi
Maxammatov Abdumannon - JDPU Musiqa ta'limi kafedrası konsertmeyster

Annotatsiya: Talabalarga ta'lim – tarbiya berish jarayonida Vokal asarlari va mashqlari ustida ishlash va ularni ijro etishga urgatish uslublari, kuylashni boshlash, darsning hirgoyi qismi, asarlar va mashqlardan unumli foydalanib qo'shiqni kuylashning usuli, shakl, vositalari, urgatish uslublari ketma – ketlikda yoritib berilgan.

Tayanch iboralar: Bosh va gavdaning asosiy holatlari, Vokal funksiyasi, To'g'ri xirgoyi, Xonanda xirgoyisi, Kuylashga o'rgatish, Vokal pedagogikasi,

Talabalar bilan vokal asarlari va mashqlari ustida ishlash va ularni ijro etishga urgatish jarayoni asosan bosh va gavdaning asosiy holatlari: kuylash chog'ida gavdaning to'g'ri, tabiiy, erkin bir muncha yoyilgan, qo'llar bo'sh qo'yiladi. Boshni to'g'ri, erkin tutish, pastga tushirmay va baland ko'tarmaslik kerak, yuz va bo'yin mushaklari kuchlanmasligi, oldinga qarab turish lozim.

Dastlabki mashg'ulotlar uchun sodda, xonandaga tovush hosil qilish jarayonida diqqatni jalb qilish imkonini beradigan mashqlarni tanlash lozim.

Oldinda turgan ijroga ichki tayyorgarlik bilan bir qatorda yaxshi xirgoyi, ya'ni mushak tizimini ishchi holatga keltirish zarur. Xonanda xirgoyisi sportchining chigayozdi mashqlari yoki balerinaning "qizib olishi" kabi.

To'g'ri xirgoyi - keying! kuylovchilik topshiriqini muvaffaqiyatli bajarilishi. Amalda o'z ishini hurmat qilgan har bir xonanda har kuni xirgoyi qilishni majburiy biladi, toki to'liq asarlarni kuylash chiroyli bo'lsin. Xirgoyi uchun mashqlar, vokalizlar yoki ovoz funksiyasini yaxshi sozlovchi muvaffaqiyatli asarlar sanalanadi. Bu xonandaning didi, odati va tayyorgarligi darajasiga bog'liq bo'lib, xonanda yaxshi mashq qilgan bo'lsa, xirgoyi kam vaqt egallashi mumkin. Katta tanaffuslardan so'ng xirgoyi ko'proq vaqt egallaydi. Tajribali professionalning nerv sistemasi funksional imkoniyatlari yuqori va shuning uchun ishga kirish davri minimal, ayrim professionals xirgoyi qilmasdan ham sahnaga chiqa oladilar. Biroq har bir xonanda hamisha o'z ovozini "sinash", ya'ni uni ishchi "tayyor" holatga keltirishga intiladi. Bu murakkab asarlarni birdan kuylash kerak paytda ayniqsa zarur. Yaxshi ma'lumki, faqat xirgoyi qilib olgach, tobora murakkab ijro vazifalarini bajarish mumkin.

Vokal funksiyada xirgoyi harakati ikki yoqlama xarakterga ega. Bir tomondan, xirgoyi natijasida (inertnost) juftlik bartaraf etiladi va nerv jarayonlarining zarur faolligiga erishiladi. Boshqa tomondan, xirgoyi xarakteri, mashqlar sur'ati xonanda o'z oldiga qo'ygan vazifalar va tegishli nerv koordinatsion mexanizmlarni ishga tushiradi, mashqlar tempi, ijro ritmi, dinamik, xarakteri - kerakli stereotiplarini ishga kiritadi va keyingi kuylashga ta'sir etadi. Masalan, E. Karuzo lirik partiyalarni kuylagan yorqin, yengil jarang, qarakatchanlikni talab etgan mashq va vokalizlarni xirgoyi qilsa, dramatik partiyalar ijrosidan oldin xirgoyi mashqlar xarakteri mos ravishda o'z gargan. ular keng jarangli, to'qroq, massivroq tovush bilan kuylangan.

Amaliyotchilar ta'kidlaganki, xirgoyi xarakterli ayniqsa keyingi kuylash uchun maqbul. Xarakterga ko'ra xirgoyi xonandani tegishli asarlar ijrosiga tayyorlashi lozim. Shunday qilib, xirgoyi ma'lum planda tovush va psixologik tayyorlikni yaratadi. Bundan doim foydalanish kerak. Bu xirgoyi xonanda

ijro etadigan asarlar xarakterida bo'lishi shart, degani emas. Uning koordinatsiya doirasi keng bo'lishi mumkin, zero xonanda hamma vaqt turli plandagi asarlarni kuylashga to'g'ri keladi.

Inertlik qissasi va keyingi ishga avvalgisining ta'siridan konsert dasturini tuzishga oid xulosalar qilinadi. Doimo asarlarning ketma-ket ijrosidagi sozlik (tayyorlik)ni hisobga olish lozim. Shu sababli, birinchidan, ovoz apparati ishining bir xarakteridan boshqasiga tez o'ta olish lozim, bunga mashq qilganlik bilan erishiladi. ikkinchidan, konsertdan oldin dasturni estrada bajariladigan ketma-ketlikda xirgoyi qilish lozim.

Darsning hirgoyi qismida kuylashga o'rgatish jarayonida uni amalga oshirish xirgoyi qismiga alohida katta e'tibor qaratiladi. Biroq ikki tushunchani farqlash lozim: xirgoyi- ovoz apparatini qizdirish, ya'ni organizmga umumiy ta'sir va xirgoyi ovoz kiritish texnikasini ishlash. Vokal pedagogikasi amaliyotida ba'zan shunday aralashtirish kuzatiladi. Uni sport bilan qiyoslasak, bu chigal yozdi va mashq (mashqulot)ni qorishtirish, demak chigal -yozdi - sporti organizmni ishchi holatiga keltiradigan umumiy mashqlar, chigalyozdi oxirida mashqlarga, gimnastik kombinatsiya yoki mashg'ulotda bajariladigan boshqa harakat faoliyatiga tayyorlaydigan mashqlar beriladi. Mashg'ulot -yangi koordinatsiyalarni ishlash, mushak faoliyati oliy natijalarga erishishi.

Xonandalik ham shunday. Dastlabki mashqlar murakkab vazifalardan holi bo'ladi. Mashqlarning birinchi qismi turli o'rganuvchilar uchun torn ma'noda xirgoyi (ya'ni, chigalyozdi) bo'lishi kerak, keyin esa vokal texnik vazifalarni qo'yadigan xirgoyiga o'tiladi. Sifatli xonandalik ovozi shakllantirish, boshqa barcha asosiy vokal harakatlar: legato, stakkato, katta intervalga sakrash va sh .k., -odatda, mashqlarda ishlanadi. Ovoz silliqligi, unlilar silliqligi, to'liq diapazon rivoji, dinamikasi - bu hammasi avvalo maxsus - tanlangan mashqlar tizimi bilan ishlash samarasi.

Ovoz hosil qilish va ovoz yuritish texnikasi ustida ishlash - yangi harakat vokal stereotiplarini rivojlantirish va ularni saqlay va turli musiqiy vazifalarga ko'ra variatsiyalay olishdir. Harakatlarni aniq farqlash (differentsatsiya), koordinatsiyani ishlash nerv jarayonlari inertligi bartaraf etilib, organizm "kuylash" holatiga yetganda muvaffaqiyatli kechadi.

U yoki bu differentsiyalashni ishlashda yuqori natijalarga faqat kuylash holatda erishi mumkin. Ko'pgina sinfda "Nega baland nota bugun chiqmayapti o'tgan darsda hammasi yaxshi edi-ku. Nimani noto'g'ri qildim" -degan savolga "Sen bugun kam xirgoyi qilding" yoki "kecha ovoz ustida ko'p ishlading, charchading, keragini qilyapsan, texnikang to'g'ri" degan pedagoglar javobi eshitiladi.

Fiziologiya nuqtai nazaridan buni shunday talqin qilinadi; bugun nerv tizimi yetarlicha faol holatda emas, maksimal qiyin vazifalarni bajara olmaydi. Yetarlicha faol emaslik yo nerv hujayralari inertligi (kuylash holatida emasligi) yo oldingi haddan ziyod, uzoq va kuchli ta'sir oqibatida tormozlanganlikka (charchoqqa) bog'liq.

Mashg'ulotni tashkil etayotib, o'rganuvchiga xirgoyi uchun zarur vaqtni, texnikani takomillashtirish mashqlariga o'tish vaqtini hisobga olish muhim. Bu o'rinda metodik yondoshuv turlicha bo'ladi. O'rganuvchi ovoz apparatiga asta-sekin yuklama berish lozim bu vokal pedagogikasi alifbo haqiqati ekanini aytmasa ham bo'lar.

Mashg'ulot (dars) ning "xirgoyi" va "ishchi" qismlari orasidagi metodik tafavut shundan iboratki, xirgoyi qismida boshida odatiy, alohida e'tibor talab qilmaydigan, doim to'g'ri bajariladigan, ya'ni yaxshi kuylangan mashqlar berilishi kerak.

Ovozning me'yordagi kuchi va diapazon markazida ishlash bu mashqlar to'g'ri, barqaror bajarilishi omilidir. Shunday qilib, ovoz apparatini "qizdirish" va nerv sistemasi faoliyatini oshirish odatiy, sodda mashqlar davomida kechadi. Shu tariqa inertlikni yengish va yaxshi o'rnatilgan koordinatsiyani mustahkamlash uchun sharoit yaratiladi.

Xirgoyining bu birinchi bosqichda pedagog ko'p tanbeh bermasligi, haddan ziyod talabchan bo'lmasligi, jarangning oldin eshitilgan maksimal yaxshi sifatini ko'zlamasligi lozim. Inertlik tugalmas ekan, bu yaxshi sifatlar, "so'nggi muvoffaqiyatlar" namoyon bo'lmasligi mumkin.

O'rganuvchini shu jarangni izlashga qat'iy majburlash yetarlicha "kuylash" holatida bo'lmasa, topilgan koordinatsiyalar mustahkamlanishiga emas, balki qo'shimcha kuchlanish, har qanday qilib izlanayotgan tovushni topish istagiga olib keladi.

Jarangning eng yaxshi sifati o'z-o'zidan, izchil xirgoyi natijasida namoyon bo'lguncha tinch xirgoyi qilib, o'rganuvchini qizdirish ma'qul. Bu holatda avval topilgan ko'nikmalar hisobiga shu sifatida yuzaga keladi va ularning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Faqat ovozni "kuylash" holatiga yetishga ko'ra pedagog murakkabroq vokal vazifalari berishi va maksimal talabchanlik va qat'iy at ko'rsatish kerak. Ayniqsa murakkab farqlashlar, o'ta murakkab kombinatsiyalar (trel, filillash va sh.k.), diapazonning o'ta baland, alohida safarbarlik talab etadigan tovushlarni mashg'ulotning ikkinchi yarmi, darsning kulminatsion fazasida berish lozim. Bu paytda to'liq kuylash holati kuzatiladi va hatto yengil charchoq ham sezilmaydi.

Shunday qilib, talabning qo'shiq ijro etishida xirgoyi ikki turli vazifasidan iborat bo'lib, ularning o'ziga xosliklar darajalarini dars metodikasini qurishda hisobga olish maqsadga muvofiq bo'lib, talabalarni vokal san'atiga bo'lgan qiziqishini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. И.А.Каримов, "Баркамол авлод орзуси". Т.: Узбекистон 1999 й.
2. Sh. M. Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birga barpo etamiz. T. O'zbekiston. 2017 yil.
3. О.Иброхимов, "Муסיқа" 4-синф учун дарслик. Т.: 2011 й.
4. Muminova Muqaddas Riskulovna Development And Current Status Of Uzbek Pop Music In Modern Approaches And Innovations Of Teaching The Science Of Music Culture International Journal of Advanced Science and Technology Vol. 29, No. 8, (2020) <https://t.me/joinchat/> - Music teacher, <https://infourok.ru> - music lessons
5. Muminova Muqaddas Riskulovna *International Journal of Mechanical Engineering*. The Innovative Technologiyes Of Teaching In Musical Edukational Establishments1764-1767- betlar. 2022- йил.
6. Muminova Muqaddas Riskulovna Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. THE ROLE OF SPORT ACTIVITIES, GAMES AND COMPETITIONS IN THE NURTURE OF 6-7 YEARS OLD CHILDREN <https://uzjournals.edu.uz/tziuj68-78> betlar 2022
7. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlarda pedagog kreativligi. "Yangilanayotgan O'zbekistonda fan, ta'lim va innovatsiya uyg'unligi" mavzusidagi 6-son 2-qism Respublika ko'p tarmoqli ilmiy konferensiyasi VIII bo'lim Toshkent 2021. 677 bet. Udk. 001.895 (575.1).
8. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlar o'qituvchisining kreativligi. Педагогические и лингвopsихологические особенности развития, формирования и становления личности

врача. Сборник тезисов Международная конференции. СамГМИ, Самарканд 5 мая 2021 год

9. Urinova S.Sh. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishning nazariy asoslari. "The best innovator in science" xalqaro maqolalar tanlovi to'plami. Organized by Innovative Academy. Tashkent February 5, 2022. Pg 811. <https://zenodo.org/record/5979621#.YpC2PKhBxD8>

O'ZBEK MUMTOZ MUSIQA SAN'ATIDA BASTAKORLIK IJODINING TUTGAN O'RNI

Turayeva Charos Ne'matovna

Jizzax Davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi.

Annotatsiya: O'zbek mumtoz musiqa san'atida bastakorlik ijodiyoti o'zining paydo bo'lishi, rivojlanishi, tutgan mavqeiga ko'ra muhim o'rin tutadi. Maqolada o'zbek bastakorlik san'ati tarixi, buyuk nomoyondalari ijodi haqidagi ma'lumotlarga to'xtalib o'tildi.

Kalit so'zlar: mumtoz musiqa, bastakorlik, yozma manbaalar, namoyonda, uslub, hududiy uslublar, Buxoro-Samarqand, Farg'ona-Toshkent, Xorazm, Surxondaryo-Qashqadaryo.

Respublikamiz ta'lim tizimida umumta'lim maktablari eng asosiy shakllantiruvchi bosqich hisoblanadi. Maktabda o'qitiladigan fanlar tarkibida musiqa darslari o'quvchilariga musiqa madaniyatining umumiy asoslari, ya'ni tarixi, nazariyasi, janrlari, ijro uslublari to'g'risidagi bilim bilan tanishtirish orqali, ularning ma'naviy-axloqiy, estetik madaniyatini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Darslarda o'quvchi-yoshlarga musiqa madaniyati bo'yicha beriladigan bilimlar tarkibida o'zbek mumtoz musiqa san'ati, bastakorlik ijodiyoti uning atoqli namoyondalari hamda bastakorlik san'atida qaror topgan hududiy uslublar to'grisida ma'lumotlar berishga alohida o'rin ajratilgan.

Bastakorlik O'rta Osiyo xalqlarida juda qadim zamonlardan mavjud bo'lgan professional sozanda va xonandalarning musiqiy ijod san'atidir. Bu san'at bir xalqning o'ziga xos musiqiy an'analari asosida vujudga kelib uzoq madaniy tarixiy taraqqiyot jarayonida mustaqil musiqiy ijod sifatida shakllangan. Qariyb 2000 yillik ko'hna tarixga ega bo'lgan ushbu sohada Barbad, Abu Nasr Farobiy, Safiuddin Urmaviy, Hoji Abdulqodir Marog'iy, Najmiddin Kavkabi, Darvish ali Changiy kabi ulkan siymolar ijod qildi. Ular musiqa nazariyasi va bastakorlik sohasida juda katta boy meros qoldirdi. Biroq arab istilosi davrida musiqaga oid yozma manbaalar kuydirilib, yoqotib yuborilgan. Shuning uchun ular yaratgan musiqiy asarlar bizgacha yetib kelmagan, lekin keyingi mingyillik tarixga oid yozma manbalar bizgacha yetib kelgan. O'rta asr musiqashunos olimlari musiqa nazariyasi va bastakorlik masalalari bo'yicha ko'proq Abu Nasr Farobiyning "Musiqaga oid katta kitob", "Musiqaga haqida so'z", Abu Ali Ibin Sinoning "Musiqaga ilmi haqida risola", "Kitobu ash shifo" asarlarida musiqa ilmi va bastakorlik san'atiga berilgan tarifi asos qilib oladilar.

O'zbek xalqining donishmand shoiri va olimi Alisher Navoiy o'zining "Xazoyin ulmaoniy", "Holati Pahlavon Muhammad", "Majolis un-nafois", "Mizon ul-avzon", "Mahbub ul-qulub" kabi asarlarida o'zidan oldin otgan buyuk musiqiy allomalarimizning musiqiy ilmiy, bastakorlik an'analari davom ettirib boyitdi.

Musiqa ilmi XIII-XIV asrlarda yashab, ijod etgan olimlar-Sayfuddin Urmaviy, Hoji Abdulqodir Marogʻiy, Abdurahmon Jomiy, Najmiddin Kavkabi va boshqalarning asarlarida yanada rivojlantirilgan edi.

Oʻzbek bastakorlik sanʼatining mashhur nomoyondalari Hoji Abdulaziz Rasulov, Toʻxtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Imomjon Ikromov, Komiljon Jabborov, Faxriddin Sodiqov, Saidjon Kalonov, Nabijon Hasanov, Komiljon Otaniyozov, Muhammadjon Mirzayev, Gʻanijon Toshmatov, Orif Qosimov, Gʻulomjon Hojiqulov va boshqa ustoz bastakorlar oʻz ijodida, asosan, xalq musiqiy anʼanalariga suyangilar. Ularning har biri oʻz musiqiy ijod yoʻlini yaratdilar. Ular yaratgan va yaratayotgan asarlarining aniq uslubi, ladi, ohang aniqligiga intonatsiyasiga katta eʼtibor berishgan. Ular musiqani nihoyatda serohang va jiloli boʻlishi uchun xilma-xil va murakkab usullarga murojaat qilishgan. Bundan tashqari, ularning asarlarida oʻziga xos ichki milliy ruh, falsafiy kayfiyat borki, ular asarga goʻzallik va umrboqiylik bagʻishlaydi. Bunday ijodiy mahorat, albatta, oʻz-oʻzidan emas, koʻp yillar davomida olib borilgan sermashaqqat mehnat, xalq musiqiy merosini chuqur, mukammal bilish evaziga paydo boʻlgan va shakllangan. Shuning uchun ham ustoz bastakorlarning kuy va ashulalari oʻzlarining mantiqan serjiloligi hamda falsafiy mishohadakorlik darajasi toʻliq, tugal mazmuni bilan mumtoz xalq musiqiy asarlari bilan bemalol bellasha oladi.

Bu borada ustoz bastakor Yunus Rajabiyning ijodi oʻziga xos koʻp qirralidir. U oʻzbek xalq musiqasi va oʻzbek mumtoz musiqasining asosi hisoblangan maqom sanʼati xususan Shashmaqomning chuqur bilimdonigina boʻlib qolmay, 20 ta musiqali drama, 200 ga yaqin ashula va kuylar ijod qildi. Shulardan “Koshki” (Navoiy gʻazali), “Judo” (Navoiy gʻazali), “Jonimdadir” (Navoiy gʻazali) “Muncha ham” (Muqimiy gʻazali), “Kuygay” (H.Olimjon sheri), “Ranolamasin” (Gʻoziy gʻazali) kabi ashulalari xonandalar tomonidan sevib ijro etilib kelinmoqda.

Oʻzbek xalqining ustoz bastakorlaridan yanada biri Oʻzbekiston xalq artisti Toʻxtasin Jalilovdir. U musiqiy folklorni oʻzbek musiqali dramalariga olib kirgan birinchi bastakor hamdar. Sanʼatkorning "Tohir va Zuhra" musiqali dramasidan “Otmagay tong”, “Ey quyosh”, “Ayirmish”, “Qalandar”, “Oh faryodkim”, “Nurxon” musiqali diramasidan “Ey sabo”, “Muhabbat oʻtida kuydim”, “Yayragil”, “Naxushdirkim”, “Ravshan va Zulxumor” musiqali dramasidan “Uzoqdan kelayotirman” kabi qoʻshiq ariyalari xalqimizning hurmat eʼtiboriga sazovor boʻldi.

Oʻzbek bastakorlik sanʼatining yirik namoyondalaridan Muhtorjon Murtazayev klassik va zamondosh shoirlarning sheʼrlariga rang-barang xalqchil ashulalarini yaratdi. Jumladan: “Biri ishva bilan” (Sobir Abdulla soʻzi), “Bizni tashlab” (Miskin gʻazali), “Aylading, qoʻyding” (Muqimiy gʻazali), “Tasadduq man” (Chustiy gʻazali), “Barnoligingdan” (Charxiy gʻazali), “Fargʻona tong otguncha” (Xaziniy gʻazali) kabi ashulalari xalq dilidan mustahkam oʻrin egalladi.

Oʻzbekiston xalq artisti, bastakor va sozlanadi Muhammadjon Mirzayev XX asar oʻzbek musiqa tarixida yorqin iz qoldirdi. Xalqimizning sevimli hofizi Mamurjon Uzoqov ijrosida bastakorning quyidagi xalqchil ashula va yarallari ilk bor yangradi: “Qachon boʻlgay”, “Yor istab”, “Yoʻlingda”, “Shoʻxi jononim mening” (Furqat gʻazali), “Yakka bu Fargʻonada”, “Koʻzlaring”, “Suvrating”, “Yolgʻiz”, “Yana” (Muqimiy gʻazali), “Parvo etib ket” (Sobir Abdulla soʻzi), “Shaydo bolibman” (Kamtar soʻzi), oʻzbek va tojik xalqlarining sevimli xonandasi, Tojikiston xalq artisti Hanifa Mavlonova ijrosida “Parvona boʻldim” (Kamtar soʻzi), “Gulchehra yor”, (Poʻlat Moʻmin sheri), “Tong otguncha” (Dilafkor soʻzi) kabi lirik ashulalari xalq orasida mashhur boʻlib ketdi. Shuni ham aytish joizki, M. Mirzayev yillar

davomida, Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi "Bahor" davlat ansambli repertuarini boyitib keldi. "Bahor valsi", "Gulnoz", "Dildor 1 va 2", "Ufor sanam", "Intizor etma" kabi raqs kuylari ansambil repertuaridan mustahkam o'rin egalladi.

Bastakor Muhammadjon Mirzayev o'z davrining mashhur kuychisi edi. Shuning uchun uning ijodida zamonaviy mavzu ustuvor turdi. "Oltin sandiq", "Uch dugona", "Ey gul", "Toshkent nahori", "Muhabbat maktubi" (Turop to'la so'zlari), "Ko'zlarimga ziyo olaman", "Chavandoz qizlar" (Normurod Narzullayev so'zlari), "Onalar", "Assalom, kelin salom" (O'tkir Rashid so'zlari) kabi qo'shiqlari rubob uchun yaratilgan, "Go'zal Vatanim", "Orzu qil", "Dilrabo", "Marg'ilon qizlari", "Shodlik", "Yangi tanovar" kabi kuyladi keng qanot yozdi.

Ulkan iste'dod egalari bo'lgan bu ustoz bastakorlar o'z ijodiy faoliyatlari bilan Barbod, Farobiy, Ibin Sino, Hoji Abduqodir Marog'iy asos solgan o'zbek bastakorlik san'atining nodir namunalarini targ'ib qilishdi va davom ettirishdi. Sir emaski, milliy bastakorlik masalasiga yaqin yaqinlargacha, asosan, g'arbiy musiqashunoslikda qabul qilingan talablar bilan yondashiladi. Shuningdek kompozitorlik ijodi uchun birdan- bir xos bo'lgan sabablar, umuman, zamonaviy musiqiy ijodkorlikning shartli mezonlariga aylandi.

Milliy bastakorlik san'atimizning bugungi o'ziga xos ijodiy xususiyatlari yangi uslublarning paydo bo'lishi, inson qalbiga zavq bag'ishlash yo'lidagi izlanishlar ijodkorlik san'atimiz muhitini boyitmoqda. Eng muhimi, xalqning tengsiz mulki hisoblanuvchi taniqli bastakorlar ijodi bilan boyidi.

Hozirgi kunda bastakorlarimizdan O'zbekiston xalq artisti Baxtiyor Aliyev, O'zbekiston va Qoraqolpogiston xalq artisti Abduxoshim Ismoilov, Ortiq Otajonov, Sultonali Mannopov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Shavkat Mirzayev, Ahmadjon Dadayev, Halimjon Jo'rayev, Shermat Fayzullayev, Qo'ldosh Mamirov, Tuyg'un Otaboyev, Rahmatjon Tursunov, Ravshan Hamraqulov, Orif Atoev, Payziqul Zokirov va boshqa bastakorlar ijod qilgan kuy va qo'shiqlar xalqimizga manzur bo'lmoqda. Bu iste'dodli bastakorlarning musiqiy ijodini tahlil qilar ekanmiz, haqli ravishda o'zbek milliy bastakorlik san'atining munosib davomchilari borligiga turli ishonch hosil qilamiz.

O'zbek bastakorlik san'atida hududiy uslublar. O'zbek bastakorlik merosi ijodida shakllangan asosiy 4ta hududiy uslublar mavjud. Ular quyidagicha nomlanadi.

1. Buxoro- Samarqand musiqa uslubi,
2. Fargona- Toshkent uslubi,
3. Xorazm uslubi
4. Surxondaryo- Qashqadaryo uslubi

Har bir hududiy uslub o'ziga xos musiqaviy ijod, xususiyatlariga ega. Har birining, o'z navbatida ijodiy maktablarga bo'linishi diqqatga sazovordir. Masalan, Buxoro, Samarqand bastakorlik maktabi, Andijon, Farg'ona, Toshkent bastakorlik maktabi va Xorazm bastakorlik maktabidir.

Ushbu hududiy uslublar har bir bastakor ijodining "Oltin beshik" asosini tashkil etadi. O'zbek va Tojik professiyonal musiqa madaniyatining atoqli namoyondasi Ota Jalol (Jaloliddin) Nosirov 19-asrning ikkinchi yarmi- 20-asrning boshida yashagan taniqli musiqa arboblardan biridir. Maqomdon ustoz Ota Jalol Nosirov Shashmaqomning barcha shu'ballari va tarona yo'llarini puxta bilardi. U shu sababli xalq orasida obro' qozongan, ashula shinavandalarini o'zining keng diapazonli ovozi bilan maftun etgan ajoyib xonanda edi.

Buxoroda birinchi musiqa maktabi, Samarqandda musiqa bilim yurtining yuzaga kelishida Ota Jalolning xizmati katta. Usta Shodi Azimov, Domla Halim Ibodov, Levi Boboxonov, Boboqul Fayzulloyev kabi maqomdon xonandalar ham otajonovdan ta'lim

olishgan edi. O‘zbek va Tojik professional musiqa san’atining durdonalaridan Shashmaqomini yozib olinishi va saqlab qolinishida Ota Jalolningon qo‘shgan hissasi katta. Ota Jalol nomini tilga olganimizda ustozlar ustози, Shashmaqom bilimdoni, murakkab usullar ustasi, ajoyib tadbircha va xushovoz xonanda ko‘z oldimizga keladi. Shu sababli O‘zbekiston va Tojikistonning turli vohalarida Ota Jalolning nomi hurmat bilan tilga olinadi. Darhaqiqat, maqomdonlar tili bilan aytganda u “Ustoyi kulliy” edi. Bu ibora arabcha “Ustoz ul-kulliy” ya’ni hamma narsa (kuy) tillarni mukammal va to‘kis- tugal biluvchi maqomdon ustozlarga nisbatan ishlatilardi.

O‘zbek xalq musiqiy merosini milliy qadriyatlarimizning bir bo‘lagi sifatida o‘rganish hozirgi davrda dolzarb masalalardan biridir. O‘zbek musiqiy merosimizga nazar tashlar ekanmiz, otmishda xalq ichida yetishib chiqqan o‘zlarining ijro mahoratlari, murabbiyliklari bilan xalq dilidan joy olgan san’atkorlarimiz ko‘z oldimizda gavdalanadilar. Ular ichida musiqa san’atimizning birinchi akademigi Yunus Rajabiyning alohida o‘rinlari borligi, shakshubhasiz. U kishi yashagan davr ijodining takrorlanmas qirralari mavjudki, ularning merosini o‘rganish kelgusida yaratilajak cholg‘uchilik mahoratini rivojlantirishda ijobiy bosqich bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek mumtoz musiqa janrlari tasnifi.

Asirlar osha davr tahririga uchrab, sayqallashib, o‘ziga xos murakkab shakllari, teran mazmuni, jozibali va ohangdor kuylari bilan bizgacha yetib kelgan mumtoz musiqa namunalari hanuzgacha eng sevimli, eng ardoqli xalq asarlari bo‘lib kelmoqda.

Mumtoz musiqa asarlarining badiiy kuchi-ularning xalq orzu- umidlari, his-tuyg‘ulari, fazilatlar va turmush haqiqatlari bilan uyg‘unligi, kishilarning ruhini, dardini o‘zida aks ettirishida, undagi tinglovchilarga ham birday yoqimli, so‘z va ohang, soz va kuy mushtarakligidadir. Inson yashashi uchun, millat taqdiri va munosabatlari uchun zarur bo‘lgan ma’naviy jarayonlar kuyda va aytim- ashulaga solinadi. Inson boshidan kechiradigan turli-tuman voqelik, yuragini zabt etuvchi shodu-xurramlik yoki dardu-alamlar, bu yorug‘ yoki qorong‘u kunlarning izi cholg‘u va ashulaga aylanadi.

Mumtoz ashula yo‘llari va cholg‘u kuylarining umrboqiyiligi ulardagi ma’naviy-axloqiy ma’noning chuqurligi, musiqiy ohanglarning go‘zaligidadir. Ularda insoniy kechinmalar andishaga boy, hayotiy va samimiyydir; shuning uchun tinglovchiga zavq bag‘ishlaydi, ko‘nglini ko‘taradi. Bunday ma’naviy go‘zallik taronasi mumtoz musiqaning ajib va o‘lmas an’anasiga aylangan. Mumtoz musiqa o‘zining mukammaligi, mo‘jaz shakli, obrazlarning serqirra ma’nodorligi va nafisligi bilan ajralib turadi. Abdurauf Fitrat musiqa ijodiyotining asrlar mobaynida yashab kelgan shakl-shamoyillari, ularning turlari (ashula, doston va b.) haqida yozar ekan, ashulaga quyidagicha ta’rif beradi; “Kuy,ohang bilan o‘qilayotgan she’rlar, tizmalarga ashula deyiladi”.

Har bir musiqa asari, birinchi navbatda, kishiga ruhiy yengillik baxsh etish vazifasini bajarsa, ikkinchi tomondan, kishining tashqi dunyoga estetik munosabatda bo‘lishini shakllantiradi; uchinchi tomondan esa tarbiyaviy ta’sir vazifasini ham o‘taydi. Musiqa asarlarining kishi ruhiyatiga ta’siri haqidagi fikrlarni qadim davrlarda yashab o‘tgan olimlarning asarlarida ham uchratishimiz mumkin. Masalan, Sharqning buyuk mutafakkirlari o‘zlarining “Musiqiy risolalarida” musiqaning inson ruhiyatiga ta’siri turli his-tuyg‘ular uyg‘ota olish xususiyatlarini batafsil tahlil qilishib, jumladan, maqom va ularning shu’balari kishiga shijoat va jasorat bag‘ishlaydi deb uqturib otishgan. Navo yoki Ushshoq jozibador va ohangdor maqom yo‘llari deb hisoblansa, Rost yoki Iroq nozik va yoqimli maqom yo‘llari bo‘lib, kishiga huzur, xushchaqchaq kayfiyat bag‘ishlaydi. Buzuk yoki Segoh va ularning

shu'balari ulug'vorlik, g'amginlik, quvonch hamda qayg'u kayfiyatini qo'zg'aydi. "Dilxiroj" cholg'u kiyini tinglaganda kishida ko'tarinki ruhiy holat vujudga kelsa, "Cho'li Iroq" kuyi ruhim moziydan sado eshitalgandek boladi. Kishining tashqi dunyoga estetik munosabat shakllantirishdagi mumtoz musiqaning vazifasi insonning ta'sirchanlik kayfiyati bilan bevosita bog'liqdir.

Xalq yoki bastakor tomonidan yaratilgan har bir musiqa asari o'z oldiga u yoki bu darajadagi vazifani qo'yadi. Mumtoz musiqa ham mavqeyi, mohiyati, mazmuni, vazifasi va ijrochilik xususiyatlari jihatdan ikki yirik guruhga-ovoz va so'z bilan bog'liq bo'lgan aytim yo'llari va chog'u orqali ifoda etiluvchi cholg'u yo'llarida bo'linadi. Ularning har biri, o'z navbatida quyidagi janrlarga tasniflanadi:

Aytim yo'llari:

1. Mumtoz yalla va ashula-har biri rivojlangan kuy va shakldan, o'ziga xos mazmunda va ijro uslubidan iborat. Bularndan lokal xususiyatlariga ega bo'lgan xalq ashula yo'llari, suvoralar, naqshlar ham kiradi.

2. Yirik ashullari bo'lmish- faqatgina Farg'ona vodiysida shakllanib, rivoj olgan katta ashula .

3. Dostonlar, xalq epik janri bo'lib, adabiy matn, she'r, musiqadan iborat uch birlik tamoyili mavjudligi bilan ajralib turadi.

4. Maqomlar, o'z navbatida maqom ashula yo'llari va yirik ashula-cholg'u turkumli janr sifatida keng tarqalgan. Buxoro "Shashmaqomi", "Xorazm maqomlari" turkumi va Fargona-Toshkent maqom yo'llari kabi maqom turkumlaridan iborat.

Cholg'u yo'llari:

1. Rivojlangan kuy va shakllardan iborat, murakkab ijro uslublari mavjudligi bilan ajralib turuvchi cholg'u kuyi yoki asar va cholg'u turkumlar (bu toifaga yirik cholg'u usullari ham kiradi), jumladan, Eshvoy-Eshvoy kurd-Eshvoy turkman; Dilxiroj va Sinaxiroj.

2. Maqom cholg'u yo'llari va turkumlari, jumladan, Cho'li Iroq, Mushkiloti dugoh, Ajam taronalari; dutor maqom turkumlari (Xorazmda), Surnay maqom yo'llari- Navo, Chorgoh va b.(Farg'ona-Toshkent).

3. Mumtoz ashulalarining cholg'u yo'llari (variantlari) va turkumlari, jumladan, Tanovar turkumi, Chorgoh turkumi va bosh.

Har bir janr o'z mavqeyi, kuy-ohang tuzilishi, ijro uslubi bilan ajralib turadi.

O'zbek mumtoz musiqasi asrlar osha og'zaki tarzda avlodan-avlodga o'tar ekan, bu jarayonda u boyib, xalqning fikr-o'yi, dardi, orzusi, donishmandligining o'zida mujassamlashtiradi. O'zining an'anaviyligi, buyukligi, ta'sirchanligi, professionalligi, mukammalligi, ko'plab badiiy vositalarga boyligi bilan o'ziga xos musiqa-san'at turiga aylanadi. Katta badiiy- estetik imkoniyatlarga ega bo'lgan o'zbek mumtoz musiqasi milliy ruh, milliy qiyofani shakllantirish, milliy qadriyatlarni saqlash, boyitish va keyingi avlodga yetkazib berishning samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbek mumtoz musiqasida xalqning ma'naviy madaniyatiga doir durdonalar to'plangan bo'lib, hozirgi mustaqillik davrda milliy o'zlikni anglash va milliy ongini taraqqiy ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayev R.S. "O'zbek mumtoz". O'quv qo'llanma. T.: Yangi nashr, 2008 yil.
2. Hamidov H. "O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi". – T.: O'qituvchi, 1996 yil.

-
3. Hasanova, Navbahor. (2020). METHODS AND WAYS TO DEVELOP THE MUSICAL FEELINGS OF STUDENTS IN TTTE LESSONS OF MUSIC EUITURE. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(42). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5579
 4. Khasanova, Navbakhor (2020) “The role of music lessons in the formation of national and intercultural competence in students.” *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*. Vol.2020 :Iss.2. Article 15 :<https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss2/15>
 5. N. Hasanova O‘zbek milliy musiqa merosi taraqqiyotida xotin-qizlarningo‘rni. Актуальный вызыви современной науки IX xalqaro ilmiy konferensiya 26-27 yanvar 2017 yil.
 6. Begmatov S, Karimova D, Mamirov Q, Musiqa 6-sinf uchun darslik. T.:G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2018 yil.
 7. Muminova Muqaddas Riskulovna Development And Current Status Of Uzbek Pop Music In Modern Approaches And Innovations Of Teaching The Science Of Music Culture *International Journal of Advanced Science and Technology* Vol. 29, No. 8, (2020) <https://t.me/joinchat/> - Music teacher, <https://infourok.ru> - music lessons
 8. Muminova Muqaddas Riskulovna *International Journal of Mechanical Engineering*. The Innovative Technologiyes Of Teaching In Musical Edukational Establishments1764-1767- betlar. 2022- йил.
 9. Muminova Muqaddas Riskulovna Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. THE ROLE OF SPORT ACTIVITIES, GAMES AND COMPETITIONS IN THE NURTURE OF 6-7 YEARS OLD CHILDREN <https://uzjournals.edu.uz/tziuj68-78betlar> 2022
 10. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlarda pedagog kreativligi. “Yangilanayotgan O‘zbekistonda fan, ta’lim va innovatsiya uyg‘unligi” mavzusidagi 6-son 2-qism Respublika ko‘p tarmoqli ilmiy konferensiyasi VIII bo‘lim Toshkent 2021. 677 bet. Udk. 001.895 (575.1).
 11. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlar o‘qituvchisining kreativligi. Педагогические и лингвопсихологические особенности развития, формирования и становления личности врача. Сборник тезисов Международная конференции. СамГМИ, Самарканд 5 мая 2021 год
 12. Urinova S.Sh. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishning nazariy asoslari. “The best innovator in science” xalqaro maqolalar tanlovi to‘plami. Organized by Innovative Academy. Tashkent February 5, 2022. Pg 811. <https://zenodo.org/record/5979621#.YpC2PKhBxD8>
 13. Qudratov I, Abdugarimova E. “Musiqa darslarida fanlararo aloqadorlik” Samarqand, SamDu bosmaxonasi, 2015yil.
 14. E.Abdugarimova. Ilm ham jamiyet Ajiniyaz atindagi Nokis mamleketlik pedagogikaliq instituti “Texnologik loyihalash- musiqa mashg‘ulotlarida samarali ta’lim”. 2019 (№1) ISSN 2010-720X
 15. Elnoz Ismatillayevna Abdugarimova Актуальные вызовы современной науки. “Yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda xalq musiqa merosi qudratli tarbiya vositasi” iscience 2017 yil.

“PEDAGOGIK TIZIMDA CHOLG‘U IJROCHILIGINI O‘RGATISH METODIKASI TEXNOLOGIYALAR”

*Xolmirzayev Otamurod Eshmirza o‘g‘li,
JDPU Musiqa talimi kafedrası o‘qituvchisi*

Annotasiya: Musiqa cholg‘ularini ijrosini o‘rgatish metodikasi bilan bog‘liq bir qancha paradoksal lahzalarni qayd etish mumkin. Shunday qilib, hurmatli musiqa o‘qituvchilarining uzoq vaqtdan beri shakllangan usullari ko‘pincha ba‘zi bir innovatsion o‘qituvchilarning innovatsion usullaridan kam bo‘lmagan foyda keltiradi.

Kalit so‘zlar: Musiqa, cholg‘u, ijro, metodikasi, texnologiyalar

Musiqa o‘qituvchilarining kasbiy qiziqishlari tarkibida cholg‘u asbobida chalishni o‘rgatish metodikasi an‘anaviy tarzda markaziy o‘rinni egallaydi va unga xos bo‘lgan savollar doimo ulardan faol javob topadi.

Musiqa sozida chalishni o‘rgatishning har qanday, hatto eng yaxshi usuli ham universal bo‘lishi va hammani o‘rgatish uchun mos bo‘lmasligi paradoksal bo‘lib tuyulishi mumkin. Gap shundaki, barcha o‘quvchilarni o‘qitishda maksimal samara beradigan eng mos, "faqat to‘g‘ri" o‘qitish metodikasi yo‘q, lekin bunday uslubni yaratish mumkin emas. Shu bilan birga, metodologiyada umumbashariy (asosiy) asoslar mavjudligini tan olish kerakki, ularsiz musiqachini tayyorlash va tarbiyalash mumkin emas, ularsiz metodologiya tushunchasi o‘z mazmuni va mavqeini yo‘qotadi.

Bizning musiqa asboblarini chalishni o‘rgatishning "eng yaxshi", yagona usullari, qoida tariqasida, mavhum va talabalarning mavhum kontingenti uchun mo‘ljallangan. Lekin biz yaxshi bilamizki, konservatoriyada professional ijrochilarni o‘qitish metodikasi musiqa maktabidagi bolalarni o‘qitish uslubidan farq qiladi.

Bolalar musiqa maktablarida cholg‘u asboblarini o‘qitishning an‘anaviy, “eng yaxshi” usuli eng yaxshi, iqtidorli bolalarni o‘qitishda o‘z samarasini bermoqda. Shu bilan birga, shuni ta’kidlash kerakki (va o‘qituvchilar buni yaxshi bilishadi) chinakam iqtidorli bolalarning ulushi kichik va asosan siz "o‘rtacha" yoki oddiygina me’yordan sezilarli og‘ishlarga ega bo‘lgan bolalar bilan ishlashingiz kerak. rivojlanish. Va bu allaqachon, masalan, aql, musiqaga hissiy sezgirlik, eshitish-motor muvofiqlashtirish, musiqiy quloq yoki musiqiy tasavvur kabi xususiyatlar va fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus usullarni talab qiladi. Mutaxassislik darslarida o‘qituvchi ko‘pincha shunday qilishi kerak, chunki talabada yuqorida qayd etilgan fazilatlarining etarli darajada rivojlanmaganligi uning musiqa chalish kabi murakkab faoliyatda muvaffaqiyatli tayyorlanishiga so‘zsiz tormozdir. An‘anaviy o‘qitish usuli etarli emas, chunki u har doim berilgan savollarga to‘liq javob bera olmaydi. Ularga javoblarni pedagogik-psixologik adabiyotlardan izlash kerak, buning uchun musiqa ta’limi muassasalarida o‘qitish va tarbiyalashning turli tizimlari, jumladan, pedagogika fanining so‘nggi yutuqlariga asoslangan innovatsion tizimlar bilan tanishish zarur.

Metodikaning mohiyatini aniqlab, men musiqachi-o‘qituvchilar tomonidan musiqa asari ustida ishlashda qo‘llaniladigan texnologiyalardan "haqiqiy", "haqiqiy" o‘qitish metodikasini ajratmoqchiman. Bizning fikrimizcha, metodologiyani ta’lim faoliyati sharoitida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan individual harakatlar va faoliyatni amalga oshirish uchun o‘rganishning eng muhim umumiy qonunlari, tamoyillari, qoidalari, usullari va usullari to‘g‘risidagi bilimlar majmuasi sifatida ko‘rib chiqish mumkin. rejalashtirilgan natijaga erishishni ta’minlash.

Agar metodikada tinglovchilarning individualligini hisobga olgan holda musiqa asari ustida ishlash tartibi va usullari belgilansa, texnologiya pedagogik natijaga erishishning o'ziga xos jarayonidir.

Usul va texnologiyalarning dialektik bog'liqligini quyidagicha ifodalash mumkin: uslublar musiqiy ta'lim va tarbiyaning uslubiy va ilmiy-ishlab chiqarish asosini tashkil qiladi, texnologiyalar muayyan natija keltiradigan amaliy mashg'ulot va tarbiya jarayonlari sifatida metodlar tarkibiga kiradi. Texnologik jarayonlarni loyihalash va qo'llashda metodologiyaning qonuniyatlari va qoidalari ustuvor ahamiyatga ega.

Muayyan musiqa asari bilan harakatlarni bajarishning ma'lum tartibi (algoritmi) haqida gap ketganda, u deganda musiqa san'ati ob'ektini yaratish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan ijro (pedagogik emas!) texnologiyasini tushunishimiz kerak. Asar ustida ishlash, uni badiiy talablar va mezonlarga muvofiq qayta yaratishga qaratilgan ishlash, ijro texnologiyasining imtiyozidir. Uning asosiy qonuniyatlari va jihatlari har qanday o'qitish metodologiyasining ajralmas qismidir, chunki ular muayyan asbobda o'rganishning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

Pedagogik texnologiyalar haqida gapirganda shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi zamon pedagogika fanida "pedagogik texnologiya" tushunchasi ancha keng qo'llaniladi. "Texnologiya" atamasi "texnika" so'zi bilan bog'lanib, sanoatda keng qo'llanilsagina, musiqa ta'limida foydalanishning maqsadga muvofiqligi haqida bahslashish mumkin. Biroq, pedagogika sohasidagi ko'proq olimlar uni pedagogik sohada qo'llashga ruxsat berishga moyil bo'lib, o'quv jarayonida ma'lum texnologiyalar ham mavjud bo'lishi mumkinligini anglatadi.

Ma'lumki, texnologiyaning ajralib turadigan xususiyatlari quyidagilardan iborat: takrorlanuvchanlik (uni tegishli sharoitlarda takroran ishlatish imkoniyati), o'quv jarayoni sifatini diagnostika qilish (bosqichma-bosqich sinovdan o'tgan holda) va maqsadlarga kafolatlangan erishish imkoniyati.

Pedagogik texnologiyaning belgilari o'quv qo'llanmalari yoki o'yin maktablari kabi uslubiy vositalarga ega bo'lib, ular materialni o'rganishning ma'lum, uslubiy jihatdan asoslangan algoritmini ta'minlaydi. Haqiqiy amaliyotda musiqa asboblarni chalishni o'rganish ko'pincha mualliflik huquqi texnologiyalariga asoslanadi, chunki ilmiy va uslubiy jihatdan asoslangan texnologiyalar yoki ularning kombinatsiyasi - kamdan-kam istisnolardan tashqari - o'qituvchilarga ma'lum emas yoki ishlab chiqilmagan.

Har bir pedagogik texnologiyani aks ettiruvchi uchta daraja mavjud:

- 1.uslubiy
- 2.umumlashtirilgan texnologiyalar
3. maxsus uslubiy

Agar metodologik daraja umuman olganda pedagogik ilmiy fikr va jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanish darajasini aks ettirsa, umumlashtirilgan pedagogik texnologiyalar darajasi ularning keng doirasini nazarda tutadi. Bu texnologiyalardan har qanday fanni o'qitishda foydalanish mumkin. Bularga axborot, dasturlashtirilgan ta'lim, modulli, konsentrlangan ta'lim, interaktiv va boshqalar kabi texnologiyalar kiradi. Va nihoyat, o'ziga xos uslubiy daraja bizga ma'lum bir texnologiyaga xos bo'lgan, bir o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan va boshqalar tomonidan foydalanishga yaroqli bo'lgan pedagogik usullar, vositalar, amaliyotlar va tartiblarning o'ziga xos majmuini beradi. Tadqiqotchilarning fikricha, umumlashtirilgan texnologiyalar umumiy pedagogik nazariyalarni ifodalaydi va faqat uchinchi daraja - maxsus texnologiyalar amaliyotda qo'llanilishi mumkin. Faoliyati va protsessual xususiyatlariga ko'ra texnologiyalarni bo'linishi mumkin. Maqsadlarga erishish, to'liq assimilyatsiya qilish va boshqalar uchun ma'lum texnologiyalar mavjud, shu jumladan

maqsadlarni belgilash usullariga ko'ra, bir qator muayyan protsessual bosqichlar (maqsadlarni belgilash, ularni amalga oshirish), madaniy-modulli tipdagi texnologiyalar va boshqalar. Musiqa sozida chalishni o'rgatish sohasida pedagogik texnologiyalardan foydalanishda o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Musiqa asbobida chalishni o'rganish jarayonining shartlari har doim har xil bo'lganligi sababli (ba'zan ular sezilarli darajada farq qiladi), texnologiyaning takrorlanishi imkoniyatlari va pedagogik natijaga erishish kafolatlari haqida juda ehtiyotkorlik bilan gapirish kerak. Musiqa o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan texnologiyalarni to'g'ri, etarli darajada qo'llash har doim ham mumkin emas, ularning faoliyati mohiyatan polivariant bo'lganligi uchun u doimo ijodiy xarakterga ega bo'lib, darsning o'tish sharoitiga bog'liq bo'ladi.

Texnologiyalarni qo'llash muvaffaqiyatini belgilaydigan shartlar qatoriga quyidagilarni kiritish kerak:

1) o'quvchilarning psixofiziologik xususiyatlari, jumladan, ularning musiqiy qobiliyatlari, temperamenti, xarakteri, yosh xususiyatlari. Shuni unutmasligimiz kerakki, har bir o'quvchining nafaqat o'ziga xos xususiyat va sifatleri, balki o'ziga xos rivojlanish yo'llari ham mavjud. 2) o'qituvchi va o'qitish sifati (kompetentlik, tayyorlik); 3) sinfda va ta'lim muassasasida psixologik mikroiklim; 4) o'qituvchining o'quvchilar bilan aloqa o'rnatish, ularni safarbar qilish, ularni to'g'ri yo'naltirish va ularga rahbarlik qilish qobiliyati.

Texnologiyani samarali qo'llash uchun bir xil sharoitlarni yaratish amalda juda qiyin. Pedagogika g'ayrioddiy ijodiy faoliyat bo'lib, ko'pincha turli sharoitlarda bir xil pedagogik vositalar turli xil natijalarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun bu muayyan texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini murakkablashtiradi, shuningdek, yagona yagona texnologiya yoki qattiq texnologik tizimni yaratishni amalda imkonsiz qiladi.

Musiqiy-pedagogik texnologiyalar masalasiga kelsak, shuni ta'kidlash kerakki, ular muayyan maqsadlarda qo'llaniladigan tizimlar shaklida mavjud. Xususan, ular J. Dalkroze, K. Orff, D. Kabalevskiy va boshqa mualliflarning musiqiy ta'lim tizimlarini (umumlashtirilgan daraja), o'zlarining vazifalar tizimini taklif qiladigan talabalarning texnik va boshqa ko'nikmalarini shakllantirishning mualliflik texnologiyalarini o'z ichiga olishi kerak, mashqlar, etyudlar, musiqiy spektakllar va boshqalar. (maxsus uslubiy daraja). Pedagogikada ko'plab pedagogik texnologiyalar qo'llaniladi. Ularning eng mashhurlaridan musiqa asboblarini chalishni o'rganish jarayonida ham foydalanish mumkin. Maxsus sinfda o'quvchilar bilan ishlashda ayrim umumlashtirilgan pedagogik texnologiyalar va ulardan foydalanish imkoniyatlarini ko'rib chiqamiz. Texnologiyalar va ularning mohiyati Yu.V.Kitning "Ijtimoiy-madaniy sohada ishchilarni tayyorlash: pedagogik texnologiyani tanlash" asarida berilgan.

Erkin mehnat texnologiyasi S. Frenet.

Bu jamoaviy loyihalarni amalga oshirish, o'z-o'zini boshqarish, individual o'quv dasturi, ma'lumotlar bilan ishlash, gazetalarni nashr etish va hk.

Agar o'qituvchi o'z o'quvchilariga ishonsa, ishonchning yaxshi kuchi ularda ijodiy faollik, mustaqillik, erta shaxsiy va ijodiy o'zini o'zi anglashning kuchayishiga olib kelishi mumkin. O'ziga yoqqan narsani yaratish istagi talabaning ijodiy qobiliyatlarini maksimal darajada ochib berishga olib keladi. O'qituvchining roli talab qilinadigan yo'nalishdagi talaba faoliyatini yo'nalishiga qisqartiriladi. Antipod - bu o'rganish uchun qattiq, avtoritar yondashuv, o'qituvchining barcha ko'rsatmalariga ko'r-ko'rona amal qilgan holda, o'quvchining bo'ysunuvchi maxluqqa aylanib ketishi, o'quvchi tashabbusining, bilim olishga qiziqishning so'nishiga olib keladi.

"Madaniyatlar muloqoti"

Yu.V.Kit nuqtai nazaridan, bu texnologiya nutq elementi va Evropa madaniyatining asosiy shakllarining tarixiy ketma-ketligi o'rtasidagi dialogni nazarda tutadi.

Ushbu texnologiya turli vaziyatlarda musiqa sozida chalishni o'rganishda keng qo'llanilishi mumkin va kerak: varaqdan o'qishda, yangi asarni tahlil qilishda, musiqa tinglashda va hokazo. Uning mohiyati zamonaviy musiqa madaniyatini turli davrlar va xalqlar madaniyati bilan bog'lashdadir. Talaba bilan ishbilarmonlik darajasida emas, balki ma'naviy darajada muloqot qilish orqali o'qituvchi unga bilim berish, musiqa, san'at, madaniyat, musiqachi faoliyatiga munosabatni shakllantirish va eng muhimi, takomillashtirish uchun ajoyib imkoniyatga ega. o'zi.

Muammoli o'rganish.

Muammoli ta'lim texnologiyasi o'quvchilarga ta'lim muammolarini izchil va maqsadli taqdim etishni, ularni hal qilishda ular faol bilimlarni o'zlashtiradi. Bu texnologiyani yaratuvchilardan biri M.I.Maxmutovning fikricha, bilim tayyor shaklda berilmasligi kerak, balki muammoli vaziyatda mustaqil bilish faoliyati jarayonida erishilishi kerak. Muammoli vaziyatlar - bu intellektual qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlar. Muammolilikni ifodalashning asosiy shakllari savollar, kognitiv vazifalar, o'quv vazifalari (barmoqlar, zarbalar, dinamika va boshqalarni mustaqil ravishda tartibga solish). Ushbu texnologiyaning samaradorligi darsda muammoli vaziyatlarni qo'llash darajasiga bog'liq. Agar ular ko'p bo'lsa, unda dars ba'zan zerikarli muammoni hal qilish hodisasiga aylanadi.

Konsentrlangan o'rganish

Konsentrlangan ta'lim texnologiyasining (yoki immersion usuli) mohiyati darslarni bloklarga birlashtirishda mavzularni intensiv o'rganishdir. Agar kuniga ikkitadan ko'p bo'lmagan dars o'tkazilmasa, mashg'ulotlar samaradorligi sezilarli darajada oshishi mumkin va bitta fan bo'yicha mashg'ulotlar vaqti bir necha marta oshirilishi mumkin. Konsentrlangan ta'lim texnologiyasi boshqalardan foydalanishni o'z ichiga oladi: muammoli ta'lim, didaktik birliklarni kengaytirish texnologiyalari va boshqalar.

Modulli ta'lim

Bu individual o'quv dasturi bilan mustaqil ishlashni o'z ichiga oladi. O'qituvchi talabaga tayyor modullarni taqdim etadi, ularda uning ma'lum vaqt oralig'idagi vazifalari ko'rsatilgan. U tayyor didaktik topshiriqlar shaklida ifodalanadi.

Ijobiy tomoni shundaki, keyingi modul odatda avvalgisini o'zlashtirgandan so'ng beriladi. Blok moduliga kiritilgan vazifalar uzoq vaqt davomida ishlashi mumkin, ammo u bajarilishi kerak. Tugallangan modul o'quvchining muayyan sifatlarining rivojlanish darajasi haqida to'liq tasavvur beradi. Modulda turli jihatlar bo'yicha topshiriqlar berilishi mumkin. Masalan, modul blok vazifalarining ma'lum to'plamini o'z ichiga olishi mumkin:

bloklayman

1) ijro texnikasining zarur elementlarini (tarozilar, arpejjiyolar, mashqlar va ularning komplekslari va boshqalarni) o'zlashtirish, 2) ko'rib o'qish, 3) quloq bilan tanlash, 4) kompozitsiya va boshqalar.

II blok

dasturdan ma'lum bir ish bo'yicha mustaqil ta'lim uchun savollar;

III blok

Uy vazifasi nafaqat o'rganilayotgan ishlar bo'yicha, balki o'quvchilarning dunyoqarashi, individual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ham topshiriqlarni o'z ichiga oladi.

Rivojlantiruvchi ta'lim

Uning mohiyati o'quv jarayonini dastur talablariga emas, balki o'quvchining potentsial imkoniyatlariga yo'naltirishdadir.

Repertuar o'quvchining keyingi rivojlanishini ta'minlash uchun yordamchi didaktik vosita vazifasini bajaradi. Maxsus mashqlarga katta e'tibor berilishi mumkin. Ta'lim muassasasining ta'lim darajasiga qo'yadigan talablari muhim pedagogik maqsadlarni, masalan: o'quvchining madaniyatini, uning estetik, axloqiy, kasbiy va boshqa ijobiy xossalari va fazilatlarini rivojlantirishga to'sqinlik qilmasligi muhimdir.

O'yin o'rganish

Bu ta'lim ma'lumotlarini qidirish, qayta ishlash va o'zlashtirishga qaratilgan o'yin faoliyatini tashkil qilishni nazarda tutadi. U musiqiy mashg'ulotning dastlabki davrida yaxshi qo'llanilishi mumkin. Ushbu texnologiya o'quv qo'llanmalarida, maxsus musiqiy o'yinlarda, o'yinlardan foydalangan holda maxsus ishlab chiqilgan darslar majmuasida, alohida uslubiy texnikada va hokazolarda ifodalanishi mumkin. Afsuski, musiqiy pedagogikada bu qatlam yetarlicha rivojlanmagan.

Oldinga qarab o'rganish

Muayyan mavzuni o'rganishda murakkabroq mavzulardan elementlar o'tkaziladi, lekin ayni paytda o'rganilayotgan materialga yaqin.

kompyuter texnologiyasi

Bu kompyuterni o'qitish va monitoring dasturlarini qo'llashni o'z ichiga oladi.

O'qitishda quyidagilar qo'llanilishi mumkin: kompyuterda ovozni qayta ishlash dasturlari va musiqa muharrirlari, kompyuter testlari, qismlarni yozib olish.

ansambl yoki orkestrning boshqa a'zolari, yakkaxon partiyasiz orkestr ovozi, kompakt disklardagi o'quv-uslubiy ma'lumotlar va boshqalar.

Axborot texnologiyalar. Bu telekommunikatsiyalar, Internetda ham, mahalliy tarmoqlarda joylashgan ma'lumotlar bazalaridan foydalangan holda o'qitishni o'z ichiga oladi. Ma'lumotlar bazalariga keng kirish tufayli insonparvarlik, umumiy musiqiy va maxsus xarakterdagi zarur bilimlarni olish bilan bog'liq bir qator muammolar bartaraf etiladi.

Afsuski, hozirgi vaqtda cholg'u sozida chalishni o'rgatish metodikasi o'ziga xos va moslashtirilgan pedagogik texnologiyalarning katta etishmasligini boshdan kechirmoqda. Shuni yodda tutish kerakki, pedagogik texnologiyalarning hech biri belgilangan pedagogik maqsadlar to'plamiga erishishni kafolatlay olmaydi. Ko'rinib turibdiki, zamonaviy o'qituvchi nafaqat musiqa asbobida chalishni o'rgatishning asosiy usullarini, balki maxsus usullarni, texnologiyalarni bilish va ularni o'quv jarayonida qo'llash qobiliyatini ham yaxshi egallashi kerak. Shuni ta'kidlash kerakki, pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'qitish faqat etarlicha katta o'quv davrida amalga oshirilishi mumkin. Maqsadlari, vazifalari, o'qitish va tarbiyalash usullarini, darsdan darsga muayyan harakatlar algoritmini aniq ko'rsatuvchi bir necha texnologiyalarni o'zida mujassam etgan musiqa asbobida chalishni o'rganishning muayyan texnologik tizimini o'quv jarayoniga joriy etish masalasi bor. Uning aniq belgilangan parametrlarga ega bo'lishi, lekin ayni paytda o'ziga xos shablonga aylanmasligi va o'qituvchining o'zi o'qitishning zarur texnologiyalari, usullari va usullarini tanlashiga imkon berishi muhimdir. Bunday texnologik tizimni yaratishda uning majburiy jihatlari qatoriga bilim, ko'nikma, xususiyat va sifatlar bloklarini kiritish kerak. Uni yaratish va amaliyotga tatbiq etishga urinishlar mahalliy o'qituvchilar orasida (xususan, M. Glushenkoning "Fortepianoning sehrli dunyosi" qo'llanmasini ta'kidlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Barbara Kreader, Fred Kern, Phailip Keveren, Mona Rejino. Piano Lessons Book 2001
2. Hasanova Navbahor Hamraqulovna. (2020). Bo'lajak o'qituvchilarning o'zbek mumtoz musiqasida kasbiy malakasini oshirish muammolari. *Xalqaro ilg'or fan va texnologiyalar jurnali*, 29 (08), 3489-34953495. [Http://sersec.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558](http://sersec.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558)
3. Hasanova, Navbahor. (2020). METHODS AND WAYS TO DEVELOP THE MUSICAL FEELINGS OF STUDENTS IN TTTE LESSONS OF MUSIC EUITURE. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(42). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5579
4. Khasanova, Navbakhor (2020) "The role of music lessons in the formation of national and intercultural competence in students." *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*. Vol.2020 :Iss.2. Article 15 :<https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss2/15>
5. N. Hasanova O'zbek milliy musiqa merosi taraqqiyotida xotin-qizlarningo'rni. Актуальный вызыви современной науки IX xalqaro ilmiy konferensiya 26-27 yanvar 2017 yil.
6. Rahimov Sh. Cholg'ushunoslik, O'quv qo'llanma – T-2020y.
7. Qo'chqorov G'. Milliy cholg'ularni o'rganish, O'quv qo'llanma, T-2020y.
8. Leviyev M. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik, O'quv qo'llanma, T-2001y
9. Boboqulov Q. Cholg'u ijrochiligi (tanbur), O'quv qo'llanma T-2022y.
10. Rahimov Sh. Cholg'u ijrochiligi. Elektron darslik, T., 2011y.
11. Rahimov Sh. M.A.Ilxomov, Sh.S.Yusupov. Cholg'u ijrochiligi. (rubob misolida). Elektron darslik. T., 2015y.
12. Караматов Ф. Узбекская инструментальная музыка. Наследие. – Ташкент, 1972.
13. Лутфуллаев А., Соломонова Т. Узбекские народные музыкальные инструменты, ч.1.– Ташкент, 2005.
14. Odilov A., Petrosyants A. CHang darsligi. – Toshkent, 1976.

IJRO SAN'ATI MASALASIGA BIR NAZAR

Sherbo'tayeva Marjona Sharofiddin qizi

Jizzax Davlat pedagogika universiteti Musiqa madaniyat fakulteti

Musiqa ta'limi yo'nalishning 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Muxamedziyanov Kamil Taxirovich

Jizzax Davlat pedagogika universiteti Musiqa ta'limi kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimining bo'g'ini bo'lmish musiqa ijro san'ati masalasiga to'g'risida so'z boradi. Bunda ta'lim tizimining uziga xosligi qolaversa O'zbekiston ta'lim tizimida ijro mahorati haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Musiqa, madaniyat, sahna san'ati, ijro, orkestr, tadqiqot, kontsert.

Har qanday musiqiy ijro san'ati, fortepiano kontsertlari, simfonik orkestr va xalq cholg'ulari orkestrning sahna chiqishlari, yoki maqomchilar ansambllarining kontsert dasturi bo'lsa – ularning "ijro etilayotgan asarning elementlarni o'z ichiga oladi. Asarning ma'naviy mazmuniga ko'nikish, ijrochining o'z dunyo qarashi va estetik nuqtai nazariga ko'ra talqin qilishi lozimdir".¹

Zamonaviy musiqiy ta'lim tizimida musiqiy ijrosini rivojlantirish uchun asosiy nuqtai nazari xususan, musiqachining shakllanishiga qaratilgan bo'lib uning rivojlanishiga qaratilgan. Bu holat ijrochi-musiqachilarning ichki dunyo estetikasiga va keng dunyo qarashga ega. Ijro etishning juda muhim xususiyati-bu hozirgi paytda amalga oshirilayotgan ijodning bevosita harakati, natijada ommaviy chiqishlari, tinglovchilar va musiqa ixlosmandlari uchun katta omadga aylandi.

Jahon musiqiy durdonalarini, mahalliy bastakorlarning asarlari bilan uyg'unlashdi. I. S. Bax, Y. Gaydn, L. Van Betxoven, F. Shopen, F. Liszt, S. V. Raxmaninov, S. S. Prokofiev, R. Gliere, A. Ategenov, G. Demesinov, M. Atajanov kompozitorlarning fortepiano uchun yaratilgan asarlari klassik tarzda talqin qilingan. E'tibor berib, ommaviy musiqa jarayonini ijro etishning o'ziga xos xususiyati bilan bog'liq. Ta'lim-tarbiya tizimini yangilash jarayonida olib borilayotgan ishlarning sifat va samaradorlik bosqichidagi asosiy masala bu davr talab etgan maqsad va vazifalarni, XXI asr fan-texnika, texnologiyalarning rivojlanayotgan asrning ma'naviy jihatdan yetuk, har tomonlama bilimli, sog'lom bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirib borishdan iboratdir. Shu bilan birga eng zarur pedagog kadrlarni tarbiyalashdan iborat ezgu ishlar amalga oshirilgan. Shu nuqtayi-nazardan umum ta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslarida o'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim bo'lgan pedagogik-psixologik maqsad va vazifalarni hal qilish muammolariga qaratilgan. Milliy qadriyatlarini, san'at va adabiyotning his-tuyg'ularini, ta'lim-tarbiyaning optimal sifatini yorqin aks ettiradi. Musiqa madaniyati darslarining o'ziga xosligi, uning "yakkaxonligi" eng yorqin va aniq o'zaro ta'sirlar muayyan badiiy-estetik obrazlardan iborat.

O'zbekistondagi musiqiy ijro hayoti masalalarini ko'rib chiqib, Shashmaqom, Farg'ona-Toshkent maqom turkumi va Xorazm maqomlarini ijro etish san'ati haqida to'xtalib o'tsak. Hozirgi kunda konsertlar - madaniyatning eng muhim vositalaridan biridir. Zamonaviy ijro san'ati Davlat tomonidan keng qo'llab-quvvatlanishi orqali rivojlanmoqda. Respublikamizning madaniy hayotini barqarorlashtirish, shuningdek, madaniy muassasalarni yangi sharoitlarga moslashtirish ko'rsatkichi, ham natijasidir.

Zamonaviy musiqiy ijro amaliyotini tahlil qilish misolida ansambl va orkestr musiqasi kontsertlari, ommaviy did va tendentsiyalarga rioya qilishda klassik, ijodiy shakllarning rivojlanishini, mintaqalar aholisining badiiy ijodiga kirishni, bolalar va yoshlar san'atiga kirishni yondoshadi.

Ijro san'atining musiqas asarini eshitishda asta-sekin, ijro texnikasini egallagan sari rivojlanadi. Musiqa ihlosmandlari odatda, buni bilishmaydi. Boshlovchi ijrochi u yoki bu jarang qay tarzda hosil bo'lishini na hislarda tasavvur qiladi va na tushuna oladi. Asta - sekin u eshitishga tayanib - ijro texnikasi ustida ishlaydi va unda eshitish tasavvurlari aks etish bilan birgalikda musiqaning ichki estetikasi shakllana boshlaydi. Shu asosda ilk bor asarni birinchi marta ijro etishda tasavvur qilish va sezish qobiliyatini rivojlantiradi.

Yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab - quvvatlash, ularning ijodiy loyihalarni amalga oshirishga jalb qilish, badiiy ifoda etishning yangi shakllarini va vositalarini izlash-bularning barchasi madaniyat, san'at va ta'lim sohasidagi asosiy Davlat vazifalariga mos keladi. Konsert va ijro jamoalari zamonaviy madaniyati uchun juda muhimdir, chunki ular musiqa san'atining eng yaxshi an'alarini asrab-avaylash va rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shadi, avlodlarning ijodiy uzluksizligini ta'minlaydi, yoshlarni tarbiyalashda katta rol o'ynaydi. Shuning uchun ijro etuvchi jamoalarni saqlab qolish va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur shartdir. Ijro mahoratini samarali tashkil etilishi natijasida o'quvchilarda mumtoz musiqiy asarlariga to'g'ri baho berish, yuqori

badiiy saviyaga ega musiqiy asarining mazmuni hamda mumtoz musiqiy asarlarga ob'ektiv baho bera olish, ko'nikmalarining shakllanishiga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekistob Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Namangan viloyati faollari bilan o'tkazgan yig'ilishidagi nutqidan. 2020 yil.
2. Sh. M. Mirziyoyev. "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi №112-sonli Qaror.02.02.2022 yil.
3. R. Ishmuxamedov, Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. -T, Iste'dod, 2008, 180 bet.
4. K. Muxamedziyanov. «Узбекские вокальные циклы на стыке культур»-, // Tafakkur ziyosi ilmiy-uslubiy jurnal., Jizzax 2022y, 1-son.
5. K. Muxamedziyanov. "Musiqiy ta'limda musiqa darslarni o'qitishning sifat va samaradorligini oshirishda pedagogik-psixologik talablar". Toshkent Davlat sharqshunoslik universitetning Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent 2021y.
6. Д. Кабалевский. «Как рассказывать детям о музыке. » М., Просвещение, 1994 г.
7. O'.Tolipov, M.Usmonboeva Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari.T. «Fan» 2006 yil.

AN'ANAVIY XONANDALIK MASHG'ULOTLARIDA OVOZ MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH USHLARI

Shoqo'ziyev Inomjon J.D.P.U. magistranti

Annotatsiya: An'anaviy xonandalik darslarida o'quvchilarni milliy kuylashga tayyorlashda qo'llaniladigan ovoz mashg'ulotlari, nafas olish texnikasi ustida ishlash uslublariga ta'rif beriladi.

Kalit so'zlar: musiqa, mumtoz, maqom, an'anaviy, dinamika, xonanda, hofiz.

Musiqa san'atining eng muhim qo'shiq kuylash (vokal) yo'nalishida ovozni vokal kuylash uslubida shakllantirish, ovoz hosil qilish, tovushni chiqarish, tovushni yo'llash, nafas olish, uni tejimli sarflash, cho'zimli tovushlar ijrosida ushlab turish, ovoz apparati, artikulyatsiya a'zolarini to'g'ri ishlatish, registrlarda ovozni o'zgartirishdan bir tekis yangrashiga erishish. Dinamika, ovoz tembrini ustida ishlash (ovoz pastanovkasi) kabilar akademik uslubda olib borilardi. Xalq qo'shiqchiligidan shakllangan milliy kuylash uslublariga etibor sust edi. An'anaviy xonandalik yo'nalishlarida ovoz ustida olib boriladigan ishlar mazmunida umumiy mushtaraklik jihatlari mavjud bo'lib quyida ovoz imkoniyatlari texnikasi, nafas olish, undan to'g'ri foydalanish mashqlari to'g'risida to'xtalib o'tamiz.

Kuylash texnikasi. Musiqiy (vokal, xonandalik) asar mazmuni badiiy, ya'ni tovush a'zolari orqali ifodalashdir.

Vokal yoki an'anaviy xonandalik da tovush o'z o'rnida musiqachi cholg'usi singari kuylashning texnik asosi hisoblanadi. Musiqa san'atining boshqa shakllaridan farqli ravishda kuylashda tovush va ovozdan tashqari jonli inson so'zi ham yangraydi, so'zni nutqi shakllantiradi.

Vokal yoki an'anaviy xonandalik mashg'ulotlarida kuylanadigan asarning badiiy matnni so'zlarni tinglovchilarga aniq yetkazib berish vositasiga talaffuz deyiladi. Talaffuz asarning g'oyaviy mazmuni va mohiyatini ochib berishda muhim o'rin tutadi. Agar, she'riy matn kuylanayotgan fikrni aniqlashtirsa, musiqa (kuy, ohang) uni atroflicha emotsional buyoqlar bilan to'ldiradi, mukammallashtiradi. Xonandalik san'atida so'z va nutq bir-birini to'ldirib, yaxlit badiiy obrazi yaratadi. So'zni (she'riy matni) to'g'ri talaffuz qilish texnikasiga ega bo'lish xonandalik san'atining asosiy negizlaridan biri hisoblanadi.

Xonandalik san'atida kuylash uchun tanlangan asarning to'g'ri va aniq talaffuz qilish uchun so'zlardagi mantiqiy ularga so'zning jonli tildagi talaffuz qoidalariga ahamiyat berish lozim.

Talaffuz ustida ish olib borilganda, avvalambor, vokal asar matnining mazmuniga, undagi badiiy obrazning xarakteri va mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratiladi. To'g'ri so'z talaffuzi-matn ustida ko'p vaqt sarflamasdan, balki uni qo'shiq aytish bilan birga ko'rsatib berish imkoniga ega. So'z va kuy bir vaqtda o'zlashtiriladi.

Aniq so'z talaffuziga erishish esa artikulyatsiya apparati til, tanglay, lablar, tishlar, jag'larning faoliyatiga bog'liq. Xususan, unli tovushlarni hosil qilishda og'iz boshlig'i va lablar muhim rol oynaydi. Sozning aniq va to'g'ri talaffuzi xonanda ovozigacha ijobiy ta'sir qiladi. Ansambilda so'z talaffuzini yaxshi bo'lishi unda olib boriladigan mashqlarga va nutq apparatining ishlashiga bog'liq bo'ladi.

Ma'lum mashqlar yordamida artikulyatsiya apparati rivojlantiriladi. Masalan, uning faolligini oshirish uchun u,- unli harflarni b,m,p,v,f - undosh harflarni bu, du, mu, yu, ku kabi bo'g'inlar tizib, mashq qilib yoki tovushlardan foydalanib "lya" "da", "na" kabi bo'g'inlarni talaffuz qilib, pastki jag'ni faollashtirish mumkin.

Shuningdek, d,z,k,l,n,r,s,t,sh undosh va a,o,u,i,e unilardan "lya", "le", "lyu" va boshqa bo'g'inlardan tuzilgan mashqlar yordamida til faolligini oshirish mumkin. Masalan, qator so'zlar tuzib, kecha-tun, shahar, daraxt, dorboz kabi so'zlarda undoshlarni qattiq, unilarni esa yumshoq talaffuz qilish yo'li bilan undoshlar talaffuzlarini yaxshilash mumkin, undoshlarning yaxshi talaffuzi esa unilarni yaqqol oydinlashtiradi.

Kuylashda nafas olish texnikasi. Ovoz tarbiyasining asosiy mezonlardan biri xonandalarning to'g'ri nafas olishga, uni ishlash va tejamli sarflashga o'rganish hisoblanadi. Nafas asarning sur'atiga, jumalarning katta-kichikligiga qarab bir maromda tez, yengil, ravn va chuqur olinadi. Nafas olishda gavda, bo'yinning to'g'ri, erkin holda bo'lishi, kiftlarning va nafasning diafragmasiga olinishiga e'tibor berish lozim. Nafas olishning ikki turi mavjud bular:

- aralash, pastki qovurg'a- diafragma usulida nafas olish;
- zanjir yoki ulama nafas olish;

Pastki qovurg'a- diafragma usulida nafas olishda kiftlar va ko'krak qafasi ko'tarilmasdan nafas pastga- diafirmaga olinadi. Bunda qorinning pastki qismi harakatda bo'ladi, og'iz va burundan bir vaqtda nafas olinadi. Nafas olishni kuzatish uchun qo'llarni qovurg'alar bo'ylab pastga, yon tomonga yuritib qorin bo'shlig'ining oldinroqqa chiqishini, qovurg'aning yon tomonga kengayishini kuzatish mumkin. Nafasni bir tekis shoshilmasdan chiqarishni ham o'rganish kerak. Nafasni tejamkorlik bilan sarflash lozim. Asarni ijro etganda haddan tashqari ko'p nafas olish mumkin emas. Zanjir yoki ulama nafas olish usuli asosan xor asarlarida yoki cho'zib turiladigan tonika va dominant organ punktlarida uzoq muddatgacha nafas olish mumkin bo'lmagan paytlarda qo'llaniladi.

Ma'lumki, asarning boshidan oxirigacha bir nafas bilan qo'shiq aytib bo'lmaydi. Kop ovoqli katta asarlarni ijro etishda kuy chozilish qolmasligi uchun xonandalar birdaniga bir vaqtda

emas, balki navbatma-navbat nafas oladilar. Ya'ni, bir xonanda nafas olganda yonidagi ikkinchi xonanda ijroni davom ettiradi. Bu xonanda nafasni rostlagach, u boshqalardan ajralmagan holda ijro partiyasiga qo'shiladi, natijada kuy uzluksiz yangrayveradi. Bu usulga zanjir yoki ulama nafas olish deyiladi.

Mashqlar: o'qish jarayonida har bir talaba o'qituvchi tomonidan muntazam ovoz diapazonini sozlash, nafasdan to'g'ri foydalangan holda musiqa pardalarida ovozning jarangdorligini topish uchun har bir dars oldidan ma'lum vaqt, albatta, mashq qiladi. Ijodiy jarayon ma'lum mashqlar asosida olib boriladi.

Mashqlar (vokal, sozlanish) ashulachi ovozini shakllantirish va rivojlantirish hamda to'g'ri nafas olish uchun olib boriladigan boshlang'ich bosqich hisoblanadi. Ovozni muayyan holatga keltirish, mavjud kamchiliklarni chetlashtirish uchun juda keraklidir. Shu bilan bir qatorda, mashqlar ustida ishlash nafas olish qonuniyatlarini o'zlashtirish, yangrashda ravonlikka erishish, ovoz harakatchanligini aniqlashga imkon yaratadi. O'qish jarayonida talaba rivojlanishi darajasiga muvofiq mashqlarni tanlash lozim.

Ilk qadamlardan (ligatto) ko'rinishida to'g'ri kuylash tonini o'zida shakllantirish jarayonida talabani erkin, tabiiy va zo'riqishsiz kuylashga e'tibor qaratish lozim. Kuylashning boshida katta bo'lmagan, ma'lum diapazon doirasida tovushni silliq yo'naltirish lozim. Talaba imkoniyatlarining o'sishi bilan mashqlar uzaytirilib, ovozning texnik imkoniyatlari mukammallashtirildi. Keyinchalik mashqlarini ijro etish jarayonida texnikani rivojlantirish unsurlarga, tezlikka e'tiborni qaratish muhimdir.

Vokal texnik vazifalar qatorida mashqlarni ifodaviy ijro etishga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Vokal mashqlarni o'qituvchi har bir ovoz uchun ularning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, alohida tanlashi lozim mashqlar ashulachilarning ijro faoliyatidagi doimiy hamrohi bo'lishi kerak.

Har bir talabani shaxsiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, ularning eng yaxshi asarlaridan tashkil topgan, emotsional ijodiy ko'tarinkilik, drammatizm yoki lirik asarlarda kuylangan sevgi-muhabbat, qahramonlik va Vatanga bo'lgan sadoqat ruhi bilan boyitilgan yorqin obrazlar, xarakteriga ega to'g'ri ijro dasturini tanlash talabalarning serqirra imkoniyatlarini ochib beruvchi elementlarga hamda vokal-texnik va badiiy ijrochilik mahoratga erishishlariga xizmat qiladi.

Musiqiy asarlarni o'rganish. O'qituvchi talabalarni ovoz imkoniyatlarini inobatga olgan holda, uning ovozigacha mos qo'shiq tanlaydi. Musiqa asar matni tavsiya etilgach, mualliflar ijodi o'rganiladi. Ayni chog'da mazkur musiqiy namunalarning ma'nosi, g'oyasi talaba o'ziga singdiriladi. Kuy bilan so'zning mutanosibligi haqida so'z yuritiladi, eshittiriladi. Ijro chog'ida faoliyatga kirish, so'z ma'nosi bilan yashash, ohang bilan shirinlikda ijro etish talab qilinadi. Bularning barchasi, tabiiyki, matn asarlar ustida ishlash jarayonida talaba oldiga yangi-yangi vazifalarni qo'yadi.

Mashg'ulotlarning boshidan ijro etishning vokal texnik qirralarini asar mazmuni badiiy ifodaviy tomonlariga anglagan holda boy sindirishga harakat qilish lozim. Faqatgina vokalizatsiyaning o'zi, qanchalik u yaxshi bo'lmasin, zamonaviy tinglovchini qoniqtirmaydi. Mukammal texnika asosiy maqsadga aylanmasligi lozim, uni ijodiy vazifalarga bo'ysindirish kerak.

Asar mazmunini ochib berish yaxshi rivojlanish qobiliyati, ritm va jummalarni his etishsiz amalga oshirilmaydi. Shuning uchun bu elementlarni shakllantirishga, tarbiyalashga katta ahamiyat beriladi. Matnli asar ustida ish olib borishdan oldin kuylanadigan mashqlar va vokalizlar bunday sifatlarni tarbiyalash uchun muhim manba hisoblanadi.

Bolajak ijrochini nafaqat asarning musiqiy shaklini tushunib etishga, balki uning mazmunini anglashga ham o'rgatish lozim. Bu jarayonda katta e'tiborni matn ustida ish olib borishga, aniq ravon kuylash nutqi, so'zlarning badiiy va chiroyli talaffuziga qaratish lozim. Chunki bunday mukammal ijro tinglovchi e'tiboriga asarning aniq mazmuni va g'oyasini yetkazib berishini ta'minlaydi. Talaba usluban rang-barang asarlarni ijro etishni o'rganishi lozim.

O'quvchi oldida qo'yilgan vazifalar mashg'ulotlarning boshida uning ijro imkoniyati darajasiga mos bo'lishi kerak. Ovoz shakllanishi ko'nikmalarining o'zlashtirilishi jarayonida vazifalar asta-sekin murakkablashib boradi. O'qish jarayonida vazifalar o'zi mukammalligiga erishib, talaba imkoniyatlariga mos kelishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T., O'zbekiston, 2017. – 488 b.
2. Matyoqubov O. Maqomot. “Musiq” nashriyoti, T., 2004.
3. Hamidov H. “O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi”. – T.: O'qituvchi, 1996 yil.
4. Musiq o'qitish metodikasi. Ma'ruzalar matni. – T.: TDPU, 2000yil
5. Qudratov I, Abdulkarimova E. “Musiq darslarida fanlararo aloqadorlik” Samarqand, SamDu bosmaxonasi, 2015yil.
6. E.Abdulkarimova. Ilm ham jamiyat Ajiniyaz atindagi Nokis mamleketlik pedagogikaliq instituti “Texnologik loyihalash- musiq mashg'ulotlarida samarali ta'lim”. 2019 (№1) ISSN 2010-720X

III SHO'BA
IQTIDORLI BOLALAR BILAN ISHLASHDA YANGI YONDASHUVLAR.
BOLALAR IQTIDORINI RIVOJLANTIRISH VA TASHXISLASH

MUSIQA VA UNING INSON AQLIY FAOLIYATIGA TA'SIRI

Abdirahmonov Erali Erkinovich
Navoiy Davlat Pedagogika institute
“Musika ta’limi va san’at” yo’nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Musika kishilar ko’nglining eng nozik torlarini chertib, ularning har birining o’zigagina xos bo’lgan his-tuyg’ularini uyg’otib, ma’naviy go’zallikka, mehr-muhabbatga undashi haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: Istiqloq, Vatan, musika, san’at, madaniyat, aql, tor, ashula, rubob, cholg’u.

Jamiyatimizning bugungi kunda jadallik bilan taraqqiy etib, iqtisodiy va siyosiy mavqeyi kundan-kunga ortib bormoqdaki, ijtimoiy sohada, ayniqsa ta’lim-tarbiyada ham yuqori darajalarga erishish, bilish, anglash va to’g’ri xulosalar chiqarishga olib kelmoqda. Shu jihatdan olganda bugungi kunda har bir insonning o’zini o’zi nazorati kuchaymoqda, chunki har bir sohaning shiddat bilan rivojlanib borishi bu XXI asr insoniyatining yutuqlaridir. Insonning bilish, anglash faoliyatida bir necha ma’noni bildiruvchi vaziyatlar duch keladiki, uni har bir shaxsning irodaviy, aqliy tafakkuri bilan tushunib, o’ziga nisbatan va o’zgalarga nisbatan zararli tomonlarini bartaraf etishni talab etadi. Bunda esa o’qituvchi-o’quvchi, ustoz-shogird, jamiyatdagi barcha boshqaruv hamjamiyatining roli, ya’ni davlatimizni boshqarib turgan Prezidentimizning butun O’zbekiston yoshu-qarilarni har tomonlama qo’llab quvvatlashi, yaxshi sharoitlar yaratib, bugungi yoshi-qarilarimizning bilish va tushunib yetishish qobilayatlarini ortib borishiga hamda yanada go’zal turmush kechirish yo’llarini izlab topishga undamoqdaki, har bir shaxs o’z vazifasini sidqidildan bajarishni eng birinchi turgan vazifa ekanligini har doim his qilib turmoqda.

Mustaqillik yillarida nafaqat yoshlar, balki katta yoshdagi kishilar ongida ham muhim ijobiy o’zgarishlar sodir bo’ldi. Xalqimiz o’zligini anglash, milliy qadriyatlarimizni e’zozlab, uni ijodiy boyitib, kelajak avlodga yetkazish kabi hislatlarni o’z ongiga tobora ko’proq singdirib boryapti. Musiqiy san’atning ajralmas qismi bo’lgan zamonaviy musiqaning yoshlar tarbiyasiga hamda kishilar ongining ma’naviy rivojiga ta’siri beqiyosdir. Musika kishilar ko’nglining eng nozik torlarini chertib, ularning har birining o’zigagina xos bo’lgan his-tuyg’ularini uyg’otib, ma’naviy go’zallikka, mehr-muhabbatga undaydi. Shunday ekan, biz ham musiqadan aynan shu maqsadlarda foydalanishimiz lozimdir. Yuqorida aytganimizdek, mustaqillik tufayli zamonaviy musiqaning barcha yo’nalish va janrlariga: xoh u estrada-simfonik ijro bo’lsin, xoh vokal-cholg’u, klassik, rep, jaz, pop musika bo’lsin... barchasiga bir xilda teng, erkin imkoniyat yaratildi. Hayot shuni ko’rsatyaptiki, faqat mazmunan boy, ijodiy yetuk bo’lgan, ma’lum bir progressiv maqsadga yo’naltirilgan haqiqiy san’at asarlarigina xalq mehriga sazovor bo’lib, o’z ijobiy bahosini olishi mumkin.

Mustaqilligimizning yana bir yutuqlaridan biri shuki, oldingi Sovet tuzumi davridagidan farqli ravishda hozirgi vaqtdagi milliy vatanparvarlik ruhidagi zamonaviy qo’shiqlarning ko’pchiligi shunchalik mazmunli va yoqimli kuylar bilan yaratilyaptiki, yoshlar ham, kattalar ham ularni nafaqat tinglashadi, balki sevib ijro etishadi. Hatto, ko’chalarda hirgoyi qilib yurishadi. Bundan xulosa shuki, xalqning ma’naviy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda

yaratilgan chuqur mazmunga, boy, chiroyli musiqa ega bo'lgan va mahorat bilan ijro etilgan har bir zamonaviy kuy-qo'shiq xalqning didiga mos tushadi, uni ma'naviy yuksaklikka undaydi. Ma'naviyati yuksak inson esa, albatta, o'z elini, millatini, vatanini sevadi va qadrlaydi.

Musiqa madaniyati fani o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlikni tarbiyalashga, ijodiy mahorat va badiiy didni o'stirishga xizmat qiladi. Musiqa madaniyati fanining bunday imkoniyatlari yangi avlod tarbiyasida, ularni komil inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartiga asoslangan musiqiy ta'limni shakllantirishda milliy musiqiy merosimiz, jahon musiqa san'ati bilan bir qatorda zamonaviy musiqa ham katta e'tibor berilgan, chunki yoshlarning ham aynan zamonaviy musiqa qiziqishlari juda kuchlidir. Musiqiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni nafaqat zamonaviy estrada, balki barcha janrlardagi zamonaviy musiqa bilan tanishtirish, ularni mustaqil idrok etib, tahlil etishga o'rgatish talab etiladi. Bu o'rinda zamonaviy musiqadan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish hamda o'quvchilarda yuksak badiiy didni, nafosat, milliy g'urur, vatanparvarlik hissini tarbiyalashda foydalanish tavsiya etiladi.

Zamonaviy musiqaning rivojlanishi har doim ham bir xil davom etavermaydi. Unda davr ruhiga mos ravishda goh u, goh bu yo'nalishlar yoki janrlar alohida tarzda rivojlanadi. Shuni aytib o'tishimiz kerakki, keng ma'nodagi zamonaviylik nafaqat shu davrda yaratilgan musiqa, balki o'tmishda yaratilgan va o'zining yuksak badiiy qiymati bilan hozir ham insonlarga estetik zavq bag'ishlayotgan mumtoz va boshqa musiqiy asarlarni ham o'z ichiga oladi. Shu bilan birga har bir davrning ham o'ziga xos musiqiy ifoda "tili" mavjuddir. Buni biz har bir davr musiqasining o'ziga xos kuy ohangi borligi bilan farqlashimiz mumkin. Masalan, "Mahallada duv-duv gap", "Maftuningman" kabi badiiy filmlar bilan hozirgi chiqayotgan filmlar musiqalari orasida sezilarli farq borligini ko'ramiz. Shuningdek, ba'zi yillarda zamonaviy musiqada "jaz" uslubi keng tarqalgan bo'lsa, ba'zan "rok", "metall rok" quloqni qomatga keltirgan. O'z davrida o'zbek maqomlari yoki Italiya, Germaniya operalari ham o'ta faol rivojlanish bosqichlarida bo'lgan, lekin ular hozir ham xalq orasida ko'plab muxlislariga, ijrochilariga ega, ya'ni zamonaviyligini saqlab qolgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har qanday janrdagi musiqa o'z zamonasining ruhidan kelib chiqqan holda, xalqning ruhiyatiga mos ravishda rivojlanib boradi. Demak, musiqa o'z xalqi ruhiga mos bo'lgani holda, boshqa xalqlar musiqasi bilan ijodiy uyg'unlashib, boyib, rivojlanib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Laylo B. Umurzakova, Bakhtiyor N. Umurzakov The use of gaming technologies in the musical education of primary school students.
2. Laylo Umurzoqova Baxtiyorovna "Роль культуры в человеке и обществе". 2021y
3. www.ziyonet.uz
4. www.lex.uz

TALABA TOVUSHIGA O‘QITUVCHINING TA‘SIR ETISHI VA DARSLARNI OLIB BORISH USULLARI

Abdurasulov D.

Taqrizchi: Omonov X.S. - JDPU dotsent.

Annotatsiya: Talabalarga vokal san‘atidan dars berish jarayonida ularning qo‘shiq kuylash faoliyatini amalga oshirishda ularning ovoz imkoniyatlarini xisobga olib boorish bugunni kunning eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib, ushbu maqolada talabaning tovushiga o‘qituvchining ta‘sir etish uslubi, yo‘li va vositalarini amalga oshirishning mazmun, mohiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlari: Talaba, vokal san‘ati, ovoz imkoniyatlari, o‘qituvchi, tembr, ovoz xususiyati, diqqat, ta‘lim, tarbiya, muammo, qo‘shiq, kuy, musiqa asari, rivojlanish darajasi, pirovard, uniyersitet, milliy madaniyatimiz.

Bugungi kunda yangi O‘zbekistonimizda amalga oshirilayotgan islohatlar va o‘zgarishlarning rivojini ta‘minlovchi insonni tarbiyalash murakkab jarayon bo‘lib, ushbu jarayon alohida diqqat etibor qaratishni talab etadi. Talabalarda yangi O‘zbekiston taraqqiyoti tushunchalarini shakllantirish bo‘lgan milliy g‘oyaning yoshlarimizning mustaxkam etiqodida mexnatga, kelajakga, bir-biriga mexrli va oqibatli bo‘lishlari milliy madaniyat va san‘atga munosabatlarida kreativlik yondashuvlarni namoyon bo‘lishiga erishish – bizning pirovard maqsadimizdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta‘kidlaganidek: “Bir haqiqatni xech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak, mamalakatimizda madaniyat san‘at taraqqiy etmasa jamiyat rivojlanmaydi. Xalqimizning rivojlanish darajasi, avvalo milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma‘noda madaniyat bu – xalqimiz jamiyatimiz qiyofasidir. Biz O‘zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz buni avvalo milliy madaniyatimizni rivojlantirishdan boshlashimiz lozim”ⁱ. Yangi O‘zbekistonda yuz berayotgan o‘zgarishlar barcha sohalaridagi kabi musiqa o‘qituvchilarining zimmasiga ham katta vazifalar yuklaydi. Bu omil Pedagogika universitetlarida amalga oshiriladigan ta‘lim jarayonlarida alohida e‘tibor qaratish lozimligidan dalolat beradi. O‘lkamizni tarannum etuvchi kuy va qo‘shiqlarning musiqa madaniyati darslarida va shuningdek uslubiy asoslarini o‘rganishda talabalarining ovoz tushunchalarini shakllantirishning asosiy vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Musiqiy ta‘lim yo‘nalishi talabalariga vokal ijrochiligi fanini o‘qitish jarayonida ularning ovoz imkoniyatlarini yo‘lga qo‘yish, ular ustida ishlash murakkab jarayon bolib, o‘qituvchidan katta ma‘suliyat va iqtidorni talab etadi. Shuning uchun o‘qituvchi har bir vokal ijrochiligiga oid darslarni olib borish jarayonida turli usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdiri. Birinchi o‘rinda talabani asarni yoki mashqni kuylash jarayonida vokal eshitishni tarbiyalash va mukammallashtirib borishda o‘qituvchining nazorat bilan barcha vokal sifatlarini rivojlantirish turadi. Talabada xonandalik jarangdorligini to‘g‘ri tashkil etish haqidagi tasavvurni ishlab chiqish zarur. Ta‘labalarga yakka xolatda dars berish doimo musiqa materiallari mashq, vokal va badiiy asarlar asosida olib boriladi. To‘g‘ri tanlangan musiqiy manba tovushni tarbiyalaydi. Mashq - bu bilim olishning asosiy vositasi.

Ularni qo‘llash talabalar tovushida uchraydigan va tuzatishni talab etadigan kamchiliklarni yo‘qotish vositasi bo‘lib xizmat qilishi kerak. Ovozga sayqal berish mashqlari - mashqdan badiiy asarlarga o‘tish uchun foydali manba hisoblanadi. O‘qituvchi tomonidan katta

odob saqlagan holda badiiy pedagogik manba tayyorlash talab etiladi. Manbalarni musiqiy, vokal - texnik va ijro qiyinchiliklarini e'tiborga olib tahlil etish - o'qituvchining zaruriy sifati hisoblanadi. Keng ko'lamli musiqiy pedagogik manbalarni egallash va ularni qo'llay bilish - pedagogik faoliyat muvaffaqiyati talablaridan biri. Asarni muvaffaqiyatli ijrosi uchun o'rganish va ashula aytish usuli katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchi asarlar ustida ishlash uslubini keng kulamli va turli -tuman repertuarlarni tezroq o'zlashtirib olishi uchun o'rganishi kerak.

Tovush sifatini ko'zlangan natijada tarbiyalashda ovozni ko'rsata bilish katta ahamiyat kasb etadi. Ko'rgazmali qurollar ko'ra oladigan va sodda bo'lgani uchun ham kerakli ko'nikmalarni shaxsan topishga majbur etadi. Buning uchun o'qituvchining o'zi ham yaxshi ovozga ega bo'lishi lozim, o'quvchi esa - taqlid qobiliyatiga ega. Biroq taqlid kuylashni o'rganishda majburiy hisoblanmaydi. Masalan, Lamperti xonanda bo'lmagan, biroq buyuk xonandalarni tarbiyalagan.

Muskul usullarini ko'rsatish va tushuntirish o'qituvchi amaliyotida katta o'rin egallaydi. Muskul usuli doim muayyan narsalarni qamrab oladi, doim to'xtata oladi yoki tovush apparatidagi ishlarning qaysidir qismini o'zgartiradi. O'quvchi avval nima qilishini tushunib oladi, keyin esa bu harakatlarni ashula aytish paytida tushungan holda qullashga harakat qiladi. Muskul usulining qimmatligi ham mana shundadir. Nutq orqali tushuntirish, so'z ahamiyati - ovoz tuzilishi haqidagi ishonchli tushunchani tarbiyalashda o'ta muhim omil sanaladi. Ashula aytishni o'rganishda nutq orqali tushuntirish juda muhim, negaki tovush apparati ishida sababli - kuzatuvli o'zaro hamkorlikni tushuntiradi va uning ishini bir muncha aniq tushunib yetishga imkon beradi. Tovush va muskullarni his etishni nutqiy tushuntirish har doim ham o'zini oqlayvermaydi, o'qituvchi ko'pincha qiyoslashga, obrazli ifodalashga harakat qiladi. Agar ular o'quvchilarga tushunarli bo'lsa qo'llaniladi va kerakli javob harakatlarini keltirib chiqaradi.

Talabalar bilan ilk saboqlar olib boorish jarayonida yangi talabalar bilan tanishishda uning imkoniyat va qobiliyatini (nimaga qodirligini) tushunib olish o'qituvchining birinchi darajali vazifalaridan biri hisoblanadi. Talabaning ashula aytishi uchun unga ma'lum bo'lgan mashqlardan berish kerak. Boshlanishida betaraflik holatini ushlash kerak, negaki talabaning ovoz imkoniyatlarining sifatlari jihatini ko'rsata olish. Daralar 20 - 25 daqiqadan ortmasligi lozim. Imkoni boricha daralar oralig'ida tanaffusdan foydalanish kerak bo'ladi. Mashg'ulotlarni o'rta diapazonda, chetki notalarni qamrab olgan holda o'tkazish kerak bo'ladi. Aynan shu xonandaga mos optimal tovush kuchini topa bilish kerak. O'tkaziladigan mashqlar murakkab bo'lmasligi kerak. Mashqlarning musiqiy bajarilishini talab etish nazarda tutiladi. Eng birinchi tadbirlardan biri o'quvchi bilan birgalikda fonitar -vrach qabuliga tashrif buyurib, uning tovush apparati baholanadi va ayni vaqtdagi holati aniqlanadi. Uning bahosi tovush turini aniqlash uchun foydali bo'lishi mumkin.

Talabaning ovozini aniqlash jarayonida, uning ovoz imkoniyatlari, yo'ni tembr, tassitura, diapazon, o'tish notalari va primar jarang kabi belgilar yig'inidiga ko'ra aniqlanadi va shu sababli vokal ishi ovoz va musiqiy imkoniyatlar bilan tanishtirishdan boshlanadi. Shundan so'ng talabaning tembrini aniqlanadi. Xar bir o'g'il va qiz bolalarning ovozlarini kuylatish orqali ularning tembr xususiyati aniqlanib, aloxida - aloxida ovoz imkoniyatiga qarab repertuar aniqlanadi. Tembr - ovoz bo'yog'i (yumshoq, tez, quloq, tarangli, barxat va shu kabilarga etibor beriladi. Tembrga ko'ra har bir ovozga tovushlar bo'yoq tipiga ko'ra rang topish mumkin, iliq va sovuq tonlardan foydalanib. Masalan: Bolalar so'roviga ko'ra tovush ranga belgilashadi ko'p yillar davomida aynan bir xil ranglar belgilangan.

fa– sariq (iliq); sol– ming (Mayin); lya– qizil (barqaror, quyuq); si– havorang, deyarli to‘q ko‘k (uchuvchan, ba‘zan irmoqqa o‘xshatiladi) do 2 - oq,

mi 1 – qavorang, ba‘zan nastarin rangi (sovuq) re 1 - jigar rang (bir ovozdan) – (quyuq, iliq). do 1 - qora

Talabani Diapazonini aniqlash tovushlar yig‘ilish bilan belgilanib, uni ovoz bilan kuylash mumkin (o‘quvchi diapazonini aniqlash). Diapazon - chekka yuqori notadan chekka past notagacha masofada ko‘rib chiqiladi. Odatda ishchi (mashq) diapazoni konsert diapazonidan kengroq bo‘ladi.

Tessitura – asar tovushlarining diapazonga nisbatan yuqori joylashuvi.

Tessitura turining asardagi diapazon birinchi qilishning balandligi belgilaydi. Yuqori baland tovushlar bo‘lsa, demak tessitura baland va sh .k.

Talabani diapazonini mashqlarni aytirish orqali aniqlash mumkin: bosqichli joylashgan notalar (yaxshisi bitta unli tovushda jarangli undoshlar bilan) uch ovozliliklar (trezvuchie) kuylash. Diapazonni belgilash ovozning o‘rta uchastkasidan, sekvension pastga va yuqoriga yarim tonlar bo‘yicha boshlash kerak.

Talabani diapazonini belgilashda o‘tish notalari, yani ovoz xarakteri, nafas yo‘llari orqali aniqlanadi. O‘tish notalari, jarang xarakteri, bosh va ko‘krak notalari hajmi ovoz tilini aniqlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ovoz imkoniyatlari bilan tanishishda va diapazonni belgilashda erkin va tabiiy jarangga ega bitta yo bir nechta tovushni almashtirish mumkin. Bu jarangdorlik primar jarangdorlik, bunday jarangli tovushlar - primar tovushlar deyiladi. Kuylash jarayonida ovoz tembri va tili ularda yaxshi namoyon bo‘ladi. Shuning uchun talabani tabiiy tembrni aniqlash – o‘qituvchining birinchi galdagi vazifasi bo‘lib hisoblanadi.

M.I. Glinka kuylashga o‘rganishni primar tovushlardan boshlab, ularning jarang sifatini diapazonning barcha tovushlariga o‘tkazishni taklif qiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchi Vokal va musiqy imkoniyatlar bilan tanishgandan keyin yakka tartibda ish olib boradi. Bo‘lajak o‘qituvchi talaba bilan ishlash jarayonida registrlarga olohada etiborni qaratib, talaba qaysi oktava oralig‘ida musiqqa asarini kuylashini registr orqali bilishi kerak bo‘ladi. Musiqada Registrlar to‘rt gurixga bo‘linadi:

Past registr: kichik, katta vash .k. oktavalari (erkaklar ikki registrga ega ko‘krak va faluet).

O‘rta registr: I oktava (sin - re-2)(ko‘krak va bosh ovozlari birlashishi patsnuial uchtastkasi)

Yuqori registr - II oktava, ayollar balandroq kuylashi mumkin (Ayollar ko‘krak, o‘rta (midium - mixt) va bosh registrga ega)

4.Super bosh registri - ayollar diapazoni to‘rtinchi o‘tish uchastkasida joylashgan uchastok, bunda odatiy bosh ovozidan ketish, shuningdek erkinlik tuyg‘usi seziladi. qizlarda si - dan va yuqori kuzatiladi.

Bundan tashqari talaba bilan ishlash jarayonida qo‘shiq yoki biror musiqqa asarini kuylashda eshitib kuylashga erish muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabani kuylash paytidagi tovush hosil qiladigan harakatlar bilan tovush holatda tasavvur aloqasi vokal eshitish asosidir. Bu tushuncha shuningdek, boshqa hislar: vibratsion, rezonator va to‘qima osti boshi hissini ham o‘z ichiga oladi.

Talabani qo‘shiq kuylash xolatidagi vokal eshitish deb nafaqat to‘g‘ri xonandalik jarangi xususiyatlarini sezish, ularni noto‘g‘risidan farqlash, balki ovoz apparati ishini sezish, boshqa xonanda u yoki bu jarangda nima qilayotganini mushaklarda his qilish tushuniladi. Nafaqat ovoz jarangini tinglash, balki uning kuylash chog‘idagi ishini aniq tasavvur etish, ovoz

apparatida nima bo'layotganini sezish - har bir xonanda va pedagog egallash lozim bo'lgan vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. И.А.Каримов, “Баркамол авлод орзуси”. Т.: Узбекистон 1999 й.
2. Sh. M. Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birga barpo etamiz. T. O'zbekiston. 2017 yil.
3. О.Иброхимов, “Муסיқа” 4-синф учун дарслик. Т.: 2011 й.
4. Р.Турсунов, “Ашула ва рақс ансамбли билан ишлаш услубияти”, КХК коллежлари учун дарслик. Т.: 2002 й.
5. Omonov X.S. Vokal va zamonaviy musiqa. T. 2020 y.

TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA MUSIQA SAN'ATI HAMDA MAQOMNING MA'NAVIY-MADANIY O'RNI VA AHAMIYATI

Abdurazzoqova Mehribon Jaloliddin qizi.

J.D.P.U. “Musiqqa madaniyati” fakulteti II bosqich talabasi

Qo'ziyeva Feruza Baxtiyor qizi

J.D.P.U. “Musiqqa madaniyati” fakulteti II bosqich talabasi

Mirzaqulov Alham Bahriddin o'g'li

J.D.P.U. “Musiqqa madaniyati” fakulteti II bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkurmaqolada ta'lim-tarbiya jarayonida musiqa san'atining ma'naviy-madaniy kamolotimizdagi o'rni va ahamiyati shuningdek xalqimiz ijodiyotidagi badiiy musiqiy asarlar hamda, mumtoz musiqamiz xususida so'z yuritilgan

Kalit so'zlar: Ta'lim-tarbiya, an'analar, mumtoz musiqa, she'riyat, kuy, ohang, Shashmaqom.

Mustaqil mamlakatimizda ta'lim-tarbiya ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish milliy va umum insoniy qadriyatlarning barcha imkoniyatlaridan oqilona hamda samarali foydalanishni taqozo etadi.

Mumtoz an'analar uzoq davrlar davomida rivojlanib, falsafiy tafakkurni umumlashtirgan holda, hikmatli so'zlar, xalq maqollari, ayrim aytim hamda laparlar, yalla hamda maqom taronalari shaklida saqlanib, ma'naviy boyligimizning yorqin namunasi sifatida o'z ahamiyatiga ega ekanligini kuzatamiz

Mustaqillikka erishganimizdan to hozirgi davrgacha ta'lim-tarbiya sohasida, milliy axloq-odobni qayta tiklash, milliy urf-odatlar va an'analarni, qadriyatlarimizni yanada rivojlantirish xususida juda keskin burilishlarni amalga oshirilganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Ayniqsa yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga bo'lgan qarashlar, davlat siyosatining ustivor maqsadlariga aylanib kelmoqda.

Shu sababdan mumtoz va zamonaviy milliy madaniyatimizning eng noyob namunalaridan bahra olishga imkon berib kelayotgan madaniyat sarchashmalarimizni asrashimiz lozim. Davlatimizda musiqa, tasviriy, monumental va amaliy san'at sohalarida katta muvafaqqiyatlarga erishganligi tasodif emas. Milliy va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalarining targ'ib qilish va ommalashtirish yosh avlodni, hozirgi yoshlarimizni ma'naviy tarbiyalashning asosi bo'lib kelmoqda.

Jahon xalqlarining ilg'or madaniyati milliy ma'naviyatimizni yanada yuksak darajada ko'tarishda ijobiy ta'sir etishi mumkinligi haqida inkor etib bo'lmazligini isbotlab kelmoqda. Ta'lim-tarbiya jarayonida boshqa xalqlar merosining ijobiy tomonlaridan qanchalik foydalanmaylik, baribir, o'zbek xalqining milliy musiqa madaniyatini yoshlar tarbiyasiga qaratilgan barcha omillarining o'ziga xosligi ma'naviy-madaniy kamolotimizning asosi bo'lib qolishimizni ta'kidlash joiz. Bu masalada o'tmishdan bizga meros bo'lib kelgan xalq pand-nasihati an'analari muhim kasb etib kelayotganining guvohi bo'lamiz.

Ma'naviy-madaniy boyliklar yozma manbalarda, tosh va taxta bitiklarda shuningdek, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib va boshqa allomalarning mumtoz asarlarida o'z aksini topib kelmoqda. Shu jumladan mumtoz meros namunalarida ham ta'lim-tarbiyaning nazariy va amaliy masalalari bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina muhim muammolar ilgari surilgan. Bular hozirgi kunimiz uchun ham katta ahamiyatga ega bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy omillar hisoblanadi.

Farobiyning «Fozilodamlarshahri» nomli asarida o'rta tashlangan masalalarichidam yoshlarning ta'lim-tarbiyasining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari o'z aksini topgan shuningdek bir qatorshart-sharoitlari, xalqning adolatli jamiyat va uning ma'naviy-estetik, falsafiy-axloqiy talablariga xos bo'lgan qonuniyatlari keng yoritilgan. Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom at Termiziy, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Baxovuddin Naqshband, Xo'ja Axror Valiykabidahlarning axloqiy, estetik ta'limotida barchanihalollik, poklik, mehnatsevarlik va insonparvarlikka chorlovchi g'oyalar asosiy masalalardan hisoblangan.

O'zbek mumtoz she'riyatida ham axloq-odob masalasining falsafiy muammolarini hoyatda keng o'rin olganligini ko'ramiz. Navoiy, Bobur, Mashrab, Nodira va boshqalar boblarning mumtoz g'azal va she'riyatida to'g'rilik, mehnat sevarlikni insoniy mehr-muhabbatni ulug'lovchi falsafiy-didaktik fikrlarni kuzatishimiz mumkin. Shu bilan birvaqtning o'zida badiiy she'riyat amaldagi mohiyatini badiiy musiqa merosi bilan chambarchas, hamkorlikda hamda yonma-yon olib borganligini e'tirof etishimiz lozim.

Xalqimiz tomonidan ijodetilgan badiiy-musiqiy asarlar o'z navbatida badiiy she'riyatsiz kamol topalmasligini to'latushungan ijodkorlar bui kki buyuk san'at merosida bahramand bo'lishlikka barchamizni undagan holda, har bir asarning tub negizida go'zallikka, hayotiy barkamollikka chorlagan.

Ayniqsa, bu masalada yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga bo'lgan e'tabor birinchilardan hisoblanadi. Shuni e'tirof etish joizki, Hazrat Navoiy yosh shoir kunlarida iqtidor hamda iste'dodga musharraf bo'lgan yoshlarning qiziqishlariga qarab, musiqiy ohangni sezmagani hamda uning amaliyotidan bexabar bo'lgan va o'zini shoir deb ataydiganlar shoir emaslar. «Musiqasi sirlari qalb sirlaridir» deb ma'lum bir tarbiyaviy fikrlarini bildirib o'tgan

Musiqiy ohanglar orqali inson go'zal she'r va kuylardagi bir-biriga mutanosiblikni ko'radi, musiqiy ijro orqali inson qalbining ruhiy kechinmalarini sezadi, go'zallikka bo'lgan havasini yuksaltiradi. Albatta, bunday ta'sirchanlik xususiyatiga bo'lgan havasni yuksaltiradi, mumtoz kuy hamda qo'shiqlarimiz yoshlarimizning ijodiy barkamollikka intilishlarini, kelajakdagi muvafaqqiyatlarga erishish imkoniga muyassar bo'ladi.

Azaldan tibbiyotda davolashning uch turi mavjud bo'lib, so'z, dori, tig' hisoblanib, bundan tashqari shuni ham alohida ta'kidlab o'tish joizki musiqiy cholg'ularbilan davolanish ham qadimdan mavjud bo'lgan va natijasiesha hamma turlardan samarador ekanligi ham qayd etib o'tilgan. Mumtoz musiqa maqom kuylari, jozibador qo'shiq hamda sarbaland kuylar inson salomatligining garovi bo'lib qoladi. Aslida musiqiy kuylar bilan davolash uslublari qadimdan turli allomalarning hayotiy tajribasiga aylanib kelganligini ham aytib o'tishjoiz.

Xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi bo'lgan milliy maqom san'ati o'zining qadimiy tarixi, teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an'analari bilan ma'naviy hayotimizda alohida muhim o'rin egallaydi.

Asrlar davomida ulug' shoir va olimlar, mohir bastakorlar, hofiz va sozandalarning mashaqqatli mehnati va fidoiyligi, ijodiy tafakkuri bilan sayqal topib kelayotgan ushbu noyob san'at nafaqat yurtimiz va sharq mamlakatlarida, balki dunyo miqyosida katta shuhrat va e'tibor qozongan. Maqom san'atining gultoji bo'lgan "Shashmaqom" YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida e'tirof etilgani hamda uning Rerezentativ ro'yxatiga kiritilgani buning yaqqol tasdig'idir PQ-3391-son qaroriga ko'ra o'zbek maqomini yanada rivojlantirish uchun ko'plab farmonlar nizomlar qabul qilindi



Ayniqsa mumtoz musiqa merosimizni sarchashmasi bo'lgan – «Shashmaqom» va uning turkumini tashkil etgan taronalarni alohida ta'kidlaymiz. Shu bahamda qismlardan o'rin olgan musiqiy asarlar xalqimizning ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismini tashkil etadi. O'z vaqtida notali yozuvlarga tayangan holda chop etilgan «Shashmaqom» turkumlari barcha professional hamda an'anaviy havaskorlik jamoalarining kundalik faoliyatida salmoqli o'rin egallab kelayotganligi, bu meros mumtoz musiqa namunalarini o'z vaqtida yosh iste'dod egalari tomonidan ijro etilishi albatta musiqa shinavandalari, ijodkor yoshlarning estetik dunyo qarashini shakllantirishga hech shubha yo'q. Ishonchimiz komilki, o'rta hamda kasb-hunar kollej yoshlari, oliygoh hamda musiqa va san'at oliygohlarida tahsil olayotgan bo'lg'usi san'at ahlining o'quv-tarbiyaviy rejalari hamda dasturlari damumtoz maqomlar ijrosi alohida o'rin egallaydi. Mumtoz musiqiy meros namunalari yoshlarning estetik kamolotini shakllantirishda bosh omillardan biriga aylanib bormoqda.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, bu borada ya'ni, yoshlarning estetik ta'lim tarbiyasini shakllantirishda o'tmishdagi ajdodlarimiz dan bizgacha yetib kelgan mumtoz meros namunalarini mukammal o'rganish hamda yoshlarimizning kamolotga yetishishlarida madaniy merosimizga bo'lgan qiziqish hamda diqqat e'tiborni qaratish harbir ta'lim-tarbiya tizimida faoliyat ko'rsatayotgan murabbiy, ustozlarning shuningdek musiqa o'qituvchilari hamda madaniyat xodimlarining kasbiy vazifalari ekanligini unitmaslik lozim.

Ma'naviyatdan san'atdan uzilgan har qanday go'zallik oxir-oqibat tupsiz jarlikdir .(A Mehribon)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. "Yuksakma'naviyat – yengilmaskuch" – T.: "Ma'naviyat", 2011-yil
2. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Barkamolavlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T., 1998-yil.
3. Hasanova Navbahor Hamraqulovna. (2020). Bo'lajak o'qituvchilarning o'zbek mumtoz musiqasida kasbiy malakasini oshirish muammolari. *Xalqaro ilg'or fan va texnologiyalar jurnali* , 29 (08), 3489-3495. [Http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558](http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558)
4. Hasanova, Navbahor. (2020). METHODS AND WAYS TO DEVELOP THE MUSICAL FEELINGS OF STUDENTS IN TTTE LESSONS OF MUSIC EUITURE. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(42). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5579
5. Khasanova, Navbakhor (2020) "The role of music lessons in the formation of national and intercultural competence in students." *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*. Vol.2020 :Iss.2. Article 15 :<https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss2/15>
6. N. Hasanova O'zbek milliy musiqa merosi taraqqiyotida xotin-qizlarningo'rni. Актуальный вызыви современной науки IX xalqaro ilmiy konferensiya 26-27 yanvar 2017 yil.
7. Ho'jayeva M. "Umum ta'lim maktablarida musiqa o'qitish metodikasi" O'z.D.K.tahrir-nashriyotbo'limi. Toshkent., 2008-yil.
10. Xoliqov A. "Pedagogikmahorat". "Iqtisod-moliyanashriyoti", Toshkent., 2011-yil.
11. Muminova Muqaddas Riskulovna Development And Current Status Of Uzbek Pop Music In Modern Approaches And Innovations Of Teaching The Science Of Music Culture *International Journal of Advanced Science and Technology* Vol. 29, No. 8, (2020) <https://t.me/joinchat/> - Music teacher, <https://infourok.ru> - music lessons
12. Muminova Muqaddas Riskulovna *International Journal of Mechanical Engineering*. The Innovative Technologiyes Of Teaching In Musical Edukational Establishments1764-1767- betlar. 2022- йил.
13. Muminova Muqaddas Riskulovna *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*. THE ROLE OF SPORT ACTIVITIES, GAMES AND COMPETITIONS IN THE NURTURE OF 6-7 YEARS OLD CHILDREN <https://uzjournals.edu.uz/tziuj68-78betlar> 2022
14. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlarda pedagog kreativligi. "Yangilanayotgan O'zbekistonda fan, ta'lim va innovatsiya uyg'unligi" mavzusidagi 6-son 2-qism Respublika ko'p tarmoqli ilmiy konferensiyasi VIII bo'lim Toshkent 2021. 677 bet. Udk. 001.895 (575.1).
15. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlar o'qituvchisining kreativligi. Педагогические и лингвопсихологические особенности развития, формирования и становления личности врача. Сборник тезисов Международная конференции. СамГМИ, Самарканд 5 мая 2021 год
16. Urinova S.Sh. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishning nazariy asoslari. "The best innovator in science" xalqaro maqolalar tanlovi

to‘plami. Organized by Innovative Academy. Tashkent February 5, 2022. Pg 811.
<https://zenodo.org/record/5979621#.YpC2PKhBxD8>

17. Yusupova N. “Musiqasavodi, metodikasvaritmika”. “Musiqqa” nashriyoti. Toshkent., 2010-yil

MADANIYAT VA SAN’ATNI RIVOJLANTIRISHGA DOIR ISLOHOTLARNING TA’LIM MUASSASALARI FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI

Abdusamatov A. A.

JDPU Musiqa ta’limi va san’at yo’nalishi

II bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada “Madaniyat va san’at sohasini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida” gi 112-sonli Prezident Qarorining ijrosi sohadagi o‘zgarishlarga ijobiy ta’siri borasida so‘z borib, Qaror ijrosi amali tahlillari bo‘yicha fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Madaniyat, san’at, yoshlik, cholg‘u, e’tiqod, samara, jamoa, lektoriy, ijrochilik, ommaviylik.

Keyingi yillar yurtimizda amalga oshirilayotgan izchil islohotlar, madaniyat va san’at sohasida ham yangicha mazmun mohiyat kasb etdi. So‘nggi besh yilda ilk marotaba o‘tkazilgan xalqaro festivallar, madaniyat va san’at maskanlarining barpo etilishi, beshta muhim tashabbusning amalga oshirilishi, yangi iste’dodlarning kashf etilishi, xalqaro miqyosdagi tanlov va festivallardagi ishtiroklarning yo‘lga qo‘yilishi buning yorqin dalilidir. Joriy yilning 2-fevral sanasida qabul qilingan Prezident qarori esa amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqishi shubhasiz. Mazkur qarorga muvofiq uzoq hududlar ham sifatli madaniy xizmat bilan qamrab olinadi. Madaniyat markazlari, teatrlarning moddiy texnik bazasi mustahkamlanadi. Ta’lim maskanlarida musiqa asboblari chalish orqali yosh avlodning san’atga oshno bo‘lib o‘sishi ta’minlanadi. Yoshlar o‘rtasida turli yo‘nalishlarda festivallar, konsert tomosha tadbirlari tashkil etilib, g‘oliblar taqdirlanadi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2017-yil madaniyat va san’at sohasi rahbarlari bilan uchrashuvda shunday ta’kidlagan edi: “Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak: mamlakatimizda madaniyat va san’at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Xalqimizning rivojlanish darajasi avvalo milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma’noda, madaniyat — bu xalqimiz, jamiyatimiz qiyofasidir. Biz O‘zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz, buni avvalo milliy madaniyatimizni rivojlantirishimizdan boshlashimiz lozim”¹.

Darhaqiqat, insoniyat ma’naviyati va tafakkuri rivojlanishi madaniyat va san’atsiz kechmaydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 26-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori mazkur soha vakillarining, keng ko‘lamdagi san’at ixlosmandlarining uzoq kutilgan orzulari, istaklarini ro‘yobga chiqarishga katta imkoniyat, sharoit yaratdi. Xo‘sh, sohadagi islohotlar, farmon va qarorlarning ahamiyati, ijrosi qanday rejalarda, amalga oshirilayotgan ishlarda namoyon bo‘lmoqda?

Har bir insonda tafakkur, fikrlash erkin, mustaqil bo‘lishi kerak. Ommaviy tarzda bir xil fikrlash halokatli. Bunda ijod ham, rivojlanish ham bo‘lmaydi. Ana shu ma’noda o‘ylamasdan taqlid qilish milliy qiyofani, o‘zlikni unutishga olib keladi. Ayni paytda dunyo adabiyoti, madaniyat va san’atidagi ilg‘or, umuminsoniy qadriyatlarga yo‘g‘rilgan g‘oyalarni o‘rganish,

o'zlashtirish talab etiladi. Har qanday soha boshqalaridan ajralgan holda yakka o'zi rivojlana olmaydi. Bugun O'zbekistonda milliy madaniyat va san'atni rivojlantirish masalasiga mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning uzviy va ajralmas qismi sifatida qaralyapti. Negaki, madaniyat va san'at millat taraqqiyoti yo'lidagi nihoyatda ahamiyatli va o'ta nozik soha. Chunki bu soha jamiyatning yuragiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladigan, tilagiga ko'chadigan tuyg'ularni tarbiyalaydi. Sohada tubdan yangilanish uchun imkoniyatlar kengaygani barobarida milliy madaniyatimizni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan kamchiliklar ham talaygina. Masalan, madaniyat va san'at muassasalari, ijodiy uyushma va birlashmalarning huquqiy maqomi, ijodkorlarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan yagona huquqiy baza yo'q, yoki yosh ijodkorlarga ta'lim-tarbiya berish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasida tayinli tizim mavjud emas edi. Busiz madaniyat sohasida yagona davlat siyosatini samarali olib borish, aholining madaniy ehtiyojlarini qondirish, madaniy xizmatlar sifatini oshirish qiyin vazifa.

Ushbu masalalarni ko'zda tutgan holda, mazkur qarorda aholi, ayniqsa, olis hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarga madaniy dam olish xizmatlari ko'rsatish darajasini oshirish, respublikaning barcha hududlarida teatr, sirk va boshqa turdagi ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarini tizimli ravishda yo'lga qo'yish, madaniyat va san'at sohasida iste'dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo'llab-quvvatlash, ta'lim muassasalarini milliy cholg'ular, musiqa darsliklari, notalar to'plamlari va o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlashning yaxlit tizimini yaratish maqsadida, shuningdek, 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq, 2022-2023 o'quv yilidan boshlab ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilangan bo'lib, tizimli ravishda vazifalarga amalga oshiriladi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarga milliy musiqa cholg'ularidan kamida bittasida kuy ijro etish ko'nikmalari o'rgatiladi hamda bu haqda ularning ta'lim to'g'risidagi hujjatiga (shahodatnoma) tegishli qayd kiritiladi;

- musiqa fani uchun haftasiga belgilangan bir o'quv soati hamda unga qo'shimcha ravishda har hafta milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etish amaliy to'garaklari va fakultativ darslari o'tkaziladi;

- milliy cholg'ulardan kamida bittasida, 2023-2024 o'quv yilidan boshlab esa kamida uchtasida kuy ijro etish mahoratiga ega bo'lish musiqa fani o'qituvchilari uchun majburiy hisoblanadi;

- musiqa fani uchun ajratilgan o'quv soatlari doirasida "Hayotimga hamrohdir cholg'u" shiori ostida cholg'u ijrochiligi dars mashg'ulotlari yo'lga qo'yiladi;

- notalar to'plamlari va maxsus musiqiy adabiyotlar bilan ta'minlash umumta'lim maktablarini darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash tizimiga kiritiladi;

- o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida ularning qiziqishlariga ko'ra milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etish, tasviriy va amaliy san'at, hunarmandchilik yo'nalishlarida amaliy to'garaklar (keyingi o'rinlarda — amaliy to'garaklar) tashkil etiladi;

- amaliy to'garaklar rahbarlariga "Barkamol avlod" bolalar maktablari to'garak rahbari uchun belgilangan bazaviy tarif stavkalari qo'llaniladi;

- amaliy to'garaklarni olib borish hisobi "Elektron kundalik" dasturi orqali amalga oshiriladi hamda har chorakda to'garak ishtirokchilarining hisobot konsertlari tashkil qilinadi;

- musiqa san'ati bo'yicha professional ta'lim hamda oliy ta'lim to'g'risidagi hujjatga ega bo'lgan, kamida 3 ta milliy musiqa cholg'ularida mahorat bilan kuy ijro eta oladigan mutaxassislarni asosiy ish joyidan bo'sh vaqtida u erdagi mehnatga haq to'lash shartlarini saqlab qolgan holda o'rindoshlik asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalari musiqa fani o'qituvchisi va musiqa yo'nalishidagi to'garak rahbari lavozimiga to'liq stavkada ishga qabul qilishga ruxsat beriladi;

- musiqa fani o'qituvchilarini kamida uchta milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etishga o'rgatish xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi doirasida amalga oshiriladi, bunda qayta tayyorlash (malaka oshirish) kurslarida mashg'ulot olib borish uchun madaniyat va san'at sohasi vakillari shartnoma asosida jalb etiladi.

Umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim muassasalarida O'zbekiston davlat filarmoniyasi va uning hududiy bo'limlari tomonidan boshqa madaniyat muassasalari bilan hamkorlikda lektoriy konsertlarini o'tkazish yo'lga qo'yiladi;

- lektoriy konsertlari ta'lim va madaniyat muassasalarida tashkil etiladi hamda o'quvchi va talabalarning musiqiy madaniyati va savodxonligini yuksaltirishga, estetik didi, dunyoqarashini kengaytirishga va musiqani his qilishiga qaratilgan amaliy mashg'ulotlardan iborat bo'ladi;

- lektoriy konsertlarining o'tkazilganligi haqida tegishli ta'lim, madaniyat muassasasi, tuman (shahar) hokimligi yoki boshqa mas'ul tashkilot rahbari va O'zbekiston davlat filarmoniyasi bosh direktori tomonidan dalolatnoma tuziladi;

- lektoriy konsertlarini o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar mahalliy budjet mablag'lari (umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida) va budjetdan tashqari mablag'lar (oliy ta'lim muassasalarida) yoki qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan dalolatnoma asosida moliyalashtiriladi;

Madaniyat vazirligi hay'ati qarori bilan umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim muassasalarida madaniyat va san'at sohasidagi davlat mukofotlari bilan taqdirlangan ijodkorlar rahbarligida ularning "mahorat maktablari" tashkil etiladi;

- "mahorat maktablari" rahbari bo'lgan ijodkorlar Madaniyat vazirligining budjetdan tashqari jamg'armasi (keyingi o'rinlarda — Jamg'arma) mablag'lari hisobidan asosiy ish joyi orqali har oyda bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh baravari miqdorida qo'shimcha moddiy rag'batlantirib boriladi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari, bolalar musiqa va san'at maktablari, madaniyat markazlari 2022 — 2024-yillarda reja-jadvalga muvofiq 3 tadan milliy musiqa cholg'ulari to'plamlari bilan ta'minlanadi;

- milliy musiqa cholg'ulari to'plamlari bilan ta'minlash xarajatlari O'zbekiston Respublikasi respublika budjeti va tegishli mahalliy budjetlardan teng ulushlarda ajratiladigan mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi;

- milliy musiqa cholg'ulari to'plamlari Madaniyat vazirligi va Xalq ta'limi vazirligining hududiy boshqarmalari tomonidan markazlashgan tartibda xarid qilinadi va tegishli davlat muassasalariga yetkazib beriladi, bunda xarid komissiyasining tarkibiga milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro eta oluvchi yuqori malakali mutaxassislar kiritiladi, cholg'ular ular tomonidan sinab ko'riladi.

O'zbekistonning madaniyati mangulikka daxldor, degan asosli jumlada biz madaniy qadriyatlar va madaniy meros obyektlarining ulug'vorligini, avlodlarimiz tarixini eslatuvchi

asosiy manba ekanligini tushunamiz. Ushbu qadriyatlarimiz va madaniy meros obyektlarimiz yoshlar tarbiyasini mukammal rivojlantirish, ular dunyoqarashini o'zgartirib, globallashuv zamonida tubanlikka tushib qolmasliklarida asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Mamlakatimiz Prezidenti O'zbekistonda keng ko'lamli demokratik islohotlar asosida yangi Uyg'onish davri — uchinchi Renessansning poydevorini shakllantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish zaruriyati, yangi milliy mafkuraga aylanishi, xususan, madaniy merosimizning xalqaro andozalarga mos ravishda saqlanishini ta'minlash uchun soha mutaxassislari nimalar qilishimiz kerakligi haqida bezovta bo'lmoqda, qayg'urmoqda. Har bir millat o'z madaniyat va san'atining qudrati bilan jahon tamaddunidan mustahkam joy egallaydi. Aynan mazkur soha taraqqiyoti mamlakatning kuch va salohiyatini, xalqning qadr qimmatini, dunyodagi obro'-e'tibori hamda maqomini namoyon etuvchi muhim omillardan biri sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori 26.08.2018-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4038-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi". 28.11.2018-yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori. 26.05.2020-yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Opera va balet san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. 27.12.2021-yil.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-112-sonli Qarori. 02.02.2022-yil
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6000-sonli Farmoni. 26.05.2020-yil.
7. Internet saytlari: <https://uzlidep.uz/uz/news-of-uzbekistan/565>

YOSH AVLODNI O'TMISH QADRIYATLARIMIZGA HURMAT RUHIDA TARBIYALASHNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

Baymanova F.A. JDPU Musiqa ta'limi kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarga ta'lim – tarbiya berish orqali maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa o'qitish metodikasi va uning ilmiy axamiyati, mazmuni va uni o'rni, mohiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Musiqa o'qitish metodikasi, ta'lim, tarbiya, musiqa, uchinchi ming yillik, dastur, maktabgacha ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, ba'diy ijodkorlik, go'zallik, musiqa asari, idrok.

Dunyoda har bir xalqning asrlar, zamonlar osha yashab kelayotgan. Milliy qadryatlari bor. Yosh avlodni ma'nan barkamol etib tarbiyalashda ham shubhasiz, milliy va umuminsoniy qadryatlarga asoslanamiz.

Aynan milliy va umuminsoniy qadryatlar qadrlangan jamiyatda ijtimoiy siyosiy muhit fuqorolik institutlarini rivojlantirish uchun etarli darajada shakllangan bo'ladi, bunday

jamiyatda u yoki bu masala yuzasidan jamoatchilik fikri ana shu qadryatlar asosida yuzaga keladi. Eng muhimi, turli millat elatlarga xos milliy qadryatlar umuminsoniy qadryatlar bilan uyg'unlashib, dunyoda xalqaro birdamlik hamjixatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Barchamizga ma'lumki, millat va xalqning ruhi, dunyoqarashi va turmush tarzini ifoda etadigan milliy ma'naviyatga munosabat, uni zamon talablari asosida rivojlantirish, yoshlarning dunyoqarashi va tafakkurini o'zgartirish masalasi har tomonlama chuqur va puxta o'ylab uyushtirishni talab qiladi. Bu borada to'g'ri yo'l tutish uchun awalambor milliy qadriyatning o'zi nima ekanini yoshlarga aniq tushuntirish zarur. Albatta, biz tarix sinovlaridan o'tgan, milliy manfaatlarimiz, bugungi va ertangi orzu-intilishlarimizga, taraqqiyot talablariga to'la javob beradigan, yillar o'tgan sari qadri ortib boradigan g'oya va tushunchalarni qadriyat deya ulug'lashimiz va uning yoshlarimiz ongida milliy tuyg'ular bilan sayqal topishi bosh mezondir. Milliy qadriyat bu-milliy ong va tafakkur mevasidir. Milliy qadriyat bu-avvalo diniy e'tiqod, ona tili, ajdodlarning boy ma'naviy va moddiy merosi bilan ifodalanadi. Agarda yoshlarimiz milliy qadriyatni to'laqonli anglay olsalar va his qilsalar, ular buyuk O'zbekistonning bugungi mustaqilligini mustahkamlab, ertangi kunga mustahkam poydevor yaratishgan bo'lishadi. Chunki o'zlikni, milliylikni anglash insonga zamonlar silsilasida eng ishonchli zafarlar xaritasini in'om etadi.

Shu o'rinda haqli bir savol tugiladi milliy o'zlikni anglash qanday yuzaga keladi? Milliy o'zlikni anglash avvalombor milliy g'urur, milliy iftixor

tuyg'ulari negizida shakllanadi. Xo'sh milliyg'urur va milliy iftixor tushunchalarining o'zi nima?

Milliy g'urur shaxs ijtimoiy guruhining milliy o'z-o'zini anglashi asosida shakllanuvchi ajdodlar qoldirgan moddiy ma'naviy merosdan o'z xalqi va millatining dunyo tamadduniga qo'shgan hissasi jaxon xalqlari oldidagi obro'si va qadr qimmatidan fahrlanish demakdir.

"Tarix xotirasi xalqning, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining xolis va xaqqoniy tarixini tiklash miliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi »^[3]

Bugungi kunda yurtimizda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimizni, mutafakkirlarimiz, donishmandlarimizni hayotini, ijodiy faoliyatini, ulkan kashfiyotlarini jaxon hamjamiyati tan olgan holda ularga katta ehtirom bajo keltirmoqda. Ajdodlarimiz hayoti va ijodini chuqur o'rganish, ular qoldirgan boy madaniy, meroslarni qadriga etish, ularga ixlosmandlik xissi milliy o'zlikni anglashdagi muhim omildir. Milliy o'zligini anglagan kishidagina milliy g'urur va milliy iftixor tuyg'ulari shakllanadi. Yosh avlodda milliy g'urur va milliy iftixor tuyg'ularini shakllanishida ajdodlarimiz merosi etakchi o'rin egallaydi.

Buyuk ajdodlarimizdan bebaho me'ros bo'lib kelayotga vatanga muhabbat tuyg'usi, o'sib kelayotgan yosh avlod uchun ibrat namunasi sifatida kelajakda ular ham ajdodlari kabi vatanparvar bo'lib etishlarida o'rnak bo'lishi lozim. Milliy g'ururni shakllantirish esa awalo, milliy o'zlikni anglashdan boshlanadi. Zero, milliy o'zligini anglagan xalq nafaqat o'zini, balki o'zga millatni ham hurmat qiladi. Milliy o'zlikni anglash esa vatanparvarlik va xalqparvarlik tuyg'ularini shakllantiradi, vatanni ichki va tashqi yovuz kuchlardan omon saqlashga da'vat etib uning taraqqiyotiga bor kuch va shijoatini safarbar etishga chorlaydi. Milliy o'zlikni anglash har bir xalqning o'ziga xos munosib o'rnini aniqlash, har bir fuqoroning o'z millati manfaati, shon sharafi uchun kurashga dadil intilishidir.

Yoshlarni o'tmish qadryatlarimizga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalashda ta'lim-tarbiyaning, turli xil usullaridan, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlardan, yuksak badiiy estetik san'at asarlaridan foydalanish muhim omil va vosita bo'lib hisoblanadi.

Yoshlar o'rtasida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ularda milliy tariximizda o'chmas iz qoldirgan Shiroq, To'maris, Spetamin, Muqanna, Jaloliddin, Manguberdi, Amir Temur, Zaxiriddin Muxammad Bobur kabi tarixiy siymolarni Vatan ozodligi musaqilligi el - yurt farovonligi va obodonchiligi yo'lida olib borilgan faoliyatlarini ibrat qilib ko'rsatish ularga munosib voris bo'lish hissini shakllantirish muhim va dolzarb axamiyat kasb etadi. Shuningdek, yoshlarning qiziqishlari, dunyoqarashlari, intilishlari va emotsional hususiyatlarini hisobga olgan ta'lim muassasalari, mahalla, kamolot yoshlar ijtimoiy xarakati kabi ijtimoiy institutlar hamkorligida turli kecha, uchrashuv, sport musobaqalari va boshqa madaniy- ma'rifiy tadbirlarni ularning mazmun mohiyatiga milliy go'ya va mafkuramizni singdirgan xolda o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Milliy o'zligini anglamagan xalq yoki millatda o'z ona yurtidan g'ururlanish hissi bo'lmaydi. Ajdodlar qoldirgan boy merosdan zavq ololmagan millatda esa faxrlanish hissi ham bo'lmaydi. Bunday jamiyatda esa rivojlanish vataraqqiyot ham orqaga ketadi. Shuning uchun ham biz o'sib kelayotgan yosh avlodda milliy o'zlikni anglash orqali ularda milliy gurur va milliy iftixor tuygularini shakllantirishimiz, o'tmish qdryatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalashimiz lozimdir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, ming yillar davomida Sharq musulmonlari mafkurasini tashkil etgan islom ta'limoti va uning huquqiy manbalaridan hisoblangan "Qur'oni Karim" va "Xadisni" o'z ona tilimizda o'qish va o'rganishga erishdik. Har yili Navro'z va Mustaqillik bayramlari arafasida o'tkaziladigan umumxalq hasharlari buning tasdig'idir. Barchamiz doimo orziqib kutadigan va katta xursandchilik, shodiyona bilan o'tkazadigan Navro'z bayrami biz uchun xayot abadiyligi, tabiatning ustuvor qudrati va cheksiz saxovatning, ko'p ming yillik milliy qiyofamiz, olijanob urf-odatlarimizning betakror ifodasi bo'lib kelmoqda. Navro'z bayrami YNESKO taklifi bilan xalqaro nishonlanadigan bayramga aylandi.

Shahidlar xotirasi hiyoboni yaratildi har yili 31-avgust kuni ushbu maydonda yurtimizda qatag'on qurbonlarini yod etish kuni sifatida nishonlanadigan bo'ldi. Bu maskanda xalqimizning qadimiy urf-odatlariga ko'ra osh tortib, Qur'on tilovat qilish, davlat va hukumat rahbarlari, keng jamoatchilik vakillarining bu erga kelib, marhumlarni yod etish, ularning ruhiga hurmat bajo keltirishi ibratli an'anaga aylandi.

Ma'naviy qadriyatlarimiz yoshlarni komil inson qilib tarbiyalab, voyaga yetkazishda katta ahamiyat kasb etadi. Biroq uni qunt bilan rivojlantirish va shakllantirish o'quv tarbiyaviy ishimizning muhim qismini tashkil etishni esdan chiqarmasligimiz kerak. Bu jarayon bosqichma-bosqich, doimiy muntazam ravishda amalgam oshirilib borishni taqozo qiladi. Bu sohada bracha ilm ahillari, ziyolilar, adabiyot va sana't xodimlarining ko'plab safarbarligi lozim bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. 6- jild.-T: O'zbekiston, 1997.-127-bet.
2. SH. M. Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz". Toshkent. O'zbekiston-2016- yil.
3. Hasanova Navbahor Hamraqulovna. (2020). Bo'lajak o'qituvchilarning o'zbek mumtoz musiqasida kasbiy malakasini oshirish muammolari. *Xalqaro ilg'or fan va texnologiyalar jurnali* , 29 (08), 3489-34953495. [Http://sersec.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558](http://sersec.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558)

4. Hasanova, Navbahor. (2020). METHODS AND WAYS TO DEVELOP THE MUSICAL FEELINGS OF STUDENTS IN TTTE LESSONS OF MUSIC EUITURE. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(42). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5579

5. Khasanova, Navbakhor (2020) “The role of music lessons in the formation of national and intercultural competence in students.” *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*. Vol.2020 :Iss.2. Article 15 :<https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss2/15>

6. N. Hasanova O'zbek milliy musiqa merosi taraqqiyotida xotin-qizlarningo'rni. Актуальный вызыви современной науки IX xalqaro ilmiy konferensiya 26-27 yanvar 2017 yil.

7. A. Hasanov. Musiqa va tarbiya. –T;- O'qituvchi. – 1993 yil.

8. Muminova Muqaddas Riskulovna Development And Current Status Of Uzbek Pop Music In Modern Approaches And Innovations Of Teaching The Science Of Music Culture *International Journal of Advanced Science and Technology* Vol. 29, No. 8, (2020) <https://t.me/joinchat/> - Music teacher, <https://infourok.ru> - music lessons

9. Muminova Muqaddas Riskulovna *International Journal of Mechanical Engineering*. The Innovative Technologiyes Of Teaching In Musical Edukational Establishments 1764-1767-betlar. 2022- йил.

10. Muminova Muqaddas Riskulovna *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*. THE ROLE OF SPORT ACTIVITIES, GAMES AND COMPETITIONS IN THE NURTURE OF 6-7 YEARS OLD CHILDREN <https://uzjournals.edu.uz/tziuj/68-78betlar> 2022

11. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlarda pedagog kreativligi. “Yangilanayotgan O'zbekistonda fan, ta'lim va innovatsiya uyg'unligi” mavzusidagi 6-son 2-qism Respublika ko'p tarmoqli ilmiy konferensiyasi VIII bo'lim Toshkent 2021. 677 bet. Udk. 001.895 (575.1).

12. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlar o'qituvchisining kreativligi. Педагогические и лингвопсихологические особенности развития, формирования и становления личности врача. Сборник тезисов Международная конференции. СамГМИ, Самарканд 5 мая 2021 год

13. Urinova S.Sh. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishning nazariy asoslari. “The best innovator in science” xalqaro maqolalar tanlovi to'plami. Organized by Innovative Academy. Tashkent February 5, 2022. Pg 811. <https://zenodo.org/record/5979621#.YpC2PKhBxD8>

14. G. Sharipova. Musiqa o'qitish metodikasi. (ma'ruzalar matni). – TDPU-2000 yil

SHAXS KAMOLOTINI RIVOJLANTIRISHDA MUSIQA TARBIYASINING AHAMIYATI

*Baymanova Feruza Abralovna JDPU Musiqa madaniyati fakulteti,
Ilmiy rahbar, Musiqa ta'limi kafedrasi o'qituvchisi
Jo'raboeva Maxliyo, 3 kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqa tarbiyasining ahamiyati yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, ularni Vatanga bo'lgan mehr - muhabbatini oshirish estetik didini shakllantirish, shu bilan birga musiqa san'atining rivojlanish qonuniyatlari musiqashunoslarning ilmiy va nazariy masalalari yoritilgan.

Kalit soʻzlar: Musiqa, tabib, Buyuk, Sanʼat, Oʻtmish, estetik, rivojlanish, Ibn Sino, ovoz, Al Farobiy, A Jomiy, Umar Hayom, Fan, shaxs.

Zamon talablariga har tomonlama javob beradigan, yuqori malakali barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish, mustaqillik yoʻlidan boradigan jamiyatimizning eng oliy maqsadidir. Barkamollikni yuksak mezonni insonning chinakkam maʼnaviyat va maʼrifat soxibi boʻla olishi bilan belgilanadi.

Hozirgi davrda yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, ularning Vatanga boʻlgan mehr-muhabbatini oshirish, maʼnaviy - siyosiy ongini oʻstirish va estetik hissini takomillashtirish muhim masaladir. Estetik, maʼnaviy va axloqiy jarayonida musiqa sanʼati oʻzining taʼsir kuchi bilan nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni chogʻda zamonaviy va xalqning sevimli sanʼati hisoblanadi. Musiqa sanʼati insonni tarbiyalashda juda katta rol oʻynashi shak-shubhasizdir.

Musiqa sanʼati insonning maʼnaviy dunyosiga chuqur taʼsir koʻrsatadi va unga oʻzining har qanday kasb-korlikda zarur boʻladigan ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilishga yordam beradi.

Musiqa faoliyati jamiyat rivojlanishining hamma bosqichlarida ham insonni tarbiyalash va maʼnaviy bilimining bir vositasi sifatida xizmat qiladi.

Oʻtmishimizga bir nazar tashlar ekanmiz, musiqa sanʼati olimu-fozillar, mutaffakir - allomalar xayotida, ularning ijodiy izlanish va qarashlarida alohida oʻrin tutgan. Oʻrta asr davriga mansub boʻlgan: Al. Farobiy, Ibn Sino, Jomiy, Umar Hayyom, Kaykovus kabilarning ijodlari buning yorqin misolidir.

Jumladan: Al Farobiy oʻzining koʻp asarlar qatori “Fozil odamlar shahri”, “Kitob al-Musiqa al-kabr” (katta musiqa kitobi) bilan ham mashhurdir.

Ushbu asarlarda musiqa sanʼatining tarixi, rivojlanish qonuniyatlari, musiqashunoslarning ilmiy va nazariy masalalari yoritilgan boʻlsa “Ixso-ul-ulum” (ilmlarning kelib chiqishi) asarida esa musiqaning insonga taʼsir kuchi haqida koʻplab fikr va mulohazalar yuritilgan va quyidagicha taʼriflaydi.

“Bu ilm oʻz muvozanatini yoʻqotgan odamlarni xulqini muvozanatga keltiradi, mukammallikka yetmagan xulqni mukammal qiladi, muvozanatda saqlab turadi. Bu ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir. Tana kasal boʻlsa, ruh kasal boʻladi, tana toʻsiqqa uchrasa, ruh toʻsiqqa uchraydi. Ovozlarining, yaʼni ohanglarning taʼsiri bilan esa ruhni, binobarin tanani sogʻaytiradi”.

Buyuk tabib ibn-Sino, maʼlumotlarga qaraganda, bemorlarni yoqimli musiqa ohanglari yordamida davolanganlar. Uning taʼkidlashicha bolalarda goʻzal sanʼatga boʻlgan moyillik va ehtiyojni shakllantirish qanchalik barvaqt boshlansa, shunchalik foydali.

U oʻzining “Ash shifo” kitobida yozadi: “Kichik yoshdagi bolalar organizmi uchun foydali vositalar qatoriga badan tarbiya bilan bir qatorda bolani allalash vaqtida kuylanadigan qoʻshiq va musiqa kiradi. Bola shu ikki narsani oʻzlashtirishiga qarab, unda jismoniy mashqlarga va musiqaga nisbatan moyillik tugʻiladi, ularning biri tanaga, ikkinchisi esa qalbga taʼluqlidir”.

Abduraxmon Jomiy oʻzining “Musiqa haqida risolasida” maqomlar haqida fikr yuritib, har bir maqom shoʻbasining kishi ruhiga taʼsiri va tarbiyaviy ahamiyati haqida fikr yurgizgan boʻlsa, Alisher Navoiyning “Majolisun nafaʼis” va “Maxbub ul-qulub” asarida, musiqa ilmi, uning insonni kamolatida tutgan oʻmi, musiqa va goʻzallik tarbiyasi haqida - yetuk sanatkorlar, musiqashunos, bastakor va hofizlar haqida atroflicha malumot berdi.

Fitrat, Muqimiy, Hamza, Qori Niyoziy, Turob To'la, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Normurod Narzullaevlarning ijodiga nazar tashlar ekanmiz, musiqa san'ati naqadar nafis san'at ekanligi, ularning shariat bilan doimo hamohangligi, inson ruhiga, madad berishdek, uni ulug' ishlarga chorlagidek ta'sir kuchiga ega ekanligini ko'ramiz.

Hozirgi kunda musiqa va umuman san'atning insonni tarbiyalashdagi roli ortib bormoqda. Binobarin, fanlarning tabaqalanishi, har bir kishining ixtisoslashuvi, uning ma'naviy dunyosini qashshoqlashtirib qo'yishi mumkin. Shuning uchun san'at, xususan musiqa san'ati, shaxsning ma'naviy boyligini, dunyoni idrok etishning yaxlitligini, takrorlanmasligi va uyg'unligini saqlab qolishda yordam beradi.

Musiqa san'ati faqat o'rganiladigan fan emas, balki shu bilan birga ahloqiy-ma'naviy hamda estetik tarbiyaning amaliy vositasidir. O'zida axloqiy poklik, ma'naviy boyluk va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirgan, har tomonlama yetuk shaxsni shakllantirish, hozirgi kunning eng muhim vazifalardan biridir. Ana shu murakkab vazifani bajarishda o'quvchilarni ma'naviy va estetik tarbiyalash jarayonida musiqa madaniyati darslari katta rol o'ynaydi.

Mulohazalarimizni jamlab xulosa qilishimiz mumkin.

1. Musiqa ilmi o'zini taraqqiyot bosqichlarida har bir tarixiy davrda shakllangan, musiqiy fikr mazmunini aks ettirgan holda rivojlanadi.

2. O'quvchi-yoshlarni musiqa vositasidav barkamol inson qilib tarbiyalashda - qo'llanilgan uslub an'analarning alloma-olimlar ijodida uzluksiz ravishda davom ettirib rivojlantirilishi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Xususan musiqa ilmi muhim soha sifatida o'rin egallab kelishi turkiy – tarixiy davlatlarda, musiqa san'ati badan tarbiya vositasi sifatida o'rganishga imkon yaratdi.

3. Fan predmedi tadqiq qamrovining yangi mavzular bilan kengayib borishi - har bir tarixiy ijtimoiy davrda mazkur mohiyatdan kelib chiqadigan ma'naviy ehtiyoj va zaruriyatlarini to'laqonli qamrab olish imkoniyatiga ega bo'lganligini anglatadi. Bu kabi hodisa musiqa ilmining doimo jamiyat taraqqiyotida muhim funksional o'rniga ega bo'lib kelganligidan dalolat beradi.

4. Musiqiy ta'lim jarayonida komil inson qilib tarbiyalash uchun zaruriy shart - sharoit yaratib berish va badiiy ehtiyojlarini qondirish, musiqa o'qituvchisining asosiy vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Ta'lim – tarbiya jarayonida musiqa san'ati o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib, o'quvchi-yoshlarni estetik didini shakllantirishda musiqa darsining o'ziga xos tomonlari mavjud bo'lib, ularning xususiyatlari, musiqa talimining nazariyasi, ularning amalga oshirish yo'llari va prinsiplari kiradi.

Musiqa darslarning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Musiqa darsi - bu avvalo o'quvchilarni his-tuyg'ulariga, hissiyotga ta'sir ko'rsatadi, bilim va aql-idrokni sintez qilishga o'rgatadi.

2. Musiqa san'ati o'quvchi-yoshlarni ruhiyatini, his tuyg'ularini, tafakkuri, har tomonlama ongini rivojlanishiga, fiziologik jaryonlariga ta'sir ko'rsatadi.

3. Musiqa darsini o'ziga xos bo'lgan xususiyatlariga qaramasdan, musiqa faoliyatlarini barcha turlari ichida asosan jamoa bo'lib kuylash orqali amalga oshiriladi.

Musiqa darsida estetik va ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy vazifasi o'quvchilarda insonning ijobiy xis tuyg'ularini tarbiyalash, rivojlangan didni, estetik idealni shakllantirish, xayotdagi go'zallikni ko'ra bilish va uni yaratishdan iboratdir.

Musiqiy ta'limning maqsadlari aniqlashtirishga intilish quyidagi uchta pedagogik vazifani ajratib ko'rsatish imkonini beradi:

- Hissiy narsalarni shakllantirish;
- Ularni ongli ravishda tarkib toptirish;
- Musiqa san'atiga faol-ongli munosabatda bo'lish.

Bu uchta vazifa musiqa-sa'natining idrok etish asosida amalga oshiriladi va quyidagi vazifalarni belgilaydi.

Birinchi pedagogik vazifa - musiqa asarini idrok qilish asosida o'quvchiga bo'lgan emotsional (hissiy) munosabatni shakllantirishdir. Musiqiy his tuyg'uni, musiqaning obrazli sohasiga hissiy yondashuvning nozikligi, bilimlarni o'zlashtirishga, malaka va ko'nikmalarni egallashga faollik bilan intilishni, musiqani tinglash va ijro etishga istak uyg'otish, musiqa darsi bilan hayot o'rtasidagi bog'lanish qonunlarini aniqlashga qiziqish uyg'otish, rivojlantirish zarur.

Ikkinchi pedagogik vazifa - musiqa sa'natiga ongli ravishda idrok qilish tajribasini hosil qilish, musiqiy bilimlarni qabul qila bilish, musiqiy obrazlarning xarakterini, ularning rivojlanish mantiqini his qilib qolmasdan, shu bilan birga ularni tushunish, asarning g'oyaviy asosini, uning mazmuni hayotiy ekanligini anglab yetishga yaqinlashmog'i muhimdir. Bu vazifani bajarish uchun, o'quvchilarni bilim tafakkurini shakllantirish bilan, yangi vaziyatlarda bilimlarni mustaqil tahlil ravishda tadbiiq etish mahorati bilan bog'liqdir. Bu xar bir ikkala vazifa birgalikda amalga oshiriladi. Musiqaga bo'lgan ongli munosabat hissiy, obrazli idrok qilish tajribasi asosida shakllanadi.

Uchinchi vazifa - musiqa asarini xor bo'lib ijro etish jarayoni, u musiqiylikni eng qulay shaklidir, aynan shu vosita orqali o'quvchilarda musiqa san'atiga bo'lgan faol-amaliy munosabatni shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu vazifani hal etish uchun o'quvchi-yoshlarimizni musiqa madaniyatini shakllantirishning shunday yo'nilishini nazarda tutadiki, u o'quvchilarda musiqani idrok etish jarayonini, ularda musiqiy estetik tasavvurlari va ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirish bilan bog'liqdir.

O'quvchilarda o'zini musiqiy ijod jarayoniga ichki tomondan alohida deb his qilish, badiiy obrazni tanlab olish muhimdir. Ta'lim-tarbiya jarayonining bu tomoni o'quvchi-yoshlarga ancha bo'lib, avvalgi vazifalar bilan o'zaro bog'liq ravishda amalga oshiriladi. Musiqa madaniyati darslarning maqsadi izchillik bilan bosqichma-bosqich musiqa san'atining hayotning o'zaro bog'liqligi asosida ro'yobga chiqariladi. Bu bog'lanishlar quyidagilarni taqqoslash bilan namoyon bo'ladi:

a). Voqiylikka hissiy-axloqiy munosabatning musiqada o'z ifodasini topgan ijtimoiy tajribani va o'quvchilarning o'ziga xos tajribasini;

b). Ta'lim mezonlarning obektiv elementlarini (insonning voqelikka hissiy-axloqiy munosabatning musiqada o'z ifodasini topgan ijtimoiy tajribasini va musiqa san'ati haqidagi umumlashgan bilimlarni, ularni o'zlashtirish jarayonini aks ettiruvchi elementlar (musiqiy malaka va ko'nikmalar) bilan musiqa san'atini hayot bilan bog'lanishini, musiqa fanining qonuniyatlarini va shu bilan birga ta'lim mazmunini o'zlashtirish jarayoni va kuy, raqs, lapar kabi janrlar orqali insonning axloqiy-manaviy fazilatlarini shakllantirishni ham aks ettiradi.

Shu munosabat bilan musiqa darslarining umumiy didaktik prinsiplari hayot bilan bog'lanishining muayyan ta'lim bosqichlarining o'ziga xosligini ko'rsatib beradi.

Shaxsni rivojlantirish, tarbiyalash va shakllantirish - bu insonning jismonan, aqlan ma'naviy tomondan kamolga yetish jarayonidir. Bu jarayonning o'ziga xos obektiv va subektiv tomonlari mavjud.

Musiqqa madaniy hayotimizda keng o‘rin tutgan va inson shaxsiyatining shakllanishida muhim rol o‘ynaydigan san‘at turidir. Eramizdan oldingi IV asrdanoq grek faylasufi Platon shunday degan edi: “Eng katta tarbiyaviy omil musiqiy san‘atda emasmikan, zeroki, ritm va garmoniya hammadan ko‘proq shu vaqtda qalbgga chuqur yo‘l topadi va salobat baxsh etib, uni ko‘rkam qiladiki, agar tarbiya to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, aks holda uning teskarisi bo‘lib chiqadi.

Uning shogirdi Aristotel (Aflotun) komil ishonch bilan mazkur fikrni quvvatlaydi. “Musiqqa kishi ruhining axloqiy tomoniga ma‘lum darajada ta‘sir etadi, bas shunday ekan, u yoshlarning tarbiyasiga, ta‘sir etadi”. Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu-Nasr Al-Farobiy esa musiqaning shaxs shakllanishiga aniq ta‘sirini quyidagicha bayon etadi: “Bu fan (ya‘ni musiqqa D.O) shu ma‘noda foydaliki, kimning fe‘l atvori muvozanatni yo‘qotgan bo‘lsa, tartibga keltiradi, kamol topmaganlarni kamolotga yetkazadi va muvozanatda bo‘lganlarning muvozanatini saqlaydi. Bu fan tanning sog‘ligi uchun ham foydalidir”.

Musiqqa inson ruxi va aqliy rivojiga bebaho ta‘sir o‘tkazadi. Ch.Darvin umrining oxirlarida quvvati xofizasi (xotirasi) va fikrlash qobiliyatining pasayishidan shikoyat qilib yozadi: “Agar menga ikkinchi bor dunyoga kelish nasib bo‘lganda edi, endigi hayotimda loqal haftada bir marta bo‘lsa ham, bir necha she‘r o‘qishni o‘zimga qoida qilib olardim”. Shu bois o‘quvchilarda inson ma‘naviy madaniyatining tarkibiy qismi bo‘lgan musiqqa madaniyatini tarbiyalash musiqqa tarbiyasining bosh maqsadi bo‘lib turadi.

Aqliy va jismoniy rivojlanishning garmonik qo‘shilishiga ahloqiy sofflik, san‘atga va hayotga estetik munosabat - shaxsning to‘laqonli kamolga yetishida muhim shartlardir. Bu olijanob maqsadga erishishda to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan bolalar musiqqa tarbiyasi katta ahamiyatga egadir.

Bolalar qobiliyati aktiv musiqqa faoliyati davomida rivojlanib boradi. Qobiliyatlar deganda insonning kerakli ko‘nikma, malaka, ilmlarni olishi va uni amaliyotda muvaffaqiyatli qo‘llay olishga qaratilgan psixologik xususiyatlari tushuniladi.

Ma‘lum bir faoliyat turiga bo‘lgan qobiliyat - nerv sistemasining (tizim) analizatorlari sezgirligi, kuchi, nerv jarayonlarining harakatlanganligi, muvozanatlashganligi kabi omillar asosida rivojlanadi. Masalan: bir sinfdagi o‘qiyotgan ikkita o‘quvchiga o‘qituvchi bir xil asar, she‘mi, etyudini beradi. Lekin o‘quvchilardan biri etyudni bir haftadan keyinroq, yana biri darhol chaqqon, tez o‘zlashtira boshlaydi. Boshqa o‘quvchi esa bu ishni bir oy o‘tganda ham bajara olmaydi va ko‘p xatolar qiladi. Muvaffaqiyatga erishishdagi bu farqni hohlagan bir pedagog ana shunday holatlarda o‘quvchilardagi qobiliyatlar darajasiga bog‘laydi.

Tug‘ma qobiliyatlarning irsiy berilishi, masalan: tibbiyot ilmida va unga muvofiq pedagogikada ham alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, ichkilikbozlikka berilgan ayrim oilalardagi bolalarda ba‘zi bir irsiy ko‘chib o‘tadigan ruxiy kasalliklarga chalinish hollari uchraydi. Sog‘lom kishilar farzandlarida aqliy faoliyat darajasi va sifati yuqori bo‘lishi kuzatiladi. Jismoniy va ruxiy sog‘lom bo‘lgan kishilarda ma‘lumotlilik hamda bilish jarayonlarining rivojlanishi ko‘p jihatdan ular qanday sharoitda o‘qitilayotganligi yoki qanday sharoitga qo‘yilganligi bilan belgilanadi.

Bizning talim-tarbiya tizimimiz hamma o‘quvchilar uchun bir xil imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga har bir kishida mavjud bo‘lgan iqtidor, qobiliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratiladi, o‘quvchilarga ularning individual o‘ziga xosliklarini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan holda yondashuvni inkor etmaydi. Qobiliyatlar namoyon bo‘lishi uchun esa uning egasi ko‘p mehnat qilishiga to‘g‘ri keladi.

Xalqimizda “qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan maqol bor. Har bir bola birinchi tarbiyani o‘z ota-onasidan, oila a‘zolaridan, o‘z atrofidagi yaqin kishilardan oladi. Oiladagi ijobiy muhit, oila a‘zolarining o‘zaro munosabatlari, bir-biriga bo‘lgan hurmat va e‘tibor, mehribonlik, o‘zaro yordam va ularning musiqaga bo‘lgan munosabatlarini bolalarda dastlabki tushuncha va ko‘nikmalarining rivojlanib borishida asosiy o‘rin tutadi. Bolalar shaxsi uning faoliyati jarayonida tarkib topadi.

Zotan, o‘quvchining faoliyati juda maroqli, o‘ziga xos go‘zal va shakl jihatidan rang-barangdir. Bu xil fazilatlar bolalarga xos bo‘lgan doimiy extiyojga aylangandagina ulardagi faollik yanada ortadi. Maroqli va ma‘naviy zavq beruvchi ana shu go‘zal tuyg‘u bolalar va o‘quvchilarning ayniqsa, nafosat tarbiyasiga kuchli ta‘sir ko‘rsatadi. Binobarin, bolada namoyon bo‘ladigan ilmiy badiiy-estetik tarbiya muhim ma‘naviy go‘zallikka puxta, zamin hozirlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov. Yuksak ma‘naviyat-yengilmas kuch. – T;- Ma‘naviyat. – 2008 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida” gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. – 1997 yil.
3. Hasanova Navbahor Hamraqulovna. (2020). Bo'lajak o'qituvchilarning o'zbek mumtoz musiqasida kasbiy malakasini oshirish muammolari. *Xalqaro ilg'or fan va texnologiyalar jurnali*,29 (08), 3489-34953495. [Http://sersec.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558](http://sersec.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558)
4. Hasanova, Navbahor. (2020). METHODS AND WAYS TO DEVELOP THE MUSICAL FEELINGS OF STUDENTS IN TTTE LESSONS OF MUSIC EUITURE. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(42). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5579
5. N. Hasanova O‘zbek milliy musiqa merosi taraqqiyotida xotin-qizlarningo‘rni. Актуальный вызыви современной науки IX xalqaro ilmiy konferensiya 26-27 yanvar 2017 yil.
6. Muminova Muqaddas Riskulovna Development And Current Status Of Uzbek Pop Music In Modern Approaches And Innovations Of Teaching The Science Of Music Culture International Journal of Advanced Science and Technology Vol. 29, No. 8, (2020) <https://t.me/joinchat/> - Music teacher, <https://infourok.ru> - music lessons
7. Muminova Muqaddas Riskulovna *International Journal of Mechanical Engineering*. The Innovative Technologiyes Of Teaching In Musical Edukational Establishments1764-1767- betlar. 2022- йил.
8. Muminova Muqaddas Riskulovna Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. THE ROLE OF SPORT ACTIVITIES, GAMES AND COMPETITIONS IN THE NURTURE OF 6-7 YEARS OLD CHILDREN<https://uzjournals.edu.uz/tziuj68-78>betlar 2022
9. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlarda pedagog kreativligi. “Yangilanayotgan O‘zbekistonda fan, ta‘lim va innovatsiya uyg‘unligi” mavzusidagi 6-son 2-qism Respublika ko‘p tarmoqli ilmiy konferensiyasi VIII bo‘lim Toshkent 2021. 677 bet. Udk. 001.895 (575.1).
10. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlar o‘qituvchisining kreativligi. Педагогические и лингвопсихологические особенности развития, формирования и становления личности врача. Сборник тезисов Международная конференции. СамГМИ, Самарканд 5 мая 2021 год

11. Urinova S.Sh. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishning nazariy asoslari. "The best innovator in science" xalqaro maqolalar tanlovi to'plami. Organized by Innovative Academy. Tashkent February 5, 2022. Pg 811. <https://zenodo.org/record/5979621#.YpC2PKhBxD8>

13. Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standarti va o'quv dasturi. – T; - Ta'lim taraqqiyoti, maxsus 6-7-sonlar-1999 yil.

14. Umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi va tarbiyasi konsepsiyasi. – T; XTV, 1995 yil.

15. I. Qudratov. Talabalarni xalq qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalash. Nomz. dissertatsiyasi. Q.N.TPFITI. T.: 2006y.

16. Musiqa o'qitish metodikasi. Tuzuvchi G. Sharipova. – T; TDPU- 2000 yil.

17. G. Sharipova. Musiqa o'qitish metodikasi. (ma'ruzalar matni). – TDPU-2000 yil

MUSIQA TO'GARAKLARIGA O'QUVCHILARNING QIZIQISHLARINI OSHIRIB BORISH OMILLARI

Fazliddin To'xtayevich Bo'ronov

NavDPI, musiqa ta'limi kafedrası o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi

Annotatsiya. Maqolada to'garak shakllari va uni boshqarish tizimi haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, o'quvchi yoshlarni sinfdan tashqari turli to'garaklarga qiziqishlarini oshirib borish omillari o'rin olgan.

Kalitli so'zlar: to'garak va ilm, ijodkor, ustoz, tarbiya, ahloq, ma'naviyat, qadriyat

O'zbekiston Respublikasi o'zining iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy rivojlanishining porloq yo'liga qadam tashlaganiga ham 20 yil bo'ldi. Mustaqillikning ana shu yillari ichida iqtidorli yoshlarni izlash, ularni tabiiyalash va iste'dodini oshirish davlatimiz oldidagi eng dolzarb vazifalaridan biri bo'lib keladi.

Shunday ekan, maktabda ishlaydigan har bir o'qituvchining eng asosiy vazifasi-ijodiy izlunuvchan, mustaqil fikr yuritish qobiliyatiga ega yoshlarni aniqlash, ular bilan alohida shug'ullanishi va iste'dodlarni oshirish yuzasidan tadbirlar ishlab chiqishdan iborat.

Ilmiy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, 1-sinfqa qadam qo'ygan jajji bolajonlarning 60 foizida turli qobiliyat nishonalari namayon bo'lar ekan. Ho'sh iqtidorli o'quvchi kim? Uni boshqa tengdoshlaridan qanday ajratish mumkin?

Quyida e'tiboringizga maktab o'quvchisi shaxsining iste'dodini shakllanganlik darajasini ko'rsatuvchi xislatlari keltiriladi.

O'quvchining yangiliklarni amaldiyotga qo'llashdagi idoraviylik xislatlari:

- o'quvchi shaxsining maktabdagi faoliyati ko'p qirralari;
- ilm olish, o'qish jarayonida sabr toqatli bo'lish; to'garak va ilmiy jamiyattning faol ishtirokchisi bo'lish, fan yangiliklari haqida ma'lumot berish;
- mutaqil fikrini baralla bildira olish;
- egallagan bilimlarni o'z ishida, turmushida ongli ravishda qo'llay bilish;
- darslikdan tashqari adabiyotlar bilan mustaqil shug'ullanish, bu adabiyotlardagi ilmiy tushuncha va g'oyalarning mahiyatini tushuna bilishlik;
- o'qig'an matndagi g'oyalarni erkin va tez bayon qila olishlik;

-
- o'rtoqlarni ilmiy-ijodiyotga targ'ib eta olishlik;
 - o'z fikriga tanqidi yondasha olishlik;

O'quvchining ma'naviy barkamollik va mehnatsevarlik xislatlari:

-mutaqil ravishda ishlash va o'ylash qobiliyatga, o'z ishini rejalay olish va tashkil qila bilish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- o'quvchi shaxsidagi poklik, to'g'rilik;
- o'z ijodiy faoliyatini rejalashtira olishlik;
- javobgarlik xissi o'ta rivojlangan bo'lishi;
- adolatparvar bo'lishi;
- sinf va maktab uchun zarur bo'lgan topshiriqlarni bajonidil bajarilishi;

O'quvchining individual shaxsiy xislatlari:

- o'qishdan tashqari tashkil qilinadigan tadbirlarda faol qatnashish;
- diqqatni talab qiluvchi o'yinlardagi qiziqishi;
- xorijiy tillarni o'rganishga intiluvchanlik;
- komp'yuter texnikasi bilan erkish va muntazam shug'ullanishlik, zamonaviy axborot texnologiyachi haqida tushunchaga ega bo'lishi;
- kitobni jondan sevish;
- o'quvchi shaxsida so'z boyligi miqdori kata bo'lishi;
- o'quvchi shaxsidagi o'ziga ishonch va ijodiyatning o'sish sur'ati;

Ijodkor o'quvchini aniqlash bosqichlari

- 1-bosqich tahliliy bosqich-ta'limning boshlang'ich pog'onasi (1-4 sinflar)
- 2- bosqich-diognastika tashxis qo'yish, o'quvchilarda qobiliyat va iste'dodni aniqlash (5-9 sinflar)
- 3- bosqich-yuqori sinflarda (10-11 sinflar) o'quvchilardagi aniqlanilgan ijodkorlik qobiliyatlarini yanada chuqurroq va to'laroq o'rganish.

Avvalo o'quvchining dunyoqarashi keng bo'lishi uchun gumanitar yo'nalishdagi fanlarni chuqur o'rganishi, shuningdek, estetik yo'nalishdagi, jumladan, tarix, adabiyot, musiqa, rasm, qo'shimcha ta'lim singari fanlar integrasiyasidan foydalanish yo'li bilan ko'p axborotga ega bo'lishi, uni to'g'ri va to'liq, har tomonlama tahlil qila bilish zarur. Buning natijasida o'quvchida o'z dunyoqarash nuqtai nazarini to'g'ri va puxta asoslay bilishi ham suhbatni tinglay olish, turli xil fikrlarga nisbatan sabr-chidamli bo'lish, o'z fikrini to'liq asoslagan holda tushuntira bilish ko'nikmalari hosil bo'ladi. Kamida ikkita tilni bilishi. Bu bilan o'quvchining umumiy tafakuri oshadi, boshqa halqlar va davlatlarning tili, madaniyati, urf-odatlarini an'analari haqida tushunchalar oshadi, umumiy dunyoqarashi kengayadi.

Iqtidorli o'quvchilar bilan shug'ullanuvchi har bir o'qituvchi quyidagilarga e'tibor bermog'i lozim:

- o'quv dasturini o'quvchilarning iste'dod darajasiga qarab chuqurlashtirish, ya'ni ta'lim mazmunini yangilash va kengaytirish;
- o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan doimo o'sib boruvchi ihtiyoj-talablarini to'liq ta'minlay olish;
- maxsus o'quv reja bilan ishlash;
- o'quvchilar bilan alohida ishlash;
- yakka tartibda shug'ullanishni tashkil eta bilish;
- o'quvchilarning qobiliyatlari haqida og'ir vazmin holda xulosa chiqara bilish;
- o'z ta'lim-tarbiya faoliyati bilan sinfnig o'zlashtirish faoliyatini taqqoslab, holisona xulosa chiqara bilish;

-
- ijodiy ishlar guruhiga materialni tanlashni tashkil eta bilish;
 - turli xil kelishmovchiliklarni bartaraf eta bili shva tinchita olish;

Tavsiyalar: -o'quvchining mustaqil fikrlashi uchun imkon bering, unga turli xil ko'rsatmalar beravermang;

-o'quvchining tashabbusini bug'mang, ular mustaqil bajara oladigan ishlarga siz aralashmang;

-o'quvchilarni fanlararo bog'lanish imkoniyatlaridan ya'ni bir fandan olgan bilimlarni boshqa fanni o'rganishda foydalanishga o'rgating;

-o'quvchilardan muammo va muhim masalalarni mustaqil hal etish ko'nikmalarini hosil qiling;

-maktab yoki uy sharoitida vujudga kelgan murakkab vaziyatlarni o'quvchilarda ilgari hosil qilingan ko'nikmalardan foydalangan holda hal etishga harakat qiling;

-o'quvchilarni bilimlarni o'zlashtirish jarayonini boshqarishga o'rgating;

-o'quvchilar bilan bo'ladigan muloqotga doimo ijodiy yondashing.

Maktab ta'limining turli bosqichlarida iqtidorli o'quvchi shaxsini aniqlash mezonini sifatida quyida e'tiboringizga havola qilinayotgan va maktab sharoitida bir necha yildan beri sinovdan o'tib, ijobiy natija berayotgan o'quvchi reytingini aniqlash va ijodkor o'quvchini aniqlashning diagnostik dasturidan foydalanish mumkin.

Ijodkor yoshlarga-ijodkor ustoz; Ijodiy izlanuvchan, iste'dodi jo'sh urgan o'quvchi ilm-fanda, ijtimoiy hayotda doimo yangilik sari intiladi, uni egallash bilan birgalikda yanada yuqori pog'onada fikr yuritishini, ilm-fan, texnika, san'atning eng so'nggi yangiliklarini bilishni, zamonaviy texnologik vositalar yordamida ularni tahlil qilishni hohlaydi. Haqiqiy iste'dod egasi qaysi jabhada bo'lmasin, fandami, adabiyot va san'atdami, sportdami, biribir doimo hayot bilan qadam

Xullas; Hozirgi kun talabi asosida yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash biz musiqa o'qituvchilarining asosiy vazifasi sanaladi. Respublikamizda ayniqsa qishloq joylarida iqtidorli iste'dodli o'quvchilarni aniqlash va ular bilan hamkorlikda ishlash jarayoniga alohida e'tibor berilmoqda. Iqtidorli yoshlar bilan ishlash jarayonida ularda bor iste'dodni yanada rivojlantirish kerak buladi. Buning uchun har bir o'qituvchidan bilim va malaka talab etiladi. Shunday ekan biz o'qituvchilar o'z bilim saviyamizni nazariy va amaliy jihatdan oshirib borishimiz kerak buladi va barkamol inson tarbiyasi uchun mas'ulligimizni his qilgan xolda tinimsiz mehnat talab qilinadi. Shunday ekan doimo o'z bilmimizni oshirib, boyitib borishimiz kerakdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O.T.Ashurova. "Maktab repertuari va praktikum" fanidan o'quv uslubiy majmua. Navoiy-2012 yil.

2. Usmonov S.A. Xalq ta'limi tizimi rahbar va pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishning samarali tizimiga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha amaliy-metodik tavsiyalar.- T., 2006-yil.

O'QUVCHILARNI MILLIY MUSIQA MEROSIMIZ TARIXIGA OID MA'LUMOTLAR BILAN TANISHTIRISHNING TA'LIMDAGI SAMARADORLIGI

Do'stmuhammedova Gulhayo. JDPU Musiqa ta'limi kafedراسi o'qituvchisi.

Annotatsiya: Maqolada umumta'lim maktablari har sinfida, har bir musiqa madaniyati darsida har bir to'garak mashg'ulotida va har bir o'tkazilayotgan ommaviy- musiqiy tadbirlarda musiqa tarixiga oid manbalardan, ma'lumotlardan foydalanishning tarbiyadagi ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Texnologiya, ta'lim-tarbiya, innovatsiya.

Hozirgi paytda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning amalga oshishida yuqori malakali mutaxassislarining roli benixoya kattadir. Hozirgi kunda respublikamizda yangi pedagogik texnologiyalar, ta'lim innovatsiyalari tajribalari jamlanib, ular ichida ish faoliyatimiz uchun eng samaradorlari sinovdan o'tkazilib biz o'qituvchi amaliyotchilar uchun ijodiy faoliyatlarimizga yordam berish maqsadida pedagogik texnologiyalarni o'rganish va amalga joriy etish kurslari tashkil etildi.

Pedagogik texnologiya axborotlarini o'zlashtirish, ulardan amalda foydalanish, ulardagi yangi ma'no-mazmunlarni hamda axborotlar orasidagi turli bog'liqliklarni ochish orqali yangi axborotlar yaratishga o'rgatish jarayonidan iborat.

Pedagogik texnologiya- ta'lim metodlari, usullari, yo'llari hamda tarbiyaviy vositalar yig'indisi, pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalari majmui. Demak pedagogik texnologiy insonga oldindan belgilangan maqsad bo'yicha ta'sir o'tkazish faoliyatidan iborat.

Musiqa madaniyati o'quv predmeti umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha o'quv predmetlari, jumladan, adabiyot, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, mehnat va boshqa fanlar bilan bog'lanadi. Barcha o'quv fanlari qatori musiqiy ta'limda ham DTS laming joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to'laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular amaliy xalq kuy va bugingi zamonaviy musiqada o'z aksini topdi. Musiqa san'atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalashda ularning barkamol bo'lib etishishlarida o'ziga xos va takrorlanmas manba bo'lib xizmat qiladi. Azaldan Sharq, jumladan, o'zbek musiqa ta'lim-tarbiya pedagogikasi va uning mukammal ustoz va shogird analari misolida takomillahib borgan. Davlat ta'lim standartlarida ommaviy xalq musiqa pedagogikasi, professional musiqa ijodkorlari, musiqa ijrochilari katta ashulachilar, maqomchilar, dostonchilar asarlarining elementar asoslarini o'rganish meyorlashtirilgan. Musiqa ta'limida davlat ta'lim standartlari asosida yangi ta'lim mazmuni o'quvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustaxkamlash, obrazli tasavvur qilish, ularda ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi xislatlarni rivojlantirishni ta'minlaydi. Musiqa madaniyati ta'limning yangi mazmuni yosh avlodni milliy musiqiy idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazishni nazarda tutadi. Bunda o'quvchilar musiqa san'ati nafosat bilan o'rganishlari, ommaviy musiqa faoliyatlari: musiqani badiiy idrok etish, yakka va jamoa bo'lib qo'shiq kuylash raqsga tushish va ijodkorlik malakalarini shakllantirish asosiy maqsad bo'lib hisoblanadi.

O'quvchilarning musiqa madaniyati darsiga bo'lgan qiziqishni o'stirish uchun dars samaradorligini oshirish, o'quvchilarning yosh hususiyatlarini hisobga olgan holda darslarni to'g'ri tashkil etish davr talabidir. Musiqa ta'limi jarayonini nazariy jixatdan tahlil qilish, ilg'or o'qituvchilar tajribalarini o'rganish, darsni turli bosqichlarga bo'lib o'tish o'zining ijodiy natijalarini beradi:

O'quvchilarni mustaqil fikrlay olishlari uchun bilimlari doirasini kengaytirishga mavzuga ijodiy yondashish ko'nikmalarini o'stirishga, fikrlash qobilyati faolligini takomillashtirishga erishiladi.

O'qituvchi tomonidan o'quvchilarda hosil bo'lgan bilim darajasini o'rganish hamda oldingilari bilan taqqoslab borish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, boshlang'ich sinf

o'quvchilarida ijodning boshlanishi yorqin namoyon bo'ladi. Yosh o'quvchilar judayam kashfiyotchi bo'ladilar.

Shuningdek, o'quvchilarni musiqiy iqtidorni rivojlantirish, musiqa san'atiga mehrini, ishtiyoqni oshirish, shu bilan birga musiqa san'atiga qiziquvchi o'quvchilarga zaruriy sharh-sharoitlar yaratib berish, ularning badiiy ehtiyojlarini qondirish musiqa ta'lim-tarbiyasining asosiy vazifasini tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda jahon xalqlarining umuminsoniy musiqiy qadryatlarini ham chuqur o'rganish yosh avlodni xalqaro nufuzga moyillik bo'lgan madaniy durdonalardan bahramand bo'lishni ta'minlaydi.

Shunday qilib, musiqa madaniyati o'qituvchisi innovatsion texnologiyalardan foydalanish jarayonida o'quvchilarni ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishi, ularda milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirishi, musiqiy ta'lim orqali badiiy didini o'stirishi, fikr doirasini kengaytirishi, ijodga bo'lgan munosabatlarini muntazam ravishda shakllantirib borishi lozimdir.

Yuqorida keltirilgan dalillar va musiqaning nazariyotiga oid boshqa ko'plab ma'lumotlarni o'quvchilar bilishi zaruru deb o'ylayman. Shu sababli bunday ma'lumotlarni darsdan-darsga, sinfdan-sinfga oddiydan murakkabga tomon prinsipi asosida o'quvchilar ongiga singdira borishi zarur.

Xulosa qilib aytganimizda umumta'lim maktablari har sinfida, har bir musiqa madaniyati darsida har bir to'garak mashgulotida va har bir o'tkazilayotgan ommaviy- musiqiy tadbirlarda dars, mashg'ulot yoki musiqa tarixiga oid manbalardan, ma'lumotlardan bildirilayotgan fikrlarga dalil sifatida va shu fikrlarni, to'ldirish, tushunarliroq qilish, ta'sir etish kuchini oshirish maqsadida foydalanish mumkin. Bu esa darsdan, mashgulotdan va tadbir o'tkazishdan ko'zlangan maqsadimizga tezroq yetishimizga, ulardan o'quvchilar ta'ssurot va bilimlar olishni yengillashtirishimizga va shu orqali o'quvchilar umumiy va musiqiy dunyoqarashini shakllanishi hamda kengayishiga erishamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.O'zb. XTB. Umumta'lim maktablarida musiqa ta'lim-tarbiyasi konsepsiyasi T.: 1995.
- 2.F.Boynazarov. Qadimgi dunyo tarixi. – T.: "Zar qalam" nashryoti 2006.
- 3.F.Boynazarov. O'rta Osiyoning antik davri.- T.: "O'qituvchi" nashr 1993.
4. Hasanova, Navbahor. (2020). METHODS AND WAYS TO DEVELOP THE MUSICAL FEELINGS OF STUDENTS IN TTTE LESSONS OF MUSIC EUITURE. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(42). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5579
5. Khasanova,Navbakhor (2020) “The role of music lessons in the formation of national and intercultural competence in students.”*Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*.Vol.2020 :Iss.2. Article 15 :<https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss2/15>
6. N. Hasanova O'zbek milliy musiqa merosi taraqqiyotida xotin-qizlarningo'rni. Актуальный вызыви современной науки IX xalqaro ilmiy konferensiya 26-27 yanvar 2017 yil.
7. Muminova Muqaddas Riskulovna Development And Current Status Of Uzbek Pop Music In Modern Approaches And Innovations Of Teaching The Science Of Music Culture *International Journal of Advanced Science and Technology* Vol. 29, No. 8, (2020) <https://t.me/joinchat/> - Music teacher, <https://infourok.ru> - music lessons

8. Muminova Muqaddas Riskulovna *International Journal of Mechanical Engineering*. The Innovative Technologiyes Of Teaching In Musical Edukational Establishments1764-1767- betlar. 2022- йил.

9. Muminova Muqaddas Riskulovna Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. THE ROLE OF SPORT ACTIVITIES, GAMES AND COMPETITIONS IN THE NURTURE OF 6-7 YEARS OLD CHILDREN<https://uzjournals.edu.uz/tziuj68-78>betlar 2022

10. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlarda pedagog kreativligi. “Yangilanayotgan O‘zbekistonda fan, ta’lim va innovatsiya uyg‘unligi” mavzusidagi 6-son 2-qism Respublika ko‘p tarmoqli ilmiy konferensiyasi VIII bo‘lim Toshkent 2021. 677 bet. Udk. 001.895 (575.1).

11. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlar o‘qituvchisining kreativligi. Педагогические и лингвopsихологические особенности развития, формирования и становления личности врача. Сборник тезисов Международная конференции. СамГМИ, Самарканд 5 мая 2021 год

12. Urinova S.Sh. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishning nazariy asoslari. “The best innovator in science” xalqaro maqolalar tanlovi to‘plami. Organized by Innovative Academy. Tashkent February 5, 2022. Pg 811. <https://zenodo.org/record/5979621#.YpC2PKhBxD8>

O‘QUVCHILAR BILAN INDIVIDUAL ISHLASHNING SHAKL VA USULLARI

Eshmamatova Chinora Sherali qizi,

Jizzax DPU Musiqa ta’limi - yoo‘nalishi 4-kurs talabasi.

Fayzullayev Ermat Majidovich,

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti dotsenti v/b, p.f.n.

Annotasiya: Maqola mazmunida o‘quvchilar bilan individual ishlashning shakl va uslublari to‘g‘risidagi fikr muloxazalar bildiriladi.

Kalitli so‘zlar: ansambl, to‘garak, ritm tuyg‘usi, musiqiy soz, cholg‘u ijrochiligi, badiiy-ijro, qo‘shiq kuylash.

Hozirda har bir fan bo‘yicha shu qatori musiqiy tarbiyada ham Davlat ta’lim Standartining yaratilishi katta ilmiy - amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan dasturiy hujjatdir. Mazkur Standart Respublikamiz maktablarida ta’limni yuqori ilmiy - metodik asosda tashkil etish imkoniyatini beradi.

Musiqiy ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari avvalo o‘quvchilarni individual musiqiy xususiyatlari va fiziologik - psixologik rivojlanganligini bilib shunga ko‘ra talab va vazifalar belgilanishini taqazo qiladi.

O‘quvchilar bilan mustaqil ishlash, musiqiy ta’limda ko‘pincha individual tarzda amalga oshiriladi. Bunga sabab musiqani amaliy ijrochilik bilan bog‘liq yo‘nalishlari bo‘yicha tashkil etiladigan mashg‘ulotlar o‘quvchi bilan yakka tartibda ishlashni taqazo etadi. Masalan musiqa darslarida belgilangan mavzuni o‘tish, jamoa bo‘lib kuylash, musiqa savodiga xos bilimlar o‘qituvchi tomonidan umumiy tarzda tushuntirish suxbat, hikoya qilish kabi usullar bilan olib borilishi mumkin. Lekin ayrim o‘quvchilar boshqa o‘quvchilar bilan hamda alohida iqtidorga ega bo‘lgan bolalar bilan ishlashi o‘ziga xos

tarzda ya'ni individual tarzda olib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Buni quyidagi misollar orqali ko'rsatish mumkin.

1. O'quvchining vokal kuylash qobiliyati sust. Bu narsa u bilan yakka holda fortepiano yoki cholg'u sozlari yordamida vokal xor malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ishlarni olib borishni talab etadi. Bunda uning ovoz diapazoni kuchi, og'izni ochish, musiqani eslatish, unga ergashish, tovushni sof intonatsiya qilish va so'zlarga oid (diksiya) malakalarini shakllantirish, o'stirish, rivojlantirishga asosiy urg'u beriladi.

2. Ritmni his etmaslik. Bunday hollarda o'quvchi bilan ritmik harakatlarni bajarish, sanash qoidasini tanlash, dirijyor harakatlarini o'quvchilarni har tomonlama shakllantirishga qaratiladi.

3. Hayajonlanish, ovoz qaltirashi, uyalish. Bunday holda ularni ko'pchilik qatnashadigan ommaviy tadbirlarga ko'proq jalb qilish, oynaga qarab mashq qilish, mustaqil topshiriqlar berish bilan olib boriladi.

O'quvchi biror chog'u sozida chalishni puxta egallashni istaydi va uning bunga qobiliyat va iqtidori ham mos keladi. Bunday o'quvchilar har bir musiqa o'qituvchi uchun juda kerakli o'quvchi hisoblanadi. Chunki maktab o'quvchisining maktab hayotidagi faoliyati juda ko'p qirralidir. Turli bayramlarga, konsert dasturida tayyorlash. Bunday hollarda oldindan ma'lumki tayyorgarlikka va cholg'uchilik yoki qo'shiq aytish malakasiga ega bo'lgan o'quvchilar birinchi navbatda o'qituvchining eng yaqin suyanchig'iga aylanadilar. Bundan shunday xulosa chiqadiki, har bir musiqa o'qituvchisi musiqiy qobiliyatli bolalarni qiziqish va iqtidorlarini muttasil rivojlantirib borishi, ularni doimiy ravishda o'z diqqat-e'tiborida tushish va eng muhimi ular bilan individual tarzda mashg'ulotlar olib borishni izchil ravishda yo'lga qo'yishi kerak.

Ko'rinib turibdiki musiqa tarbiyasi va ta'limda o'quvchilar bilan individual ishlash metodi o'quvchilarni musiqa bo'yicha bilim va malakalarini shakllantirish va eng muhimi musiqiy ko'nikmalarini "tenglashtirish" yo'lida muhim va juda katta ahamiyatga molik omil ekan. Ijrochilik malakalarini "tenglashtirish" shuning uchun ham muhimki, musiqiy faoliyatlar asosida yetakchi o'rin tutuvchi "jamoaga bo'lib kuylash" da yaxshi soz, ansamblikka erishishi ijroning badiiy sifatligiga erishishi uchun ishtirokchilarni yagona bir organizimga birlashtirish, ya'ni bir xilda kuylashga erishtirish juda muhim shartlardan biridir.

Har bir sinfda o'rtacha 35ta o'quvchi bo'lib, ular xor bo'lib qo'shiq kuylashganda bir o'quvchining jamoaga ergasha olmasligi (usulga tushmasligi, his etmasligi, dirijorlik harakatlarini idrok etmasligi va hokoza) butun jamoa mehnatini zoya ketkazishi mumkin.

O'quvchilar bilan mana shunday individual ishlash juda ko'p maqsadlarni ko'zda tutadi.

Bir soatlik dars jarayonida musiqiy ta'lim berishning bir necha usullarini qo'llash mumkin.

Bu ayniqsa musiqa darslarini tuzilishiga ko'ra faoliyat turlarini qo'llash orqali amalga oshiriladi. Mana shu jarayonda o'quvchi biror bir faoliyatda orqada qolishi yoki o'zini yaxshi namoyon qilishi mumkin, yoki bo'lmasa unda musiqa san'atining biror turiga qiziqish paydo bo'lishi mumkin.

Mana shunday vaziyatlarda o'quvchi iloji boricha o'zi qiziqqan narsani tez o'zlashtirishga, egallashga intiladi. U mustaqil tayyorlanadi, musiqa darsini intiqlik bilan kutadi, yoki to'garaklar ma'lumotlariga, maktabdan tashqari muassasalarga qatnay

boshlaydi. O'qituvchi bunday holatda o'quvchisidagi o'zgarishi sezishi va uning qiziqish istaklarini hisobga olgan holda unga maslahatlar berishi yoki u bilan qo'shimcha individual ma'lumotlarni belgilashi mumkin.

O'zlashtirishi past o'quvchini belgilandan paytda olib qolish, ularni vaqtlarini belgilash, beriladigan topshiriqlar ularni natijalarini qayta ko'rsatib berish usullari orqali amalga oshiriladi.

Qo'shiqlar, mashqlar kuylayotganda uning ovoz turiga mos diapazoniga mos ravishda bo'lgan tonallikda ovoz sozlash mashqlari, cholg'u asbobida bo'lsa, cholg'u soziga qarab o'quvchining imkoniyatlari (barmoqlar, qo'l texnikasi, yodda saqlash xotirasi, nota savodxonligi, varaqdan o'qish) hisobga olinadi.

Jamoa oldida uyaladigan tortinchoq, yoki musiqaga qiziqishi bo'lmagan o'quvchilar uchun dars so'ngida alohida topshiriqlar berish, faol o'quvchilar qatori ularni rag'batlantirib, yaxshi tomonlarini maqtash, baholash orqali ularda musiqa darslariga yaxshi munosabatini shakllantirish mumkin.

Chunki yaxshi baho, unga nisbatan alohida e'tibor bolani ruhiyatida o'zgarish bo'lishiga olib keladi. Ushbu o'zgarish uni yangi-yangi muvaffaqiyatlarga undaydi, turli-tuman tadbirlarga, ko'rik tanlovlarga qatnashish istaklarini paydo qiladi. Natijada musiqa darslariga hamda biror bir sohasiga chuqur kirib borishi uni yaxshi egallash va shu orqali ko'pchilik nazariga tushishga intiladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki musiqa o'qituvchisi o'z faoliyatida har bir o'quvchini chuqur va har taraflama o'rganib borishi, qaysi o'quvchiga qanday talablar qo'ya olish, uning zaif va ustun tomonlariga qarab mustaqil topshiriqlar berish bo'yicha individual rejaga ega bo'lishi kerak. Unda o'quvchining sinfi, musiqa darsiga qiziqishi, o'zlashtirish darajasi, musiqaning qaysi sohasiga qiziqish, oilaviy ahvoli va imkoniyatlari, xarakteri boshqa fanlardan o'zlashtirishi, jamoat ishlarida qatnashishi, o'z aksini topishi kerak.

Individual va mustaqil ishlash rejasini ishlab chiqishda quyidagi shartlarga rioya qilish lozim.

1. O'quvchi bilan o'tkaziladigan individual mashg'ulot kuni, vaqtini aniqlash.
2. O'quvchining musiqiy qobiliyati va zaif tomonlari.
3. U bilan o'tkaziladigan mashg'ulatning xomaki rejasi.
4. Beriladigan va bajariladigan topshiriqlar hajmi.
5. O'quvchining predmetiga munosabati, burch va ma'suliyatini e'tiborga olish.
6. O'quvchining mehnati layoqat darajasi sog'ligini hisobga olish.
7. Ota-onalar va boshqa o'quvchilar tomonidan yordam berilishi mumkinligini nazarda tutish.

Musiqaning ma'lum bir sohalari bo'yicha qiziqish va qobiliyatlari rivojlantirishga doir individual uy vazifalari mazmun jihatdan psixologik va fiziologik xususiyatlari bo'yicha o'quvchilar bilan individual ish olib boorish o'quvchilarni fanni o'zlashtirish, musiqa san'atining biror sohasini faol shug'ullanish orqali ularni bo'sh vaqtini samarali kechishini ta'minlash ulardagi qobiliyat va ist'edodlarini rivojlantirish uchun qulay va muhim pedagogik faoliyat maqsadi va mazmunini ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008. - 176 b.
2. I.Rajabov. "Maqomlar masalasiga doir". -T., 1963 yil.
3. O.Ibrohimov. "O'zbek xalq musiqa ijodi". Metodik tavsiyalar. -T., 1994 yil.

-
4. Sh. Ro‘ziyev “Xorshunoslik” Toshkent “Adabiyot va san’at” nashr 1987 - yil.
 5. S.H.Yo‘ldosheva “O‘zbekistonda musiqa ta’limi va tarbiyasining rivojlanishi” Toshkent “O‘qituvchi” nashr 1985 - yil.
 6. M.Rizayeva “Yosh xonandaning kamoloti” Toshkent “Cho‘lpon” nashr 2003 - yil.
 7. Maqom ansambli. Umumta’lim maktablari va maktabdan tashqari muassasalarning to‘garak rahbarlari uchun dastur. O.Ibrohimov. Toshkent. 1993 yil.
 8. Folklor ansambli. Umumta’lim maktablari va maktabdan tashqari muassasalarning tzgarak rahbarlari uchun metodik qo‘llanma. Muallif F.Xidirov. Toshkent, 1994 yil.
 9. A.Fitrat “O‘zbek kilassik musiqasi va uning tarxi: Tosgkint, Ton, 1993-y
 10. A.Baxorov “O‘zbekiston pedagogic fikr taraqqiyoti tarixidan” Toshkent O‘qutuvchi 1967-y
 11. “O‘zbekiston Vatanim manim”, 2. Kitob Toshkint mihnati 1997 y
 12. “O‘zbekiston Vatanim manim” 3-kitob “Sharq nashriyoti” 1999 yil.

MILLIY MUSIQA SAN’ATINING YOSHLAR MA’NAVIY-MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA TUTGAN O‘RNI

*Fayzullayev Ermat Majidovich, Abdulla Qodiriy nimidagi Jizzax
Davlat Pedagogika Universiteti dotsenti v/b, p.f.n.
Shoxobidinova Zilola Orif qizi, Jizzax DPU 2-kurs magistri.*

Annotasiya: Maqola mazmunida milliy musiqa san’atining yoshlar ma’naviy-madaniyatini shakllantirishda tutgan o‘rni haqidagi fikr-mulohazalar bildiriladi.

Kalitli so‘zlar: musiqa, madaniyat, san’at, ma’naviy-tarbiya, axloqiy-estetik, musiqa madaniyati.

Musiqa ulkan ta’sirchan kuchga ega bo‘lgan tarbiya vositasidir. Musiqa o‘zining jozibasi bilan inson qalbini rom etadi. U kishi ruhiyatiga hayotbaxsh kuch bag‘ishlaydi. Musiqa kishilarning zavqlanishi, xuzo‘rlanishi, rohatlanishi, marokli dam olishi, taskin topishi, fikrlashi va mushoxada qilishiga ko‘makdosh bo‘ladi. Ayni bir paytda, musiqa kishylarning ulug‘ ishlarga safarbar etuvchi qudratli kuchga ham ega. Shu bois bo‘lsa kerak, Sharqning buyuk mutafakkirlari Farobiy, ibn Sino, Beruniy, Axmad Yassaviy, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiylar o‘z ijodlarida musiqa san’atiga alohida e’tibor qaratganlar, uni ulug‘laganlar. San’atni inson qalbi va ruhiyatining jon ozig‘i deb bilganlar. San’at va san’atkorni doimo qadrlaganlar. Ularning ta’kidlashlaricha chinakam san’atga oshno bo‘lgan madaniyatli va ma’naviyatli kishilar yurt obro‘sini ko‘taradilar, o‘zlari esa xalq xurmatida bo‘ladilar.

Dono xalkimiz qadim-qadimdanoq musiqa va qo‘shiqni o‘z ijtimoiy va madaniy hayotlarini muhim bo‘lagi deb bilganlar. Farzandni qo‘shiq aytishga, soz chalishga o‘rgatish oila orzusi sanalgan, xonadonda yaxshi niyat bilan biron-bir cholg‘u sozi saqlanishi odat qilingan. Dunyoga kelgan farzand birinchi bor yo‘rgaklanishdayoq kuylanadigan ma’yus ona allasi, ism qo‘yilishida go‘dak qulog‘iga qiroatli azon aytilishi, surnayning mungli sadolari ostida bolaning xatna qilinishi aslo bejiz bo‘lmagan. Kuy va ohangni go‘dak qalbiga tez yo‘l topa olishi, qalbi va hissiyot olamiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, ezgulik tomon yetaklay olishi buyuk donishmand avlodlarimiz tomonidan chuqur anglab yetilgan.

Yoshlik - inson umrining bahori. Barcha go‘zal fazilatlar ham, xunuk odatlar ham yoshlikdan shakllana boshlaydi. Inson yoshligidan nafosat olamiga jalb etilmasa, eng ezgu fazilatlar ruhida

tarbiyalanmasa, keyinchalik turmush chorahalarida dovdirab qoladi. Shuning uchun ham ma'naviy tarbiyaning muhim qismi - musiqa saboqlari berishni yoshliqdan boshlash lozim.

Sharqning ibn Sino, Farobiy, Beruniy, Kavkabi, xazrat Navoiy, Umar Hayyom, Jomiy kabi jahonga nom taratgan buyuk allomalari ham musiqa ilmiga katta e'tibor berganliklarini ko'ramiz, musiqa san'ati inson tarbiyasida muhim o'rin tutishligini, kishi madaniyati va umuman ma'naviyatida ustivor o'rinda turishligini baralla ta'kidlaganliklarini bilamiz.

San'at - ijtimoiy ongning bir turi, kengroq mushoxada etsak, asl san'at ideal mafkura demakdir. Xatto yuksak taraqqiy etgan fan va texnika vositalari ham yechimini topa olmayotgan muammolarni san'at vositasida ijobiy hal etish, insoniyat taqqirida muhim o'zgarishlarga erishish mumkinligi mubolag'a emas. Ayniqsa, musiqa ko'hna san'atlar sirasida insonga tabiatan xos, ta'sir quvvati beqiyos san'at sifatida aloxida mavqyega ega. Musiqaning yuksak badiiy-estetik qimmatini, kuchli ruhiy-ma'naviy ta'siri, tarbiyaviy axamiyati xususida o'rta asrlarga mansub ilmiy va badiiy adabiyotlarda talaygina e'tiborga loyiq fikrlar mavjud. Ajdodlarimiz musiqani ilohiy go'zallik, latif san'at sifatida asrlar osha e'zozlab kelganlar. Qolaversa, biz ham kundalik hayotimizni musiqasiz tasavvur eta olmaymiz.

G'urur - umuman ma'naviyatda ustivor o'rinda turishligini baralla ta'kidlaganliklarini bilamiz.

Aristotel ta'biri bilan aytganda, «Musiqqa qalbning axloqiy-estetik jihatlariga ta'sir ko'rsata olish layoqatiga qodir. Modomiki, musiqa shunday xususiyatlarga ega ekan, demak u yoshlarni tarbiyalash vositalari qatoriga kiritilmog'i lozim».

«*Aviqyenna*» nomi bilan butun dunyoda mashxur bo'lgan Abu Ali ibn Sino faqatgina shifokor emas, taniqli musiqashunos ham edi. Xatto g'ijakning yaratilishi bilan bog'liq rivoyat ham ibn Sinoga bag'ishlangan: go'yoki bu cholg'u asbobini ixtiro qilgan va unda kuy chalgan odam ulug' hakim emish. «Kitob ash-Shifo» asarida yozilishicha, musiqa kishi ruhini davolovchi, inson qalbiga kuchli ta'sir etuvchi estetik vositalardan biridir.

Alisher Navoiy nozik ta'b, yuksak zakovat egasi sifatida musiqani sevib tinglar, dil-dildan zavqlanardi. Shoir talantli san'atkorlarga hamisha g'amxo'rlik qildi, yoshlarning kamoloti uchun tinmay qayg'urdi. Insonning kamolotga yetishuvida asosiy rol o'ynovchi vositalardan biri - musiqa san'atidan bahramand bo'lish deb bildi. Musiqani sevmagan shoir qalbi xuvillagan charbog', xazon bo'lgan bahordir. «Musiqani idrok etmagan shoir, nim shoirdir», - deydi Navoiy.

Arastu yozgan ediki: «Musiqqa ko'ngilga axloqan ta'sir ko'rsatish qudratiga ega ekan, u albatta yoshlarni tarbiyalash qo'llanmalari qatoriga qo'yilmog'i lozim». Musiqqa va musiqashunoslik ilmini chuqur tadqiq qilgan buyuk alloma Farobiy ham musiqani axloq bilan bog'liqligiga chuqur ishonch hosil qilgan edi: «Bu ilm o'z muvozanatini yo'qotgan odamlar xulqini muvozanatga keltiradi, mukammallikka yetmagan xulqni mukammal qiladi, muvozanatda bo'lgan kishilar xulqini esa muvozanatda saklab turadi. Musiqani inson qalbidan o't-olov chiqarishi lozimligini istagan Betxoven esa uni», - deb baholagan.

Abduraxmon Jomiy o'zining «Musiqqa haqida risola»sida maqomlar haqida fikr yuritib: «Bilki, kishiga lazzatbaxsh etishdan iborat umumiy xususiyatlardan tashqari 12 maqomdan har biri, har bir ovoza va sho'ba maxsus ta'sir kuchiga ega. Masalan: Ushshoq, Navo, Bo'saliq tinglovchida qudrat va jasurlik uyg'otadi, vaholangki, ovoz bunday ta'sir kuchga ega emas», - deya xayratlangan.

So'z mulkining sultoni, yuksak madaniyat soxibi Alisher Navoiyning o'lmas asarlari, u haqida yozilgan ilmiy-tadqiqotlar uni o'z zamonasining yuksak aql-zakovatli, qomusiy olimligi bilan bir qatorda, san'atni chuqur tushunuvchi, musiqiy ohanglar sehdan qattiq ta'sirlanuvchi nozik qalb soxibi ekanligidan ham dalolat beradi. A.Navoiy o'z davrining musiqashunosi, bastakori ham bo'lgan bo'lsa ajab emas, zero u o'z zamonasidagi musiqa san'ati taraqqiyoti

darajasidan to'la xabardor bo'lgan, san'atkorlarga raxnamolik qilgan, xatto musiqaga bag'ishlab maxsus «Risolai musiqa» asarini yozganligi ma'lum. Yozgan she'r va g'azallarini nihoyatda musiqiy yangrashiga intilgan. Shu bois Ogahiyning ta'biri bilan aytganda «Navoiyning navosidan ortiqcha bahra yo'q». Navoiyning fikricha har bir shoir bir oz bo'lsa-da, kuy bastalay bilishi lozim, soz chala bilgan shoir esa ravon musiqiy she'rlar yozishi mumkin, biron-bir cholg'uda sado tarata olmaslik esa shoirlikning nuqsonidir. Binobarin, she'r va musiqa doimo hamohang va o'zaro mushtarak bo'lmog'i lozim.

Musiqa bilan shug'ullangan kishi «Noo'rin harakatlar bilan o'ziga dog' tushirmaydi, balki undan olam-jahon bahra va foyda olib o'ziga ham, Vatanga ham foydali ishlar»ni bajaradi.

Farobiy ensiklopedist olim bo'lish bilan birga buyuk musiqashunos ham edi. Uning musiqa ilmi sohasidagi faoliyati faqat nazariy qarashlari bilan chegaralanib qolmasdan, amaliy faoliyatida ham o'z ifodasini topgan. Farobiyning o'z davri uchun yangilik bo'lgan musiqa asbobi yaratgani, mohir sozanda va bastakor sifatida tanilgani hakida rivoyatlari ko'p.

Farobiy musiqa ilmini keltirib chiqargan sabablarni bilish xususida yozar ekan, umuman, musiqaning axloqiy-tarbiyaviy jihatlariga diqqatni jalb etadi. «Bu ilm shu ma'noda foydaliki, deb yozadi Farobiy «Ixso ul ulum» asarida, - u o'z muvozanatini yo'qotgan (odamlar) xulqini tartibga keltiradi, mukammallikka yetmagan xulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo'lgan (odamlar) xulqining muvozanatini saqlab turadi. Bu ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir, chunki, tana kasal bo'lsa, ruh ham so'ladi, tana to'siqqa uchrasa, ruh ham to'siqqa uchraydi. Shuning uchun ovozlarning ta'siri bilan ruhni sog'aytirish yordamida tana pasaytiriladi, ruh esa o'z kuchlarining tartibiga solinishi va o'z abstanqiyasiga moslashtirilishi orqali sog'ayadi».

Aytishlaricha, al-Farobiyning o'zi mohir ijrochi-qonun, bastakor bo'lgan. Rivoyatlarga qaraganda u yangi asbob ixtiro qilgan.

O'zining musiqiy pedagogik qarashlari bo'yicha al-Farobiy qadimiy yunon olimlari bilan hamfikir bo'lgan. Ular musiqani ta'lim va tarbiyaning zaruriy predmeti deb hisoblaganlar. Qadimiy yunon olimlarining fikricha gimnastika odamlarning tanasi va qaddini shakllantirgani kabi, musiqa inson qalbini shakllantirishga qodir bo'lgan vosita hisoblanadi.

Abu Ali ibn Sino qadimgi yunon faylasuflari hamda Farobiyning musiqa to'g'risidagi ta'limotlarini chuqurlashtirgan holda musiqaning inson ma'naviyati bilan bog'liq jixatlariga ham katta e'tibor beradi. Olimning fikricha, «Musiqa hayotbaxsh, olijanob axloqiy kelinni kuyov xonadoniga kelishi bilan yuzaga kelib, kuyovning ota-onasi, qarindosh-urug'lari kelin nomidan ma'lum ohanglarda salom aytib turiladi. Ijrochi ijro jarayonida she'r mazmuniga o'zgartirish kiritadi, ya'ni ushbu xonadonga qarashli insonlarga murojaat etgan holda badiha (tayyorgarliksiz ijro etilgan kuy yoki qo'shiq) ijro etadi».

Ch.Darvin san'atning zaruriyati hamda uning kishi ongi va axloqiga ta'siri to'g'risida bunday degan edi: «Agar menga qaytadan umr ko'rish nasib bo'lganda edi, men har kuni oz-ozdan she'riy asarlar o'qib borishni va ozroq musiqa tinglashni o'zimga odat qilib olgan bo'lardim». Agar juda yopglik chog'idanoq bola qalbiga musiqa asarining go'zalligi ta'sir ettirilsa, agar bola tovushlarda inson his-tuyg'ularining ko'p qirrali ma'nolarini sezsa, u hych qanday boshqa vositalar bilan erishib bo'lmaydigan madaniyat cho'qqisiga ko'tariladi. Musiqa ohanggi go'zalligini his etish, bola qarshisida o'z go'zalligini yaratadi - kichik inson o'z obro'-e'tiborini anglaydi.

«Sharq musiqasi, - degan edi birinchi Prezidentimiz *I.A.Karimov* «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivalining ochilish marosimidagi tadbir so'zida, - Sharq falsafasi, Sharq dunyosining uzviy bir kismidir. Sharq musiqasining jahon marosimida tutgan o'rni benihoya buyuk... Bu musiqa ming-ming yillardan beri odamlar dilini poklab, ularni ruhan yuksaltirib kelmoqda.

O‘zining nozik jozibasi bilan dunyo madaniyatiga ozuqa berib, umumbashariy qadriyatlarga munosib hissa qo‘shmoqda».

Musiqqa ulkan ta’birchan kuchga ega bo‘lgan tarbiya vositasidir. Musiqqa inson ruhiyatiga hayotbaxsh kuch bera oladigan jon ozig‘idir. U kishilarning zavkdanishi, huzurlanishi, rohatlanishi, maroqli dam olishi, taskin topishi, fikrlashi, falsafiy mushohada qilishi uchun yordam beradi.

Demak, musiqqa faqat badiiy ijod, san’at turi bo‘lib qolmasdan, balki ma’naviy madaniyatning muhim bir qismi sifatida ham o‘rganilishi lozim.

Buyuk bastakor *Lyudvig van Betxoven* kuy to‘g‘risida gapirib, shunday deydi: «Musiqqa - donishmandlik va falsafadan ham yuksakroq dil izxoridir». Kuylarimiz, navo-yu, xonishlarimiz bizning tilimizni bilmagan xalqlarga qanchalik ta’sir qilganini, kuy-g‘azallarimiz o‘zga yurt odamlari qalbiga singib ketishini ko‘rib, xayratda qolganmiz, - mashxur sozanda Abduxoshim Ismoilov.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining «Musiqqa madaniyati» darslariga kiritilgan qo‘shiqlar dasturida ham istiqlolni, mustaqilligimizni, o‘zligimizni, bayram va an’analarimizni, ona Vatanimizga bo‘lgan cheksiz tuyg‘ularni ifodalovchi o‘nlab asarlarni uchratish mumkin va bu asarlar o‘quvchilarda ma’naviyatni o‘stirishga xizmat qiladi.

Musiqqa ta’limning eng asosiy vazifasi, o‘quvchilarni san’atning ajoyib va g‘aroyib olamiga yetaklash orqali ularni go‘zallik va nafosat tuyg‘ularini o‘stirish, olam haqidagi tushuncha va tasavvurlarini boyitish, badiiy didlarini to‘g‘ri shakllanib borishiga yordamlashish, ularda axloqiy sifatlarni shakllantirish va eng asosiysi, san’at vositasida yosh o‘quvchilarda Vatanga muhabbat hislarini tarbiyalash, ma’naviyatini o‘stirib, borishdan iboratdir.

Bu vazifalar musiqqa o‘qituvchisiga yuklatiladi. Bu jiddiy, pedagogik va psixologik jixatdan birmuncha murakkab bo‘lgan vazifalar qanday yo‘llar bilan bajariladi? Buning yo‘l va vositalari ko‘p. Shulardan biri o‘quvchilarning ma’naviyatini o‘stirishni ta’minlash. Bu ham bir qarashda murakkab ko‘rinadi. Lekin, musiqqa o‘qituvchisi yetarli bilimli bo‘lsa, o‘z ishini sevsa, bolalar bilan ishlash unga bahra bersa albatta maqsadga erishish mumkin.

Bolalarda musiqqa darslari jarayonida ma’naviyatni o‘stirishda quyidagi yo‘l va vositalardan faol foydalanish yaxshi natijalar berishi isbotlangan:

- har bir darsni yaxshi kayfiyat bilan boshlash. Sinfda va o‘quvchilarda jonli holat sodir etish, kiziqish hosil qilish;

- har bir dars uchun mantiqiy jixatdan asoslangan repertuar tanlash (dasturda o‘qituvchi dars repertuarini erkin tanlashi, darsliqqan tashqari qo‘shimcha manbaalardan ham foydalanish mumkinligi ko‘rsatilgan);

- darsda bolalarni jonlantiradigan, ularda qiziqish uyg‘otadigan yangi pedagogik texnologiyalarni oqilona qo‘llash;

- o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgani holda ko‘proq ijodiy o‘yinlar, musiqali topishmoq, musiqali rebus kabi harakatli usullardan foydalanish; darsdan-darsga o‘quvchilarning musiqqa tasavvur va taassurotlarini boyitishga qaratilgan rang-barang amallarni qo‘llab borish;

- darsda ko‘proq jonli ijrodan foydalanish. Har bir qo‘shiq va musiqqa asarini o‘qituvchi jajji tinglovchilarga jonli, yorqin, ifodali ijro etib berishi;

- sinf konqyertlarini tashkil qilib borish (har chorakda bir marta). Bunda o‘quvchilar musiqqa darslarida o‘rgangan qo‘shiqlarni yakka, duet, kichik xor shaklida ijro etib beradilar va bu konqyertlarga parallel sinf o‘quvchilarini ham taklif etib boradilar. (Ijodiy musiqali hisobot konqyertlari);

- sinf xorini toza va yorqin jaranglashi uchun bo'sh o'zlashtiruvchi (qobiliyati past) bolalar bilan individual ishlashni rejali asosda tashkil etish;

- o'quvchilarni faqatgina dars bilan chegaralamay, balki sinfdan va maktabdan tashqari turli to'garaklarga, konsertlarga, uchrashuvlarga olib chiqish ishlarini amalga oshirish kabi tadbirlar nafaqat dars mazmunini boyitadi, balki o'quvchilarning ijodiy faolliklarini o'stirib borishga ham xizmat qiladi;

- ko'plab ma'naviy-tarbiyali tadbirlar o'tkazib borish (suxbatlar, uchrashuvlar, baxs-munozaralar, savol-javoblar).

Xulosa shuki, biz ustoz-murabbiylar yosh avlodga ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan milliy musiqaning oxirini to'kmay, yoshlarga yetkazishimiz lozim. Shunday qilaylikki, mustaqil O'zbekiston manfaatlariga xizmat qiluvchi, tilini, dinini, tarixiy madaniyatini, adabiyoti va san'atini yuksak darajada biluvchi, uning quvonchi va tashvishi bilan hamnafas yashashga qodir musiqa o'qituvchilari voyaga yetishsin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008. - 176 b.
2. Fayziyev K., Nishonov S. "Pedagogika tarixi" (o'quv qo'llanma) T.1996 yil.
3. Xoshimov O. "Maktabda musiqaviy tarbiya". -T., 1992 yil.
4. D.Omonullayev va boshqalar. "Davlat ta'lim standartlari". Dastur, 1992 yil.
5. O.Matyoqubov. "Forobiy Sharq musiqasi asoslari haqida". -T., 1986 yil.
6. I.Rajabov. "Maqomlar masalasiga doir". -T., 1963 yil.
7. O.Ibrohimov. "O'zbek xalq musiqasi ijodi". Metodik tavsiyalar. -T., 1994 yil.
8. B.Ziyomuhamedov. «Ma'rifat asoslari». -T., «O'zbekiston». 1998 yil.
9. Sh.Isroilov. «Milliy qadriyatlar». «Maktabgacha tarbiya» jurnali. 1992 yil. 3-son.
10. O.Musurmonova. «Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi». -T., «O'qituvchi». 1996 yil.

MUSIQA MASHG'ULOTLARI JARAYONIDA O'QUVCHI YOSHLARNI XOTIRA,ONG VA SEZGISINI RIVOJLANTIRISH

Hayitov Zoxid Murod o'g'li

JDPU Musiqa ta'limi va san'at yo'nalishi II bosqich magistranti.

Annotatsiya: Maqolada musiqa mashg'ulotlarida turli luy qo'shiqlarni o'rgatish orqali o'quvchi yoshlarni xotira,ong va sezgisini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari, imkoniyatlari va musiqa darslarining o'ziga xos tuzilish xususiyatlari tahlil qilingan hamda metodik tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Musiqa, mashg'ulot, o'quvchi, xotira, ong.

Istiqlol sharofati bilan yurtimizda «Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot barpo etish» yo'lidan borar ekanmiz, jamiyatimizning barcha sohalarida tup o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama mukammal inson qilib tarbiyalash hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib turgan bir paytda, xususan, talantlarga pedagogik mahorat sirlarini o'rgatib borish o'ta zarurligini hayot taqozo etadi. Bo'lajak musiqa mutaxassislari yosh avlod ongiga yuksak tuyg'ularni singdirish, ularda Ona Vatanga muhabbat, go'zallikka intilib yashash, uni asrash va yaratishga bo'lgan ishtiyoq uyg'otuvchi kasb egalari hisoblanadilar.

Musiqiy ta'limning oliy maqsadi: yosh avlodni milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan hamda musiqa boyligini idrok eta oladigan, yetuk, barkamol, madaniyatli, nafaqat o'z milliy an'analarini, balki boshqa millatlar madaniyatidan boxabar va bu an'ana, madaniyatlarini hurmat qiladigan qilib voyaga yetkazishdan iboratdir. Bunda nafosat tarbiyasining ahamiyati benihoya kattadir.

Nafosat tarbiyasining mazmuni serqirra bo'lib, musiqa tarbiya eng asosiy o'rinni egallaydi. Xalq pedagogikasi o'sib, rivojlanib borayotgan bir davrda xalq musiqiy namunalarini o'rganish atoqli san'atkorlar ijodidan dars jarayonida keng foydalanish musiqa o'qituvchisi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri ekanligi ta'kidlanadi. Mazkur tavsiyada mavjud pedagogik vazifalar saqlangan holda, O'zbekistonga xos milliy qadriyatlar, an'analar, xalq ijodi, musiqani bolalarning idrok etish qobiliyati darajasiga bosqichma-bosqich tadbiiq etish nazarda tutiladi.

Musiqa mashg'ulotlari jarayonida bola hayotiy voqelikni musiqiy obrazlar orqali idrok etib boradi. Bolalar yoshiga mos musiqa asarlari kichkintoylarda unutilmas taassurot qoldiradi, ularning ruhiy dunyosini boyitadi. Bog'cha sharoitidagi musiqaviy tarbiya badiiy adabiyot va tasviriy san'at bilan uzviy bog'langan holda amalga oshiriladi. Ashula aytish usuli, janrdagi musiqa asarlari, xususan, syujetli cholg'u pyesalarini tinglash, musiqaviy o'yinlar bilan shug'ullanish va raqsga tushish jarayonida musiqa mashg'ulotlari ko'pincha badiiy so'z bilan belgilanadi. Bola badiiy obrazlarni yorqin tasavvur etishi, xotirasida saqlab qolishi va chuqur idrok qila olishi uchun tasviriy san'at asarlaridan unumli foydalaniladi. Turli metodlardan foydalanib o'tkaziladigan har bir musiqa mashg'ulotlari kichkintoylarda badiiy estetik zavq uyg'otadi, xotirasini mustahkamlaydi, aqlini charxlaydi ularning his-tuyg'ularini rivojlantiradi, ijodiy fikri va nutqini o'stiradi. Musiqiy uquv qobiliyati asosan quyidagi musiqa uquv turlaridan iborat bo'ladi: musiqaviy uquvi, musiqaviy tovushlarning baland-pastligini his etish qobiliyati, tembr uquvi (musiqa tovushlarining bir-biridan farq qiladigan, o'ziga xos jihatlarini ajrata bilish qobiliyati), ritm tuyg'usi va musiqa xotirasi. Musiqa mashg'ulotlarida olib boriladigan musiqa tarbiyasining asosiy maqsad va vazifalarini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Bolalarning musiqaga qiziqishini oshirish va uni sevvishga o'rgatish.
2. Musiqa asarlari bilan tanishtirish jarayonida bolalarda emotsional his-tuyg'ularini hosil etish yo'li bilan ularning musiqa haqidagi tasavvurlarini boyitib borish.
3. Bolalarni oddiy musiqa tushunchalari bilan tanishtirish, musiqa tinglash, ashula aytish, musiqa bilan harakat qilish, raqsga tushish va bolalarning oddiy musiqa asboblarida kuy chalish ko'nikmalarini shakllantirish va ijodiy qobiliyatini o'stirib borish.
4. Bolalar ovozini asrab tarbiyalash, ashula aytishning dastlabki ko'nikmalarini hosil etish, qo'shiqlarni sodda, ravon, erkin, tabiiy va ifodali kuylashga o'rgatish.
5. Musiqa asaralaridan ta'sirlanish, shu asosda bolalarda musiqaviy did va badiiy muhokama yuritish malakalarini rivojlantirish.
6. Turli musiqa mashg'ulotlari jarayonida improvizatsiya qilish musiqadagi badiiy obrazni o'yin va xor ovozlar vositasida ifoda etish, ma'lum musiqaviy mavzuga yangi o'yin o'ylab topish.
7. Musiqaviy tarbiya mashg'ulotlarini maktab hayoti bilan bog'lash, maktabda o'tkaziladigan turli mashg'ulotlarda va marosimlarda o'rganilgan kuy va qo'shiqlardan keng foydalanish, konsertlar uyishtirish vositasida musiqa kundalik hayotimizning ajralmas yo'ldoshi ekanligi haqida bolalarda tushuncha hosil qilish.

Musiqa haqida boshlang'ich ma'lumotlar berishni o'rgatadigan asarlar nomlarini eslashga, ularning mazmuni, xarakteri va ifoda vositalarining farqiga borishga hamda tinglagan

asarlarga ma'lum miqdorda badiiy baho bera olishga o'rgatish musiqa o'qituvchilarining asosiy vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari erkin, ixtiyoriy tarzdagi diqqat e'tibor shakllanib, musiqani diqqatni yig'ib tinglash, uning ayrim detallarini anglab olish qobiliyati rivojlangan bo'ladi. Ularda musiqaga qiziqish ko'proq sevimli asarlarni takror-takror tinglash jarayonini yaxshi rivojlanadi. Ular musiqadagi umumiy kayfiyatni yaxshi sezib, asarda badiiy obrazning rivojlanib borishini kuzatishni o'rganib boradilar. Yangi asar bilan ilk bor tanishtirishga tarbiyachining qisqa va qiziqarli tushuntiruv so'zi katta rol o'ynaydi. Cholg'u kuylari xarakteri va badiiy mazmuni haqida bolalarga tushuncha berilsa, ular asarni yaxshi idrok etadilar. Asarni 2 – 3 mashg'ulot davomida takroran tinglash shart. Chunki, har bir musiqiy asarni tinglashda bola uchun asarning yangi – yangi qirralari namoyon bo'ladi va asarga nisbatan ularning muhabbati oshib boradi xotirasi, ongi rivojlanib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N.Yusupova. Musiqa savodi, metodikasi va ritmika.«Musiqa» nashriyoti Toshkent 2010
2. Hasanova Navbahor Hamraqulovna. Bo'lajak o'qituvchilarning o'zbek mumtoz musiqasida kasbiy malakasini oshirish muammolari. *Xalqaro ilg'or fan va texnologiyalar jurnali* (2020).
3. I.Karimov. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" – Toshkent, Ma'naviyat, 2008yil.
4. R.G'.Qodirov. «Musiqa psixologiyasi». Toshkent. Musiqa nashriyoti. 2005 yil.

MUSIQA DARSLARIDA IQTIDORLI BOLALARNI ANIQLASH USULLARI

Ismoilov Bekzod

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Professional ta'lim
Xalq ijodiyoti (cholg'u ijrochiligi) ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi*

Ilmiy rahbar: Vahidov Yusufjon

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Cholg'u ijrochiligi" kafedrasi katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Farzandlarimiz bizning kelajagimiz. Ularning yetuk inson bo'lib voyaga yetishlari nafaqat oila, balki butun bir jamiyatning baxtidir. Ularning o'z qobiliyatlari, qiziqishlariga ko'ra ta'lim berish zamonaviy ta'lim tizimining talabi sifatida ko'rilmoqda. Aslida, har bir bola qandaydir qobiliyat bilan dunyoga keladi. Ana shu qobiliyatlarini vaqtida aniqlash, rivojlantirish va mustahkamlash pedagoglarning oldida turgan asosiy vazifalardan biri sanaladi. Ushbu maqolada, musiqa yo'nalishida iqtidorli bo'lgan bolalarning qobiliyatlarini aniqlash borasida bir qancha ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, maqolada bolalardagi musiqiy qobiliyatlarning turlari, ularni rivojlantirish uchun ishlatiladigan usullarga ham izoh berilgan.

Kalit so'zlar: qobiliyatlar, iste'dod, o'quvchi, pedagog, musiqa darslari, musiqiy asar, zamonaviy ta'lim.

Musiqa o'qituvchisi faoliyatining asosiy ma'nosi har bir o'quvchi uchun dars va darsdan tashqarida muvaffaqiyat qozona olishiga sharoit yaratishdir. O'quvchining aynan akademik yutuqlari hayotini rang barang qiladi, uning o'qituvchilarga, ota-onalarga, o'ziga bo'lgan

munosabatini belgilaydi. Oxir-oqibat, bularning barchasi o'quvchilarning axloqiy rivojlanishiga ta'sir qiladi. Har bir o'qituvchining ijodiy laboratoriyasi o'ziga xos tarzda noyobdir. Har bir o'qituvchi faoliyatida o'ziga xos kashfiyotlar, qiziqarli topilmalar, tushunchalar mavjuddir. Pedagogik strategiyaning ma'nosi nimaga erishilganligini, shu paytgacha bajarilgan ishning ahamiyatini ko'rsatish orqali muvaffaqiyatni mustahkamlashdir. Buning uchun quyidagilar kerak:

- qiziqish bildirish, musiqaga bevosita munosabati;
- qidiruv holatlarida faol harakatlar;
- musiqiy qobiliyatlarning o'sishi;
- eshitish kuzatuvining keskinligi;
- improvizatsiya, kompozitsiya va o'z-o'zini tarbiyalashga qiziqish;
- musiqa va uning ijrochisi sifatiga ongli munosabat;
- san'atning boshqa turlariga qiziqish.

Musiqa darslarida an'anaviy va yangi texnikalar, usullar, o'qitish va nazorat qilish shakllarining uyg'unligi o'quvchilarni rivojlantirish va tarbiyalash muammolarini hal qilishga imkon beradi, sinfda o'ziga xos xotirjamlik, ishonch, ishtiyoq va birgalikdagi ijod muhitini yaratadi. O'quvchi passiv tinglovchidan o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi, ta'sir ob'ektidan subyektda aylanadi.[3;5]

Mavjud umumiy psixologik tasnifda musiqiy qobiliyatlar muvaffaqiyatli o'qish uchun zarur bo'lgan va musiqaning tabiati bilan bevosita bog'liq bo'lgan hodisadir. Musiqiy jihatdan iqtidorli bola sinfda o'quvchilarning umumiy guruhidan ajralib turadi. Bunday bolalar musiqani hissiy jihatdan qabul qilishadi. Ularda shaxsiy musiqiy tanlov rivojlanadi. Ya'ni, ularga ba'zi asarlar yoqadi va ularni qayta-qayta tinglashga tayyor bo'lishadi, ammo boshqa asarlarga befarq bo'lishlari mumkin. Sinfda iqtidorli bolalarni aniqlash usullaridan biri bu kuzatishdir. Iqtidorli bolaga kelganda, uning individual xususiyatlari namoyon bo'lishini kuzatmasdan iloj yo'q. Uning iqtidorini baholash uchun unga xos bo'lgan psixologik xususiyatlarning kombinatsiyasini aniqlash kerak, ya'ni bizga har tomonlama kuzatuvlar orqali olingan yaxlit xususiyat kerak. Kuzatishning afzalligi shundaki, u tabiiy sharoitda, kuzatuvchiga ko'plab nozik holatlarni oshkor etishi mumkin. Shunday tabiiy sharoitdagi tajriba mavjudki, unga ko'ra, sinfda yoki to'garak mashg'ulotida tadqiqot uchun zarur bo'lgan muhit tashkil etiladi. Bu tadqiqotda kuzatilayotgan o'quvchiga tanish bo'lgan vazifa bo'lishi kerak va o'quvchining vaziyatdan ya'ni uni maxsus kuzatayotganlaridan mutlaqo xabari bo'lmasligi lozim.[4] Bolaning iqtidor belgilarini kuzatish va rivojlanishini o'rganish muhimdir. Ularni baholash uchun bir yosh davridan ikkinchisiga o'tish davrida yuzaga keladigan o'zgarishlarni kuzatish juda uzoq vaqt talab yetadi. Bunday tadqiqot *longityud* deb ataladi.

Longityud tadqiqot (ing. Longitude - uzunlik) - bu o'z xususiyatlarini sezilarli darajada o'zgartirish uchun yetarlicha bo'lgan uzoq vaqt davomida bir guruh ob'ektlarni (psixologiyada – odamlar) o'rganiladigan tadqiqotdir. Kuzatuv doimiy, kundan-kunga va tanaffuslar bilan bo'lishi mumkin.[6]

Musiqiy jihatdan iqtidorli bolalar bilan ishlashda o'qituvchi nimaga e'tibor berishi kerak?

Avvalo, darsda o'zaro tushunishning qulay muhitini yaratishga harakat qilish kerak. Inson turli emotsiyalarga tayangan holda yashaydi. Bolalarning ham qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ularning ijobiy emotsiyalariga tayangan holda ish ko'rish lozim.

Sinfda va darsdan tashqari mashg'ulotlardagi muloqot paytida o'qituvchi bolani doimo har tomonlama ijodkorlikka undashi kerak. O'z tabiatiga ko'ra, bolalar ijodiyoti sintetik va ko'pincha improvizatsion xususiyatga ega. Bu individual xususiyatlarni to'liqroq baholash va

bolalarning qobiliyatlarini o'z vaqtida aniqlash imkonini beradi. Masalan, kuylash yoki jismoniy tarbiya paytida (kichik maktabda) siz har qanday bolani o'z mashqlarini o'ylab topishga taklif qilishingiz va uni butun sinfga bajarishni taklif qilishingiz mumkin. Bu yerda har bir bola o'z qobiliyatlarini ham musiqiy, ham teatrlashtirilgan (ijro etilayotgan asar mansub bo'lgan adabiy manbaning qahramonlari obrazlarini tasvirlash) va badiiy (qog'oz varag'ida bo'yoqlar yordamida ijro davomida hayolida tasvirlangan qahramonlar va ranglarnitasvirlab, ko'rsatib berish) ravishda ochib berishi mumkin.

Ijodiy faoliyat bilan shug'ullanganda ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi. Qobiliyatlar - bu bilim va ko'nikmalar bilan cheklanib qolmasdan, balki ularni tezda egallash, mustahkamlash va amalda samarali foydalanishni ta'minlaydigan xususiyatdir. Qobiliyatlar doimiy rivojlanish jarayonida bshlishi lozim, boshiacha bshlishi mumkin emas. Amalda rivojlanmaydigan qobiliyat vaqt o'tishi bilan yo'qoladi, chunki odam undan foydalanishni to'xtatadi. Faqat tizimli mashg'ulotlar bilan bog'liq doimiy mashqlar tufayli bolalarning qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish mumkin.[1;6]

Bolalarda rivojlanishi kerak bo'lgan asosiy musiqiy qobiliyatlar:

- musiqaga hissiy munosabat, ya'ni musiqiy asarning xarakterini, kayfiyatini his qilish qobiliyati;

- musiqiy qiyofalar shaklida hamdardlik xususiyati;

- musiqani ijodiy idrok etish qobiliyati;

- musiqiy eshitish - musiqiy ifodaning eng yorqin vositalarini tinglash, taqqoslash va baholash qobiliyati;

- ladni his qilish - yuqori tovushli xarakatlarning emotsional qiyofasini his qilish qobiliyati;

- ritm hissi – musiqaning xarakatdagi kechinmalarining yangrashini faol his qilish qobiliyati.

Umumiy qobiliyatlar bilan birgalikda musiqiy qobiliyatlar majmuasi (ijodiy tasavvur, e'tibor, iroda va boshqalar) musiqiy iqtidorni shakllantiradi.

Musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ishlatiladigan usullar:

- musiqani kuzatish usuli;

- kechinmalarni his qilish usuli;

- badiiy ijodiy jarayonni modellashtirish usuli;

- musiqani intonatsiya uslubida tushunish usuli.

Bolalarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun, ular keyinchalik xonanda bo'ladimi yoki sozanda bo'ladimi, xor jamoasidagi ishtirokini ham tavsiya qilish mumkin. Chunki xor qo'shiqlari nafaqat estetik didni, balki bolalarning tashabbuskorligi, tasavvuri, ijodiy qobiliyatlarini tarbiyalashning eng samarali vositasi bo'lib, u musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirishga (vokal ovozi, ritm hissi, musiqiy xotira), qo'shiqchilik mahoratini rivojlantirishga, musiqaga qiziqishning o'sishiga yordam beradi, hissiy va musiqiy madaniyati ortadi. Vokal va xor texnikasi shakli va mazmuni bo'yicha turli xil qo'shiq materiallari ustida tizimli, doimiy ishlash natijasida takomillashtiriladi.[2] Musiqiy asar ustida ishlash qoniqish va quvonch keltirishi uchun uni yorqin va interaktiv tarzda amalga oshirish kerak. Faqatgina ijodiy muhit bolaga o'z his-tuyg'ulari va tajribalarini chinakam erkin yetkazishga va musiqa ijrochiligi san'ati sirlarini beixtiyor anglashga imkon beradi, ya'ni ma'lum bir mahoratni tezkor egallash va mustahkamlashga yo'l ochiladi. Vokal ijro etish qobiliyatiga ega bo'lgan bolalar solist bo'lishadi. Kelajakda ular bilan alohida ishlar ham olib boriladi.

Zamonaviy ta'limda har qanday sohada iqtidorli bolalarni aniqlash va ular bilan ishlash muammosiga juda kam ahamiyat beriladi va oz vaqt ajratiladi. Shuningdek, ko'pchilik bir muhim haqiqatni butunlay unutadi, iqtidori bo'lmagan bolalar yo'q. Aksincha, o'qituvchilar bolalarda ma'lum qobiliyatlarni aniqlash va ularni to'g'ri yo'nalishda rivojlantirishni boshlash uchun har doim ham yetarli vaqt va kuzatuvga ega emaslar. Axir, bola o'z qobiliyatlarini o'zi namoyon qilishi, ularni faol ko'rsata olishi har doim ham kuzatilavermaydi. O'qituvchining vazifasi bolaga sinfda qo'llaniladigan turli xil faoliyat turlarida biror narsada o'z qobiliyatlarini ochib berishga yordam berish. Bundan tashqari, bolaning e'tiborini qobiliyatlari ko'proq namoyon bo'ladigan faoliyat sohasiga yo'naltirishdir. Bolalarda turli qobiliyatlarni rivojlantirishga ijodiy yondashish orqali o'qituvchi har qanday bolaga kelajakda o'zini yorqin, ijodiy qobiliyatli shaxs sifatida anglashiga yordam bera oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alyakrinskiy B.S. О талантах и способностях: Очерки о самовоспитании. М., 1971.
2. Asafev B.V. О хоровом искусстве. L., 1980
3. Yo'ldosheva S.H. O'zbekiston musiqa tarbiyasi va ta'limining rivojlanishi. T., 1985.
4. Qodirov B.R. Sinf zukkolarini tanlash metodikasi (Yosh iste'dodlarni izlaymiz): Metodik qo'llanma №1. T., 1998.
5. Qodirov R.G'. Boshlang'ich maktabda ko'p ovozli kuylash. Многоголосное пение в начальной школе. T., 1997.
6. G'oziyev E.G'. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). T., 1994.

O'QUVCHI YOSHLARIMIZGA MILLIY MAQOM SAN'ATIMIZNI O'RGATISH VA UNDAGI MUAMMOLAR.

Isoqov Shamsiddin – Musiqa ta'limi kafedrasi konsertmeysteri

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek maqom san'ati va mumtoz qo'shiqchilik an'analarini ta'lim jarayonida tanishtirish masalalari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: musiqa, tarbiya, mumtoz, milliy, ma'naviy, madaniyat, iste'dod.

Xalqimiz badiiy tafakkuri va jonkuyar ajdodlarimizning mashaqqatli mehnati natijasida vujudga kelgan "Shashmaqom" ya'ni olti maqom, ta'bir joiz bo'lsa, olti azim daryoga qiyoslasak bo'ladi. Azaldan san'atni, musiqani butun qalbi bilan sevadigan ota-bobolarimiz, xalq dardini kuylashgan, Haq va haqiqatga xuddi o'z osmonidan quyoshini yo'qotgan sayyoradek intilganlar. Bir necha yuz yillardan buyon dono va bilimli bobolarimiz san'at va adabiyot kechalari o'tkazishib kelishmoqdalar. Bunday yig'ilishlarda katta tasavvuf shoirlari, davlat arboblari, turli darajadagi san'atkorlar va ilm ahllari qatnashishgan. Bu holat esa yangidan ulg'ayib kelayotgan yosh avlodga oddiy ta'sir ko'rsatibgina qolmay, balki yurt va vatan ravnaqi uchun katta foyda keltiradigan va butun duyoda o'chmas iz qoldiradigan buyuk allomalar yetkazib berishda katta foyda bergan. Hali nota yozuviga olinmagan san'at asarlarimizni ustoz-shogirtchilik an'analari yordamida, og'izdan-og'izga o'tib, kelajak avlodga yetkazib berishgan, o'zlaridan ko'proq kelajak avlod manfaatlarini o'ylab, ilm va san'at yo'lida o'zlarini fido etishgan. Bu ko'p asrlik mehnatlar samarasi natijasida "olti maqom" yaraldi, va buning negizida birinchi bo'lib buyuk va muqaddas bo'lgan Islom dini bilan sug'orilgan va uning ketidan ergashgan, ziyoli bobolarimizning durdona asarlari aks etgan. Endilikda o'zbek

mumtoz musiqasining tarixiy nav va shakllari o'zining asl nomlari bilan yuritila boshlandi. Buxoro Shashmaqomi, Xorazm olti yarim maqomi va dutor maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, O'zbek Shashmaqomi xamda yangi yo'nalishlar deyishlik rasm bo'lmoqda. Shashmaqom butun dunyo ma'naviy xazinasining mislsiz boyligi. 2003-yilda YUNESKO Oliy qarorgohining farmoniga muvofiq "Jaxon nomoddiy musiqiy merosining bebaho durdonasi" sifatida e'tirof etildi. Biron bir xalq yoki mintaqa musiqiy merosiga beriladigan yuksak baho tarixda kam uchraydi. Darhaqiqat, Shashmaqom ko'p marta ana shunday yuksak nom-nishonlarga sazovor bo'lib kelayotgan voqe'lik, barhayot musiqiy udum.

Bugungi istiqbolli kunlarda muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan milliy maqom san'atimizga yuksak hurmat va e'tibor qaratilmoqda. Xususan, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shahrisabdagi "Xalqaro maqom san'ati anjumani"ning ochilishi marosimidagi nutqlarida shunday fikr bildirganlar, "Haqiqatdan ham, biz uchun bebaho badiiy qomus bo'lgan maqom san'ati asrlar, necha yuz yillar davomida inson ruhini, uning dardu armonlarini, ezgu intilishlarini yuksak pardalarda ifoda etib kelmoqda. Sharq mumtoz adbiyoti, tasviriy san'ati, ilm-u ma'rifat, islomiy qadriyatlardan oziqlangan maqom san'atiga –ana shunday buyuk madaniy meros rivojiga o'zbek xalqi ham munosib hissa qo'shgani bilan biz haqli ravishda faxrlanamiz." Qolaversa, yurtboshimiz tomonidan milliy maqom san'atimizga hurmat shunchaki bir qarashlar sifatida emas, balki amaliy hayotda ham bajarilayotganligi yaqqol ko'zga tashlanmoqda, ya'ni O'zbekiston respublikasi prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'rsida" PQ-3391 sonli qaror qabul qilindi.

Qarorga ko'ra, 2018-yildan boshlab sohada faol ijod qilayotgan san'atkorlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish maqsadida "Eng yaxshi maqom xonandasi", "Eng yaxshi maqom sozandasi", "Eng yaxshi maqom ustoz", "Eng yaxshi maqom targ'ibotchisi", "Eng yaxshi yosh maqomchi" kabi nominatsiyalar bo'yicha mukofotlar ta'sis etildi.

O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi o'z tizimi uchun budjetdan ajratilgan yillik mablag'lari doirasida doimiy ravishda "Toshkent radioeshittirish uyi"da ovoz yozish studiyalari va texnik vositalardan Maqom markazi uchun bepul foydalanish va Maqom ansambli tomonidan ijro etiladigan musiqiy asarlarni yozib olish, efirga berish va targ'ibot qilishni ta'minlandi va har-bir viloyatlarda "Namunaviy maqom ansambl"lari ochildi. Maqom yo'nalishida ijod qilib kelayotgan ijodiy jamoalar, ansambllar 2023-yilgacha barcha soliq to'lovlaridan ozod etildi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi zimmasiga "Maqom san'atini tadqiq qilish bilan bog'liq ilmiy izlanishlar, o'quv qo'llanmalar, tarjimalar, ilmiy va uslubiy adabiyotlarni nashr qilish harajatlari O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining parametrlarida ijtimoiy sohaga nazarda tutilgan mablag'lar doirasida moliyalashtirilishini ta'minlash yuklatildi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Madaniyat vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Fan va texnologiyalar agentligi, O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, o'zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi, O'zbek milliy maqom san'ati markazlari tomonlaridan 2018-2020 yillar davomida, Abu Nasr Forobiy, Muhammad Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Faxriddin Roziy, Safiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog'iy, Abdurahmon Jomiy, Najmiddin Kavkabiy, Darvish Ali Changiy, Abdurauf Fitrat, Bekjon Rahmon, Matyusuf Harratov, G'ulom Zafariy va boshqa allomalarning musiqaga oid risolalarini, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San'atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti arxivida saqlanyotgan S. Urmaviyning "Kitab al'-advar", Darvish Ali Changiyning "Risolai musiqiy"

qo‘lyozmalarini nashrga tayyorlab chop etilishi tayinlandi, va shu kabi bir qator qaror va farmonlar amalga oshirildi. Milliy maqom san‘atimizni rivojlantirish yo‘lida qator qonunlar qabul qilindi.

2018-2019-o‘quv yilidan boshlab O‘zbekiston davlat konservatoriyasi, O‘zbekiston davlat va san‘at institute, madaniyat va san‘at kollejlari, ixtisoslashgan musiqa akademik litseylari, bolalar musiqa va san‘at maktablarida milliy maqomlar (Buxoro shashmaqomi, Xorazm oltiyarim maqomi va tudor maqomi, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari, O‘zbek “Shashmaqomi” hamda yangi yo‘nalishlar) tizimli ravishda o‘quv dasturlariga kiritildi va amalga tadbiq qilindi. Davlatimiz rahbari tomonidan milliy musiqamizga ko‘rsatilayotgan bunday hurmat e‘tiborga biz labbay deb javob qaytarmasak aslo bo‘lmaydi. Ulug‘ bobomiz Behbudiy o‘z asarlarida shunday deganlar “siz kelajak avlodga kelar zamon ilmini o‘rgating, zero ular siz yashayotgan davrda emas, balki yangi keladigan zamonda yashaydilar”, chunonchi bu necha yillar oldin aytilgan gaplarni biz bugun o‘z zamonamizdagi rivojlanishlar orqali ko‘rib turibmiz. Nega shu kunlarda milliy durdonamiz bo‘lgan maqom san‘atimiz yosh avlod o‘rtasida keng ommalashmayapti? Nima uchun kundalik hayotda aksariyat aholi o‘tasida maqomlar deyarli eshitilmayapti? Va asosiy muammo shundaki bizning yosh do‘stlarimiz orasida agar maqom yangrab qolsa e‘tibor bilan tinglash yo‘qolgan. Saviya va ma‘no jihatdan past darajada bo‘lgan, yengil-yelpi qo‘shiqlarning qiziqish bilan eshitilayotgani esa achinarli holat bo‘lmoqda. Agar biz bunday holatda, tariximiz va o‘zligimizni anglamasdan, yengil turmush tarziga odatlanadigan bo‘lsak, kelajagimiz zavolga yuz tutishi mumkin. Buni oldindan ko‘ra oladigan yurtboshimiz va kelajakni o‘ylagan buyuk bobolarimiz, bu haqida ko‘p qayg‘urishib, yosh avlodni ilmi va ziyoli bo‘lishga, bu yorug‘ olamda o‘zligini anglash uchun intiluvchan bo‘lishiga chorlab kelgan va chorlamoqdalar. Imomlarning imomi bo‘lgan, Ismoil Buxoriy bobomiz ilm haqida shunday degan edilar, “Bu duyoda ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmagay”. Haqiqatdan ham agarda, biz ilmsizlik va dangasalik botqog‘iga botib qoladigan bo‘lsak, bugungi shidatli bir ilm fan rivojlanayotgan davrda, tariximiz va milliyligimizni anglashda sustkashlikga yo‘l qo‘yadigan bo‘lsak, o‘z vaqtida yosh avlodga bu haqda yetarli bilm berib o‘zligini anglashga undamasak, butun boshli millat ilm ma‘rifat va ma‘naviyat havosidan nafas ololmay, bo‘g‘ilib zavolga yuz tutishi mumkin, chunonchi tarixsiz kelajak yo‘q. Bizning milliy maqom san‘atimiz shunchaki bir she‘r yoki oddiy musiqadan tashkil topgan emas, balki maqom bu o‘zbek millatining tarixi, dardu xasratlari, quvonchi shodligidir. Maqom to‘laligicha ruhiy jihatdan insonlarga tarbiya berib, odam bolasini komil inson darajasiga olib chiqishda asosiy manbaalardan biri hisoblanadi. Bu haqida Najmiddin Kavkabiy bobomiz o‘z “Risolai musiqiy” asarlarida shunday degan edilar, “Musiqiy darhaqiqat, sharaflil ilm va nafis san‘atdir, zero undan tana emas ruxlar ozuqa oladi.

Nafas, inson qalbidagi rux erur,

Pinhoni xush sado unga xamroh erur.

Ishonma desalarki jonga xamroh,

U sado xamrohmas jonning o‘zidur.

Bugungi dorulomon kunlarda biz yoshlar musaffo osmon ostida yashayotgan ekanmiz, yangi avlod va vatanimiz taqdiriga befarq bo‘lmasligimiz lozimdir. Mening fikri o‘jizimcha, maqom san‘atimizni juda kichik yoshdan ya‘ni bog‘cha yoshidan bollarga o‘rgatib boshlashimiz kerak, ba‘zilar yosh bolalarga qanday o‘rgatasan deyishlari mumkin, lekin men o‘z tajribamda ko‘rganmanki, bog‘cha bolalari “Soqiynomayi savti kalon” kabi maqom ashullalarini ustozlaridan o‘rganib aytayotganlarini. Demak bu ustozning mahoratidan darak bermoqda, shunday ekan, biz bugun bog‘cha va maktablarga musiqa va maqom san‘atidan

yetarli malakalarga ega, shuning bilan birga ma'naviyatli va yurt taqdirini har tomonlama o'ylaydigan kuchli kadrlar tayyorlashimiz kerak. Shuning uchun bu muammoning yechimi oliy ta'lim bilan ham chambarchas bog'liq, o'zi umuman hozirda eng rivojlangan davlatlarning tarixiga qaraydigan bo'lsak, bu davlatlar barcha moddiy va ma'naviy kuchlarini ta'limga qaratmoqdalar.

ADABIYOTLAR

1. Hasanova Navbahor Hamraqulovna. (2020). Bo'lajak o'qituvchilarning o'zbek mumtoz musiqasida kasbiy malakasini oshirish muammolari. *Xalqaro ilg'or fan va texnologiyalar jurnali*, 29 (08), 3489-34953495. [Http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558](http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558)

2. Hasanova, Navbahor. (2020). METHODS AND WAYS TO DEVELOP THE MUSICAL FEELINGS OF STUDENTS IN TTTE LESSONS OF MUSIC EUITURE. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(42). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5579

3. Khasanova, Navbahor (2020) "The role of music lessons in the formation of national and intercultural competence in students." *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*. Vol.2020 :Iss.2. Article 15 :<https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss2/15>

4. N. Hasanova O'zbek milliy musiqa merosi taraqqiyotida xotin-qizlarningo'rni. Актуальный вызыви современной науки IX xalqaro ilmiy konferensiya 26-27 yanvar 2017 yil.

5. Muminova Muqaddas Riskulovna Development And Current Status Of Uzbek Pop Music In Modern Approaches And Innovations Of Teaching The Science Of Music Culture *International Journal of Advanced Science and Technology* Vol. 29, No. 8, (2020) <https://t.me/joinchat/> - Music teacher, <https://infourok.ru> - music lessons

6. Muminova Muqaddas Riskulovna *International Journal of Mechanical Engineering*. The Innovative Technologiyes Of Teaching In Musical Edukational Establishments 1764-1767-betlar. 2022- йил.

7. Muminova Muqaddas Riskulovna *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*. THE ROLE OF SPORT ACTIVITIES, GAMES AND COMPETITIONS IN THE NURTURE OF 6-7 YEARS OLD CHILDREN <https://uzjournals.edu.uz/tziuj68-78betlar> 2022

8. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlarda pedagog kreativligi. "Yangilanayotgan O'zbekistonda fan, ta'lim va innovatsiya uyg'unligi" mavzusidagi 6-son 2-qism Respublika ko'p tarmoqli ilmiy konferensiyasi VIII bo'lim Toshkent 2021. 677 bet. Udk. 001.895 (575.1).

9. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlar o'qituvchisining kreativligi. Педагогические и лингвопсихологические особенности развития, формирования и становления личности врача. Сборник тезисов Международная конференции. СамГМИ, Самарканд 5 мая 2021 год

10. Urinova S.Sh. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishning nazariy asoslari. "The best innovator in science" xalqaro maqolalar tanlovi to'plami. Organized by Innovative Academy. Tashkent February 5, 2022. Pg 811. <https://zenodo.org/record/5979621#.YpC2PKhBxD8>

11. Otanazar Matyoqubov – Buxoro Shashmaqomi Toshkent – 2018

12. O'zbekiston respublikasi prezidentining 2017-yil 17-noyabrda "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'rsida" PQ-3391 sonli qarori

13. Is'hoq Rajabov – Maqom asoslari

YOSHLARNING IJTIMOIIY ONGINI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQA MADANIYATINING O‘ZIGA XOS IMKONIYATLARI.

*Jalilov Shokir Navoiy davlat pedagogika instituti,
“Musiqqa ta’limi” kafedrasida katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarning ijtimoiy ongini shakllantirishda san’atning, xususan, musiqa madaniyatining o‘ziga xos imkoniyatlari, bu boradagi dolzarb muammolar va ularning yechimiga doir ilmiy-metodik tavsiyalar atroflicha yoritib berilgan. Shuningdek, unda musiqa madaniyatining ushbu imkoniyatlaridan maqsadli ravishda, samarali foydalanish yuzasidan o‘ziga xos takliflar kiritilgan.

Kalit so‘zlar: mumtoz musiqa, kasbiy musiqa, ashula, musiqa, raqs, folklor ijrochiligi, musiqa madaniyati, ijodkor.

O‘zbek xalqining musiqa madaniyati juda uzoq tarixga ega. Ma’naviyatimizning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan musiqiy madaniyatimiz, an’anaviy qo‘shiqlarimiz, maqom ijrolari hamisha xalqimizning kundalik hayotida ma’naviy ozuqa sifatida e’tirof etib kelingan. Xalq og‘ir kunlarida musiqadan najot izlagan, xursandchilik kunlarida ham qo‘shiq va musiqa unga hamroh bo‘lgan. Zero, bugungi muborak kunlarimizda, o‘zligimizni anglab borayotgan bir davrda ulkan ma’naviyatimizning bir bo‘lagi bo‘lgan, ota-bobolarimizdan meros bo‘lib kelgan milliy musiqiy madaniyatimizga suyanish, an’anaviy qo‘shiqlarimizga murojaat qilish tabiiy bir holdir. Bularning barchasi barkamol avlod tarbiyasida, yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. An’anaviy musiqa va qo‘shiqlarimiz odamlarni hamisha iymonga, mehr-oqibatga, odamiylikka chorlab kelgan. Bugungi kunda ham shu dolzarbligini yo‘qotmagan holda kishilar ongini shakllantirish yo‘lida, barkamol avlod tarbiyasida o‘ta muhim vosita sifatida asosiy omillardan bo‘lib qolaveradi.

O‘zbek xalq musiqa madaniyatining taraqqiyoti davomida xalq mumtoz musiqasi, an’anaviy kasbiy musiqa, xalq bastakorlik yo‘llari, shuningdek, folklor - havaskorlik musiqiy merosi singari shaklan va usluban bir-biriga yaqin ijrochilik ko‘rinishlari bir-birini to‘ldirib keldi. Ushbu musiqiy merosimiz bugungi kunimizda ham ma’naviy madaniyatimizning bir bo‘lagi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mustaqillik sharofati bilan milliy-ma’naviy qadriyatlarimizga, urf-odatlarimizga, unutilayozgan, tarixan qadrlil an’analarimizga bo‘lgan e’tibor, ularni yangidan isloh etish jarayoni ustivor yo‘nalish kasb etdi. Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, ma’naviy boyligimizga bo‘lgan e’tibor davlat miqyosiga ko‘tarildi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ota-bobolarimizdan, ajdodlarimizdan qolgan ma’naviy boyliklarni, jumladan, musiqiy madaniyatni avaylab asrash, tiklash borasida, qolaversa, zamon bilan hamohang qadam tashlash borasida talaygina ishlar qilindi. Bu borada o‘tgan ajdodlarimiz tomonidan bizlarga meros bo‘lib kelayotgan ulkan ma’naviy boyligimiz asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ashula, musiqa, raqs, folklor ijrochiligi san’ati milliy musiqa san’atining xalq hayoti va ijodi bilan chambarchas bog‘liq holda paydo bo‘lgan va rivojlanib kelgan qadimiy san’at turlaridan hisoblanadi. Ayniqsa, xalqimizning an’anaviy ruhdagi qo‘shiqlari o‘lmas meros bo‘lib, barcha davrlardagidek bugun ham barcha tarbiyaviy talablarga «labbay» deb javob bermoqda. Lekin, shu bilan bir qatorda faqat tarixga sajda qilmay, bugungi kunning ruhiga

mos tarzda qo‘shiqalar yaratish ishi milliy ma‘naviyatimizni rivojlantirishda bosh omillardan bo‘lmish musiqiy san‘at bilan shug‘ullanayotgan barcha mutaxassis va san‘atkorlarga muhim vazifa qilib qo‘yilishi tabiiydir. Hozirgi davrga kelib, mamlakatimiz tamomila yangi jamiyat, yangi turmush va yangi hayotni boshlab yubordi. Odamlarimiz qalbi, tafakkuri va tasavvurida o‘zgarishlar paydo bo‘ldi.

Prezidentimiz ta‘kidlaganlaridek, ma‘naviyat masalasi millat tarixi, axloqiy va diniy qadriyatlar, madaniy meros, an‘ana va rasm-rusumlar, milliy madaniyat, vatanparvarlik va insonparvarlik, milliy o‘zlikni anglash singari juda ko‘p omillarni o‘z ichiga oladi va pirovardida, inson shaxsini belgilashda asosiy mezon vazifasini bajaradi. Ushbu tamoyillardan kelib chiqib, ma‘naviy jabhalarning barcha yo‘nalishlari o‘zlarining maqsad va vazifalarini belgilab olishlari zarur bo‘ladi. Ayniqsa, bu jabhada musiqiy madaniyatning ma‘naviy hayotda tutgan o‘ziga xos o‘rnini baholash, uning ta‘sirchanlik kuchini Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi tomonga yo‘naltirish uning bosh mezonini ekanligini anglash muhimdir. Madaniy hayotda bugungi kunda shu tamoyilga ko‘ra siljishlar kuzatilmoqda. Ijodkorlarning fikri-zikri ana shu tamoyillar yo‘liga yo‘naltirilgan desak, xato qilmagan bo‘lamiz.

Musiqaning madaniyati, musiqaning san‘ati o‘zining serqirraligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, o‘zining chuqur ildizlari qadimgi davrlarga yetib boradigan o‘zbek xalqining boy musiqaning merosi hozirgi kundalik hayotimizdan ham tushgani yo‘q. U xalq ijodining yuksak namunalari, folklor ijrochiligi, kuy tuzilishi, mazmunan rivojlangan cholg‘u va ashula asarlari, dostonlar ijrochiligi hamda murakkab ijrochilik turkumi atalmish maqom musiqasini o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, xalq musiqiy madaniyatida o‘zlarining barcha davrlarda sezilarli hissalarini qo‘shib kelayotgan xalq bastakorlarining ijodi ham salmoqli o‘rin tutadi.

Sog‘lom fikrlovchi, mustaqil qaror qabul qila oladigan yosh avlod tarbiyasida tarbiya jarayoni qanchalik maqsadga muvofiq, pedagogik jihatdan to‘g‘ri, samarali bo‘lishi uning qay darajada tashkil etilishiga bog‘liq. Yosh avlodni begona, buzg‘unchi g‘oyalar ta‘siridan saqlash, ularning hayotga yengil-yelpi munosabatda bo‘lishlariga yo‘l qo‘ymaslik, ularda ezgu g‘oyalar va fikrlarni shakllantirish, ijtimoiy faol, mustaqil fikrlay oladigan shaxs xususiyatlarini tarkib toptirish orqali yoshlarning ma‘naviy saviyasini yuqori darajaga ko‘tarish mumkin. Bu maqsadlarga erishishda musiqaning tarbiyasi, yuqorida ko‘rsatib o‘tganimizdek, juda ko‘p tabiiy hamda samarali imkoniyatlarga boydir.

Ijodkor o‘zbek xalqi badiiy so‘zning va musiqiy ohangning yosh avlod tarbiyasidagi kuchi va jozibasiga qadim zamonlardan oqib kelgan. U o‘zining eng noyob asarlarini so‘z va ohang mo‘jizasi bilan bunyod etgan. Musiqaning tarbiyasida xalq qo‘shiqalaridan, ulardagi ajdodlarimizning madaniy-ma‘rifiy dunyoqarashlaridan tashkil topgan tarbiyaviy vositalardan sog‘lom tafakkurli yoshlarni tarbiyalash yo‘lida ijodiy foydalanish yaxshi samara beradi. Yosh avlod qalbiga milliy madaniyatimiz va ma‘naviyatimiz g‘oyalarini bolaligidanoq singdirib borish uchun o‘zbek xalq folklor qo‘shiqalaridan foydalanish, ayniqsa, bolalar folklorini maqsadli ravishda qo‘llash oldindan kafolatlangan natijalarga erishishni ta‘minlaydi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni. T., - 2020.
2. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2018 yil, 6-sentyabrdagi Xalqaro maqom san‘ati anjumanining ochilish marosimidagi nutqi. T., - 2018.

3. Mirziyoyev Sh.M. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 1-ilova. Xalq so‘zi gazetasi. - 2017 yil 8 fevral soni va internet resurs: www.lex.uz.

4. M.Xayrullayev. “Ma’naviyat yulduzlari” - T., A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001. 147-169 betlar.

5. Замуруева О.Д. развиваем музыкальный и ритмический слух. Изд. – 2-е Ростов на/Д. Феникс, 2015. 93-стр.

MUSIQA DARSLARIDA OVOZNI TO‘G‘RI YO‘LGA QO‘YISH USLUBLARI VA IMKONIYATLARI

*Majidov Xumoyun JDPU Vokal san‘ati yo‘nalishi IV bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: JDPU Musiqa ta‘limi kafedrasida katta o‘qituvchisi N.X.Xasanova*

Annotatsiya: Maqolada musiqa mashg‘ulotlarida kuylash jarayonida ovozni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, ansambllik ustida ishlash bo‘yicha kerakli metod va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: musiqa, dars, suhbat, qo‘shiq, qiziqish, san‘at, ovoz, tabiat, diksiya, nutq, nafas olish.

San‘atning barcha turlari qatori qo‘shiq ham yoshlarni estetik ruhda tarbiyalashda eng ta‘sirchan vositalardan biridir. Haqiqatdan ham qo‘shiq bolalardagi emosional sezgirlik, ta‘sirchanlikni orttiradi. Tabiat, hayot va insoniy munosabatlardagi go‘zallikka mexr-muhabbat uyg‘otadi. Bolaning badiiy-estetik didini tarbiyalaydi. Qo‘shiq aytish bolalarning musiqaviy qobiliyatini rivoj toptirib, ijodiy faolligini kuchaytiradi, insonparvarlik, vatanparvarlik tuyg‘ularini o‘stiradi. Shuning uchun bolalarning musiqa darslaridaga ishtiroki har jihatdan foydalidir.

Har bir qo‘shiq bola ruhiga ta‘sir qilganida unda tetiklik va birdamlikni, oliyanob his-tuyg‘ularni uyg‘otadi, san‘at bilan do‘st bo‘lishga va uni sevrishga chorlaydi. Qo‘shiqchilik rivojida quyidagi qoidalarni bajarish zarur:

- Qo‘shiq doimo erkin, tabiiy, zo‘riqmasdan aytilishi lozim;
- Qo‘shiq kuylash vaqtida qo‘shiq aytish qoidalariga rioya qilish zarurligini, qo‘shiq kuylash vaqtida xotirjam, faol bo‘lishni, bu jarayonga emotsional tayyor bo‘lishni, asarni ijro etishga ruhiy jihatdan tayyor turishni, o‘zining musiqa tinglash qobiliyatini mutassil nazorat qilib turishini talab etadi;
- Ovozning jaranglash tembrini, ovoz diapazonining markaziy qismidan yuqori va pastga qarab mustahkamlash, uning eng chetdagi tovushlariga beparvo bo‘lmaslik kerak. Ovozning ishchi diapazoni-butun diapazonning shunday qismiki, uning doirasida oson va erkin kuylanadi;
- Qo‘shiq aytgan vaqtda baqirish, tovushni zo‘riqtirish ta‘qiqlanadi;
- Doimo past tovush va bolaning beparvoligi bilan bo‘g‘liq holda qo‘shiq aytishdan ham foyda yo‘q;
- Qo‘shiq nutqining aniqligi (diksiya) yaxshi bo‘lmog‘i uchun unli tovushlarni to‘g‘ri, aniq, lekin bir muncha silliqlashtirib shakllantirish zarur. Undosh tovushlar aniq, keskin, burro-burro, qisqa, har bir kishida ma‘lum darajada yakka tarzda bo‘lgan qo‘shiq aytish rejimida ovoz apparatining ishidagi qulaylikni buzmaganda chiqarish zarur;

- Nafas olish osoyishta, bir tekis, tejimli, jumlagi qarab nafas chi qarish, nafas olish yo'llarini avaylagan holda amalga oshirilmog'i kerak.

Musiqa o'qituvchisiga maktabda dars jarayonida o'quvchilarni qo'shiq kuylashga o'rgatish qiyin vazifaga o'xshab ko'rinishi mumkin. Ammo, to'g'ri metodika asosida ish olib borilsa, mashg'ulotlarda uzilish bo'lmasa, boalalar ovozi asrash va qo'shiq aytishga o'rgatish muvaffaqiyatli kechadi.

Mana shu asoslarda qo'shiqchilik ovozi rivojlanadi, qo'shiq aytish qobiliyati shakllanadi. O'sish davrida ifodali qo'shiq aytish talabi hech qachon rivojlanishning yosh bilan bog'liq qonuniyatlariga, qo'shiqchilik ovozi qaror to'ishi va maktab o'quvchilariga musiqiy-estetik tarbiya berishning butun izchil jarayoniga zid kelmasligi shart.

Musiqa darsi o'quvchining tasavvur va bilim doirasini kengaytiradi, san'at haqidagi suhbatlar esa qiziqishini oshiradi. Musiqa darslaridagi har bir yangi qo'shiq bolani ulug'laydi, uning pok niyati va tuyg'ulari, intilishlari, vatanga muhabbati, go'zallik va yaxshilikka bo'lgan ishityoqini madh etadi, unda estetik did hosil qiladi.

Shuni unutmaslik kerakki, darsda qo'shiq o'rganishlarining muntazam va to'g'ri tashkil etilishi hamda puxta yo'lga qo'yilishi ularning darsda o'rganishlarini bir-birilari bilan baham ko'rishga ishtiyogini uyg'otadi, bu esa darsning ravnaqiga katta madaddir. Chunki har bir bola darsda o'rganilayotgan qo'shiqning ohangini o'zicha qabul qiladi va o'zlashtiradi. Uning bu boradagi xato va yangilashuvi avvalo o'qituvchiga, qolaversa, atrofdagilarga ham ma'lum bo'ladi. Darsda o'zaro aloqa va o'zaro harakatning yaxshi yo'lga qo'yilishi bunday xatolarning o'z vaqtida oldi olinishini ta'minlaydi.

Jamoa bo'lib kuylashning asosiy malakalari ya'ni qo'shiq aytish qoidalari, nafas olish, tovush hosil qilish, talaffuz ketma-ket bo'lmay, balki teng sur'atda tarkib topadi, shu bilan birga ular asta-sekin kengayib va chuqurlashib boradi. Barcha malakalar ustida muttasil muntazam, o'qishning dastlabki kunlaridan boshlaboq qunt bilan ish olib borilmog'i kerak.

Ma'lumki, musiqiy tarbiya jamiyat hayotining muhim qismidir. U inson ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib ularning his -tuyg'ularini o'ziga xos badiiy tipda ifoda etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat yngilmas kuch. T. N. Ma'naviyat 2008- y
2. Badiiy asarlar vositasida estetik tarbiya berish. –T.: O'qituvchi, 1978-yil. -49 b.
3. Gudkova E. A., Vaseleva A. V. Ashula darsligi metodikasi. –T.: O'rta va Oliy maktab. 1963-yil. -126 b
4. Jalilov T. Qo'shiqlar guldastasi. – T.: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989-yil. -126 b.
5. Q.Mamirov. "Xor to'garaklarini tashkil etish" O'quv qo'llanma 2009 y
6. N.Xasanova Dirijorlik (Xor dirijorligida kasbiy kreativlik kompetentligi asoslari). 2021.Buxoro Durдона nashriyoti.
7. Muminova Muqaddas Riskulovna Development And Current Status Of Uzbek Pop Music In Modern Approaches And Innovations Of Teaching The Science Of Music Culture International Journal of Advanced Science and Technology Vol. 29, No. 8, (2020) <https://t.me/joinchat/> - Music teacher, <https://infourok.ru> - music lessons
8. Muminova Muqaddas Riskulovna *International Journal of Mechanical Engineering*. The Innovative Technologiyes Of Teaching In Musical Edukational Establishments1764-1767-betlar. 2022- йил.

9. Muminova Muqaddas Riskulovna Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. THE ROLE OF SPORT ACTIVITIES, GAMES AND COMPETITIONS IN THE NURTURE OF 6-7 YEARS OLD CHILDREN <https://uzjournals.edu.uz/tziuj68-78betlar> 2022

10. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlarda pedagog kreativligi. "Yangilanayotgan O'zbekistonda fan, ta'lim va innovatsiya uyg'unligi" mavzusidagi 6-son 2-qism Respublika ko'p tarmoqli ilmiy konferensiyasi VIII bo'lim Toshkent 2021. 677 bet. Udk. 001.895 (575.1).

11. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlar o'qituvchisining kreativligi. Педагогические и лингвопсихологические особенности развития, формирования и становления личности врача. Сборник тезисов Международная конференции. СамГМИ, Самарканд 5 мая 2021 год

12. Urinova S.Sh. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishning nazariy asoslari. "The best innovator in science" xalqaro maqolalar tanlovi to'plami. Organized by Innovative Academy. Tashkent February 5, 2022. Pg 811. <https://zenodo.org/record/5979621#.YpC2PKhBxD8>

ЦЕЛЕНАПРАВЛЕННАЯ И СИСТЕМАТИЧЕСКАЯ ПОДГОТОВКА ДЕТЕЙ К ОБУЧЕНИЮ

Муминова Мукаддас Рискуловна
Преподаватель Дж ГПУ имени А. Кадыри

Annotatsiya: maqolada ta'lim tizimidagi kasbiy faoliyatga ijodiy yondashuvning mazmuni ochib berilgan, musiqiy ta'limda samaradorlikka erishish omili sifatida kasbiy faoliyatga ijodiy yondashuv ochib berilgan.

Kalit so'zlar: musiqiy ta'lim, ta'lim tizimi, professional faoliyat, ijodiy yondashuv, samaradorlik, omil, ta'lim, interaktiv usullar.

Произведения искусства, богатые по-своему идейному содержанию, воспитывают у подрастающего поколения художественный вкус ,способствуют культурному росту и развитию самопознанию воспитывают любовь к творческому труду, к природе родного края ,любовь к Родине.

С приобретением Узбекистаном независимости и суверенитета

В стране большое внимание уделяется возрождению духовности ,бережному отношению к богатому культурному наследию народов.

Младший школьный возраст является важнейшим периодом формирования и становления личности. Знания и умения, приобретаемые в этом возрасте, усваиваются мгновенно, фиксируются на всю жизнь и теряются в последнюю очередь при старческой дегенерации и патологии мозга.

Вышеизложенное дает основание утверждать, что основы формирования всесторонне развитой личности будущего специалиста закладываются в этом возрасте.

Школьное образование является важным системе непрерывного образования в нашем регионе и независимо от форм и способов его получения решают следующие задачи:

- целенаправленная и систематическая подготовка детей к обучению в школе, развитие их индивидуальных способностей и одаренности;

Приобщение детей к и национальным общечеловеческим этическим и культурным ценностям, интеллектуальное развитие ребенка;

-формирование основ высокой духовности и нравственности;

-укрепление физического и психического здоровья детей

Для реализации целей и задач последовательного развития подрастающего поколения национальная программа по подготовке кадров предусматривает ряд мер: - обеспечение приоритетной подготовки квалифицированных кадров воспитателей и педагогов.

-внедрение в учебно - воспитательной процесс эффективных психолого-педагогических методик, обеспечивающих раскрытие способностей и интересов детей, удовлетворение их растущих потребностей;

-создание условий для духовно-нравственного воспитания школьников на основе богатого культурно-исторического и духовного наследия народа и общечеловеческих ценностей.

В воспитании всесторонне развитой личности особая роль отводится видам искусств таким как музыкальному искусству, изобразительному искусству, скульптуре, архитектуре, народному творчеству, прикладному искусству и другие.

Главной функцией искусства в этом процессе является предоставление личности возможности познания прекрасного и достижение эстетического начала в жизни, то есть помочь человеку раскрыть для себя мир реально существующей красоты. Через красоту в искусстве человек идет к нравственной истине.

Из истории нашей страны нам известно, что проблемам эстетического воспитания подрастающего поколения придавали большое значение. Мыслители средневекового Востока: Абу Наср аль Фараби (873-950), Абу Райхон Бируни (973-1050), Абу Али ибн Сина (980-1037), они в своих трудах данному аспекту уделяли особое внимание, считая воспитание и обучение, основой как для интеллектуального, так и для духовного развития личности в целом.

Абдулла Авлони, Гафур Гулям, Хамид Алимжан считали, что необходимо создать условия для эстетического совершенствования молодого поколения, для проявления неисчерпаемых их талантов.

Ученые и педагоги Узбекистана также внести большой вклад в разработку проблемы эстетического воспитания школьников средствами искусства; (Х.Муминов,М.Хайруллаев,С.Шермухамедов,С.Аннамуратова,С.Файзуллина,Ш.Курбанов,К.Мамиров,Ш.Жанайдаров,Б.Азимов,Х.Нурматов,И.Ревес,Ф.Халилов,Д.Каримова, Г.Шарипова, Э.Шаинская и другие.

Большое внимание вопросам эстетического воспитания детского возраста уделяется педагогами и психологами России А.Запорожец, И. Сакулина, В.Езикева, Л.Венгер, В. Мухина и многие другие.)

С установлением Независимости перед музыкальным искусством Узбекистана открылись широкие перспективы и обозначился круг новых творческих проблем, требующих осмысления и решения. «Закон об Образовании», «Национальная программа по подготовки кадров», Постановление первого Президента страны Ислама Каримова

О Государственной Программе укрепления материально-технической базы и дальнейшего улучшения деятельности школ Музыки и Искусства на 2009-2014 годы» определили приоритетные направления развития одной из самых важнейших сфер духовности – Музыкального Искусства.

Оглядывая ретроспективный путь, пройденный музыкальным искусством за период Независимости, отраднo отметить, что оно поднялось на качественно новый профессиональный уровень, далеко шагнуло вперед благодаря перспективам, открывшиеся молодой Республике. Провозглашение Узбекистаном своей Независимости в 1991 году поменяло отношение народа к национальной музыкальной культуре. Стали возрождаться традиции, стили, жанры различных видов искусств, но с заметными изменениями, на которые не могло не наложить отпечаток времени. Современные тенденции появились во всех пластах музыкального искусства - и в фольклоре, и в жанрах профессиональной музыки устной традиции и в композиторском творчестве. Активное участие учащейся молодёжи в народном художественном творчестве способствует самораскрытию самосовершенствованию личности, способствует проникновению эстетического начала в повседневную трудовую и общественную жизнь их деятельности.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Янов- Яновская « одна культура –две традиции. Янов –Яновская»
Узбекская музыка 21век –т 2007.с-214,
2. N. Hasanova O‘zbek milliy musiqa merosi taraqqiyotida хотin-qizlarningo‘rni.
Актуальный вызовы современной науки IX xalqaro ilmiy konferensiya 26-27 yanvar 2017 yil.
Of Uzbek Pop Music In Modern Approaches And Innovations Of Teaching The Science Of Music Culture International Journal of
3. Muminova Muqaddas Riskulovna Development And Current Status Advanced Science and Technology
Vol. 29, No. 8, (2020) <https://t.me/joinchat/> - Music teacher, <https://infourok.ru> - music lessons.
4. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlarda pedagog kreativligi. “Yangilanayotgan O‘zbekistonda fan, ta’lim va innovatsiya uyg‘unligi” mavzusidagi 6-son 2-qism Respublika ko‘p tarmoqli ilmiy konferensiyasi VIII bo‘lim Toshkent 2021. 677 bet. Udk. 001.895 (575.1).
5. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlar o‘qituvchisining kreativligi. Педагогические и лингвopsихологические особенности развития, формирования и становления личности врача. Сборник тезисов Международная конференции. СамГМИ, Самарканд 5 мая 2021 год
6. Urinova S.Sh. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishning nazariy asoslari. “The best innovator in science” xalqaro maqolalar tanlovi to‘plami. Organized by Innovative Academy. Tashkent February 5, 2022. Pg 811. <https://zenodo.org/record/5979621#.YpC2PKhBxD8>

MUSIQA DARSLARIDA TARIXIY MA'LUMOTLAR MANBALARIDAN FOYDALANISHNING O'QUVCHILAR DUNYO QARASHLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Normatov Obidjon Abdurasulovich
JDPU Musiqa ta'limi va san'at yo'nalishi II bosqich magistranti.

Annotatsiya: Maqolada musiqa fanini o'qitishda tarixiy merosimizdan foydalanib o'quvchi yoshlarni keng qamrovli bilimlar olishiga, bo'lajak mutahassislarni professional bilimi va malakasini oshishiga, nazariy bilimlarni amaliyotga qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishlari bo'yicha kerakli tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Musiqa, tarix, shakl, o'quvchi, ajdod.

Ma'lumki, ajdodlarimizning ma'naviyat, ma'rifatga oid qarashlari va ta'limotlarining paydo bo'lib, rivojlana boshlash tarixi bir necha ming yillarni o'z ichiga oladi. Tarixiy tajribalar shundan dalolat beradiki, har qanday mamlakatning ta'lim tizimi, jumladan musiqa faning asosiy maqsadi yoshlarga ajdodlardan meros bo'lib qolgan moddiy va ma'naviy boyliklar, qadryatlarni zamonaviy bilimlar bilan uyg'unlashgan holda yoshlarga singdirishdan iboratdir. Bu murakkab va dolzarb vazifani hal etish uchun bosib o'tilgan tarixiy yo'lni tahlil qilish, ijobiy va salbiy jihatlarni aniqlash, shu asosida tarbiya, ayniqsa o'quvchi talabalarni ma'naviy sifatlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan samarali yangi-yangi pedagogik vositalar tizimini yaratish zaruriyati kun tartibiga qo'yilaveradi.

Musiqa tarixiga kiritilmagan, ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati muhim hisoblangan tarixiy manbalar va millatimiz namoyondalarining ta'lim- tarbiya sohasidagi tajribalarining pedagogik ahamiyati, ma'naviy merosi, pedagogik qarashlarning o'rni haqidagi ma'lumotlarni to'plash va o'quv jarayoniga kiritish;

Musiqa tarixi bo'yicha o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarga qo'yilgan talablarni zamon talabi nuqtai nazaridan tahlil qilish va ulardan amalda foydalanish;

O'quvchilarni millat tarixi bilan tanishtirish, ularda millatning taraqqiyot yo'li to'g'risidagi bilimlarni hosil qilish, milliy tarix negizida istiqbolga bo'lgan ishonchni qaror toptirish;

O'quvchilarga millat ozodligi, Vatan mustaqilligi, taraqqiyoti va istiqboli uchun kurashish oliy insoniy fuqorolik burch ekanligini anglatish, jamiyat ravnaqi va davlat qudrati yo'lida tinmay mehnat qilish istagini uyg'otish;

O'quvchi yoshlarda millatga xos turmush tarzi, borliqqa bo'lgan yondashuv, ijtimoiy munosabatlari mazmuni, milliy xarakter xususiyatlari bilan tanishtirish, ularda milliy mentaletitga xos sifatlarini tarbiyalash.

O'quvchilarga millat hayoti, o'tmishi, kelajagi uchun dahldor bo'lgan omillar to'g'risida ma'lumotlar berish, ular tomonidan milliy mentaletit xususiyatlarining to'la anglanishi uchun imkoniyat yaratish, talabalarda milliy urf-odat, marosim va ananalarning avlodlar tomonidan davom ettirilishi, ularning mazmunan boyitib borilishi yo'lida amaliy harakat ko'nikmalarini tarbiyalash;

O'quvchi yoshlarda xalq musiqasining tarixiy ildizlari, uning manbalari hamda turli davrlardagi musiqa san'atining rivoji, ilmiy-texnik taraqqiyot davrida ularning shaxs kamolotidagi o'rni, shuningdek xalq og'zaki ijodidan tarbiya jarayonida foydalanish vositalari to'g'risida ilmiy bilimlarni shakllantirish;

Tarixiy qadamjolar, tarixiy obidalarga sayohatlar;

Tarixiy muzey va san'atshunoslik muzeylari hamda millatimiz allomalarining uy - muzeylariga ekskursiyalar tashkil etish;

Buyuk avlodlarimiz tarixini yig'ish, saqlash va xalqqa etkazishda xizmat qiladigan ilmiy kutubxonalar boyligidan foydalanish, ma'naviy- madaniy va ilmiy merosimizni o'rganuvchi olimlar bilan uchrashuvlar o'tkazish

O'quvchilarning umumiy shu jumladan musiqiy dunyoqarashlarini shakllantirish umumta'lim maktablari musiqa madaniyatiga ularda amaliy ijrochilik qobiliyatlarini o'stirish ham muhim vazifa hisoblanadi. Bu maqsadga etish musiqa fani o'qituvchisidan o'z ustida tinmay ishlashni musiqiy va dunyoviy bilimlar bo'yicha keng dunyoqarashga ega bo'lishni hamda yuksak ijrochilik malakasiga ega bo'lishni talab qiladi. Bundan tashqari o'qituvchi o'zida bor bo'lgan bilim va malakalarni o'quvchilarga to'liq yetkazish uchun unda pedagogik mahorat yuqori darajada bo'lishi, darsda foydalanadigan metod, usul va texnologiyalarni to'g'ri tanlashi va bu metod va texnologiyalardan unumli foydalanish zarur.

O'rganilayotgan musiqiy asar, asarning tarixiy yozilishi sharoiti, sheri va musiqiy mualliflari to'grisida o'quvchilarga tushuncha berish bilan birga uning yuksak saviyadagi sifatli ijrosini ham ta'minlash joizdir. Shundagina bu musiqiy asarning mazmuni, yaratilish davri, mualliflari to'grisida bildirilgan fikrlar va ma'lumotlar o'zining o'quvchilar ongi va hissiyotlariga bo'lgan ta'sir kuchini yanada oshiradi.

Malumki, umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflari musiqa madaniyati darslarida musiqiy faoliyatning 5xil turidan foydalanib dars o'tish talab qilinadi. Buesa musiqa tinglash, jamoa bo'lib qo'shiq kuylash, musiqali ritmik harakatlar bajarish, musiqa ijodkorligi va musiqa savodi kabi faoliyat turlaridir. Bu faoliyatdan kelib chiqib rejalashtirilgan choraklik, yoki oylik (kalendar ish reja) va alohida bir dars rejasiga bo'ysundiriladi. Demak, o'quv yili davomida o'tiladigan barcha musiqa madaniyati darslari kalendar ish rejaning, shu orqali yillik rejaning (Perespektiv) bajarilishiga qaratilgani kabi, dars jarayonida qo'llaniladigan barcha faoliyat turlari ham alohida bir dars rejasining bajarilishiga, ya'ni shu dars mavzusining bolalar tomonida o'zlashtirilishiga qaratiladi.

Biz yuqorida keltirgan misol, ya'ni musiqa to'grisida berilgan tushuncha musiqa savodi faoliyat turiga xos ma'lumot bo'lsa, Davlat madhiyasi to'grisida berilgan tushuncha cholg'u ijrochiligi faoliyati, Andijon polkasi kuyi esa ham musiqa tinglash, ham musiqali ritmik harakatlar bajarish faoliyat turlarining dars jarayonida baljarilishini ta'minlaydi.

Shu o'rinda aytib o'tish lozimki umumta'lim maktablarining 1-sinfdan to 7-sinfiga qadar musiqa madaniyati darslari o'tib boriladi. Bu sinflarda musiqa darslarini o'qitish oddiydan murakkabga tomon rivojlantirilgan holda tashkil qilinadi, ya'ni unda tinglanadigan musiqalar, kuylanadigan qo'shiqlar, bajariladigan ritmik harakatlar hamda musiqaning nazariy asoslari bo'lmish notalar ham birinchi sinfdan yettinchi sinfga qadar murakkablashib boraveradi. Bunga o'quvchilarning quyi sinflarda o'zlashtirgan bilim, malaka va ko'nikmalari sabab bo'ladi.

Oddiydan murakkabga tomon o'quv dasturining rivojlanishini yana shunday ta'riflash mumkin. Fikrimizcha har o'quv yilining boshdagi dastlabki musiqa madaniyati darslarida sinflar osha, oddiydan murakkabga tomon kengaytirilgan holda musiqa nim? U qachon paydo bo'lgan? Musiqaning inson va jamiyatdagi o'rni qanday? Musiqiy asarlarni yozib olishga urunish qachondan boshlangan? Qo'shiqchilik tarixi qachondan boshlangan? Maqomlar qachon paydo bo'lgan? Raqs san'ati qachon paydo bo'lgan va qanday sharoitda takomillashgan? Kabi mavzuli savollar javoblarini ham musiqa savodi faoliyat turiga kiritish lozim. O'quvchilar umumta'lim maktablarini tugatish jarayonida yuqoridagi savollar to'grisida tushunchaga ega bo'lishi va bemaloljavob bera olishi zarur. Dunyo bo'ylab olib borilayotgan arxeologik qidiruv ishlari natijasida eramizdan oldingi XI- asrga oid musiqiy belgilar topilgan, shunigdek eramizdan oldingi II asrga oid musiqaning nazariy asoslariga oid musiqiy belgilar Xitoydan topilgan. O'rta Osiyoda esa musiqaning nazariy asoslariga oid ilmiy ma'lumotlar dastlab Muso al- Xorazmiy(780-850) so'ngra Abu Nasr Forobiy (873-950), keyin Abu Ali ibn Sino (980- 1037), Sayfiddin Urmaviy(XII asr), Abdulqodir Marog'iy(XIV asr), Abdurahmon

Jomiy(XV asr), Najmiddin Kavkabiy(XV-XVIasr),Darvishali Changiy(XVIIasr) Komil Xorazmiy(XIXasr) ijodida uchraydi. Ularning har biri musiqaning nazariy masalalariga, cholg'u sozlar, maqomlar, mashhur ijrochilar ijodi to'g'risida ma'lumot beruvchi ko'plab ilmiy risolalar yaratganlar biz ushbu risolalardan foydalanib bo'lajak avlodlarning musiqiy dunyo qarashlari va tushunchalarini mukammallashtirib borishimiz kerak bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, musiqa fanini o'qitishda tarixiy merosimizdan foydalanish o'quvchi yoshlarni keng qamrovli bilimlar olishiga, bo'lajak mutahassislarni professional bilimi va malakasini oshishiga, nazariy bilimlarni amaliyotga qo'llay olish ko'nikmalarini shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.I.A.Karimov. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: "Sharq" nashriyoti 1998.

2.O'zb. XTB. Umumta'lim maktablarida musiqa ta'lim-tarbiyasi konsepsiyasi T.: 1995.

3.T.E.Salomonova. O'zbek muzikasi tarixi.-T.: "O'qituvchi" nashriyoti 1981.

4.G.Sharipova. Musiqa va uni o'qitish matodikasi. -T.: "Turon" nashr 2003.

5.A.Normatov. Musiqiy ta'limda fanlararo bog'liqlik. Jizzax 2010.

IQTIDORLI YOSHLAR-KELAJAGIMIZ POYDEVORI

Ochilova Nargiza G'aybullayevna

Musiqa madaniyati fakulteti o'quv ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtidorli yoshlarni aniqlash masalalariga doir pedagog olimlarining ishlari tahliliy o'rganilgan. Iqtidorli yoshlarni aniqlash hozirgi kunda ta'lim-tarbiya jarayonidagi muhim muammoli mavzulardan biri ekanligi to'g'risida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Iqtidor, ta'lim-tarbiya, tizim, qobiliyat, talant.

Yurtimizda yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini mustahkamlash, ularning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorligini oshirish borasida ulkan ishlar olib borilmoqda. Zero, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg'ayrat, iqtidorli yoshlarni tarbiyalash bugunning eng muhim vazifalaridan biridir.

Insoniyat er yuzida paydo bo'lgandan to bugungi kunga qadar inson hayotini engillashtirishga ko'mak bergan shart-sharoitlardan tortib misli ko'rilmas yaratuvchanliklar inson tafakkuri mahsuli asosida ro'y berishi hech kimga sir emas. Biror kashfiyotni yuzaga keltirish uchun insondan tafakkur va iqtidor kerak bo'ladi.

Iqtidor – inson ruhiyatining butun hayoti davomida tizimli rivojlanadigan psixikaning imkoniyati bo'lib, insonning boshqalarga nisbatan noan'anaviy va favqulodda natijalarga erishishini ta'minlaydi. Iqtidor insonning barcha imkoniyatlarini va fikrlashini hayotning yangi talablarini hal qilishga va yangi sharoitlarga moslashishga yo'naltiradi

Har bir bola iqtidor egasi bo'lib tug'iladi. Bu iqtidorni yuzaga chiqarish faqat alohida shaxs uchun emas, balki jamiyat va uning taraqqiyoti uchun zarurdir. SHuning uchun zamonaviy malakali pedagoglarga qo'yiladigan asosiy talablardan biri iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, iqtidorni kerakli yo'nalishda rivojlantirish uchun ijodiy yondashish va uni yuzaga

chiqarish uchun zarur shartsharoitni yaratish, o'quvchi yoshlar ruhiyatini tushuna olish va malakali yordam bera olishdir.

Iqtidorli yoshlar deganda avvalo xar tomonlama yetuk sog'lom farzandlarni tushunamiz. Shu bois o'tgan yillar mobaynida yoshlarimizda nafaqat yuksak intellektual salohiyat, mustaqil fikr, keng dunyoqarashni shakllantirishga, balki ularni jismonan chiniqtirishga, ommaviy sportni rivojlantirishga, mamlakatimizning barcha hududlarida, hususan, chekka qishloqlarida ham zamonaviy sport majmualari bunyod etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Iqtidorli yoshlarni tarbiyalash insoniyatning eng yorqin orzusi bo'lib kelgan. Bunday orzudagi insonlar azaliy ma'rifatga, madaniyatga mansub bo'lgan yurtlarning donishmandlari – eng mo'tabar ziyolilari, hukmdorlari hisoblanganlar. Ularning orasida O'zbekiston deb atalmish muazzam zaminimizda yashagan bobolarimizning o'z o'rni, hurmati bor. Bu jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilingan haqiqatdir. Iqtidorli yoshlarni tarbiyalash orzusiga o'z tariximizdan ko'p dalillar keltirishimiz mumkin. Al-Farobiyning —Fozil odamlar shahril asarida jamiyatning har bir fuqarosi – mansabi, tutgan o'rni, ya'ni kim bo'lishidan qat'i nazar, fozil kishi, fozil inson o'z davlatining barcha qonun – qoidalarini yaxshi biladi, unga amal qiladi, fikrlaydi, o'z kasbining ustasi, lozim bo'lganda Vatani uchun jon fido qiladi. Fozillar shahri aholisi bir-biriga hurmatda bo'ladi. Ota-ona va farzand, ustozu shogird o'rtasida sharqona nazokat, mehr va ehtirom bo'ladi. Avvalo, bunday fikr yuritishning o'zi bobolarning ma'naviy darajasi naqadar yuksak bo'lganligini va albatta, bunday fikr aytish bu borada ko'p asrlik meroslarni o'rganish natijasida vujudga kelishini ta'kidlash joiz.

Shunday ekan, zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda yoshlarni bilimli, kuchli, sog'lom, irodali va dunyoning barcha yoshlari bilan bemalol bellasha oladigan qilib o'qitish va tarbiyalash lozim. Hozirgi kunda yoshlar har tomonlama etuk, raqobatbardosh kadr bo'lib etishishida o'z mutaxassisliklaridan tashqari zamonaviy axborot texnologiyalaridan erkin foydalanishlari hamda chet tillarini mukammal o'rganishlari lozim. Mutaxassisliklariga doir masalalarni kompyuter yordamida echish usullarini bilishlari va amaliy dasturlardan keng foydalana olishlari kerak. Biz ertaga jahonda o'z so'zimizni aytishimiz uchun ham bu zarur. Inson ma'naviyatini yuksaltirmasdan turib, hamda mamlakatimiz taraqqiyotida muvaffaqiyatlarga erishish qiyin. Ma'naviy erkin va ozod xalq teran va komil tafakkur tufayli har sohada katta yutuqlarga erishishi mumkin. Boshqacha aytganda, ma'naviy sog'lom, kuchli jamiyatgina islohotlarga tayyor bo'lishi mumkin. Qadimda ham biror mamlakatni bosib olishni ko'zlaganlar avvalo, uning ma'naviyatini yo'q qilishga uringanlar. Chunki, ma'naviyati yo'q xalq o'z-o'zidan ma'naviy qashshoq, qaram bo'lib qoladi. Erk sevar xalqimiz mustaqillik tufayli o'z yeri, o'z tili, o'z diniga ega bo'ldi, milliy g'ururi, izzat obro'si tiklanib, endilikda qadriyatlarimiz, ma'naviy merosimizdan bahramand bo'lmoqdamiz.

Buyuk ajdodlarimiz ma'naviy-ruhiy kamolotga erishishni, doimo ogoh va hushyor yashashni, Vatan, el-yurt sha'ni, tinchligi uchun hatto jonfido etishni hayotining mazmuni deb bilgan. Avlodlarini ham ana shu ezgu amallar ruhida tarbiyalashga intilgan. Bu an'analar dunyo manzaralari kun sayin o'zgarib, tinchlik-totuvlikka tahdidlar tobora kuchayayotgan bugungi davrda yanada dolzarblik kasb etmoqda. Yoshlarning ta'lim-shu bois mamlakatimizda yoshlarning puxta ta'lim-tarbiya olishi uchun qulay sharoit yaratish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki jamiyatimiz osoyishtaligi, mamlakatimiz taraqqiyotiga raxna solmoqchi bo'lganlar ko'p hollarda yoshlarni o'z tomoniga og'dirishga harakat qiladi. Shu bois yigit-qizlarning turli g'arazniyatli guruhlariga qo'shib qolishining oldini olish, bunday kuchlarga qarshi kurashish, ularning ma'naviyatini yuksaltirish borasida izchilishlar olib borilmoqda.

Ma'naviyatni yuksaltirish – avvalambor, yoshlarning iymon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan iqtidorli insonlar qilib tarbiyalash, ularning tafakkurida o'zligini unutmaslik, ota-bobolarning muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmat qilish fazilatlarini qaror toptirish, ularning men o'zbek farzandiman deb g'urur va iftixor bilan yashashga erishishdir.

Ma'naviyatli va e'tiqodli kishilar o'z maslagi, vatani uchun jonini fido qilishga ham tayyordirlar. O'zbek nomini, o'zbek ilm-fani va madaniyatini, bir so'z bilan aytganda, xalqimiz yuksak salohiyatini, uning qanday buyuk ishlarga qodir ekanligini butun dunyoga namoyish qilish albatta biz yoshlarning qo'lida. Shunday ekan, yurtimizda hukm surayotgan tinch va osuda hayotni asrash, uning mustaqilligi va barqarorligiga munosib hissamizni qo'shish – har birimizning, shu aziz Vatanda yashayotgan barcha yoshlarning, eng asosiy vazifalaridan bo'lib qolmog'i lozim. Faxr bilan aytish joizki, ko'plab yoshlarimiz o'zlarining intellektual salohiyati bilan xalqaro olimpiadalar, sport musobaqalari, qolaversa, barcha sohalarda katta muvaffaqiyatlarga erishib, yurtimiz bayrog'ini, Vatanimiz sharafini himoya qilib kelayotganligi barchamizni dildan quvontiradi.

Iqtidorli yoshlarni jismonan va ruhan sog'lom, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularni kelajagimizning munosib vorislari etib voyaga etkazishga ko'maklashish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bir so'z bilan aytganda, yurtimizning yorqin kelajagi va xalqimizning umidu ishonchi iqtidorli qora ko'zlarimizga bog'liq. O'z navbatida, kelajagimiz egalari ham yaratilayotgan keng imkoniyatlardan foydalangan holda, mukammal bilim olish va kasb-hunar egallash, shuningdek, xalqimizning orzu-istaklarini amaliy ishlar bilan ro'yobga chiqarishni o'z oldiga maqsad qilishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hasanova Navbahor Hamraqulovna. (2020). Bo'lajak o'qituvchilarning o'zbek mumtoz musiqasida kasbiy malakasini oshirish muammolari. *Xalqaro ilg'or fan va texnologiyalar jurnali*, 29(08), 3489-34953495. [Http://sersec.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558](http://sersec.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558)

2. Hasanova, Navbahor. (2020). METHODS AND WAYS TO DEVELOP THE MUSICAL FEELINGS OF STUDENTS IN TTTE LESSONS OF MUSIC EUITURE. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(42). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5579

3.Khasanova,Navbakhor (2020) “The role of music lessons in the formation of national and intercultural competence in students.”*Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*.Vol.2020 :Iss.2. Article 15 :<https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss2/15>

4.N. Hasanova O'zbek milliy musiqa merosi taraqqiyotida xotin-qizlarningo'rni. Актуальный вызыви современной науки IX xalqaro ilmiy konferensiya 26-27 yanvar 2017 yil.

5. Muminova Muqaddas Riskulovna Development And Current Status Of Uzbek Pop Music In Modern Approaches And Innovations Of Teaching The Science Of Music Culture *International Journal of Advanced Science and Technology* Vol. 29, No. 8, (2020) <https://t.me/joinchat/> - Music teacher, <https://infourok.ru> - music lessons

6. Muminova Muqaddas Riskulovna *International Journal of Mechanical Engineering*. The Innovative Technologiyes Of Teaching In Musical Edukational Establishments1764-1767- betlar. 2022- йил.

7. Muminova Muqaddas Riskulovna Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. THE ROLE OF SPORT ACTIVITIES, GAMES AND COMPETITIONS IN THE NURTURE OF 6-7 YEARS OLD CHILDREN <https://uzjournals.edu.uz/tziuj68-78betlar> 2022

8. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlarda pedagog kreativligi. “Yangilanayotgan O‘zbekistonda fan, ta’lim va innovatsiya uyg‘unligi” mavzusidagi 6-son 2-qism Respublika ko‘p tarmoqli ilmiy konferensiyasi VIII bo‘lim Toshkent 2021. 677 bet. Udk. 001.895 (575.1).

9. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlar o‘qituvchisining kreativligi. Педагогические и лингвopsихологические особенности развития, формирования и становления личности врача. Сборник тезисов Международная конференции. СамГМИ, Самарканд 5 мая 2021 год

10. Urinova S.Sh. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishning nazariy asoslari. “The best innovator in science” xalqaro maqolalar tanlovi to‘plami. Organized by Innovative Academy. Tashkent February 5, 2022. Pg 811. <https://zenodo.org/record/5979621#.YpC2PKhBxD8>

JAHON KOMPOZITORLARI IJODIDA BOLALAR UCHUN YOZILGAN ASARLAR

Po‘latova To‘maris Chori qizi


Shahrisabz Davlat Pedagogika instituti Musiqa ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Tursunov Husniddin

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon kompozitorlarining asarlarini zamonaviy texnologiyalari asosida o‘rgatish qanday samarali natijalar berishi, jahon kompozitorlarining hayot va ijod na‘munalari haqida qisqacha ma‘lumot berib o‘tilgan.

Kalit so‘zi: Jahon kompozitorlari, bolalar asarlari, pedagogik texnologiyalar, bolalar psixologiyasi, inovatsion texnologiyalari, ta’lim tarbiya.

Hozirgi kunda butun jahon ta’lim sohasida har xil metodlar, inovatsion texnologiyalar, texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan talab, e’tibor kundan kunga oshib bormoqda. Zamon shiddat bilan rivojlanayotgan bir vaqtda, texnologiyalar kundan kun rivojlanib borayotganda va uni ta’lim bilan birgalikda olib borish bugungi kun talabi hisoblanadi. Jahon bolalar musiqasi deganda, barcha xalqlarning kompozitorlari yaratgan, bolalar uchun yozilgan badiiy asar namunalari tushuniladi. Bolalar dunyosi juda keng va hayolatlarga to‘la. Shu tufayli ham bolalar musiqasi o‘zining rang barangligi bilan alohida ahamiyatga egadir. Bolalar uchun asar yaratayotgan barcha kompozitorlar asarlarni tushunarli va qiziqarli bo‘lishi uchun mazmunga alohida e’tibor qaratishlari lozim. Bundan tashqari, kompozitor turli yoshdagi bolalarning qiziqishlarini ham bir biridan farqlashi maqsadga muvofiq. Kompozitorlar asar yozish jarayonida huddi bolalardek fikrlashi, bolalar kabi dunyo qarashlarini mujassamlashtirilgan bo‘lishi kerak. Jahon kompozitorlari orasida deyarli barcha ijodkorlari shu mavzuga o‘z e’tiborlarini qaratishgan. Ularning ijod mahsulini o‘rganib chiqamiz. Ayniqsa vena klassik maktabini shu o‘rinda takidlab o‘tishimiz lozim. Deyarli barcha davlatlarda bolalar uchun kompozitorlar tomonidan turli xil janrlarda asarlar yaratilgan.



Buyuk nemis kompozitorlari Iogann Sebastyan Bax o‘z farzandlariga musiqadan dars bergan, ular uchun maxsus pyesalar va mashqlar yozgan. Bax ijodida bolalarga atalgan fleyta va torli cholg‘ular uchun yozilgan ” Xazil “ syuitasi mashxurdir. Fleytaning yengil nafis ovozi torli cholg‘ularning tantanavor yangrashi bolalar dunyosining ertaknamo obrazlarini ko‘rsatadi. Kompozitor turmush o‘rtog‘i Anna Magdalenaga bag‘ishlab “ Anna Magdalena Baxning nota daftari” nomli to‘plamini yaratgan. Bu daftardan hozirgi kunda ham musiqa maktablarida bolalarga musiqadan saboq berishda qimmatli manbaa sifatida foydalanib kelinmoqda. Klavesin va fleyta uchun sonata, orkestr uchun 3-syuita, lyutnya uchun prelyuda, Branderberg konserti, skripka va gaboy uchun konsert, violonchel uchun syuita Bax ijodidagi bolalar uchun yozilgan asarlar hisoblanadi.

Bolalar o‘rganadigan asarlar ro‘yhatidan jahon kompozitorlarining asarlari muhim ahamiyat kasb etishi lozim. Chunki, o‘quvchilarimiz jahon xalqlari o‘rtasida o‘tkaziladigan xalqaro ko‘rik tanlovlar va festivallarda qatnashish uchun kerakli darajada serqirra ijrochi bo‘lib yetishmoqlari darkor. Zero, bolalar musiqalarini o‘rganishning boshlang‘ich bosqichida jahon kompozitorlarining asarlari o‘ziga xos o‘rin egallaydi.



Jahon kompozitorlari orasida Motsartning bolalar uchun yozgan asarlarini alohida ta’kidlab o‘tishimiz lozim. Wolfgang Amadey Motsart musiqa va jahon tarixidagi eng ko‘zga ko‘ringan shaxslardan biridir. O‘z sohasiga qo‘shgan hissasi va bastakorlarining iste’dod darajasi jihatidan Eynshteyn, Napoleon, Da Vinchi bilan solishtirishimiz mumkin. U bolalar kompozitorlari orasida keng samarali ijod qilgan. Motsart dahosining boshqa ko‘rinishlari bilan

bir qatorda uning bolalarga yaqin bo'lishi qobiliyati asrlar davomida barchaga ma'lumdir. Ko'pgina ota-onalar farzandlariga Motsartning sonatalari va konsertlarini tinglashlarga ruxsat berishadi va bu haqiqatdan ham ajoyib natijalarga olib keladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalar ko'proq to'planib, mantiqiy va majoziy fikr yurita oladilar. Xuddi shu sababga ko'ra, Motsartning bolalar uchun musiqasini ko'plab maktabgacha ta'lim muassasalarida eshitishimiz mumkin.



Vena klassik maktabining yana bir yirik namoyondalaridan biri bu Gaydn Frans Yozefdir. Gayden bizga xalq og'zaki ijodi bilan hamohang ulkan me'ros qoldirgan. Uning asarlarida hayotni she'riy idrok etish, oddiy tasvirlar, dunyoga uyg'un va tiniq qarashlar kabi munosabatlarni uchratamiz. Gaydn Frans Yozef Avstriyalik bastakor, klassik davrning eng muhim musiqachilaridan biri bo'lgan. Tegishli janrlarga qo'shgan katta hissalarini tufayli "Simfoniya otasi", "Torli kvartet otasi" degan epitetlarga sazovor bo'lgan. Piano triosi va sonata shakllarini rivojlantirgan bastakorlardan biridir. Jiddiy o'y, hayotni poetik qabul qilish, tabiat go'zalligi – bularning barchasi Gaydn'da yuqori o'rinda turadi.

Asrlar davomida hali hanus shu kungacha yetib kelganligi bu kompozitorlarning shu sohasini chin qalbdan sevganliklari, boridan kechib bo'lsada shu kabi asarlar yaratganliklaridan dalolat. Bu asarlarni biz yosh avlodga yetkazishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanib, tez va oson, qulay usullarni o'ylab topishimiz lozim.

Xulosa qilib aytish kerakki, kompozitorlar bolalar uchun asar yozishda ko'plab narsalarga e'tibor qaratishgan. Bolalarning psixologiyasidan kelib chiqqan holda asarlar yozishgan. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yosh avlod tarbiyasiga alohida ahamiyat berib, bu borada bir qancha misli ko'rinmagan ishlar amalga oshirilmoqda. Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasidan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajada ko'taramiz. Yoshlarning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'noviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlarga hech qaysi sohadan bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxt bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuchi va imkoniyatlarini safarbar etamiz degan so'zlar har bir yosh avlod uchun kuch va madad beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Shavkat Mirziyoyev- Insonparvarlik, Ezgulik va Bunyodkorlik- Milliy G'oyamizning Poydevoridir "Tasvir" nashriyot uyi Toshkent-2021.
- 2.Vikipediya, ochiq ensiklopediya.

O'QUVCHILARNING MUSIQIY QOBILYATLARINI TASHXISLASH USULLARI

Quvvatova Nargiza Baxtiyor qizi

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti magistranti

Annotatsiya: Musiqa darslarida o'quvchilarning musiqiy uquvi va qobilyatlarini muhim diagnostik tomonlarini aniqlash, prognozlar bilan ishlash, hamda uning chora-tadbirlari bilan ishlashning bir nechta e'tiborga molik tomonlari.

Kalit so'z: qobilyat, tafakkur, his-tuyg'u, diagnostik kompetentsiya, diagnozlash, neyropsixologik yondashuv, pedagogik kuzatishlar, suhbatlar, anketalar, o'quv eksperimenti, vokalizatsiya, ovozli o'yinlar.

Har bir o'quvchining fe'l-atvorida albatta ijobiy va salbiy xislatlar bo'ladi. O'qituvchining mahorati o'quvchining yaxshi xislatini bilish va undagi qolgan barcha sifatlarini ana shu yaxshi xislatga yo'naltira olishidadir.

Mavzuni yoritishdan maqsad ham aynan musiqiy uquvi bo'sh bolalarning qobilyatlarini rivojlantirish hamda ulardagi muammolarni diagnozlash orqali bartaraf etish. Bunda o'tkazilgan tadqiqotlar va ilmiy farazlar keltirish orqali diagnozlashning ijobiy tomonlari yoritiladi.

Diagnostika - biror holatni tavsiflovchi tizim parametrlarining qiymatlarini aniqlash. Musiqiy diagnostika esa, psixodiagnostika bilan bog'liq bo'lib, ya'ni shaxs psixikasining xususiyatlarini aniqlash demakdir. Musiqada o'quvchining qobilyatlarini to'g'ri tahlil qilish, uning kamchiliklariga to'g'ri tashxis va izoh berish psixologik kayfiyatga ham tegishlidir. Shuning uchun ham o'quvchining musiqiy ohang, ritm, dinamika, eshitish, tasavvur etish, cholg'u ijrochilik amaliyoti, qo'shiq kuylash kabi mashg'ulotlar jarayoni psixologik omillar orqali musiqiy tahlil etiladi va unga ma'lum diagnozlar qo'yiladi hamda to'g'ri yo'nalish beriladi.

Barkamol rivojlanish uchun ma'naviy boy, estetik va musiqiy jihatdan rivojlangan, san'at va hayotdagi go'zallikka sezgir, ijodiy faol, intellektual va jismoniy rivojlangan shaxsni shakllantirish juda muhimdir. **«Musiqa - bu mo'jizaviy, go'zallikka, insoniyatga jalb qilishning eng nozik vositasidir ... Gimnastika tanani to'g'rilagani kabi, musiqa ham odamning ruhini to'g'rilaydi»**, deb yozgan V.A.Suxomlinskiy. Musiqa hissiyotlar sohasini rivojlantiradi, o'z-o'zini anglashga yordam beradi.

Shaxsiy darslar katta o'zgaruvchanlikni, bolaning xususiyatlarini, qiziqishlarini, qo'ruqlarini, hissiy va jismoniy holatidagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda «moslashuv» imkoniyatini taklif qiladi. Shu munosabat bilan, biz doimiy tuzilma haqida emas, balki bolaga mavjud bo'lgan musiqiy va o'yin repertuaridan foydalangan holda o'zaro ta'sirning plastik qurilishi haqida gapirishimiz mumkin. Bu qo'shiq aytish (vokalizatsiya, ovozli o'yinlar), musiqaga harakat qilish (mustaqil yoki kattalar qo'lida), musiqa asboblarini «ijro qilish», musiqiy o'yinlar shular jumlasidan. Bolaning imkoniyatlariga va belgilangan tuzatish

vazifalariga qarab, uning o‘zaro ta’sirdagi ishtiroki darajasi o‘zgarishi mumkin, ammo ishning maqsadi bolaning faolligini bosqichma-bosqich oshirish va uning o‘zaro ta’sirga jalb qilishdir.

Bolalarning musiqiy iste’dodi muammosiga qiziqish bugungi kunda diagnostikaning ko‘p jihatlarini munozarali bo‘lib qolayotganligi, savollarga aniq javoblar yo‘qligi, musiqa o‘qitish amaliyoti talablari bilan badiiy- ijodiy (musiqiy) pedagogika sohasidagi diagnostika muammosi rivojlanishining ilmiy-nazariy darajasi o‘rtasidagi ziddiyat shundan kelib chiqadi.

Har qanday faoliyat turidagi iqtidorning atributiv xususiyati ijodkorlik ekanligidan kelib chiqib, uni aniqlash, uning hozirgi holatini baholash talaba musiqachilarga tashxis qo‘yishning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratiladigan barcha usullar avvalo ilmiy faraz qilinishi, qolaversa, o‘quvchining affekt holati o‘rganilishi, ya’ni, uning neyropsixologik yoki psixologik muammolari o‘rganib chiqilgan holda unga tahminiy tashhis qo‘yilishi kerak. Undagi muammolar yetarlicha o‘rganib chiqilganda tashhislash bir muncha oydinlashadi. So‘ngra o‘quvchining muammosining yechimi bo‘yicha ishlanadi. Bunda albatta musiqa o‘qituvchisidan psixologik bilimlar talab etiladi. Shundan so‘nggina musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo‘l ochiladi.

Dars jarayonlarida o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini diagnostlashda qo‘llash mumkin bo‘lgan usullar:

a) ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish (pedagogika, psixologiya, musiqashunoslik va boshqalar);

b) bolalar va o‘smirlarning tabiiy musiqiy ma’lumotlarini diagnostika qilish sohasidagi musiqiy-pedagogik tajribani tahlil qilish va umumlashtirish;

c) empirik darajadagi usullar (pedagogik kuzatishlar, suhbatlar, anketalar, o‘quv eksperimenti).

d) ijodiy yondashuv; sahnalashtirilgan asarlar orqali bolaning kayfiyati va qobiliyatini kuzatish;

e) neyropsixologik muammolarni aniqlashda psixolog hamkorligidan foydalanish.

Bunday usullar orqali o‘quvchining psixologik holati va qiziqishlari aniqlab olinadi. Masalan o‘quvchiga turli janrdagi musiqiy asarlarni eshittirish orqali unga qanday uslub manzur bo‘lishi aniqlanib olinishi mumkin. Boshqa tomondan bu orqali unga yoqimli eshitilgan asarni o‘z ijrosi talqinida ijobiy kayfiyatga o‘tkazishga erishish mumkin. Bu jarayonda eng ahamiyatlisi o‘qituvchining musiqiy mahorati hisoblanadi.

«Musiqiy ma’lumotlar» ni aniqlashning an’anaviy usullarini «to‘liq emasligi va yaroqsizligi» uchun tanqid qilib, Yu.A. Zagarelli ta’kidlashicha, ulardan foydalanish musiqiy fikrlash, musiqiy tasavvur va musiqaga hissiy sezgirlik kabi fundamental muhim qobiliyatlarni ko‘zdan qochiradi. Yu.A. Zagarelli, qobiliyatlar tuzilishini aniqlashda tizimli yondashuv zarur, uning yo‘qligi muqarrar ravishda to‘liq bo‘lmagan diagnostikaga olib keladi degan fikrni ilgari suradi.

Musiqiy qobiliyatlarni diagnostika qilish sohasidagi eng jiddiy zamonaviy tadqiqotlardan birining muallifi M.S.Starcheus. M.S. Starcheusning fikricha, bolalar va o‘smirlar, tabiatan musiqiy, musiqa uchun yaxshi quloq, ritm hissi va musiqiy xotiraga ega bo‘lganlar hali ular uchun muvaffaqiyatli professional kelajakni bashorat qilish uchun asos bermaydi (hech bo‘lmaganda musiqiy ijrochilik sohasida) deydi. “Musiqani tushunish va chuqur his qilish” va “uni ifodali ijro etish, uning tilida so‘zlash, musiqada o‘zini erkin ifodalash” uchun bu qobiliyatlar, garchi bir-biri bilan bog‘liq bo‘lsa ham, lekin boshqa hech narsa emas. Ularni aniqlash xato bo‘ladi, bu ko‘plab amaliy misollar bilan tasdiqlangan.

M.S.Starcheusning e'tiborini tortadigan muhim qoidalar orasida, yosh xususiyatlari va badiiy iste'dod xususiyatlari bilan bog'liq. "... Aytish mumkinki, har bir yoshning o'ziga xos iqtidori bor" deb yozadi M.S. Starcheus¹.

Har qanday talaba bilan ish, narsalar mantig'iga ko'ra, o'qituvchining oldida qanday talaba ekanligini, uning tabiiy imkoniyatlari, istiqbollari qanday ekanligini ozmi-ko'pmi to'liq tushunishdan boshlanishi kerak. Boshqacha aytganda, o'quv jarayoni hech bo'lmaganda uning dastlabki, faraziy versiyasida pedagogik tashhisni o'rnatishdan boshlanishi kerak. Faqat bu holatda mos ravishda mashg'ulotning umumiy strategiyasi va taktikasini aniqlash mumkin. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, asosan musiqa oliy o'quv yurtlarini kechagi bitiruvchilardan bo'lgan o'qituvchilar musiqiy-pedagogik diagnostika texnologiyalarini bilmay, kimga, nima maqsadda, qanday dars berishlari va o'qitishlari haqida noaniq tasavvurga ega.

Ushbu masalalarga javoblar bo'lmasa, «umumiy o'rganish» deb ataladigan narsa mazmuni va tuzilishi jihatidan amorf bo'lib, juda past samaradorlik bilan tavsiflanadi. «Ko'pincha barcha talabalar - juda iqtidorli, qobiliyatsiz va zaif - bir xil tarzda o'qitiladi. Hamma, ma'lumotlaridan qat'i nazar, kelajakdagi mutaxassislar yoki, aniqrog'i, kelajakdagi vertuoz solistlar sifatida tayyorlanadi». Shunga o'xshash vaziyat bir muncha vaqt davom etadi (ba'zan juda uzoq vaqt), haqiqiy hayot unga ma'lum o'zgarishlar kiritmaguncha. Ikkinchisi ko'pincha darslarning borishidan norozi bo'lgan talabani o'qituvchisi va ta'lim muassasasi bilan xayrlashishi bilan ifodalanadi.

Bunday diagnostika nafaqat ta'limning boshlang'ich bosqichida, balki bola o'qituvchi uchun o'ziga xos terrainkognita bo'lganida, qaysi ta'lim yo'li uning uchun eng istiqbolli bo'lishini oldindan aytish qiyin bo'lganda amalga oshirilishi juda muhimdir. Vaqt o'tishi bilan, tabiiyki, o'quvchida ma'lum o'zgarishlar ro'y beradi (uning ichki dunyosi, uning qobiliyatlari, qiziqishlari, moyilliklari), ularni e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi va o'rganish bilan bog'liq emas. O'qituvchi talabani qanchalik ko'p bilsa, uning individual xususiyatlarini tushunish doirasi va chuqurligi qanchalik keng bo'lsa, ishonchli diagnostika muolajalari va natijada ishning optimal yo'nalishini aniqlash uchun ko'proq asoslar bo'ladi.

Diagnostika tartib-qoidalarining usullari tadqiqoti o'zining nazariy va empirik jihatlari yig'indisida quyidagi uslubiy ko'rsatmalar va tavsiyalar uchun asos bo'lishini ko'rsatadi.

1. Pedagogik tashxis doimiy kerak bo'lishi jarayonining atributi. Dinamizm, protsessual o'quvchining ruhiy holatlari, fazilatlar va xususiyatlari, uning ichki dunyosidagi o'zgarishlar, uning qobiliyatlari, moyilliklari va qiziqishlaridagi o'zgarishlar - bularning barchasi ko'pchilik pedagogik tashxislarga (birinchi navbatda, test o'lchovlariga asoslangan) oraliq, talabani holatini aks ettiruvchi yondashuvni asoslaydi. Ma'lum bir davrda, bu uning shakllanishi va rivojlanishining hozirgi bosqichi haqida ma'lumot beradi.

2. Tashxis o'quvchining yetarlicha aniq tabiiy ma'lumotlarini aniqlash bilan cheklanmasligi kerak, masalan, intonatsiyani «aniq» qilish, ma'lum oddiy ritmik birikmalarni takrorlash, ma'lum tovush ketma-ketliklarini yodlash va hokazo. Vazifa an'anaviy diagnostika yondashuvlari yordamida ba'zan aniqlash oson bo'lmagan yashirin qobiliyatlarni (moyillarni) aniqlashdan iborat bo'lishi kerak. Assotsiativ qobiliyatlar namuna bo'lib xizmat qilishi mumkin, yoki majoziy va she'riy oldindan ko'rish qobiliyati (ba'zi badiiy hodisalarni, tasvirlarni, g'oyalarni, tajribalarni, hatto ular sub'ekt tomonidan haqiqatda idrok etilishidan va uning shaxsiy tajribasiga kirishidan oldin, oldindan ko'rish, oldindan bilish qobiliyati). Bu masalani hal etish pedagogik kuzatishlar jarayonida ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lishi, ularning mazmuni va yo'nalishini belgilashi kerak.

3. O'qituvchining diagnostik kompetentsiyasi o'quvchi rivojlanishidagi sezgir davrlarni o'z vaqtida aniqlashda namoyon bo'ladi, bunda uning ruhiy konstitutsiyasining ma'lum sifat va xususiyatlari, qobiliyatlar majmuasi faollashadi, ozmi-ko'pmi aniq namoyon bo'la boshlaydi. Yoshga bog'liq evolyutsiya tufayli o'quvchining ijodkorligi faollashgan, uni alohida, stokastik ko'rinishlarda emas, balki haqiqiy qobiliyat sifatida namoyon bo'ladigan ijodkorlik qobiliyati sifatida tushunadigan vaziyatda harakat qilish ayniqsa muhimdir.

4. Ijodkorlik turli yo'llar bilan, turli shakl va navlarda namoyon bo'ladi. Ba'zi hollarda talaba o'qituvchi tomonidan taklif qilingan ishlash parametrlarini o'zgartiradi. Tegishli faoliyatda tajribaga ega bo'lgan talaba o'z o'qituvchisi tomonidan taklif qilingan yechimlardan u yoki bu darajada farq qiladigan o'z ijodiy yechimlarini ilgari suradigan holatlar kamroq uchraydi.

5. Badiiy va majoziy tafakkurning tafovuti, ba'zi hollarda ijro talqinining yangi modifikatsiyalarini yaratish tendentsiyasi juda istiqbolli iste'dodning atributiv xususiyatidir. Belgilangan xususiyat diagnostika muolajalarini o'tkazishda o'qituvchi-musiqachi tomonidan yetarli darajada idrok etilishi kerak, alohida holat sifatida ko'rib chiqilishi kerak, bu ba'zan uni salbiy emas, balki ijobiy tomondan talqin qilish uchun ko'proq asos beradi.

Tashxis qo'yishning markaziy va mas'uliyatli vazifalaridan biri o'quvchining umumiy va maxsus (badiiy-ijodiy) iste'dodining ko'rsatkichi bo'lgan ijodiy resurslarini aniqlashdir. Ijodkorlik turli yo'llar bilan o'zini namoyon qilishi mumkin; musiqiy ijro san'ati sohasida ko'pincha yangi, o'ziga xos talqin kontseptsiyasini yaratish orqali topiladi.

Yuqorida keltirilgan diagnozlash bo'yicha muhim ko'rsatmalar orqali boladagi muammolar aniqlanib, kamchiligi bo'lgan yo'nalish aniqlashtirib olinadi va shu bo'yicha ko'proq vazifalar beriladi. Bunda vazifalar erkin holda taqdim etilsa, o'quvchi izlanadi va o'zi topgan yangilikni tez va oson o'zlashtiradi. Ayniqsa eshitib solfedjo kuylashda muammosi bo'lgan o'quvchilarga, darslikdan tashqari eshitish uchun tavsiya etilgan klassik asarlar taqdim qilish va uni o'quvchi yaxshi ko'radigan cholg'uda ijro qilishi, eshitib tafakkur qilish orqali bevosita kuylash qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Qobiliyatlar dinamik, hayotni shakllantiruvchi toifa ekanligini hisobga olsak, har bir diagnoz, hatto hozirgi paytda eng to'g'ri va ishonchli bo'lsa ham, nisbiy, vaqtinchalik, oraliq deb hisoblash kerak. Uning o'ziga xos mazmuni, shuningdek, umuman rejimi, sharoitga qarab, bir yo'nalishda ham, boshqa yo'nalishda ham o'zgarishi mumkin. Chunki bugun siz kuylash qobiliyati sust deb hisolangan o'quvchi kun kelib mahoratli ijrochiga aylanishi mumkin. Eng muhimi qo'yilgan diagnozni yashirin qolishi va o'quvchiga bildirmagan holatda bu bo'yicha ko'proq ishlash hisoblanadi.

Xulosa qilganda malakali diagnostika nafaqat ma'lum tabiiy musiqiy ma'lumotlarning mavjudligini, o'qitish darajalarini, fanlar bo'yicha turli ko'nikma va ko'nikmalarga ega ekanligini aniqlaydi. Uning vazifalar yanada kengroq, murakkabroq, xilma-xildir, chunki ular prognostik komponentni ham o'z ichiga oladi. Oxir oqibat, diagnostika protseduralari savollarga javob beradi. O'quv jarayonini qanday qurish kerak, musiqachi-talabani qaysi yo'nalishda olib borish kerak, uni kasbiy faoliyatga yo'naltirish kerakmi (u yoki bu shaklda) yoki umumiy badiiy ijodiyotga e'tibor qaratish, rivojlantirish musiqiy tarbiya va ta'limning ustuvor vazifasi va maqsadlari sifatida o'quvchi bilan ishlashning muhim komponentlarini ko'rsatib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rauf Qodirov Musiqa pedagogikasi Toshkent - 2012

-
2. Абдуллин Э.Б., Николаева Е.В. Теория музыкального образования. - М., 2004. - 336 с.
 3. Ананьев Б.Г. Избранные психологические труды.-М.: Педагогика, 1980, т. I - 230 с; т. II - 287 с.
 4. Ананьев Б.Г. Психология и проблемы человекознания./Под ред. А.А. Бодалева. - М. Воронеж, 1996. - 384 с.
 5. Бабанский Ю.К. Оптимизация учебно-воспитательного процесса. - М.: Просвещение, 1982.-189с.
 6. Выготский Л.С. Психология искусства. - М.: Искусство, 1968. - 567 с.
 7. Hasanova, Navbahor. (2020). METHODS AND WAYS TO DEVELOP THE MUSICAL FEELINGS OF STUDENTS IN TTTE LESSONS OF MUSIC EUITURE. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(42). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5579
 8. Khasanova,Navbakhor (2020) “The role of music lessons in the formation of national and intercultural competence in students.”*Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*.Vol.2020 :Iss.2. Article 15 :<https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss2/15>
 9. N. Hasanova O'zbek milliy musiqa merosi taraqqiyotida xotin-qizlarningo'rni. Актуальный вызовы современной науки IX xalqaro ilmiy konferensiya 26-27 yanvar 2017 yil.
 10. Старчеус М.С. Слух музыканта. - М.: МГК им. П.И. Чайковского, 2003. - 640 с.
 11. Голубев Н.К. Диагностика и прогнозирование воспитательного процесса: Учеб. пособие к спецкурсу. - Л., 1988. - 88 с.
 12. Ингенкамп К. Педагогическая диагностика. / Пер. с немгМ: Педагогика, 1991.-240 с.
 13. Леонтьев А.Н.. Проблемы развития психики. М., 1972. - 632 с.
 14. Назайкинский Е.В. О психологии музыкального воспитания. - М.: Академия, 1972. - 270 с.
 15. Педагогическая диагностика в школе. / Под ред. А.И. Кочетова. -Минск:, 1987.-223 с.
 16. Психологическая диагностика: проблемы и исследования./Под ред. К.М.Гуревича. - М., 1981. - 232 с.
 17. Тарас А.Е. Психология музыки и музыкальных способностей. - М.: Харвест, 2005.-412 с.
 18. Теплов Б.М. Проблемы индивидуальных различийгМ., 1961.- 536 с.
 19. Шевардин Н.И. Психодиагностика, коррекция развития личности. - М.: Владос, 1998.-508 с.
 20. Secord P., Backman C. Social Psychology. N. Y., 1964.
 21. Пилкова Е.М. Актуальные проблемы диагностирования музыкальных способностей на начальном этапе обучения//Научное обозрение. Серия 2. Гуманитарные науки. М., 2011.- №1. - С.71-76 (0,3 п.л.)
 22. Пилкова Е.М. Диагностика музыкальных способностей на начальном этапе обучения как определяющий фактор для реализации творческих перспектив ребёнка//Дискуссия. - Екатеринбург, 2011. - №2, 3 - С. 51-56 (0,4 п.л.)

KICHIK MAKTAB O‘QUVCHILARINING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA RANG-MUSIQIY SINESTEZIYA QO‘LLASHNING SAMARASI

Quvvatova Nargiza Baxtiyor qizi

Jizzax Ixtisoslashtirilgan San’at maktabi fortepiano o‘qituvchisi

Sunnatova Sevara Islom qizi

Sharof Rashidov tumani 52-maktab musiqa madaniyati o‘qituvchisi

Annotatsiya: Kichik yoshdagi o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rangli-musiqiy sinesteziya yordamida rivojlantirishning pedagogik modelini samarali amalga oshirishni ta'minlaydigan pedagogik shartlar, ehtimollarning masalalari haqidagi ushbu maqola o‘quvchilarning ijodkorligi hamda qobiliyatlarini rivojlantirish masalasiga qaratilgan.

Kalit so‘z: rang, sinesteziya, qobilyat, ijodiy shaxs, rangli eshitish, rangli musiqa, rang-musiqiy idrok, tasavvur, ijodiy fikr, motivatsion, idrok, kognitiv, tasavvur.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar jamiyatning yangicha tafakkur tipidagi, o‘z hayotiy va kasbiy muammolarini muvaffaqiyatli va ijodiy hal eta oladigan shaxsga bo‘lgan ehtiyojidan dalolat beradi. O‘zbekistonda ta'limni rivojlantirish dasturida asosiy maqsad "Barkamol rivojlangan, ijtimoiy faol, ijodiy shaxsni shakllantirish manfaatlarida ta'lim tizimini rivojlantirish"dir. Biroq ta'lim tizimi jamiyatning yangi avlodlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojlarini hali to‘la qondira olmayapti, ta'limning reproduktiv uslubi ko‘p jihatdan ustunlik qilmoqda, ta'limdagi innovatsion jarayonlar hamon kuchayib bormoqda, yangi ta'lim standartlarini tayyorlash jarayonlari yangi avlodlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan, kompetensiyaga asoslangan yondashuv va rivojlanish nuqtai nazaridan olib borilmoqda. Shu munosabat bilan biz ijodiy rivojlanish zarurati va mavjud ta'lim tizimining uni to‘liq qondirish imkoniyatlari o‘rtasida yuzaga kelgan ma'lum bir ziddiyatni aytishimiz mumkin. Bu holat mavzuning ijtimoiy-pedagogik darajada dolzarbligini belgilaydi.

Kishilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi ilmiy bilimlarning turli sohalari – falsafa, pedagogika, psixologiya va boshqalar vakillarining diqqatini o‘ziga tortadi. Bugungi kunda ijod turli yo‘nalishlarda o‘rganilmoqda: ijodkorlikning mohiyati oydinlashtirilmoqda; ijodkorlik belgilari ochiladi; ijodiy shaxsning psixologik portretlari yaratiladi; ijodkorlik va ijodiy fikrlash o‘rganiladi; inson ijodiy salohiyatini rivojlantirish qonuniyatlari va vositalari tahlil qilinadi. Psixologik va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish asosida biz pedagogik amaliyotda maktab o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi bo‘yicha katta miqdordagi bilimlar to‘plangan degan xulosaga keldik. Shu bilan birga, ko‘rsatilgan muammo kichik maktab o‘quvchilarining rang-til sinesteziyasi yordamida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish kontekstida to‘g‘ri yoritilmagan. Bu boradagi tadqiqotlarning kamligidan dalolat beradi. Ushbu nomuvofiqlik mavzuning ilmiy-nazariy darajada dolzarbligini belgilaydi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, rang-musiqiy sinesteziya yordamida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish bilan bog‘liq bir qator masalalar hali ham yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ular orasida: rangli eshitish, rangli musiqa, rang-musiqiy sinesteziya fenomenining boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ta'sirining psixologik va pedagogik jihatlari mohiyatini tushunishning yetarli darajada aniq emasligi. Musiqa tinglash darslarida kichik yoshdagi o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini

rivojlantirishda rangli-musiqiy sinesteziyadan foydalanishda izchillik yo'qligi, rang-musiqiy sinesteziya yordamida kichik yoshdagi o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish shakllari, usullari, mezonlari, rang-musiqiy idrok, tasavvur va ijodiy fikrlashni shakllantirish rivojlanmagan.

Musiqqa tinglash darslarida kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik modeli quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi mumkin: maqsadli, mazmunli, tashkiliy va samarali.

Kichik yoshdagi o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rangli-musiqiy sinesteziya yordamida rivojlantirishning pedagogik modelini samarali amalga oshirishni ta'minlaydigan pedagogik shartlar, ehtimol, quyidagilarni o'z ichiga oladi: kichik yoshdagi o'quvchining ijodiy faoliyatini rag'batlantiradigan hissiy va ijodiy muhitni yaratish; ijodiy faoliyat jarayonida o'qituvchi va talabaning dialogik o'zaro ta'siri; o'quvchilarning proksimal rivojlanish zonasini hisobga olgan holda individual farqlash.

Faylasuflar bir necha asrlar davomida shug'ullanib kelayotgan rang-musiqiy sinesteziya sohasidagi tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega bo'ldi (Aflotun, Aristotel, J. Lokk, G.V. Leybnits, R. Dekart, A.F. Losev, Hazrat Inoyat). Ixtirochilar, dizaynerlar (A. Kircher, L. B. Kastel, A. Mishelson, P. Ruanard); ijodiy ishlanmalar mualliflari (G. V. Ivanchenko, C. Osgud, S. Sterzinger).

Musiqqa darslarida rang-musiqiy sinesteziyadan foydalanish orqali o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlari, darsning kreativ va zamonaviy usulda o'tkazilishini hamda o'quvchilarning o'zlashtirishlarining ijobiy natijasini ko'rsatishini ehtimol qilgan holda, ushbu usuldan foydalanishning samarasi va afzalliklari haqida so'z yuritamiz:

- “rang-musiqiy sinesteziya” tushunchasi dunyoni polimodal idrok etish qobiliyatini belgilovchi rang va eshitish sezgilarining sinergiyasi sifatida belgilandi, buning natijasida shaxsning ijodkorligi va uning ijodiy qobiliyatlari kuchayadi;

- “kichik maktab o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlari” tushunchasiga aniqlik kiritilgan holda, bu shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirish asosida vujudga keladigan va uning ijodiy o'zini-o'zi ro'yobga chiqarishiga hissa qo'shadigan integrativ sifatni anglatadi;

- kichik yoshdagi o'quvchilarning hissiy-tovush va tasviriy-badiiy shakldagi ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish vositasi sifatida rangli-musiqiy sinesteziyani amalga oshirish jarayonini asoslab berdi va pedagogik model shaklida taqdim etdi;

- rangli-musiqiy sinesteziya yordamida kichik maktab o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini polimodal rivojlantirish kontseptsiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, u insonning integrativ sifati sifatida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni, shu jumladan ijodkorlik, idrok etish, ijodiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun motivatsiyani asoslaydi.

Ijodiy qobiliyatlarni muayyan faoliyat turini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun sub'ektiv shartlar bo'lgan individual xususiyatlar sifatida an'anaviy tushunishdan farqli o'laroq, biz kichik yoshdagi o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shaxsiyatning integrativ sifati sifatida ko'rib chiqamiz. ijodiy salohiyatini rivojlantirish va uning ijodiy o'zini o'zi amalga oshirishga hissa qo'shadi. Bu to'rt komponentning birligi: motivatsion, idrok, kognitiv, tasavvurda kichadi.

Musiqqa tinglash darslarida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning mavjud usullariga qo'shimcha ravishda, biz ularni rivojlantirishni yaxlit ta'lim bo'lgan pedagogik modelni amalga oshirish jarayonida rang-musiqqa sinesteziyasi orqali amalga oshirishni taklif

qilamiz. Bu o‘zaro bog‘langan bloklarni o‘z ichiga oladi: maqsadni belgilash, mazmunli, tashkiliy, samarali.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rangli-musiqiy sinesteziya yordamida rivojlantirish modelining faoliyati samaradorligi pedagogik shartlarga rioya qilishga bog‘liq, jumladan: ijodiy faoliyatni rag‘batlantiradigan hissiy va ijodiy muhitni yaratish, yosh talabalar ijodiy faoliyat jarayonida o‘qituvchi va talabaning dialogik o‘zaro ta’siri; o‘quvchilarning proksimal rivojlanish zonasini hisobga olgan holda individual farqlanadi.

Musiqqa tinglash darslarida kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rangli-musiqiy sinesteziya yordamida rivojlantirish muammosining dolzarbligi jamiyat hayotida, ta’lim tizimida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar va talablarning kuchayishi bilan bog‘liq.

O‘tkazilgan nazariy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, musiqqa ta’limi nazariyasi va amaliyotining turli sohalari vakillari kichik yoshdagi o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosiga jiddiy e’tibor qaratishlariga qaramay, bu muammo hali ham nazariy va amaliy tushunishga muhtoj. Musiqiy ta’lim jarayonida kichik yoshdagi o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning nostandart usullari va vositalarini, shu jumladan rangli-musiqiy sinesteziya vositalarini yanada izlash kerak.

Falsafiy, pedagogik va psixologik adabiyotlarni o‘rganish asosida biz kichik yoshdagi o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shaxsiyatning integratsiyaviy sifati sifatida, uning ijodiy salohiyatini rivojlantirishdan kelib chiqadigan va uning ijodiy o‘zini o‘zi anglashiga hissa qo‘shadiganligini tushundik. Rang-musiqiy sinesteziya tushunchasi va uni "tuyg‘ular aralashmasi" sifatida emas, balki dunyoni polimodal idrok etish qobiliyatini belgilaydigan rang va tovush hissiyotlarining sinergiyasi sifatida aniqladi va shu bilan shaxsning ijodiy qobiliyatini oshiradi degan xulosaga keldik.

Yosh o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rangli-musiqiy sinesteziya yordamida rivojlantirish pedagogik faoliyatning alohida turi bo‘lib, u o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi maqsadli o‘zaro ta’sir bo‘lib, ilmiy asoslangan bo‘lishi kerak, unga erishish uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratishni o‘z ichiga oladi. Musiqqa tinglash jarayonlarida kuyning rangli shaklining visual bog‘lanmasi, hamda rasmi ko‘rinishdagi musiqiy ishlanma o‘quvchining diqqatini tortishda, ijodiy fikrlashda, asarni tafakkur etishida samarali usul deb topdik. Bunday usuldan foydalanish dars sifatini bir muncha oshirgan bo‘lar edi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlari shaxsiyatning ajralmas sifati bo‘lib, u ijodiy motivatsiya, ijodiy fikrlash, ijodiy idrok va tasavvurni o‘z ichiga oladi. Kichik yoshdagi o‘quvchining ijodiy rivojlanishi uning ijodiy salohiyatiga, o‘z faoliyatiga va u joylashgan ijtimoiy, birinchi navbatda pedagogik muhit sharoitlariga bog‘liq.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rangli-musiqiy sinesteziya yordamida rivojlantirishning pedagogik modeli maqsadli, mazmunli, tashkiliy va ishlab chiqarish bloklari birligidir. Uni amalga oshirish quyidagi zarur va yetarli pedagogik shartlarga rioya qilishni nazarda tutadi: kichik yoshdagi o‘quvchining ijodiy faoliyatini rag‘batlantiradigan hissiy va ijodiy muhitni yaratish; o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi dialogik o‘zaro munosabat; o‘quvchilarning proksimal rivojlanish zonasini hisobga olgan holda individual farqlash.

O‘qituvchi bunday usulni foydalanishda albatta ijodiy muhitga e’tibor qaratishi lozim bo‘ladi. Dars jarayonida qanchalik ko‘p ranglardan foydalanish bu shunchalik tez anglashinishga yordam beradi. Chunki kichik yoshdagi o‘quvchilar dunyoni yorqin ranglarda ko‘rishni, turli obrazlarda tasavvur etishni, o‘yin mashg‘ulotlarini yoqtirishadi. Shularni

hisobga olgan holda o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishda va dars sifatini oshirishda rang-musiqiy sinesteziyadan foydalanish modelini ishlab chiqish ijobiy natija beradi. Yuqorida keltirganimizdek, ijodiy muhit, o'zaro dialog yaratish, visual rangli bog'lanish vas hu usullarni maqsadli, mazmunli tashkil etish muammoning yechimi sifatida olinadi. Xulosaning so'nggida shuni aytishimiz mumkinki, an'anaviy zerikarli dars jarayonlarini farqli ravishda kreativ to'ldirishda bunday usullar o'z samarasini ijobiy ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Анисимов, В. Н. Зрительная синестезия как фактор физиологического порядка / В. Н. Анисимов // Русский офтальмолог. 1930. - Т.1 1. -№2.
2. Ананьев, Б.Г. О проблемах современного человекознания / Б.Г. Ананьев. М.: Наука, 1977.- 380 с.
3. Ананьев, Б.Г. Человек как предмет познания. Избранные психологические труды: в 2 т. / Б.Г. Ананьев. М. : Педагогика, 1980. - Т. 1.-310 с.
4. Выготский, Л.С. Психология искусства / Л.С. Выготский // Хрестоматия практик / Авт. - сост. Б. А. Ланин. - М., 2003. С. 312-339.
5. Гузеев, В.В. Системные основания образовательной технологии / В.В. Гузеев. М.: Знание, 1995. - 135 с.
6. Готсдинер, А. Дидактические основы музыкального развития учащихся. К проблеме обучения и развития в музыкальной педагогике / А. Готсдинер // Вопросы музыкальной педагогики. Ред. В.И. Руденко.- М.: «Музыка». 1980. - Вып. №2. - С. 10-28.
7. Декарт, Р. Собрание сочинений : в 2-х т. / Р. Декарт. М.: Мысль, 1989.-Т.1.-654 с.
8. Хазрат, И.Х. Мистицизм звука / И.Х.Хазрат. М.: Сфера, 1998.328 с.
9. Загвязинский, В.И. Педагогическое творчество учителя / В.И. Загвязинский. М.: Педагогика, 1998. - 167 с.
10. Ингенкамп, К. Педагогическая диагностика / К. Ингенкамп. М.: Педагогика, 1991. - 238 с.
11. Кабалевский, Д.Б. Педагогические размышления : Избр. ст. и докл. АПН СССР / Д.Б. Кабалевский. М.: «Педагогика», - 1986. - 188 с.
12. Карасёва, М. Профессиональный музыкальный слух в контексте современной практической психологии / М. Карасёва // «Музыкальная академия» Композитор. 1999. - № 4 - С.172-184.
13. Конаржевский, Ю.А. Анализ урока / Ю.А. Конаржевский. М. : Центр «Педагогический поиск», 2000. - 336 с.
14. Лернер, И.Я. Дидактические основы методов обучения / И.Я. Лер-нер. М.: Педагогика, 1981. -116 с.
15. Лихачев, Б.Т. Педагогика / Б.Т. Лихачев. М. : Юрайт, 1999.464 с.
16. Макаренко, А.С. Проблемы школьного советского воспитания : в 5 ч. / А.С. Макаренко. М.: 1958. - Т. 5. - С. 116.
17. Методологическая культура педагога-музыканта / Ред.- сост. Э.Б. Абдуллина. М.: Academia. - 2002. 269 с.
18. Лукьянец Наталья Григорьевна Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук Екатеринбург – 2007.

MUSIQA MASHG'ULOTLARINI REJALASHTIRISHDA BOLALAR YOSH XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLISH

Rasulova O'g'iloy Ismatillayevna
37-son DMTT Musiqa rahbari.

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa mashg'ulotlarini zamonaviy talabalar asosida tashkil etishning pedagogik psixologik omillari to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, tarbiyalanuvchi, musiqa mashg'ulot, psixologik, fiziologik, musiqiy ritmika, musiqa tinglash, kuylash, musiqiy did.

Mustaqil O'zbekistonning kelajagini, ertasini yoshlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ajdodlarimizga munosib avlodni tarbiyalash bizga, endi yetishib chiqayotgan kadrlar zimmasiga mas'uliyatli va sharafli ishni, ya'ni bola tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yishdek fazifani yuklayotganini ahglagaan holda ishlashimiz lozimligini ko'rsatmoqda.

“Uchinchi mingyillikning bolasi” dasturi maktabgacha ta'lim bilan shug'ullanadigan barcha muassasalar uchun bajarilishi zarur bo'lgan tayanch dastur hisoblanadi. Tayanch dasturining pirovard natijasi maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablarining bajarilishiga erishishdan, ya'ni maktabga jismonan, aqlan va ma'nau yetuk bolalarni tayyorlashdan iboratdir.

“Uchinchi mingyillikning bolasi” milliy dasturining 3-yo'nalishi bo'lmish bolalarni ma'nau rivojlanishida aynan musiqa mashg'ulotlarda bolani aqlan, jismonan va ma'nau yetuk qilib tarbiyalash ko'zda tutiladi.

San'at - kishilik faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, kishi shaxsi san'at vositasi yordamida va ishtirokida to'laligicha yorqin namoyon bo'ladi. Hozirgi kelajak avlodni tarbiyalashda san'at muhim o'rin tutadi. San'at insonparvarlik va odamiylik hamkorligi ruhida uning hissiyotini o'stirishda yordam berib, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Hozirgi zamon yoshlariga estetik idroklarini tarbiyalash borasida g'amxo'rlik qilar yekanmiz, san'at bilan muomala qilishdan hosil bo'ladigan his-hayajondan uni o'z hayoti va faoliyatida foydalana olishga o'rgatishimiz kerak. Shu sababli musiqa estetik tarbiya tarmog'ining ajralmas qismi sanaladi.

Bolalarda yoshlik chog'idan idrok etish, his etish, turmush va san'atdagi go'zallikni tushunish ishtiyoqi tarbiyalanadi va bu kabi go'zallikni yaratishga intilish kuchayadi. Bolaning badiiy faoliyatga bo'lgan qiziqishi ortadi. Unda badiiy-ijodkorlik qobiliyati rivojlanadi. Ayniqsa, bolalar bilan musiqiy ish olib borish katta ahamiyat kasb yetadi. Musiqa bola qalbida kuchli emotsional his-tuyg'u uyg'otadi. Musiqa yordamida uning badiiy idroki o'sib, hissiyotini yanada boyitib boradi. Bolalarda musiqiy idrokini rivojlantirmay ularning musiqaga mehr-muhabbatini yetarli darajada qiziqitirmay turib, har tomonlama jismoniy, ma'naviy boy shaxsni shakllantirib va boshqa ijobiy sifatlarini tarbiyalab bo'lmaydi.

Ma'lumki, musiqali obrazlarning shakllanishining asosiy manbai tabiat va kishi nutqiga mos kelishiga, atrofimizdagi dunyo va undagi go'zalliklarni idrok etishga bevosita bog'liqdir. Shu borada musiqa mashg'ulotlari mazmuni bolalar tomonidan bajaradigan qator faoliyatlarni taqozo etadi. Bulardan tinglash, kuylash, musiqiy ritmik harakatlar, musiqa cholg'ularida ijro etish jarayonida bolalar ijrochiligi va ijodkorligi malakalari shakllanadi. Musiqa san'atning boshqa turlari bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan, musiqa darslarini raqs, she'riyat

(adabiyot), badiiy san'at va san'atning boshqa turlari, bulardan tashqari jismoniy tarbiya, tasviriy san'at va boshqalar bilan qo'shib olib borish nazarda tutilgan.

Uzluksiz ta'lim tizimida musiqiy ta'lim tizimi bir necha bosqichlardan iborat. Musiqa ta'limi boshqa fanlar kabi maktabdan emas, balki maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlanadi va ta'lim tizimining barcha jabhalarida davom etadi. Shuning uchun biz kelajak avlodni musiqiy bilimga ega bo'lishlariga zamin yaratar ekanmiz, ularning musiqiy-estetik tarbiyalariga alohida e'tiborimizni qaratmog'imiz zarur.

- bolalarni quvnoq, g'amgin, yengil va vazmin musiqani tinglashga past va yuqori registrni eshita olishga, musiqa tilini tushunishga, past ovozii va baland ovozni musiqaga mos chapak chalish orqali musiqa dinamikasini ajratishni o'rgatish;

- kattalar ketidan musiqani taqlid qilib, intonatsion mos ravishda qaytara olish;

- musiqiy rahbar boshchiligida raqs harakatlarini bajarish;

- kompozitorlar, musiqiy cholg'u asboblari haqida gapirib berish orqali

bolalarda musiqa san'atiga muhabbat uyg'otish;

- bolalarni musiqani diqqat bilan tinglashga o'rgatish, yengil va oson xalq qo'shiq hamda kuylarini musiqasiga mos ritmik harakatlar bajarib ijro yetishga o'rgatish. Musiqa sur'atiga mos chapak chalish yoki oyoq bilan jo'r bo'lish orqali qo'shiqni ijro eta olish. Dasturda o'zbek kompozitor va bastakorlarining bolalar uchun yozilgan kuy va qo'shiqlari o'rin olgan. Zamonamizdagi ma'naviy, madaniy, siyosiy, iqtisodiy o'zgarishlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalarining ta'lim jarayoniga kirib kelishi, bo'lajak "Musiqa ta'limi" yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarga nisbatan yuqori talablarni qo'yimoqda. Ushbu ishimizda biz asosan, «Musiqa ta'limi» yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar hamda musiqiy pedagogika fakultetlari talabalari, "Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi" o'quv fani bo'yicha ma'ruza o'qiyotgan, maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqiy mashg'ulotlar olib borayotgan musiqiy rahbarlar uchun Musiqa ta'limining boshlang'ich bosqichlarida qo'llashlari kerak bo'lgan nazariy-amaliy, psixologik hamda pedagogik bilimlarini oshirish hamda musiqa rahbarlari, o'qituvchilarini kasblariga yo'naltirish maqsadida metodik tavsiyalar berishga harakat qildik.

ularda shaxsga xos bo'lgan xususiyatlarni: ijodiy qobiliyat, erkin yo'naltirilgan diqqat, musiqiy xotira, tasavvur, faollikni, tashabbuskorlikni shakllantirishdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy rivojlanishining muhim xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Ularning eshitish sezgisi, musiqiy eshitish qobiliyati rivojlanib boradi;

2. Har xil xarakterdagi musiqaga emotsional ta'sirchanlikning sifati va darajasi ortadi;

3. Qo'shiq kuylash musiqiy-ritmik ijrochilikda qo'llaniladigan soda ko'nikma va malakalar shakllanadi.

Shulardan kelib chiqqan holda hozirgi paytda maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa mashg'ulotlarining vazifalari asosan quyidagicha bo'lishini maqsadga muvofiq deb bilamiz.

1. Musiqaga muhabbat va qiziqishni o'stirish.

2. Bolalarning musiqiy tajribasini boyitish (musiqiy asarlar asosida).

3. Bolalarni oddiy musiqiy tushunchalar bilan tanishtirish, musiqa tinglash, kuylash, musiqiy ritmika borasidagi malakalarini rivojlantirish.

4. Bolalarda emotsional hisni shakllantirish. Ularda lad hissi, ritm tuyg'usini o'stirish va harakatni o'tirish.

5. Musiqiy didni o'stirish (musiqiy taassurotlar asosida).

6. Bolalarda ijodkorlikni o'stirish (barcha faoliyatlar asosida).

Bu maqsadga erishish uchun bolalarda to'g'ri tashkillashtirilgan musiqiy mashg'ulotlar tashkil etiladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim muassasalalida musiqa mashg'ulotlarini bolalarning yosh psixologik va fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulotlarni ularning qiziqishi va ruhiy olamiga mos ravishda metodik jihatdan qiziqarli va o'yinbob qilib tashkil etish, har jihatdan samarali kechishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T., O'zbekiston, 2017. – 488 b.
2. Matyoqubov O. Maqomot. "Musiqqa" nashriyoti, T., 2004.
3. Hamidov H. "O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi". – T.: O'qituvchi, 1996 yil.
4. Musiqqa o'qitish metodikasi. Ma'ruzalar matni. – T.: TDPU, 2000yil
5. Qudratov I, Abdulkarimova E. "Musiqqa darslarida fanlararo aloqadorlik" Samarqand, SamDu bosmaxonasi, 2015yil.
6. E.Abdulkarimova. Ilm ham jamiyat Ajiniyaz atindagi Nokis mamleketlik pedagogikaliq instituti "Texnologik loyihalash- musiqqa mashg'ulotlarida samarali ta'lim". 2019 (№1) ISSN 2010-720X.

БАРКАМОЛ АВЛОДНИ ТАРБИЯЛАШДА МУСИҚА САНЪАТИНИНГ ЎРНИ

*А.И.Садыкова, Республика муסיқа ва санъат коллежи
"Умумий фортепиано" кафедраси етакчи ўқитувчиси*

Аннотация. Мазкур мақолада баркамол авлодни тарбиялашда муסיқа санъатининг ўрни ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар. Муסיқа, дастур, технология, компьютер, мухаррир, тажриба, оммавий, ислохот.

Муסיқа санъати – ўқувчиларнинг маънавий, ғоявий ва ахлоқий дунёсини ҳар томонлама такомиллаштириш ва шу билан уларда олийжаноб фазилатларни шакллантиришда муҳим тарбиявий воситалардан биридир. Муסיқа мазмуни – бу ҳаёт таассуротлари, товушлар орқали ифодаланган фикр ва ҳис-туйғулардир.

Ватанимиз мустақилликка эришгач таълим-тарбиянинг энг таъсирли воситаларидан бири бўлмиш муסיқа санъатига жиддий эътибор берилди бошланди. Муסיқий таълим-тарбия тизимини тубдан ислох қилиш – юксак мақсадлардан бири сифатида белгиланди. Мустақиллик даврида ҳамма соҳалар каби ўзбек халқ муסיқа санъати, маданияти ва унинг тарғиботи замон талабига кўра тобора юксалиб, тараққиёт йўлида бораётганлиги, сайқал топаётганлиги ҳаммамизга аён. Жаҳон андозаларига мос тушадиган янги йўналишдаги муסיқа санъати сезиларли даражада юксалди, улғайди ва бақувватланди. Айни пайтда, устозларнинг янги ёш авлоди шаклланиб бораётганлигини назарда тутсак, Ўзбекистонда муסיқа санъати янги сифат поғонасига кўтарилаётганлигини таъкидлашимиз мумкин.

Бугунги кунда мустақил Ўзбекистон мусиқа санъати – кўп жанрли, мазмун жихатдан бой, ўз миллий ҳарактерига кўра замонавий санъатдир, шу билан бирга у ўтмишимизнинг мустаҳкам пойдеворига маҳкам суянади. Ҳозирги кунда Республикамизда 300дан ортиқ болалар мусиқа ва санъат мактабларида, 20дан зиёд мусиқа, маданият ва санъат коллежларида, академик лицейларида, Ўзбекистон давлат консерваториясида, Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институтларида ҳам бу жараён давом этиб келмоқда. Тошкент давлат консерваториясига - “Ўзбекистон давлат консерваторияси”, Тошкент давлат санъат ва маданият институтлари негизда “Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти” қайта ташкил қилинди, улар жаҳон андозалари асосида янгидан махсус бинолар ҳамда замонавий жиҳозлар билан таъминланди.

Бугунги кунда мамлакатимиз Президенти Ш.М.Мирзиёев раҳнамолигида амалга оширилаётган кенг кўламли ишлардан кўзланган мақсад битта, у ҳам бўлса Юртимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантиришдан иборатдир. Мазкур кенг қамровли вазифани адо этишда Юртбошимиз томонидан таълим ва маънавият-маърифатга алоҳида эътибор берилиши ҳам бежиз эмас. Таълим ва маънавият-маърифат давлат сиёсатининг устувор йўналиши сифатида эълон қилиниши эса Ўзбекистонда инсонпарвар жамият барпо этишга бўлган қафолат ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев-мамлакатимизда ҳозирда бажарилаётган ҳамда келажакка режалаштирилган улкан ишларнинг, тарихий ўзгаришларнинг ташаббускори ва раҳнамосидир, хусусан:

- Ўзбекистон давлатининг худудий яхлитлигини, сарҳадларимиз дахлсизлигини ҳимоя қилишга қодир Куролли Кучлар, Чегара ва Ички қўшинларни замонавий ислохотлар асосида ташкил этиш ишига бошчилик қилмоқда;
- халқимиз маънавий кадриятларига ҳурмат-эҳтиром билан муносабатда бўлиш, асраб-авайлаш ва ривожлантириш, муқаддас динимизни, урф-одатларимизни, бебаҳо тарихий меросимизни ҳаётга қайтаришни давлат сиёсати даражасига кўтарди;
- халқаро майдонда Ўзбекистоннинг обрў-эътиборини юксалтириш, ўзбек номини бутун дунёга тараннум этишда буюк хизмат қилмоқда;
- одамларнинг тафаккурини ўзгартириш, уларнинг онгида янги миллий ғоя, миллий мафкура асосларини шакллантириш ва мустаҳкамлаш ишига раҳнамолик қилмоқда;
- юртимизда тинчлик-осойишталикни, миллатлар ва фуқаролар ўртасида тотувлик ва ҳамжиҳатликни қарор топтириш, уни сақлаш ҳамда мустаҳкамлашга беқиёс ҳисса қўшмоқда;
- моҳият-эътиборига кўра, мутлақо янги таълим-тарбия тизими – Кадрлар тайёрлашнинг миллий дастурини яратиш ва уни амалга оширишда бевосита етакчи бўлиб келмоқда;
- маҳалланинг давлат ва жамият бошқарувидаги нуфузини ошириш, ваколат ва ҳуқуқларини кенгайтириш, фуқароларнинг ўз-ўзини бошқариш тизими сифатида уни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш ташаббускоридир;
- юртимизнинг турар жойларида янги қурилишлар, шу жумладан, улғу аждодларимизнинг қадамжоларини обод қилиш, иқтисодимизнинг салоҳиятини оширишда катта ўрин тутган йирик иқтисодийирик корхоналарни бунёд этишда, кўпгина

шаҳар ва қишлоқларимиз, авваламбор, пойтахтимиз Тошкентнинг шакл-қиефасининг тубдан ўзгаришида бевосита раҳбарлик қилмоқда.

Бугунги куннинг энг муҳим вазифаси-ҳаётимизнинг барча соҳаларида, айниқса ёшларда мустақил фикрлашни шакллантириш, уларни янгича фикрлайдиган, қийин дамларда масъулиятни ўз зиммасига ола биладиган, ҳаёт билан ҳамқадам юришга қодир, имони пок, билимдон, ишбиламон ўринбосарларни тайёрлашимиз даркор.

Ёшлар билан ишлаш масалалари алоҳида эътиборни талаб қилади. Биз мамлакатимизнинг истиқболи ёш авлодимиз қандай тарбия топишига, қандай маънавий фазилатлар эгаси бўлиб вояга етишига, фарзандларимизнинг ҳаётга нечоғли фаол муносабатда бўлишига, қандай олий мақсадларга хизмат қилишига боғлиқ эканини ҳамиша ёдда тутишимиз керак. Бизнинг бугунги меҳнатимизга қандай баҳо берилиши ҳам ана шунга боғлиқ.

Биз фарзандларимизнинг баркамол руҳий дунёси учун уларнинг маънавий-ахлоқий жиҳатдан етук, жисмонан соғлом бўлиши мустақил фикрлашни шакллантириш учун доимо қайғуришимиз, курашмоғимиз зарур.

Мамлакатимиздаги барқарор тинчлик, миллатлар ўртасидаги тотувлик ва осойишталик, иқтисодий ислохотлар ўтказишдаги изчиллик бунинг ёрқин далилидир. Ёшларимиз онгига мана шу ижтимоий, иқтисодий, маданий ислохотлар борасида юргизилаётган мустақил давлатчилик сиёсатимиз моҳитияни янада чуқурроқ англатишимиз керак. Шу боис ёшларнинг билим олиш имкониятини кенгайтириш, миллий тикланиш ғоясини амалга оширишга қодир янги авлодни комил инсон қилиб тарбиялаш энг муҳим вазифаларимиздан биридир.

Дарҳақиқат, халқимиз, ёшларимиз ўз тарихини, ота-бобосию, авлод-аждодини билмас экан, ҳеч қачон маънавий бой халқ бўла олмаймиз. Ўзликни англаш тарихни билишдан бошланади. Тарихий хотираси бор инсон - иродали инсон. Ким бўлишидан қатъий назар, жамиятнинг ҳар бир аъзоси ўз ўтмишини яхши билса, бундай одамларнинг йўлдан уриш, ҳар хил ақидалар таъсирига олиш мумкин эмас. Тарих сабоқлари инсонни хушёрликка ўргатади, иродасини мустаҳкамлайди. Инсон учун - тарихдан жудо бўлиш - ҳаётдан жудо бўлиш демақдир. Модомики, ўз тарихини билган, ундан руҳий қувват оладиган халқни енгиб бўлмас экан, биз ҳаққоний тарихимизни тиклашимиз, халқимизни, миллатимизни шу тарих билан қуроллантиришимиз зарур.

Баркамол авлодни тарбиялашда, уларнинг қобилиятларини очишда таълим тизимини янгилашда энг аввало таълимнинг кенг демократиклаштирилишини, инсонпарварлаштирилишини, шунингдек, таълим тизими тараққиёт қонуниятларига жавоб бера олишига эришиш керак. Бу ўз навбатида шахснинг ижтимоий фаоллиги ва шаҳдамлигини ошириш учун шарт-шароит яратади, меҳнат ва таълим-тарбия хизматлари бозорига тайёрлигини таъминлайди.

Кадрлар тайёрлашнинг бош йўналиши – давлат, жамият ва оила олдидаги масъулиятни англаб етадиган, мустақил фикрлай оладиган, ўз фикр ва мулоҳазаларини ҳимоя қила оладиган озод шахсни тарбиялашга қаратилгандир. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури ҳар томонлама пухта мулоҳаза қилиниб, босқичма-босқич рўёбга чиқарилмоқда. Дастурни рўёбга чиқариш стратегик мақсадга эришиш демократик жараёнларнинг бориши, жамиятни эркинлаштириш, мамлакатда янги ижтимоий-сиёсий муҳит қарор топтириш билан бевосита боғлиқдир.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.To'rayev Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. T., 2015
2. M.Ahmedova Pedagogik konfliktologiya. T., 2017
3. А.В. Батарщев Психодиагностика способности к общению или как определит организаторские и коммуникативные качества личности,- М.: Гуманит. Изд. Центр ВЛАДОС, 2009
4. В.С. Грехнев Культура педагогического общения: Книга для учителя. - М.: Просвещение, 2010
5. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi.-T.: O'zbekiston, 2009
6. А.В. Мудрик Введение в социальную педагогику - М.: Инт практ. психологии, 2007
7. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X.Toxtaxodjayeva va boshqalar) - T., 2007

МУСИҚА ВА НАФОСАТ ТАРБИЯСИНИНГ МУШТАРАКЛИГИ

Суярова Нозима Азизжон кизи 4-курс талабаси
Илмий раҳбар: Раҳимов Шавкат Норматович

Ўзбекистонда таълим тизимини ривожлантириш, ўйланган истиқбол режаларни амалга ошириш, энг муҳими ёш авлодни тарбиялашда эстетик тарбия ўта муҳимдир. Ёш авлодни юксак маданиятли, эстетик диди юқори даражада ривожланган комил инсонлар этиб тарбиялашда мусиқий таълимнинг аҳамияти беқиёсдир. Хусусан, ўзбек мусиқа санъати бу борада катта имконият калитидир. Бундай имкониятни қай даражада аниқ, тўғри ва равон бажарилиши мусиқа таълим фидойиларининг шижоатига боғлиқ. Умумтаълим мактабларида бошланғич синф ўқувчиларига таълим- тарбия бераётган устоз ва мураббийлар кўпроқ қийинчиликни ўз гарданларига оладилар. Сабаби, хали на ёзишни ва на ўқишни билмайдиган, бироқ келажакда буюк инсонлар бўлиб етишиши мумкин бўлган жажжи ўғилқизларнинг тақдири уларнинг қўлидадир. Шунинг учун ўқувчи ёшларга дарс бериш жараёнимизда ўта сергаклик ва ташаббускорлик билан ишга киришишимиз лозим. Бир кичкина хато ҳам келгусида панд бериши мумкин. Умумтаълим мактабларида мусиқа дарсини ташкил этиш орқали ўқувчиларда эстетик тарбияни шакллантиришда энг аввало қўшиқдан, куйдан завқ олишни ўргатиш муҳимдир. Ўқитувчи уларга дарс беришда, ўқувчиларда эстетик тарбияни уйғотишда куйидаги вазифаларни бажариши лозим: - болаларда мусиқани севиш, унга ҳавас ва қизиқиш уйғотиш; - вокал-хор малакалари ҳамда қўшиқ куйлашнинг бошланғич сабоқларини бериб бориш; - ўқувчиларнинг ижодий қобилиятларини ўстириш; - нутқ маданиятига риоя этиш; - ўқувчиларнинг бадиий дидларини тарбиялаш (кийиниш маданияти, гавдани тик тутиш ҳолатлари). Ушбу вазифаларни амалга ошириш биринчи синфдан бошлаб, токи юқори синфгача системали равишда давом этиб боради. Мусиқа маданияти ўқув дастурига киритилган ашулалар ҳам ўқувчиларнинг ёши ва қизиқиши, мазмунан ранг-баранглиги, қизиқарли оҳангдорлиги билан эстетик маданиятни юксалтиришда алоҳида аҳамият касб этади. Унда, айниқса она Ватан, гўзал табиатни

ифодаловчи, йил фасллари, қушлар ва ҳайвонот олами ҳақидаги лирик рақс ҳазил-мутойиба характеридаги кўплаб қўшиқлар ўқувчи ёшларнинг эстетик завқини ошириби боришга, тарбиявий-маданий вазифаларни уддалашга ва ашула айтишда зарурий малакалар ҳосил қилишга ёрдам беради. Табиат ва йил фасллари ҳақидаги қўшиқларни ўрганиш ва ижро этиш ўқувчиларда ўзига хос катта таассурот қолдиради, уларда табиат гўзаллигига бўлган ижобий муносабатларини шакллантириб боради. Қўшиқларда ифода этилган табиатнинг гўзаллиги, ўзига хос ҳусн чиройи йил фаслларининг такрорланмас хусусиятларини идрок этиш ва ҳис қилиш, мақсадга мувофиқ уюштириб бориладиган қисқа ва қизиқарли суҳбатлар, савол-жавоблар ҳамда табиатни бевосита кузатишлар жараёнида амалга оширилади. Мусиқа ва эстетик маданиятнинг пайдо бўлиши ҳамда шаклланиб боришида тингланаётган ҳар бир асарни ўқувчилар томонидан тўла ўзлаштириб олинишига боғлиқ. Шунда ўқувчи ўқитувчи томонидан берилаётган сабоқ ва тарбия кўникмасини ўзида тўла мужассамлаштиради. Маълумки, мусиқий тарбия жамият ҳаётининг муҳим қисмидир. У инсон руҳиятига кучли таъсир кўрсатиш имкониятига эга бўлиб, уларнинг ҳистуйғуларини ўзига хос бадиий тилда ифода этади. Бир сўз билан айтганда айнан фольклор санъати орқали инсон ҳаётни ўрганади, тасаввури кенгаяди, қадимий урф-одатлар ва миллий анъаналаримизга содиқ бўлишни ўзида шакллантиради, шу билан бирга эстетик ривож топади. Ўзбек фольклорини ўрганиш орқали ёшлар халқона миллий кўринишни ўзларида ифодалайди, эркин, мустақил фикрлашга эга бўладилар. Шу боис, фольклор санъати уларда нафосат ҳиссиётларини ҳам тарбиялаб, уларнинг маънавий, ғоявий ҳамда ахлоқий дунёсини ҳар томонлама такомиллаштириб, олийжаноб фазилатларни камол топтиришда таъсирчан восита сифатида қўлланилади. Ёшларда эстетик тарбияни шакллантиришни равнақ топтириш учун энг аввало педагог кадрларга эътиборни қаратиш зарур. Биз ҳар бир сўзимизда мусиқа инсонни тарбиялайди дея қайта-қайта таъкидлаймиз, бироқ, мусиқани тўла англаган ҳақиқий мутахассисгина ёш авлодга мусиқа сирларини тўғри йўналишда ўргата олади. Тажрибалардан келиб чиқиб жойларга борганимизда мусиқа мутахассислигига эга бўлмаган тажрибасиз ўқитувчиларнинг мусиқа дарсларини бераётганлигига дуч келганмиз. Улар дарс жараёнида ўқувчига нота саводини, мусиқа тинглашни, мусиқага ритмик жўр бўлишни ва мусиқа билан ҳаракатни ўргатиш тугул мавзуда берилган қўшиқни бақир-чақир орқали нотўғри ўргатаётганлигининг гувоҳи бўлганмиз. Хўш, бола ушбу дарсда қўшиқни тўғри ўргана олмаяпти-ку, қандай қилиб эстетик завқ олсин! Ўқувчиларни кузатганимизда дарсга бефарқ, овози тушса тушмаса қўшиқни ҳиргойи қилишга ҳаракат қилаётганлигини, парталарни чалиб шовқин билан ўтиришини ўзида ҳеч қандай маданият, замонавий усулдаги дарс кўриниши учрамайди. Демак, бундай муаммоларнинг ечими ўз касбий мутахассислигига эга кадрларни жойига қўйишни тўғри режалаштиришдадир. “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури” ҳамда Давлат таълим стандартларида педагогларнинг касбий мутахассисликлари бўйича замонавий дарсларни ташкил этишлари белгилаб қўйилган. Бугунги кунда мусиқа маънавиятимизни ривожлантириш давлатимизнинг бош вазифасига айланиб бормоқда. Ўзбекистон давлат консерваторияси биносини қайта қуриб топширилишининг ўзи ва мусиқа санъати ривожининг чора-тадбирлари тўғрисидаги Қарорларнинг ижроси ҳамда халқаро миқёсдаги фестивалларнинг ташкил этилиши юқоридаги фикримизга асос бўлади. Биргина “Ўзбекистон Ватаним Маним” кўриктанловининг ўтказилиши жараёнида таълим муассасалари ўқувчи ёшлари қўшиқ куйлаш билан бирга ўзаро дўстликни, ўзаро тажриба алмашишни қўлга киритар эдилар. Шу танлов орқали миллий-

азалий қадриятларга муносабат, Ватан тараннуми ҳамда энг муҳими Ўзбекистонда тахсил олаётган иқтидорли ёшларнинг бетакрор қобилиятлари баҳоланар эди. Бугунги кунда бундай тадбирлар янада кўпайиб, турли форумлар, “Баркамол авлод”, “Келажак овози”, “Қалбимда Ватан мадҳи” рукнлари остида кенг ўтказиб борилмоқда. Бундай тадбирларни ўтказишнинг ўзи ёшларда эстетик тарбияни, миллий – маънавий дунёқарашни камол топишида муҳим аҳамият касб этади. Ёшлар илм-фандан қанчалик баҳраманд бўлсалар мусиқа санъатидан ҳам шунчалик озуқа оладилар. Миллий мусиқа орқали уларда ҳар томонлама мукамаллик, шу бирга ҳалоллик, камтарлик, энг асосийси яхшилик ва эзгулик ҳукмрон бўлади. Халқимиз меросининг ноёб намуналаридан фойдаланиш, миллий қадриятларни асраб-авайлаш, тарғиб этиш, халқимиз, айниқса ёшларимизда мустақиллик туйғусини шакллантириш- ёшлар ўртасида эстетик тарбиянинг мукамал бўлишида муҳим аҳамият касб этади. Зеро, миллий анъаналаримиз ва урф-одатларимиз давомийлигини, уларнинг умуминсоний қадриятлар билан уйғунлашиб бориши тақозо этади. Мусиқа санъатнинг ифодали тури тизимига киради. Мусиқа ҳам воқеаҳодисаларни ифодали акс эттиради. Мусиқа кўриш орқали эмас, балки эшитиш воситасида идрок қилинади. Мусиқа мавзуи ўз хусусиятига эга бўлиб, инсон ва воқеликдаги барча томонларни қамраб олилмагани учун, энг аввало, инсон ички маънавий дунёсини, унинг туйғу ва кайфиятини ифодалайди. Мусиқада тасвирий томон бўлиши шарт эмас. Мусиқа мусаввирлик ва ҳайкалтарошлиқдан фарқли тарзда дунё ҳақида тасаввур– мусаввирлик ва ҳайкалтарошлиқдан фарқли тарзда дунё ҳақида тасаввурлар эмас, балки туйғулар ва кайфиятлар ҳосил қилади. Мусиқа воқеликнинг ҳистуйғули образсини яратади. Мусиқада туйғулар ҳаётий туйғуларнинг айнан ўзи бўлмай, улар танлаб олинган, тасодифий лаҳзалардан тозаланган, муайян орзулар нуктаи назаридан анланган бўлади. Мусиқа инсон ҳиссиётларининг барча рангоранг товланишларини акс эттиришга қодир. У энг мураккаб туйғулар, энг нозик кечинмалар ва кайфиятларни ҳам ифода эта олади. Мусиқа вақт мезонига амал қилиб, кечинмаларнинг ўзгариб туришлари, авжланиши ва пасайиши жараёнларини қамраб олади. Мусиқа мураккаб ижтимоий туйғуларни, энг аввало, ҳаётдаги нутқ оҳанглари ёки ҳаракат вазанлари акс этадиган ахлоқий ҳис-туйғулар, чунончи, севги, нафрат, ғурур, кўркув, эстетик санъат ёки табиат нафосати, улуғворлик, фожиали, кулгили туйғуларни ифодалайди. Мусиқа кайфият ҳаолатини ифодалашда кенг имкониятга эга. Инсон кайфияти мураккаб туйғулардан иборат бўлиб, ундан иккиламчи томонлар чиқариб ташланади ва инсоннинг воқеликка бўлган туйғу-муносабатини белгилайдиган энг муҳим томонлари ажратиб олинади. Мусиқанинг кучкудрати шундаки, у шодланиш, қайғуриш, ҳаёл суриш, бардамлик, тушкунлик ва шунга ўхшаш руҳий ҳолатларни хусусий ва умумий тарзда ўзарот боғлиқликда, бир-бирига сингиб кетган тарзда ифодалайди. Ўзбек миллий мусиқасининг дурдонаси бўлган «Шошмақом» дастасида халқнинг мураккаб тарихи, кечинмалари, завқ-шавқи, қайғу-ҳасратлари, орзуумидлари шу қадар теран, чуқур, нафис, жозибали, эхтиросли ифода этилганки, уни эшитган киши гўё ширин ҳаёллар дунёсига кириб кетади. Мусиқа инсон ички дунёсининг ҳиссиётли томонлари билан бирга маънавий оламини бутунлайича ифода этиб, унинг ақлий ва ирода кудратини, яхлит образсини ярата олади. У руҳий тизим хусусиятларини ифодалаш, миллий-руҳий ҳолатларини вужудга келтириш имкониятига ҳам эга. Буюк бастакорлар ижодида у ёки бу халққа хос бўлган руҳий тизим хусусиятлари, туйғу ҳолатлари ва воқеликнинг инъикос этиш имкониятлари бекиёслиги яққол кўринади. Миллий руҳ хусусиятларини мусиқа воситаларида акс эттириш жараёнида халқ

мусиқавий ижоди катта ўрин тутди. Мусиқа товуш товланишлари орқали фикр ва туйғуларни акс эттиради, ҳаёт босқичларида инсониятни тўлқинлантириб келган ахлоқий муаммоларни баён қилади. Бунда мусиқанинг фалсафий моҳияти ҳам намоён бўлади. Ажойиб мусиқа асарлари чуқур фалсафий мазмун билан суғорилган бўлади. Мусиқада ҳаёт ва ўлим, шахс ва жамият, эзгулик ва зулм, қудрат ва заифлик каби масалалар акс этади. Мусиқа ҳам бошқа санъат турлари каби ижтимоий ҳодисадир. Аммо унинг ижтимоий мазмуни ниқобланган тарзда бўлиб, у халқ ва маиший ҳаёт мусиқа намуналарида ёки мусиқа ижодининг сўз билан боғлиқ шаклларида очикроқ кўринади. Мусиқа ҳаётнинг барча томонларини акс эттиради. У бир вақтнинг ўзида ҳам эпик, ҳам лирик, ҳам драматик оҳангларда жаранглайверади, ифодали табиатига кўра кўпроқ лирикага мойил, лирика эса мусиқанинг эстетик асосини ташкил этади. Мусиқа нафосат оламининг инсонпарвар орзу-умидларини тўғридан-тўғри ва бевосита акс эттиради. У инсондаги энг яхши хислат ва фазилатларни ифодалашга қодирдир. Мусиқа ашула ва рақс таркибида ҳам вужудга келади ва кейинчалик бадиий ижоднинг мустақил турига айланади. Мусиқа ўта ўзига хос бадиий ифода «тили»га эга бўлиб, махсус ишлаб чиқилган ва танлаб олинган товушлар ана шу «тил»нинг манбаидир. Оҳангдорлик мусиқавий ифоданинг энг муҳим воситасидир. Мусиқавий оҳангдиолик инсон нутқи оҳангига ўхшаб кетади. Одам ўзининг ҳис-туйғу ҳолатини бошқаларга нутқи оҳанги орқали билдиради, нутқ оҳанги овознинг баландлиги, пастлиги, тебраниш, вазни орқали намоён бўлади. Айтиш мумкинки, инсон нутқи оҳангининг улкан ифода имкониятлари мусиқавий оҳангига табиий шарт-шароит яратади, унда оҳанг бутунлай янги бадиий сифат олади. Инсон нутқи оҳанги мусиқа бадиий тилнинг асоси бўлиб, бастакорнинг воқеликка муносабатини мусиқада акс эттиришда воситаси бўлиб хизмат қилади. Кўп асрлик тажриба натқ оҳанги имкониятлари инсонинг мусиқавий сезгирлиги ва идрокчилиги, мусиқани идрок этиш қобилиятини вужудга келтиради. Мусиқавий ифодалилик тизимида куй асарнинг танасидаги қонини, қалбидаги жонини англади. Куй мусиқавий фикрни унинг асосий матнини акс эттиради. Куй бир овозли (соло) ва кўп овозли (полифония) кўринишларга эга бўлиб, шарқ халқлари мусиқада бир овозли куй асосий ўрин эгаллайди. Ҳозирги мусиқа эса кўпроқ кўповозли тарзда намоён бўлаётир. Кўповозли мусиқада ҳам куй ҳукмрон бўлиб, мусиқавий «тил»нинг бошқа қисмлари-зарб, вазн, тебраниш, бадиий тизим, куй орқали намоён бўлади. Мусиқа «тили» барча қисмларнинг узвий бирлигини, асар шаклини ифодалайди. Шакл мусиқа мазмунининг моддий ифодасидир. Бастакор фикри, туйғулари, тасаввурлари эшитувчиларга мусиқавий шакл орқали етиб боради. Шу боис мусиқа «тил»ини эгаллашга, унинг мазмун моҳиятини англашга, мусиқадаги фикрлар, туйғулар, кечинмалар бойлигини ўзлаштиришга кенг йўл очилади. Мусиқа санъатида ҳам шаҳобчалар, кўринишлар тизими мавжуд. Уларга товушлар ҳамоҳанглиги (симфония), оратория, овоз ва соз ижроси кўринишлари киради. Кўринишлар мусиқа «тили»нинг нисбатан турғун қисмлари мажмуи билан боғланган бўлади. Шу нарса муҳимки, ҳар қандай мусиқавий кўриниш образси битта ифода воситаси билан эмас, балки бир неча воситалар мажмуи билан белгиланади. Мазкур қисмлар, айниқса, вазни мутлақлаштириш муқаррар тарзда мусиқа имкониятларини чеклашга, унинг ғояли-туйғули таъсир кучининг пасайиб кетишига олиб келади. Ҳар бир кўринишда битта воситанинг ўзи турлича ўрин тутди. Масалан, ҳарбий юриш-марш мусиқасида вазн тизими, лирик мусиқасида эса куй асосий ўрин эгаллайди. Мусиқа асарларининг кўринишлари муайян ижрочилик усулларида ҳам намоён бўлади. Ўзбек мусиқа

ижрочилигида мусиқа асбоблари ва мақом учун ёзилган асарлари азалдан мавжуд бўлиб, якка, иккита хонанда жўр бўлиб ижро этиш (мақом) каби кўринишлар мавжуд. Ҳар бир мусиқа асари кўриниши ўзининг бетакрор имкониятларига эга. Айни маҳалда уларга маълум даражада чекланганлик ҳам хос. Масалан, най, рубоб, доиранинг якка ижроси кенг кўламда созлар жўрлигидаги мақомга, «Лазги», «Тановар», «Катта ўйин»га тенг келолмайди. Аммо най, рубоб ижросидаги куйнинг ҳам алоҳида дилкашлиги, руҳий нозиклиги, сирдошлиги, гўё ҳар бир эшитувчига мўлжалланганлигини эътироф этиш керак. Мусиқа маданиятининг бой мазмуни инсоният яратган кўриниш шакллариининг хилма-хиллиги орқали намоён бўлади. Мусиқа ижро этиладиган санъатдир. Мусиқа санъати ижро этилиши жараёнидагина жонланади, «тилга киради». Халқ мусиқа ижодида бастакор ва ижрочи, баъзан эшитувчи ҳам бирлашиб кетади. Ҳозирги давр мусиқа маданиятида ижрочилик санъат мусиқавий ижодкорликнинг нисбатан мустақил кўринишини олган. Мусиқа санъатнинг рақс, кўшиқ турлари билан кўшилганда етакчilik ва нафосат ҳар бир куйда-кўшиқда, расмда, атроф-муҳитда, инсоннинг ҳам ички, ҳам ташқи кўринишида, ҳатто меҳнат жараёнида ҳам мавжуддир. Уни фаҳмлай билиш ва баҳраманд бўла олишдек қобилиятга эга бўлиши эса муҳим масаладир. Биз мазкур масалада Гулистон шаҳар 2 ва 16 - мактабларининг ўқувчилари орасида кузатишлар олиб бордик. Айниқса, ижтимоий ҳимояга муҳтож оилалада ўсаётган болаларни аниқлаб, улар билан ота-оналари орасидаги муносабатларни ўргандик. Шу болалар ўқийдиган мактабларнинг ўқитувчилари билан ҳамкорликда ишладик. Аввало болаларнинг таржимаи ҳолини ўрганиш бўйича махсус йўриқномалар тақдим этдик. Йўриқномада болаларнинг оилалари ҳақидаги варақа ҳам илова қилинди. Бу варақаларга ота-оналари, бошқа оила аъзолари, оиланинг таъминланганлик даражаси ҳақидаги малумотлар киради. Шу варақанинг ўзига боланинг туғилишидан то ҳозирга қадар саломатлик тарихи, ҳолати ва бошидан кечирган касаликлари, ахлоқи ва қизиқишларини ҳам ёзиб қўйиш таклиф қилинди. Шуни айтиш лозимки, бола таржимаи ҳолини ўрганишга қадар ўқитувчилар болаларни тиббий текширувга жалб этиш зарур эмас, деб ҳисоблашар эди. Улар Америка мактабларидаги каби амалиётда саломатлиги ҳар хил болаларни биргаликда ўқитиш мумкин деб ҳисоблайдилар. Биз уларга болаларни у ёки бу тоифага киритиш олдидан пайдо бўладиган психологик тўсиқни енгиб ўтишга йўналтирилган оғзаки ва ёзма йўриқномалар ҳам бердик. Ўқитувчилар нафақат жисмоний нуқсон бор ўқувчиларни аниқладилар, балки уларга ижтимоий мослаша олмаслик даражалари бўйича педагогик ташхис қўйишди. Ҳар бир тарбияси оғир боланинг туғилган кунидан то шу кунгача бўлган даврдаги шахсияти ва ахлоқининг ўзига хос кўринишларининг батафтил тавсифини ҳам туздилар. Бу тавсифларда тарбияси оғир боланинг бадиий эстетик фаолиятининг етакчи турлари (мусиқа, тасвирий санъат, адабиёт, ижод) га бўлган мойиллиги чуқур ўрганилди. Ўқувчиларни кузатиш, улар билан суҳбатлашиш, синф раҳбарлари, отаоналар билан мулоқотда бўлиш натижасида ўқувчиларни куйидаги даражаларга бўлдик; 1. Болаларнинг синф жамоаси билан мослашиш даражаси. Бу даражага киритилган болалар дўстлари билан мулоқотга киришади, синфдошлари ўртасида ўзларини эркин ҳис қилишади. хушмуомала бўлиб, фанларни яхши ўзлаштирадилар, ғайритабиий хаттиҳаракатларга мойилликлари йўқ. Бу сифатлар болаларни маънавий ва ахлоқий ўрганиш билан аниқланди. Мактаб ҳаётининг барча жабҳаларида фаол бўлган бу болалар эстетик фаолиятга жонли қизиқиш намоён қилдилар. 2. Эҳтимоли бор мослаша олмаслик (ЭМО) - даражаси. Бу даражага, ўқитувчиларнинг фикрича, тенгдошлари орасида ўзини муайян тарзда намоён қила олади

ан болалар киритилган. Бироқ улар анъанавий-ахлоқий кўникмаларнинг салбий усулларини танлашга мойилдирлар. Бу гуруҳдаги болалар бошқаларга эргашади ва айниқса салбий ҳиссиатлилар таъсирига тез бериладиар. ўқитувчилар бу ҳолни икки ҳоиада: синфдаги ҳаётий воқеалар замирида ва ўйин давомида кузатишди. Маълумотлар боланинг мослаша олмаслик жадвалига киритилди. Мазкур тадқиқот усули эса жуда ўнғай бўлиб, боланинг синфдагиларга мослашиши жараёнининг кўпгина қирраларини ҳисобга олиш имконини беради.

3. Қисман мослаша олмаслик (ҚМО) даражаси. Бу даражага эркин мулоқот ҳолатларида маънавий-ахлоқий амалиётнинг салбий усулларини танлашга мойил болалар киритилади. Агар уларни назарий жиҳатдан тарбия қилиб турилса, улар ўзларининг ижобий томонларини намоиш ҳам қилишади. Бундай болалар ёрқин ҳиссиетларга эҳтиёж сезишади. Шунинг учун улар эстетик фаолиятга катта қизиқиш билан киришишади. Характерли томони шуки, мазкур даражадаги болаларда иқтидорлилар ва мойиллар осон аниқланади. Ўқитувчилар бу гуруҳга оддий, тўполончи, тиниб-тинчимас, оиласида талабчанлик кучли бўлмаган болаларни ҳам киритишди.

4. Бутунлай мослаша олмаслик (БМО) даражаси. Бу даражага кирган болалар одатда масъулиятсиз, фақат салбий кўникмаларгагина тақлид қилишади. Улар одатда ёлғончи, ялқов ва бетартиб, кўпол, уришқоқ, баъзан ўғирликка ҳани мойил бўлади. Лекин шундай бўлса-да, улар қизиқарли, мафтункор, романтик таассуротларга интилишади, Айнан маънавий ва эстетик категориялардан қарама - қаршилик излашади. Гўзалликда бадбинликни, фожеада комедиани кўришади. Бундай болалар кўп эмас, ўртача 5 фоизни ташкил этадилар, ўқитувчилар болаларнинг бундай ахлоқий қусурлари илдизларини тушунтириб беришга қийналадилар, улар барча гуноҳни кўпроқ оилага тўнкайдилар. Мазкур кузатиш бўйича даражалар тақсимланиши қуйидагича бўлди: 1. Меъёрий мослашув даражасидаги ўқувчилар - 25 фоиз. 2. Ўзгариш эҳтимоли бор мослаша олмаслик даражасидаги ўқувчиар -8 фоиз. 3. Қисман мослаша олмаслик даражасидаги ўқувчилар - 5 фоиз. 4. Бутунлай мослаша олмаслик даражасидаги ўқувчилар - 2 фоиз.

Юқорида келтирилган мисоллардан кўриниб турибдики, ўқувчиларнинг жамоага мослашув даражаси ҳар хил бўлади. Булар ичида ўқитувчи алоҳида эътибор берадиган гуруҳ жамоага бутуниай мослашмайдиган ўқувчилардир. Бу гуруҳга кирган болалар жиддий эътиборга муҳтождирлар. Ундан кейингиси мушкул гуруҳ қисман мослашолмаслиги ва эҳтимоли бор мослашолмаслик даражасидаги ўқувчилардир. Улар фақат индивидуал ёндашув, жамоа аъзоларининг бевосита таъсири остидагина яхши ва намунали ўқувчилар қаторига қўшилишлари мумкин. Бунда болаларни мусиқа, рассомлик ва бошқа тўғаракларга жалб этиш яхши натижалар беради. Биз ўқувчиларнинг мусиқага муносабатини аниқлашга ҳаракат қилдик. Бунинг учун баъзи олимлар томонидан тавсия этилган қизиқтирувчи суҳбатлардан, завқ билан мусиқани тинглаш, эшитилган куй, қўшиқни таҳлил этиш каби усуллардан фойдаландик. Шундай усуллар орқали уч, тўрт йилда болаларда мусиқани завқ-шавқ билан тинглаши, қабул қилиши, кейинчалик ўзи ҳам мусиқа ижро этиши пировард натижада мусиқий ижод даражасига эришилди. Хулоса шуки, мусиқа, қўшиқ, ракс, ва бошқа нафис санъат йўналишида олиб борилган машғулотлар айрим тарбияси оғир ёки қолоқ, ўқувчиларнинг фаол ўқувчилар қаторидан ўрин олишига ёрдам беради. Ёш авлодни ҳар томолама етук қилиб тарбиялашда, мактабда ўқитиладиган барча фанлар қатори, нафосат тарбиясининг таркибий қисми бўлган, мусиқа маданияти дарсларини аҳамияти катта. Мусиқа инсон ҳис-туйғуларини, орзу-истакларини ўзига хос бадиий тилда ифода этади ва боланинг ҳиссиётларига фаол таъсур кўрсатади. Мусиқа фани мактабда бошқа фанларни

Ўзлаштиришга ҳам бевосита таъсир кўрсатади. Мусиқа жонли санъат тури сифатида давр, ҳаёт, табиат ва инсон ҳистуйғуларини, орзу-истакларини акс эттиради. Уни қувонтиради, ўйлантиради ва ҳаётдан озуқа олишга хизмат қилади. Миллий маданиятимиз бобокалони Абу Носир Ал-Фарбий айтганидек, “Бу фан тана соғлиғи учун фойдалидир”. Бобомиз Шайх Саъдий “Мусиқа одам руҳининг йўлдошидир”-деган эди. Мактабда мусиқа ўқитишнинг асосий мақсади- ўқувчиларга мусиқа санъати гўзаллик қонунлари асосида ўрганиш малакасини сингдириш ва уларга мусиқа маданиятини таркиб топтиришдир. Мактабда мусиқа маданияти дарслари умумий таълимнинг ахлоқий-эстетик тарбия бериш тизимининг ажралмас бир қисми бўлиб ҳисобланади. Мусиқа ўзининг хусусиятлари ва такрорланмаслиги билан инсонни маънавий жихатдан юксалтиради, дунёқарашини шакллантиришга ёрдам беради, уни эзгуликлар сари етаклайди. Айниқса, ўзбек миллий мусиқа ижодининг эстетик-тарбиявий имкониятлари жуда ҳам каттадир. Бундай халқ мусиқий асарларини болаларга дарс жараёнида қандай ўргатиш мумкин, нималарга эътибор бериш керак бўлади? Кичик мактаб ёшида ўқувчиларда аста-секин товуш туси, вокал техникаси шаклланади, шунинг учун бу даврда халқ кўшиқлари жуда ҳам қўл келади. Ўқитувчи бунда болаларга асарларни ритмик текис, ифодали ижро этишга ўргатиши керак. Бундай ёндашиш ўзбек халқ кўшиқлари “Ковушим”, “Лайлак келди”, “Читти гул”, “Чорий чанбар” (бу асарлар бошланғич синф дастурларига киритилган) кабилар мисолида кузатилиши зарур. Халқ кўшиқларининг максимал образли-ҳиссий ижро этилиши, авваламбор, ўқувчиларнинг тушунган ҳолда, онгли равишда асарнинг мусиқавий-назмий дунёсига кириб бора олишига боғлиқ. Бунда ўқитувчининг вазифаси шундаки, ўқувчилар эътиборини имконияти борича аниқроқ кўшиқ мусиқий матни устида ишлашга йўналтириш, матнда ғоявий мазмун билан боғлиқ бўлган энг характерли, ўзига хос ифода воситаларини топишга ҳаракат қилишдир. Мусиқа дарслари амалиёти шундан дарак берадики, агар ўқувчилар қайси бир асарни қизиқишсиз, ишиёқсиз ўрганишга киришсалар, бу ўқув жараёни тўғридан-тўғри салбий ҳиссиёт манбасига айланиб қолиши ҳеч гап эмас. Нима қилиш керак? Ўқувчиларда мусиқани ўрганишга бўлган кайфияни яратиш учун ижодий изланиш йўлидан бориш керак бўлади: болалар ўз ҳуқуқининг миллий маданияти, кўшиқларнинг жанр тавсифини билиб олсин. Бу эса асарнинг ғоявий-ҳиссий манзарасини яхлит тасаввур этишга имкон беради, ҳиссий мазмунини очишга, мусиқий воситаларни аниқлашга кўмаклашади. Натижада, ўрганилаётган асарнинг бадиий образи ҳам яққол кўринади. Нафосат тарбияси тизимида ўқувчиларни халқ мусиқасига ўргатиш мумҳим бир функция (вазифа) ни бажаради: шахснинг ҳиссий раҳмдиллиги ва эстетик фаоллигини оширади, унда бадиий дидни шакллантирди, атрофмуҳитни чуқурроқ ўрганишга ёрдам беради. Ўқувчиларда мусиқий-эстетик маданиятни шакллантириш учун махсус ташкил этиладиган фаолият талаб этилади. Бунда мусиқий материални шундай танлаш ва тартибга солиш керакки, унинг таркибида миллий фолклор хусусиятларига эга бўлган ҳамда тушунарли ёзилган турли халқлар ва ўзбек композиторларининг мусиқий асарлари мавжуд бўлсин. Мусиқий асарларнинг бундай намуналари ўқувчилар фаолиятини оширади, мусиқий идрок этиш кўникмаларини ривожлантиради, мусиқа тили турли хусусиятларини англаш қобилиятларини чуқурлаштиради. Буларнинг ҳаммаси мусиқий идрок ва таассуротларин янада бойитишга, мусиқага хос бўлган ифодавий воситаларни онгли қабул этишга имкон яратади. Мусиқа дарсларида халқ мусиқа асбобларининг тарбиявий имкониятларидан кенг тарзда фойдаланиш жуда ҳам муҳимдир. Рубоб, ғижжак, дутор, чанг, дойра ва

бошқа миллий мусика асбобларининг турлитуман гузал жаранглаши дарс мазмунини бойитади, хиссий жонланишни яратади, укукчиларни мусмкага булган кизикишни, ижодий фаолликни кучайтиради, чунки мусмка уларга кувонч ва рохат бағишлайди. Айнан халк мусикаси, дарсларда миллий мусика асбобларидан фойдаланиш болаларда мусика санъатига мухаббат уйғотади, эстетик жихатдан тарбиялайди, мусикий таассуротларини кенгайтиради, бадиийэстетик дидларни шакллантиради ва ривожлантиради. 2.2. Синфдан ва мактабдан ташқари шароитда мусика ва нафосат тарбияси Нафосат тарбиянинг мазмуни болаларнинг синфда, синфдан ташқарида турли бадиий ва ижодий фаолияти формаларининг чамбарчас боғланишини назарда тутаяди. Ҳар бир мактабда болага эстетик тарбия беришнинг интенсив ва ривожланувчи комплексини ташкил қилиш учун, эстетик тарбиянинг мақсадлари ва вазифалари бир томонламалиги ҳақида тушунчаларни бартараф этиш керак. Табиатни теварак атрофдаги гўзалликларга муносабат ва фандаги гўзалликларни англаш, жисмоний камолотга етиш, адабиёт ва санъат ўртасидаги мулоқотга нисбатан анча кўп тарбиявий самара беради. Чинакам эстетик тарбия вазифалари кўпинча юзаки ҳал қилинди. Масалан: маълум бир бадиий асар жиддий камчилик шундаки, мактабда эстетик тарбия вазифалари кўпинча юзаки ҳал қилинди. Масалан: маълум бир бадиий асар жиддий мақсадларсиз фойдаланиш учун режалаштирилади. Ваҳоланки, ўқитучилар билан ажойиб мусика, адабиёт ёки тасвирий санъат асарлари ҳақида кези келганда юзаки тарзда гаплашмаслик керак. Бадиий асар материали асосидаги тарбиявий ишнинг савияси, асарнинг мураккаблиги, ундаги ғоянинг чуқурлиги, муаллифнинг бадиий маҳорати ва ахлоқий эстетик тасаввурига мувофиқ бўлиши лозим. Санъатни билишнинг икки томони бор: бадиий асарнинг бевосита идрок этиш, ҳамда уни баҳолашдир. Мактабда бўларнинг ҳар иккаласига ҳам эътибор бериш лозим. Ўқувчи биринчи навбатда китоблар ёки расмлар муҳитида бўлиши, асар учун тегишли бадиий ахлоқий эстетик моҳиятини англаши керак. Бадиий асарнинг мазмунини яратилган воситалардан бошқа ҳеч қандай воситалар ёрдамида бериб бўлмаслигини фаҳмлаш лозим. Бола санъат асарини идрок этишда бир лаҳза унга маҳлиё бўлиб қоладики, унинг худди шу лаҳзадаги ички кечинмаларини педагогнинг айнан кўздаги мақсадидир. Агар бола маълум бир рангли тасвир асарига лоқайд томошабин бўлиб қолса, ёки буюк мусика асарини лоқайдлик билан томошабин бўлиб қолса, ёки буюк асарнинг буюклиги ва ўлмаслиги ҳақида айтадиган гаплари бекор кетади. Ўқитувчи мазкур тингланган мусика ёки санъат асари ҳақида бирорта савол бермаса, унда бирор ҳиссиёт вужудга келмаса, шахсий ҳиссиёт ва муносабат билан боғланмаган хабар тарзида алоқагина пайдо бўлса, демак вазифа бажарилмаган., мақсадга эришилмаган ҳисобланади. Асарни билишнинг иккинчи босқичда ўқувчи асар ҳақидаги ўз фикрини айтиши, унинг ғоявий – бадиий маҳмунига баҳо бериши, асарнинг ҳар актерли хусусиятларини таҳлил қилиши керак, бунда танқидчилик, санъатшунослик ва ҳокозолардаги муаллиф ва унинг асарлари ҳақида инсоният тўплаган билимлари мужассамлашади. Эстетик идеал тўғрисидаги тушунчанинг барқарорлиги мактаб ёши учун характерлидир. Саргузашт, илмий фантастикага доир адабиётларга кизикиш кўшиқчи ва чолғу ансамблига ишқибозлик билан алмашиниши, телевидениенинг бадиий эшиттиришларига иштиёқмандлик ўрнини ҳаваскорлик санъати эгаллаши мумкин. Асарнинг ғоявий ва бадиий мазмунини баҳолаш қобилияти таркиб топади. Классик адабиёт ва санъатга кизикиш мустаҳкамланади. Дарсдан ташқари ташкил қилинадиган турли тадбирлар, тарбиявий соатлар, ўқувчиларнинг дунёқарашини шакллантиришда аҳамияти катта. Умумтаълим мактабида мусика ўқитиш қийидаги

вазифаларни амалга оширишни мақсад қилиб қўяди; 1. Ўқувчиларда мусиқага ихлос уйғотиш ва уларнинг мусиқий қобилиятларини ритм туйғусини ўстириш, мусиқий ўқув, хотира, диққат ва бадиий дидни шакиллантириш; 2. Ўқувчиларда миллий мусиқа меъросимизга ва у орқали ОнаВатанга муҳаббат ҳиссини тарбиялаш; 3. Ўқувчиларда бадиий ижодкорлик қобилиятини ўстириш. Ўқувчиларда гўзалликни кўра билиш ва ҳаётга гўзаллик олиб кириш қобилиятини ривожлантириш. Ўқувчиларни мусиқий ижодкорлигини таасуротини бойитишда, тасаввурларини кенгайтиришда мусиқа тинглаш фаолиятини аҳамияти катта. Мусиқа тинглаш дарсининг бошидан охиригача амалга ошади, чунки мусиқа маданияти дарсларининг барча фаолият турлари (қўшиқ куйлаш, мусиқий ритмик ҳаракатлар бажариш, мусиқа тинглаш) мусиқий товушларда вужудга келган оҳанг восирасида ифодаланади. Мусиқа маданияти дарслари бошланғич синф ўқувчиларини атрофдаги гўзал нарсаларни идрок эта олишга ва маънавий дунёқарашини шакиллантиришга хизмат қилади. “Бошланғич таълим учун Давлат таълим стандартлари “ асосида барча фанлар қатори мусиқа фанидан ҳам дастур ишлаб чиқилди. Янги дастур мазмунида миллий мусиқамиз меъросидан тўлақонли фойдаланиш, оммавий халқ куйлари ва кўшиқлари, лапар, дostonлар ва бугунги замонавий мусиқа ўз аксини топган. Дастурнинг бош мавзуси “ Мусиқа ва ҳаётдир “ йил, чорак, дарс мавзулари умумий мавзуга бўйсунди ва мантиқан узвий бирлашиб мазмунан бир бутунликни ташкил қилади. Бу умумтаълим мактаби мусиқа ўқитувчисидан иш мазмунини янгилашни талаб этади. Янги дастур мазмунида дарс ўтиш учун, мусиқа ўқитувчиси ўзининг мусиқий назарий билимлатини такомиллаштириши керак, чунки ўқувчиларнинг мусиқа дарсига бўлган қизиқишини ўстиришда ёш авлодни Ватанга муҳаббат руҳида тарбиялашда ва уларни маънавийли, маърифатли қилиб вояга этказишда ўқитувчи етакчи бўлиб ҳисобланади. Барчага маълумки, ҳар қандай санъаткор ҳам мактабда мусиқа дарсини олиб боролмайди. Умумтаълим мактаби мусиқа ўқитувчиси бўлиш учун ўз касбига ва болаларига меҳр қўйган юксак маданиятли кенг дунёқарашга эга бўлган шахс бўлмоғи лозим. У педагогика, психология, болалар физиологиясининг амалий соҳаларида чуқур билимга эга бўлмоғи лозим. Мактабда мусиқа ўқитувчисининг фаолият миқёси кенгдир. Мусиқа маданияти дарслари билан бирга у синфдан ташқари мусиқа тарбияси турларини ҳам ташкил этиши ва бошқариши лозим. Мактабда синфдан ташқари очиқ тарбиявий соатлар ўтказиш, мусиқа тарбиясининг оммавий ва тўғарак шакилларини олиб бориш, мусиқа ўқитувчиси зиммасидадир. Бунга “ Мустақиллик байрами “, “ Билимлар куни”, “Ўқитувчилар куни”, “Алифбе байрами”, “Янги йил”, “Наврўз байрами”, болалар шоирлари, санъаткор билан учрашувлар киради. Бугунги мустақиллик шароитида таълим муаммоларини ҳал қилишда умумтаълим мактаби мусиқа ўқитувчиси замон билан ҳамнафас қадам ташлаб ахборот технологияси ва илғор педагогик технология малакаларини тўлиқ ўзлаштириш ва шулар асосида таълим-тарбия жараёнини ташкил этмоғи лозим.

Фойдаланилган адабиётлар

1. N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.To‘rayev Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. T., 2015
2. M.Ahmedova Pedagogik konfliktologiya. T., 2017
3. А.В. Батарщев Психодиагностика способности к общению или как определит организаторские и коммуникативные качества личности,- М.: Гуманит. Изд. Центр ВЛАДОС, 2009

-
4. В.С. Грехнев Культура педагогического общения: Книга для учителя. - М.: Просвещение, 2010
 5. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi.-T.: O'zbekiston, 2009
 6. А.В. Мудрик Введение в социальную педагогику - М.: Инт практ. психологии, 2007
 7. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X.Toxtaxodjayeva va boshqalar) - T., 2007

MUSIQA FANI O'QITUVCHISINING KASBIY STANDARTLARIGA DOIR

*Samarqand viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish
milliy markazi p.f.f.d(PhD) dotsent U.Q.Utanov
Sam.D.U. dotsenti E.K.Jalilov*

Har qanday fan yoki san'at sohasida o'z ishining tabiiy ustasi bo'lmog'i zarur, bu soha sirlariga mukammal egalik qiladi. Malakali mutaxassislar nafaqat bu boradagi tajribani o'zlashtiribgina qolmay, balki innovatsiyalar yaratishi va mashhurlikka erishishi mumkin. Demak, ular ham ta'lim va o'z tajribasida muhim yangiliklar yaratayotgan malakali pedagog mutaxassislardir. Albatta, tarbiyaviy ishlar jarayonida uning faoliyatini yuqori saviyada baholashni, har taraflama e'tirof etishni istamaydigan shunday o'qituvchi bo'lmasa kerak. Har qanday maqsadga erishish, bu orzuni amalga oshirishni biz pedagogik mahorat deb ataymiz.

Maqsad o'z ishining ustasi bo'lgan o'qituvchi pedagogik qobiliyatga ega, o'z fanini chuqur biladigan, fan yoki san'atning tegishli sohalarini tahlil qilishga qodir, o'ziga xos tarbiya va ta'lim usullariga mukammal ega bo'lgan yuksak madaniyatli shaxsdir. SHuningdek, pedagogik texnika. Fan va madaniyatning rivojlanishi ta'lim-tarbiya ishlarining qay darajada olib borilganligi bilan bog'liq. Bu falsafiy tushuncha davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy qonundir. O'qituvchi jamiyatning ijtimoiy vazifasini bajaradi. Demak, har tomonlama rivojlangan kadrlarni tayyorlashda o'qituvchi ma'lum ijtimoiy-siyosiy, pedagogik va psixologik talablarga javob berishi kerak. O'qituvchi mustaqillik g'oyasi bilan har tomonlama rivojlangan, ilmiy tafakkur, kasbiy mahoratga ega, o'z fanini chuqur biladigan, pedagogik muloqotning ustasi, psixologik-pedagogik, uslubiy bilim va e'tiqodli, turli pedagogik vaziyatlarni tez aniqlash, o'rganish va ko'rib chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 25 yanvardagi PQ-4963 sonli qarorida asosiy vazifalar sifatida "kelajak maktabi, uning rahbari va o'qituvchisining modelini yaratish asosida xalq ta'limi xodimlarining kasbiy standartlarini ishlab chiqish va doimiy tarzda rivojlantirib borish, ilmiy-tadqiqot faoliyatining ta'lim jarayoni bilan aloqalarini mustahkamlash" belgilab berilgan.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-sonli "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'rsida"gi qarorining Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartining asosiy prinsiplarida;

- davlat ta'lim standartining ta'lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi;

-
- o'quvchilarda fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun tayanch va fanlarga oid umumiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ta'minlanganligi;
 - rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasida me'yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish kabi vazifalar belgilangan.

Ushbu vazifalardan kelib chiqib umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning kasbiy standartini ishlab chiqish va doimiy tarzda rivojlantirib borish bugungi kun talabidir.

Musiqqa madaniyati fani muhim jihati ham shundaki, u eng avvalo his-tuyg'ular bilan bevosita bog'lanadi, qolaversa o'rganilayotgan har bir musiqiy asar yuksak insoniylik va ma'naviy poklikni namoyon etadi.

Musiqqa san'ati u bilan shug'ullanuvchilardan yuksak insoniylik, ma'naviy poklik va nihoyatda nozik didni talab etadi. YOshlarni ma'nau barkamol, ruhan tetik qilib tarbiyalashda musiqiy nafas olamining o'rni beqiyosdir. Bugungi kunda musiqqa madaniyati darslarini ilmiy-metodik jihatdan har tomonlama takomillashtirib, zamon talablariga mos ravishda olib borishlik musiqqa o'qituvchisi oldiga qo'yilgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. SHu bois umumta'lim maktab «Musiqqa madaniyati» darslarining kasbiy standartini ishlab chiqishda fanning boshqa fanlardan o'zining zamon taraqqiyoti rivoji bilan hamohang bo'lgan xususiyatlari bilan farqlanishini aytib o'tish joiz.

Musiqqa madaniyati o'qituvchisining kasbiy standartida quyidagi muhim jihatlar o'z aksini topishi zarur;

- musiqqa asbobini yaxshi chalishi, yoqimli ovozda kuylashi (darsda gram yozuvlardan foydalanishga to'g'ri keladi, ammo o'qituvchining jonli ijrosi bolalarda katta hissiyot hosil qiladi);

- nozik musiqiy did va rivojlangan musiqiy eshituv qobiliyatiga ega bo'lishi;
- musiqiy-nazariy bilimlar doirasiga ega bo'lishi;
- musiqiy asarlarni badiiy-pedagogik tahlil qila olishi;
- dirijyorlik malakalarini ko'rsata olishi;
- musiqani boshqa badiiy fanlar bilan uzviy bog'lay olishi;
- musiqqa ta'limi va tarbiyasidagi yangi usul, vositalarni, zamonaviy texnologiyalarni egallashi va ulardan oqilona foydalana olishi katta ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi davrda musiqqa muallimi kasbi, faoliyati, professional tayyorgarligiga bo'lgan talablar ilmiy-pedagogik izlanishlarga asos bo'lmokda. Bu borada taniqli musiqachi-pedagoglar, haqidagi esdaliklar, ularning pedagogik faoliyatlari natijalarini o'rganishga qaratilgan bir qator izlanishlar ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi zamon musiqqa o'qituvchisining ijodiy faoliyatida pedagogik mahorat quyidagilarda yaqqol namoyon bo'ladi:

- musiqqa tarbiyasida yangi usul va vositalarni izlashda, ularni an'anaviy usullar bilan mohirona bog'lab olib borishda;
- hayot va musiqqa san'ati o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsata olish va o'rgatishda;
- musiqaning mazmuni va ma'nosini bolalarga etkazishda, fanlararo aloqani amalga oshirishda;
- musiqqa o'qituvchisining o'z ustida doimo ishlashi va ijodiy izlanishida.

O'qituvchining yuqori professional tayyorgarligi musiqqa darslarining takomillashuvida hamda musiqqa san'atining tarbiyaviy imkoniyatlarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-sonli “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘rsida” gi qarori.

2.Utanov U. The role of excursions to spiritual places in the development of the younger generation. International Journal of Academic Research in Business, Ars and Science, (IJARBAS.COM), P.28-34. DOI: <http://doi.org/10.5281/zenodo.3758677>, Issue: 9, Vol.: 11, Article: 3, Month: September, Year: 2021

3.Utanov U, Urinova S. The role of creative aspects in the work of future music teachers. World Bulletin of Social Sciences. Open access Peer Reviewed Bi-Monthly. ISSN (E): 2749-361X. Journal Impact Factor 7.545 <https://scholarexpress.net/index.php/wbss.Vol> 9.Berlin 10785. Germany.April 2022. <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/922/825>.

4.Utanov U, Yakubova D. USING SIBELIUS MUSIC TEXT EDITOR IN MUSIC EDUCATION. Modern Journal of Social Disclaimer: Articles published by the **Modern Journal of Social Sciences and Humanities (2795-4846)** have been peer-reviewed monthly journal with a high impact factor of **Research BiB 8.1** that focused on multidimensional research areas. The address of the company is **Rua Alto do Vaz, Porto, Portugal**. <https://mjssh.academicjournal.io/index.php/mjssh> Modern Journal of Social Sciences and Humanities ISSN: 2795-4846 Vol. 4(2022).

YOSH AVLODNI BADIY HAVASKORLIK TO‘GARAK ISHLARI ORQALI TARBIYALASHNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

*JDPU Musiqa ta’limi kafedراسi katta o‘qituvchisi
Xasanova Navbahor Xamraqulovna*

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar milliy qadryatlarni o‘rni va ahamiyati bo‘yicha nazariy ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Musiqiy ta’lim, ta’lim tizimi, professional faoliyat, ijodiy yondashuv, samaradorlik, omil, ta’lim, interaktiv usullar.

Dunyoda har bir xalqning asrlar, zamonlar osha yashab kelayotgan milliy qadryatlari bor. Yosh avlodni ma’nan barkamol etib tarbiyalashda ham shubhasiz, milliy va umuminsoniy qadryatlarga asoslanamiz.

Aynan milliy va umuminsoniy qadryatlar qadrlangan jamiyatda ijtimoiy siyosiy muhit fuqorolik institutlarini rivojlantirish uchun etarli darajada shakllangan bo‘ladi, bunday jamiyatda u yoki bu masala yuzasidan jamoatchilik fikri ana shu qadryatlar asosida yuzaga keladi. Eng muhimi, turli millat elatlarga xos milliy qadryatlar umuminsoniy qadryatlar bilan uyg‘unlashib, dunyoda xalqaro birdamlik hamjixatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda yurtimizda yashab o‘tgan buyuk ajdodlarimizni, mutafakkirlarimiz, donishmandlarimizni hayotini, ijodiy faoliyatini, ulkan kashfiyotlarini jaxon hamjamiyati tan olgan holda ularga katta ehtirom bajo keltirmoqda. Ajdodlarimiz hayoti va ijodini chuqur o‘rganish, ular qoldirgan boy madaniy, meroslarni qadriga etish, ularga ixlosmandlik xissi milliy o‘zlikni anglashdagi muhim omildir. Milliy o‘zligini anglagan kishidagina milliy g‘urur va milliy iftixor tuyg‘ulari shakllanadi. Yosh avlodda milliy g‘urur va milliy iftixor tuyg‘ularini shakllanishida ajdodlarimiz merosi etakchi o‘rin egallaydi.

Buyuk ajdodlarimizdan bebaho me'ros bo'lib kelayotga vatanga muhabbat tuyg'usi, o'sib kelayotgan yosh avlod uchun ibrat namunasi sifatida kelajakda ular ham ajdodlari kabi vatanparvar bo'lib etishlarida o'rnak bo'lishi lozim. Milliy g'ururni shakllantirish esa awalo, milliy o'zlikni anglashdan boshlanadi. Zero, milliy o'zligini anglagan xalq nafaqat o'zini, balki o'zga millatni ham hurmat qiladi.

Milliy musiqa madaniyatimiz yosh avlodning ma'naviyatining shakllantirish va yuksallantirishda katta ijtimoiy tarbiyaviy, badiiy estetik kasb etuvchi dolzarb ilmiy va amaliy muammo ekanligini ko'rsatadi.

Umumiy o'rta ta'limda olib boriladigan to'garaklar akademik vaqt bilan 45 minutdan 90 minutgacha mashg'ulot olib boriladi.

Togarak ishlari taqsimoti quyidagicha taqsimlanadi 0,5 stavka to'garak da 360 soat
1 oyda 40 soat 1xaftada 10 soat dan o'tkaziladi.

Agar to'garak raxbari rejadan ortiq bolalar bilan ko'p ikki soatlab shug'ullanilsa, bolalarning me'dasiga tegib qoladi. Shuning uchun mashg'ulotlarni judayam ko'p oshirmasdan me'yorida olib borish lozim. To'garakga qatnashuvchilarni quyidagicha jalb etish mumkin..

- Kichik xorga qatnashchilar soni 24nafardan-40 nafargacha
- Katta xorga qatnashchilar soni 50nafardan -60 nafargacha
- Vokal ansambliga qatnashchilar soni 8 nafardan 16 nafargacha
- Raqs to'garagiga qatnashchilar soni 8 nafardan 16 nafargacha
- Folklor to'garagiga qatnashchilar soni 12 nafardan 20 nafargacha.

Shunday ekan yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda ma'naviy- ma'rifiy tadbirlar milliy qadryatlar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ularga esa adabiyot, san'at, maorif, milliy-ma'naviy meros, milliy madaniyat, xalqning amaliy san'ati- yodgorliklari, hunarmandchiligi va boshqalar kiradi. Biz ta'lim va tarbiya ishimizda, kundalik o'quv jarayonida ma'naviy qadryatlarimizni, boy milliy-ma'naviy me'rosimizni talabalar va o'quvchilatga o'rgatish bilan birga, ulardan yosh avlodning dunyoqarashini shakllantirishda o'rinli foydalanishimiz muhim ahamiyatga ega. Ma'naviy qadriyatlarimiz yoshlarni komil inson qilib tarbiyalab, voyaga yetkazishda katta ahamiyat kasb etadi. Biroq uni qunt bilan rivojlantirish va shakllantirish o'quv tarbiyaviy ishimizning muhim qismini tashkil etishni esdan chiqarmasligimiz kerak. Bu jarayon bosqichma-bosqich, doimiy muntazam ravishda amalgam oshirilib borishni taqozo qiladi. Bu sohada bracha ilm ahillari, ziyolilar, adabiyot va sana't xodimlarining ko'plab safarbarligi lozim bo'ladi.

Maktabda musiqa to'garak ishlarining asosiy maqsadi yoshlarimizga musiqa tarbiya ko'nikmalarini singdirish bilan birga o'quvchilarni Vatanga, millatga muhabbatini, komil inson qilib hamda, o'quvchilarni axloqiy-ma'naviy jihatdan tarbiyalash, havaskorlik to'garak a'zolarini ko'rik tanlovlarga tayyorlash hozirgi kunda alohida o'rin egallay boshladi. Tarbiyaning asosiy vazifasi – shaxsning aqliy, axloqiy, erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir.

Shunday ekan sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'quvchilarning qiziqishi, istaklari, xohish va ehtiyojlariga suyangan holda ularning darsdan bo'sh vaqtlarida o'quv-tarbiya jarayonini to'ldiradi. U o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarining o'ziga xosligi shundaki, to'garak dasturlarining rang-barangligi, ular mazmunidagi yangiliklar o'smir yigit-qizlarning shaxs sifatida shakllanishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zb. Res. XTB “Umumta’lim mamkablarida musiqa ta’lim-tarbiyasi konsepsiyasi” Toshkent 1995 yil
2. S.X.Yo‘ldosheva “O‘zbekistonda musiqa tarbiyasi va ta’limining rivojlanishi” Toshkent “O‘qituvchi” nashriyoti 1985 yil
5. Mualliflar jamoasi “Pedagogika” Toshkent “O‘qituvchi” nashriyoti 2001 yil
6. Muminova Muqaddas Riskulovna Development And Current Status Of Uzbek Pop Music In Modern Approaches And Innovations Of Teaching The Science Of Music Culture International Journal of Advanced Science and Technology Vol. 29, No. 8, (2020) <https://t.me/joinchat/> - Music teacher, <https://infourok.ru> - music lessons
7. Muminova Muqaddas Riskulovna *International Journal of Mechanical Engineering*. The Innovative Technologies Of Teaching In Musical Educational Establishments 1764-1767- betlar. 2022- йил.
8. Muminova Muqaddas Riskulovna Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. THE ROLE OF SPORT ACTIVITIES, GAMES AND COMPETITIONS IN THE NURTURE OF 6-7 YEARS OLD CHILDREN <https://uzjournals.edu.uz/tziuj68-78> betlar 2022
9. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlarda pedagog kreativligi. “Yangilanayotgan O‘zbekistonda fan, ta’lim va innovatsiya uyg‘unligi” mavzusidagi 6-son 2-qism Respublika ko‘p tarmoqli ilmiy konferensiyasi VIII bo‘lim Toshkent 2021. 677 bet. Udk. 001.895 (575.1).
10. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlar o‘qituvchisining kreativligi. Педагогические и лингвopsихологические особенности развития, формирования и становления личности врача. Сборник тезисов Международная конференции. СамГМИ, Самарканд 5 мая 2021 год
11. Urinova S.Sh. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishning nazariy asoslari. “The best innovator in science” xalqaro maqolalar tanlovi to‘plami. Organized by Innovative Academy. Tashkent February 5, 2022. Pg 811. <https://zenodo.org/record/5979621#.YpC2PKhBxD8>
12. Yosh avlodda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirish- asosiy vazifamizdir. Ilmiy-uslubiy seminar materiallari. - Jizzax 2011.
13. Uzluksiz ta’lim sifat va samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy muommalari. Respublika ilmiy konferensiyasi materiallari. - Samarqand 2011.

IJODIY FIKRLASHDA FOLKLOR TO‘GARAKLARINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O‘RNI

Xodjabayeva Zuxra Parmanovna

Navoiy Davlat Pedagogika instituti “Musiq ta’limi” kafedrasida o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola umumta’lim maktablarida o‘quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga o‘g‘atishda bolalar folklor-etnografik to‘garagini o‘rni va to‘garakni tashkil etish yo‘lari, bolalar folklor asarlarini tanlash, to‘garak rahbari oldiga qo‘yiladigan talablar haqida yozilgan.

Kalit so‘zlar: folklor, etnografik, repertuar, improvizatsiya, prinsip, to‘garak, repertuar,

Mamlakatimizda bosqichma-bosqich olib borilayotgan ta'lim islohotlari umumta'lim maktablarida amalga oshirilayotgan ta'lim va tarbiya jarayonida uzviylikni ta'minlash zaruratini tug'dirmoqda. Bu ishlarni samarali kechishida sinfdan va maktabdan tashqari ishlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarni ma'naviy tarbiyasida darsdan tashqari ishlarning yo'nalishidagi to'garaklarning ham o'zo'rni bor. Zero aynan folklor o'quvchilar ma'naviyatini ijodiy tafakkurlarini takomillashtirishning milliy negizini mustahkamlaydi. Shu bois maktabda tashkil etiladigan folklore ansambli xalqimizning uzoq yillar mobaynida shakillanib kelgan musiqiy merosini o'quvchilarga o'rgatish, o'quvchilarda musiqiy layoqatni oshirish vositasi sifatida muhimdir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish, ularni sharqona axloq mi'yorlari asosida tarbiyalashda ta'lim va tarbiya uyg'unligini ta'minlovchi metodlarni islab chiqarishni taqozo qilmoqda. Maktab o'quvchilarini umumbashariy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, shuningdek ularni musiqiy-estetik didini shakllantirish, ajdodlarimizning asrlar davomida to'plagan ma'naviy xazinasining javohirlari bilanyaqindan tanishtirish folklor asarlarini o'rganish asnosida amalga oshirilib, maktab o'quvchilarining badiiy tafakkurlarini kengaytirish, ularning mustaqil, ijodiy fikrlarini oshirishga xizmat qilqdi.

Fikrlash-o'qish, yozish, so'zlash va eshitishga o'xshash jarayon. U faol muvofiqlashtiruvchi shunday jarayonki, unda o'zida biror haqiqat tog'risidagi fikrlarni qamrab oladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Bu muayyan yosh davrida tugallangan va esdan chiqarilgan vazifa ham emas. Shu bilan birga tanqidiy fikrlashga olib boradigan mutloq to'g'ri yo'l ham yo'q. Lekin tanqidiy fikrlovchilarning shakllanishiga yordamberuvchi muayyan o'quv sharoitlari to'lami mavjud.

Uninig uchun:

o'quvchilarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish: turli tuman g'oya va fikrlarni qabul qilish; o'quvchilarning o'quv jarayonidagi faoliyatini ta'minlash; har bir o'quvchining tanqidiy fikr yuritishiga qodir ekanligiga o'lariishonch hissini uyg'otish; tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash lozim.

Shu munosabat bilan o'quvchilar: o'ziga ishonch orttirish va o'z fikri hamda g'oyalarining qadrini tushuntirish; o'quv jarayonida faol ishtirok etish; turlich fikrlarni e'tibor bilan tinglash; o'z hukumlarini shakllantirishga hamda undan qaytishga tayyor turish lozim.

O'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatishda ham bolalar folklor etnografik to'garagini tashkil etish va to'garak mashg'ulotlari jarayonida ko'zlangan didaktik maqsadga erish mumkin. O'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatishda folklor etnografik to'garagi mashg'ulotlaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Buning uchun o'qituvchi repertuar tanlashga jiddiy eriborini qaratmog'I lozim. To'garak repertuarini o'quvchilar ishtirokida tanlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bunda o'qituvchi o'quvchilarga faqat repertuar tanlash uchun yo'nalish beradi xolos. O'quvchilar esa, o'zlari deyarli har kuni o'yin jarayonida ijro qilib yurgan qo'shiqlar, o'yin ayimlarini tanlaydi. O'qituvchi tanlangan folklor asarlarini sahnalashtirish, musiqa jo'rligida ijrosini ta'minlashga harakat qilishi, shuningdek tugarakning har bir mashg'ulotida a'zolarga aniq maqsadli topshiriqlar berishi kerak bo'ladi. Shu o'rinda haqli savol tug'ilishi mumkin: "Bolalar-folklor etnografik ansambli bilan bolalar folklor-etnografik to'garagining farqi nimada?"

Bolalar folklore-etnografik to'garagining ansambldan farqi shundaki, ansamblda professional ijrochilar ishtirok etishsa, to'garak a'zolari hali musiqiy asar ijrosini sirlarini

o‘rganish bosqichidagi o‘smirlardan iborat bo‘ladi. Shuning uchun ham mazkur to‘garakni tashkil etishda maktabning turli sinflarida tahsil olayotgan o‘quvchilarni jalb etish mumkin. To‘garak a‘zolari kelgusida ansambl ishtirokchilari bo‘lishlari rejalashtiriladi.

Bolalar folklor-etnografik to‘garagi a‘zolari ishtirokida repertuar tanlashga to‘garak rahbari qo‘dagilarga e‘tiborini qaratishi lozim.

1. Tanlanayotgan folklor asarlari qatnashchilar yashayotgan hudud materiali bo‘lishi.
2. Tanlangan qo‘shiq bolalar folklori materiali bo‘lishi.
3. Repertuarga tanlangan musiqa asari bolalar o‘yinlari jarayonida ijro qilinishi.
4. To‘garak repertuari gatanlangan folklore asarini ijro qilishda bolalarning improvizasiya qilishlari uchun imkoniyatlar bo‘lishini nazarda tutish.

To‘garak a‘zolarining mashg‘ulotlar jarayonida improvizasiya, ya‘ni, o‘zidan ijro qilish, hozirjavoblik qila olishiga erishish ularda mustaqil va ijodiy fikrlashning shakillanganligi belgisidir.

To‘garak repertuaridan o‘rin olgan musiqiy asarlar sozli ijroga va sozsizqarsak jo‘rligidagi ijroga moslashishi shart. To‘garakning birinchi boshlang‘ich mashg‘ulotlarida imkon qadar qarsak jo‘rligidagi ixcham va engil asarlar ijrosini o‘rganish, keyinroq sozli ijroga o‘tish lozim. Chunki, sozsiz qarsak jo‘rligidagi ijroo‘quvchilarda musiqa ritmiga konikish malakasini shakillantiradi. Musiqiy fikrlash uchun musiqiy ritm va takti his qila olish zarurligini unutmaslik lozim. To‘garakning ikkinchi yilida olib borilayotgan mashg‘ulotlarida o‘qituvchi ikki ovozli kichik hajmli kanonlardan to kattaroq kanonlargacha bo‘lgan asarlar ustida ish olib boorish nazarda tutiladi.

Xullas, bolalar folklor-etnografik to‘garagini tashkil etish maktab o‘quvchilarini mustaqil va ijodiy fikrlashga o‘rgatishning o‘ziga xos bir yo‘lidir. To‘garak mashg‘ulotlarida oddiydan murakkabga intilish prinsipiga amal qilish yaxshi natija beradi.

To‘garak repertuari ustida olib borilgan mashg‘ulotlarda o‘quvchilarga folklor asarining ijro o‘rni, ahamiyati, u bilan bog‘liq an‘analar haqida ham ma‘lumot berib o‘tish maqsadga muvofiqdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G.SHaripova Musiqa va uni o‘qitish metodikasi T.2006
2. R.G.Qodirov Boshlang‘ich sinflarda ko‘p ovozli kuylash T.,1997 O‘qituvchi.
3. A. Zimina Osnova muzыkalnogo vospitaniya i razvitiya dite mladshego vozrosta. M., 2000
4. Shafolat Rahmatullo Termiziy Boshlang‘ich musiqa ta‘limi Tetmiz-2001
5. www.tdpu.uz
6. www.pedagog.uz
7. www.ziyonet.uz
4. www.edu.uz

YOSH PEDAGOG KO‘NIKMALARI

*Xoshimjonova Mohina O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“Musiqiy pedagogika” fakulteti I bosqich talabasi*

O‘qituvchilik obrazi tasvirlanar ekan, unda shu fazilatlar – kasbiga vijdonan yondashish, yaxshi axloq sohibi bo‘lish, o‘quvchilar bilan hamfikir bo‘lish, o‘quvchilarini o‘z ortidan

ergashtiruvchi shaxs bo'lishi kerak. Mening hayotimda o'qituvchilarim, ning tutgan o'rni beqiyosdir.

“O'qituvchi” bu so'zda juda katta ma'no bor. Hamma uchun o'qituvchi so'zining ma'nosi turlicha. O'qituvchi bizni mustaqil hayotga qadam qo'yishga o'rgatadi. M.Monteyn aytganidek “Boshqalarni o'rgatish uchun o'zingiz o'rganganingizdan ko'ra ko'proq aql kerak bo'ladi” [1]. O'qituvchi dars berish san'atini mukammal egallagan, o'zidagi bilim ko'nikmalarni o'quvchilarga yaxshi yetkazib berish bilan birga, O'zbekistonning ravnaqi, ertangi kuniga bo'lgan ishonchi, jamiyatimizning munosib fuqarosi bo'lishi uchun nimalar qilish kerakligini ko'rsatuvchi ko'zgu bo'lishi, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, yurtni sevishtga, atrof-muhitga hurmat bilan munosabatda bo'lishga o'rgatadi. O'qitish va o'zlashtirish haqida umumiy tushuncha. Ma'lumki ta'lim berish – insonparvarlik san'ati, mahorati hisoblanadi. Ko'pgina kuzatuvchilar ma'lum o'quv rejasi yoki mashg'ulot rejasida, tadqiqotlarda, darsliklarga tayangan holda ta'lim berishni juda muqaddas ekanligi haqida ko'p marotaba ta'kidlaydilar. Ta'lim berish birinchi navbatda har doim ta'lim oluvchilar va ularni rivojlanishiga qaratilmog'i lozim.

Pedagogik qobiliyat – bu o'qituvchining pedagogik faoliyatga xos bo'lgan zaruriy xususiyatlari majmuasidan iborat bo'lib, unda shu xususiyatlar negizida pedagogik faoliyat bilan mohirona shug'ullana olishlik layoqatining shakllanganligining muayyan darajasidir.

Pedagogik mahorat – ta'lim beruvchining ustoz – murabbiylik fazilatlarini, o'qituvchilik kasbining sirlarini chuqur egallaganligi, insoniylik va iste'dodi hamda intellektual salohiyati va shu kabilar asosida undagi kasbiy ta'lim, tushuncha, ko'nikma va malakalarning mukammal shakllangan kasbiy faoliyati.

Pedagogik mahoratdan ko'zlangan **maqsad** darsning sifati va samaradorligini oshirishdan iborat bo'lib, u ta'lim beruvchining kasbiy – ijodiy faoliyatidir. Bunda ta'lim beruvchining mahorati ta'lim oluvchilar ichida kimga nimadir tushunarsiz bo'lganligini tezda (o'z vaqtida) ilg'ay olish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.

Pedagogik mahoratlik o'qituvchida kamida quyidagi qobiliyatlar mujassam bo'lmog'i lozim:

- o'qituvchi dars materialini aniq va ravshan bayon qila olishi kerak;
- o'qituvchi o'z ta'lim oluvchilarini iloji boricha o'rganilayotgan mavzu bo'yicha bir xil fikrga keltira olishi kerak;
- o'qituvchi mavzu mohiyatini to'liq ochib bera olishi kerak va kerak bo'lganda ularga bu mavzuning o'z kasbiy faoliyatidagi o'rni va roli haqida tushuncha bera olishi kerak;
- dars davomida befarq holda qatnashayotgan ta'lim oluvchini tezda dars mazmunini o'rganishga jalb qila olishi kerak;
- o'qituvchining darsni yana davom ettirishini xohlovchi ta'lim oluvchilar soni auditoriyadagi jami ta'lim oluvchilarning qancha qismini tashkil etishini baholab berish va bu orqali o'z dars o'tish texnologiyasini takomillashtirib borish imkoniyatiga ega bo'lish;
- o'qituvchining dars maqsadiga erishganligini baholay bilishi va xulosalash qobiliyati.

O'qituvchining pedagogik mahorati tajribasida va uning natijasida ta'lim metodlari samaradorligi oshishi yo'llari asosiy e'tiborda bo'ladi va ular ta'lim jarayoniga nisbatan turli usul, tamoyil, yondashuv va qarorlar hamda pedagogik qobiliyatlari yordamida amalga oshiriladi. O'qituvchi dars berish san'atini mukammal egallagan, o'zidagi bilim ko'nikmalarni o'quvchilarga yaxshi yetkazib berish bilan birga, O'zbekistonning ravnaqi, ertangi kuniga bo'lgan ishonchi, jamiyatimizning munosib fuqarosi bo'lishi uchun nimalar qilish kerakligini ko'rsatuvchi ko'zgu bo'lib xizmat qilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. B.Madrimov. O‘zbek musiqasi tarixi. –T., 2018.
2. XX asr o‘zbek adabiyoti. Darslik. T., 1995.
3. Jabborov A. O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari –T., 2004.
4. Begmatov S. Bastakorlar ijodi. –T.: 2017.

Elektron saytlar

1. ziyonet.uz
2. <https://www.booksite.ru>

MUSIQANING INSON FAOLIYATI VA HIS-TUYG‘ULARIGA TA’SIRI

Sharipov Jahongir Murod o‘g‘li

*Navoiy davlat pedagogika instituti “Musiqqa ta’limi va san’at”
yo‘nalishi 2-kurs magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqqa va san’atning yurtimizda qanchalik darajada keng ko‘lamda rivojlanib borayotgani haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Istiqloq, Vatan, musiqqa, san’at, madaniyat.

Musiqqa san’ati g‘oyaviy va estetik tarbiyaning muhim omili bo‘lib, u garmonik rivojlangan shaxsning kamolotga yetishi uchun unga ta’sir etuvchi muhim jarayon hisoblanadi va o‘ziga kelayotgan yosh avlod qalbida nafosat hissini tarbiyalaydi. Shuning uchun musiqqa tarbiyasi nafosat tarbiyasi ham hisoblanadi. Nafosatli kishi hech qachon yomon niyat qila olmaydi va yomon niyatdagi yot g‘oyalarga asir bo‘lmaydi.

Musiqqa kishilar ehtiyojini qondirar ekan, ularning ongini shakllantirishga ko‘maklashadi, his – tuyg‘ularini boyitadi, shaxsdagi ijtimoiy xususiyatlarni tarbiyalashda katta yordam beradi. Bolalikda erishilmagan narsaga kamolot yoshida erishish qiyin bo‘ladi. Katta yoshli kishining hayoti, uning atrofdagi voqelikka munosabati, ko‘p jihatdan bolalikda olgan tarbiyaga borib taqaladi. Musiqqa ta’limi va tarbiyasining muvaffaqiyati boshlang‘ich sinflardan boshlab musiqqa darslarining qay darajada tashkil etilganligiga bog‘liqdir. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarda nafosat hissini shakllantirishi uchun ularda musiqqa nisbatan estetik zavq uyg‘ota bilishi kerak. Buning uchun avvalo o‘qituvchining o‘zi musiqiy bilimga ega bo‘lishi bilan bir vaqtda pedagogikani, bolalar psixologiyasini yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lishi, keng dunyoqarashga ega bo‘lishi hamda mustahkam g‘oyaviy ta’limotga suyangan holda ishni tashkil eta olish qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur.

Bola shaxsining shakllanishi jarayonida uning estetik madaniyatini har tomonlama rivojlantirish o‘qituvchidan jiddiy mas’uliyatni talab qiladi. Chunki boshlang‘ich sinfdagi musiqqa tarbiyasi bolaning mehnatga, Vatanga va burchga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi, tarbiyalaydi hamda uning butun hayoti mobaynida unga hamroh bo‘lib boradi.

Bolalarni tarbiyalash va ularning shaxsini har tomonlama kamol toptirish bo‘yicha maktablar zimmasiga yuklangan vazifalar o‘quvchilarda barcha qobiliyatlarni o‘stirishda, ijodiy intilishni vujudga keltirishda, ularning yangi hayot qurishda faol qatnashishga tayyorlashning samarali yo‘llarini izlab topishni taqozo qiladi. Jamiyatimizda oila, maktab va jamoatchilik oldida bolalarda hayotga ijodiy munosabatda bo‘lish qobiliyatini tarkib toptirish vazifasi qo‘yilgan. Shuning uchun ham bizda musiqqa alohida tarbiyaviy ahamiyatga ega. Musiqqa san’atining eng muhim qismi o‘quvchilarga keng hissiyot dunyosini, o‘zlarini qurshab

turgan hayotni va zamondoshimiz ko'zi bilan o'tmishni yaqqol gavdalandirib berish mumkin. Ana shu sababli ularda musiqaga qiziqish uyg'otish, musiqa asarlari tilining ayrim xususiyatlarini tushuntirishga intilishni vujudga keltirish, musiqaviy didni tarbiyalash va fikr doirasining kengaytirish juda muhim vazifa bo'lib, bu vazifani amalgam oshirish uchun ularni bastakorlarning asarlari bilan muntazam ravishda va maqsadga muvofiq holda tanishtirib borish lozim. Shundagina kishi ruhiga his-hayajonli ta'sir ko'rsatadigan musiqa san'atining bir turi sifatida yosh avlodning ma'naviy qiyofasini shakllantirishda amaliy yordam beradi.

Xalqimiz yaratgan durdonalarning biri hisoblangan musiqa har sohada, chunonchi, ta'lim-tarbiyada, mehnatda va ijtimoiy munosabatda ma'lum darajada o'z ifodasini topadi. Murg'ak go'dakdan tortib to nuroniy qariyalargacha, san'at ne'matlaridan bahramand bo'ladi, ertangi kunning yanada porloq bo'lishi uchun kurashadi. Shunday ekan, musiqa ongli faoliyat, samarali mehnat, samimiy munosabat hamda mo'tadil kayfiyat garovi bo'la oladi. Musiqa kundalik hayotimizda qanchalik singib borsa, hayotimiz shunchalik zavqli va mazmunli o'tadi.

Yosh avlodga ziyo tarqatishdek mas'uliyatli vazifani amalga oshirishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ygan har bir o'qituvchi, qaysi fandan dars berishidan qat'iy nazar bu yagona maqsadni amalga oshirishda mas'uldirlar. Musiqa madaniyati o'qituvchisining o'zni o'quvchilarni yangi maqsadga birlashtirishda va ijtimoiy hamkorlik samaralarini ularning ongiga singdirib borishda alohida ahamiyatlidir. Hech qanday fan o'quvchilar jamoasini musiqa darsi singari birlashtira olmaydi. Zero, musiqa hamjihatlikni talab qiladi. Xususan, birgalikda qo'shiq kuylash barcha o'quvchilarning diqqat-e'tiborini bir nuqtaga jamlash, birgalikda nafas olish, ijroni bir kishiday boshlash, uni davom ettirish va birgalikda tugatishdek murakkab mexanizmga bo'ysunishini talab qiladi.

Musiqa darslari barcha faoliyat turlarini musiqa tinglash, kuylash, musiqa savodini o'rganish, raqs va ritmik harakatlarni bajarish, chapak va cholg'u asboblarini chalish, musiqa ijodkorligini muayyan mavzu zamirida mantiqan o'zaro bog'laydi va o'quvchiga beriladigan g'oyani o'quvchilar ongiga singdirish vazifasini bajaradi. Hozirgi kun pedagogikasi talablariga ko'ra, o'quvchilarga singdirish mumkin g'oyani to'g'ridan-to'g'ri o'qituvchining ko'rsatganidek, faqat tinglovchi sifatida qabul qilib olmasligi, balki sinfdoshlari va o'qituvchi hamkorligida uni tahlil qilib olish, boshqalar bilan bo'ladigan muloqot va munozaralarda bu g'oyaning qay darajada to'g'ri, hayotiy ekanligini aniqlab, ishonch hosil qilish, uning turli qirralarini tahlildan o'tkazib tashbehnlarni sintez qilgan holda o'zining mustaqil xulosasini chiqara olishi lozim bo'ladi. Bunday oshkora tahlil chig'irig'idan o'tib hayotiyligi isbotlangan fikrlar, g'oyalar o'quvchining ishonchi va e'tiqodiga zamin bo'ladi. Oquvchilar dars jarayonida ijtimoiy hamkorlikni amalga oshirar ekanlar, unda ularning musiqiy bilimi, malaka-konikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan barcha axborotlar tizimini ishga tushirish zarur bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ibragimova G. Interfaol metodlar orqali bo'lajak o'qituvchilarning ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish //Fanning dolzarb muammolari yosh olimlar nigohida// Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi. – T., 2012. – B. 173-175.

2. Пыина Ye. R. Muzikalno-pedagogicheskiy praktikum: uchebnoe posobie dlya studentov vuzov i prepodavateley// Ye. R. Пыина. – M.: Akademicheskii proekt; Alma Mater, 2008. – 416 s.

3. Kiyamov N.S. Musiqiy ta'limga oid darsliklarning pedagogik mazmuni va ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'zni // SamDU Ilmiy tadqiqot axborotnomasi jurnali. – Samarqand, 2015.

4. Kiyamov N.S. Talabalarda musiqa madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari. Monografiya – T., Tafakkur, 2012. -215 b.

IQTIDORLI YOSHLARNI ANIQLASH VA ULARNI MA'NAVIY-ESTETIK TARBIYALASH IMKONIYATLARI

Ochilova Nargiza G'aybullayevna

Musiqa madaniyati fakulteti o'quv ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtidorli yoshlarni aniqlash masalalariga doir pedagog olimlarning ishlari taxliliy o'rganilgan. Iqtidorli yoshlarni aniqlash hozirgi kunda ta'lim-tarbiya jarayonidagi muhim muammoli mavzulardan biri ekanligi to'g'risida, ma'naviyatni yuksaltirish-avvalambor yoshlarning iymon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan iqtidorli insonlar qilib tarbiyalash, ularning tafakkurida o'zligini unutmaslik, ota-bobolarning muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmat qilish fazilatlarini qaror toptirishga qaratilgan fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlari: Vatan, Ilm-fan, madaniyat, pedagogika, Iqtidor, yoshlar, ma'naviyat, iymon-e'tiqod, taxlil, Al-Farobiy, Fozil odamlar.

Yurtimizda yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini mustahkamlash, ularning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorligini oshirish borasida ulkan ishlar olib borilmoqda. Zero, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg'ayrat, iqtidorli yoshlarni tarbiyalash bugunning eng muhim vazifalaridan biridir.

Iqtidor – inson ruhiyatining butun hayoti davomida tizimli rivojlanadigan psixikaning imkoniyati bo'lib, insonning boshqalarga nisbatan noan'anaviy va favqulodda natijalarga erishishini ta'minlaydi. Iqtidor insonning barcha imkoniyatlarini va fikrlashini hayotning yangi talablarini hal qilishga va yangi sharoitlarga moslashishga yo'naltiradi. Har bir bola iqtidor egasi bo'lib tug'iladi. Bu iqtidorni yuzaga chiqarish faqat alohida shaxs uchun emas, balki jamiyat va uning taraqqiyoti uchun zarurdir. SHuning uchun zamonaviy malakali pedagoglarga qo'yiladigan asosiy talablardan biri iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, iqtidorni kerakli yo'nalishda rivojlantirish uchun ijodiy yondashish va uni yuzaga chiqarish uchun zarur shartsharoitni yaratish, o'quvchi yoshlar ruhiyatini tushuna olish va malakali yordam bera olishdir.

Iqtidorli yoshlar deganda avvalo xar tomonlama yetuk sog'lom farzandlarni tushunamiz. Shu bois o'tgan yillar mobaynida yoshlarimizda nafaqat yuksak intellektual salohiyat, mustaqil fikr, keng dunyoqarashni shakllantirishga, balki ularni jismonan chiniqtirishga, ommaviy sportni rivojlantirishga, mamlakatimizning barcha hududlarida, hususan, chekka qishloqlarida ham zamonaviy sport majmualari bunyod etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Iqtidorli yoshlarni tarbiyalash insoniyatning eng yorqin orzusi bo'lib kelgan. Bunday orzudagi insonlar azaliy ma'rifatga, madaniyatga mansub bo'lgan yurtlarning donishmandlari – eng mo'tabar ziyolilari, hukmdorlari hisoblanganlar. Ularning orasida O'zbekiston deb atalmish muazzam zaminimizda yashagan bobolarimizning o'z o'zni, hurmati bor. Bu jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilingan haqiqatdir. Iqtidorli yoshlarni tarbiyalash orzusiga o'z tariximizdan

ko'p dalillar keltirishimiz mumkin. Al-Farobiyning-Fozil odamlar shahril asarida jamiyatning har bir fuqarosi – mansabi, tutgan o'rni, ya'ni kim bo'lishidan qat'i nazar, fozil kishi, fozil inson o'z davlatining barcha qonun – qoidalarini yaxshi biladi, unga amal qiladi, fikrlaydi, o'z kasbining ustasi, lozim bo'lganda Vatani uchun jon fido qiladi. Fozillar shahri aholisi bir-biriga hurmatda bo'ladi. Ota-ona va farzand, ustozu shogird o'rtasida sharqona nazokat, mehr va ehtirom bo'ladi. Avvalo, bunday fikr yuritishning o'zi bobolarning ma'naviy darajasi naqadar yuksak bo'lganligini va albatta, bunday fikr aytish bu borada ko'p asrlik meroslarni o'rganish natijasida vujudga kelishini ta'kidlash joiz.

Shunday ekan, zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda yoshlarni bilimli, kuchli, sog'lom, irodali va dunyoning barcha yoshlari bilan bimalol bellasha oladigan qilib o'qitish va tarbiyalash lozim. Hozirgi kunda yoshlar har tomonlama etuk, raqobatbardosh kadr bo'lib etishishida o'z mutaxassisliklaridan tashqari zamonaviy axborot texnologiyalaridan erkin foydalanishlari hamda chet tillarini mukammal o'rganishlari lozim. Mutaxassisliklariga doir masalalarni kompyuter yordamida echish usullarini bilishlari va amaliy dasturlardan keng foydalana olishlari kerak. Biz ertaga jahonda o'z so'zimizni aytishimiz uchun ham bu zarur. Inson ma'naviyatini yuksaltirmasdan turib, hamda mamlakatimiz taraqqiyotida muvaffaqiyatlarga erishish qiyin. Ma'naviy erkin va ozod xalq teran va komil tafakkur tufayli har sohada katta yutuqlarga erishishi mumkin. Boshqacha aytganda, ma'naviy sog'lom, kuchli jamiyatgina islohotlarga tayyor bo'lishi mumkin. Qadimda ham biror mamlakatni bosib olishni ko'zlaganlar avvalo, uning ma'naviyatini yo'q qilishga uringanlar. Chunki, ma'naviyati yo'q xalq o'z-o'zidan ma'naviy qashshoq, qaram bo'lib qoladi. Erk sevar xalqimiz mustaqillik tufayli o'z yeri, o'z tili, o'z diniga ega bo'ldi, milliy g'ururi, izzat obro'si tiklanib, endilikda qadriyatlarimiz, ma'naviy merosimizdan bahramand bo'lmoqdamiz.

Buyuk ajdodlarimiz ma'naviy-ruhiy kamolotga erishishni, doimo ogoh va hushyor yashashni, Vatan, el-yurt sha'ni, tinchligi uchun hatto jon fido etishni hayotining mazmuni deb bilgan. Avlodlarini ham ana shu ezgu amallar ruhida tarbiyalashga intilgan. Bu an'analar dunyo manzaralari kun sayin o'zgarib, tinchlik-totuvlikka tahdidlar tobora kuchayayotgan bugungi davrda yanada dolzarblik kasb etmoqda. Yoshlarning ta'lim-shu bois mamlakatimizda yoshlarning puxta ta'lim-tarbiya olishi uchun qulay sharoit yaratish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki jamiyatimiz osoyishtaligi, mamlakatimiz taraqqiyotiga raxna solmoqchi bo'lganlar ko'p hollarda yoshlarni o'z tomoniga og'dirishga harakat qiladi. Shu bois yigit-qizlarning turli g'arazniyatli guruhlariga qo'shilib qolishining oldini olish, bunday kuchlarga qarshi kurashish, ularning ma'naviyatini yuksaltirish borasida izchilishlar olib borilmoqda.¹

Ma'naviyatni yuksaltirish-avvalambor, yoshlarning iymon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan iqtidorli insonlar qilib tarbiyalash, ularning tafakkurida o'zligini unutmaslik, ota-bobolarning muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmat qilish fazilatlarini qaror toptirish, ularning men o'zbek farzandiman deb g'urur va iftixor bilan yashashga erishishdir. Ma'naviyatli va e'tiqodli kishilar o'z maslagi, vatani uchun jonini fido qilishga ham tayyordirlar. O'zbek nomini, o'zbek ilm-fani va madaniyatini, bir so'z bilan aytganda, xalqimiz yuksak salohiyatini, uning qanday buyuk ishlarga qodir ekanligini butun dunyoga namoyish qilish albatta biz yoshlarning qo'lida. Shunday ekan, yurtimizda hukm surayotgan tinch va osuda hayotni asrash, uning mustaqilligi va barqarorligiga munosib hissamizni qo'shish – har birimizning, shu aziz Vatanda yashayotgan barcha yoshlarning, eng asosiy vazifalaridan bo'lib qolmog'i lozim. Faxr bilan aytish joizki, ko'plab yoshlarimiz o'zlarining intellektual salohiyati bilan xalqaro olimpiadalar,

sport musobaqalari, qolaversa, barcha sohalarda katta muvaffaqiyatlarga erishib, yurtimiz bayrog'ini, Vatanimiz sharafini himoya qilib kelayotganligi barchamizni dildan quvontiradi.

Iqtidorli yoshlarni jismonan va ruhan sog'lom, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularni kelajagimizning munosib vorislari etib voyaga etkazishga ko'maklashish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Yosh avlodni mustaqil va ijodiy fikrlashga va ijodkorlikka o'rgatish istiqlol davri o'zbek pedagogikasining eng dolzarb vazifalaridan biridir. Shunga monand tarzda ta'lim oluvchi o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatishning yangi va samarali yo'llarini izlab topish faqat o'qitish metodikasi sohasi taraqqiyoti uchun emas, balki barkamol shaxs tarbiyasini. Kundalik darajada ijodkorlik o'zini zukkolik bilan namoyon qiladi. Maqsadga erishish, atrof-muhit, obyektlar va sharoitlardan g'ayrioddiy tarzda foydalanib, umidsiz vaziyatdan chiqish yo'lini topish. Kengroq qilib aytganda, muammoning ahamiyatsiz va mohirona yechimi. Bundan tashqari, qoida tariqasida, kamdan-kam va maxsus bo'lmagan vositalar yoki resurslar bilan, agar material bo'lsa nostandart, muammoni hal qilish yoki nodavlat tekislikdagi ehtiyojni qondirish uchun shtamplanmagan yondashuv deb ataladi.¹

Ijod-ijtimoiy subyektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olingan faoliyati yoki faoliyati natijasi hisoblanadi.

Ijodkorlik-muayyan yangilikning ahamiyati va foydali ekanligini belgilovchi shaxs faoliyati va uning natijasi.

Ijodkor shaxs-ijodiy jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan hamda aniq ijodiy natija (mahsulot)larga ega shaxs.

Ijod, ijodkorlik, ijodkor shaxs haqida so'z borar ekan bunda kreativlikka ham alohida to'xtalib o'tish joiz. Chunki ijodkorlik va kreativlik bir-biri bilan chambarchas bog'liq.

Kreativlik-individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi.

Yuksak ma'naviyat, madaniyat axloqiy sifatlarga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalash muammosi siyosiy, fuqorolik va ma'naviy-madaniy sohalarda islohatlar jadallik bilan amalga oshirilayotgan bugungi kunda, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda ro'y berayotgan o'zgarishlar barcha sohalardagi kabi musiqa o'qituvchilarining zimmasiga ham katta vazifalar yuklaydi. Bu omil umumta'lim maktablari, ayniqsa maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan ta'lim jarayonida alohida e'tibor qaratish lozimligidan dalolat beradi.

Bir so'z bilan aytganda, yurtimizning yorqin kelajagi va xalqimizning umidu ishonchi iqtidorli qora ko'zlarimizga bog'liq. O'z navbatida, kelajagimiz egalari ham yaratilayotgan keng imkoniyatlardan foydalangan holda, mukammal bilim olish va kasb-hunar egallash, shuningdek, xalqimizning orzu-istaklarini amaliy ishlar bilan ro'yobga chiqarishni o'z oldiga maqsad qilishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.Shermurotov "Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashdagi muammolar va ularning echimlari"
2. K.Shaydullaeva "Iqtidorli yoshlarni aniqlash"

3. Muminova Muqaddas Riskulovna Development And Current Status Of Uzbek Pop Music In Modern Approaches And Innovations Of Teaching The Science Of Music Culture International Journal of Advanced Science and Technology Vol. 29, No. 8, (2020) <https://t.me/joinchat/> - Music teacher, <https://infourok.ru> - music lessons

4. Muminova Muqaddas Riskulovna *International Journal of Mechanical Engineering*. The Innovative Technologies Of Teaching In Musical Edukational Establishments 1764-1767- betlar. 2022- йил.

5. Muminova Muqaddas Riskulovna Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. THE ROLE OF SPORT ACTIVITIES, GAMES AND COMPETITIONS IN THE NURTURE OF 6-7 YEARS OLD CHILDREN <https://uzjournals.edu.uz/tziuj68-78betlar> 2022

6. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlarda pedagog kreativligi. “Yangilanayotgan O‘zbekistonda fan, ta’lim va innovatsiya uyg‘unligi” mavzusidagi 6-son 2-qism Respublika ko‘p tarmoqli ilmiy konferensiyasi VIII bo‘lim Toshkent 2021. 677 bet. Udk. 001.895 (575.1).

7. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlar o‘qituvchisining kreativligi. Педагогические и лингвопсихологические особенности развития, формирования и становления личности врача. Сборник тезисов Международная конференции. СамГМИ, Самарканд 5 мая 2021 год

8. Urinova S.Sh. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishning nazariy asoslari. “The best innovator in science” xalqaro maqolalar tanlovi to‘plami. Organized by Innovative Academy. Tashkent February 5, 2022. Pg 811. <https://zenodo.org/record/5979621#.YpC2PKhBxD8>

O‘QUVCHI YOSHLARNING ESTETIK KAMOLOTIDA O‘ZBEK MUMTOZ MUSIQASINING O‘RNI VA AHAMIYATI.

*Qudratov I. O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti
Hamroqulov N. O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti katta o‘qituvchisi.*

Annotatsiya. Maqolada umumta’lim maktablarining musiqa madaniyati fani o‘quvchilarini o‘zbek mumtoz musiqasi bilan yaqindan tanishtirib borish orqali ularni milliy madaniyatimiz va ma’naviy–musiqiy qadriyatlarimizga hurmat ruhida estetik tarbiyalash imkoniyatlari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Musiqa, san’at, tarbiya, kitch, starizm, milliy, estetika, ijodkorlik, immunitet.

Bugungi kunda kelajagimiz bunyodkorlarini har jihatdan yetuk insonlar qilib tarbiyalash mamlakatimiz rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlaridandir. Shaxsning ma’naviy barkamol bo‘lib yetishishida xalq musiqasi, uning eng mukammal va mumtozlik kasb etuvchi, xalqimizning eng muhim qadriyatlaridan bo‘lmish an’anaviy va maqom musiqasining o‘rni benihoya kattadir. Bugungi kunda dunyo miqiyosida globallashuv jarayonlari g‘oyat keskin tus olgan sharoitda g‘oyav-iy estetik immunitetni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mexanizmlarning “Pop art”, “Pop musiqa”, “Kitch”, “Starizm” kabi deviantlik holatlarini oldini olishga qaratilgan. Milliy qadriyatlarimizni yanada yuqoriroq darajada targ‘ibot qilish ta’lim tizimining barcha bosqichlarida milliy xalq musiqasi, ananaviy va maqom ohanglarin yoshlqr ongiga singdirib borish, estetik tarbiyaning pedagogik imkoniyatlari, zamonaviy

texnologiyalaridan samarali foydalanish zarurati yuzaga keltirmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrda “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora -tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ham mazkur faoliyatga tegishliligi bilan ahamiyatlidir.

Xalq musiqa ijodiyotini odamlarning hayoti va mehnatining barcha sohalarini badiiy aks ettirish vositasi sifatida idrok etsak, uning kishilarga ruhiy quvonch, estetik ta’sirini quyidagicha izohlash mumkin:

1. Musiqa odamlarga estetik ta’sir ko‘rsatadi;
2. Kishilarni muayyan faoliyatga jalb qilish, jamiyatni ijtimoiy o‘zgartirishga rag‘batlantirishdan iboratdir.

Xalqimiz o‘zining ko‘p yillik tarixida tarkib topgan musiqa ijrochiligining o‘ziga xos shakllari, usullari shakllangan. Shu jarayonda xalq musiqasi tarkibida eng ommaviy va xalqchil bo‘lgan qo‘shiqchilik san’ati bilan bir vaqtda an’anaviy xonandalik maktabi shakllanib keldi. An’anaviy xonandalik va qo‘shiqchilik san’atining bir- biridan farqli jihatlari shundaki, xalq musiqa ijodining noyob shakli hisoblanmish an’anaviy xonandalik yo‘nalishida og‘zaki an’anadagi mumtoz musiqa namunalari mumtoz ashula, katta ashula, maqom ijrochiligi o‘rin olganligi e’tirof etilgan.

Mumtoz ashulachilik – lirik xarakterdagi rivojlangan kuy va shaklga ega bo‘lgan yirik aytim. Ashula- bu mumtoz musiqaning kuy rivojining vazmin xarakteri, hayajonli, dardli mazmuni, diapazonining kengligi, ritmik usulning murakkabligi va ijro etish uslubining mukammalligi bilan ajralib turadi. Mumtoz ashulalar asosan, mumtoz shoirlar she’r va g‘azallariga bastalangan kuyla bilan ijro etib kelingan. Falsafiy ma’noga ega bo‘lgan ishqiy-lirik, ayrim hollarda nasihatgo‘y, shuningdek, ayriliq va hasratli mazmuni ifodalovchi mavzu ashulaga xos xususiyatdir.

Ta’lim jarayonida o‘quvchi yoshlarni o‘zbek an’anaviy mumtoz musiqa namunalari. Ijrochilik sirlari, shakl, usullari bilan yaqindan tanishtirib borish musiqa ta’limini milliy negizda shakllantirish bilan bir vaqtda yoshlarda hozirgi hayotimizga kirib kelayotgan g‘oyasiz, oldi-qochdi so‘zlar, ma’no va mazmunsiz ommaviy musiqalarga qarshi immunitetni shakllantirishda g‘oyat katta ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

Mumtoz musiqa bilan o‘quvchi-yoshlarni tanishib borish, namunalarni tinglash va tahlil qilish, mashhur ashulachi hofizlar, mohir cholg‘uchilar ijrosidagi kuy-qo‘shiqlar ta’sirida o‘quvchilarda quyidagi bilim va malakalarni egallab borishlariga imkoniyat yaratiladi:

1. O‘zbek mumtoz kuy va ashularini xalq musiqasining boshqa tur va shakllaridan farqli xususiyatlarini anglash, tushunish.

2. Mumtoz musiqa asarlarining tuzilishi, ijro etilishi, ijroda qanday musiqiy ijrochilik malakasi va talablari imkoniyatiga ega bo‘lishlik.

3. Mumtoz musiqa asarlariga xos bo‘lgan nola, qochirim, sito, salmoqlash kabi milliy bezaklarni ishlatilishi, ijroda ularni badiiy ifodalanishi.

4. Ijroda she’riy matn hamda kuy (ohang)ning o‘zaro mutanosibligini sezish, his qilish.

5. Turli murakkablik darajasidagi mumtoz asarlarni tinglash, tahlil qilish, unga o‘z munosabatini bildira olish malakasiga ega bo‘lish.

Umumta’lim maktablarida musiqa madaniyati darslarini olib boruvchi o‘qituvchilar shuni yaxshi bilishi va o‘zining kasbiy faoliyati uchun zarur malakaviy tayyorgarlikka ega bo‘lishlari, ya’ni o‘zlarining shu tarzda ijrochilikga tayyorlab borishlar, maktabda sinf dasturiga o‘zbek xalq musiqasi bilan birga mumtozlik kasb etuvchi namunalarga ham keng o‘rin

berilganli o'quvchilar bilan mumtoz musiqa namunalarini o'rganish (tinglash, ayrim yengil namunalarni kuylash, tahlil qilish) bo'yicha asosiy vazifalarni quyidagicha belgilash mumkin:

1.O'quvchilarni mumtoz musiqaga qiziqishi, uni tinglash, kuylashga bo'lgan ehtiyoji va munosabatini o'rganish.

2.O'quvchilarda o'zbek mumtoz musiqasining cholg'u kuylari va ashularini tinglash va kuylashga bo'lgan qiziqishini paydo qilish, kuchaytirish va uni barqaror ehtiyoj darajasiga ko'tarish imkoniyatlarini qidirish.

3.Mumtoz asarlar bilan ish olib borishning samarali usul, vosita, texnologiyalaridan unumli foydalanish.

4.O'quvchilarni musiqiy didini, tasavvur qilish, sezish, (his qilish) layoqatlarini muntazam rivojlantirish imkonini beruvchi kreativ usullarda foydalanib ish tutish.

5.Bolalar bilim darajalari va ovoz imkoniyatlariga mos kuy-qo'shiqlar, repertuarini shakllantirish.

6.Mashg'ulotlar jarayonida ko'rgazmali va texnik vositalaridan (nota matni yozilgan plakat, musiqa yozuvi bo'lgan disk, audio, video tasvirlar.) unumli foydalanish.

O'quvchilarning yuksak badiiy qimmatga ijod namunasi bo'lgan an'anaviy kuy-qo'shiqlarni muayyan darajada o'zlashtira olishlari ko'p jihatdan musiqa o'qituvchisining pedagogik mahorati, tajribasi va darslarni metodik jihatdan to'g'ri, qiziqarli tashkil qilishga bog'liq bo'ladi. An'anaviy musiqa asarlarini o'zlashtirish, ularni ijro uslublariga muvofiq qayta-qayta tinglash va takrorlash orqali amalga oshirilishi mumkin.

An'anaviy musiqa asarlarini o'zlashtirish jarayonida ularning mualliflarini hayoti va ijodiga oid materiallar bilan tanishtirish, asar yaratilgan davr, asarning g'oyaviy-badiiy mazmuni, unda ioda etilgan muallif ichki kechinmalarini qay darajada o'z ifodasini topganligiga, asarni musiqiy-nazariy tahliliga oid ma'lumotlar berib borishni unutmaslik zarur.

To'g'ri tanlangan musiqa asari, uning o'quvchilar ijro malaka va ko'nikmalariga, musiqiy did va ovoz imkoniyatlariga mosligiga jiddiy e'tibor berish, asarlarni bevosita o'rganishda hozirda iste'molda bo'lmagan, boshqa tillardan kirib kelgan so'zlarni asl ma'nolari sharhlash, yakka va jamoa bo'lib kuylashning o'ziga xos xususiyatlaridan o'quvchilarni xabardor qilib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, ashula matnini to'g'ri talaffuz qilish, kuylashni birdan boshlash va tugallash, ritmni his qilish, ansambllikka rioya etish, pastki va yuqori registrlarda ovozni bir tekis yangrashiga erishish, ansamblda kuylash, avjli pardalarda ovozni qattiq qichqirmasdan (faltset) kuylashga erishish kabilarga doimiy ravishda e'tibor berib borish lozim.

An'anaviy musiqa ijrochiligi bo'yicha darslarni shu yo'sinda tashkil etilishi va olib borilishi natijasida o'quvchilarning mumtoz va maqom namunalari haqidagi nazariy bilim va amaliy ijro etish malakalarini dinamik rivolanishi ta'minlanadi.

Bular quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- mumtoz musiqa asarlarining boshqa musiqa janrlarida farqli xususiyatlaridan xabardorligi;

-mumtoz musiqa asarlarining aksariyati mumtoz shoirlari she'r va g'azallariga bastalanishi hamda mumtoz shoirlar hayoti va ijodi bilan muayyan darajada xabardorligi;

-mumtoz asarlarda uchraydigan notanish so'zlar ma'nolarini bilishlari;

-mumtoz kuy-ashulalarni mohir ijrochilari, ularning ijro usblari, asar jozibasini ta'minlashdagi ovoz va ijrochilik mahorati, shuningdek, asar g'oyaviy-badiiy mazmuni, voqea-hodisa, obrazlar haqida fikr bildira olishlari;

-asardagi nola, qochirimlar, mavjud murakkabliklar, dinamik tuslar, ovoz tembrining asar ijrosiga ta'siri bo'yicha ma'lum tasavvurga ega bo'lishlari;

-umtoz musiqa kuy-ashulalar tiglash va kuylash bilan unga o'z munosabat bildira olish, tavsif berish ko'nikma va malakalarining shakllanganligi;

Aynan shu kabi xususiyatlari bilan o'zbek mumtoz va maqom namunolari bilan musiqa darslarida o'quvchilarni muntazam tanishtirib borish ularni o'z milliy madaniyati, ma'naviy-musiqiy qadriyatlariga muhabbat ruhida kamol topishlarini kafolatlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Obidov D. N. "O'zbek mumtoz musiqasining rivojlanish jarayonlari". T: Urganch, Xorazm 2018 y.

2. Fayzullayev E. "Bo'lajak musiqa o'qituvchilari badiiy didini shakllantirishda o'zbek mumtoz musiqasi imkoniyatlaridan foydalanish. T: Toshkent, Respublika ta'lim markazi 2008 y.

3. Xudayberganov S. An'anaviy xonandalik. T: Urganch, Xorazm 2019 y.

MUSIQA SAN'ATI TARBIYAVIY VOSITADIR

Voxidjon Qo'ziboev, Nizomiy nomidagi TDPU

"Musiq nazariyasi va metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi

Musiqa san'ati – o'quvchilarning ma'naviy, g'oyaviy va ahloqiy dunyosini har tomonlama takomillashtirish va shu bilan ularda oliyjanob fazilatlarini shakllantirishda muhim tarbiyaviy vositalardan biridir. Musiqa mazmuni – bu hayot taassurotlari, tovushlar orqali ifodalangan fikr va his-tuyg'ulardir.

Vatanimiz mustaqillikka erishgach ta'lim-tarbiyaning eng ta'sirli vositalaridan biri bo'lmish musiqa san'atiga jiddiy e'tibor berila boshlandi. Musiqiy ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish – yuksak maqsadlardan biri sifatida belgilandi. Mustaqillik davrida hamma sohalar kabi o'zbek xalq musiqa san'ati, madaniyati va uning targ'iboti zamon talabiga ko'ra tobora yuksalib, taraqqiyot yo'lida borayotganligi, sayqal topayotganligi hammamizga ayon. Jahon andozalariga mos tushadigan yangi yo'nalishdagi musiqa san'ati sezilarli darajada yuksaldi, ulg'aydi va baquvvatlandi. Ayni paytda, ustozlarning yangi yosh avlodi shakllanib borayotganligini nazarda tutsak, O'zbekistonda musiqa san'ati yangi sifat pog'onasiga ko'tarilayotganligini ta'kidlashimiz mumkin.

Bugungi kunda mustaqil O'zbekiston musiqa san'ati – ko'p janrli, mazmun jihatdan boy, o'z milliy harakteriga ko'ra zamonaviy san'atdir, shu bilan birga u o'tmishimizning mustahkam poydevoriga mahkam suyanadi. Hozirgi kunda Respublikamizda 300dan ortiq bolalar musiqa va san'at maktablarida, 20dan ziyod musiqa, madaniyat va san'at kollejlari, akademik litseylarida, O'zbekiston davlat konservatoriyasida, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutlarida ham bu jarayon davom etib kelmoqda. Toshkent davlat konservatoriyasiga - "O'zbekiston davlat konservatoriyasi", Toshkent davlat san'at va madaniyat institutlari negizida "O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti" qayta tashkil qilindi, ular jahon andozalari asosida yangidan maxsus binolar hamda zamonaviy jihozlar bilan ta'minlandi.

Bugungi kunda mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyev rahnamoligida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı ishlardan ko'zlangan maqsad bitta, u ham bo'lsa Yurtimizda

demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdan iboratdir. Mazkur keng qamrovli vazifani ado etishda Yurtboshimiz tomonidan ta'lim va ma'naviyat-ma'rifatga alohida e'tibor berilishi ham bejiz emas. Ta'lim va ma'naviyat-ma'rifat davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida e'lon qilinishi esa O'zbekistonda insonparvar jamiyat barpo etishga bo'lgan kafolat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev-mamlakatimizda hozirda bajarilayotgan hamda kelajakka rejalashtirilgan ulkan ishlarning, tarixiy o'zgarishlarning tashabbuskori va rahnamosidir, xususan:

- O'zbekiston davlatining hududiy yaxlitligini, sarhadlarimiz daxlsizligini himoya qilishga qodir Qurolli Kuchlar, Chegara va Ichki qo'shinlarni zamonaviy islohotlar asosida tashkil etish ishiga boshchilik qilmoqda;

- xalqimiz ma'naviy qadriyatlariga hurmat-ehtirom bilan munosabatda bo'lish, asrab-avaylash va rivojlantirish, muqaddas dinimizni, urf-odatlarimizni, bebaho tarixiy merosimizni hayotga qaytarishni davlat siyosati darajasiga ko'tardi;

- xalqaro maydonda O'zbekistonning obro'-e'tiborini yuksaltirish, o'zbek nomini butun dunyoga tarannum etishda buyuk xizmat qilmoqda;

- odamlarning tafakkurini o'zgartirish, ularning ongida yangi milliy g'oya, milliy mafkura asoslarini shakllantirish va mustahkamlash ishiga rahnamolik qilmoqda;

- yurtimizda tinchlik-osoyishtalikni, millatlar va fuqarolar o'rtasida totuvlik va hamjihatlikni qaror toptirish, uni saqlash hamda mustahkamlashga beqiyos hissa qo'shmoqda;

- mohiyat-e'tiboriga ko'ra, mutlaqo yangi ta'lim-tarbiya tizimi – Kadrlar tayyorlashning milliy dasturini yaratish va uni amalga oshirishda bevosita yetakchi bo'lib kelmoqda;

- mahallaning davlat va jamiyat boshqaruvidagi nufuzini oshirish, vakolat va huquqlarini kengaytirish, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish tizimi sifatida uni har tomonlama qo'llab-quvvatlash tashabbuskoridir;

- yurtimizning turar joylarida yangi qurilishlar, shu jumladan, ulug' ajdodlarimizning qadamjolarini obod qilish, iqtisodimizning salohiyatini oshirishda katta o'rin tutgan yiriq iqtisodiyirik korxonalarni bunyod etishda, ko'pgina shahar va qishloqlarimiz, avvalambor, poytaxtimiz Toshkentning shakl-qiyofasining tubdan o'zgarishida bevosita rahbarlik qilmoqda.

Bugungi kunning eng muhim vazifasi-hayotimizning barcha sohalarida, ayniqsa yoshlarda mustaqil fikrlashni shakllantirish, ularni yangicha fikrlaydigan, qiyin damlarda mas'uliyatni o'z zimmasiga ola biladigan, hayot bilan hamqadam yurishga qodir, imoni pok, bilimdon, ishbilamon o'rinbosarlarni tayyorlashimiz darkor.

Yoshlar bilan ishlash masalalari alohida e'tiborni talab qiladi. Biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga yetishiga, farzandlarimizning hayotga nechog'li faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak. Bizning bugungi mehnatimizga qanday baho berilishi ham ana shunga bog'liq.

Biz farzandlarimizning barkamol ruhiy dunyosi uchun ularning ma'naviy-ahloqiy jihatdan yetuk, jismonan sog'lom bo'lishi mustaqil fikrlashni shakllantirish uchun doimo qayg'urishimiz, kurashmog'imiz zarur.

Mamlakatimizdagi barqaror tinchlik, millatlar o'rtasidagi totuvlik va osoyishtalik, iqtisodiy islohotlar o'tkazishdagi izchillik buning yorqin dalilidir. Yoshlarimiz ongiga mana shu ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy islohotlar borasida yurgizilayotgan mustaqil davlatchilik

siyosatimiz moxiyatini yanada chuqurrok anglatishimiz kerak. Shu bois yoshlarning bilim olish imkoniyatini kengaytirish, milliy tiklanish g'oyasini amalga oshirishga qodir yangi avlodni komil inson qilib tarbiyalash eng muhim vazifalarimizdan biridir.

Darhaqiqat, xalqimiz, yoshlarimiz o'z tarixini, ota-bobosiyu, avlod-ajdodini bilmas ekan, xech kachon ma'naviy boy xalq bo'la olmaymiz. O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Tarixiy xotirasi bor inson - irodali inson. Kim bo'lishidan qat'iy nazar, jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarning yo'ldan urish, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni xushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi. Inson uchun - tarixdan judo bo'lish - hayotdan judo bo'lish demakdir. Modomiki, o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur.

Barkamol avlodni yetishtirishda, ularning qobiliyatlarini ochishda ta'lim tizimini yangilashda eng avvalo ta'limning keng demokratiklashtirilishini, insonparvarlashtirilishini, shuningdek, ta'lim tizimi taraqqiyot qonuniyatlariga javob bera olishiga erishish kerak. Bu o'z navbatida shaxsning ijtimoiy faolligi va shahdamligini oshirish uchun shart-sharoit yaratadi, mehnat va ta'lim-tarbiya xizmatlari bozoriga tayyorligini ta'minlaydi.

Kadrlar tayyorlashning bosh yo'nalishi – davlat, jamiyat va oila oldidagi mas'uliyatni anglab yetadigan, mustaqil fikrlay oladigan, o'z fikr va mulohazalarini himoya qila oladigan ozod shaxsni tarbiyalashga qaratilgandir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi har tomonlama puxta mulohaza qilinib, bosqichma-bosqich ro'yobga chiqarilmoqda. Dasturni ro'yobga chiqarish strategik maqsadga erishish demokratik jarayonlarning borishi, jamiyatni erkinlashtirish, mamlakatda yangi ijtimoiy-siyosiy muhit qaror toptirish bilan bevosita bog'liqdir.

PROFESSIONAL XOR JAMOASIDA XORMEYSTERNING ISHLASH XUSUSIYATLARI

*Nizomiy nomidagi TDPU 1-kurs talabasi **Rustamova Feruza**
Ilmiy rahbar Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti **Sh. N. Rahimov***

Alisher Navoiy nomidagi Davlat akademik katta teatr nafaqat O'zbekistondagi balki, Markaziy Osiyodagi yagona katta teatrlardan hisoblanadi. Bu teatr o'zbek xalqining faxri, o'zbek madaniyatining rivojini yanada yuksaltiruvchi dargohdir. Bu dargoh shunday boy tarixga egaki, bu tarix ana shu opera va balet teatrini butun dunyoga tanitishda hamda mashhur qilishda katta ahamiyatga ega bo'lgan. O'tgan sakson yil mobaynida teatr katta-katta yutuqlarga erishdi, tajriba darajasi shakllanib bordi, gumanistik prinsiplar shakllanib va rivojlanib bordi. Teatr o'ziga milliy va jahon klassik merosining durdonalarini qabul qildi, shu asosda o'zbek san'atining musiqaviy sahna ko'rinishlarini eng saralarini yaratdi.

Teatrning yaratilish tarixi 1920-yillardan boshlanadi va milliy madaniyatimizning yetuk san'atkori, O'zbekiston xalq artisti Muhiddin Qori Yoqubovning etnografik-konsertli ansambli bilan bog'liqdir. Muhiddin Qori Yoqubov buyuk san'at arbobi va iqtidorli tashkilotchi bo'lib, u Respublikaning turli go'shalariga sayohatlar uyushtirib, iqtidorli artistlarni to'playdi. Ularning professional o'sishi haqida qayg'urgan va milliy akademik teatr jamoasi tashkillashtirilishini asoschisidir. Usha davrlarda jamoaga yosh iqtidorlar qabul qilingan va ular kelajakda Respublikada xizmat ko'rsatgan va xalq artistlari, san'at arboblari, turli mukofotlar

sohiblariga aylanganlar. Bu dargohda turli davrlarda o`zbek san`atining eng ko`zga ko`ringan buyuk san`atkorlari ijod qilganlar. Tamaraxonim, Halima Nosirova, Gavhar Rahimova, Zuhur Qobulov, Boborahim Mirzayev, Lutfixonim Sarimsoqova, Usta Olim Komilov, Mukarrama Turg`unboyeva, Roziya Karimova, Karim Zokirov, Po`latjon Rahimov; dramaturglardan: G`ulom Zafari, Sharofiddin Xurshid, Komil Yashin; kompozitor va dirijorlardan: Muhtor Ashrafiy, Tolibjon Sodiqovlardir.

1929-yilda mana shu jamoa ijodkorlari bilan birgalikda O`zbek musiqali teatriga asos solindi va ko`p yillik rivojlanishlar natijasida bu jamoani bir butun mukammal jamoaga aylanishi, o`zida xoreografik va vokal san`atni, dramaturgik va ko`plab san`at turlarini namoyon eta olgan Alisher Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatriga aylandi. O`zbek musiqali teatrining birinchi direktori va badiiy rahbari Muhiddin Qori Yoqubov bo`lgan bo`lsa, raqs jamoasini esa Tamaraxonim boshqargan. Teatrning yosh iqtidorli jamoasi faqatgina respublika bo`ylab emas, balki, turli davlatlarda o`z chiqishlarini namoyon etganlar: Belgiya, Gollandiya, Fransiya, Angliya, Misr, Rossiya, Tatariston, Azarbayjon, Gruziya kabi qator davlatlarda o`zlarini yorqin artistik mahoratlari bilan lol qoldirganlar.

Teatr sahnasida namoyish etilgan olqishlarga sazovor bo`lgan eng birinchi milliy spektakllardan G.Zafariyning "Halima" musiqali dramasi, T.Jalilov va M.Ashrafiyning "Ichkarida" musiqali dramasi, shuningdek, buyuk shoir, mutafakkir Alisher Navoiyning dostonlari asosida V.Uspenskiyning "Farhod va Shirin", T.Sodiqov va N.Mironovning "Layli va Majnun" musiqali dramalaridir. Ana shu musiqali dramalar milliy opera va balet asarlarini yaratilishida asos bo`lib xizmat qildi. Har bir teatr mavsumi yangi-yangi g`oyalar olib kelardi va buning natijasida teatr jamoasi turli qiyinchiliklarni yengib o`tib, mashhurlik sari olg`a qadam tashladi.

1939-yil 11-iyun kuni M.Ashrafiy va S.Vasilenkoning teatrdagi qo`yilgan birinchi o`zbek operasi "Bo`ron", teatr tarixida yangi sahifalarni ochdi. Bu operani rejissor Emil Yungvald-Xilkevich ishlab chiqadi ya`ni postanovkalashtiradi va opera milliy madaniyatning yorqin namunasiga aylanadi. Operada bosh rollarni Karim Zokirov va Mihail Davidov, Norgul partiyasini Halima Nosirova, Shahodat Rahimova, Sara Samandarova va Nazira Ahmedovalar, general-gubernator rolini Muhiddin Qori Yoqubov ijro etishgan. Ana shu yilning o`zida kompozitor Fridrix Tal "Shohida" baletini yaratadi, Usta Olim Komilov va Mukarram Turg`unboyevalar bosh rollarni ijro etadilar. Ana shu yildan boshlab teatr katta mashhurlikka ega bo`la boshlaydi va O`zbek davlat opera va balet teatri deb atala boshladi.

1948-yili mart oyida teatrga o`zbek shoiri Alisher Navoiy nomi qo`shiladi. 1949-yili ikta o`zbek operasi va balet tomoshabinlarga taqdim etildi. R.Glier va T.Sodiqovning "Gulsara", T.Jalilov va B.Brovssinning "Tohir va Zuhra" operalari, G.Mushelning "Balerina" baletidir. 1950-yillardan boshlab teatr repertuari yangi milliy va jahon opera va balet spektakllari bilan to`ldiriladi. Birin-ketin sahnaga milliy spektakllar qo`yila boshlandi va tarixda o`zbek musiqa madaniyatining bosqichma-bosqich rivoj topishiga olib keldi. Shuningdek, B.Zeydman, T.Sodiqov, D.Zokirov va Y.Rajabiyning "Zaynab va Omon" operasi, I.Akbarovning "Orzu" baleti, D.Zokirov va B.Giyenkoning "Oynisa" baleti, A.Kozlovskiyning "Ulug`bek" operasini yangi ko`rinishi, ayniqsa, M.Ashrafiyning "Dilorom" operasi(5 fevral 1958 yil) va S.Yudakovning "Maysaraning ishi" (9 yanvar 1959 yil) komik operalari teatr repertuaridan beto`xtov o`rin egalladi va shu kunga qadar o`zbek opera musiqasining durdona asarlaridan hisoblanib kelinadi.

1950-yillarning ikkinchi yarimlaridan boshlab, teatr o`z bag`riga yosh artistlarni qabul qila boshladi va bu teatrning badiiy mavqeini oshishini ta`minladi. Teatr sahnasiga qadam

qo`ygan yosh yakkaxonlar ham birinchi yilning o`zidayoq ijodiy yutuqlarga erishdilar. Ularning orasida – xalq artistlar Saodat Qobulova, Sattor Yarashev; xizmat ko`rsatgan artistlar Oynisa va Rafat Kuchlikovlar, Lev Pinxasov, Robert Boruxov, Asad Azimov, Sason Benyaminov ; balet ustalari xalq artistlar – Galiya Izmaylova, Bernara Qoriyeva, Vitaliy Vasilyev, Ibrohim Yusupov; xizmat ko`rsatgan artistlar – Gulnora Mavayeva, Flora Kaydani, Klara Yusupova, Halima Komilova, Todor Popesku, Svetlana Kolivanova, So`nmas Burhonov, Rajab Tanguriyev, Boris Zavyalov. Teatrning katta yutuqlari va musiqa-sahnaviy san`atning rivoji sababli teatrga 1959-yili “Akademik”, 1966-yili esa “Katta” nomlanishlari berildi. Ana shu yildan boshlab, “Alisher navoiy nomidagi davlat akademik katta teatri” deb yuritilib kelinmoqda.

Teatr jamoasi haqida yozar ekanman, undagi dirijyorlarni ham sanab o`tsam: Davlat va xalqaro unvonlar sohibi, O`zbekiston xalq artisti Muhtor Ashrafiy; O`zbekiston xalq artisti Fazliddin Shamsuddinov; O`zbekiston xalq artisti, professor Abdug`ani Abduqayumov; Xizmat ko`rsatgan san`at arbobi Naum Goldman va Bahrom Inoyatov; O`zbekistondagi birinchi ayol dirijor, Xalq artisti, davlat mukofotlari sohibasi Dilbar Abdurahmonova, O`zbekiston xalq artisti Sulaymon Shodmonov; xizmat ko`rsatgan san`at arbobi, professor G`ani To`laganov, O`zbekiston xalq artisti Hamid Shamsuddinov. Ana shu sanab o`tilgan buyuk shaxslarning betinim mehnatlari va fidoiyligi natijasida teatr ulkan yutuqlarga erishgan va shu kungacha erishib kelmoqda.

Ana shu yillarda opera-balet sahnasida bir qator yorqin ijodkorlar O`zbekiston va Qoraqalpog`iston xalq artisti Muyassar Razzoqova, O`zbekiston xalq artistlari Avaz Rajabov, Rahmatjon Latipov, O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan va Qoraqalpog`iston xalq artistlari Kengesbay Serjanov va Zamir Nurimbetov, O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan artistlar Dilorom Yoqubova, Gulshan Azizova, Ruslan Gafarov, Shukur Gafurov, Rinat Titeyev, Mansur Xurramov, Sayfiddin Ro`ziqulov, Normo`min Sultonov, Andrey Shalberkin, Vadim Gellertov, Eskender Menaliyev, Tamila Muhammedova, Amina Babajanova, Nadejda Shilova, Mahmuda Ro`ziyeva, Mehridin Meliyev faoliyat olib borganlar. Teatrning rivojiga hissa qo`shayotgan, xozirda teatrdagi ijod qilib kelayotgan ijodkorlar, Xalqaro va Respublika ko`rik tanlovlari laureatlari va diplom sohiblari, yosh opera yakkaxonlari – Malika Normatova, Mahfuza Islomova, Azamat Muhammadjonov, Latife Abiyeva, Ramziddin Usmonov, Samandar Alimov, Jabroil Idrisov, Rahim Mirzakamalov, Ulug`bek Maxsumov, Nadejda Bandelet, Ma`suma Boltaboyeva, shuningdek, yosh balet ijodkorlari Nodira Hamrayeva, Dinara Mustaxisheva, Alla Moldavseva, Ravshan Choriyev, Timur Shangariyev va boshqalar.

Teatrni xor jamoasisiz tasavvur etib bo`lmaydi. Teatr xor jamoasida mana ko`p yillardan beri O`zbekiston xalq artisti Sulaymon Shodmonov bosh xormeyster faoliyatini olib bormoqda. Xormeysterlik bilan bir qatorda dirijyorlik faoliyatini ham bajarib, bir qancha spektakllarga dirijyorlik qilib kelyapti. Xor jamoasining to`liq jarangi, yoqimli ohanglanishi tomoshabinlar olqishlariga sazovor bo`lib, bu jarayonda xormeyster Maya Yandrinskaya va Nataliya Kupriyanovalarning ham mehnatlari beqiyosdir.

Teatr hayotida so`nggi yillarda xalqaro hamkorlik aloqalri ham keng yo`lga qo`yildi. Turli davlatlar bilan hamkorlikda tanlovlar, festival va konkurslar o`tkazilib kelinyapti. Ular orasida eng muvafaqqiyatlisi bu “Toshkent bahori” va J.Puchchinining 150 yillik tavalludiga bag`ishlangan festivallar bo`ldi. Bu festivallarda Italiya, Ispaniya, Yaponiya, Latviya, Rossiya, Ukraina va Qozog`istondan artistlar va musiqachilar tashrif buyurdi. Bu festivallarning eng katta yutug`i shundaki, chet ellik ijodkorlar o`zbek opera va baleti san`ati bilan yaqindan tanishdi, ularga o`zbek musiqa madaniyatining qanchalar boy merosga ega ekanliklari

namoyish etildi, albatta, ular ham jahon musiqa san`atining durdona asarlarini ustoz-shogird darsi orqali teatrdagi ijodkorlarga mahorat darslarini berdilar.

Sakson yillik tarixga ega bu teatrdagi, qanchadan qancha insonlarning mehnati, ijodi, ularning bor iqtidori yashaydi, bu omillarning barchasi yillar davomida jamlanib, teatrning butun bir tarixiga aylanib keladi va teatrni shakllantiradi. Alisher Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatri yurtimiz madaniyatining ajralmas bo`lagi, urib turgan yuragi hisoblanadi. Bu teatrning gullab yashnashi, asrlar mobaynida Mustaqil O`zbekistonimizning oltin o`chog`iga aylanishi, o`zbek opera va balet san`atining kelgusidagi rivojiga asos va poydevor bo`lib xizmat qiladi.

YOSH AVLOD ONGINI RIVOJLANTIRISHDA MUSIQA FANINING ROLI

Nizomiy nomidagi TDPU 1-kurs talabasi **Islamova Aziza**
Ilmiy raxbar Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti **Sh.N.Rahimov.**

Inson tarbiyasi, kamoloti, har qanday jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biri bo`lib kelgan. Chunki jamiyatning shakllanishi, rivojlanishi, ravnaq topishi shu jamiyatdagi tarbiyasiga bog`liq. Tarbiya bu shaxsni ijtimoiy iqtisodiy ishlab chiqarish munosabatlariga tayyorlash maqsadida uning ma`naviy va jismoniy rivojlanishiga muntazam ravishda ta`sir etib borishdan iborat bo`lgan uzluksiz jarayon. Shunday ekan yoshlarga ta`lim tarbiya berish, ularni mustaqilligimizni mustaxkamlash yo`lida safarbar etish muhim misoldir. Mustaqil Respublikamizda ma`naviyat va madaniyat masalalariga aloxida etibor berib kelinmoqda.

Shuni ta`kidlash lozimki O`zbekistonda inson ma`naviy hayotini shakllantirish maqsadida musiqaning madaniy hayotga chuqurroq kirib borishida keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bunda ma`naviyat va ma`rifat gazetasi markazi xalqaro madaniy – ma`rifiy aloqalar majmuasi kabi ijodiy muassasalarning tashkil etilishi bastakorlar uyushmasi va jamiyatdagi ijodiy siljishlar «O`zbekiston vatanim manim» nomi bilan mamlakatimizda o`tkazilayotgan an`anaviy tanlovlar madaniy ma`rifiy isloxotlarni amalga oshirishda metodlar qo`llanilmoqda. Qadimiy va boy tajribaga ega o`zbek milliy musiqa madaniyati istiqbolini amalga oshirish ta`lim tarbiya ishlari bilan shug`ullanish maqsadida asrlar davomida rivoj topib kelganligini ta`kidlash joizdir. Bu maktablarda musiqa ta`limi-tarbiyasi bevosita oshirib borilgan. Ushbu maktablarning faoliyat mazmunida insonni dunyoga kelishidan kamol topib butun umri davomida musiqa haqiqiy ma`nodagi tarbiya vositasi ekanligi o`z ifodasini topgan.

Musiqaning so`z san`ati va adabiyoti bilan o`zviy holda bog`lab o`rganilganligi musiqa nomi va amaliyoti rivojida katta hissa qo`shadi. Shaxs kamolotida musiqa tarbiyasini oshirish albatta ta`lim metodikasiga bevosita bog`liqdir. Musiqa tarbiyasi metodikasi fan sifatida tizimiga mansub bo`lib o`zining mustaqil o`rniga ega. Bu fan musiqa tarbiyasi metodikasi mazmuni, metodlarini yanada takomillashtirish maqsadida uning qonuniyatlarini o`rganadi. Musiqa tarbiyasi metodikasi tarbiya muassasalarida nafosat, musiqashunoslik fiziologiya, ruxshunoslik fanlarining umumlashtirilgan tajribalariga tayanadi. Musiqa tarbiya metodikasi ayniqsa nafosat musiqashunoslik fanlari bilan o`zviy bog`liq. Nafosat nomi uning metodikasining asosini tashkil etsa, tarbiyaning mazmun va metodlariga bevosita ta`sir ko`rsatadi. O`quvchilarning quylash faoliyatlaridagi muammolarni hal qilishda metodika fiziologiya tadqiqotlariga taniladi.

Musiqa tarbiyasi metodikasining mohiyati musiqa san'ati hamda madaniyati o'sib kelayotgan yosh avlod uchun muhim ahamiyatga ega. Metodikaning fan sifatida rivojlanishi jamiyatda maorif va musiqa san'atini takomillashib borishi bilan bevosita bog'liqdir. SHular bilan birgalikda musiqa tarbiyasi metodikasi umumiy printsiplarini ilgari suradi. Bo'lar onglik badiiy va texnik rivojlanish printsiplarda ega bu printsiplar o'quvchilarning musiqiy qobiliyatini rivojlantirish musiqaga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish, badiylikni tarbiyalashga qaratilgandir.

Musiqa asarni ongli idrok etish asar mazmunini ochishda va o'quvchilarga musiqiy tajribalarni to'plashda, ularning ma'naviy dunyosini boyitishda yordam beradi. Musiqa tarbiyasi emotsional onglik printsipti uyg'unlashish ko'payishi orqali tinglanadigan asarni to'g'ri baholay olish imkoniyatlarini rivojlantiradi: Ularning musiqaga qiziqishida didlari tarbiyalab boriladi. Badiiy va texnik bosqich printsipti asarning badiiy va ifodali ijro etish uchun malakali kadrlar talab etadi. O'quvchilarda kuylash malakalarini egallashlariga e'tibor beradi. O'quvchilarga musiqaning rivojlanish printsiplari to'g'risidagi tasavvurlarini shakllantirish, qobiliyatlarining rivojlantirilishi natijasida ular yana musiqiy tushunchalarni bilib olishadi. Musiqa tarbiya metodikasi tarbiya jarayonida ko'pgina omillarga bog'liq ekanligini e'tirof etadi. Kishilarning musiqiy madaniyati faqatgina maktabning ta'siri ostidagina shakllanmaydi. Uyda albatta tevarak atrof, ommaviy axborot vositalari yaxlit xildagi ijtimoiy vositalar tizimi ham katta rol o'ynaydi. Musiqa tarbiyasi metodikasi ta'lim metodlarini tashlashda ham pedagogika ravnaqi metodlarini ishlab chiqishda quyidagi muammolar mavjud jumladan:

A) metodlarning musiqa tarbiyasi, mazmunini sinovi, ijro bog'liqligi.

V) o'quvchilarda musiqiy va ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi.

S) musiqiy qobiliyat va ovoznig rivojlanishi, musiqani idrok etishning yosh va yakka tartibdagi xususiyatlari.

D) o'quvchilarning rivojlanishida musiqiy faoliyatlarning turli shakllarda foydalanish imkoniyatlari bilan bog'liqligi.

Metodikaning vazifalariga esa o'quv tarbiya jarayonini turlicha shakllantirish yanada rivojlantirish musiqa darslaridan tashqari musiqa mashg'ulotlari, sinfdan va maktabdan tashqari ishlariga to'garaklar, bayramlar, ko'ngil ochish kechalari kiradi. Musiqa tarbiyasi metodikasi musiqa faniga yaqin bo'lgan adabiyot va tasviriy san'at, tarix bilan bog'liq holda o'rganishni taqozo etadi. Bu esa o'quvchilarning tarbiyasini har tomonlama samarali amalga oshirishga muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Musiqa ta'lim tarbiyasining maqsad va vazifalarini amalga oshirishda dars yetakchi omil hisoblanadi. Chunki o'quvchilarning ommaviy tarzda jalb etilishi maktabda musiqa fani boshqa fanlardan o'zining badiiyliigi va qiziqarliligi, zavq-shavq uyg'otishi bilan ajralib turadi. Eng muhimi musiqa bolalarning aqliy, axloqiy sifatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Musiqa aqlni peshlab, tafakkurni charxlaydi. Musiqa darslari va mashg'ulotlarida o'quvchilar tarbiya va milliy madaniyatimizni o'rganib, bilim saviyasini kengaytirib borishni egallaydi.

Bobokalonlarimizdan Abu-Nasr Al Farobiyning ma'rifat parvarlik g'oyalar tizimida bola, shaxsini tarbiyalashda musiqa san'atining roli maqsadi va vazifalari alohida e'tirof etiladi. Unda inson hayotida musiqaning jamiyati qayd qilinib, «Ey musiqa olami, yaxshiyamki sen borsan, agar sen bo'lmaganda insonning axvoli ne kechar edi»- deya xitob qilinadi. Alloma Abu Ali Ibn Sinoning musiqiy ma'rifiy qarashlarida ham musiqa shaxsning ma'naviy va jismoniy madaniy tabiatiga ta'sir etuvchi qudratli vosita sifatida ta'rif beradi. Bolada juda yoshligidan boshlab musiqa hissiyotini tarbiyalash lozim, bu

esa uning ruhiy holatini mustahkamlaydi degan g'oya ilgari suriladi. Alloma mashhur «Tibbiyot qonunlari» kitobida bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi uxlatish uchun odat bo'lib kelgan musiqiy allalashdir. SHu ikkisini qabo'l qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan ba'zan tarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan ehtiyoj hosil bo'lgan deb yozgan edi.

Shunday qilib olimlar, mutafakkirlar musiqa nafaqat insonga samarali ta'sir etuvchi vosita balki o'z mohiyati, jamiyatdagi maqsad va vazifalariga ko'ra alohida bir fan sifatida tadbiiq etishga davrlar o'tib ularni tor fikrlarini ta'lim- tarbiyada tadbiiq etilib, ta'kidlaganidek ommaviy xalq musiqa pedagogikasining vujudga kelishida asos bo'ladi. Ta'lim tarbiya uslubiyoti maktablari tarkib topib rivojlanib bormoqda. Hozirgi davrda shaxs ma'naviyatini tarbiyalash vazifasi maktabda musiqa ta'lim tarbiyasi ishlarini sifatli bosqichga ko'tarishni taqozo etadi.

Bugungi kunda musiqa, ta'lim tarbiyasining maqsadi va vazifalari nihoyatda muhim. Musiqa ta'lim tarbiyasining maqsadi va avlodni musiqa me'rosimizga vorislik qiladigan hamda umumbashariy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan yosh qadrlaydigan madaniy inson sifatida voyaga yetkazishdan iborat, buning uchun har bir o'quvchining musiqaga bo'lgan iqtidorlarini rivojlantirib, musiqa san'atiga mehr va ishtiyoqini oshirish musiqadan zaruriy bilim va amaliy malakalar doirasini tarkib toptirish, iqtidorli o'quvchilarning musiqiy rivojlanishlari uchun zaruriy shart sharoitlar yaratib berish maktab musiqa ta'limi tarbiyasining asosiy vazifasidir.

Musiqa ta'lim tarbiyasining maqsad va vazifalari amalga oshirish maktabdagi musiqa darslariga bevosita bog'liq. Musiqa ta'lim tarbiyasining kontseptsiyasida maktabda musiqa fani boshqa fanlar qatori o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Musiqa ta'limini sifatli bosqichga ko'tarish uchun maktabda teng xuquqli fan hisoblanadi. Bu esa hozirgi zamon o'quvchisidan dars mashg'ulotlariga ijobiy munosabatda bo'lishi, o'quvchilar musiqiy faoliyatlarini oshirishni to'g'ri tashkil etish va boshqarish faollikni talab etadi. Musiqa dars mashg'uloti sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlarni esa har bir o'qituvchi bilishi kerak.

Birinchidan musiqa tarixi nazariyasi ijrochilikka doir turli namunalardan ayrim mashqlari, musiqa savodi mashg'ulotlari, musiqa tinglash, musiqa ta'limi va adabiyoti, bolalar cholg'u asbobida chalish, ritmik harakatlar bajarish elementlari, musiqada ijodkorlar faoliyatlaridan iborat darslar kiradi.

Ikkinchi musiqa boshqa san'at turlaridan o'zining ifoda vositalari ya'ni «tili» bilan farq qiladi. Agar badiiy adabiyot so'z bilan tasviriy san'at bilan, raqs badiiy harakatlar bilan ifodalansa, musiqiy tovushlaridan vujudga kelgan ohang vositasidan foydalaniladi.

Uchinchidan musiqa bolalarda faol hissiy ta'sir ko'rsatadi, ijobiy ko'rsatmalar, kechinmalar uyg'otadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fani bo'yicha dasturi bir dars o'zida ta'limning musiqa tinglash, jamoa bo'lib kuylash, musiqa savodxonligi bolalar cholg'u asboblari va ritmik harakatlar bajarish musiqa ijodkorliri kabi bosqichlar bir biri bilan bog'lanib yaxlit holda amalga oshirilishi nazarda tutilishi kerak. Zamonaviy mashg'ulotlardan musiqa idroki yetakchi faoliyat sifatida muhim ro'ly o'ynaydi. Chunki bu bosqichda o'quvchilar faoliyatida ko'proq o'yin xususiyatlari bo'lib turadi. SHunday qilib ta'lim va tarbiyaning maqsad va vazifalari to'laligicha amalga oshiriladi. Bu jarayonlarni ilmiy uslub jihatdan yetakchi darajada ta'minlash, milliy musiqa ta'lim mazmunini anglash kabi muhim tadbirlar, shubxasiz musiqa tarbiya samaradorligini oshirishishga imkon beradi. Bu esa

musiqani maktab hayotida o'quvchilar qalbida keng o'rin egallashi va ularning ma'naviyatlarini shakllantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA O'ZBEK XALQ QOSHIQLARINING TUTGAN O'RNI

IV-kurs talabasi: **Zokirov Abdulaziz Anvar o'g'li**

Ilmiy rahbar: **Rahimov Shavkat Normatovich**

Mustaqil Respublikamizda yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash bosh mezon bo'lib hisoblanadi. Farovon hayotimiz jamiyatning barcha a'zolarini ayniqsa yosh avlodni chuqur bilimli, yuksak madaniyatli har tomonlama kamol topgan kishilar bo'lib yetishishni taqozo etadi. Yoshlarni barkamol bo'lib yetishishlarida estetik tarbiya muhim o'rin egallaydi. O'quvchilarni tarbiyalashda tarbiyaning ko'plab omillari qatorida musiqa alohida o'rin tutadi. Chunki kuy, ohang ta'sirida insonlarda hissiyot olamining o'sishi idrok va tafakkurning shakllanish, poklik, ezgulik va yuksaklikka intilish, go'zallikni sevish, tabiatni asrash, Vatan ravnaqi uchun xizmat qilish istagining tobora ortib borishi ma'lumdir. Donishmand xalqimiz azaldan musiqa va qo'shiqni o'z ijtimoiy va madaniy hayotlarining muhim bo'lari deb bilganlar. Inson musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, umrbod musiqadan madad olib yashaydi.

Musiqa inson ruhiyatining ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Demak yosh avlodni yetuk qilib tarbiyalashda musiqa madaniyati darslarining ahamiyati katta. Musiqa madaniyati ijodiy dars bo'lgani uchun darsni erkin "Yaxshi" kayfiyatda va ko'tarinki ruhda olib borish lozim. O'quvchilarni dars davomida faolligi o'qituvchi bilan erkin muloqati musiqa ohanglari natijasida hosil bo'ladigan fikr va mulohazalarni doimo ifoda etib bera olishlari "Ijodiy tortishuvlar" darsni yanada jonli va ta'sirchan qiladi. Bilimlarni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi. Buning uchun o'qituvchi darsga yaxshi tayyorgarlik ko'rishi kerak. Musiqa tinglash boshidan ohirigacha davom etadi. Faqat musiqa tinglashgina o'quvchilarni chin ma'nodagi keng musiqa olamiga olib kiradi. Musiqa tinglash uchun asarlar turi va janr jihatidan doimo hilma-hil bo'lmog'i lozim. O'quvchilar dars davomida turli hil xarakter va janrdagi musiq asarlarini eshitish bilan birga hilma-hil cholg'u asboblari sadolari va tovush temblari bilan ham tanishadilar.

Darsning faoliyat turlaridan qo'shiq kuylash muhim ahamiyat kasb etib, qo'shiq orqali sofdillik, sadoqatlilik, Vatanparvarlik, mehr-oqibat, sabr-qanoatlilik kabi ko'plab oliyanob hislatlar shakllantiriladi. Mustaqil diyorumizda xalqimizning ma'naviyatini yuksaltirishda milliy musiqa va qo'shiqlarimizning ahamiyati kattadir. O'quvchilarga ommaviy janrdagi qo'shiqlarni o'rgatish jarayoni o'quv dasturida oddiydan-murakkabga tamoyili asosida asta-sekin murakkablashib boradi.

"Xalqning hayoti beshikdan qabrga qadar qo'shiq bilan bog'liq: inson ruhiga qo'shiq chaqaloqligidayoq alla orqali singadi, keyin butun umri davomida unga qo'shiq hamrohlik qiladi - quvonchli kunlarda ham, qayg'uli tunlarda ham. U ohirat diyoriga ham yig'i-yo'qlov qo'shiqlari bilan kuzatiladi.

Binobarin, xulosa qilish mumkinki, odam bolasi qo'shiq tinglab ulg'ayadi, qo'shiq eshitib, qo'shiq kuylab, qo'shiq yaratib yashaydi, qo'shiq vositasida dunyoni tark etadi. Uning butun hayoti turli-tuman qo'shiqlarda mujassam. Qo'shiqda xalq hayoti butun qirralari bilan, xalq kayfiyati barcha ko'rinishlari bilan namoyon bo'ladi. Qo'shiqda xalq tafakkuri,

dunyoqarashi, an'analari, urf-odatlarini, o'ziga xos xususiyatlari aks etadi. Xalq xarakteri boshqa biror narsada uning qo'shiqlaridagidek aniq va yorqin ifodalanmaydi. Aslida xalq ruhiyatini uning qo'shiqlari orqali o'rganishi kerak. Bu qo'shiqlarda xalqning har qanday davr, har qanday ta'qiqlarda ham sinmagan metin irodasi, o'lmas ruhi ifodalangan. Eng qorong'i zamonlarda g'am so'nmagan yorug' ishonchi o'z aksini topgan: xalqning ovozi bo'g'sa, u tili bilan, tilini tuga, dili bilan kuylayvergan. Har qanday tuzumda ham xalqning ijod qilishdan to'htamaganligi buning yorqin isbotidir. Xalq yaratishdan to'htasa- hayot to'htab qoladi. Xalq qo'shiq aytmay qo'ysa – dunyo jimib qoladi. Xalq qo'shiq tinglamay qo'ysa – san'at o'ladi. Holbuki, xalq bunday bo'lishiga sira yo'l qo'ymaydi. Yashash, yaratish, huzurlanishdan charchamaydi. Xalqning buyukligi siri ham shunda.”

Muallifning yuqoridagi fikrlarini keltirishimizdan maqsad, dars mashg'ulotlari jarayonida qo'shiqning dolzarbliligi, tarbiyaviy, umumbashariy ahamiyatga ega ekanligini o'quvchilar ongiga singdirish va ularning qo'shiq haqidagi tushunchalarini shakllantirishdan iboratdir. Musiqa madaniyati darslarida dars samaradorligini oshirishda xalq qo'shiqlarining ahamiyati beqiyosdir. Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida xalq qo'shiqlarining turli mavzudagi namunalari ijro uchun taqdim etilgan. Bolalarda musiqa ilmi haqidagi tushuncha, ko'nikma-malakalarini shakllantirishda xalq qo'shiqlarining o'z o'rnini bor. SHunday ekan, O'rta Osiyoda qo'shiqchilik madaniyatining shakllanish tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak, qo'shiqchilik xalqning ijtimoiy-madaniy hayotida alohida nufuzli o'rinlardan birini egallagan bo'lib, davlat idora tizimida qo'shiqchi - musiqachilar jamiyat hayotida tutgan o'rnini nufuzi jihatidan xudo va shohdan keyin uchinchi o'rinda turgan, degan fikrlar mavjud.

San'atshunos olim I. Rajabiy bir rivoyatni keltiradi: Aytishlaricha, qadimda Turon zaminda nihoyatda odil, el manfaatini o'ylagan insonparvar, ko'p bog'-rog'lar barpo qilgan, sahiy, oliyjanob bir podsho o'tgan ekan. Lekin uning farzandi bo'lmagan ekan. Vaqt soati yetib, umri yakunlanayotganligini sezgan podshoh atrofiga vazirlarini va yaqinlarini yig'ibdi va hattotga vasiyat yozdiribdi. Podshoh vasiyatida: - “Men o'lganimdan so'ng shu kuni yangi tug'ilgan 40 chaqaloqni (o'g'il bola) saroyga olib kelinglar! Saroydagi sozanda va honandalar elga manzur va mashhur bo'lgan xalq qo'shiqlaridan birini ijro qilsinlar. Shunda eng birinchi bo'lib yig'idan to'xtagan chaqaloqni podshoh qilib ko'tarasizlar!”- deb aytgan ekan. O'rta Osiyoda qo'shiqchilik san'atiga bo'lgan ijobiy e'tibor hozirgi kunga qadar o'z mohiyatini, qadr-qimmatini yo'qotmay kelmoqda. Xalq qo'shiqlari turli faoliyat samarasi bo'lib, **bolalar qo'shiqlari** (beshiq qo'shiqlari-allalar, mavsum-marosim qo'shiqlar, mehnat qo'shiqlari), **kattalar qo'shiqlari** (mavsum-marosim, lirik, epik, yig'i-yo'qlovlar.) kabi turli janr ko'rinishlarida shakllangan.

O'zbek xalq ijodida xalq qo'shiqlari salmoqli o'rin egallaydi. Qo'shiq atamasining lug'aviy ma'nosiga qaraydigan bo'lsak, turkiy qo'shmoq fe'lining o'zagidan yasalgan bo'lib, misraga misrani qo'shib kuylash, aytish ma'nolarini anglatadi va bu atama ikki ma'noda qo'llanadi. Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asarida ham qayd etilgan. Tor ma'noda qo'shiq atamasi og'zaki lirik turga mansub mustaqil janrni anglatadi. Qo'shiqning mustaqil janr atamasi esa asarda ifodalanadigan mazmunga, qo'shiqning ijro o'rnini, tarzi va funktsiyasiga qarab turli sifatorvchilar bilan birgalikda nomlanadi. Masalan qo'shiq mehnat jarayonida, ishlayotganlar tomonidan ijro etilib, mazmunan mehnat jarayoni bilan bog'liq bo'lsa, bunday qo'shiqlar mehnat qo'shiqlari deb ataladi. Yoki qo'shiqda ishq-muhabbat kuylansa, bunday qo'shiqlar lirik qo'shiqlar deyiladi.

Xalq qo'shiqlarida voqelik yakka shaxsning kechinmalari orqali aks etadi. Biroq bu kechinmalar ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, insonlar his-tuyg'ulari bilan uyg'unlashgan bo'ladi. Chunki xalq og'zaki ijodida yakka shaxsning kechinmalari jamiyat ruhiy kechinmalarining bir vositasi bo'lgan. Shuning uchun ham xalq qo'shiqlarida mehnatkash xalqning ruhiy kechinmalari, dunyoqarashi to'laqonli aks etgan. Qo'shiqlar xalq ma'naviyatining qudratini, mehnatkash omma irodasining bukilmaligini ifodalab, kishilarni ruhan tetiklikka, jasoratga, mehnasevarlik va elparvarlikka, vatanparvarlik va do'stlikka, sevgida sadoqatga chorlaydi. Xalq qo'shiqlari, asosan, barmoq vaznida yaratilsa ham, biroq uning ayrim namunalari aruz vaznlariga ham mos keladi. Masalan, Alisher Navoiy o'zining "Mezonul-avzon" asarida xalq she'riyatidagi aruz vaznlari haqida to'htalganda qo'shiq janriga ham alohida to'htalib o'tadi. Uning ko'rsatishicha, qo'shiq kuylanish va o'yin vositasida ijro etilishiga mo'ljallangan. Xalq qo'shiqlarining aruz vazniga mos keluvchi turlari haqida to'htalib, u ikki vazni qayd etadi.

Birinchisi-xalq qo'shiqlarida tabiiy tovushlar uyg'unlashishi tufayli vujudga kelgan vazn bo'lib, u arab xalq she'riyatidagi **madidi musammani solim**(foilotun foilun foilotun foilun)ga to'g'ri keladi. Ikkinchisi esa Husayn Boyqaro tomonidan isloh qilinib, ko'rgina qo'shiqchilar orasida keng tarqalgan bo'lib, u **ramali musammani mahfuz**(foilotun foilotun foilotun foilun) vaznidan iborat.

Demak, xalq qo'shiqlari, asosan, barmoq vaznida yaratilsa ham, biroq ular o'rtasida aruzning madidi musammani solim va ramali musammani mahfuz

vaznlarida yaratilganlari ham uchraydi. Alohida janr ma'nosidagi qo'shiqlar mustaqil to'rtliklardan tashkil topgan bo'lib, ular faqat kuylab ijro etishga mo'ljallangan she'riy asarlardan iborat. O'zbek xalq qo'shiqlari janr mansubiyati, yaratilish davri, ijro o'rni va turi kabilari jihatidan xilma-xillik kasb etadi. Bu jihatdan xalq qo'shiqlari marosim va marosimga aloqasiz qo'shiqlarga bo'linadi. To'y va boshqa marosimlarda ijro etiladigan yoki motam yig'ilari marosim qo'shiqlarini tashkil etadi. Marosimga aloqasiz qo'shiqlarga esa mehnat va liriq qo'shiqlar mansub.

Mehnat qo'shiqlari.

Ibtidoiy poeziya qadimgi ajdodlarimizning mehnat faoliyatida muayyan mehnat ritmiga mos keluvchi oddiy qichqiriqlardan tortib bir daraja yuqori ritm va musiqaga ega bo'lgan she'riy parchalargacha o'z ichiga oladi. Ana shu oddiy xitob hamda she'riy elementlar mehnat qo'shiqlarning asosini tashkil etadi.

Mehnat qo'shiqlari rang-barang janrlardan tashkil topgan bo'lib, ularni bir turkum doirasida ushlab turuvchi bir necha hususiyatlar mavjud.

Mehnat qo'shiqlari quyidagicha guruhlariga ajratib talqin etiladi.

1. **Dehqonchilik bilan bog'liq qo'shiqlar.**
2. **Chorvachilik bilan aloqador qo'shiqlar.**
3. **Hunarmandchilik bilan bog'liq qo'shiqlar.**

-Dehqonchilik bilan bog'liq qo'shiqlarga qo'sh qo'shiqlari, o'rim qo'shiqlari, yanchiq qo'shiqlari, yorg'ichoq qo'shiqlari,

-Chorvachilik bilan aloqador qo'shiqlarga ho'sh-ho'shlar, turey-turey qo'shiqlari, churiyalar,

-Hunarmandchilik bilan bog'liq qo'shiqlarga charh qo'shiqlari, bo'zchi qo'shiqlari, o'rmak qo'shiqlari, kashta qo'shiqlari mansub bo'lib, bu qo'shiqlarda mehnat faoliyati va ruhiy kechinmalar qo'shiqqa solib kuylangan.

Lirik qo'shiqlar.

Lirik qo'shiq atamasi shartli ravishda xalq qo'shiqlarining ma'lum bir turiga – ishq-muhabbat mavzuida yaratilgan, bir yoki bir necha kishilar tomonidan ijro etiluvchi mustaqil to'rtliklardan iborat og'zaki she'riy asarlarga nisbatan qo'llaniladi.

Real voqeilikni shaxsning kechinmalari orqali aks etiruvchi, sevgi va vafo, hijron va sog'inch, alam va o'kinch, kishilar qalbidagi o'tli dard tufayli vujudga kelgan, faqat kuylash uchun yaratilgan mustaqil to'rtliklar lirik qo'shiq deyiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", Umuta'lim maktablari faoliyatini takomillantirishga qaratilgan meyoriy xujjatlar, o'quv majmualar, mavzuga oid ilmiy-pedagogik, metodik mabaalar mohyatidan kelib chiqib. musiqa madaniyati fanidan dars samaradorligini oshirishda o'zbek xalq qo'shiqlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Amaldagi dastur talablaridan kelib chiqib barcha sinflarda o'qitilayotgan mavzularni ko'rib chiqiladigan bo'lsa, o'zbek xalq qo'shiqlari 20-30% ni tashkil etadi. Faqatgina 6-7 sinflarda bu borada kengroq e'tibor berilganligini kuzatishimiz mumkin.

I.I. O'zbek xalq qo'shiqlarining mahalliy ijrochilik uslublari.

O'zbek xalq qo'shiqlari janr mansubiyati, yaratilish hududiga qarab mahalliy ijrochilik uslubiyatiga ajratiladi. Ular:

1. Farg'ona-Toshkent musiqa uslubi,

2. Buxoro-Samarqand musiqa uslubi.

3. Surxondaryo-Qashqadaryo musiqa uslubi.

4. Xorazm musiqa uslubi.

Farg'ona-Toshkent musiqa uslubi-Farg'ona vodiysi, Toshkent shahri va viloyati hududlarida qaror topgan musiqiy an'analarning majmuidir. Bunda xalq musiqasiga oid kuy, terma, lapar, yalla, qo'shiq, ashula kabi aytim janrlari, shuningdek, dostonchilik, ashulachilik, maqomchilik kabi kasbiy musiqa an'analari o'z aksini topgan.

Farg'ona-Toshkent musiqa uslubida bolalar folklori, xotin-qizlarning qo'shiqchilik ijodi, yallachilik, ashulachilik va cholg'u kuylari munosib o'rin tutadi. Mazkur hududiy uslubning gultoji hisoblangan maqomlar – CHormaqom ijrochilik maktabi va katta ashulachilik maktablari og'zaki an'anadagi kasbiy musiqa ijodi mahsuli hisoblanadi.

Chormaqom

- Bayot,

- Dugoh Husayniy,

- CHorgoh,

- SHahnozi Gulyor ashula turkumlaridan tarkib topgan. Ular o'z navbatida

Bayot -1-5, Dugoh Husayn -1-7, CHorgoh -1-5 va Gulyor, SHahnozi Gulyor, Farg'onacha SHahnoz kabi turli ashula variantlaridan iborat. Bulardan tashqari maqomlarning yuzdan ortiq cholg'u yo'llari ham mavjud. Ushshoqlar, Giryra 1-2, Miskin turkumlari, Adoiy-Asiriy, Abdurahmonbegi, Qalandar turkumlari kabi ashula yo'lidagi ijro namunalari shular jumlasidandir.

Farg'ona-Toshkent musiqa uslubida "katta ashula" deb nom olgan ashula yo'li ham bo'lib, u odatda turli ommaviy yig'in va tantanalarda ijro etilgan bo'lib. uning ijrochilari kuchli shirali ovoz va diopozonga ega bo'lishlari zarur edi. Katta ashulalarni katta-katta maydonlarda ovoz kuchaytirgichsiz baland pardalarda ijro etilishi talab etilgan. Shuning uchun bu janr ijrochilarining xalq orasida hurmat-e'tiborlari baland bo'lgan.

Farg'ona-Toshkent musiqa uslubida Haydar ota Boychiev, Jumaboy Baxshi, Razzoq Baxshi Qozoqboev, Qodirboy Baxshi kabi do'mbira chertib doston aytuvchi baxshilar ham

bo'lib, ularning repertuari asosan "Alpomish", "Rustamxon", "Avazxon", "SHirin va SHakar" kabi dostonlardan iborat bo'lgan.

Farg'ona-Toshkent musiqa amaliyotida deyarli barcha xalq cholg'ularini, jumladan, dutor, tanbur, rubob, chang, sato, g'ijjak, nay, qo'shnay, surnay, karnay, doyra, nog'ora va boshqa sozlarni ko'rish mumkin.

O'ZBEKISTONDA MUSIQIY TA'LIM, MUSIQA SAN'ATINING RIVOJLANISH JARAYONI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI

III-kurs talabasi: **G'ofurova Nigina Durbekxo'ja qizi**

Ilmiy rahbar: **Rahimov Shavkat Normatovich**

Bolani shaxs sifatida rivojlantirishda nasl, atrofidagi muhit, tarbiya muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi bu omillarni kuzatib, o'rganib chiqib, o'quvchilarni qiziqishi, qobiliyati, musiqaga, go'zallikka, mehnatga munosabatlariga qarab, musiqiy bilim, ko'nikma va malakalarini singdira borishi lozim. Inson musiqadan umrbod zavq topadi va madad oladi. SHu bois o'quvchilarga musiqa madaniyatini tarbiyalash, yuksak did bilan qurollantirish, ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish boshlang'ich sinf musiqa o'qituvchisini vazifasidir. Musiqa inson ruhiyatiga emotsional ta'sir ko'rsatish bilan birga, musiqiy tovush yordamida vujudga keladigan musiqiy tovush yordamida vujudga keladigan musiqiy ohanglar bilan ta'sir etadi, bolalarni quvontiradi, o'ylantiradi, yaxshilikka, go'zallikka yetaklaydi va nafosat olamiga olib keladi. SHunday ekan, boshlang'ich sinflarda musiqa madaniyati darslariga e'tibor yanada kuchayib, boshlang'ich sinf musiqa o'qituvchisi oldiga katta vazifalarni qo'yadi. SHu bilan birga, iqtidorli o'qituvchilarni, maktab hayotiga ommaviy va to'garak ishlariga jalb etish boshlang'ich sinf o'qituvchisi zimmasidadir. Musiqa madaniyati darslarida milliy musiqa meroslaridan to'laqonli foydalanish va bugungi zamonaviy asarlarni musiqa darslarida qo'llash, o'qituvchidan ish mazmunini va uslubini yangilashni talab etadi. Buning uchun musiqa o'qituvchisi o'z fanini puxta bilishi, bolalarni sevisi, pedagogika, psixologiya, bolalar fiziologiyasi, musiqa o'qitish metodikasidan chuqur bilimga ega bo'lishi lozim. CHunki yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda musiqa o'qituvchisi yetakchi bo'lib hisoblanadi. Maktab hayotida boshlang'ich sinf musiqa o'qituvchisini faoliyat miqyosi kengdir. Musiqa madaniyati darslaridan tashqari, o'quvchilar bilan tarbiyaviy musiqali ochiq darslar o'tkazadi. Bu hozirda ishlayotgan o'qituvchilardan ish mazmuni va uslubida yangilanish jarayonini talab etadi. Bunday talablar yangi nashrdan chiqqan qo'llanmalar, tavsiyanomalar, dasturlar, darsliklar keng ma'noda mazmunli qilib yoritilgan. Musiqa o'qituvchisi dars jarayonida qo'shiq kuylash, musiqa tinglash, musiqaga mos bolalar cholg'u asboblardan jo'r bo'lish musiqiy ritmgaga harakatlar bajarish kabi dars faoliyatlarida musiqaga qiziqitira olish, ularni musiqiy qobiliyatlarini o'stirishga harakat qilish lozim. Chunki, musiqa o'quvchilarga tez ta'sir eta oladigan ta'lim-tarbiya vositasidir. U o'qituvchilarni shaxs bo'lib shakllanishi uchun ommaviy va ahloqiy tomondan ijobiy ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun ham, musiqa madaniyati darslari, avvalo tarbiya darsi deb ataladi. Dars samaradorligini oshirish musiqa o'qituvchisidan mehnat, o'z faniga muhabbat, bolalarni go'zallik va nafosat olamiga olib kirish uchun bilim, musiqaga mehr va shijoat talab etadi.

O'zbekiston ta'lim tarbiya sohasi va isloh qilishning asosiy omillaridan biri «shaxs manfaati va ta'lim ustivorligidir». Bu omil davlatimizni ijtimoiy siyosatini belgilab beradigan

muhim jarayon bo'lganligi uchun 1997 yil 29 avgust O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ishlab chiqildi. Bu borada 1-Prezidentimiz I.A.Karimov «Tarbiyachi – ustoz, yosh avlodni aql-idrokini o'stirish, barkamol yetuk inson etib yetishtirish uchun eng avvalo, o'zi shu talablarga javob berishi va shunday fazilatlariga ega bo'lishi kerak» - degan edi. Darhaqiqat o'qituvchilik kasbida bilimdonlik, zukkolik, o'z kasb mahoratini muntazam takomillashtirib borish talab etiladi. SHuning uchun ham, barcha kasblar ichida o'qituvchilik kasbi sharafligi va mas'uliyatli hisoblanadi. Jamiyatimizni ma'naviy yangilanishida demokratik, huquqiy, davlat qurish kadrlar tayyorlash milliy dasturida asosiy masala bo'lib hisoblanadi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni asosiy omillaridan biri, xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyaning yangi yutuqlari asosida kadrlarni tayyorlash va yangi tizimini shakllantirishdir.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni asosiy maqsadi, bugungi mustaqillik sharoitida davlat, jamiyat va oila oldida javobgarlikni his eta oladigan yetuk, komil insonni tarbiyalash, ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlat darajasida, yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da belgilangan barcha vazifalar uch bosqichda amalga oshirilishi ko'rsatib berilgan.

1-bosqichda (1997-2001 yillar) pedagogik va ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash hamda ularni malakasini oshirishni zamon talablariga javob beradigan darajada tashkil etish hamda ta'lim oluvchilarning yuksak tayyorgarlik darajasi va ma'naviy-axloqiy saviyasining sifatiga nisbatan qo'yiladigan zarur talablarni belgilab beruvchi, davlat ta'lim standartlarini yaratish va joriy etish asosida milliy dasturni ro'yobga chiqarish va yo'nalishlariga aniqliklar kiritish.

2-bosqichda (2001-2005 yillar) majburiy umumiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga, shuningdek o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga qarab, tabaqalashtirilgan ta'limiga o'tish, sifat bosqichini shakllantirish.

3-bosqichda (2005 va undan keyingi yillar) – to'plangan tajribalarni umumlashtirish asosida, yanada rivojlantirish. Ta'lim jarayonini axborotlashtirish, uzluksiz ta'lim tizimini jahon axborot tarmog'iga, kompyuter axborot tarmog'i orqali ulash. Masofada o'qitishni joriy etish. Musiqa san'ati, yangi avlodni tarbiyalashda o'ziga xos manba bo'lib xizmat qiladi. Azaldan, o'zbek musiqa ta'lim-tarbiya pedagogikasi va uning mukammal uslublari ustoz va shogird an'analari misolida takomillashib borgan. SHu bois barcha o'quv predmetlari qatori musiqa fanidan ham 1998 yil 10 may Vazirlar Mahkamasining 203-son qarori bilan Davlat Ta'lim Standartlari ishlab chiqildi.

Davlat Ta'lim Standartlari joriy etilishi milliy musiqiy merosdan to'laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy va qo'shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlari maqom, shashmaqom, dostonlar va bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatida o'z aksini topgan. Yangi ta'lim mazmuni, o'quvchilarning bilim va malakalarini oshiradi, xotiralarini mustahkamlaydi, obrazli tasavvur qilish, musiqiy did kabi hislatlarni rivojlantiradi.

O'zbekistonda musiqiy ta'lim, musiqa san'atining rivojlanish jarayoni uzoq tarixni qamrab oladi. Bu borada har bir davr allomalari va musiqachilaridan kelgusi avlod uchun ko'pgina asarlar va manbalar yaratilgan. O'zbek musiqa san'atining qadimiy ildizlari Avesto yodgorligi bilan bog'lanib ketadi. Zardusht gohlarning badiha yo'li bilan ijro etgan. Avestoning marosimiy qismini, Ahuramazda va boshqa ma'butlarga bag'ishlangan madhiyalarni ham aslida muayyan ijro yo'li bo'lgan yakkaxon va ommaviy qo'shiqlardir.

Markaziy Osiyo turkiy xalqlari kundalik turmush tarzi ijtimoiy hayotining tashkiliy shakllari soʻz, udum, urf-odat musiqa bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan tarzda rivojlangan. VI-VII asrlarda yaratilgan xalq qoʻshiqlari buning dalilidir. Mahmud Qashgʻoriyning XI asrda yaratilgan “Devonu lugʻotut turk” asaridagi toʻrtliklarning koʻpchiligi qadimgi turk xalqi davriga oid xalq qoʻshiqlari boʻlib musiqa joʻrligida ijro etilgan.

Sharq musiqasiga rivoji tarixida Abu Nasr Farobiyning qilgan ishlar katta ahamiyatga egadir. Farobiy turli sohalarda katta bilimga ega boʻlgani uchun uni sharqda “Al-muallim assoniy” deya ulugʻlashgani barchamizga maʼlum. Farobiyning ajoyib musiqachi ekanligi borasida koʻpgina yozma manbalarda maʼlumotlarni uchratamiz. Farobiyning ilmiy va ijodiy izlanishlari borasida real maʼlumotlar qatorida rivoyatlar ham uchraydi. Rivoyat qilishlarichcha Farobiy 70 dan ortiq tilni bilgan.

Farobiyning fanga qoʻshgan hissasi katta. Uning tomonidan 200 ga yaqin turli sohalarga – falsafa, mantiq, huquqshunoslik, siyosatshunoslik, fiziologiya, psixologiya, pedagogika tibbiyot, matematika, musiqa, etika, estetikaga taalluqli asarlar yaratilgan. Farobiy asarlari ichidan biz bitiruv malakaviy ishi uchun musiqa, etika, estetik va pedagogika tegishli boʻlganlaridan foydalanishni maqul deb topdik. Farobiy oʻzining “Musiqqa haqida katta kitob” asarida oʻsha davrdagi musiqa ijodkorligi, musiqiy janrlar va musiqachilar haqida qimmatli maʼlumotlarni keltirish qatorida oʻzining musiqa ilmiga tegishli izlanishlarini ham kiritadi.

Jahon ilm-fani va tibbiyotiga ulkan hissa qoʻshgan Abu Ali ibn Sino ham oʻz davrining barcha bilim solhalarida ish olib borgan. Ayrim maʼlumotlarga qaraganda uning 450 dan ortiq asarlar yaratilgan. Ulardan hozirgacha tomonidan 242 tasi yetib kelgan. Zamondoshlari Ibn Sinoni cheksiz bilim-tafakkuri va iqtidoriga tan berib ulugʻ tabibni “Shayx ar-raisi” (Donishmandlar sardori) deb ataganlar. Ibn Sinoning musiqa sanʼati, musiqashunoslik, musiqa pedagogikasiga doir beshta asari mavjud:

- “Kitob ash-shifo”dagi “Musiqqa ilmiga oid toʻplam”;
- “Kitob an-najot”dagi “Musiqqa bilimlarining qisqacha bayoni” boʻlimi;
- “Donishnoma”dagi “Matematika” boʻlimining qismi va bizgacha yetib kelmagan “Musiqqa sanʼatiga kirish” risolasi;
- “Kitob ash-shifo”da faqat muallifning eslatishi boʻyicha maʼlum boʻlgan “Ariqlovchilar haqidagi kitob” laridir.

Maʼlumotlarga qaraganda Ibn Sino musiqa orqali bemorlarni tuzata olgan. Koʻpchilik bemorlarga musiqa bilimiga ega boʻlishi, biron cholgʻuni chalishi yoki yaxshi qoʻshiq kuylashni oʻrganishi orqali tuzalib ketishi mumkinligini aytgan degan maʼlumotlar bor.

Davlat arbobi, yozuvchi, mashhur “Qobusnoma” asarining muallifi Unsurulmaoliy Kaykovus ibn Iskandar ibn qobus ibn Vushmagir ibn Ziyor ham oʻz davrining musiqasi haqida va musiqachilar va ularning ahloqi borasidagi fikrlar va nasihatlariga alohida boʻlim ajratdi. Kaykovus “Qobusnoma” 63 yoshida fors tilida yozgan va Gulonshohga bagʻishlagan. “Qobusnoma”ning 36 – bobida “Hofizlik va sozandalik zikrida” deb nomlangan boʻlimida - “Ey farzand, agar hofiz boʻlsang, xushfeʼl, quvnoq boʻl, hamisha pok, xushroʻy va xushzabon boʻlgʻil va oʻz ishingga mashgʻul boʻlgʻil, yaramas xulq va qoʻpol bashar boʻlmagʻil. Hamma vaqt ogʻir yoʻllarni chertmagʻil, chunki barcha mashq va ohangni bir xilda chertish shart emasdur, nedinkim odamlarning barchasi bir xilda boʻlgʻon, taʼb ham bir-biriga muvofiq ermas, yaʼni xalq har-xildir. Har surudni oʻrgansang. Vazndan gʻofil boʻlmagʻil, vaznsiz tarona ayimagʻil va gʻazal yozmagʻil. Kuylar vaqtingda suriding boshqa joydin, sozing boshqa joydin boʻlmasin agar bir kishiga oshiq boʻlsang butun kunni boshidan oxirigacha oʻzinga xush kelgan gʻazalni aytmoq bila oʻtkarmagin, bunday gʻazal oʻzinga xush kelsa ham oʻzgalarga xush

kelmagusidir. Har surudni boshqa bi ma'nida aytgil. Agar nazirsiz ustod bo'lsan ham majlis ichida hariflarga qarag'il, agar musiqiydan zavq olguchi qarilar va xos odamlar bo'lsamutriblik qil, yaxshi yo'llarni va navolarni chertg'il, qarilik va dunyoning muzammatidan ko'proq surud aytg'il. Agar majlis ahli yosh yigitlar bo'lsa, yengil yo'llarni aytg'il. Agar majlis ahli yosh yigitlar bo'lsa. Yengil yo'llarni ko'proq chertgil va oson surud aytgil. Agar hofiz bo'lsang arbada qilg'uchi bo'lmag'il, toki shu sababdin hofizlik tangasi qo'lingdin ketmasin va boshing yorilib, to'ning yirtilib, tanburing sinmasin. agar majlisda bir odam seni maqtasa, ta'rif qilsa. Sen unga mehribonglik ko'rgizgil va u qaysi surudni hohlasa shuni aytgil, toki o'zgarlar ham seni maqtasinlar. Yana debdurlarki hofiz ko'r, kar va saqov bo'lmog'i lozim. Bir majlisda eshitganlarini boshqa bir majlisga borib aytmasin. Sir saqlay olgan mutrib hamisha aziz va arjumand bo'lur" deya san'atkor ahliga qanday bo'lmoqlikni aytadi. Darhaqiqat san'atkor ahli doimo xalq orasida eng ahloqli va madaniyatli. O'zini tutaoladigan komil inson sifati qaralgan. Kaykovus o'z nasihatlarini bilan musiqachilarga o'zlariga ko'rsatilgan ishonch yo'llaridan adashmaslik uchun juda foydali bo'lgan ta'limiy va tarbiyaviy nasihatlarini keltiradi.

XX asrda O'zbekistonda jadidlar ma'rifatparvarlik harakatlari boshlandi. Jadid so'zi Jididlar o'zlarining targ'ibot ishlarida o'zbek musiqasi tarixi, taraqqiyot bosqichlari va rivoji yuzasidan katta ishlarni amalga oshirdilar. Bu borada ko'pchilik jadid allomalarning pedagogik qarashlari qatorida musiqiy qarashlari ham shakllandi.

Jadidlar harakatining yetakchilaridan biri, birinchi o'zbek professori Abdurauf Fitrat nafaqat o'zbek adabiyotining yirik darg'asi, balki mustamlaka davrida o'zbek musiqasining tarixini bilish va bundan xalqimizni bahramand qilish kabi ma'suliyatli ishni boshida turgan musiqashunos sifatida ham e'tirof etiladi. Fitrat N.N.Mironov bilan birgalikda "Oltita musiqiy poema (maqom)" deb nomlangan Shashmaqom nota yozuvining tahriri (1924), "O'zbek musiqasi to'g'risida" va 1927 yilda bugungacha o'zbek musiqasini o'rganishda katta ahamiyat kasb etib kelayotgan "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" nomli ilmiy musiqiy asarni yozdi. Fitrat bu asarda o'zbek musiqasiga taalluqli quyidagi ma'lumotlarni keltiradi. "Turk musiqasining eng burungi izlari baxshi-o'zon-qo'buz so'zlaridir. "O'zon o'g'uz turkchasiga baxshi demakdir. Qo'buz esa bu kun bizning oramizdagi cholg'udir" [13:56] deya aytadi. Fitratning asarida Amir Temur davri musiqa yetakchisi Xoja Abdulqodirning turk musiqasi Xitoy ta'siri asosida bo'lgan degan fikrini keltiradi. Fitratning bu kitobi ilmiy asar sifatida talqin etiladi. Bu kitobda o'zbek musiqachi tarixiga, maqom usullariga milliy cholg'ularga va turli davrlardagi musiqa allomalari hayoti va ijodi haqida ko'pgina qimmatli ma'lumotlar bor. 14 ta milliy cholg'u - tanbur, mizrob, dutor, rubob, qo'buz, chang, g'ijjak, nay, qo'shnay, surnay, balabon(bulamaon), karnay, doira va nog'ora kabi musiqa asboblarning kelib chiqish tarixi, u bilan og'liq rivoyatlar va ularning oldingi va bugungi tuzilish shakllari haqida keng to'xtaladi. "Musiqamiz tarixiga bir nazar" deb nomlangan bo'limida turli davrlarda ijod etgan allomalar – AAbdulqodir Marog'iy (A.Temur va Temuriylar davri), Alisher Navoiy, Darvesh Ali CHangiy, Urmaviy, Muhammad ibn Mahmud, Muhammad Yusuf, Rauf Yaktabek, Kavkabiy, Mulla Bekjon, G'ulom Zafariy, M.Yunus, Qori Yoqubov, N.N.Mironov, V.A.Uspenskiy kabi alloma olimlarning musiqa sohasidagi ijodiy ishlariga to'xtaladi. Fitrat sharq musiqasi. Jumladan o'zbek musiqasining tarixi, nazariyasi va pedagogikasiga nazar solib, zamonaviy yuqori malakali olim-musiqachilarni tayyorlash hamda mavjud musiqa na'munalarini tezroq notaga yozib olish zarurligi to'g'risida gapiradi. Fitrat musiqa tarixi borasida "sharq musiqasi" tushunchasining paydo bo'lishi musulmon xalqlari tomonidan madrasa birligi bilan bog'liq bo'lganligi haqida ham ma'lumot keltiradi.

H H Niyoziy nafaqat shoir, adib, teatr arbobi sifatida balki yetuk bastakor sifatida o'zbek madaniyati tarixida chuqur iz qoldirdi. Xamza yoshligidan xalq sozandalaridan tanbur va dutor chalishni o'rganadi. Toshkentdagi jadidlarning yangi uslub maktablarining o'quv rejaları bilan tanishadi va o'zi ham Qo'qonda shunday maktab tashkil etadi. Xamza jadidlar qatorida o'zbek xalqining ilmi ma'rifati uchun sobitqadalik bilan kurashadi. O'zining o'tli she'rlarida va qo'shiqlarida xalqni ma'rifatga chorlaydi. Jadidlar harakati nafaqat adabiyotda balki, barcha ta'lim sohalarida birday kuch bilan namoyon bo'ldi. O'zbek musiqasining tarixi va yagni milliy ijod na'munalarini yaratish jadidlarning e'tiboridan qolmadi. Musiqa san'atida O'zbekiston kompozitorlari Hamza ijodiga va uning kuylariga ko'p murojaat etadilar va o'z asarlarida keng foydalanib kelmoqdalar. Uningsh qayta ishlangan qo'shiqlar to'plami chop etilgan (H H Niyoziy. Ovoz va fortepiano uchun qo'shiqlar. T., 1949). Qo'shiqlarni kompozitorlar B.Nadejdin, Ik.Akbarov, G.Mushel', S.Yudakov, G'.Qodirov, B.Gienko qayta ishlab notaga olgan. Uning qo'shiqlaridan bir qator kompozitorlar: M.Ashrafiy va S.Vasilenkoning "Bo'ron" operasi, Ik.Akbarovning "SHoir xotirasiga" simfonik poemasi, D.Zokirovning "Hamza" poemasida asos mavzu sifati qo'llanilgan. Xamzaning qo'shiqlari asosida G.Mushelning simfonik syuitasi va adib qalamiga mansub "Maysaraning ishi" asari asosida S.Yudakov ijodiga ilk o'zbek hajdviy operasi yaratilgan. Hamza qo'shiqlar ijod qilish bilan cheklanib qolmasdan, balki turli musiqiy truppa – jamoalarni tashkil etish ishlariga ham bosh bo'ldi. U o'zbek xalq cholg'ularidan sozga keltirilgan orkestr tuzish uchun ularni qayta ishlash lozimligi haqidagi fikrni ilgari surgan O'zbekistondagi birinchi musiqachilardan edi. Hamza o'zbek musiqasi san'atini jaxon musiqi madaniyatining ilg'or yutuqlariga yaqinlashtirishga. Milliy qo'shiq kuylash amaliyotiga zamonaviy vokal, xor maktablari usullarini joriy qilishga intildi.

Jadid ma'rifatparvarlari orasida G'ulom Zafariyning ham o'rni beqiyos. G'.Zafariy shoir, aktyor, dramaturg, pedagog va san'atshunos sifatida barcha jadidlar kabi o'zbek madniyatiga ulkan hissa qo'shdi. O'zbek musiqasi tarixi o'zbek musiqali dramasi asoschisi degan sharafli nomni oldi. 1914 yildan u "Turon" jadidlar jamiyatiga qatnay boshlaydi va 1916-1921 –yillarda "Turon" teatr truppasining aktyori va dramaturgi sifatida faoliyat yurgizadi. G'.Zafariy O'zbekistonda musiqali drama janrining ilk na'munasi bo'lgan 4 pardali "Halima" musiqali dramasi yaratadi. Spektaklga xalq musiqasi tanlanadi. Taniqli kuy va qo'shiqlar qahramonlar tomonidan o'zbek xalq cholg'ulari ansambli jo'rligida ijro etiladi. Spektakl O'zbekistonning turli teatrlarida zo'r muvaffaqiyat bilan 1936 yilgacha qo'yilib keldi. Musiqali dramadagi Halima obrazini O'zbekiston xalq artisti, noyob ovoz soxibasi Halima Nosirova juda professional va mukammal tarzda ijro etgan. Bugungi kunda ham "Halima" musiqali dramasi yangidan sahnalashtirilmoqda va ijrochilar uchun H.Nosirova, A.Hidoyatovlarning ijrosi maktab vazifasini o'tamoqda. G'ulom Zafariy musiqashunos sifatida V.A.Uspenskiy, Fitrat, Elbeklar bilan hamkorlikda musiqiy folklorni o'rganish, to'plash va yozib olish bo'yicha ishlar olib borilgan. Adib musiqi san'atiga oid "SHarq kuylari va cholg'ulari" (Inqilob 1923, 3-son), "Cholg'umizni o'zimiz qutqaraylik" ("Maorif va o'qituvchi", 1925, 1-son), "O'zbek kuylarini qanday saqlash mumkin" (Yer yuzi, 1926, 8, 9 –sonlar), "O'zbek musiqasi to'g'risida" (Alanga, 1930, 1-son), "Musiqamiz muammosi" (Qizil O'zbekiston, 1930 y 20 mart), El ashulalari (Elbek bilan hamkorlikda, "Xalq qo'shiqlari" to'plami, 1925) kabi maqolalar muallifidir. Bundan tashqari G'ulom Zafariy XIX- XX asrlarda ijod bilan shug'ullangan va o'zbek hofizlik maktabining vakillari tarixini o'rganib chiqib "Musiqachilar shajaraschi" deb nomlangan tarixiy va ilmiy jadvalni ishlab chiqqan. Bu jadval hozirgi kunda ham o'z noyobliligi bilan musiqashunoslarga as qotmoqda.

MUNDARIJA

I SHO'BA

	KIRISH SO'ZI Shavkat Safarovich Sharipov.....	3
	KIRISH SO'ZI Anvar Qudratovich Lutfullayev.....	5
1	Abdukarimova E.I Umumiy musiqiy ta'limda maqom namunalarini o'rganishning vazifalari va muammolari.....	8
2	Абилов М.Н Музыка ўқитувчисининг инновацион педагогик маҳоратини ривожлантириш.....	10
3	Abilova Y Musiqa ta'limi jarayonida zamonaviy kompyuter texnologiyalari va mobil ilovalardan foydalanish.....	13
4	Ahmedova I.I., Fayzullayev E.M Umumta'lim maktablarida o'zbek cholg'u asboblari to'garagini tashkil etish yo'llari.....	16
5	Botirova X.T Ta'limni samaradorligini oshirishda masofaviy ta'limning ahamiyati.....	20
6	Fayzullayev E.M. Musiqa ta'limi va tarbiyasida o'zbek mumtoz musiqasi imkoniyatlaridan foydalanish.....	24
7	Fayzullayev E.M., Qahorova M.K Musiqa madaniyati darslarida jahon klassik kompozitorlari ijodiyoti bilan tanishtirish metodlari.....	29
8	Haydarova V., Abilov M.N Musiqiy badiiy asarlar vositasida o'quvchilarning diqqati va xotirasini shakllantirish.....	35
9	Ibragimova X.S Ta'lim tizimida pedagogik nazokat va uning ahamiyati (dilkashlik va pedagogik takt)	39
10	Ixomova Sh.F. Musiqa madaniyati darslari orqali o'quvchi-yoshlarning ijodkorligini rivojlantirish yo'llari.....	43
11	Iskandarova M.A., Umurzoqova L.B. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida musiqiy savodxonlikni shakllantirish usullari.....	46
12	Iskandarova Sh.I., Boymanova F.A Musiqa ta'lim tizimidagi zamonaviy muammolar raqamli ta'lim muxitida musiqasi o'qituvchilarini tayyorlash texnologiyalari va sifati.....	48
13	Karimov S.B Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqasi mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi.....	50
14	Киямов Н.С Xalq cholg'u asboblari shakllanishi va uning tarbiyaviy ahamiyati.....	54
15	Кобулова М.Д., Абилов М.Н Музыка таълимида компьютер дастурларни қўллаш имкониятлари.....	57
16	Majidov E.E Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematikaviy kompetensiyalarni shakllantirishda aktdan foydalanishning psixologik jihatlari...	60
17	Majidov D., Abduraxmonova D O'quvchi yoshlarni milliy musiqamiz vositasida tarbiyalash.....	65
18	Мажитов Ш.М Мактабгача таълим ташкилотлари тарбияланувчиларига ноталарни ўргатиш мультициериал усуллари.....	69

19	Matkarimova H.Y., Abilov M Musiqa madaniyati darslarida bolalar musiqiy folkloridan foydalanish uslublari.....	73
20	Муминова М.Р., Нарзулаева Н.С Практическая готовность учителя музыки начальной школы.....	79
21	Murodov M.B., Sa'dullayeva B. Bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda "maktab repertuari" fanini o'qitish muammolari.....	82
22	Namozova K., Abilov M.N Ilg'or xorijiy tajribalar asosida musiqa savodi faoliyatini tashkil etish.....	84
23	Носиров Л.Н Педагогическое общение как фактор формирования и развития педагогической культуры будущего учителя.....	88
24	O'rolov M.O., Xasanova N.X Musiqa ta'limida innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llari.....	91
25	O'rolov M.O., Xasanova N.X Umumta'lim maktablari Musiqa madaniyati darslarida jamoaviy ijrochilik faoliyatining tutgan o'rni va vazifalari.....	94
26	Omonov H.S., O'ktamov A.S Musiqa o'qituvchilarini innovatsion ta'lim faoliyatiga tayyorlash.....	96
27	Qarshiboyeva M.K Musiqa darslarini ilg'or xorijiy tajribalar vositasida tashkil etish imkoniyatlari (Finlandiya ta'limi misolida).....	101
28	Quvvatova N.B., Xolmirzayev O.E Raqamli ta'lim muhitida musiqa o'qituvchilarini tayyorlash texnologiyalari: darsni tashkil etishda reklama roliklaridan foydalanish muammolari.....	106
29	Raximova A.E Musiqa ta'limiga mos didaktik o'yinlar mazmuni.....	110
30	Raximova D.R., Soliyev J.X Umum ta'lim maktablarini musiqa madaniyati darslari samaradorligini oshirishning muammo va yechimlari.....	113
31	Raxmatov E., Maxammatov A. Xalq cholg'u asboblarining shakllanishi va uning tarbiyaviy ahamiyati.....	116
32	Rahimov Sh.N Tarbiya jarayonida talabalarga individual yondoshish.....	121
33	Raimjonov S.O' O'quvchilarga milliy ma'naviyatimizni singdirishda musiqa madaniyati predmetining o'rni.....	124
34	Teshaboyeva M.R., Ibraximjanova G.A Musiqa madaniyati darslarida "musiqa savodxonligi" faoliyatining ahamiyati.....	127
35	Turayeva Ch., O'ralov J Zamon talabi asosida musiqa darslarini tarix fani bilan aloqadorlikda tashkil etish usullari.....	130
36	Tojiqulova H.A Musiqa o'qituvchisining kasbiy va pedagogik kompetentligi.....	135
37	Toshmatova D.I Musiqiy madaniy tadbirlar ma'naviy-estetik tarbiyaning muhim shakli.....	137
38	Turatov J. Zamonaviy ta'limda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati...	139
39	Umurzakov B.N Musiqa san'ati va uning hayotimizdagi o'rni.....	142
40	Urinova S.Sh Musiqa o'qituvchilarining pedagogik mahorati.....	144
41	Xasanova N.N Ta'limdagi islohotlar amalda.....	147

42	Xidirova D.I Yuqori sinf musiqa madaniyati darslarida Keys-stadi interfaol metodidan foydalanish imkoniyatlari.....	150
43	Xolmurodova N.I Maktabgacha ta'lim tizimida musiqiy tarbiya.....	157
44	Xoshimova L.A., Ilxomova Sh.F Zamonaviy musiqa o'qituvchisida musiqiy psixologik bilimni oshirishning umumiy ahamiyatlari.....	160
45	Yangulov T Bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini xor-dirijorlik faoliyatiga tayyorlashda ayrim muammolar.....	162
46	Zaynitdinova D Maktabgacha Ta'lim muassasalari tizimida o'zbek xalq qo'shiqlarini o'rganishning metod va usullari.....	165
47	Юсупов III Педагогик инновация – замон талаби.....	167
48	Shog'aniyeva Z., Rahimov Sh.N Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini musiqiy madaniyatini shakllantirishda mehnat qo'shiqlaridan foydalanish metodikasi.....	170

II SHO'BA

49	Abdukarimova E.I., Boboyev A O'zbekistonda zamonaviy musiqa ijodiyotining rivojlanishi.....	179
50	Aslonov Sh O'zbekiston milliy va mahalliy uslublari.....	183
51	Azimov A.Q Shaxs kamolotini rivojlantirishda musiqiy estrada ijrochiligining tarbiyaviy ahamiyati.....	185
52	Do'stmurodov B Zamonaviy ta'lim muhitida milliy qo'shiqchilik masalalari.....	188
53	Ergashov AB Cho'li iroq.....	189
54	Elboyeva S.A., Tursunov H O'zbek musiqa san'atida Xorshunoslikning paydo bo'lish tarixi.....	193
55	G'ofurova M.T., Rahimov Sh.N Sharq mutafakkirlarining ijodlarida ta'limotni hayot bilan bog'langanligi. Burhonuddin al-Marg'inoniy.....	196
56	Хайдаров Қ.Х Ўзбекистон халқ ҳофиси Эсон Лутфуллаев ижодига тавсиф.....	202
57	Hayitov Obloqul Dirijyorlik.....	205
58	Ibragimova N.M., Fayzullayev E.M Musiqiy sozlarni o'rganish an'anasining cholg'u ijrochiligi Pedagogikasidagi ahamiyati.....	207
59	Ibragimova N.M Musiqa madaniyati darslarida milliy cholg'u sozlarining o'rni.....	211
60	Ergashev O., Yuldoshev U Qadimgi kuylarning takomillashuvida ritm va usul masalalari.....	215
61	Inomova M.F., Abduxalimova G.H O'zbek musiqashunosligi tarixiy taraqqiyoti.....	220
62	Inomova M.F Abduxalimova G.H O'zbek musiqashunosligi tarixiy taraqqiyot bosqichlari.....	223

63	Jumayev A., Maxammatov A Talabalarga vokal san'atidan amaliy mashg'ulotlarni olib borishning mazmuni va mohiyati.....	226
64	Jabborova M Milliy musiqiy meros namunalarida estetik tarbiyada foydalanish imkoniyatlari.....	231
65	Кодиров Б.Ф Оркестр дирижорлиги маҳоратида инновацион технологияларнинг педагогик услублари.....	233
66	Majidov H Xasanova N.X Jamoa bo'lib kuylash jarayonida ansambllik ustida ishlash.....	236
67	Mamarasulzoda Z.A., Majidov H.I O'zbek xalq musiqa ijodiyotining shakllanish va taraqqiyot yo'li.....	240
68	Mirzayeva M.A. Maxmudova L O'zbekiston bastakorlari.....	245
69	Мухамедзиянов К.Т О вокальных циклах Узбекистана.....	247
70	Муртозаев ДР Мактаб таълимида хор жамоасини ташкил этиш.....	253
71	Mo'minov E.E Cholg'u ijrochiligida o'quvchi-yoshlarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish nazariy metodikasi.....	255
72	Nurboyeva D.A Ovoz apparatining tuzilishi. Bolalar ovozing xususiyati va uni asrash metodlari.....	257
73	Omonov X.S Talabalarda ovoz xosil qilishda nafas olishning o'ziga xos yo'llari.....	263
74	Qahorova M.K Bolalar musiqa va san'at maktablarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish (fortepiano sinfi misolida).....	267
75	Rahmonova G.N., Rahimov Sh.N O'zbek xalq qo'shiqlarining mahalliy ijrochilik uslublari.....	270
76	Ropiyeva D.A Folklor qo'shiqlarini vokal va xor ovozlari professionalligida rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish.....	275
77	Rustamov A.R "Fortepiano" va "royal" cholg'ularining paydo bo'lish tarixi.....	277
78	Ro'zimurodov I.A Xalq cholg'ulari va ularda ijro etish masalalari xususida.....	280
79	Saidiy S.B., Ibragimov U.S Jahonning ilk cholg'usi "nog'ora" va "doyra" tarixi (cholg'ushunoslik fanining morfologiya, etimologiya va ergologiya asoslari musolida).....	282
80	Саидий С.Б Музыкально - историческое наследие центральной Азии.....	285
81	Саидий С.Б Мозий садоларидан таралган усуллар семантикаси. " зарб –ул – қадим" усули мисолида.....	292
82	Saidiy S.B. Sohibqironning harbiy psixologik qarashlarida. Cholg'ular konsepsiyasi va sirli kommunikatsion taktikasi.....	295
83	Saidqodirova R Mangulikka daxldor bastakor - Mutal Burxonov.....	302
84	Savapov R.I Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilar ovozini tarbiyalashda vokal san'atining ahamiyati.....	304

85	Сидикова А.М., Абдуллажонова Н.А К вопросу об исполнительском искусстве в современном андижане.....	307
86	Sultonova A.Y., Fayzullayev E.M Xalq qo`shiqalaridan badiiy estetik tarbiyada foydalanishning nazariy va amaliy asoslari.....	310
87	To'g'ulov O'.A., Norjigitova Z Talaba tovushiga o'qituvchining ta'sir etish usullari.....	314
88	To'g'ulov O'. , Maxammatov A Vokal asarlari va mashqlari ustida ishlash va ularni ijro etishga o'rgatish uslublari.....	319
89	Turayeva Ch.N O'zbek mumtoz musiqa san'atida bastakorlik ijodining tutgan o'rni.....	322
90	Xolmirzayev O.E Pedagogik tizimda cholg'u ijrochiligini o'rgatish metodikasi Texnologiyalar.....	328
91	Sherbo'tayeva M.Sh., Muxamedziyanov K.T Ijro san'ati masalasiga bir nazar.....	333
92	Shoqo'ziyev I An'anaviy xonandalik mashg'ulotlarida ovoz malakalarini shakllantirish uslublari.....	335

III SHO'BA

93	Abdirahmonov E.E Musiqa va uning inson aqliy faoliyatiga ta'siri.....	339
94	Abdurasulov D., Omonov X.S Talaba tovushiga o'qituvchining ta'sir etishi va darslarni olib borish usullari.....	341
95	Adurazzoqova M.J., Qo'ziboyeva F.B., Mirzaqulov A.B Ta'lim-tarbiya jarayonida musiqa san'ati hamda maqomning a'naviy-madaniy o'rni va ahamiyati.....	344
96	Abdusamatov A.A Madaniyat va san'atni rivojlantirishga doir islohotlarning ta'lim muassasalari faoliyatidagi ahamiyati.....	348
97	Baymanova F.A Yosh avlodni o'tmish qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalashning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni.....	351
98	Baymanova F.A., Jo'raboeva M Shaxs kamolotini rivojlantirishda musiqa tarbiyasining ahamiyati.....	354
99	Bo'ronov F.T Musiqa to'garaklariga o'quvchilarning qiziqishlarini oshirib borish omillari.....	360
100	Do'stmuhammedova G O'quvchilarni milliy musiqa merosimiz tarixiga oid ma'lumotlar bilan tanishtirishning ta'limdagi samaradorligi.....	362
101	Eshmamatova Ch.Sh., Fayzullayev E.M O'quvchilar bilan individual ishlashning shakl va usullari.....	365
102	Fayzullayev E.M., Shoxobitdinova Z.O Milliy musiqa san'atining yoshlar ma'naviy-madaniyatini shakllantirishda tutgan o'rni.....	368
103	Hayitov Z.M Musiqa mashg'ulotlari jarayonida o'quvchi yoshlarni xotira, ong va sezgisini rivojlantirish.....	372

104	Ismoilov B. Vahidov Y Musiqa darslarida iqtidorli bolalarni aniqlash usullari.....	374
105	Isoqov Sh O'quvchi yoshlarimizga milliy maqom san'atimizni o'rgatish va undagi muammolar.....	377
106	Jalilov Sh Yoshlarning ijtimoiy ongini shakllantirishda musiqa madaniyatining o'ziga xos imkoniyatlari.....	381
107	Majidov X., Xasanova N.X Musiqa darslarida ovozni to'g'ri yo'lga qo'yish uslublari va imkoniyatlari.....	383
108	Муминова М.Р Целенаправленная и систематическая подготовка детей к обучению.....	385
109	Normatov O.A., Xasanova N.X Musiqa darslarida tarixiy ma'lumotlar manbalaridan foydalanishning o'quvchilar dunyo qarashlarini shakllantirishdagi ahamiyati.....	387
110	Ochilova N.G' Iqtidorli yoshlar-kelajagimiz poydevori.....	390
111	Po'latova T.Ch., Tursunov H Jahon kompozitorlari ijodida bolalar uchun yozilgan asarlar.....	393
112	Quvvatova N.B O'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini tashxislash usullari.....	396
113	Quvvatova N.B., Sunnatova S.I Kichik maktab o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda rang-musiqiy sinesteziya qo'llashning samarasi.....	401
114	Rasulova O'.I Musiqa mashg'ulotlarini rejalashtirishda bolalar yosh xususiyatlarini hisobga olish.....	405
115	Садыкова А.И Баркамол авлодни тарбиялашда муסיқа санъатининг ўрни.....	407
116	Суярова Н.А., Раҳимов Ш.Н Муסיқа ва нафосат тарбиясининг муштараклиги.....	410
117	Utanov U.Q., Jalilov E.K Musiqa fani o'qituvchisining kasbiy standartlariga doir.....	419
118	Xasanova N.X Yosh avlodni badiiy havaskorlik to'garak ishlari orqali tarbiyalashning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni.....	421
119	Xodjabayeva Z.P Ijodiy fikrlashda folklor to'garaklarining yoshlar tarbiyasidagi o'rni.....	423
120	Xoshimjonova M Yosh pedagog ko'nikmalari.....	425
121	Sharipov J.M Musiqaning inson faoliyati va his-tuyg'ulariga ta'siri.....	427
122	Ochilova N.G' Iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularni ma'naviy-estetik tarbiyalash imkoniyatlari.....	429
123	Qudratov I., Hamroqulov N O'quvchi yoshlarning estetik kamolotida o'zbek mumtoz musiqasining o'rni va ahamiyati.....	432
124	Qo'ziboev V Musiqa san'ati tarbiyaviy vositadir.....	435
125	Rustamova F., Rahimov Sh.N. Professional xor jamoasida xormeysterning ishlash xususiyatlari.....	437

126	Islamova A., Sh.N.Rahimov Yosh avlod ongini rivojlantirishda musiqa fanining roli.....	440
127	Zokirov A.A., Rahimov Sh.N. Dars samaradorligini oshirishda o'zbek xalq qoshiqlarining tutgan o'rni.....	443
128	G'ofurova N.D. Rahimov Sh.N O'zbekistonda musiqiy ta'lim, musiqa san'atining rivojlanish jarayoni va taraqqiyot bosqichlari.....	447

QAYDLAR UCHUN

MUSIQA MADANIYATI FAKULTETI

MUSIQA TA'LIMI KAFEDRASI

**“MUSIQA TA'LIMI VA TARBIYA JARAYONIGA ZAMONAVIY
YONDASHUVNING DOLZARB MUAMMOLARI”**

**mavzusida respublika ilmiy-amaliy
KONFERENSIYASI**

2022 yil 29-noyabr

Muharrir: S.Normammedov

Musahhah: G.Kadirova

Sahifalovchi: Z.Salkinova

Guvohnoma № 14-0003, 30.04.2020

Ofset qog'ozi. Bosishga ruhsat etildi 29.11.2022

Format A4. Garnitura «Times New Roman».

Shartli bosma taboq 28,75

Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 33

JDPU tahririy-nashriyot bo'limida chop etildi.

130100, Sh.Rashidov shox ko'chasi, 4-uy

Tel./faks: (+99872) 226-02-93

(+99893) 305-85-00

